





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

# **QISHLOQ XO'JALIGIGA OID ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI**



# QISHLOQ XO'JALIGIGA OID ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI



Toshkent  
«O'ZBEKISTON»  
2023

63(038)  
Q 51

**To'plab, nashrga tayyorlovchilar:**

**E. Abdualimov** – Qishloq xo'jaligi vaziri maslahatchisi, Toshkent davlat agrar universiteti: professorlar – U.Norqulov, X.Atabayeva, S.Islamov, K.Sultonov, I. Rustamova, X.Bo'riyev, X.Kimsanbayev, A.G'aniyev, E.Berdiyev, A.Anorboyev, O'.Soatov, I.Normurodov, U.Doniyarov, T.Shamsiddinov; dotsentlar – A.Xakimov, M.Atabayev, I.Namazov, A.Safarov, D.Mustafakulov; bo'lim xodimlari – B.Kasimov, N.Yusupov, I.Toshtemirov.


**Mas'ul muharrirlar:**

**S. Xolmirzayeva** – Toshkent davlat agrar universiteti «O'zbek tili va adabiyoti» kafedrasida dotsenti, f.f.n.;  
**N. Mamasoliyeva** – Toshkent davlat agrar universiteti «O'zbek tili va adabiyoti» kafedrasida o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

**D. Xudoyberganova** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti «Hozirgi o'zbek tili» bo'limi mudiri, f.f.d., professor;  
**B. Mengliyev** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti «Amaliy filologiya» kafedrasida mudiri, f.f.d., professor;  
**M. Kurbonova** – O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbek tilshunosligi» kafedrasida mudiri, f.f.n., professor;  
**Sh.N. Nurmatov** – Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti loyiha rahbari, q.x.f.d., professor;  
**Sh.E. Namazov** – Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari, q.x.f.d., professor.

Mazkur izohli lug'at qishloq xo'jaligiga oid atama, tushuncha va so'z birikmalarini o'z ichiga olgan hamda shu sohadagi oliy ta'lim muassasalari talabalari, texnikumlar o'quvchilari, professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlari va qishloq xo'jaligi mutaxassislariga mo'ljallangan.



## SO'ZBOSHI O'RNIDA

«Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning izohli lug'ati» ilk marotaba nashrga tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Zero, qadimiy dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan xalqning tadqiq rivojlanishi shu soha bilan bevosita bog'liqligi ko'hna tarix sahifalarida muhimgan.

Tarixda bundan 4 ming yil avval dehqonchilik madaniyati paydo bo'lgan, sivilizatsiyalar qadimiylikda misrliklar va boshqalarining mumkinligi e'tirof etilgan. Qadimda Turon – hozirda O'zbekiston dehqonchilik madaniyatining ilk o'limlari hisoblanadi.

Shuq'at alomtlarining ixtirosi – 2 ming yil avval dehqonchilik vositasida dehqonchilik amalg oshirilgan.

1963-yilda AQSHning Chikago shtatida 1963-yilning dehqonchilik va so'zga izoh berilgan «The World encyclopedial dictionary book» («Jahon ensiklopediyasi lug'ati»)da: «O'zbeklar – jahon xalqlari orasida birinchilardan bo'lib, turkiy xalqlari orasida dastlabki o'troqlashgan, madaniy taraqqiyotni ko'chiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millat...» – deb bayon etilgan. O'troqlashishning asosi dehqonchilik bo'lib, dehqonchilik madaniyati rivojlanishi bilan so'zlar atamalar ko'lami kengayib, tilimiz boyig'ani, taraqqiy etgan.

So'zga yillarda agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar, ilm-fan yutuqlari, agrar sohani tajriba va texnologiyalarning jori qilinishi, jahon miqyosida globallashuv to'la rivojlanish va chuqurlashib borayotganligi muvofiq bo'lgan so'zlar, atamalar bilan bir qatorda ko'plab xalqaro va xorijiy terminlar o'zlashtirish jarayonlarini tezlashtirdi. Yangi atamalarning kirib kelishi ularning muomala-dan tashqari turli xil ma'noda talqin qilinishi muvofiq faoliyatda muayyan tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Shu sababli sohaviy atamalarning yaxlit izohli lug'atini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Uni tayyorlashda «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi», «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Yosh dehqon ensiklopediyasi» hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha mavjud lug'atlardan, shuningdek, xorijiy nashrlar va manbalardan foydalanildi. Manbalarni to'plash, tahlil qilish va lug'atni shakllantirishda vazirlik tizimidagi olim va mutaxassislar, ayniqsa, Toshkent davlat agrar universitetining bir qator jonkuyar va fidoyi professor-o'qituvchilariga hamda uning matnini tahrir qilish va nashrga tayyorlashdagi «O'zbekiston» nashriyot matbaa-ijod uyi jamoasiga o'z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Ushbu lug'atda qadimdan qo'llanilib kelgan sohaga oid ko'plab so'z va atamalarning asl mazmuni bilan tanishasiz, hozirda kundalik faoliyatimizda foydalanib kelinayotgan so'zlar hamda so'nggi yillarda kirib kelgan yangi terminlar ma'nosini bilib olasiz.

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid 6400 ga yaqin atamalarning izohlarini o'ziga jamlagan bu lug'at iqtisodiyotning mazkur tarmog'ida faoliyat yuritayotgan olim va mutaxassislar, professor-o'qituvchi va talabalar, fermerlar va agrotadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan barcha yurtdoshlarimiz uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Shu o'rinda zukko o'quvchilar, agrar soha xodimlari, olim hamda tadqiqotchilardan o'zlarining fikr-mulohazalarini, e'tiborimizdan chetda qolgan so'z va atamalarni bizga yo'llashlarini so'rab qolamiz. «Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning izohli lug'ati» bu boradagi dastlabki qadam bo'lib, unda ayrim juz'iy kamchiliklar uchrashi tabiiy. Kelgusi nashrlarda ularni tahrir etib, to'plamni yanada takomillashtirib borish niyatidamiz.

O'zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo'jaligi vaziri,  
akademik  
I. ABDURAXMONOV

**Abbreviatsiya** (*lot. abbreviatio* – qisqarish) – *biol.* A'zolar yoki ular qismlarining individual rivojlanish jarayonida qisqarishi. Abbreviatsiya ontogenezning oxirgi shakllanish bosqichi izdan chiqishi natijasida ro'y berib, bu avlodlarda a'zolarining to'liq rivojlanmay qolishiga olib keladi.

**Aberdin-angus qoramol zoti** – Shotlandiyada yetishtirilgan sergo'sht zot. AQSH, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Argentina va boshqa mamlakatlarda boqiladi. Bu zot qora tusli, shoxsiz, tanasi silindrsimon, oyoqlari kalta, baquvvat. Sigirlarining tirik vazni 500–550 kg, buqalariniki 750–800 kg, ba'zan 1000 kg ga boradi. 15–16 oylik axtalangan buqachalari 450–460 kg go'sht qiladi. Bo'rdoqi qilib so'yilganda 60% go'sht beradi.

**Aberratsiya** [*lot. aberratio* – o'zgarish, uzoqlashish, chetlanish] – *biol.* Ma'lum bir navga mansub hayvonlar organizmida (uning tuzilishi yoki funksiyasida) paydo bo'ladigan o'zgalik, o'zgarish, normadan chetlashish. Genetikada xromosomalar tuzilishining o'zgarishi.

**Abiotik omillar** – muhitning abiotik omillari (*yun. a* – inkor qo'shimchasi va *bios* – hayot). Muhitning tirik organizmlarga ta'sir etuvchi noorganik omillari (iqlim, namlik, radiatsiya, tuproqning sho'rxokligi va b.) majmui.

**Ablaq** – chipor (ola-bula, oq-qora), chavkar (ot tusi haqida).

**Aborigen hayvonlar** – mahalliy iqlim va xo'jalik sharoitlariga yaxshi moslashgan, o'ziga xos xislatlarga ega bo'lgan biror o'lka yoki mamlakatning mahalliy hayvonlari.

**Aborigen o'simliklar** – mahalliy o'simliklar bo'lib, ular mahalliy tuproq-

iqlim sharoitlarga yaxshi moslashgan hisoblanadilar, introduksiya qilingan manzarali o'simliklarga nisbatan biologik chidamli bo'lib, ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi.

**Aborigen g'o'za** (*lot. aborigine* – avvaldan) – g'o'zaning cheklangan hududda o'sadigan tur, xil va formalari. Meksikaning shimoliy-g'arbida o'sadigan davidzon g'o'zasi, Galapagos orolining unumsiz toshloq zonalarida o'sadigan klossh g'o'zasi, faqat Braziliya tog'larida uchraydigan mustelinum g'o'zasi aborigen g'o'za turlariga kiradi. Barcha yovvoyi aborigen g'o'za turlari qimmatli genetik material bo'lib, qator foydali xo'jalik xususiyatlariga ega (qurg'oqchilikka, sho'rga, past temperaturaga chidamli va h.k.), shuning uchun ulardan genetika, seleksiya ishlari amaliyotida keng foydalaniladi.

**Abort** – hayvonlarda bo'g'ozlikning bevaqt tugallanishi, bola tashlash.

**Abr** (bulut) – *esk.kt.ayn.* bulut. *Abr ichiga berkinib, motamsaro bo'lsin quyosh.* (E.Vohidov).

**Abrash** – *esk.* chavkar, xoldor ot. *Abrashini yeldurib yetgach yiqildim, do'stlar.* (Bobur).

**Absorbsiya** [*lot. absorbtio* – yutish, yutilish, shimilish, singish] – *fiz. kim.* eritma yoki gazlar aralashmasidagi moddalarning qattiq jism yoki suyuqlikka yutilishi; yorug'likning modda orqali o'tayotganda yutilishi. Gaz absorbsiyasi. Yorug'lik absorbsiyasi. Tovush absorbsiyasi.

**Abssess** [*lot. abscessus* – yiringli yara, chipqon] – *tib.* to'qima yoki a'zolarining shikastlangan joyida yiring to'planishi; yiring chiqqan, gazak olgan joy.

**Abzal** (asbob, ish quroli) – ot-ulovni olib yoki aravaga qo‘shish uchun zarur bo‘ladigan asboblarning majmui. *Mana bu- larini yotqaz qo‘y, – deb jahl bilan oldimga tashlab yulgan bir to‘da qayish, jazliq, jagan – ot abzallarini bir bigiz va bir ochko bilan uloqtirdi.* (G‘. G‘ulom, «Yulgan murda»). *Yozi otning abzallarini yelkasiga ko‘tarib, yilqilar orasidan ko‘z otni axtarib ketdi.* («Yozi bilan Zohir»)

**Adaptatsiya** [lot. *adaptatio* – moslashtirish] – 1. *biol.* Organizmning, odatlanmagan, o‘zgarib turadigan sharoitda, mas., ko‘z otni o‘zlarining atrof-muhit sharoitlariga moslashishi, ko‘nikishi. Ko‘z adaptatsiyasi.

2. *lingv.* Boshqa, yangi joyda yashash sharoitiga moslashish.

3. *Chet tillarni o‘rganuvchilar uchun o‘z matnini soddalashtirib berish va shu matn soddalashtirilgan matn. Adaptatsiya olingan matn.*

**Adaptiv reaksiya** – evolutsiya jarayonida rivojlanib boruvchi organlar reaksiyasi.

**Afay ot zoti** – Janubi-g‘arbiy Qozog‘istonning mahalliy oti, Qozog‘iston otlaridan biri. Guryev (hozirda Atirau) viloyatida qozoq otlarining naslini yaxshilash maqsadida turkman otlari bilan chiqarishdan keltirib chiqarilgan zot. *Bo‘lika qarasining balandligi 137, ko‘krak ayranasi 167,5, poycha aylanasini 17,5 sm. Boshlari kamiga 11–14 l sut beradi.*

**Afimaniya** – quvvatdan qolish, darmondan qolish. Uzoq kasallikdan so‘ng, afimaniya kuzatiladi.

**Afir** – tog‘larga yaqin, tog‘ etaklaridagi o‘lchida tepalik yerlar. *Tumanga qaramasdan yerlarning ko‘pgina qismini afirlik tashkil qilishiga qaramasdan,*

*dehqonlar paxtadan yuqori hosil olishga muvaffaq bo‘ldilar.* (Gazetadan.) *...shahar bog‘lari orqada qolib... past, baland adirlar boshlandi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»).

**Adiz** – bug‘doyi yoki arpasi o‘rib olingan maydon. *Uni terimchilar yonida... kuzgi shudgor qilinayotgan adizda uchratish mumkin.* (M. Nazarov, «Daqiqqa va misqol»).

**Administratsiya** [lot. *administratio* – boshqaruv, rahbariyat] – 1. **Ma‘muriyat.**

2. Muassasa, korxonalar, tashkilot rahbarlari majmui.

**Adrasman** – ayn. **isiriq.**

**Adsorbsiya** (lot. *adsorbere* – shimish, so‘rish) – *fiz., kim.* Gaz yoki eritilgan modda zarralarining qattiq modda sirtiga singishi, shimilishi.

**Aeratsiya** – shamollatish; havoga to‘yinish, to‘yintirish. Xonani, uyni shamollatish. Tuproqning havoga to‘yinishi, to‘yintirilishi.

**Aerenxima** [aero... *vayun. enchima* – quyilgan, bu yerda to‘qima] – o‘simliklarning nafas olish funksiyasini bajaradigan havo saqlovchi to‘qimasi. Aerenxima gaz almashinuvi va ichki to‘qimalarning kislorod bilan ta‘minlanishi qiyinlashadigan muhitda o‘sadigan suv va botqoq o‘simliklari (sholi, kurmak, qamish, qiyoq)da rivojlanadi.

**Aerofit** (*yunoncha aer* – havo + *yunoncha fiton* – o‘simlik) – 1) yaxshi gazlangan («shamollatiladigan») tuproqqa muhtoj o‘simlik; 2) barcha asosiy oziq moddalarni faqat havodan oladigan o‘simlik (namligi shu moddalarni o‘z ichiga olgan holda), masalan, orxideya, bromelad.

**Aeroponika** (*grekcha aer* – havo) – havo ildiz oziqlanadigan muhit hisob-

lanadi. Bu o'simliklarning ildiz tizimi maxsus so'kchaklarning qorong'i havoda bo'shlig'iga joylashtirib, ozuqa eritmalar ildizga purkagichlar (forsunkalar) yordamida vaqti-vaqti bilan purkaladi yoki ildizlari trubaga joylashtirilib, vaqti-vaqti bilan shu truba orqali ozuqa eritma oqiziladi. Aeroponika – bu substratsiz ekin o'stirish bo'lib, unda ildiz tizimi maxsus tokchalardagi qorong'ilashtirilgan fazo bo'shlig'ida bo'ladi. O'simlik ildizi vaqti-vaqti bilan (12–45 daqiqada) 10–15 soniya davomida avtomatik tarzda ozuqa eritma bilan purkaladi.

**Aerotaksatsiya** – samolyot yordamida o'rmon xo'jaliklarining yer maydonlari chegaralarini, o'rmon boyliklarini va uning o'simlik dunyosini hisoblashni amalga oshirishdan iboratdir.

**Aerotropizm** (*yunoncha aer* – havoda + *yunoncha tropos* – burilish, yo'nalish) – o'simliklarning poyalari yoki ildizlarining kislorod bilan boyitilgan havoda keladigan yo'nalishda o'sishi.

**Aerozol generatori** – qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashishda va o'rmon plantatsiyalari, qishloq xo'jaligi omborlari, chorvachilik binolarini dezinfeksiya qilish uchun zaharli tumanlarni (aerozollarni) termome-xanik hosil qilish va ularni sepish uchun mashina.

**Aerozoli sug'orish** (mayda dispersli sepish) – bu havoning sirt qatlamini, o'simliklarning yer ustki qismini va qisman tuproq yuzasini mayda tomchilar bilan namlash usuli. U suyuqlikni maydalash, sepish mashinalari va almashtiriladigan ishchi korpuslari bilan jihozlashning gaz-dinamik prinsipi asosida ishlaydigan mashinalar yordamida amalga oshirila-

di. Aerozol sug'orish faqat issiq havoda qo'llaniladi.

**Afsonak** (*thermopsis R.Br.*) – dukkadoshlar [*Fabaceae (Legnminosae)*] oilasiga mansub, bo'yi 10–90 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Tibbiyotda uch turining yer ustki qismi va urug'i ishlatiladi. *T.lansetniy* [mshatnik (*Th.lanceolata R.B.*)] – nishtarsimon afsonak: *T. ocherednosvetkoviy* (*Th. allerniflora Rgl. et Schmalh.*) – ketma-ket gulli afsonak va *T.turkestanskiy* (*Th.turkestanica Gand.*) – Turkiston afsonagi. Markaziy Osiyodagi qora, sho'r tuproqli hamda qumloq yerlarda, tog' bag'irlarida, mayda shag'alli qiyaliklarda, begona o't sifatida bug'doyzorlar orasida o'sadi. Ular zaharli bo'lib, tarkibida alkaloidlar, saponinlar, glikozid, smolalar, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Dori preparatlari damlamasi, suyuq va quruq ekstraktlari, sitizin alkaloidi surunkali bronxit va zotiljam kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Tibbiyotda ildizpoyasi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, akorin achchiq glikozidi, ko'p miqdorda kraxmal, smola, alkaloid, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Dori preparatlari (kukuni, damlamasi) xushbo'y achchiq vosita sifatida ishtaha ochish, ovqatni yaxshi hazm qilish uchun, ba'zan buyrak, jigar va o't pufagi kasalliklarida siydik va o't haydovchi sifatida qo'llaniladi. Oddiy igir ildizpoyasi achchiq surma (nastoyka) va me'da-ichak kasalliklarida ishlatiladigan choylar – yig'malar, Zdrenko yig'masi, me'da, o'n ikki barmoq ichak yarasi kasalliklarida qo'llaniladigan «Vikalina», «Vikair» va «Olimetin» preparatlari tarkibiga kiradi.

**Agava** – chuchmomadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi. Bu o'simlikning turli ma'lum bo'lib, ularning ko'pchilik manzarali va texnika o'simliklari sifatida ekiladi. Vatani – Markaziy Amerika, Meksika, MDHda Kavkazning Qora dengiz shtablarida, Qrimda va Markaziy Qit'ada respublikalarida manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Agavaning *sizal* (*Agave americana* Ferr) deb ataladigan turi jahonning ko'pgina tropik mamlakatlarida to'liq o'simlik sifatida ekiladi. Uning tolasi qattiq bo'lib, turli maqsadlarda ishlatiladi.

**Agavariya** – gavdaning ayrim qismlari, organ yoki tananing biror qismining o'ziga rivojlanmay qolishi yoxud umumiy bo'lmisligi.

**Agglutinatsiya** [lot. *agglutinatio* – yapishish] – 1. biol. Suyuqlik ichida muayyan suzib yuradigan zarrachalarning, mas., qon va oq qon tanachalari, mikroblar va sh.k. ning bir-biriga yopishib, qattiq-qattiq bo'lib cho'kishi.

2. lingv. So'z yasalishi yoki shakl (forma) yasash asosini o'zgartirmagan holda biror so'zga affikslarni qo'shish orqali yangi yoki shakl yasalishi. Agglutinatsiyada har bir affiks faqat bir grammatik ma'noga ega bo'ladi. Mas., *terimchilari* so'zidagi har bir qo'shimcha (*-im*, *-lar*, *-lar*, *-imiz*, *-ga*) o'ziga xos ma'no bildiradi.

**Agrar** [lot. *agrarius* – yerga, dalaga oid] – 1. Yer-suv, yerga egalik va yeridan foydalanishga oid. Agrar masala. Agrar islohot. Shuning uchun ham hozirda qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi qishqichlarni sanoatga, xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilish agrar siyosatning g'oyat muhim yo'nalishidir. (Gazetadan.)

2. Sanoatga nisbatan qishloq xo'jaligi ko'proq rivojlangan. Agrar mamlakat. *Viloyatimizning ilgari agrar voha sifatida mashhur bo'lgani sir emas.* (Gazetadan.)

**Agrar islohotlar, qishloq xo'jaligidagi islohotlar** – davlatning yerga mulkchilik munosabatlari va yerda xo'jalik yuritish usullarini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlari majmui.

**Agrar masala** – q.x. da yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, xo'jalik yuritish usullari yuzasidan paydo bo'lgan va har bir davrda o'z yechimini talab qiluvchi masala.

**Agrar-sanoat kompleksi** – agrar-sanoat (agrosanoat) kompleksi (ASK) mamlakat xalq xo'jaligi (milliy iqtisodiyot)da oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, aholining oziq-ovqat va boshqa xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari (texnika, mashinalar, o'g'itlar va boshqalar) ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar majmuidir.

**Agrar tanglik** – q.x. da yuz beradigan iqtisodiy inqiroz. Uning mahsulotlarini ko'p yoki kam ishlab chiqarishi oqibatida yuz beradigan ko'rinishlari bor.

**Agrar sohani raqamlashtirish** – bu qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatni joriy qilish tizimi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish, agroxizmatlar ko'rsatishda raqamli texnologiyalarni qo'llash tizimi.



**Agregat** [*lot. aggregatus* – birlashtirilgan, qo‘shilgan] – 1. Umumiy bir ishni bajarish uchun bir necha har xil mashinadan tuzilgan murakkab mashina. Yer tekislaydigan agregatlar. *Daladagi agregatlar suroni tingan, odamlar uy-uylariga qaytar.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat».)

2. Bir mashinaning ma‘lum ishni bajaruvchi yaxlit, mustaqil mexanizmi. *Traktor yurmay qolgach, biror agregati ishdan chiqqanligini sezib, Abdusattor traktor ostiga sho‘ng‘idi.* («O‘zbekiston qo‘riqlari».)

3. Muayyan tog‘ jinsini tashkil etuvchi minerallar yig‘indisi. *Litosferada ko‘p joyni egallagan bir yoki bir necha minerallar agregatidan iborat bo‘lgan tabiiy jinslarga tog‘ jinslari deyiladi.* (M. Bahodirov. «Tuproqshunoslikdan amaliy mashg‘ulotlar».)

**Agregatoponika** – ildiz oziqlanadigan muhit qattiq materialli (agregatli) substrat (mexanik aralashma yoki bir xil zarrachalarning mexanik birikmasi) bo‘lib, vaqti-vaqti bilan mineral o‘g‘itlarning eritmasi berib turiladi.

**Agrikultura** – bu so‘zning keng ma‘nosi dehqonchilik madaniyatini bildirib, uning rivojlanish darajasi dehqonchilik sistemasi, agrotexnika, urug‘chilik, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, mehnat unumdorligiga, hosildorlik darajasi hamda agronomiya faniga bog‘liqdir. Agrikultura darajasi ijtimoiy tuzum, ishlab chiqarish kuchlari va agronomiya bilan chambarchas bog‘liqdir.

**Agro** [*yun. agros* – dala; qishloq] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, «agronomiya», «dehqonchilik» ma‘nolarini ifodalaydi. Agrotexnika. Agrobiologiya.

**Agrobiotsenoz** (*yun. agro...* va *bio-*tsenoz) – odamning dehqonchilik yuritish jarayonida (q.x. ekinlari ekish, bog‘lar barpo etish va b.) tarkib topgan muayyan hududlar (maydonlar)dagi har xil o‘simlik va hayvon (mikroorganizm)lar jamoasi. Agrobiotsenoz organizmlarning tabiiy jamoadan farqi shundaki, uni tashkil qiluvchi komponentlarning soni, rivojlanish intensivligi va yashash muddati doimo inson faoliyati ta‘sirida bo‘ladi.

**Agrobiologik** – agrobiologiyaga oid. Agrobiologik tadqiqotlar.

**Agrobiologiya** [*agro* ..+ *biologiya*] – o‘simlik va hayvonlar hayotining biologik qonuniyatlarini o‘rganadigan fan.

**Agrobiznes** – bozor iqtisodiyotining q.x. ishlab chiqarishi va uning mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, sotish, saqlash, taqsimlash bilan bog‘liq sohasi.

**Agroelektronika** – agroaxborotlarni to‘plash va q.x. ishlab chiqarishini boshqarishga oid elektronika bilimlari va vositalari majmui.

**Agrofirma** – mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash va sotish, xizmat ko‘rsatish tizimidagi korxonalarni yagona boshqaruv asosida birlashtirgan agrosanoat korxonasi.

**Agrofitlar** – odam tomonidan madaniy holga keltirilgan hamda maxsus ekinlib, parvarish qilinadigan o‘simliklar.

**Agrofizika, agronomik fizika** – o‘simliklarning tashqi hayot sharoitlarini tadqiq etishning fizikaviy usullari, ular hayot faoliyatining fizikaviy jarayonlari haqidagi fan.

**Agrofon** (*yun. agros* – dala, *lot. fundus* – muhit) – tuproqning fizik va kimyoviy xossalari, unumdorligi jihatidan agronomiya talablariga mos holati; tuproqning agronomik xossalari majmui. Agrofon

sharoitlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida sun'iy ravishda quriladi. Agrofon yuksak yoki past darajada bo'lishi mumkin. Ekinlarni yaxshilash uchun qurilish qilish. Mahalliy va mineral o'g'itlar bilan to'g'ri foydalanish yo'li bilan qurilish agrofon tayyorlanadi.

**Agrometeorologiya** (yun. «*agros*» – dala, «*meteoros*» – suv, «*logos*» – fan) – qishloq xo'jaligi meteorologiyasining bir bo'limi. Tuproqning fizik va suv xossalari haqida ilmiy tadqiqot.

**Agroiqlim xaritasi** – q.x. mahsulotlarni yetishtirish jarayonida iqlim sharoitlari va ularning o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi xarita.

**Agroiqlimiy rayonlashtirish** – hududni agroiqlimiy sharoitlarning o'xshashligi va tafavutiga hamda q.x. ishlab chiqarish xususiyatlariga qarab izchil rayonlarga bo'lish.

**Agroiqlimshunoslik** – q.x. meteorologiyasining iqlim sharoitlarini q.x. ob'ektlari va jarayonlari bilan bog'lanishda o'rganadigan sohasi.

**Agroirrigatsion qatlam, agroirrigatsion qatlam** – dehqonchilik faoliyati (sug'artish, haydash va o'g'itlash) natijalarida hosil bo'lgan tuproq qatlami.

**Agrokimyo, agronomik kimyo** – o'simlik, tuproq va o'g'itlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan fan. U asosiy fan sifatida o'g'itlar, kimyoviy moddalar (gul, ohak, gips, kul, neft, o'g'itlar va h.k.), pestitsidlar (zaharli kimyoviy moddalar)ni qo'llashning samaradorligi va xususiyatlarini tadqiq etish, dehqonchilikda kimyolashtirish vositalarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalarni olib chiqadi.

**Agrokimyo laboratoriyasi** – 1) agrokimyo bo'yicha maxsus tadqiqotlar

o'tkazadigan korxonalar, tashkilot yoki uning maxsus bo'limi; 2) o'simlik, tuproq, o'g'it, zaharli kimyoviy moddalar, q.x. mahsulotlari, yem-xashak va b. ni tahlil qilish yoki agrokimyodan o'quv mashg'ulotlari o'tkazish uchun maxsus jihozlangan xona (bino).

**Agrokimyo xizmati** – dehqonchilik va chorvachilikda o'g'itlar va b. kimyoviy vositalardan samarali hamda oqilona foydalanish bo'yicha q.x. ga agrokimyo xizmati ko'rsatishning ilmiy ishlab chiqarish tizimi.

**Agrokimyoviy tahlil** – laboratoriya sharoitida o'simlik, yem-xashak, tuproq, o'g'it, pestitsid va b. ning kimyoviy tarkibini aniqlash.

**Agrokimyoviy xaritagramma** – tuproq haydalma qatlami oziq moddalari (asosan, o'simliklar o'zlashtira oladigan fosfor, kaliy, ba'zan azot, chirindi va mikroelementlar) bilan qanday ta'minlanganligi, shuningdek, uning nordonligi, sho'rlanganligi yoki ishqoriyligi darajasi turli rang yoki shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan xarita.

**Agroklaster** – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarib, qo'shilgan qiymat yaxlit zanjirini ta'minlaydigan tizim, yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui.

**Agrologistika** – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bevosita daladan el dasturxonigacha yetkazib berishning barcha jarayonlari, jumladan ularni tashish, saqlash va boshqa operatsiyalarni o'z ichiga olgan tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish tizimi.

**Agromelioratsiya** [agro + melioratsiya] – hosildorlikni oshirish maqsadida yerning tabiiy sharoitlarini tubdan yaxshi-

lashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Buning uchun... *almashlab ekish, yerga sifatli ishlov berish, o'g'itlash, sho'rni yuvish, eroziyaga qarshi kurash kabi agrotexnika va agromelioratsiya tadbirlarini... o'z vaqtida amalga oshirish kerak.* («Fan va turmush».)

**Agrometeorologiya**, qishloq xo'jaligi meteorologiyasi (*lotincha «agro»* – dala, «*meteo*» – atmosfera, osmon hodisalari va «*logiya*» – fan so'zlaridan) – yer yuzasi va uning atmosferasida sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni o'rganadigan fan.

**Agrometeorologik omillar** – o'simlikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan va uning hosildorligini baholashga imkon beradigan omillar (o'rtacha sutkalik havo harorati, havoning namlik miqdori, shamolning tezligi, qorasovuq va h.k.).

**Agrominimum** – qishloq xo'jalik sohasidagi eng zaruriy ta'lim va tadbirlar.

**Agroneofitlar** – madaniy yashash sharoitiga moslangan o'simliklar. Bu guruhga madaniy o'simliklar bilan doimo birga o'suvchi begona o'tlar, masalan, zig'irpoyada o'sadigan zig'ir pechagi, sholipoyadagi kurmak va shu kabilar kiradi.

**Agronomiya** (*yunoncha «agro»* – dala va «*nomos*» – qonun so'zlaridan) – dehqonchilik qonun-qoidalari, qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish, o'simliklarni yetishtirish, tuproq unumdorligi va ekin hosildorligini oshirish to'g'risidagi fanlar majmui.

**Agronomik** – agronomiyaga oid, agronomiyaga bog'liq bo'lgan agronomik tadbirlar.

**Agronom** – agronomiya mutaxassisi. Bosh agronom. ...*qishloq xo'jaligi bosh-qarmasida Barakayev degan agronom bor. Oyoq-qo'li chaqqon.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol».)

**Agronomlik** – agronom kasbi. *Agromlik qilmoq. Agronomlikka o'qimoq.*

**Agronomik tahlil** – o'simlik urug'ini, hosilini, tuproqni, o'g'itni, shuningdek qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan preparatlar va ana shu kabilarni tekshirish. Agronomik tahlilning maqsadi va uslublari turlicha. Masalan, vegetatsiya davrida o'simlikning kimyoviy tarkibini tekshirish bilan o'simlikda hosil to'planish dinamikasini aniqlash mumkin. Agronomik tahlil yordamida tuproq unumdorligi, jumladan, tuproqdagi gumus va o'g'itlar miqdori, kislotalar formasi, «PH» reaksiyasi, tuproqning ishqoriyligi, sho'rliigi va boshqalar belgilanadi. Agronomik tahlillarda kimyoviy, mexanik va biologik metodlardan foydalaniladi.

**Agrosanoat** – qishloq xo'jaligi sanoati; qishloq xo'jaligining xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmog'i va unga mansub korxonalar. Agrosanoat majmuini mustahkamlash va samaradorligini oshirish.

**Agrosanoat integratsiyasi** – q.x. va sanoat tarmoqlarining iqtisodiy, fan-texnika, texnologiya va b. xo'jalik imkoniyatlarini birlashtirish (qo'shish) orqali ishlab chiqarish va mehnatning umumlashtirilishi.

**Agrosanoat majmui** (ASM) – xalq xo'jaligida q.x. xomashyosidan aholining oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadigan tarmoqlar, korxonalar, faoliyat turlari majmui.

**Agrotexnologiya** – har bir ekinni yetishtirish muayyan tadbirlar tizimi (yer-ni haydash, o'g'itlash, ariq – pushta olish, urug', ko'chat ekish, sug'orish, parvarish qilish va h.k.) asosida amalga oshiriladi. Ana shu tadbirlar majmui – ekinlarni

Agrotexnologiyasi deb ataladi. Agrotexnologiya tuproqqa ishlov berish, tuproq hosil olishga tayyorlash, urug'larni o'zlashtirish, o'tqazish, ularni parvarishlash, boqqa o'tlarga, o'simliklar zararlanishiga, zararkunandalarga qarshi kurash, hosilni yig'ishtirib olishni, o'simliklarni almashlab ekish usullarini o'z ichiga olinadigan ekish usullari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Agrotexnika** [agro.. + texnika] – zamonaviy yalpi ekinlarini ekishdan tortib, to'lovni yig'ib-terib olgunga qadar boqiladigan ishlar majmui va ularni amalga oshirish texnikasi, dehqonchilik texnologiyasi. *Parvakorlar g'o'zani ilg'or agrotexnika qoidalari asosida parvarish qilib, rezultatsiyaga yanada keng yo'l ochildi* (Gazetadan.)

**Agrotexnik** – agrotexnikaga oid. *Agrotexnik mutaxassislar*. *Agrotexnika mutaxassis*.

**Agrotexnik brekaraj** – q. Dala ishlatilishini baholash.

**Agrotexnik himoya usuli** (o'simliklar himoyasi) – zararkunanda hasharotlar va kasalliklarning mavjudligi, yalpi ko'payishi va keng tarqalishiga to'sqinlik uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan agrotexnik choralar-tadbirlar.

**Agrotuproq rayonlashtirish** – miniatyura o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tuproq muassasalar, iqlim va gidrogeologik sharoitlar, landlogik-geomorfologik tuzilishi va boshqa belgilari (eroziya, sho'rlik)ni hisobga olib, q.x. ishlab chiqarishni o'ziga xosligiga ko'ra hududlarga ajratish.

**Agrotuproq melioratsiyasi** – tuproqning meliorativ holatini va iqlim sha-

roitini daraxt ekish yo'li bilan yaxshilashga qaratilgan tadbirlar majmui. Q.x. ekinlaridan yuqori hosil olishga salbiy ta'sir qiluvchi qurg'oqchilik, garmsel, tuproq eroziyasi, qum ko'chishlari kabi tabiiat hodisalariga qarshi amalga oshiriladi.

**Ajavaqa** – shv. o'smay, rivojlanmay qolgan; majmag'il. *G'anani almashtirish vaqtida mana bundaqa ajivaqalarni – o'smay qolgan qurtlarni olib ko'rsatdi Oliyaxon.* (N. Safarov, «Oliyaxon Sultona»).

**Ajdargul** – ayn. itog'iz.

**Ajriq** (*Cynodon dactylon* (L) Pers.) – boshqodoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali begona o't.

**Ajriqzor** – ajriq bosgan yer, ajriq o'sgan maydon. Ajriqzor soylik.

**Ajriqqa ag'anaganday** – notinch, bezovta holda azob chekib (yotmoq). [Homid] *O'sha kuni tuni bilan ajriqqa ag'anagandek uxlolmapti.* (Sh. G'ulomov, «Baxt bo'stoniga»)

**Ajratilgan muhitda o'stirish, o'simlikni ajratilgan muhitda oziqlantirish** – o'simliklar fiziologiyasini tadqiq qilish usullaridan biri.

**Akademizm** [fr. *academisme*] – 1. Ilmiy-tadqiqot muassasalarida va o'quv yurtlarida quruq nazariyaga berilib ketish, hayotdan, amaliyotdan uzilib qolish, quruq nazariyabozlik.

2. Tasviriy san'atda: antik dunyo va uyg'onish davrining mumtoz namunalari-ga ko'r-ko'rona ergashuvchi va ilg'or realistlik oqimlarga qarshi kurashuvchi oqim.

**Akas** – s.t. Akatsiya. *Hoshimjon ro'paradagi akas daraxti tagiga gazeta yozdi-da, qo'lidagilarni qo'ydi.* (O'. Usmonov, «Qiyomat»)

**Akarologiya** – Zoologiyaning kanallar o'rganiladigan bo'limi.

**Akatsiya** [lot. *acacia* <yun. *akantha* – tikanakli o‘simlik] – burchoqdoshlar oilasiga mansub xushbo‘y gulli daraxt yoki buta. Oq akatsiya. Sariq akatsiya. *Akatsiya, beda, lipa daraxti gulidan yig‘ilgan asal nihoyatda tiniq bo‘ladi.* (Ikromov, «Ming dardga davo»).

**Akineziya** – harakatdan qolish (falaj), harakatsizlik.

**Akklimatizatsiya** [lot. *ad* – yonida, -ga + yun. *klima* – iqlim] – organizmlarning yangi yashash sharoitlariga moslashishi; iqlimga moslashish. Akklimatizatsiya hayvonot turlari bilan zotlarining tarqalish chegarasini kengaytiradi. *q. Iqlim.*

**Akklimatizator** – 45 kunlik jo‘jalarni to katta parrandalarga qo‘shib yuborgunga qadar qamab boqiladigan qafas. «Akklimatizator» atamasi iste‘moldan chiqib, o‘rniga «Jo‘jalar o‘stiriladigan qafas» termini ishlatiladigan bo‘ldi.

**Akkumulator** [lot. *accumulator* – to‘plovchi] – elektr yoki issiqlik energiyasini keyinchalik foydalanish uchun to‘playdigan qurilma, asbob. Elektr akkumulator. Akkumulatorlar batareyasi. *Shofyor akkumulator o‘tirib qolmasin deb, tokni uzib qo‘ygan edi.* (S. Ahmad. «Ufq».)

**Akrodont tishlar** – tishlarning o‘z joyidan emas, balki jag‘larning yonidan o‘sib chiqishi.

**Akromelanizm** – hayvonning o‘ziga xos irsiy rangi. Bunda organizm melanin pigmentidan butunlay mahrum bo‘lmaydi. Oq tusli hayvonning ayrim qismlari (qulog‘i, dumi, bo‘yni, oyoq uchlari) qo‘ng‘ir yoki qora bo‘ladi.

**Akron** – cho‘qqi. Bo‘g‘imoyoqlilar va halqali chuvalchanglar tepasidagi birinchi bo‘g‘im. U, odatda, bosh segmentlari bilan qo‘shilib ketgan.

**Akseleratsiya** – u yoki bu organning erda paydo bo‘lishi va uning boshqa organlarga qaraganda tezroq rivojlanishi.

**Aksioma** [yun. *axioma* – asosiy qoida] – o‘z-o‘zidan aniq-ravshanligi sababli isbot talab qilmaydigan, isbotsiz qabul qilinadigan holat, fikr. «*Kollektiv – katta kuch*» degan aksioma bu yerda ham o‘zini ko‘rsatdi. (P. Qodirov, «Uch ildiz».)

**Aksioner** – *q. aksiyador.*

**Aksionerlik** – *q. aksiyadorlar.*

**Aksiya** [fr. *action* – qimmatbaho qog‘oz] – aksiyadorlik jamiyati chiqargan qimmatbaho qog‘oz. *Ish samaradorligi oshgani sari jamoa a‘zolariga tegishli aksiyalarga to‘lanadigan dividendlar miqdori ham ko‘payib boradi.* (Gazetadan.)

**Aksiyador** – aksiyalar egasi; undan foyda ko‘ruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs; aksiyadorlik jamiyati a‘zosi. ...*aksiyadorlik jamiyatida... aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi.* (Gazetadan.)

**Aksiyadorlik** – aksiya ishlari bilan bog‘liq faoliyat.

**Aksiz** – keng iste‘mol mollari sotuvidan olinadigan bilvosita soliq turi. U muayyan mol narxiga yoki ko‘rsatilgan xizmat haqiga qo‘shiladi.

**Akt** [lot. *actus; actum* – amal, harakat; hujjat, qaror] – **1.** Biron-bir sodir etilgan ish, xatti-harakat yoki bo‘lib o‘tgan voqea, hodisa. Terroristik akt.

**2.** Muassasa yoki ayrim shaxs (shaxslar)ga oid xatti-harakat (voqea, hodisa) yoki holatni tasdiqlash, guvohlik asosida qayd etuvchi, birdan ortiq kishi tomonidan tuzilgan hujjat; dalolatnoma.

**3 huq.** Yuridik ahamiyatga ega qaror yoki hujjat. Yerdan foydalanish haqidagi akt.

4. Dramatik asar yoki teatr tomoshasi-ning tugallangan qismi; parda.

**Aktinidiya (*actinidia*)** – aktinidiya-doshlar (*actinidiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15 m ga yetadigan, daraxtlarga chirmashib o'suvchi buta. Primorsk o'lkasi, Xabarovsk o'lkasining janubi, Saxalin, Kuril orollaridagi o'rmonlar, tog' qiya-liklari va cho'qqilarida o'sadi. Tibbiyot-da ikki turining mevasi ishlatiladi: ak-tinidiya kolomikta (*actinidia kolomicta maxim.*) – kolomikt aktinidiyasi va akti-nidiya ostraya (*actinidia arguta (sieb. Et succ.) Planch.*) – o'tkir aktinidiya. Mevasi tarkibida qandlar, organik kislotalar, ko'p miqdorda vitamin S, bo'yoq, pektin va oshlovchi moddalar bor. Meva sharbati va xom murabboshi (ho'l mevasi bilan shakar aralashmasi) lavsha (singa) kasalligini davolash va oldini olish uchun qo'llaniladi. Uzoq Sharq xalq tabobatida aktinidiya mevasi bilan sil, tish og'rig'i (kariyes), ko'kyo'tal kasalliklarini davolaydilar.

**Aktinobatsillyoz, soxta aktinomi-tol** – hayvonlarda *Actinobacillus lignel-ressi* mikroorganizmni qo'zg'atadigan kasallik. Limfatik bo'g'imlarda, kallaning yumshoq to'qimalarida (til, lab), bo'yin, ba'zan ichki a'zolarida absesslar hosil qi-lish bilan kechadi.

**Aktiv** [*lot. activus* – faol, harakat-chan] – 1. Korxonada yoki tashkilotning mulki va resurslari (bino, mashina, qim-matbaho qog'ozlar va b). ...*bir qancha savdo-sotiq maydonchalari mavjud: dav-lat aktivlarini sotish maydonchasi, ra-qobatli-ustuvor savdolar maydonchasi.* (Gazetadan). *Pulga tez aylanishi (sotili-si) mumkin bo'lgan... aktivlar (veksellar, olin, naqd pul va b.) likvid aktivlar deyiladi.* («O'zME».)

2 *bux.* Balansning kirim, daromad qis-mi. balansning bir qismi; *zid.* passiv. Mo-

liya menejmenti, aktivlar va passivlarni boshqarish. (Gazetadan.)

**Aktiv temperatura, foydali tem-peratura** – o'simlikda sezilarli darajada o'sish va temperaturasi. Ko'pchilik qish-loq xo'jaligi ekinlari uchun bu chegara +5°C, issiqsevar ekinlar uchun +8°C ga-cha, makkajo'xori va g'o'za uchun +10° – +12° S bo'ladi.

**Aktivlashtirilgan ko'mir (*corbo ac-tivatus*)** – maxsus usul bilan ishlangan o'simlik (pista ko'mir) yoki hayvonot ko'miri.

**Aktual** [*lot. actualis* – haqiqiy, ama-liy] – eng muhim, eng zarur, dolzarb. *Ak-tual masala.*

**Akula** [*isl. Hakall* – baliqning bir turi] – dengizda yashaydigan yirik yirt-qich baliq; nahang.

**Akvadistillyator** – havo harorati-ni +10°S, +35°S gacha va nisbiy nam-likni 80% +25°S da saqlash uchun mo'ljallangan.

**Akvakultura** (*lot. aqua* – suv, *cultu-ra* – yetishtirish, parvarish qilish) – suv havzalaridan unumli foydalanish maqsa-dida suvda yashaydigan organizmlar (ba-liqlar, mollyuskalar, qisqichbaqasimon-lar, suv o'tlari)ni nazorat qilib turiladigan sharoitda yetishtirish va parvarish qilish.

**Akvalang** [*ingl. Aqualang* <*lot. aqua* – suv + *ingl. Lung* – o'pka] – odam-ning suv ostida bemalol nafas olib suzi-shiga hamda ishlashiga imkon beradigan apparat. *Shveysariyalik Keller degan kishi akvalangda 305 metr chuqurlikka tush-gan.* («Fan va turmush».)

**Akvanavt** [*lot. aqua* – suv + *yun. nau-tes* – dengizda suzuvchi] – suv ostida tek-shirish, izlanishlar olib boruvchi dengiz tadqiqotchisi. *Asabi temirdan va ruhiyati nihoyatda mustahkam kishilardan akva-navtlar tayyorlanadi.* («Fan va turmush».)

**Akvarium** [lot. *aquarium* – suv; suv-don] – 1. Suv hayvonlari va o‘simliklarini tirik saqlash, asrash va urchitish uchun foydalaniladigan shisha idish. *Lekin akvariumda boqiladigan ko‘pgina baliqlar... ko‘k va qizil ranglarni ajratish qobiliyati-ga ega bo‘ladi.* («Fan va turmush».)

2. Suv jonivorlari va o‘simliklarini o‘rganish va namoyish qilish bilan shug‘ullanadigan maxsus muassasa.

**Akvatoriya** [lot. *aqua* – suv + *territorium* – joy; viloyat] – suv havzasi yuzasi-ning bir qismi. *Port akvatoriyasi. Harbiy harakatlar akvatoriyasi.*

**Akveduk** [lot. *aquaeductus* – suv yo‘li, suv o‘tkazgich quvur] – jar, dara, daryo, yo‘l ustidan o‘tkaziladigan nov yoki quvurdan iborat ko‘priksimon, ko‘tarma suv o‘tkazuvchi inshoot.

**Alaf** [a. – o‘t, xashak] – umuman, o‘t, ko‘kat.

**Alak** – paxta ipdan qo‘l do‘kon (dastgoh)da to‘qilgan mato; silliq bo‘z. *Alak to‘n chit bir-la bir yerda alak bozori tang-u tor ekan.* (Muqimiy.)

**Alapi** – shv. Yetilmagan xom jo‘xori.

**Albatros** [fr. *albatross*] – nayburunli qushlardan biri, tumshug‘i uzun, qanotlari ingichka va keng, uchqur yirik dengiz qushi.

**Aletsital tuxumlar** – sarig‘i umuman yo‘q yoki juda kam bo‘lgan tuxum.

**Alignin** (*aligninum*) – ninabargli daraxtlardan, asosan, archaning yog‘och qismidan maxsus ishlov berish usuli bilan olinadigan yumshoq, mayin, g‘ijim, hidsiz, mazasiz, qog‘oz varaqlariga o‘xshash ashyo. Tibbiyotda alignin gigroskopik paxta singari yara zardobini shimib oladigan mato o‘rnida, farmatsevtika sanoatida ampulalarni o‘raydigan arzon ashyo sifatida ishlatiladi.

**Alimentar impotensiya** – hayvonning yetarli oziqlanmasligi oqibatida kelib chiqadigan kasallik. Yetarli oziqlantir-maslik hayvonning jinsiy reflekslarining susayib ketishiga, turli xil buzilishlarga, urug‘ sifatining pasayishiga olib keladi.

**Alkaloidlar** – o‘simliklar (qisman hayvonlar) to‘qimalarida tayyor holda uchraydigan asosli (ishqoriy) xossaga va kuchli fiziologik ta‘sirga ega bo‘lgan, molekulasida azot saqlovchi murakkab organik birikmalar. Alkaloidlar ko‘pincha rangsiz, optik faol, hidsiz, achchiq mazali, uchuvchan bo‘lmagan kristall yoki amorf modda. Sof holidagisi spirt organik erituvchilarda erisa, kislotalar bilan hosil qilgan tuzlari suvda va spirtida yaxshi eriydi. Ba‘zan rangli, suyuq va uchuvchan alkaloidlar ham uchraydi. Aksariyat alkaloidlar azot saqlovchi getrosiklik birik-malarning hosilalari bo‘lgani uchun ular shu birikmalar asosida sinflarga (pirolizidin, piridin, xinolizidin, xinolin, izoxinolin, indol, purin hosilalariga) bo‘linadi. Alkaloidlar va ularni saqlovchi o‘simliklar zaharli. Bir qator alkaloidlar (morfin, kodein, glautsin, atronin, giossiamin, kofein, strixnin, xinin, xinidin, platifillin), ularni saqlovchi o‘simliklarning preparatlari muhim dorivor vosita sifatida tibbiyot-da turli kasalliklarni davolashda hamda xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida qo‘llaniladi.

**Alkimyo** [a. – kimyo, ximiya] – 1. Kimyo fanining arabcha nomi.

2. Hozirgi kimyoning ibtidosi bo‘lib, o‘rta asrlarda uning asosiy maqsadi oddiy metallarni oltin va kumushga aylantirish bo‘lgan.

**Allelomorf belgilar** – bir-biridan farqlanuvchi juft irsiy alomatlar, masalan, pomidor rangining qizil va sariq bo‘lishi.

**Allergiya** – bu allergenlarga (mikrob oqsili, toksini, dorilar va h.k.) organizm sezuvchanligining ortishidir. Allergik reaksiyalar tez yoki sekin kechishi mumkin. Tez kechganda reaksiya bir necha minutdan (15–30) keyin, sekin kechganida bir necha soatdan keyin (24–72) paydo bo'ladi. Tez kechadigan reaksiyaga anafilaksiya, zardob kasalligi, shuningdek ko'proq odamlarda uchraydigan atopiyalar (qizilcha, bronxial astma) kiradi.

**Allogamiya** (*yunoncha allos* – boshqasi + *yunoncha gamos* – nikoh) – bitta guning boshqa gulning changlani bilan changlanishi, xususan boshqa o'simlikning gullari (o'zaro changlanish). Ikki jinsli o'simliklarda allogamiya zaruriy hodisa hisoblanadi.

**Aloe** [*yun. aloe*] – 1. Piyozdoshlar yoki loladoshlar oilasiga mansub, serov va etdor bargli tropik va subtropik o'simlik: sabur.

2. Shu o'simlik bargining shirasidan tayyorlangan dori.

**Aloe, aloe (tourn.) L.** – loladoshlar (*Liliaceae*) oilasiga mansub, bo'yi vatanida 4 m gacha yetadigan, doim yashil daraxtsimon o'simliklar. Vatani – Afrikaning janubi-sharqidagi yarim cho'l hisoblanadi. MDH da ikki turi: *Aloe decaisniana* (*Aloe. arborescens* Mill.) – daraxtsimon aloe va *Aloe poliosatoye* (*A. striatula* Haw.) – yo'l-yo'l aloe Gruziya, Ukraina va Markaziy Osiyoda bir yillik o'simlik sifatida xonalarda o'stiriladi. Tibbiyotda aloe bargining quritilgan shirasi – sabur preparatlari ishlatiladi. Barg va sabur tarkibida antratsep hosilalari, smolalar, efir moyi, achchiq moddalar bor. Saburning katta dozasi surgi dori sifatida, kichik dozasi ovqat hazm qilishni yaxshilash va ishtaha ochish maqsadida

ichiladi. Biogen stimulatorlarga boy barglaridan suyuq ekstrakt (flakon va ampulalarda chiqariladi), liniment (emulsiya), shira, sharbat va tabletkalar tayyorlanadi. Suyuq ekstrakti va tabletkasi ko'z kasalliklarida hamda boshqa kasalliklarda (me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi, bronxial astma) qo'llaniladi. Aloe liniamenti va shirasi kuyganga, turli yaralarga, quruq va ho'l epidermitlarga, nur terapiya natijasida II–III darajali kuyganga ishlatiladi hamda shirasi gastrit, enterokolit va qabziyatda ichiladi.

**Almashlab ekish** – q.x. ekinlarini dalalar va yillar bo'yicha ilmiy asoslangan navbatlab ekish. Tuproq unumdorligini ta'minlash va ekinlarning hosildorligini oshirishning samarali tadbiri hisoblanadi. Almashlab ekish – dehqonchilik tizimining eng muhim qismidir. Ekinlarni tartibi bilan belgilangan sxemada har bir dalaga ekish uchun ketgan vaqt *almashlab ekish rotatsiyasi (tartibi)* deyiladi; almashlab ekishga kiritilgan ekinlarning guruhi ro'yxati va ularni navbatlash tartibi yoki **almashlab ekiladigan** ekinlar bilan band bo'ladigan dalalarning bir-biriga nisbati *almashlab ekish sxemasi* deyiladi. Ekinlar kasalliklari, zararkunandalariga qarshi kurashda, dalalarni begona o't bosib ketishini bartaraf etishda almashlab ekish sinalgan agrotexnik chora hisoblanadi.

**Almashlab ekish zvenosi** – uni almashlab ekish tizimi bilan chalkashtirmaslik zarur. Yuqorida keltirilganidek, almashlab ekish tizimida qishloq xo'jalik ekinlarini yillar va dalalar bo'yicha ilmiy asoslangan holda navbat bilan ekilishi tushunilsa, almashlab ekish zvenosida esa, ekinlarni ikki-uch ekindan, shudgor va bir-uch ekindan tashkil topgan qismiga aytiladi. Masalan, shudgor (yozgi-kuz-



gi bug'doy), makkajo'xori (silos uchun), suli: kuzgi bug'doy va h.k. Almashlab ekishning har bir dalasida orada bitta ekin ekiladi, bu esa murakkab qishloq xo'jaligi texnikasi va ilg'or tajriba usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

**Almashlab ekish dalalarining agroteknik pasporti** – har bir almashlab ekish dalasini tavsiflovchi hujjat. Brigada kartasi va dala tarixi daftarining tarkibiy qismi.

**Almashlab ekish rotatsiyasi** (*lot. rotation* – aylanish, davra), rotatsiya davri – ekinlarni tartibi bilan, belgilangan sxemada har bir dalaga ekish uchun ketgan davr; rotatsiya davri dalalar soniga teng bo'ladi.

**Almashlab chatishtirish usuli** – bu sanoat chatishtirish usulining bir turi bo'lib, ikki zotni chatishtirishdan olingan duragaylar yana bir marta ushbu zotlarning buqalari bilan chatishtiriladi, ulardan olingan duragay urg'ochi mollar ona zotning buqalari bilan chatishtiriladi, ya'ni har bir bo'g'inda buqa zoti almashadi.

**Alp hedizarumi** (*hedysarum alpinum*) – 1. Dukkakdoshlar (*fabaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 50–100 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida ksantonglikozidimangiferin, flavonoidlar (giperazid va h.k.), vitamin S va boshqa moddalar bor. Yer ustki qismidan dori preparat–alpizarin olinadi. U virusga qarshi ta'sirga ega bo'lib, kattalardagi uchuqlarni davolash uchun qo'llaniladi. Alpizarin preparatini *hedizarumning* boshqa turi (*k. jeltayushiy h. flavescens rgl et schmalh.*) – sariqlanuvchi *hedizarumning* yer ustki qismidan olish mumkin. Lekin bu turining tabiiy miqdori kam bo'lib, G'arbiy Tyanshan va Pomir-Oloy tog'larida (O'zbekiston, Qozog'iston ja-

nubi va Tojikistonning g'arbiy-janubida) o'sadi.

**Alternativ** – mumkin bo'lgan ikki yoki bir necha imkoniyatdan birini tanlashga asoslangan; muqobil. *Alternativ xizmat.*

**Alternativa** [*fr. alternative* <*lot. altar* – ikkitadan bittasi] – 1. Bir-birini inkor etuvchi imkoniyatlardan birini tahlash; muqobillik.

2. Shu imkoniyatlardan har biri.

**Altimetr** [*lot. altum* – balandlik + *yun. metron* – o'lcham, o'lchov] – uchish apparatlarining yerdan balandligini o'lchovchi asbob; balandlik o'lchagich.

**Alyur** – otlarning har xil harakat turlari (odimlash, lo'killash, sakrab chopish, yo'rg'alash).

**Amal** [*a.* – ish, harakat] – 1. Ilm, nazariya, fikr va sh.k.ning hayotiy reallashuvi. *Ilm amal bilan sharofatlidir.* (G'.G'ulom.)

**Amal qilmoq** – 1) hisobga olib ish tutmoq, rioya qilmoq. *Qonunga amal qilmoq. Ilmiga amal qilmagan mulladan ustiga xurjun ortilgan eshak yaxshi.* (Maqol.) 2) ta'sir qilmoq (dori-darmon haqida). *Shifosiz kasalga har bir dori-darmon zahardek amal qilar ekan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar».)

2. E'tiqodga oid ish, aqida ishi. *Zotan, inson xotirjam yashamas ekan, uning ko'ngliga ibodat ham, xayr-u ehson ham, boshqa yaxshi amallar ham sig'maydi.* (Gazetadan.) *Al ma'ruf deganda... bajariishi lozim bo'lgan barcha islomiy amallarni tushunamiz.* (Gazetadan.)

3. Umuman, bajarilishi lozim bo'lgan ish, amaliy ish. *Virusli hepatit kasalligi bilan og'rimaslik uchun quyidagi amallarga rioya qilish lozim.* (Gazetadan.) *Biz ham o'z harakatlarimiz, amalimiz bilan*

voshlar orasiga ko'proq kirib borishimiz kerak. (Gazetadan.)

4. **Mas'ul vazifa, mansab. Amalga oshirish bo'lsang** – to'zdirar. (Maqol.) **Amalning qadri amali va unvoni bilan oshirishga, xalqiga qilgan xizmati bilan o'z ichanadi.** (Shuhrat, «Shinelli yillar».)

**Amalga oshmoq** – yuzaga chiqmoq, vujudga kelmoq; barpo bo'lmoq; bajarilmoq. **Orzular amalga oshdi. Reja amalga oshdi. Bu ishga ham birorta azamat bosh qo'shsa, ajab emas, amalga oshsa.** (Oybek, «Hazil emish».)

**Amalga oshirmoq** – yuzaga chiqarmoq, vujudga keltirmoq; bajarmoq; joriy qilmoq. Maqsadni amalga oshirmoq. Reja amalga oshirmoq.

**Amal tegmoq** – kesat. Katta ish, mansab tegmoq. **Vo-o xudo! Ammangga ham amal tegib qolgan. Kecha-yu kunduz churvapalar bilan o'ralashgani o'ralashgan.** (H. Nazir, «Bir tup g'o'za»)

5. **Iloj-imkon, chora. Garchi reja buzildi, lekin bir amalini qilamiz.** (Oybek, «Tanlangan asarlar».)

6 **ko'chma.** Uyg'onish, hayot boshlanishi (o'simlik, daraxt kabilar haqida). **Amal vaqti yetganda tok, anor, anjir ko'milgan joyida turib ham ko'karaveradi.** (R. Rahmon, «Mehr ko'zda».)

**Amal olmoq** – ko'karmoq, tutmoq. **Nihol jildirab suv oqib turgan jo'yakka etilmasa, amal olmaydi.** (A. Ko'chimov, «Halqa».)

7 **mat.** Matematik hisobning har bir turi. **To'rt amal. Arifmetik amallar.**

8 **etn.** Isitish, sovitish, birovning ishini orqaga ketkazish, turgan uyidan bezdirish va sh.k. maqsadlarda dam solingan narsa; sehr-jodu. **Folbin bir nimani yeng ichidan chiqarib berdi.** (Oybek, «Tanlangan asarlar».)

**Amaliy** – 1. Kishining kundalik faoliyatiga oid, kundalik ish, hayot bilan bog'liq bo'lgan. **Do'rmon qarorgohida O'zbekiston va Turkmaniston hukumatlari vakillaridan iborat ikki mamlakat delegatsiyalarining amaliy uchrashuvlari bo'lib o'tdi.** (Gazetadan.)

2. Bevosita amalga oshiriladigan, amalda ko'riladigan, qilinadigan. **Amaliy yordam. Amaliy natija. Amaliy chora. Bir necha kundan keyin... kolxozchilarning vakillari kengashib, amaliy tadbirlar belgilashdi.** (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari».)


3. Amalda tatbiq etiladigan, tajribada qo'llaniladigan, tatbiqiy. **Amaliy fanlar. Amaliy mexanika. Amaliy san'at.**

**Amaliyot** [a. – amaliy masalalar] – amaliy ish, amaliy jarayon, kundalik tajriba. **Xo'jalik shartnomalarini huquqiy ekspertiza qilish ham amaliyotga kiritilgan.** (Gazetadan.) **Amaliyot respublikamiz madaniy hayotida xalq cholg'u orkestri g'oyat zarur ekanini ko'rsatib turibdi.** (Gazetadan.)

**Amaliyotchi** – amaliyot bilan shug'ullanuvchi. **Unda olimlar, sud-huquq amaliyotchilari ishtirok etdi.** (Gazetadan.)

**AMB** bakterial o'g'iti – organik moddalarni o'simlik osonlik bilan o'zlashtiriladigan oziq moddalarga aylantiruvchi bakterial preparat. **AMB tarkibida ammonifikator, nitrifikator, azot to'plovchi tuproq bakteriyalari hamda sellyuloza va fosfor-organik birikmalarni parchalovchi bakteriyalar bo'ladi.**

**Ambroziya** – murakkabguldoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar. **Ambroziyalar ashaddiy karantin o'tlar bo'lib, asosan, Shimoliy Kavkaz, Ukraina, Qozog'iston,**



Krasnodar o'lkasida tarqalgan. Bulardan biri (*Ambocia artemisifolia* L.) Toshkent viloyatida ham begona o't sifatida uchraydi.

**Amerika fitolakkasi** (*Phytolacca americana* L.) – Fitolakkadoshlar (*Phytolaccaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 100–200 (300) sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Vatani Shimoliy Amerika. Kavkaz va Qrimda yo'l yoqalarida, uylar atrofida begona o't sifatida uchraydi. Tibbiyotda bargi va ildizi ishlatiladi. Bargi tarkibida triterpen saponinlar, ildizida alkaloidlar (fitolaksin), efir moyi va boshqa moddalar bor. Barg va ildizidan tayyorlangan tindirma (nastoykasi) radikulit, tonzillit, faringit, shamollash kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dori preparatlar tarkibiga kiradi.

**Amerika rambulesi** – mayin junli qo'y zoti. Qo'chqorlarining tirik vazni 90–100, sovliqlari 60–65 kg. Qo'chqorlaridan 7–10, sovliqlaridan 5–6 kg jun qirqib olinadi. Junining uzunligi 8–9 va 6–7 sm, ingichkalik sifati 45% bo'lgan sof jun chiqadi. Serpusht – 100 ona qo'ydan 120 ta qo'zi olinadi.

**Amfibiylar** [*yun. amphibia* – suvda va quruqda yashovchi] – 1. *zool* Umurtqalilarning bir sinfi, suvda va quruqlikda yashashga moslashgan jonivorlar. *Bu zahar baliqlar... shuningdek, amfibiylarga ziyon yetkazmaydi.* («Fan va turmush».)

2. Ham suvda, ham quruqlikda yashay oladigan o'simliklar.

**Amfimiksis** (*yun. amphi* – atrofi, yoni va *miksis* – aralashish) – o'simlik va hayvonlarning jinsiy ko'payish usuli, ota va ona gametalarining qo'shilishi orqali yangi organizm hosil bo'lishi.

**Amiri** – 1. Po'chog'i va eti ko'kish, xipcha, uzunchoq, ertapishar qovun navi.

*Yana bir fikrga ko'ra, xalq Navoiyning ta'bi nozikligiga ishora qilib, po'sti yupqa qovunga «amiri» deb nom bergan.* («Fan va turmush».)

2. Uzunning bir navi.

**Amlok** [*a.* – mulklar] – 1. Katta yer-mulk, yer-suv, hovli-joy, bog'-rog'.

2. Umuman mulk, mol-dunyo.

**Amlok ro'zg'or** – ro'zg'or mulklari. *Shaharda bir necha kun qolishdan, qishloqdagi «amlok ro'zg'or»ni egasiz tashlashdan... tashvishlanmaydi.* (A. Qodiriy, «G'irvonlik Mallavoy»)

3 *tar.* Buxoro xonligida: yer-mulkdan o'lpon olish uchun ajratilgan har bir kichik ma'muriy-hududiy bo'linma.

**Amlokdor** [*a. +f.* – amlok egasi] – *tar.*

1. Katta yer egasi; zamindor, mulkdor. *...o'shal yer islohot deb, amlokdorlardan bazo'r tasarruf qiling'on zaminlarni.* (A. Qodiriy, «G'irvonlik Mallavoy»)

2. Amlokni (*q. amlok* 3) boshqaruvchi va amlok aholisidan soliq, o'lpon yig'uvchi mansabdor. *Mehmonxonaning to'rida... qozi, amlokdor, rais va mirshab, ya'ni tumanning chorhokimi o'tirar edilar.* (S. Ayniy, «Qullar»)

**Ammiak** [*yun. hammoniakon* – Liviya sahrosidagi qadimgi Ammoniy vohasidan olinadigan novshadil shunday atalgan] – azotning vodorod bilan hosil qilgan eng oddiy birikmasi; o'tkir hidli rangsiz zaharli gaz. *Suyuq ammiak. Ammiak zavodi.*

**Ammiakli** – tarkibida ammiak bo'lgan. *Ammiakli birikmalar. Ammiakli selitra.*

**Ammiakli o'g'it** – azotli o'g'itlarning turlaridan biri.

**Ammiakli-nitratli o'g'it** – azotli o'g'itlarning turlaridan biri.

**Ammofos** [*amm(iak) + fos(for)*] – tarkibida azot bilan fosfor bo'lgan, konsentrlangan qo'shaloq mineral o'g'it.

**Ammofoska** – tarkibida azot, fosfor va kaliy bo'lgan konsentrlangan mineral o'g'it.

**Ammoniy** [yun. *hammoniakon*] – kim. Azot va vodoroddan iborat atomlar guruhi (texnika va qishloq xo'jaligida keng ishlatiladigan bir qator tuzlar tarkibi kiradi).

**Ammoniy nitrat**, ammiakli selitra,  $NH_4NO_3$  – rangsiz kristall modda, gigroskopik. MDH mamlakatlarida A, B va V markalari ishlab chiqariladi. Ammoniy nitratning V markasi ko'proq tarqalgan, hosildorlikka kuchli ta'sir etuvchi o'g'it tarkibida 34% sof azot bor. Ekinlarni ekishdan oldin va o'sish davrida yerga asosiy o'g'it sifatida solinadi, ayniqsa g'ozga parvarishida ko'p ishlatiladi.

**Ammoniy sulfat**  $(NH_4)_2SO_4$  – rangsiz kristall modda. Suvda yaxshi eriydi.

**Amorf** [yun. *amorfos* – shaklsiz] – 1. Tuzilishi kristall shaklida bo'lmagan, kristallanmagan. *Amorf moddalar. Amorf uglerod.*

2 kt. Shaklsiz, formasiz; uyushmagan. *Amorf holat.*

**Amortizatsiya** [lot. *amortisatio* – qoplash] – 1 iqt. Mehnat vositalarining (mashina, jihoz, bino va sh.k.) eskirishiga qarab, ular qiymatini muayyan davr mobaynida ishlab chiqarilayotgan mahsulot ustiga qo'ya borish, shu yo'l bilan eskirgan vositalar bahosini qoplash.

2 ml. Alohida shaxs yoki tashkilotning uzoq muddatli qarzni asta-sekin (hissalarga bo'lib to'lab) yoki qarzni sotib olib uzishi.

3. Yo'qotish, o'g'irlatish va h.k. oqibatida qarz majburiyatini haqiqiy emas, deb e'tirof etish.

4. Avtomashina, samolyot, inshoot va sh.k.ning urilish zarbini, silkinishini kamaytirish.

**Amortizatsiya fondi** – eskirgan asosiy fondlarning o'rmini keyinchalik qoplash maqsadida pul mablag'larini to'plab borishga mo'ljallangan fond.

**Ampelografiya** (yun. *ampelos* – uzum va *grafiya*) – tokshunoslik, uzumning tur va navlarini o'rganadigan fan. Tur va navlarning tashqi muhit hamda inson ta'sirida o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini o'rganadi. Uvologiya bilan bog'liq. Umumiy hamda xususiy A. bo'ladi. *Umumiy A.* tokdoshlar sistematikasini, tasnifini, navlarning kelib chiqishini, o'zgaruvchanligini, shuningdek, ampelografik tadqiqotlar metodikasini o'z ichiga oladi. *Xususiy A.* esa alohida uzum navlarini o'rganib, ularga botanik, agrobiologik va xo'jalik-texnologik jihatdan ta'rif beradi. Uzum navlariga ta'rif berish uchun Xalqaro ampelografik komissiya (Vena, 1873) tomonidan yagona tizim qabul qilingan.

**Ampelometriya** – ampelografiya ishlari, ya'ni uzum navlari xususiyatlari (belgilari)ni aniqlashda qo'llaniladigan usul. Variatsion usul bilan qo'shib olib boriladi.

**Ampel o'simliklar** – chirmashib yoki osilib o'sadigan manzarali o'simliklar. Osib qo'yiladigan guldon (ampel) yoki boshqa idishlarda o'stiriladi. Bunday o'simliklarga tokning *ampelopsis*, *partenotsissus* kabi turlari, shuningdek, *asparagus*, *nusturatsiya*, *tradeskansiya* kabi o'simliklar kiradi.

**Ampeloterapiya** – uzum bilan davolash: turli kasalliklar (quvvatsizlik, o'pka sili, jigar, yurak, buyrak, kamqonlik va h.k.)ni pishgan uzum bilan davolash usuli. Sutkada 0,5 kg dan boshlab, to 2 kg gacha yeyiladi (vrach bilan kelishgan holda).

**Ampelopsis** – tokdoshlar (*Vitaceae Juss*)ni birlashtiruvchi 10 turkumning

bittasi. Osiyo va Shimoliy Amerikada tarqalgan 20 ga yaqin uzum turini o'z ichiga oladi. Seleksiya ishlarida hamda manzarali o'simlik sifatida foydalaniladi.

**Ampelopedologiya** – tokzor tuproqlari (tuproq sharoiti) haqidagi ta'limot. Turli agrotexnika usullari ta'sirida (mas. tuproqni chuqur haydash – *plantaj*) tuproq o'zgaruvchanligini o'rganadi va h.k.

**Amur baxmali** (*phellodendron amurense rупr.*) – rutadoshlar (*Rutaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 10–30 m gacha yetadigan daraxt. Primorye va Xabarovsk o'lkalari hamda Janubiy Saxalindagi tekislik va tog' o'rmonlarida o'sadi. Tibbiyotda daraxt po'stlog'i (lub qismi) ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar (berberin, palmitin, fellodenin), kumarinlar, saponinlar, flavonoidlar bor. Po'stlog'ining tolasi (lub qismi)dan berberin alkaloidi olinadi. Tolasi og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, antiseptik vosita sifatida hamda shamollash kasalliklarida qo'llaniladi.

**Amyobalar** [*yun. amoibe* – o'zgarish] – soxta oyoqlilar sinfiga mansub, barqaror tana shakliga ega bo'lmagan bir hujayrali umurtqasiz hayvonlar turkumi.

**An g'o'za navlari** – O'zbekiston FA O'simliklar eksperimental biologiyasi institutida yaratilgan o'rta tolali g'o'za navlari. «An» indeksi ruscha «Akademiya nauk» («Fanlar akademiyasi») so'zlaridan olingan.

**Anabioz** [*yun. anabiosis* – jonlanish, tirilish] – *biol.* Ba'zi bir tirik organizmlarda hayotiy jarayonlarning noqulay sharoitlarda sekinlashuv yoki to'xtab qolish holati (mas., ba'zi hasharot va jonivorlarning qishda uxlashi).

**Anaboliya** – ontogenez oxirida o'zgarish vositasida hayvon organlarining evolutsiya usullaridan biri.

**Anafilaksiya** (*grekcha «ana»* – qarshi, «*filaksiya*» – himoya demakdir) – begona oqsil (zardob, antibiotiklar)ni takror parenteral yuborish natijasida organizmda unga nisbatan haddan tashqari sezuvchanlikning ortishidir. Anafilaksiyaga sababchi bo'ladigan moddalar anafilaktogenlar deyiladi.

Anafilaksiya paydo bo'lishi uchun uch shart zarur:

1. Sensibilizatsiya – organizmga bir marta zardob yuborilganda, shu oqsil moddaga nisbatan sezuvchanlik paydo bo'lib qolishi.

2. 10–14 kun o'tgandan keyin organizmga yana zardob yuborilishi kerak. Ana shu 10–14 kunlik inkubatsion davr o'tmasdan har kuni zardob yuborilsa, anafilaksiya bo'lmaydi.

3. Anafilaktogen (zardob) bir xil zotli hayvonlardan olinishi shart.

Sensibilizatsiya qilingan organizmga kichik dozalarda zardob yuborib, anafilaktik shokning oldini olish mumkin, ya'ni disensibilizatsiya. Sekin kechadigan allergik reaksiyalar hayvonlarda tuberkulyoz, brusellyoz va boshqa kasalliklarda kuzatilib, 8–10 yilgacha saqlanib qoladi. U diagnostik maqsadda ishlatiladi. Allergen teri ichiga, teri ostiga yuboriladi yoki ko'z konyunktivasiga surtiladi. Kasal hayvonlarda allergen yuborilgan joyda shish, og'riq paydo bo'ladi, tana harorati ko'tariladi, ko'zning ichki burchagidan yiring oqadi. Bu allergik reaksiyada T-limfotsitlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, yuborilgan ma'lum allergenga sezuvchanligi yuqori bo'ladi. Allergen yuborilgan joyda sensibilizatsiya qilingan T-hujayralar bilan birikib, natijada kimyoviy modda (limfokinlar) hosil bo'ladi va to'qimalarni zararlaydi.

**Anafrodiziya** – jinsiy sikllarning oʻzgarishishi yoki butunlay toʻxtashi yoxud ularning toʻlaqonli emasligi.

**Analiz** [yun. *analysis* – ajratish, ajratish] *zid. sintez*. – 1. Tekshirish obyektini fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilish usuli. *Analiz shunday bir mantiqiy usuldirki, uning yordami bilan biz narsalarni, hodisalarni fikran qismlariga boʻlib, ularning ayrim qismlarini, taʼsirlarini, xususiyatlarini ajratamiz.* («Logika».)

2 *ayn. tahlil.*

3. Moddaning tarkibini aniqlash. *Kimyoviy analiz. Qon analizi. Sifat analizi.* 4. *Matematik analiz* – oliy matematika-ning bir boʻlimi.

**Analitik** – analiz, tahlil usuliga asoslangan: tahliliy. Analitik metod.

**Analitik kimyo** – «Kimyo» fanining moddalar kimyoviy tarkibini aniqlash bilan shugʻullanadigan boʻlimi.

**Analitik seleksiya** – tanlash asosida q. x. oʻsimliklari navlarini yaratish usuli. Analitik seleksiyada boshlangʻich material sifatida mahalliy yoki boshqa hududlardan keltirilgan navlardan, tabiiy duragay populatsiyalardan foydalaniladi, sintetik seleksiyada esa populatsiyalar sunʼiy ravishda barpo etiladi.

**Analitik chatishtirish, tahliliy chatishtirish** – birinchi avlod duragaylarini resessiv gomozigotali ota-ona formalar bilan chatishtirish; bekkrossning bir turi boʻlishi. Shuningdek, analitik chatishtirishdan genetika-seleksiya tadqiqotlarida boshlangʻich materialning genotipini tahlil qilishda, krossingover – birikkan (tutashtirgan) genlar rekombinatsiyasi foizini aniqlashda ham foydalaniladi.

**Analizatorlar** – *fiziol.* Yuksak darajadagi hayvonlar va odam nerv tuzilmalari-

ning murakkab tizimi (tashqi muhit va organizmdagi taʼsirlarni idrok etib, analiz etiladi).

**Analogik** – bir-biriga yoki boshqasiga oʻxshash, oʻxshagan.

**Analogiya** [yun. *analogia* – muvofiqlik, aynanlik, oʻxshashlik] – 1 *fls.* Narsa va hodisalarda biror xususiyatning oʻxshashligi.

2 *mtn.* Xulosa chiqarish shakli boʻlib, bunda ikki narsa, hodisa oʻrtasidagi biror jihatdan oʻxshashlik asosida ularning oʻxshashligi va boshqa jihatlari haqida xulosa chiqariladi.

3 *huq.* Biror aniq harakat qonunda oʻz aksini topmagan holda shunga oʻxshash harakat (hodisa)ni koʻzda tutadigan huquqiy meʼyorni mazkur harakatga tatbiq etish.

4 *tlsh.* Til birliklarining oʻzaro qandaydir munosabat taʼsirida vazifa yoki boshqa jihatdan oʻxshashlik, bir xillik kasb etishi. Mas., *boq, qara* obyektisiz feʼllarining mustaqil va koʻmakchi feʼl holda koʻp obyektli feʼliga vazifadosh, maʼnodosh boʻlishi: *oʻqib koʻr – oʻqib qara – oʻqib boq.*

**Ananas I** [isp. *ananas*] – 1. Ananasdoshlar oilasiga mansub oʻtlar turkumi.

2. Shu oʻsimliklardan baʼzisining yirik, choʻzinchoq, xushboʻy va shirali mevasi.

**Ananas II** – ertapishar, toʻrlama, eti va urugʻi qizgʻish kuvrak va xushboʻy qovun navi.

**Anatomiya** [yun. *anatome* – kesaman, yoraman] – tirik organizmning shakli va tuzilishi haqidagi fan.

1. *Odam anatomiyasi* – odam organizmidagi ayrim aʼzo va sistemalar shakli, tuzilishi va rivojlanishi haqidagi fan: nazariy va amaliy tibbiyotning asosiy fanlaridan biri.

**Anbar I** [*a.* – xushbo‘y modda] –  
1. Kashalotlar tanasidan – oshqozon yoki ichaklaridan chiqadigan mumsimon xushbo‘y modda (parfyumeriyada atir hidiga turg‘unlik berish uchun ishlatiladi). [*Qulmuhammad:*] *Go‘zal! G‘oyat nafis!* [*Xondamir:*] *Hidi anbardin o‘tkur.* (Uyg‘un va I.Sulton, «Alisher Navoiy»).

2. Anbar (xotin-qizlar ismi).

**Andalib** [*a.* – bulbul] – *esk. kt. ayn. bulbul.* *Andalib bir savt ila bo‘ldi giriftori qafas, Zog‘ ming savt etsa, qaysi dil parishondir anga.* (Hamza).

**Andiy qo‘y zoti** – go‘sht-jun-sut yo‘nalishidagi yog‘li dumli qo‘ylar zoti. Vatani Dog‘iston. Qo‘chqorlarining tirik vazni 45–55, sovliqlarini 35–40 kg. 1,5–2,0 kg jun olinadi, sof jun chiqimi 80%. Juni dag‘al, tolimlarining uzunligi 15–20 sm. Har 100 ona qo‘ydan 110–115 tagacha qo‘zi olinadi.

**Andiz** – iste‘mol qilinadigan ko‘katning bir turi. ...*uydan keltirilgan taomlar qatoriga Otamurod terib kelgan ravoch, andiz, kiyik o‘ti, alqar o‘tlari ham qo‘shilib ketadi.* («Yoshlik»). *Qora andiz... nam yerlarda, o‘tloqlarda, tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.* (Gazetadan).

**Androginiya** – urg‘ochi jinsli hayvonlarda erkagiga xos jinsiy alomatlarining bo‘lishi, erkak jinsli hayvonlarda esa, aksincha, urg‘ochisiga xos jinsiy alomatlarining bo‘lishi.

**Andrologiya** – erkak hayvonlar jinsiy a‘zolari kasalliklari.

**Anemiya** – qon hajmi birligida eritrotsit va gemoglobinlar miqdorining kamayishi bilan xarakterlanadigan bir guruh kasalliklar nomi.

**Anemofil o‘simliklar** – changlanishi shamol (havo oqimi) ta‘sirida ro‘y bera-

digan o‘simliklar. Gulli o‘simliklarning 10% ga yaqinida changlanishi shu tarzda ro‘y beradi. Ushbu o‘simliklarning gullari ko‘p shamolli kichik gulzorlarda to‘planib, shamol ta‘sirida ko‘p miqdordagi quruq, yengil, silliq, parchalanadigan chang donachalari bilan chayqaladi. Bu holda changlar entomofil o‘simliklarnikiga qaraganda uzoq masofalarga tarqaladi, masalan, lavlagi changi 4–5 km yoki undan ko‘proq masofaga qadar shamol tomonidan olib boriladi. Xususan, lavlagi changi 600 metr dan keyin tez tarqalib ketganligi aniqlandi. Shamol bilan changlanadigan ekinlarga lavlagi, makkajo‘xori, qushqo‘nmas, ismaloq kiradi.

**Anemometr** [*yun. anemos* – shamol + *metreo* – o‘lchayman] – shamolning, havo harakatining tezligini o‘lchaydigan asbob.

**Aneroid** [*yun. a* – inkor qo‘shimchasi + *neros* – namlik, suv + *eidosis* – ko‘rinish] – atmosfera bosimini o‘lchash uchun ishlatiladigan asbob.

**Anemoxor o‘simliklar** – urug‘ va mevalari shamol (havo oqimi) ta‘sirida tarqalishi ro‘y beradigan o‘simliklar.

**Anesteziya** – periferik retseptorlardan bosh miya po‘stlog‘iga impulslar kelish to‘xtashi oqibatida qisman yoki butunlay sezuvchanlikning yo‘qolishi. Anesteziya turli xil patologik jarayonlar, shuningdek, organizmga dori moddalar (anesteziyalovchilar) kiritish natijasida kelib chiqishi mumkin.

**Anestral pauza** – sovliqlarning qo‘zilarini emizish davridagi fiziologik jinsiy osoyishtalik, bunda sovliq kuyikmaydi.

**Angeln qoramol zoti** – sut yo‘nalishidagi zot. Germaniyada yaratilgan. Buqalarning tirik vazni 650–750, sigirlarini 440–460 kg. 3000–3500 l va undan

ko'p sut sog'ib olinadi, sutning yog'liligi 4% gacha.

**Angioma** [yun. *angion* – tomir + *oma* < *omos* – nam, zax; xom] – qon yoki limfa tomirlarida paydo bo'ladigan xavfsiz o'sma.

**Angishvonagul** (*digitalis L.*) – sigirquyruqdoshlar (*Scrophulariaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–120 (200) sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simliklar turkumi. Tibbiyotda 4 turining bargi va bitta turining yer ustki qismi ishlatiladi. *N. izupnosvetkovaya* (*D. grandiflor Mill.*) – yirik gulli angishvonagul. G'arbiy Yevropa qismida (Ural, Karpat va Shimoliy Kavkaz tog'larida) o'sadi. *N. purpurnaya* (*D. purpureae L.*) – to'q qizil angishvonagul. Kavkaz, Ukraina va Belorussiya viloyatlarida hamda Gorkiy viloyatida o'stiriladi. *N. rjavaya* (*D. ferruginea L.*) – malla angishvonagul. Zakavkazyening sharqiy-janubidagi keng yaproqli o'rmonlarda va butalar orasida o'sadi. *N. Resnitchataya* (*D. ciliata Trauti*) – kiprikli angishvonagul. Gruziyaning shimoliy-g'arbidagi tog'li nohiyalarda o'sadi. *N. shersistaya* (*D. lanata Ehrh.*) – sertuk angishvonagul. Ukrainaning Zakarpat va Izmail viloyatlarida butalar orasida, o'tloqlarda va tepaliklarning ochiq yonbag'irlarida o'sadi, Shimoliy Kavkaz, Ukraina va Moldaviyada o'stiriladi. Angishvonagul turlari zaharli o'simliklar bo'lib, tarkibida yurak glikozidlari, steroid saponinlar, flavonoidlar, organik kislotalar va boshqa birikmalar bor. Yurak glikozidlari yig'indisidan purpureaglikozid A va V, digitoksin, gitoksin, gitaloksin, digilanid A va V, lantozid A, V, S glikozidlar ajratib olingan. O'simlik turlarining dori preparatlari barg damlamasi va kukuni, gitoksin, digitoksin va digoksin glikozidlari,

selanid, digalenneo, lantozid va kordigit yurak nuqsoni hamda yurak kompensatsiyasi buzilishi natijasida qon aylanishining II va III darajali buzilishi, qon bosimining oshishi va yurakning titroq aritmiyasini davolashda ishlatiladi.

**Angor echki zoti** – jun yo'nalishdagi qadimgi zot, vatani Turkiya. Takalarining tirik vazni 40–55, urg'ochilariniki 28–36 kg. Takalaridan 5–7, echkilaridan 2,2–4 kg jun qirqib olinadi, jun tolasining uzunligi 25 sm va undan ortiq, ingichkalik sifati 65–75%, toza jun chiqadi. Har 100 ona echkidan 100–110 ta uloq olinadi.

**Angor quyoni** – tivit beradigan quyonlar zoti. Tirik vazni 3–3,5 kg, 250 g sof tivit chiqadi. Serpusht – bir ona quyon 5–7 tagacha bolalaydi.

**Anhor** (*arab. nahr* – «daryo») so'zining ko'pligi) – katta kanal, ariq. Xorazm shevasidan «arna» so'ziga to'g'ri keladi. «Anhor» atamasi ba'zan mustaqil atoqli ot o'rmida ham ishlatiladi. Mas., Toshkentdagi Anhor arig'i. *Tog'dan erib tushgan qor va irmoqlardan kattagina anhor hosil bo'lgan.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»). *Ilgari kanal to'g'risida gap bo'lganda, Sidiqjon uni biron tegirmonga eltadigan ariq deb o'ylagan edi, tuproqni ko'rib: – E-ha, – dedi, – kattakon anhor-ku.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Anissimon arpabodiyon** [*anisum vulgare* (**pimpinella anisum L.**)] – selderdoshlar (soyabonguldoshlar) [*Apiaceae* (*Umbelliferae*)] oilasiga mansub bir yillik o't. Voronej viloyati, Ukraina va Shimoliy Kavkazda hamda ziravor o'simlik sifatida Markaziy Osiyoda o'stiriladi. Tibbiyotda mevasi va efir moyi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, yog', oqsil bor. Efir moyi ko'p miqdorda anetol, anis aldeidi, anis kislotasi birik-



malaridan tarkib topgan. Mevasi va efir moyi balg'am ko'chiruvchi (bronxit, laringit, ko'kyo'tal, nafas olish yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida), ichak faoliyatini kuchaytiruvchi, yel haydovchi va surgu vosita sifatida qo'llaniladi. Mevasi ich yumshatuvchi va ko'krak og'rig'iga qarshi ishlatiladigan choylar – yig'malar, shuningdek efir moyi navshadil-arpabodiyon tomchisi va ko'krak eliksir tarkibiga kiradi. Efir moyi yana farmatsevtika amaliyotida yoqimsiz ta'mli dori shakllari mazasini yaxshilash uchun ishlatiladi.

**Anjir** [f. – anjir] – 1. Tutdoshlar oilasiga mansub, sutsimon shirador, shapaloq bargli o'simlik. *Bir yomon anjir kesar, ikki yomon zanjir kesar.* (Maqol.) *Anjir O'zbekistonning hamma viloyatlarida o'sadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari».)

2. Shu daraxtning serurug', yeyishli mevasi. Qora anjir. Xoki anjir. Anjir qoqi. Anjir qiyom. *Agar kirsang bir kishining bog'iga, Qo'l uzatma anjir, uzum, nokiga.* («Qo'shiqlar».)

**Anjirzor** – nuqul anjir bilan band yer, bog'.

**Anjir shaftoli** – mevasi anjirga o'xshash shaftoli turi. **Anjir bo'lmoq** (yoki **anjiri chiqmoq**) – jismonan qattiq ezilmoq. *Avtobus tiqilinchida anjir bo'lgan odamni qanday o'ziga keltirsa bo'ladi.* («Askiya»dan.)

**Anker** – qishloq xo'jaligi mashinalarining yerga sanchiluvchan yoki ayrison ish organlarini anglatuvchi so'z.

**Anor** – 1. Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o'simlik. *...har joy-har joyda ko'milgan anor tuplari do'mbayib yotibdi.* (S. Zunnunova, «Olov».)

2. Shu daraxtning ichida qizil donalar bilan liq to'la yumaloq mevasi. *Achchiq*

*anor. Chuchuk anor. Anor suvi. Uchinchi kuni Hafiza olma, asal... anorlar bilan to'la setkani ...bir qizdan Umidga kiritib yubordi.* (Mirmuhsin, «Umid».)

3. Anor (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

**Anor daraxti** (*punica granatum L.*) – anordoshlar (*Punicaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1,5–5 m keladigan buta yoki daraxt. Markaziy Osiyo va Kavkaz tog'larining toshli qiyaliklarida o'sadi. Markaziy Osiyo, Kavkaz va Qrimda o'stiriladi. Tibbiyotda poyasi, shoxi va ildizining po'stlog'i hamda meva po'sti ishlatiladi. Po'stlog'i tarkibida alkaloidlar, oshlovchi moddalar, mevasi po'stida ko'p miqdorda oshlovchi modda va b. birikmalar bor. Anor po'stlog'ining preparatlari (qaynatma va **peltering** alkaloidi tuzlari) organizmdan tasmasimon gijjalarni haydash uchun, mevasi po'stlog'ining qaynatmasi ichketar va yaralarni davolashda qo'llaniladi. Mevasi po'stidan tanin, shirasidan limon kislotasi olinadi. Anorning nordon navlari mevasi tarkibida (shirasida) ko'p miqdorda limon kislotasi bor.

**Anordoshlar** – yopiq urug'lilar bo'limiga mansub o'simliklar oilasi.

**Anorganik** [yun. *an* – inkor qo'shimchasi + *organismus* – tirik mavjudot] – o'simlik yoki hayvonot olamiga mansub bo'lmagan, noorganik. Anorganik moddalar.

**Anorganik kimyo** – kimyoviy elementlar va ulardan hosil bo'lgan birikmalar haqidagi fan.

**Anormal** [yun. *a* – inkor qo'shimchasi + lot. *norma* – qoida, me'yor, rahbariy ko'rsatma] – normadan chetga chiqqan, normaga, umumiy qonuniyatga xilof, nonormal. *Anormal holat. Anormal hodisa. Anormal o'sish.*

**Anorzor** – faqat anor bilan band yer, bog'.

**Antagonistik reflekslar** – bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarshi reflekslar.

**Antekologiya** – o'simliklarning gulash va changlanish ekologiyasi.

**Antibioz** – bir guruh organizmlarning boshqa guruh organizmlarga salbiy ta'siri.

**Antibiotiklar** – boshqa mikroorganizmlarning hayot faoliyatini so'ndirish xususiyatiga ega bo'lgan mikroorganizmlar hosil qiluvchi biologik moddalar.

**Antifermentlar** – u yoki bu fermentlar ta'sirini susaytiruvchi spetsifik moddalar.

**Antigelmintiklar** – gijja tushiruvchi doru-darmonlar.

**Antigenlar** – organizm uchun yot moddalar, qon, limfa va to'qimalarda o'ziga xos globulinlar hosil qiladi.

**Antik** – kamdan kam uchraydigan noyob rangli sur qorako'l nomi.

**Antimutagenlar** – boshqa moddalar mutagen ta'sirining oldini oladigan yoki unga qarshi ta'sir etadigan moddalar.

**Antiseptika** – jarohlarni kasallik keltirib chiqaradigan mikroorganizmlarni o'ldiradigan kimyoviy vositalar (antiseptiklar) yordamida zararsizlantirish.

**Antitela** – bu maxsus oqsillar – immunoglobulinlar bo'lib, hayvon organizmida antigenlar ta'sirida paydo bo'ladi. Antitelolar zardob oqsillarining globulinlari bilan bog'liq bo'ladi, albuminlarda bo'lmaydi. Antitelo termolobil bo'lib, molekulyar og'irligi 150–900 kDa. Sobiq Ittifoq sog'liqni saqlash jamiyati immunologiya bo'limi xalqaro kommissiyasi tomonidan Pragada (1964) immunoglobulinlar beshta sinfga bo'lingan: *IgG*,

*IgM*, *IgA*, *IgE* va *IgD*. Ular qon zardobi globulinlari tarkibidagi miqdori, molekulyar og'irligi va boshqa belgilar bilan farq qiladi.

Antitelolarning asosiy xususiyati ularning maxsus o'ziga xosligidadir. Ya'ni, aynan ularni hosil qilgan antigenga ta'sir qiladi. Antigen bilan antiteloning o'zaro ta'siri natijasida antigen inaktivatsiyalanadi.

Antitelolar o'z antigeniga qanday ta'sir qilishiga qarab uchga bo'linadi: mikrobg qarshi, zaharga qarshi – antitoksinlar va hujayraga qarshi agglyutinlar hujayralarni (mikroblar, eritrotsitlar) yopishtiradi, antitoksinlar toksinlarni neytrallaydi, presepitinlar oqsilni koagulyatsiya qiladi, lizinlar mikrobg, eritrotsit va hokazolarni eritadi. Antitelolar organizmida 5–6 kundan keyin paydo bo'lib, bir necha oy davomida saqlanadi. Avval antitelolar ko'paya boshlaydi, 14–17 kundan keyin ko'payishi maksimum darajaga yetib, so'ngra ularning miqdori yana kamayadi. Antigen ta'sirida chuqur immunobiologik o'zgarishlar paydo bo'lib, oqibatda antitelo yo'q bo'lib ketgandan keyin ham organizm chidamli bo'lib qolaveradi. Antiteloning ko'payish tezligi antigenni yuborish joyiga bog'liq. Agar u tomir orqali yuborilsa, chidamlilik tez paydo bo'ladi. Antigenning sekin so'rilishi organizmida antiteloning uzoq saqlanishiga olib keladi. Shuning uchun antigen achchiqtosh, gidrookis aluminiy kabi deponentlar bilan yuboriladi. Hozirgi vaqtda passiv immunitet hosil qilish uchun qo'llash mumkin bo'lgan monoklonal antitelolar olingan. U kimyoviy toza moddalar bo'lib, tarkibida begona oqsil yo'q, shuning uchun oqsil kasali anafilaksiya va boshqa reaksiyalarning oldini oladi.

**Antitoksinlar** – organizmga zaharli moddalar (toksinlar) tushganda hosil boʻladigan va organizmning ulardan zararlanishining oldini oladigan alohida moddalar (antitelolar).

**Antotsiaslar** – oʻsimlikning hujayra shiralarida boʻladigan boʻyovchi moddalar. Koʻk, qizil, binafsha rang beradi.

**Antraknozlar** (*yun. anthrax* – koʻmir, *nosos* – kasallik) – oʻsimliklarning poya, barg va mevalarida *Gloeosporium*, *Colletotrichum* va *Kabatilla* urugʻlariga mansub parazit zamburugʻlar qoʻzgʻatadigan kasallik. Antraknoz kasalligi asosan donli, mevali, poliz ekinlari, beda, noʻxat, behi, olma, tok, anjir, yongʻoq, qovun, tarvuz, uzum, smorodina, malina, bodom, zigʻir, sitrus oʻsimliklar, choy va b.larda uchraydi. Oʻsimlikning deyarli barcha organlari – barg, meva, novda, ildiz qismlarini zararlaydi. Barg va tugunchalar toʻkilib ketadi, meva sifati keskin pasayadi. Antraknoz bilan kasallangan bargda qoramtir hoshiyali toʻgarak qoʻngʻir dogʻlar paydo boʻladi, novda va mevada paydo boʻlgan dogʻ usti botiq, pushtisimon gʻubor bilan qoplanadi, keyinchalik yoriladi, yara hosil qiladi, novdalarning yogʻ ochligi yemiriladi. *Kurash choralari*: oʻsimlikning kuchli zararlangan qismlari olib tashlanib yoqiladi; temir kuporosining 2–3% li eritmasi, 3% li bordo suyuqligi purkaladi.

**Antropofitlar** – odamlar yashaydigan yerlarda oʻsuvchi oʻsimliklar, masalan, madaniy oʻsimliklar, ekinlar va begona oʻtlar.

**Antropogen tuz toʻplanishi** – shoʻr yerlarni meʼyoridan ortiqcha sugʻorish, sugʻorish tarmoqlaridan filtrlanayotgan suv hisobiga minerallashtirgan sizot suvning koʻtarilishidan hamda shoʻr suv bilan ekinlarni sugʻorish oqibatida toʻplanayotgan tuzlar.

**Anvo (i)** [*a.* – navlar, xillar] – 1 *esk. kt.* Tur; turlar, jinslar.

2. Har xil, turli-tuman. *Ming anvo gullar ichidan yor koʻzini eslatuvchi nargisni uzib oldi.* (M. Ismoilij, «Fargʻona t. o.») *Shunday anvoi – turli fitna-fasodlarni koʻra-koʻra, bozorga yetdim.* (A. Qodiriy, «Kalvak mahzumning xotira daftaridan»)

**Anzur, piyozi anzur** – Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining togʻli hududlarida oʻsadigan koʻp yillik yovvoyi piyoz.

**Angʻirt** – gʻozsimonlar turkumining oʻrdaklar oilasiga mansub parranda.

**Angʻiz** – 1. Ekini oʻrib-yigʻib olingan yer, maydon. *Suvonjon... qir bagʻridagi angʻizga qoʻylarni yoyib yubordi-da, oʻzi ajriq ustiga yonboshladi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»)

2. Muayyan ekin oʻrib olingandan keyin uning dalada tikkayib qolgan poyasi. *Ahyonda bir beda angʻizida oʻtlab yurgan hoʻkiz va otlar koʻrinadi.* (A. Qodiriy, «Gʻirvonlik Mallavoy»).

**Angʻizga ekish** – shamol eroziyasiga chalingan tuproqlarda tavsiya qilinadi. Bunda poyalar ekinlarni himoya qiladi.

**Anchar, Zaqqum** (*Antlari stoxicaria*) **daraxti** – tutdoshlar oilasiga mansub daraxt. Asli vatani Malayya arxipelagidir. Sutsimon shirasida zaharli antiarin glyukozidi bor. Qadimda bu shiradan yoy oʻqini zaharlash uchun ishlatilgan.

**Aorta** [*yun. aorte < aeiro* – koʻtaraman] – *anat.* Yurakning chap qorinchasidan boshlanadigan eng katta tomir, shoxtomir. Undan tarqaladigan arteriyalar butun aʼzo va toʻqimalarni kislorodga boy qon bilan taʼminlaydi.

**Apeks** – poya yoki ildizning eng tepa qismi.

**Apelsin** [*goll. appelsien* – aynan «xi-toy olmasi»] – 1. Janub tomonlarda oʻsadigan doim yashil sitrus daraxt yoki buta.

2. Shu daraxtning po'sti to'q sariq, go'shti yupqa pardalar bilan karjlarga bo'lingan yumaloq yoki cho'zinchoq sersuv mevasi. *Apelsin, limon va mandarinning beholigiqobig'ida ifor moyi bo'lishligidir.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari».)

**Apilak, asalari suti** – ishchi asalari-larning beli va ko'krak qismidagi bezlarda ishlab chiqariladigan suyuqlikdan tayyorlanadigan oq yoki sarg'ish quruq kukun. Biologik stimulator xususiyati bor. Apilak tibbiyotda bolalarning gipotrofiya, kattalarning gipotoniya kasalliklarini hamda ayollardagi laktatsiya (sut hosil bo'lishi) ning buzilishini davolashda qo'llaniladi.

**Apomiksis** – erkak va urg'ochi jinsiy hujayralar qo'shilmadan, ya'ni urug'lanmasdan bo'ladigan ko'payish.

**Aposteriori** [lot. *a posteriori* – keyingidan, keyin turganidan] – *fls., mnt.* Tajribaga asoslangan, tajribadan kelib chiqadigan; *zid. apriori. Aposteriori mulohaza.*

**Apparat** [lot. *apparatus* – tayyorgarlik, jihaz; uskunalar] – 1. Muayyan bir ishni bajarish uchun xizmat qiladigan asbob, moslama, mexanizm va sh. k. ning umumiy nomi. Telefon apparati. Fotografiya apparati. *Hozir armiyamiz... radiotexnika va elektron-hisoblash apparatlariga... ega* («Fan va turmush».)

2 *fiziol.* Ma'lum vazifani bajaruvchi a'zolar majmui. Ko'rish apparati. Nafas olish apparati.

3. Boshqarma yoki xo'jalikning biror sohasiga xizmat qiladigan muassasalar majmui, mazkur muassasalarning xodimlari. *Davlat apparati. Partiya apparati. Boshqaruv apparatini qisqartirmoq. Rais (raqsogol), kotib va apparat xodimlariga noman, shahar budjeti mablag'lari hisobidan ham to'lanadi.* (Gazetadan.)

**Apriori** [lot. *a priori* – avval boshdan, avval turgandan] – *fls. mnt.* Tajribaga asoslanmagan, tajribadan olinmagan, tajribadan oldingi; *zid. aposteriori. Apriori da'vo.*

**Aprobatsiya** [lot. *approbation* – ma'qullash, tasdiqlash] – 1. Tahlil qilish, tekshirish, sinash va muhokama asosida rasmiy suratda ma'qullash. *O'quv dasturlarini aprobatsiya qilish.*

2 *q.x.* Ekin navining haqiqiylikini, nav sifatlarini aniqlash hamda urug'chilik qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish maqsadlarida tekshirish. Eng yaxshilarini urug'likka ajratish maqsadida ekinlarning hosili sifatini aniqlash. Bog'da, tokzorda navdor meva daraxtlari va tok tuplarini aniqlash usuli. Asosan toza navli va sog'lom ko'chat (qalamcha) tayyorlash, yetishtirilayotgan ko'chatlarning nav jihatdan tozaligini belgilash uchun o'tkaziladi. A. navlarni morfologik jihatdan aniq belgilash mumkin bo'lgan davrda (masalan, tokzorlarda avgustda) o'tkaziladi.

**Aprobatsiya qilish** – o'simliklarning genetik (nav) jihatdan qanchalik tozaligi, kasalliklarga, zararkunandalarga chidamliligi va ekishga mo'ljallangan urug'likning umumiy holatini aniqlash maqsadida dalada o'tkaziladigan tadqiqot.

**Aprobator** – turli ekinlarni sinash huquqiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik mutaxassisi.

**«Aqlli» qishloq xo'jaligi** (*smart agriculture*) – ekinlar hosildorligi va chorva mahsuldorligini ilm-fan yutuqlari, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tajribalarni qo'llash orqali sezilarli darajada oshirish, xarajatlarni kamaytirish asosida sohada ishni tashkil qilish va yuritish tizimi.

**Ar** [fr. *are* < lot. *area* – maydon, sath, yuza] – metr o'lchovi tizimida yuz kvad-

rat metrga teng yer o'lchov birligi, bir gektarning yuzdan bir qismi.

**Ar-ar II** [*a.* – archa] – **ar-ar terak**. Piramidasimon terak; shoterak. *Taxta ko'prikning narigi tomoni... yangi binolar bo'lib, oldilariga qator ar-ar teraklar ekanlar.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon».)

**Arabeska** – gazonlar va rabatkalarda mavhum shakldagi yoki murakkab tuzilgan gul, barglar, kapalak yoki arabcha yozuvlarni eslatuvchi shakllar bo'lib, favvoralar atrofida, haykallar oldida barpo etiladi. Ular asosan chiroyli gullovchi pakanagul va gilamsimon o'simliklardan barpo etiladi.

**Arabi** – qora rangli qorako'l qo'yi zoti. Qo'zilari qora rangda tug'iladi va bir yoshga kirganda jun qoplami rangida o'zgarish boshlanadi. Dastlab qizg'ishsariq, 2–3 yoshida esa och kulrang va oq rangga kiradi. Qorako'l qo'ylarining 90–95% ini arabi qo'ylari tashkil etadi. Sifatli, eng yaxshi teri beradi.

**Arabi ot** – salt miniladigan qadimiy ot zoti; xalq seleksiyasi yo'li bilan Arabiston yarim orolida milodiy 1-ming yillikda chiqarilgan. U cho'l sharoitiga yaxshi moslashgan, ochlik va suvsizlikka chidamli, uzoq masofaga yaxshi yuguradi. Bu zotning dunyodagi ot zotlarini yetishtirishda va takomillashtirishda juda katta ishtiroki bor. Ulardan mahalliy ot zotlarini yaxshilashda, ot sporti va sirk tomoshalarida foydalaniladi.

**Arabiston g'o'zasi, areyzian g'o'zasi** (*Gossypium areysianum* Deft.) – yovvoyi g'o'za turi. Genomi  $F_3$ , xromosomalar soni  $2p=26$ . Birinchi marta M.A. Deflers ta'riflab bergan. 1953-yildan o'rganilmoqda. U tik o'suvchi monopodial buta, bo'yi 3 m gacha yetadi, qurg'oqchilikka chidamli bo'lib, dengiz

sathidan 700–20000 m balandlikdagi juda issiq joylarda o'sadi.

**Arabidopsis** (*Arabidopsis pumila* (Steph) N. Busch.) – krestguldoshlar oilasiga mansub, bir yillik begona o't. Bo'yi 20–25 sm. Aprel boshidan may oxirigacha gullab, meva tugadi. Don ekinlari ichida, shuningdek tog' etagidagi tekisliklarda va tog' oldilaridagi beda maydonlarida o'sadi.

**Aralash ekinlar** – bir ekin maydonida bir vaqtning o'zida yetishtiriladigan ikki va undan ortiq xil q.x. ekinlari. Aralash ekinlardan bir turdagi ekinlarga qaraganda ancha yuqori hosil olinadi.

**Aralash yem** – ilmiy asoslangan re-tseptlar bo'yicha maydalangan turli ozuqalardan tayyorlangan aralashma. Aralash yem har xil yoshdagi chorva mollari va parrandalar uchun zavod hamda chorvachilik xo'jaliklarida tayyorlanadi. Yemga aminokislotalar, mikroelementlar, antibiotik va vitaminlarga boy moddalar qo'shib, uning umumiy biologik qimmatini ancha oshiriladi.

**Aralash o'tlar** – ko'p yillik va yillik dukkakli hamda donli o'simliklar bir necha turini aralash o'stirish.

**Aralash o'g'itlar, mineral o'g'itlar aralashmasi** – tarkibida ikki va undan ortiq oziq moddalari bo'lgan tayyor o'g'itlar aralashmasi.

**Aranjirovka-buket** – buket, vaza, savat, girlyanda va gulchambarlarda gullar va barglarning joylashishi.

**Araukariya** (*Araucaria*) – araukariyadoshlar oilasi, ninabarglilar sinfiga mansub, balandligi 50 metrgacha bo'lgan manzarali, doim yashil ninabargli daraxtlar turkumi. Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliyaning tropik o'rmonlarida 12 ta turi tarqalgan. Braziliya araukariyasi

(*A. brasiliensis*) manzarali daraxt sifatida va yog'ochi uchun ko'plab ekiladi.

**Arbich** (*cho'luq*) – cho'ponning yordamchisi, cho'ponlar brigadasiga ovqat tayyorlaydi, brigadaga birlashtirilgan ish hayvonlarini va itlarni boqadigan yordamchi ishchi. Arbich qo'ylarni sug'orishda yoki zaruratga qarab qo'ylarga suv taqdimlashda, ularni qo'tonlarga haydab kiritish va haydab chiqarishlarda yordamlaydi.

**Arbitraj** – 1) xo'jalik hakamlik sudi, sporat yoki boshqa turli tarmoqlardagi bahslarni sudga o'tkazmay hal qiluvchi idora;

2) bir paytning o'zida turli bozorlarda mavjud bo'lgan mollar, qimmatli qog'ozlar, valyuta va depozitlar narxlari yoki kurslari o'rtasidagi farqdan foyda ko'rish maqsadida amalga oshiriladigan operatsiyalar va bitimlar.

**Arboretum** – yer sharining turli mintaqalaridan keltirilgan daraxt-butalardan barpo etilgan dendrologik bog'. Unda asosan mahalliy sharoitlarga moslashgan, sovuqlardan zararlanmaydigan turlar ekiladi. Arboretumda daraxtlarni iqlimlashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi.

**Arboritsidlar** (*lot. arbor* – daraxt, *caedo* – o'ldiraman) – begona daraxt-butalarni yo'qotishda qo'llaniladigan kimyoviy yoki biologik preparatlar. Gerbitsidlar guruhiga kiradi. Arboritsidlar yaylov va pichanzorlarda hamda yangi yerlarni o'zlashtirishda nokerak daraxtlar, tikanli butalarni ildizi bilan quritishda qo'llaniladi.

**Ardenna ot zoti** – og'ir yuk tortuvchi ot zoti. Belgiyaning janubiy va Fransiyaning shimoli-sharqidagi Ardenna tog'li rayonida (nomi shundan) chiqarilgan. Ardenna ot zotining tirik vazni 600–700

kg, balandligi 148–160 sm, ko'krak aylanasi 190–210 sm, pochasing yo'g'onligi 20–23 sm atrofida. Rossiyaga XIX asrning o'rtalarida keltirilgan. Ardenna ot zoti asosida rus og'ir yuk tortuvchi ot zoti hamda Boltiqbo'yi ot zoti yaratilgan. Avstriya, Vengriya, Argentina, Chilida ham boqiladi. Ardenna ot zoti tez yetiluvchan, shuningdek o'ta chidamli, ozuqa tanlamaydigan otlardan hisoblanadi.

**Ardob** [*f. – suv*] – 1. Mollarga ichirish uchun suvga un solib tayyorlangan ozuqa.

2 *ko'chma*. Undan, dondan pishiriladigan yog'siz suyuq ovqat.

**Areal** [*lot. area* – maydon, makon] – o'simlik yoki hayvonlarning biror turi, turkumi yoki oilasi tarqalgan hudud. Yaxlit (yalpi) areal va ajralgan (bo'lingan) areal farqlanadi. Agar bir arealdagi o'simliklarning turlari bir tekis, o'z hayotiga qulayroq joylarda ko'p uchrasa – yaxlit areal; yaxlit areal ikki yoki undan ortiq zonalarga bo'linsa – ajralgan areal paydo bo'ladi.

**Areometr** [*yun. araios* – zich bo'lmagan, bo'sh; *suyuq + metreo* – o'lchayman] – suyuqlik va sochiluvchan qattiq jismlarning zichligini o'lchaydigan asbob.

**Argument** [*lot. argumentum* – yaqqol isbot, aniq dalil] – 1. Fikr, da'vo va sh. k. ni isbotlash uchun asos, dalil.

2 *mat.* Erkin o'zgaruvchi miqdor.

**Ari** – pardaqaotli hasharotlarning yirtqich va chaqadigan bir turi. Sariq ari. Tukli ari. Qizil ari. Qovoq ari. *Yomon arida bol bo'lmas, suvsiz yerda tol bo'lmas.* (Maqol.) *Ari beshiktervatarni chaqib falaj qiladi.* («Fan va turmush».)

**Arid iqlim** – havo temperaturasi yuqori bo'lgan va yog'in deyarli yog'maydigan yoki kam yog'adigan (yiliga 100–150 mm) quruq iqlim.

**Aridlashish** – cho‘l va chala cho‘l zonalarida iqlimning quruqlashish fazalari; muzlik bosgan o‘lkalardan tashqarida, antropogen davrida muzlanishga uchragan, taxminan muzlanishlararo oblastlariga to‘g‘ri keladi.

**Arid tuproq** (*lot. aridus* – quruq, qurg‘oqchil) – bug‘lanadigan namlik miqdori yog‘inlar miqdoridan ortiq bo‘lgan cho‘l va chala cho‘l zonasiga mansub kamunum tuproq.

**Ariq** – 1. Sun‘iy ravishda hosil qilingan suv yo‘li, o‘zani va undagi suv. *Bir odam ariq qaziydi, ko‘p odam suv ichadi.* (Maqol.) *Otang mirob bo‘lsa ham, ariqni tozalab suv ich.* (Maqol.)

**Ariq oqsoqol** – *tar.* Turkistonda XIX asrda qishloq mirobi. *Bu kishi [Madamin] qishloqning mirobi bo‘lib, ko‘pchilik bu odamni «Ariq oqsoqol» der edi.* (P. Tur-sun, «O‘qituvchi».)

2. Ekin ekish va sug‘orish uchun ekin maydonida tortilgan maxsus suv yo‘li – *jo‘yak.*

3. Ekin maydonida jo‘yaklarga suv tarqatish uchun olingan markaziy ariq – *o‘q ariq.*

**Ariqcha** – 1. Kichkina ariq, jilg‘a (cha). *Sahnga did bilan rang-barang gullar ekilibdi, ariqchada o‘rta barmoqday suv erinchoqlik bilan ... oqib turibdi.* (M. Ismoilij, «Farg‘ona t. o.»)

2 *tex.* Turli detallarning ariqchasimon o‘yilgan yeri. *Porshen halqasining ariqchasi.*

**Arjanas** (*Phleum L.*) (*qirg‘izcha*) – boshqodoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘t o‘simliklar turkumi. MDHda bu o‘simlikning 11 turi o‘sadi. Ulardan 5 turi O‘zbekistonning tog‘li tumanlarida o‘sib, qimmatli yem-xashak o‘simligi hisoblanadi. O‘rmon zonasida juda keng tarqalgan.

**Arkoni (y)** – qovunning shirin bir navi. ...*bozorga tushgan qovunxo‘rlar bu lazzatli ne‘matlarning umrvoqi, arkoni kabi nomlarini hamma vaqt ham bilavermaydilar.* («Fan va turmush».)

**Arman yarim dag‘al junli qo‘y zoti** – bu zot 2 bosqichda yaratilgan: birinchidan, balbas zotining dag‘al junli qo‘ylari Linkoln zotli qo‘chqorlar bilan ko‘paytirish orqali; ikkinchidan, aragat zotli qo‘ylar guruhi balbas zotining sof zotli qo‘chqorlari bilan chatishtirish orqali olingan va 1984-yilda zot deb tasdiqlangan. Qo‘chqorlarning tirik vazni 80–90 kg, urg‘ochilari 50–55 kg. Qo‘chqordan 2,5–3,5 kg, urg‘ochilaridan 1,5–1,9 kg jun qirqib olingan. Qo‘chqorlarda jun tolalarining uzunligi 16–20 sm, urg‘ochilarida 14–18 sm. Qo‘ylarning sut mahsuldorligi laktatsiya davrida 100–120 l, suti yog‘li.

**Arna** – 1. Ba‘zi shevalarda (mas. Xorazm shevasida) – bosh kanal.

2. Ba‘zi shevalarda (Jizzax shevasida) – kichik jar. *Arna kelsa irg‘iydi, o‘r kelsa o‘rmaydi, Shunday hakim yo‘l tortdi.* («Alpomish».)

3. Shimoliy o‘zbek shevalarida (Qozog‘istonda) – daryo o‘zani, quruq o‘zan.

**Arpa** – g‘alladoshlar oilasiga mansub, doni ovqatga va yem sifatida ishlatiladigan bir va ko‘p yillik g‘alla o‘simligi va uning doni, g‘allasi. *Arpa ekan arpa olar, bug‘doy ekan bug‘doy olar.* (Maqol.) *Arpa qayerda pishsa, chumchuq o‘sha yerda.* (Maqol.) *Sopollitepaliklar, ko‘pincha, bug‘doy, arpa va tariqdan tayyorlangan atala iste‘mol qilishgani aniqlandi.* («Fan va turmush».)

**Arpabodiyon** – urug‘i, mevasida asosan efir moyi, shuningdek, oqsil va boshqa moddalar bo‘lgan, ziradoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. *So‘ngra arpa-*

*bodiyonni tuyib yoki kaft orasida uqalab, dimlamaga va lag'mon vajusiga solinadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari».)

**Arpapoya** – 1. Arpa ekilgan yer, maydon. 2. Arpa o'simligining poyasi.

**Arpog'on** – bug'doydoshlar oilasiga mansub, cho'lda va adirlarda o'sadigan past bo'yli bir yillik o'simliklar turkumi. [Bobo] *Qo'ylarning arpog'on... kabi o'tlarni talashib-tortishib yeyishlarini davq qilib kuzatdi.* (S. Qo'chqorbekov, «Cho'pon Ro'zi baxshi».)

**Arrenotokiya** – parteno-genetik ko'payish, bunda faqat erkak hayvonlar avlodini tug'iladi.

**Arqon** – zig'ir, kanop poyasi tolalardan. ipdan yoki jundan eshib tayyorlangan, bog'lash uchun ishlatiladigan buyum; arg'amchi. Qil arqon. Jun arqon. Kanop arqon. *Ilon chaqqan ola arqondan qo'rqadi.* (Maqol.) *Matpano shuni o'ylab, arqonni omocho dastasiga chirmadi.* (S. Siyoyev, «Avaz».)

**Arteziyan** [fr. *artesian* – Fransiyadagi Artua (lot. *Artesium*) viloyati nomidan], **arteziyan suvlari** – bosim ta'sirida bo'lgan yer osti suvlari. Ular suv o'tkazmaydigan qatlamlar oralig'ida hosil bo'ladi. Burg'ulab ochilganda (burg'u quduqlardan) suv chiqadi.

**Arteziyan quduq** – burg'ulab kavlangan teran quduq; burg'u quduq. *Oyqiz bo'yerlarda arteziyan quduqlari qazilayotganini yaxshi biladi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»)

**Arslonquyruq** (*Leonurus L.*) – yasabkadoshlar (labguldoshlar) [*Lamiaceae* (*Labiatae*)] oilasiga mansub, bo'yi 50–150 (200) sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simliklar turkumi. Tibbiyotda ikki turining yer ustki qismi ishlatiladi: *P. pyatile-*

*pestnoy* (*L. quinquelobatus Gilib.*) – besh bargli arslonquyruq va *P. obiknovenniy* (*serdechniy*) (*L. cardiaca L.*) – oddiy arslonquyruq. O'simlik turlari Rossiyaning Yevropa qismi, Kavkazning aholi yashaydigan joylariga yaqin yerlarda, bo'sh yotgan va tashlandiq joylar, ekinzorlar va boshqa yerlarda o'sadi. Yer ustki qismi tarkibida flavonoidlar, alkaloidlar, efir moyi, vitamin S, karotin, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Dori preparatlari – damlamasi va surtmasi tinchlantiruvchi vosita sifatida qon bosimini oshishi, asabiylashish va yurak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Markaziy Osiyo xalq tabobatida arslonquyruqning yana bir turi *P. turkestanский* (*L. turkestanicus V. Krecz. ef Kupr.*) – Turkiston arslonquyruq'ining yer ustki qaynatmasi yurak va me'da kasalliklarini davolashda hamda nerv sistemasi kasalligida tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. O'simlik tog'li nohiyalarning o'rta qismidagi toshloq va tuproqli qiyaliklarida o'sadi. Tarkibida flavonoidlar, alkaloidlar, efir moyi, saponinlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yer ustki qismining surtmasi tinchlantiruvchi va qon bosimini pasaytiruvchi ta'sirga ega ekanligi aniqlangan. Ilmiy tibbiyotda ishlatishga tavsiya qilingan.

**Artishok** – murakkabguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik sabzavot o'simligi; juda sershox bo'lib, bo'yi 2 m gacha boradi. Barglari yirik patsimon, kertikli bo'lib, uning ost tomoni kigizsimon tuklar bilan qoplangan. Gullari ko'k-binafsha rangli bo'lib, yirik savatcha to'pgul hosil qiladi. Seret gulbandi ovqatga ishlatiladi. Artishok ochiq yerda qishlab, 2–4 yil ichida hosil beradi.

**Arundo** – qamishlar toifasiga mansub g'allagulli o'simlik. Asosan, issiq mamlakatlarda o'sadi. Undan turli narsa-



lar to'qish mumkin, shuningdek musiqa asboblari tayyorlashda ham foydalaniladi.

**Arxar** – juft tuyoqlilar turkumiga mansub yovvoyi qo'ylarning umumiy nomi; alqor tog' qo'yi. *Mehmon o'z nasibasi bilan keladi, xo'jayin. Bugun ertalab bitta arxar otib edim!* (S. Anorboyev, «Oqsoy».) *Baland tog' yaylovlarida yashaydigan arxarlarning g'alati bir odati bor.* («Fan va turmush».)

**Arxeofitlar** – qadim zamonlardan beri odamlarning yo'ldoshi bo'lib kelgan o'simliklar, masalan, tut, tok, arpa, bug'doy kabi.

**Arg'umoq, arg'umoq ot** – zotli chopqir otlarga berilgan umumiy nom. ... *baxmal yopqichli arg'umoqlar ko'kka sapchiydi.* (S. Siyoyev, «Avaz»). *Ostimda o'ynaydi arg'umoq otim.* («Malikayi ayvor».)

**Arshin** – 1. Metrik sistema joriy qilinganga qadar qo'llangan uzunlik o'lchov birligi (0,71 metr ga teng).

2. Shu uzunlikdagi o'lchov asbobi; gaz, gazcho'p.

**Archa** – 1. Sarvdoshlar oilasiga mansub, doim yashil buta yoki daraxtlar turkumi. *Chinor chirimas, archa qurimas.* (Maqol.)

2 ayn. qoraqarag'ay.

3. Shu daraxtning yangi yil kunlarida kesib olib bezatilgan shoxi yoki tupi. Archa yasatmoq. Archa bayrami. Bezatilgan archa atrofida o'tkaziladigan bolalar bayrami. *Qishloq maktabida va uylarda archa bayrami o'tkazishni odat qilgan kishi ham shu edi.* (H. Nazir, «Yonar daryo»)

**Archazor** – ...archa bilan band yer, maydon. *Ko'ksoy o'zanidan ko'tarilayotgan quyuq tuman... archazor ustiga salobat bilan bostirib bormoqda.* (S. Anorboyev, «Oqsoy».)

**Asal** – 1. O'simliklar gulidagi shira (nektar)ning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo'ladigan shirin, suyuq oziq mahsuloti. *Mehnat qilib topganing – qand-u asal totganing.* (Maqol) ... *kuniga uch mahal bir stakanga bir osh qoshiqdan asal aralashtirib ichgan ma'qul.* («Saodat».)

2 *ko'chma.* Juda shirin narsa haqida. *Kuz oylari boshlanishida bu yerda hovli atrofidagi yetinqiragan mevalar, so'ridagi husayni uzumlardan asal tomib turadi.* (Tuyg'un, «Do'stlik sevinchlari»). *Ha, o'zimiznikidan: Qorabuloqning... suvini ichadi-yu, asal bo'lib ketmaydimi?* (M. Ismoilov, «Farg'ona t. o.»)

3. Asal (xotin-qizlar ismi).

**Asalari** – o'simliklar nektarini yig'ib, asalga aylantiruvchi ari. *Asalari o'zining halokati bilan atrof-muhit zararlanganligi haqida tashvishli xabar beradi.* («Fan va turmush».)

**Asalarichi** – asal olish uchun asalari urchitish, uni parvarish qilish bilan shug'ullanuvchi shaxs; asalarichilik mutaxassisi.

**Asalarichilik** – qishloq xo'jaligining asal olish uchun asalari urchitish va uni parvarish qilish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. *Yantoq qishloq xo'jaligida yemxashak sifatida ishlatilishi bilan birga, asalarichilikda ham asqatadi.* («Fan va turmush».)

**Asalari ona suti** – oq rangli quyuq modda. Tarkibida oqsil, yog', qandlar, tuzlar, vitaminlar: B1, B2, B6, B12, E va RR, biotin, pantoten va foliy kislotalar, asetilxolin, niatsin moddalar hamda gormonlar bor. Apilak dori preparati yosh bolalar organizmi darmonsizlanganda, ishtahasi pasayganda, kattalarda gipotoniya (qon bosimi pasayishi) va ba'zi asab

kasalliklarini davolashda, ayollar tuqqanidan so'ng suti kamayib ketgan hollarda uni ko'paytirish uchun qo'llaniladi.

**Asalari yelimi (propolis)** – yashil qo'ng'ir yoki to'q qo'ng'ir rangli, o'ziga xos hidli, o'tkir mazali, suvda erimay, spirtda eriydigan, zich yoki yumshoq va yopishqoq massa. Asalarilar buni terak, qayin, qarag'ay va boshqa o'simliklar kurtaklaridan yig'adi va uni yashikning devorlaridagi teshiklarini berkitishga ishlatadi. Propolis smola, balzam, mum, efir moyi va gul changidan tarkib topgan bo'lib, unda vitaminlar, xushbo'y kislotalar, kumarinlar, flavonoidlar, polisaxaridlar va boshqa moddalar bor. Stomatologiyada milk va og'iz bo'shlig'ining yallig'lanish kasalliklarida hamda surunkali ekzema, neyrodermitlar, qichishadigan dermatozlar va uzoq bitmaydigan yaralarni davolashda qo'llaniladi.

**Asalari zahari (yad pcheliniy)** – asalarining zahar ishlab chiqaruvchi bezida to'planadi. U tiniq, asal hidiga o'xshash hidga, achchiq, o'tkir mazaga va kislotasiz sharoitga ega modda. Tarkibida oqsil moddalar, xolin, gistamin, triptofan, efir moyi, chumoli kislotasi, xlorid va ortofosfat kislotalar; magniy fosfat, ferment moddalar bor. Dori preparatlari – «Apisar», «Apizartrop», «Virapin» surtmasi bo'lib, poliartrit, trofik yara, chipqon, mushaklar shamollashi (miozit), tromboflebit, endoarterit, astma, bosh og'rig'i (migren), paradontoz kasalliklarini davolashda og'rikan yerga surtiladi yoki inyeksiya qilinadi.

**Asbob** [a. – sabablar] – umuman, faoliyatda ishga solinadigan, faoliyat uchun ishlatiladigan narsalar: qurol-yarog', mashinalar, zang'or buyumlari va b. *Urush asboblari. Qishloq xo'jaligi asboblari. Durad-*

*gorlik asboblari. Cholg'u asboblari. Jarrohlik asboblari. Kosibchilik asboblari. Isitish asboblari.*

**Asbob-anjom** [asbob + f. – oxir, oqibat; ijro] – asbob va anjomlar majmui. *Uning o'z ta'rificha, bu so'zlar ilgari bizning hayotimizda mutlaqo bo'lmay, endigina ommalashayotgan fanlar va texnika qurollari, buyum va asbob-anjomlarning o'zbekcha atamasi edi.* (P.Tursun, «O'qituvchi».)

**Asfiksiya** – organizmning holati, to'qimalarga yetarli miqdorda kislorod yetib bormasligi va karbonat angidrid miqdorining ortib ketishi bilan xarakterlanadi. Hayvonlar bo'g'ilib o'lganda asfiksiya ro'y beradi.

**Asil** [a. – naslli, zotli] – 1. A'lo sifatli, eng yaxshi; toza, sof (qalbaki, past emas). *Asil mol. Asil shoyi. Asil buyum. Asil aynimas, aynisa ham chirimas.* (Maqol.) *Oyoqqa chulg'ov qilsang ham, asil ipak bo'z bo'lmas, deb shuni aytadi.* (A. Muxtor, «Kumush tola») *Kep qoling, lalmi qovun, marmar tarvuz... sabzining asili.* (Gazetadan.)

**Askaniya qo'y zoti** – mahalliy merinos sovliqlarini Amerika rambule qo'chqorlariga chatishtirish yo'li bilan yaratilgan. Qo'chqorlarining tirik vazni 110–140, sovliqlariniki 60–65 kg, qo'chqorlaridan 10–12, sovliqlaridan 5,5–7 kg jun olinadi. Juni asosan 64% sifatli, tolasining uzunligi 7–8 sm. 40–45% sof tola chiqadi. Serpusht – 100 ta ona qo'ydan 140–160 ta qo'zi olinadi.

**Asl** [a. – kelib chiqish] – ot 1. Kelib chiqishi, kelib chiqish e'tibori bilan qarashlilik; nasli, tagi. *Men aslimni, cho'pon, senga aytayin, Ko'hi Qofda Oysha pari bolasi.* («Oysuluv».) *Madaminning asli kimligini, Tojiboy uni qa-*

*chondan tanishini surishtirdi.* (P.Tursun, «O'qituvchi»)

2. Kelib chiqqan (asos) joyi.
3. Yaratilishdagi, bosh, dastlabki.
- 4 *sft.* Chin, chinakam, haqiqiy.

**Asosiy o'g'it** – ekinlar ekilishidan oldin tuproqqa solinadigan o'g'it. Asosiy deb atalishining sababi shuki, uning tarkibida ayni uchastkaga mo'ljallangan oziq moddalarning ko'p qismi bo'ladi. Asosiy o'g'it butun vegetatsiya davrida o'simlikning oziqlanishini ta'minlaydi.

**Asov** – 1. Rom bo'lmagan, odamga o'rganmagan, yuvosh tortmagan. Asov tuya. *Kulgi uchun bo'lsa kerak, noib... uni asov bir otga mindirgan edi.* (S. Ayniy, «Sudxo'rning o'limi»). *Cho'lga o'rgangan asov qo'y og'ilni buzib yuborguday tipirchilardi.* (S.Ahmad, «Qadrton dalalar»).

2 *ko'chma.* Inson irodasiga bo'ysindirilmagan, jilovlanmagan (tabiat kuchlari haqida). *Norin. Sho'x daryo, asov daryo. Tutqich bermas telba daryo.* (N. Safarov, «Olovli izlar».)

**Asov ot** – hali minilmagan, jilovlanmagan ot. *Aka, otingiz mingimi yoki asovmi. Mol bozorlarda ehtiyot bo'linglar, ot asov, tepib olishi mumkin.*

**Asp** [f. – ot] – 1 *shv.* Ot. *Maydonda o'ynatgin asp-u tozingni.* («Ravshan».)

2 *shaxm.* Ot shaklidagi sipoh; ot – aspni yurmoq.

3 *ayn. ot II 2.* Uning yili asp.

**Assimilatsiya** [lot. *assimilation* – o'xshatish, qiyos, tenglashtirish] – 1 *biol.* O'simlik yoki jonivor organizmi faoliyati jarayonida tashqaridan qabul qilingan moddalarning o'zlashishi, singishi, hazm bo'lishi; o'zlashtirilishi, singdirilishi, hazm qilinishi.

2. Bir xalq (yoki uning bir qismi) ning boshqa bir xalq urf-odatlarini, madaniyati

va tilini o'zlashtirib, o'z tili, madaniyati va milliy ongini yo'qotishi natijasida o'sha xalqqa qo'shilib ketishi.

3 *tlsh.* Bir tovushning boshqa bir tovush ta'sirida o'xshashlik (bir xillik) tomon o'zgarishi. Masalan: oshshi – oshni, tussiz – tuzsiz.

**Assimilatsion va suruvchi yuzalarning ko'payish (o'sish) fazasi** – bu bir yillik ekinlarda shu davrning birinchi va yagona fazasi bo'lib, g'uncha va tuk gullar ko'rinishi, ikki yilliklarda esa jamg'arma qismlar shakllana boshlashi bilan cheklanadi. Bu paytda fotosintez jadal boradi.

**Astragal** (*astragalus L.*) – dukkadoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub, bir yoki ko'p yillik o't hamda butalar. Tibbiyotda bir qancha turlari ishlatiladi: **A. voylochnovetvisti**y (*A. pileocladus Freyn et Sint.*) – paxmoq shoxli astragal; **A. melkogolovchati**y (*A. microcephalus Willd.*) – maydabosh astragal. Bular Turkmaniston, Armaniston, Ozarbayjon va O'zbekiston janubidagi tog'li hududlarda o'sadi. Ularning poyasi va shoxlaridan yelim (kamed) olinadi. Yelimi tabletka, emulsiya dori shakllari tayyorlashda arab yelimi (gummiarabik) o'rnida ishlatiladi. **A. serpododni**y (*A. falcatus Lam.*) – o'roqsimon mevali astragal. Bo'yi 40–100 sm gacha yetadigan ko'p yillik o't. Kavkazdagi keng bargli o'rmon-o'tloqlar, cho'llar, butazorlar, daryo bo'ylari, tog'larning yuqori qismigacha bo'lgan yerlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida flavonoidlar (robinin), kumarinlar, triterpenoidlar, fenol karbon kislotalar bor. Yer ustki qismidan flaronin preparati (asosan robinindan tashkil topgan) olinadi. Bu preparat buyrak kasalliklari (azotemiya)ni davolashda qo'llaniladi. **A. sherstistosvetkovi**y (*A. dasyanthus Pall.*) – sertuk gulli

astragal. Ukraina janubidagi cho'lllarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida glitsirizin va triterpen saponinlar, flavonoidlar bor. Damlamasi yurak-tomir tizimi, gipertoniya va nefrit kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

**Astraxan baktriani** – ikki o'rkachli tuya zoti. Vatani Markaziy Osiyo. Yelka qirrasining balandligi 180, to'shining yerdan balandligi 96, ko'krak aylanasi 229,5, pochka aylanasi 20 sm.

**Astraxan zot qoramol** – go'sht yo'nalishidagi zot. Buqalarining tirik vazni 800–900, sigirlariniki 450–500 kg. 1200–1800 l sut sog'ib olinadi. Sutining yog'liligi 4,2–4,7%. Astraxan, Rostov, Volgograd viloyatlari va boshqa joylarda ko'paytiriladi.

**Astur** – hozirgacha ishlab chiqarilgan biologik preparatlarning yangi avlodi hisoblanadi. Butun Rossiya qishloq xo'jalik mikrobiologiya ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari tomonidan asporogenli shtammi (*Bac.th.subspecia kurstaki*) asosida olingan. Asosan shifobaxsh dorivor o't o'simliklarning zararkunandalariga, ya'ni o'tloq parvonasi, karam qurti va simqurtga qarshi kurashda keng ko'lamda ishlatiladi va gektariga 2–3 kg dan sarflanadi.

**Atan** – qishga asraladigan uzumni osib qo'yish uchun ship ostiga qurilgan maxsus dor, yog'och. *Ishkomlar yoqurilgan qazina, qirg besh nom uzum(lar) ostigan atan.* (G'. G'ulom).

**Atavizm** – organizmda uzoq avlod avlodlarga xos belgi va xususiyatlarning paydo bo'lishi.

**Atirgul** – ra'nodoshlar turkumining aqshmanzara o'simlik sifatida ekiladigan bir qancha turining umumiy nomi. *Bu turning ikki chetiga atirgul emas, bir turlar mirzaterak o'tqazilgan.* (S. Zunnunova, «Olov».)

**Atlas** [yun. *Atlas* – mifologiyada Liiviya podshosining nomidan; go'yo u birinchi bo'lib osmon globusini yaratgan emish] – 1. Muayyan maqsadlarda va muayyan tizim asosida tanlab olingan kartalardan iborat bo'lgan va tushuntirish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to'plam. Geografik atlas.

2. Inson a'zolari, hayvonlar, o'simliklar, turli mexanizmlarning qismlari tasviri tushirilgan va albom shaklida nashr etilgan to'plam. *Anatomik atlas. Botanika atlas. Zoologiya atlas.*

**Atmosfera** [yun. *atmos* – nafas; bug'; havo + *sphaira* – shar] – 1. Yerni va boshqa ba'zi planetalarni o'rab turgan gazsimon qobiq. Yer atmosferasi. Quyosh atmosferasi. Atmosfera bosimi. *Binobarin, atmosferani pokiza tutmoq uchun barcha davlatlar hamjihat ish olib borishlari lozim.* («Fan va turmush».)

2 *fiz., tex.* Bosim o'lchov birligi.

**Atrofiya** [yun. *atrophia* – kam oziqlanish; so'lish, ozish] – to'qimalar oziqlanishining buzilishi natijasida a'zolarining kichrayib, hujayralar sifatining o'zgarishi.

**Auksion** – ba'zi mollarni (mo'yna, qorako'l terisi, hayvonlar va b.) kimoshdi savdosi bilan sotish, ya'ni kim eng katta narx qo'ysa, molni o'sha oladi.

**Autbridning** – bir-biriga irsiy jihatdan yaqin (qarindosh) bo'lmagan organizmlarni chatishtirish.

Chorvachilikda autbridningdan maqsad ba'zi bir qondosh hayvonlarda uchraydigan nuqsonlar (hayvon tana tuzilishi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, rezistentlikning pasayishi va h.k. lar)ni yo'qotishda qo'llaniladi. A. avvaldan rejalashtirilgan, yaxshilanishi zarur bo'lgan belgilarni inobatga olgan holda bajariladi. Har xil ekologik zonalardagi bir zotga mansub, lekin

qarindosh bo'lmagan hayvonlarni urchitish ularning hayotchanligini oshirishda yaxshi samara beradi. O'zbekistonda autbriding naslchilik boshqarmalari va inspeksiyalari rahbarligida naslli mollar va ularning urug'idan foydalanish yoki xo'jaliklarda nasldor erkak hayvonlarni almashtirish orqali amalga oshiriladi. Autbriding faqat sof holda urchitiladigan hayvonlarni ko'paytirishda qo'llaniladi.

**Avans** [fr. *avance*] – bir jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan boshqasiga kelgusida to'lanadigan haq hisobidan oldindan beriladigan pul miqdori. *Avans bermoq*.

**Avirulentlik** – ma'lum bir turdagi o'simlik (nav)ning hasharotlarga nisbatan kasallik qo'zg'ata olmaslik xossasi.

**Avitaminoz kasalligi** – bunda har xil organlarning epiteliy to'qimalari zararlanadi, natijada hayvonning ko'zi, nafas olish, ovqatlanish va ko'payish organlari kasallanadi. Bunday hollarda yosh hayvonlar yomon o'sadi, kattalarining mahsuldorligi va nasl berish qobiliyati pasayib ketadi.

**Avitellinozlar** (*Avitellinoses*) – avitellina urug'iga mansub tasmasimon chuvalchanglar keltirib chiqaradigan kasalliklar guruhi. Avitellinozlar qo'ylar (ayniqsa, qo'zilar) va tuyalar orasida uchraydi. Chorva mollarining avitellinoz bilan zararlanishi va qirilishi bahor hamda kuz fasllarida ayniqsa kuchayadi. Avitellinoz bilan zararlangan mollarda kasallik alomatlarini to'satdan paydo bo'ladi. Hayvon gandaraklaydi, boshini orqaga tashlaydi, tomiri tortishadi, tishini g'ijirlatadi, ba'zan ichi ketadi. Avitellinozlar borligi shubha qilingan xo'jaliklarda hayvonlar veterinariya xodimlari ko'rsatmasiga muvofiq degelmintizatsiya qilinadi.

**Avizo** [*ital. avviso* < *lot. avis* – qush] – bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob muomalalarining bajarilganligi to'g'risida bir ahdlashuvchi tomonning ikkinchisiga yuboradigan rasmiy xabarnomasi.

**Avliyoota qoramol zoti** – sut uchun boqiladigan zot. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qirg'izistonning Talas vodiysi va Qozog'istonning Avliyoota uyezdi (hozirgi Jambul viloyati)da jaydari zotlarni golland qoramol zoti bilan chatishtirishdan olingan avlodlarni o'zaro urchitish yo'li bilan yaratilgan. 1950-yilda Avliyoota qoramol zoti rasman tasdiqlangan. Avliyoota qoramol zoti asosan ola, ba'zan qora. Buqalarining tirik vazni 800–950 kg, sigirlariniki 450–530 kg. Bir yilda 3000–3800 l, ba'zilar 8000 l gacha sut beradi. Sutining yog'liligi 3,7–3,8%. Tog' yaylovlarida boqishga moslashgan, issiqqa va qon parazit kasalliklari (teylorioz, piroplazmoz)ga chidamli. Umumiy soni 300 ming boshga yaqin. Asosan Qirg'iziston va Qozog'istonda, O'zbekistonning Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida boqiladi.

**Avokado, alligator noki** (*Persea*) – lavrdoshlarga mansub doim yashil daraxtlar turkumiga kiradi. Gullari oq, ikki jinsli. Ko'kimtir-qizil tusli (bir urug'li) noksimon meva hosil qiladi. Mevasi 250–600 g bo'lib, tarkibida 30% gacha moy va 1,5–4% gacha oqsil bor. Pishgan mevasi yeyiladi. MDHning subtropik mintaqalarida, jumladan, Qora dengiz atroflarida o'sadi, Gruziyada ham hozirgi vaqtda ekilmoqda. O'zbekistonda hozirgacha ekilmagan. Bir tupidan 50 kg gacha, 1 ga maydondan esa 16 tonnagacha hosil olish mumkin.

**Avron** – ayn. **toshqin**. *Ilgari bu joy sakkiz ariqning bosh labgardoni edi. Av-*

ron kelgan vaqtlarda suvni ariqlarga taqsimlash katta mojarolar bilan o'tardi. (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**Avtofertil** (*yunoncha autos* – o'z-o'zini+*lotincha fertilis* – unumdor) – o'simliklarning o'z-o'zini changlatish paytida normal urug'larni hosil qilish qobiliyati.

**Avstraliya merinosi** – mayin junli qo'ylar zoti. Avstraliyada yetishtirilgan. Qo'chqorlarining tirik vazni 75–85, sovliqlarini 40–45 kg. Qo'chqorlaridan 8 kg gacha, sovliqlaridan 4,5 kg gacha jun olinadi. Junining sifati 64–70%. Uzunligi 8–9 sm. Sof jun chiqimi 50–55%. Junining sifatiga qarab Avstraliya merinoslari 3 tipga bo'linadi: (juni 70–80% sifatli va undan yuqori); medium (juni 64–66% sifatli) va strong tipi (juni 60–58% sifatli).

**Avtofertil o'simliklar** – o'zidan meva beruvchi, o'z changi bilan changlanganda normal meva va urug' beruvchi o'simliklar. O'zidan meva beruvchilarga bog'doy, arpa, suli, tariq, pomidor kabi o'simliklar kiradi.

**Avtogamiya** – bu o'z-o'zini changlantirish tufayli o'zini urug'lantirishdir.

**Avtoliz, autoliz** (*avto...* va *yun. lisis* – yemirilish, parchalanish) – o'simlik yoki hayvon organizmidagi to'qimalarning o'z-o'zidan parchalanishi. Avtoliz organizmidagi oqsil, uglevod, yog' kabi murakkab moddalarning turli fermentlar ta'sirida parchalanishi tufayli sodir bo'ladi. Avtolizda, asosan o'lgan organizmdagi to'qimalar yemiriladi yoki tirik organizmning ba'zi a'zolaridagi to'qimalardan ma'lum bir qismi biror sababga ko'ra (mas., xavfli o'smalarda) parchalanadi. O'simliklarda avtoliz hujayraning past temperatura ta'sirida, qurib qolganida, zaharli moddalar (xloroform, nitrol va b.) ta'sir etib qurib qolganida,

shuningdek to'qimalarni mexanik usulda maydalanganda ro'y beradi. Avtoliz ba'zi texnologik jarayonlarda, tamaki, choyni fermentlashda, yem-xashakni siloslashda ham sodir bo'ladi.

**Avtomatika** – 1. Fan va texnikaning ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish metodlari va vositalarini yaratish va takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. *Avtomatika, telemexanika, radiotexnika, elektronika sanoat ishlab chiqarishida tobora keng qo'llanmoqda.* (Gazetadan). 2. Avtomatik ravishda ishlaydigan mexanizmlar, asboblarning majmui. *Kosmik apparatlarning bir-birini qidirib topishi, o'zaro yaqinlashishi, bir-biri bilan tutashishi bort avtomatikasi yordamida bajarildi.* (Gazetadan)

**Avtomat oxur** – q.x. hayvonlarini yem bilan boqishni qulaylashtirish uchun mo'ljallangan qurilma. U bir necha kunga yetarli yem solinadigan do'l (kovsh) va oxurdan iborat. Do'lning tubida yem chiqadigan tuynugi bor. Oxurdagi yem sarflangan sari tuynuk ochiladi, do'ldan oxurga yem tushadi. Suyuq va maydalangan yemlar uchun esa vakuumli avtomat oxur qo'llaniladi. Uning do'li silindr shaklida bo'ladi. Asosan o'rtacha fermalarda ishlatiladi. Parrandachilik fermalarida don-dun va suv tushib turishiga moslangan avtomat oxur qo'llaniladi.

**Avtomat sug'orgich** – mollar ichgan sari idishga o'z-o'zidan suv yuborib turadigan moslama. Ishlash tarziga ko'ra klapanli (qopqoqli) va vakuumli bo'ladi. Tepkili, qalqovuchli turlari ham bor. Bir kosali, ikki kosali va ko'p kosali bo'ladi. Qoramol tumshug'i bilan kosadagi richagni bosganda klapan prujinasi qisilib, klapan ochiladi va kosaga suv tusha-

di, mol boshini ko'targanda klapan suv yo'lini bekitadi.

**Avtomatlashtirimoq** – ish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatik asboblari, mashinalar asosiga o'tkazmoq. *Tarjima va so'zlik yaratish jarayonlarini avtomatlashtirish juda qulay va katta iqtisodiy samara beradi.* (G'. Salomov, «Tarjima nazariyasiga kirish»)

**Avtomorf tuproq** (*yun. autos* – o'zi va *morphe* – ko'rinish, shakl) – sizot va yer usti suvlari ta'sirida ortiqcha namlanishga chalinmaydigan tuproq. Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida sizot suvlariining sathi yer yuzasidan 5 m va undan chuqurlikda joylashgan bo'lsa, bunday tuproqlar avtomorf tuproqlar hisoblanadi.

**Avtopoilka** – *ayn. avtosug'orgich.* *Sigirlar suv ichadigan avtopoilkalar Murrodning aqlini o'g'irlab qo'ydi.* (A. Mirahmedov, «Kulgan chechaklar»)

**Avtopritsep** – avtomobilga tirkaladigan bir yoki bir necha o'qli arava, avto-tirkama.

**Avtoreferat** [avto.. + referat] – ilmiy asarning o'z muallifi tomonidan yozilgan qisqacha bayoni. *Dissertatsiya avtoreferati.*

**Avtorlik** – *ayn. mualliflik.*

**Avtosug'orgich** – chorva mollari va parrandalarni sug'orish uchun mo'ljallangan avtomatik qurilma.

**Avtotrof organizmlar** – noorganik moddalardan organik moddalar hosil qila oladigan organizmlar (masalan, yashil o'simliklar). Organik moddalarning hosil bo'lishida uglerod manbai sifatida atmosferadagi CO<sub>2</sub> xizmat qiladi. U fotosintez yoki xemosintez jarayonlarida avtotrof organizmlar tomonidan o'zlashtiriladi.

**Avtotropizm** – o'simliklarning biror ta'sir (ko'pincha mexanik ta'sir) ostida yuzaga keladigan bukilish (egilish)larni

to'g'irlay olish qobiliyati, masalan, g'alla ekinlarining tiklanib qolishi.

**Axaltaka ot zoti** – salt miniladigan qad. ot zotlaridan biri. Xalq seleksiyasida Turkmaniston janubidagi Axaltaka vohasida yashagan turkmanlarning taka qabilasi yetishtirgan. Axaltaka ot zoti quruq issiq iqlimga moslashgani, nihoyatda chopqirligi b-n ajralib turadi (poygada 1000 m masofani 1 min. 05 sek.da bosib o'tadi). Axaltaka ot zotining to'shi tor, sag'risi ixcham va cho'zinchoq, oyoqlari nozik, chiroyli, terisi yupqa va taqir. Aksariyat hollarda to'riq, ko'k va saman tusda bo'ladi. Sof zot otlar ichida o'zining ko'rkamligi va harakatchanligi b-n ajralib turadi. Ayg'irlarining qarchig'ayigacha balandligi 157 sm (ayrim hollarda 160–165 sm), ko'krak qafasi aylanasi 167 sm, to'pig'i aylanasi 19 sm. Asosan Turkmaniston va Qozog'istonda, O'zbekiston, Tojikistonda boqiladi. Axaltaka ot zoti ishtirokida ko'pgina chopqir ot zotlari chiqarilgan.

**Axta** [mo'g'.], *axta ot* – 2–2,5 yoshligida bichilgan ayg'irchalar ish otlari uchun mo'ljallanadi. *Bu axta qul... ayanchli bir maxluq edi.* (Oybek, «Navoiy».) *Terga pishgan sariq axta erinibgina qor kecha boshladi.* (H. G'ulom, «Mash'al».)

**Axtalash** (*bichish*) – hayvonlar xo'jalik hamda davolash maqsadlarida axtalanadi. Axtalangan hayvon yuvosh bo'lib qoladi, tez semiradi, go'shti sifati yaxshilanadi, qo'ylar ko'p jun beradi. Odatda, ayg'irlar 2–3 yoshda, buqachalar 3–6 oyligida, tuyalar 2,5–3 yoshda, qo'chqorlar 2–4 oyligida axtalanadi. Cho'chqa, quyon, tovuq, sigir, biyalar ham axtalanadi. Erkak hayvonlarni axtalash *orxiektomiya*, urg'ochilarini axtalash *ovariektomiya* deyiladi.

**Antaxona** – *esk. kam qo'll. ayn. otxona.* *Hasanali... qayta-qayta antaxonaga*

kirib, to'riq yo'rg'aning u yer-bu yerini supurar edi. (A. Qodiriy, «O'tkan kunlar».)

**Ayil** – ot, eshak, xachirning egar-jabdug'ini mahkam tutib turadigan tasma. Uzunligi 1,5 metrcha, eni 7–8 sm, ikki uchida to'qasi bo'ladi. Egari ustidan tortib bog'lanadigani jun yoki ipdan to'qiladi va ichki ayil deyiladi. Egari to'shagi ustidan uriladigani qayishdan yasalib, pushton yoki bosma ayil deyiladi. Ayilni tortib qo'ymoq. *Hech kim horigan otlarning ayilini bo'shatmadi, quroliniyam qo'ldan qo'ymadi.* («Yoshlik».)

**Ayil botmoq** – qattiq tegmoq, og'ir botmoq, ranjitmoq. *Aytgan gaplarim... ayil botgan bo'lsa, uzr, Qumri kelinoyi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Ayil botadigan joyi shundaki, o'z ayblarini yashirish, odamlar fikrini chalg'itish niyatida sof-ol kishilar ustidan tuhmatlar uyushtirdi.* («Mushtum».)

**Ayil mahkam** – s.t. Qorin to'q. *Ha, og'ayni, ayil mahkammi, hech narsa yamayotirsiz?*

**Ayiq** – paxmoq yungli, beso'naqay, katta, sutemizuvchi yirtqich hayvon. *Ayriqanni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer.* (Maqol).

**Ayiqmurut** – ra'nodoshlar oilasiga mansub past bo'yli daraxt (nokning bir turi).

**Ayiq polvon** – 1) ayiqning laqabi; 2) beso'naqay, qo'pol odamga nisbatan qo'lanadi. *Katta ayiq, ayn. Yetti og'ayni* (yoki qaroqchi), q. *Yetti. Kichik Ayiq, ayn. Kichik yetti og'ayni* (yoki qaroqchi), q. *Yetti.*

**Ayiqtovondoshlar** – ikkipallalilar sinfiging ayritojlilar kenja sinfiga mansub, asosan ko'p yillik o'simliklar oilasi.

**Ayiqtovonlar** – ayiqtovondoshlar oilasiga mansub, asosan ko'p yillik o'simliklar turkumi.

**Aymoqi** – daraxtlarga chirmashib o'sadigan (tok haqida). *Faqat baqaterak uchlaridagi aymoqi uzumlargina qoldi.* (S.Ahmad, «Qadrdon dalalar».)

**Ayram** – shv. Oqar suvning eng chuqur joyi.

**Ayron** – qatiqning kuvida moyi ajratib olingandan keyin qolgan suyuq qismi, shuningdek, qatiq yoki suzmaga suv qo'shib tayyorlanadigan ichimlik. *Ayron osh bo'lmas, nodon bosh bo'lmas.* (Maqol) *Har bir qozoqning o'tovida qimizi, qimroni yoki ayroni doim osiqliq turadi.* (M.Muhammadjonov, «Turmush urinishlari».)

**Ayrshir qoramol zoti** – XVIII asrda Shotlandiyaning Ayr grafligida yaratilgan. Uning shakllanishida mahalliy mollar bilan birga golland, golshtin, shortgorn, gereford, jersey va boshqa zotlar qatnashgan. 1923-yilgacha bo'lgan davrda ayrshir zotli mollar Shotlandiya, Shvetsiya va Germaniyadan Finlandiyaga olib kelingan. Ularni sof holda urchitish hamda mahalliy mollar bilan chatishtirish, uzluksiz tanlash va saralash ishlarining olib borilishi natijasida 1896-yilga kelib Finlandiya ayrshirlari shakllantirilgan va mustaqil zot deb tan olingan.

Sigirlarning yag'rin balandligi 123–125 sm (qiya uzunligi 157–160 sm), ko'kragi chuqur (63–65 sm) va o'rta enlikda (36–38 sm), yelinlari kosasimon, so'rg'ichlari o'rtacha kattalikda, keng joylashgan, terisi yupqa elastiksimon.

Yangi tug'ilgan buzoqlarning tirik vazni 28–30 kg, 12 oylikdagi tanalar vazni 220–260 kg, sigirlarning vazni 450–500 kg, buqalarning vazni – 700–800 kg. Sut mahsuldorligi 5000–5400 l va uning yog'lilik miqdori 3,8–3,9 %. Mahsuldor mollardan «Melodiya 29» laqabli sigir



to'qqizinchi laktatsiyasida 13 690 l sut bergan. Uning yog'lilik miqdori 4,09% ga teng, oqsil miqdori 3,34%.

**Ayg'ir, zid. biya** – voyaga yetgan ot. Ayg'ir biyadan ko'ra sekinroq o'sib, kechroq voyaga yetadi. Ayg'irning qar-chig'ayi biyanikiga nisbatan 2–3 sm baland, vazni og'ir, oyoqlari uzun va pishiq, kallasi katta, gavdasi ixchamroq bo'ladi.

1. Umuman, erkak ot.

2. Bichilmagan erkak ot, zid. **axta** (ot). [To'lamat] *Vaqtı-vaqtı bilan kolxozning zotli ayg'irlariga egar urib, sovutgani olib chiqardi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»)

**Ayg'iz** – tolning bir navi.

**Ayoz** – kech kuz, qish va erta bahordagi achchiq sovuq, qora sovuq. *Garchand hozir kech kuz, ayoz bo'lsa ham, Olloquliboy hamon terlar, semiz gavdasini ko'tarolmasdi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Tun ayoz, izg'iriy yel to'rt tarafga yugirib, jon achitmoqchi bo'lar edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar».)

**Azot I** [fr. azot <yun. a – yo'q (inkor) + zoos – tirik)] – Mendeleev davriy sistemasining V guruhiga mansub rangsiz va hidsiz kimyoviy element, o'simliklar oziqlanishida muhim ahamiyatga ega.

**Azot balansi** – organizmga oziq orqali kirgan azot miqdori bilan chiqarilgan azot miqdori o'rtasidagi tafovut.

**Azotfiksatsiya, azot to'plash** – mikroorganizmlarning molekulyar azotni o'zlashtirib, undan azotli birikmalar hosil qilish jarayoni.

**Azotlamoq** – azot yoki azotli moddalar bilan to'yintirmoq, boyitmoq. Tuproqni azotlamoq. Po'latni azotlamoq.

**Azotli** – tarkibida azot bo'lgan azotli o'g'itlar.

**Azot muvozanati** – oqsil almashinuvining ko'rsatkichlaridan biri. Bir kecha-kunduzda organizm qabul qilgan oziq tarkibidagi azot miqdori bilan shu vaqt ichida organizmdan chiqariladigan azot miqdori o'rtasidagi tenglikni ifodalaydi.

**Azotobakterin, azotogen** – tarkibida mikroorganizmlar (azotobakter) bo'lgan bakterial o'g'it; azotobakter atmosfera-dagi azotni o'zlashtirib, uni o'simlik oson o'zlashtira oladigan shaklga aylantirib beradi.

**Azot to'plovchi mikroorganizmlar, azotfiksatorlar** – atmosferadagi molekulyar azot ( $N_2$ ) ni o'zlashtiruvchi va uni organik birikmalarga o'tkazuvchi mikroorganizmlar. Azot to'plovchi mikroorganizmlar dukkakli o'simliklar (beda, sebarga, no'xat va b.) bilan simbioz hayot kechiruvchi *Phisobium* turkumiga mansub bakteriyalar (*q. Tugunak bakteriyalar*).

**Azotli o'g'itlar** – tarkibida azot bo'lgan va o'simliklarning azot bilan oziqlanish manbai sifatida qo'llaniladigan organik hamda anorganik moddalar, o'simliklarni azot bilan oziqlantirish manbai.

**Ashtak-pashtak** – danagini ajratib olib, o'miga mag'iz solib quritilgan o'rik, mag'izli turshak.

**Achambiti** – *q. jag'jag'*.

**Achchiqmiya** – burchoqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.

**A'zo** [*a. -uzvlar, qismlar*] – 1. Odam yoki hayvon organizmining muayyan bir vazifani bajaruvchi qismi. Sezgi a'zolari. Ichki a'zolar. *Har bir a'zosi qaqshab og'rirdi.* («Sharq yuldizi».)

2. Kishining butun vujudi; badan, tana. – *Siz nima javob berdingiz? – dedi butun a'zosini titroq bosgan Gulsinbibi qichqirib.* (Oybek, «Tanlangan asarlar».)

**Babaq** – shv. Xo‘rozning bir xil turi. Babaq xo‘roz. *Baland tutdan qichqirganda babaq xo‘roz, javobiga tevarakdan minglab ovoz.* (G‘. G‘ulom, «Ko‘kan batak»)

**Bahorgi** – 1. Bahorga, ko‘klamga oid, bahorda bo‘ladigan, bahorga mo‘ljallangan. *Bahorgi ekinlar. Bahorgi toshqin. Bahorgi beg‘amlilik – kuzgi pushaymonlik.* (Maqol). *Bahorgi harakat – kuzgi barakat.* (Maqol). *Navro‘zi olam o‘lkamizga tashrif buyurgandan beri, barcha bog‘larda bahorgi ishlar qizib ketdi.* (Gazetadan).

2 ayn. **bahorgi.** Bahorgi ekinlar. Bahorgi g‘alla.

**Bahorgi shudgor** – tuproqqa ishlov berish usullaridan biri, bahorda haydalgan yer.

**Bahori ekinlar** – bahorda ekiladigan va shu yilning o‘zida hosil beradigan bir yillik ekinlar.

**Bahori(y)** [f. – bahor fasliga mansub] – 1. Bahorda ekilib, shu yilning yozida yetiladigan (asosan, don ekinlari haqida). Bahori g‘alla. Bahori ekinlar. *...bahori g‘alla maysalari inson mehnatining mo‘jizakor qudratini ko‘z-ko‘z qilib turibdi.* (Nazarmat, «Jo‘rlar baland saytaydi»). *Allof bahori arpa o‘rniga bog‘ig‘ini bergan ekan.* (S.Ayniy, «Esda-hiklar»).

2. Ko‘klamga mansub, xos; yashil, yam-yashil... *Do‘stimdir pishqirgan bahoriy sellar, Ohudek talpingan o‘ynoqi xillar.* (Gazetadan). *Qanotini kamalak qizib, charx uradi bahoriy qushlar.* («Sharq yulduzi»). *Bahoriy libos kiygan baxmal cho‘l o‘ziga sayqal bergan fidoyilarni namabdi.* (Gazetadan). *Uyga kirib ba-*

*horiy rang kostyumini kiydi.* (S. Anorbo-yev, «Oqsoy»).

3 ko‘chma. Bahorday yosh, navqiron; musaffo. *Quyosh vasli bahoriy hayot, Inson mehri bilan oshnadir.* (N. Narzulla-yev). *Bu ko‘zlarda tuyg‘unlik, oliyjanoblik, ko‘ngilning bahoriy tozaligi, iliqligi... jilvalanar edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Bahorikor** [f. – bahorga mo‘ljallangan, bahorda qilinadigan] – bahorgi ekinlarga mo‘ljallangan, bahori ekinlar ekiladigan; sug‘orilmaydigan. Bahorikor yerlar. Bahorikor dehqonchilik. *Bahorikor yerlarga ekiladigan ekinlar orasida zarur miqdorda yem bo‘ladigan don ekinlari bo‘lsin.* (Gazetadan). *Toshxo‘ja o‘ylab turdi-da, og‘ilxonadan qari biyasini egarlab chiqib, bahorikor qirlar tomonga yo‘rttirib ketdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Bahorikorlik** – q. **Lalmikorlik.** Bahorgi ekinlar ekishlik bilan shug‘ullanishlik, bahorikor dehqonchilik. *Haligacha bahorikorlik rayonlarida ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan eng yuqori hosil olishga erishildi.* (N. Safarov, «Don»).

**Bahorikor yerlar** – q. **Lalmikor yerlar.**

**Bakra,** bakrabaliq – osyotrsimonlar turkumi va osyotrlar oilasiga mansub, tanasi duksimon, tumshug‘i uzun baliq. *Bakrabaliq mollyuskalar, umurtqasiz jonivorlar va suv o‘simliklari bilan oziqlanadi.* («O‘zME».)

**Bakterial** – 1. Bakteriyaga oid, bakteriyaga xos. Bakterial kasalliklar. Bakterial filtrlar.

2. Bakteriyalar yordamida hosil qilinadigan, tayyorlanadigan. *Bakterial o‘g‘itlar. Bakterial o‘g‘itlar tuproq sharoitiga qarab ishlatiladi.* («O‘zME».)

**Bakterial kasalliklar**, bakteriozlar (o'simliklarda) – o'simliklarda bakteriyalar qo'zg'atadigan yuqumli kasalliklar. Bakteriyalar ta'sirida o'simlik organizmidagi hayotiy jarayonlar buziladi, to'qima va hujayralarning fiziologik funksiyasi hamda tuzilishi o'zgaradi.

**Bakterial o'g'itlar** – tarkibida ekinlar uchun foydali tuproq mikroorganizmlari bo'lgan preparatlar.

**Bakteriofag** [*bakteriyalar va yun. phagos* – yemiruvchi] – bakteriyalarni yutib, yemirib, yo'q qilib yuboradigan viruslar; bakteriyalar kushandasi.

**Bakteriolog** – bakteriyashunoslik mutaxassisi, bakteriologiya bo'limi.

**Bakteriologik** – 1. Bakteriologiyaga oid. Bakteriologik laboratoriya. Bakteriologik usul. Bakteriologik tadqiqot.

2. Bakteriyalar ishtirokida tayyorlangan, bakteriyalar yordamida olib boriladigan. *Bakteriologik qurol. Bakteriologik urush. Bakteriologik hujum.*

**Bakteriologiya** [*bakteriya + yun. logos* – bilim, tushuncha] – bakteriyalar haqidagi ilmiy ta'limot, mikrobiologiyaning bakteriyalarni o'rganadigan bo'limi. *Umumiy bakteriologiya. Tibbiyot va veterinariya bakteriologiyasi. Qishloq xo'jalik bakteriologiyasi.*

**Bakteritsid** [*bakteriya + lot. sayedo* – o'ldiraman] – bakteriyalarni va boshqa mikroorganizmlarni o'ldiruvchi, zararsizlantiruvchi. *Bakteritsid moddalar. Bakteritsid qog'oz.*

**Bakteriya** [*yun. bakterion* – tayoqcha] – bir hujayrali mikroorganizmlarning katta guruhi; shakllangan yadroga ega bo'lmagan mikroskopik organizmlar – prokariotlar. Asosan tayoqcha shaklida bo'ladigan mikroorganizmlarning katta guruhi. Zararli bakteriyalar. Foydali bak-

teriyalar. *Bakteriyalar tuproqda, suvda, suv havzalari zaminida va boshqa joylarda tarqalgan.* («O'zME».)

**Bakterioz** – bakteriyalar ta'sirida paydo bo'ladigan o'simlik kasalligi.

**Balans** – muvozanat, muttasil o'zgarib turuvchi hodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini, maqsadga muvofiq rivojlanishini ta'minlashdagi zaruriy nisbatlar. Iqtisodiyot sohalari, moddiy, tarmoqlararo to'lov, qiymat, mehnat resurslari, yoqilg'i-energetika, foyda, asosiy fondlar qiymati balanslari, aholi pul daromadlari va xarajatlari hamda boshqa balanslar mavjud.

**Baliq** – 1. Suzgichlari bo'lgan, oyquloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga mansub suv jonivori. Laqqa baliq. Qora baliq. Oltin baliq. Zog'ora baliq. Sachratqi baliq. Qizil baliq. *Baliqning tirikligi suv bilan.* (Maqol). *Ko'lining otini balig'i chiqarar.* (Maqol). *Baliqlar gavda harorati beqaror, sovuqqon jonivorlardir.* («O'zME».)

2. Ushbu suv jonivorining go'shti. Qovurilgan baliq. Tuzlangan baliq. Baliq kombinati. *Eshak mingan ot so'ramas, Baliq yegan et so'ramas.* (Maqol). *Baliqni har kuni iste'mol qila boshlagan odamlar orasida infarkt 50 foizga kamayar ekan.* («Fan va turmush».)

3. Muchal yil hisobidagi beshinchi yil nomi.

**Baliqko'z** – bot. Sho'radoshlar oilasiga mansub, sho'rxok yerlarda o'sadigan bir yillik o't. *Ilgari ana shu adirlarda butun bir qishlovga yetib, ortib qoladigan yem-xashakbop sunbul, so'zan, ro'yan, olabo'ta, baliqko'z, jingil singari yuz xil to'yimli giyohlar tizzaga urib yotardi.* (J.Abdullaxonov, «Xonadon».)

**Bakterial kasalliklar**, bakteriozlar (o'simliklarda) – o'simliklarda bakteriyalar qo'zg'atadigan yuqumli kasalliklar. Bakteriyalar ta'sirida o'simlik organizmidagi hayotiy jarayonlar buziladi, to'qima va hujayralarning fiziologik funksiyasi hamda tuzilishi o'zgaradi.

**Bakterial o'g'itlar** – tarkibida ekinlar uchun foydali tuproq mikroorganizmlari bo'lgan preparatlar.

**Bakteriofag** [*bakteriyalar va yun. phagos* – yemiruvchi] – bakteriyalarni yutib, yemirib, yo'q qilib yuboradigan viruslar; bakteriyalar kushandasi.

**Bakteriolog** – bakteriyashunoslik mutaxassisi, bakteriologiya bo'limi.

**Bakteriologik** – 1. Bakteriologiyaga oid. Bakteriologik laboratoriya. Bakteriologik usul. Bakteriologik tadqiqot.

2. Bakteriyalar ishtirokida tayyorlangan, bakteriyalar yordamida olib boriladigan. *Bakteriologik qurol. Bakteriologik urush. Bakteriologik hujum.*

**Bakteriologiya** [*bakteriya + yun. logos* – bilim, tushuncha] – bakteriyalar haqidagi ilmiy ta'limot. mikrobiologiyaning bakteriyalarni o'rganadigan bo'limi. Umumiy bakteriologiya. Tibbiyot va veterinariya bakteriologiyasi. *Qishloq xo'jalik bakteriologiyasi.*

**Bakteritsid** [*bakteriya + lot. sayedo* – o'ldiraman] – bakteriyalarni va boshqa mikroorganizmlarni o'ldiruvchi, zararsizlantiruvchi. *Bakteritsid moddalar. Bakteritsid qog'oz.*

**Bakteriya** [*yun. bakterion* – tayoqcha] – bir hujayrali mikroorganizmlarning katta guruhi; shakllangan yadroga ega bo'lmagan mikroskopik organizmlar – prokariotlar. Asosan tayoqcha shaklida bo'ladigan mikroorganizmlarning katta guruhi. Zararli bakteriyalar. Foydali bak-

teriyalar. *Bakteriyalar tuproqda, suvda, suv havzalari zaminida va boshqa joylarda tarqalgan.* («O'zME».)

**Bakterioz** – bakteriyalar ta'sirida paydo bo'ladigan o'simlik kasalligi.

**Balans** – muvozanat, muttasil o'zgarib turuvchi hodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini, maqsadga muvofiq rivojlanishini ta'minlashdagi zaruriy nisbatlar. Iqtisodiyot sohalari, moddiy, tarmoqlararo to'lov, qiymat, mehnat resurslari, yoqilg'i-energetika, foyda, asosiy fondlar qiymati balanslari, aholi pul daromadlari va xarajatlari hamda boshqa balanslar mavjud.

**Baliq** – 1. Suzgichlari bo'lgan, oyquloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga mansub suv jonivori. Laqqa baliq. Qora baliq. Oltin baliq. Zog'ora baliq. Sachratqi baliq. Qizil baliq. *Baliqning tirikligi suv bilan.* (Maqol). *Ko'lning otini balig'i chiqarar.* (Maqol). *Baliqlar gavda harorati beqaror, sovuqqon jonivorlardir.* («O'zME».)

2. Ushbu suv jonivorining go'shti. Qovurilgan baliq. Tuzlangan baliq. Baliq kombinati. Eshak mingan ot so'ramas, *Baliq yegan et so'ramas.* (Maqol). *Baliqni har kuni iste'mol qila boshlagan odamlar orasida infarkt 50 foizga kamayar ekan.* («Fan va turmush».)

3. Muchal yil hisobidagi beshinchi yil nomi.

**Baliqko'z** – bot. Sho'radoshlar oilasiga mansub, sho'rxok yerlarda o'sadigan bir yillik o't. *Ilgari ana shu adirlarda butun bir qishlovga yetib, ortib qoladigan yem-xashakbop sunbul, so'zan, ro'yan, olabo'ta, baliqko'z, jingil singari yuz xil to'yimli giyohlar tizzaga urib yotardi.* (J.Abdullaxonov, «Xonadon».)

**Bakterial kasalliklar**, bakteriozlar (o'simliklarda) – o'simliklarda bakteriyalar qo'zg'atadigan yuqumli kasalliklar. Bakteriyalar ta'sirida o'simlik organizmidagi hayotiy jarayonlar buziladi, to'qima va hujayralarning fiziologik funksiyasi hamda tuzilishi o'zgaradi.

**Bakterial o'g'itlar** – tarkibida ekinlar uchun foydali tuproq mikroorganizmlari bo'lgan preparatlar.

**Bakteriofag** [*bakteriyalar va yun. phagos* – yemiruvchi] – bakteriyalarni yutib, yemirib, yo'q qilib yuboradigan viruslar; bakteriyalar kushandasi.

**Bakteriolog** – bakteriashunoslik mutaxassisi, bakteriologiya bo'limi.

**Bakteriologik** – 1. Bakteriologiyaga oid. Bakteriologik laboratoriya. Bakteriologik usul. Bakteriologik tadqiqot.

2. Bakteriyalar ishtirokida tayyorlangan, bakteriyalar yordamida olib boriladigan. *Bakteriologik qurol. Bakteriologik urush. Bakteriologik hujum.*

**Bakteriologiya** [*bakteriya + yun. logos* – bilim, tushuncha] – bakteriyalar haqidagi ilmiy ta'limot, mikrobiologiyaning bakteriyalarni o'rganadigan bo'limi. *Umumiy bakteriologiya. Tibbiyot va veterinariya bakteriologiyasi. Qishloq xo'jalik bakteriologiyasi.*

**Bakteritsid** [*bakteriya + lot. save-do* – o'ldiraman] – bakteriyalarni va boshqa mikroorganizmlarni o'ldiruvchi, zararsizlantiruvchi. *Bakteritsid moddalar. Bakteritsid qog'oz.*

**Bakteriya** [*yun. bakterion* – tayoqcha] – bir hujayrali mikroorganizmlarning katta guruhi; shakllangan yadroga ega bo'lmagan mikroskopik organizmlar – prokariotlar. Asosan tayoqcha shaklida bo'ladigan mikroorganizmlarning katta guruhi. Zararli bakteriyalar. Foydali bak-

teriyalar. *Bakteriyalar tuproqda, suvda, suv havzalari zaminida va boshqa joylarda tarqalgan.* («O'zME».)

**Bakterioz** – bakteriyalar ta'sirida paydo bo'ladigan o'simlik kasalligi.

**Balans** – muvozanat, muttasil o'zgarib turuvchi hodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini, maqsadga muvofiq rivojlanishini ta'minlashdagi zaruriy nisbatlar. Iqtisodiyot sohalari, moddiy, tarmoqlararo to'lov, qiymat, mehnat resurslari, yoqilg'i-energetika, foyda, asosiy fondlar qiymati balanslari, aholi pul daromadlari va xarajatlari hamda boshqa balanslar mavjud.

**Baliq** – 1. Suzgichlari bo'lgan, oyquloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga mansub suv jonivori. Laqqa baliq. Qora baliq. Oltin baliq. Zog'ora baliq. Sachratqi baliq. Qizil baliq. *Baliqning tirikligi suv bilan.* (Maqol). *Ko'lining otini balig'i chiqarar.* (Maqol). *Baliqlar gavda harorati beqaror, sovuqqon jonivorlardir.* («O'zME».)

2. Ushbu suv jonivorining go'shti. Qovurilgan baliq. Tuzlangan baliq. Baliq kombinati. *Eshak mingan ot so'ramas, Baliq yegan et so'ramas.* (Maqol). *Baliqni har kuni iste'mol qila boshlagan odamlar orasida infarkt 50 foizga kamayar ekan.* («Fan va turmush».)

3. Muchal yil hisobidagi beshinchi yil nomi.

**Baliqko'z** – bot. Sho'radoshlar oilasiga mansub, sho'rxok yerlarda o'sadigan bir yillik o't. *Ilgari ana shu adirlarda butun bir qishlovga yetib, ortib qoladigan yem-xashakbop sunbul, so'zan, ro'yan, olabo'ta, baliqko'z, jingil singari yuz xil to'yimli giyohlar tizzaga urib yotardi.* (J.Abdullaxonov, «Xonadon».)

**Baliqtut** – s. t. Balxi tut. *Hovlining oʻrta yerida pakanagina baliqtut oʻsib, ostiga kul va boshqa axlatlar toʻplangan edi.* (A. Qodiriy, «Oʻtkan kunlar»).

**Baliq uni** – baliqdan yoki baliqni konservalash chiqitlaridan tayyorlanadigan un. Baliq uni oqsil, kaltsiy va fosfarga boy boʻlib, qishloq xoʻjaligi hayvonlariga beriladi. Tarkibida 50–55% oqsil, 10–20% yogʻ, 30% gacha kaltsiy fosfat, 5% gacha osh tuzi va A, B, D vitaminlari bor. Baliq uni organizmda juda yengil hazm boʻladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, yosh hayvonlarga, joʻjalarga (kundalik yemining 10% miqdorida), tovuqlarga, baʼzan katta yoshdagi hayvonlarga ham beriladi. Sigirga kuniga 1–1,5 kg baliq uni berilsa, sut va goʻsht sifati buzilmay, mahsuldorligi oshadi.

**Baliqchi** – 1. Baliq tutish (ovlash) bilan shugʻullanadigan shaxs. *Bobom baliqchi dongdor, koʻllar chiqargan ot.* (A. Oripov). [U] *Matematik, muzikachi, baliqchi boʻlish bilan birga, pazandalikka ham katta hissa qoʻshgan odam boʻlgan.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»)

2 *zool.* Suvdagi baliqlar bilan tirikchilik qiluvchi, choʻliqsimonlar turkumiga mansub qushlar oilasi. Koʻkbaliqchi, kumush baliqchi. Qorabosh baliqchi. *Baliqchining tashqi tuzilishi suv-havo muhitida yashashga moslashgan boʻlib, oyoqlari koʻri barmoqli, oldingi uch barmogʻi orasida suzgich pardalari bor.* («OʻzME».)

**Baliqchilik** – 1. Baliq ovlash bilan shugʻullanish; baliqchi kasbi.

2. Suv havzalarida baliq zaxirasini koʻpaytirish va sifatini yaxshilash bilan shugʻullanuvchi soha; baliq yetishtirish bilan shugʻullanish. Baliqchilik xoʻjaligi. *Baliqchilik sanoati. Baliqchilik tabiiy suv havzalari baliqchiligiga va sunʼiy hovuz baliqchiligiga boʻlinadi.* («OʻzME».)

**Balchiq** – 1. Yogʻingarchilikdan yoki suv bosgandan keyin hosil boʻladigan suyuq, yopishqoq loy. *Gavhar balchiqqa tushgani bilan qimmatli oʻzgarmas.* (Maqol). *Oltin balchiqda ham oltin.* (Maqol). *Ustma-ust yoqqan bahor yomgʻirlari yoʻllarni balchiq qilib yubordi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»)

2. Suv havzalari (ariq, daryo, hovuz, koʻllar) tagiga choʻkkan loy qatlami. *Bilsangiz, bu hovuzda balchiq yoʻq.* (M.M. Doʻst, «Lolazor»). *Qumrini chiqarib olish bilan Qamchining oʻzi ham balchiqqa botib qoldi.* (H. Gʻulom, «Mashʼal»).

3 *koʻchma.* Ogʻir sharoit; qiyinchilik. *...vaqti kelganda, jiyan, doʻstlar qoʻltigʻingga kirib, balchiqdan tortmaydilar.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»)

*Men balchiqda yotgan bir ayolni halollab olib, savob uchun qoʻl choʻzsam, hech boʻlmaganda xudodan qaytar, deb oʻylagandim.* (K. Yashin, «Hamza»)

4 *koʻchma.* Notoʻgʻri, nomaqbul turmush tarzi; jaholat. *Bolalikning musaffo dunyosidan chiqib, balchiqqa botganlar kimlar? Kimlarning farzandlari?* («OʻTA».) *Muhiddin mingboshidan tortib qishloq qozilarigacha haftalab shu yerda aysh-ishrat balchigʻiga botib yotmasmidilar?* (H. Shams, «Dushman»).

**Balchiqqa qormoq** (yoki **botirmoq**) – birovni haddan tashqari yomonlamoq, birovga nohaq tuhmat qilmoq. *Ravshan oldida ulamolarni balchiqqa qorib bulgʻash yaxshimi?* (S. Siyoyev, «Avaz»). *Xudo koʻrsatmasin, bir yomonlashga tushsak, urib qulogʻigacha balchiqqa botirib yuboramiz.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Bambuk** [malayyacha bambu – daraxtsimon oʻsimlik] – tropik va subtropik mamlakatlarda oʻsadigan, tanasi qamish-

ga o'xshash, ichi kavak, bo'yi baland o'simlik. Bambuk hassa. Bambuk chayla. *Bambuk xalq xo'jaligida uy, ko'prik qurishda, duradgorlikda ishlatiladi, tolasi-dan qog'oz tayyorlanadi.* («O'zME».)

**Banan** [isp. *banano, banana* <a. – barmoq] – bot. Mevasi uzunchoq yirik, yeyishli, banansimonlar oilasiga mansub bo'lgan ko'p yillik tropik o'simlik va uning mevasi. *Do'stlar biroz so'lgan bananlarning oltinsimon po'stlarini archib, non bilan yeya boshladilar.* (Oybek, «Nur qidirib»). *Salqin nam shamol kaktus daraxtlarining sertikan shoxlarini sekin chayqaydi, palmalar bo'yniga osilgan shoda -shoda bananlarni bilinar-bilinmas tebratadi.* (I. Rahim, «Taqdir».)

**Band I** [f. – «bog'lamoq», «to'smoq», «berkitmoq», fl. hoz. z. o'zagi] – 1. Narsa, qurol-asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi; sop, tutqich; dasta. Choynakning bandi. Chelakning bandi. *Oyim qiy-malagichning bandini aylantirar ekan, menga qaramay so'radi...* (O'. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»). *Rashid ikki kulcha non orasiga olingan kabobning sixi bandini Muharramga to'g'riladi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar».)

2. Bir narsaning boshqa bir narsaga suqib, qistirib qo'yiladigan, ulanadigan qismi. *Bo'ynida tugma bandi, Bir yoqqa silkillaydi.* (Ergash Jumanbulbul o'g'li). *Boyqaroning qalpog'iga qadalgan jig'aning oltin bandi ertalabki quyoshda... yonardi.* (Oybek, «Navoiy».)

3. Daraxtlar (olma, nok, gilos, uzum va sh.k.), poliz ekinlari (qovun, tarvuz, bodring, pomidor va boshqa o'simliklar mevasi)ning daraxt novdasiga yoki palakka birikadigan ingichka qismi. Gilos bandi. Uzum bandi. *O'shanda otning kallasi-day keladigan chimto'rlama shakarpalak-*

*ni bandidan ushlab, tortib yuborsam, qars yorilib ketsa bo'ladimi!* (S.Anorboyev, «Hamsuhbatlar»). – *Ikkinchi olmaning uzun bandi bor edi, – dedi kombat. – Shu bandidan ushlab ko'rmoqchi edim, uzildi-yu, olmaning qavatiga qistirilgan qog'ozning uchi ko'rindi.* (O. Yoqubov, «Izlayman»). *Izillab shamol esib turgan, sap-sariq barglar bandidan «chirt-chirt» uzilib, yo'lkalarni qoplab yotgan kech kuz kunlaridan birida u urushga jo'nadi.* (Gazetadan).

4. To'siq, to'g'on, g'ov. *Suv kelmay, band tashlama.* (Maqol). *Keyinchalik boshiga band solindi-yu, suv chekindi.* («Yoshlik»). *Goho soy suvini band qilib, bolalari bilan baliq ham tutadi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa».)

**Bandar III** – issiq mamlakatlarda o'sadigan xushbo'y, mevali daraxt (mango).

**Bangidevona I** [*bangi + devona*] – bot. Ituzumdoshlar sinfiga mansub bir yillik zaharli o'simlik. *Bangidevona, yovvoyi nasha, kampirchopon, hatto kuchala bilan isiriqning ortiqchasi ham yosh vujudni zaharlab qo'yishi hech gapmas.* (Gazetadan).

**Bank depoziti** – xususiy shaxs, korporatsiya va davlat tashkiloti nomidan bankka saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari.

**Bank diskonti** – bankning veksellarini hisobga olish operatsiyalari uchun belgilangan hisob foizi.

**Bankiv tovug'i** – yovvoyi tovuq. Tovuqsimonlar turkumining qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub parranda. Janubiy Osiyoda keng tarqalgan. Bu yerlarda hozir ham uchraydi. Tog' va tekisliklardagi o'rmon va butazorlarda yashaydi. Ch. Darvin bankiv tovug'i xilma-xil zotli xonaki tovuqlarning yovvoyi ajdo-

di ekanligini aniqlagan. Bankiv tovuğ'i Hindistonda mil. avv. 3000-yillardan ilgari qo'lg'a o'rgatilgan. Uy tovuqlari Hindistondan Eron orqali Yevropaga tarqalgan, degan taxminlar bor. U qo'lg'a tez va oson o'rganadi. Parvarish qilish, tanlash va chatishtirish yo'llari bilan yovvoyi tovuqdan katta farq qiladigan xonaki tovuq zotlari yetishtirilgan. Bankiv tovuğ'ining rangi dakang xo'rozning rangiga o'xshaydi. Xo'rozining og'irligi 900–1250 g, makiyoniniki 500–550 g. Bankiv tovuğ'i yaxshi uchadi; kechalari daraxtda tunaydi. Makiyoni 5–13 donagacha maydaroq tuxum qo'yadi. Bankiv tovuğ'i har xil don, urug', meva va umurtqasiz mayda jonivorlar bilan ovqatlanadi.

**Bank kliringi** – banklarning o'zaro talabnoma va majburiyatlarni hisobga olish asosida molar, qimmatli qog'ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitob tizimi.

**Banknot** – muomalaga pul chiqarish huquqiga ega banklar bileti. Ular metall pulning o'rnini muomala va to'lov vositasi sifatida bosadi.

**Bank o'tkazmasi inkassasi** – bank o'z mijozining topshirig'iga ko'ra jo'natilgan mollar va xizmatlar uchun bank o'tkazmasi asosida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larini haq to'lovchidan oladi hamda bu mablag'larni o'z mijozining bankdagi hisob raqamiga o'tkazadi.

**Banteng** – zond ho'kizi, yovvoyi qoramol. Juft tuyoqlilar turkumining quvush shoxlilar oilasiga mansub. G'arbiy Hindiston, Hindixitoy, Yava, Bali, Sumatra orollarida, Malakka yarim orolida tarqalgan. Zebu hamda Osiyo qoramolining asl dodi hisoblanadi. Tog' va tekisliklardagi o'rmonlarda kichikroq poda bo'lib

yashaydi. Tanasining uzunligi 2 m gacha, balandligi 1,5 m gacha; erkagi malla, urg'ochisi to'q qo'ng'ir tusda. Erkagining og'irligi 300–350 kg keladi. Oysimon qayrilgan shoxining uzunligi 40–50 sm ga yetadi. Soni kamayib ketgan.

**Baqa I** – *shv.* Suvda va quruqlikda yashovchi dumsiz jonivorlar oilasi vakili; qurbaqa. *Baqa botqog'ini qo'msar, baliq – ko'lini.* (Maqol). *Baqani bossangiz ham «vaq» etadi-yu, axir men insonman-ku!* (Gazetadan).

**Baqajo'xori** – *bot.* Poyasi qattiq, tucksiz, butgullilar oilasiga mansub bo'lgan ko'pyillik o't. Baqajo'xori iyun va sentabrda urug'idan va ildiz bachkisidan ko'payadi.

**Baqlajon** [*a.* – poliz o'simligi, sabzavot] – tomatdoshlar oilasiga mansub bo'lgan bir yillik o'simlik va uning binafsharang, seret hosili. *Kampir ikkita likopchada bulg'or qalampiri aralastirib qovurilgan baqlajon keltirib qo'ydi.* (E. Usmonov, «Yolqin»). *Ko'zimga achchiq qalampir bilan baqlajon to'la baqqol do'konlaridan boshqa narsa ko'rinmadi.* («Yoshlik».)

**Baraka** – bir-biriga qo'shilib o'sgan ikki va undan ortiq qo'shaloq meva. Baraka novdani aynan bir bo'g'imida hosil bo'lgan ikki yoki uch gulbandning bir-biriga to'liq qo'shilib rivojlanishi oqibatida sodir bo'ladi.

**Barda** [*p.* *barda* – to'pon; chiqindi] – qand va spirt zavodlarining qishloq xo'jalik hayvonlariga ozuqa sifatida ishlatiladigan chiqindisi, to'pon, turp. *Oziq-ovqat sanoatining chiqitlari: barda, jom, melessa... ozuqalarining o'rnini to'ldirishning katta manbaidir.* (Gazetadan).

**Bardi** [*a.* – *rarius*] – botqoq va zax yerlarda o'sadigan bargi uzun va uch qir-



rali, ko'p yillik o'simlik; qiyoc. *Toklar kesilgandan so'ng, ota-bola ularni yotqizib... ustiga bardi – quritilgan qiyoc o't... tashladi.* (M. Osim, «Tilsiz guvoh»). *Qishda [sigirlarni] quruq beda, sheluxa, bardi, kunjara, kepak kabi ozuqalar bilan boqaman.* (Gazetadan).

**Bardor 2** [f.] – esk. tar. Ko'tarilgan xirmondan g'alvir bilan o'lchab, amirlik uchun beriladigan g'alla. – *Bu arpadan biz oladigan dahyak ham «bardor»ga goldi-da, – deb ijarador ham jo'nadi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Bargak I** [f. – danaksiz quruq meva] – *danagi olingan holda quritilgan o'rik; o'rikqoqi.* (R. Fayziy, «Hazrati inson»). – *Aytganday, Qurbon akani birinchi marta tomga bargak yoyayotganimda ko'rganman, – dedi Mehri opa.* (A. Eshonov, «Dutor»).

**Barg bujmayishi** – o'simliklarda virus, zamburug', bakteriyalar ta'sirida paydo bo'ladigan kasallik.

**Barg dog'lanishi** – o'simliklarda zamburug', virus, bakteriyalar ta'sirida paydo bo'ladigan kasallik.

**Bargdan oziqlantirish** – o'simlikni oziqlantirishning bir turi; bunda o'simlikka oziq elementlari mineral o'g'itlar, mikroelementlar, o'sish stimulyatorlari barg va poya orqali beriladi.

**Barglamoq** – barg yozmoq, barg chiqarmoq. *Ko'chatlar bargladi.*

**Bargizub** [f.] – bot. Yirik bargli, kalta poyali, gullari mayda ko'p yillik o't va uning xalq tabobatida dorivor sifatida ishlatiladigan bargi. *Bargizubning barglari nashtarsimon, tekis qirrali, gullari mayda, ko'rimsiz bo'lib, bargsiz poyaning uchida boshqosimon to'pgul hosil qiladi.* («O'ZME».) *Qoraboyni uyga obkelib, ayvonga yotqizdik. Yarasiga bargizub*

*qo'yib, otquloq bosdik.* (Sh. Xolmirzayev, «Yo'llar, yo'ldoshlar»)

**Bargli** – yaproqli, yaproq chiqargan yoki chiqaradigan. Ignabargli daraxtlar. *Taygadan janubroqda qishda o'z bargini to'kadigan aralash va bargli o'rmonlar boshlanadi.* («Geografiya».)

**Bargli sabzavotlar** – mahsuldor organi (bargi) iste'mol etiladigan sabzavot ekinlari. Ularga karam, salat, ukrop, ismaloq, bargli petrushka, mangold va b. lar kiradi.

**Barg nekrozi** [yun. *necrosis* – o'lik] – barg hujayrasi yoki to'qimasining qurib qolishi.

**Barg og'izchasi** – o'simliklar bargidagi tashqi muhit bilan aloqa bog'laydigan tirqishsimon yoriqcha (bunday yoriqchalar o'simliklarning boshqa yer ustki organlari epidermisida ham mavjud). Barg og'izchasi barg sathining juda oz qismini, hatto og'izchalar katta ochilgan holatda ham 1% dan ortig'ini egallamaydi.

**Barg parvonasi** (*Recurvaria nanel-la*) – kapalaklar turkumi, barg o'rovchilar oilasiga mansub hasharot.

**Bargrezon** [f. barg to'kilishi] – xazonrezgi davri; kuz. *Yoshlik zangor fasl. Kechdi. Sarg'aydi. To'kildi u. Shafqat bilmas bargrezon.* («Gazetadan»). *Ko'z bilan kezaman. Yo'llar ho'l, xazon, Telbaday alahlar goh-goh bargrezon.* (T. Qahhor, «Oq o'rik»).

**Barg to'kilishi**, *xazonrezgi* – o'simlik barglarining tabiiy holda to'kilish jarayoni.

**Bargxo'rlar**, bargxo'r qo'ng'izlar (*Chrysomelidae*) – qo'ng'izlar turkumiga mansub hasharotlar oilasi.

**Barg o'rovchilar** (*Tortricidae*) – mayda yoki o'rtacha kattalikdagi kapalaklar oilasi.

rali, ko'p yillik o'simlik; qiyoq. *Toklar kesilgandan so'ng, ota-bola ularni yotqizib... ustiga bardi – quritilgan qiyoq o't... tashladi.* (M. Osim, «Tilsiz guvoh»). *Qishda [sigirlarni] quruq beda, sheluxa, bardi, kunjara, kepak kabi ozuqalar bilan boqaman.* (Gazetadan).

**Bardor 2** [f.] – esk. tar. Ko'tarilgan xirmondan g'alvir bilan o'lchab, amirlik uchun beriladigan g'alla. – *Bu arpadan biz oladigan dahyak ham «bardor»ga goldi-da, – deb ijarador ham jo'nadi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Bargak I** [f. – danaksiz quruq meva] – *danagi olingan holda quritilgan o'rik; o'rikqoqi.* (R. Fayziy, «Hazrati inson»). – *Aytganday, Qurbon akani birinchi marta tomga bargak yoyayotganimda ko'rganman, – dedi Mehri opa.* (A. Eshonov, «Dutor»).

**Barg bujmayishi** – o'simliklarda virus, zamburug', bakteriyalar ta'sirida paydo bo'ladigan kasallik.

**Barg dog'lanishi** – o'simliklarda zamburug', virus, bakteriyalar ta'sirida paydo bo'ladigan kasallik.

**Bargdan oziqlantirish** – o'simlikni oziqlantirishning bir turi; bunda o'simlikka oziq elementlari mineral o'g'itlar, mikroelementlar, o'sish stimulyatorlari barg va poya orqali beriladi.

**Barglamoq** – barg yozmoq, barg chiqarmoq. *Ko'chatlar bargladi.*

**Bargizub** [f.] – bot. Yirik bargli, kalta poyali, gullari mayda ko'p yillik o't va uning xalq tabobatida dorivor sifatida ishlatiladigan bargi. *Bargizubning barglari nashtarsimon, tekis qirrali, gullari mayda, ko'rimsiz bo'lib, bargsiz poyaning uchida boshqosimon to'pgul hosil qiladi.* («O'ZME».) *Qoraboyni uyga obkelib, ayvonga yotqizdik. Yarasiga bargizub*

*qo'yib, otquloq bosdik.* (Sh. Xolmirzayev, «Yo'llar, yo'ldoshlar»)

**Bargli** – yaproqli, yaproq chiqargan yoki chiqaradigan. Ignabargli daraxtlar. *Taygadan janubroqda qishda o'z bargini to'kadigan aralash va bargli o'rmonlar boshlanadi.* («Geografiya».)

**Bargli sabzavotlar** – mahsuldor organi (bargi) iste'mol etiladigan sabzavot ekinlari. Ularga karam, salat, ukrop, ismaloq, bargli petrushka, mangold va b. lar kiradi.

**Barg nekrozi** [yun. *necrosis* – o'lik] – barg hujayrasi yoki to'qimasining qurib qolishi.

**Barg og'izchasi** – o'simliklar bargidagi tashqi muhit bilan aloqa bog'laydigan tirqishsimon yoriqcha (bunday yoriqchalar o'simliklarning boshqa yer ustki organlari epidermisida ham mavjud). Barg og'izchasi barg sathining juda oz qismini, hatto og'izchalar katta ochilgan holatda ham 1% dan ortig'ini egallamaydi.

**Barg parvonasi** (*Recurvaria nanel-la*) – kapalaklar turkumi, barg o'rovchilar oilasiga mansub hasharot.

**Bargrezon** [f. barg to'kilishi] – xazonrezgi davri; kuz. *Yoshlik zangor fasl. Kechdi. Sarg'aydi. To'kildi u. Shafqat bilmas bargrezon.* («Gazetadan»). *Ko'z bilan kezaman. Yo'llar ho'l, xazon, Telbaday alahlar goh-goh bargrezon.* (T. Qahhor, «Oq o'rik»).

**Barg to'kilishi**, *xazonrezgi* – o'simlik barglarining tabiiy holda to'kilish jarayoni.

**Bargxo'rlar**, bargxo'r qo'ng'izlar (*Chrysomelidae*) – qo'ng'izlar turkumiga mansub hasharotlar oilasi.

**Barg o'rovchilar** (*Tortricidae*) – mayda yoki o'rta katta kattalikdagi kapalaklar oilasi.

**Baribog'** – bir yilga ijaraga olingan bog'. Baribog' olmoq.

**Barikaram** – s.t. ayn. bargikaram. *Baridalla* boshidagi barikaram duxoba do'ppisini tuzatar ekan, gap qo'shdi. (H. G'ulom. «Mash'al»).

**Barisfera** [yun. *barysraira* – og'ar star] – Yerning ichki qismi. («O'zME»).

**Barit** [yun. *barus* – og'ir] – tabiatda bir xil (tiniq, sariq, qo'ng'ir, kulrang, qora) rangda uchraydigan, sulfatlar sinfiga mansub mineral. Barit... tibbiyot, rezina va qog'oz ishlab chiqarish, pirotehnika, ko'ncilikda, oziq-ovqat sanoati, tadolchilik, oq bo'yoq tayyorlashda ishlatiladi. («O'zME»).

**Bariy** [lot. *baryum* < yun. *barus* – og'ir] – Mendeleyev davriy sistemasining II guruhidagi oq rangli, kumushsimon kimyoviy element, metall. Bariy gidroksid. Bariy karbonat. Bariy sulfat. Metall bariyning ingliz kimyogari G. Devi elektroliz yo'li bilan olgan. («O'zME»).

**Barkas** – aylanma qurilmali katta bochka, qorako'l terilarni yuvish yoki oshlashda ishlatiladi. Qurilmaga parraklar o'rnatilgan, ular idishdagi suyuqlikni va unga solingan terilarni aralashtirib turadi.

**Barograf** [baro... + yun. *grapho* – yozaman] – atmosfera bosimini avtomatik va uzluksiz ravishda yozib oladigan asbob, o'ziyozar barometr. Barograf meteorologiya stansiyalari, samolyot va aerostatlarda ishlatiladi. («O'zME»).

**Barogramma** [baro... + yun. *gramma* – yozuv; yozaman] – barograf yozib olgan, atmosfera bosimining o'zgarishlarini ko'rsatadigan egri chiziq.

**Barokamera** [baro... + lot. *camera* – gumbaz, xona] – barometrik bosimni sun'iy ravishda o'zgartirishga imkon beruvchi zich yopiladigan (geometrik)

kamera. Past bosimli barokamera. Yuqori bosimli barokamera.

**Barometr** [baro... + yun. *metreo* – o'lchayman] – 1. Atmosfera bosimini o'lchaydigan asbob. Simobli barometr ba'zan kosasiz, faqat shisha naydan yasaladi. («O'zME»).

2 ko'chma. O'lchov, mezon. Savdo iqtisodiyotning eng to'g'ri barometridir. (Gazetadan). Qisqasi, davrning zaruriy ehtiyojlari fan uchun barometrdan gap. (S.Karomatov, «Oltin qum»). Adabiyotni haqli ravishda ijtimoiy hayotning eng sezgir barometriga qiyos etishadi. («O'TA»).

**Barra** – 1) yangi tug'ilgan qo'zichoq; 2) qo'zichoq terisi, qorako'l; 1–3 kunlik qorako'l qo'zilarining so'yilishidan sifati turlicha bo'lgan terilar olinadi; 3) yangi tug'ilgan qo'zichoq go'shti; 4) yangi unib chiqqan, yosh, mayin ko'kat (mas., barra piyoz).

**Bars** – zool. 1 ayn. ilvirs, yo'lbars 1. 2. Muchal hisobida uchinchi yil nomi. Bars yili.

**Barxan(lar)** – sahro va cho'llarda shamol ta'siri (kuchi) bilan paydo bo'ladigan ko'chma qumtepalar. Sahrolardagi dyunalarning bir yonbag'ri yotiqroq... ikkinchisi tikroq bo'ladi. Bunday tepaliklar barxanlar deb ataladi. («Geografiya»). Ro'paradan ko'rinayotgan qizil-sarg'ish barxanlar qotib qolgan okean to'lqinlarini eslatadi. («O'zbekiston qo'riqlari»).

**Basseyn** [fr. *bassin* – tog'ora; hovuz] – katta sun'iy suv havzasi. Sport basseyni. Ko'plab yoshlar xonalari, basseynlar, maydonchalar barpo etildi. (Gazetadan).

**Batrak** [r. < turkiy] – tar. Pomeschik yoki qishloq xo'jaligida yollanib ishlaydigan dehqon. Men Qo'qonning Qumqish-

log'ida bir batrak oilasida tug'ilganman. (Oydin, «Hikoyalar»).

**Batsillalar** [lot. *bacillum* – tayoqcha] – tayoqcha shaklidagi bakteriyalar. *Sil batsillasi. Batsilla tashuvchilar.*

**Bayir I – 1.** Qo'lga o'rgatilgan hayvon (asosan ot); jaydari. Bayir ot ...rais bilan O'ktam oyoq ustida bir piyoladan qaynoq choy ichishdi-da, qora bayir va qizil jiyronga minishdi. (Oybek, «O. v. shabadalar»). Men uning yigitlariga bir kam to'qson bayir berganman. (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»).

**2 ko'chma. s.t.** Sharoitga ko'nikib, qadrdon bo'lib qolgan. *Taqsim bayir xotinlarining ustiga... o'n to'rt yashar qiz olib... ishrat kamarini bog'ladilar.* («Mushtum».)

**Bayir II** – qumli cho'llarda shamol oqibatida paydo bo'lgan botiq joylar. *Bayirda kichik-kichik chuqurliklar bilan birga qator qum tepaliklari ham bo'ladi.* («O'zME».)

**Baytal** – urg'ochi ot; biya. *Baytal chopib poyga olmas.* (Maqol). *Tog' etaklaridan qor ketib, pastliklar yashillanib qolgan aprel o'rtalarida baytalim qulunladi.* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

**Baytar** [a. – mol tabibi, doktori] – esk. ayn. veterinar. *Xasta molga baytar darkor bo'lganidek, joni og'rikan ulusga ham bir tabib lozimdir.* (S. Siyoyev, «Avaz»)

**Baytariya** [a.] – esk. ayn. veterinariya.

**Baytqo'rg'oni(y)** – bot. O'rtapishar qovun navi. *Lekin kuz faslida bozorga tushgan qovunxo'rlar bu lazmatli baytqo'rg'oni, ko'kcha kabi nomlarni hammavaqt ham bilavermaydi.* («Fan va turmush».)

**Bayzo II** – esk. poet. Quyosh, oftob.

**Bag'az** [f. – pona, yog'och qoziq] – so'ri yoki ishkorning poyasiga

ko'ndalang bog'lanadigan yog'ochlar. *Qator ketgan ishkorm. Hosildan sim bag'azlar qaddini arang ko'tarib turibdi.* (Gazetadan). ...o'sib chiqqan yangi novdalar yuqori bag'azdan oshib, pastga, zaminga qarab o'sa boshladi. (Gazetadan).

**Bag'riqora** – zool. Siynasida qora belgisi bo'lgan qush. *Qodirjon aka, haqqushlar osmonda parvoz qilib yursalar, ana bag'riqora, demang yana.* («Askiya».)

**Bag'riqurt** – zool. Qo'ylarning o'pkasiga tushadigan bir xil qurt. *Ayniqsa, qorako'l qo'zilari nozik bo'ladi: zax yerga yotdi deguncha, o'pkasiga bag'riqurt tushib, o'lib ketadi.* (S. Anorboyev, «Ertagi kunning tovushi bilan»).

**Bachki** [f. ~ bolalik; bachkanalik] – 1. O'simlik tanasining, poyasining ostidan, yon-veridan o'sib chiqqan mayda shoxchalar, nihollar. *Daraxt tanasining ostida qo'shimcha bachkilar o'sib chiqib, ular daraxtni toliqtirib qo'yadi.* («Sharq yulduzi».) *Kimningdir zaif qo'llari bilan tol chiviqqa chala ko'tarilgan zanglarda onda-sonda charoslar qorayib ko'rinariduyu, toklarni bachki novda bosib, g'ovlab yotardi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**2.** Ko'kligida o'rib olishga mo'ljallab ekilgan makkajo'xori. Bachki ekmoq. Bachki o'rmoq. *Bachki makkapoyalar pishib yetilganiga qaramay o'rilmayotir.* (Gazetadan). *Shu kunlarda o'rilgan maydonlarda makkajo'xori tagpoyasi tez ko'karib, sal kunda bachkisi silosbop bo'ladi.* (Gazetadan).

**3 s. t. esk.** Bolalar poyabzali. *O'g'lim, besh bachkini pullab, ip, mum, sirach, lok olamiz, xo'pmi?!* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**4 ko'chma.** Mayda, arzimaydigan, ikkinchi darajali, keraksiz. *Adabiyot bog'i-*

mizda chilpib tashlaydigan bachki novdalar ko'payib qoldi. (Gazetadan). Biz... bachki mavzularga qarshi... kurash olib borishimiz lozim. (Gazetadan). Men o'n vildan beri allaqanday bachki sabablari bilan bir-biridan arazlashib, gaplashmay kelgan ikki qo'shnini tanir edim. (Gazetadan).

**Bachki barg** – o'simlik ildizidagi kurtaklardan yoki tana ostidan o'sib chiqadigan novdalar. O'simlik tanasining tagidan chiqqan barg. Dehqonlar shonalaydigan bargni – chin barg, shonalamaydiganini esa – bachki barg deb ataydi.

**Bachkilamoq** – 1. Bachki chiqarmoq q. **bachki**. 1. Uyidagi toklar bachkilab qolgan edi. («Sharq yulduzi».)

2. Ko'kpoya chiqarmoq (jo'xori haqida). Oqjo'xori poyasi o'rib olingach, tagidan yana bachkilab chiqadi va ikkinchi marta ko'kpoya olish mumkin bo'ladi. (Gazetadan).

**Beda** (*Medicago L.*) – dukkakkoshlar oilasiga mansub, bir yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi. 60 ga yaqin turi bor. Bedaning ko'p turlari pichan olish yoki ko'k holicha uy hayvonlariga berish uchun ekiladi. Uning ikki turi, ya'ni **ko'k beda** (*Medicago sativa L.*) hamda **sariq beda** (*M. falcata L.*), shuningdek ularning duragaylari katta xo'jalik ahamiyatiga egadir. Beda pichanida 12–16% oqsil, ko'p miqdorda kalsiy, vitaminlar mavjud bo'lib, chorva uchun qimmatli yem-xashakdir. Beda janubiy viloyatlarda ekiladi. Beda paxtachilikda sug'oriladigan joylarda almashlab ekish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.

**Beda barg filchasi, fitonomus** (*Photonomis variadalilis Hrbst.*) – bedaning xavfli zararkunandalaridan.

**Beda biti, akatsiya biti** (*Aphis craccivora Koch.*) – afididlar oilasiga mansub qanotsiz yoki to'rtta nafis qanotli mayda hasharot.

**Beda oltin qo'ng'izi** (*Sphenoptera laticeps B. Jar.*) – qattiq qanotlilar turkumiga mansub hasharot. Lichinka davrida zarar keltiradi.

**Bedapoya** – ayn. bedazor. *Namozshomda bedapoyaga yolg'iz bordim.* (M. Xidir, «Qirg'oqlar»). *Nusratbek ariqdan sakrab, bedapoyaga o'tdi. Engashib, bir tutam yo'ng'ichqa yuldi.* (S. Nurov, «Narvon»)

**Beda qandalasi** (*Adelphocoris lineolatus Goeze*) – chala qattiq qanotli hasharotlar turkumining so'qirlar oilasiga kiradigan hammaxo'r hasharot, ayniqsa beda va uning urug'iga katta zarar yetkazadi.

**Beda tunlami, zig'ir tunlami** (*Heliothis Viriplaca Hutn.*) – tunlamlar oilasiga mansub kapalak.

**Beda urug'xo'ri** (*Bruchophagus rod-di Guss*) – pardaqanotlilar turkumining yo'g'on oyoqlilar oilasiga mansub zararkunanda hasharot.

**Bedaxona** – beda va umuman, xashak bosiladigan (saqlanadigan) uy yoki boloxona. *Bu uy ilgari bedaxona bo'lganidan, darchasi ham yo'q, tokchasi ham yo'q, toqisi ham yo'q edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Bedazor** – beda ekilgan, beda o'sib turgan maydon; bedapoya. *Ular picha yurib, to'rt-besh tanob joyni ishg'ol etgan bedazorga chiqishdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Bedanalarning parvozni unutib, semirib ketganlari yo'rg'alab, bedazorga o'rmalab kirib ketishdi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoq urmaydi»).

**Bedachilik** – beda ekish, beda yetish-tirish ishlari; bedakorlik. *Bedachilikni yuksaltirish. Bedachilik xo'jaligi.*

**Bedana** – tovuqsimonlar turkumining qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub mayda parranda. Erkagining patlari sarg'ish-qo'ng'ir, ko'ndalang oq-sarg'ish yo'lli, tanasining ikki yoni bo'ylab qizg'ish yoki qora yo'llar o'tadi. Makiyoni qoramtir, ko'kragida qora yoki qizg'ish xollari bor. O'zbekistonning cho'l, tog'oldi mintaqalarida va to'qaylarda ko'p uchraydi. Xattiharakati tovuqnikiga o'xshaydi. Og'irligi 80–145 g. Aprel-may oylarida shimolga, avgust-sentabr oylarida janubga gala bo'lib uchib o'tadi. Bedana qosh qorayganda, tunda serharakat bo'ladi, kunduzi pana joyda bekinib yotadi. O'simliklar urug'i va barglari, ba'zan hasharotlar bilan oziqlanadi. Yer ustidagi chuqurchaga xascho'p to'shab uya quradi. Makiyoni 9–20 tagacha tuxum qo'yib, 15–17 kun bosib yotadi. *Bedananing «vit» degani – qochgani.* (Maqol). *O'tloqda bedana ko'p, dangasada – bahona. Bedananing uyi yo'q, qayga borsa – bitbidiq.* (Matal).

2. Shu qushning go'shti (ovqat sifatida). *Bedana bilan kaklik yeb, bizga zog' goldirasiz.* («Askiya»)

**Bedona I** [f. – urug'siz, danaksiz] – urug'siz qora kishmish uzum va undan tayyorlangan mayiz... *Sersuv va xilma-xil uzum ko'p: qorajanjal, bedona, sohibi, dili-kaftar, buvaki – xullas, bularning navi behisob.* (Oybek, «Bolalik»).

**Bedona tut** – tutsimonlar oilasiga mansub, mevasi oq, shirin, urug'siz daraxt.

**Bedona II** – bir-ikki yashar molning terisidan ishlangan charm. *Yengil bedona mahsisi bilan qala kafshi [Ra'noning] kichkina oyog'iga juda kelishgan.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

**Begona o'tlar, begona o'simliklar** – odamlar ekmaydigan, ammo ekinlar orasida o'sib, ularga zarar yetkazadigan, ma'lum bir maydonda o'sishi maqsadga muvofiq bo'lmagan o'simliklar.

**Behi** [f. – olmasimon xushbo'y meva] – *bot. 1.* Issiq mamlakatlarda o'sadigan, atirgullilar (ra'nodoshlar) oilasiga mansub, xushbo'y mevali daraxt. *Bog'ning turli joylarida har xil mevali daraxtlar: nok, o'rik, behi, jiyda va b. anchagina.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Mohidil qaytib hovliga tushayotganida, behi shoxi shitirlab ketdi.* (S. Zunnunova, «Gulxan»).

2. Shu daraxtning olmaga o'xshash mevasi. *Sidiqjon uni [onasini] kuzatib qaytib kelganida, tok ostidagi eski so'rida sochilib yotgan behilarga ko'zi tushdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Xonani zira, dolchin, behi, zig'ir moyining xushta'm hidi qopladi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**Behigul** – ra'nodoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub, barglari to'garak yoki uzunchoq buta. *O'zbekistonda behigulning erta bahorda gullaydigan turi xushmanzara o'simlik sifatida istirohat bog'lariga ekiladi.* («O'zME».)

**Behizor** – faqat behi daraxtlari o'sib yotgan yer, joy; behi bog'i. *...behizor manzarasi o'zgacha, yosh-yosh, bo'yi pakana behi daraxtlarining serhosil shoxlari qiz kokilidek har tomonga parishon taralib, yer o'pib yotmoqda.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Behishti** – *bot.* Uzumning sarg'ish-yashil bir navi. *Ishkomlarda tok barglari sarg'ayib, toifi va behishti uzumlar qahra-bo tusga kirdi.* (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Behtar II** – qulupnayning yirik bir navi.

**Bekon** – maxsus usulda semirtirilgan (go'sht-yog'i qatlamlanib joylashgan) cho'chqaning nimalangan go'shtidan tayyorlanadigan mahsulot. 2–2,5 oylik cho'chqalar 7 oygacha boqilib, bekon go'shti olinadi. Umurtqa pog'onasi va kuragidan ajratib, (tuzlangan yoki surlangan) nimalardan tayyorlangan cho'chqa go'shti mahsuloti. Bo'rdoqiga boqilgan cho'chqalar go'shtidan tayyorlanadi.

**Bekonga boqish** – 6–8 oyli cho'chqa bolasini maxsus ratsion asosida tirik vazni 80–105 kg bo'lguncha boqish; bunda cho'chqaning yag'rini bilan bel sohasidagi yog' qoplami qalinligi 1,5–3,5 sm, go'shtning och pushti rangi marmardek tovlanib turadi.

**Bel II** – yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och sopli temir qurol; belkurak. Bel bilan yer kovlamoq. *Belni peshlagan bilar, yerni ishlagan bilar.* (Maqol). *Ko'p gapirgandan ko'ra, qo'lingga belni ol-da, gazaga chiq.* («Yoshlik».)

**Beluga** [*r. белый* – oq, oq rangli] – osyotrsimonlar oilasiga mansub, yarim oy shaklidagi katta og'izli oq baliq.

**Beluxa** – zool. Delfinsimonlar oilasiga mansub sutemizuvchi hayvonlarning yagona vakili.

**Belo'roq** – o'tni tik turib o'rishga mo'ljallangan uzun sopli katta o'roq. [*Usta*] *O'roq, poytesha, belo'roq, uzangi... ko'proq otlarga nag'al yasardi.* (A. Suyun, «Olis tonglar».)

**Bestujev qoramol zoti** – go'shti va suti uchun boqiladigan zot. Vatani Rossiya. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida mahalliy sigir zotlarini shortgorn, golland, simmental va b. zotlar bilan chatishtirish yo'li bilan yetishtirilgan. Rangi targ'il-qizil, tanasi cho'zinchoq, suyaklari baquvvat. Boshida, ko'krak qafasida,

qornida oq dog'lar uchraydi. Buqalarining tirik vazni 750–900 kg, sigirlariniki 500–550 kg, 3000–3800, ba'zan 4500 l gacha sut beradi. Sutining yog'lilik darajasi 3,8–4,1%, eng yuqorisi 5,5%. Tez yetiladi. So'yilganda go'sht chiqishi 60%. O'zbekistonda faqat xususiy xo'jaliklarda uchraydi.

**Bez I** – anat. Tirik mavjudotning yashashi uchun zarur bo'lgan moddalar ishlab chiqaradigan ko'p hujayrali a'zo. Qalqonsimon bez. Bodomcha bezlar. Limfa bezlari. Oshqozon osti bezi. Ichki sekretiya bezlari. *Ma'lum yoshdagi bolalarda tomoqdagi bodomcha bezlar yallig'lanishi, quloq og'rishi mumkin.* (Gazetadan). *Yoshi katta odamning qalqonsimon bezida 15 milligramm yod bo'ladi.* («Fan va turmush».)

**Bezlar** – odatda organizmning fiziologik faoliyatida ishtirok etuvchi, o'ziga xos moddalar ishlab chiqaradigan va ajratiladigan hujayralar kompleksidan hosil bo'luvchi organlar.

**Bezgardak** – zool. Tuvaloqlar turkumiga mansub cho'l qushi.

**Beshak II** – ertapishar qovun turlaridan biri. *Yozga borib, shunaqangi shirinshakar beshak qovunlar, sergo'sht tarvuzlar yetilib berdiki, baayni tilingni yoradigan.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon».)

**Beshamak** – q. x. O'qariqdan suv olib, besh-o'n egatga birdan taratib sug'orish usuli va ana shunday ariqcha. *Sug'orishni boshlashdan avval uchastka puxta tayyorlanadi. Buning uchun o'qariqlar... tuzatiladi. quloqlar mustahkamlanadi, beshamaklar ochiladi.* (R. Ahmedov, «G'o'zani sug'orish to'g'risida».)

**Beshbarg** – bot. Atirgullilar oilasiga mansub ko'p yillik o't. *Beshbargning poyasi ingichka, uzun, yotiq o'sadi.*

*Bargi besh yaproq, barg bandi uzun.* («O'zME».)

**Beshiktervatar** – *zool.* Beshik kabi tebranib turadigan, oyoqlari uzun, yashil rangli, to'g'ri qanotli kemiruvchi hasharot. *Beshiktervatar issiq iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan yirtqich hasharot hisoblanadi.* («Fan va turmush».) *Beshiktervatar xavf-xatar sezishi bilan oldingi oyoqlarini yuqori ko'tarib, tebranib turadi. Nomi ham shundan kelib chiqqan.* («O'zME».)

**Beshiktervatarsimonlar, Beshiktervatarlar** (*Mantodea*) – beshiktervatarsimonlar turkumiga mansub vakillari qimirlamay o'ljasini kutib turadi va uni oldingi oyoqlari bilan tutib oladi. Asosan, tirik hasharotlar bilan oziqlanadi. Urg'ochisi erkagiga nisbatan yirikroq, tuxumlarini kuzda o'simliklarning shoxlariga, toshlar yoki boshqa narsalar ustiga to'p-to'p qilib, maxsus tuxum xaltasi (ooteka)ga qo'yadi. Bahorda tuxumdan chiqqan lichinkalar chala o'zgarish orqali rivojlanadi, 5–8 marta tullab, voyaga yetadi. Yil davomida bitta avlodi rivojlanadi. Lichinkalari mayda hasharotlar (shira bitlari, qandalalar, pashshalar, jizildoq va b.)ni, voyaga yetgan davrida chigirtkalar, chirildoqlar, arilarni tutib yeydi. Ov qilayotganda o'z joyini boshqalardan qo'riqlaydi. Beshiktervatarlar juda foydali, lekin ularni har xil hasharotlar, qushlar (chug'urchuq, chumchuqlar), o'rgimchaksimonlar tutib yeydi. Dushmanlardan saqlanishda himoya vositasi – niqoblanish rangi (mimikriya) yaxshi rivojlangan. Ularning 2000 dan ortiq turi Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekistonda uchraydi.

**Beshurug' I** – bo'yi kalta, tuxumsimon, sirti och yashil, serto'r va sal tilimtilim ko'rinishli jaydari qovun.

**Beshurug' II** – urug'i kam bir nav tarvuz.

**Bigiztumshuq** – *zool.* Kalta dumli, tumshug'i uzun, juda kichkina sayroqi qushcha.

**Bihishti** [*f.* – jannatga mansub, jan-natiy] – uzumning o'rtapishar vinobop turi va shu uzumdan tayyorlangan may. Bir bosh bihishti. *O'ktam bir shisha «bihishti» ochib, kichkina piyolalarga quydi.* (Oybek, «O.v.shabadalar».)

**Bilvosita tanlash** – tabiiy tanlanish bilan bilvosita bog'liq belgilar evolutsiyasi faktori.

**Binafsha, gunafsha** [*f.* – bir nav xushbo'y giyoh] – **1 bot.** Binafshadoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simlik va uning bahorda ochiladigan to'q safsarrang xushbo'y guli. *Yaxshiboyev dimog'ida binafsha hidini tuydi, yuragi orziqdi.* (M.M. Do'st, «Lolazor»). *Za'faron zulfingga taqib ketayin, O'lis cho'llarimning binafshasini.* (A. Oripov).

**2 sft.** Shu gul rangidagi, safsarrang. *To'rt burchagida ko'k, binafsha, shaftolirang ipaklar bilan gullar tikilgan.* (Oybek, «Quyosh qoraymas».)

**Bioenergiya** – qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qoldiqlari, chorva mollari-ni chiqindilari va boshqalar tarkibida selluloza (*uglevodlar*) bo'lgan xashaklarni mikroorganizmlar yordamida parchalab, undan olinadigan gazlar biologik energiya (bioenergiya) deb ataladi.

**Biofabrika, biokombinat** – o'simliklar zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashishda foydalaniladigan biopreparatlar va entomofaglar ishlab chiqaruvchi, shuningdek uy hayvonlari kasalliklarini aniqlash, oldini olish va davolash uchun biopreparatlar (vak-sina, zardob va b.) tayyorlovchi korxonalar.



**Biofizika, biologik fizika** [*bio...* + *yun. physike* – tabiat] – tirik organizmlarga xos fizikaviy xossalarni, biologik hodisalardagi fizikaviy qonuniyatlarni, to‘qima va a‘zolar faoliyatidagi fizikaviy jarayonlar va shunga o‘xshash xususiyatlarni o‘rganuvchi fan.

**Biogenez** [*bio...* + *yun. genesis* – tug‘ilish, paydo bo‘lish] – tirik mavjudotlar Yerda anorganik materiyadan paydo bo‘lganligini inkor etuvchi qarash, nazariya.

**Biogenetik qonun** – organizmlarning individual taraqqiyoti (ontogenezi) va tarixiy taraqqiyoti (filogenezi) o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi tushunchalar majmui.

**Biogeografiya** [*bio...* + *geografiya*] – tirik organizmlar (o‘simlik, hayvonlar, zamburug‘lar, mikroorganizmlar) va ular komponentlari (tur, urug‘, oila va b.) ning Yer yuzida tarqalishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan...

**Bioidikatorlar, biologik indikatorlar, ko‘rsatkichlar** [*bio...* + *lot. indico* – ko‘rsataman, aniqlayman] – miqdori va rivojlanish xususiyatlarining o‘zgarishi orqali sodir bo‘layotgan tabiiy jarayonlar, sharoit yoki antropogen o‘zgarishlardan darak beruvchi tirik organizmlar.

**Bioinformatika** – umumiy biologiya, molekulyar biologiya, kibernetika, genetika, kimyo, kompyuter, matematika va statistikasi o‘zida mujassamlashtirgan fanlararo soha. Katta hajmdagi ma‘lumotlar tahlil talab etiladigan keng miqyosdagi biologik muammolar raqamlashtirishdan foydalanilgan holda bioinformatika yordamida o‘z yechimini topadi.

**Bioinjeneriya (biomuhandislik)** – biologiya va meditsinada muhandislik prinsip (tamoyil)larini rivojlantirish bo‘yicha fan va texnika yo‘nalishi. Biolo-

giya va injeneriyaning fanlararo bo‘g‘ini sifatida sintetik biologiya ham deyiladi.

**Bioiqlimshunoslik** – iqlimning odam faoliyati va sog‘lig‘iga, hayvonlar va o‘simliklar rivojiga ta‘sirini o‘rganuvchi fan.

**Bioiqtisodiyot** – qayta tiklanadigan biologik resurslarni ishlab chiqarish va bu resurs hamda chiqindilarni oziq-ovqat, ozuqa, biologik mahsulotlar va bioenergetika kabi qo‘shimcha qiymatga aylantirish sohasi.

**Biokimyo, biologik kimyo** [*bio...* + *kimyo*] – tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi va ularda sodir bo‘ladigan kimyoviy jarayonlar haqidagi fan. *Biokimyo fiziologiya bilan chambarchas bog‘liq. Tibbiyot biokimyosi yoki klinik biokimyo kasal organizmdagi biokimyoviy o‘zgarishlarni tekshiradi.* («O‘zME»)

**Biokimyoviy** – biokimyoga oid, biokimyo bilan aloqador. *Biokimyoviy jarayonlar.*

**Biolaboratoriya, biologik laboratoriya** (*qishloq xo‘jaligida*) – q.x. ekinlarini zararkunanda hasharotlardan, kasallik, begona o‘tlardan biologik usulda himoya qilishni amalga oshiradigan va nazorat qilib turadigan muassasa.

**Biologik** – tirik organizmlarning hayoti va o‘shishiga, ya‘ni biologiyaga oid. Biologik jarayonlar. Biologik tadqiqotlar. *Ichimlikning biologik qimmatidagi mineral modda, vitamin, oqsil, ferment va h.k. miqdoriga ko‘ra belgilanadi.* («Fan va turmush».)

**Biologik drenaj, tabiiy drenaj** – ortiqcha yer osti suvlarini tabiiy o‘simlik qoplami – daraxtzorlar, o‘rmon mintaqalari, ekinlar yordamida chiqarib tashlash. B. d. tuproq sharoitini yaxshilashga, zaxini qochirishga xizmat qiladi, yer osti suvlari sathini pasaytiradi.

**Biologik himoya usuli, biologik usul** – bu o‘simliklar zararkunandalariga qarshi kurashda, zararkunanda hasharotlarni yo‘q qilish yoki ularning sonini qishloq xo‘jaligiga sezilmaydigan darajagacha kamaytirishda turli entomofag (*yunoncha «entoma»* – «hasharot» va «*fagos»* – «yeb qo‘yuvchi» so‘zlaridan) organizmlardan foydalanish.

**Biologik hosil, tupdagi hosil** – ma‘lum bir maydondagi o‘simlik to‘plarida yetilgan hosil, o‘z vaqtida boshlanadigan yig‘im-terim oldidan dalada yetilgan tayyor mahsulot miqdori.

**Biologik preparatlar, biopreparatlar** – q. x.da hayvonlarning yuqumli va invazion kasalliklariga diagnoz qo‘yish, kasalliklarning oldini olish, davolash, mahsuldorligini oshirishda, shuningdek o‘simliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish, tuproq unumdorligini oshirishda qo‘llaniladigan biologik vositalar.

**Biologiya** [*bio...* + *yun. logos* – so‘z, ta‘limot] – tirik organizmlarning hayoti va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi ta‘limot, fan. Tirik tabiat haqidagi fanlar majmuasi. Biologiya hayotning barcha ko‘rinishlari: tirik organizmlar va tabiiy jamoalarning tuzilishi va funksiyasini, tirik mavjudotlarning kelib chiqishi va tarqalishi, ularning bir-biri va notirik tabiat bilan o‘zaro bog‘lanishni o‘rganadi. Biologiyaning asosiy vazifasi tiriklikning namoyon bo‘lishi qonuniyatlarini o‘rganish, hayotning mohiyatini ochib berish, tirik organizmlarni sistemaga solishdan iborat. *O‘simliklar biologiyasi. Biologiya kabine-ti. Biologiya darsi. Biologiya o‘qituvchisi.*

**Bioloqatsiya** [*bio...*, *yun. locus* – joy] – hayvonlarning ko‘rish, eshitish, hid bilish va b. sezgi a‘zolari yordami-

da atrof-muhitni yoki begona individlar (o‘lja, dushman)ni, ular turgan joy yoki ulargacha bo‘lgan masofani aniqlash xususiyatlari.

**Biolyuminessensiya** [*bio...* + *lot. lumen, luminis* – nur, yorug‘lik + *escent* – kuchsiz, sust] – tirik organizmlarning o‘z hayot faoliyati jarayonida kuchsiz, ko‘zga ko‘rinarli nur chiqarish, yiltirash xususiyati.

**Bionika** [*yun. bion* – hayot elementi; yashovchi] – tirik organizmlarning tuzilishi va hayotiy faoliyatini tahlil qilish tajribalari asosida texnika muammolarini yechadigan fan.

**Biopolimer (lar)** [*bio...* + *polimer*] – barcha tirik organizmlarning hayot faoliyatida muhim rol o‘ynaydigan yuqori molekulali tabiiy birikmalar.

**Biopsiya** – kasallikning tabiatini aniqlash maqsadida mikroskopda tekshirish uchun kasallangan hasharot yoki hayvondan to‘qima bo‘lakchasini olish.

**Biosfera** [*bio...* + *yun. sphaira* – shar] – Yerning hayotga makon bo‘lgan, tirik organizmlar tarqalgan joyi, qismi. *Inson faoliyati Yer yuzini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan hozirgi davrda biosferaning rivojlanishi yangi pog‘onaga ko‘tarildi.* («O‘z ME».)

**Biosintez** [*bio...* + *sintez*] – tirik organizmlarda yoki ulardan tashqarida fermentlar ta‘siri bilan birmuncha oddiy birikmalardan organik moddalar hosil bo‘lishi va ularda modda almashinuvi jarayoni.

**Biotexnologiya** [*bio...* va *yun. techne* – mahorat, san‘at, *logos* – so‘z, ta‘limot] – q.x., sanoat va tibbiyotning turli sohalarida tirik organizm va biologik jarayonlardan foydalanadigan sanoat usullari

majmui. Biotexnologiya *mikrobiologiya, biokimyo, bioorganik kimyo, molekulyar biologiya, fiziologiya, genetika, molekulyar genetika, genetik injeneriya* va boshqalarga asoslanadi. *Yosh biotexnologiya sohasining ildizi qadimgi zamonlarga borib taqaladi.* («Fan va turmush»).

**Biotip** [*bio...* va *yun. typos* – namuna, nusxa] – mahalliy populyatsiya tarkibiga mansub o‘simlik turining tashqi ko‘rinishi bilan farqlanmaydigan, lekin biologik va fiziologik xususiyatlari boshqacha va o‘zgarmas bo‘lgan guruhi.

**Bir ekinli dehqonchilik, yakka ziroatchilik (monokultura)** – bir xil ekinni bir joyda uzoq muddat uzluksiz o‘stirish. Bu usul tuproqning fizik va kimyoviy xossalarni yomonlashtiradi, yerda ozuqa moddalarni kamaytiradi, tuproq unumdorligini pasaytiradi.

**Bir enli, ikki enli, uch enli** – 1. Bozorlarda bo‘rdoqiga boqilgan otlarni semizlik darajasini aniqlaydigan ibora so‘z.

2. Bir enli otlarning tanasi bochkasimon, muskullari yaxshi rivojlanmagan, yonbosh suyaklari, ko‘krak umurtqalari chiqib turadi, qovurg‘alarini bemalol qo‘l bilan ushlab ko‘rish mumkin.

3. Ikki enli otlarning tanasi unchalik bochkasimon emas, muskullari qoniqarli rivojlangan, orqasi, beli, sag‘risi va soni unchalik to‘la emas, qovurg‘alari oralig‘iga qo‘l kirmaydi. Ko‘krak umurtqalari, yonbosh suyaklari, kuragi chiqib turadi.

4. Uch enliga yog‘li va yuqori semizlikdagi otlar kiradi. Yuqori semizlikdagi otlarning muskullari yaxshi rivojlangan, tanasi bochkasimon, ko‘kragi to‘lishgan, ko‘krak qovurg‘alari chiqib turmaydi, qovurg‘a oralig‘iga qo‘l botmaydi, bo‘yin toji yaxshi rivojlangan bo‘ladi.

**Bir gulli o‘simliklar** – bitta g‘uncha chiqarib, bitta gul va bitta meva hosil qiluvchi o‘simliklar. Bunday o‘simliklarning poyasi shoxlanmay, uchidan yolg‘iz kurtak chiqaradi, mas., lola, ko‘knor, qizg‘aldoq, parnassiya va b.

**Birinchi haydov, tinch yerni haydash** – quruq va bo‘z, shuningdek bedapoya va boshqalar, ko‘p yillik o‘simliklar o‘sib, chim bosgan yerlarni haydash. Dehqonchilikda o‘t-ekinlarni ekish qo‘llanilgandan keyin paydo bo‘lgan. Birinchi haydovda tuproq qatlamlari 130–135° ag‘darilib, bir-biriga 45° burchak hosil qilib, qolgan holda zich tirilib qoladi.

**Birja** [*gollandcha beurs, nem. burse* – hamyon] – bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli; tovarlar (tovar birjasi), qimmatbaho qog‘ozlar (fond birjasi), valyuta (valyuta birjasi) ulgurji savdosi, tovar bo‘lgan ishchi kuchi oldi-sotdisi (mehnat birjasi) bozori.

**Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)** – hukumatlararo jahon tashkiloti, BMTning ixtisoslashgan muassasasi. 1945-yilda tuzilgan. Vazifasi: ovqatlanish, oziq-ovqat, qishloq xo‘jalik masalalari bo‘yicha ma‘lumotlar yig‘ish va ularni o‘rganish, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalarni ishlab chiqarish va sotishni yaxshilashga yordam berishdan iborat. Markaziy idorasi Rimda.

**Birlashma** – ma‘lum asosda yoki ma‘lum maqsadlarni ko‘zda tutib uyushish natijasida vujudga kelgan tashkilot, uyushma. Siyosiy birlashmalar. *Birlashma tashabbusi bilan yaqinda yaxshi bir harakat boshlandi.* (Gazetadan). *Birlashma uch qavatli yangi binoda edi.* (A.Muxtor, «Asarlar»).

**Bir uyli o'simliklar** – gullari bir jinsli, lekin har tupda ham changchili, ham urug'chili guli bo'ladigan o'simliklar, mas., makkajo'xori, yong'oq, qovoq va b.

**Bir yillik ekinlar** – rivojlanish sikli (urug'i ekilgandan to yangi urug' yetilguncha bo'lgan davr)ni bir yilda tugalaydigan o'simliklar. Bularga dukkakililar, g'alla-don ekinlari, pomidor, baqlajon, qalampir, ismaloq, salat va b. kiradi.

**Bir yillik o'simliklar** – barcha hayotiy sikllari bir vegetatsiya davrida, ya'ni bir yil davomida urug'idan unib chiqib, o'sib, gullaydigan va nasl qoldirib quriy-digan o'simliklar.

**Biy III** – biy dala. Ochiq, keng, yalang dala, biyday dala. *Biy dalada o'zimizni sovuqqa oldirmaslik uchun belkurak bilan okopni chuqurroq qazirdik.* (B. Imomov, «Hormang, quroldoshlar»). *Kuni kecha o't qovjirab yotgan biy dalada bir necha soat mobaynida azim bino qad ko'tarmoqda.* (Gazetadan).

**Biya** – voyaga yetgan urg'ochi ot. Ayg'irdan alohida saqlanadi. Biya 3 yoshidan (g'o'nanlik davridan) to 20–25, ba'zan undan ham katta yoshgacha qochiriladi. Bo'g'ozlik davri o'rtacha 11 oy. Biyadan sog'lom qulun olish uchun butun bo'g'ozlik davrida qaltis harakatlardan, shamollashdan ehtiyot qilinadi, og'ir yuk tashishda ishlatilmaydi, toliqishiga yo'l qo'yilmaydi. Qulunini 6–9 oy emizadi. *Qulunli biyadan quduq suvi ortmas.* (Maqol). *Quda-andalik joyingdan qulunli biyani ayama.* (Maqol). *Alp – enadan, tulpor – biyadan.* (Maqol). *Ahmad yettiga kirganda, shu biya bir qulun tug'di.* («Oy-suluv»).

**Biya suti** – biyadan sog'ib olinadigan sut. Tarkibida 10–12,2% quruq modda,

shu jumladan 1,6–2,4% yog', 1,9–2,2% oqsil, 6,3–7,2% sut qandi, 0,3–0,4% mineral tuzlar bo'lib, S vitamini sigir sutidagiga nisbatan 10 baravar ko'p. 1 l biya suti 500 kkal energiya beradi. O'zbekiston sharoitida qorabayir biyalari sersut bo'ladi. Bu zot biyalari 5 oyda 1600–1700 l gacha sut beradi. Biya sutidan qimiz tayyorlanadi.

**Biyurg'un – 1.** Sho'radoshlar oilasiga mansub, shoxlari jigarrang, mayda bargli, past bo'yli, sershox yarim buta.

**2.** Tikanak bargli, ko'p yillik cho'l o'simligi.

**Biyobon** [f. – qaqroq cho'l, sahro] – suvsiz va giyohsiz taqir cho'l, sahro. *Yaxshilikni daryoga qil, biyobondan top.* (Maqol). *Pashsha Saidjalolxonni ergashtirib, bir biyobonga olib chiqdi.* (A.Qahhor, «Asarlar»).

**Biznes inkubator** – kichik va o'rta biznesni yuritish malakalarini berish va tadbirkorlik madaniyatini tarbiyalash bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan muassasa.

**Biznes reja** – aniq tanlangan tadbirkorlik ishining barcha bosqichlari tavsiflangan va taxm. hisob-kitob qilingan loyiha.

**Bizon** – juft tuyoqlilar turkumining quvushshoxlilar oilasi zubrlar urug'iga mansub yovvoyi qoramol zoti. Bizonning vatani Shim. Amerika (keyinchalik Yevropaga tarqalgan). Bizon yirik hayvon bo'lib, buqalarining tanasini uzunligi 3 m, bo'yi 1,8 m, og'irligi 1000 kg ga yetadi. Gavdasi yo'g'on, yelkasida kichikroq o'rkachi bor. Boshi va tanasining oldingi qismi qo'ng'ir tusli. Urg'ochilari nisbatan kichikroq. Hidlov va eshituv organlari yaxshi rivojlangan. Ko'p ovlanishi natija-

sida XIX asrga kelib deyarli qirilib ketgan. Muhofaza tadbirlari natijasida AQSH va Kanada qo'riqxonalaridagi bizonlar soni bir necha o'n mingga yetdi.

**Bobodehqon** – 1. Dehqonchilik kasbining ustasi, mohir, tajribali kekxa dehqon. *Dalalarda hayot qaynaydi, bobodehqonning qo'li qo'liga tegmaydi.* (Gazetadan). *O'zbekistonda bog'-rog'lar yaratgan mening bobodehqonlarim ekanlar-da.* (N.Safarov, «Olovli izlar»).

2. Markaziy Osiyo xalqlari orasidagi rivoyatlarga ko'ra, dehqonchilik homiyi, piri...ekin ekish, o'rish-yig'ish vaqtida «Bobodehqon qo'llasin» deb aytiladi. («O'zME».)

**Boboyi** – bot. Bir xil o'rik navi. [*O'rikning*] *Qandak, isfarak, subhoni, xurmoyi, mirsanjali, mullagadoyi, boboyi... sortlari yaxshi turshak beradi.* (K. Mahmudov, «O'zbek taomlari»).

**Bobocho'pon** – cho'ponlik kasbining ustasi, ustoz cho'pon. *Manman degan bobocho'ponlar ertalabdan boshlab topgan-tutganini ko'tarib, bu yerga kela boshladi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

**Bobr** (r. – qunduz) – zool. Kemiruvchilar turkumining bobrsimonlar oilasiga mansub, suvda yashashga moslashgan hayvon, suv qunduzi. *Bobrlar kechasi va shomda faol hayot kechiradi, qishda faol-ligi kamayadi.* («O'zME».)

**Bobuna** [f. – moychechak, romashka] – ayn. **moychechak.**

**Bod** [f. – havo oqimi, shamol] – km. Shamol, yel. *Ey bod, yetkur yora salo-mim.* (Mashrab).

**Bod** – bot. Daraxtning bir xil turi. Bog'ning ichida... *Yaproqlari yong'oq-nikiga o'xshash, mevasi gilosni eslatadi-gan bod daraxti o'syapti.* (Z. Akromov, «Hindiston lavhalari».)

**Bod-havo** – juft s. Tabiat, sharoit, ob-havo. *Sharofat Kapsanchilar qish-log'ining bod-havosi, «biram chiroy-lik» to'qaylari, daryosi to'g'risida gap-irib turib, Kanizakning ko'ziga qaradi.* (A.Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Bodiya I** [a. – sahro, cho'l] – esk. kt. Sahro, cho'l, biyobon.

**Bodiyon** [f. arpabodiyon, anis] – ayn. **arpabodiyon.** *Qishloq aholisi ukropni ko'pincha shivit, bodiyon deb atashadi.* (Gazetadan). *Ijzat bersinlar, kamina quyruq moyi, qo'zi eti va piyozni qo'shib, murch-u bodiyon bilan dimlab pishiray, mazasi mehmonlarning og'zida qolsin.* (M.Osim, «Sehrlil so'z»).

**Bodom** [f. – bodom] – 1. Atirgullilar oilasiga mansub, sermoy mag'zi iste'mol qilinadigan daraxt. *Olmadan bodom bo'lmas, tagi past odam bo'lmas.* (Maqol). *Bodom ming yillardan beri xalq tabobatida shifobaxsh o'simlik sifatida mashhur.* (M. Nabiyev, «Bodom»).

2. Shu daraxtning mevasi (danagi). Achchiq bodom. Bodom yog'i. *Odam – odam bilan, pista bodom bilan.* (Maqol). *Mehmonlarga... pista, bodom, quruq mevalar juda mo'l-ko'l tortildi.* (Oybek, «Navoiy»). *Jajji mushtchalariga bodom-mi, yong'oqmi qisib olgan.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol»). *Abdushukur bodom-pis-ta chaqib, achchiq choy ichib, yayrab o'tirdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Bodomiy** – bot. Mevasi bodomga o'xshaydigan serhosil, jaydari o'rik navi.

**Bodomzor** – bodom daraxtlari ekilgan yer; bodom bog'i. *Bodomzorda otim yayrab, o'tlagan dam, O'sha o'g'lon kuy-lar edi sho'x she'rlar.* (Gazetadan).

**Bodomcha II** – bot. Ra'nodoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub sershox va sertikan buta.

**Bodrezak** [f. – bodrezak, kalina] – shilvidoshlar (uchqatgullilar)ga mansub sarg'ish gulli buta va uning yeb bo'ladigan achchiq qizil mevasi. *Quyoshning ilk nurlari... bodrezak, boychechakning zumrad barglarini olis-olislariga el-tuvchi darakchi hamdir.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon»). *Bu bodrezakning tortqilashidan ozurda bargning shitirlashimi yo zarg'aldoq qanotlaridan chiqqan sasmi, bilmadim.* («Yoshlik».)

**Bodring** [f. – bodring] – qovoqgul-doshlar oilasiga mansub, bir yillik poliz o'simligi va uning yeyishli hosili. Barra bodring. Tuzlangan bodring. – *O'rmonjon akamga yaqin odam ekansiz, – dedi xotin bodringni qarsillatib tishlab, – yomon odam bo'lmasangiz kerak.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari».) *Oltiariqning bodringi, Quvaning handalaklari Nayman tomonlarga ham keldi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Bodringni yog'liq, go'shtli ovqatlar bilan yeyish katta ahamiyatga ega.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari».)

**Bodroq** – qizdirilgan qumda yoki elektr asbobda qovurilgan va oppoq paxtadek bo'lib bodrab ochilgan jo'xori (ovqat o'rnida). Sara bodroq. *Olag'ovur bozor. Baqiriq-chaqiriqlar: – Kep qoling, sara bodroq.* (A. Muxtor, «Tong bilan uchrashuv».)

**Bojxona deklaratsiyasi** – chegara-dan o'tkazilayotgan yuk haqidagi ma'lumotdan iborat hujjat.

**Bol** – ayn. asal 1, 2. *Bol sotgan barmog'ini yalar.* (Maqol). *Bu yerning uzumi, anori, anjiri bol bilan teng deyidilar.* (Gazetadan). *Ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin, yoring labi bol bo'lsin.* («Kuntug'mish».)

2 ko'chma. Tot, lazzat. *Til bor – bol keltirar, Til bor – balo keltirar.* (Maqol).

*Yaxshi xotin – umr boli.* (Maqol). *Ular hayot bolini emas, hayot zahrini yutib o'tirardilar.* (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o».)

3 ko'chma. *Yaxshi, muloyim muomala. Tilingda bo'lsa boling, Kulib turar iqboling.* (Maqol). *Muzdan suv tomar, So'zamoldan – bol.* (Maqol).

**Boldir** – tizza bilan oyoq panjasi o'rtasidagi qism. Yuqoridan taqim o'rtasidan o'tgan gorizontaal chiziq bilan, pastdan boldiroyoq kafti bo'g'imi bilan chegaralangan. Boldir skeleti katta va kichik boldir suyaklaridan iborat. Suyaklar orasi ochiq bo'lib, uni qalin parda to'ldirib turadi. Suyaklar va pardaning old tomonida uchta, tashqi tomonida ikkita va orqa tomonida sakkizta muskul ustma-ust joylashgan. Ular tizza bo'g'imini bukadi, panja va barmoqlarni bukib-yozadi, panjani ichki va yon tomonga ko'taradi. Boldirning ichki tomonida muskul bo'lmaydi. Boldir terisiga sezuvchi, muskullarni harakatlantiruvchi nervlar hamda qon tomirlar keladi. U oyoqning boshqa qismlari bilan birga gavnani ko'tarib turishda, yurishda qatnashadi.

**Bolari** – ayn. asalari. *Yaxshi chechakka bolari qo'nadi.* (Maqol). *Bolarilar shoshib zuvillar, Hatto qo'ng'iz yasatar inin.* (A. Sher, «Beshiktervatar haqida ballada».)

**Boldirqora** – bot. Qirqquloqdoshlar oilasiga mansub bir turli dorivor o'simlik; sochisunbul. *Boldirqora tog'lardagi g'orlarda, qoyalarning soya va sernam yoriqlarida, buloq yoqasida o'sadi.* («O'zME».)

**Boldirg'on** – bot. Ra'nodoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub o'simlik, maymunjon.

**Bolgari** – s.t. Bulg'or qalampiri.

**Bolqin** – bot. Yulgʻundoshlar oilasiga mansub tuksiz, barglari tuxumsimon chala buta.

**Bolquray** – bot. Soyabongullilar oilasiga mansub poyasi va ildizi sutli, koʻp yillik oʻt.

**Bolut** – qoraqayingullilar oilasiga mansub yirik daraxt; ayn. eman. (T. Rustamov, «Mangu jasorat»).

**Bolgʻabaliq** – zool. Boshining ikki yonidagi oʻsimtasi bolgʻaga oʻxshagan, akulasimonlar turkumiga mansub baliq.

**Bonitirovka** [lot. *banitas* – yaxshi, sifatli, asl] – 1) zotli hayvonlarni nasldorlik va mahsuldorlik xususiyati boʻyicha baholash; 2) tuproq unumdorligini qiyosiy baholash (q. **Tuproq bonitirovkasi**).

**Bonitirovka klassi** – hayvonning bir yoki bir necha belgilariga koʻra berilgan baho natijasi.

**Bonitirovka kaliti** – shartli belgilar vositasida bonitirovka qilish paytida chorva mollar haqida maʼlumotlarni yozib borish sistemasi.

**Bonityor** – chorva mollarining zotini va xoʻjalik qiymatini aniqlab beradigan chorvador.

**Boqim** – 1. Boquv, qarov, parvarish. *Boqimga qoʻyuvdim, soʻyib sotishga koʻzim qiymadi.* («Yoshlik».) *Peshqadam sut sogʻuvchilar oʻz boqimlaridagi sigirlardan moʻl-koʻl sut sogʻib olishga erishdilar.* (Gazetadan).

2 *shv.* Birovning qaramogʻida boʻlgan, qaram. *Jiyanim menga boqim. Erimnikiga hokimman, Oʻgʻlimnikiga boqimman.* (Maqol). – *Birovga boqim boʻlib yashagandan oʻlib ketganim yaxshi-da, – deydi.* (I. Rahim, «Mehr koʻzda»). *Yuragining kasalligini bahona qilib, ishdan ham boʻshab oldi. Boqim boʻlib oʻtirib-ekinxoʻr!* (Oʻ. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»).

**Boqla** [*a.* – sabzavot, oshkoʻk] – bot. Dukkakdoshlar (dukkakgullilar oilasi)ga mansub, poyasi toʻrt qirrali, barglari pat-simon, gullari oq bir yillik oʻsimlik.

**Boquv** – 1 ayn. **boqish**.

**Boquvli** – parvarishda, boquvda turgan. *Mening oʻn bir ming tillaga olgan doʻnon otim bor. Yetti oydan beri tablada boquvchi turibdi.* («Gulixiromon».)

**Bordo suyuqligi** – oʻsimliklarning zamburugʻli va bakteriyali kasalliklariga qarshi ishlatiladigan preparat. Mis kupo-rosi (toʻtiyo)ning ohak eritmasi bilan 1:1 nisbatdagi aralashmasi.

**Borona** [*umum.slavyancha: bor* – ke-sish] – haydalgan yerning yuza qismini tekislash, kesaklarni maydalab, qatqaloqni yumshatish va begona oʻtlarni yoʻqotish uchun ishlatiladigan qishloq xoʻjalik qu-rol; tirma, sixmola. Diskli borona. Tirka-ma borona. Borona qilmoq. *Pluslar orqasiga tirkalgan boronalar... xanjar tishlari bilan kesaklarni chaynab... borardi.* (Sh. Rashidov, «Boʻrondan kuchli»). *Avvalgi yillar Kenjaboy aka boronani serunum va sifatli qiladigan mola oʻylab chiqargan.* (H. Nazir, «Koʻkterak shabadasi»).

**Boronalamoq** – haydalgan yerni borona bilan yumshatmoq, tekislamoq, molalamoq. *Ertaga boronalab, yengil mola orqasidan traktorda ekaverish kerak.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»). *Boronalash bilan bir vaqtda tuproqqa mahalliy oʻgʻit ham solib ketildi.* (Gazetadan).

**Boronalash, borona bosish** – tuproqni yuza yumshatish va ekinni parvarish qilish usullaridan biri. Boronalash erta koʻklamda yer haydalgandan keyin, ekishdan oldin oʻtqziladi. Boronalash haydalgan yer betini yumshatish, tekis-lash, kesak va palaxsalarni maydalash, qatqaloqni buzish, urugʻni koʻmish (urugʻ yer betiga sepilganda), mineral oʻgʻitni

tuproqqa aralashtirish, o'simliklarni parvarish qilish – ko'p yillik o't va kuzgi g'alla ekinlari maydonini erta bahorda yumshatish maqsadida o'tkaziladi.

**Bostiriq** – 1. Yaydoq ot ustiga yopib qo'yiladigan qalin mato. *Boyning o'ttiz besh bolorli keng sayisxonasi egarlari olinib, bostiriq bilan yopib, xo'rakka qo'yilgan otlar bilan to'la edi.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Bedov otning bostirig'i gullidir, Ot ustida o'tirishi ballidir.* («Qo'shiqlar».)

2. Kiyim-kechak yoki ustidan yana bir bor bostirib tikish, bostirma chok. *Bostiriq qilib tikmoq.*

**Bostirib sug'orish**, *yoppasiga sug'orish* – sug'orish usullaridan biri. Tuproq, sharoiti va nishabiga qarab, sug'oriladigan yer 0,1 – 0,25 ga kattalikdagi maydonlarga bo'linadi, atrofiga 0,2–0,4 m balandlikda marza olinadi. Bostirib sug'orish faqat tuproq sho'rini yuvish, yaxob berish, sholi yoki bedani sug'orishda qo'llaniladi. Bostirib sug'orish suvning ortiqcha sarflanishiga, tuproq tarkibining buzilishiga, yerning sho'rlanishi va botqoqlanishiga sabab bo'lgani uchun bu usuldan kam foydalaniladi.

**Bostirma//to'la//og'il//molxona** – qo'y-echkilarni qishda har xil ofatlardan saqlash maqsadida atrofi devor bilan o'ralgan, ustki, tom qismi ham loy suvoq qilib yopilgan, o'rta qismida esa yantoq uyumi bo'lgan mollarning «uyi».

**Bosvoldi** – shakli tuxumsimon, sirti sal tilim-tilim, olapo'choq, to'rsiz, eti yumshoq, shirin o'rta pishar qovun navi. *Bu bosvoldi, bu chala pishgan begimsuydi... bu bir yoniga oftob tegmagan qizilurug', deb bexato aytaveraman.* (X. To'xtaboyev, «Shirin qovunlar mamlakati»). *Quyosh botib, salqin tushdi. Polizning tarovatli, handalak, bosvoldi bo'yini*

*ufurgan fayzli oqshomi boshlandi.* (N. Fozilov, «Diydor»). *Salqin havoda cho'giri, bosvoldilarning yoqimli hidi anqirdi.* (S. Yunusov, «Kutilmagan xazina»).

**Botanika** [yun. *botanikos* – o'simlikka taalluqli, *botane* – o'simlik, o't, giyoh] – botanika yer yuzasidagi o'simliklar dunyosini, o'simliklar, organizmlarning yashash va rivojlanish qonuniyatlarini, o'zaro aloqalarini, tashqi muhitga nisbatan munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganadi. O'simliklar haqidagi fan, nabotot. *Botanika fani. Botanika darsligi. Botanik olim. Muzeida geologiya, geografiya va botanika bo'limlari mavjud.* (Gazetadan).

**Botmon** [f. < a. – 898,5 g ga teng og'irlik o'lchovi] – tar. 1. Markaziy Osiyoning, shuningdek, O'zbekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega bo'lgan (ikki puddan o'n bir pudgacha) og'irlik o'lchov birligi. *Chumchuq semirgani bilan botmon bo'lmas.* (Maqol). *Bedananing ham o'ziga yarasha botmoni bor.* (Maqol). *Yetmish botmon toshni ko'tarib otdi.* («Intizor»). *Xudo senga bir botmon kuch bergan-u, bir misqol aqlni ayagan!* (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

2. Taxminan bir gektaga teng sath o'lchov birligi. *Mavlon akaning meros mahriga tushgan ikki botmon yeri bor.* (H.G'ulom, «Mash'al»). *Shu o'ttiz chaqirimli ariq qazilib bitganda, Namangan va Andijon tumanlaridan ikki ming botmongacha yer sug'orilar edi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»). *Raisni kasal deb o'ylab, hammang quturib ketding. Qo'sh ho'kiz ovora-yu, bir botmon yer haydamaysan.* (M.M. Do'st, «Lolazor»).

**Botmon-dahsar** [botmon + f. – taxm. 750 g keladigan og'irlik o'lchovi] – juda katta; juda og'ir, juda ko'p. *Bog'ni boqsang, bog' bo'lar, botmon-dahsar yog'*



bo'lar. (Maqol). *U [Yahyo] og'ir-og'ir qadam bosar, go'yo oyog'iga botmondahsar tosh osilgan edi.* («Yoshlik».)

**Botqoq – 1.** Oyoq bosib bo'lmaydigan bo'sh loy va shunday loy bilan qoplangan yer, maydon; botqoqlik, botqoqzor. *Baqa botqog'ini qo'msar, Baliq – ko'lini.* (Maqol). *Eshak yugurar qatqoqda, holi ma'lum botqoqda.* («Qanotli so'zlar»). *Ariqni botqoqdan tozalab turmasang, keladigan suv ham keyinchalik kamayib, oxiri butunlay kelmay qolishi mumkin.* (Shukurullo, «Saylanma»).

**2 sft.** Bo'sh loyli, shunday loy bilan qoplangan. *Botqoq va balchiq yerlarda olib boriladigan dehqonchilikni biz bir qator xalqlarda hanuz uchramiz.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**3 ko'chma.** Salbiy muhit, girdob. *Ular meni jinoyat botqog'iga itarmoqchi bo'ldilar.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). *Balandparvoz maqtanchoqlik bilan osmonga qarab, necha yillik turg'unlik botqog'idan qanday o'tib kelganimizga hayronman.* (Gazetadan). *Xizmat burchi nuqtayi nazaridan olib qaralganda mayor haq: jinoyatchilik botqog'idan tortib chiqarib, odam qatoriga qo'shish kerak.* («Yoshlik».)

**Botqoqi tuproqlar** – o'ta nam sharoitda hosil bo'ladigan tuproqlar, bunday tuproqda namsevar o'simliklar rivojlanadi.

**Botqoqi-o'tloqi tuproq** – O'zbekistonning sur tuproq mintaqasi va sahro zonasida tarqalgan tuproq. Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Surxon va boshqa daryo vodiylarida hamda So'x, Isfira. Marg'ilonsoy, Aravonsoy, Oqbo'ra tabii soy va kichik daryolarning qayirlaridagi pastqam joylarda, ya'ni yer osti suvi yuzga joylashgan qismida uchraydi.

**Botqoqlanish, tuproq botqoqlanishi** – tuproqning yer usti yoki grunt suvlari bilan ortiqcha namlanishi natijasida paydo bo'ladigan jarayon. Bunda tuproqda anaerob sharoit vujudga keladi, gleylanish belgilari ro'y beradi, yarim chirigan o'simlik qoldiqlari yig'ilib boradi, suvhavo rejimi o'zgaradi.

**Botqoqlanmoq** – botqoqlikka aylanmoq. *Tuproqlarni tekshirishdan asosiy maqsad ma'lum hududdagi tuproqning tipi va xillarini aniqlash... sho'rlanish va botqoqlanish jarayonlarini o'rganishdir.* (M. Bahodirov, «Tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar»).

**Botqoq tuproq melioratsiyasi** – botqoqlarni quritib qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan foydali yerga aylantirish. Bunda tuproq namligi mo'tadil darajaga, ya'ni namlik darajasi tuproqning to'la nam sig'imiga nisbatan 60–70% ga keltiriladi. Natijada unda havo, oziq sharoiti yaxshilanib, unumdorlik oshadi, organik moddalarning aerob parchalanishi uchun qulay sharoit tug'iladi.

**Bovliq** – shv. O'rigan g'alla, pichan va shunga o'xshashlarni bog'lash uchun o'simliklar poyasidan eshib tayyorlangan ip. *Bovliq eshar edim bir kun pichanda, Hamla qilib qoldi chinqiroq ilon.* (A.Oripov). *O'roqchining qo'lida bovliq turar, Qo'y ichida irg'alib sovliq turar...* («Oq olma, qizil olma».)

**Boyalich** – cho'llarda o'sadigan, sho'radoshlarga mansub sershox buta. *Sho'rxoklarda saksovul, boyalich va boshqa butalar uchraydi.* («O'zbekistonning iqtisodiy geografiyasi»). *Qishda o'simlik uchun sharoit yaxshi bo'lganligidan... juzg'un, saksovul, boyalich... ko'p.* (P. G'ulomov, «Zarafshon etaklarida»).

**Boyent** – iqtisodiy sharoitning noqulayligi natijasida narx-navoning tezkor oshishi bilan tavsiflanadigan bozor ahvoli.

**Boyqizi** – zool. Gavdasi qizg'ish, qora yumaloq dog'lari bor hasharot. *Ariq bo'yidagi maysalar orasida ochilgan jimitdek zangori gullar ustida boyqizi sarg'ish qanotini pirpiratib uchadi.* (O'. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»).

**Boyxalcha** – bot. Zirkdoshlar (zirkgullilar oilasi)ga mansub, yaprog'i panjasimon qirqilgan, tugunak ildizli ko'p yillik o't.

**Boyyong'oq** – yong'oqning bir xil navi. *Ariqning narigi yuzida boyyong'oq tagida ikkita bo'yra, bir sholcha yozig'liq turibdi.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**Boychechak** – 1. Piyozdoshlar (piyozgullilar oilasi)ga mansub, ilk bahorda ochiladigan ko'p yillik o'simlik. *Bahor kelgach, har yili dalalarga chiqardik. Etak-etak chuchmomo, boychechaklar yig'ardik.* (H. Saloh). *Boychechak – bahorning birinchi elchisi.* (Gazetadan). *Qattiq yerdan tatalab chiqqan boychechak, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.* («Qo'shiqlar».)

2 etn. Erta ko'klam, boychechak chiqqan paytda, eshikma-eshik yurib aytiladigan maxsus xalqona qo'shiq. *Boychechak aytmoq.*

**Bozor** – 1) sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasidagi tovar ayriboshlash munosabatlari; ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchini o'zaro bog'lovchi mexanizm. Bozor obyekti nafli bor tovar va xizmatlar, subyekti esa bozor ishtirokchilari (sotuvchi va xaridorlar) bo'lib, ular firmalar, uy xo'jaliklari, davlat tashkilotlari, idora va boshqalardan iborat. Bozor ishtirokchilari tovar va xizmatlarni pul vositasida ayriboshlash yuzasidan munosabatlarga ki-

rishadilar. Bozorda tovar bilan oldi-sotdi munosabatlari tovar ishlab chiqarish, tovar ayriboshlash va pul masalasi qonunlariga binoan amalga oshiriladi. Bozor ishtirokchilari sotuvchi va xaridor maqomiga ega bo'ladilar.

**Bozorbop** – bozor suvadigan, xaridor yoqtiradigan; bozorbop, tezketar. *Bozorbop mol. Katta uchastkaning tevaragi va sahni bozorbop ekinlar bilan band edi.* (Oybek, «O. v. shabadalar»).

**Bozor infratuzilmasi** – bozorda tovarlar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlaydigan muassasalar, tashkilotlar majmui.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar-pul munosabatlariga asoslangan, turli mulkchilikka hamda iqtisodiy erkinlikka tayangan va raqobat vositasida boshqarilib turuvchi demokratik iqtisodiyot.

**Bozor islohotlari** – davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy chora-tadbirlari tizimi, iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi.

**Bozor konyunkturasi** – muayyan davrdagi bozor holati; bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra Bozor konyunkturasi ijobiy va salbiy, qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Bozor konyunkturasi talabning oshishi bilan xarakterlansa, sotuvchi uchun qulay, chunki u tovarni qimmatga sotib, ortiqcha daromad ko'radi. Agar bozorda taklif oshib ketsa, konyunktura xaridor uchun qulay bo'ladi – tovarni arzoniga olib, naf ko'radi.

**Bozor korneri** – bir yoki bir necha huquqiy va jismoniy shaxslarning foyda olish maqsadida bozordagi mollarni yop-pasiga sotib olishi.

**Bog'** [f.dan «mevazor, chamanzor, bo'ston»] – 1) mevali daraxtlar va tok, gul bilan band maydon, mevazor (uzum bog'i, anjir bog'i, olma bog'i va h.k.); 2) manzarali o'simliklar ekilgan joy, daraxtlar va gullar ekilib obod etilgan istirohatgoh.

3) to'plab, dastalab, belidan bog'langan pichan, beda, poxol, ko'kat va sh.k. Bir bog' bug'doy. Bir bog' sabzi. *Qiz kim-san – Sultonovga katta bir bog' o'tinni orqalatib, oldiga solib kelardi.* (M. Mansurov, «Yombi»). *G'o'za o'tog'iga chiqqan Oyshaxon kechki payt boshiga bir bog' o't qo'yib, uylariga qaytdi.* (P. Qodirov, «Erk»). *Turg'unoy gapga aralasholmay, bedalar ichida bir bog' bedaday silkinib borar edi.* (A. Qahhor, «Asarlar».)

**Bog'bon** [f. – bog'ni asrovchi, qo'riqlovchi] – 1. Bog'dorchilik mutaxassisi.

2. Bog' va undagi mevali daraxtlarga, tok va gullarga qarovchi, ularni parvarishlovchi kishi. *Bog'bon bo'lmay, bilmas gulning qadrini, Ari boqmay, bilmas bolning qadrini.* (Maqol). *Cho'lboboning payvandlarini havas qilmaydigan bog'bon kam topiladi.* (H.G'ulom, «Feruza».)

### 3 ayn. bog'dor 1.

4 ko'chma. Qo'riqlovchi, g'amxo'r, posbon. *O'qituvchi bamisoli bog'bon, u yoshlik gulshanining rahnamosi.* («Fan va turmush».) *Bu ko'hna jahon bog'ida bog'bon otaxonlar...* (Habibiy, «Devon»). *Bog'ing aro bog'bon bo'lib, Tersam qizil gullaringdan.* («Qo'shiqlar».)

**Bog'bonlik** – bog'ni parvarish qilish bilan shug'ullanish, bog'bon kasbi. *Farroslik, qorovullik, bog'bonlikni xotini va bolalari nomiga rasmiylashtirib, maoshini olib yurgan Baqaloq katta xum choysoz ko'tarib kirdi.* (S. Nurov, «Maysalarni yoz urmaydi».)

**Bog'bonchilik** – ayn. bog'bonlik. *Eroqo'm buva! Ammo bog'bonchiligin-*

*gizga men ham ishqiboz bo'ldim.* («Askiya».)

**Bog'-bo'ston, bog'-u bo'ston** [bog' + bo'ston] – 1. Yashnagan bog'lar va gulzorlar. *Sharafli qadami har joyga yetsa, Bo'lib sermeva bog'-u bo'stonim.* (Habibiy, «Devon»). *Aningdek jannatmakon bog'-bo'stonlar qayon qoldi?* (Gazetadan).

2 ko'chma. Gullab-yashnagan, serbog' joy; bog'iston. *Do'stlar, mening yurtimni O'zbekiston deydilar. Dong'i tutgan dunyoni Bog'-u bo'ston deydilar.* (Z.Diyor) *Muqaddas, hur diyorum, O'zbekiston, paxtaga konsan, Ulug' nomingga xush havo, keng bog'-u bo'stonsan.* (Habibiy, «Devon».)

**Bog'dor** [f. – bog' egasi, bog'bon] – 1 ot. Bog' egasi; bog'bon. *Domladan keyin so'z olgan bir kishi Nikolayning vaqtida do'kondorlarga qancha soliq chiqqanligi... to'g'risida uzoq so'zladi.* (A. Qahhor, «Sarob».)

2 sft. Bog'ga, bog'larga ega bo'lgan; bog'lardan iborat bo'lgan. *Bog'dor xo'jalik. Bog'dor tumanlar.*

**Bog'dorchilik** – 1. Qishloq xo'jaligining meva, uzum va rezavor mevalar yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Aholining meva va meva mahsulotlariga, sanoatning meva va meva xomashyosiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Bog'dorchilikni rivojlantirish. Bog'dorchilik brigadasi. *Qishloq ahli asosan tamakichilik, qisman bog'dorchilik bilan shug'ullanadi.* («Yoshlik».) *Bu yigit o'tgan yil institutni bitirgan agronom bo'lib, bog'dorchilik brigadasiga boshchilik qilardi.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi».)

2. Mevali daraxtlarning tuzilishi, o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi hamda

hosil berish qonuniyatlarini hamda tashqi muhit bilan aloqadorligini o'rganuvchi, ularning turli tabiiy muhitda yaxshi o'sishi va hosil berishini ta'minlovchi ilg'or agrotexnik usullarni ishlab chiquvchi fan sohasi.

**Bog' inventari** – meva daraxtini o'stirish va bog'ni parvarishlashda ishlatiladigan asbob-anjomlar. Bog' inventari qo'lda ishlatiladigan (ketmon, belkurak, tok qaychi, panshaxa, chelak, payvand pichoqlari, arra, narvon, savat va boshqalar) hamda motor kuchi bilan ishlaydigan asboblardan (nasosli purkagichlar, changlatgichlar, kultivatorlar, o't o'radigan, og'iz soladigan moslamalar va boshqalar)ga bo'linadi.

**Bog'lam** – 1. To'plab, dastalab bog'langan narsalarning har bir bog'i, dastasi. Bir bog'lam piyoz. Bir bog'lam shox. *Yelkasidagi ikki bog'lam saksovul o'tinni ostonaga gurs etkizib tashladi.* (A. Muxtor, «Asarlar»). *Bu fikr unga, boshida bir bog'lam tut bargini ko'tarib, markazdan chiqib ketayotganida yana qaytib keldi.* (A. Muxtor, «Kumush tola»).

2 tib. ayn. **bog'lov**. Gips bog'lam.

**Bog'li** – bog'i, bog'chasi bo'lgan, bog'-rog'li. *...besh ho'kizdan bir qo'shini, bog'li yerlarining yarmini o'g'liga ajratsa, uning yuki ancha kamayadi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Qirq kecha, qirq kunduz yo'l yurib, bir bog'li yerga yetdi.* («Bahrom va Gulandon».)

**Bog'liq** – shv. Shox-shabba, beda, bug'doy, sholi kabi chochiq narsalarni yig'ib, bog'lash uchun o'sha narsalarning o'zidan yoki novda, poxol kabilardan eshilgan bog'; belbog'.

**Bog' malhami** – daraxtning payvandlangan, kesilgan va mexanik shikastlangan joyiga suriladigan malham (zamaza-

ka). Bog' malhamini xonaki usulda va tez tayyorlash usullari: qizdirilgan 1000 g nigrolga 300 g elangan yog'och kuli qo'shiladi va eng arzon malham olinadi; 2) alohida eritilgan 1000 g parafinga 1000 g kanifol maydalab qo'shiladi.

**Bog'ot** [f. – «Bog'» so'zining ko'pligi; bog'lar] – bog'lar, bog'lar bilan qoplangan yerlar. *Oppoq tongdek hayotbaxsh... bu sado, bu faryod devor, tom, chaman, bog'otlar osha taralib, tun bag'rini tilim-tilim qilar edi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Bog'-rog', bog'-u rog'** – mevazor, tokzor, gulzor bog'lardan iborat maydon, park va sh.k. [*Xoljon xola:*] *Otangdan qolgan bog'-rog'larni tashlab, qayoqqa borasan, bolam?* (O. Yoqubov, «Pyesalar»). *Oyijon! Dadam bilan albatta keling. Bizning o'zimiz yaratgan shaharni, bog'-rog'larimizni ko'ring.* (N. Safarov, «Sao-datning qissasi»).

**Bog' o'rmon ihotazorlari** – mevali bog'lar, uzumzorlar va boshqa mikro-iqlimni yaxshilash va tabiatning zararli omillaridan saqlash uchun ular atrofiga belbog' usulida, bog' ichida karta chegaralari bo'ylab barpo etiladigan daraxtzorlar.

**Bog'cha** – 1. Kichkina bog'. *Kuchli shamol ko'tarilib, bog'chadagi har narsani to'rt tarafga buka boshladi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»). *Huvillab qoldi mana gavjum bog'lar, bog'chalar, Yashil ellarga tomon uchib ketdi qushchalar.* (A. Oripov, «Yurtim shamoli»).

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun belgilangan ta'lim-tarbiya o'chog'i. *Navbatdagi so'z zavod bog'chasining mudirasi Rasulovaga tegdi.* (S. Ahmad, «Saylanma»). *Xadicha xolam ham shu bog'chada ishlar ekan.* (A. Qahhor, «Asarlar»).

**Boshariq** – asosiy, katta ariq. *G'aybullaning o'zi boshariq oldida shlang tortib, g'o'za sug'ormoqda edi.* («Sharq yulduzi».)

**Boshlang'ich urug'chilik** – yangi hamda rejalashtirilgan ekin navlari va duragaylari urug'larining navdorlik va mahsuldorlik sifatlarini saqlab qolgan holda yalpi ko'paytirish. Istiqbolli yangi navlar elitasi navni dastlabki ko'paytirish urug'chilik xo'jaliklarida, rejalashtirilgan navlar elitasi ixtisoslashtirilgan elita urug'chilik xo'jaliklarida yetishtiriladi.

**Boshog** – 1. Bug'doy, arpa singari o'simliklarning poyasi uchidagi don hosil bo'ladigan cho'zinchoq to'pguli hamda don bo'lib yetilgan shunday to'pgul, bosh. Boshog chiqarmoq (tortmoq). *Bir gal yarimta boshog'ni sudrab ketayotgan chumolini ko'rganman.* (O'. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»). *Mehnating singani uchun har boshog' Oyog'osti bo'lsa, ko'rinar uvol.* (G'.G'ulom). *Normatga bu yerda har boshog' tagida bir odam yotganday tuyuldi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat».)

2 ayn. **Mashog**. *Boshog' termoq. Kolxo'zning bug'doyi yig'ib bo'lingach, boshog' terishga ruxsat berishadi.* (Sh.Jo'rayev, «Bola dunyoni tebratar»). *Ko'rsaki, bolalar shamolday yelib, Boshog'lar teradi uyqularida.* («Sharq yulduzi».)

**Boshog'lamoq** – 1. To'pgul, boshog' chiqarmoq, bosh olmoq (g'alla o'simliklari haqida). *Hozir sholi yoppasiga boshog'ladi.* (Gazetadan).

2. Boshog'ini yulib, terib olmoq. *Sutg'om qo'ymoq bo'lganidan boshlab ayollar boshog'lab, donini bolalarga qovurib yegizadi.* (Y. Shamsharov, «Toshqin».)

**Boshog'li** – boshog' chiqaradigan. *Boshog'li don ekinlari. Boshog'li va dukkakli ekinlarning ba'zi bir turlarida oqsildan*

*tashqari anchagina moy ham bo'ladi.* (Gazetadan).

**Boshqurt** – shv. Chorva mollarida uchraydigan bir xil kasallik. *Bir haftadan beri hali qilqurt, hali boshqurt... kasallarining oldini olish uchun qo'tonmaqo'ton, o'tarma-o'tar kezib, tappa tashladi.* (T. Sulaymon, «Qorasoch».)

**Bosh suv olish inshooti** – daryodan kanallarga to'g'onsiz suv olish joyida quriladigan inshoot. Bosh suv olish inshooti o'rmini belgilashda asosan daryoning qirg'oq sharoiti hisobga olingan.

**Boshvoq** (asli **bosh** + **bog'**) – chorva mollarining boshiga bog'lanadigan arqon; no'xta. *Sigir o'g'irlagan qutuldi, Boshvoq ushlagan tutildi.* (Maqol). *Oynisa endi sigirning boshvog'iga qo'l cho'zganini biladi, naq boshi ustida allanarsa qattiq gumburlab ketdi.* (X. Sultonov, «Onamning yurti».)

**Brabanson ot zoti** – «Belgiya og'ir yuk tortuvchi zoti» nomi bilan dong'i ketgan. Og'ir aravalarga qo'shiladigan, bichimi zabardast zamonaviy brabanson otlarning tanasi uzun, gavdasi keng, beli chuqur, oyoqlari kalta, to'piqlaridagi popugi katta, tuyoqlari yetarli darajada pishiq emas. Ayg'irlarining tirik vazni 900–1200, biyalariniki 700 kg. Brabanson otlar Belgiya, Chexoslovakiya, Vengriya, Bolgariya, AQSH va boshqa mamlakatlarda ko'paytiriladi.

**Brakon** (*Brecon, hebetor Say*) – paraqanotlilar turkumiga mansub brakonidlar oilasining mayda tekinxo'r hasharoti. Markaziy Osiyo faunasida brakon avlodiga mansub bir necha tur mavjud, bulardan asosiysi *N. hebetor Say*. hisoblanadi, u karadrina, barg o'rovchisi, makkajo'xori parvonasi va g'o'za tunlami kabi zararkunandalarning tashqi tekinxo'ri hisoblanadi. Tuxumi sutsimon

oq bo'lib, uzunligi 0,4–0,5 mm, eni 0,2 mm keladi, silindrsimon shaklda, sal botiq bo'ladi. Urg'ochilari oldindan o'zi falaj qilgan qurtlarga, zararkunandalarning yoshi, turiga qarab 1–10 tadan tuxum qo'yadi. Lichinka uch yosh hayot kechirib rivojlanadi. Tanasining bo'yi 3–4 mm, g'umbaginiki 2,5–3 mm, eni 1,6 mm bo'lib, oq ipaksimon pilla bilan o'ralgan. Brakon juda serpusht bo'ladi. Har bir urg'ochi 100 tadan 300 tagacha tuxum qo'yishi mumkin. Bitta avlodining rivojlanishi 12–14 kun davom etadi. Har 100 tup o'simlikdagi qurtlar soniga qarab 1:5 va 1:10 nisbatda gektariga 1000–1500 tagacha tarqatiladi.

**Brakonidlar** (*Braconidae*) – pardaqanotlilar turkumiga mansub, uncha katta bo'lmagan tekinox'rlar oilasi. Xo'jayin hasharotlar qurtining tanasi ustiga tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar g'umbakka aylanishdan oldin sekin-asta qurt tanasini yemirib, tashqariga chiqadi. Ko'pchilik vakillari tangaqanotlilar qurtining ichki yoki tashqi tekinox'ridir. *Aphidius* avlodining vakillari o'simlik shiralari tanasida tekinox'rlik qiladi. Ba'zi bir turlari chetdan keltirilgan (introduksiya) va iqlimlashtirilgan bo'lib, ulardan zararkunandalarga qarshi kurashda keng foydalanilmoqda. Bularga *Brecon*, *Apanteles*, *Opius* kabi turlar kiradi.

**Breytovo cho'chqa zoti** – go'sht va yog' (salo) beradigan zot. Rossiyaning Yaroslavl viloyati Breytovo tumani xo'jaliklarida mahalliy kech yetiladigan cho'chqalarni yirik va o'rtacha oq, litva oq va daniya landras cho'chqa zotlari bilan chatishtirib chiqarilgan. 1948-yilda zot sifatida tasdiqlangan. Breytovo cho'chqa zoti go'shtdor, tanasi baquvvat. Bo'yni kalta, ko'kragi keng, biqini yuma-

loq. Voyaga yetgan erkagining tirik vazni 300–320 kg. Urg'ochi cho'chqalarining vazni 230–250 kg. Har gal 10–11 ta bola tug'adi. Bolasining vazni 6,5–7 oylikda 90–100 kg gacha boradi. Breytovo cho'chqa zoti O'zbekistonda ham tarqalgan.

**Brigada** [*fr. brigade* < *ital. brigata* – otryad, odamlar guruhi, qo'shin] – 1. Bir necha polk, batalyon yoki diviziondan va maxsus qo'shinlar bo'linmalaridan, dengiz flotida esa bir necha turdagi harbiy kemalardan iborat harbiy-taktik qo'shilma. Tankchilar brigadasi. Brigada qo'mondoni. *Brigadaning jangchilari ko'tarinki ruh bilan hujumga o'tdi.* (T. Rustamov, «Mangu jasorat»).

2. Mehnatning muayyan bir turini birgalikda bajarish uchun tuzilgan va ish natijasida umumiy javobgar bo'lgan jamoa, mehnatchilar guruhi. Paxtachilik brigadasi. Oilaviy brigada. Binokorlik brigadasi. *To'qayda ishlagani yollangan odamlardan maxsus brigadalar tuzildi va bu brigadalarning har biriga bittadan gusenitsali traktor berildi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Raisning mashinasi sabzavotchilik brigadasi tomon burilib ketdi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

3 s.t. Brigada boshlig'i; brigadir. *Kim-sanoy bo'lganda, hozir brigada bo'lar edi. G'ayratli, oriyatli juvon edi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Brinza** (*rumincha Brinza* – pishloq) – asosan, qo'y, shuningdek, sigir, echki sutidan yoki ularning aralashmasidan tayyorlanadigan sho'rtang pishloq.

U qo'y sutiga shirdon (kavsh qaytaruvchi chorva mollari me'dasining bir bo'limi) fermenti qo'shib tayyorlanadi. GOSTga muvofiq yetilgan (1–2 oyli)

pishloq tarkibida: 30–45% yogʻ, 54–57% nam, 6–8% tuz boʻladi.

**Briologiya** [*yun. bryon* – yoʻsin, mox + *logos* – taʼlimot] – *bot.* Botanikaning yoʻsinlar, moxlarni oʻrganuvchi boʻlimi. *Briologiya torf hosil boʻlishi, yoʻsinlar oʻsgan yerlarda asta-sekin tuproq hosil boʻlishi kabi... jarayonlarni oʻrganadi.* («OʻzME».)

**Broyler** (*ingl. broiler* – goʻshtga boqiladigan joʻja, *broil* – olovda qovurish) – tez yetiladigan va yuqori sifatli goʻsht beradigan goʻshtdor joʻja.

6–9 hafta boqilib, tirik vazni 1,5–2 kg boʻlganda soʻyiladi. Gʻoshti yumshoq va mazali, undan parhez taomlar tayyorlanadi. Broyler olish uchun ogʻir vaznli va tez yetiladigan sergoʻsht, sertuxum zotli tovuq joʻjalaridan hamda zotlararo va liniyalararo chatishtirishdan olingan duragay joʻjalardan foydalaniladi. Shuningdek, oʻrdak (8 haftalik), gʻoz, sesarka (12 haftalik), kurka (19 haftalik) joʻjalarini goʻshtga boqish ham broyler deyiladi.

**Bruder** (*ingl. Brood* – tuxum bosish) – chorva mollari bolasini bir haftalik boʻlguncha issiq tutish uchun moʻljallangan maxsus qurilma. Bruderlar parrandachilik fermalarida keng qoʻllaniladi.

**Brudergauz** – joʻjalar (tovuq, kurka, oʻrdak va gʻoz joʻjalari) 30–60 kunlik boʻlguncha saqlanadigan isitiladigan xona.

**Brutsellyoz** – infeksiyon kasallik. Brutsellyozni brutsella bakteriyalari qoʻzgʻatadi, ular tashqi muhitda (suv, tuproq, teri va h. k.) bir necha oy saqlana oladi; dezinfeksiyalovchi vositalarda bir necha minutda nobud boʻladi. Brutsellalar kasal hayvonning suti, siydigi, goʻngi, tushgan bolasi bilan tashqariga chiqadi, ular shu

hayvonning goʻshtida ham boʻladi. Brutsellyoz bilan ogʻrigan molning xom suti va sut mahsulotlari (pishloq, moy), shuningdek chala pishirilgan goʻshti isteʼmol qilinganda kasallik odamga yuqadi.

**Budjet** [*ingl. budget* – hamyon, mablagʻ] – 1 *iq.* Muayyan vaqt (yil, yilchorak) uchun ishlab chiqilgan, meʼyorlashtirilgan va qonuniy tarzda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yigʻindisi. *Budjet yili. Budjet tizimi. Davlat budjeti. Harbiy budjet.*

2. Shaxsiy kirim-chiqim majmui. Oʻqish davrida mening oylik budjetim uch ming soʻmdan oshmas edi. *Toʻgʻri, oilada oilaviy budjetni boshqaradigan bir kishi boʻlishi kerak.* (Gazetadan).

**Budyonov ot zoti** – vatanimizning salt miniladigan eng aʼlo ot zoti. Unda Don otlari bilan sof qonli salt miniladigan ot zotlarining eng yaxshi sifatlari qoʻshilib ketgan. 1921–1948-yillarda Rostov oblastida yetishtirilgan. Aygʻirlarining oʻlchamlari: yagʻrinigacha balandligi 161–162, tanasining qiya uzunligi 163, koʻkrak aylanasi 186, pocha aylanasi 20,5 sm. Aygʻirlarining tirik vazni 550, biyalariniki 500 kg.

**Buhron** [*a.* – tanglik, ogʻir holat; alahlash] – *esk. ayn. krizis, tanglik.*

**Bujgʻun** – 1. Qayragʻochning bir turi, qattiq tanali daraxt. *Zokir ota beliga teshasini qistirib, bujgʻun va qurigan yongʻoq shoxlaridan oʻtin tayyorlashga kirishdi.* (Gʻayraty, «Yoshligimiz»). *Tosh boʻlsang ham yoraman, Chinor boʻl yoki bujgʻun.* (Q. Muhammadiy).

2. Pista daraxtining magʻiz qilmay bujmayib qolgan mevasi (xalq tibbiyotida va boʻyoqchilikda ishlatiladi). *Tabib qoʻy jigarini ham kabob qilib, bujgʻun sepib yeng, degan ekan, bir-ikki qilibdi,*

lekin dardi shifo topmabdi. (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

3. O'simliklar tanasining turli qismlarida ko'pincha virus, bakteriya, zamburug', hasharotlar ta'sirida hosil bo'ladigan g'urrallar. *Bujg'un, asosan, pista, qayrag'och kabi daraxt barglarida hosil bo'ladi.* («O'zME».)

*Ba'zan serko'z bujg'un qayrag'ochlarni egish juda qiyin bo'lardi.* (H. No'mon va A. Shorahmedov, «Ota»).

**Buket** [fr. *bouquet* – daraxtlar to'pi, kichik o'rmon] – 1. Xillab dastalangan gul, guldasta. *Ular oq atirgullardan hamda oq va qizil qalampirgullardan qilingan buketlarni ko'tarib olganlar.* (Gazetadan).

2 ko'chma. Xillangan, saralangan narsalar dastasi, turkumi. *Do'stim, mardligingga qadah ko'tarib, She'rdan buket yasab, senga tutaman.* (Y. Hamdam, «Tinchlik bahori»).

3 q.x. G'o'za buketi – buketlash natijasida hosil bo'lgan bir tup g'o'za. [*Beshinchi bosqichga*] ... yaganalash, g'o'za buketlarini rostlab qo'yish, chopiq qilish... shu kabilar kiradi. (Gazetadan).

**Buketlamoq** – q.x. Qatorlab ekilgan g'o'za tuplarini mashinada yaganalab, ko'ndalangiga kultivatsiyalab, to'p-to'p qilib ajratmoq. *G'o'za tuplarini g'ujlab qo'yish – buketlash singari mehnatni eng ko'p talab qiladigan ishni batamom yo'qotishga imkon beradi.* (Gazetadan).

**Bulbul** [f. – bulbul] – 1. Chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush. *Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.* (Maqol). *Qush yo'q joyda qurbaqa – bulbul.* (Maqol). *Ey dilrabo, ishqing bilan devona bo'ldim sog'inib, Bulbul kabi tun kechalar giryo-na bo'ldim sog'inib.* (Hamza). *Hammayoq jimjit. Faqat onda-sonda bulbullar nolasi eshitiladi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2 ko'chma. Xushovoz xonanda; mo-hir notiq. *Zo'rg'a-zo'rg'a qayrilib, yoniga qaradi: sevimli bulbuli, sochlarini to'zg'itib, shirin uyquda rohat qilmoqda edi.* (Cho'lpon, «Kecha va kunduz»). *Ergash ota haqiqatan ham xalq ko'nglini xonish qiluvchi shoir, xalq dardini, tilak-orzusini kuylovchi bulbul edi.* («O'TA».)

3 ko'chma. Oshiq, xushtor. *Gul shoxiga bulbul qo'nsa, bir qo'nsin, Ikki bulbul qo'nsa, sira qo'nmasin.* («Qo'shiqlar».) *Qaytayin, so'lgandi chamanda gulim, Qo'limdan uchdi-ku mening bulbulim.* («Nurali».) *Qiz qizil gul bo'lganda, yigit – bulbul, Gulni izlab bulbul bog'da tunamasmi.* («Qo'shiqlar»)

**Buldenej** [fr. *boule de neige* – yumaloqlangan qor] – may oyida gullaydigan dekorativ buta va uning oq shar shaklidagi guli. *Tamanno ikkita atirgul, Erkinoy bitta qirqog'ayni, Turg'un bitta siren bilan buldenej, boshqalar shoyigul, qashqargul, qo'qongul, kartoshkagul, husniyusuf ko'chatlari olib kelishdi.* (M. Ismoiliy)

**Bulduruq I** – 1. Ayoqli, sovuq kunlari yoki tuman paytlarida nam havo zarralari-ning muzlashi natijasida hosil bo'ladigan mayda qattiq qor; qirov. *Tushdan keyin osmon yuzini sarg'ish tuman qoplab, mayda bulduruq yog'a boshladi.* (Mir-muhsin, «Chiniqish»). *Ko'prik ustidagi qayrag'och novdalarini bulduruq o'rab, tanasigacha oppoq qilib qo'ygan.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Ertalabki tuman tarqalib, daraxt shoxlariga yopishgan bulduruq zarralari gavharday yaltiray boshladi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

2 ko'chma. Sochning oqi; oqargan soch. *Bir vaqt yuragimni sevgiga maskan etgan qora sochga qo'nmish bulduruq.* (S. Zunnunova).



**Bulduruq II** – kaptarsimonlar oilasining bulduruqlar turkumiga mansub bo‘lgan cho‘l qushi; qorabovur. *Azimxon... yovshan tog‘laridan uchgan bulduruqlarni ko‘zi bilan uzoqlarga qadar kuzatib qolar edi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Yurtga kuz kelganin asta bildirib, Daraxtlar shoxidan uchar bulduruq.* (X. Saloh, «Izlar va hislar»)

**Bulduruq III** – baliq tuxumi, urug‘i; uvuldiriq, ikra. *Dasturxon ko‘ngil tusagan narsalarga to‘la. ...qora, qizil bulduruqlar, qovurilgan bedana-yu rang-barang uzum, olma... karjlangan qovun-tarvuzlar ko‘zni o‘ynatadi.* («Yoshlik»). *...bu qaldirg‘ochlar o‘zining nasibasini dengiz qirg‘oqqa uloqtirgan baliqlarning lahm go‘shiti va buldurug‘idan ko‘radi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik».)

**Bulduruq bog‘lamoq** – bulduruq zarralari bilan qoplanmoq. *Yo‘lakda bulduruq bog‘lagan oppoq akatsiya tagida kelishgangina bir qiz bilan Akbarali turardi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *...qamishlar bulduruq bog‘lab, oppoq bo‘lib qolgan ekan.* (Sh. Xolmirzayev, «So‘nmas o‘t».)

**Bulduruqo‘t** – alismadoshlar oilasiga yoki bulduruqdoshlarga mansub, botqoqlik hamda suvda o‘svuchi ko‘p yillik o‘t.

**Buldurg‘un** – oddiy malina. *q. xo‘jag‘at.*

**Bulon** – yovvoyi ot. *Qari ham bo‘lsa qulonday, bo‘ynini cho‘zib bulonday suvga kelayotibdi.* («Ravshan»). *Bulon yurmas yerlardan. Bo‘g‘ib o‘tib boradi.* («Ravshan».)

**Buloq** – 1. Yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma. Issiq buloq. Buloq suvi. *So‘zning onasi – quloq, suvning onasi – buloq.* (Maqol). *Buloq bo‘yida joy*

*qilishibdi. Dasturxon usti noz-ne‘matga to‘la.* («Saodat».) *Maxsum... cho‘qqining shunday biqinidan qaynab chiqayotgan buloqda yuvindi.* (S. Anorboyev, «Oq-soy».)

**2 ko‘chma poet.** *Boy manba. Ijod bulog‘i. Onaning qalbi – mehr bulog‘i.* (Maqol). *Ijod, nash‘a kundan kun ziyod, Yo‘qdir orzu bulog‘iga band!* (Gazetadan). *Folklor xalq dahosining tunganmas bulog‘i bo‘lib, yozma adabiyot har doim undan bahra topib keladi.* («O‘TA».) *Daromadning yana boshqa bulog‘i chiqib qoldi.* («Mushtum»). *Onaning ko‘kragi bitmas buloqdir! Dili oq bo‘lganidan suti ham oqdir!* (Y. Mirzo, «O‘g‘il mehri».)

**Buloqchilar** – zool. Buloq, ko‘l, ariq va daryolarda uchraydigan, qisqa muddat yashovchi, kapalakka o‘xshash bir xil ha-sharot.

**Bulut I – 1.** Osmonni butunlay qoplab olgan yoki uning u yer-bu yerida g‘uj bo‘lib to‘plangan, quyuqlashgan suv bug‘lari. Oq bulut. Bahor bulutlari. *Sukutda hikmat ko‘p, Bulutda – himmat.* (Maqol). *O‘tgan bulutdan yomg‘ir kutma.* (Maqol). *Bulutlar shamolga ergashib, tog‘ tomon yo‘l oldi.* (O‘. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Ko‘kni bulut qoplagan, milt etgan yulduz yo‘q edi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat».)

**Havo (yoki osmon) bulut** – osmonni bulut qoplagan, havoning avzoyi yo‘q. *Osmon bulut. Bironta yulduz ko‘rinmaydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Havo bulut. Odamlarning shoshib yugurishiga qaraganda, qormi, yomg‘irmi yog‘sa kerak.* (E. Raimov, «Ajab qishloq».)

**2 ko‘chma.** Osmonni bulut kabi qoplab olgan har bir narsa. *Ergash chang bulutini yorib, izvoshga yetib olishga shoshiladi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat».) *Avval*

haligi tikroq qora bola, keyin boshqalari g'oyib bo'ldi, ular o'ynagan joy ustida anchagacha chang buluti turib qoldi. (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

3 ko'chma. Tahdid soluvchi yoki dilni qorong'u qiluvchi har bir narsa, holat. *Boya, qiz ovozini eshitganda, qalbida chaqnagan quyosh yuzini mana endi qora bulut bosdi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»). *Har holda, Toshkent ustiga yana qonli bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar, bu bir xudogagina ma'lumdir.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

4 s. t. Bir turli dengiz jonivorining g'ovak, yumshoq tanasi (cho'milishda badanni sovun bilan ishqash uchun ishlatiladi).

**Buna** – dengiz, kanal qirg'oqlari yoki gidrotexnika inshootlarini suv yuvib ketishidan saqlash va suv oqimini rostlab turish uchun xizmat qiladigan mustahkamlash inshooti. Buna uchun tuproq, tosh, beton, gabion, shox-shabba va boshqa materiallar ishlatiladi.

**Bunker** [ingl. *bunker* – ko'mir solinadigan quti] – 1. Kombayn, paxta terish mashinasi va sh.k. ning yig'ilgan narsa kelib tushadigan, to'planadigan qismi. *So'rib olingan paxta mashinadagi bochkasimon bunkerga kelib tushyapti.* (Gazetadan). *Bu yil Ergashev o'z bunkeridan 100 tonna «oq oltin» terib to'kdi.* (Gazetadan).

2. Qum, shag'al, sement, don, ko'mir va sh.k. narsalarni qisqa muddat saqlash yoki tashishga mo'ljallangan idish.

3. Mudofaa uchun mo'ljallangan yer osti inshooti. *Ular bunkerni qamal qilib, tobora yaqinlashib borardi.* («O'TA».)

**Bunt** [nem. *Bund* – bog'lama; aloqa] – 1. Bunt, g'aram, xirmon. Paxta g'arami. ... *paxta tayyorlash punktlarida endigina*

*dastlabki buntlar qad rostladi.* (Gazetadan).

2. Bog'lama, uyum, dasta; to'p, tax. Uyilgan mol; taxlangan mol. *Usti o'rab tashlangan paxta buntlari baland devorlar osha yonma-yon qad ko'tarib turardi.* (Y. Shamsharov, «Dovrug'»).

**Buqa** – erkak qoramol. Gavdasi sigirga qaraganda balandroq, tana va ko'kragi keng, suyagi yo'g'on va mustahkam, terisi qalin, serharakat. Vazni sigirnikidan 30–40% og'ir. Erkak buzoq urg'ochisiga nisbatan 3–5 kg yirik tug'iladi, 6–8 oyda jinsiy voyaga yetadi. Buqa uchun zotdor, sog'lom erkak buzoqlar tanlanadi. Sigirlarni qochirishda 14–18 oylikidan boshlab 6–8 yil, ayrimlaridan 12–14 yil foydalaniladi. Buqa yaylovda 40–50, qo'lda 100–150 sigirni qochirishi mumkin. Sun'iy usulda 1000–3000, hatto 5000 sigirni urug'lantirish mumkin. Qochirishga yaroqsiz buqalar go'shtga topshiriladi.

**Buqoq, o'simliklar raki** – o'simliklarda uchraydigan kasallik. O'simlik ayrim organlarining haddan ortiq va noto'g'ri o'sib ketishi natijasida o'simta, gulda o'sma shishlar paydo bo'ladi.

**Bur** [f. – meva, hosil] – barg, ozuqabop qism. *Parpining ko'zi nogohon chuqurchaga tushdi. Chuqurchada o'tgan yili ko'kargan burgan burlari to'kilib, yog'indan ivigan tanasi bukilib yotardi.* (Y. Shamsharov, «Baxt izlab»). *Pichan tez o'rib olinmasa, buri to'kilib, shirasi ketadi.* (I. Rahim, «Ixlos»).

**Burda** – merinos qo'ylarining bo'yidagi uzunasiga ketgan qalin burmalar.

**Burgalar** (*Siphonaptera*) – qon so'ruvchi hasharotlar turkumi. Burgalar 3 yilgacha, odam burgasi 2 yilgacha yashaydi. Ularning 1400 ga yaqin turi bo'lib, shundan 310 turi Markaziy Osiyoda uchraydi.

Burgalar issiq qonli hayvonlar va odamda parazitlik qiladi.

**Burgan** – murakkabgullilarga mansub bir yillik begona o‘t. Burgan bosgan yer. Burgan supurgi. *Oshqovoq palaklari chirmashgan qopqa ortida... burgan g‘ovlab yotibdi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»). *G‘ayrat paxta aralash g‘o‘zaning hidini tuydi. Unga uvatlardagi yovshan, burgan isi qo‘shilib ketdi.* (M. Hazratqulov, «Jur‘at»).

**Burgut I – 1.** Qarchig‘aysimonlar (lochinsimonlar) oilasiga mansub katta yirtqich ovchi qush. *Burgut – ancha yirik, chaqqon va kuchli qush.* («Fan va turmush».) *Xalqimizda: «Burgutning kuchi – qanotida, odamning kuchi – do‘stligida», degan gap bor.* (Gazetadan).

**Burgut boqish qilmoq** – ta’sirchan, o‘tkir qarash qilmoq, tikilib qaramoq. *Bobom burgut boqish qilib menga qaradilar.* (S. Ahmad, «Yulduz»).

**2 ko‘chma.** Yirtqich, yovuz (odam haqida). *O‘zi muloyim ko‘ringani bilan, changalidan chayon ham omon chiqolmaydigan burgut bu qori!* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Xotinlarning erkiga chang solgan bir burgutdan xayrli bir ish kutish mumkinmi?* (Gazetadan). *Men kabutar bo‘lsam, ul bir burgutdir, Men mushtipar bo‘lsam, ul bir yigitdir.* («Malikayi ayyor».)

**3 ko‘chma.** Jasur, qaytmas, epchil. *Mirzo, siz sarkarda Yoqubbekning burgutlari bilan so‘l qanotda borsangiz.* (Mirmuhsin, «Me‘mor»). *Ish ko‘rsatmay o‘lish nomard ishidir, Burgutlarim, kelib bergin maslahat.* («Nurali».)

**Buril (Jiyronburil, Qora buril)** – tarsi. boshi va oyoqlari jiyron, oq junlar aralashgan. Boshi, yoli, dumi va oyoq-

lari qora. Tanasi baravar miqdorda oq, qizg‘ish va jigarrang junlar bilan qoplangan.

**Buril qashqa** – peshonasining o‘rtasida, chap yoki o‘ng tomonida bir oz oqi bor.

**Burmaqora** – bot. Ko‘knorigullilar oilasiga mansub bir yoki bir necha poyali, tuganak ildizli ko‘p yillik o‘simlik.

**Burov** – asov otni taqalash vaqtida otning yuqori labiga sirtmoq solib, bir kishi tortib turadigan asbob. Uchiga sirtmoq bog‘langan, uz. 60 sm cha, yo‘g‘onligi 3 sm cha keladigan tayoqdan iborat. Ot tipirchilaganda burov buralsa, labi og‘rib tinch turadi. Burov Farg‘ona vodiysida *chillik* ham deyiladi.

**Burundiq I** – asov, tishlong‘ich tuyaning yoki qopog‘on itning tumshug‘iga kiydirib qo‘yiladigan maxsus to‘r. *Asov nortuyaday urib burundiq, Yovvoyi buqaday solgaymiz boshvoq.* (Mirtemir, «Asarlar»). *Yaydoq dala kelganda, burundiqni bo‘shatar.* (A. Muxtor, «Asarlar»).

**Burundiq II** – zool. Kemiruvchilar oilasiga mansub bir xil hayvon.

**Buta** [f. – buta, butazor; naqsh, rasm] – **1.** Tagidan shoxlab o‘sadigan mayda pastak daraxt. *Picha yurishgach, ularning ko‘zlariga qalin o‘t va siyrak butalar o‘sgan katta sayhonlik ochildi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). *Kanizak Sidiqjonni pastga, butalar orqasiga tortdi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). *To‘ngak orqasidan quloqlari dikkaygan quyon paydo bo‘ldi-da, koptokdek sakrab, butalar orasiga yashirindi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

**2 ko‘chma.** O‘zbek xalq amaliy san‘atida ko‘pincha bir tutam o‘simlik gulini ifoda etuvchi naqsh.

**Butazor** – faqat buta o‘sgan, buta ishg‘ol etgan yer. *Baqaurulloqdan chiqilgandan keyin yo‘l butazor, qumloq, quruq yer va ekin maydonlarini oralab ketar edi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). *Ular [bolalar] paxtazor, butazor oralab, daryo sohiliga chiqdilar.* (M. Hazratqulov, «Jur‘at»).

**Butash** – daraxt va butalarning ortiqcha shox va novdalarini qisman yoki butunlay olib tashlash. Bog‘dorchilik va manzarali bog‘dorchilikdagi eng muhim agrotehnika tadbirlaridan biri.

**Butifos** – kim. G‘o‘za bargini to‘kishda (tushirishda) ishlatiladigan qo‘lansa hidli, och sariq rangli suyuqlik, defoliant. *Ildizni kemirgan buzoqboshisimon, yo‘qolsin butifos! Hayot davom etsin!* (Gazetadan).

**Butirometr** [yun. butyron – yog‘, moy +metron – o‘lchov] – sut tarkibidagi yog‘ miqdorini aniqlaydigan asbob.

**Butoq – 1.** Daraxtning tanasidan yoki yo‘g‘on shoxlaridan tarmoqlanib chiqqan yon shox. *Qush butoqqa sig‘inar, Odam – Vatanga.* (Maqol). *Daraxtlarning butoqlarida qushlar chug‘ur-chug‘ur sayray boshladilar.* («Yoshlik»). *Yulg‘unning qovjiroq butoqlarini terib, gulxan yoqdi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**2 ko‘chma.** Tarmoq, shoxobcha; pog‘ona, avlod. *Somoniylar shajarasining so‘nggi butog‘i bo‘lgan podsho Nuh ibn Mansur kasalmand odam edi.* (M. Osim, «Ajdodlarimiz qissasi»).

**Butoqlamoq** – butoq chiqarmoq, shoxlamoq.

**Butoq otmoq – 1)** ayn. butoqlamoq; **2)** ko‘chma. Ajralib chiqmoq, tarmoqlanmoq. *Qishloq o‘rtasidan o‘tgan katta yo‘l butoq otib, dalalarga tutashgan.* (Y. Shamsharov, «Bog‘bon»).

**Buvadehqon** – ayn. bobodehqon. *Rayonga ma‘lumotni yuborib o‘choqqa olov yoqtiribsiz-da, Farmonqul aka, buvadehqonniki bexato chiqaveradi, deb o‘ylagandirsiz-da.* (S. Mahkamov, «Shogird»).

**Buvaki** – uzumning mahalliy, vino-bop navi. *Ishkomlarda uzumlar musht-musht bo‘lib yotibdi... qirmiska yoki buvakimi, toifi yo bo‘lmasa charosmi.* (Gazetadan).

**Buyrak – 1 anat.** Odam va umurtqali hayvonlarda siydik hosil qiluvchi va uni ajratuvchi, loviya shaklidagi juft a‘zo. O‘ng buyrak. Chap buyrak. Buyrak toshi. *Buyrak loviya shaklida bo‘lib, botiq tomoni gavdaning o‘rta chizig‘iga qaragan.* («Anatomiya».) *Ba‘zan tepki kasalligida sut bezi, oshqozon osti bezi, qalqonsimon bez, buyrak usti bezlari ham jarohatlana-di.* («Saodat».)

**2.** Ba‘zi hayvonlarning shunday a‘zosini pishirib tayyorlangan taom nomi. Qovurilgan buyrak. *Toshxol bug‘lanib turgan o‘pka, jigar, buyrak, qorinlarni pichoq bilan non ustiga olib qo‘ygach, barmoqlariga puf-puflab, to‘g‘ray boshladi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**Buyuq** – qattiq sovuq, ayoz. *Kechga yaqin Chirchiq tomondan izg‘irin turdi, bo‘g‘otlarni yalab, qorini uchirdi. Buyuq kuchaydi.* (H. G‘ulom, «Ma‘shal»). *Ochiq eshikdan kirgan buyuqdanmi yo yuraklari chiqqanidan, bolalar dir-dir titrashar edi.* (M. Ismoilij, «Farg‘ona t.o»).

**Buzi** [f. – echki, echkiga mansub] – Echki terisidan tayyorlangan charm, shevro. Bir mahsilik buzi. Buzi mahsi. *Buni sotib, buzi, charm, ip, sirach, mum singari kosibchilik uchun kerakli ashyolar oladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Buziluvchan** – tez buziladigan, ayniydigan. *Buziladigan oziq-ovqatlar.*

**Buzoq** – sigirning 6 oylikkacha boʻlgan bolasi. Yirik zotli buzoq ogʻirligi tugʻilishda 35–45 kg, mayda zotlisining ogʻirligi 25–35 kg boʻladi. Buzoq tugʻilishi bilan ogʻiz, burnidagi shilimshiq sochiq b-n artiladi, tugʻilganda kindigi uzilmagan boʻlsa, qorin tomondan 10–12 sm qoldirib kesiladi, kesilgan joyiga yod eritmasi surtiladi, soʻngra yalab tozalash uchun onasi oldiga qoʻyiladi. Tugʻilgandan keyin 1–1,5 soat oʻtgach, birinchi marta onasiga emdiriladi. *Yaxshi buzoq ikki onani emadi.* (Maqol). *Sigirning sutida buzoqning haqi bor.* (Maqol). *Podadan adashgan buzoqqa oʻxshab, duch kelgan eshikka boshingni tiqaverasanmi?* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Tong otganda, apil-tapil sigirni sogʻishga borsa, sigiri ham, buzoq ham yoʻq.* («Mushtum».)

**Buzoqboqar** – buzoqlarga qarovchi, ularni parvarish qiluvchi. *Zuhraning oyisi Muazzam Qoʻziyeva sut-tovar fermasida buzoqboqar boʻlib ishlaydi.* (Gazetadan).

**Buzoqbosh(i)** – toʻgʻri qanotlilar turkumining qora chigirtkasimonlar oilasiga mansub, ustki qanoti kalta terisimon, ostki qanoti uzun pardali zararkunanda hasharot. *Bogʻni quritadigan buzoqboshi ham qurt, havoni tilla qilib beradigan pilla qurti ham qurt.* (A. Muxtor, «Kumush tola»). *Oʻt-oʻlanlar orasida yashirinib olgan bir buzoqboshigina tuni bilan chur-churlab, tong ottirdi.* (S. Karomatov, «Hijron»).

**Buzoqboshilar** (*Gryllotalpidae*) – toʻgʻri qanotlilar turkumiga mansub hasharotlar oilasi. Qishloq xoʻjalik ekinlarining juda koʻp turli zararkunandasi.

**Buzoqlamoq** – buzoq tugʻmoq, bolalamoq (sigir haqida). *Qoʻyni boqsang*

*qoʻzilar, Molni boqsang buzoqlar.* (Maqol). *Bolalar qoʻzilagan qoʻylarni, buzoqlagan yelini katta sigirlarni yaylovga haydab, toʻda-toʻda boʻlib... lappak, zuvilloq oʻynashadi.* (X. Toʻxtaboyev, «Yillar va yoʻllar»).

**Buzoqlik** – sigirning 6 oylikkacha boʻlgan davri. [*Mollarning*] *koʻpini buzoqligidan katta qilib olganmiz.* (A. Mirahmedov, «Kulgan chechaklar»). *Oʻzimizning jaydari mollar bu kasalga buzoqligidayoq yoʻliqib, tuzalib ketdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Buzoqxona** – buzoqlar turadigan, boqiladigan ogʻilxona. *Hikmat buzoqlarini buzoqxona tomonda haydab borardi.* (Gazetadan).

**Buzuqyer** – togʻ oldilarining baʼzi joylarida uchraydigan, dehqonchilikda foydalanish uchun yaroqsiz oʻnqir yer. Buzuqyer asosan suv oʻtkazmaydigan gil jinslarni sel yuvib ketishidan paydo boʻladi. Baʼzan yurib boʻlmaydigan tik yonbagʻir ham buzuqyer deyiladi.

**Buzoqchirg** (*Androgan ischalmum*) – bot. Bugʻdoydoshlar oilasiga mansub ildizpoyali koʻp yillik oʻt.

**Bugʻdoy** (*triticum*) – gʻalladoshlar oilasiga mansub oʻtsimon oʻsimliklar turkumi; *eng qad. va hoz.* Dunyoning koʻpgina mamlakatlarida ekiladigan asosiy don ekini. Jaydari bugʻdoy. Oq bugʻdoy. Bugʻdoy uni. Bugʻdoy sepmoq. Bugʻdoy oʻrmoq. *Bugʻdoy noning boʻlmasin, Bugʻdoy soʻzing boʻlsin.* (Maqol). *Odam Atoning oʻzlari birinchi marta yer haydab, Bugʻdoy sochganlar.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). – *Bu yerda bizning qayroqi bugʻdoylarimiz bor, – dedi Anorxon.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**Bugʻdoykor** – 1. Bugʻdoy ekuvchi, bugʻdoy yetishtiruvchi. *Xalq nonini*

but qilgan Bug'doykorga sharaf-shon. («G'uncha».)

2. Bug'doy ekishga, bug'doy yetishtirishga xoslangan, moslangan. Bug'doykor xo'jalik. – *Ba'zida xo'jayinga pul kerak bo'lib qolsa, xom-xatala olmalarni aravaga ortib... bug'doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman, – dedi Shum bola.* (G'. G'ulom, «Shum bola») ... *respublika bo'ylab bug'doykor maydonlar kengaytirildi.* (H. Nosirov, «Men o'zbek qiziman»).

**Bug'doykorlik** – 1. Bug'doykorlar kasbi.

2. Bug'doy ekish, bug'doy yetishtirish. *Bug'doykorlik bilan shug'ullanuvchi tumanlar. Bug'doykorlik xo'jaliklari.*

3 ayn. **Bug'doyzor.** *Bug'doykorliklar endi paxtaga aylantirilsa kerak.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Bug'doy nematodasi** (*Anguina tritici*) – bug'doy, javdar, arpa, suli va boshqa boshqoqli ekinlar boshog'ida g'udda (galla) lar paydo qiladigan zararkunanda to'garak chuvalchang. O'simlik bug'doy nematodasi bilan qattiq zararlanganda boshog'i maydalashib o'smay qoladi, doni o'rnida g'udda (galla)lar paydo bo'ladi.

**Bug'doypoya** – 1. Bug'doy o'sib yotgan maydon, yer. *Ahmadjon o'ttizqirq metr naridagi bug'doypoya orasida bir nemisning boshini... ko'rib qoldi.* (A. Qahhor, «Oltin yulduz») ...*raketachilarning bug'doypoya bilan hech qanday ishi bo'lmaydi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Bug'doy poyasi. ...*oftobli ko'chalar, shudgor qilinmagan yerlar, yo'ng'ichqapoya va bug'doypoyalar bir darajada qurigan edilar.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Bug'doy tripsi** [*Haplothris tritici* Kurd.] – tripslar turkumiga mansub ha-

sharot. Bug'doy tripsinining bo'yi 1,5 – 2 mm. Lichinkasi tuproqda qishlaydi.

**Bug'doyiq** – g'allagullilar (bug'doydoshlar) oilasiga mansub, yem-xashak uchun ekiladigan yoki yovvoyi holda o'sadigan ko'p yillik g'allasimon o't. *Adir va tog'larda bug'doyiq va har xil o'tlar o'sadigan yaylovlar bor.* («O'zbekiston geografiyasi».) *Yotganda bug'doyiqning izi tushib qolgan o'ng beti achishardi.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»).

**Bug'doyzor** – bug'doy ekilgan yer, bug'doypoya. *Bug'doyzorga chiqqanimdan keyin otni choptirgim keldi.* (O'. Usmonov, «Sirli sohil»). *Uzoqda oltinlangan bug'doyzorlar, paxta dalalarini shartta kesib, ufqqa sanchilgan yo'llar yaltirar... edi.* (A. Muxtor, «Asarlar»).

**Bug'lagich** – bug' sochuvchi, purkovich asbob. *Yem-xashak issiq suv bug'i bilan bug'lagichda bug'lanadi.* («Zoolo-giya».)

**Bug'lanuvchanlik** – maxsus atmosfera sharoitida mumkin bo'lgan eng yuqori bug'lanishni ifodalaydigan shartli kattalik. *Boshqa joylarga nisbatan O'rta Osiyo sharoitida bug'lanuvchanlik yuqori.* («O'zME».)

**Bug'latkich** – fiz. Suyuqlikni bug'ga aylantirib beruvchi asbob (apparat).

**Bug'uchilik** – 1. Bug'u boquvchi kasbi.

2. Bug'ularni asrash, boqish, ko'paytirish bilan shug'ullanish. Shimolda bug'uchilik juda ham rivojlangan.

**Bug'xona** – maxs. Bug' hosil qilish joyi; xomashyoga yoki mahsulotga bug' bilan ishlov berish, bug'lash bo'limi. *Yo'lovchi uch so'm to'lab, kiyim-kechaklarini bug'xonada bitdan tozalatib chiqqandan keyingina vagonga qo'shildi.* (S. Nurov, «Narvon»). ...*bug'xonani ken-*

*gaytirish mutlaqo qoniqarsiz sur'atlar bilan olib borilmoqda.* (Gazetadan).

**Bushuyev qoramol zoti** – suti uchun boqiladigan zot. O'zbekistonning Mirzacho'l (Sirdaryo viloyati) zonasida yetishtirilgan sersut va sermahsul qoramol.

Bu zotni yaratishni M. M. Bushuyev jaydari (zebusimon) sigirlarni golland zotining buqasi bilan, so'ngra uni shvits zoti bilan murakkab chatishtirish orqali boshlab bergan (1903–1918). Bushuyev qoramol zoti mollarning tusi oq, quloq va tumshuq atrofi qora yoki qizil, sigirlarining vazni 320–432 kg, buqalariniki 700–750 kg, yag'rinidan o'lchanganda balandligi 114–122 sm, tanasining qiya uzunligi 139–159 sm, pocha aylanasi 15–17 sm, 300 kunlik sog'im davrida 2400–2600 l, ayrimlari 3000 l gacha sut beradi, yog'liligi 3,9–4,1%.

**Bo'rdoqi** – 1. Go'sht uchun boqib semirtirilgan mol. Bo'rdoqi qo'y. Bo'rdoqiga boqmoq. *Bo'rdoqini so'yishga qassobni chaqiraymi?* (Hamza, «Tanlangan asarlar»). *Oradan ikki oy o'tgandan keyin qarasa, qo'y binoyidek bo'rdoqi bo'lib qolibdi.* (A. Muxtor, «Tong bilan uchrashuv»). *Yarim oylik moyanasiga sakkizta bo'rdoqi tovuq keladi.* (S. Ahmad, «Saylanma»).

2 *ko'chma.* Bekor yotib yoki bironing hisobiga yashab semirgan odam haqida. *Ha o'sha... bir umr mehnatkashning suvini siqib ichgan bo'rdoqi Matqovulning o'zi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Bo'rdoqiday larsillab ketyapsan kundankunga, ozishing kerak.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon»).

3 *ko'chma.* Bo'liq, to'liq yetilgan. *Bo'rdoqi har bir ko'sak, Yetilgan durdonamiz.* (R. Bobojon, «Tanlanma»).

**Bo'rdoqiboqar** – mollarni bo'rdoqiga boqish bilan shug'ullanuvchi kishi.

**Bo'rdoqichilik** – chorvachilikning mollarni bo'rdoqiga boqishga ixtisoslashgan tarmog'i; bo'rdoqi boqish. Bo'rdoqichilik fermasi. *Bo'rdoqichilik davlat xo'jaligi...bo'rdoqichilik bazasi tog'lar bag'rida joylashgan.* (Gazetadan) ... *bo'rdoqichilik bazasida yana bir yemxashak taqsimlovchi liniya ishga tushirildi.* (Gazetadan).

**Bo'rdoqichilik xo'jaligi** – chorvachilik tarmog'i, uning asosiy vazifasi – ixtisoslashtirilgan go'shtdor mollar zotini ko'paytirish asosida yuqori sifatli mol go'shti va og'ir teri xomashyosi yetishtirishdir.

**Bo'ri** – 1. Sutevizuvchilarning itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon; qashqir. *Ayрилganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer.* (Maqol). *Bo'ridan qo'rqan to'qayga kirmas.* (Maqol). *Suvonjon qo'raga hujum qilgan bir och bo'rini otib olibdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Bu cho'lda biram bo'ri ko'p ekanki, kechasi bilan qo'rqib chiqdim.* (S. Ahmad, «Ufq»).

2 *ko'chma.* Yovuz, qonxo'r, shafqatsiz odam haqida. *Yuragim san eding, Gulnor, ko'zim ilgari ochilgan bo'lsa edi, man o'z yuragimni bo'rilarga yedirarmidim? Tong-la mahsharda qay yuz bilan sanga boqaman?* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Ahmad Husayn oqarib ketdi-yu, lekin indamadi, chunki bo'rililar orasida ekanini yaxshi bilardi.* (Oybek, «Nur qidirib»). *Badia xona burchagiga tisarildi. Ro'parasida turgan dahshatli bo'ridan ko'z uzmasdi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

3. Bo'ri (erkaklar ismi).

**Bo'ribosar** – chorva mollari podalarini bo'rilardan saqlaydigan va o'tov-qo'ralarni, uy va hayvonlarni qo'riqlaydigan, ko'kragi keng, oyoqlari baquvvat kuchli it. *Yaxshiyam, ishonchli*

*bo'ribosarlar bor. Ular bo'lmasa, molchilarning ahvoriga voy, deyavering.* (K. Yashin, «Hamza»). *Aqlli bo'ribosarlar suruvlarini bo'ylab oldinga chopib boradilar-da, to hammasi o'tib bo'lguncha cho'zilib yotib dam oladilar.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Yo'lovchi [cho'ponga] yaqinlashgan zahoti dum va quloqlari kesilgan bo'ribosar itlar galasi unga tashlandi.* (A. Hakimov, «Ilon izidan»).

**Bo'rigul** – bot. Kendirdoshlar oilasiga mansub, yotiq ildizpoyali, doimo yashil bo'lib turadigan ko'p yillik o't. ...*bo'riguldan nafas olishni kuchaytiruvchi ervinin, qon bosimini kamaytiruvchi ervalin alkaloidlari olinadi.* (M. Ahmedov, «Kolxozda ximiya kechasi»).

**Bo'rikalla** – qovun navlaridan birining nomi. *Lekin kuz faslida bozorga tushgan qovunxo'rlar bu lazzatli ne'matlarning «bo'rikalla», «asati» kabi nomlarini bilavermaydi.* («Fan va turmush».) *Har bo'rikalla qovun timsolida ko'ra biling, ona qizim, yaratuvchi, donishmand xalqimiz mehrin.* (M. Qo'shmoqov, «Ali Qambar»).

**Bo'riko'z** – mevasi yeyiladigan, tikkanli o'simlik turi.

**Bo'riq** – oqjo'xorining poyasi, jo'xoripoya.

**Bo'ritaroq** – bot. Gulxayridoshlarga mansub, poyasi tik, sershox, gullari sariq, bir yillik begona o't.

**Bo'rk** – esk. Oshlangan qorako'l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim, telpak. *Bosh omon bo'lsa, bo'rk topiladi.* (Maqol). *Boshsiz bo'rk bo'lmas, Toysiz – turk.* (Maqol). *Shu payt shiypon ichidan boshiga bo'rk kiygan Botir chiqdi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»). *Qilich zarbidan Xonzoda begimning boshidagi bo'rki uchib ketdi-yu, uzun sochlari yoyilib, yelkasiga tushdi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Bo'rli o'g'itlar** – tarkibida o'simliklar o'zlashtira oladigan holatda bo'r bo'lgan kimyoviy birikmalar; *mikroo'g'itlarning* bir turi.

**Bo'ron** – to'zon yoki qor-yomg'ir aralash esadigan shiddatli shamol. *Bo'ri bo'ronda quturar.* (Maqol). *Hamma yoqni qum bo'roni qopladi. Omon ko'rinmay qoldi.* (H. Nazir, «Yonar daryo»). *Qum bo'roni o'tov kigizlarini, baliqchilarning to'rlarini osmonda uchirib yurdi.* (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»). *Zargarov to'xtab, pastga tushdi. Atrof zimziyo, bo'ron quturib ko'z ochirmasdi.* (A. Muxtor, «Bo'ronlarda bordek halovat»).

**Bo'rtma** – 1. Novdani kesilgan, o'simlikning payvandlangan joyida hosil bo'ladigan qadoq yoki qabariqlar; ba'zi o'simliklarning meva va urug'laridagi tuganaklar ...*novdalar bo'g'imga taqab kesilganida, bu joyda bo'rtmalar hosil bo'ladi.* (R. Musamammedov, «Mo'l uzum hosili»).

2 sft. Bo'rtib, turtib chiqqan; bo'rttirib ishlangan. Bo'rtma naqsh. ...*bir ustunida «Amali Saidumarxo'ja» deb bo'rtma naqsh bilan yozib qo'ygan.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»). *Komila... o'rtog'ining oqsariq, uzunchoqroq nozik yuziga, biroz bo'rtma qovoqlariga ...tikildi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**Bo'rtma nematodalar** (*Meloidogyne*) – o'simliklarda parazitlik qiluvchi nematodalar oilasi. Poliz (qovun, qovoq, tarvuz), sabzavot (kartoshka, bodring, pomidor, sabzi), ayniqsa texnika ekinlari (kanop, ayrim joylarda g'o'za)ni kuchli zararlaydi.

**Bo'rtmoq** – 1. Amal olmoq; ko'kara boshlamoq; unmoq. *Bahor. ...o'riklar oppoq gulladi, olcha novdalari munchoq-munchoq bo'rtadi.* (Mirmuhsin, «Hikoyalar va qissalar»). *Qor ketdi va zaminda Bo'rtadi ilk giyoh.* («Yoshlik».)



2. Ko'tarilib chiqmoq, turtib chiqib turmoq. *Sobir akaning... chakka tomirlari bo'rtib chiqqan, ko'zlari ichga botgan.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Bo'ston** [f. – bog', tomorqa, poliz] – poet. 1. Gul bilan qoplangan, gul ekilgan maydon; gullab-yashnagan bog'. *Mehnat qilinmasa, bo'ston qayerda.* (G'. G'ulom). *Tog'lar qopqasini oshib o'tgan on, Ro'paramda ochildi bo'ston.* (T. To'la.) *Xilma-xil gullar xushbo'y hid sochib, bo'stonni yashnatib turar, shisha-dek tiniq suvlar shildirab oqib yotar edi.* («Chalpak yoqqan kun».)

2 ko'chma. Bog'-rog'li obod yer, yashnagan, gullagan joy. *O'zbekiston – bo'ston.*

**Bo'ta I** – 1. Tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi, bo'taloq. *Sabr qilsang, tuyani yukini bo'ta ko'tarar.* (Maqol).

**Bo'taday bo'zlamog' – q. bo'zlamog'.**

2 ko'chma. Bolalarni, yoshlarni bo'taloqqa qiyos qilib, erkalatib aytiladigan so'z. *Lekin, bo'tam, bu fikrga men uncha qo'shilmayman.* (X. To'xtaboyev, «Shirin qovunlar mamlakati»). *Men, bo'tam, sizning tadbir-u sabotingizni sinab ko'rmoqchi edim.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

3. Bo'ta (erkaklar ismi).

**Bo'ta II** – esk. Oltin, kumush, mis va sh.k.ni eritish uchun ishlatiladigan qadimiy asbob, dumaloq kosacha; tigel.

**Bo'taloq** – tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi. Yangi tug'ilgan bo'taloq juda nozik, ushoq bo'ladi (og'irligi onasining vazniga nisbatan 5–7% ni tashkil etadi). Bo'taloqlar umuman egizak tug'ilmaganligi sababli dastlab onasidan ajratilgan holda maxsus issiqxonalarda boqiladi, sutkasiga 6–8 marta onasi yoniga olib chiqilib emizib turiladi. Bo'taloq onasini 16–18 oy emadi (tuya 2 yilda bir

marta tug'adi). Bo'taloq 2 yoshidan boshlab dastlab no'xta va jilovga, odamning talabi bilan yotib-turishga o'rgatiladi, 3 yoshdan boshlab ustiga yuk (60–80 kg) ortishga o'rgatiladi. Tuya 5 yoshga kirganda yetuk hisoblanadi va ustiga to'la me'yordagi yuk ortish mumkin. *Ha, esimda, bo'taloq biram ko'hlik, ko'zlari kattakatta, muloyim, yoqimli, ziyrak edi.* (Oybek, «Bolalik»). *Shayboniyxon bo'taloq junidan to'qilgan mayin joynamoz chetiga qaytib o'tirdi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

2 ko'chma. ayn. **bo'ta**. *Sira ham tashvish tortma, bo'talog'im. Tez-tez kelib, hollingdan xabar olib turaman.* (G'. G'ulom, «Mash'al».) *Bilasanmi, bo'talog'im, tabiiy fanlar davrning zaruriy ehtiyojlaridan vujudga keladi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

**Bo'tana** – 1. Loyqa, qum, tuproq kabilar aralashgan (suv haqida). *Bir joyga to'planib, tutqun bo'lib turgan bo'tana suv qirg'oqni buzib yubordi.* (E. Usmonov, «Yolqin»). *Soy va ariqlarda sumalakrang bo'tana shiddati oshib boradi, pishqiradi.* (S. Nurov, «Narvon»).

2. Loyqasimon, kir tusli, xira. *Qiyom bo'tana bo'lmay, tiniq tusda bo'lishi lozim.* (K. Mahmudov, «O'zbek taomlari»).

**Bo'yincha** – ot abzallarining asosiy qismi hisoblanadi. U ikkita yog'och qisqich, xomutcha, kigiz astar, charm yopiqcha, ustki qismini biriktirib turuvchi qayish, tomog'bog' va ikkita quloqbog'dan tashkil topgan. Bo'yincha mustahkam bo'lib, ot biror-bir ish bajarganda yoki aravaga qo'shilganda otning bo'yiniga kiydiriladi, yelka va qarchig'ayni yara qilmasligi uchun ishlatiladi.

**Bo'z** – qoramtir (terisi qoramtir), qizil (terisi qizil). Tanasi, yoli, dumi va oyoqlari tug'ilganda oq, tuyog'i qoramtir. Tana-

si oq yoki sarg'ish oq, tuyog'i, ko'zi, dumi yoki yoli qizg'ish.

**Bo'z II** – ko'kka moyil oq rang (asosan ot tusi haqida). Bo'z ot. Bo'z to'rg'ay. Bo'z qarchig'ay. Bo'z eshak. Bo'z tuya. *O'ktam yosh bo'z otda iljayib turar edi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Safidan adashgan, bo'z turna bo'zlar...* (A. Suyun, «Olis tonglar»). *Katta, kuchli bo'z eshakni bolachalarga tutqizib, dastasi yo'g'on qamchini katta, juda kir sallasiga qistirdi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Ko'ldan bir kishi chiqib kela berdi, qo'lida bo'z qarchig'ay.* («Intizor»).

**Bo'z III: 1) bo'z yer** – ekin ekishga yaroqli, lekin uzoq vaqt ishlanmay, ekilmay yotgan yer. *Bo'z yerga qadalgan chigit bag'riga bahor nafasi tegdi.* (R.Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»). *Bu yerlarga suv chiqadi, qishloq atroflari, qaqir-bo'z yerlar ko'kalamzor, ekinzor bo'ladi.* (M.Ismoilij, «Farg'ona t.o»).  
**2) bo'z tuproq** – subtropik hududlar va yarimcho'l yerlarga xos tuproq. *Poylab dehqon yo'lini, bo'rsillaydi bo'z tuproq.* (A. Suyun, «Olis tonglar»). *Gul bog'im, bog'im-bog'im, Bog' bo'lgan bo'z tuproq'im.* (Mirtemir, «Asarlar»).

**Bo'z V** – o'tsimon cho'l o'simligi; chalov.

**Bo'ztikan** – murakkabgullilar oilasiga mansub ko'p va bir yillik begona o't. *O'zbek tilida mavjud qorag'at o'rnida smorodina, qoraqayin o'rnida buk, bo'ztikan o'rnida budyak ... deb ishlatishning nima hojati bor?* («O'TA».)

**Bo'ztuproq** – o'zlashtirilmagan bo'z yer, ekin ekilmagan tuproq yoki kulrang tuproq. *O'rta Osiyo bo'ztuproqlarida karbonatlik darajasi boshqalarga nisbatan kuchliroqdir.* (M. Bahodirov, «Tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar»).

**Bo'zto'rg'ay** – chumchuqsimonlar turkumining to'rg'aylar oilasiga mansub, bo'z rangli, asosan qumloq va sho'r joylarda yashovchi qush. *Bunda qushlar uchmas gur-gur, Bo'zto'rg'ay ham bo'zlamas.* (A. Sher, «Qadimiy kuy»). *Osmondagi bo'zto'rg'ay, Bo'zlamasang na bo'lg'ay? Mushtakkina joningga kuy-lamasang na bo'lg'ay?* («Qo'shiqlar».)

**Bo'g'imdumlar, bo'g'in dumlar** – zool. Kaltakesaklarning Afrika janubida tarqalgan bir oilasi. *Bo'g'imdumlar tog'larda, serqoya qaltis yerlarda yuradi.* («O'zME».)

**Bo'g'imoyoqlilar, bo'g'inoyoqlilar** – zool. Tanasi va oyoqlari turli xil bo'g'inlardan tuzilgan umurtqasiz hayvonlar tipi. *Biroq avlodni saqlash uchun qayg'urish hissi bo'g'imoyoqli jonivorlarda ayniqsa kuchli.* («Fan va turmush»). *Bo'g'inoyoqlilar tipiga qisqichbaqasimonlar, o'rgimchaksimonlar, hasharotlar kiradi.* («Zoologiya»).

**Bo'g'in** – anat. 1. Gavda suyaklarining tog'aylar, paylar bilan birikkan joylari. Barmoq bo'g'inlari. *Qo'l suyaklari bir-biriga birikkan harakatchan birikmalar hosil qiladi, bu birikmalar bo'g'inlar deyiladi.* («Zoologiya»). *Bo'g'inlari g'adir-budur bo'lib ketgan barmoqlari bilan og'zining ikki chetini artdi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoq urmaydi»).

2. Bir turdagi qismlardan tashkil topgan suyakning har bir qismi; segment. Umurtqa bo'g'inlari. *Bo'g'inlarim og'riyapti.*

3. Tanasi bir turdagi qismlardan, segmentlardan tuzilgan jonivorlar yoki o'simliklarning har bir qismi. *Chuvallchang bo'g'inlari. Qamish bo'g'inlari.*

**Bo'g'irsoq** – sut, tuxum, yog' solingan xamirdan yumaloqlab, yog'da pi-

shirilgan ovqat. *O'zbekoyim bo'g'irsoq qovurtirish, tolqon tuydirish, to'qoch yopdirish bilan mashg'ul edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Bo'g'oz** – 1. Qornida bolasi bor (hayvonlar haqida). Bo'g'oz sigir. Bo'g'oz sovliq. *Bo'g'oz quyonlarni homiladorlik davrida o'z vaqtida sifatli ozuqa va toza suv berib parvarish qilish lozim.* («Fan va turmush».)

2 s.t. Homilador. *Tug'ishiga to'rt oy qolgan bo'g'oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *Bir necha bo'g'oz xotinlar kulishib, o'zidan ketdi.* («Hasanxon».)

**Bo'g'izlamoq** – 1. Bo'g'ziga pichoq solmoq, so'ymoq. *Yumalatsam, joni yo'q, Bo'g'izlasam, qoni yo'q* (xamir). *Sevinch-*

*ning zo'ridan bitta qo'yni bo'g'izladik.* («Yoshlik»). *Cholim, Kimsan kelsa, oyog'iga so'ymoqchi bo'lib yurgan qo'chqorini bo'g'izladi.* (O'. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»).

2. Bo'g'zidan tishlab, g'ajib o'ldirmoq. *Bu o'sha bo'ri... itlarni g'aftladi qoldirib ... to'rt qo'yni bo'g'izlab, birini olib qochgan ham shu!* («Yoshlik»).

3 *ko'chma.* Qiynab o'ldirmoq, mahf etmoq.

**Bo'g'ozlik** – urg'ochi hayvon organizmida homilani olib yurish davridagi fiziologik holat. Bu jarayon otalanishdan boshlanib, yetuk homilaning tug'ilishi bilan tugaydi. Bo'g'ozlik bir homilali va ko'p homilali bo'lishi mumkin.

**Bo'g'ra, bo'g'ro** – ikki o'rkachli nor tuya.

## D

**Dagar** – ayni yetilgan, 3 yoshli qo'chqor.

**Dagish** – shv. Daryo qirg'oqlarining o'pirilishi; o'pirilma joy. *O'rkach-o'rkach to'lqinlar sohilga sapchib, dambaga tinmay urilardi, tuproqni o'z qo'riga yutardi.* *Buni Xorazmda «dagish» deb atashadi.* (Gazetadan).

**Daha III** [f.] – maxs. Ipak qurtining uyquga kirish pallasi, yoshi. *Ipak qurti dahasi havoning harorati 23–24° va nisbatiy namligi 65–70% bo'lganda 8–9 kungacha cho'ziladi.* *Dahada qurtni mumkin qadar to'ydirish, so'ngra dastaga kiritish kerak.* (Gazetadan).

**Dahbedi** – tusi och yashil, sirti tekis, serto'r, ertapishar qovun navi.

**Dahmarda** – shv. folk. Qo'y-mol bo'quvchi xizmatkor. *Bu maydonda qo'yni boqqan dahmarda, biyobonda bir nomardni ko'rdingmi?* («Nigor va Zamon»).

*Boysari ko'chsa, biz ham ko'chamiz deb, hammasi cho'ponlariga, yilqichilariga, tuyachilariga – hamma dahmardalariga odam yubordi.* («Alpomish»).

**Dahsar** [f. -o'n + – botmonning qirqdan biri] – o'tmishda ba'zi hududlarda o'ttiz ikki kilogrammga, ba'zi hududlarda to'rttdan bir botmonga teng bo'lgan og'irlik o'lchovi. *Bog'ni boqsang, bog'bo'ladi, botmon dahsar yog'bo'ladi.* (Maqol). *Ertagi savdoning dahsar og'irligi bor.* (Maqol).

**Dahyak** [f. – o'n hissadan bir hissa] – tar. 1. Qo'qon va Buxoro xonliklarida dehqonlardan yetishtirilgan hosilning o'ndan bir qismini soliq haqi tariqasida olinishi; **ushr.** *U [buvim] aytardi: – vaqf dahyagini uylari kuygur amlodkor bilan ijarador ikki baravar qilib oldilar.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

2. Buxoro amirligida vaqf yerlaridan olingan daromadning madrasalarning maxsus imtihondan o'tgan mullavachchalariga beriladigan qismi.

3. Markaziy Osiyoda: o'tmishda yer, ulov, urug'lik, ovqat va b. hamma xarajatlarni yer egasi (xo'jayinlar)dan olib, hosilning o'ndan to'qqiz hissasini yer egasi, o'ndan bir hissasini o'zi olish sharti bilan dehqonchilik qilish tartibi. *Huv oq yerini qirq yil ekdim dahyakka. Anavi yerga qurib oldim chaylamni.* (G'. G'ulom). – *Endi, – dedi Nazarboy, – berilgan arpaning dahyaga hisobidan mening qopimga bir g'alvir sol.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Dakan** [a. – xo'roz] – tovuq-xo'rozlarning bo'ydor va go'shtdor turi. Dakan tovuq. *Qo'chqorlar bilan dakanni nega boqib semirtiryapti bu, ana shuni aytib bersin.* (I. Rahim, «Zangori kema kapitani»).

**Dakan xo'roz** – 1) shu turga mansub urushqoq xo'roz. *Qishloq tomondan dakan xo'rozlarning uyqu aralash bo'g'iq ovozi eshitildi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). 2) *ko'chma. hazil.* Zo'ravonlik bilan keriladigan, urushqoq odam haqida. *Yangi yerga boyib ketish uchun kelgan dakan xo'rozlarni ham anchagina uchratamiz.* (Sh. G'ulomov, «Bo'z yer uyg'ondi»).

**Dala** – 1. Aholi yashaydigan joydan tashqarida bo'lgan, ekin ekiladigan yer, ekinzorlar. Ekin dalasi. Paxta dalasi. Mehnat dalasi. Paxtazor dala. *Bog'bon bog'ini tuzar, Dehqon dalasin suzar.* (Maqol). *Ayollar dalada, bolalar molhollarni o'tlatgani olib ketishgan.* (S. Ahmad, «Ufq»). *To'g'ri, chorshanba kuni dalaga qo'sh chiqishi kerak.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Dala aprobatsiyasi, dala ekinlari aprobatsiyasi** – navdor ekinlar, mevali daraxtlar va rezavorlar hosilining urug'lik sifatida foydalanishga yaroqliligini aniqlash, navdorlik sifatini belgilash, urug'chilik qoidalarining bajarilishini tekshirish. Aprobatsiya o'tkazish O'zbekistonda davlat tadbiriga kiradi.

**Dala-dasht** – dala va dashtdan iborat yerlar. *Ziyoxo'janing qo'yi, yilqisi toqqa, dala-dashtga sig'maydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Botanika darsi sinfda emas, dala-dashtda, tog'-u toshda o'tkaziladi.* («Yoshlik»). *Yo'l dala-dashtdan qaytuvchilar, podalar, podachilar bilan to'lib bordi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

**Dala hovli** – dala joyda barpo etilgan, dam olishga mo'ljallangan maskan; dacha. *Dala hovlining oldidan katta soy oqib o'tadi.* (Gazetadan). *Dala hovli uchun darvozasi bilan tayyorlangan panjarani bo'yashda davom etdi.* (Gazetadan)

2. Umuman keng tabiiy sayhon yer, yovon. *Dala, qirlar qirmizi ko'ylak kiygan suluv kelinchakdek yashnab ketgan.* (Gazetadan). *Adoqsiz dalalar, oftob o't purkaydi.* («Saodat»). *Dov-daraxtlar, tom-tosh, dala-yu qirlar oppoq edi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

3. Uydan (xonadan) tashqari joy, hovli, ko'cha. *Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada.* (Maqol). *Daladan kelgan o'g'rini tutish oson, Uydagi o'g'rini tutish qiyin.* (Maqol). *Men daladan olay xabar. O'yin qilib turgin, qizlar.* («Malikayi ayyor»).

**Dala ihota o'rmonzorlari** – ekinzor, dalalar chegaralari bo'ylab barpo qilindigan daraxtzorlar, ihota daraxtlarining bir turi. Dala ihota o'rmonzorlari yer usti suv oqimini to'sib, tuproqni eroziyadan

saqlaydi, uning suv, harorat va oziq rejimlarini yaxshilaydi, shamol tezligini pasaytiradi, dalalarda qorni uzoq vaqt saqlab qolib, tuproq unumdorligini oshiradi, qurg'oqchilik va quruq shamollar ta'sirini kamaytirib, ekin maydonlarining iqlimiy va gidrologik sharoitlarini yaxshilaydi, q.x. ekinlari hosilini oshiradi.

**Dala ishlari sifatini baholash, texnologik brakeraj** – tuproqqa ishlov berish, ekinlarni parvarish qilish va hosilni yig'ib olishdagi ish sifatining texnologiya talablariga muvofiqligini aniqlash. Barcha agrotexnologiya tadbirlari siklini o'z vaqtida va sifatli qilib o'tkazish q.x. ekinlaridan yuqori hosil olishning asosiy shartidir. Tuproqqa ishlov berishning quyidagi usullari nazorat qilinadi va baholanadi: yer haydash, ekish, kultivatsiya, ang'izni yuza yumshatish va boronalash ishlari sifati.

**Dala qandalasi** (*Lygus pratensis L.*) – hammaxo'r hasharot. Qandlavlasi (nihollari va urug'i), dukkakli o'tlar, ko'pchilik tolalar, moyli, dorivor, sabzavot va manzarali hamda g'alla ekinlariga katta zarar keltiradi. Zararlangan shona, gul va mayda tugunchalar batamom to'kilib ketadi, zararlangan ko'saklarda botiq qora dog'lar paydo bo'ladi, mayda ko'saklarning shakli qing'ir-qiyshiq bo'lib, tolasi yetilmay, vaqtidan oldin ochiladi (hosil 60% gacha kamayishi mumkin). Dala qandalasi yetuk hasharot holatida turli o'simlik qoldiqlari ostida qishlaydi. Mavsumda 3–4 marta nasl beradi.

**Dala qirqbo'g'imi** (*equisetum avense L.*) – qirqbo'g'imdoslar (*Equisetaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15–60 sm ga yetadigan sporali ko'p yillik o't o'simlik. Ariq bo'ylarida, namli qumloq o'tloqlarda, butalar orasida, o'rmonlarda va ekinzor-

larda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida saponinlar, alkaloidlar, flavonoidlar, vitamin S, karotin, silitat, oshlovchi moddalar bor. Damlamasi va qaynatmasi qon aylanishi izdan chiqqanda, qovuq yallig'lanishida va siydik yo'llarining boshqa kasalliklarida siydik haydovchi vosita sifatida hamda o'pka sili kasalligining ba'zi turlarini davolash uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

**Dala sovun o'ti** (*anagallis arvensis L.*) – navruzguldoshlar (*Primulaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 5–25 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyo, G'arbiy Yevropa qismi va Kavkazning nam yerlarida, daryo vodiylarida, bog'larda, dalalarda, ekinzorlarda, o'rmon atroflaridagi yerlarda o'sadi. Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida saponinlar, flavonoidlar, qandlar, shilliq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida istisqo, jigar, buyrak-tosh, nafas qisish, o'pka sili va tutqanoq kasalliklarini davolashda hamda o't va siydik haydovchi, og'riq qoldiruvchi va surgu dori sifatida qo'llaniladi, u bilan turli yiringli yaralar yuviladi. Uning shu xususiyatidan kelib chiqib, ilmiy tibbiyotda mana shu damlamasidan buyrak, siydik yo'llari va qovuqdagi qum, toshlarni tushirishda foydalanilmoqda.

**Dala sichqonlari** (*microtinal*) – kemiruvchilar oilasiga mansub jonivor. Xomyaklar oilasining kenja oilasi, ba'zan alohida oila sifatida qaraladi. Ularga lemminglar, ondatralar, ko'rsichqonlar, kulrang dala sichqonlari va b. kiradi. Asosan o'simliklarning yer ustki qismi bilan oziqlanadi, ba'zi turlari oziq g'amlaydi. Ko'pgina turlari leptospiroz, tuleremiya

va b. kasalliklar mikroblarining tabiiy tashuvchisi hisoblanadi yoki ekinlarga ziyon keltiradi.

**Dala tajribasi** – dala sharoitida ishlab chiqarish sharoitlariga yaqinlashtirib o'tkaziladigan eksperimental agronomik tadqiqot; ekin yetishtirishning barcha sharoitlarini hisobga olgan holda tajriba maydonida o'tkaziladi. Bunday tajribalarda ekinlarni yetishtirishning u yoki bu omillari hamda usul-amallari va bu omillarning birgalikdagi ta'siri chuqur o'rganiladi.

**Dala tarixi daftari, temir daftar, almashlab ekish dalalari tarixi daftari** – xo'jalikning agroishlab chiqarish hujjati; almashlab ekishdagi har bir dalaning tarixi va xo'jalikning dehqonchilik madaniyatida erishgan yutuqlari aks etadi. Dafdarda jami yer fondi maydoni, ekin maydonlari tarkibi, tuproqlar tasnifi, tuproqni ishlash usullari, o'g'itlash tizimi kabi ma'lumotlar yilma-yil qayd etib boriladi. Daftar dehqonchilikni ilmiy asoslangan usulda olib borilishini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

**Dala-tuz** – dala va ekilmay yotgan sayhon, bo'z yerlar. *Dala-tuzni suv olsa, qo'ng'ir g'ozning to'shidan, Quloqsizga so'z aytsang, qulog'ining tashidan.* (Maqol). *Zumrad erta tongdan dala-tuz, yaylov aylanib ketadi.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol»). *Karnay-surnaylar ertalabdan dala-tuzni boshiga ko'tarib, mehmon chorladi.* («Guldasta».)

**Dala shiyponi** – 1. Dehqonlar ish mahallida hordiq chiqarishlari uchun dalada qurilgan bino. *Ko'ziga oynak tutib olgan traktorchi yigit dala shiyponi oldiga kelib to'xtadi.* (N. Safarov, «Jasoratning davomi»). *Zovur bo'ylab bir oz yurgach, dala shiyponi ro'parasidan chiqdik.* (Gazetadan).

2. Shahardan tashqaridagi bog', qo'rg'on va yer-suvlar. *Pochchang o'lsin! – dedi achchiqlanib Xushro'y, – Najmidinbek deganning dalasiga ketgan edi. To'rt kundan beri dom-daraksiz.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Dala mashqi** – *harb.* Askarlarning aholi yashaydigan joydan tashqarida, ochiq maydonda o'tkazadigan mashqlari. *Elmurodning vzvodi ham batalyon bilan ikki haftalik dala mashqiga chiqqan edi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

**Dala pochtsasi** – harbiylarning harbiy qismlar bo'yicha yurib xizmat qiladigan pochtsasi. *Xatdagi sodda, yoqimli so'zlar, uning tanish imzosi, dala pochtasining besh raqamli adresi – bularning hammasi Eralining sog'-salomatligidan dalolat berib turardi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Dalachilik** – *s.t.1.* Dala ekinlari (paxta, g'alla, sabzavot va sh.k.) yetishtirishdan iborat dehqonchilik tizimi; ekinchilik. Dalachilik brigadalari. – *Oltita dalachilik brigadasi tuzildi.* (Gazetadan). *Javod Ko'chiyev birinchi traktor-dalachilik brigadasiga yetakchilik qila boshladi.* («O'zbekiston qo'riqlari».)

2. Dala sharoiti. *Kechirasiz endi, dalachilik.*

**Dallol** – 1) Sharq mamlakatlarida savdo-sotiq ishlarida xaridor bilan sotuvchi o'rtasida vositachilik qiluvchi, molga narx qo'yib, ularni bitishtiruvchi kishi. Xizmati uchun muayyan haq oladi. O'zbekistonda chorva mollari bozorlarida hozir ham faoliyat ko'rsatadi; 2) birja vositachilarining umumiy nomi (*q.* **Broker, Vositachi, Diler, Makler** va b.).

**Damba I** [*goll. dam* – qirg'oqlardagi ko'tarma] – daryo, soy, suv havzasi yoqalariga tuproq, tosh, shag'al, beton va sh. k. dan ko'tarilgan to'siq, ko'tarma. *Bo'ron*

zabtiga olgan paytlarda kanal suvi... tuproqdan qilingan dambalarni o'pirib yuborgudek vahima solgan edi. (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). ...minglab kishilar suvning yo'lini to'sish maqsadida g'ovlar va dambalar qurdilar. («Fan va turmush»).

**Dam berilgan shudgor** – kuzda va bahorda haydalib, shudgor qilingan, muayyan muddat ekin ekilmagan dala; tuproq hosildorligini tabiiy tiklash vositasi tarzida qo'llanilgan agrotexnik tadbir. Dam berilgan shudgor tuproqlari yumshatilgan va begona o'tlardan tozalangan holda saqlangan, natijada bunday shudgor tuprog'ida o'simlik uchun oziq moddalari to'plangan. Hozirgi zamonaviy intensiv dehqonchilik tizimida deyarli qo'llanilmaydi.

**Danak** [f. – mag'izning qattiq qobi-g'i] – 1. Ba'zi etli mevalar (o'rik, shaftoli va sh.k.) ichidagi qattiq po'choq va mag'izdan iborat urug'. Etli meva orasidagi urug'ni o'rab olgan yog'ochlangan qobiqli qism (endokarp). O'rik danagi. Shaftoli danagi. *Tabiat o'zi usta dehqon. Me'yori bilan danak tashlagan, me'yori bilan urug' sochgan.* (S. Anorboyev, «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar»). *Qarshida o'riklar allaqachon danak qotirib qolgan, bu yoqlarda bo'lsa, endi gullayapti.* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

**Danakli meva daraxtlari** – ra'noguldoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub, mevasi danakli ko'p yillik o'simliklar. Ularga o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha (olva), gilos, tog'olcha, jiydadoشلardan jiyda va b. kiradi. Danakli meva daraxtlari O'zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida bor.

**Danakli oqquray** (*Psoralea drurasea* (L.) – dukkakdoshlar (*Fabaceae*, *Legu-*

*minosae*) oilasiga mansub, bo'yi 70–130 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyo va Qozog'istonning janubidagi tekis cho'llarda, qirlarda o'sadi. Tibbiyotda mevasi va ildizi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, oshlovchi moddalar, furakumarinlar va boshqa birikmalar bor. Psoralen pes kasalligini davolashda qo'llaniladi.

**Shirin danak** – danakning ajratib olingan, sirtiga shakar surtilgan mag'zi yoki qovurilgan danak. *Umid Hafizani eskimo va shirin danak bilan siyladi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**2 ko'chma.** Bola, farzand. *Danagi shirin, danagidan mag'zi shirin.* («Qanotli so'zlar».)

**Dandana** II [f. – tishsimon qismga ega] – q.x. tishlari bo'lgan mola; sixmola. *Endi oldimda u yerga dandana, mola bosish masalasi turardi.* (S. Ayniy, «Es-dalik»).

**Daraxt** [f. – daraxt, nihol; buta] – tana qo'yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o'sadigan ko'p yillik o'simlik. Mevali daraxt. Olma daraxti. *Daraxt shoxlarida iliq tomchilardan seskanib uyg'ongan go'dak kurtaklar tabassum qiladi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Devorlar bo'ylab har xil mevali daraxtlar; shaftoli, olma, nok, olucha, jiyda.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Bodom daraxti yer tanlamaydi: toshloq, qumloq joylarda ham bemalol o'saveradi.* (Gazetadan).

**Daraxtlarga shakl berish** – bog'dorchilik va manzarali bog'dorchilikda qo'llaniladigan agrotexnologik usullardan biri, daraxt va butalar shox-novdalarini butash, siyraklatish, qisqartirish yo'li bilan ularni muayyan bir ko'rinishda o'stirish. Daraxtlarga shakl berish daraxtning havo, yorug'likdan yaxshi bah-

ramand bo'lishi, oziq moddalarning hosilli novdalarda to'planishi, hosildorlikni oshirish va mevalar sifatini yaxshilashga imkoniyat yaratadi. Shakl berilmagan daraxtlar kam yashaydi va kam hosil beradi.

**Daraxtsimon** – daraxtga o'xshagan, daraxtga o'xshab tarmoqlangan. *Daraxtsimon o'simta*. *Tarmoqlanib ketuvchi o'simtalar daraxtsimon o'simta... deb ataladi.* (Gazetadan). *Kashtan – qora qayindoshlar oilasiga mansub daraxtsimon o'simlik.* («Fan va turmush».)

**Daraxt yelimi (gummi)** – shilliq moddalarning o'simlik to'qimalaridan oqib chiqib, po'stloqning yaralangan joyini qoplab qotishidan hosil bo'ladi. Ular har xil rang va shakldagi qattiq bo'lakchalardan iborat bo'lib, o'ziga xos shirin, shilimshiq mazaga ega. Organik erituvchilarda erimaydi, suvda yaxshi eriydi (arabin), kam eriydi, lekin yaxshi shishadi (bassorin) yoki butunlay erimaydi va kam shishadi (serazin). Daraxt yelimlari tarkibi polisaxaridlar (pentozlar va geksozlar polimeri), qand va yelim kislotalarining kaliy, magniy va kalsiy tuzlari hamda organik kislotalar, fermentlar, bo'yoq, oshlovchi, mineral moddalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Tibbiyotda daraxt yelimlari me'da kasalliklarida qoplab oluvchi vosita sifatida (suvdagi eritmasi), farmatsevtika amaliyotida tabletka dorilar va emulsiyalar tayyorlash uchun qo'llaniladi. Tibbiyotda quyidagi daraxt yelimlari ishlatiladi: *K. abrikosovaya (G. armeniaca)* – o'rik yelimi va *K. tragakantovaya (tragakant) (G. tragacanthae)* – astragal yelimi (*tragakant*), *K. araviyskaya (Gumini agabicum)* – arab yelimi (*aqoqiyo*). Afrikaning tropik nohiyalaridagi savannalarda o'sadigan senegal akatsiyasi va boshqa turlaridan olinadi.

Arab yelimi sarg'ish rangli, yarim tiniq, mo'rt, shakli qariyb dumaloq bo'lakchalar bo'lib, butunlay arabindan tashkil topgan, sovuq suvda sekinlik bilan, lekin butunlay eriydi. Suvdagi eritmasi me'da kasalliklarida qoplab oluvchi vosita (ichiladi va klizma qilinadi), kukuni yog' emulsiyalari tayyorlashda emulgator sifatida qo'llaniladi. Yevropada arab yelimi o'rnida o'rik yelimi ishlatiladi.

**Daraxtzor** [f.] – daraxtlar bilan band yer, maydon. *Rejasiz daraxtzor – chanzalzor.* (Maqol). *Tegirmonni kutib yotgan daraxtzor pastda xuddi samovarning sahnidagi gulzorga o'xshar edi.* (A. Qahhor, «Asarlar»). *Qayinzor ikki yo'lning o'rtasida bo'lib, tevarak-atrofdagi daraxtzorlardan anchagina balandlikda edi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat».)

**Darmana** [f.] – murakkabgullilar oilasiga mansub, o'q ildizli dorivor o'simlik va undan olinadigan gijjaga qarshi dori.

**Darranda** [f. – «pora qilmoq», «parchalamoq»; *fl. hoz. z. shakli*] – 1. Sutevizuvchi yirtqich, vahshiy hayvonlar. *Darrandalarning ayrimlari, sariq yumronqoziq va sug'urlar qish va yozda uzoq uyquga ketadi.* («Fan va turmush».) *Tuxumi qirilib ketgan, quruqda yashovchi sudralib yuruvchilardan darranda kaltakesaklar diqqatga sazovordir.* («Zoolo-giya».)

2 *ko'chma*. Yovuz, yirtqich. *Yanching o'z ichida darranda zotin, Gitlarning balo-yi nogihonlarin.* (G'. G'ulom). *Darranda dushmanlar serjahl, asabiy, Kuchanar devorni sindiray deya.* (M. Shayxzoda, «Chorak asr devoni».)

**Darvinizm** – jonli tabiatning tarixiy rivojlanishi, hayvonot turlari va o'simliklar organizmlarining tabiiy tan-



lanish yo'li bilan paydo bo'lishi haqidagi ingliz olimi Ch. Darvin ta'limoti. *Darvinizm – organik olamning taraqqiyot qonuniyatini ifodalaydi.* («Fan va turmush».)

**Daryo** [*f.* – katta suv, dengiz] – 1. Manbaidan quyilish joyi tomon tabiiy o'zandan doimiy ravishda oqib turadigan katta suv. Zarafshon daryosi. Azim daryo. Daryo suvi. Daryo bo'yi. *O'tirgan – bo'yra, yurgan – daryo.* (Maqol). *Tomchi toshib bo'lguncha, daryo oqib bo'lar.* (Maqol). *Pastlikda Chorvoqdan favvora bo'lib otilib chiqayotgan suv daryo hosil etib, olg'a boryapti.* (Gazetadan). *Kechasi daryo shunaqa chiroyli bo'ladiki, Kanizakxon.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari».)

2 *ko'chma.* Ko'p miqdordagi narsalar haqida. *Xayol daryosi. Botir yorim, bilaman, siz qayg'u daryosiga mendan chuqurroq botdingiz.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Odamlar daryosi... yangi shahar tomonga oqardi.* (P.Tursun, «O'qituvchi».)

**Daryo oqimini tartibga solish** – daryodan oqayotgan suvni vaqt davomida va xalq xo'jaligi ehtiyojlariga ko'ra qayta taqsimlash. Muayyan davrda oqimni tabiiy daryo rejimiga nisbatan ko'paytirish yoki kamaytirishdan iborat. Bunga daryoda suv talabga nisbatan ko'p bo'lganda suv omborlarida vaqtincha to'plash, iste'mol tabiiy oqimdan yuqori bo'lganda jang'arilgan suvni sarflash yo'li bilan erishiladi.

**Daryo suvchanligi** – daryoda muayyan vaqt (dekada, oy, mavsum, yil, bir necha yil) davomida o'rtacha ko'p yillik oqimliklar (norma)ga nisbatan oqib o'tgan suv miqdori. Daryo suvchanligi nisbiyut ( $m^3/s$ ,  $l/s$ ,  $km^3/yil$ ) yoki nisbiy

(normaga nisbatan % yoki modul koefitsiyenti) birliklarda ifodalanadi.

**Dasta** [*f.* – guruh; to'da; bog'lam, to'p] – 1. Bir tutam yoki bog'lam qilib terilgan yoxud bog'langan narsa; bog', bog'lam. Bir dasta piyoz. *Bir dasta gul ko'tarib Mamlakat kiradi.* (S. Zunnunova, «Olov»). *Polda bir dasta binafsha sochilib yotardi.* («Yoshlik».)

2. Ustma-ust qilib terilgan, taxlangan yoki taxlab bog'langan yoxud qutichaga joylashtirilgan narsa; pachka. Bir dasta kitob. Bir dasta pul. *Islomxo'ja bir dasta tilxatni tez-tez ko'zdan kechirdi.* (S. Siyoyev, «Avaz».)

3 *maxs.* Ipak qurti pilla o'rashi uchun so'kchakka bostiriladigan o'simlik va b. materiallardan tayyorlanadigan bog'lam. (G'o'zapoya va sh.k. bog'lami). *Qurt dastaga kirar vaqti chimxo'r bo'lib, sustlab qoladi, bir kun noz uyquni oladi.* (M. Qo'shmoqov, «Ali Qambar».)

4. Guruh, ansambl. *Sozandalar dastasi bir chirmandachi, bir nog'orachi, bir surnaychi, bir raqqosa va bitta qo'g'irchoqbozdan iborat edi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar».)

5. To'p, guruh, otryad. *Ba'zi har ikki tomonning ilg'or dastalari to'satdan uchrashib, katta suron bilan o'q uzishadilar.* (Oybek, «Navoiy».)

**Dauriya menispermumi** (*menispermum dahuricum D. S.*) – menispermdoshlar (*Menispermaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 2–2,5 m (ba'zan 5 m ga) yetadigan ikki uyli ko'p yillik o't o'simlik yoki yarim buta. Uzoq Sharq, Primorye va Xabarovsk o'lkalari hamda Sharqiy Sibir janubidagi ariq bo'ylarida, butalar orasida, o'tloqlarda, ba'zan ekinlar orasida o'sadi. G'arbiy Yevropa qismida maxsus o'stiriladi. Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida alkaloid mod-

dalar bor. Damlamasi (nastoykasi) qon bosimi oshganda ichiladi.

**Dauriya simitsifugasi** (*cimucifuga dahurica* (turcz.) Maxim.) – ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) oilasiga mansub, bo‘yi 1 (ba‘zan 1,5) m ga yetadigan ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Primorye va Xabarovsk o‘lkalaridagi (janubiy qismidagi) o‘tloqlarda, butalar orasida va o‘rmonlar chetida o‘sadi. Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida triterpen glikozidlar, kumarinlar, smolalar va b. moddalar bor. Dori preparatlari I va II darajali qon bosimi oshishi (gipertoniya) kasalligini davolashda hamda tinchlantiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

**Davitaminoz kasalligi** – bu kasallikka duchor bo‘lgan buzoqlar raxit kasalligiga uchraydi, ya‘ni suyak to‘qimalarida tuz juda sekin to‘planadi, natijada suyaklari deformatsiyalanadi. Katta hayvonlarda esa suyak to‘qimalarida kalsiy va fosfor kamayishi natijasida osteomalyatsiya yoki osteoporoz, ya‘ni suyak to‘qimalarining yumshash yoki atrofiyalanish kasalligi ro‘y berishi mumkin.

**Davlat buyurtmasi** – davlat talabi bilan (shartnoma yoki kelishuv asosida) korxonalar, tashkilot, xo‘jaliklarga muayyan mahsulot turini belgilangan muddatlarda ishlab chiqarish va yetkazib berish, davlat ehtiyojlari uchun tegishli xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy-texnik ishlarni bajarish va b.; iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish (tartiblash) vositalaridan biri. Davlat buyurtmasiga asosan umumdavlat va ijtimoiy vazifalarni hal etish, ilmiy-texnikaviy dasturlarni bajarish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash va iqtisodiy mustaqillikni ta‘minlash, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantiruv-

chi eng muhim ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarni amalga oshirish, q.x. mahsulotlari yetkazib berish, davlatning markazlashgan mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar uchun yangi quvvatlar, obyektlar yaratish va b. maqsadlarda beriladi.

**Davlat nav sinash tarmog‘i** – ekinlarning yangi navlarini har tomonlama baholash va muayyan tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirishga yaroqliligini tekshirish maqsadlarida o‘rganish va sinab ko‘rish tizimi. Seleksiya muassasalarida chiqarilgan yangi navlar sinash bosqichlari yakunlanganidan so‘ng sinash ishlarini davom ettirish uchun davlat nav sinash tarmog‘iga topshiriladi.

**Davlat naslchilik nazorati** – mamlakat miqyosida chorvachilik sohasida naslchilik ishlarini nazorat qilish majmui. Tarmoqda yagona ilmiy-texnika siyosatini amalga oshirish, davlat va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish, naslchilikdagi me‘yoriy hujjatlar va qoidalarni tasdiqlash, nasldor hayvonlarni, naslchilik xo‘jaliklari va podalarini, tegishli davlat kitobida va davlat reyestrda ro‘yxatga olish, naslchilik sohasida seleksiya, biotexnologiya va genetik injeneriya usullarini qo‘llash shartlarini belgilash, naslchilikni davlat yo‘li bilan rag‘batlantirish, seleksiya maqsadlari uchun noyob zotlar genofondini saqlab qolish chora-tadbirlari va b. ni qamraydi.

**Davlat suv fondi**, *yagona davlat suv fondi* – mamlakat hududidagi suvlar (suv obyektlari) – daryolar, ko‘llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanallar va hovuzlarning suvlari, yer osti suvlari va muzliklar, ichki dengizlar, hududiy suvlar. O‘zbekistonda suv davlat mulki, umummilliy boylik hi-

soblanadi. Davlat suv fondi obyektlari aholiga, korxonalar, muassasalarga va tashkilotlarga faqat foydalanish uchun beriladi. O'zbekiston hududida davlatdan boshqa hech kim suv egasi bo'lishi mumkin emas.

**Davlat suv kadastri** – mamlakatning suv resurslari to'g'risida tartiblashtirilgan ma'lumotlar majmui. Davlat suv kadastri jami suvlarning miqdor va sifat tavsiflari bo'yicha hisobga olish ma'lumotlarini, shuningdek, suvdan foydalanish ro'yxati va suvdan foydalanganlikni hisobga olish ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

**Davlat urug'chilik nazorati** – davlat tomonidan q.x. ekinlarining urug'lik va nav sifatlarini, shuningdek, urug'chilik xo'jaliklari, seleksiya stansiyalari, tayyorlov tashkilotlarida yuqori sifatli urug'lik yetishtirish ishlarini nazorat qilish tizimi. Davlat urug'chilik nazorati idorasi ekish uchun ishlatiladigan va savdodagi urug'likning ekishga yaroqliligini (lab. sharoitida) va navdorligini (lab. sharoitida, dala tajriba maydonlarida, aprobatsiyani nazorat qilish kabilarni) tekshiradi.

**Davlat xaridi** – budget mablag'lari hisobiga hukumat yoki davlat idoralari tomonidan sotib olinadigan, mamlakatda yoki chet ellarda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar. Bunday xarid davlat tomonidan davlatning o'z ehtiyojlari (mas., uskuna-jihozlar, qurol-yarog' sotib olish), aholi iste'molini ta'minlash va davlat zaxiralarini (don, oziq-ovqat va b. xaridi) yaratish maqsadlarida amalga oshiriladi. Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilayotgan sanoat tovarlari va yetishtirilayotgan q.x. mahsulotlarini xarid qilishda davlat ma'lum narxlar belgilaydi.

**Davlat yer kadastri** – yerning tabiiy, xo'jalik va huquqiy holati to'g'risidagi aniq va zaruriy ma'lumotlar majmui.

**Davshan** – shv. Quyon.

**Dag'al jun** – tarkibida har xil tipdagi dag'al (tivit, oraliq tola) jun tolasi, quruq va o'lik tolalardan tashkil topgan, kokilchasimon tuzilishdagi jun. Dag'al jun tolasining ingichkaligi va uzunligi turlicha bo'lishi bilan ajralib turadi. Dag'al junning sifati tola tiplarining o'zaro nisbati, uzunligi va ingichkalik ko'rsatkichlariga bog'liq.

**Dag'al junli echkilar** – mayin junli angor echkisidan boshqa barcha echkilar. Bularning juni tivit aralash, dag'al va uzun bo'ladi.

**Dag'al junli qo'ylar** – qo'ylarning dag'al jun beradigan zotlari. Mahsuldorlik belgilari va xo'jalik ahamiyatiga ko'ra dag'al junli qo'ylar teri va sut beruvchi zotlar (qorako'l, reshetilov, malich va b.), go'shtdor-yog'dor dumbali zotlar (hisori, edilbiy, jaydari, qozoqi, qirg'iz va b.), po'stinbop teri beruvchi zotlar (Romanov, kulundin, kalta junli shimol qo'ylari va b.), go'sht-jun va sut beruvchi zotlar (balbas, bozax, lezgin, tushin, shirvon va b.) ga bo'linadi.

**Dag'al ozuqa**, *dag'al xashak* – o'simliklardan tayyorlanadigan quruq xashak. Tarkibida kletchatka miqdorining ko'p (25–40%) bo'lishi bilan ajralib turadi. Dag'al ozuqa (pichan, somon, to'pon, shulxa va b.) o'txo'r hayvonlar qishki ratsionining zaruriy qismini tashkil etadi, mollar iste'mol etadigan ozuqa moddalarning deyarli yarmi dag'al ozuqadan olinadi.

**Dag'al tukli pechak (mingbosh)** (*convolvulus subhirsutus rgl. Yet schmalh*) – pechakdoshlar (*Convolvulaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 60–80 sm ga yetadigan sershox va sertukli ko'p yillik zaharli o't. Markaziy Osiyo respublikalarining tog' etaklarida, mayin tuproqli va qisman

toshli tog' qiyaliklarida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar (konvolvin va kopvodamin) va boshqa moddalar bor. Bu alkaloidlar o'ta zaharli bo'lgani uchun tibbiyotda ularning hosilari – konvokain benzoat tomoq, quloq, burun va ko'z kasalliklarida, konvolaminning hosilasi – tropatsin parkinson (a'zolarining doim titrashi) kasalligi va mushaklar tonusining oshishidan kelib chiqadigan boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Tropatsin yana me'da-ichak yarasi, astma va b. kasalliklarda ham ishlatiladi.

**Dasht** [f.– dala; cho'l, sahro] – 1. Ekilmay yotgan suvsiz yer; cho'l. Bepoyon dasht. Qaqroq dasht. Dasht havosi. *Dashtda yursam, suv qadri o'tar, yor bilan urishsang, yor qadri o'tar.* (Maqol). *Dasht deganim – qishloq etagidagi past-u baland tepalarning orti.* (A. Ko'chimov, «Halqa»). *Hali dashtga qorong'ilik cho'kmagan.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»).

2. Keng, ochiq maydon; dala. *Birovlar bir parcha joy topolmay sargardon, chodirsiz, chaylasiz dashtda o'tiradilar.* (Oybek, «Nur qidirib»).

**Dasht-biyobon**, *dasht-u biyobon* – dasht va biyobon(lar), cho'l va sahrolar. *Hamayyoq dasht-biyobon: odam yursa – oyog'i, qush uchsa, qanoti kuyadi.* (M. Osim, «Ajdodlarimiz qissasi»). *Taqdir buni ham ko'p ko'rib, tinchgina uyjoyidan dasht-u biyobonga haydadi.* (M. Osim, «Karvon yo'llarida»).

**Dashtlik** – 1. Ekilmay yotgan suvsiz yerlar; cho'llar.

2. Dashtda yashovchi kishi; umuman shahardan tashqarida yashovchilar. *Dashtlik deb ko'p qilma mazax.* («Hasanxon»).

**Dashtpiyoz** – yovvoyi piyoz turlaridan biri.

**Debo, deboh** [f. – nafis ipak mato] – bir nav nafis ipak mato; harir. *Padari buzrukvor volidaga debo va atlasdan hilyalar buyurib... ahli mahallalarga osh tortibdilar.* («Mushtum»).

**Defoliatsiya** [lot. *defoliation* < de.. + lot. *folium* – barg] – q.x., kim. Paxta hosilini mashinalar yordamida yig'ib-terib olishni osonlashtirish uchun o'simlik barglarini sun'iy ravishda to'ktirish. Defoliatsiya uchun kimyoviy moddalar – defoliantlardan foydalaniladi, ular o'simliklar barglarida qarish yoki tabiiy to'kilish yuz beradigan jarayonlarga o'xshash hodisalarni sodir etadi. Bu jarayonda barglarda xlorofill miqdori kamayadi, fotosintez keskin susayadi, organik moddalar hosil bo'lish jarayoni buziladi, suv bug'lanishi kuchayadi, oqsil va b. birikmalar parchalanishidan hosil bo'ladigan mahsulotlar ko'payadi. Bu birikmalar barg plastinkasi orqali oqib, barg bandi ajratuvchi qavati hujayralarining yakkalanib qolishiga olib keladi va barg o'z og'irligi ta'sirida to'kiladi. Barglar kimyoviy preparatlar yordamida to'kilsa, ekin qator oralaridan shamol o'tishi yaxshilanadi, havoning nisbiy namligi kamayadi. Defoliatsiyadan so'ng barglar uzog'i bilan 10–12 kunda qurib to'kiladi. *Defoliatsiya nimaligini har bir paxtakor yaxshi biladi.* («Fan va turmush»). *Defoliatsiya paxtani tez ochiltirish, mashina terimini ommaviy ravishda kuchaytirishning asosiy omilidir.* (Gazetadan).

**Defoliantlar** – q.x., kim. Defoliatsiya paytida, davrida ishlatiladigan kimyoviy moddalar (kalsiy sianamid, magniy xlorat va b.). *Defoliantlarning hammasi ham toksik modda hisoblanib, mutlaqo zarar-*

sizi yo'q. (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»). *Ular kam zaharli defoliantlarining yangi turlarini yaratdilar.* (Gazetadan).

**Degradatsiya** – hayvonot va o'simliklarning yashash sharoiti o'zgarishi ta'sirida tuzilish va funksiyasining soddalashishi.

**Degeneratsiya** [lot. *degenerare* – buzilmoq, aynimoq] – 1. Organizmdagi biologik va psixik belgilarning kasallik yoki boshqa omillar tufayli yomonlashuvi; nasl aynishi.

2 *biol.* Hujayralarning yoki jonli organizmlarning buzilish jarayoni. *Tomir ushlab ko'rilganda, uning devori qattiq ekanligini sezish mumkin: bu kabi tomir devorida degeneratsiya hodisasi bor.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Degustatsiya** [fr. *degustation* < lot. *degustare* – yeb ko'rmoq; mazasini totmoq] – *maxs.* Tayyorlangan vino, pivo, tamaki, choy va sh.k ning ta'mi va hidiga qarab, sifatini aniqlash, baholash. *Xalqaro yarmarkalar, degustatsiyalar, tanlovlar va ko'rgazmalarda O'zbekiston vinolari 92 ta medal bilan taqdirlangan.* (Gazetadan).

**Degustator** – *maxs.* Tayyorlangan vino, pivo, tamaki, choy va sh.k ning ta'mi va hidiga qarab, sifatini aniqlovchi mutaxassis; chashnachi. *Qo'shning gapidan uning vino zavodida yangi vinolarning mazasini ko'ruvchi, darajasini aniqlovchi – degustator vazifasida ishlashini bildim.* («Mushtum»).

**Dehqon** (*forscha* «*deha*» – «qishloq», «*dehagon*» – «qishloqda yashovchilar», «qishloqliklar» so'zidan; katta yer egasi, zamindor; qishloq hokimi) – asosiy kasbi ekin ekishdan, dehqonchilik qilishdan iborat bo'lgan kishi. «Dehqon» atamasi

mazmuni tarixan o'zgarib ketgan. Dastlab qishloq jamoasidan ajralib chiqqan yer egalari, qishloq oqsoqollari dehqon deyilgan. Bularning ko'pchiligi keyin yirik yer egalarga aylangan, ular devor bilan o'ralgan mustahkam qo'rg'onlarga ega bo'lganlar. *Dehqon bo'lsang, shudgor qil, mullo bo'lsang, takror qil.* (Maqol). *Quyosh nurlarini shirin-shakar mevalarga aylantirgan bu O'zbek dehqoni.* (Shukurullo, «Saylanma»). *Men sizga ekinlarimni ko'rsatay. Dehqon ko'zi bilan qarab, meni yaxshilab tanqid qiling.* (Oybek, «O.v. shabadalar»)

**Dehqonbop** – dehqonlarga, dehqonchilik qilishga qulay, mos. *Dehqonbop etik. Bu yil avgust oyining dehqonbop bo'lib, saxiy kelishi kutiladi.* (Gazetadan).

**Dehqon xo'jaligi** – oilaviy mayda tovar xo'jaligi. O'zbekistonda, umuman, dehqon xo'jaligining shakllari juda ko'hna tarixga ega bo'lsa-da, xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyoti sharoitlarida uning hozirgi tashkiliy tuzilmasi XX asrning 90-yillari oxirida paydo bo'ldi. Bu xo'jalik shakli oilaviy mayda tovar xo'jalik bo'lib, oila boshlig'iga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqida davlat tomonidan berilgan to'lorqa yer uchastkasida oila a'zolarining shaxsiy mehnat asosida dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari yetishtiradi va sotadi. Dehqon xo'jaligi faoliyati tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi va xo'jalik a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kundan e'tiboran tashkil etilgan, deb hisoblanadi.

**Dehqonlar** – ijtimoiy guruh, aholining asosiy kasbi dehqonchilik bo'lgan maxsus

toifasi. Dehqonlar mehnat faoliyati, turmush tarzi, manfaati va ko'nikmalariga ko'ra jamiyatdagi boshqa sinf va ijtimoiy guruhlardan farq qiladi. Dehqonlar agrar sohada faoliyat ko'rsatadi, yer va b. resurslarga egalik qiladi, o'z ishlab chiqarish vositalari va oila a'zolari mehnati bilan yakka xo'jalik yuritadi. Dehqonlarning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi jarayonida q.x. da ixtisoslashuv yuz berib, dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi va mayda oilaviy xo'jaliklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq.

**Dehqonchilik – 1.** O'simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o'simliklar (q.x. ekinlari)ni yetishtirish q.x.ning asosiy tarmoqlaridan biri, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilikni yem-xashak, ko'pgina sanoat tarmoqlari (oziq-ovqat, to'qimachilik, farmatsevtika va b.)ni xomashyo bilan ta'minlaydi. Chorvachilik bilan uzviy bog'liq. Dalachilik (asosiy tarmoq), sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, gulchilik, yaylov o'tloqchilik kabi tarmoqlarga bo'linadi.

**2.** Qishloq xo'jaligining yerga ekin ekib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi, ziroatchilik. *Qadimdan oq Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo kabi obi hayot sohilla-rida, go'zal Farg'ona, Toshkent, Buxoro va Xorazmning ibtidoiy tabiati bag'rida dehqonchilik keng tarmoq otgan edi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**3.** Ekin-tikin bilan shug'ullanish kasbi, mashg'uloti. Dehqonchilik qilmoq. *Dehqonchilik – chilik-chilik, Bo'lmasa, quruqchilik.* (Maqol). *Yoz faslida dehqonchilik qiladi, sahar ketib, kech keladi.* (M. Ismoil, «Farg'ona t.o»).

**4.** Ekinzor, ekin dalasi. *Anovi pastlikda dehqonchiligimiz bor. Bemalol, ham-*

*ma narsa o'zimizdan chiqadi.* (Oydin, «Kelin o'g'il tug'ibdi»).

**Dehqonchilikning asosiy qonunlari** – dehqonchilikni ilmiy asosda olib borishning obyektiv qonunlari: q.x.ni intensivlash, ekinlardan mo'l hosil olishda obyektiv omillarning o'rni va rolini izohlab beradi. Tuproqdan olingan moddalarni qaytarish; minimum, optimum, maksimum; hayot omillarining birgalikda ta'sir etishi; hayot omillarining teng ahamiyatlilik va almashtirib bo'lmasligi qonunlarini o'z ichiga oladi.

**Dehqonchilikning ekstensiv sistemasi** – dehqonchilik sistemalaridan biri bo'lib, bunda tuproqlarning unumdorligi inson tomonidan asosan tabiiy yo'l bilan shudgorlarni ishlash, qisman meliorativ tadbirlar o'tkazish, mexanizatsiya vositalari va o'g'itlardan foydalanish hisobiga tiklanadi va saqlab turiladi. Ekstensiv sistema primitiv sistemadan shudgorlanadigan yerlarning asosiy qismi esa shudgorlar bilan band bo'lishi xususida farq qiladi.

**Dehqonchilik madaniyati** – dehqonchilikni yuritishning dehqonchilik qonun-qoidalari va agrotexnologiya me'yorlariga muvofiqligi darajasi. «Dehqonchilik madaniyati» tushunchasi keng ma'noda jamiyatda dehqonchilikni yuritish darajasini bildiradi, tor ma'noda dehqonchilik bilan shug'ullanadigan insonning dehqonchilikka oid bilim va tajribalari hamda uni qo'llash mahorati, malakasini anglatadi. Jamiyat taraqqiyotidagi har bir muayyan davrning o'ziga xos dehqonchilik madaniyati mavjud va bu madaniyat asrlar davomida vorisiylik asosida boyib va yangilanib boradi. Dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanib borishi jamiyatning ishlab chiqaruvchi

toifasi. Dehqonlar mehnat faoliyati, turmush tarzi, manfaati va ko'nikmalariga ko'ra jamiyatdagi boshqa sinf va ijtimoiy guruhlardan farq qiladi. Dehqonlar agrar sohada faoliyat ko'rsatadi, yer va b. resurslarga egalik qiladi, o'z ishlab chiqarish vositalari va oila a'zolari mehnati bilan yakka xo'jalik yuritadi. Dehqonlarning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi jarayonida q.x. da ixtisoslashuv yuz berib, dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi va mayda oilaviy xo'jaliklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq.

**Dehqonchilik – 1.** O'simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o'simliklar (q.x. ekinlari)ni yetishtirish q.x.ning asosiy tarmoqlaridan biri, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilikni yem-xashak, ko'pgina sanoat tarmoqlari (oziq-ovqat, to'qimachilik, farmatsevtika va b.)ni xomashyo bilan ta'minlaydi. Chorvachilik bilan uzviy bog'liq. Dalachilik (asosiy tarmoq), sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, gulchilik, yaylov-o'tloqchilik kabi tarmoqlarga bo'linadi.

**2.** Qishloq xo'jaligining yerga ekin ekib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi, ziroatchilik. *Qadimdan oq Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo kabi obi hayot sohillarida, go'zal Farg'ona, Toshkent, Buxoro va Xorazmning ibtidoiy tabiati bag'rida dehqonchilik keng tarmoq otgan edi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**3.** Ekin-tikin bilan shug'ullanish kasbi, mashg'uloti. Dehqonchilik qilmoq. *Dehqonchilik – chilik-chilik, Bo'lmasa, quruqchilik.* (Maqol). *Yoz faslida dehqonchilik qiladi, sahar ketib, kech keladi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

**4.** Ekinzor, ekin dalasi. *Anovi pastlikda dehqonchiligimiz bor. Bemalol, ham-*

*ma narsa o'zimizdan chiqadi.* (Oydin, «Kelin o'g'il tug'ibdi»).

**Dehqonchilikning asosiy qonunlari** – dehqonchilikni ilmiy asosda olib borishning obyektiv qonunlari: q.x.ni intensivlash, ekinlardan mo'l hosil olishda obyektiv omillarning o'rni va rolini izohlab beradi. Tuproqdan olingan moddalarni qaytarish; minimum, optimum, maksimum; hayot omillarining birgalikda ta'sir etishi; hayot omillarining teng ahamiyatlilik va almashtirib bo'lmasligi qonunlarini o'z ichiga oladi.

**Dehqonchilikning ekstensiv sistemasi** – dehqonchilik sistemalaridan biri bo'lib, bunda tuproqlarning unumdorligi inson tomonidan asosan tabiiy yo'l bilan shudgorlarni ishlash, qisman meliorativ tadbirlar o'tkazish, mexanizatsiya vositalari va o'g'itlardan foydalanish hisobiga tiklanadi va saqlab turiladi. Ekstensiv sistema primitiv sistemadan shudgorlanadigan yerlarning asosiy qismi esa shudgorlar bilan band bo'lishi xususida farq qiladi.

**Dehqonchilik madaniyati** – dehqonchilikni yuritishning dehqonchilik qonun-qoidalari va agrotexnologiya me'yorlariga muvofiqligi darajasi. «Dehqonchilik madaniyati» tushunchasi keng ma'noda jamiyatda dehqonchilikni yuritish darajasini bildiradi, tor ma'noda dehqonchilik bilan shug'ullanadigan insonning dehqonchilikka oid bilim va tajribalari hamda uni qo'llash mahorati, malakasini anglatadi. Jamiyat taraqqiyotidagi har bir muayyan davrning o'ziga xos dehqonchilik madaniyati mavjud va bu madaniyat asrlar davomida vorisiylik asosida boyib va yangilanib boradi. Dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanib borishi jamiyatning ishlab chiqaruvchi

kuchlari, ayniqsa sanoat ishlab chiqarishi va fan-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

**Dehqonchilik tizimi** – yerdan samarali va jadal foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, ekinlardan yuqori va barqaror hosil olishga qaratilgan o'zaro bog'liq texnologik (agrotexnik), meliorativ va tashkiliy, iqtisodiy chora-tadbirlar majmui. Samaradorlik darajasiga ko'ra ibtidoiy, ekstensiv, oraliq va jadallashtirilgan (intensiv) guruhlariga bo'linadi.

**Dekorativ** [lot. *décor, decororis* – go'zallik, nafasat] – ziynat uchun xizmat qiladigan, ko'rkamlik, go'zallik baxsh etadigan. Dekorativ o'simliklar. *Bu yerda qator monumental va dekorativ san'at namunalari bunyod etildi.* (Gazetadan). *O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixida jahonga dong taratgan ajoyib dekorativ-bezak san'atini yaratdi.* («Fan va turmush»).

**Delfin** [yun. *delrhis, delrhinos*] – zool. Kitsimonlar turkumiga mansub, dengiz va okeanlarda yashaydigan sutemizuvchi hayvonlarning bir turi. *Bahor kezlari delfinlar juftlashish pallasiga kiradi.* («Fan va turmush»). *Delfinlar, chag'alaylar o'yini bizni zeriktirmay borardi.* (E. Oxunova, «Ikki okean osha»).

**Delfinariy** – delfinlarni o'rganish, o'rgatish va namoyish qilish maqsadida qurilgan basseynli inshootlar majmui. *Botumidagi delfinariyda men delfinning cho'chqaning xurillashini eslatadigan tovushini eshitdim.* («Fan va turmush»).

**Delfinsimonlar** – sutemizuvchilar sinfining tishli kitlar kenja turkumiga mansub oilasi.

**Delta II** [yun. *delta*] – geogr. Daryoning uchburchaksimon tarmoqlanib, ko'lga yoki dengizga quyiladigan joyida bosti bo'lgan tekislik (termin Nil daryo-

sining dengizga quyilish joyi delta harfi shakliga o'xshashligidan kelib chiqqan). *Amudaryoning qadimgi va hozirgi delta-si ayniqsa past yerlardir.* (N. Dolimov, «O'zbekiston geografiyasi»).

**Deltaplan** – yengil, motorsiz uchish apparati.

**Demografiya** [yun. *demos* – xalq + *grapho* – yozaman] – aholishunoslik; biror hudud, mamlakat, birdan ortiq mamlakatlar yoki dunyo aholisi o'zgarishlari (soni, geografik taqsimlanishi, tarkibi, o'lish, tug'ilish jarayonlari)ni o'rganuvchi fan tarmog'i.

**Demonopolizatsiyalash** – ajratish, bekor qilish, iqtisodiyotdagi monopoliyadan (tanho hukmronlikdan) erkin, teng, huquqli, raqobatga asoslangan sohibkorlik faoliyatiga qaytish. Demonopolizatsiyalash sog'lom iqtisodiy bellashuvga yo'l berish maqsadida amalga oshiriladi. Demonopolizatsiyalash ikki yo'l bilan boradi: yirik monopol mavqeidagi birlashmalar, kompaniyalar tarqatilib, ulardan mustaqil korxonalar ajralib chiqadi; yakkahokim korxonalar yoki birlashmalar, kompaniyalar saqlangan holda ular bilan raqobat qila oladigan parallel (bir xildagi yoki bir-birini o'rnini bosuvchi mahsulot chiqaruvchi) korxonalar yoki birlashmalar tashkil etiladi. Demonopolizatsiyalashda antimonopol organlar va qonunchilik muhim ahamiyatga ega.

**Demontaj** [de. + fr. *montage* – ko'tarish, yasash, joylashtirish] – biror narsa, obyekt yoki asbob-uskunaning tayyor, yaxlit holatdan qismlarga, bo'laklarga ajratish, buzish (ta'mirlash va boshqa maqsadlarda). *Nasoslar, dizellar, hamma qimmatli mexanizmlar demontaj qilinsin!* (P. Qodirov, «Erk»).

**Demping** – bozorda raqobatchilarni yengib chiqish maqsadida mollar va xiz-



matlar narxlarini sun'iy ravishda pasaytirish; mollarni boshqa mamlakatda tan-narxidan arzon narxda sotish.

**Dendrariy** [yun. *dendron* – daraxt] – ilmiy, o'quv yoki madaniy-ma'rifiy maqsadlarda barpo etilgan, faqat daraxt va butalar ekilgan ochiq maydon; botanika bog'ining tarkibiy qismi. *Ishchilar shaharchasidan dendrariyga ketayotgan yengil mashinalar va avtobuslarning keti uzilmaydi.* (Gazetadan). *Bu dendrariy yuqorida nomi aytilgan birlashma va O'zbekiston Fanlar akademiyasining Botanika bog'i hamkorligida barpo etilgan.* («Fan va turmush»).

**Dendrologiya** [yun. *dendron* – daraxt + *logos* – bilim, tushuncha] – botanikaning daraxt va butalarning turlarini o'rganadigan bo'limi, sohasi.

**Dendropark** [yun. *dendron* – daraxt + ingl. *rark* – atrofi o'ralgan bog'; qo'riqxonona] – 1. Turli o'simlik va daraxtlar kolleksiyasi ekilgan katta bog'. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika bog'ining dendroparkidagi daraxt, buta va lianalar 2500 turni tashkil etadi.* («Fan va turmush»).

2. Ana shunday daraxt va o'simliklar quchog'idagi dam olish joyi. *Toshkent dendroparkida dam oldik. Nisbatan issiq iqlimli va serhosil bo'lgan bu yerlar dendropark uchun ayni muddao.* (Gazetadan).

**Dengiz** – 1. Okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo'lagi, okeanning quruqlik yoki orol va yarimorollar bilan ajralgan qismi. Orol dengizi. Boltiq dengizi. Qizil dengiz. Dengiz sathi. Dengiz floti. *Ahmoqda or bo'lmas, dengizda – gular.* (Maqol). *Orollar va yarimorollar okeanni ayrim qismlarga bo'lib yuborgan, bu qismlar dengizlar deb ataladi.* («Dunyo qit'alari

geografiyasi»). *Dengiz suvidek tiniq ko'zlari muloyim va mehr bilan boqardi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

2. Keng maydonni egallagan va dengizga qiyos qilingan sun'iy suv havzasi. Toshkent dengizi. *Chorvoq dengizi xuddi uzukka qo'yilgan moviy ko'zga o'xshab, yashnab ko'rinadi.* (Gazetadan).

3 ko'chma. Juda katta uyum, to'da, oqim; biror narsa bilan qoplangan keng maydon. Paxta dengizi. Kon dengizi. *Kimlarning orqasida qamchi izlari. Hali ham to'lqinlanar qon dengizlari.* (G'ayratiy). *Ko'm-ko'k paxta dengizida qizg'in ish borar edi.* (Oybek, «O. v. shabadalar»). *Per-ronda chayqalar odam dengizi. Ko'zlarda iltijo, mehr va yolqin.* (B. Boyqobilov, «Meni kuting, yulduzlar»).

**Zangori** (yoki ko'k) dengiz – keng osmon, samo, falak haqida. *Zangori dengizning tiniq qo'ynidan ko'm-ko'k oy yuzlanib, kulib boqadi.* (Uyg'un). *Ko'k dengizning bir chetida yangi tug'ilgan oy ochilib turardi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

4 ko'chma. Og'ush, quchoq; qurshov; asirlik. *Po'lat ota shunday ichki xayollar dengizida suzib, boyvachchaning ko'nglini eritadigan gap topolmay, kalovlanib turar edi.* (K. Yashin, «Hamza»). *Xatni yozgan chog'ingizda tamom bir o't ichida, g'azab dengizida suzganligingiz gavdalanib, ko'z o'ngimdan o'tdi[lar].* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

5 ko'chma. Miqdoran va hajman tuganmas, cheksiz narsa haqida. *Bilganing daryo bo'lsa, Bilmaganing – dengiz.* (Maqol). *Pavel Ivanovich ilm bobida bamisoli bir dengiz.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

**Dengiz piyozi** (*urginea maritima* (L.) Baker) – loladoshlar (piyozguldoshlar, [Liliaceae]) oilasiga mansub, bo'yi 100

(ba'zan 150 sm) ga yetadigan (gul o'qi) yirik piyozli (1–3 kg, vatanida 6–8 kg gacha boradi) ko'p yillik o't o'simlik. Vatani O'rtayer dengizi atrofidagi mamlakatlar. Zakavkazyeda maxsus o'stiriladi. Tibbiyotda piyozni ishlatiladi. Tarkibida yurak glikozidlari (ssillaren A, ssillirozid), ko'p miqdorda shilliq moddalar, saponinlar, organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari: yurak glikozidlari yig'indisi, piyoz damlamasi, kukuni yurak kasalliklarini davolashda hamda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

**Deratizatsiya** [*fr. deratisation* – kalamushlarni yo'q qilish (*rat* – kalamush)] – yuqumli kasalliklarning manbai va tarqatuvchisi hisoblangan, xalq xo'jaligiga iqtisodiy zarar keltiradigan kemiruvchilarni qirish, yo'q qilish.

**Derivatsiya I** [*lot. derivation* – shoxobcha] – 1. Suvni daryo o'zanidan boshqa yoqqa (qazilgan ariqqa, kanalga) burib yuborish. Derivatsiya ishlari. Derivatsiya inshootlari... *Sidqiy derivatsiya kanali quruvchilariga rahbarlik qilardi.* (Mirmuh-sin, «Qahramonnoma»).

2 *harb.* Otish qurollaridan otilgan o'q, snaryad va b.ning o'z yo'nalishidan yon tomonga og'ishi.

**Desat(ina)** *s.t.esk. ayn. desyatina* – butun olinadigan yerlar: *Farg'ona viloyatida qirq desatinadan ortiq... edi.* (A. Qahhor, «Sarob»). *Mening bo'talog'imda ham ikki desatcha shunday kuchsiz yerlar bor.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Desyatina** [*r. desyat* – o'n] – metrik sistema qabul etilgunga qadar Rossiya-da qo'llangan, 2400 kv. sarjingga yoki 1,09 gektarga teng yer maydoni o'lchovi. *Uning Boysun bekligi qishloqlarida 500 desyatidan ortiq serunum yeri bo'lgan.* (Sh. Xolmirzayev, «So'nmas o't»).

**Desikantlar** (*lot. desicco* – quritanman) – yetilishini tezlashtirish (5–7 sutka) va hosil yig'im-terimini osonlashtirish uchun o'simliklarni ildizi bilan quritishga, desikatsiyaga mo'ljallangan kimyoviy moddalar. Pestitsidlar guruhiga kiradi. Desikantlar o'simlik to'qimalarini suvsizlantiradi va hayot faoliyatini butunlay to'xtatadi.

**Desikatsiya** [*de...* va *lot. siccum* – quruq, quritish, suvini qochirish] – ekinlarni o'sib turgan joyida dorilab quritish. Desikatsiya hosil yetilishini tezlashtirib, yig'im-terim ishlarini barvaqt tugallash maqsadida o'tkaziladi. Desikatsiya qilinganda o'simlikning hayoti butunlay to'xtaydi, uning o'suv organlari, jumladan pishib yetilmagan mevalari ham tezda qurib qoladi. Desikatsiya hosilni mashinalarda terishni osonlashtiradi. Qandlavlagi maydonlarida hosil terimidan 10, g'o'zada 15–20, tokzorlarda 20 kun ilgari o'tkaziladi.

**Destrunktizatsiya** – murakkab tuzilma, birikmalarni tarkibiy yoxud oddiy bo'laklarga bo'lish. Bu usul murakkab boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va ixchamlashtirish, muayyan obyektlarni tadqiq qilish va h.k. da qo'llaniladi.

**Detrit** – keng ma'noga ega bo'lib, halok bo'lgan o'simlik va jonivorlarni parchalab ketgan, ammo hali noorganik moddalarga aylanib ulgurmaganda qoldiqlarga aytiladi. *Detrit yuqori sifatli ozuqadir.*

**Detsigramm** [*lot. decem* – o'n + gramm] – grammning o'ndan bir qismi, ulushi (0,1 g.).

**Detsilitr** [*lot. decem* – o'n + litr] – litrning o'ndan bir (0,1 l) qismiga teng suyuqlik o'lchov birligi.

**Detsimetr** [*lot. decem* – o'n + *yun. metron* – o'lchov] – metrning o'ndan biriga teng uzunlik o'lchov birligi. *Yil da-*

vomida poyapzalchilar 789,7 kvadrat detsimetr teri materiallarini iqtisod qilib qolishga erishadilar. (Gazetadan).

**Devastatsiya** (lot. *devastation* – qirish) – odam, hayvon va o‘simliklarda uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilarini (ularning hamma rivojlanish davrida) qirib tashlashga, yo‘qotishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui. Devastatsiya usullariga degelmintizatsiya, kimyoterapiya, bakteriofagiya, dezinfeksiya, dezinvaziya va b. kiradi. Buning uchun shu kasallik qo‘zg‘atuvchisiga nisbatan noqulay bo‘lgan (ichki va tashqi) muhit, shuningdek, mexanik, fizik, kimyoviy va biologik usullardan foydalaniladi. Devastatsiya to‘la (total) yoki qisman bo‘lishi mumkin.

**Devorgul, Ligustrum** (*Ligustrum vulgare*) – ligustrumning 50 ga yaqin turi bo‘lib, ko‘kalamzorlashtirish uchun ahamiyatlisi oddiy ligustrum yoki devorgul hisoblanadi. Bu o‘simlik tez ko‘payadigan sershox, balandligi 3–4 metrgacha bo‘lgan buta. Barglari lansetsimon, cho‘zinchoq, shoxlarida uzoq saqlanadi. Devorgul iyun oyida gullaydi, sentabr-oktabrda mevalari pishib yetiladi. Mevasining rangi to‘q ko‘k, qora, qizil shirali, 1–2 urug‘li. 1000 dona urug‘i 22 g og‘irlikka ega. Asosan qalamchalaridan tez ko‘payadi, jonli yashil devor sifatida ko‘plab ekiladi, shoxlari qirquvga va shakl berishga yaxshi moslashgan, turli shakllar hosil qilishi mumkin. Jonli devor hosil qiluvchi buta sifatida ko‘kalamzorlashtirishda ko‘plab ekiladi. Landshaft qurilishda istiqbolli o‘simlik hisoblanadi.

**Devpechak** [f. – o‘ralib, chirmashib, uzayib o‘sovchi o‘simlik] – o‘simliklarga, daraxtlarga chirmashib o‘sadigan bir va ko‘p yillik zararli yovvoyi o‘t; chirmoviq. *Bir qarich devpechak necha tanob reza-*

*vorni nobud qiladi.* (S. Ahmad, «Saylanma»).

**Devzira** [f. – katta ziraday] – mahalliy jaydari sholidan olinadigan yirik, suv ko‘taradigan guruch. *Ota... sopol tovoqdagi devzira guruchning kurmagini tera boshladi.* (H. G‘ulom, «Mash‘al»). *Devzira guruchning palovi famil choyni xush ko‘rmaydi, aksincha, to‘qson beshinchi ko‘kchoy unga eng munosib chanqovbostidir.* (S. Ahmad, «Saylanma»).

**Dezaktivatsiya** [dez. + lot. *activus* – ta‘sirchan, faol] – radioaktiv moddalar bilan zaharlangan obyektlar (suv, oziq-ovqat, kiyim-kechak, tuproq, bino va b.) ni tozalash, zarar qilmaydigan holga keltirish.

**Dezinfeksiya** [dezinfeksiya] – zararsizlantirish, xavfsiz holga keltirish: yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblarni maxsus yo‘llar bilan yo‘q qilish, tugatish. Yuqumsizlantirish – yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar va b.)ni yo‘q qilish. Keng ma‘nodagi dezinfeksiyaga odam bilan hayvonlar uchun zararli hasharotlarni yo‘q qilish – **dezinfeksiya** va zararli kemiruvchilarni yo‘q qilish – **deratizatsiya** ham kiradi. Profilaktik, kundalik, yakunlovchi dezinfeksiya bo‘ladi. Dezinfeksiya qilmoq. *Qandala tarqalgan xonalarni 0,2 protsentli trixlorofos emulsiyasi... bilan dezinfeksiya qilinsa, yaxshi natija beradi.* («Fan va turmush»).

**Dezinfeksiya vositalari** – tashqi muhitdagi yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarini (odam, hayvon va o‘simliklarda) yo‘qotish uchun ishlatiladigan fizik va kimyoviy vositalar. Qaynatish, yuqori bosim bilan bug‘lantirish, ultrabinafsha nurlar, quyosh nurlari va b. fizik dezinfeksiya vositalari hisoblanadi.

**Dezinseksiya** [dez. + lot. *insestum* – hasharot] – zararli hasharotlarni maxsus yo‘llar bilan yo‘qotish, qirish. Yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarni zararkunanda bo‘g‘imoyoqlilarni yo‘qotish uchun qo‘llaniladigan chora-tadbirlar majmui. Dezinseksiya odam va hayvonlarda turli infeksiyon kasalliklarni tashib yuradigan bo‘g‘imoyoqlilar (kana, pashsha, bit, chivin, iskabtopar), shuningdek, turarjoylardagi suvarak, qandala, burgalarni qirish uchun o‘tkaziladi. G‘alla omborini dezinseksiya qilish. *Dezinseksiya uchun DDT (dixlordifeniltrixlorethan) ishlatiladi.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Diafragma** [yun. *diaphragm* – to‘siq] – 1 *anat.* Sutemizuvchilarda va odamlarda ko‘krak qafasini qorin bo‘shlig‘idan ajratib turadigan, muskul-paydan iborat parda, to‘siq. *Quyoning gavda bo‘shlig‘ini ikkiga bo‘lib turgan muskulli parda diafragma deb ataladi.* («Zoolo-giya»).

2 *opt.* Fotoapparat va boshqa optik asboblarda yorug‘lik oqimining o‘tishini kamaytiruvchi, cheklovchi moslama.

**Diagnostika** [yun. *diagnostikos* – aniqlashga qodir] – 1. Tibbiyotning kasallik belgilarini aniqlash, diagnoz qo‘yish usullari va tamoyillarini o‘rganadigan bo‘limi.

2. Diagnoz qo‘yish, belgilash. *Qadimgi yunon tilida «diagnostika»ning ma‘nosi «bilish jarayoni» demakdir.* («Fan va turmush»).

**Differensial I** [lot. *differentia* – farq, ajratuvut] – 1 *mat.* Erkin o‘zgaruvchan miqdorning cheksiz kichik ixtiyoriy orttir-masi.

2 *tex.* Bir valdan turli tezlikda aylana-digan ikki valga yoki ikki valdan bir valga harakat uzatadigan, mashina va mexa-

nizmlarning turli qismlariga turlicha aylanish imkonini beradigan tishli, g‘ildirakli mexanizm.

**Dikkak** – ot ustiga tashlanadigan bezakli, popukli yopiq; jul. *Davir, dikkikka (dirdikka, dikkak) so‘zlari faqat dostonlar tilida uchraydi.* («O‘TA»).

**Dinozavr** [lot. *deinos* – dahshatli; qo‘rqinchli + *sauros* – kaltakesak] – *zool.* Mezozoy davrida yashagan, nasli qirilib ketgan, uzunligi 20 metr va undan ortiq bo‘lgan sudralib yuruvchi hayvon. *Dinozavrning deyarli barchasi tuxumdan ko‘paygan, ularning aksari issiq qonlilarga oid edi.* («Fan va turmush»).

**Disk, diska** [yun. *diskos* – yassi doira, aylana] – 1. Mashina, mexanizm va sh.k. ning doira (aylana) shaklidagi qismi. Paxta terish mashinasining diski. Borona diski. – *Diskaning rangi mashinaning rangida bo‘ladi, – dedi Abdurahmonov.* (I. Qalandarov, «Shoxidamas bargida»). *Malohat diskadan temir yo‘lga otilib tushdi.* («Sharq yuldizi»).

2 *sprt.* Yengil atletikada qo‘l bilan uzoqqa otiladigan yalpoq metall asbob.

3 *harb.* Pulemyot, avtomat, miltiq va sh.k. ning patron joylashadigan, aylana shakldagi o‘qdoni.

4. Umuman, aylana (to‘garak) shakldagi narsa.

**Diskalamoq** – *q.x.* Diskali boronalar bilan kesaklarni maydalab tekislamoq. *Eski bedapoyalar erta bahorda boronalanadi va diskalanadi.* (Gazetadan). *Ekish oldidan yerlar 8–10 santimetr chuqurlikda diskalanadi va borona qilinadi.* (Gazetadan).

**Diversifikatsiya** – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini kengaytirish, iste‘mol bozorining o‘zgaruvchan ehtiyoj va talablariga moslashish,

mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy manfaat olishga erishish, bankrotlik oldini olish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmui.

**Doimiy ekin** – bir dalada ma'lum vaqt davomida (3 yildan 5 yilgacha) ekiladigan qishloq xo'jaligi ekini, (masalan, beda). Doimiy ekinlarni surunkali va takroriy ekinlar bilan chalkashtirmaslik kerak.

**Doimiy sug'orish shoxobchalari** – ekin maydonlarini suv bilan yetarli ta'minlashga xizmat qiladigan ariqlar. Har bir xo'jalikning suvdan samarali foydalanish rejasiga asosan dalaga yetarli miqdorda suv boradigan qilib olinadi, bunda ariq dala chegaralaridan o'tkazilib, ekinlarni mashinalar vositasida parvarishlashga xalaqit qilmasligi nazarda tutiladi. Doimiy sug'orish shoxobchalari har yili kech kuzdan erta ko'klamgacha, ayrim hollarda yoz faslida ham tozalanadi.

**Dominanta** – organizmning koordinatsiyalangan murakkab faoliyatini ta'minlovchi, bir qator nerv markazlarini o'z ichiga olgan markaziy nerv sistemasi-dagi hukmron qo'zg'alish o'chog'i.

**Don I** [f. – urug', tuxum; dona] – 1. Boshqli va dukkakli o'simliklar mahsulining bir donasi. *Bug'doy doni. Makkajo'xori doni.*

2. Shunday mahsul majmui, yig'indisi; g'alla.

3. Parrandalarga beriladigan shunday ovqat, ozuqa; (sochiladigan) don-dun.

**Donador ozuqa** (chorvachilikda) – aralash yem, o't uni va b. dan qattiq g'o'lak ko'rinishida tayyorlanadigan ozuqalar aralashmasi. Yumaloq, silindrsimon, kub shaklida, o'lchamlari (ko'ndalang kesimi) 1 mm. dan 25 mm. gacha bo'ladi. Donador ozuqada oziq va mineral mod-

dalar, vitaminlar yaxshi saqlanadi, tashish va fermalarda mollarga berish qulay.

**Donador o'g'itlar** – mayda donali (kattaligi 1–4 mm granula) o'g'itlar. Ammiakli selitra, ammofos, mochevina (karbamid) va b. ko'pgina murakkab o'g'itlar donador holda ishlab chiqariladi. Sochiluvchan, nam tortmaydi, yaxshi agrotexnik xususiyatlarga ega.

**Don-dukkakli: don-dukkakli ekinlar** – doni uchun ekiladigan dukkakli o'simliklar.

**Don ekinlari, donli ekinlar** – don uchun ekiladigan eng muhim q.x. ekinlari guruhi; don ekinlari doni insonning asosiy oziq-ovqat mahsuloti; sanoatning ko'pgina tarmoqlari uchun xomashyo, shuningdek, chorva mollari uchun yem. Donining tarkibi va mahsuloti iste'mol qilinishi jihatdan g'alladoshlarga mansub g'alla ekinlari (bug'doy, javdar, arpa, sholi, suli, makkajo'xori, jo'xori va b.), shu jumladan yormabop ekinlar (tariq, jo'xori, marjumak va b.), dukkakdoshlarga mansub dukkakli don ekinlari (loviya, no'xat, soya, vika va b.)ga bo'linadi.

**Don kuyasi** (*Sitotroga cerealella oliv.*) – xavfli ombor zararkunandasi. Qurti (lichinkasi) makkajo'xori so'talari, arpa, sholi, bug'doy, javdar, shuningdek suli, oq jo'xori va dukkakli ekinlar donini shikastlaydi.

**Don ot zoti** – salt miniladigan va aravaga qo'shiladigan ot zoti. Don kazaklari tomonidan Don daryosi havzasidagi dasht mintaqasida, XV–XIX asrlarda mahalliy jan. Rossiya ot zotlarini Qorabog', fors, arab, sof naslli turkman ot zotlari bilan chatishtirib yaratilgan. Yozning jazirama issiq va qishning sovuqlariga bardoshli. Yag'rini balandligi 160–163 sm, tana qiya uzunligi 162–165 sm, ko'krak aylanasi 195–198 sm, pocha aylanasi 20–21

sm. Ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda mahalliy ot zotlarini yaxshilashda foydalaniladi.

**Don seyalkasi** – bug'doy, arpa, suli va b. donli ekinlar urug'ini qatorlab ekish uchun mo'ljallangan mashina.

**Don yig'ish kombayni**, *g'alla yig'ish kombayni* – boshqoqli don ekinlari (bug'doy, arpa, sholi)ni bir yo'la o'rish, g'alla massasini uyumdan ajratib olish va boshqoqlarini yanchib donini ajratish, tozalangan donni bunkerga uzatish, so'ngra transport vositalariga ortish, poxol va somonlarni uyum qilib dalada qoldirish yoki maydalab dalaga sochish va b. ishlarni bajaradigan q.x. mashinasi. Uni maxsus moslamalar bilan jihozlab, uzal va mexanizmlari ish rejimini o'zgartirib, undan don o'rish mashinalari bilan hosil qilingan uyumlar qatorini yig'ishda, silos bostirishda va donga mo'ljallangan makkajo'xori, kungaboqar va b. ekinlarni o'rishda foydalanish mumkin.

**Don o'rish mashinalari**, *g'alla o'rish mashinalari* – boshqoqli va dukkakli don ekinlarini o'rib, dalada qator uyum shaklida qoldiruvchi mashinalar. O'riladigan ekin turiga ko'ra g'allao'rgich, sholio'rgich va no'xat o'rgichlarga; traktorga ulanishiga ko'ra tirkama va o'rnatma xillarga bo'linadi.

**Dori changitish** – o'simlik zararkundandalari va kasalliklariga, shuningdek begona o'tlarga qarshi kukunsimon pestitsid (dust)larni sepish; maxsus changlatgichlar bilan sepiladi. Dori changitish vaqtida preparat zarrachalari shamol ta'sirida vaznga qarab har xil uzoqlikka tarqaladi.

**Dorivor galega** (*Galega officinalis* L.) – dukkakkoshlar (*Leguminosae*) oilasiga mansub, bo'yi 40–90 sm (ba'zan 1,5

m) ga yetadigan ko'p yillik o't. Kavkazdagi o'tloqlar, butalar orasi, o'rmonlar, daryo bo'ylari, yo'l yoqalarida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar (galegin, peganin), flavonoidlar, saponinlar bor. Xalq tabobatida qaynatmasi (yoki damlamasi) siydik haydovchi, terlatuvchi sifatida va qandli diabetda qo'llaniladi. Ba'zi chet mamlakatlarda galegin ko'proq diabetni davolashda ishlatiladi.

**Dorivor iloncho'p** (*lithospermum officinale* L.) – kampirchopondoshlar (govzabondoshlar [*Boraginaceae*]) oilasiga mansub, bo'yi 50–80 sm ga yetadigan ko'p yillik o't. Markaziy Osiyo, Kavkaz, va Sibir tog'lari etaklarida, tekisliklarda – ariq va daryo bo'ylarida, ba'zan begona o't sifatida bog'larda va ekinzorlarda o'sadi. Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida litospermin bo'yoq moddasi, oz miqdorda alkaloidlar, alantoin birikmasi, vitamin S, karotin va P moddalar, urug'ida ko'p miqdorda yog' bor. Yer ustki qismining qaynatmasi xalq orasida shamollash kasalliklari, bosh og'rig'i, qorin og'rig'i va buyrak-tosh kasalliklarini davolash uchun, bola tug'ilishini yengillatish va tezlatishda hamda siydik haydovchi, surgi va og'riqsizlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Yangi yig'ib ezilgan iloncho'pning yer ustki qismi kesilgan, urilgan, momataloq bo'lgan teriga bog'lanadi.

**Dorivor limon o't** (*melissa officinalis* L.) – labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–60 sm ga yetadigan limon hidli ko'p yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkazning tog'li nohiyalarida, tog' etaklaridan o'rta qismigacha bo'lgan yerlardagi daraxt va butalar soyasida, salqin va nam yerlarda, bog'larda o'sadi. Tibbiyotda yer ust-

ki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, vitamin S, kofe, oleonol, ursol kislotalar, flavonoidlar, oshlovchi moddalar bor. Yer ustki qismining (ba'zan bargining) damlamasi ovqat hazm bo'lishi buzilganda tartibga solish, kamqonlik, ba'zi asab va yurak kasalliklarini davolash uchun hamda tirishishga qarshi ta'sir etuvchi, og'riq qoldiruvchi, surgi, siydik va yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

**Dorivor oyboltirg'on** (*archangelica officinalis hoffm. Angelica azechangelica L.*) – soyabonguldoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 120–250 sm ga yetadigan ikki yillik o't o'simlik. Kavkaz va G'arbiy Sibirdagi botqoqliklarda, daryo va ko'l yoqalarida, butalar orasida, nam yerlarda hamda namli tog' qiyaliklarida o'sadi. Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, kumarin va furokumarinlar, kislotalar, smolalar, achchiq, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari ishtaha ochish, ichak faoliyatini yaxshilash uchun, qorin dam bo'lganda (meteorizm), me'da-ichak kasalliklarida hamda siydik haydovchi va terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ildizpoyasi bilan ildizi siydik haydovchi choylar – yig'malar tarkibiga kiradi.

**Dorivor plaun, cho'qmorsimon plaun** (*lycopodium clavatum L.*) – plaundoshlar (*Lycopodiaceae*) oilasiga mansub, sporalar yordamida ko'payadigan, bo'yi 1–3 m ga yetadigan o'rimalab o'suvchi doim yashil ko'p yillik o'simlik. Sibir va Uzoq Sharqda keng tarqalgan. Tibbiyotda sporasi ishlatiladi. U dorishunoslikda xabdorilar bir-biri bilan yopishib qolmasligi uchun ishlatiladi.

**Dorivor qashqarbeda, sariq qashqarbeda** (*melilotus officinalis descr.*) – dukkakdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga man-

sub, bo'yi 50–100 (200) sm ga yetadigan ikki yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismi, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Qozog'iston va G'arbiy Sibirning tekislik va tog'larining o'rta poyasigacha bo'lgan o'tloqlar, daryo, ariq va ko'l bo'ylarida, yo'l yoqalarida, soylarda, bog' hamda ekinzorlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida kumarin, dikumarin, efir moyi, vitamin C va E, karotin, xolin, shilliq va b. moddalar; urug'ida trigonellin alkaloidi bor. Yer ustki qismi ich yumshatuvchi choylar – yig'malar tarkibida va yer ustki qismidan tayyorlangan malham yiringli yara va chipqonlarni davolashda qo'llaniladi. Dikumarol qonni ivitmaydigan ta'sirga ega va shu maqsadda tromboflebit kasalligida ishlatiladi. Dorivor qashqarbeda bilan bir qatorda boshqa turlari: D. visokiy (*rosliy M. altissimus Thuill.*) – **bo'ychan qashqarbeda** va D. aromatniy (*dushistiy – M. suave-olens Ledeb.*) – **xushbo'y qashqarbedaning** yer ustki qismini tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan.

**Dorivor qoqi** (*taraxacum officinale webb.*) – murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15–60 sm o'sadigan ko'p yillik o't. Arktika va cho'l viloyatlaridan tashqari hamma yerdagi nam joylarda, yo'l yoqalari, bog'lar, o'tloqlar, dalalarda o'sadi. Tibbiyotda ildizi ishlatiladi. Tarkibida taraksatsin va boshqa achchiq glikozidlar, triterpin birkmalari, inulin, kauchuk, yog' va boshqa moddalar bor. Ildizining quyuc ekstrakti ishtaha ochish, ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun va o't haydovchi vosita sifatida jigar, o't qopi, o't yo'llari kasalligida qo'llaniladi. Farmatsevtika amaliyotida quyuc ekstraktidan xabdori tayyorlashda foydalaniladi. Qoqining qirqilgan

ildizi ishtaha ochuvchi, o't haydovchi va me'da kasalliklarida ishlatiladigan choylar, yig'malar tarkibiga kiradi.

**Dorivor qoratomir** (*cynoglossum officinale* L.) – kampirchopondoshlar (*Boraginaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 40–100 sm ga yetadigan ikki yillik o't o'simlik. MDHning Yevropa qismi, Kavkaz, qisman Tyanshan tog'lari va Sibirdagi taqirliklarda, dalalarda, temir yo'l va yo'l yoqalarida, shag'alli yerlarda o'sadi. Tibbiyotda ildizi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar, smola, bo'yoq, achchiq birikmali moddalar bor. Xalq tabobatida yo'talga, tirishishda, tomir tortib qolgan da tinchlantiruvchi va turli xil og'riqlarni qoldiruvchi vosita sifatida hamda kuygan yerlarni, chipqonni, ilon chaqqanni davolash uchun qo'llaniladi.

**Dorivor rozmarin** (*Rosmarinus officinalis* L.) – labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1,5–2 m ga yetadigan doim yashil buta. Vatani O'rtayer dengizi bo'yi mamlakatlari, Qrim, Kavkaz va ba'zan Markaziy Osiyoda manzarali va xushbo'y o'simlik sifatida o'stiriladi. Tibbiyotda yosh novdalari ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, triterpin birikmalar, alkaloidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Tibbiyotda og'iz bo'shlig'i yalig'langanida uni chayish va chipqonlarni davolash uchun qo'llaniladi. Bargidan bosh kasalligida vanna qilinadi.

**Dorivor safroo't** (*gratiola officinalis* L.) – sigirquyruqdoshlar (*Scrophulariaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 20–60 sm yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. MDH davlatlarining Yevropa qismi, Kavkaz, Markaziy Osiyo va G'arbiy Sibirdagi suv bo'ylarida, sholipoyalarda, nam yerlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlati-

ladi. Tarkibida glikozidlar, alkaloidlar, saponinlar, flavonoidlar, kukurbitatsin, Ye va U moddalar bor. Yer ustki qismi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida o'simlik damlamasi (yoki qaynatmasi) surgi, siydik va gijja haydovchi vosita sifatida, bavoasil, podagra, sarg'ayma, yaralarda va vena qon tomirlarini kengaytirish uchun hamda jigar, taloq, shuningdek teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

**Dorivor sangvizorba** (*dorivor kokat – sanguisorba officinalis* L.) – ranoguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1 m gacha yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa, Yevropa qismi, Kavkaz, Qrim, Sibir, Uzoq Sharq, Qirg'iziston va Qozog'iston janubidagi yerlarda hamda o'tloq, botqoqlik va daryolar atrofida o'sadi. Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, saponinlar, gallat hamda ellag kislotalar va boshqa moddalar bor. Dori preparatlari qaynatmasi, suyuq ekstrakti me'da va ichak kasalliklari (ichketar, enterokolit)ni davolash, ba'zan qon oqishi (qon tupurish, bachadondan qon ketishi)ni to'xtatish uchun qo'llaniladi.

**Dorivor saponariya, sovunak** (*saponaria officinalis* L.) – chinniguldoshlar (*Caryophyllaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–90 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismi, Kavkaz, ba'zan G'arbiy Sibirning o'rmonzorlarida, daryo vodiylarida, nam o'tloqlarda, chakalakzorlarda, qumli qirg'oqlarda va yerlarda o'sadi. Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda saponinlar (sanorubrin, gipsagenin) va boshqa moddalar bor. Ildiz poyasi bilan ildizi qaynatmasi, damlamasi bronxit



nafas yo'llari shamollashi kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi, ba'zan surgi, siydik haydovchi, xalq tabobatida yana o't haydovchi vosita sifatida, bod va teri kasalliklarini gush (ekzema), temiratki, chipqonlarni davolash uchun qo'llaniladi.

**Dorivor taflon** (*laurocerasus officinalis roem*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–3 m (ba'zan 8 m) ga yetadigan doim yashil buta yoki daraxt. Asosan Kavkazda, Ukraina, Qrimning janubiy nohiyalarida tarqalgan. Markaziy Osiyoda xiyobon, bog' va ko'chalarda manzarali daraxt sifatida o'stiriladi. Tibbiyotda bargi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, sianogen glikozidlar, oshlovchi moddalar bor. Bargidan tayyorlangan taflon suvi tinchlantiruvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida achchiq bodom suvi o'rnida ishlatiladi.

**Dorivor tirnoqgul** (*calendula officinalis L.*) – murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–50 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismining janubiy nohiyalarida, Krasnodar o'lkasida, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Poltava va Moskva viloyatlarida o'stiriladi. Tibbiyotda guli ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda karotin, efir moyi, shilliq, oshlovchi va achchiq moddalar, flavonoidlar, organik (olma, salitsil) kislotalar, birikmalar bor. Dori preparatlari damlamasi, tindirmasi (nastoykasi), «Kalendula» surtmasi va kaleflon turli yaralar va kuygan joylarni davolash, stomatit, angina, tomoq kasalliklarida og'iz va tomoqni chayish uchun, shuningdek gastrit, me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi hamda jigar kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

**Dorivor tizimgul** (*verbena officinalis L.*) – tizimguldoshlar (*Verbenaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–70 sm ga yeta-

digan ko'p yillik o't o'simlik. Kavkaz, Markaziy Osiyoda tog' etaklari, tog'lar, tekisliklar, ariq va yo'l yoqalarida, begona o't sifatida bog'larda, ekinzorlarda o'sadi. Xalq tabobatida yer ustki qismi qo'llaniladi. Tarkibida glikozidlar (vorbenalin va b.), saponinlar, alkaloidlar, efir moyi va b. moddalar bor. Qaynatmasi xalq tabobatida turli kasalliklar (bosh va qorin og'rig'i, isitma, taloq shishi, qo'tir, shishlar, lat yeb momataloq bo'lgan joylar va b.)ni davolashda hamda siydik haydovchi, antiseptik vosita sifatida ishlatiladi.

**Dorivor valeriana, kadio't** (*valeriana officinalis L.*) – valerianadoshlar (*Valerianaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 2 m gacha yetadigan ko'p yillik o't. Markaziy Osiyo va Sibirning shimoliy qismida nam yerlarda, o'rmon yoqalarida, ariq bo'ylarida, butalar orasida va o'tloqlarda o'sadi. Voronej, Moskva, Novosibirsk va Kirov viloyatlarida, Krasnodar o'lkasida, Moldaviya va Belorussiyada maxsus o'stiriladi. Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi hamda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, valerotriatlar, alkaloidlar, izovalerian, sirka, olma kislota va b. organik kislotalar, saponinlar, oshlovchi va b. moddalar bor. Dori preparatlari (damlamasi, tindirmasi (nastoykasi), suyuq, quyuq ekstraktlari va b.) nerv sistemasini tinchlantirish (uyqusizlikda, asabiylanishda) hamda yurak faoliyatini tartibga solish uchun qo'llaniladi. Ildizpoyasi ildizi bilan choylar-yig'malar tarkibida izovalerian kislotasining mentol bilan efiri – validol tinchlantiruvchi vosita sifatida stenokardiya (yurak sanchig'i) kasalligida qo'llaniladi.

**Dorivor o'simliklar** – tibbiyotda kasalliklarni davolash va ularning oldini olish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar. Ular tarkibida inson va hayvonlar orga-

nizmiga turlicha ta'sir ko'rsatadigan shifobaxsh biologik faol moddalar bo'ladi. Bemorlarga davolash maqsadida ulardan dori shakllari tayyorlanadi. Dorivor o'simliklar odamlar tomonidan kasalliklarni davolash uchun qadimdan ishlatib kelingan. Xalq tabobatida ishlatiladigan qator dorivor o'simliklar borki, ular hali ilmiy ravishda to'liq tadqiq etilgan emas. Aholi esa ota-bobolaridan qolib kelgan tajribalar asosida ulardan hamon foydalanib kelmoqda.

**Dorivor o'simlik xomashyolari** – dorishunoslik amaliyotida dori shakllari va dori preparatlar tayyorlash hamda dori moddalar olish uchun ishlatiladigan dorivor o'simliklarning a'zolari: guli, bargi, mevasi, urug'i, butun yer ustki qismi, po'stlog'i, ildizi, ildizpoyasi, piyozi, tuganagi va boshqalar o'simliklarning tibbiyot va dorishunoslik uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalarga boy qismi hisoblanadi.

**Dorivor o'simliklar xomashyolaridagi aralashmalar** – dorivor xomashyolarni tayyorlash, quritish vaqtida xodimlarning bilmasliklari yoki beparvoliklari natijasida ularga qo'shib ketgan, tushib qolgan chiqindilar, iflosliklar (boshqa o'simlik bo'laklari, cho'p-xaslar, qum-tuproqlar). Aralashmalar organik (boshqa o'simlik qismlari, shu o'simlikning dorivor hisoblanmagan bo'laklari, quritish davrida qoraygan, sarg'aygan qismlari, vas-xashaklar va b.) hamda mineral (qum, tosh, tuproq va b.) aralashmalarga tafovut qilinadi. Ularni tovarshunoslik usuli bilan tahlil qilib aniqlaydilar. Xomashyodagi vos aralashmalar, odatda, ularning sifat ko'rsatkichlarini belgilaydi.

**Dorivor o'simliklar xomashyosining ekstraktiv moddalari** – bu biror

erituvchi (suv, turli spirtlar, efir, xloroform va b.) lar yordamida o'simliklardan ajratib olingan moddalar yig'indisi bo'lib, dorivor o'simlik xomashyosining sifat darajasini belgilovchi ko'rsatkichlardan biridir. Bu, odatda, Davlat farmakopeyasida keltirilgan usullar yordamida aniqlanadi.

**Dorivor o'simlik xomashyosining kuli** – bu o'simliklarni kuydirgandan (yoqqandan) so'ng qolgan kulning miqdori bo'lib, foizlarda ifodalanadi va *umumiy kul* deyiladi. Umumiy kul va xlorid kislotaning 10 % li eritmasida eritsa, erimay qolgan qismi *xlorid kislotada erimaydigan kul* deyiladi. Normativ-texnik hujjatga binoan har bir dorivor o'simlik uchun ma'lum miqdorda kul ruxsat etiladi. Agar kul, ayniqsa, xlorid kislotada erimaydigan kul bo'lsa, bu xomashyoda mineral aralashmalar (qum, tuproq va b.) ortiqchaligini ko'rsatadi. Kul miqdori dorivor xomashyoning sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. U odatda Davlat farmakopeyasida keltirilgan usullar yordamida aniqlanadi.

**Dorivor o'simliklar xomashyosining namligi** – o'simlik quritilgandan so'ng to'qimalarda saqlanib qolgan namlik miqdori foiz bilan ifodalanadi. Normativ-texnik hujjatga binoan har bir dorivor o'simlik uchun ma'lum miqdorda namlik ruxsat etiladi. Agar mahsulot to'g'ri quritilmasa, uning sifati pasayadi (namlik ko'p qolsa mahsulot mog'orlaydi va buziladi, ortiqcha quritilsa, mahsulotni saqlash va boshqa yerga ko'chirish vaqtida maydalanib kukunga aylanadi). Namlik dorivor xomashyolarning sifat darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. Bu Davlat farmakopeyasida keltirilgan usullar yordamida aniqlanadi.

**Dorivor o'simlik xomashyosi sifati** – turli omillarga (mahsulotni o'z vaqtida to'g'ri tayyorlashga, quritishga va saqlashga, aralashmalarining ko'pligi me'yorida bo'lishiga, ularda biologik faol moddalarning yetarli miqdorda bo'lishiga) bog'liq bo'lib, normativ-texnik hujjatlar (Davlat farmakopeyasi, GOST, OST, VTU) talabini qoniqtirishi lozim va bu maxsus usullar bilan aniqlanadi. Farmasevtikada dori shakllari tayyorlash, dori preparatlar olish hamda tibbiyotda bemorlarni davolash uchun faqat yuqori sifatli dorivor xomashyolar qo'llaniladi.

**Dorivor o'simlik xomashyosi tozaligi** (*чистота лекарственного растительного сырья*) – xomashyoning sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri. Odatda, xomashyolarni yig'ish, quritish va saqlash davrida ularga o'simliklarning keraksiz yoki oshiqcha qismlari (gulga mevalari, barglari va aksincha) aralashgan hamda tuproq, qumlar bilan ifloslangan bo'lmasligi kerak. Bu ko'rsatkich tovarshunoslar tahlili orqali aniqlanadi va foiz bilan ifodalanadi.

**Dorivor o'simliklar zapaslari (resurslari)** – 1. Ma'lum maydondagi (hududdagi) dorivor o'simliklarning yoki o'simlik mahsulotlarining miqdori.

**2. Biologik zapas** (*Z. biologicheskiy*) – ma'lum hududdagi dorivor o'simliklar yoki ular mahsulotlarining umumiy miqdori.

**3. Eksploatatsion zapas** (*Z. ekspluatatsionniy*) – ma'lum hududdagi yig'ib olish mumkin bo'lgan dorivor o'simlik yoki shu o'simlik mahsulotlarining miqdori. Dorivor o'simliklar zapasini, odatda, botaniklar bilan provizorlar aniqlaydi. Ularning bergan ma'lumotlari asosida dorivor o'simliklarning yillik tayyorlash miqdori va qayerdan yig'ish qat'iy reja-

lashtiriladi. Dorivor o'simliklar zapasini aniqlash ularni rejali tayyorlashda va tabiiy sharoitda saqlab qolishda hamda dorixonalar va farmatsiya sanoatini doimiy ravishda uzluksiz xomashyo bilan ta'minlab turishda ham ahamiyati katta.

**Dorsal** – hayvon tanasining orqa tomoniga tegishli.

**Dorso-ventral** – orqa yuzadan qorin tomon ketgan yo'nalish.

**Dotatsiya** [*lot. dotation* – hadya, sovg'a < *dotare* – ta'minlamoq, jihozlamoq] – *ml.* Korxonada, muassasada, tashkilot va sh.k.ning ortiqcha xarajatlarini qoplash yoki boshqa ehtiyojlari uchun ularga davlat tomonidan yordam tariqasida qaytarib bermaslik sharti bilan berilgan pul, mablag'. Dotatsiya bermoq. *Butun dunyoda qishloqqa dotatsiya berish mavjuddir.* (Gazetadan). *Zavodimiz davlatdan dotatsiya olmay ishlamoqda.* (Gazetadan).

**Dov-daraxt** – *s.t.* Har qanday daraxt, har xil daraxtlar. *Dov-daraxtlar, qizg'ish bo'yoqqa chayib olingandek, yal-yal tovlana boshladi.* (E. Usmonov, «Yolqin»). *Dov-daraxtlar oppoq, xuddi g'ijim ro'mol yopib olgan kelinchakday tovlanadi.* (S. Siyoyev, «Erkaklar ertagi»).

**Dovul I** – vayronlik keltiruvchi kuchli bo'ron. Dovul turdi. Dovulda qolmoq. *Sal o'tmay osmon oqarib, atrof yorisha boshladi-yu, tungi qora dovulning qabih ishi butun dahshati bilan namoyon bo'ldi.* (O. Yoqubov, «Diyonat»). *Yolg'izlik qur-sin, yolg'izga qorong'u tunda shabada ham dovul bo'lib tuyilar ekan.* (I. Rahim, «Ixlos»).

**Dovuchcha** – *shv.* Hali pishmagan, g'o'r o'rik, g'o'ra. *Devorlar osha egilib yotgan o'rik shoxida danak qotirgan dovuchchalar marjondek tizilgan, oqarib qolgan gilolar ustida chumchuqlar par-*

vona bo'lardi. (O'. Hoshimov, «Qalbinga quloq sol»). *Kelinlar o'rikning shoxini egib, labini qimtiydi: Nordon dovuchcha!* (S. Akbariy, «Mehrigo»).

**Dovuchchalamoq** – g'ora meva tugmoq, hosil qilmoq. *Bahorning qizigan kunlari: o'riklar dovuchchalagan, olmalar tukkan, tutlar pishayozgan edi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Dog'iston tog' qo'yi zoti** – mayin junli, go'sht-jun beradigan qo'y zoti. Dog'istonda dag'al mahalliy qo'ylarni Vyurtemberg (Germaniya) mayin junli qo'chqorlari bilan chatishtirib yetishtirilgan (1933–1950) va olingan 2-bo'g'in duragaylarini tanlash va saralash, tog' yaylovlariga moslashish qobiliyatini o'rgangan holda yaratilgan. Tog'-yaylov iqlimiga yaxshi moslashgan. Pushtdorligi 130–135%. Qo'chqorlarining tirik vazni 80–85 (ayrimlari 130) kg gacha, sovliqlariniki 50–45 (ba'zida 95) kg. Qo'chqorlaridan 5,5–6,0 (10) kg gacha, sovliqlaridan 3,3–3,5 (6,5) kg gacha jun qirib olinadi. Toza jun chiqishi 55–58%. Juni oq, tolasining uz. 8–11 sm. Sof jun (tola) chiqimi 55–56%.

**Dog'li antaraknoz** – o'simlikning poya, barg va mevalarida zamburug' ta'sirida paydo bo'ladigan kasallik.

**Dog'li zangpoya, sassiqalaf** (*Conium maculatum L.*) – selderdoshlar, soya-bonguldoshlar [Apiaceae (*Umbelliferae*)] oilasiga mansub, bo'yi 1 m ga yetadigan ikki yillik zaharli o't. Kavkaz, Sibir va Markaziy Osiyoning namli yerlarida, tog' etagidagi soylarda, sug'oriladigan yerlarda begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi. Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar, efir moyi, vitamin S, karotin, flavonoidlar (kversetin va kempferol) bor. Xalq orasida ichki or-

ganlar spazmi vaqtida vujudga keladigan og'riq va tirishishni to'xtatuvchi, yo'tal qoldiruvchi vosita sifatida, migren, tutqanoq va bachadonning o'sma kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Ilmiy tibbiyotda o'simlik ekstrakti, malhami va konin alkaloidining bromgidrat tuzi og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatishga tavsiya etilgan.

**Drena** (*ing. drain* – quritmoq, zax qochirmoq) – tuproq-gruntidagi ortiqcha suvlarni yig'ish va chiqarib tashlash hamda tuproq aeratsiyasini yaxshilash uchun quriladigan yopiq kanal (quvur). Drena kollektor-drenaj tarmog'ining suv sathini tartibga solish qismidagi birlamchi bo'g'indir. Doimiy yoki muvaqqat bo'ladi. Doimiy drenaj muntazam drenaj uchun, muvaqqati esa yer sho'rini yuvish davrida quriladi.

**Drenaj, qishloq xo'jaligi yerlarini drenajlash** – q.x. melioratsiyasining muhandislik usuli; ekinlarning normal rivojlanishiga xalaqit beradigan ortiqcha tuproq-grunt suvlarini va suvda eruvchan zaharli tuzlarni tuproq qatlamlaridan chiqarib tashlash uchun quriladigan gidro-texnika inshootlari tizimi. Grunt suvlari to'planib qoladigan yoki uning oqib ketishi qiyin bo'lgan joylarda sho'rlanish va botqoqlanishga uchragan tuproqlarda drenaj barpo qilinadi. 1. Zaxob, sho'rxok yerlarni zovurlar qazib yoki quvurlar ko'mib quritish usuli hamda shunday zovur va quvurlarning o'zi. *Ayrim joylardagi drenaj quvurlari suvning bosimidan yorilib ketdi.* (Gazetadan). *Ammo o'n yildan oshdiki, bu drenajlar ishlaymaydi.* (Gazetadan).

2 *tib.* Yara yoki tana bo'shlig'idan suyuqlik (yiring va zardob)ni maxsus naycha bilan so'rish yoki doka piltaga shimdirish orqali tortib olish.

**3 tib.** Shu maqsad uchun ishlatiladigan maxsus rezina yoki shisha naycha.

**Drenajlash** – drenaj yo‘li bilan yerning zaxini qochirish, quritish. *Bo‘lmalar havosining nam bo‘lmasligi uchun bino ni quruq joyga solish, fundamentini nam o‘tmaydigan qilib ishlash, yerni drenajlash kerak.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Drenaj mashinalari** – q.x. da ekin maydonlarining holatini yaxshilash maqsadida sizot suvlari sathini pasaytirish, ularni to‘plash, ya‘ni ochiq zovurlar qazish va drenlar yotqizish (drenaj qurish) uchun foydalaniladigan mashinalar.

**Drenaj oqimi** – muayyan vaqt davomida melioratsiyalanadigan maydondan kollektor-drenaj tarmog‘i (yoki uning qismlari) orqali chiqarib yuboriladigan suv hajmi (yoki sarfi); l/s, m<sup>3</sup>/s, m<sup>3</sup>/ga bilan (oy, yil va b. uchun) ifodalanadi.

**Drenaj oqimi moduli** – zaxi qochiriladigan maydon birligi (gektar)ga to‘g‘ri keladigan sizot (grunt) suvi oqimining miqdoriy tavsifi. Drenaj oqimi moduli (q<sub>d</sub>) 1 ga uchun l/s da o‘lchanadi. Drenaj oqimi moduli optimal meliorativ rejim saqlangan sharoitlarda drena va kollektorlardagi suv sarfini aniqlashda foydalaniladi.

**Dub** [r. «dub» – qurilishbop daraxt, yog‘och] – ayn. eman. *Dubning o‘shisi uchun ko‘p yorug‘lik va issiqlik kerak bo‘ladi.* («Geografiya»). *Men – keksa dubman: uncha-muncha shamol meni egolmaydi.* («Sharq yulduzi»). *Qayerdandir dub bochkaning talx hidi keladi.* (A. Muxtor, «Asarlar»).

**Dudlama** – dudlab ishlov berilgan, qoqlangan. *Dudlama baliq gastronomlarda ko‘p.* (K. Mahmudov, «O‘zbek tansiq taomlari»).

**Dudlash** – go‘sht va baliq mahsulotlarini tutun dudi bilan qayta ishlash. Mahsu-

lotlarning saqlashga chidamini oshirish va unga o‘ziga xos ta‘m, rang va xushbo‘ylik berish maqsadlarida qo‘llaniladi. Dudlashdan oldin mahsulot yengilroq namakobga botirib olinadi. Dudlashda qisman suvsizlanish (qurish), shuningdek, dudning oksidlanishga qarshilik xususiyati va bakteritsidlik ta‘siri vujudga keladi.

**Dukkak** – loviya, mosh kabi o‘simliklarning donni o‘rab turuvchi ikki pallali po‘chog‘i; qo‘zoq; dukkakkoshlar mevasi; bitta urug‘chibargdan hosil bo‘ladi. Ko‘pincha yuqorisidan pastgacha ikkita chok bilan ochiladi (no‘xat, loviya va b.), ba‘zi turlarida ochilmaydi (qashqarbeda, sebarga, yeryong‘oq). *Yeryong‘oqning dukkagi tuproq ichida yetiladi. Loviya dukkak chiqaribdi. Mosh dukkaklari. Olti qizning ichida sen polvoni, Dukkakka sig‘maydi moshining doni.* («Qo‘shiqlar»).

**Dukkakkoshlar** – bot. Ikki yillik va bir yillik ikki pallali o‘simliklar oilasi.

**Dukkaklamoq** – dukkak chiqarmoq, dukkak hosil qilmoq. *Mosh dukkaklabdi.*

**Dukkakli** – doni dukkaklarda pishib yetiladigan. *Boshoqli va dukkakli ekinlarning ba‘zi bir turlarida oqsildan tashqari anchagina moy ham bo‘ladi.* (Gazetadan).

**Dukkakli don ekinlari** – don (urug‘) olish uchun ekiladigan o‘simliklar; dukkakkoshlarning (*Fabaceae*) kapalakgullilar kenja oilasiga (*Papilionaceae*) mansub; shuningdek, ulardan tuproq unumdorligini oshirish uchun almashlab ekishda foydalaniladi.

**Dukur II** – shv. suv taqsim qilinadigan joy.

**Duldul** [fa. – jayra] – 1. Diniy rivo-yatlarga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar mingan va keyincha hazrat Aliga tortiq

etgan uchar otning ismi yoki laqabi. *Toy o'ssin, naq Duldulday bo'ladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**2 ko'chma.** Kelishgan, chiroyli, uchqur ot. *Soliboy... oriq-tiriq otlarni arzon bahoda sotib olib, bir oz boqib, duldul bahosida pullar edi.* (Y. Shukurov)

**Dum** [f.quyruq, dum] – 1. Hayvon tanasining chiqaruv teshigi tepasidan boshlanadigan va ingichkalanib boruvchi eng ortki, oxirgi qismi; quyruq. *Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga.* (Maqol).

**2.** Ba'zi jonivorlar tanasining ket tomonidagi uzun patlar yoki ingichkalashgan qismi. *Xo'rozning dumi.*

**3.** Meva, barg va sh.k.ning bandi.

**4.** Sabzavot, o'simliklarning yer yuzida o'sib turgan bargi. *Sabzining dumini kesmoq.*

**5.** Uchish apparatlarining ingichkalashgan ket tomoni. *Samolyotning dumida yelkamni qisgancha biqinib o'tiraverdim.* (Gazetadan).

**6.** Umuman, biror narsaning keti, oxiri. *Yulduzning dumi.*

**7 ko'chma.** Doim birovga ergashib yoki unga xushomad qilib, birga ortidan yuradigan odam; shotir.

**8 ko'chma s.t.** Qarz, topshirilmagan imtihon.

**Dumak** – shv. Jo'xoripoya ildizi. *Sohira ayvonga dumak, ya'ni jo'xoripoya ildizini tashir edi.* (Q. Mirzo, «Olam go'zal»).

**Dumba** [f. – ort, ket; dumba, quyruq] – 1. Qo'ylarning ket tomonida son bilan bel o'rtasida o'sgan, asosan dumaloq shaklda ko'rinuvchi yog' qismi. *Semiz qo'yning dumbasi katta, Semiz odamning – suhbat.* (Maqol). *Yolg'iz qo'yni haydash nuqul*

*azob. Bo'ynidan sudrayman – yo'q, dumbasiga arqon solib tortaman – yo'q.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Ra'no tomorqada dumbasi serkillagan, jingalak yungli qo'zichoqlarga maysa yulib berayotgan edi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**2.** Qo'y tanasining shunday qismidan chiqqan yog'. *Dumba to'g'ramoq. Dumba eritmoq.*

**3.** Odam tanasining son bilan bel o'rtasidagi yumshoq orqa qismi. *Kimdir skameykaga gazeta solib o'tirgan ekan, dumbasining izi tushib qopti.* (X. To'xtaboyev, «Shirin qovunlar mamlakati»).

**Dumbador, dumbali qo'ylar** [f. – dumbali, dumbasi katta] – katta dumbali. Dumbador qo'y. Go'shti va yog'i uchun boqiladigan dag'al va yarim dag'al junli dumbali qo'y zotlari. Cho'l va chala cho'l mintaqalarida boqishga moslashgan, o't-xashak tanlamaydi, uzoq masofalarga haydashga chidamli. *Cho'pon loursillagan, dumbador qo'ylarini soy tarafga haydadi.* (Gazetadan).

**Dumbul** [f. – to'liq pishmagan don, dukkak] – 1. Donli ekinlar, mevalarining ta'm kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati. *Hali dumbul shaf-tolilarning shoxlari yerda.* (Oybek, «O.v.shabadalar»). *Chol quroq dasturxon yozib, sopol taqsimchada dumbul o'rikdan qo'ydi.* (T. Malik, «Qadr»).

**2.** Hali qotmagan, sutmi-qatiq bo'lib qolgan (don haqida). Dumbul jo'xori. *Bir tanobcha yerga jo'xori eksa, dumbul bo'lmasdan tamom bo'lar edi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Nusratbek yo'l chetidagi mayda bargli gullarning yaprog'ini titki-lab o'tayotganda, kungaboqar dumbuli-ning hidi anqidi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»). *Boshog'lar chayqalar,*

*dumbulroq lekin, Dumbul boshoglarda hali sut donlar...* (Mirtemir, «Asarlar»).

3 *ko'chma*. Aqlsizroq, tentaknamo, devonasifat. Dumbul odam. *Xo'p, bu odamning bugun qo'li uzun. Ertaga surobi to'g'ri bo'lgach, bu dumbul erkatoynima qiladi?* («Yoshlik»). *Yaramas, bizni haqorat qildi! «Dumbulsan!» dedi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

4. Hayot tajribasi bo'lmagan; xom, g'o'r. – *O'qishga hafsala qolmadimi? – Hafsala-ku bor-a, – dedi Xoldor nimalaridir eslab, – ammo o'ylab qarasam, dumbul ekanman, pishgunimcha shoshirmang.* (I. Rahim, «Zangori kema kapitani»). *Bu zamonning dumbul qizlari nari-dan beri bir ish qilib qo'yishadi-da, keyin oh urib, chapak chalib qolishadi.* (Mirmuhsin, «Umid»). *Afsuski, ayrim nashriyot va redaksiyalarda g'oyat mas'uliyatli ishlar chalamulla, dumbul muharrirlar qo'liga topshirib qo'yilgan.* («Yoshlik»).

5 *ko'chma*. Mazmunan pishiq-puxta emas; xom; qiyomiga yetmagan. *Dumbul asardan fazilat qidiradigan estetik no'noq tanqidchilar faoliyatiga chek qo'yish lozim.* (Gazetadan). *Shoirning «Sevgi sirlari» to'plamida qiyomiga yetmagan, dumbul she'rlar uchrab turadi.* (Gazetadan).

**Dumbullik** – 1. Don ekinlari urug'ining yetilishi boshlanadigan faza, bosqich, davr.

2. Pishmaganlik, xomlik, g'o'rlik (mevalar haqida).

3 *ko'chma*. Hayot tajribasiga ega emaslik, pishmaganlik, g'o'rlik. *Uning ichida gap yotmaydigan, shaldir-shuldurligi, dumbulligi Onaxonga yoqdi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Dumbul pishish davri** – o'simlik sarg'ayadi, faqat poyaning yuqori qis-

mi yashil rangda bo'ladi. Doni yumshoq sarg'ayadi, namligi 22–30% bo'ladi. Bu davr 10–12 kun davom etadi. Don to'la pishganda to'kiladigan navlar dumbul pishishda yig'iladi. Oldin o'riladi, so'ng don to'la pishganda yig'ishtiriladi va yanchiladi. Bu davrda don ona o'simligidan ajraladi.

**Dumli qo'ylar** – teri olish va juni uchun boqiladigan, dumba o'rni 12–24 umurtqadan iborat dumi bo'lgan qo'ylar. Zotiga qarab dumi qisqa, oriq (qotma); uzun, oriq; qisqa, yog'li; uzun, yog'li bo'ladi. Romanov qo'y zotining dum umurtqasi 12 tagacha, yog'siz, echki dumiga o'xshash, reshetilov, sigay va barcha merinos zotlarining dum umurtqasi 24 tagacha, uzun, qotma, sirti jun bilan qoplangan. Qorako'l qo'ylarining dumi yog'li, uzun, uchi deyarli yog'siz. Keyingi yillarda dumbali qo'ylar junini yaxshilash maqsadida merinos qo'ylari bilan chatishtirib, qotma va yog'siz dumli duragay qo'ylar olinmoqda. Bu qo'ylar mahalliy sharoitga chidamli, junining sifati yaxshi.

**Duragay** [f. – ikki qonli, aralash qonli; gibril] – irsiy belgilari jihatidan o'zaro farqlanuvchi ikki yoki undan ortiq organizmni chatishtirish, duragaylash yo'li bilan olingan nasl; chatishma, gibril (hayvon va o'simliklar haqida). Duragay qo'y. Duragay olma. Duragay urug'. *Sherbek duragay qo'zining orqa tomonidan sezdirmasdan bordi-da, mahkam ushladi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Olimlarni rediska va karam yoki karam va sholg'om duragaylari qiziqtirib qolgani bejiz emas.* («Fan va turmush»).

**Duragaylamoq** – irsiy belgilari, zoti, turi boshqa-boshqa ikki xil hayvon yoki

ikki xil o'simlikni bir-biriga chatishtirmoq, shu yo'l bilan ulardan yangi bir nav, nasl yetishtirmoq. ...duragaylash usuli ko'p mehnat va vaqt talab qiladi. (N. Nazirov, «Atomseleksioner»).

**Duragay hayvon** – turli turdagi mollar juftlashtiriladi. Jumladan, «zebu» bilan «qoramol» yoki «bizon» bilan «qoramol», «qo'tos» bilan «qoramol» va h.k. Turlararo duragaylashda xachir, ya'ni ot va eshak duragayi, bir o'rkachli tuya bilan ikki o'rkachli tuya duragaylashga misol bo'ladi. Bunday duragaylar yirikligi va ota-onasiga qaraganda ikki marta ko'p yuk tortishi bilan farq qiladi.

**Duragaylash** – irsiy belgi va xususiyatlari bilan farqlanuvchi o'simliklar va hayvonlarni o'zaro chatishtirish. Natijada ota-ona organizmlarining belgi va xususiyatlariga ega bo'lgan duragay organizm paydo bo'ladi.

**Duragaylar ko'chatzori** – eng yaxshi o'simliklarni tanlab olish maqsadida duragaylarni o'stirish, ko'paytirish va o'rganish uchun barpo etiladigan dala (maydon), boshlang'ich urug'lik material ekiladigan ko'chatzor.

**Duragay urug'** – irsiyati har xil navlar, turlar va turkumlarni chatishtirishdan olingan urug'. Duragay urug' ota-onalari genlarining qayta juftlanishi va transgressiya (qo'shilib ta'sir etishi) asosida yangi belgi va xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Genlar nazoratidagi belgi va xususiyatlar duragaylarning har bir bo'g'inida yangidan rivojlanadi.

**Durda** – 1) sariyog' eritilganda hosil bo'ladigan quyqa; 2) sariyog'ga qatiq qo'shib tayyorlanadigan tamaddi; sariyog'ni past olovda qizdirib, unga qatiq va tuz solib qaynatiladi. Tayyor bo'lgach,

durdaning ustki qismi tilla rangda qumoq-qumoq bo'lib qoladi, tagida esa jigarrang quyqa hosil bo'ladi. Durda nordonroq, yoqimli va mazali bo'lib, nonga qo'shib iste'mol qilinadi, ba'zida taomlarga ham qo'shiladi.

**Durkun** – 1. Bo'liq, to'la, gavdali. *Qirmizxon avvalgidan ham ochilib ketgan... qo'sha-qo'sha uzukli qo'llari durkun ko'ksida qovushtirilgan.* (N. Aminov, «Qahqaha»). *Bozorqul... Onabibini ko'z oldiga keltirdi... u anordek tiqmachog, durkungina otash.* (A. Muxtor, «Asarlar»). *Hozirgi qo'zilar durkun, terisi talabga javob beradi.* (Gazetadan).

2. O'siq, o'sib yetilgan. *G'o'zalar ko'zni quvontiradigan darajada durkun edi.* (E. Usmonov, «Yolqin»). *Durkun o'tlarni xush ko'ruvchi tog' echkilari yuqorilab ketishdi.* («Yoshlik»).

**Durra II** – bot. G'alladoshlar [g'allagullilar] oilasiga mansub bir yillik o'simlik; donli jo'xorining bir turi.

**Dusaq** – shv. Ikki yoshli qo'y.

**Dusen** – balandligi 3–6 m bo'lgan butasimon daraxt. Novda va shoxlari qoramtir, oq yasmiqchalar bilan qoplangan. 3-4-yili hosilga kiradi; mevasi mayda, qizil. Asosan olma uchun o'rtacha o'suvchi payvandtag sifatida qo'llaniladi.

**Dust** [ingl. dust – chang] – dezinfeksiya qilish, zararkunanda hasharotlar (qurt, qandala, burga, pashsha, kuya va b.) ni qirish, o'ldirish maqsadida ishlatiladigan kimyoviy kukun, poroshok. *U gugurt qutichasiga ko'sak qurtini solib, ustidan dust seydi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoq urmaydi»).

**Duvarak** [f. – ikkinchi marta, ikkilamchi] – 1. Mevali daraxtning bir yilda ikkinchi bor bergan mevasi. Duvarak



olma. Olmaning duvaragi. *Bir yillik novdalarda yetilayotgan uzum boshlari bilan bir qatorcha bachki novdalarda duvarak paydo bo'lishi mumkin.* («Fan va turmush»). *Ba'zi shoxlarda bultur chala terilgan mevalar – duvarak olxo'rini eslatuvchi zaytunlar qurishib yotardi.* (H. G'ulom, «Zamin yulduzlari»).

**2 ko'chma.** Bo'yi past, pachoq (odam haqida). Duvarak odamlar. *Yo'ldosh pochta chining duvarak qizicha ham bo'lolmaysan, sendan yosh, lekin o'n hissa ko'p ishlaydi.* («Yoshlik»).

**3 ko'chma.** Xom, g'o'r; tajribasiz.

**4.** Umuman, har narsaning kichkinasi, yetilmagani.

**Duxobagul** – bot. Guli qizg'ish va yuzi duxobaga o'xshash qalin va mayin gul navi. *Duxobagullarga dudoq tekki-zib, Har sahar shabada o'ynab yotadi.* (Uyg'un).

**Dyuker** [*nem. duker < lot. ducere* – o'tkazmoq] – ariq, kanal suvlarini ular yo'lidagi to'siqlar (boshqa kanal, daryo, dara, yo'l va sh.k.) bilan kesishgan joydan o'tkazish uchun yotqizilgan quvur shaklidagi, muayyan bosimli suvo'tkazgich qurilma, inshoot.

**Do'l I** – yumaloq va b. turli shakl, turli kattalikdagi muz parchalaridan iborat atmosfera yog'ini. *Ayirilgan yo'lda qolar, Bo'lingan – do'lda.* (Maqol). *Do'l shunday shiddat bilan yog'ar ediki, yerdan chang ko'tarilib, havoni g'ubor bosdi, kunduz qorong'ilashdi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Do'lana** (*crataegus L.*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 5 m gacha yetadigan buta yoki daraxt. Qozog'istonning sharqi va Sibir o'rmonlarida, o'rmon-cho'l yerlarda,

aralash o'rmonlarda, Markaziy Osiyoning tog'li viloyatlarida, butazorlar va o'tloqlarda o'sadi. Tibbiyotda 6 turi: B. altayskiy (*S. altaica Bge.*) – Oltoy do'lanasi (*Sariq do'lana*); B. daurskiy (*S. daurica Koechne ex Schneid.*) – Dauriya do'lanasi; B. krovavokrasiy (*S. sanguinea Pall.*) – to'q qizil do'lana; B. kolyuchiy (*S. oxyacantha L.*) – tikanli do'lana; B. odnopestichniy (*S. monogyna Jacq.*) – yolg'iz urug'li do'lana va B. pyatipestichniy (*S. pentagyna W. et K.*) – besh urug'li do'lananing mevasi va guli ishlatiladi. Bulardan faqat tikanli do'lana xiyobonlarda, bog'larda va ko'chalarda o'stiriladi. Do'lana turlarining mevasi tarkibida triterpen saponinlar, kislotalar, flavonoidlar (giperozid, kversitin), xolin, asetilxolin, oshlovchi moddalar, gulida – flavonoidlar, efir moyi, triterpen saponinlar, kislotalar, xolin, asetilxolin birikmalar bor. Dori preparatlari (gulining tindirmasi (nastoykasi) va mevasining suyuq ekstrakti yurak kasalliklarini (yurak ishining funksional buzilishi, og'ir kasalliklardan so'ng yurakning kuchsizlanishi, paroksizmal taxikardiya, titrovchi aritmiya), gipertoniyani davolashda hamda ayollarda klimaks davri boshlanishida qo'llaniladi. Mevasining suyuq ekstrakti yurak kasalliklarida ishlatiladigan kardiovalen preparati tarkibiga kiradi.

**Do'lop III** – shv. Har xil navli donlar aralashmasi.

**Do'ng – 1 ot.** Yerning yoki biror narsaning birmuncha baland ko'tarilgan joyi; tepalik. *O'g'ri – tun oshguncha, Bo'ri – do'ng oshguncha.* (Maqol). *U do'ngga, bu do'ngga chiqib qaradi, ukasining qaysi tarafga qarab ketganini bilmadi.* («Qunduz bilan Yulduz»).

2 *sft.* Boʻrtib chiqqan, koʻtarilgan, doʻmpaygan, qappaygan. Doʻng yer. Doʻng joy. Doʻng peshona. Doʻng qishloq. *Qoʻchqor boʻlar qoʻzining peshonasi doʻng boʻlar.* (Maqol).

**Doʻnon** (*moʻgʻ*) – 1. Uch yoshga toʻlib, toʻrt yoshga oʻtgan ot yoki tuya. Doʻnonlik davri, asosan, hayvonning tishiga va b. belgilariga qarab aniqlanadi. Masalan, doʻnon otning hamma sut tishlari oʻrniga doimiy tishlar chiqadi. Yoli, dumi, tuyoqlari oʻsgan boʻlib, koʻrinishi katta yoshdagi otlarga oʻxshaydi, jinsiy voyaga yetadi, naslchilik ishlarida foydalanila boshlaydi. *Kunlar oʻtib, qulun – toy, toy – qunon, qunon esa doʻnon boʻlib yetishadi.* (N. Fozilov, «Qush qanoti bilan»).

2. Ikki yoshga toʻlib, uch yoshga qadam qoʻygan qoʻy yoki echki. *Doʻnonning toyligi boʻlmas, Nokasning – boyligi.* (Maqol).

3 *koʻchma.* Boʻyi (voyaga) yetgan. *Qigirlashib kulishadi, Satta birday doʻnon gizlar.* («Gulnorpari»).

**Doʻgʻa** – rus ot-arava abzallari qatoriga kiradi. Ot bajaradigan ishning ogʻiriyengilligiga qarab doʻgʻalar 1,5–5 kg gacha boʻlishi mumkin. Doʻgʻa sinmaydigan, egiluvchan yogʻochdan tayyorlanadi. U notekis yerlarda shoti orqali keladigan taʼsirni yumshatib, amortizatorlik rolini ham oʻynaydi.

**Doʻgʻov** [f. – qatiqli, chalopli yovgʻon shoʻrva] – *shv.* Sut-qatiq zardobi.

## E

**Edilboy qoʻy zoti** – goʻsht-yogʻ yoʻnalishidagi dagʻal jun beradigan yirik dumbali qoʻy zoti. XIX asrda Qozogʻistonda xalq seleksionerlari tomonidan mahalliy dumbali qoʻylarni tanlash va koʻpaytirish yoʻli bilan chiqarilgan. Yirik gavda tuzilishi, tez oʻsuvchanlik, erta yetiluvchanlik, yuqori mahsuldorlik va sifatli juni bilan tavsiflanadi. Mahsuldorligi jihatidan hitori qoʻylariga yaqin. Tusi qoramtir, qoʻngʻir, oq, sargʻish, qoʻchqorlari ham, sovliqlari ham toʻqol. Qoʻchqorlarining tirik vazni 100–105 (baʼzan 150) kg, sovliqlariniki 65–70 (115) kg, 4–5 oylik qoʻzilariniki 40–42 kg. Qoʻchqorlaridan 3–3,5 kg, sovliqlaridan 2,5 kg jun olinadi (kokillarining uz. 15 sm). Sovliqlari nisbatan sersut. Edilboy qoʻy zoti, asosan, Qozogʻistonda sof holda urchitib, koʻpaytiriladi.

**Efemer I** [*yun. yerhemeros* – bir kunli(k)] – *q.* efemerlar.

**Efemer oʻtlar** – *ayn.* Efemerlar.

**Efemerlar** – bahorda unib chiqib, tez (bir necha hafta davomida) urugʻlaydigan va yozda qovjirab, qurib qoladigan oʻtlarning umumiy nomi. *Bahorda koʻkarib, yozda qurib qoladigan oʻtlardan efemerlar shoʻrxok yerda koʻp uchraydi.* («Oʻzbekiston geografiyasi»).

**Effektiv** [*lot. effectivus* – natija beradigan, foydali] – yaxshi amaliy natija, effekt beradigan; unumli, foydali. *Effektiv choralar. Effektiv taʼsir. Mablagʻdan effektiv foydalanmoq.*

**Efir moylari** (*olea aetherea*) – suv bugʻi yordamida haydab olinadigan uchuvchan hidli moddalar aralashmasi; efir moylari oʻsimliklar dunyosida keng tarqalgan. Ular koʻpincha rangsiz, baʼzan, turli rangda (och sariq, yashil, toʻq koʻk, qizil, qoʻngʻir va b.) boʻladi, oʻziga xos hidli va oʻtkir mazali, suvda erimaydigan, hamma organik erituvchilarda yaxshi

eriydigan, uchuvchan tiniq suyuqlik. Sovutilsa kristall qismi (stearopten) ajraladi, qolgan suyuq qismi eleoptendir. Efir moylari va ularni saqlovchi o'simliklardan tayyorlangan dori shakllari tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda tinchlantiruvchi, bakteritsid, og'riq qoldiruvchi, ishtaha ochuvchi, yel, o't va siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Farmatsevtika amaliyotida boshqa dorilarning mazasi bilan hidini yaxshilash uchun hamda xushbo'y suvlar tayyorlashda ishlatiladi.

**Efir moyli atirgullar** (*roz efirnomaslichne*), – Roza belaya (*Rosa alba L.*) – oq atirgul; damasskaya [kazanlikskaya roza (*R. damascene Mill.*)] – qizil atirgul (Qirqog'ayni, Damashq atirguli); R.stolepestnaya (*R.centifolia L.*) – pushti atirgul; R. Fransuzskaya R. (*gallica L.*) – fransuz atirguli ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 60–125 sm ga yetadigan butalar. Atirgul turlari yovvoyi holda uchramaydi. Markaziy Osiyoda, Qrimda, Krasnodar o'lkasi, Moldaviya, Gruzziya, Ozarbayjon va Tojikistonda efir moyi olish uchun qizil atirgul bilan fransuz atirgullarining turli duragaylari o'stiriladi. Tibbiyotda gul bargidan olingan efir moyi ishlatiladi. Gul bargi tarkibida efir moyi va boshqa moddalar bor. Efir moyi asosan geraniol, sitronellol, nerol va boshqa sterpenoidlardan tarkib topgan. Efir moyi va uning xushbo'y suvi farmatsevtika amaliyotida dorilarning hidi va ta'mini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Efir moyidan tayyorlangan dori preparatlari spazmga qarshi ta'sirga ega bo'lib, buyrak, o't pufagi, qovuq hamda o't va siydik yo'llari tosh kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

**Efir moyli ekinlar** – efir moylari olish uchun ekiladigan o'simliklar guruhi. Ularning ko'pchiligi, masalan, kashnich,

arpabodiyon, zira, yalpiz, mavrak kabi o't o'simliklardir. Lekin ular orasida chala butalar – rayhon, lavanda, yorongul; butalar – atirgul, yasmin, nastarin (siren); daraxtlar – evkalipt, sitruslar ham bor. Efir moyli ekinlar **xushbo'y o'simliklar** deb ham ataladi.

**Eftotroflar** (*grek. eu – yaxshi, trophe – oziqlanish*) – eftotrof o'simliklar (sinonimi *megatroflar*) unumdor, mineral elementlarga boy tuproqqa o'ta talabchan bo'lgan o'simlik turlari.

**Egar** – 1. Ot-ulov ustiga uriladigan va minib o'tirish uchun moslangan abzal. Ot egari. *Komil kumush uzangiga oyoq uchini qo'yib, egarga minib oldi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

2. Turli mashinalarning odam o'tiradigan joyi, o'tirg'ichi. *Velosiped egari. Traktor egari.*

**Egat** – shudgor yerda ekin ekish uchun tortilgan uzun ariq. Plug, kultivator va boshqa tuproqqa ishlov berish qurollari vositasida ochilgan to'g'ri, uzun ariqcha; jo'yakning bir turi.

**Egat olib sug'orish** – sug'orish usullaridan biri. Suv har bir egat bo'ylab yoki egat oralab oqiziladi. Ekinlarni bir me'yorda (zaxlatib) va qondirib sug'orishni, suvni tejamli sarflashni ta'minlaydi.

**Egat ochmoq** (yoki **solmoq**) – haydalgan yerda egatlar hosil qilmoq, ariq olmoq. *Ma'lumki, jami qishloq xo'jalik o'simliklari har xil kenglikda olingan egatlar orqali sug'oriladi.* («Fan va turmush»). *..qishloqda yashovchi borki, bari terimchiga aylangan, katta-yu kichik egat oralaydi.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon»).

**Ekin** – hosil olish uchun ekilgan har qanday urug'dan unib-o'sgan o'simlik. Ekin maydoni. Ekinlarni sug'ormoq. *Bog'larni bir-biridan ayirgan devorlar*

ko'rinmas; ishkolar, mevazorlar, ekin dalalari tutash yashil manzara yasaydi. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Dala va bog'larda bitadigan o'simliklarning turi, xili. G'alla ekinlari. Poliz ekinlari. Texnika ekinlari. Uning [Botiralinig] aytishicha, qishloqning asosiy ekini bo'lgan sholidan bu yil mo'l hosil olingan. (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Ekinli** – ekin ekilgan. Ekinli yer.

**Qora ekinlar** – shv. Poliz ekinlari. Qora ekinlar bilan jaydari paxtani hali ham kamaytirishga maslahat beraman. (N. Safarov, «Uyg'onish»).

**Ekin-tikin** – har xil ekin; har xil ekinlar; ekin ekish; ekin ekish ishlari. ...ekin-tikinlar yig'ib olinguncha biz bilan tursin. (A. Hayitmetov, «Unsin xola»). Toshkent xalqi erkin nafas oldi, savdo-sotiq, ekin-tikin va kasbkor ko'tarila boshladi. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). Avji ekin-tikin davrida yer qaqrab, tuproq to'zib turdi. (I. Rahim, «Ijod, mahorat, jasorat»).

**Ekinzor** – ekin ekilgan, ekin bilan band bo'lgan joy, dala. Cho'lni ekinzorga aylantirmoq. Orqada bepoyon vodiylar... ekinzorlar, necha-necha obod qishloq va shaharlar qoldi. (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Ekinzorlar fotosintetik potensiali** – vegetatsiya davri yoki uning bir qismi uchun o'simliklar fotosintez apparati – barglar sathining kundalik ish hajmi yig'indisini ifodalaydigan ko'rsatkich. Ekinzorlar fotosintetik potensiali ekinlarni agrometeorologik baholashda va hosilni prognozlashda, ob-havo – hosil matematik modellarini tekshirish va asoslashda qo'llanadi.

**Ekinchi** – esk. Ekin ekuvchi, dehqon. Bahorning hidi ham kela boshladi... ekinchilarning ham kuni tug'di deya bering. («Mushtum»).

**Ekinchilik** – esk. Ekin ekish, dehqonchilik. Ekinchilik qilmoq.

**Ekliptika** [yun. *yekleirtike* < *yekleir-sis* – tutilish (mas. quyosh)] – astr. Osmon sferasining Quyoshning ko'rinmas yillik harakati ko'chib turadigan katta doirasi; bu doira Yerning Quyosh orbitasi bo'ylab harakatini aks ettiradi. Osmon sferasida Quyosh markazi yil davomida siljib boradigan katta aylana ekliptika deb ataladi. («Astronomiya»).

**Ekma** – ekib o'stiriladigan. Bizning o'lkamizda gulxayrining bitta ekma, yettita yovvoyi turi bor. (Gazetadan).

**Ekma grechixa** (*fagopyrum sagittatum gilib*) – torondoshlar (*Polygonaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15–70 sm keladigan bir yillik o't o'simlik. Ukraina, Belorussiya hududlarida o'stiriladi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida rutin, xlorogen, gallat va qahva kislotalari, urug'ida ko'p miqdorda kraxmal, yog', B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub> vitaminlar va b. moddalar bor. Yer ustki qismidan rutin olinadi. Rutin va uning preparatlari vitamin R ta'siriga ega bo'lib, qon tomirlarning o'tkazuvchanligi va qayishqoqligi buzilishidan kelib chiqqan kasalliklar hamda ba'zi qon oqishlar va yuqumli kasalliklar, bod, qon bosimining oshishi, nur kasalligini davolash va ularning oldini olishda qo'llaniladi.

**Ekma kashnich** (*coriandrum sativum L.*) – soyabonguldoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–70 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa, Yevropa qismining markaziy va janubiy nohiyalarida, Kavkaz va Markaziy Osiyoda o'stiriladi. Tibbiyotda mevasi va uning efir moyi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, yog', oqsil va boshqa moddalar bor. Efir moyi lianol va boshqa birikmalardan tashkil topgan. Mevasi va efir moyi o't haydash, og'riq qoldirish va

antiseptik ta'sirga ega, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Dori preparatlari mevasi, kukuni, damlamasi va yig'malar tarkibida ishtaha ochadigan, ovqat hazm qilishni yaxshilaydigan va o't haydaydigan vosita sifatida hamda bavirus kasalligi va yaralarni davolashda qo'llaniladi. Efir moyi antiseptik, og'riq qoldiruvchi, o't haydovchi vosita o'rnida va bavirus kasalligida ishlatiladi. Kashnichning spirtli suvi va efir moyi ba'zi suyuq dori shakllarining ta'mini yaxshilash uchun ularga qo'shiladi.

**Ekma kunjut** (*sesamum indicum L.*) – kunjutdoshlar (*Pedaliaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 60–100 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Vatani Afrikaning janubi-g'arbiy nohiyalari. G'arbiy Yevropada, Markaziy Osiyo, Zakavkazye, Qrim, Krasnodar o'lkasi, Ukraina va Moldaviyada o'stiriladi. Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi ishlatiladi. Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy, vitamin E, T faktor va boshqa moddalar bor. Moyi dori moddalarni eritish, malham va surtmalar tayyorlashda qo'llaniladi. U qondagi trombositlar miqdorini oshiradi va qon ivishini tezlatadi. Shuning uchun u ba'zi qon kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

**Ekma pasternak** (*pastinaca sativa L.*) – selderdoshlar, soyabonguldoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 70–100 (200) sm bo'ladigan ikki yillik o't o'simlik. Ziravor o'simliklar sifatida Rossiyaning janubida, ayniqsa, Kavkazda ko'p o'stiriladi, yovvoyi holda ekinzorlarda, dala va o'tloqlarda uchraydi.

**Ekmoq** – o'simlik urug'ini, urug'likni yerga tashlamoq, sepmoq, tikmoq; o'simlik tupini, ko'chatini o'tqazmoq. Chigit ekmoq. Kartoshka ekmoq. Gul ekmoq. *Arpa ekan arpa olar, Bug'doy ek-*

*kan bug'doy olar.* (Maqol). *Birni kessang, o'nni ek!* (Maqol). *Bir tup tok eksang, bir tup tol ek!* (Maqol).

**Ekologiya** [yun. *oikos* – vatan, uy + *logos* – fan, ta'limot] – birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o'zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan bo'lgan munosabatini, shuningdek, odam va biosfera o'rtasidagi o'zaro munosabat masalalarini o'rganuvchi fan.

**Ekologik** – ekologiyaga oid, u bilan bog'liq. Ekologik holat. *Olimlarning fikricha, mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun tub choralari ko'rish talab etiladi.* (Gazetadan).

**Ekologik katastrofa (halokat)** – 1. Insonlarning tabiatga to'g'ridan to'g'ri ta'siri natijasida atrof muhitda ekologik va iqtisodiy jihatdan olib kelgan tabiat muammolari. 2. Atrof muhitning o'zgarishiga yoki o'simlik va hayvonot olamining qisqarib ketishiga olib keladigan texnik vositalarning avariyesi.

**Ekologik muvozanat** – inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati.

**Ekologik sistema** – tirik organizmlar va ularning yashash muhitlaridan hosil bo'ladigan yaxlit kompleks.

**Ekonomika** [yun. *oikonomike* – uy-ro'zg'or xo'jaligini boshqarish san'ati] – q. **iqtisodiyot.** *Quyoshli O'zbekistonimizda faqat paxtachilik emas, ekonomikaning boshqa tarmoqlari va madaniyat ham yuksalmoqda.* («Fan va turmush»). *Problemalarni hal etish xo'jalik ekonomikasini yuksaltirishning garovidir.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

**Ekonomist** – 1 q. **iqtisodiyotchi, iqtisodchi.** Qishloq xo'jaligi bo'yicha ekonomist. Ekonomist olim. Ekonomist injener. Bosh ekonomist.

2. Ekonomizm tarafdori.

**Ekonomiya** [yun. *oikonomia* – xo‘jalikni boshqarish] – 1 q. **iqtisod** 1.

2 tar. Kapitalistik tipdagi yirik pomechchik xo‘jaligi.

**Ekotop** (grek. *oikos* – uy, joylashgan joy, *logos* – ilm, fan) – tirik organizmlarning o‘zaro ta‘sirini va ularni qamrab turgan tabiatni o‘rganuvchi fanlarning kompleksi.

**Ekskavator** [ingl. *Excavator* < lot. *excavare* – teshmoq, o‘ymoq] – yer kovlaydigan va tuproqni chiqarib tashlaydigan, asosiy ishchi qismi kovsh bo‘lgan o‘ziyurar mashina. Bir kovshli ekskavator. Ekskavator zavodi. *Zovur qaziyotgan polvon – ekskavatorning og‘ir cho‘michi fil xartumiday balandga ko‘tarilib tushmoqda.* (H. Nazir, «Cho‘l havosi»).

**Ekspeditsiya** [lot. *expeditio* – tartibga solish; safar, sayohat < *expedire* – yubormoq, jo‘natmoq] – 1. Ma‘lum guruh kishilarning biror maqsad bilan (mas., ilmiy maqsadda) uyushtirilgan safari. Ilmiy ekspeditsiya. *Ekspeditsiyaga chiqishdan oldin uy egasi kirib, u yoq-bu yoqdan gapirib, pirovardida, odaticha, nolidi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

2. Shunday safar qatnashchilari. *Ekspeditsiya manzilga yetdi. Ammo har gal ekspeditsiyalar bir-biriga qarama-qarshi, chalkash axborotlar qoldirishgan.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

3. Muassasaning xat-qog‘ozlarni yuborish, tarqatish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi. *Gazeta ekspeditsiyasi. Ekspeditsiya boshlig‘i.*

**Eksperiment** [lot. *experimentum* – sinov, sinash; tajriba] – aniqlash, sinash, tekshirish maqsadida o‘tkaziladigan ilmiy tajriba, sinov; sinov ishlari. Biologik eksperiment. Ilmiy eksperiment. *Tuyalar*

*ustida olib borilgan eksperiment shuni ko‘rsatdiki, ular bir necha hafta suvsiz yashay oladi.* («Mushtum»).

**Eksperimental** – 1. Eksperimentga, eksperiment o‘tkazishga oid. Eksperimental ish. Eksperimental metod. Ilmiy tekshirish institutining eksperimental bazasi.

2. Eksperimentga asoslangan. *Eksperimental biologiya. Eksperimental fizika.*

**Ekspertiza** [fr. *Expertise* < lot. *expertus* – tajribali; sinalgan] – qiyin yoki chiqarilgan masalani yechish va hal qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish, shunday tekshirish o‘tkazuvchi mutaxassislar hay‘ati. Sud-tibbiyot ekspertizasi. Ekspertiza xulosasi. *Toshmat shimining cho‘ntagidan tibbiy ekspertiza spravkasini chiqarib berdi.* (H. G‘ulom, «Mash‘al»). *Ekspertiza natijasi bo‘yicha tuzilgan akt unga o‘qib berildi.* (I. Qalandarov, «Shoxidamas, bargida»).

**Ekspluatatsiya** [fr. *Exploitation* – ishlatish, foydalanish; foyda olish < lot. *explicitare* – foydalanmoq, ishlatmoq] – 1. Ishlab chiqarish vositalari egalarning o‘zgalar mehnati mahsulini o‘zlashtirib olishi. *Ekspluatatsiyaga asoslangan.*

2. Tabiiy boyliklarni qazib olib, ulardan foydalanish; yer, sanoat korxonalarini, transport vositalari, binolar va sh.k.dan foydalanish, ularni ishlatish. Vodoprovodni ekspluatatsiyaga tayyorlamoq. *Maktabni ekspluatatsiyaga topshirish uchun konkret choralar ko‘rildi.* («Mush-tum»).

**Eksport** [ingl. *export* < lot. *exportare* – chetga (tashqi bozorga) chiqarmoq] – iqt. Sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga mol yoki kapital chiqarish va chiqarilgan mol, kapital; *zid.* import. *Bir so‘z bilan aytganda, respublikamiz import o‘lkasidan eksport o‘lkasiga aylanib bormoqda.* (Gazetadan).

**Eksport qilmoq** – chet elga (mol) chiqarmoq. *Hozirgi kunda zavod mahsulotlari yigirmadan ortiq xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda.* (Gazetadan).

**Ekstra** [lot. *extra* – me'yordan yuqori, favqulodda, o'ta] – eng yaxshi, a'lo (mol, tovar navi haqida). *Ekstra choy.*

**Ekstrakt** [lot. *yextrastus* – chiqarib, tortib, sug'urib olingan] – ekstraksiya yo'li bilan olingan modda, mahsul. Olcha ekstrakti. *Yaponiyada chuqur suv ostida yashovchi akula turlarining jigaridan... «Akulin» degan ekstrakt olinmoqda.* («Fan va turmush»).

**Ekstraktiv** – ekstraksiya yo'li bilan olingan. *Go'sht pishirilayotganda ivib qoluvchi yoki ajralib chiquvchi moddalar ekstraktiv moddalar deb ataladi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Ekstraksiya** [lot. *yextrastio* – chiqarmoq] – spirt, benzol va sh.k. erituvchi moddalar yordamida suyuq yoki qattiq moddalar aralashmasidan biror kerakli moddani ajratib olish. Moyni ekstraksiya qilish. Moy-yog' kombinatining ekstraksiya sexi.

**Ekuvli** – 1. Ekin ekilgan, ekinli. *Ekuvli yer.*

2. Ekin eksi bo'ladigan, dehqonchilik uchun yaroqli.

**Ekuvsiz** – ekin ekilmay qolgan, ekilmagan. *Ekuvsiz yer.*

**Elektrifikatsiya** [elektr + lot. *facere* – qilmoq] – q. **elektrlashtirish.**

**Elektrlashtirish** – elektr energiyasi bilan ta'minlash; ishlab chiqarish va butun xo'jalikni elektr energiyasidan keng miqyosda foydalanishga o'tkazish. Qishloqni elektrlashtirish. Sanoatni elektrlashtirish. ...o'quv dasturlari qishloq xo'jaligini elektrlashtirish bo'yicha bir-biriga uyg'unlashtirilishi maqbuldir. (Gazetadan).

**Elevator** [lot. *elevator* – (yuqoriga) ko'taruvchi] – 1. G'allani qabul qilish, tortish, quritish, elash, yuklash mexanizmlari bilan jihozlangan maxsus g'alla ombori. Toshkent elevatori. Tegirmon elevatori. *Bizni suli qoplagani elevatorga olib chiqadigan bo'lib qolishdi.* (A. Rahmat, «Brest qahramonlari»).

2 *tex.* Sochiluvchan yoki donali yuklarni ko'taruvchi mashina, mexanizm yoki mexanizmning bir qismi. *Linotip elevator. Kovshli elevator.*

3 *tex.* Isitish sistemalarida sovib qaytgan suvni issiq suv bilan aralashtirish uchun xizmat qiladigan moslama.

**Elita** [fr. *elite* – eng yaxshi, sara] – seleksiya yo'li bilan olingan va kelajakda ko'paytirish uchun mo'ljallangan eng yaxshi, saralangan urug', o'simlik yoki hayvon navi, turi. O'simliklar seleksiyasida yangi nav chiqarish uchun populyatsiyadan, urug'chilikda ekilayotgan navdan tanlab olinadigan eng sara o'simliklar avlodi elita deyiladi.

**Elita urug'chilik xo'jaligi** – elita va yangi yoki rayonlashtirilgan o'simlik navlari 1-reproduksiya urug'larini yetishtirish bilan shug'ullanadigan urug'chilik xo'jaligi. Eng yaxshi urug'lik yoki zotli mollarni yetishtirish bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jalik muassasasi, stansiyasi.

**Eman** (*quercus L.*) – qoraqayindoshlar (*Fagaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 50 m gacha yetadigan, yog'ochi oqish va juda qattiq, keng yaproqli, jigarrang uzunchoq mevali ko'p yillik daraxt; dub Yevropa g'arbiy qismi o'rmonlarining asosiy daraxtlaridan biri, janubiy nohiyalarda daryolar bo'yida o'sadi. Kavkaz va Uzoq Sharqda uning boshqa turlari o'sadi. hiyobonlarda, bog'larda va ko'chalarda

manzarali daraxt sifatida o'stiriladi. Tibbiyotda ikki turi: *D. obiknovenniy* – *Q. robur* L. (*Q. pedunculata* Ehrh.) – oddiy eman (qo'ng'ir eman, bandli gulli eman, yoz emani) va *D. skalniy* – *Q. petraea* Liebl. – bandsiz gulli eman (Qish emani) ning po'stloq'i ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, gallat va ellag kislotalar, flavonoidlar va b. birikmalar bor. Po'stloq qaynatmasi burushtiruvchi va antiseptik vosita sifatida og'iz bo'shlig'i kasalliklarida (gingivit, stomatit va b.) hamda tomoq shilliq pardasi yallig'lanishida, milk qonaganda, og'izda hid paydo bo'lganda og'iz chayish uchun qo'llanadi. Ba'zan 20 % qaynatmasi terining kuygan joyini davolashda ishlatiladi. *Eman daraxtining ezilgani* – *singani*, *Er yigitning uyalgani* – *o'lgani*. (Maqol). Eman stol.

**Embargo** [isp. *Embargo* – taqiqlash, man qilish] – 1. Chet el tovarlarini yoki valyuta boyliklarini kiritish yoki shunday narsalarni mamlakatdan olib chiqib ketishni davlat tomonidan taqiqlash.

2. Chet davlatga qarashli kemalarning mamlakat portlariga kirishini davlat tomonidan taqiqlash yoki boshqa davlatga qarashli kemalar, yuklar, qurol-yarog'larini vaqtincha to'xtatib turish.

**Embriologiya** [yun. *embryon* – pusht, homila; kurtak + *logos* – fan, ta'limot] – Biologiyaning odam, hayvon va o'simlik embrionlari o'sishini va rivojlanishini o'rganadigan bo'limi.

**Embrion** [yun. *embryon* – pusht, homila; kurtak] – *biol.* Odam, hayvon yoki o'simlikning ilk rivojlanish davridagi holati; pusht, kurtak; gumona (bachadon-dagi); kurtak (urug'dagi). *Tovuqlarning rasionida A vitamini yetishmasa, tuxumdagi embrionning rivojlanishi sekinla-*

*shadi va jo'ja ochirish uzoqqa cho'ziladi.* («O'zbekiston parrandachiligi»).

**Emlamoq** – yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun odam yoki hayvon organizmiga teri orqali zardob yubormoq. Chechakka qarshi emlamoq. Tifga qarshi emlamoq. *Kuni bilan uyma-uy yugurib kasal boqar, maktab bolalarini emlar, uzoq tog' qishloqlariga otda borib, kasallarga yordam ko'rsatar edi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

2 esk. Kinna, duo va boshqa qo'ziq-suquqlar bilan davolamoq.

**Energetika** [yun. *energeia* – harakat, faoliyat] – fan, texnika, sanoat va xalq xo'jaligining turli ko'rinishdagi energiya ishlab chiqarish, uzatish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan sohasi. Qishloq xo'jaligi energetikasi. Mamlakat energetikasi. *Energetika* – ishlab chiqarishning texnika darajasini oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. (Sh. Rashidov, «Do'stlik bayrog'i»). *Endilikda Andijon viloyati qudratli energetika bazasiga ega.* (Gazetadan).

**Energiya** [yun. *energeia* – harakat, faoliyat] – materiyaning asosiy xossalardan biri, materiyaning harakatlanishi, ish bajara olish qobiliyatining mezon; quvvat. Mexanik energiya. Atom energiyasi. *Inson organizmining yashashi uchun ma'lum darajada energiya zarur.* («Fan va turmush»). *Farhod GESi Toshkent energiya sistemasiga ulandi.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

**Entomofil o'simliklar** – ularning changlari og'ir bo'lib, shamol bilan tarqalmaydi, shuning uchun changlanish hasharotlar yordamida amalga oshadi. Chang donalarining yirik, g'adir-budir va shirali yoki moyli bo'lishi hasharotlarning tanasiga yopishib qolishiga yordam bera-



di. Changchi gullarda hasharotlarni jalb qiladigan narsa, ya'ni birlamchi attraktant gul changi bo'lsa, haqiqiy urug'chi gullar bilan funksional urug'chi gullar hamda ikki jinsli gullarda gul shirasi, ya'ni nektar hasharotlarni jalb qilishi, ikkilamchi attraktant, barcha poliz o'simliklarida xilma-xil dog'lari, chiziqlari va ko'zga yaxshi tashlanuvchi boshqa belgilari bo'ladigan yirik-yirik va och sariq rangli gullardir.

**Entomolog** – entomologiya mutaxassisi. *Ochilning gruppasiga yozilgan entomologi hovliqamaroq ekanmi, vahima qilib yubordi: sariq ofat [chigirtka] Kaspiydan Tyan-Shangacha minglab kilometr masofani egallaganmish.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Entomologiya** [yun. *entonom* – hasharot + *logos* – fan, ta'limot] – Zoologiyaning hasharotlarni o'rganuvchi bo'limi. Hasharotlarning tuzilishi, hayot kechirishi, ularning individual va tarixiy rivojlanishi, xilma-xilligi, yer yuzida tarqalishi, yashash muhiti bilan munosabatlari va boshqalarni o'rganadi.

**Enzootik ataksiya** – nerv sistemasining zararlanishi oqibatida gandaraklab yurish, falaj bo'lish kasalligi. Tuproqda sulfat tuzlar ko'p bo'lgan adirli yaylovlarda boqiladigan chorva mollari tanasida mis yetishmasligidan ularning vazni va qo'ylarning jun mahsuldorligi kamayib ketadi, juni rangsizlanadi, enzootik ataksiyaga duchor bo'ladi.

**Enchi** – ota tomonidan farzandga ajratib berilgan jonivor, bosh mol. *Uning Alpomishga enchi bir tarlon biyasi bor edi.* («Alpomish»). *Mening o'zinning enchi otim ham Boychibordan kam emas.* («Yodgor»).

**Epidemiya** [yun. *epidemia* – yalpi, keng tarqalgan (kasallik)] – yuqumli

kasalliklarning muayyan hudud uchun g'ayriodatiy tarzda yalpi, keng tarqalishi. Vabo epidemiyasi. *Shu sababli gripp epidemiyasi shahar aholisi orasida ko'p uchraydi.* (Gazetadan).

**Epidemiologiya** [epidemiya + yun. *logos* – fan, ta'limot] – tibbiyotning yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalish yo'llarini hamda ularga qarshi kurash, ularning oldini olish choralarini o'rganadigan bo'limi.

**Epifitotiya** (epi... va yun. *phuton* – o'simlik) – o'simliklar yuqumli kasalliklarining muayyan bir vaqt davomida katta hudud (xo'jalik, tuman, viloyat, mamlakat)larda tarqalishi. Odatda, epifitotiya boshqoqli ekinlarda zang, qorakuya, g'o'zada fuzarioz, kartoshkada fitofktoroz, olmada kalmaraz va boshqa ko'plab yuqumli kasalliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

**Epikotil** – urug'palla va undan hosil bo'ladigan urug'barg bilan birinchi haqiqiy (chin) barg orasidagi poya bo'lagi.

**Epitelial** – epiteliyga oid; epiteliy hujayralaridan iborat bo'lgan.

**Epitelial to'qima** – ayn. **epiteliy 1**.

**Epiteliy** [yun. *epi* – yuqorida, ustida, yonida + *thele* – bo'rtiq, g'udda; emchak uchi] – **1** *biol.* Ko'p hujayrali organizmlarning badanini, undagi bo'shliqlarning ichki-tashqi devorlarini qoplovchi to'qimalar.

**2** *bot.* Ba'zi o'simliklarning bo'shliqlarini qoplagan yupqa devorli hujayralar qatlami (bu hujayralar moy, qatron, efir moddalari ajratib chiqaradi).

**Epizootiya** [yun. *epi* – ustida, yonida, keyin + *zoon* – hayvon, jonivor] – hayvonlarda biror yuqumli kasallikning muayyan hudud uchun g'ayriodatiy tarzda keng tarqalishi; o'lat. Epizootiya ko'rinishidagi

di. Changchi gullarda hasharotlarni jalb qiladigan narsa, ya'ni birlamchi attraktant gul changi bo'lsa, haqiqiy urug'chi gullar bilan funksional urug'chi gullar hamda ikki jinsli gullarda gul shirasi, ya'ni nektar hasharotlarni jalb qilishi, ikkilamchi attraktant, barcha poliz o'simliklarida xilma-xil dog'lari, chiziqlari va ko'zga yaxshi tashlanuvchi boshqa belgilari bo'ladigan yirik-yirik va och sariq rangli gullardir.

**Entomolog** – entomologiya mutaxassisi. *Ochilning gruppasiga yozilgan entomologi hovliqamaroq ekanmi, vahima qilib yubordi: sariq ofat [chigirtka] Kaspiydan Tyan-Shangacha minglab kilometr masofani egallaganmish.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Entomologiya** [yun. *entonom* – hasharot + *logos* – fan, ta'limot] – Zoologiyaning hasharotlarni o'rganuvchi bo'limi. Hasharotlarning tuzilishi, hayot kechirishi, ularning individual va tarixiy rivojlaniishi, xilma-xilligi, yer yuzida tarqalishi, yashash muhiti bilan munosabatlari va boshqalarni o'rganadi.

**Enzootik ataksiya** – nerv sistemasi-ning zararlanishi oqibatida gandarab yurish, falaj bo'lish kasalligi. Tuproqda sulfat tuzlar ko'p bo'lgan adirli yaylovlarda boqiladigan chorva mollari tanasida mis yetishmasligidan ularning vazni va qo'ylarning jun mahsuldorligi kamayib ketadi, juni rangsizlanadi, enzootik ataksiyaga duchor bo'ladi.

**Enchi** – ota tomonidan farzandga ajratib berilgan jonivor, bosh mol. *Uning Alpomishga enchi bir tarlon biyasi bor edi.* («Alpomish»). *Mening o'zimning enchi otim ham Boychibordan kam emas.* («Yodgor»).

**Epidemiya** [yun. *epidemia* – yalpi, keng tarqalgan (kasallik)] – yuqumli

kasalliklarning muayyan hudud uchun g'ayriodatiy tarzda yalpi, keng tarqalishi. Vabo epidemiyasi. *Shu sababli gripp epidemiyasi shahar aholisi orasida ko'p uchraydi.* (Gazetadan).

**Epidemiologiya** [epidemiya + yun. *logos* – fan, ta'limot] – tibbiyotning yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalish yo'llarini hamda ularga qarshi kurash, ularning oldini olish choralarini o'rganadigan bo'limi.

**Epifitotiya** (epi... va yun. *phuton* – o'simlik) – o'simliklar yuqumli kasalliklarining muayyan bir vaqt davomida katta hudud (xo'jalik, tuman, viloyat, mamlakat)larda tarqalishi. Odatda, epifitotiya boshqoqli ekinlarda zang, qorakuya, g'o'zada fuzarioz, kartoshkada fitoforozi, olmada kalmaraz va boshqa ko'plab yuqumli kasalliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

**Epikotil** – urug'palla va undan hosil bo'ladigan urug'barg bilan birinchi haqiqiy (chin) barg orasidagi poya bo'lagi.

**Epitelial** – epiteliyga oid; epiteliy hujayralaridan iborat bo'lgan.

**Epitelial to'qima** – ayn. **epiteliy 1**.

**Epiteliy** [yun. *epi* – yuqorida, ustida, yonida + *thele* – bo'rtiq, g'udda; emchak uchi] – **1 biol.** Ko'p hujayrali organizmlarning badanini, undagi bo'shliqlarning ichki-tashqi devorlarini qoplovchi to'qimalar.

**2 bot.** Ba'zi o'simliklarning bo'shliqlarini qoplagan yupqa devorli hujayralar qatlami (bu hujayralar moy, qatron, efir moddalari ajratib chiqaradi).

**Epizootiya** [yun. *epi* – ustida, yonida, keyin + *zoon* – hayvon, jonivor] – hayvonlarda biror yuqumli kasallikning muayyan hudud uchun g'ayriodatiy tarzda keng tarqalishi; o'lat. Epizootiya ko'rinishidagi

yuqumli kasalliklarga oqsil, o'lat va qoramollar peripnevmoniyasi, cho'chqa o'lati, nyukasl kasalligi va boshqalar kiradi.

**Epizootologiya** (*epizootiya va logiya*) – chorva mollari, parrandalar va qushlar yuqumli kasalliklarining paydo bo'lishi, tarqalishi va ularni tugatish qonuniyatlarini o'rganadigan fan; epizootiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish bilan ham shug'ullanadi.

**Erbaho gazako't** (*gentiana L.*) – gazako'tdoshlar (*Gentianaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 10–100 (ba'zan 140) sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Ikki turining ildizi va yer ustki qismi ishlatiladi. *G. Jeltaya* (*G. lulea L.*) – sariq erbaho. Ukrainaning Stanislav va Zakarpat viloyatlari tog'laridagi o'rmonlarda o'sadi. Leningrad viloyatida maxsus o'stiriladi. Ildizi tarkibida achchiq glikozidlar, alkaloidlar, flavonoidlar, trisaxarid bor. Ildizi qaynatmasi va quyuq ekstrakti ishtaha ochish va ovqat hazm bo'lishini yaxshilash uchun hamda o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. *G. Olive* (*G. olivieri Griseb*) – olive erbahosi. Markaziy Osiyo va Kavkaz adirlarida, tog' etaklaridan to tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan quruq toshloq tog' yonbag'irlarida o'sadi. Yer ustki qismi tarkibida achchiq glikozidlar, alkaloidlar bor. Yer ustki qismining qaynatmasi xalq tabobatida ishtaha ochish, ovqat hazm bo'lishini yaxshilash hamda bezgak, tish og'rig'i kasalliklarini, chipqon va shishlarni davolash, milkdan qon oqqanda og'iz chayish uchun ishlatiladi.

**Erganak** – *shv.* O'tov (chodir)ning eshigi.

**Erigeron** (*Erigeron canadensis L.*) – murakkabguldoshlar oilasiga mansub, bir

yillik o'tsimon o'simlik. Bo'yi 20 dan 120 sm gacha boradi. Maydan sentabr oyigacha gullab, meva tugadi. Sug'oriladigan va lalmikor ekinlar orasida begona o't sifatida o'sib, zarar keltiradi. Ariq, kanal bo'ylarida, to'qaylarda, ayniqsa beda ichida ko'plab o'sadi.

**Eriokaulon** (*Eriocaulion sieboldianum Sied. et Zucc.*) – eriokaulondoshlar oilasiga mansub, bo'yi 4–10 sm keladigan, bir yillik o'simlik. Avgustda gullab, sentabr-oktabrda meva tugadi. Sholipoyalarda va boshqa sug'oriladigan ekinlar ichida, shuningdek tomorqalarda begona o't sifatida o'sadi. O'zbekistonning Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida va Tojikistonda tarqalgan.

**Eritrotsitlar** [*yun. erythros* – qizil + *kytos* – hujayra] – qizil qon tanachalari; tarkibida qonga qizil rang beruvchi gemoglobin moddasi bo'ladi.

**Erkak paporotnik qirqquloq** (*druopteris fislix-max L.*) *Schott* – qirqquloqdoshlar (*Rolypodiaceae*) oilasiga mansub, ko'p yillik sporali o't o'simliklar. G'arbiy Yevropadagi barcha salqin o'rmonlarda, butalar orasida, nam joylarda va Markaziy Osiyoning tog'li nohiyalarida uchraydi. Tibbiyotda ildizpoyasi ishlatiladi. Tarkibida filitsin, sof holda floriglyutsidlar efir moyi, flavonoidlar, yog', oshlovchi va boshqa moddalar bor. Quyuq ekstrakti va filiksian preparatlari tasmaimon gijjalarni organizmdan haydash uchun ichiladi.

**Erkako't** – *bot.* Boshqilarga mansub, cho'llarda o'sadigan, ba'zi turlari ekiladigan ko'p yillik ozuqabop o'tsimon o'simlik.

**Erkin bozor** – narxlar biron bir tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lmagan holda faqat talab va taklifga ko'ra shakllandigan bozor.

**Erkin iqtisodiy zonalar** – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar.

**Erkin qochirish** – podani ko‘paytirish usuli, bunda hayvonlarning erkaklari urg‘ochilari bilan birga qo‘shib boqiladi.

**Erman** – murakkabguldooshlar oilasiga mansub ko‘p yillik, to‘p bo‘lib o‘sadigan o‘t (uning hidli mayda sarg‘ish-yashil, kakra barglari dori tayyorlash uchun ishlatiladi). ...*qoya poylarida esa sap-sariq erman gullari to‘lqini mavj uradi.* (A. Ibodinov, «Latofat» do‘konidagi qatl»).

**Eron zirasi**, *Bunium persicum* (BOISS) – selderdooshlar [soyabonguldoshlar, *apiaceae* (*Umbelliferae*)] oilasiga mansub, bo‘yi 40–60 sm bo‘ladigan ko‘p yillik o‘t. Markaziy Osiyoning tog‘li rayonlaridagi yumshoq tuproqli tog‘yonbag‘irlarida o‘sadi. Xalq tabobatida mevasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, yog‘, oqsil moddalar bor. Kukuni qorin og‘rig‘ini qoldirish, taloq (qora jigar) shishini davolashda, mevasining sirkadagi damlamasi – burundan qon oqishini to‘xtatish uchun ishlatiladi. Qovurilgan mevasi siydik haydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

**Eroziya** [*lot. erosion* – o‘yish, shilish, yemirish] – **1 geol.** Tuproqning, tog‘ jinslarining oqar suvlar yoki shamol ta‘sirida yemirilishi, nurashi. *Sahrodagi quduqlar atrofida o‘simliklar payhon qilinganligi sababli, u joylarda shamol eroziyasi juda kuchli bo‘ladi.* (P. G‘ulomov, «Zarafshon etaklarida»).

**Tuproq eroziyasi** – tuproqning eng semiz ustki qatlamining suv va shamol

ta‘sirida nurab oriqlashi. *Bodom ildizi sertarmoq bo‘lgani sababli, tuproq eroziyasiga qarshilik qiladi.* («Fan va turmush»).

**2 tex.** Metall buyumlar sirtining gaz yoki suv oqimi, shuningdek, elektr zaryadi ta‘sirida asta-sekin yemirilishi.

**3 tib.** Teri shilliq pardasining yoki epitelining yallig‘alnishi (shilinishi va yaranishi).

**Ertagi – 1.** Ertagi bo‘ladigan; ertangi. Ertagi majlis. Ertagi ish. *Ertagi dumbadan bu kungi shalxak yaxshi.* (Maqol). *Ertagi savdoning dahsar og‘irligi bor.* (Maqol). *Ertagi mashg‘ulotlari yodiga tushib, «Yotish kerak!» dedi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

**2.** Boshqa xillarga qaraganda oldinroq yetiladigan, pishadigan; ertapishar, chillaki ...*ertagi, o‘rtangi va kechki sabzavot, kartoshka, poliz va rezavor ekinlari ekish rejasi to‘la bajarilgan.* (Gazetadan).

**Ertapisharlik, tezpisharlik** – o‘simliklarning tez o‘sishi, tez rivojlanishi va mevalarning erta yetilishi xususiyati. O‘simliklarda biologik va xo‘jalik jihatidan pishish holatiga yetish tezligi bilan belgilanadi.

**Ertachi sarioyoq** – oktabr-dekabr oylari, qishda tug‘ilgan qo‘zilar. *Cho‘ponlar ertachi qo‘zilarni ajratib, bozorga olib tushishdi.*

**Esparset** (*Onobrychis Adans.*) – dukkadooshlar oilasiga mansub, bir yillik va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar yoki uncha katta bo‘lmagan tikanli butalar turkumi.

**Et – 1 ayn. go‘sht 2,3** – mol eti. Qo‘y eti. Xom et. Shaftoli eti. Eti qizil qovun. *Nasiya yemang etni, Qizartiradi betni.* (Maqol). *Siz mana shu pulga guzardan bir chorak et keltirib, sho‘rva qilib bersangiz!* (A. Qodiriy, «O‘tgan kunlar»).

2. Odamning badani; odam badanining yumshoq joyi, mushaklari.

**Etak** – 1. Kiyimning pastki, osilib tushib turadigan keng qismi. Ko‘ylakning etagi. To‘nning etagi. *U gilvatalik qo‘lini etagi bariga artib, Me‘mor bilan omonlashdi.* (Mirmuhsin, «Me‘mor»). *Otabola choponlarining etaklarini bar urib, qazuvga jo‘nab ketdilar.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

2. Matodan paxta terish uchun maxsus tikilgan, bir tomoni bo‘yinga osib, bir tomoni belga bog‘lab olinadigan buyum. Bir etak paxta. *Qo‘li etak bilan chanoqqa xuddi bo‘zchining makkisiday borib kelyapti.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»). *Zveno a‘zolari sentabrning o‘rtalarida etak bog‘lab, terimga tushdilar.* («O‘zbekiston qo‘riqlari»).

3. Ba‘zi narsalarning, sathning che-ti, quyi tomoni, oxirgi qismi. Dala etagi. Sahro etagi. Hovli etagi. *Shaharning har ikkala tomonida ekin maydoni bo‘lib, etagi o‘rmonga borib taqalardi.* (A. Ubaydullayev, «Qonli izdan»). *Buloqdan emas, etakda hayqirib oqayotgan soydan suv olib keltirardi.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»).

4. Tog‘, adir, balandliklarning pastki qismi; pastki qismidagi joy, maydon. *Yodgor ohista yurib, adir etagiga tushib ketdi.* (O‘. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Tepalikning etagidan har xil ovozlari eshildi.* («Yoshlik»).

5. Ariq, daryoning quyi qismi; suvning quyilish joyi. Zarafshonning etagi. *Ko‘kish havo bilan chulg‘angan jilg‘a etagida bir qora paydo bo‘lgan edi.* (P. Tarsun, «O‘qituvchi»).

**Etalon** [fr. *etalon* – namuna] – biror narsaning ideal namunasi, o‘lchovi yoki o‘lchov birliklarini hozirgi kundagi

fan va texnika erishgan eng yuqori aniqlik bilan qayd etish, saqlash va tarqatish uchun xizmat qiladi. Metr etaloni. Bir-lamchi etalon. *O‘tkazgichlarning qarshiligini o‘lchash uchun, avvalo, qarshilik namunasi, ya‘ni qarshilik etaloni tanlab olinish kerak.* («Fizika»).

**Etalon gektar**, *shartli etalon gektar* – etalon sharoitlarda 1 ga yerni haydashga muvofiq keladigan traktor ishlari hajmi.

**Etdor** – kam qo‘ll. 1. Eтли, semiz, to‘la, go‘shtdor. *Hoji xola uzukni etdor sinchalog‘iga o‘tkaza turib hirlingladi.* (M. Ismoilij, «Farg‘ona t. o»).

2. Eti qalin, seret, etli. *Etdor shaftoli.*

**Etologiya** (*yunoncha «etos»* – «fe‘l», «xulq», «fe‘l-atvor» va «logos» – «ta‘limot» so‘zlaridan) – hayvonlarning xatti-harakatini ular yashaydigan tabiiy sharoitlarda o‘rquanuvchi fan, etologiya-ning asosiy vazifasi hayvonlarning irsiy, instinktiv va xatti-harakat evolutsiyasini o‘rganishidir. Etologiya fani zoologiya, ekologiya, hayvonlar fiziologiyasi va genetika bilan chambarchas bog‘liq.

**Evkalipt** [*yun. yeu* – yaxshi + *kalyrtos* – qoplangan, o‘ralgan] – Avstraliya-da o‘sadigan bo‘yi baland, yog‘ochi qattiq va mustahkam, barglari efir moyiga boy, doim yashil daraxt.

**Evkaliptlar** – doim yashil daraxtlar hisoblanadilar, ularning barglari bir necha yillar to‘kilmay turadi. Ularning hayotini 3 davrga ajratish mumkin: yosh, oraliq va qari yoshdagi barg formalari mavjud. Shuning uchun ham bir daraxtda doim turli shaklga ega turli yoshdagi barglar rivojlanadi. Gullari ikki jinsli, yig‘ilib to‘pgul hosil qiladi. Gullarining tuzilishi ajoyib, qo‘ng‘iroqsimon kosachasi cho‘zinchoq qopqoq bilan o‘ralib turadi, gullash davrida bu qopqoq tushib ketadi,

uning ichida joylashgan g'uncha ochiladi. Mevasi ko'sak bo'lib, gullagandan keyin 3–8 oydan so'ng yetiladi va daraxtda uzoq saqlanadi. Urug'lari mayda, tuxumsimon shaklga ega.

**Evkomma** – bir uyli o'simlik, ayrim vaqtlarda faqat erkak gullari rivojlanadi. Ular kalta bandli bo'ladi. Mevasi yassi, bir urug'li yong'oqcha. Evkomma to'nkasidan ko'karadi, uni urug'dan, qalamchadan hamda parxish yo'li bilan ko'paytirish mumkin.

**Evolutsiya** [lot. *evolutio* – avj oldirish, kuchaytirish] – uzluksiz tadrijiy rivojlanish, o'zgarish; tabiat va jamiyatda uzluksiz va tadrijiy ravishda davom etadigan va sifat o'zgarishlariga olib boradigan miqdor o'zgarishlari. Tirik organizmlarning tarixiy o'zgarishi. Evolutsiyada tabiiy tanlanish ta'sirida mutatsiyalardan organizmlarning tashqi muhit sharoitiga moslanishiga olib keladigan belgilar va xususiyatlar kombinatsiyasi shakllanadi. Evolutsiya jarayoni. *Bosh qahramon evolutsiyasi ham romandan ma'lum darajada o'rin olgan.* (Gazetadan). *Irsiyat tufayli uzoq evolutsiya davomida paydo bo'lgan asosiy strukturalar hamma turlarda saqlanib qoladi.* («Fan va turmush»).

**Evrastika** – ichki sezgi, topqirlik, tajriba, ixtirochilik hamda inson miyasining o'ziga xos xususiyatlari asosida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usuli.

**Exinokokk** [lot. *yeshinos* – tiprati-kan + *kokkos* – don, urug': sharsimon bakteriya] – tib. It, mushuk, bo'ri ichaklarida bo'ladigan, urug'i uy hayvonlari orqali odamga o'tsa, miya, o'pka, jigar va b. ichki a'zolariga joylashib, o'sib, g'umbakka aylanib, og'ir kasallikka, hatto o'limga ham sabab bo'ladigan tasma-simon gijja.

**Exinokokkoz** – odam va hayvonlarda exinokokklar qo'zg'atadigan gijja kasalligi.

**Eshak** – 1. Yakka tuyoqlilarga mansub, quloqlari uzun sutemizuvchi, otdan kichik ish hayvoni. *Eshak minganning oyog'i tinmas.* (Maqol). *Boboqul ham yuklarini eshagiga ortib bo'lgan edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Qishloq dehqonlari qo'qon aravalarda, eshak aravalarda o'rik, tut, terak sarjinlari yuklab bormoqda edilar.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t. o»).

2 ko'chma. Befahm, hech narsaga qiziqmaydigan odam haqida. *Ishqi yo'q – eshak, dardi yo'q – kesak.* (Maqol).

3 (talaffuzda ko'pincha **eshshak**). Shu hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi.

4 To'rt yoki ko'p oyoqli uzun skameyka, o'tirgich. *Mulla Obid javob o'rniga qo'l siltab, Berdi tatar o'tirgan yog'och eshakning ikkinchi boshiga kelib o'tiradi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

5 shv. Chayon.

**Eshakmiya** – bot. Dukkaklilarga mansub, urug'i zaharli ko'p yillik yovvoyi o't. *Qishloq joylarda donli ekinlar bilan birga o'sadigan ayrim o'simliklarda (eshakmiya va boshqalarda) zaharli alkaloidlar mavjud.* («Fan va turmush»). *U vaqtlar bu yerga suv chiqmaganda, eshakmiyadan bo'lak o'simlik ham o'smasdi.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

**Echkemar** – 1 zool. Kaltakesaklarning bo'yi 1,5 metrgacha yetadigan, turli jonivorlar bilan ovqatlanadigan eng katta turi. *Qarasam, lo'la bolishdek bahaybat bir maxluq – echkemar, hansirab yetibdi.* (Y. Shamsharov, «Qahramonning yo'li»).

2 q.x. Uzunning bir xili; qizil, husayniga o'xshash o'rtapishar xo'raki uzum.

**Echki** (*Carpa hircus*) – quvur shoxlilar oilasiga mansub, kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli sutemizuvchi hayvon. Xonaki echki. Tog‘ echkisi. Echki suti. Echki juni. *Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r.* (Maqol). *Echkilarga hamma hayron: nega Orifning echkisi bir tuqqanda ikkita tug‘ar ekan-u, kolxozning echkilari*

*nuqul bittadan tug‘ar ekan.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).

**Echkichi** – echki boquvchi, yetishtiruvchi chorvador.

**Echkichilik** – 1. Echki boqish ishi, kasbi.

2. Chorvachilikning echkilarni boqish va ko‘paytirish bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i.

## F

**Fabrikat** [*lot. fabricates* – tayyorlangan, ishlab chiqarilgan] – ishlab chiqarish, qayta ishlash sanoatining iste‘mol uchun mo‘ljallangan tayyor mahsuloti; fabrikada ishlab chiqarilgan tayyor buyum. *To‘qimachilik fabrikatlari. Fabrikatlar sotmoq.*

**Fagotsit** [*yun. phagos* – yebto‘ymas, ochko‘z + *kytos* – hujayra] – *biol.* Odam va hayvonlar organizmida yot jism va bakteriyalarni tutib olish va hazm qilish xususiyatiga ega bo‘lgan hujayra.

**Fakt** [*lot. factum* – bajarilgan, qilingan] – 1. O‘ylab topilmagan, uydirma bo‘lmagan, real, mavjud narsa; haqiqiy voqea, hodisa. *Suhbatlarni jonli, qiziqarli, turmushdagi faktlarga suyanib o‘tkazish kerak.* (R. Fayziy, «Cho‘lga bahor keldi»). *Har qanday dadil fantaziyaning zamirida ham hayotiy tajriba, real faktlar, manzaralar yotadi.* (U. Normatov, «Talant tarbiyasi»).

2. Bor narsa, voqea yoki hodisa haqida ma‘lumot, dalil. *Hamma bo‘lgan faktlarni yoza ber.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»). *Endi u dangal faktlarni ro‘para qilishga qaror berdi.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

3. Biror narsa haqida xulosa chiqarish, qat‘iy bir fikrga kelish uchun xizmat qiladigan narsa, asos (mas., hujjat, dalil,

misol). Jinoyat yuzasidan yig‘ilgan faktlar yetarli edi. *Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi sud ishlarini ko‘rib chiqish praktikasi muhokama etildi.* (Gazetadan).

**Faktor** [*lot. factor* – bajaruvchi, ishlab chiquvchi] – (*q. omil*) 1. Hal qiluvchi faktor. *Bu faktorlar haqiqiy yozuvchini hamkasblaridan ajratib turadigan individuallikka olib keladi.* (U. Normatov, «Talant tarbiyasi»). *Uzoq yashash faktorlaridan biri toza havodir.* («Saodat»).

**Faktura** [*lot. facture* – qayta ishlash, tuzatish] – 1. Xaridorlarga sotish uchun jo‘natilgan mollarning ro‘yxati, miqdori va narxi ko‘rsatilgan hujjat. Faktura bilan mol bermoq. *Qiziqib fakturani talab qildim.* (Gazetadan). *Dorixonada ochib, unda fakturasi yo‘q mollarni saqlab, ularni istagan narxda sotdi.* (Gazetadan).

2. Tasviriy san‘atda: asar sirtining ishlanish yoki tuzalish xususiyati. *XX asr san‘atining fakturani murakkablashtirish bo‘yicha tajribalar tarqadi.* («O‘zME»).

**Falloh** [*a.* – dehqon, ekinchi, ziroatchi] – arab mamlakatlarida o‘troq dehqonning nomi. *Karbalo dashtiga qo‘l uzatib u, fallohlar holidan bo‘ldi xabardor.* (B. Boyqobilov, «Meni kuting yulduzlar»). *Bu kechalarda o‘tar fallohlar-u hammol-*

lar, *Tog'chilar, quruvchilar, qalamkashlar, adiblar*. (Mirtemir, «Asarlar»).

**Famil** [*r. фамильный* – oilaga aloqador < *lot. familia* – xonadon, oila]: **famil choy, familchoy** – *s.t.* Qora choy va shunday choy solib damlangan ichimlik. *..achchiq famil choyni issig'i yuziga tepgandek, nozik qirra burnining uchi qizarib ketdi*. (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Devzira guruchning palovi famil choyni xush ko'rmaydi*. (S. Ahmad, «Saylanma»). *Yog'lik ovqat, go'sht, jigari, sut, qaymoq, yumshoq non yeyish mumkin emasligini, non qoqisi yeb, quyucq familchoy ichish lozimligini aytdi*. (M. Ismoilii, «Farg'ona t. o»).

**Faroiz, faroyiz** [*a. – hisob, o'lchov*] – *tar.* **1.** Yerning hajmini o'lchash bilan shug'ullanuvchi, hisob-kitoblarga oid soha (fan). *Rost, ilm, riyoziyot va falakiyotdin ta'lim beradurganlar yo'q, ammo mantiq, falsafa, faroiz [yero'lchov] ilmi ravnaq topgan*. (M. Osim, «Karvon yo'larida»). *Domlaniq aytishiga ko'ra, biz kuzdan boshlab faroiz [hisob] va xarita o'qishimiz kerak edi*. (A. Qahhor).

**2.** Fiqh ilmida: bajarilishi shart bo'lgan amallar haqidagi bo'lim, jumladan, shariatning merosni taqsim qilish haqidagi qoidalariga oid bilimlar.

**Farovon** [*f. – mo'l, juda ko'p, ortiq, ziyod*] – **1.** Har jihatdan to'la-to'kis ta'minlangan, hamma narsasi mo'l-ko'l; to'q. *Farovon hayot. Yaxshi ishlasak, o'z turmushimiz farovon, yurt obod bo'ladi*. (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Ayol bor joyda mehnat mazmunli, farzandlar baxtiyor. Oila farovon va ahil*. («Saodat»).

**2.** Ko'p miqdorda mavjud bo'ladigan; mo'l-ko'l, serob. *U tomonlarning [qishloqning] birinchi va farovon mevasi uzum edi*. (S. Aynii, «Esdaliklar»). *Bu sirni*

*ko'rib, ja [juda] bo'ldim hayron, Hay desam, kelurmi so'zlar farovon*. («Murod-xon»).

**Fartuk** [*nem. Vortuch* – biror narsa oldidagi bir parcha mato] – **1.** Odatda, kiyimni iflos qilmaslik uchun uning ustidan kiyiladigan yoki ish paytida belga bog'lab olinadigan ish kiyimi; peshband. *Boshida mog'or bosgan eski do'ppi, oldida shakarqopdan tikilgan fartuk*. (M. Ismoilii, «Farg'ona t. o»).

**2.** O'quvchi qizlarning rasmiy maktab kiyimi ustidan kiyiladigan oq yoki qora rangdagi yengil kiyimi.

**3. s. t. ayn. etak 2.** *Izzatulla o'rnidan turib, bir fartuk paxta ko'tarib kelayotgan Shoiri ismli kotiba qizga peshvoz chiqdi*. (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Fasl** [*a. – bo'lim, qism; yil vaqti, mavsum; bo'linish*] – **1.** Bir yilni tashkil etadigan to'rt mavsumning biri (qish, bahor, yoz, kuz). *Toshkentda uch fasl yoz: Bahor – shoshgan ichki yoz. Yoz – katta va asl yoz. Kuz – kechikkan kechki yoz*. (M. Shayxzoda, «Toshkentnoma»).

**2 esk.** Asarning biror bobi, qismi. *Kitob to'rt fasldan iborat. Bu borishdan [Otabek] biror ish chiqara oldimi, yo'qmi, bu to'g'rida biz kelasi fasllarning birida o'rganarmiz*. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**3 ko'chma.** Vaqt, muddat, davr.

**Fassiatsiya** – poyaning qing'ir-qiyshiq yoki lentasimon yapaloq bo'lib o'zgarishi. Ba'zan fassiatsiya hodisasi-da bir qancha shoxlar birga qo'shilib, yiriklashib ketadi; bu hodisa sachratqi, marjondaraxt, shuvoq, shumtol, qoraqat kabi o'simliklarda ko'proq uchraydi. Fassiatsiya gulto'jixo'roz kabi ba'zan o'simliklarda urug' orqali naslga ham beriladi.



**Fatila** [*a.* – eshilgan paxta pilik; kalava; jamalak, gajak] – halqa-halqa bo‘lib turgan yoki eshilgan, jingalak (soch haqida). *Qizchanning sochlari fatila-fatila bo‘lib turardi. U kishining... o‘sib ketgan sochi fatila-fatila bo‘lib, yelkasiga tushgan edi.* (N. Aminov, «Suvarak»).

**Fayziyob** [*fayz* + *f.* – topuvchi] – *kt.* 1. O‘ta tarovatli, maftunkor, ko‘rkam, serfayz. *Bog‘lar nurdan fayziyob bo‘ldi.* (H. G‘ulom, «Yomg‘ir») *..savallagan sayin chang-g‘uborli atrof-muhit musaffolashmoqda, fayziyob bo‘lmoqda edi.* («Yoshlik»).

2. Bahramand. *Bepoyon mamlakatimizda... hayot ne‘matlaridan hamma fayziyob.* (Gazetadan). *To hayot ekanmiz – savobga zormiz, Yilt etgan shu‘ladan dillar fayziyob.* (A. Oripov, «Yillar armoni»).

**Fayzli** – o‘ziga jalb qiladigan; jozibador, istarasi issiq; ko‘rkam. Fayzli bog‘. Fayzli odam. Fayzli suhbat. *Shahrimiz qiyofasi kechqurun yanada fayzli bo‘ladi.* (Gazetadan). *Balki mening onam ham Mo‘tabarxonning onasiga o‘xshab shirinso‘z, ming marta aylanib-o‘rgilib, gurgitton bo‘ladigan fayzli ayolmidi?* (M. Aliyev, «Shonli avlod»).

**Faza** [*yun. phasis* – namoyon bo‘lish. paydo bo‘lish] – 1. Tabiat yoki jamiyatdagi biror voqea-hodisa, jarayon va sh.k. ning rivojlanishdagi muayyan payt, muddat, davr. G‘o‘zaning shonlash fazasi. *Bu maqolada biz asosan gul va hosil tugunchalari, uning rivojlanish fazalari haqida fikr yuritmoqchimiz.* (Gazetadan).

2 *maxs.* Biror narsaning shakli, holati yoki harakati o‘zgarishidagi ma‘lum halqivorchi payt, davr. Mayatnikning tebratish fazasi. *Galiley dunyoda birinchi*

*bo‘lib teleskop yasadi-da, uning yordami-da Venera fazalarini kuzatishga muvaffaq bo‘ldi.* («Fan va turmush»).

3 *el.* Generator o‘ramasining ayrim guruhi, shuningdek, unga ulangan elektr simlar.

**Fenologik kuzatishlar** – tabiatdagi mavsumiy hodisalarni kuzatish. Qishloq xo‘jaligida fenologik kuzatish, asosan foydali o‘simliklar va ekinlarda yuz beradigan o‘zgarishni kuzatishdan iborat. Fenologik kuzatishlarda o‘simlik rivojlanishidagi fazalarning boshlanish vaqti, ya‘ni maysaning unib chiqishi, barglar paydo bo‘lishi, shonlash, gullash, mevaning yetilishi va yig‘ib olish kabilari belgilanadi. Fenologik kuzatishlardan qishloq xo‘jaligida juda keng foydalaniladi, chunki bir qancha agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish o‘simlik rivojlanishining ma‘lum fazalariga bog‘liq bo‘ladi. Fenologik kuzatishlar agrometrologik prognozlar tuzish, ya‘ni hosilning yetilishi, uni yig‘ib olish kabi ish hamda tadbirlarni o‘tkazish muddati va sharoitlarini belgilash uchun ham zarurdir.

**Fenologiya** – Biologiyaning o‘simliklar va hayvonlar hayotida yuz beradigan mavsumiy o‘zgarishlarni, mas., daraxtlarning gullashi, qushlarning ko‘chishi kabilarni o‘rganadigan bo‘limi.

**Fenotip** – organizmning barcha tashqi belgilari va xossalari yig‘indisi. F. genotip va tashqi muhit sharoitlarining o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga chiqadi. «F.» terminini Daniya genetigi V. Iogansen taklif etgan (1903). F. da barcha genotipik imkoniyatlar ro‘yobga chiqavermaydi, chunki bu jarayon muayyan sharoitda genotip namoyon bo‘lishining xususiy bir holati hisoblanadi. Shu sababdan hatto bir tuxumdan rivojlangan, genotipi bir

xil bo'lgan egizaklar har xil sharoitda o'sganida ularda sezilarli fenotipik farqlarni kuzatish mumkin. Mikroevolutsiya jarayonida tabiiy tanlanish individlarining F.i bo'yicha boradi. Shuning uchun populatsiyalar ichida chegarasi genotip tomonidan belgilab beriladigan, keng reaksiya normasiga ega bo'lgan individlar yoxud qat'iy genotip bilan belgilanadigan, kerakli F. ga ega bo'lgan individlar tanlanadi. Genotipik o'zgaruvchanlik kuzatilmagan hollarda F. bo'yicha tanlash natija bermaydi. Bunga V. Iogansening sof liniyalarda o'tkazgan tanlash tajribasi yaqqol misol bo'ladi.

**Ferma I** [*fr. ferme < lot. firmus* – mustahkam] – 1. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida o'z mulkida yoki ijara-ga olingan yerda xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadigan fermerga tegishli bo'lgan xususiy qishloq xo'jalik korxonasi.

2 tar. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va chorva mollarini parvarish qilish bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan qishloq xo'jalik korxonasi yoki bo'linmasi ferma deb atalgan. *Parrandachilik fermasi. Chorvachilik fermasi.* Ixtisoslashishiga qarab, ferma qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik va b. yo'nalishlarda tashkil etiladi. Chorvachilik fermalari naslchilik va tovar F. lariga bo'linadi, ularning miqyosi chorva mollari bosh soni va mahsulot i. ch. hajmi bilan belgilanadi. Fermalar yem-xashak ekinlarini ekish, mollarni yaylovda boqish sharoiti, suv resurslari, yo'llarning joylashishi, aholi yashash joylarining uzoq-yaqinligi, veterinariya-sanitariya va b. omillar mavjudligiga qarab tashkil etiladi. Naslchilik fermasi. *Har kuni tong*

*qorong'usida qorining xotini To'paniso bilan sigir soqqani fermaga borar edi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Sattorov kassani hisoblab chiqqach, tovuq fermasiga o'tdi.* («Mushtum»).

3. Chorva mollari va parrandalarni yetishtirish (boqish va saqlash) uchun mo'ljallangan bino.

**Fermentlar** – tirik organizmning barcha hujayralarida mavjud bo'lgan biologik katalizatorlar fermentlar deyiladi (kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi moddalar, ba'zan enzimlar deb ham ataladi). *Ferment* so'zi lotincha «*fermentum* – achitqi» ma'nosini beradi. Ular o'z tabiatiga ko'ra oqsil birlikmalaridir (kundalik turmushda, yengil, oziq-ovqat va kimyo sanoatlarida keng qo'llanadi). Fermentlar barcha tirik organizmlar, jumladan, o'simliklar va hayvonlar hujayralarida yuz beradigan turli biokimyoviy reaksiyalarni yuz va ming marta tezlashtiradi va shu bilan ularning organizmida moddalar almashinuvini tartibga soladi. Hozir o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar hujayralarida 2500 dan ortiq fermentlar aniqlangan. Ular barcha oqsillar kabi oddiy va murakkab fermentlarga bo'linadi. *Asalning shifobaxsh modda bo'lishining birdan bir sababi, tarkibida fermentlarning ko'pligidir.* (L. Ikromov, «Ming dardga davo»). *Turpdagi fermentlar kishi organizmida modda almashinishiga... yordam qiladi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Fermentatsiya** [*lot. fermentare* – achitmoq, bijg'itmoq] – *biol., kim.* Tegishli mikroorganizm turlari ishlab chiqaradigan fermentlar ta'sirida xomashyo moddalar (uzum shirasi, choy, tamaki barglari)ni qayta ishlashdagi biokimyo-

viy jarayon: achish, bijg'ish, achitish. Tamaki fermentatsiyasi. Choy barglari fermentatsiyasi. *Qora choy yaxshi pishgan barglardan tayyorlanadi. Bunda ular avval quritiladi va eziladi, so'ngra fermentatsiya qilinib, yana quritiladi.* («Fan va turmush»).

**Fermer** [ingl. *farmer*] – o'ziga qarashli yoki ijaraga uzoq muddatga olingan yerda ziroat, chorva, parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi mayda yoki o'rtacha qishloq xo'jalik korxonasi egasi, qishloq xo'jalik tadbirkori, fermer xo'jaligi egasi. *Fermerlarga atalgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatga ijaraga olish huquqi mustahkamlanib qo'yildi.* (Gazetadan). *O'sha kuni... Ahmad Qodirov degan fermer ukamizni uchratib qoldim.* (Gazetadan).

**Fermer xo'jaligi** – xususiy yoki uzoq muddatga ijaraga olingan yerda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadigan xo'jalik.

**Ferrugineum** – yumshoq bug'doyning tur xili. Boshog'i qiltiqli, qizil; gul qipiqlari tuksiz bo'lib, donidan meditsinada va veterinariyada ishlatiladi.

**Filloksera** (*Viteus vitifolii*) – fillokserasimonlar oilasiga mansub to'g'ri qanotli hasharot – kuyakana, shira, xavfli tok zararkunandasi, ya'ni uzum(tok)ning shira kasali, uzum kuyakanasi. U tok zangining barg va ildizini, yosh novdalarini zararladi.

**Filtr** [fr. *filtre* < lot. *filtrum* – kigiz, namat] – suyuqlik yoki gazlarni keraksiz aralashmalardan tozalash uchun xizmat qiladigan moslama, suzgich. *To'r filtr. Protivogaz filtri. Vinoni filtdan o'tkazmoq. ...suvlar shag'al, qumlar va*

*yer ostidagi boshqa jinslar orasidan sizib, filtdan o'tgandek tozalanib keladi, natijada chuchuk, zilol suv bo'lib qoladi.* (Gazetadan).

**Filtratsiya** [ingl. *filtration* < lot. *filtrum* – kigiz] – 1. Filtdan sizdirib o'tkazib tozalash, filtrlash.

2. Suvning g'ovak qatlamlardan tabiiy holda sizib, tozalanib o'tishi, filtrlanishi.

**Filtrlamoq** – filtdan o'tkazmoq, suzmoq. *Filtrlash laboratoriyasida loyqa suyuqliklarni tozalash uchun ular filtrlanadi.* («Fan va turmush»). *Korxonada mutaxassislari ishlab chiqqan maxsus moslama sexlar havosini filtrlab beradi.* («Fan va turmush»).

**Filtrli** – tozalash moslamasiga ega; tozalash xususiyati mavjud. *Zavodning bosh korpusida, sexlar va uchastkalarda filtrli kameralar o'rnatilgan.* (Gazetadan). [Qiz] *Filtrli sigaret chekib o'tiribdi.* (M. Ismoilov, «Odamiylik qissasi»).

**Fimbristilis** (*Fimbristilis dichotoma* (L) Vahl.) – hiloldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 30 sm ga yetadigan, bir yillik o'tsimon o'simlik. Bu o'simlik avgust-sentabr oylarida gullaydi va urug'laydi. Sholipoyalarda, ariq bo'ylarida, bog'larda va O'zbekistonning tekis hamda tog'li tumanlarida, tomorqalarda begona o't tarzida o'sadi.

**Firma** [ital. *firma* – imzo] – 1. Yuridik shaxs huquqlaridan foydalanuvchi xo'jalik, sanoat yoki tijorat korxonasi (kompaniyasi). Marg'ilon «Atlas» firmasi. «Qizil tong» firmasi. *Ikkinchisi, chet ellardagi ilg'or firmalar bilan aloqa bog'lamagan bironta ham korxonada bo'lmasligi lozim.* (Gazetadan).

2 s.t. sft. Yuqori sifatli mahsulot tayyorlaydigan yoki xizmat ko'rsatadigan. *Jizzaxdagi plastmassa zavodining yangi*

*firma magazinidan xarid qilingan chashka qo'lingizdan tushib ketsa ham sinmaydi.* (Gazetadan).

**Fito** [yun. *phyton* – o'simlik] – baynalminal o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'simliklarga yoki o'simliklar haqidagi fanga aloqadorlikni bildiradi, mas., fitobar, fitopatologiya.

**Fitoergonomika** (grekchadan «*fiton*» – o'simlik, «*ergon*» – ish, «*nomos*» – qonun) – o'simliklardan yaratilgan kompozitsiyalardan foydalanib ish joylarida mehnat unumdorligini oshirish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan. Bu atama 1984-yil «inson-mashina-muhit» tizimidagi alohida obyektning tadqiqoti bilan bog'liqligi uchun e'tiborga olingan. Fitoergonomikaning ilmiy asosi «inson-muhit-mashina» tizimini o'rganishda kompleks yondoshuv muhimdir. Fitoergonomika bir necha yonma-yon fanlardan vujudga kelgan: landshaft dizayni, dizayn, ergonomika, tibbiyot, biologiya. Insonning mehnat faoliyatiga maqbul ta'sir etadigan omillarni hisobga olgan amaliy vazifalarni yechadi (antropologik, psixofiziologik, ekologik, estetik va b.). Ayniqsa, ish jarayonida qulay sharoitni yaratishga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun charchoqni barcha ergonomik tizimlar mikromuhitlarini yuqori relaksatsion ta'siri ostida pasaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunday muhitlarning asosiy omillari fito va florakompozitsiyalardir.

**Fitofaglar** (*fito...* yun. *phagos* – yeb qo'yuvchi) – faqat o'simliklar bilan oziqlanadigan organizmlar. Fitofaglar o'simlikning turli qismlari – unayotgan urug'lar, ildiz, barg, poya, shoxlar, gul organlari va b. bilan oziqlanadi.

**Fitogormonlar** – fitogormonlar yoki o'simlik gormonlari o'simlikning ma'lum

qismida juda oz miqdorda hosil bo'ladigan va ularning o'sishi, meva hosili jarayonini boshqarishda ishtirok etadigan yuqori fiziologik faol moddalar birikmalari.

**Fitomeliorsiya** (*fito...* va *melioratsiya*) – ekinlar ekish va ko'chat o'tqazish yo'li bilan yerni yaxshilash va unumdorligini oshirish. Fitomeliorsiyadan ko'pincha ko'chma qumlarini mustahkamlash (to'sish) va qumlikda daraxtzor va butazorlar barpo etish, yaylovlarni yaxshilash va yuvilgan tog' yonbag'irlarini, daryolar yopilmalarini, sho'rlangan yerlarni, grunt suvlari yer yuziga yaqin yotgan maydonlarni o'zlashtirish, shuningdek, dalalarni qurg'oqchilik, kuchli shamollardan muhofaza qilish maqsadlarida *dala ihota o'rmonzorlari* barpo etishda foydalaniladi.

Bu o'simliklar yo'li bilan sho'rlangan yerlarda mavsumiy tuz to'planishining oldini olish va tuproqda namlik zaxirasini saqlab turishdir. Mavsumiy tuz to'planishi (sho'rlanish darajasi) kuchli bo'ladigan yerlarda tuz ta'siriga chidamli ekinlardan kungaboqar va sorgo, mavsumiy tuz to'planishi (sho'rlanish darajasi) o'rtacha bo'lgan yerlarga makkajo'xori, soya, tritikale, javdar, moshning intensiv navlarini ekish tavsiya qilinadi.

**Fitonsid** [*fito...* + *caedere* – o'ldirmoq] – *biol.* O'simliklar ajratib chiqaradigan zararli mikroorganizmlarning ko'payishi va rivojlanishiga qarshilik qiluvchi modda, suyuqlik. *Uy o'simliklari o'zidan fitonsidlar chiqarib, zararli mikroorganizmlarni o'ldiradi.* (Gazetadan).

**Fitonsidlar** – o'simliklarning bakteriyalari va zamburug'larga faol ta'sir ko'rsatadigan biologik faol moddalar sintez qilishni rus olimi B.P. Tokin aniqlagan

va ularni fitonsid deb nomlagan (*yunoncha «fito» – «o'simlik» va lotincha «sedeo» – «o'ldiraman» so'zlaridan olingan*). Fitonsidlar o'simliklarni kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlardan himoya qilishda va o'simliklarning o'zaro munosabatida muhim rol o'ynaydi.

**Fitopatologiya** (*yunoncha «fito» – «o'simlik», «pato» – «kasallik», «logos» – «ta'limot» so'zlaridan*) – o'simliklar kasalliklari, ularning oldini olish va tugatish usullari hamda tadbirlari haqidagi fan. Umumiy va xususiy fitopatologiya o'simlik kasalliklarining paydo bo'lishi sabablarini, kasallikni qo'zg'atuvchi organizmlarning rivojlanishi va tarqalishi qonuniyatlarini, o'simliklar karantini va immunitet masalalarini, o'simliklarni himoya qilish usul va tadbirlarini, xususiy va maxsus fitopatologiya ekinlar kasalliklarini o'rganadi va ularga qarshi kurash choralarini tavsiya etadi.

**Fitopatologik ekspertiza** – qishloq xo'jalik ekinlari urug'ligi va o'simliklardagi kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarni dastlabki tekshirish.

**Fitotron** (*yunoncha «fito» – «o'simlik» va «tronos» – «makon», «turar joy»*) – seleksioner va o'simlikshunos olimlar o'z tadqiqotlarini tajriba maydonlarida, paykallarga bo'lingan dalalarda olib boradilar. Kuz-qish kelishi bilan ularning tajriba ishlari to'xtaydi, chunki o'simliklarni past haroratda, izg'irin sovuqlarda, yorug'kun qisqa bo'lgan sharoitlarda o'stirib bo'lmaydi. Endi yana bahor kelishini, yoz boshlanishini kutishi kerak. Sun'iy iqlim sharoitlarini yaratib, izlanish-o'rganishni yil bo'yi uzluksiz davom ettirish mumkin emasmi? Buning iloji bor, albatta. Buning uchun o'simliklar o'sa oladigan sharoitlar muhayyo bo'lgan inshoot yaratish lozim.

Bu inshoot fitotron deb ataladi. Fitotron o'simliklarni sun'iy boshqariladigan sharoitlarda o'stirishga mo'ljallangan, jihozlari murakkab inshoot.

**Fitotsenoz** (*fito – o'simlik, senoz – jamoa*) – o'simliklar majmuasi. Tabiiy fitotsenoz – tabiatdagi ko'pgina turli o'simliklar majmuasi.

**Fizalis** (*Physalis L.*) – ituzumdoshlar oilasiga mansub, bir yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Bu o'simlikning, asosan, Markaziy va Shimoliy Amerikada tarqalgan 100 dan ortiq turi ma'lum. MDH territoriyasidagi ko'p yillik fizalis (*Physalis alkekengi L.*) yovvoyi holda o'sadi. Bu o'simlik Qozog'iston, Ukrainaning janubi va Qora dengiz sohillarida tarqalgan. Mevasining bo'yi 1,5–2 sm gacha, tup sarg'ish yoki qizil rangda, taxirroq bo'ladi. Sovuq urgandan so'ng yetiladi.

**Fiziolog** – fiziologiya olimi, mutaxassis. *Ba'zi fiziologlarning fikricha, uzoq vaqt qand yemaslik fikrlash qobiliyatini ham susaytirar ekan.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**Fiziologik** – fiziologiyaga oid; fiziologiyaga daxldor bo'lgan. Fiziologik jarayon. *Hozircha titrashning insonga qiladigan fiziologik va ruhiy ta'siri xususida uzil-kesil xulosa yo'q.* («Fan va turmush»).

**Fiziologiya** [*yun. physis – tabiat + logos – bilim*] – odam, hayvon yoki o'simlik organizmi va uning alohida bo'laklari – muayyan sistemalari, a'zolari, to'qimalari, hujayralari hayot faoliyatini (paydo bo'lish, o'sish, rivojlanish, ko'payish, atrof-muhitga moslashish kabi jarayonlarni), ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganuvchi fan. *Umumiy fiziologiya. Qiyosiy fiziologiya. O'simliklar fiziologiyasi.*

va ularni fitosid deb nomlagan (*yunoncha* «fito» – «o‘simlik» va *lotincha* «sedeo» – «o‘ldiraman» so‘zlaridan olingan). Fitosidlar o‘simliklarni kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlardan himoya qilishda va o‘simliklarning o‘zaro munosabatida muhim rol o‘ynaydi.

**Fitopatologiya** (*yunoncha* «fito» – «o‘simlik», «pato» – «kasallik», «logos» – «ta‘limot» so‘zlaridan) – o‘simliklar kasalliklari, ularning oldini olish va tugatish usullari hamda tadbirlari haqidagi fan. Umumiy va xususiy fitopatologiya o‘simlik kasalliklarining paydo bo‘lishi sabablarini, kasallikni qo‘zg‘atuvchi organizmlarning rivojlanishi va tarqalishi qonuniyatlarini, o‘simliklar karantini va immunitet masalalarini, o‘simliklarni himoya qilish usul va tadbirlarini, xususiy va maxsus fitopatologiya ekinlar kasalliklarini o‘rganadi va ularga qarshi kurash choralarini tavsiya etadi.

**Fitopatologik ekspertiza** – qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ligi va o‘simliklardagi kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlarni dastlabki tekshirish.

**Fitotron** (*yunoncha* «fito» – «o‘simlik» va «tronos» – «makon», «turar joy») – seleksioner va o‘simlikshunos olimlar o‘z tadqiqotlarini tajriba maydonlarida, paykallarga bo‘lingan dalalarda olib boradilar. Kuz-qish kelishi bilan ularning tajriba ishlari to‘xtaydi, chunki o‘simliklarni past haroratda, izg‘irin sovuqlarda, yorug‘likdan qisqa bo‘lgan sharoitlarda o‘stirib bo‘lmaydi. Endi yana bahor kelishini, yoz boshlanishini kutishi kerak. Sun‘iy iqlim sharoitlarini yaratib, izlanish-o‘rganishni yanada yanada bo‘yi uzluksiz davom ettirish mumkin emasmi? Buning iloji bor, albatta. Buning uchun o‘simliklar o‘sa oladigan sharoitlar yaratish zarur bo‘lgan inshoot yaratish lozim.

Bu inshoot fitotron deb ataladi. Fitotron o‘simliklarni sun‘iy boshqariladigan sharoitlarda o‘stirishga mo‘ljallangan, jihozlari murakkab inshoot.

**Fitotsenoz** (*fito* – o‘simlik, *senoz* – jamoa) – o‘simliklar majmuasi. Tabiiy fitotsenoz – tabiatdagi ko‘pgina turli o‘simliklar majmuasi.

**Fizalis** (*Physalis L.*) – ituzumdoshlar oilasiga mansub, bir yillik va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. Bu o‘simlikning, asosan, Markaziy va Shimoliy Amerikada tarqalgan 100 dan ortiq turi ma‘lum. MDH territoriyasidagi ko‘p yillik fizalis (*Physalis alkekengi L.*) yovvoyi holda o‘sadi. Bu o‘simlik Qozog‘iston, Ukrainaning janubi va Qora dengiz sohillarida tarqalgan. Mevasining bo‘yi 1,5–2 sm gacha, tup sarg‘ish yoki qizil rangda, taxirroq bo‘ladi. Sovuq urgandan so‘ng yetiladi.

**Fiziolog** – fiziologiya olimi, mutaxassis. *Ba‘zi fiziologlarning fikricha, uzoq vaqt qand yemaslik fikrlash qobiliyatini ham susaytirar ekan.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**Fiziologik** – fiziologiyaga oid; fiziologiyaga daxldor bo‘lgan. Fiziologik jarayon. *Hozircha titrashning insonga qiladigan fiziologik va ruhiy ta‘siri xususida uzil-kesil xulosa yo‘q.* («Fan va turmush»).

**Fiziologiya** [*yun. physis* – tabiat + *logos* – bilim] – odam, hayvon yoki o‘simlik organizmi va uning alohida bo‘laklari – muayyan sistemalari, a‘zolari, to‘qimalari, hujayralari hayot faoliyatini (paydo bo‘lish, o‘sish, rivojlanish, ko‘payish, atrof-muhitga moslashish kabi jarayonlarni), ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganuvchi fan. *Umumiy fiziologiya. Qiyosiy fiziologiya. O‘simliklar fiziologiyasi.*

**Floks** (*Phlox L.*) – floksdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik, ba'zan bir yillik o'tsimon o'simlik. Vatani – Shimoliy Amerika va Sibir. Uning 40 dan ortiq turlari ma'lum. Bir yillik turlaridan Drumondi floksi (*Phlox drumondi Nook.*) maxsus ekiladi. Tupining bo'yi 20 dan 40 sm gacha yetadi. Guli oqish, sirensimon, to'q qora, qizil kabi ranglarda bo'lib, qalqonsimon to'pgul hosil qiladi. Iyun oyidan boshlab sovuq tushguncha ko'p gullaydi. Urug'ini erta bahorda yerga ekish bilan ko'paytiriladi, gulxonalarda, klumbalarda ko'p ekiladi va guli qirqib olib turiladi.

**Flora** [*lot. Flora* – Rim mifologiyasida: gullar, bahor va yoshlik ma'budasi < *fols, floris* – gul] – Yer kurrasining biror qismida yoki biror geologik davrda mavjud bo'lgan barcha o'simliklar majmui; O'simliklar dunyosi. *O'zbekiston floras.* *Zarafshon floras.* *Dengiz floras.*

**Florarium** – oynadan yoki shaffof plastikadan tayyorlanadigan maxsus moslama, uning ichida florakompozitsiya yaratiladi. Funktsional vazifasidan va xonalarning o'lchamlaridan qat'i nazar, florariumlar turlicha shakl (shar ko'rinishida, to'g'riburchakli, kub va h.k.) va o'lchamlar (kichik, o'rta va katta)ga ega bo'ladi. Ular aniq estetik effektga erishish uchun maxsus muhandislik moslamalariga ega bo'lishi mumkin (yomg'irlar, sharsharalar, shamol). Florarium ikki xususiyatga ega. Unda o'simliklar qisman yoki to'liq oyna bilan yopiladi. Natijada konteyner ichidagi havo nisbatan namroq bo'lib, ko'pchilik gullarni o'stirishga imkon beradi.

**Flyaga** [*nem. Flasche* – shisha (idish)] – **1.** Yelkaga, kamarga osib yoki cho'ntakda olib yuriladigan kichik yapa-

loq suvdon. *Har kuni ertalab, yo'lga chiqishda olinadigan bir flyaga suv sal o'tmasdanoq isib qoladi.* (O.Yoqubov, «Izlayman»). *Orif flyagasidagi oxirgi qultumni yaradorning suvsizlikdan tarsillab yorilib ketgan labiga tutdi.* (A. Eshonov, «Tongotar taronasi»).

**2.** Suyuq narsalar (sut, yog' va sh.k.) ni saqlash yoki tashish uchun ishlatiladigan, bandli katta idish. Sut quyiladigan flyaga. *Xotin-xalaj daladan chiqib, o'choq boshidagi katta flyagadan cho'michlab suv icha boshladi.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol»).

**Foiz** [*a. – mo'l-ko'l, labo-lab, ortiqcha, to'la; mo'llik; protsent*] – *esk.* **1.** Biror son yoki miqdorning yuzdan bir hissasi, ulushi (% belgisi bilan ifodalanadi). *Korxonamizdagi xizmatchilarning ellik foizi – xotin-qizlar. Birov birovni yomonlamasa, kamida o'sha zahoti sakson foiz ishonamiz!* (Y. Shomansur, «Qora marvarid»).

**2.** Qarzga olgan puldan foydalanganlik uchun pul egasiga to'lab turiladigan haq, foyda. *Yaqinda bir million sakkiz yuz ming so'm pulni bankka qo'yibdi. Yana yiliga olti foiz foydasi bilan.* (K. Yashin, «Hamza»).

**3.** Daromadga qarab to'lanadigan yoki olinadigan hissa.

**Fonar qashqa** – peshonadan lablari-gacha cho'zilgan keng oq bo'ladi.

**Fond** [*fr. fond* < *lot. fundus* – tub, asos] – **1.** Davlat, muassasa va sh.k. ning muayyan maqsad uchun ajratilgan puli, mablag'i, moddiy boyliklari majmui; jamg'arma. Valyuta fondi. Ish haqi fondi. Bo'linmas fond. *Fondimizda bir yuz ming so'm pul bor.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»). *Bo'linmas fondimizda naqd bir yarim million so'm pul bor.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

2. Qat'iy, barqaror daromad keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlar. *Fond birjasi. Fond bozori.*

3. G'amlab, ehtiyotlab qo'yilgan zaxira, boyluk. *Jamoa xo'jaligining urug'lik fondi. Uy-joy fondi.*

**Fonendoskop** [*yun. phone* – tovush + *endon* – ichki, ichida + *skopeo* – ko'raman] – odam va hayvon organizmida yuzaga keladigan yurak urishi, nafas shovqinlari va b. tabiiy tovushlarni eshitishga xizmat qiladigan, quloqqa tutiladigan ikki naycha hamda ovoz kuchaytiruvchi membranal moslamadan iborat tibbiy asbob.

**Fontaneziya** (*Fontanesia rhillyreoides*) – Kichik Osiyoda tabiiy tarqalgan. Toshkentda Botanika bog'ida o'stiriladi. Shox-shabbasi yoyiq, baland bo'yli buta. Barglari tuxumsimon yoki lansetsimon, ellipssimon, cheti tishchali, xira yashil rangda, dag'al. Mevasi yumaloq yoki ellipssimon, gullari nektarli. Soyada yaxshi o'sadi. Qattiq qishda yosh novdalarining uchini sovuq uradi. Xushmanzara buta bo'lganligi uchun aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda ekiladi.

**Formalin** [*ingl. formalin* < *lot. aciditas formica* – chumoli kislota] – dezinfeksiya qilish yoki tozalash uchun ishlatiladigan o'tkir hidli modda (chumoli kislotaning suvli eritmasi). *Formalin eritmasi. Chigitni formalin bilan dorilamoq. O'z navbatida, unga o'tkir hidli dori – formalin, ultratovush yoki ultrabinafsha nurlar ta'sir ettiriladi.* («Fan va turmush»).

**Forsunka** [*ingl. force-pump* – bosim beruvchi, haydovchi nasos] – *tex.* Suyuq yonilg'ini yoki kukun holidayi yoqilg'ini bosim bilan zarralar tarzida purkash, sochish uchun mo'ljallangan moslama, nasos.

**Forzitsiya I** (*Forsythia suspensa*) – balandligi 1,5–2 m ga yetadigan

buta bo'lib, novdalari tik o'sadi. Barglari to'q yashil. Erta bahorda barg yozishdan oldin gullaydi, guli sariq, bahor sovuqlariga chidamli. Urug'dan ham, parxish yo'li bilan ham ko'payadi, yozgi qalamchasidan ham ko'paytirish mumkin. Bu tur aprel-may oylarida gullaydi. Gullari butada uzoq saqlanadi. U soyaga chidamli, biroq ochiq yerlarda yaxshi o'sadi, yer tanlamaydi. Qurg'oqchilikka, turli zararkunanda va kasalliklarga ham chidamli. Forzitsiya shahar sharoitlariga chidamli, keng bordyurlarni va qiyaliklarni ko'kalamzorlashtirishda, gazonlarda soliter sifatida ekish tavsiya etiladi. Landshaftli qurilishda keng foydalanish tavsiya etiladi.

**Forzitsiya II** (*Forsythia Vehl*) – zaytunguldoshlar oilasiga mansub, butasimon o'simliklar turkumi. Forzitsiyaning Shimoliy Yevropa va Sharqiy Osiyoda uchraydigan to'rta turi ma'lum. Forzitsiya bo'yi 3 m ga yetadigan buta bo'lib, uning nashtarsimon yoki tuxumsimon barglari qishda to'kilib ketadi. Forzitsiya boshqa butalarga qaraganda ertaroq, barg chiqarmasdan turib gullaydi, tanasini oltingsimon sariq gullar qoplaydi. Yetarli darajada issiqsevar va qurg'oqchilikka bardosh beradigan o'simlik. Forzitsiya bahorgi va yozgi qalamchalardan, parxishdan ko'paytiriladi. MDHda manzarali o'simlik sifatida 2 ta turi ekiladi: Yevropa forzitsiyasi (*F. europea Leg. et Bald.*), vatani – Janubiy Yevropa hamda novdasi egik forzitsiya (*F. suspensa Vehl.*), vatani – Xitoy.

**Fosfatlar** [*ingl. phosphate* < *yun. phosphoros* – nurafshon, nur sochadigan] – *kim.* Fosfat kislota tuzlari va efilari (asosan o'g'it sifatida, shuningdek,



tibbiyot va texnikada ishlatiladi). *Kalsiy fosfati*.

**Fosfatli** – tarkibida fosfat bo‘lgan o‘g‘itlar. *O‘zbekistonda fosfatli o‘g‘itlar – ammosfos va ammoniyashtirilgan superfosfat ishlab chiqaradigan juda katta korxonalar barpo etilgan.* (Gazetadan).

**Fosfor** [yun. *phosphoros* – nurafshon, nur sohadigan < *phos* – yorug‘lik + *phoros* – olib boruvchi] – 1. Mendelejev davriy sistemasining V guruhiga mansub kimyoviy element; oq, qizil va qora rangda bo‘ladigan, suyuqlanish temperaturasi va b. ba‘zi xossalari ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi, kimyoviy faol metallmas modda (o‘g‘it, gugurt ishlab chiqarishda, metallurgiyada, organik sintezda qo‘llanadi). *Ona sutida oqsillar, yog‘lar... kalsiy va fosfor kabi to‘yimli moddalar yetarli bo‘ladi.* («Saodat»). *Tuproqda fosfor taqchil bo‘lsa, kartoshkaning gullashi va hosil pishishi sekinlashadi.* («Fan va turmush»).

2 s.t. Fosfatli o‘g‘it turi. *Fosfor yanagi hafta keladi. Ikkinchi chopiqni tamomladidingmi?* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Fosforitlar** [ingl. *phosphorite* < yun. *phosphoros*] – tarkibida fosfat ko‘p bo‘lgan cho‘kindi tog‘ jinslari; asosan mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. *Geologlarning aytishicha, fosforitlarning taxminiy zaxiralari cheksizdir.* (Gazetadan). *Bizda fosforit konlarining eng yirik manbalari mavjud.* (Gazetadan).

**Fosforli** – tarkibida fosfor mavjud bo‘lgan; fosfor aralash(tiril)gan. *Fosforli tuz. Fosforli ruda. Fosforli o‘g‘itlar. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning asosiy qismi yerga kuzda go‘ng bilan birga solinadi.* («Fan va turmush»).

**Fosforli o‘g‘itlar** – tarkibida fosfor bo‘lgan mineral va organik moddalar;

o‘simliklarning fosfor bilan oziqlanishini yaxshilash uchun ishlatiladi. O‘simliklar o‘zlashtirgan fosforning tuproqdagi jamg‘armasini to‘ldirishning birdan-bir manbaidir.

**Fotmachumchuq** – zool. shv. To‘rg‘ay; so‘fito‘rg‘ay. *Jar ichida suv multiraydi, u yerdan fotmachumchuq... qushining chiq-chiq, qiyq-qiyq ovozlari keladi.* (Sh. Xolmirzayev, «O‘n sakkizga kirmagan kim bor»).

**Fotobiologiya** [foto.. + biologiya] – Biologiyaning ultrabinafsha va infraqizil nurlar, umuman, yorug‘lik ta‘sirida organizmlarda sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganuvchi bo‘limi.

**Fotodavriylik** – o‘simliklar, hayvonlarning kecha-kunduzning yorug‘ (kun uzunligi) va qorong‘i (tun uzunligi) davrlari nisbatlariga, ularning uzun-qisqaligiga javob reaksiyasi, yorug‘ kunni uzun-qisqaligidan ta‘sirlanishi. Mana shu ta‘sirlanish natijasida o‘shish va rivojlanish jarayonida o‘zgarish yuz berishni fotodavriylik (*yunoncha «fotos»* – «yorug‘lik», «nur» so‘zidan) deb ataladi. Fotodavr – bu kunduz bilan kechanning almashinuvi va ularning uzun-qisqaligi.

**Fotoperiodizm** – o‘simliklarning kunning uzunligiga: ya‘ni bir sutka davomida kunduzgi yorug‘likning uzunligiga nisbatan bo‘lgan reaksiyasi. Kunning yoki fotoperiodning uzunligi o‘simlikda organik moddalar hosil bo‘lishiga va o‘simlikning gullash hamda mevaga kirish tezligiga juda kuchli ta‘sir etadi. Shunga ko‘ra, o‘simliklar uchta gruppaga bo‘linadi: **1) qisqa kun o‘simliklari** – bunday o‘simliklar gullashi va hosilga kirish muddati kunning 8–12 soatga qisqarishi bilan tezlashadi. Bunday o‘simliklar qatoriga tariq, makkajo‘xori, oq jo‘xori, soya,

kanop, go'za, xrizantema, kartoshkagul va b. kiradi; **2)** *uzun kun o'simliklari* – bunday o'simliklarning gullashi va mevaga kirishi kunning 11–16 soatigacha cho'zilishi bilan tezlashadi. Bularga bug'doy, suli, arpa, javdar, lyupin, zig'ir, gorchitsa, salat, gortenziya, nashagul va b. kiradi; **3)** *kunning uzunligiga neytral bo'lgan o'simliklar* – bunday o'simliklar kunning har qanday uzunligida ham bir xil tezlikda gullaydi va mevaga kiradi. Bularga grechixa, moxorka, kungaboqar, pomidor va b. o'simliklar kiradi. O'simliklarning o'sa boshlash davrida yorug'likka bo'lgan ehtiyojini bilish o'simlik xulq-atvorini bilib olish uchungina emas, balki ularning rivojlanishini boshqarib borish uchun ham yordam beradi.

**Fotosintez** [*photo...* + *sintez*] – *lot., biol.* O'simliklarda quyosh nuri ta'sirida va xlorofil donachalari ishtirokida anorganik moddalardan organik moddalar hosil bo'lishi va havoga kislorod ajralib chiqish jarayoni. Fotosintez tabiatda sodir bo'ladigan eng muhim biologik jarayonlardan biri. Fotosintezda hosil bo'lgan organik birikmalar barcha tirik organizmlar uchun asosiy hayot manbai hisoblanadi.

**FAR (fotosintetik aktiv radiatsiya)** – fotosintezning asosiy xossalariidan biri – quyosh radiatsiyasi. Ekinzor shunday tashkil qilinishi zarurki, unda imkon qadar ko'proq quyosh radiatsiyasini o'zlashtirishi kerak va bu quvvat xo'jalik uchun foydali bo'lib, hosil to'planishida (urug', don, tugunak, ildizmeva va h.k.) qatnashishi maqsadga muvofiqdir. Fotosintez jarayonida quyosh nurining faqat ko'rinadigan fotosintetik aktiv radiatsiyasi ishtirok etadi. Quyosh nurining uzunligi 380–720 nm (nanometr yoki millimikron). Bu quyosh nurining xlorofil

o'zlashtiradigan va fotosintezning quvvat manbai hisoblanadi. O'rtacha quyosh radiatsiyasining 56%ni FAR tashkil qiladi. Quyosh radiatsiyasining qizil nurlari fotosintez jarayonida qatnashmaydi. Har xil geografik mintaqalar uchun yer yuziga tushadigan FARning miqdori aniqlangan va maxsus ma'lumotnomalarda chop etilgan.

**FARning o'zlashtirish koeffitsiyenti** – o'simlikda shakllangan hosilning miqdoriga baho berganda (yuqori, o'rtacha, past) FARning o'zlashtirish koeffitsiyentiga qarab aniqlash mumkin. FARning o'zlashtirish koeffitsiyenti o'rtacha 2–3% ga to'g'ri kelganda yaxshi hosil olinadi.

**Fotosyomka** [*foto..* + *syomka*] – biror hudud yoki obyektning fotografiya yo'li bilan (ko'proq osmondan turib) suratga olish.

**Foyda** [*a.* – afzallik, imtiyoz; hayon, naf, bahra] – **1.** Biror kimsa yoki narsa uchun bo'ladigan naf, manfaat; ijobiy natija. *Yolg'on aytib, foyda ko'rsang, oxiri zarar toparsan.* (Maqol). *Siringizni mendan yashirmang, balkim foydam tegib qolar.* (K. Yashin, «Hamza»). *Navoiy el foydasi va davlat manfaati uchun bo'lgan bu vazifaga, o'z odati bo'yicha e'tiroz qilmadi.* (Oybek, «Navoiy»).

**2.** Qilingan xarj bilan olingan daromad o'rtasidagi farqdan tashkil topgan summa, mablag'; daromad. *Qamishkapaliklar Zokirxo'ja qassob to'g'risida gap borsa, «Har bir so'yilgan qo'ydanda ikki hissa foyda ko'rmasa, o'zini changakka osadi», deb ta'riflar edilar.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Menimcha, tijorat paydo bo'lgan zamondan boshlab bunday mo'l foydani hech kim ko'rgan emas.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

3. Qarzga berilgan puldan foydalanilganligi uchun qarzdordan kreditor oladigan qo'shimcha pul, haq; foiz. *Qarzimni uzganman, faqat foydasi qolgan.* (S. Abdulla, «Tanlangan asarlar»).

**Foydali** – 1. Moddiy foyda, naf keltiradigan. Foydali qazilmalar. Foydali mehnat. *Zaytun daraxtining turgan-bitgani kishi organizmi uchun foydali.* (Gazetadan). *Soz tuproqlar insonlarning yer yuzida birinchi bo'lib tanigan foydali qazilmasidir.* (Gazetadan).

2 ko'chma. Ma'naviy jihatdan biror manfaati, nafi tegadigan. *Foydali gap. Foydali fikr.*

**Foydali harorat yig'indisi** – har bir ekin turiga va naviga faqat o'zining genotipiga mos foydali harorat yig'indisi talab qilinadi. Foydali yoki faol harorat 10 °S dan yuqorisi hisoblanadi, chunki bu haroratda fiziologik jarayon o'simlikda normal o'tadi. Ekinlarga talab qilinadigan foydali harorat to'planishi aniqlansa, rivojlanish davrlarining boshlanishini aniq belgilab berish mumkin.

**Foydali hasharotlar** – qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalari miqdorini kamaytiradigan, shuningdek, odamga bevosita yoki bilvosita foyda keltiradigan hasharotlar. Foydali hasharotlar o'simlik gullarini changlatuvchi, oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xomashyo beruvchi, ekinlar zararkunandalari va boshqalar zarar beruvchi hayvonlar hamda begona o'tlarning tabiiy kushandalari, tabiiy jarayonlarda ishtirok etuvchilar kabi guruhlarga ajratiladi.

**Foydasiz** – 1. Biror moddiy foyda yoki daromad keltirmaydigan, befoyda. Foydasiz mehnat. Foydasiz harakat. *Oftob ovim bo'g'ilib, foydasiz tortishib o'tirishni tark qildi.* (A. Qodiriy, «O'tgan

kunlar»). *Foydasiz sel bo'lgandan, odamlarga obihayot ulashadigan sokin ariq bo'lgan yaxshi.* (Gazetadan).

2 ko'chma. Ma'naviy, ruhiy manfaati yo'q, nafi tegmaydigan. Foydasiz gap.

**Fruktoza** [lot. *fructus* – meva] – meva va asalda ko'p miqdorda uchraydigan shirin ta'mli, rangsiz kristall modda, meva shakari. *Asal glyukoza, fruktoza, saxaroza va mineral moddalardan tashkil topadi.* («Fan va turmush»).

**Ftor** [r. < yun. *rthoros* – o'lim; yemiruvchi] – Mendeleev davriy sistemasining VII guruhiga mansub kimyoviy element; galogenlar qatoriga kiruvchi o'tkir hidli, och sariq tusli, zaharli gaz. *Bir sutkada organizmga ovqat orqali I milligrammga yaqin ftor kiradi.* («O'zME»).

**Fufayka** [ital. *fofa* – issiq ko'ylak] – 1. Paxta solib qavilgan, oldi tugmalab qo'yiladigan kalta kiyim, kurtka. *Ochil esa yoqasi va yenglariga qo'ng'ir kleyonkadan jiyak qo'yib tikilgan eski paxtachilik fufaykada... edi.* (P. Qodirov, «Uchildiz»). *Suvonjon xuddi shu xarsangning tagida boshini fufaykaga burkab, g'ujanak bo'lib yotardi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2. Issiq tutuvchi trikotaj yoki jundan to'qilgan kalta ust ko'ylak. [Abdusamad:] *Issiq saqlang. Moskvadan jun fufayka olib keling...* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**Fumigatsiya** (lot. *fumigatio* – dudlash) – tutatish, tutun bilan qoplash, tutun bostirish (qishloq xo'jaligida ekin va mollarning kasalliklariga va zararkunandalariga qarshi kurash usullaridan biri), dudlash.

**Fumigantlar** (lot. *fumigantis* – tutaydigan, dudlaydigan) – ekinlar zararkunandalari va kasallik qo'zg'atuvchilarini dudlash usuli bilan yo'qotishda qo'llaniladigan kimyoviy moddalar. *Pestitsidlar guruhiga mansub. Fumigantlar suyuq,*

qattiq va gaz hoida ishlab chiqariladi. Uchuvchan, tez bug'lanadi, havoda oson tarqaladi, singib kirish, alanganish va boshqa xususiyatlarga ega.

**Fundamental** [lot. *fundamentalis* – asos (negiz) bo'luvchi, asos qilib olinuvchi] – 1. Asosiy, bosh, eng muhim. Fundamental kutubxona.

2. Chuqur tekshirilgan, asosli, teran. *Fundamental asar. Fundamental bilimlar. Fundamental tadqiqot.*

**Fungitsidlar** (lot. «*fungus*» – zamburug' va «*saedo*» – o'ldiraman) – o'simliklarning turli kasalliklariga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy moddalar, *pestitsidlarning* bir guruhi. Fungitsidlar o'simliklar kasalligi qo'zg'atuvchilarini yo'q qiladi, ularning rivojlanishini batamom yoki qisman to'xtatadi. Kimyoviy xususiyatlariga qarab fungitsidlar *anorganik* (bardo suyuqligi, ohak-oltingugurt qaynatmasi, tuyilgan va kolloid – suvga aralashadigan oltingugurt, mis kuporosi, temir kuporosi, misning xlor oksidi va b.) va *organik* (bayleton, baykaptan, vektra, impakt, topaz, folikur, topsin-M va b.) birikmalar, shuningdek, mikrobiologik himoya usulida qo'llaniladigan antibiotiklar (trixodermin, entobakterin, arenarin va b.) qatoriga kiradi.

**Gabitus** – odam, hayvon yoki o'simlikning tashqi ko'rinishi. Hayvonning tashqi ko'rinishiga baho berishda hayvon gavdasining bo'shliqda turish holati, semiz-oriqligi, tana tuzilishi (konstitutsiyasi) kabilar hisobga olinadi.

**Gadi qo'y** – suruv ichida juni uzunligi bilan ajralib turadigan qo'y turi. Bu xususiyat qo'yni ham katta, ham semiz qilib ko'rsatadi. *Aka, qo'yingiz gadi ekan-da,*

**Funksiya** [lot. *functio* – ijro etish, bajarish] – 1 *mat.* Erkin o'zgaruvchi miqdor (argument)ning o'zgarishiga qarab o'zgarib turadigan, bog'liq (tobe) o'zgaruvchan miqdor. O'tkir burchakning trigonometrik funksiyalari. Funksiyalar nazariyasi. *Bitta funksiyaning o'zi turli xil formulalar bilan ifodalanishi ham mumkin.* («O'zME»).

2 *biol.* Biror a'zo yoki organizmning ishlab turishi, faoliyati. Yurakning funksiyasi. *Odam o'z organizmining tuzilishi va funksiyalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi muhim.* («Odam anatomiyasi va fiziologiyasi»).

**Furgon** [f. *fourgon*] – 1 *esk.* Dumaloq soyabonli, ot qo'shiladigan arava.

2. Yuk va yo'lovchi tashish avtotransportining usti yopiq kuzovi. *Kechga yaqin idoraning qizil furgon «Moskvich»ida uyiga qaytdi.* (N. Aminov, «Yolg'onchi farishtalar»).

**Fyon** [nem. *Fohn* < lot. *favonis* – iliq g'arbiy shamol] – *geogr.* Tog'li o'lkalarda tog'lardan vodiylarga, yuqoridan pastga tomon esuvchi kuchli, iliq va quruq shamol. *Fyonning zararli ta'sirini kamaytirish uchun ihota daraxtzorlari barpo etiladi.* («O'zME»).

## G

*men bo'lsam buncha semiz, katta ekan, deb o'ylabman!* (Kulib)

**Galabiontlar** – ularga sho'r suvlarda yashovchi jonivorlar kiradi.

**Gambuziya** (*Gambusia affinis*) – ular tirik tug'adigan xashaki baliqlar bo'lib, uzunligi 5,5 sm.dan oshmaydi.

**Garbil** [r. *горбыль* – po'stli taxta] – po'stlog'i archilmagan xodaning chetidan chiqqan taxtalar. *Hovli ham jimjit, pastki*

*taxtalari olib tashlangan zinadan yuqoriga chiqdi, eshikka qoqib qo'yilgan garbil taxtalarni tortib ko'rdi, ammo kuchi yetmadi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Garma** [f. – ertapishar qovun navi; handalak] – qovunning bir turi. *Maydonlarda dushman bilan quvishgan, Qumzor yerga garma qovun ekishgan.* («Erali va Sherali»).

**Garmdori** [f. – issiq, qaynoq dori yoki issiqlikka, qaynoqlikka ega] – inson iste'mol qiladigan bir yillik sabzavot o'simligi va shu o'simlikning hosili. Garmdori ko'chati. *Qarshi shahridagi boloxonada Iqbol xolaning sarishta qo'llari bilan ipga tizilgan marjon-marjon garmdorilar osilib turibdi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Garmiyon** [f. – issiq, qaynoq] – ba'zi uzum turlaridan maxsus usulda tayyorlangan mayiz.

**Garmsar** – s.t. **Garmsel.**

**Garmsel I** [f. – issiq mamlakatlar, o'lkalar] – yozda bo'ladigan issiq yoqimsiz zararli shamol. *Bu yerda ko'pgina azamatlar yangi ko'chatlar o'tqazib, sahrodan keladigan qum va garmsel yo'lini to'sardilar.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Garmsel II** (toj. *Garm* – issiq, *sel* – oqim) – issiq quruq shamol. Garmsel Markaziy Osiyodagi mahalliy shamoldan biri, asosan Kopetdog' oldida, G'arbiy Tyanshanda va tog'oldi tekisliklarida esadi. Havo massasining atm. bosimi yuqori bo'lgan zonadan intensiv ko'chishi natijasida hosil bo'ladi.

**Gaur** – keng peshonali buqalar turkumiga mansub juft tuyoqli hayvon. Ular yirik bo'ladi: katta yoshli buqaning gavda uzunligi.

**Gavaz** [f. – katta sigir] – q. **govvos.**

**Gavda** – 1. Inson yoki hayvon tanasining umumiy ko'rinishi; jussa, qad. *Jo'raboy otaning uzun qotma gavdasi qorong'uda ko'zdan g'oyib bo'ldi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Qiz semiz gavdasiga yarashmagan epchillik bilan lip etib oldinga o'tdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

2. Tan, tana (vujud bilan jon qarama-qarshi qo'yilganda). *Yo'q, yurdi emas, oyoqlarini ixtiyoriga qarshi sudradi. Lekin joni qolib, quruq gavdasi ketar edi.* (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o.»).

3. Jonsiz tana, murda, jasad. *Darvozadan o'n odim narida boshi tanidan uzilgan uch kishining gavdasiga yo'liqдилar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

4. Biror narsaning borlig'i, tanasi, ko'rinishi. *Hovli o'rtasida chirik gavdasi o'raday o'pirilgan qari bahaybat tol.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Mudhish bo'lib ko'rinar, Tunda tog'lar gavdasi.* (G'ayratij).

**Gaz II** [fr. *gaz* yun. *chaos* – betartiblik] – 1. Zarralari o'zaro kuchsiz bog'langan, bo'shliqni bir tekis to'ldirib turadigan yengil modda. Zaharli gaz. Gaz balloni. *Kechagi borjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat.* (A. Qahhor, «San'aktor»).

2. Yoqish, yoritish, isitish yoki dvigatellarni harakatga keltirish uchun ishlatiladigan gazzimon modda; olov. *Kolxozchilarning uylariga gaz kiradi. Juda yaxshi!* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

3 q. **gazplita.** *U [Yodgor] oshxonaga kirib, choygumni gazga qo'ydi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Gazanda** [f. – chaquvchi; zaharli] – 1. Ari, ilon, chayon kabi chaqadigan jo-

nivorlarning umumiy nomi. *Gazandalar chaqib olsa, rayhon bargini ezib surkalgan.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**2 ko'chma.** Shunday narsalarga nisbatlangan odam; o'taketgan yovuz, qabih, yaramas. *Adashevning yolg'iz o'zi 50 dan ortiq gazandani qirib tashladi.* (A. Rahmat, «Ellik bir bahodir»). *Men nodon senday gazandaga ishonganim uchun yetarli jazolandim.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). *Azob ko'rib shirin jonim bu tанда, Otingning tizginin tortgin, gazanda!* («Murodxon»).

**Gazanda o't** – ayn. **chayono't.**

**Gazon** [fr. *gazon* – maysazor] – park, bog', binolarning oldi va sh. k. joylardagi o't ekilgan yer, maydon; maysazor. *Tramvay Alisher Navoiy nomli opera va balet teatri binosiga yaqinlashganda, Malohat sakrab tushdi-da, gulzorlarni, gazonlarni hatlab o'tib, teatr maydoniga chiqib oldi.* (I. Rahim, «Tinimsiz shahar»).

**Gazat** – shv. Ikki o'rkachli tuya.

**Gashir** – shv. Sabzi. *Mana, Shavkatga gashir to'g'ratamiz.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»)

**Geksaxloran** [yun. *hex* – olti + *lot. chlorum* < yun. *chloros* – ko'k sariq] – zararkunanda hasharotlarga qarshi ishlatiladigan kimyoviy modda. *Bu joylar deyarli uch yildan buyon geksaxloran hidini bilmaydi. Sezyapsizmi?* [dedi Shodmonqulov]. (S. Nurov, «Narvon»).

**Gektar** (fr. *hectare* < yun. *hectaton* – yuz + *lot. area* – maydon, sath) – metrik o'lchov tizimida maydon o'lchov birligi; yer sathini, ba'zi suv sathini o'lchashda qo'llaniladi, ga bilan belgilanadi. 1 ga har tomoni 100 m bo'lgan kvadrat yuzaga teng: 1 ga=10000 m<sup>2</sup>=10 ar=0,915 desya-

tina=1107641 kv. fut=12 tanob=0,73 botmon (8 pud).

**Gektarchi** – gektarlab yer olib dehqonchilik qiladigan shaxs. *9 gektar yer esa gektarchilarga naqd pulga sotilgan.* («Mushtum»).

**Gelmint** [yun. *helmins, helminthos* – chuvalchang, gijja] – odam va hayvonlar tanasida parazit holda hayot kechiruvchi gijja. *Gelmint ko'p hujayrali jonivordir.* («Fan va turmush»)

**Gelmintologiya** [gelmint + yun. *logos* – ta'limot] – gelmintlarni hamda tirik organizmlarda ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni o'rganadigan fan. *Immunitetga o'tadigan kasalliklarning manbalariga va gelmintologiyaga doir tadqiqotlar keng rivojlandi.* (Gazetadan).

**Gelmintoz** [yun. *helmins, helminthos* – chuvalchang, gijja] – odam, hayvon va o'simliklarda gelmintlar keltirib chiqaruvchi kasallik.

**Gem** [yun. *haima* – qon] – gemo-globinning unga qizil rang berib turadigan oqsilsiz qismi.

**Gematologiya** [gemato.. + yun. *logos* – ta'limot] – tib. Qon tarkibini va u bilan bog'liq kasalliklarni o'rganuvchi fan. Toshkentdagi *Gematologiya institutida leykoz – qon raki natijasida yuz beradigan biokimyoviy va immunologik o'zgarishlar o'rganilmoqda.* (Gazetadan).

**Gemoglobin** [gemo.. + *lot. globus* – shar, kurra] – qizil qon tanachalari tarkibida bo'ladigan va qonga qizil rang beradigan hamda butun organizmni kislorod bilan ta'min etib turadigan murakkab oqsil. *Tog' sharoitiga moslasha boshlagan qo'ylarning qonida o'zgarish bo'ladi: gemoglobin donachalari ko'payadi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Gen** [yun. *genos* – paydo bo‘lish, kelib chiqish] – irsiyatning organizm belgi va xususiyatlarini nasldan naslga o‘tkazish vazifasini bajaruvchi elementar birligi va moddiy asosi; irsiy belgi. *Bog‘ichlar tufayli gen informatsiyasini avloddan avlodga yetkazib beruvchi DNK molekularining aynan takrorlanishi sodir bo‘lib turaveradi.* («Fan va turmush»).

**Genealogik liniya** – mahsuldorligi va nasldorlik qiymatidan qat’i nazar, bita umumiy ajdoddan tarqalgan hayvonlar gruppasi.

**Genetika** (yun. *genesis* – kelib chiqish, paydo bo‘lish) – Biologiyaning bir bo‘limi barcha tirik organizmlarga xos bo‘lgan irsiyat va o‘zgaruvchanlikni hamda ularni boshqarish metodlarini o‘rganadigan fan. Genetikaning asosiy vazifasi irsiyatning moddiy asoslari hisoblanadigan xromosoma, genlar va nuklein kislotalar (DNK, RNK) tuzilishi hamda funksiyalarini tadqiq qilish orqali organizmlar belgi va xususiyatlarining rivojlanishi va kelgusi avlodlarga o‘tishini oshirib berishdan iborat.

**Genetik** – ot. Genetika mutaxassisi. *sft.* Genetikaga oid; biror narsaning kelib chiqishi va taraqqiyotini o‘rganishga oid. *Masalan, tugma so‘zining genetik ma‘nosi bog‘ichni anglatadi.* («O‘TA»).

**Genetik kasalliklar** – nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tuvchi kasalliklar; irsiy kasalliklar.

**Genetik himoya usuli** (*O‘simliklar himoyasi*) – kasallik qo‘zg‘atuvchi va begona o‘tlarga qarshi kurashda ikki organizm: parazit va xo‘jayin o‘simliklarning o‘zaro ta’siridan foydalanishga asoslangan usul.

**Generatsiya** – 1. Nasl, avlod, bo‘g‘in.

2. Tug‘ilish, yuzaga kelish, paydo bo‘lish; yuzaga keltirish. *Minerallarning yuzaga kelishi.*

**Gen nokaut** – molekulyar genetikaning uslubi bo‘lib, unda organizmdagi muayyan genlar olib tashlanadi yoki yaroqsiz holatga keltiriladi. Hozirda olimlar g‘o‘zaning kasallik va zararkunandalar, sho‘r va qurg‘oqchilikka bardoshli navlarini yaratishda bu uslubdan foydalanmoqda.

**Genom** – organizm hujayrasida joylashgan irsiy material majmui. Genom organizmni tuzish, bunyod etish va saqlash uchun zarur biologik axborotni o‘zida mujassam etadi.

**Genomika** – molekulyar genetikaning bir qismi bo‘lib, tirik organizmlarning genom va genlari, organizmlarning genlari majmui yoki ularning zarur qismini o‘rganadi.

**Geninjeneriya** – organizmlardan genlarni ajratish uchun rekombinat ribonuklein (RNK) va dezoksiribonuklein (DNK) kislotalari ishlab chiqarish texnologiyalari, usullar va metodlar jamlanmasi.

**Genetik modifikatsiyalashtirilgan** (*geninjenerli, transgenli*) **organizm (GMO)** – geninjeneriya usuli bilan olingan va (yoki) geninjeneriya materialiga ega, shuningdek genlar, ularning fragmentlari yoki genlar kombinatsiyasiga ega, tabiiy organizmlardan farqlanuvchi, nasliy genetik materialni uzatishga layoqatli va har qanday nohujayraviy, bir hujayrali yoki ko‘p hujayrali hosila, organizm, bir necha organizm.

**Genofond, genetik fond** [yun. *genos* – paydo bo‘lish + lot. *fundus* – asos] – (kam sonli) muayyan zotga mansub va yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi kam uchraydigan hayvonlar guruhi.

**Gen** [*yun. genos* – paydo bo‘lish, kelib chiqish] – irsiyatning organizm belgi va xususiyatlarini nasldan naslga o‘tkazish vazifasini bajaruvchi elementar birligi va moddiy asosi; irsiy belgi. *Bog‘ichlar tufayli gen informatsiyasini avloddan avlodga yetkazib beruvchi DNK molekulalarining aynan takrorlanishi sodir bo‘lib turaveradi.* («Fan va turmush»).

**Genealogik liniya** – mahsuldorligi va nasldorlik qiymatidan qat’i nazar, bita umumiy ajdoddan tarqalgan hayvonlar gruppasi.

**Genetika** (*yun. genesis* – kelib chiqish, paydo bo‘lish) – Biologiyaning bir bo‘limi barcha tirik organizmlarga xos bo‘lgan irsiyat va o‘zgaruvchanlikni hamda ularni boshqarish metodlarini o‘rganadigan fan. Genetikaning asosiy vazifasi irsiyatning moddiy asoslari hisoblanadigan xromosoma, genlar va nuklein kislotalar (DNK, RNK) tuzilishi hamda funksiyalarini tadqiq qilish orqali organizmlar belgi va xususiyatlarining rivojlanishi va kelgusi avlodlarga o‘tishini oshirib berishdan iborat.

**Genetik** – *ot.* Genetika mutaxassisi. *sft.* Genetikaga oid; biror narsaning kelib chiqishi va taraqqiyotini o‘rganishga oid. *Masalan, tugma so‘zining genetik ma‘nosi bog‘ichni anglatadi.* («O‘TA»).

**Genetik kasalliklar** – nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tuvchi kasalliklar; irsiy kasalliklar.

**Genetik himoya usuli** (*O‘simliklar himoyasi*) – kasallik qo‘zg‘atuvchi va begona o‘tlarga qarshi kurashda ikki organizm: parazit va xo‘jayin o‘simliklarning o‘zaro ta‘siridan foydalanishga asoslangan usul.

**Generatsiya** – 1. Nasl, avlod, bo‘g‘in.

2. Tug‘ilish, yuzaga kelish, paydo bo‘lish; yuzaga keltirish. *Minerallarning yuzaga kelishi.*

**Gen nokaut** – molekulyar genetikaning uslubi bo‘lib, unda organizmdagi muayyan genlar olib tashlanadi yoki yaroqsiz holatga keltiriladi. Hozirda olimlar g‘o‘zaning kasallik va zararkunandalar, sho‘r va qurg‘oqchilikka bardoshli navlarini yaratishda bu uslubdan foydalanmoqda.

**Genom** – organizm hujayrasida joylashgan irsiy material majmui. Genom organizmni tuzish, bunyod etish va saqlash uchun zarur biologik axborotni o‘zida mujassam etadi.

**Genomika** – molekulyar genetikaning bir qismi bo‘lib, tirik organizmlarning genom va genlari, organizmlarning genlari majmui yoki ularning zarur qismini o‘rganadi.

**Geninjeneriya** – organizmlardan genlarni ajratish uchun rekombinat ribonuklein (RNK) va dezoksiribonuklein (DNK) kislotalari ishlab chiqarish texnologiyalari, usullar va metodlar jamlanmasi.

**Genetik modifikatsiyalashtirilgan (geninjenerli, transgenli) organizm (GMO)** – geninjeneriya usuli bilan olingan va (yoki) geninjeneriya materialiga ega, shuningdek genlar, ularning fragmentlari yoki genlar kombinatsiyasiga ega, tabiiy organizmlardan farqlanuvchi, nasliy genetik materialni uzatishga layoqatli va har qanday nohujayraviy, bir hujayrali yoki ko‘p hujayrali hosila, organizm, bir necha organizm.

**Genofond, genetik fond** [*yun. genos* – paydo bo‘lish + *lot. fundus* – asos] – (kam sonli) muayyan zotga mansub va yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi kam uchraydigan hayvonlar guruhi.



**Genotip** – organizmning irsiy omillarining yig'indisi bo'lib, genotip organizmni tashqi muhitga reaksiya me'yorini belgilaydi.

**Geo** [yun. *ge* – Yer] – o'zlashma baynalminal so'zlar tarkibida kelib, Yerga aloqadorlik ma'nosini ifodalaydi, mas., geografiya, geologiya.

**Geobotanika** [geo.. + botanika] – o'simliklar turkumlarining Yer yuzida muhit bilan bog'liq holda joylashishini va taqsimlanish qonuniyatlarini o'rganadigan fan. *Geobotanika nomi bilan yuritiluvchi soha yer qa'rining sir-asroridan kishilarni voqif etib turadi.* (Gazetadan).

**Geodeziya** [geo.. + yun. *daio* – bo'lanman, ajrataman] – Yerning shakl va o'lchamlarini aniqlash, Yer yuzasini plan va xaritalarda aks ettirish to'g'risidagi, turli xil muhandislik-texnik ishlarni amalga oshirishdagi o'lchamlar haqidagi fan. *Rayon arxitektori qo'lida mashina ham, geodeziya asboblari ham yo'q.* (Gazetadan).

**Geografiya** [geo.. + yun. *grapho* – yozaman] – 1. Yer kurrasi va uning sathini, iqlimini, Yer yuzida aholi va moddiy resurslarning joylanishini, turli hudud va mamlakatlarda ishlab chiqarish sharoiti va ishlab chiqarishning taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganuvchi tabiiy va ijtimoiy fanlar majmui. Tabiiy geografiya. Iqtisodiy geografiya. Geografiya ta'limi. – *Nega o'qimaydi, o'qiydi, – dedi geografiya o'qituvchisi Dilfuzaga qaragancha bosh silkib.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Muallimlari boshchiligida geografiyadan ekskursiyaga kelishgan edi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

2. Biror narsaning yer yuzida yoki uning ma'lum hududida tarqalish, taq-

simlanish doirasi. *Hayvonot geografiyasi. Tuproq geografiyasi.*

**Geokimyo** [geo.. + kimyo] – Yerning kimyoviy tarkibini, unda kimyoviy elementlarning tarqalishi, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

**Geotermal suvlar** – yer osti qaynoq suvlar to'plami.

**Gerbariy** [lot. *herbarium* – o't-o'lan, o'simliklar haqidagi kitob] – ma'lum (ilmiy, ta'limiy) maqsadlar uchun o'ziga xos usullarda yig'ib olib quritilgan o'simliklar majmui. Dorivor o'simliklar gerbariysi. *Bu o'ljalarni maktab biologiya kabinetiga to'plab, bolalar bilan gerbariyalar yasardi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Gerbitsidlar** [lot. *herba* – o't, o'simlik va *caedo* – o'ldiraman] – q.x. Begona o'tlarni yo'qotish uchun qo'llanadigan kimyoviy moddalar. Qishloq xo'jaligida dala, bog' va tokzorlar, o'tloqlardagi, yo'l yoqalaridagi begona o'tlarga qarshi qo'llaniladi. *Chigitni yerga ekish bilan bir paytda o'g'it, gerbitsid ham solish lozim.* (Gazetadan). *O'zbekistonda noorganik mineral o'g'itlar, gerbitsidlar va pestitsidlarning qo'llanishi eng yuqori normalardan ham o'nlab baravar ortiq edi.* (Gazetadan).

**Gereford qoramol zoti** – go'sht uchun boqiladigan zot. XVIII asrning 2-yarmida Angliyaning Gereford (Xerefordshir) grafligida mahalliy zotlardan tanlash va saralash yo'li bilan yetishtirilgan. Rangi to'q qizil, boshi oq, bo'ynining usti, ko'krak osti, qornining pastki qismi, oyog'i va dumida oq belgilari bor, gavda tuzilishi go'shtdor mollar tuzilishiga xos. Yangi tug'ilgan buzoqlarining vazni 30–33 kg, 18 oyligida 400–450 kg. Sigirlarining vazni 550–600 kg, ayrimlariniki 750

kg, buqalari 850–1000 kg, ayrimlari 1100 kg gacha. Boʻrdoqiga boqilganda 65–68% goʻsht-yogʻ qiladi. Goʻshti yumshoq va mazali. Oʻzbekistonga gereford qoramol zoti buqalari 1963-yilda keltirilgan va «Zomin-1» naslchilik xoʻjaligida mahalliy zotlarni yaxshilashda foydalanilgan, chatishtirish natijasida mahsuldorligi yuqori duragaylar olingan.

**Germetik** [yun. *Hermes* – idishlarni zichlab berkitishni oʻylab topgan misrlik olim nomidan] – zich berkitiladigan, havo yoki suyuqlikni mutlaqo oʻtkazmaydigan. Germetik idish. *Bordi-yu, u yerda germetik eshikning biron yeri darz ketib, ichkarida siqilgan havo otilib chiqayotgan boʻlsa-chi!* (A. Muxtor, «Tugʻilish»).

**Geterogoniya** (getoro... va yun. *gone, goneia* – tugʻilish, avlod qoldirish) – hayvonlarda nasl almashinish shakllaridan biri. Geterogoniya faqat jinsiy naslning bir-biri bilan almashuvidan iborat boʻlib, jinsiy va jinssiz nasl almashinuvi – metagenozdan farq qiladi.

**Geterozis** [yunoncha «heteroiosis» – «oʻzgarish», «farqlanish» soʻzidan] – duragay quvvatining yuzaga chiqishi, yaʼni duragaylar koʻrsatgichining ota-onaning oʻrtacha koʻrsatkichlari yoki ota-onadan birining yaxshi koʻrsatkichlariga nisbatan ustun kelishi hodisasi, birinchi avlod duragayining ota-ona organizmlarga nisbatan tez oʻsishi, shaklining yirikligi, yashovchanlik hamda hosildorligining ancha yuqori boʻlishidir.

**Geterozis urugʻlar** – chatishtirib olingan birinchi boʻgʻin duragay urugʻlar (*q. Geterozis*).

**Gibrid** [lot. *hibrida* – qon qoʻshilishi; duragay, chatishma] – chatishtirish, duragaylash natijasida hosil qilingan yangi oʻsimlik yoki hayvon; duragay. Gibrid-

urugʻ. Gibridqoʻy. *Umidning gullarga mahliyo boʻlib turganini koʻrgan Salimxonning ukasi gap qotdi: – Mana bu nemis gibridi, «Heyne» deb ataladi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Gibridizatsiya** – yangi turlar yetishtirish maqsadida har xil turlarga mansub organizmlarni bir-biri bilan chatishtirish, gibridlash, duragaylash; chatishtirish; duragaylanish, chatishish.

**Gibridlamoq** – duragaylash, chatishtirish yoʻli bilan yangi nav yetishtirmoq.

**Gibridlash** – oʻsimlik yoki hayvonlarning yangi nav-jinslarini yetishtirish maqsadida ularning turli nav yoki jinslarini oʻzaro chatishtirish. *Parrandachilikda ham... naslchilik ishiga, gibridlashga eʼtibor berish lozim.* (Gazetadan).

**Gidravlika** (yun. *hydor* – suv, *aulos* – naycha) – suyuqliklarning muvozanati va harakati qonunlarini oʻrganish va shu qonunlardan foydalanib, gidrotexnikaning amaliy masalalarini hal qilish bilan shugʻullanadigan fan. Gidrotexnika inshootlari, gidravlik mashinalar, yerni quritish va sugʻorish, gidroenergetika, gidromexanizatsiya, suv bilan taʼminlash va kanalizatsiya kabi muhandislik masalalari bilan shugʻullanadi (ilgari gidravlika-ning asosiy vazifasi suvning quvurlardagi harakatini oʻrganish boʻlgan).

1. Suyuqlik bosimi taʼsirida ishlaydigan. Gidravlik press. *U [Shodiyev] gidravlik usulda boshqariladigan yangi mola ixtiro qildi.* (Gazetadan).

2. Gidravlikaga oid, aloqador. Gidravlik qonuniyat.

**Gidro** [yun. *hydor* – suv, suyuqlik, namlik] – baynalminal oʻzlashma soʻzlar tarkibida kelib, suvga, suv havzalariga, namlik va vodorodga aloqadorlikni bildiradi, mas.: gidrologiya, gidrobiologiya, gidridlar.

**Gidrobiologiya** [gidro... va biologiya) – biologiyaning bir bo‘limi, suvda yashaydigan organizmlar va ularning yashash sharoiti bilan o‘zaro munosabatlarini hamda suv havzalarining biologik mahsuldorligini o‘rganadi.

**Gidrobiontlar** – suvda yashovchi hamma jonivorlar kiradi.

**Gidroenergetika** [gidro.. + energetika] – energetikaning gidroelektrstansiyalarda suv energiyasidan asosan elektr energiyasi hosil qilishda foydalanish bilan bog‘liq bo‘limi. *Respublikada gidroenergetika resurslarining juda katta manbalari ham mavjud.* (Gazetadan).

**Gidrogeologiya** [gidro.. + geologiya] – geologiyaning yer osti suvlari-ning paydo bo‘lishi, oqishi va boshqa xususiyatlarini o‘rganadigan bo‘limi.

**Gidrograf** – o‘rtacha kunlik suv sarflarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ifodalaydigan grafik.

**Gidroinshoot** [gidro.. + inshoot] – *syn.* gidrotexnik inshoot (*q.* **gidrotexnik**). *Gigant kanalning murakkab sharoitlarda qurilganligi gidroinshoot quruvchilarining ommaviy qahramonligidan ham dalolat beradi.* (Gazetadan).

**Gidrokimyo** [gidro.. + kimyo]– gidrosferani tashkil qiluvchi suvlarning kimyoviy tarkibini hamda ularning turli jaryonlar ta’sirida o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan.

**Gidroliz** [gidro.. + *yun.* *lysis* – ajralish, parchalanish] – *kim.* Murakkab moddalarning suv ta’siri bilan tarkibiy qismlarga ajralib, yangi moddalar hosil bo‘lishi. *Gidroliz sanoati. Ozuqa achitqilari qimmatli oqsil yem hisoblanadi. Bunday achitqilarni gidroliz sanoati qamish, g o‘zapoya va poxoldan tayyorlab berishi mumkin.* (Gazetadan).

**Gidrologiya** [gidro.. + *yun.* *logos* – ta’limot]– Yer yuzidagi suvlarni, ularning bug‘lanishini, qayta suvga aylanishini, singishini va boshqa xususiyatlarini o‘rganadigan fan.

**Gidrologik tavsiflarning ta’minlanganligi** – gidrologik tavsif miqdorining qatordagi boshqa har qanday miqdorlarga nisbatan oshib ketish ehtimoli.

**Gidromelioratsiya** [gidro.. + melioratsiya] – Yerlardan qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun ularni quritish yoki sug‘orish orqali yaxshilashga qaratilgan turli chora-tadbirlar tizimi.

**Gidrometeorologiya** [gidro.. + meteorologiya] – Yerning atmosferaviy va gidrologik shart-sharoitlariga aloqador jaryonlarni o‘rganadigan fan. *Xalq xo‘jaligi gidrometeorologiyaga ishonadi. Chunki bu fan har qanday balo-qazoni oldindan aytib beradi.* (I. Rahim, «Tinimsiz shahar»).

**Gidrometriya** – gidrologiyaning o‘lchov (amaliy) qismi bo‘lib, suv obyektlarining gidrologik tartibi elementlari (suv sathi, suv sarfi, suvning tezligi, suv yuzasi nishabligi)ni o‘lchash, kuzatish uslublarini ishlab chiqish va ularni bevosita amalga oshirish ishlari bilan shug‘ullanadi.

**Gidrometrik vertushka** – suv oqimining tezligini o‘lchovchi asbob.

**Gidromexanizatsiya** [gidro.. + mexanizatsiya] – Yer qazish va kon ishlari-  
ni suv oqimi energiyasi hisobiga bajarish usuli.

**Gidromodul** (*yun.* *hydor* – suv, *lot.* *modulus* – o‘lchov) – muayyan vaqt davomida 1 ga ekinni sug‘orishga sarflanadigan o‘rtacha suv miqdori. Gidromodul 1 ga yerga l/sek. hisobida ifodalanadi. Sug‘oriladigan dala gidromodul – bevosita sug‘oriladigan paykalga berilgan suvning o‘rtacha miqdorini bildiradi.

**Gidromodul bo'yicha rayonlashtirish** – sug'oriladigan yerlar maydonini qishloq xo'jalik ekinlarini suvtalabligi, mexanik tarkibi, sizot suvlari sathi chuqurligiga qarab mintaqalarga ajratish. Gidromodul bo'yicha rayonlashtirish sug'orish kanallarining hisob-kitoblariga va suvdan foydalanishni rejalashtirish va boshqarish uchun zarur.

**Gidroponika** – o'simliklarni tuproqsiz, sun'iy muhitda o'stirish usuli. Ma'lumki, o'simliklar mineral oziq moddalarni tuproqdan ildiz tizimi orqali oladi. Tayyor mineral tuzlar eritmasini to'g'ridan to'g'ri ildiz tizimiga yuborish mumkin emasmi? Yopiq yer (issiqxona) sharoitida o'simliklar uchun zarur bo'lgan tuproq-zamin qatlamini yaratish uchun juda ko'p mehnat va mablag', moddiy vositalar sarf bo'ladi. Ana shu mehnat va mablag' sarfini kamaytirish uchun ko'pgina tajriba va tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, sabzavot ekinlari ildiziga vaqti-vaqti bilan mineral o'g'itlar eritmasi yuborib turilganda, tuproq turli xil substratlar: shag'al, qum, shuningdek, g'ovak materiallar – keramzit, vermikulitlar bilan almashtirilgan sharoitlarda ham yaxshi rivojlanar ekan. O'simliklarni shunday usulda o'stirish «gidroponika» nomini olgan (*yunoncha «gidro»* – «suv» va «*ponos»* – «mehnat», «ish» so'zlaridan). Sabzavot ekinlarini sun'iy sharoitda o'stirish uchun gidroponikaning bir necha usulidan foydalaniladi.

**Gidrosfera** [gidro.. + sfera] – Yer yuzidagi barcha suvlar (okean, dengiz, ko'l, daryo va b.) majmui.

**Gidrotexnika** [gidro.. + texnika] – texnikaning suv resurslaridan xalq xo'jaligida foydalanish va turli xil suv ofatlariga qarshi kurashish maqsadida quriladigan

gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurish ishlari bilan shug'ullanadigan sohasi. *Chorvoq suv ombori bizda katta taassurot qoldirdi. Bu joyda to'plangan suv munosib boylikdir. Biz bunday inshootlar haqida, O'zbekistonda yaratilgan gidrotexnika inshootlari haqida, sug'oriladigan hosildor yerlar haqida orzu qilayapmiz.* (Gazetadan).

**Gidrotexnika inshootlari** – suv resurslaridan foydalanish yoki suvning yemirish ta'siriga qarshi kurash uchun quriladigan inshootlar.

**Gidrotexnik melioratsiya** – tuproqning noqulay suv-havo va tuz rejimi (qurg'oqchilik, ortiqcha namlik va b.) ni tubdan yaxshilashga mo'ljallangan injenerlik-texnika tadbirlari majmui. Markaziy Osiyoning sug'oriladigan zonasida gidrotexnik melioratsiyaning quyidagi turlari qo'llaniladi: sug'orish, yaylovlarni suv bilan ta'minlash, yerlarning zaxini qochirish, ortiqcha yer osti suvlarini chiqarib yuborish, tuproqni sho'rsizlantirish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash, daryo oqimini tartibga solish va b. Gidrotexnik melioratsiya qishloq xo'jalik melioratsiyasining boshqa turlari bilan birga, tuproqning tuz va suv rejimini boshqarishga imkon beradi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlaydi, suv va yer resurslaridan unumli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

**Gigiyena** [*yun. hygieinos* – shifobaxsh, sog'lomlashtiruvchi] – tibbiyotning inson organizmiga tashqi muhitning turli-tuman omillari ta'sirini o'rganadigan va shu asosda kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash choralari va qoidalarini ishlab chiqadigan bo'limi. Gigiyena qoidalari. *Bir kuni rayondan doktor kelib, «Kundalik turmushda gigiyena»*

*mavzusida leksiya o'qidi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Gigro** [yun. *hygros* – nam, ho'l] – baynalminal o'zlashma so'zlar tarkibida kelib, namlik, namgarchilikka aloqadorlikni bildiradi, mas., gigrometr.

**Gigrofitlar** – namlikka to'la to'yingan va sernam muhitda yashaydigan o'simliklar guruhi. Bu guruh o'simliklariga qamish, sholi, lux, qiyoq va b. kiradi. Bu ekologik guruh o'simliklari ham ortiqcha namlik sharoitiga moslashish belgilari bilan xarakterlanadi. Bu o'simliklar to'la suv bilan ta'minlangan sharoitda yashaganliklari tufayli, ularning tanasida transpiratsiya jarayoniga qarshilik qiluvchi belgilar juda kam yoki bo'lmaydi. Hujayra epidermisi juda yupqa va yupqa kutikula qavat bo'ladi. Og'izchalar bargning ustida joylashgan va ko'proq muddatda ochiq bo'ladi. Hujayralararo bo'shliqlarning yirik bo'lishi suv bug'lanuvchi sathning keng bo'lishini ta'minlaydi.

**Gigrometr** [gigro.. + yun. *metro* – o'lchayman] – havo namligini o'lchaydigan asbob.

**Gigroskopik** [gigro.. + yun. *skopeo* – ko'raman] – namni tez o'ziga tortib oladigan, namga o'ch. Gigroskopik paxta. Undan gigroskopik namning kamayishi an'yanor mahsulotning mexanik mustahkamligi ortishiga imkon beradi. («Fan va Tashmush»).

**Gidrouzel** [gidro.. + r. *uzel* – tutashish joyi] – joylashishi va ishg'ollikda ishlashiga ko'ra birlashgan bir qancha gigrotexnik inshootlar (kanal, gidrozon, gidrostansiya va sh.k.) majmui. Oshangaron daryosiga qurilgan gidrouzelning esa suv o'tkazish normasi sekundiga eng ko'pi bilan 750 kubometr. (Gazetadan).

**Gijjalar** – odam, hayvon va boshqa tirik organizmlarda yashab, kasallik paydo qiladigan parazitlarning umumiy nomi; gelmintlar. *Ichakda o'rnashib oluvchi pakana gijja tuxumi ham bolalar yashovchi muhitda ko'p uchraydi.* («Fan va turmush»).

**Gilangul** [gilam + gul] – Peru va Braziliyada o'sadigan gulning bir turi.

**Gilmoya** – ayn. gilvata. *Gilmoya tabiatda har xil: oq, kulrang, qo'ng'ir va boshqa ranglarda uchraydi.* (M. Zokirov, «Bebaho xazinalar»).

**Gilos** [f. – gilos] – atirgullilar oilasiga mansub ko'p yillik mevali daraxt va uning mevasi. Sariq gilos. Qizil gilos. *Nurining hovlisidagi giloslar gullagan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Giloszor** – nuqul gilos ekilgan, gilos bilan ishg'ol etilgan yer, maydon. *Hovlining uch tomoni bir uy, bir ayvon qilib qatorasiga solingan yangi binolar bilan o'ralgan, bir tomoni giloszor bog'cha.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Gilvata** [f. o'tga chidamli loy] – geol. Yumshoq, kulrang tog' jinsi, gilmoya (xalq tabobatida tomoq og'rig'i, og'iz elikishi kabi kasalliklarga qarshi dori sifatida ishlatilgan). *Mayda savdogarlar saqich, gilvata sotishardi.* (I. Rahim, «Ixtilos»). *Haligina quyosh yog'dusida olmossimon yaltirab turgan tog' yonbag'irlari tezda gilvata tusiga kirdi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Gipokotil** (gipo... va yun. *kotyle* – o'yi) – o'simlik poyasining ildiz bo'ynidan to urug'palla o'rmashgan joygacha bo'lgan qismi.

**Gipotermiya** [gipo.. +yun. *therme* – issiqlik; isitma] – tib. Odam va issiq qonli hayvonlarda issiqlikning odatdagidan, me'yorida past bo'lishi.

**Gippologiya** [yun. *hippos* – ot + *logos* – tushuncha, ta'limot] – ot, uning tashqi ko'rinishi, anatomiya va fiziologiyasi, uni ko'paytirish va oziqlantirish, undan foydalanish kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi fan; otshunoslik.

**Gipsli tuproqlar** – tarkibida va gorizontalida gips bo'lgan tuproqlar. Gipsli tuproqlar quruq dasht, chala cho'l va cho'l tuproqlarida, shuningdek, sho'rlangan tuproqlarda 10 sm gacha chuqurlikda (gips qatqaloqli tuproqlar) va 50 sm dan chuqurroqda (gipsli tuproqlar) uchraydi. Gips miqdori 20% dan oshsa, ekinlarning so'lish koeffitsiyenti ham ortadi. Oksidlanish-qaytarilish jarayonida gips madaniy o'simliklar uchun zaharli oltingugurt (II) oksidi va vodorod sulfid hosil qiladi. Tarkibida yoppasiga gips gorizontali bo'lgan tuproqlar sug'orilganda o'zanlar cho'kishi va shakli o'zgarishi mumkin. Shuning uchun bunday tuproqlar o'zlashtirilganda gipsli gorizontal chuqurligi va qalinligini hisobga olish zarur.

**Girdob** [f. – suv uyurmasi, kamar, o'pqon] – ariq va daryo suvlarining aylanib-buralib, uyurma hosil qilib oqayotgan yeri. *Shoshqin daryo to'lqini o'z girdobiga tortib ketmoqchi bo'lsa ham, daryo tilini yaxshi bilgan tajribali sapyor eshkakni ikki qo'lida mahkam ushlagan holda... suzib borardi.* (A. Rahmat, «Ellik bir bahodir»). *Dnepr girdobi paromni har qancha komiga tortsa ham, g'araq qila olmadi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Gistokimyo, gistologik kimyo** – gistologiyaning bir bo'limi; o'simlik va hayvon to'qimalarining kimyoviy xossalarni o'rganadigan fan. U organizm va to'qimalarda kimyoviy moddalar (oqsillar, fermentlar, nuklein kislotalar, uglevodlar, lipidlar) ning olgan o'rnini va biokimyoviy jarayonlarni tekshiradi.

**Gistologiya** [yun. *histos* – to'qima + *logos* – tushuncha, ta'limot] – odam va hayvonlar organizmi to'qimalarini o'rganadigan fan. Gistologiya terminini birinchi bo'lib nemis olimi K. Mayer taklif etgan. Gistologiya to'qima va a'zolarining evolutsiyasi, rivojlanishi (gistogenez), mikroskopik va o'ta nozik tuzilishi, kimyoviy tarkibi, vazifasi (gistofiziologiya), shuningdek, ularning tuzilishi bilan faoliyati o'rtasidagi bog'lanishni o'rganadi.

**Giyo (h)** [f. – nabotot, o't, o'simlik] – 1 ayn. **o't II**. Dorivor giyohlar. *Tong yeli ovloq qir giyohlarining sal taxir, o'tkir hidlarini ufurardi.* (O. Yoqubov, «Ko'hna dunyo»). *Xudo yashar har bir giyohda, Har daraxtda bordir diyonat.* (Sh. Rahmon, «Yurak qirralari»).

2. Ba'zi o'simliklarning shirasidan tayyorlanadigan moddalar.

**Glikofitlar** – sho'rlikka chidamsiz o'simliklar. Ularga ayrim yovvoyi va ko'pchilik qishloq xo'jalik ekinlari kiradi. Madaniy ekinlar o'rtasida sho'rlikka chinakam chidamlilar bo'lmaydi. Madaniy o'simliklar sho'rlikka chidamsiz bo'lib, faqat ularning turlari va navlari o'rtasida nisbiy chidamlilik xususiyatlari mavjud.

**Glikoglofitlar** – o'rtacha va kam sho'rlikka ega bo'lgan tuproqlarda yashashga moslashgan, ularning plazmolemma qavati tuzni o'tkazmaydi, natijada o'simlik tanasida tuz to'planmaydi. Ular hujayrasida yuqori osmotik bosimni fotosintez mahsulotlari (uglevodlar) hisobiga hosil qiluvchi va kuchli so'rish qobiliyati-ga asosan sho'r tuproqlar eritmasidan suvni o'zlashtiradi. Glikoglofitlarga shuvoq (*Artemisia maritima*) va har xil koxialar (*Kochia*) misol bo'ladi.

**Glikoliz** – uglevodlarning hayvon to'qimalarida sut kislotasi hosil qilib, anaerob fermentativ parchalanish jarayoni.

**Glyukoza** [*yun. glykys* – shirin] – ho‘l mevalarda bo‘ladigan, tibbiyotda va qandolatchilikda keng qo‘llanadigan shirin modda, uglevod; uzum shakari. *Asal glyukoza, fruktoza, saxaroza va mineral moddalardan tashkil topadi.* («Fan va turmush»).

**Golland qoramol zoti** – suti uchun boqiladigan zot. Gollandiyada mahalliy qoramol zotlarini uzoq davr yaxshilash yo‘li bilan yetishtirilgan. Golland qoramol zotining tana tuzilishi mustahkam, gavdasi katta, tusi ko‘pincha qora-ola. Ushbu zotni faqat tarixiy ma‘lumot uchun keltirish mumkin, chunki zot o‘zining vatanida ham gollandlashtirilgan. Lekin ushbu zot dunyodagi sut yo‘nalishidagi zotlarni takomillashtirishda muhim iz qoldirgan. Zot bundan 300 yil oldin Gollandiyada sof holda urchitish usulida yaratilgan. Sigirlarining vazni 500–600 kg, buqalariniki 700–900 kg. Buzoqlari 38–42 kg tug‘iladi, 6 oylik bo‘lganda 160–170 kg keladi. Sigirlari o‘rtacha 3800–4200 l, sof zotlilari 4500–5500 l gacha sut beradi, yog‘dorligi 4–4,2%.

**Golshtin zoti** – ushbu qoramol zoti sut yo‘nalishidagi qoramollar ichida birinchi o‘rinda turadi. Golshtin zotining vatani Gollandiya hisoblanadi. Keyinchalik u Amerika materigida o‘ziga xos sifatlarga ega bo‘ldi. Golland qoramolini rivojlantirish bo‘yicha birinchi pioner Belmont shahriklik (AQSH) U.U.Cheneri hisoblanadi. 1871-yil aynan Shimoliy Amerikada Golshtin-friz zotli qoramol seleksionerlari jamiyati tashkil qilindi, ushbu jamiyatning prezidenti etib Uinsrop Cheneri tayinlandi. 1872-yilda qora-ola golshtin Amerikaning 12 shtatida boqilardi, xuddi shu yilda golshtin-friz zotining birinchi masl kitobi chop etildi. 1983-yildan ushbu qora-ola zot Amerika va Kanadada Golshtin (*ang. Holstein*) nomi bilan atala

boshladi. Sut mahsuldorligi va sut tarkibidagi yog‘ ko‘rsatkichlari, ma‘lum bir hududning iqlimi va ozuqalariga moslanishi bilan bog‘liq. Misol uchun, Isroilda ularni parvarishlashda yangi texnologiyalar qo‘llanildi va ular yiliga o‘rtacha 12 ming litr sut miqdori ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi. Sutning yog‘ tarkibi odatda 3–3,1% dan oshmaydi va protein miqdori darajasi – 3% ga teng. Shimoliy Amerikada Golshtin sigirlarining sut mahsuldorligi biroz past ko‘rsatkichga – yiliga 9–10 ming l sut sog‘ib olinadi, lekin yog‘liligi 3,6% va oqsil miqdori 3,2% ga teng. O‘zbekiston fermerlarida ushbu zotning o‘rtacha sut hosildorligi 6500–7500 l, sut yog‘liligi 3,6–3,9% ni, sutda oqsil miqdori o‘rtacha 3% atrofida.

**Gommoz I** (*frans. gomma* – yelim), *yelim oqishi* – asosan daraxtlar (danakmevalilar, sitruslar, tut daraxti va b.), shuningdek, o‘tsimon o‘simliklar (g‘o‘za, kunjut va b.)da uchraydigan bakterial kasallik. Gommoz cho‘ziluvchan, qahra-bo-sariq yoki qo‘ng‘ir rangli shilimshiq modda ajralishi bilan kechadi. O‘shish uchun noqulay sharoitlar, sovuq urishi, o‘simlikning tashqi ta‘sirlar oqibatida jarohat olishi (po‘stlog‘ining shilini ketishi), hasharotlarning zararlashi va b. sabablar tufayli paydo bo‘ladi.

**Gommoz II** [*lot. gummi* < *yun. kommidion* – daraxt shirasi] – daraxt va bir qator o‘simliklarda uchraydigan, cho‘ziluvchan, oq yoki to‘q sariq rangli yopishqoq modda ajralishi bilan kechadigan bakterial kasallik. *G‘o‘zada gommoz kasalligi asosan chigitni dorilamaslik orqasida paydo bo‘ladi.* (Gazetadan).

**Gomogen** [*yun. homogenes* – bir jinsli] – tarkibi jihatdan bir xil, bir jinsli.

**Gomogen juftlash** – konstitutsiyasi, zoti va mahsuldorligi jihatidan o‘xshash

hayvonlarni juftlash, hayvonlardagi xo'jalik uchun foydali ko'rsatkichlarni saqlash va uni yanada mustahkamlash maqsadida shu usuldan foydalaniladi.

**Horizantal drenaj** – zax qochiruvchi drenaj turi; ortiqcha tuproq-grunt suvlarini yig'ish va ularni zaxi qochiriladigan hududdan tashqariga chiqarib yuborish uchun qurilgan ochiq kanal (zovur)lar yoki uzluksiz drenaj (suvoqar) ko'rinishida yerga yotqizilgan quvurlar tizimidan iborat. Asosiy drenajlar (tartibga soluvchi qism), suv qabulqilgichlar gorizantal drenajning asosiy qismlaridir. Hidrostatik bosim farqi ta'sirida suvning drenalarga sizilib chiqishi hisobiga yer osti suvlari sathi tartibga solinadi. Sizib chiqqan suv drenadan o'zi oqib ketadi. Markaziy Osiyoda gorizantal drenaj eng ko'p tarqalgan bo'lib, melioratsiyalanadigan (zaxi qochiriladigan) yerlarning 85% dan ko'prog'iga xizmat ko'rsatadi.

**Gov** [f.– buqa, ho'kiz; sigir] – 1. Katta, ulkan. Gov sigir. *Kallalari xuddi gov savatday, Tishi so'yloq, xo'p qopgir (qopong'ich) boytevashday.* («Gulnor-pani»). *Gov yostiqday zil xaltani ko'tarib [onam] keldi.* (H. Nazir, «Muhabbat»).

2. Sigirga, molga nisbatli haqorat; «mol». – *Uh, bu govning qilayotgan nay-rangi! – dedi-da, Abdurasul tokchaga su-yab qo'yilgan qo'shotarni qo'liga oldi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Gov kaptar** – yovvoyi kaptarning bir turi.

**Gov pechak** – pechakning bir turi; chirmovuq.

**Govmish** [f. – yirik shoxli hayvon; ho'kiz] – zotdor sersut sigirlarni ifodalaydigan atama. Uning sutlilikgi zotiga, yoshiga, boqish va parvarish qilishga bog'liq. O'zbekistonda ularning qora-ola zoti, qizil cho'l zoti, shvits zoti, golland

zoti va Bushuyev qoramol zotlari boqiladi. *Sakkiz sigir asraguncha, Bir gov-mish asra.* (Maqol). *Ola gov-mish podaga qo'shilmaydi, birday uyda yotadi.* (T. Murod, «Qo'shiq»). *Ayniqsa, ola gov-mishiga jonim achidi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Govron** [f. – sigir haydovchi] – 1. Mol, qo'y va b. hayvonlarni haydash uchun ishlatiladigan uzun yo'g'on tayoq. *Keksa podachi sho'xlik qilgan mollarni govron bilan savalab ketmoqda.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»). *Kaltak bilan odam bo'ladigan bo'lsang, govron bilan urardim.* (S. Ahmad, «Ufq»).

2. Har qanday tayoq, xivich. *Bog'bon uzumzordagi bolalarni govron bilan quva ketdi.*

**Govvos** [f. ohu, shoxdor kiyik; bug'u] – shv. Katta sigir. *Filning sutin berdim man, Fil jasadli bo'lsin deb, Govvos sutin berdim man, Umri uzun bo'lsin deb.* («Xushkeldi»). [Podachi:] *Bu govvos sigir, suti shirin bo'lmaydi.* (N.Qobil, «Unutilgan sohillar»).

**Grant** [ingl. grand – hadya; ko'mak, yordam; stipendiya] – biror ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish uchun yoki boshqa maqsadlarda ayrim shaxslar, jamoalar, tashkilotlarga beriladigan maqsadli o'rin yoki pul mablag'i. «Umid» grantini qo'lga kiritmoq. «Umid» granti bilan o'qiyotgan O'zbekistonlik yoshlarga esa oyiga 1000 dollar atrofida stipendiya to'lashadi. (Gazetadan).

**Granula** – granula, dona, donador (qumoq-qumoq narsalarda).

**Granulyatsiya** – 1 maxs. Granulyatsiya, granulalash; granulalanish, donador (dona-dona) holga kelish (keltirish); o'g'itlarni granulalash; o'g'itlarning granulalanishi.

2 tib. et olish, bitish; yangi et (mas., bitgan yarada).



**3 astr.** granulyatsiya (quyosh betidagi donador obyektlar).

**Grechixa** [r] – bir nav g'alla o'simligi va uning donidan tayyorlangan krupa. Grechixa ekmoq. *Grechixadan tayyorlangan ovqat. Grechixa qimmatli ekin bo'lib, tarkibida asal moddasi ko'pligi bilan muhim xalq xo'jalik ahamiyatiga egadir.* (Gazetadan).

**Grozniy zoti** – mayin junli qo'y zoti. Qo'chqorlarning massasi 70–90 kg, urg'ochilari 45–50 kg. Qo'chqorlardan 10–25 kg, urg'ochilardan 5,5–12,5 kg jun olinadi. Uzunligi 8–10 sm, maksimal 13 sm. Sifati 64–70%. Sof junning mahsuldorligi 45–55% ni tashkil qiladi. Mahsuldorlik 100 bosh qo'ydan 120–140 ta qo'zi. Qo'ylar boshqa mayin junli zotlarning junli sifatlarini yaxshilash uchun ishlatiladi. Eng yaxshi nasldor podalar Qalmiq tumanlari, Astraxan viloyatining qurg'oqchil viloyatlari, Dog'iston, Chechen-Ingushdagi naslchilik zavodlarida ko'paytiriladi.

**Grunt** [nem. *Grund* – zamin, tuproq] – tuproq va tog' jinslari aralashgan qatlarning umumiy nomi.

**Gruntshunoslik** – tuproq va tog' jinslarining fizik va kimyoviy xususiyatlarini o'rganadigan soha.

**Gruppalab tanlash** – bir xil tipdagi urg'ochi hayvonlarning muayyan gruppasini qochirish uchun bitta nasldor erkak hayvon tanlash.

**Gujum** – sadaqayrag'och. *Xorazmda hovuz desa, darhol ko'z oldingga kattakata gujumlar – qayrag'ochlar keladi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Anavi olako'z barchangi lom deb og'iz ochmaydi, kun bo'yi gujum tagida osmonga qarab yotadi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Gul** [f. – chechak] – **1 bot.** Yopiq urug'li o'simliklarning urchish uchun

xizmat qiladigan, gulband, kosachabarglar, tojbarglar, changchilar va urug'chidan iborat qismi. Olma guli. Nok guli. *Nurining hovlisidagi gilolar gullagan. Ularning oppoq, ko'rkam gullari quyosh nurida juda nafis tovlanar.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**2.** Atirgul va umuman, ziynat uchun ekiladigan yoki tabiiy, o'zi o'sadigan gulli o'simliklar; chechaklar. Pushti gul. Oq gul. Qo'qon gul. *Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz – hunar.* (Maqol). *Dala yo'lining ikki tomonidagi bog'lar tutash gullar bilan qoplangan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Supalarning oralariga, atrofiga anvoyi gullar ekilgan.* (A. Qahhor, «Asror bobo»).

**3.** Biror narsaga tabiatdagi gullar shaklida chizib, tikib, bosib yoki o'yib tushirilgan bezak, naqsh; ornament. *Tez kunda albomning varaqlari fotosuratlariga va bo'yoq qalamda chizilgan gullarga bezandi.* (H. Nazir, «Cho'l havosi»). *Mehrini esa do'ppisining gulidan tanidi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**4 ko'chma. poet.** Go'zal. *Gulni gulga qo'sh.* (Maqol). *Ikkovi ham uzilmagan gul.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Gulband II** – bot. Gulni tutib turuvchi novdacha.

**Gulbarg** [gul + barg] – **1.** Gultojni tashkil etuvchi hamda urug'chi bilan changchini qurshab turuvchi gul yaproqchalari, bargchalar majmui. *Gulbarglar orasiga yashiringan tirnoqday qo'ng'iz uchib ketdi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Gulbarglarga termulib, yana uchdi o'ylarim, Yaproq misol titratib qo'ydingiz-ku yuragim.* (E. Oxunova, «Men tongni uyg'otdim»).

**2 ko'chma.** Gul bargchalaridek chiroyli, go'zal; nozik; qizil. *Hamlet yuragiga berardi hayot, Sening u otashin*

*gulbarg lablaring.* (H. Olimjon, «Ofeliyaning o'limi»). *Mayli endi, hech bo'lmasa qung'on qaynatsam, Qish kunlari lovlulatsam gulbarg yonog'ing.* (Mirtemir).

**Gulbeor, beorgul** [gul + beor] – yer bag'irlab o'sadigan ensiz bargli, nozik rang-barang gulli, urug'idan tez ko'payadigan manzarali o'tsimon o'simlik.

**Gulbog'** [gul + bog'] – 1. Gul ekilgan bog', gulzor bog', guliston. *Mehnat ahli qildi obod, Farhod dashtini gulbog'lar, Guliston bo'ldi sahrolar, ucholmas endi hech zog'lar.* (A. Po'lat). *Mevalarning urug'in eking, asrang, o'rtoqlar, Kelajakda ulardan yaratilgay gulbog'lar.* (Z. Diyor).

2. Sayilgoh yer; tomoshabog', park. *Rabochilar gulday yashnab kiyingan, Oqshom bari gulbog'larda yig'ilgan.* (Fozil shoir).

**Gulisumbul** [gul + sumbul] – piyozguldoshlar oilasiga mansub o'simlik; giatsint.

**Gulkaram** [gul + karam] – hosili to'pgul shaklida bo'ladigan bir yillik karam turi.

**Gulob** [gul + f.ob – suv] – 1. Atirgul gulbargidan maxsus usulda olinadigan suv. *Bahor daraxtlarni yosh kelinlardek bezatib, ustlariga oq, qizil ko'ylak kiygizgan, kokillariga gulob sepgan edi.* (M. Osim, «O'tror»). *Gulob bilan yuvayinmi zulfingni? Shamol bo'lib gul yuzingni silaymi?* (Uyg'un).

2. Atirgul suvidan tayyorlangan shirin ichimlik; sharob; may. [Navoiy:] *Gulob.* [Mansur kosani uzatib:] *Mana, pirim, gulob.* (Uyg'un va I. Sulton, «Alisher Navoiy»). *Nihoyat, O'tar bobo xonning mushkulini oson qilmoqni o'ylab, gulobga oz-ozdan afyun qo'shib bera boshladi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**Gulobi II** – qovunning kechpishar navi.

**Gulqaychi** – gul, tok kesadigan maxsus qaychi; tokqaychi. *Sarimsoq ota... gulqaychi bilan yosh daraxtlarning pastki shox-butoqlarini qirqib yurardi.* (Mirmuhsin, «Chiniqish»). *Bobom gulqaychi bilan qo'larra olib chiqib ketdi.* (H. Nazir, «Bir tup g'o'za»).

**Gulra'no** [gul + ra'no] ayn. **ra'no** – 1. Ularning [ammamning] uyidagi gul-larning-ku son-sanog'i yo'q: *gulbeor, gulra'no, gulsapsar, ishqilib, sanab tugatib bo'lmaydi, – dedi Shum bola.* (G'. G'ulom, «Shum bola»).

**Gulsapsar** – qiyoc bargli, oq, pushti, zangori, binafsha yoki sariq gulli ko'p yillik o'simlik va uning guli. *Yo'llar bo'ylab gulsapsarlar yashnaydi.* (Oybek, «Navoiy»). *Hali qushlar uyg'onmay, ko'zni ochib tong sahar, Kezar edik bog'mabog', izlab lola, gulsapsar.* (H. Saloh).

**Gultoj** [gul + toj] – 1 bot. Gulning gulbarglardan tashkil topgan va gulkosani to'ldirib turgan qismi; toj.

2 ko'chma. Biror narsaning eng sarasi, eng oliysi. *Odamzod bo'lgan paydo, Husniga olam shaydo, Odam olam gultoji.* (Q. Muhammadiy). *She'riyat gultoji – drama demak, Mening teatrim – qalbm sahnida.* (A. Isroilov).

**Gultojixo'roz** [gul + toj + xo'roz] – xo'roz tojiga o'xshash to'p gulli o'simlik va uning guli. *Uning atrofida qip-qizil gultojixo'rozlar chayqalib turibdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Gulxayri** [gul + a. – yaxshi, saxovatli] – baland poyali, yirik gulli bir yillik yoki ko'p yillik o'simlik va uning guli. *Hovlichaning ichida gulxayri va qaboqlar o'sib gullab yotibdi ekan.* («Go'ro'g'lining tug'ilishi»). *Qadimdan gulxayrining qaynatmasi bilan ko'kyo'tal, o'pka shamol-*

lashi, nafas qisish kabi kasalliklar davolangan. (Gazetadan).

**Gulg'uncha** [gul + g'uncha] – gul g'unchasi, ochilmagan gul. *Javob bering, ketay Eron shahriga, Chamanda ko'rindi menga gulg'uncha.* («Bahrom va Gulandom»).

**Gul changi** – gulli o'simliklar changdonlarida hosil bo'ladigan chang donachalari. Urug'li o'simliklarda chang donachasi – mikroskopik tuzilma (erkak gametofit) bo'lib, unda changlanish paytida yoki undan keyin urug'lanish uchun zarur bo'lgan erkak gametalar (spermiylar) rivojlanadi.

**Gulchilik** – gullar, manzarali o'simliklarni yetishtirish, bog'-xiyobonlarga ekish, guldastalar tayyorlash bilan shug'ullanish; gulchi kasbi. *Ermakka gulchilik qilaman, rejalarim bor, mijozlar o'zlari uydan olib ketishadi.* (N. Aminov, «Qaltis xato»). *Gulchilik oson ish emas. Bu ish juda katta qunt talab qiladi, – dedi o'qituvchi o'quvchilarga.* (M. Ismoilov, «Bizning roman»).

**Gurt** – qoramollar podasi. Qoramollarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish, haydab borish uchun to'dalarga bo'lingan poda.

**Gurt vedomosti** – tayyorlov bazasiga yoki go'sht qayta ishlanadigan korxonaga jo'natiladigan qishloq xo'jalik hayvonlari ro'yxati.

**Gumin o'g'itlar** – organik-mineral o'g'itlar; organik modda va u bilan kimyoviy yoki adsorbsion bog'langan mineral birikmalardan iborat. Gumin o'g'itlar gumin kislotalar yoki tarkibida shu kislota bo'lgan moddalar (qo'ng'ir ko'mir, torf, tabiiy mirning nuragan qoldiqlari, loyqa, chirindi va b.)ni ammiak, fosfatlarning ammiakli eritmalari, fosfat kislota, kaliyli tuzlar bilan ishlash yo'li orqali olinadi.

Qanday xomashyodan foydalanilganiga ko'ra suvda eriydigan nitrat va ammoniy gumatlari, nitrogumlatlar, torfli-ammiakli o'g'itlar, torfli-mineralli-ammiakli o'g'itlar va b. bo'lishi mumkin.

**Gumus** (lot. *humus* – tuproq), *chirindi* – tuproqning nisbatan barqaror, odatda, qoramtir organik birikmalari majmui; nobud bo'lgan o'simlik va hayvon organizmining biologik hamda biokimyoviy o'zgarishi (chirishi va undan murakkab yangi moddalarning sintezlanishi) natijasida hosil bo'ladi. Gumus tarkibiga organik qoldiq moddalar (oqsillar, uglevodlar, lignin, yog'lar va b.), ularning o'zgarishi vaqtida vujudga kelgan oraliq mahsulotlar (aminokislotalar, oksikislotalar, fenollar, monosaxaridlar va h.k.), guminli moddalar kiradi. Gumus tuproq unumdorligini ta'minlovchi eng muhim qismidir.

**Guru(n)ch** [f. – guruch] – sholidan oqlab olinadigan don mahsuloti; oshlik don. Guruch zavodi. *La'lixon soat beshni mo'ljallab, oshning guruchini soldi.* (Oydin, «Ko'ngil to'ldimi, yaxshi yigit».) *Ahmad guruchni ikki marta ag'darib, oshni damlab qo'ydi.* (F. Musajonov, «Himmat»).

**Gurvak** – ertapishar qovunning navi. Xorazm qovunlari juda shirin bo'ladi: *Ko'k novvoti, gurvak, shirinpechak...* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Go'ng –1.** Uy hayvonlari va parrandalar axlati, odatda, to'shama tashlangan xas-xashaklar (somon, qipiqalar) bilan aralashgan quruq, qattiqroq organik o'g'itdan iborat massa. Mahalliy organik o'g'it. Tarkibida o'simliklar uchun zarur bo'lgan azot va kul elementlari bor. *Xudoyqul odamning qo'lidan keladigan har qanday ishga qobil edi: ot-molga qaraydi, go'ng kuraydi, jodi bilan pichanpoya qirgadi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

2. Shu hayvonlarning axlatidan iborat o'g'it. Organik modda (go'ng quruq moddasining asosiy qismi) tuproq tarkibini, uning suv va havo rejimini, fizik, kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi. Go'ngdagi *Ca* va *Mg* tuproq kislotaligini kamaytiradi. Foydali mikroorganizmlar uning biologik faoliyatini oshiradi. Go'ng o'simliklarda organik modda sintezini kuchaytiradigan  $CO_2$  manbalaridan biri. Go'ng tuproq unumdorligiga bir necha yil ijobiy ta'sir ko'rsatadi. *Yerga go'ng solmoq*.

**Go'nglamoq** – yerga go'ng solmoq, yerni o'g'itlamoq. *Yerni go'nglab haydadik, chigit tikdik*. (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Go'ngqarg'a** – qarg'asimonlar oilasiga mansub, O'zbekistonda o'troq yashaydigan qush; qarg'a turi.

**Go'ngxona** – go'ng to'kiladigan va saqlanadigan maxsus joy; katta o'ra, choh.

**Go'ngo'ra** – chorvachilik binolaridan chiqarilgan go'ngni yig'ish, yuqumsizlantirish va saqlash uchun quriladigan inshoot; go'ng saqlanadigan maxsus joy go'ng holati, saqlash muddati, yig'ib chiqarish usuli va iqlim sharoitlariga qarab turlicha bo'ladi. Oddiy go'ng. Chuqurligi 1 m, tubining eni 3–3,5 m, og'zi 4–4,5 m qilib qazilgan o'radan, go'ng shaltog'i yig'iladigan bitta yoki ikkita chuqurdan iborat. Transport kirib-chiqishi uchun bosh tomoni va oxiri nishab qilingan bo'ladi.

**Go'sht** [*f.* – et] – 1. Tirik organizmning mushak to'qimalari; et. Qimmatli oziq-ovqat mahsuloti; so'yilgan hayvon nimtasi yoki nimtasining bir qismi. Go'sht inson iste'mol qiladigan oziq-ovqatdagi oqsilning asosiy manbai hisoblanadi. Go'shtning tuzilishi va ta'mi, sifatlari hayvonlar turi, zoti, jinsi, yoshi, boqish

va saqlash sharoitlariga bog'liq. Hayvonlarning turiga qarab, mol (qoramol), qo'y, ot go'shti va b. ga ajratiladi. *Tomirlarda qon qaynab, ko'zlarda o't chaqnardi, mushak go'shtlari po'latday qotib ketgan edi*. (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

2. So'yilgan jonivor tanasining ovqat sifatida iste'mol qilinadigan qismi; et. *Qo'y go'shti. Tovuq go'shti. Qovurilgan go'sht. Ahmad Tanbal chinni lagandagi go'shtga endi qo'l uzatganda, eshik sekin ochildi*. (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

3. Ba'zi bir mevalarning yeyiladigan qismi, eti.

**Go'sht kombinati** – mollar so'yiladigan, olgan xomashyo (go'sht) va boshqa mahsulotlarni qayta ishlab, oziq-ovqat hamda yem, texnika buyumlari, meditsina preparatlari ishlab chiqariladigan sanoat korxonasi.

**Go'shtlarga tamg'a urish** – go'shtlarning vetenariya-sanitariya ko'rigidan o'tganligini yoki semiz-oriqlik kategoriyasini (sortini) tasdiqlovchi nishon va shtamplar solish.

**Go'sht sanoati** – so'yilgan molni kompleks tarzda qayta ishlovchi sanoat tarmog'i, oziq-ovqat sanoatining muhim sohasi. Go'sht sanoati korxonalarida qoramol, qo'y-echki, parranda, quyon va b. Go'sht sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning xili 400 dan oshadi. Ko'pgina mamlakatlarda go'sht va go'sht mahsulotlarini i. ch. asosan XX asr o'rtalaridan sanoat miqyosida rivojlana boshladi. Ishlab chiqarishda zamonaviy mashina va apparatlarni qo'llash, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash natijasida go'sht sanoatida mahsulot yetishtirish salmog'i oshib bordi. AQSH da go'sht yetishtirish yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, jami so'yilgan mollarning 95% ga yaqini sanoat usulida qayta ishlanadi.

**Go'sht-suyak uni** – oqsil minerali oзуqa. Go'shti yeyishga yaroqsiz deb topilgan hayvonlar go'shtini go'sht kombinatlarida maxsus kamerada yuqori harorat va havo bosimida quritib tayyorlanadigan (un qilingan) oзуqa. 1 kg G.-s. u. da, 1,04 oзуqa birligi, 900 g quruq modda, 400 g tozalanmagan va 341 g hazmlanuvchi protein, 21,7 g lizin va 8,8 g metionin-sistin aminokislotalari bor. Shuningdek, G.-s. u. kalsiy, fosfor, mikroelementlarga,

V guruh vitaminlariga boy. G.-s. u. asosan cho'chqalar, parrandalar, mo'ynali hayvonlar ratsioniga, shuningdek, turli aralash yog'larga to'yimlilikini oshirish uchun qo'shiladi. Baliq ovlash flotlari ovlaydigan dengiz hayvonlari go'shtidan ham G.-s.u. tayyorlanadi.

**Go'sht chiqimi** – yangi so'yilgan go'sht massasining hayvon so'yilishi oldidagi massasiga nisbati protsentlarda ifodalanadi.

## H

**Habo** [a. chang-to'zon, gard] – shv. Havoda suzib yuruvchi chang zarralari, gard, xok. ..uning na'rasidan tegra changib. *habo bosib, yer-u osmon larzaga keladi.* (N. Yoqubov, «Jon»).

**Hakka** – ayn. zag'izg'on. *Hakkalar ko'p. ular daraxtlarning chakalak shoxlari orasida tipirchilab, yaproqlarni uchirib yurishadi.* (Sh. Xolmirzayev, «Zov ostida olishuv»).

**Hakkalamoq** – 1. Bir oyog'ini bosolmay yoki tushovli oyog'i bilan sakrab sakrab yurmoq.

2 ko'chma. Tekis yurmay, irg'ib-irg'ib, sakrab-sakrab yurmoq.

**Hakkam-dukkam** – s.t. Unda-bunda, yakkam-dukka, juda siyrak. *Hakkam-dukkam daraxtlar. Ekilgan urug'lar hakkam-dukkam chiqdi.*

**Hakka uyg'onmasdan** – erta tongda, harvaqt. *Abdusamad har kun erta bilan, hakka uyg'onmasdan, ko'chaga otilar edi.* (Oybek, «Navoiy»).

**Halqob** [f. – halqa-halqa bo'lib tepilib qolgan suv] – chuqur joylarda qurib, yig'ilib qolgan suv. Halqob havosi. *Havo sarxush. Halqoblar ko'kimtir bo'lmas, birinchi sovuqdan oyoq ostida yuqqa muz qirsillar edi.* (A. Muxtor, «Boronlarda bordek halovat»).

**Hamal** (arabcha «hamal» – «qo'y» so'zidan) – shamsiya yil hisobida birinchi oyning nomi (21-mart – 20-aprel davriga to'g'ri keladi). Davomiyligi 31 kun. Hamal bahorgi tengkunlik nuqtasidan boshlanadi. Quyosh Hut yulduzlar turkumidan o'tib, burjning Hamal turkumiga o'tadi. «Hamal kirdi, amal kirdi» (Maqol).

**Handalak** – qovunning yumaloq, maydaroq, xushbo'y, eti yumshoq, erta-roq yetiladigan bir turi. *Mulla Obid sabzi va bodringni sotib bitirib, handalagini uzadi, qo'shnilar handalak uzganda, mulla Obidning qovuniga gal kelib qoladi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Hangi** – 1. Hadeb hangrayveradigan (eshak haqida). *Eshakning yomoni – hangi, odamning yomoni – bangi.* (Maqol). *Bir tanishim hangisiga to'qim qidirib yurgan edi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

2. Erkak eshak. *Qirga o'rlab bora-yotgan hangi charchab, to'xtab qoldi.* (T. Murod, «Qo'shiq»).

3. Baqiroq, shang'i.

**Haqqush** – uzun oyoqli qushlar turkumining qarqaralar oilasiga kiruvchi parranda. *Avvali bu boyo'g'li emas, haqqush, qo'rqma.* (A. Qahhor, «Maston»).

**Harvona** – esk. Lo'k, tuyaning urg'ochisi.

**Hasayni** [*f.* – Hazrati Alining ikkinchi o‘g‘li Husayn nomidan] – uzumning g‘ujumi (donasi) husaynikidan to‘laroq bir turi. *Nimrang toifi, pushtirang hasayni, har donasi yong‘oqday keladigan kattaqo‘rg‘on – hammasi shig‘il pishgan.* (S. Anorboyev, «Mehr»).

**Havo I** [*a.* – atmosfera, havo; iqlim; shamol; ob-havo] – 1. Yer atmosferasini hosil qiluvchi, inson, hayvon, o‘simliklar hayoti uchun zarur bo‘lgan, asosan azot va kisloroddan iborat gazlar aralashmasi. *Toza havodan nafas olmoq. Havoni ifloslantirmoq. Tog‘ havosi. Archa daraxti havoni yaxshi tozalaydi. Hammaga ma‘lumki, havoda zararli mikroblar ko‘p bo‘ladi.* (Gazetadan).

2. Yer ustini qoplagan ochiq bo‘shliq; fazo. *Havoda momiq oq paxtalar ar-g‘amchi bo‘lib yurardi.* (Gazetadan). *Bog‘ ustida orombaxsh shabada esar, havoda ko‘katlar isi anqirdi.* (O‘. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»)

3. Atmosferaning ahvoli; holati; ob-havo. Ochiq havo. Havoning harorati. Bultli havo. Kuz havosi. *Dehqon osmonga qarab, yaxshi havodan quvonsa, yerga qarab, mo‘l hosilidan suyunadi.* (M. Ismoiliy, «Farg‘ona t.o.»)

**Havol** – 1. Ichi zich emas, orasida bo‘shliq bor; g‘ovak. *Dambaning tagidan, tuproq havol joydan daryo suvi otilib, kanalga oqardi.* (Gazetadan). *..katta bir omborning devorini urib, orqasida havol yer borligini bildi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

2. Kuch bilan emas; sekingina, bo‘sh. *Ahmad pahlavon uning [xo‘janing] belbog‘idan havol ushladi.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urinishlari»).

**Havoli I** – Havosi bor, havoga ega bo‘lgan; bahavo. Siqiq havoli ballon.

Buzuq havoli xona. *Yopchon asriy sirlarni bag‘riga olgan qishloq. Yopchon xushbo‘y havoli, Farahbaxshdir, keng quchoq.* (G‘ayratiy). *Qishning birinchi yarmi quruq keldi. Bu ochiq havoli kunlar dehqonlarga yoqmadi.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»). *Qish bo‘ronlari o‘tgan, bahorning yumshoq havoli kunlari boshlangan.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Maktab oldida havoli chorbog‘lar tashkil etilgan.* (Gazetadan).

**Havoza** [*f.* – zafar darvozasi; ayvon, ravoq; taxtasupa] – 1. Qurilish yoki ta‘mir ishlari uchun devor yoniga yog‘och yoki metallardan qavat-qavat qilib ishlangan vaqtinchalik qurilma.

2. Ustiga chiqib, atrofnı kuzatib turish maqsadida tepalikka sepoya yoki chorpoya shaklida, aksar yog‘ochdan o‘rnatilgan qurilma.

3 *shv.* Tokni yerdan yuqoriga ko‘tarib qo‘yish uchun ishlangan qurilma. *So‘ri havozasi ostidagi ustunchalarning har biri yonida – ariqchalar bo‘yida bir beh tok o‘tkazilgan bo‘lib, toklarning zangi ustunchalar orqali havozaga ustiga chiqarilgan.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Havz** [*a.* suv to‘plangan joy yoki suv idishi; basseyn yoki chelak] – *esk. kt. ayn.* hovuz. *Gahi ayvonda hayqirsa ayiqdek, Gahi havz ichra chayqalgan qayiqdek.* (Habibiy).

**Havza** [*a.* hovuz; basseyn; chelak; doira] – 1 *geogr.* Daryo yoki ko‘lga quyiladigan, uni tashkil etadigan irmoqlar majmui hamda shu daryo yoki ko‘l atrofidagi mazkur irmoqlardan suv oladigan hudud (territoriya). Amudaryo havzasi. Issiqko‘l havzasi. Chirchiq havzasi. *Naymandan tortib to Mirzaorolgacha daryo bo‘yidagi yerlarni avvallari... ekkani dehqonlar daryo bo‘yidagi qatorasiga ketgan*

katta-kichik beshta havzaga o'rnashgan bo'lib, bu havzalarning har biri bir mahalla, hammasi Kapsanchilar qishlog'i deb ataladi. (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

2. Suv yo'lini to'sish, to'g'on qurish yo'li bilan hosil qilingan katta sun'iy ko'l; suv ombori. Qayroqqum suv havzasi. *Bu suv havzalari kanallar, suv omborlari va daryolarni loyqa bosishiga sabab bo'lib, xalq xo'jaligiga ma'lum zarar yetkazmoqda.* («Fan va turmush»).

3 *geol.* Toshko'mir, ruda kabi yerosti boyliklari ko'p bo'lgan keng bir hudud. *Toshko'mir havzasi. Ruda havzalari.*

4. Atrofi baland, o'rtasi tovoq shaklidagi past, keng maydon. *Bu pastqamlik xiyalagina katta havza bo'lib, uning tevarak-atrofida past-baland uylar, egri-bugri devorlar, bular orasida so'ppayib turgan yakka-dukkada daraxtlar ko'rinar edi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

5 *s.t. q. basseyn.* Respublikamizda *stadiionlar, suzish havzalari... sport maydonchalari soni muttasil ko'payib bormoqda.* (Gazetadan). *Talabalar madaniyat saroyi, sport kompleksi, suzish havzasi xizmatidan bemalol foydalanadilar.* (Gazetadan).

**Haydalma, haydalma qatlam** – q.x. *Ekin maydonining haydab yumshatilgan ustki qatlami. Chuqur kovlashda, haydalma qatlamdan chiqqan va oziq moddalarga boy bo'lgan tuproq chuqurlarning bir tomoniga... tashlanadi.* (R. Musamuhamedov, «Mo'l uzum hosili yetishtirishdagi tajribalarim»).

**Haydamoq** – 1. Biror tomonga qarab *yerishga qistamoq; borishga majbur qilmoq; yo'llamoq.*

2. Yerni maxsus asbob (plug, omoch, *so'q* kabi) tishi bilan tilib, yorib, o'yib *yumshatmoq.* Yerni traktor bilan hayda-

moq. *Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda.* (Maqol). *Tushdan keyin uyga kelib, Bug'doy o'raman... arpadan bo'shagan yerni haydab, mola bo-saman.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

3 *kim.* Isitish yoki qaynatish yo'li bilan tarkibiy qismlarga ajratmoq; shu yo'li bilan biror narsa ajratib olmoq.

**Haydarkokil** – o'rdaklarning bir turi (boshida qora patdan iborat kokili bo'ladi).

**Hayvon** [*a.* – tirik narsa, har bir tirik jon] – 1 *zool.* Harakat qilish va sezish qobiliyatiga ega bo'lgan har bir tirik mavjudot; jonivor. *Umurtqali hayvon. Sutemizuvchi hayvonlar. Sudraluvchi hayvonlar. Vahshiy hayvonlar. Uy hayvonlari.*

2. Insondan boshqa har qanday jonivor. *O'rgatilgan hayvonlar. Hayvonot bog'ida hayvonlarning turlari ham, soni ham ko'p. Olimovning hikoyasi bolalarning zehnida shunday taassurot qoldirdi: issiq bilan sovuq, qor bilan yomg'ir, suv bilan havo, o'simlik va hayvonlar – bularning hammasi tabiatdagi qazish, o'yish, yemirish kuchlari hisoblanar ekan.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Ish hayvoni** minish, yuk tashish, yer haydash uchun foydalaniladigan to'rt oyoqli jonivor; ot-ulov. *Quloqlarning ot-uloqlari, ish hayvonlari bugun-erta kolxoz hisobiga o'tishi kerak.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

3 *ko'chma.* Odati, qiligi, xattiharakati va sh.k. jihatdan hayvonga o'xshashlikni, hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi. *Odamning hayvoni kishi haqidano'rqmaydi, kishi moliga ko'z olaytiradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). – *Shuncha yildan buyon men uning bunaqa qiliqlari borligini bilmas ekanman. Hayvonning o'zginasi ekan-ku!* (Mirmuhsin,

«Me'mor»). – *Voy hayvonlar-ey! Tfu! – dedi-yu, shartta burilib chiqib ketdi.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol»). *Ilgari «oz-moz» ichib, so'ng bo'ldi hayvon oqibat.* (H. Nuriy).

**Hayvoni notiq** – esk. Inson, odam.

**Obi hayvon** – o'likni tiriltiradigan suv, tiriklik suvi (ertaklarda).

**Hayvonlar** – tirik mavjudotlarning asosiy guruhlaridan biri (boshqa guruhi – o'simliklar) u geterotrof (ba'zan mikrotrof) oziqlanish usuli, ochiq yerda bir joydan boshqa joyga aktiv ko'chib yuradi, hujayrasida o'simliklar hujayrasiga xos bo'lgan zich selluloza pardasi yo'qligi bilan xarakterlanadi va h.k.

**Hayvonlar bonitirovkasi** – kelgusida foydalanish maqsadida hayvonlarning nasldorlik qimmatini va mahsuldorligi jihatidan sifatini aniqlash.

**Hayvonlar gavda tuzilishi indeksi** – hayvonlar gavdasi o'lchamlarining anatomik jihatidan o'zaro bog'liq bo'lgan nisbatlarini xarakterlab beruvchi ko'rsatkichlar (protsentlarda ifodalanadi). Gavda tuzilishi indeksini hisoblab chiqarish, hayvonlar yoki ular gruppasining eksteryer va konstitutsional tipini aniqroq ta'riflab berish imkonini beradi.

**Hayvonlar konditsiyasi** – hayvonlarning semizligi, sog'ligi va tashqi ko'rinishi mos kelishi kerak bo'lgan norma, standart, sifat. Hayvonlar konditsiyasi uch xil tafovut qilinadi: zavod konditsiyasi, ko'rgazma konditsiyasi, bo'rdoqi konditsiyasi.

**Hayvonlar motsioni** – hayvonlarning harakati, sayri; hayvonlarning hayotiy funksiyasi va sog'ligini mustahkamlash uchun zarur shartlardan biri.

**Hayvonni o'stirib voyaga yetkazish** – chorva mollari tayyorlov va bo'r-

doqichilik xo'jaliklarida sog'lom, ammo toshi yengil, oriq buzoqlar vaznini oshirish maqsadida boqish.

**Hayvonot** [a. – «hayvon» s. ko'pl.] – tirik mavjudotlar, hayvonlar olami; hayvonlar. *Pochcham bilan ammam bugul, bu hayvonotlarning har bittasini nuri diydalariday parvarish qiladilar.* (G'.G'ulom, «Shum bola»). *Universitetning uchinchi kursida o'qir, maqsadi hayvonot dunyosini o'rganish, shu sohada ilmiy ish olib borish ekan.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»). *Hayvonot moylaridan tayyorlangan yog' mahsulotlari ham yaxshi dog'lashni talab qiladi.*(Gazetadan).

**Hayvonzot** [hayvon + zot] – hayvon bolasi, hayvon nasli, hayvon. *Jabr qildi hayvonzotning joniga, Qirq bir qamchi urdi otning soniga.* («Rustamxon»). *Yodgor bu chinorning ostiga bordi, har tarafga qaradi: na odamzod yo bir vahshiy hayvonzot – hech narsa ko'rmadi.* («Yodgor»).

**Hasharot** [a. – qurt-qumursqa; gazandalar] – pashsha, ari, kapalak, chumoli kabi mayda umurtqasiz bo'g'imoyoqli jonivorlar. *Ilonlardan tashqari turli xil hasharotlar – beshiktervatar, qora chigirtka, ninachi va boshqalar ham o'z rivojlanishi davomida qobig'ini yangilaydi.* («Fan va turmush»). *Chigirtkalarining chirillashi, kecha hasharotlarining na'masi kuchli shamol tovushi bilan kesildi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

**Hasharotlar introduksiyasi** – hasharotlarni o'zi yashab turgan joydan boshqa yangi hududlarga keltirib, agrobiotsenoz entomofaunasini sun'iy boyituvchi. Muhim xo'jalik ahamiyatga ega. O'simliklarni biologik himoya usulida hasharotlar introduksiyasidan keng foydalaniladi.



**Hasharotxo'r** [*a. + f.* – hasharot yeyuvchi] – hasharot yeyuvchi. *Hasharotxo'r jonivorlar.*

**Hachcha** – *shv.* Ayri (yog'och), tirgak, tirgovuch. *Tog'a goh qo'lidagi sirtmoqqa, goh hachchaga qarab turdi-da, so'ng qo'lini siltadi.* (N. Norqobilov, «Bektdagi oq uycha»).

**Hej** – muayyan mol bozor narxlarining kelgusidagi o'zgarishlaridan xaridor va sotuvchini sug'urtalash maqsadida tuziladigan muddatli bitim.

**Hejer** – narx-navoning noqulay o'zgarishlaridan sug'urtalanishga imkon beruvchi birja operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxs.

**Himoya qilingan joy** – yer maydoni jihozlanib, sun'iy yoki tabiiy iqlim sharoiti hosil qilib, barcha mavsumlarda qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladigan joy.

**Hisob-kitob** – 1. Bajarilgan ish, xizmat uchun qilingan sarf-xarajat va to'lanadigan haqning hisobi. *...shu kungacha ba'zilarning haqiga xiyonat qilindi. Hisob-kitobda ular o'z haqlarini talab etadilar.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

2. Kirim-chiqim, daromad va xarajatlarning hisobini qilish; hisoblash.

3. Shunday hisob ishlarini olib borish va qayd etish, shuningdek, qayd etilgan hujjat.

4. Umuman, biron narsa haqida olib borilgan ishlar hisobi, hisob natijalari.

**Hisobga olish** – aniq ishlab chiqarish-sotish jarayonlari, ularning natijalari, foydalanilgan resurslar va h.k. to'g'risidagi axborotga ega bo'lish, uni ro'yxatga olish, to'plash, qayta ishlashdan iborat bo'lgan boshqaruv vazifasi.

**Hisobot** [*a.* – «hisob» *s. ning ko'pl.*] – 1. O'z ishlari, topshiriqning bajarilishi va sh.k. haqida tegishli mas'ul shaxs, tash-

kilot kabilarga beriladigan (berilgan) og'zaki yoki yozma tarzda rasmiy axborot. *Yillik ishlar hisoboti. Komandirovka hisoboti. Deputatning saylovchilar oldidagi hisoboti. Yig'im-terim davrida ayrim brigadirlarning hisoboti eshitib turildi.* (Gazetadan).

2. Shunday axborotni eshitysh uchun bo'ladigan yig'in.

**Hisobchi** – 1. Muassasa, korxonada va sh.k. da moliyaviy muomalalarni, hisob-kitob ishlarini olib boruvchi xodim. *Hisobchi Qambarali Madiyorov bu yilgi dala ishlari uchun qancha mablag' ajratilganini, undan qanday foydalanish zarurligini bilmaydi.* (Gazetadan).

2. Sarflangan narsani, mas., mehnatni hisoblab boruvchi shaxs; tabelchi. *Traktor brigadasining hisobchisi.*

**Hisori(y)** [*f.* < *a.* – o'rab olish; qurshov, qamal; mustahkam qal'a] – Tojikiston Respublikasining Hisor hududiga oid; shu hududda yetishtirilgan, ishlab chiqarilgan. *Aliqul darhol bozorga jo'nadi, bo'rdoqi qilingan hisori qo'y keltirib, shu kuniyoq so'ydi-da...* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). *...vaqti chog' – bugun qozonga butun bir hisori qo'chqorning go'sht-yog'i solingan.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Hissa** [*a.* – bo'lak, qism; ulush; foydaning bir qismi] – 1. Ma'lum maqsad bilan bo'lingan, qismlarga ajratilgan narsaning har bir bo'lagi, qismi; qism, bo'lak. *Hossilning to'rtidan uch hissasi. Keyin loyqa suvda baliq tutib, o'ziga katta hissani qo'poradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Muayyan shaxs yoki narsaning haquhuqqi, imkoni; tan, chek. *Majdiddin... o'z hissasiga tushgan tumanlarni sanab chiqdi.* (Oybek, «Navoiy»).

3 *avn. ulush 1.*

4. Biror narsa, umumiy ish va sh.k. ni tashkil etuvchi qism; unga qo'shiladigan qism; ulush.

5 *esk.* Biror tashkilot yoki to'daga qo'shilish, sherik bo'lish yoki a'zo bo'lish uchun kirish haqi sifatida to'lanadigan haq, pay.

6. Marta, barobar.

**Hissador** [*a. + f.* – hissasi bor; hissaga ega; sherik, paychi] – *esk.* Hissa qo'shgan, pay kiritgan, sherik. *O'sha kunlarda bir hissador shirkatga oz sarmoya bilan bo'lsa ham sherik bo'ldi.* (A. Qahhor, «Asarlar»).

**Hosil** [*a.* – natija, oqibat; yakun, samara; mazmun, mohiyat] – 1. Ekin, daraxt kabilardan yetishtiriladigan, olinadigan don, sabzavot va sh.k.

2. Hosil (erkaklar ismi).

**Hosil bayrami** – qishloq xo'jalik xodimlarining an'anaviy bayrami. Xo'jaliklar, tumanlar, viloyatlar miqyosida o'tkaziladi. Ko'pgina joylarda hosil bayrami kech kuzda, qishloq xo'jalik ekinlari hosili yig'im-terimi tamomlanishiga qarab nishonlanadi.

**Hosildor** [*a. + f.* – hosili bor, hosilga ega] – ko'p hosil beradigan; serhosil, unumdor. *Besh tup hosildor tutni qirqtirib, Xo'jaobodda turuvchi onasiga sarjin qilib berdi.* («Mushtum»).

**Hosildorlik** – ekinzorning 1 gektar yoki 1 m<sup>2</sup> yer maydonidan olinadigan va tonnalarda, sentnerlarda, kilogrammlarda hisoblanadigan dehqonchilik mahsuloti miqdori hosildorlik deb ataladi.

Mutaxassislar hosildorlikni *potensial* (imkoniy), *rejali*, *kutiladigan*, *biologik* va *haqiqiy* kabi turlarga ajratadilar.

**Potensial hosildorlik** – optimal agrotexnologiya sharoitlarini ta'minlab, u yoki bu ekin navining hosil berish imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarib, 1 ga may-

dondan olish mumkin bo'lgan eng yuqori mahsulot miqdori. Uni ilmiy-tadqiqot va tajriba muassasalari ideal hamda odatdagi sharoitlarda hisoblab chiqadilar.

**Rejali hosildorlik** – aniq xo'jalik sharoitlarida olinishi mo'ljallanayotgan mahsulot miqdori. Ko'pgina hollarda u yoki bu ekin hosildorligini vegetatsiya davomida o'simlik rivojining turli fazalarida o'simlik holatiga qarab bir necha marta chamalab aniqlaydilar. Bu holda hosildorlik kutiladigan hosildorlikni baholash sharoitlariga qarab o'zgarishi mumkin.

**Biologik hosildorlik** (dalada, o'simlik tupidagi hosildorlik) – bu hosilni yig'ib-terib olish oldidan dalaning har bir gektaridagi don, mevalar, paxta, kartoshka, piyoz, pomidor va boshqa mahsulotlar miqdori.

**Haqiqiy hosildorlik** – amalda olingan hosil, haqiqatda yig'ilgan va hisobga olingan (kirim qilingan) mahsulot.

**Hosildorlik** – 1. O'simlik (ekin) yoki yerning hosil yetkazish, hosil berish imkoniyati, xususiyati, holati. Paxta hosildorligini oshirmoq. *Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda mikroelementlarning ham roli katta.* (Gazetadan).

2. Muayyan hajmdagi yerdan olinadigan hosilning miqdori. *Hosildorlik gektaridan 40 sentnerga yetkazildi. Paxta hosili 20 sentnerdan 30 sentnergacha yetdi. Bu – hosildorlikning ortishi. Yalpi hosilchi?* («O'zbekiston qo'riqlari»).

**Hosilli** – hosil beradigan. Hosilli bog'. *Umaralining brigadasi yuqori hosilli brigada hisoblanadi.* (I. Rahim, «Ixlos»).

**Hosilot** [*a.* – «hosil» *s. ning ko'pl.*] – 1 *esk. ayn. hosil 1.*

**Hosilot kengashi** – *tar.* Dehqonchilik hosilini oshirish tadbirlarini amalga oshirish maqsadida tajribakor dehqonlardan tuzilgan hay'at. *Kolxoz ptavleniyasi*

O'rmonjonni hosilot kengashining raisi qilib tayinladi. (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

2 tar. s.t. Hosilot kengashining raisi.

**Hosilotlik** – tar. Hosilot vazifasi (q. **hosilot 2**). U... pravleniya shunday odamni hosilotlikdan olib, chorvachilik firmasiga qo'rganligi va uning o'rniga paxtani faqat kitobda ko'rgan Ibrohimovni tayinlagani chakki bo'lganligi to'g'risida gapirdi. (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Hosilsiz** – hosil bermaydigan yoki kamhosil. *Hosilsiz yer. Hosilsiz daraxt.*

**Hovli** – 1. Biror oila, xo'jalik, tashkilot va sh.k. ga tegishli joyning imorat qurilmagan, odatda, atrofi o'ralgan qismi. *Qo'shning hovlisi. Maktab hovlisi. Hovliga suv sepmoq. Hovliga gul ekmoq.*

**Hovur** – 1. Issiqlikdan ko'tarilgan kuchsiz, yengil bug'. *Kunlar yaraqlab ketgan, shudgor betidan jimir-jimir hovur ko'tariladi.* (R. Rahmon, «Mehr ko'zda»).

2. Issiqlik ta'siri; harorat, taft.

3 ko'chma. Kishining qizishgan holati.

**Hovuz** [*a.* – suv to'plangan joy, chuqurlik; *basseyn*; suv idishi] – 1. Suv saqlash uchun xizmat qiladigan, maxsus qazilgan chuqurlik. *Chuqur hovuz. Sayoz hovuz. Hovuz kovlamoq. Hovuz suvi. Majnunatning qurib tushgan shoxlari hovuz bo'yida ivirsib yotar edi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

2 maxs. Uy shipiga ishlanadigan chuqur naqsh-bezak.

**Hovuz baliqchilik xo'jaligi** – baliqlarni hovuzlarda (sun'iy havzalarda) urchitish, boqish, tabiiy suv havzalari uchun baliq chavoqlari hamda xalq iste'moli uchun baliq yetkazib berish bilan shug'ullanadigan xo'jalik.

**Hovuzcha 1 – Hovuz 1 s. kichr.** U [*suv*] qaynama beton hovuzchalar orqali yerosti quvurlariga quyilib, dala yoqalab yugura ketdi. (Sh. G'ulomov, «Yorqin ufqlar»).

2 tex. Detalning o'yma joyi, chuqurlik, chuqurcha.

**Hovuch** – 1. Bir qo'l barmoqlarini bukib, shuningdek, ikki qo'lning kaft va barmoqlarini yonma-yon birlashtirib, barmoqlarini bukib, chuqurcha qilingan holati.

2. Hovuchga sig'arli miqdorni bildiradi. *Ikki hovuch suv.*

**Hovuchlab** – hovuch bilan, hovuchga olib. *Hovuchlab suv ichmoq. Hovuchlab o'lchamoq. Ziyodaxon... qopning og'zini asta ochib, chelakga hovuchlab un soldi...* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Suv topish kerak. Hovuchlab bo'lsa ham sug'oramiz.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Hujayra** (*lot. cellula, cytus* – katakcha); [*a.* – kichkina xona, hujra; katakcha] – barcha tirik organizmlar (mikroorganizmlar, hayvonlar, o'simliklar) ning eng asosiy morfologik va fiziologik tuzilma birligi. *Elementar tirik hujayra har qanday hayot rivojlanishining asosiy shaklidir.*

*biol.* O'simlik va hayvon organizmining takomillashishi, tuzilish va yashash jarayonlarining asosi bo'lgan elementar tirik sistema (moddalar almashinuvida ishtirok etishi, yangi hujayra hosil qilishi va doimo yangilanib turishi hujayraning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi). *Hujayra devori. Hujayra markazi. Hujayra nazariyasi. Olimlarning yakdillik bilan aytishlaricha, markaziy nerv sistemasi nihoyatda nozik nerv hujayralaridan iborat.* («Saodat»).

**Hujayra injineriyasi** – ozuqali muhitda hujayra o‘stirish (hujayra kulturasi), duragayi va rekonstruksiyasiga asoslanib, yangi hujayra tipini yaratish usuli.

**Hujayrali** – hujayrasi bor, hujayralardan iborat. *Bir hujayrali mikroblar. Ko‘p hujayrali organizmlar.*

**Hujayraviy** [*a.* – hujayraga oid; hujayradan iborat] – hujayralarga xos, hujayralardan tarkib topgan. Organizmlarning hujayraviy tuzilishi. *XIX asrning 30-yillari oxirida o‘simliklarning deyarli barcha organlari hujayraviy tuzilishga ega ekanligi aniqlandi.* («O‘zME»).

**Hurkagich** – ayn. **hurkovuch**. Kiyik bolasiday hurkagich, ziyrak – Yoshligini qo‘msab, orziqar yurak. (S. Akbariy).

**Hurkak** – ayn. **hurkovuch**. Xatar ustidan chiqib qolgan hurkak quyon singari jonsarak bo‘lib qarab, undan ko‘zlarini uzolmaydi. (R. Rahmonov, «Changalzordagi sharpa»).

**Hurkovuch** – 1. Hurkish tuyg‘usi kuchli; hurkak; cho‘chiydigan (asosan, hayvon va parrandalar haqida). *Bolalar yashikni o‘rashib tikilisharkan, hurkovuch ko‘k quyon g‘alvir setkadan olxo‘riday yiltiroq ko‘zlarini miltiratib turardi.* (H. Nazir, «So‘nmas chaqmoqlar»).

2 *ko‘chma.* Cho‘chib, qo‘rqib tinchsizlanaveradigan (shaxs haqida).

**Husayni** [*f.* <*a.* – Hazrati Alining ikkinchi o‘g‘li Husayn nomidan] – uzumning hasaynidan ko‘ra nozikroq, cho‘zinchoqroq o‘rtapishar xo‘raki bir turi; shunday hosil beruvchi tok. *Dildor dala shiyponida bir bosh husayni uzumni oldiga qo‘yib, erinibgina g‘ujumlab yeb*

*o‘tirardi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Tokning toifi, nimrang, husayni, qirmiska... kabi navlarini o‘stirish maqsadga muvofiq.* (Gazetadan).

**Ho‘kiz** – 1. Ikki yoshdan oshib, qo‘shga yaraydigan holga kelgan bichilgan erkak qoramol. *U yerdan suv chiqadi, deb o‘ylash – ho‘kiz sut beradi, deb o‘ylashday gap.* (H. Nazir, «Yonar daryo»). *U kolxozning qo‘sh ho‘kizi bilan o‘z yerini haydamoqda edi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).

2 *ko‘chma. so‘k.* Shu molga nisbatli haqoratni bildiradi. – *Anavi ho‘kizni qarang-u, manavi parini! – dedi Zavrak ancha narida o‘z chodiri yonida turgan Xudododbekni yana ko‘rsatib... – biyron va shaddod qiz o‘shaning qo‘liga tushyapti.* (Mirmuhsin, «Me‘mor»).

**Ho‘l** – 1. Suvga ivigan, suvlangan. *Ho‘l kiyim. Qo‘lim ho‘l. Yomg‘irda kostyumim ho‘l bo‘ldi. Ahmad brigadir qo‘llarini qoziqdagi ho‘l sochiqqa tortinmay artdi.* (S. Nurov, «Narvon»). *..bir qancha gul yaproqlari Charosning ho‘l sochlariga, yuziga yopishib qoldi.* (O‘. Hoshimov, «Qalbingga qu-loq sol»).

2. O‘zida bo‘lgan suvi, nami, shirasi qochmagan. *Ho‘l meva. Ho‘l novda. To‘qayga o‘t ketsa, ho‘l-u quruq baravar yonar.* (Maqol). [*Yo‘lchi*] *Yormat topib bergan bir eski ko‘rpachani quruq yerga yoyib, boshini bir bog‘ ho‘l bedaga qo‘yib, uyquga ketdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *U bolalari oldida aybdordek, ho‘l o‘tin vishillab sasiyotgan o‘choqqa qaradi.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

**Ignabarg** – ba’zi bir doim yashil daraxtlarning, mas., qarag‘ayning igna shaklidagi bargi.

**Ignabargli o‘simliklar** – qarag‘ay toifa (ochiq urug‘li) o‘simliklar bo‘limiga mansub, asosan monopodial, ba’zan simpodial shoxlanuvchi daraxt yoki butalar. Poyasida o‘tkazuvchi naylar o‘rnida serkovak hoshiyali traxeidlar bo‘ladi. Poyasi ikkilamchi yo‘g‘onlashish xususiyatiga ega. Barglari tangacha yoki ignasimon (nomi shundan olingan), poyasida bir necha yil turadi. Ignabargli o‘simliklar shamol yordamida changlanadi. Ularning aksariyat qismini doim yashil o‘simlik turlari tashkil etadi. Yer yuzida ignabargli o‘simliklarning 400 ga yaqin turi bor. Ignasimon bargli, yalang‘och (ochiq) urug‘li o‘simliklar (mas., qarag‘ay, qora qarag‘ay, oq qarag‘ay va sh.k.).

**Ihota** [*a.* – o‘rab olish, devor; qamrab olish] – atrofnı to‘shish, himoya uchun o‘rash, to‘shish va shu maqsaddagi to‘siq, himoyaning o‘zi; qurshov. *Daladagi ihota daraxtlari shoxiga qo‘nib olgan g‘alati qushchalar chug‘urlashib, o‘zaro nima haqdadir bahslashmoqdalar.* (Gazetadan). *Bobur Zarafshon daryosi ko‘rinib nurgan bir joyni o‘rda qilib, atrofiga chugur xandaqlar qazitdi, shox-shabbalardan o‘q o‘tmaydigan ihotalar yaratdi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»). ...*ba‘zida o‘ttiz-qirq otliq ihotasida amirzodalar ham sayrga chiqadi.* (Mirmuhsin, «Me‘mor»).

**Ihota ekinlari, himoya ekinlari** – turli dala ekinlari orasiga maxsus ekilgan ekin qatorlari. Ular, asosan, muayyan sharoitlarda o‘stiriladigan ekinlar (g‘o‘za, bug‘doy, no‘xat, kartoshka, karam, pomidor va b.)ni shamoldan muhofaza qilish, tuproqni shamol eroziyasidan saqlash,

shuningdek, tuproqda qishki-bahorgi yog‘inlar hisobiga ko‘proq nam to‘plash maqsadlarida ekiladi.

**Ikki pallali o‘simliklar, ikki urug‘pallalilar** (*Dicotyledones*) – yopiq urug‘li (gulli) o‘simliklar sinfi. Ular ikki urug‘pallali murtakka ega (nomi shundan). Barglarining to‘rsimon tomirlanishi, poya va ildizlarida alohida to‘qima – kambiy bo‘lishi va ko‘pincha gullari 5 yoki 4 a‘zoli tipdaligi bilan tavsiflanadi, kambiy poya va ildizlarning yo‘g‘on tortishini ta‘minlaydi. Ular o‘tlar, daraxtlar va butalardan iborat. Ikki pallali o‘simliklar yer sharining hamma joyida uchraydi. Ikki pallali o‘simliklar orasida kartoshka, no‘xat, lavlagi, qovun, tarvuz, uzum, olma, g‘o‘za, kungaboqar kabi muhim xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklar bor.

**Ikki uyli gazanda (chayon o‘t, qichitqi** – *urtica dioica L.*) – Gazandadoshlar (*Urticaceae*) oilasiga mansub, bo‘yi 60–120 (150) sm keladigan ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Sibir, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Qozog‘iston va qisman Uzoq Sharqdagi suvga yaqin zax yerlarda, yo‘l yoqalarida, butazorlarda, aholi yashaydigan yerlarga yaqin joylarda, uylar atrofida va tog‘etaklarida o‘sadi. Tibbiyotda bargi ishlatiladi. Bargi tarkibida vitamin S, K, V2, karotinoidlar, pantoten kislota, kversetin, asetilxolin, efir moyi, organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari damlamasi, suyuq va quyuc ekstraktlari, o‘rtifillin va boshqa qon oqishlarni (bavosil kasalligida, o‘pkadan, burundan, ichakdan va hayz buzilganda bachadondan qon ketganda) to‘xtatuvchi vosita sifatida hamda surunkali yaralarni, vitaminlar yetishmasligidan kelib chiqqan,

avitaminozlarni davolash uchun ishlatiladi. Bargidan olingan xlorofill farmatsevtikada va oziq-ovqat sanoatida bo'yoq modda sifatida ishlatiladi.

**Ikki uyli o'simliklar** – gullari bir jinsli bo'lib, changchi gullari bir tupda, urug'chi gullari ikkinchi tupda yetishadigan o'simliklar. Mas., tol, terak va b.

**Ikra – 1.** Ikra, uvuldiriq (baliq, baqa va h.k. tuxumi, urug'i); urug' tashlamoq.

**2.** Ikra (uvuldiriqdan tayyorlangan ovqat mahsuloti); qora ikra; qizil ikra.

**3.** Ikra (to'g'ramcha sabzavot yoki zamburug'dan tayyorlangan ovqat); baqlajon ikra; zamburug' (qo'ziqorin) ikra-si.

**Ildiz (*radix*) – 1.** O'simlikning yerdan suv va o'g'it moddalar olib beradigan yer osti qismi; tomir. O'simlikning eng muhim organi. Ildiz tuproqdan suv va oziq moddalarni so'rib olish, o'zida murakkab birikmalarni sintez qilish va ularni o'simlikning yer ustki qismi (poyasi, barglari)ga ko'tarib berish funksiyasini bajaradi. Ildiz tuproqqa mikroflora rivojini tezlashtiruvchi har xil birikmalar ajratadi va tuproq hosildorligini oshiradi. Bundan tashqari, ildiz ba'zi organik moddalarni sintez qiladi. Ko'pgina o'simlik ildizida zaxira to'planadi. Ildizdan ko'kargan daraxt. *Qayrag'och, teraklarning ildizi yer bag'riga qattiq singgan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Daraxtning bo'yi qancha cho'zilsa, ildizi ham shuncha chuqur ketishi kerak.* (E. Usmonov, «Yolqin»).

**2.** Tish, soch, tirnoq kabilarning teri yoki et orasida joylashgan qismi, tomiri. Tishning ildizi. *Kampirning bir tutam oppoq sochi ildizi bilan yulib olingan.* («Fan va turmush»).

**3 ko'chma.** Asos, negiz, manba.

**4 mat.** Ma'lum bir darajaga ko'tarilganda, o'z-o'ziga ko'paytirilganda, be-

rilgan sonni hosil qiladigan son; radikal. *To'qqizning kvadrat ildizi – uch. Ildizini topmoq.*

**Ildizlar (*radices*)** – dorivor o'simliklar mahsuloti. Erta bahorda yoki kech kuzda kovlab olinadi, tuproq va qumlardan tozalanadi, suvda yuviladi, yiriklari qirqib maydalanadi va ochiq oftobda quritiladi. Farmatsevtikada ular dori shakllari tayyorlash uchun ishlatiladi; maxsus usullar yordamida ayrim dori moddalar, quritilmagan ildizlardan esa shira olinadi.

**Ildizmeva** – ba'zi o'simliklarning oziq-ovqat yoki yem-xashak sifatida ishlatiladigan yo'g'on, go'shtdor ildizi.

**Ildizmevalilar** – iste'mol qilinadigan qismi (mevasi) ildizda bo'ladigan ekin (sabzavot)lar; sershira ildizi, ya'ni ildizmevasi uchun ekiladi. Ko'pgina ildizmevalilar oziq-ovqat va yem-xashak ekini hisoblanadi. Bir yillik ildizmevalilarga rediska, ikki yillik ildizmevalilarga sabzi, lavlagi, sholg'om, bryukva, petrushka, selderey, turp kiradi.

**Ildizpoya (*rhizome*), yertana** – ba'zi ko'p yillik o'tlarning yer ostidagi shakli o'zgargan poyasi. Tashqi ko'rinishi va yer ostida bo'lishi bilan ildizga o'xshasada, lekin ozuqa moddalar to'plashi bilan ildizdan farqlanadi. Ildizpoya vegetativ ko'payish uchun xizmat qiladi, bu xususiyat, ayniqsa, begona o'tlar (g'umay, qamish, ajriq va b.) ga xosdir.

**Ildizpoyalar (*rhizomata*)** – ildizpoya va ildizlar; Kornevisha s kornyami (*Rhizoma cum radicibus*) – ildizpoya ildizi bilan. Dorivor o'simlik mahsulotlari. Ular erda bahorda yoki kech kuzda kovlab olinadi, tuproq va qumlardan tozalanadi, suvda yuviladi, yiriklari qirqib maydalanadi va oftobda quritiladi. (Farmatsevti-

kada ulardan dori shakllarini tayyorlash yoki sof holda dori moddalar olishda foydalaniladi). Ayrim hollarda quritilmagan holatda ulardan shira ham olinadi.

**Ildiz taraladigan qatlam** – o‘simlik ildiz tarmog‘i joylashgan tuproq qatlami. Q.x. da ekiladigan bir yillik o‘simliklar ildizining asosiy qismi (80% ga yaqini) haydalma, ba‘zan esa haydalma osti qatlam (60–80 sm)da tarqaladi. Shuning uchun beriladigan o‘g‘itlar faqat haydalma qatlamga solinadi. Suv berish me‘yorlarini hisoblashda g‘o‘za vegetatsiyasining birinchi davri (meva tugishgacha) uchun avtomorf tuproqlarda 70 sm, meva tugish davri uchun esa 100 sm chuqurlik ildiz taraladigan qatlam deb olinadi.

**Ildiz tukchalari** – ildizning uchki qismidagi mayda tukchalar. Ildiz tukchalari so‘rg‘ich vazifasini o‘taydi. Ular qari ildizlarda yo‘qolib, yosh ildizlarda paydo bo‘la boradi.

**Ildiz chirishi (rizoktonioz)** – q.x. ekinlarining ildizi va poyaning ildizi, bo‘g‘zi qismi kasalligi. Makkajo‘xori, g‘o‘za, sabzavot, poliz ekinlari, kanop, tok va b. kasallanadi. Kasallikni *Rhizoctonia Solani Kuhn.* zamburug‘lari va ba‘zi bakteriyalar qo‘zg‘atadi. Ildiz qorayib, chirib ketadi, ildiz bo‘g‘zida qoramtir-qo‘ng‘ir dog‘lar paydo bo‘ladi, ular bir-biri bilan qo‘shilib, ildizni halqa shaklida o‘rab oladi, ayrim hollarda o‘q ildiz va yon ildizlar ingichkalashadi.

**Ildizmevali va tuganakmevali ekinlar** – tuproq osti poyasi oxirida yoki yonbosh ildizlarida yo‘g‘on, seret va shirali meva hosil qiladigan o‘simliklar guruhi ildizmevali va tuganakmevali sabzavot ekinlari deyiladi.

**Ilik – 1 esk. ayn. qo‘l** (asosan, egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi). *Sabr*

*aylasang, murodingga yetarsan, Nasib bo‘lsa, yor ilkidan tutarsan.* («Tohir va Zuhra»). ...*Xitoy qizlari mo‘g‘ul yigitlari ilkiga tushmaslik uchun yonib turgan uylar ichiga o‘zlarini urganlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.* (M. Osim, «Karvon yo‘llarida»). *Sizga mening maslahatim – Andijonda ko‘p turmang. Ilikka tushib qolursiz.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

2. **Boldir suyagi, oyoqning tizzadan to‘piqqacha bo‘lgan qismi.** *Yana bu oyoq iligidan, yo tizzasidan qirqilgan bo‘lsa ham mayli edi.* (S. Zunnunova, «Ko‘k chiroqlar»). *Ha, ko‘chaga chiqmaysan, eshitdingmi? Hoybola! Ilingingni sindiraman-u, kasalingni boqib o‘tiraveraman.* (N. Safarov, «Saodatning qissasi»).

3. **Odamlar hamda qo‘y, mol va sh.k. hayvonlar oyoqlarining ichida moysimon modda bo‘luvchi qismi; ana shu qismning (go‘shiti bilan) pishirilgani.** – *Qani, barradan oling, o‘g‘lim, – dedi u ilik uzatib. – Qo‘rqmang, bu parranda etiday yengil hazm bo‘ladi.* (A. Mirahmedov, «Qo‘ylar qo‘ziladi»). *Maxsum yeb tozalangan ilikni asta dasturxonga qo‘ydi-da, hayajon ichida baqrayib o‘tirgan Boboqulga tikildi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

4. **Shu suyak ichidagi moysimon modda, to‘qima (iste‘mol etiladi va nihoyatda quvvat-mador bo‘luvchi taom sifatida qaraladi).** *Ilikka pishirilgan palovning mazasi tamoman boshqacha bo‘ladi-da.*

**Ilik, dagana** – ma‘lum vaqt yem berib boqqan bo‘rdoqisini so‘yib, ma‘lum narxda xalqqa tarqatish.

**Ilonbaliq** – 1. Tanasi ilonga o‘xshash uzun baliq. *Bu suvlarda som, ilonbaliq, sazan, marinka kabi baliqlar serob.* (Gazetadan).

2. **Shu baliqqa o‘xshash umurtqali dengiz jonivori.**

**Iloq** – choʻlda bahorda oʻsadigan, qoʻylar uchun eng yaxshi ozuqa hisoblangan koʻp yillik oʻt oʻsimlik. *Bahorda qumda efemer oʻsimliklar: iloq, qoʻngʻirbosh, yaltirbosh va boshqa oʻtlar yaxshi oʻsadi.* (P.Gʻulomov, «Zarafshon etaklarida»).

**Immunitet** [*lot. immunitas, immunitatus* – qutulish; xalos boʻlish, xoli boʻlish] – **1** *biol., tib.* Organizmning oʻzidan irsiy jihatidan yot xususiyatlari bilan farq qiladigan, uning butunligiga va biologik oʻziga xosligiga zarar yetkazadigan mikroorganizmlar (kasallik qoʻzgʻatuvchilar), zaharli moddalar va b.dan himoyalaniş reaksiyasi.

**2** *huq.* Xorijiy davlatlar diplomatik va kolatxonalari va ularning xodimlari foydalanadigan alohida huquq va imtiyozlar.

**3.** Qonun chiqaruvchi davlat organlari aʼzolari (deputatlar)ning daxlsizligi.

**4** *huq.* Guvoh boʻlmaslik daxlsizligi.

**Immunlash** [*lot. immunis* – daxlsiz]– yuqumli kasalliklarning oʻziga xos usullarda oldini olish uchun muddati belgilangan kishilar (hayvon va b.)ga em dorilari qoʻllashga asoslangan epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, ularning umumiy atamasi.

**Immunli nav** – q.x. oʻsimliklarining kasallikni butunlay yuqtirmaslik (immunitet) xususiyatiga ega boʻlgan navi. Immunli nav oʻsimliklari kasallik qoʻzgʻatuvchi mikroorganizmlarni yengish va ular ajratadigan zaharli moddalarni zararsizlantirish qobiliyati (himoya reaksiyasi)ga ega boʻladi. Bunda oʻsimliklar kasallikka mutlaqo chalinmaydi yoki kasallik qoʻzgʻatuvchilar organizmda kasallanish jarayonini qoʻzgʻatishga ulgurmasdan, yuqish davrining boshidayoq nobud boʻladi.

**Immunologiya** [*immunitet* – *yun. logos* – tushuncha, taʼlimot] – organizmning himoyaviy xususiyatlari, uning immuniteti haqidagi fan.

**Inbred hayvonlar** – yaqin qarindoshlarining chatishtirilishidan olingan hayvonlar.

**Inbriding** – yaqin qon-qarindosh hayvonlarni oʻzaro juftlash. «Sof nasl» olish uchun qoʻllaniladi.

**Indikator** [*lot. indicator* – koʻrsatkich] – **1** *tex.* Tekshirish (kuzatish) obyekti boʻlgan narsani yoki biror jarayonning borishini nazorat qiluvchi, kuzatib (qarab) boruvchi asbob, moslama. *Ayni paytda yozib olinadigan ovozning pastbalandligi indikator orqali kuzatiladi.* (Gʻ.Salomov, «Tarjima nazariyasiga kirish»).

**2** *kim.* Kimyoviy jarayonlarning xususiyatlarini, borishini, tugallanishini koʻrsatuvchi modda; reaktiv (ishqor va kislotalar taʼsiridan oʻzgaradigan modda).

**3.** Berilgan kitoblarni hisobga oluvchi kartoteka (kutubxona va oʻquv zallarida).

**Individium** [*lot. individium* – boʻlinmas, ajralmas; alohida] – oʻziga mustaqil yashovchi har bir tirik narsa (shaxs, jonivor yoki oʻsimlik); yakka shaxs. *Tilning individumlar vositasi bilan ijtimoiy funksiya bajarishi kollektiv ichida namoyon boʻladi.* («OʻTA»).

**Individual bonitirovka** – har bir hayvonning konstitutsiyasi, eksteryeri, zotdorligi va mahsuldorlik sifatiga qarab unga kompleks baho berish; berilgan bahosiga qarab hamma koʻrsatkichlar uning individual nomeriga muvofiq maxsus jurnalga yoziladi.

**Infantilizm** – organizm yoki uning organ va sistemalarining rivojlanib yetila olmaganligini ifodalovchi patologik holat; hayvonlarni yaqin qon-qarindoshlari



bilan chatishtirish yoki bo'g'oz hayvonlarni yomon sharoitlarda boqish, buzoqlarni chala-yarim ovqatlantirish, yomon ahvolda asrash oqibatida kelib chiqadi.

**Infeksiya** [lot. *infectio* – zararlanish < *inficere* – yuqmoq, yuqtirmoq; zararlanmoq, zaharlanmoq] – 1 tib. Kasallik paydo qiladigan mikroorganizmlar tufayli kasallikning yuqishi; yuqtirishlik. Infeksiya manbai kasal odam hisoblanadi. Infeksiyaning oldini olish choralari. *Bola organizmining infeksiyalarga qarshi chidamliligini oshirishda chiniqishning mohiyati kattadir.* («Saodat»).

2. Hayvon organizmiga biror kasallik chaqiruvchi (patogen) mikroorganizm yoki virusning tushishi va organizmning kasallik yuqqan holati.

**Infekzion kasalliklar** – patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng sodda jonivorlar va h.k.)ning kishi, hayvon va o'simlik organizmiga kirib ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar.

**Infekzion kasalliklar** (o'simliklarda) – o'simliklarning tirik tabiat omillari ta'sirida vujudga keluvchi yuqumli kasalliklari. Bularga o'simliklardagi virusli kasalliklar – mozaika kasalliklarining turli xillari, sariq kasal, pakanalik, g'umbaklanish va b.; bakterial kasalliklar – gommoz, yopishqoq bakterioz, bakterial chirishlar va b.; zamburug'li kasalliklar – un-shudring, vilt va aspergillyoz, shuningdek, antofitozlar, gelmintofitozlar va b. kiradi. Infekzion kasalliklarga parazit hasharotlar va kanalar (ayniqsa, o'rgimchakkana) sababchi bo'lishi mumkin.

**Infratuzilma** – ishlab chiqarish va tovar muomalasiga xizmat qiluvchi va inson (jamiyat) hayot faoliyati uchun zarur

bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiladigan turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi sohalar majmui. *O'z navbatida, bankning infratuzilmasi ham jadal rivojlanib bormoqda.* (Gazetadan).

**Ijtimoiy-maishiy infratuzilma** – aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalar – maorif, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat va b.

**Ishlab chiqarish infratuzilmasi** – ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi sohalar – transport, elektr va issiqlik ta'minoti, suv xo'jaligi, aloqa-axborot xizmati va b.

**Ingichka barg jiyda (qo'sh jiyda, qapfa jiyda** – *elaegnus angusti – folia L.*) – Jiydadozlar (*Elaeagaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 3–7 m ga yetadigan daraxt. Markaziy Osiyo, G'arbiy Yevropa qismining janubiy nohialari, Kavkaz va G'arbiy Sibirdagi to'qayzorlarda o'sadi. Ba'zan maxsus o'stiriladi. Xalq tabobatida mevasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida ko'p miqdorda qandlar (fruktoza, glyukoza), tanidlar, organik kislotalar, vitamin S, mineral moddalar (ko'p miqdorda kaliy va fosfor tuzlari), bargida vitamin S, gulida efir moyi, po'stlog'ida alkaloidlar (eleagnin va b.) bor. Jiyda mevasi, qaynatmasi xalq tabobatida me'da-ichak kasalliklarida (ichketarda, ayniqsa, bolalarda), yuqori nafas yo'llari shamollaganda qo'llaniladi. Mevasining yumshoq qismidan olingan pshatin preparati ilmiy tibbiyotda (ichketarda) ichishga, og'iz bo'shlig'i yallig'langanda uni chayish uchun beriladi. Daraxt tanasining yelimi farmatsevtika amaliyotida emulgator sifatida qo'llaniladi.

**Ingichka tolali g'o'za, uzun tolali g'o'za** – 37–42 mm va undan uzun tola beradigan g'o'zalar. Ingichka tolali g'o'zalarga asosan *Gossypium barbadense*

se *L. turiga* mansub navlar kiradi. Jahonda paxta tolasi ishlab chiqarishda ingichka tolali g'ozalar o'rta tolali g'ozalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ingichka tolali g'ozaga ko'p mamlakatlarda, jumladan, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Misr, Sudan, Peru, Shim. Braziliya, Nigeriya, AQSH va katta maydonlarda ekiladi.

**Inkarnat (to'q qizil) passiflora** (*passiflora incarnata L.*) – Passifloradoshlar (*Passifloraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 9 metr gacha yetadigan, jingalaklari yordamida osilib o'sadigan ko'p yillik chirmoviq o'simlik. Vatani Shimoliy Amerikaning subtropik nohiyalari. Gruziyaning subtropik yerlarida ko'p yillik o'tsimon o'simlik sifatida o'stiriladi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar, glikozidlar, flavonoidlar, kumarinlar va boshqa moddalar bor. Suyuq ekstrakti markaziy nerv sistemasini tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, uyqusizlikda, asab kasalliklarini, surunkali alkogolizmni davolashda qo'llaniladi.

**Inkretlar** – ichki sekretsiya bezlarining bevosita qonga yoki limfaga ajratiladigan moddalari (gormonlari).

**Inkrossing** – bir xil zotli hayvonlardan yetishtirilgan ikki inbred ajdodlar krossi; geterozis («duragay kuchi» hodisasi) chorva mollarini (shu jumladan, qushlarni ham) olishda qo'llaniladi.

**Inkubator** [*lot. insubare* – tuxum bostirib jo'ja ochirmoq] – 1. Tuxumdan sun'iy yo'l bilan [tuxum bos(tir)may] jo'ja ochiriladigan apparat. *Ayniqsa, inkubatorlarni remont qilish... ishlari nihoyasiga yetkazilmadi.* (Gazetadan). 2 s. t. ayn. inkubatoriya. *Inkubatoridan urug' keltirilgan dastlabki kunlarni esladi Bahri opa.* (M. Qo'shoqov, «Katta xirmon jilg'asi»).

**Inkubatoriya** – tuxumdan sun'iy yo'l bilan jo'ja yoki pilla qurti ochiriladigan maxsus joy. *Qurt urug'ini inkubatoriyada ochirish ...bir vaqt Ikroma buvi qatnab yurgan inkubatoriya yonida zavodning kutubxonasi bor...* (A. Muxtor, «Kumush tola»). *Ikki haftadan keyin Darmonjon inkubatoriyadan qurt keltirib berdi.* (A. Mirahmedov, «O't yuraklar»).

**Inkubatsiya** [*lot. incubatio* – tuxum bostirib jo'ja ochirish] – maxs. Tuxumdan jo'ja yoki pilla qurti ochirish. *Yil oxirigacha fabrikaaning inkubatsiya xo'jaligi har taraflama kengayadi.* (Gazetadan).

**Inkubatsiyani biologik kontrol qilish** – ochiriladigan tuxumlarga baho berish va qishloq xo'jaligi parrandalarining embrional rivojlanishini kuzatish sistemasi.

**Inkubist** – inkubatoriyada ishlovchi kishi. *Inkubist va zveno boshliqlari bilan bir haftalik kurs va seminar o'tkazilib, qurt boqish agrotexnikasi va ilg'or tajribalar o'rganildi.* (Gazetadan).

**Inkubatsiya davri** – 1) tuxumdan jo'janing ochilishi davri; 2) *tib.* Kasal yuqqandan uning birinchi belgilari paydo bo'lguncha o'tadigan davr, kasallikning yashirin davri.

**Innovatsiya** (*inglizcha «innovation»*) – «kiritilgan yangilik», «ixtiro» *so'zidan*) – ilmtalab va fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlari, ilmiy-texnika ishlanmalari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishini ifoda etadi.

**1 iqt.** Texnika va texnologiyaning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar.

2. Ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va b. sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanishi.

3 *tlsh.* Muayyan tilda, asosan, uning morfologiya sohasida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari).

**Insektitsidlar** (*lot. insectum* – hasharot va *caedo* – o'ldiraman) – zararkunanda hasharotlarni yo'qotish uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalar. Insektitsidlar yordamida zararkunanda, shuningdek, yuqumli kasalliklar tarqatuvchi hasharotlarga qarshi kurash olib boriladi.

**Inspeksiya** [*lot. inspectio* – kuzatish, nazorat] – 1. Muayyan soha qaramog'ida gi organlar va shaxslar faoliyatining to'g'riligini nazorat qiluvchi va tekshiruvchi tizim. *Qishloq xo'jalik inspeksiyasi.*

2. Nazorat organlari.

**Instinkt** [*lot. instincsus* – qo'zg'atish; ishontirish; ilhom] – 1 *biol.* Tirik organizmning tashqi va ichki muhit ta'sirlariga nisbatan ongsiz ravishda, ammo tug'ma, maqsadli harakatlari yig'indisi; bir-biriga bog'liq bo'lgan tug'ma reflekslar. *Menga qarshi gapirish instinkt bo'lib qolibdi Sizga.* (A. Muxtor, «Tug'ilish»).

2. His-tuyg'u; tabiiy mayl, intilish.

3. Ichki yoki tashqi muhit o'zgarishlariga javoban organizmning tug'ma aktlari majmuasi. Instinktlar gruppalariga bo'linadi: ovqatlanish instinkti – oziq izlash, o'lja topish, oziq yig'ish, himoyalash instinkti – yashash uchun kurash, jinsiy instinkt – sut emizuvchilarda urg'ochisi uchun kurash va h.k.

**Instinktiv** – instinktga xos, instinkt tarzida yuz beradigan; g'ayrihuuriy. *Gavhar bolalarga xos instinktiv bir uyg'u bilan Hakimovni yomon ko'rar...*

*edi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). *Ba'zan hayvonlar organizmida oziq moddalari yetishmayotganligini sezadi va instinktiv ravishda uning o'rnini to'ldirishga intiladi.* (G'. Mahkamov, «Salomatlik garovi»).

**Integratsiya** (*lot. integratio* – «tiklash, to'ldirish, birlashtirish, butun») so'zini anglatadi) – masalan, qishloq xo'jaligi tarmoqlari, jumladan ilm-fani, ta'limi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtirish.

**Intensifikatsiya** – intensivlash, kuchaytirish, zo'raytirish, jadallashtirish, samarali qilish, unumdorligini oshirish. *Qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirish, qishloq xo'jaligini samarali qilish.*

**Intensiv** [*fr. intensif* < *lot. intensio* – g'ayrat qilish; kuchayish] – 1. Ortiq darajada jadal, tez, qizg'in, tig'iz; eng serunum. *Intensiv harakat. Intensiv tebranishlar. O'zbek tilini xorijliklarga intensiv o'rgatish kurslari. Ko'pgina xo'jaliklar chorvachilikni intensiv rivojlantirish yo'liga o'tib, yaxshi natijalarga erishmoqdalar.* (Gazetadan).

2. Eng ko'p mahsul beradigan, serunum. *Dehqonchilikning intensiv tizimi.*

**Intensiv bog'lar** – meva daraxtlarining jadal hosilga kirishini ta'minlaydigan agrotexnologiyalar asosida yaratilgan bog'lar intensiv bog'lar deb ataladi.

**Interyer** – organizmning anatomik-gistologik, fiziologik va bioximiyaviy xususiyatlari majmuasi.

**Introduksiya** (*lotincha «introduktion»* – «joriy qilish», «kiritish») – kishilar tomonidan o'simliklar turlari va navlarini, uy hayvonlari zotlarini, foydali hasharotlar turlarini o'z tabiiy yashab kelgan makonidan ilgari uchramagan hudud-

2. Ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va b. sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanishi.

3 *ilsh.* Muayyan tilda, asosan, uning morfologiya sohasida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari).

**Insektitsidlar** (*lot. insectum* – hasharot va *caedo* – o'ldiraman) – zararkunanda hasharotlarni yo'qotish uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalar. Insektitsidlar yordamida zararkunanda, shuningdek, yuqumli kasalliklar tarqatuvchi hasharotlarga qarshi kurash olib boriladi.

**Inspeksiya** [*lot. inspectio* – kuzatish, nazorat] – 1. Muayyan soha qaramog'ida gi organlar va shaxslar faoliyatining to'g'riligini nazorat qiluvchi va tekshiruvchi tizim. *Qishloq xo'jalik inspeksiyasi.*

2. Nazorat organlari.

**Instinkt** [*lot. instincus* – qo'zg'atish; ishonitirish; ilhom] – 1 *biol.* Tirik organizmning tashqi va ichki muhit ta'sirlariga nisbatan ongsiz ravishda, ammo tug'ma, maqsadli harakatlari yig'indisi; bir-biriga bog'liq bo'lgan tug'ma reflekslar. *Menga qarshi gapirish instinkt bo'lib qolibdi Sizga.* (A. Muxtor, «Tug'ilish»).

2. His-tuyg'u; tabiiy mayl, intilish.

3. Ichki yoki tashqi muhit o'zgarishlariga javoban organizmning tug'ma aktlari majmuasi. Instinktlar gruppalariga bo'linadi: ovqatlanish instinkti – oziqlanish, o'lja topish, oziq yig'ish, himoyalash instinkti – yashash uchun kurash, jinsiy instinkt – sut emizuvchilarda ergashchisi uchun kurash va h.k.

**Instinktiv** – instinktga xos, instinkt asosida yuz beradigan; g'ayriushuriy. *Garib bolalarga xos instinktiv bir harakat bilan Hakimovni yomon ko'rar...*

*edi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). *Ba'zan hayvonlar organizmida oziq moddalari yetishmayotganligini sezadi va instinktiv ravishda uning o'rnini to'ldirishga intiladi.* (G'. Mahkamov, «Salomatlik garovi»).

**Integratsiya** (*lot. integratio* – «tiklash, to'ldirish, birlashtirish, butun» so'zini anglatadi) – masalan, qishloq xo'jaligi tarmoqlari, jumladan ilm-fani, ta'limi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtirish.

**Intensifikatsiya** – intensivlash, kuchaytirish, zo'raytirish, jadallashtirish, samarali qilish, unumdorligini oshirish. *Qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirish, qishloq xo'jaligini samarali qilish.*

**Intensiv** [*fr. intensif* < *lot. intensio* – g'ayrat qilish; kuchayish] – 1. Ortiq darajada jadal, tez, qizg'in, tig'iz; eng serunum. *Intensiv harakat. Intensiv tebranishlar. O'zbek tilini xorijliklarga intensiv o'rgatish kurslari. Ko'pgina xo'jaliklar chorvachilikni intensiv rivojlantirish yo'liga o'tib, yaxshi natijalarga erishmoqdalar.* (Gazetadan).

2. Eng ko'p mahsul beradigan, serunum. *Dehqonchilikning intensiv tizimi.*

**Intensiv bog'lar** – meva daraxtlarining jadal hosilga kirishini ta'minlaydigan agrotexnologiyalar asosida yaratilgan bog'lar intensiv bog'lar deb ataladi.

**Interyer** – organizmning anatomik-gistologik, fiziologik va bioximiyaviy xususiyatlari majmuasi.

**Introduksiya** (*lotincha «introduktion»* – «joriy qilish», «kiritish») – kishilar tomonidan o'simliklar turlari va navlarini, uy hayvonlari zotlarini, foydali hasharotlar turlarini o'z tabiiy yashab kelgan makonidan ilgari uchramagan hudud-

larga ko'chirish (jalb etish), o'simliklar introduksiyasi ko'proq uchraydi.

Hozir deyarli barcha qit'alarda yetishtirilayotgan madaniy o'simliklarning ko'pchiligi turli geografik o'lkalardan farqlangan, «ko'chirib keltirilgan» o'simliklardir.

**Introduksion ko'chatzor** – iqlim sharoiti boshqacha mamlakat va o'lkalardan keltirilgan q.x. o'simliklarini ekish, o'rganish va ko'paytirish uchun ajratilgan maydon (dala). Ko'chatzordan seleksiya ishida foydalanish uchun boshlang'ich material sifatida ayrim qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan nusxalar tanlab olinadi.

**Intoksikatsiya** [lot. *in* – ichki + *yun. toxikon* – zahar] – organizmning tashqaridan tushgan yoki organizmning o'zida hosil bo'lgan zaharlar ta'sirida zararlanishi.

**Investitsiya** [nem. *Investition* < lot. *investire* – kiyintirmoq, sarpo bermoq] – mamlakat ichkarisida yoki chet elda, foyda ko'rish maqsadida, biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga kapital qo'yish, kiritish va shunday kapitalning o'zi. *Viloyatlarda xorijiy investitsiyalar bilan qurilayotgan korxonalar yaqin orada, albatta, o'z natijasini beradi.* (Gazetadan). *Bugungi kunda investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotimizning ulug'vor vazifalaridan biridir.* (Gazetadan).

**Investor** [ingl. *investor* < lot. *investire* – kiyintirmoq] – investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs, tashkilot yoki davlat. *Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlarini va ularni himoya qilish choralari belgilaydi.* (Gazetadan).

**Inyeksiya** [lot. *injectio* – yuborish] – teri orasiga dori yuborish; ukol. *Inyeksiya usuli bilan qo'llangan dori organizmga juda tez ta'sir qiladi.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Ip** – 1. Paxta, xom ipak, zig'ir, jun va sh.k. tolasidan ingichka qilib yigirilgan yoki yigirilmagan tikuv, to'quv materiali. Pishiq ip. Xom ip. Mashinaga ip solmoq. Ip gazlama. [*Alioxun*] *Bir necha minutdan so'ng turib... ignani oldi, qayerdandir ip topib, eski, seryamoq ko'ylagining yirtig'ini tikishga o'tirdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Buni sotib, charm, ip, sirach, mum singari kosibchilik uchun kerakli ashyolarni oladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Umuman, bog'lash, o'rash va sh.k. maqsadlar uchun qo'llanadigan narsa (mas., shnur, kanop, chilvir). Botinka ipi. *Mard yigit qo'lida ajdar o'ladi, Nomard odam ipni ajdar biladi.* (Maqol). *Tog'asi, so'yilgan qo'yning ipini oldi-yu, shoshib, tashqariga chiqib ketdi.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o»).

3. Pay, ichak va sh.k. dan cholg'u asboblari uchun tayyorlangan tor.

4 ko'chma. ayn. **rishta** 3.

5 ko'chma. Yo'l, chiziq, xat.

**Ipak** – 1. Pilla qurti chiqargan juda ingichka, pishiq, yaltiroq, tovlanib turadigan muloyim tola va undan yigirilgan ip. Xom ipak. Pishitilgan ipak. *Ipak tolalari sifatini yanada yaxshilash borasida olib borilgan izlanishlar ijobiy yakunlandi.* (Gazetadan). *Adolat qopchig'ini ochdi. Unda angishvonadan tortib, ip, ipaklargacha bor edi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Shunday iplardan to'qilgan mato, shoyi va undan tikilgan kiyim yoki buyum. Ipak gilam. Ipak ro'mol. *Zaynab*

ham tamom ipaklarga ko'milib yasangan, kecha erga tekkan yangi kelinlar suratiga kirgan edi. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**3 ko'chma.** Muloyim, nozik. *Botirali xotining qalin ipak sochini silab gapirdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Ipak paxta** – ingichka tolali g'o'zalar paxtasining xalq tilida nomlanishi. Ipakdek mayin, tolasi uzun, silliq va tovlanuvchan bo'lganidan shunday nom olgan.

**Ipak qurti** – hasharotlar sinfi, tangaqanotlilar turkumi, tut va eman ipak qurti oilasiga kiradigan kapalaklarning qurtlik (lichinka) davri. Ipak qurtlari *Bombycidae* va *Saturnidae* oilalariga bo'linadi.

**Ipak qurti boqish** – tabiiy ipak ishlab chiqarish yoki ipak qurtini oziqlantirib, parvarish qilish. Ipak qurti boqish 25–27 kun davom etadi va 3 davrga bo'linadi: ikkinchi davri – 4-yoshdagi qurtlarni boqish; uchinchi davri – 5-yoshdagi qurtlarni boqish.

**Ipak qurti kasalliklari** – ipak qurtlarida uchraydigan kasalliklar. Tut ipak qurtlarida, asosan, quyidagi kasalliklar uchraydi: Sariq (virus) kasalligi ipak qurti, kapalagi hamda g'umbaklarida uchraydi. Virus, asosan, qurt terisidagi jarohat orqali yuqadi. Kasallangan qurt sarg'ayib, har tarafga o'rmay boshlaydi, ko'pincha so'kchakdan tushib ketadi.

**Ipak qurti zararkunandalari** – ipak qurtiga shikast yetkazadigan zararkunandalar. Ko'pincha, hasharot (chumoli, ari, qora chigirtka, pashshalar va b.), qurbaqa, ilon, sichqon, qush va b. qurtlarni yeb ketishi, jarohatlanishi va yuqumli kasalliklar tarqatishi bilan pilla yetishtirishga katta ziyon yetkazadi.

**Ipakchilik** – **1.** Qishloq xo'jaligining pilla yetishtirish ishi bilan shug'ullanadigan tarmog'i. *Ipakchilik xo'jaligi. Ipakchilik boshqarmasi.*

**2.** Yengil sanoatning asosan tabiiy va sun'iy ipak tolasi va b. turli tolalar birikmasidan ipak (shoyi) gazlamalar to'qib chiqaradigan tarmog'i. *Ipakchilik kombinati (fabrikasi).*

**Ippodrom** [*yun. hippodromos* < *hippos* – ot + *dromos* – yugurish joyi] –

**1.** Yo'rg'a va poygachi otlarni sinab ko'rish va ot sporti bo'yicha musobaqalar (poyga, uloq va b.) o'tkazish uchun maxsus jihozlangan inshootlar majmui; otchopar. *Ippodromning tomoshabinlar uchun solingan keng va baland minbaridagi bo'sh o'rinlarga odamlar shoshilib joylasha boshladilar.* (Y. Shukurov, «Birinchi parvoz»).

**2.** Shunday sinovlar va musobaqalarni tashkil etuvchi muassasa. *Ippodrom ma'muriyati.*

**Ippologiya** (*yun. hippos* – ot va ...*logiya*) – otlar to'g'risidagi fan. Ippologiyaga oid birinchi yozma asarlar mil. avv. bir necha yuz yil oldin Yunonistonda vujudga kelgan bo'lib, unda otning gavda tuzilishi, fe'l-atvori va otlardan foydalanish kabi ma'lumotlar bayon etilgan. Keyingi asrlarda ippologiya doirasi tobora kengayib bordi. XX asr boshlariga kelib ippologiya otlarning evolutsiyasi va ularni xonakilashtirish; anatomiyasi va fiziologiyasi; urchitish usullari va ko'paytirish biologiyasi; zotlarni takomillashtirish va yangi ot zotlarini yaratish, naslchilik ishlari; ot sinovlarini o'tkazish; otda yurish san'ati va nazariyasi; milliy ot o'yinlari va b. haqidagi ko'pgina bo'limlarni o'z ichiga olgan fanga aylandi.

**Iqlim** [a. – mintaqa, hudud, o'лка; ob-havo < *yun. klima, klimatos* – egish, engashtirish; mayl, moyillik] – 1. Muayyan joyning o'ziga xos, har yili takrorlanuvchi odatdagi ob-havo sharoiti. Tog' iqlimi. Dengiz iqlimi. Iqlim o'zgarishlari. *Markaziy Osiyo respublikalari juda quruq iqlim bo'lgan zonada joylashgan.* («Fan va turmush»). *Tortiq etmish tabiat xush iqlim, toza havo.* (Y. Mirzo).

2 *ko'chma.* Sharoit. *Mehnat jamoasidagi ma'naviy iqlimning yaxshi yoki yomon bo'lishi ko'p jihatdan rahbarga bog'liqdir.* (Gazetadan).

3. Dunyo, uning bir qismi; mintaqa. *Chiroyli, popukday bir qiz o'ynadiki, ah-ah, iqlimda misli yo'q...* (Oybek, «Ulug' yo'l»). *G'ayrat qilgan kishi iqlim so'raydi, Yuragi katta har bir ishga yaraydi.* («Erali va Sherali»). *Bu xabar butun iqlim bo'ylab tarqaldi.* («Yoshlik»).

**Iqlimiy** – iqlimga oid. Iqlimiy sharoit. *Mamlakatimizning turli iqlimiy zonalarida o'suvchi o'simliklar turli vaqtlarda gullaydi.* («Fan va turmush»).

**Iqlimlashmoq** – biror yerning iqlimiga moslanmoq, iqlimga o'rganmoq (o'simlik, hayvon haqida). *Subtropik mevalar, asosan... Kavkaz, Qrim va boshqa joylardan keltirilib, respublikamizning janubiy rayonlarida endigina iqlimlashayotir.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Iqtisod** [a. – xo'jalik; tejab-tergash; ekonomika] – 1. Sarf-xarajatda tejamkorlik, tejab (asrab) qolish. *Ishga omilkorlik bilan yondashish, iqtisod va tejamkorlikda shaxsiy namuna ko'rsatish – shu kunning talabi.* (Gazetadan).

2 *s.t.* Yeyish-ichish; yeyish-ichish bilan bog'liq holat. *Oilada janjal asosan*

*iqtisod xususida chiqadi.* (F. Musajonov, «Himmat»). – *Xo'sh, endi iqtisodga o'taylik, – yigit yon daftar bilan qalamni qo'liga oldi. – Qani, ko'ngillari nimani xohlaydi?* («Mushtum»).

### 3 *ayn. iqtisodiyot.*

**Iqtisodiy intervensiya** – davlat, korporativ va bozor boshqaruvi (tartibotlari) mexanizmlari orqali resurslarni qayta taqsimlashning maxsus shakllari majmui.

**Iqtisodiyot** [a. – xo'jalik masalalari, xo'jalik] – 1. Ijtimoiy tuzumning bazasi.

2. Xalq xo'jaligi ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. Respublikaning iqtisodiyoti. *Natijada shahar iqtisodiyoti o'nlanib, sarmoya va valyuta tushumi muttasil ortmoqda.* (Gazetadan). *Bugungi kunda investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotimizning ustuvor vazifalaridan biridir.* (Gazetadan).

3. Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan.

**Irmoq** – katta daryoga quyiladigan daryo, soy, jilg'a. Odatda irmoq o'zi quyiladigan daryodan kamsuv, shuningdek, vodiysi boshqa tomonga yo'nalgan bo'ladi. Ko'l va boshqa ichki suv havzalariga quyiladigan daryolar ham ba'zan irmoq deyiladi.

**Irrigatsiya** [*lot. irrigation* – suv quyish; *sun'iy sug'orish*] – suvsiz yerlarga suv chiqarish, dalalarni, ekin maydonlarini sug'orish ishlari. Irrigatsiya inshootlari. *Respublikamizda irrigatsiya va melioratsiya hamda yangi yerlarni o'zlashtirish darajasi benihoya yuqori.* («Fan va turmush»).

**Irrigatsion** – irrigatsiyaga, sug'orish ishlariga oid. *Irrigatsion inshootlar.*

**Irrigator** – irrigatsiya, suv chiqarish ishlari mutaxassisi. *Katta Namangan kanalining ikkinchi navbati irrigatorlar tomonidan juda qisqa muddat ichida qurib bitkazilmoqda.* (Gazetadan).

**Irsiy** [a. – nasldan naslga o'tgan; merosga oid] – *biol.* Naslga oid, nasldan naslga o'tadigan; nasliy. *Fanda shu tushuncha avvaldan ma'lum, gen irsiy belgini tashuvchi narsa, deb qabul qilingan.* («Fan va turmush»).

**Irsiyat** [a. – vorisiylik, merosiylilik, irsiylik] – *biol.* Tirik organizmlarning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini saqlash va nasldan naslga o'tkazish, o'ziga o'xshash nasllarni bunyod etish qobiliyati, shunday xususiyat. *Yangi tug'ilgan buzoqchalar chuqur tekshirib ko'rildi va ularda dasturlashtirilgan barcha irsiyatlar mavjud ekanligi aniqlandi.* («Fan va turmush»).  
...*irsiyatning ma'nosi – oqsil sintez qilish qobiliyatining nasldan naslga o'tishidir.* («Fan va turmush»).

**Irsiy kasalliklar** – nasldan naslga o'tadigan, suyak suradigan kasalliklar. *...dunyoda har xil irsiy kasalliklarning ko'pligi ham irsiyatning ijtimoiy muhitga bog'liq ekanligidan dalolat beradi...* (Y. Sattorov, «Irsiyat va taqdir»).

**Irsiylik koeffitsiyenti** ( $H^2$ ) – muayyan jonzotlar populatsiyasida belgining umumiy o'zgaruvchanlik darajasi irsiy omillarga qay darajada bog'liqligini ko'rsatuvchi qiymat.

**Iskana payvand** – bog'dorchilikda payvandtagni iskana (yoki o'tkir pichoq) bilan yorib, unga novda (payvandust)ni saqlash yo'li bilan qilinadigan payvand. Asosan, bahorda, kurtaklar uyg'onmasdan o'tkaziladi. Qarigan, hosili past toklarda nav tarkibini iskana payvand

yo'li bilan o'zgartirish va yaxshilash mumkin.

**Islohot** [a. – «isloh» s. ko'pl] – ijtimoiy hayotning biron-bir tomonini jiddiy o'zgartirish; isloh. *Navqiron yangi davlatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlar bilan bir qatorda, ma'naviy-ma'rifiy ishlariga ham ustuvorlik berildi.* (Gazetadan).  
*O'tkazilayotgan har bir islohot jamiyat manfaatiga xizmat qilgan taqdirdagina kutilgan samarani beradi.* (Gazetadan).  
*Barcha jabhalarda islohotlar ketayapti. Nazarimda, inson farzi, burchi, qadri ma'nosida ham o'zbekona harakatlar qilmoq vaqti yetganga o'xshaydi.* (Gazetadan).

**Yer islohoti** – yer munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish va egalik qilishning yangi shakllariga o'tish maqsadida huquqiy, iqtisodiy, texnik va tashkiliy tadbirlar majmui.

**Ismaloq** (*Spinacia oleracea* L.) – sho'radoshlar oilasiga mansub, bo'yi 25–50 sm keladigan, bir yillik yoki ikki yillik, ikki uyli, o'tsimon o'simlik. Asli Erondan. Mo'tadil iqlimli mamlakatlarda keng miqyosda ekiladi. Vitaminlar, kalsiy tuzi va temir moddasiga juda boy bo'lgan barglari uchun o'stiriladi. Uning barglari xom, qaynatilgan yoki konserva qilingan holda iste'mol qilinadi. Ismaloq urug'lari erta bahorda ochiq yerga ekiladi, barglari gulpoya hosil bo'lmasdan yig'ib olinadi, uning hosili gektaridan 10–15 t ga yetadi. Ismaloq parnik va issiqxonalarda ham o'stiriladi. «Yuliana», «Virofle», «Ros-tov» kabi navlari juda mashhur.

**Issiqxona** – noqulay iqlim sharoitida yil bo'yi sabzavotlar, gullar, ko'chatlar, mevalar yetishtirish uchun ekinlarga



sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik va b.) yaratiladigan inshoot.

1. Hammomning terlatadigan darajada isitiladigan alohida xonasi. *Yaqinginada yuz va sochlarini silab esgan shabada hozir susayib, havo hammomning issiqxonasi dagiday dim bo'lib qoldi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

2. O'simlik yoki hayvonlarni sovuq vaqtda parvarishlash uchun quyosh nuri bilan isitiladigan maxsus oynavon qurilma, bino. Parniklar va issiqxonalarda yetishtirilgan ertangi sabzavot. *Goh idorada, goh laboratoriyada, goh o'simlik, gullar o'stirilayotgan issiqxonada to'qnash kelib qolishsa, rasmiygina salomlashib o'tishadi.* (S. Nurov, «Narvon»). *Qo'shni mahalladagi issiqxona egasi oltmish ming so'm oylik bermoqchiligini aytdi.* (Gazetadan).

**Istoben zot qoramol** – sut yo'nalishidagi qoramol zoti; sobiq Vyatsk guberniyasi (hozirgi Kirov oblasti)ning mahalliy mollari ko'p yillik saralash va ularni xolmogor, shvis, yaroslavl va golland zotlari bilan chatishtirib yaxshilash yo'li bilan yetishtirilgan. Tusi qora, qora-ola, qizil va qizil-ola; ko'pincha orqasi oq bo'ladi. Buqalarining tirik vazni 650–720 kg. Yiliga 3000–3500 l, ayrimlari 8366 l gacha sut beradi. Sulining yog'liligi 4,1–4,2 %, ba'zi bir sigirlarniki 5 % gacha boradi.

**It** – 1. Uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ov ovlash va sh.k. maqsadlar uchun saqlanadigan to'rt oyoqli sutemizuvchi uy hayvoni. Ko'ppak it. Ov iti. *Katta temir darvoza ostida cho'zilib yotgan xirsday it boshini ko'tarib irilladi.* (A. Qahhor, «Boshsiz odam»).

2. Shu hayvonga nisbatlanuvchi haqoratni bildiradi. *Azizbek qarshisida qo'l*

*bog'lab turgan darvoza begiga baqirdi: – Nega qarab turasan, darvoza ustiga chiq, kim ekan u it?! (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).* *Xalq tovushi tinimsiz guvullaydi: – Bu yoqqa chiq, itlar! (Oybek, «Tanlangan asarlar»).*

**It emgan** (so'k.) *Itvachcha, itdan tarqagan. – Bu yoqqa kel, it emgan! – dedi mingboshi qizil ko'zlarini ola-bula qilib.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t. o»).

3 *ko'chma.* Birovning manfaatlarini himoya qilib, boshqalarga zulm o'tkazuvchi odam; malay. *Musulmonqulning iti bo'lmasa, o'zimizdan mingboshi bo'larlik odam qurib qoluvdimi, deyman.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Keling, sherdargohning iti, tortinmang, yuqoriga o'ting.* (K. Yashin, «Hamza»).

4. Muchal yil hisobida o'n birinchi yil nomi; sak. *Uning yili it.*

**Boshiga it kunini solmoq.** Rosa qiynamoq, o'ta azob-qiynoqqa solmoq. *Ular qishloqdagilarning boshiga it kunini solibdi: dehqonlarni qiynabdi, o'ldiribdi; paxta eksalaring – o'ldiramiz, deb do'q uribdi.* (H. Tursunqulov, «Hayotim qis-sasi»). *Bo'ynidan bog'langan it ovga yaramas.* (Maqol). «Xohishi bo'lmagan kishini zo'rlaganing bilan ish bermaydi, degan ma'noda ishlatiladigan maqol.

**Itazobi** – nihoyatda qiyin, mashaqqatli holat, ahvol. *Bilasanmi sen bu o'zbo-shimchaliging bilan otangni it azobiga solishingni?* (K. Yashin, «Hamza»). [Hojar:] *It azobida kechani kunduzga ulab mehnat qila-qila, endi yurt orasida sher qildim deganda, obro'ni to'kib qo'ysam, qanday ko'rgilik!* (Hamza, «Paranji sirlari»). **It boqmaydi** – nazar, e'tibordan qolgan, e'tibor berilmaydigan

shaxs yoki narsa haqida, unga nisbatan qoʻllanadi. – *Buvijon, buvijonga... it boqmaydi-yu, ammo oʻz bilganini qiladi, – dedi kampir buvi Poʻlatjon akaga.* (Mirmuhsin, «Umid»). **It tegdi** yoki **it tekkan** – nopok, harom boʻldi (nomusiga tegilgan ayol haqida). *Qay yuz bilan boqaman unga? Meni kechirarmikan? Kechirmas! Axir menga it tekkan.* (S. Ahmad, «Hukm»). **It hasratda** – ayn. **It azobi(da).** **It dan suyak qarz** – qarzi juda koʻp, hammadan qarz. **Itining tuvagi oltidan** – juda ham boy, oshib-toshib ketgan boy. **Itning keyingi oyogʻi** – ish, faoliyat va sh.k. da qatordagilar-dan (boshqalardan) eng oxirda ekanlikni bildiradi... *biror hunar-punar oʻrgansin. Yoʻqsa, itning keyingi oyogʻi boʻlib qoladi.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»). **Ichini it tatalamoq** (yoki **tirnamoq, kemirmoq**). ayn. **Ichini mushuk tatalamoq** (*q.ich*). Nihoyatda bezovta boʻlmoq, tinchsizlanmoq. *Shu vaqtgacha shoirning hayoti uchun qoʻrqib, ichini it tirnayotgan vazir yengil nafas olib, javob oʻrniga bosh egib qoʻydi.* (M. Osim, «Zulmat ichra nur»). *Choy ichayotibman-u, xavotirdan ichimni it talayapti.* (H. Nazir, «Yonar daryo»). *Biroq ichimni it kemiryapti.* (S. Siyoyev, «Yorugʻlik»). **Kambagʻalni tuyaning ustida ham it qopadi** – Ishi yurishmagan, omadsiz kishi haqidagi ibora.

**Itbaliq** – suvda va quruqda yashovchi (amfibiya)larning tuxumdan chiqqan murtagi. *Qurbaqa tuxumi urugʻlangandan soʻng, undan itbaliq chiqadi.* («Zoologiya» darsligi).

**Itburun, naʼmatak** – raʼnoguldoshlar oilasiga mansub, raʼnogul turkumining

yovvoyi holda oʻsadigan turlari: **itburun, naʼmatak, hargul, oq hargul** va shu kabi-lar. Ularning gullari qat-qat boʻlmasdan, koʻpincha bir qavatli boʻlib, odatda oʻrmon yoqalarida, siyrak oʻrmonlarning boʻsh joylarida, daryo sohillarida, jarlik, toʻqay, adir va togʻlarda oʻsadi. MDH da raʼnogul turkumining 150 ga yaqin yovvoyi holda oʻsuvchi turlari bor. Bularning anchagina qismi qadim zamonlardan beri ekilib, qimmatli manzara oʻsimliklarga aylangan. Yovvoyi holda oʻsadigan itburun va naʼmataklar bogʻdorchilikda madaniy atirgul va raʼnogullarni ulash uchun payvandtag sifatida, shuningdek, yashil devorlar hosil qilish uchun qoʻllaniladi. Bundan tashqari, itburun, naʼmatak va ularga yaqin turlar vitamin «S» olish uchun eng yaxshi xomashyo sifatida meditsinada katta ahamiyatga ega.

**Itburun** – mayda, qizil nordon mevali buta va uning mevasi; naʼmatakning bir turi. *Yigirma qadamcha chaproqda, quyuq itburun butalari ichida bulbul sayray boshladi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

**Itolgʻi** – lochinlar oilasiga mansub, ov qushi sifatida foydalaniladigan yirtqich qush. *Qistasa, oʻtadi itolgʻi qushdan.* («Gulnorpari»).

**Itogʻiz** (*Antirrhinum majus L.*) – sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub, guli itning ogʻziga oʻxshash koʻp yillik oʻtsimon oʻsimlik. Bizning sharoitimizda koʻpincha bir yillik manzarali oʻsimlik tarzida ekiladi. Juda koʻp xilma-xil navlari bor. Gullari oq, sariq, pushti, toʻq qora-qizil ranglarda boʻlib, yirik xushboʻy, chiroyli shingilsimon toʻpgul hosil qiladi. May-sentabr oylarida gullaydi.

**Itqovun** – 1. Palagi va mevasi qovunga o‘xshash o‘simlik, yovvoyi qovun. 2 s.t. Kavar. *G‘ishtko‘prik yonboshidagi hammomning gumbazlarini po‘panak bosib ketgan, masjid peshtoqidan to yergacha osilib tushgan itqovunning palagi qurib qolgan.* (S. Ahmad, «Hukm»).

**Itqo‘noq** (*Setaria lutescens* Weige.) – boshqodoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 10–50 sm keladigan, bir yillik o‘tsimon o‘simlik, iyul-avgustda gullab, meva tugadi. Qo‘noq ichida o‘shishga moslashgan begona o‘t. Bundan tashqari, u beda ichida ham o‘sib, uni ifloslaydi.

**Ittikanak** – qoqidoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘t o‘simlik (tibbiyotda va xalq tabobatida keng qo‘llanadi).

**Ittikanak, qariqiz** (*Bidens tripartita* L.) – murakkabguldoshlar oilasiga mansub, bir yillik o‘tsimon o‘simlik. Bo‘yi 20–80 sm. Iyun-iyulda gullab, may-avgustda meva tugadi. Zax yerlarda, daryo, ko‘l, ariq bo‘ylarida, sholipoya qirg‘oqlarida o‘sadi. O‘zbekistonning hamma yerida uchraydi.

**Ituzum** – oq gulli, mayda qora yoki qizil mevali bir yillik yovvoyi o‘simlik.

**Itvachcha** – 1. Itning bolasi, itdan tug‘ilgan (yosh bolaga nisbatan qo‘llanadi). *Nuqul itvachcha der emish. Astag‘firullo, o‘z bolasini, o‘zi tuqqan bolani itvachcha desa-ya* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). 2. Shu ma‘no bilan (asosan, yoshlarga nisbatan) haqorat uchun qo‘llanadi. *Shoshmay tur, hali u izzatini bilmagan itvachchani tutib, adabini bermasam, Madumar otimni boshqa qo‘yib yuboraman.* (M. Ismoiliy, «Farg‘ona t.o.»).

**Itchilik** – 1. It zotlarini boqish va ko‘paytirishdan iborat xo‘jalik tarmog‘i.

2 ayn. **itlik**.

**Ivitqi** – s.t. Qatiq ivitish uchun sutga solinadigan ozgina qatiq; tomizg‘i, oqliq. *Sutga ivitqi solmoq.*

**Ixtio** [yun. *ichthus* – baliq] – baynalminal qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, baliqqa oidlikni, aloqadorlikni, baliqqa o‘xshashlikni bildiradi.

**Ixtiologiya** [yun. *ichthys* – baliq + yun. *logos* – ta‘limot] – baliqlarning tuzilishi, hayot kechirishi, rivojlanishi, tarqalishi, sistemikasi va kelib chiqishini o‘rganadigan fan, zoologiyaning baliqlarni o‘rganuvchi bo‘limi. *Zoologiya, entomologiya... ixtiologiya, gidrobiologiya bo‘yicha... botanika profilidagi kengash esa botanikaning barcha sohalari... bo‘yicha dissertatsiya qabul qiladilar.* («Fan va turmush»).

**Ixtiozavr** [ixtio. + yun. *saura* – kaltakesak] – zool. Mezozoy davrida dengizlarda yashagan, uzunligi 15 m gacha yetgan baliqsimon, sudralib yuruvchi yirtqich maxluq; dengiz kaltakesagi.

**Ixtisoslashtirilgan liniya** – ajdodlari bir bo‘lib, ayrim belgilarga qarab seleksiyalangan mahsuldor hayvonlar gruppasi.

**Iyindi** – sigir sog‘ilgandan so‘ng yelinda qolgan va iydirib, ikkinchi marta sog‘ib olinadigan sut. *Pattixon sigirlarni og‘ilda boqdi. ...iyindilarini ham sog‘ib oladigan bo‘ldi.* (M. Tojixalilova, «Biri biridan o‘tkir»). *Iyindi sog‘ish boshqa ekan-u, rosmana sog‘ish boshqa ekan. Shu topda sezgan edi buni qiz.* (R. Fayziy, «Cho‘lga bahor keldi»).

**Iyiq** – 1. Ot, eshak kabi ish hayvonlarining oldingi ikki oyog‘i ustidagi, beldan bo‘yingacha bo‘lgan qismi.

2. Shu joyda paydo bo‘ladigan yara.

**Iymoq** – 1. Yelini yumshab, ravon sut beradigan holga kelmoq (sog‘in sigir, qo‘y, echki va sh.k. haqida).

2. Himmat uyg‘onmoq, ko‘ngli erimoq. – *Himmatni baland qiling, ona! – shovqin ko‘tarishdi yigitlar. Lutfiniso iyib, ikki do‘ppi va o‘n so‘m pul uzatdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). «*Endi sening etagingdan mahkam tutdim, qaysi yo‘ldan boshlasang, o‘zing bilasan*», degandan keyin Qodir juda iyib ketdi. (A. Qahhor, «Qanotsiz chittak»).

**Iyrim** – shv. Oqar suvdagi o‘rama, aylana, girdob. *Shundoq oyog‘imiz ostida o‘sha ko‘k iyrim, ya‘ni girdob.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»). *Shunga bo‘la u bilan bog‘liq jumboqlar birdan miyasiga urib, tag‘in tanish iyrimga tushdi.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko‘prik»).

**Izen** – sho‘radoshlar oilasiga mansub bir yillik ozuqabop, to‘yimli o‘t o‘simliklardan biri. *Albatta, shuvoq bilan izen qorako‘l teri sifatini yaxshilaydi.* (Gazetadan). *Katta-katta maydonlarga arpa, javdar, izen kabi to‘yimli ozuqabop o‘tlar ham ekib kelinyapti.* (Gazetadan).

**Izodinamiya, izodinamiya qonuni** – hayvonlar ratsionidagi biror oziq moddani energiya quvvati, to‘yimlilik darajasi, unga teng bo‘lgan ikkinchi tur oziq modda bilan almashtirish imkoni. Bu termini fanga 1883 yili nemis fiziologi M. Rubner kiritgan.

**Izolatsiya** [fr. *isolatsioon* – ajratish, bo‘lish, alohidalash] – tib., veter. Alohidalash, ajratib qo‘yish. Izolatsiya xonasi. *Biz qishlov oldidan... «brak» qo‘ylarni*

*ajratib olib, izolatsiya xonalarida davolaymiz.*

**Izolatsiya qilmoq** – izolatsiya holatiga olmoq.

**Izolyator** – kasal hayvonlar ajratib qo‘yiladigan, maxsus jihozlangan xona (bino), aholi yashaydigan joylar va molxonalar binosidan kamida 200 m oralig‘ida bo‘lishi kerak.

**Izg‘ir, izg‘or: izg‘ir (izg‘or) cho‘l** – shv. Kimsasiz, cheksiz (dahshatli) cho‘l. *Izg‘ir cho‘lni to‘zon tutdi, Yo‘lning tano-bini tortdi.* («Alpomish»). *Merganlarni quvib solib oldiga, Izg‘or cho‘lda quvib ketib boradi.* («Malikai ayyor»).

**Izg‘irin** – achchiq sovuqli bo‘ralangan shamol; izg‘iriy. *Tog‘ tomondan qor izg‘irini esmoqda.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»). *Boyagina bir nav yog‘ib turgan qor endi dala yoqdan esayotgan achchiq izg‘irin bilan bo‘ralab urib berdi.* (H. G‘ulom, «Mash‘al»).

**Ishkom** – toklarni ko‘tarib o‘stirish uchun poya va bag‘azlardan qurilgan ark-simon so‘ri.

**Ichak shirasi** – ingichka va yo‘g‘on ichaklar bezlarining sekret; rangsiz yoki sarg‘ish suyuqlik, ishqoriy reaksiyaga ega, unda shilliq ipirlar va yulini tushgan epiteliy hujayralari bo‘ladi.

**Ichak-chovoq** – 1. Odam, hayvon va qushlarning qorinda joylashgan ichki qismlari, mas., oshqozon, ichaklar. *Ichak-chovoq go‘sh t bo‘lmas, Laganbardor do‘st bo‘lmas.* (Maqol). *Bombardimonda ichak-chovog‘i chiqib ketgan bir go‘dak uning qo‘lida jon bergan ekan.* (A. Muxtor, «Tug‘ilish»). *Arava bo‘lsa, pastliklardan chiqib, tushib, odamning ichak-chovoqlarini chayqab yubordi.* (Oydin, «Fonar tagida»).

2 ko'chma. Ba'zi narsalarning (mashina, mexanizm va sh.k.) ichki qismlari. *Bir traktorning qorni yorilib, ichak-cho-*

*voqlari sochilib yotibdi.* («Mushtum»). *Haydashni bilgan bilan ichak-chovog'ini tushunmayman.* (S. Nurov, «Narvon»).

## J

**Jabduq** – 1. Ot yoki eshak abzali. *Arava ham ertasi kuni keltirilib, Xolmirza aka otga jabduqlar olish, aravaga temir qoqtirish uchun shaharga tushib ketdi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). [*Bo'ri*] *Eshakning jabdug'iga cho'nqayib o'tirdi.* (T. Murod, «Yulduzlar mangu yonadi»).

**Jabduqlamoq** – ayn. **jabduq urmoq** (q. **jabduq**). *Kechasi chalqancha yotib o'yladim. Sahar vaqti Tarlonni jabduqladim. Obshirga ot soldim.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**Jabduq urmoq** – otni egarlamoq, jabduqlamoq. *Jabduq urdirib bersam, o'zlari minib ketsalar [dedi hokimga mingboshi].* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o.»).

2. Kerakli narsalar, kerak yarog'anjom. *Safar jabdug'i.* [Navoiy:]. *Men bu yosumanni o'z xusravlariga yubormoqchiman. Olib chiqing! Safar jabdug'i hozirlansin!* (Uyg'un va I. Sulton, «Alisher Navoiy»).

**Jabra** [*ukr. jabri* – jag', jabra] – suvda ham quruqlikda yashovchi ba'zi hayvonlarning nafas olish a'zosi. *Qisqichbaqa suvda yashaganligi tufayli, jabralari tanasining nozik popuksimon o'simtalari bilan nafas oladi.* («Zoologiya»).

**Jaket tip** – yarim doirasimon buralgan, qalami gulli, jingalaklari ko'p, ular orasida loviyagulli jingalaklar ham uchraydi.

**Jala** [*f.* – yomg'ir tomchisi; kuchli yomg'ir] – 1. Shiddatli yomg'ir. *Jala*

*tongga yaqin tindi.* (H. Shayxov, «Rene jumbog'i»). *G'o'zalar jala zarbidan bir tomonga yonboshlab qolgandi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

2 *fiz.* Elementar zarrachalarning shiddatli oqimi. *Elektronlar jalasi.*

**Jana** – folk. *shv.* Do'ng, tepa. *Bir lochinman, qanotimdan qayrildim, Yomg'ir yog'may, jana yerda toyrildim.* («Gulixiromon»).

**Janbil** – 1. Bir yillik xushbo'y o'simlik; oshko'k. *O'ynab yurar kiyiklar Janbil o'sgan tog'ida.* (Uyg'un).

2. Janbil (erkaklar ismi).

**Jar I** [*f.* – yerning chuqur, o'yiqlik joyi] – chetlari o'pirilgan chuqur soylik; chuqurlik. Chuqur jar. Past jar. *Azizbek sipohlari ila jarga tushdi va suv kechib, haligi tepaga yuzlandi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *U yirik shoxidan emas, jar yoqasidan juda pastga, tagsiz chohga qulab tushayotgandek juda yomon qo'rqib ketdi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o.»).

**Jar-julg'a** – *shv.* Turgan-bitgani jar yerlar; jarliklar.

**Javdar (i)** – 1. G'alladoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simlik; qora bug'doy. *Javdar uni. Nazarov bo'linmasini oshxonaga olib bordi. Qaynoq karam sho'rva, seryog' bo'tqa va javdari non berildi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»). 2 *shv.* Jaydari, oddiy, sodda. *Xalqi kabi jaydari uning tanida qoni.* (E. Oxunova, «Men tongni uyg'otdim»).

**Jaydari** – 1. Mahalliy zotga mansub, mahalliy (uy hayvonlari va o‘simliklar haqida). Jaydari olma. *Xayriyatki, uyimizda bitta jaydari sigirimiz bor ekan.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»).

2. Qo‘lbola; kichikroq. *O‘zimizning jaydari ketmonlar ham kifoya qilar ediku?* [dedi Mirvali] (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

3 *ko‘chma.* Oddiy, sodda, do‘lvar. Jaydari odam. *Mening bir jaydari falsafamdir shul: Hargiz iltimosga kuning qolmasin.* (A. Oripov).

**Jaydari qo‘y zoti** – xalq seleksiyasida o‘zimizda yaratilgan zot bo‘lib, O‘zbekistonning mahalliy dumbali qo‘ylari deb ham nomlanadi. Respublikamizning tog‘li va tog‘oldi hududlarida urchitib ko‘paytirishga moslashgan, bosh soni jihatidan yetakchi (10 mln ga yaqin) zotlardan biri bo‘lgan sof jaydari zotli hamda boshqa (hisor, saradji, edilbay) qo‘y zotlari bilan chatishtirilgan duragaylari keng tarqalgan. Sovliqlarning o‘rtacha tirik vazni 55–60 kg, sermahsullari 70–80 kg, jun qirqimi 2,0–2,5 kg, yetuk yoshdagi qo‘chqorlarniki 80–90 kg, mahsuldor qo‘chqorlar 100–130 kg, jun qirqimi esa 2,8–3,0 kg ni tashkil etadi. Qo‘chqorlarning yag‘ri balandligi o‘rtacha 76,3 sm, gavdasining qiya uzunligi 80,8 sm, ko‘krak aylanasi 96,2 sm ni tashkil etadi. Bu qo‘ylar yirik tanaga ega bo‘lib, ayniqsa oyog‘ining kaltaligi va gavdasining cho‘zinchoq, bo‘yni kalta ko‘tarilgan, gavdasi chuqur, yag‘rini va beli keng, dumbasi esa keng ko‘tarilganligi bilan tavsiflanadilar. Jaydari zotli qo‘ylar go‘sht mahsuldorligining yuqoriligi va qo‘zisining tez yetiluvchanligi bilan ajralib turadi.

**Jaydari g‘o‘za** – O‘zbekistonda qadimdan ekib kelingan g‘o‘za. Ma-

halliy sharoitlarga yaxshi moslashgan. Ko‘saklari mayda va o‘rtacha, dumaloq, uchi suyri, yaxshi ochilmaydi, ko‘sak bandida osilib turadi. Jaydari g‘o‘za joyning nomi yoki biror muhim belgisi bilan atalgan. Mas., qo‘qon g‘o‘zasi, xorazm g‘o‘zasi, xiva g‘o‘zasi, malla g‘o‘za, qizil g‘o‘za va b. Keyinchalik serhosil yangi g‘o‘za navlari yaratilgach, jaydari g‘o‘za O‘zbekistonda 1929-yildan boshlab butunlay ekilmaydigan bo‘ldi.

**Jayra** – terisi duk shaklli ignalar bilan qoplangan, kemiruvchi, sutemizuvchi hayvon. *Tog‘larda odatda ayiq, bo‘ri, yovvoyi cho‘chqa, silovsin, bo‘rsiq, tulki, jayra uchraydi.* (M. Musayev, «O‘zbekiston Respublikasi»).

**Jayran, jayron** – ohularning Suriya, Eron, Afg‘oniston, Kavkazorti va Markaziy Osiyoda tarqalgan bir turi; qoraquloq. *Cho‘lda kezgan jayronlar goh suv izlab, goh do‘ngliklar osha quvalanib chopishganicha, Zomin bug‘doyzorlari, qirlari bag‘riga kirib borib qoladi.* (Sh. G‘ulomov, «Bo‘z yerlik bo‘z yigitlar»). *Ha, ovga chiqib, quruq qaytgani yo‘q. Jayronlar to‘lib-toshib yotipti.* (Sh. Rashidov, «Bo‘rondan kuchli»).

**Jaz I** – to‘g‘ralgan, to‘g‘ramcha go‘sht. *Haydar sovib qolgan kabobning bitta jazini olib, og‘ziga soldi.* (E. Usmonov, «Yolqin»).

**Jaz V** – shv. Tuya egari. *Tuyaning o‘ziga yarasha jazi bor.* (Maqol).

**Jazira** [a. – orol, suv o‘rtasidagi quuruqlik] – shv. q. **jazirama.** *Saraton ham yonguvchi mening otashlarimdan, Jaziralar chekingay mening bardoshlarimdan.* (E. Oxunova, «Men tongni uyg‘otdim»). *Saratonning uzoq va jazira kunining biror daqiqasini ham behuda o‘tkazmaydi.* (Gazetadan).

**Jazirama** – 1 sft. Juda issiq, kuydiradigan darajada. Jazirama oftob. *Iyun oxirlamay, jazirama kunlar boshlandi.* (Rashidov, «G‘oliblar»). *Yozning jazirama issig‘i yer-u ko‘kni qizdiradi.* (R. Fayziy, «Ona»).

2 ot. Juda issiq, oftobi kuydiradigan joy.

**Jazliq** – egar qoptoli ostiga qo‘yiladigan bir juft yumshoq ot abzali. *Safar xayrsiz bo‘lmadi. Dastlab tosh ustini qoplab yotgan guldor kigiz to‘qimni uchratdilar. Sal nariroq borib, ikkita jazliqni ko‘rdilar.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

**Jag‘** – 1. Odam va hayvonlarda kalandaning tishlar o‘rnashgan suyagi. Ustki (tepa) jag‘. Pastki jag‘. *Otaqo‘zining ko‘zlari qisilib, jag‘ paylari turtib chiqdi.* (O. Yoqubov, «Diyonat»). *U [Qalandar aka], ko‘zlari bir nuqtaga qadalib, qotib qolganday, qimir etmay turar, faqat jag‘i titrar edi.* (S. Karomatov, «E‘tiqod»). *Vakil qulochkashlab jag‘imga urdi.* (T. Murrod, «Ot kishnagan oqshom»).

2. Oyoq kiyimining yuzi bilan tagcharmi birlashgan yeri, old yonlari. *Aksarining ust-boshi yupun, mahsilarining yirtiqalaridan kir paytavalari osilib turadi, kimlarda poxol tiqilgan eski kalish, kimlarda jag‘i yirtiq kavush, lekin ular shod.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *U o‘zining paxtasi oqib yotgan qizil chit to‘ni, jag‘i ajralgan kavushi, pitalari chiqib ketgan do‘ppisi bilan boshqa bolalardan ajralib turardi.* (Oydin, «Hikoyalar»).

3 maxs. Ba‘zi asboblarning qisadigan, kesadigan qismi. *Ombir jag‘i. Qaychi jag‘i.*

4. Kishi, odam; nonxo‘r. *Bir ishlovchiga uch jag‘ edik, boyga ortiqchalik qilib qoldik.* (H. No‘mon va A. Shorahmedov, «Ota»). *Lekin oilada jag‘*

*ko‘paygach, shundoq ham qo‘l uchida, tabibchilik bilan tirikchilik qilib kelayotgan Ibn Yamin qiynalib qoldi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Jag‘jag‘** – krestgullilarga mansub, mayda oq gulli va xaltacha shaklida qo‘zoqli bir xil o‘t. *Jag‘jag‘ni tog‘lik aholi ko‘pincha ochambiti deb ham atashadi.* (Gazetadan). *Ariqlar bo‘yida o‘tlar ko‘karib, chuchmomalar gullabdi, qizchalar, ukam tengi bolalar to‘ptop bo‘lib jag‘jag‘, otquloq uzishayapti, ko‘k beda terishayapti.* (X. To‘xtaboyev, «Besh bolali yigitcha»).

**Jelatin** [fr. *gelatine*, lot. *gelatus* – dirildoq, yelimshak] – yosh mol suyagi va terisidan tayyorlanadigan bir nav yelimshak modda. *Achchiq va hidli dorilar alohida jelatin g‘ilofida ichiladi.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Jem** [ingl. *jam* – murabbo] – quyuq shinni; meva qiyomi. *Olma jem.*

**Jenshen** [*xit.* «odam-ildiz»] – Uzoq Sharq va Xitoyda o‘sadigan dorivor o‘simlik. *Jenshen daraxt ildiziga o‘xshagan o‘simlik bo‘lib, Uzoq Sharqning o‘rmonzor zonalarida yovvoyi holda o‘sadi.* (Gazetadan). *Bunday vaqtlarda attorlar doriga ishlatiladigan jenshen va yosh kiyikning ichida qoni qotmagan muguzini xarid qilar edilar.* (M. Osim, «Karvon yo‘llarida»).

**Jersi qoramol zoti** – sut yo‘nalishidagi zot. Eng qadimiy madaniy zotlardan biri, Angliya tasarrufidagi Jersi viloyatida yaratilgan. Ajdodi Normandiya va Bretanning jaydari zotlaridan. Inbridingni ko‘p qo‘llash orqali gavda tuzilishining nozik bo‘lishiga erishilgan. Rangi malla, sarg‘imtir, to‘q qo‘ng‘ir. Sigirlarida qorning pastki qismi va oyoqlarida ola (oq) joylari bor. Buqalarining tirik vazni

600–700, sigirlariniki 360–400 kg, sog‘im davrida 3000–3500 l sut beradi. Sutining yog‘lilik darajasi 5–6%, ba‘zida 8%ga boradi. Jersi qoramol zotining suti yog‘liligi eng yuqori bo‘lgan zot hisoblanadi. Yevropaning ko‘pgina mamlakatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya va b. mamlakatlarda tarqalgan. Jersi qoramol zoti buqalaridan sut yo‘nalishidagi zotlarda sut yog‘liligini oshirish yo‘nalishidagi chatishtirish ishlarida foydalaniladi. Jersi qoramol zoti buqalari 1968-y. da O‘zbekistonga keltirildi, 1979–1985-yillarda mavjud zotlar suti yog‘liligini oshirish yo‘lida qisman foydalanildi. Lekin bu ishlar yaxshi natija bermadi, olingan duragay mollarda sutning yog‘ miqdori ko‘tarilgan bo‘lsa-da, ularning sersutligi va tirik vazni nisbatan kamaydi.

**Jigildak** – *shv.* Yovvoyi jiyda.

**Jilov** – 1. Yuganning charm tizgini. Jilovni bo‘shatmoq. *Katta tor yo‘lda yelib kelayotgan otliq «tss» deb, otning jilovini tortdi.* (M. Muhamedov, «Qahramon izidan»). *Noib otdan tushib, jilovni egar qoshiga tashladi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**2 ko‘chma.** Boshqarish, idora qilish tizgini; hokimiyat. *U paytlar xon yosh edi, xaltanat jilovi endi qo‘liga o‘tgan edi.* (S. Siyoyev, «Yorug‘lik»).

**Jilovlamoq** – 1. Ot-ulov boshiga no‘xta yoki yugan solmoq. *Hamrohi otga yetib kelib, samanni jilovlab oldi.* (M. Ismoiliy, «Farg‘ona t.o.»).

**2 ko‘chma.** Tiymoq, tartibga solib qo‘ymoq; bo‘ysundirmoq. *Uning o‘g‘li Abulhoris Mansur ham bevosh vazirlar, yonchi hokimlarni jilovlay olmadi.* (M. Osim, «Karvon yo‘llarida»). *Amudaryo jilovlasak, O‘zbekiston butun-butun yangi paxta vodiylari yaratadi.* (Oybek, «D.v. shabadalar»).

**3 ko‘chma.** Egallamoq, o‘rganmoq. *Yigitlar mashg‘ulotlarga muntazam qatnashardi, texnikani tezroq jilovlab olishga harakat qilishardi.* («O‘zbekiston qo‘riqlari»).

**Jilovsiz** – 1. Tizginsiz. *Ot jilovsiz yuribdi.*

**2 ko‘chma.** Bebosh, quloqsiz. *Bo‘yi yetgan yosh qizlar baayni jilovsiz ot, ba‘zan boshi oqqan tomonga burilib ketishi mumkin.* (Mirmuhsin, «Umid»). *Yaxshiyam shu telba, buyuk, jilovsiz ishq bor jahonda.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Jilg‘a** – tog‘ va tog‘ yonbag‘irlaridan oqib tushadigan kichik soy; jilg‘a. *Men jilg‘aman, Daryo bo‘lib to‘lgim keladi. Ona yurtim, Senga o‘g‘lon bo‘lgim keladi.* (E. Vohidov, «Muhabbatnoma»). *Qirg‘og‘ida go‘zal yulduzlar O‘ynayotgan jilg‘aga bordim.* (Sh. Rahmon, «Yurak qirralari»). *Qashqatovning kungay tomonidan chap qo‘lga qarab ketgan jilg‘a bor.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Jin III** [*ingl. gin < engine – mashina*]: **jin mashina** – paxta tozalaydigan, chigitdan tolalarni ajratib oladigan mashina. *Zavod ichkarisida «jinlar» paxta tozalab chiqarmoqda.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Jinjak** – dukkakli o‘simliklarning bir turi.

**Jinqarcha** – *shv.* 1. Chittak. **2 ko‘chma.** Tirrancha, tirmizak. *Shuncha yoshga kirib, shuncha yil el boshida turib obro‘ orttirgan Umarni jinqarchalar otdan ag‘darib tashlagani yaxshimi?* (I. Rahim, «Ixlos»). *Bay-bay-bay, o‘zi jinqarcha bo‘lsayam, shunaqa zahar qizki, xuddi Zulayho opangizga o‘xshaydi.* (O‘.Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Jins** [*a. – tur; xil, nav; qabila, millat*] – 1 *biol.* Jonli organizmlarning biologik va jismoniy xususiyatlariga ko‘ra ikki



[erkak va urg'ochi] turidan biri. *Erkak jinsi. Xotin jinsi. O'zaro qarama-qarshi ikki jins dunyoda tiriklikni davom ettiradi.* (T. Qaipbergenov, «Qoraqalpoqnoma»). *Bo'lajak farzand jinsining o'g'il yoki qiz bo'lishi otadagi urug' hujayrasi tarkibida bo'ladigan ikki xil xromosomaga bog'liq.* (Gazetadan).

2. Tur, nav, xil. *Lirikaning o'ziga xos adabiy jins sifatidagi tabiati uning janr qiyofasida ham aks etadi.* («O'TA»). *Baron fon Ring, albatta eshak emas, balki oriy jinsdan bo'lgan bir zot.* (A. Qahhor, «Baron fon Ring»).

**Jing'il** – shv. 1. Yulg'un. *Mohandaryo vodiysida yulg'un, jing'il, yantoq, qizilmiya, ajriq o'sadi.* (P. G'ulomov, «Zarafshon etaklarida»).

2. Yulg'undan qilingan. *Chol eshik oldida suyog'lik turgan jing'il tayog'ini oldida, To'rtko'zni ergashtirib, qorong'ulikka kirib ketdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Jir bitib qolibdi** – dumbasi katta va semiz qo'y'larga aytiladi.

**Jiyda** – bargi uzunchoq, guli xushbo'y mevali daraxt va uning mevasi. *Yo'lchi jiydaning ostiga pichanni qalinqaroq yoyib, ustiga choponini qiya tashlab yotdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Bog'larga kirsangiz, g'uj-g'uj o'rik, shaf-toli, jiyda, do'landa, tog'olcha. Hatto ol-murtgacha bor.* (S. Siyoyev, «Saratonda qor yog'di»). *Og'zilariga bittadan qandak jiyda solgach, suhbat yana qizib ketdi.* (H. Shams, «Dushman»).

**Jiyda qoqmoq** – 1) jiydani kaltak bilan urib tushirmoq; 2) *ko'chma.* Obdan sovqotmoq, sovuqdan dag'-dag' titramoq. *Kechasi bilan jiyda qoqib chiqdim.*

**Jiydayaproq** – qovunning bir turi. *Erta bahorda sho'ri yuvilgan tuproq*

*haydalib, karta to'rt bo'lakka ajratildi. Bir bo'lagiga sariq gulobi... uchinchi bo'lagiga yozgi guvrak, to'rnovvot, jiydayaproq, zamcha urug'i ko'mildi.* (Gazetadan).

**Jiyron** – qizg'ish malla (ot tusi) va shu tUSDagi ot. *Jiyron ot. Aravakash jilovni tortdi, jiyron zo'r kuch bilan qo'zg'aldi.* (E. Rahim, «Yangi qadam»). *Yarim soatdan keyin Oyimxon jiyron toyda yetib keldi.* (Tursun, «O'qituvchi»).

**Jiyronqashqa** – qizg'ish qashqali ot. *Marraga 200 metrcha qolganda, qorabayir jiyronqashqadan o'tdi.* (Y. Shukurov, «Birinchi parvoz»). *Doim mening minganim jiyronqashqa, Tomog'imdan o'tmaydi choydan boshqa.* («Oq olma, qizil olma»).

**Jodi** – beda, pichan, xashak qirqadigan dastaki asbob. *Bola... supurar, axlat tashir, kechqurun qarollar daladan kelganlarida, otlarga jodida beda qirqishar edi.* (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o»). *Bizda pichan jodida kesiladi, un suv tegirmonida tortiladi.* (Sh. Rashidov, «G'oliblar»).

**Jolpilloq** – ayni yetilgan, semiz, enasidan ayrilgan uloq.

**Jolpin** – bir marta bolalagan echki.

**Jom** – 1. Chorva mollariga beriladigan suvi siqib olingan turp (qoldiq); masalan, qand lavlagining siqib shirasi olingandan keyin qolgan turpi, chiqindisi; uni pressdan chiqqan zahotiy oq siloslangan va quritilgan holda beriladi. Uning tarkibida asosan kletchatkalar, oqsil moddalar va har xil tuzlar bo'ladi. 2. Uy-ro'zg'or buyumi; ichi chuqur va yoyiq (keng) zih yuqoriga ancha ko'tarilgan to'garak shakldagi mis tog'ora; ba'zan 2 ta qulog'i ham bo'ladi. Xamir qorish, guruch ivitishda, quyuoq ovqat solishda, to'y, marosimlar va b. da foydalaniladi. Katta hajmliligi Qo'qon, Namanganda mis tog'ora, nisbatan kichik turi jom deb ataladi.

**Jonivor** [f. – joni bor, tirik] – 1. Tariatdagi hamma jonli narsalar; jon egasi; mavjudot (o‘simlikdan tashqari). – *Xudoyi taolo insonni hamma jonivorlardan aziz-u mukarram etib yaratdi, – dedi Me‘mor o‘rtadagi sukutni yo‘qotib.* (Mirmuhsin, «Me‘mor»). *Qishloqda birorta qimir etgan jonivor ko‘rinmaydi.* (T. Rustamov, «Mangu jasorat»).

2. Narsa, o‘simlik, hayvon va sh.k. ga nisbatan erkalash ma‘nosida yoki «bechora», «boyoqish», «sho‘rlik» kabi ma‘nolarda ishlatiladi. *Ot sag‘risidan loyga botgan, jonivor bor kuchi bilan pishqirib, oldinga intiladi.* (Oydin, «Fonar tagida»). *Ishkom chetida bir shaftoli bor ekan, jonivor, mevasini ko‘tarolmay, shoxlari yerga qayrilib yotibdi.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»). *Og‘ayni, bu osh degan jonivor kuyib ketmadimi!?* (Sh. Ras-hidov, «G‘oliblar»).

3 *ko‘chma.* Hayvon, maxluq. – *Qori Ibod deganing ahmoq bir jonivor ekan, – dedi Qurbon devona.* (S. Ayniy, «Jal-lodlar»). – *Ammo otangni ham shu jonivorlar orasiga qo‘shib o‘ltirishing qis-qaligingdir! – dedi [Hoji].* (A. Qodiriy, «O‘tgan kunlar»). *Ot dam olsin, o‘rniga sizni qo‘shamiz. Siz undan ko‘ra aqlliroq jonivorsiz.* (O‘. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Jonoqi: jonoqi olma** – ertapishar, xushbo‘y, shirin qizil olma. *Oldinpishar jonoqi olmalar olovday yonadi.* (Oybek, «O.v.shabadalar»). *Qosim buva tog‘ etagidagi yovvoyi olmalarga jonoqi olmalarni payvand qilib yurardi.* (A. Eshonov, «Bir og‘iz so‘z»).

**Jonzot** [f. + a. – jon egasi] – tirik jon. jonivor. *Bu yerda na dov-daraxt, na boshqa biron jonzot bor edi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»). *Qo‘rada bandilardan*

*boshqa jonzot qolmagan, qo‘ylar o‘tlovga haydalgan edilar.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Juft chatishtirish** – ota-ona o‘simlik o‘rtasida bir marta o‘tkaziladigan chatishtirish; seleksiya usuli, oddiy chatishtirishning bir xili. Juft chatishtirish yo‘li bilan olingan duragaylar populatsiyasida yangi nusxalar paydo bo‘lish jarayoni murtakka bir juft ota-onadan teng miqdorda o‘tgan irsiy materiallarning qayta juftlanishi asosida boradi.

**Jumrushqa** – dukkakilarga mansub, molga yem-xashak bo‘ladigan, asalga boy bir yillik, ba‘zi turlari ikki yillik o‘simlik.

**Jun** – 1) sut emizuvchilarning yigiriluvchanlik yoki namatlanish sifatlariga ega bo‘lgan qil (tuk) qoplami; 2) junni qayta ishlash sanoatida ishlatiladigan xom ashyo, asosiy to‘qimachilik tolalaridan biri. Sanoatda ishlatiladigan jun asosiy qismini qo‘y juni tashkil etadi; shuningdek, echki, tuya, quyon, qo‘tos, ot, sigir, bug‘u, it va b. hayvonlardan olinadigan jun ham ishlatiladi. Jun tolasining sifati uning yigirilish xususiyati, ingichkaligi, uzunligi, puxtaligi, rangi, cho‘ziluvchanligi, namlik yutishi va b. xossalari bilan belgilanadi. Kimyoviy tuzilishi jihatidan oqsilli birikmalarga kiradi. Jundan gazlamalar, trikotaj, gilam, texnik movut, adyol, poyabzal, namat, fetr va b. mahsulotlar tayyorlanadi. Jonivorlardan *qirqib olinadigan* (qo‘y, echki va b.), *tarab olinadigan* (tuya, it, echki va quyon momig‘i) yoki *tullash paytida yig‘ib olinadigan* (sigir, ot) jun **tabiiy jun**, so‘yilgan hayvonlar terisini qayta ishlash korxonalarida olinadigan jun **zavod jun** deyiladi. Jun tolasini tangachasi-mon, qobiq va quvur qatlamlaridan iborat. Tangachasi-mon qatlam tolasini tashqaridan qoplab turgan shoxsimon, yarim halqasi-mon va doirasimon bo‘lishi mumkin. Bu

qatlam tola tanasini yemirilishdan saqlaydi, tolani tovlantirib turadi va tolalarning namatlanish xossasini yaxshilaydi. Qobiq qatlam jun tolasini hosil qiladigan urchuqsimon hujayralardan iborat bo'lib, pishiqligi, qayishqoqligi va b. sifatlarini belgilaydigan asosiy qatlam hisoblanadi. Jun tolasini terining mahsuli hisoblanadi. Jun tolasini uzunligi va ingichkaligi muhim o'rinda turadi. Jun qatlami qildan va qil osti (tuk, tivit) qismdan iborat.

**Jun gazlama** – jun tolasidan to'qiladigan mato. Toza junli va yarim junli xillari bo'ladi. Toza jun gazlamalar 100% jun ipdan to'qiladi. Junli kiyim-kechaklarning tashqi ko'rinishini yaxshilash maqsadida jun tarkibiga 6–10% gacha (umumiy og'irligiga nisbatan) paxta ipi, viskoza, sun'iy ipak, shtapel tolasini va b. aralashtirilgan gazlama ham toza jun gazlama jumlasiga kiritiladi. Yarim junli gazlamalar tarkibida 85% gacha tabiiy yoki sun'iy jun bo'ladi. Iplarning sifatiga qarab jun gazlamalar, asosan, kamvol va movut gazlamalarga bo'linadi. Kamvol gazlamalar yuqori va o'rta raqamli jun ipdan to'qiladi. Kamvol gazlama sirti tekis, ko'pincha tuksiz pishiq, yengil, changni o'ziga kam oladi, undan tikilgan kiyim chidamli bo'ladi, taxi tez buzilmaydi, chang va b. iflosliklardan oson tozalanaadi. Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari tikish uchun ishlatiladi. Ko'ylakbop, kosityumbop, shimbop, paltobop va maxsus kamvol gazlamalar bor.

**Jun sanoati** – to'qimachilik sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri. Tarmoq korxonalarida junni qayta ishlash, sof jundan yoki uning boshqa tolalar (asosan kimyoviy tolalar) aralashmasidan har xil chiziqli zichlikdagi iplar, jun gazlamalar, har xil texnik va maxsus gazlamalar, gi-

lam va gilam mahsulotlari, kigiz-namat va fetr buyumlar, noto'qima materiallar ishlab chiqariladi. Junni qayta ishlash tabiiy junni dastlabki ishlash, ya'ni saralash, titish, yuvish, quritish, zichlash, toylash bosqichidan boshlanadi. Jun yigiruv korxonalarida har xil yigirish tizimi va usullarida sof jundan yoki yarim jundan karda, qayta taralgan va apparat iplari i. ch. – ikkinchi bosqich; mahsulot yoki buyumlar: trikotaj yoki to'qima matolar, trikotaj buyumlari, adyol, gilam, fetr, noto'qima materiallar olish – uchinchi bosqich; mahsulot va buyumlarga ishlov berish, bo'yash, gul bosish, issiqlik bilan ishlov berish kabi jarayonlar – to'rtinchi bosqich hisoblanadi. Junni qayta ishlash insoniyat tarixida to'qimachilik mahsulotlarini i. ch. kabi bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan. Qo'lda ip tayyorlash va gazlama to'qish Hindiston, Xitoy, Misr va Markaziy Osiyoda miloddan bir necha ming yil ilgari boshlangan. Xorazmda arxeologik qazishmalar paytida mil. avv. 1-mingyillikka mansub gilamlar topilgan.

**Jut** [f. – jut daraxti va tolasini] – jo'kadoshlar oilasiga mansub, tolasidan dag'al mato, arqon to'qiladigan bir yillik o'simlik. *Respublika jut va kanop yetishtirish bo'yicha jahonda to'rtinchi o'rinni egallab turibdi.* (Gazetadan).

**Juvda I** – shv. Tuyanining bo'yni va tizzasidagi jun.

**Juvori** – folk. Jo'xori. *Kesganda juvori, poya bo'lur, Boshingga bitta ro'mol soya bo'lur.* («Oq olma, qizil olma»).

**Juvoz** [f. – yog'och yoki o'g'ir tosh] – 1. O'simliklar urug'idan, xususan, chigitdan moy chiqaradigan qurilma; moyjuvoz. *Juvoz haydamoq. Otni juvozga qo'shmoq. Juvozga qo'shilgan eshakka bir bog' xashak bilan bir chelak suv bo'lsa bas.* (E.

Usmonov, «Yolqin»). *Qo'shni hovlidan chuchitilgan juvoz moyining isi keladi.* (S. Ahmad, «Hukm»).

**2.** Sholi oqlaydigan qurilma; objuvoz.

**Juyruk** – *shv.* Chopqir, uchqur, yugurik (ot haqida).

**Juzg'un** – torongullilar oilasiga mansub o'simlik. *Tuproq shu cho'lda o'sayotgan saksovul, cherkez, juzg'un, iloq va kandil ta'sirida o'zgarib turadi.* («Fan va turmush»).

**Jo'ja** [*f.* – qushcha, qush bolasi] –

**1.** Tovuqning va ba'zi qushlarning bolasi, polaponi. Qushlarning bolalik davri, tumxumdan chiqqandan to jinsiy voyaga yetgungacha bo'lgan davr. [*Tamanno*] *Andak is bosgan derazadan hovliga qaradi: hovli o'rtasida quduq, nariroqda bir chipor tovuq o'n-o'n besh sariq jo'jalarini yetaklab yuribdi.* («Qumri va Tamanno»).

**2** ko'chma. Farzand, bola; go'dak. *G'ulomjon Matqovulni jo'jalari bilan davradan yetaklab chiqib ketdi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»). *Bir o'zimga sakkiz jon qaraydi: beva opam, uning uchta sag'iri... o'zimning uchta jo'jam.* (N. Safarov, «Uyg'onish»).

**Jo'jalamoq** – jo'ja ochmoq, bola ochmoq.

**Jo'jaxo'roz** – yosh urushqoq xo'roz. *Obid ham jo'jaxo'rozdek sapchib turdi.* (X. Sultonov, «Onamning yurti»). *Zoyirjonning qop-qora yuzi alamdanda ko'karib ketgan, o'tirgan joyida jo'jaxo'rozday bo'ynini cho'zib gapirardi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Jo'lak** – qo'y kanasi.

**Jo'raqand** – qovunning eti qalin, yirik, o'rtapishar navi.

**Jo'xori** – bir yillik g'alla o'simliklaridan bir guruhi (so'tali makka-jo'xori va boshqali qo'qon jo'xori)ning umumiy nomi va uning doni. Jo'xori

ekmoq. Jo'xori tuymoq. *O'n qadoq jo'xori tufayli shu ko'yga tushaman deb Avaz sira o'ylamagan edi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»). *O'g'lim, qani, jo'xori go'jadan quyib ich, chanqoqni bosadi.* (Sh. Rashidov, «G'oliblar»).

**Jo'xorikor** – jo'xori ekuvchi, jo'xori yetishtiruvchi. *Jo'xorikorlar mo'l don va silosbop ko'kpoya yetishtirish uchun kurashni davom ettirishayapti.* (Gazetadan).

**Jo'xorikorlik** – jo'xori ekish, jo'xori yetishtirishlik. Jo'xorikorlik bilan shug'ullanmoq.

**Jo'xoripoya** – jo'xori poyasi. *Chorakor bilan Ostanaqul esa daladan olib kelingan so'nggi ikki arava go'zapoya va jo'xoripoyalarni darvozaning tomiga bosisar edi.* (A. Qahhor, «Sarob»). *Sohira ayvonga dumak, ya'ni jo'xoripoya ildizi tashir edi.* (Q. Mirzo, «Olam go'zal»).

**Jo'xorizor** – jo'xori ekilgan yer, maydon. *Saodat xola bir bo'yracha joydagi jo'xorizordan uch-to'rtta so'ta olib kelingan edi.* (H. Nuriy, «Yashil xirmon»).

**Jo'yak** [*f.* – ariqcha] – q.x. Ekin arig'i, ikki pushta o'rtasidagi ariq. Ko'proq kartoshka va poliz ekinlari jo'yak olib ekiladi. Jo'yakning ilonizi, dandana, to'g'ri (egat) xillari bor. Jo'yakning egat xili keng tarqalgan. Jo'yak olmoq. *Jo'yak ichida bir qiz engashib, o't yulardi.* (S. Yunusov, «Kutilmagan xazina»). *Mana shu bepoyon dalalarda... jo'yaklarda shildiragan suvlardan sening birinchi bor aytgan so'zlaringni tinglardim.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

**Jo'yaklab ekish** – q.x. ekinlarini jo'yakning ikki tomoniga yoki ikki qirg'og'iga ekish. Poliz ekinlari, tomorqa xo'jaliklarida pomidor, kartoshka, mak-kajo'xori yetishtirishda qo'llaniladi.

**Jo'y** – ayriq, kanal (tarixiy manbalarda). Hozirgi paytda asosan Buxoro

va Samarqand viloyatlarida ariq, ba'zan kichikroq kanal jo'y deb ataladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu so'zning kichraytirilgan (*diminutive*) shakli – jo'yak saqlanib qolgan. Jo'y joy nomlari tarkibida uchraydi (Jo'yidam, Jo'yinav, Jo'yiqo'rchi va h.k.).

**Jo'ybor** [*f.* – ariq va daryolar ko'p joy; ariq] – *folk.* 1. Daryo, ariq.

2 *ko'chma.* Ko'z yoshi. *G'amni ko'rgan kishin jo'ybori oqar, Ado bo'lmas savdo tushdi boshima.* («Erali va Sher-ali»).

## K

**Kabardin ot zoti** – Shimoliy Kavkazning qadimgi ot zoti, mo'g'ul biyasini qarabax, turkman va arab ayg'irlariga chatishtirish yo'li bilan yetishtirilgan. Joy tanlamaydi, chidamli, serpusht va ish qobiliyati yuqori. Eksteryer xususiyatlari: bo'yi o'rtacha balandlikda; konstitutsiyasi mustahkam, boshi quruq, quloqlari chiroyli, bo'yni go'shtdor, ko'kragi chuqur, beli to'g'ri, sag'risi qiya tushgan, tuyoqlari mustahkam. Tusi ko'pincha to'riq, qora quyuq, ba'zan ko'k bo'ladi. Biyalarining o'rtacha o'lchamlari: yag'rinigacha balandligi 150 sm, tanasining qiya uzunligi 152 sm, ko'krak aylanasi 179 sm, pochka (boldir) aylanasi 19 sm. Kabardin otlari Kavkaz, Stavropol va Krasnodar o'lklarida, Qrim va Moldaviyada otlar naslini yaxshilashda tavsiya qilingan. Chegarachilik xizmatida va xo'jalik ishlarida foydalaniladi.

**Kabk** [*f.* – kaklik] – *esk.poet.ayn.* kaklik. *Kabk ila tovusni raftoringga minqod aylading.* (Muqimiy).

**Kabutar** [*f.* – kaptar] – *kt.ayn.* kaptar. *Kabutarlar dam uchib, dam sirpanib qo'nib o'yashar edi.* (Oybek, «Navoiy»).

**Kadastr** [*fr. sadastre* < *yun. katastishon* – varaq, ro'yxat] – 1. Muayyan obyektlar haqidagi aniq va tartiblashtirilgan axborotlar majmui, ro'yxati. *Yer kadastr.* *Suv kadastr.* *Yer kadastr.* *qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni va tay-*

*yorlashni tag'in ham aniqroq rejalashtirishga yordam beradi.* (Gazetadan).

2. Jon boshiga soliqqa tortiladigan shaxslar ro'yxati.

3. Obyektlarning bahosi va o'rtacha daromadi haqidagi, soliqqa tortish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar.

**Kadi** [*f.* – qovoq] – *shv.* Qovoq, osh-qovoq; ularning po'stloq qismidan tayyorlangan idish. Suv kadi. Qimiz kadi. *Bo'rining onasi kadini chuqurchaga yaxshilab joylashtirib qo'ydi.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**Kagor** [*fr. Saoure* – Kaor (Kagor) shahri nomidan] – qizil rangli uzum navlaridan tayyorlanadigan shirin vino turi.

**Kakao** [*isp. sasao* < indeys tillaridan] – 1. Urug'idan shokolad tayyorlanadigan doim yashil tropik daraxt; shokolad daraxti. Kakao plantatsiyasi. Kakao o'stirmoq. 2. Shu daraxtning urug'i va undan maxsus tayyorlangan kukun. Bir banka kakao. *Choy, kofe, kakao ... tarkibida alkaloidlar bor.* (S. Akramov, «Giyoh kimyosi»). 3. Shunday kukundan qo'shib tayyorlangan ichimlik. *Kakao ichmoq.*

**Kakku** – kakku qush o'zi in qurmasdan, boshqa qushlarning iniga tuxum qo'yadigan, «kakku» deb sayraydigan o'rmon qushi. *Uzoq-uzoqdan kakku qush ham arzi vujud qiladi: «kakku-kakku».* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Kakra** – 1. Ko‘pincha g‘alla ekinlari orasida o‘sadigan ko‘p yillik taxir, talxa o‘simlik. *Ariqning narigi yonida kakra, supurgi, sho‘ra ... yana allaqanday yovvoyi o‘tlar g‘ovlab yotar edi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). 2. *Taxir, achchiq ko‘k choy kakra bo‘lib ketibdi. Og‘zim kakra bo‘lib ketyapti. Yanglishib so‘zlash axir, Ma‘nosi kakra-taxir.* (Q. Muhammadiy).

**Kaktus** [lot. *sastus* < yun. *kaktos* – tikan, tikanak] – Janubiy o‘lkalarda o‘sadigan, tikan bilan qoplangan, bargsiz, etdor tanali o‘simlik (manzarali o‘simlik sifatida keng tarqalgan). *Ekinzorlarning atrofi 2,5 metr balandlikdagi xushbichim kaktuslar bilan qurshalgan.* (Z. Akramov, «Hindiston lavhalar»). *Kaktus o‘simligining asosiy vatani Meksikadir.* (Gazetadan).

**Kalibrilamoq** – 1. Aniq o‘lchamda tayyorlamoq, aniq o‘lchamga keltirmoq. *Zambarak stvolini kalibrilamoq.*

2. Aniq o‘lchamli narsalarning katta-kichikligini tekshirmoq, o‘lchamoq.

3. Narsalarni yo‘g‘on-ingichkaligiga, mayda-yirikligiga qarab guruhlashtirmoq, xillarga ajratmoq, saralamoq. *Detallarni kalibrilamoq. Chigitni kalibrilamoq.*

**Kaliy** [lot. *salium* < a– ishqor] – 1. Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element; kumushrang oq yumshoq metall. 2 ayn. **kaliyli**. *Fosfor va kaliy o‘g‘itlari me‘yoridan birmuncha ortiqroq berilsa...* («Fan va turmush»).

**Kaliy xlorid** (KCI) – xlorid kislota (HCl) tuzi, asosiy kaliyli o‘g‘it; Kaliyning tabiiy tuzlaridan bo‘lgan silvinit minerali tarkibidagi KCI tuzlarini kristallizatsiyalash yoki flotatsiya usulida olinadi.

**Kaliyli** – tarkibida kaliy bo‘lgan. *Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning asosiy qismi*

*kuzda go‘ng bilan birga solinadi.* («Fan va turmush»).

**Kaliyli o‘g‘itlar** – tarkibida o‘simliklar oson o‘zlashtiradigan shaklda kaliy elementi bo‘lgan mineral moddalar; suvda eruvchan xlorid, sulfat va karbonat kislotalarning tuzlari. Tarkibida kaliyli tuzlar bo‘lgan tog‘ jinslari kaliyli o‘g‘itlar olinadigan xomashyo.

**Kalla II** [lot. *calla* < *callainus* – och yashil] – issiqxonalarda va xonadonlarda o‘stiriladigan, gullaydigan ko‘p yillik manzarali o‘simlik.

**Kallak** [f.– kichkina kalla] – 1. Daraxt tanasining shox-butoqlari kesib tashlangan yuqori qismi, kesilgan shoxi, butog‘idan qolgan qismi. *Abror, o‘g‘lim, ana u behining kallagiga gazeta qistirib qo‘ygan edim, shuni olib kel.* (A. Qahhor, «Asror bobo»). *Podshoning dorisi shu Guliston shahrining bir chekkasida, kallak tutga yaqin joyda edi.* («Murodxon»).

**Kallak urmoq, ayn kallaklamoq.** *Yangi kallak urilgan tut ostida qo‘liga boltasini ushlab Sobirjon o‘tiribdi.* (S. Zunnunova, «Olov»). 2. Biror narsaning bosh qismi. *Silindrlar kallagi. Raketaning yadroli kallagi.* 3 maxs. Kulolchilikda idish va b. yasashda ishlatiladigan moslama – charxning loy qo‘yiladigan joyi. *Kulol charx kallagiga qo‘ygan gumbaz loydan idish yasab, olmadek ortib qolganini tashlab yubormay, hushtak yasaydi.* (Mirmuhsin, «Me‘mor»).

**Kallakdor** – 1. Ko‘p yillardan beri kallaklanaverib, sershox bo‘lib ketgan, kallaklangan joyi yiriklashib ketgan. *Yo‘lning... ikki chetida esa har xil daraxtlar, sambittollar, kallakdor tutlar qad ko‘targan.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

2 s.t. Kallador.

**Kallaklamoq, kallaklash** – keksaygan meva daraxtlarini yoshartirish, yangitdan shoxlatish maqsadida ular tanasining yuqori qismidagi eski shox-butoqlarini kesib tashlamoq; kallak urmoq. Asosan, daraxtlarning tinim davri (fevral-mart) da o'tkaziladi. Tollarni kallaklamoq. *Bek akaning yigitlari tutga chiqib, shoxlarni kallaklay boshladi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Kalorifer** [fr. *calorifere* < lot. *caor* – issiqlik + *ferre* – eltmoq, keltirmoq] – isitish, ventilyatsiya tizimlarida va quritkichlarda havoni qizdirib beradigan, quvurlar tizimidan iborat qurilma. *Bug'li kalorifer. Suvli kalorifer.*

**Kalorimetr** – jismning o'ziga oladigan yoki o'zidan chiqaradigan issiqlik miqdorini (kaloriya hisobida) o'lchaydigan asbob.

**Kaloriya** (*lotincha*, «issiqlik» so'zidan). – issiqlik miqdorini o'lchash birligi. Kichik kaloriya 1 gr toza suvni 1°S isitishga ketgan issiqlik miqdoridir. Katta kaloriya (kkal) 1000 kichik kaloriyaga teng. Issiqlik miqdorining birligi 4,1868 Joulga teng.

**Kalta yol gullar** – qorako'l gulining bir turi; uning uzunligi 10–20 mm dan oshmaydi va odatda eni bir emas, 9–6 mm keladi.

**Kalxat** – qarchig'aysimonlar oilasiga mansub katta yirtqich qush; sor. *Jilg'aning ustida bir gala qora qush... kalxatlar gir aylanib uchib yurardi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Kamar II** – 1. Suv qirg'og'ida, jar chetida, tepalik yoki tog' yonbag'rida yuvilish, o'pirilish va sh.k. natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiqlik joy, yo'l. *Akam bilan Tog'kamarga tushib chiqdik. O'sha kamar ichi keng: yuz bosh qo'y soyalashi mumkin.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»). *Qirning o'rkachi narigi chet-*

*da yuksalgan tog'ning beliga yetib tugar, undan, tog' bag'rini kesgandek bo'lib, kamar ketgan edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»).

2. Daryo, ariq kabi oqar suvlarda uning aylanib oqadigan joyi, aylanma harakatli chuqur joyi. *Suvonjon tol tagidagi kamarga sho'ng'ib kirib ketardi-da, anchadan keyin baliq bilan chiqib kelardi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Po'latjon so'l oyog'i bilan suvni shaloplatib, kamardan chiqishga urinar edi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

3 *anat.* Umurtqali hayvon va odamning ayrim bo'g'inlarida, o'zaro tutash ikki suyakning birida bo'ladigan yarimshar shaklidagi o'yiqlik joy, ko'z. *Yelka (qo'l) kamari.*

**Kambarg** – bargi kam, siyrak bargli. *Baland so'ritoklarda chumak urgan chillakilar, kambarg daraxtlardagi olma va nashvatilar u [Normat] bilan xayrxo'shlashmoqda.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Kamfora daraxti**, *cinnamomum camphora* (L.) – Lavrdoshlar (*Lauraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 25–30 (ba'zan 50) m gacha yetadigan doim yashil daraxt. Vatan Yaponiya, Xitoy va Koreya. Kavkazning Qora dengiz sohillarida o'stiriladi. Tarkibida efir moyi va boshqa birikmalar bor. Efir moyi kamfora va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan. Efir moyidan kamfora olinadi. Kamforaning dori preparatlari, kukuni, moydagi eritmalari, kamforali surtma, kamforali spirt is gazi, narkotiklar, uyqu dorilar bilan zaharlanganda, og'ir va yuqumli kasalliklardan so'ng yurak-tomir sistemasi ishini va nafas olishni qo'zg'atuvchi vosita sifatida, ba'zan tutqanoq, asab kasalliklarini davolashda hamda mushaklar og'riganida, bod, artrit, shamollash kasalliklarida og'rigan

yerga surtish uchun ishlatiladi. Kamfora turli murakkab preparatlar tarkibiga kiradi. Kamforadan asabiylashishlarda, yurak nevrozi kasalliklarda qo'llaniladigan brom kamfora sintez qilinadi.

**Kamgo'sht** – 1. Go'shti oz, oz go'sht solingan (ovqat haqida). *Kamgo'sht osh. Kamgo'sht somsa.*

2. Tanasida, gavdasida go'shti kam; ozg'in, oriq. Kamgo'sht odam. *Katta ukam Sirojiddinning ahvoli ham yaxshi emas, u aslida, oriq, kamgo'sht va kasal-simon, rangi o'chgan edi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»). *Muqimiy oriqroq, kamgo'sht... biroz kamgaproq odam edi.* (T. Obidov, «Yusufjon qiziq»).

3 s.t. Yeyiladigan joyi, eti kam. *Kamgo'sht meva. Kamgo'sht qovun.*

**Kampirchopon** (*Trichodesma incanum* – Bge) DC.) – gozabonguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 1 m cha keladigan, o'q ildizli, tanasi va urug'lari zaharli ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Poyasi uncha shoxlamaydigan, hamma joyi oq qalin tukchalar bilan qoplangan bo'ladi. Bu o'simlik may oyidan noyabrgacha gullaydi va urug'laydi. Kampirchopon tog' yonbag'irlarida, qo'riq yerlarda va lalmikor ekinlar ichida o'sadigan eng xavfli zaharli o'tdir. U Markaziy Osiyoning deyarli hamma tumanlarida uchraydi. Kampirchopon urug'dan va vegetativ usulda ko'payadi. Bu o'simlikning bargida, poyasida va xususan, urug'ida alkaloidlar bor. Shuning uchun uning urug'i aralashgan mahsulotni odam va hayvonlar yesa og'ir zaharlanadi. Kurash choralari: erta kuzda chuqur shudgor qilish, ildizlarini yig'ish va daladan yo'qotish. Ekiладigan urug'larni kampirchopon urug'idan tozalash, ekinni o'tloq qilish. G'alla ekinlarini 2,4-D markali gerbitsid bilan dorilash.

*Samarqand va Buxoro atroflarida ko'p o'sadigan kampirchopon o'simligining qay darajada zaharli ekanini kim bilmaydi deysiz!* (Sh. G'ulomov, «Yorqin yo'llar»). *Qishloq joylarda donli ekinlar bilan birga o'sadigan ayrim o'simliklarda (kampirchopon, ko'kmaraz, eshakmiya va b.) zaharli alkaloidlar mavjud.* (S. Akramov, «Giyoh kimyosi»).

**Kamsut** – suti kam, sutni kam beradigan. *Otam sigirning sersut yoki kamsutligini ma'rashidan bilar edi... ishoning.* (A. Qahhor, «Asarlar»). *...qaynanangizning fe'lini bilasiz-ku. Emizganingizni eshitib, yumma talab beradi. – Nega? Nima qilip-ti? Ko'kragim kamsut bo'lganida, boshqa gap edi.* (R. Fayziy, «Hazrati inson»).

**Kanada solidagosi** (*solidago canadensis* L.) – murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1,5–2,0 m ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Vatani Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa qismi va Kavkazda manzarali o'simlik sifatida bog' va xiyobonlarda o'stiriladi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida flavonoid (kversetin, izokversetin, rutin), terpenoid moddalar bor. O'simlik yer ustki qismining quruq ekstrakti buyrak-tosh kassalligida qo'llaniladigan «Marelin» preparati tarkibiga kiradi.

**Kanalar** (*Acarina*) – o'rgimchak-simonlar sinfiga mansub mayda bo'g'im-oyoqlilar. 3 turkumga bo'linadi: akariformali K. (*Acariformes*), parazitformali K. (*Parazitiformes*) va pichano'rar K. (*Opilicarina*). Oziqlanish tipiga qarab 3 guruhga bo'linadi: o'simlikxo'rlar, yirtqich va parazit kanalar. Tabiatda zararli kanalar bilan bir qatorda foydalilari ham (entomofag kana) bo'lib, q.x. zararkunandalarining ko'payishiga to'sqinlik qiladi.

**Kanal** [lot. *canalis* – quvur, nov; suv yo'li] – maxsus qazilgan suv yo'li,



sug'orish tizimining asosiy qismi. Kanal o'taydigan vazifasiga qarab, *magistral* (daryo, suv ombori va boshqa suv manbalaridan sug'oriladigan yerlarga suv oqib keladigan); *taqsimlaydigan* (magistral kanallardagi suvni tuman yoki xo'jaliklarga tarqatadigan); *xo'jalik* (suvni tumanlararo yoki xo'jaliklararo kandalan olib, xo'jalikning sug'oriladigan yerlariga oqizadigan), *suvni egatlarga taqsimlash uchun xizmat qiladigan muvaqqat* (ariq) turlarga bo'linadi. Kanal suv olish inshootlaridan boshlanadi. Suv olish inshootlari orqali suv kanalga o'zi oqib o'tadi yoki nasos stansiyasi orqali ko'tarib beriladi. Kanal qazilma, ko'tarma, yarim qazilma-yarim ko'tarma tarzda qurilishi mumkin.

1. Daryo, ko'l yoki dengizlar o'rtasida kema qatnovini o'rnatish, shuningdek, ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash va ortiqcha suvlarni yig'ib, oqizib yuborish uchun qazilgan suv yo'li. Katta Farg'ona kanali. *Mayli, mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko'payadi. O'shanda hammaning yegani oldida, yemagani ketida bo'lib qoladi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Farg'ona dehqonlari kanal qazib, Norindan cho'lga suv olib chiqish uchun astoydil bel bog'ladilar.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

2. Biror narsa ichidagi tor, cho'ziq bo'shliq joy; quvur. *Zambarak stvoli kanali.*

3 *maxs.* Aloqa, kommunikatsiya yo'li; har qanday axborotni elektr signallar yordamida yetkazib berishni ta'minlovchi texnik qurilmalar majmui. *Elektr aloqa kanali. Televizion kanal.*

4 *ko'chma.* Biror narsaga erishish, yetishish yo'li, vositasi. *Diplomatik kanal orqali ish olib bormoq.*

**Kandil** – olmaning kechpishar bir navi va uning uzunchoq shaklli, sersuv mevasi. *Tog'asi ikkita rozmarin, bitta kandil, yana bitta Namangan olmasi berdi.* (M. Ismoiliy, «Bizning roman»). *Bizda olmalarning yuz besh turi bor: rozmarin... jonoqi, kandil.* (G'. G'ulom).

**Kandir, kendir** – yovvoyi holda o'sadigan, tolasi to'qimachilikda xomashyo sifatida ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik va uning tolasi. *Kandir aytir: men juganda, Suvsizlikdan goldim cho'lda.* («Dali daryo»). *Hovli yuzida bir talay uvada latta va kandir-kanop bilan tang'ib tashlangan shaloq charx... chuvablab ketgan kalavalar yotar edi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Xayolan yigirma yil ortga hatlab, hilpillagan kandir ishton kiygan bola hoida ko'rdi o'zini.* (N. Norqobilov, «Bekatdagi oq uycha»).

**Kanop** [r. *kenaf* < lot. *cannabis* – zig'ir, kanop] – 1. Poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland o'tsimon o'simlik; uning tolasi. *Kanop ekilgan maydon. Kanop fabrikasi. Kanop ip. Kanop arqon.*

2. Shu toladan eshilgan ip. Qop og'zini kanop bilan bog'lamoq. Qop-qanorni kanop bilan tikadilar. *Kanopning bir uchi katta xodaga, ikkinchi uchi qamishlarga bog'langan, bularga hamma vaqt katta baliqlar ilinadi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Kapalak** – Ikki juft oq, kulrang yoki rang-barang qanotli nozik hasharot. *Kapalak gulni sog'inar, bulbul – kuyni.* (Maqol). *Rayhonlar qad ko'tarib, hid sochdi, birin-ketin ochilgan rang-barang gullar ustida kapalaklar qanot qoqa boshladi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Kapiga** – qoramollar, cho'chqalar so'yilganda oshqozonidan chiqadigan yarim suyuq oziq massa; hayvonlar vazni-ning 10–12 % ni tashkil qiladi.

**Kapilyar** [lot. *capillaris* – soch tola-sidek ingichka, qildek] – *maxs.* 1. Teshigi juda tor, ingichka naycha. *Orbitada esa kapilyarlar kutilmaganda, rasmana nasoslar singari, suvni tortib chiqara boshladi.* («Fan va turmush»).

2. (ko'pl. shaklida) Mikroskopda ko'rinadigan eng mayda qon tomirlari; qil tomirlar. *Kapilyarlar juda mayda tomirlar bo'lib, mayda arteriyalarni kichikroq venalar bilan tutashiruvchi tarmoqlar hosil qiladi.* («Odam anatomiyasi va fiziologiyasi»).

**Kappon** – 1) og'ir narsalar tortiladigan bir pallali ulkan tarozi. Kappon g'alla bozoriga o'rnatilib, unda 1–2 qop g'alla tortish mumkin bo'lgan; 2) shunday tarozi o'rnatilgan, usti tim don bozori, g'alla bilan savdo qilinadigan rasta. Hozir bozorda, umuman, g'alla sotiladigan joy kappon deyiladi.

**Kaprifol shilvisi (*Lonicera caprifolia*)** – chirmashib yoki sudralib o'sadigan buta. Novdalari sariq-qo'ng'ir, barglari keng ellipssimon, yuz tomoni to'q yashil, orqa tomoni esa zangori, yosh vaqtida tukli. Bu shilvi may oyida gullaydi, gullari qizil-binafsha yoki oq-qizil rangda bo'lib, yirik, xushbo'y, bandsiz, 1–2 tadan bo'lib, barg qo'ltig'ida joylashadi. Rezavor mevasi novvoti yoki qizil rangda. Ichida 1–5 ta urug' rivojlanadi. U iyun-iyul oylarida yetiladi. Shilvi qalamchadan ko'paytiriladi, yer osti poyasidan ham ko'payadi. Kaprifol shilvi o'rta va janubiy Yevropada, Kavkazda va Kichik Osiyoda tabiiy holda o'sadi. MDHning janubiy tumanlarida xushmanzara va xushbo'y o'simlik sifatida parklarga ekiladi. Qurg'oqchilikka chidamli, O'zbekistonda aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilgan.

**Kapsan, kafsan** – o'tmishda qishloq jamoasining xizmatini bajarganligi uchun dehqonlar tomonidan ayrim shaxslar (mas., ma'mur va din arboblari, mirob va podachilar, temirchi va sartaroshlar) ga berilgan mahsulot to'lovi. Kapsanning miqdori yerning hosildorligiga hamda suv ta'minotiga qarab turli joylarda turlicha bo'lgan. Dehqonlar o'z qarindoshurug'lari, qishloqdagi kambag'al oilalarga, beva-bechoralarga ham ixtiyoriy ravishda kapsan berganlar; keyinchalik u majburiy to'lovga aylangan. *Har bir xirmon boshidan [eshon] kamida uch g'alvir kafsan olar... xizmatlari uchun behisob pul olar edi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Karam I** [a. f. – karam] – poliz ekini, rezavorning bir turi va shu ekinning barglari o'ramidan hosil bo'lgan boshi, hosili. Karam ko'chati. Karam tuzlamoq. Karam sho'rva. Karam do'lma. *Butun oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va h.k. rezavor ekib, mumkin qadar eldan burunroq bozorga chiqarib, «pul» qilishga tirishar edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Karantin** [fr. *quarantaine* – qirq < ital. *quaranta giorni* – qirq kun] – «Karantin» iborasi italyancha so'z bo'lib, «qirq kun» ma'nosini bildiradi. Karantin tadbirlari tibbiyotda, o'simliklar himoyasida va veterunariyada qo'llaniladi. Yuqumli kasalliklar va qishloq xo'jalik zararkunandalari tarqalishining oldini olish uchun davlat tomonidan o'tkaziladigan sanitariya tadbirlari. *Karantinga qo'ymoq. Karantin e'lon qilmoq.* O'simliklar himoyasida karantin tashqi va ichki bo'ladi. **Tashqi karantin** chet mamlakatlardan o'simliklar zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlar urug'larining kelib qolishiga yo'l qo'ymaslikni, **ichki karan-**

**tin** muayyan hududlarda paydo bo'lgan zararkunandalar va kasalliklar manbayini yo'qotish va ularning yangi joylarga tarqalishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashni nazarda tutadi.

**Karbamid, mochevina** ( $(NH_2)_2CO$ ) – karbamid kislota amidi sintetik usulda olinadigan, suv, spirt, suyuq ammiak, sulfid angidridda yaxshi eriydigan modda. Suyuqlanish harorati  $132,7^{\circ}$ . Tarkibida 46% bo'lgan eng konsentrlangan fiziologik nordon, qattiq azotli o'g'it.

**Karbonat angidrid** (karbon gaz  $CO_2$ ) – atmosfera tarkibidagi rangsiz, hid-siz gaz (0,03%), qazib olinadigan yoqilg'irlarni yoqish mahsuloti, shuningdek hayvonlar va o'simliklarning nafas olishidir. Fotosintez jarayonida yashil o'simliklar uni o'zlashtiradi. Qattiq shaklda (quruq muz) sovutish moslamalarida ishlatiladi; gaz holatida – gazlangan ichimliklarda, o't o'chirgichlarda ishlatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, atmosferada uning miqdorini ko'payishi issiqxona effekti va global isishga olib keladi. Xususiyatlari: erish nuqtasi  $-56,6^{\circ}C$ , sublimatsiya  $78,5^{\circ}C$ .

**Karj** [f. – bir tilim, parcha, burda] – 1. Qovun yoki tarvuz tilimidan ko'ndalangiga kesilgan bo'lak(lar). *Epchil bakovul darhol dasturxon yozib, eng oldin bir dasta non, keyin anjir, uzum, karj qilingan qovun keltirib qo'ydi.* (M. Osim, «Elchilar»). *Alijon, qo'lida bir karj tarvuz ushlagan holda, boshini sarak-sarak qildi.* (H. No'mon, «Fasllar»).

2. Do'ppi taxining to'rt qismga ajraladigan bo'laklaridan biri. – *Hoy quda, men-ga qarang, – qo'lidagi chust do'ppining karjlarini tekislay turib gapira boshladi Xosiyat xola.* (R. Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»).

3. Biror joy, sathning bir xildagi ajralgan qismi, bo'lagi. *Tabiatmi, yozgi joziba, afsun, Archa tog'larining karjlarida qor.* (S. Akbariy).

**Karjlamoq** – 1. Karj qilib kesmoq (q. karj 1). *Men va buvim chaylada O'ttirib shu pallada, So'yib qildik kosa ham, Karjlab yedik rosa ham.* (Q. Hikmat). *U darrov kichkina katga ko'rpacha to'shadi, qovun karjladi.* (Y. Shamsharov, «Toshqin»).

2 maxs. Karjlarga, teng to'rt qismga ajratmoq, tax urmoq (ko'pincha do'ppi haqida).

**Karkidon** [f. – karkidon] – toq tuyoqli sutemizuvchilarga mansub, Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan, burni ustida bitta yoki ikkita shoxi bor, terisi qalin, bahaybat hayvon. *Toshkent shahri va uning atroflaridagi ko'm-ko'k maysazorlarda Sibir karkidonlari yashagan.* («Fan va turmush»).

**Karmak** – terini oshlash uchun ishlatiladigan tanin moddali ildiz.

**Karnaygul, Chirmovgul** (*Ipomoea L.*) – pechakguldoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko'pyillik chirmashib o'suvchi liana o'simliklar turkumi. Ular asosan tropik mintaqada o'sadi, 400 ga yaqin turlari bo'lib, ularning 200 ga yaqini Meksika florasida uchraydi. O'zbekistonda havorang karnaygul, Qohira karnayguli, arg'uvon rangli karnaygul kabi turlari vertikal ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladi.

**Karotin** [lot. *sarota* – sabzi] – 1. Ko'proq sabzi, tuxum sarig'i, sut va sh.k.da bo'ladigan, deyarli hamma o'simlik tarkibida uchraydigan sariqzarg'aldoq rangli modda (oziq-ovqat sanoatida bo'yovchi modda sifatida ishlatiladi). *Odam tanasida A vitamini faqat boshqa biror moddadan, chunonchi, sab-*

zavotlar, ko'katlardan ajralib chiqadigan karotin degan modddadan hosil bo'ladi. (F. Mahkamov, «Salomatlik garovi»).

2. O'simliklardagi sariq pigment bo'lib, u hayvon organizmida fermentlar ta'sirida vitamin A ga aylanadi, quyoshning ultrabinafsha nuri ta'sirida tez buziladi. Ko'k o'tlar, qizil sabzi, xashaki oshqovoq va h.k. karotinga boy. 1 kg ko'k beda o'tida – 44 mg, beda pichanida – 49 mg, pichan unida 50 mg karotin bo'ladi.

**Karp** [*nem. karpa* < *fr. carpe*] – chuchuk suvlarda yashovchi, terisi yaltiroq tangacha bilan qoplangan suyakli baliq; zog'orabaliqning xonakilashgan bir turi ...*karp baliqlarining gavdasi qo'polroq, uzunchoq, o'zi chittakdek chaqqon.* (H. Nazir, «So'nmas chaqqoqlar»).

**Karpat asalari zoti** – bu naslning vatani Karpat tog'lari va vodiylari bo'lib, tashqi ko'rinish belgilari Krainka nasliga yaqin bo'lgan holda, tanasining rangi kulrang ko'rinishga ega. Urchimagan ona arisining tana vazni 185 mgr, urchigan ona arisining vazni 205 mgr ga teng bo'lsa, 1 kunlik ishchi arining vazni 110 mgr ga teng, xartumchasining uzunligi 6,3–7,0 mm ga teng. Asal inchasining ustini oqish rangda quruq berkitadi. Arilari muloyim, ko'chga kam chiqadigan va qishga chidamli. Markaziy Osiyo iqlim sharoitida, asosan, shu zot arilari boqiladi.

**Karqur** – tovuqsimonlar turkumiga mansub katta o'rmon qushi.

**Karta II** [*f.* – marza, jo'yak; marza bilan o'ralgan ekin maydoni] – Yerning, dalaning alohida, to'g'ri to'rtburchak shaklida ajratilgan bo'lagi, bir bo'lak dala. *Traktor brigadasi bugun Shirinbuloq uchastkasidagi so'nggi kartalarning shudgorini tamomlaydi.* (Y. Shamsharov, «Orzigul To'raboyeva»).

**Kartografiya** [karta + *yun. grapho* – yozaman] – geografik kartalar tuzish haqidagi fan va shunday kartalar tuzishning o'zi. *Ilm-fanning turli sohalarida kartografiya tadqiqoti natijalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.* («Fan va turmush»).

**Kartoshka** [*r.* < *pol. kartofla* < *nem. kartoffel* < *ital. tartufolo* – ildizmevali qo'ziqorin] (*Solanum tuberosum L.*) – tomatdoshlar oilasiga mansub tugunak mevali ko'p yillik o'tsimon o'simlik, asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo'lgan bir yillik oziq-ovqat, texnika va xashaki ekin. Ildizmevali, bir yillik sabzavot o'simliklaridan biri va uning ildizida yetishadigan, ovqat uchun ishlatiladigan hosili. Kartoshka poyasi. Kartoshka ekmoq. *Ekinlar juda soz. Ayniqsa, kartoshka bilan sabzi mo'l hosil beradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). [*Mastura:*] *Hay, Toji! Sho'rvang nima bo'ldi?* – [*Toji:*] *Kartoshkani soldim.* (Hamza, «Paranji sirlari»).

**Kartoshkagul** – ildizida kartoshkasimon tugunagi bo'ladigan uzun poyali, yirik, rang-barang gulli ko'p yillik manzarali o'simlik. *Ularning uyidagi gullarning sanog'i yo'q: atirgul, kartoshkagul, qashqargul.* (F. G'ulom, «Shum bola»).

**Kartoshkakor** – kartoshka yetishtirish bilan shug'ullanuvchi. *Kartoshkakorlar o'z mahsulotlarini kech kuzgacha sotadilar.* (Gazetadan).

**Kartoshka qovoq, o'ris qovoq** – (*Cucurbita maxima Duch.*) – mevasi juda katta (60–80 kg) bo'ladigan qovoq turi. O'ris qovoqning xashaki, yeyiladigan va manzarali navlari bor. MDHning janubiy va o'rta mintaqalarida ekiladi. O'zbekistonning hamma tumanlarida sug'oriladigan yerlarda o'stiriladi. Uning yeyiladigan navlaridan «Ispan 73» va

«Dungan» qovoqlari juda keng tarqalgan.

**Kartoshkaqovoq** – qovoqning rangi kulrangiga moyil, g'ildiraksimon, etli (go'shtdor), mazali, ovqat uchun ishlatiladigan turi. *Qovoqning xillari ko'p: kartoshkaqovoq, oyimqovoq, qashqarqovoq va h.k.* (K. Mahmudov, «Qovoq to'g'risida»).

**Kartoshkachilik** – kartoshka yetishtirish ishi; qishloq xo'jaligining kartoshka yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. *Umuman, kartoshkachilikda kaliy o'g'itlariga alohida e'tibor beriladi.* («Fan va turmush»).

**Karch** – *ayn. karj.* *Qovun so'yildi. Smirnov xuddi asalning rangiga va ta'miga o'xshash bir karchni og'ziga soldi-yu, mazasiga qoyil bo'ldi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Kaskad sharshara** – landshaft kompozitsiyalarida sun'iy ravishda qurilgan kichik sharsharachalar tizimi, u ko'proq terrasali parklarda va bog'larda park kompozitsiyasining asosiy elementlaridan hisoblanadi.

**Kastor** [*yun. kastor* – suv qunduzi, bobr] – **kastor moyi**, *ayn. kastorka.*

**Kastorka** [*lot. sastoreum* – bobr bezlaridan olingan moysimon suyuqlik < *yun. kastor*] – kanakunjutdan olinadigan moy, kanakunjut moyi (surgi dori sifatida ishlatiladi). *Kastorkaga o'xshagan dorilarni kishi qiynalib ichadi.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Kastratsiya** (*axtalash, bichish*) – xirurgik yo'l bilan hayvonlarning (erkagini) jinsiy bezlarini olib tashlash yoki shu bezlar funksiyasini boshqa usul-amallar bilan to'xtatish (nur bilan axtalash, gormon yuborib axtalash va h.k.).

**Katalizator** – *kim.* Kimyoviy reaksiyani qo'zg'atadigan yoki uning tezligini

o'zgartiradigan, ammo o'zi o'zgarmay qoladigan modda.

**Kataral mastit** – sut suvsimon bo'lib, laxtalar topiladi, keyinchalik, sarg'ish yoki kulrang tusda, kazein ivimalari va laxtalar aralash bo'ladi.

**Katta qoncho'p** (*chelidonium majus L.*) – ko'knordoshlar (*Papaveraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–100 sm gacha o'sadigan ko'p yillik o'simlik. MDH mamlakatlari Yevropa qismi, Qrim, qisman Sibir, Qozog'iston, Oltoy va Uzoq Sharqdagi salqin yerlarda, butalar orasida, o'rmon chetlarida, jarliklar bo'ylarida, aholi yashaydigan joylarda, bog' va polizlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar (xelidonin, xeleritrin, sangvinarin va b.), organik (xelidon, olma, limon va b.) kislotalar, flavonoidlar, saponinlar va b. moddalar bor. Damlamasi jigar va o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida, yer ustki qismidan tayyorlangan pasta teri silini davolashda qo'llaniladi. Yer ustki qismi o't haydovchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Kauchuk daraxti yoki Geveya** (*Hevea brasiliensis* (HBK) (Sh.Arg) – sutlamadoshlar oilasiga mansub kauchuk beradigan, balandligi 20–30 metrga yetadigan daraxt. Bu daraxtdan olinadigan tabiiy kauchukning 90% i plantatsiyalarda tayyorlanadi. Asosan Indoneziya, Shri-Lanka, Janubiy Amerikada plantatsiya usulida o'stiriladi.

**Kavak** [*f.* – ichi bo'sh, o'yiqlik, ichi teshik] – 1. Chirish, nurash va sh.k. natiijasida biror narsada hosil bo'lgan chuqurcha, bo'shliq. Daraxt kavagi. Tish kavagi. *Qoyadagi kavaklar... biz ularni, qaysi tog'-tosh kavagiga berkinsa ham topib, Sotiboldining o'chini olmay qo'yamaymiz.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Umurzoq ota*

kavak tolga qoqilgan mixlarga osig'liq qarmoqlarni olib, ko'zdan kechirarkan, miyig'ida jilmayib qo'ydi. (H. G'ulom, «Mash'al»).

2. Umuman, biror narsa ichidagi tabiiy bo'shliq. *Qamish kavagi. Suyak kavagi.*

3 s.t. In, uya. *Sichqon kavagi. Chumchuq kavagi.*

4 ko'chma. Pana, yashirin joy, o'rin. *Bo'ronbek dom-daraksiz ketdi. Yana biror kavakda yotgan bo'lsa kerak-a, Mulla Mirhosil?* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Uni yo'q qilib, o'zing qaysi kavakka berkinasan!?* (P. Tursun, «O'qituvchi»). «*Navbahor*» choyxonasi kavaklariga esa 672 kilogramm go'sht, 124 kilogramm kolbasa ... yashirib qo'yilgan ekan. (Gazetadan).

**Kavar** [f. – kovul, kavar] – Yer bag'irlab o'sadigan janub o'simligi va uning qovunga o'xshash cho'zinchoq mayda mevasi.

**Kavrak** – urug'idan ko'payadigan ko'p yillik o'simlik. *Bu yerda bulturdan qolgan kavrak, qurigan bodomcha, tag'in allaqanday tikanlar mo'l edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»). *Kavrak, urug'idan yaxshi ko'karadigan ko'p yillik o'simlik bo'lib, bo'yi 1 metrga yetadi.* («Fan va turmush»). *Qarshi cho'li ko'klamda juda sero't bo'ladi, unda «kavrak» deb ataluvchi, kishining ishtahasini ochadigan o'tlar o'sadi.* (O. Husanov, «Hayot ishq»).

**Kavsh: kavsh qaytaruvchilar** – chaynab yutilgan ovqatni og'ziga qaytarib chiqarib, qayta kavshovchi hayvonlar.

**Kavsh qaytarmoq** – chaynab yutilganni og'izga qaytarib chiqarib, qayta kavshamoq. *Tirsillagan qo'y-qo'zilar kuni bilan qorinlariga yiqqan ovqatlarini, bamaylixtir yotib, kavsh qaytarayotgandir.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Kavsh qaytaruvchilar** – kavshovchilar juft tuyoqli sut emizuvchilar kenja

turkumi. Ko'pchiligining oshqozoni to'rt bo'lim: katta qorin, to'r qorin, qatqorin va shirdondan iborat; ba'zi bir kavsh qaytaruvchilarda qat qorin yo'q. Yaxshi chaynalmagan oziq katta qoringa, bu yerda maydalanib, to'r qoringa va so'ngra qayta chaynash uchun og'izga qaytariladi. Kavsh qaytaruvchilarda oziq tishlar jag'da chuqur o'rnamashgan, yuqori jag'da kurak tishlar yo'q. Oyoqlarining 3- va 4- barmoqlari ancha kuchli rivojlangan. Kavsh qaytaruvchilar 5 oila 76 urug'ga mansub 180 turni o'z ichiga oladi. Kavsh qaytaruvchilarning yovvoyi turlari Avstraliya, Madagaskar va Antil orollaridan tashqari, hamma yerda tarqalgan, Markaziy Osiyoda muflon, alqor, sayg'oq, jayran, morxo'r va b. uchraydi. Xo'jalikda katta ahamiyatga ega; asosiy chorva mollari sifatida go'shti va suti uchun boqiladi; yovvoyi turlari go'shti va terisi uchun ovlanadi.

**Kavsh qaytaruvchi hayvonlar, kavshash, kavsh qaytarish** – oziqni og'iz bo'shlig'ida maydalash va so'lak bilan namlashdan iborat fiziologik akt; ovqat hazm qilishning boshlang'ich fazasi.

**Kaylik** – qo'tos (yak)larni qoramollarga chatishtirishdan olingan duragay avlod.

**Kaynozoy** [yun. *kainos* – yangi + *zoye* – hayot] – Yerning geologik tarixida paleozoy va mezozoy eralaridan keyingi, hozirgi davrni ham qamrab oluvchi eng yangi era. *Toshkent zamini va yerusti qiyofasining shakllanishida eng yangi – kaynozoy erasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.* («Fan va turmush»).

**Kazein** [lot. *caseus (casei)* – pishloq, sir] – sutda bo'ladigan murakkab oqsil modda (bo'yoq, yelim, lak, dorivor

moddalar va sh.k.ni tayyorlashda ishlatiladi). Sut tarkibidagi murakkab fosfo-proteid oqsil. Sutni proteolitik fermentlar ta'sirida tvorogga aylantirishda kazeinogen hosil bo'ladi. Tvorogning asosiy massasini tashkil etadi. Kazein tuzli eritmalar (neytral va ishqorli muhit)da eriydi, kislota ta'sir ettirilganda cho'kadi. Sut va sut mahsulotlarining oqsilli asosiy qismi. Ayollar sutida 0,3–0,9%, sigir sutida 2,8–3,5% kazein bor. Muhim oziq modda, tarkibida ko'pgina aminokislotalar mavjud. Kazein zavodi. Kazein olmoq. *Sut tarkibida kazein, laktoglobulin... deb ataladigan oqsillar bor.* (N.Mavlonov, «Qoramolchilik»).

**Kashar** – chorva qishlaydigan joylarda chorvachilik xodimlari (cho'pon, zootexnik, vetvrach kabilar)ning yashashi va ishlashi uchun moslangan bino. *Chorvachilik binolarini remont qilish... yaylovlarda esa qo'y qo'ralari va kasharlar tayyorlash chorvadorlarning eng muhim vazifalaridandir.* (Gazetadan). *Cheksiz adirlar qor ostida mudraydi. Kasharlarda hayot qaynoq.* (Gazetadan).

**Kashnich** [f – kashnich] – o'zi va urug'i ovqatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan, bir yillik serbarg xushbo'y o'simlik, oshko'k. *Oshko'klardan keng qo'llanadiganlari: kashnich, ukrop, rayhon, jambil, lavr yaprog'i va boshqalaridir.* (K. Mahmudov, «O'zbek taomlari»). *Burnimga rayhon, kashnichlarning yoqimli hidi kirdi.* (H. Nazir, «Yonar daryo»).

**Kefir** [gruzincha] – sigir sutidan maxsus tomizg'i bilan ivitilgan chuchuk qatiq, ya'ni sutni kislotali va spirtli achi-tish yo'li bilan tayyorlanadigan parhez ichimlik. *Ismoiljon har kuni ovqatdan so'ng bir shisha kefir ichish odatini kan-*

*da qilmaydi.* (S. Abduqahhor, «Sanamay sakkiz dema»).

**Kella** (*ammi L.*) – selderdoshlar [soyabonguldoshlar – (*Apiaceae, Umbelliferae*)] oilasiga mansub, bo'yi 100–140 sm ga yetadigan bir va ikki yillik o't. Tibbiyotda ikki turining mevasidan foydalaniladi. Katta kellaning vatani Yevropaning O'rtayer dengizi bo'yidagi mamlakatdir. MDHda Krasnodar o'lkasida va Turkmanistonda o'stiriladi. Mevasi tarkibida furokumarinlar (berganten, ksantoksin, izonimpinellin, inperator), efir moyi, yog' kabi moddalar bor. Dori preparati – ammifurin pes kasalligini davolashda qo'llaniladi. Tishli kella Ozarbayjonning sho'r tuproqli cho'llarida, qiyaliklarida va ekinzorlarida o'sadi. Shimoliy Kavkazda, Moldoviya va Qrimda maxsus o'stiriladi. Mevasi tarkibida furoxromon hosilalari (kellin, visnagin), efir moyi, yog', flavonoidlar, furokumarinlar birkmalari bor. Dori preparatlari kellin va avisan (furoxromonlar, flavonoidlar va furokumarinlar aralashmasi) bronxial asma, ko'kyo'tal, me'da-ichak, siydik va o't yo'llarning sanchiq (spazma) kasalliklarini hamda ko'krak qisishi (stenokardiya) ni davolash uchun ishlatiladi.

**Kelreyteriya yoki sovun daraxti** (*Koelreuteria Laxm.*) – balandligi 5–6 metr ga yetadigan ko'p tanali xushmanzara daraxt bo'lib, barglari patsimon, gullari mayda sariq, yirik to'pgulga jamlangan. Meva ko'saklari avval yashil, pishish davomida pushti, to'liq pishib yetilgach och jigarrang tusga kiradi. Markaziy Osiyoga XVIII asrda introduksiya qilingan. Mevalari avgustda pishib yetiladi, bo'sh ko'saklari qor yog'ishigacha daraxt shoxlarida saqlanadi. Respublikamiz iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan,

qurg'oqchilikka chidamli. Shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanish tavsiya etilgan. Avtomobil yo'llari chek-kalariga alleya sifatida ekish mumkin.

**Kemiruvchilar** – sutemizuvchilarning o'simliklar, ularning mevasi, doni bilan ovqatlanadigan eng katta turkumi (kura-k tishlari yaxshi rivojlanib, ovqatni kemirishga moslangan bo'ladi; mas., quyon, kalamush, sichqon). *Suvsar kemiruvchilarga qiron keltirgan bo'lsa ham, uy par-randalariga tegmaydi.* (Gazetadan).

**Kemirchak** – anat. Odam va hayvon organizmidagi egiluvchan va qattiq biriktiruvchi to'qima; tog'ay. Burun kemirchagi. *Bemorga yangi kemirchak qo'yish... oddiy operatsiya bo'lib qoldi.* (Gazetadan).

**Kepak** – 1. Bug'doy, jo'xori kabi donlar tortilganda (un qilinganda), ulardan chiqadigan po'sti va un bo'lmagan don chiqitlari. Un tortish jarayonining chiqiti. Don turiga ko'ra, bug'doy, arpa, javdar, tariq, makkajo'xori va b., maydalanish darajasiga ko'ra yirik va mayda kepaklarga bo'linadi. – *Nonlaringiz ichida nega somon ko'p? – dedi Shokir aka. – Somon emas, arpa unining kepa-gi, qiltig'i, – dedi Qulmurod.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Oyimxon... ochdan o'lmaslik uchun ertadan kechgacha kir yuvib, haqi-ga bir kosa kepak olib, non qilib yegan.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

2 s.t. **Qazg'oq.** *Gap shu yerga kelgan-da, Berdi Aminovich... boshlarini qashib qoldilar. Yelkalariga kepak yog'ila bosh-ladi.* («Mushtum»).

**Keskin kontinental iqlim** – bu okeanlardan ajralib turadigan va yuqori bosimli hududlar ta'siri ostida materiklar-ning ichki qismiga xos bo'lgan mo'tadil kengliklarning o'zgaruvchan iqlimi. Ob-

havo turi – antisiklon; yog'ingarchilik ahamiyatsiz – 400 mm dan kam; Namlik unchalik katta emas, namlik koeffitsiyen-ti 1 dan kam. Shamollar, odatda, kuchsiz. Yillik va kunlik harorat amplitudalari kattaligi bilan tavsiflanadi. Qishlar uzun, qor kam va juda sovuq, Saxa Respubli-kasining markaziy va sharqiy hududlari-da haddan tashqari sovuq (-65°C gacha) bo'lishi mumkin. Yoz odatda iliq bo'ladi (eng issiq oyning o'rtacha harorati 15–20°C, o'rtacha maksimal 25°C), ammo qisqa; yozda yog'ingarchilik qishga qara-ganda bir oz ko'proq tushadi (ko'pincha iyul oyida).

**Ketmon** – yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qo'yadigan zo'g'atasi bor, yer chopish, loy qilish va b. ishlar-da ishlatiladigan dastaki asbob. [*Yo'lchi*] *Katta kundalarning tevaragini ketmon bilan chopishga boshladi.* (Oybek, «Tan-langan asarlar»). *Ro'zimat ketmonni zo'g'atasigacha botirib urdi-yu, Sidiq-jonga qaradi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Ketmonlamoq** – 1. Bir ishni ketmon bilan qilmoq. *Bultur kuzda o'n besh so'tix tomorqaning hammasini bir o'zi ketmon-lab chopdi.* (R. Rahmonov, «Changalzor-dagi sharpa»). *Bo'taboy ariq chetlaridagi o'tlarni ketmonlab sindirdi.* (S. Ahmad, «Hukm»).

2 shv. *kam qo'll.* Ketmon bilan chopib o'ldirmoq. *Qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi. Ketgan keladi, ketmonlan-gan kelmaydi.* (N. Yoqubov, «Jon»).

**Ketchup** [ingl. *ketchup* < isp.] – pomidorni qayta ishlash va unga turli ziravorlar qo'shish orqali tayyorlanadigan quyuq qizil suyuqlik (go'shtli va baliqli ovqatlarni xushxo'r qilish uchun ishlatiladi).



**Kechki** – 1. Kechga oid; kechqurun boʻladigan. Kechki payt. Kechki shabada. *Yo kechki salqin bilan, yo ertaga ertalab shahar hovliga [beda] olib tushaman.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Eshelon oshpazlari kechasi ovqat pishirmaslik va kechki ovqatni ham kunduzi pishirib qoʻyish haqida buyruq oldilar.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Kech pishadigan, kech ekiladigan. Kechki uzum. Kechki oʻrik. Kechki bodring. Kechki kartoshka. *Kechki ekinning xatari bor.* (Maqol). *Kuz havosi iliq edi. Kechki gullar ochilib turibdi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

3. Aprel-may oylarida, saratonda tugʻilgan qoʻzilar.

**Kechpishar** – kech pishadigan, keyin yetiladigan; kechki. Kechpishar qovun. *Har mevaning oʻz uchastkasi bor, har bir uchastkaning oʻz boʻlimlari bor: ertapishar, oʻrtapishar, kechpishar.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**Kigiz (namat)** – 1) uy jihozi; kigizchilikda jundan bosib tayyorlanadigan qalin, pishiq toʻshama, palos. Sharqda, xususan, Markaziy Osiyo va Qozogʻistonda qadimdan maʼlum. Aksariyat chorvachilik rivojlangan mintaqalarda qoʻyning junidan bosiladi. Guldor (naqsh mujassamoti yulduz, romb, qoʻchqor shoxi, bulut va b.), gulsiz sidirgʻa, rangiga koʻra oq, qora, qizgʻish kigiz va h.k. xillari boʻladi. Ayniqsa, qalin va zich bosilgan oq kigiz qadrlangan. Kigizdan, asosan, toʻshama sifatida (gilam, palos oʻrvida) foydalaniladi, shuningdek, oʻtovlarni oʻrashda, qalpoq, telpak tikishda mayu oʻrvida ham ishlatiladi;

2) texnikada – qistirma, zichlagich, issiqlik va tovush izolyatsiya materiali. Jundan, moʻyna chiqindilarini bosib yoki mineral paxta bilan bogʻlovchi modda (bi-

tum)ni biriktirib va issiqlik ishlovi berib hosil qilinadi. Lenta, plastina, tayyor detal koʻrinishida ishlab chiqariladi. Kigizdan avtomobillar, traktorlar, samolyotlar uchun salniklar, qistirmalar, amortizatorlar tayyorlanadi. Qogʻoz mashinalari, musiqa asboblari ishlatiladi;

3) qurilishda issiqlik va tovush oʻtkazmaydigan material sifatida devorlar orasiga qoʻyiladi, quvurlar oʻraladi.

**Kigiz bosish** – jun tolalaridan kigiz (namat) buyumlar tayyorlash. Kigiz bosishda jun tolalarining tuzilish xususiyatlari (dagʻal-mayinligiga, fizik-mexanik xususiyatlari: plastikligi, elastikligi, choʻziluvchanligi, kirishuvchanligi va b.)ga ahamiyat beriladi. Ilgari kigiz bosish, asosan, qoʻlda bajarilgan (Kigizchilik). Sanoatda kigiz bosishda jun maxsus mashinalarda titilib, yumshatiladi, unga maxsus suyuqlik (moy) sepiladi va mashinada aralashiriladi. Aralashma tarash mashinasidan oʻtkazilib, momiq olinadi. Momiq tekis qilib toʻshaladi, zichlash mashinasida zichlanadi, unga sulfat k-ta eritmasi shimdiriladi, maxsus mashinada kerakli oʻlcham va zichlikkacha ishlanadi. Bu jarayon bir necha bosqichda bajariladi. Buyum, mas., kigiz choʻzish mashinasida choʻzib, chetlari toʻgʻrilab turiladi, soʻngra bugʻli quritkichlarda quritiladi. Oxirida pardozlash mashinasidan oʻtkazilib, ortiqcha tuklari qirqib tashlanadi, presslanadi, ohorlanadi va silliqlanadi. Kigiz bosish usulida kigiz (namat), palos, piyama, patak va b. mahsulotlar tayyorlanadi.

**Kigizchilik** – kigiz tayyorlash kasbi. Qadimdan, asosan, chorvachilik bilan shugʻullanadigan xalqlar orasida keng tarqalgan. Markaziy Osiyo va Qozogʻiston, jumladan, Oʻzbekiston hududi (Sur-

xondaryo, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Farg'ona vodiysi)da kigizning guldor, ifodali rang-barang naqshli turlari tayyorlangan. Kigizchilik b-n, asosan, ayollar shug'ullanadi. Yuvi tozalangan va savalangan jun navlari bo'yicha (yuzlik, oraliq, orqaliq) ajratiladi. Ho'llangan jun namat (yoki bo'ya) qolip ustiga tekis yoyiladi: avval guli hosil qilinadi, so'ng oraliq va navbati bilan orqaliq qismlari bir tekis yoyib chiqiladi, ustidan qaynoq suv quyiladi, so'ng namat (yoki bo'ya) dumalatib o'rab yig'iladi, arqon bilan bog'lanadi. O'ram oyoq bilan tepiladi, bilaklanadi, dumalatiladi, vaqt-vaqti bilan suv sepib ho'llab turiladi. Ma'lum vaqtdan so'ng o'ram yechiladi, suv sepiladi va yana o'raladi hamda tayyor bo'lgunga qadar bostirish davom ettiriladi. So'ng tayyor bo'lgan kigizga so'nggi pardo beriladi, ya'ni chetlari tortiladi, tekislanadi, ortiqcha tuklari qirqib tashlanadi. Kigizchilikda oq, kulrang va rangli kigiz xillari tayyorlangan.

**Kimyoviy** – kimyoga oid, kimyo hodisalari bilan bog'liq. Suvning kimyoviy tarkibi. Kimyoviy chiqindilar. Kimyoviy dorilar. Kimyoviy elementlar (unsurlar).

**Kimyoviy himoya usuli** (*O'simliklar himoyasida*) – o'simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashda kimyoviy moddalardan foydalanish. Jahon q.x. da 1945-yildan keyin bir qator samarali preparatlar yaratilishi bilan keng qo'llanila boshladi. Kimyoviy himoya usulida faqatgina xo'jalik hamda sanitariya-gigiyena jihatdan aprotatsiyadan o'tgan va Davlat komissiyasi ruxsat etgan pestitsidlar qo'llaniladi.

**Kinolog** – kinologiya mutaxassisi; itlarni parvarishlash va ularni biror faoliyatga o'rgatish bilan shug'ullanuvchi shaxs.

**Kinologiya** [*yun. kyon, kynos* – it + *logos* – tushuncha, ta'limot] – itlarning evolutsiyasi, zotlari, anatomiyasi va fiziologiyasini o'rganish, ularni urchitish, parvarishlash, o'rgatish kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi fan.

**Kirkik** – bedana ovlashda ishlatiladigan asbob. Shakli kichik yog'och qoshiqqa o'xshaydi, dastasi va qorin qismi o'yilib, dastasiga ovoz chiqaradigan tilchali naycha o'rnatiladi, qorin qismiga yupqa rezina yoki yumshoq (oshlangan) teri parda tortiladi. Naychanning qoriga tutash joyi mum bilan mahkamlanadi. Ovchi kirkikni barmoqlari b-n bir-ikki taktida uradi (kichikroq kirkikni parda tortmay lunjga solib ishlatish ham mumkin), natijada makiyon bedana sayrog'iga monand ovoz chiqadi – kirkikning nomi shundan). Makiyon ovozi nar bedanalarini jalb etadi, ular makiyonni izlab, yoyib qo'yilgan yoyma to'r ostiga yoki tuzoq qo'yilgan maydonga kirib keladi. Kirkik bilan bedana bahor va yoz oylarida ovlanadi.

**Kislota** [*r. kislota* – nordonlik, achchiqlik < *yun. oxytatos* – juda nordon] – tarkibida vodorod bo'lgan va shu vodorod o'rnini biror metall egallaganda, tuz hosil qiladigan, nordon kimyoviy birikma; suv hamda tuz hosil qiladigan murakkab moddalar.

**Kishmish** – mevasi maydaroq bo'ladigan urug'siz uzum va shu uzumning mayizi. *Bizning yorning yemishi katta Bog'ning kishmishi.* («Qo'shiqlar»). *Ishkomlarda husayni... dilikaptar, kishmish, shivirg'onilarning boshi yerga tegay deb engashgan.* (S. Abdulla, «Bir shingili tomoqni yoradi»). *Patnisdagi kishmishdan bir qism olib, uni tozalamasdanoq og'ziga soldi, keyin javobsiz qolgan gapni ulash-tirdi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

**Kishov//tushov** – otlarning oyoqlarini bog'laydigan arqon yoki kamar bog'ichlari old oyoqlarni bog'lash uchun mo'ljallangan. Kishovlar otni yaylovda saqlash va parvarishlash uchun ishlatiladi. Kishovlar tabiiy materiallardan yumshoq kigiz yostiqlari tufayli otlarning oyoqlarini shikastlanishdan himoya qiladi. Ot uchun kishovlar ikki kamar bilakuzuk ko'rinishida haqiqiy charmdan, yuqori sifatli brezentdan va kigizdan yasaladi. Kishovlar bilakuzuklar va kuchli payvandlangan halqalar bilan bog'langan.

**Kichik aholi maskani** (ruschadan «poseleniye» – istiqomatgoh, qarorgoh; «selit» – yashash uchun joy bermoq, joylashtirmoq) – aholi punktlari va manzil obyektlarining turlaridan biridir. Shahar yaqinida joylashgan kichik bir qishloq (yozgi qishloq, odatda mahalliy aholining doimiy yoki uzoq muddatli yashash joyi, sanoat korxonasi yoki qurilish obyekti yaqinidagi ishchilarning uzoq muddatli ishlashi uchun istiqomat qiladigan qishloq) yoki shahardan uzoqda (ishchilar qisqa muddatli, odatda 15 yoki 30 kun yashashi uchun smena lageri), asosiy aholi punktidan (dam olish qishlog'i – fuqarolarning yozgi ta'tillari uchun, kurort qishloqlari) ajratilgan qishloq.

**Klassifikator** – klassifikator, tasniflagich. 1. Klassifikatsiya qiluvchi, tasniflovchi, tasnif bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

2. Donador narsalarni saralovchi apparat.

**Kletchatka** (rus.) – murakkab organik modda, polisaxarid. O'simlik hujayralari po'stining asosiy tarkibiy qismi (sellyuloza).

1. Kletchatka, sellyuloza.

2 ust. *biol.* Biriktiruvchi to'qima.

**Kleykovina** – don tarkibida bo'ladigan oqsil modda.

**Kleymo, kleyma** – 1. Tamg'a, belgi; zavod tamg'asi; otlarga bosilgan tamg'a.

2. Tamg'a (asbob).

**Klimat** [*yun. klima, klimatos* – egi-lish; qiyalik] – *q. iqlim.*

**Klon** [*ingl. clone* < *yun. klon* – shox, novda; avlod, nasl] – *biol.* Bir hujayra yoki bir organizmning jinsiz ko'payish yo'li bilan vujudga kelgan hamda bir xil genlar to'plamiga ega bo'lgan barcha avlod (nasl)lari yig'indisi, majmui.

**Klon** – vegetativ ko'paytirish usulida hosil qilingan va ota-onalik xususiyatlarini o'zida to'liq mujassam qilgan yosh o'simlik. O'simliklar seleksiyasida o'simlik bachkisidan, novda qalamchasi, tugunagi, ildizpoyasi, bargi va *invitro* usulida ko'paytirilgan nasli klon deyiladi.

**Klonal mikroko'paytirish** – o'simliklarni steril sharoitlarda *invitro* usulida jinsiz ko'paytirish.

**Klonlash (tirish)** [*ingl. cloning* – jinsiz ko'payish < *yun. klon* – shox, novda; avlod, nasl] – *biol.* O'z ajdodi (ota-onalari) ning biologik (genetik) nusxasi hisoblanadigan avlod (nasl) ni jinsiy bo'lmagan, oddiy hujayradan sun'iy ravishda qayta tiklash, yaratish.

**Klon tanlash** (o'simliklarda) – yaxshi klonlarni ajratib olish; vegetatsiya yo'li bilan ko'payuvchi o'simliklar navlarini yaxshilash usuli. Klon tanlash kartoshkachilik, uzumchilik va mevachilik seleksiyasida keng qo'llaniladi. Klon tanlash (vegetativ yo'l bilan ko'payuvchi o'simliklarda yakka tanlash) orqali aksariyat navning ayrim xususiyatlari (kasalliklarga, qurg'oqchilikka chidamlilik) va b. ni yaxshilashga erishiladi.

**Klumba** – peyzaj parklaridagi ochiq maydonlarda dumaloq, yulduzli, burchak

shaklli gulzor. Uning o'lchamlari 1–300 kvadrat metr bo'lib, tarkibiga ko'ra sodda va murakkab klumbalarga ajratiladi. Klumbalar bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik gulli va manzarali o't o'simliklardan barpo etilishi mumkin.

**Kokos** [*isp. cocos; birl. – coco*] – tana-si halqa-halqa, bargi patsimon bo'ladigan, baland bo'yli doim yashil palma daraxti hamda uning juda katta yong'oqqa o'xshash mevasi. Kokos moyi. Kokos yong'og'i. *Kokos palmasining bo'yi ko'pincha 20–30 metr bo'ladi, ba'zilar esa 50 metr bo'ladi.* (H. Hasanov, «Ekvator-dan o'tganda»).

**Kola daraxti** (*Cola Schott et. Endl.*) – sterkuliyadoshlar oilasiga mansub daraxt. Afrika o'rmonlarida 50 ga yaqin turi uchraydi. Hindiston, Hindixitoy va Antil orollarida plantatsiyalarda o'stiriladi. Mevasi urug'ida kofein (0,6–2,5 %), kolatin (0,5–0,6 %), teobromin (0,01 %) kabi alkaloidlar mavjud. Urug'idan tetiklashtiruvchi, quvvat beruvchi shokolad, ichimliklar va dorilar tayyorlanadi. Manzarali daraxt hisoblanadi.

**Kolba** [*nem. Kolben*] – kimyoviy tajribalarda ishlatiladigan bo'g'zi uzun va tor, shar yoki konus shaklidagi shisha idish. *U [Aziz aka] kolbadagi eritmani sinchiklab kuzatdi-yu, nimalarnidir yozib qo'ydi.* («Saodat»).

**Kolbasa** [*r. kolbasa < m. kulbas-ni* – tovada qovurilgan, toblab pishirilgan go'sht] – ichakka yoki sun'iy qobiqqa (plyonkaga) qiyma, go'sht tiqib tayyorlangan ovqat mahsuloti. Dudlangan kolbasa. Kolbasa sexi. *Vakil uchunchi qadahni ham bo'shatib, kolbasani gazak qilgach, suhbatni davom ettirdi.* (Gazetadan).

**Kollektor** [*lot. collector* – to'plovchi] – 1. Zax qochirish (drenaj) tarmog'ining

suv yig'uvchi qismidan kelayotgan (sizot) suvni to'plab, suvi qochirilayotgan maydondan boshqa tomonga oqizib, chiqazib yuborish uchun xizmat qiladigan drenaj quvuri yoki ochiq kanal; sizot suvlarni tortadigan katta zovur. *Mavjud kollektor-zovur tarmoqlarini loydan va begona o'tlardan tozalab turish ham katta ahamiyatga ega.* («Fan va turmush»). *Mashinamiz kollektor yoqalab cho'l ichkarisiga kirib boradi.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

**2 maxs.** Kanalizatsiya tarmog'ining kanalizatsiya hovuzlaridan oqova suvlarni yig'adigan qismi (beton, temir-beton yoki keramik bloklardan qilinadigan quvur, hovuz kabilar).

**3 maxs.** Aloqa kabellari hamda suv, gaz o'tkazuvchi va b. quvurlar yotqiziladigan yer osti yo'laklari.

**4 tex.** Ayrim texnik qurilmalarning nomi, mas., ichki yonuv dvigatelining chiqarish va kirgizish kollektori.

**5 tex. fiz.** Elektr toki chastotasini mexanik tarzda o'zgartiruvchi moslama; konstruktiv jihatdan elektr mashina rotor (yakori) bilan birlashtirilgan bo'ladi.

**6.** Biror narsa namunalarini to'plash, ro'yxatga kiritish, saqlash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi muassasa yoki shaxs. *Kutubxona kollektori.*

**Kollektor-drenaj tarmog'i** – yerlarni botqoqlanishdan va sho'r bosishdan saqlash hamda optimal suv-tuz rejimini ta'minlash maqsadida ortiqcha tuproq va grunt suvlarini yig'ib, melioratsiya qilindigan maydondan chiqarib yuborish maqsadlarida quriladigan inshootlar majmui.

**Kolomikta aktinidiyasi** (*A. colomikta*) – Rossiyaning Amur viloyatida, Saxalin va Kuril orollarida, Koreya, Yaponiya va Xitoyda tabiiy o'sadi. Ushbu o'simlik ham mevali-vitaminli o'simlik sifatida

o'stiriladi. Mevasi silindr shaklidagi reza-  
vor meva sariq rangda, S vitaminiga boy  
bo'lib, meva sharbati ananas ta'miga ega.  
Vertikal ko'kalamzorlashtirishda foydala-  
niladi.

**Kolorado** [AQSH dagi daryo va shtat  
nomi (*Colorado*)dan]: *kolorado* qo'ng'i-  
zi – barg, o'simlik yeyuvchi, qo'ng'izlar  
oilasiga mansub, kartoshka va b. madaniy  
o'simlik (ekin)lar uchun o'ta xavfli zarar-  
kunanda hasharot.

**Kolorit** (*color* – rang, bo'yoq) – gul-  
zorlar barpo etishda ranglarning o'zaro  
mutanosibliigi. Kolorit ranglar uyg'un-  
ligiga ko'ra iliq (qizil, sariq, zarg'aldoq)  
yoki sovuq (ko'k, yashil, binafsha), sokin  
va jiddiy, yorug' yoki to'q, rangdorligiga  
ko'ra yorqin, xira va boshqa bo'lishi mum-  
kin. Ranglar uyg'unligi, uning to'ldirilishi  
va keskinligiga amal qilib, betakror va  
murakkab kolorit yaratiladi.

**Kolxoz** [*r. «kollektivnoye xozyays-  
tvo»* birikmasining qisqartmasi.] – *esk.  
tar.* Sho'ro davrida: dehqonlarning asosiy  
ishlab chiqarish qurollarini umumlashti-  
rishga va qishloq xo'jalik ishlab chiqari-  
shini birgalashib (jamoaviy) boshqarishga  
asoslangan ixtiyoriy uyushmasi; *kollektiv  
xo'jalik, jamoa xo'jaligi. Kolxoz yerlari.  
Kolxoz fermasi.*

**Kom** – daraxtlarning ildiz tizimi at-  
rofidagi tuproq qismi. Doim yashil daraxt  
va butalar ildiz komini buzmasdan kovlab  
olinadi.

**Kombayn** [*ingl. combine* – birlashtir-  
moq; birga qo'shish] – bir necha mashi-  
naning ishini bir yo'la, birdaniga bajaradi-  
gan murakkab mashina. G'alla kombayni.  
Ko'mir kombayni. *Dehqonlar g'allani  
o'roq bilan emas, kombayn bilan o'rib  
oladigan bo'ldilar.* (N. Safarov, «Olovli  
izlar»).

**Kombijir** – kombijir, omuxta yog'.

**Kombikorm** [*r. «kombinirovanniy  
korm»* (aralash ozuqa) birikmasining qis-  
qargan shakli] – mol va parrandalarga  
berish uchun maxsus tayyorlanadigan ara-  
lashma ozuqa; aralashma yem. *Jizzaxda  
mahalliy qishloq xo'jalik xomashyosini  
ishlaydigan ikkita paxta zavodi, yog' za-  
vodi va kombikorm zavodi bor.* (Gazeta-  
dan).

**Kombinatsiya** [*lot. combinatio* –  
qo'shish, birlashtirish] – **1.** Bir turdagi  
narsalarning yoki biror narsa turlarining  
ma'lum tartibda uyg'unlashgan yoki  
o'zaro izchil joylashgan, qo'shilgan birik-  
masi, majmui. Raqamlar kombinatsiyasi.  
Bo'yoqlar kombinatsiyasi. *Tabiatdagi  
bizga ma'lum bo'lgan barcha jismlar shu  
92 ta ko'rinishdagi atomlar kombinatsi-  
yasidan iborat.* (A.E. Fersman, «Qiziqarli  
geoximiya»).

**Kombisilos** – kombisilos (kombi-  
natsiyalangan silos).

**Komfort** – qulaylik, qulayliklar (ma-  
ishiy sharoitlar to'plami).

**Kompensatsiya** [*lot. compensation* –  
tenglashtirish; o'rmini to'ldirish] – **1.** Bi-  
ron narsa badaliga haq to'lash, mukofot  
berish.

**2 huq.** Mehnat qonunchiligida: qo-  
nunda belgilangan hollarda mehnat maj-  
buriyatlarini bajarishdagi qo'shimcha  
xarajatlar uchun ishchi va xizmatchilarga  
beriladigan to'lov; tovon puli.

**Kompleks** [*lot. complexus* – aloqa,  
bog'lanish; qo'shib, qamrab olish] – bir  
butunni tashkil qiluvchi narsalar, hodisa-  
lar, belgi-xususiyatlar majmui, yig'indisi.  
*Arxitektura kompleksi. Gimnastika  
mashqlari kompleksi. Agrotexnik ishlar  
kompleksi. Paxtachilikni kompleks mexa-  
nizatsiyalashtirish. Xo'jalikning kompleks  
ravishda rivojlanishi.*

**Komplekt** [lot. *completus* – to‘liq] – biror narsaning bir butunlikni tashkil etuvchi to‘la majmui. *Darsliklar komplekti. Mashina zapas qismlari komplekti.*

**Kompost** [ingl. *compost* < lot. *compositus* – yaxshi ko‘rinishli; tarkibli] – q.x. O‘t, po‘choq, axlat kabi chiqindilar bilan tuproq yoki torf aralashmasini chiritib tayyorlangan, har xil organik moddalarning mikroorganizmlar ta‘sirida chirishi natijasida hosil bo‘ladigan mahalliy o‘g‘it. Kompostlashda o‘simlik o‘zlashtira oladigan oziq elementlar (azot, fosfor, kaliy va boshqa) miqdori ortadi, patogen mikroflora va gelmintlar tuxumi o‘ladi, sellyuloza va pektin moddalar miqdori kamayadi, organik massa tuproqqa solish uchun qulay fizik xossaga ega bo‘ladi. Go‘ng (torf, paranda axlati, xazon), nishxo‘rd, ro‘zg‘or chiqindilari, najas, qipiq, oqar suv loyqalari kompostlashning asosiy materialidir. Kompost bilan o‘g‘itlash. Kompost o‘rasi. *Bir tonna kompost rosa yetilsa, o‘n tonna go‘ngning kuchini beradi.* (Gazetadan).

**Kompostlamoq** – kompost tayyorlamoq. *Kompostlashda mol shipshiri – suvuq go‘ngdan qo‘shib foydalanish yaxshi samaralar beradi.* (Gazetadan).

**Kompozitsiya** – bir necha qismlardan tashkil topgan tuzilma. Gullarning bir necha turlari va ranglaridan foydalanib, gullar kompozitsiyasi (klumba, rabatka, alpinariya) barpo etiladi.

**Konditsiya** [lot. *conditio* – shartsharoit, holat] – 1. U yoki bu narsa (tovar) mos kelishi lozim bo‘lgan me‘yor, standart, sifat. *Urug‘larni tozalash, konditsiyaga keltirish va urug‘lik uchastkalariga doim e‘tibor berish kerak.* (Gazetadan).

2. Hayvonlar organizmining umumiy fiziologik holati tushuniladi. Bunga ularning semizligi, pishiqligi va harakatchanligi kiradi.

**Konkur** (ot sporti) – bu otlarni ma‘lum kenglikda qurilgan har xil kattalikdagi va turli shakldagi to‘siqlardan sakratib o‘tish musobaqasidir. Musobaqaning bu turi yozda ochiq maydonlarda, qishda esa maxsus manejlarda o‘tkaziladi.

**Konsentratsiya** – yig‘ilish, to‘planish, to‘yinganlik.

**Konsentrat oзуqalar** (*konsentratlar*) – tarkibida oзуqa moddalar miqdori yuqori bo‘lgan *yemlar*. Oзуqa moddalari tarkibiga ko‘ra konsentrat oзуqalar *uglevodli* (kraxmal va qandga boy bo‘lgan suli, arpa, makkajo‘xori doni, tegirmon konsentratlari chiqindilari, uzum, qand lavlagi turpi, barda va b.) va *proteinli* (dukkakli don ekinlari doni, qon va baliq unlari va b.) guruhlarga bo‘linadi. 1 kg uglevodli konsentrat oзуqalarda 0,7–1,3 oзуqa birligi va 70–80 g hazm qiluvchi protein, proteinli konsentrat oзуqalarda 0,7–1,2 oзуqa birligi va 180–135 g hazm bo‘luvchi protein bor.

**Konsentrlangan o‘g‘itlar** – tarkibida 45–64% gacha oziq moddalari bo‘lgan oddiy yoki ko‘p komponentli o‘g‘itlar. Donador o‘g‘it asosida ishlab chiqariladi. Oddiy konsentrlangan o‘g‘itlarga quyidagilar kiradi: *ammoniy nitrat, karbamid, suvsiz ammiak, ikkilamchi superfosfat, presipitat, kaliy xlorid, kaliy sulfat*: ko‘p komponentlarga *ammoniy fosfatlar (ammofos, diammofofos), nitrofos, kaliy va ammoniy metafosfat (metafosfatlar), ammoniy polifosfat (polifosfatlar), kaliyli selitra* va b. kiradi. Konsentrlangan o‘g‘itlar dehqonchilikda har xil tuproqlar va hamma turdagi ekinlar uchun *asosiy o‘g‘itlar* sifatida va ekinni oziqlantirishda qo‘llaniladi.

**Konserva** [fr. *conserves* < lot. *conservare* – saqlamoq] – maxsus usulda buzilmaydigan qilib ishlab, uzoq vaqt

saqlash uchun germetik yopiladigan (havo o'tkazmaydigan) bankalarga solib qo'yilgan oziq-ovqat mahsuloti. Baliq konservasi. Go'sht konservasi. Konserva bankasi. Konserva zavodi. *Jangchilarga gattiq non va konserva ulashdilar.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). *Pichoqchani uchini konserva bankasiga qadab, bezakdor sopi ustidan kafti bilan ura boshladi.* (N. Aminov, «Suvarak»).

**Konservalamoq** – oziq-ovqat mahsulotlarini buzilishdan asrash va uzoq muddat saqlash maqsadida maxsus ishlov berish bilan havo o'tkazmaydigan idishlarga solmoq. Go'shtni konservalamoq. Baliqni konservalamoq. Baqlajonni konservalamoq. *Oshko'klar va ularning ildizlari... salatlarida, bundan tashqari, sabzavotlarni tuzlash, marinovka qilish va konservalashda juda ham bebahodir.* (Gazetadan).

**Konservalash** – oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat saqlash usuli; konserva tayyorlash, konservalashning mohiyati: mahsulotlarni tez buzadigan mikroorganizmlar faoliyatini butunlay yoki vaqtincha to'xtatish, fermentlar faoliyatini so'ndirishdan iborat. Ko'p qo'llaniladigan usullari: *pasterizatsiya, sterilizatsiya, quritish* (qoqi qilish), *muzlatish, achitish, tuzlash va dudlash.*

**Konservatsiya** [lot. *conservatio* – saqlash, saqlanish] – konservatsiya qilmoq. Buzilmaydigan, aynimaydigan qilmoq. *Klinikalarda ionitlar yordamida konservatsiya qilingan qon saqlanadi.* (D. Muqimova, «Sehrli donachalar»).

**Konteyner** [ingl. *container* < *contain* – birga qo'shmoq; joylashtirmoq] – ichiga yuk joylanadigan maxsus yog'och yoki temir yashik. *Temir yo'l konteyneri.* *Konteynerda yuk jo'natmoq.* *Konteynerga yuk joylamoq.* *Yuklarni tashish uchun*

*mo'ljallangan qurilma.* *Manzarali daraxt va buta ko'chatlarini yetishtirishda foydalaniladigan idishlar ham konteynerlar deyiladi.*

**Kontrakt** [lot. *contractus* – bay, bitim, kelishuv] – tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan holda tuzilgan ikki yoki ko'p tomonlama shartnoma, bitim.

**Kontraktatsiya** – mahsulot ishlab chiqaruvchi va uni qayta ishlash, sotish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasida kontraktlar, shartnomalar tuzish.

**Kontraktatsiya shartnomasi** – qishloq xo'jalik sohasidagi oldi-sotdi shartnomasi turlaridan biri. Unga ko'ra, qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtiruvchi shaxs o'z mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun xarid qiladigan tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish, tayyorlovchi esa mahsulotni qabul qilish, haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to'liq majburiyatini oladi.

**Kontrast** – ko'kalamzorlashtirish kompozitsiyalarida ranglarni joylashtirish usuli bo'lib, halqa shaklida terilgan ranglar ketma-ketligini qarama-qarshisi bilan birga joylashtirishni anglatadi.

**Kontrol so'yim** – mollarning semizligini aniqlash maqsadida go'sht kombinatlarida mollarni so'yib ko'rish.

**Kontrol o'stirish** – nasldor mol bolasini uning tez yetilish ko'rsatkichlarini hisobga olish va go'sht-yog' sifatiga baho berish uchun boqish.

**Kooperatsiya** [lot. *cooperatio* – she-riklik; hamkorlik] – 1. O'zaro bog'langan ishlab chiqarish jarayonida yoki sanoat tarmoqlarida kishilarning yoki tashkilotlarning hamkorlik asosida ishlashini tashkil etish shakli.

2. Paychilardan tushgan mablag' asosida tuzilgan savdo-sotiq yoki ishlab

saqlash uchun germetik yopiladigan (havo o'tkazmaydigan) bankalarga solib qo'yilgan oziq-ovqat mahsuloti. Baliq konservasi. Go'sht konservasi. Konserva bankasi. Konserva zavodi. *Jangchilarga qattiq non va konserva ulashdilar.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). *Pichoqchani uchini konserva bankasiga qadab, bezakdor sopi ustidan kafti bilan ura boshladi.* (N. Aminov, «Suvarak»).

**Konservalamoq** – oziq-ovqat mahsulotlarini buzilishdan asrash va uzoq muddat saqlash maqsadida maxsus ishlov berish bilan havo o'tkazmaydigan idishlarga solmoq. Go'shtni konservalamoq. Baliqni konservalamoq. Baqlajonni konservalamoq. *Oshko'klar va ularning ildizlari... salatlarida, bundan tashqari, sabzavotlarni tuzlash, marinovka qilish va konservalashda juda ham bebahodir.* (Gazetadan).

**Konservalash** – oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat saqlash usuli; konserva tayyorlash, konservalashning mohiyati: mahsulotlarni tez buzadigan mikroorganizmlar faoliyatini butunlay yoki vaqtincha to'xtatish, fermentlar faoliyatini so'ndirishdan iborat. Ko'p qo'llaniladigan usullari: *pasterizatsiya, sterilizatsiya, quritish* (qoqi qilish), *muzlatish, achitish, tuzlash va dudlash.*

**Konservatsiya** [lot. *conservatio* – saqlash, saqlanish] – konservatsiya qilmoq. Buzilmaydigan, aynimaydigan qilmoq. *Klinikalarda ionitlar yordamida konservatsiya qilingan qon saqlanadi.* (D. Muqimova, «Sehrli donachalar»).

**Konteyner** [ingl. *container* < *contain* – birga qo'shmoq; joylashtirmoq] – ichiga yuk joylanadigan maxsus yog'och yoki temir yashik. *Temir yo'l konteyneri.* *Konteynerda yuk jo'natmoq.* *Konteynerga yuk joylamoq.* *Yuklarni tashish uchun*

*mo'ljallangan qurilma.* *Manzarali daraxt va buta ko'chatlarini yetishtirishda foydalaniladigan idishlar ham konteynerlar deyiladi.*

**Kontrakt** [lot. *contractus* – bay, bitim, kelishuv] – tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan holda tuzilgan ikki yoki ko'p tomonlama shartnoma, bitim.

**Kontraktatsiya** – mahsulot ishlab chiqaruvchi va uni qayta ishlash, sotish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasida kontraktlar, shartnomalar tuzish.

**Kontraktatsiya shartnomasi** – qishloq xo'jalik sohasidagi oldi-sotdi shartnomasi turlaridan biri. Unga ko'ra, qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtiruvchi shaxs o'z mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun xarid qiladigan tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish, tayyorlovchi esa mahsulotni qabul qilish, haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to'liq majburiyatini oladi.

**Kontrast** – ko'kalamzorlashtirish kompozitsiyalarida ranglarni joylashtirish usuli bo'lib, halqa shaklida terilgan ranglar ketma-ketligini qarama-qarshisi bilan birga joylashtirishni anglatadi.

**Kontrol so'yim** – mollarning semizligini aniqlash maqsadida go'sht kombinatlarida mollarni so'yib ko'rish.

**Kontrol o'stirish** – nasldor mol bolasini uning tez yetilish ko'rsatkichlarini hisobga olish va go'sht-yog' sifatiga baho berish uchun boqish.

**Kooperatsiya** [lot. *cooperatio* – she-riklik; hamkorlik] – 1. O'zaro bog'langan ishlab chiqarish jarayonida yoki sanoat tarmoqlarida kishilarning yoki tashkilotlarning hamkorlik asosida ishlashini tashkil etish shakli.

2. Paychilardan tushgan mablag' asosida tuzilgan savdo-sotiq yoki ishlab



chiqarish korxonasi, jamiyati. Hunarmandchilik kooperatsiyasi. Uy-joy kooperatsiyasi. *Qishloq aholisining talab va ehtiyojlarini sezgirlik bilan hisobga olib bormayotgan matbuot kooperatsiyalari ham bor.* (Gazetadan).

**Kooperativ mulk** – jamoa mulkining bir shakli, ixtiyoriy ravishda kooperativ korxonaga birlashgan kishilarning umumiy mulki. Kooperativ mulk kooperativ aʼzolarining badallari, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, uni sotishdan tushgan daromad va korxonada nizomida belgilangan boshqa faoliyatlar hisobiga shakllanadi. Kooperativ mulk egalari korxonada faoliyatida oʻz mehnati bilan ishtirok etadilar. Kooperativ mulkning yana bir muhim xususiyati – jamoa aʼzolari ixtiyoriy tartibda oʻz mulk ulushi bilan korxonadan chiqishi, yaʼni bu mulk taqsimlanishi mumkin. Kooperativ mulkning asosiy xususiyati ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalariga egalik qilishning jamoa, guruhiy shaklidir.

**Koordinatsiya** [*lot. coordinatio* – oʻzaro kelishuv < *co* – bilan, birga + *ordinatio* – tartibga solish; joylashtirish] – ish, faoliyat va sh.k.ni bir-biriga muvofiqlashtirish, uygʻunlashtirish. *Koordinatsiya masalasi yigʻilishda atroflicha muhokama qilindi.* (Gazetadan).

**Korda** – yoʻrtoqi va salt miniladigan otlarni oʻrgatish va oʻynatishda foydalaniладigan uzun tizgin.

**Koriz** [*f.* – yer ostidan oʻtkazilgan suv yoʻli; ariq] – *q.x.* Bir necha quduqlarni birlashtiruvchi yer osti kanali, bir-biri bilan birlashtirilgan quduqlar tizimi. – *Gʻoʻza qurib qolyapti. Suv kerak, suv! Korizlar boʻlsa koʻmilib ketyapti! – dedi rais.* (S. Anorboyev, «Mehr»). *X–XI asrlarda dehqonlar Yoyilma va Sarikoʻl soy-*

*larining boʻylarida koriz usulida yer osti suvini ham ishga solganlar.* (S. Anorboyev, «Qatrad quyosh aksi»).

**Korobka** [*r. korobka* – lipa poʻstlogʻidan toʻqilgan savat < *pol. krobka* < *lot. corbis* – savat, korzina] – karton, taxta yoki metallardan yasalgan qopqoqli kichkina idish; quticha. *U loʻmbillab dahlizga chiqdi, suv olib kirib, choy qoʻydi, shkafdan bir korobka konfet oldi.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol»).

**Koronariya** (*coronaria flosculi* (L.) – Chinniguldoshlar (*Caryophyllaceae*) oilasiga mansub, boʻyi 30–80 sm ga yetadigan koʻp yillik oʻt oʻsimlik. Gʻarbiy Yevropa, Yevropa qismi va Sibirning baʼzi nohiyalaridagi oʻtloqlarda, botqoqlar chetida, oʻrmonlar orasidagi ochiq yerlarda, baʼzan begona oʻt sifatida ekinzorlar orasida oʻsadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida saponinlar, oz miqdorda alkaloidlar, vitamin S va boshqa moddalar bor. Dori preparati floskulen (saponinlardan tozalangan spirtli ekstrakti) tuqqandan soʻnggi qon ketishini toʻxtatish uchun qoʻllaniladi. Xalq tabobatida sargʻayma, buyrak sanchigʻi, bronxit hamda yaralarni davolashda ishlatiladi.

**Korporatsiya** [*lot. corporatio* – birlashma, hamjamiyat] – 1. Kasb yoki tabaqa manfaatlari umumiyligi asosida birlashgan kishilar guruhi, jamiyati, ittifoqi.

2. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda (mas., AQSH, Kanada kabi) aksiyadorlik jamiyati shakli.

**Korrelyatsiya** [*lot. correlatio* – oʻzaro nisbat, munosabat] – 1. Narsalar va tushunchalar oʻrtasidagi munosabat, ularning oʻzaro muvofiqligi, bir-biriga bogʻliqligi. 2 *biol.* Odam, hayvon, oʻsimliklar organizmidagi tarkibiy qismlarining tuzilishi va vazifalari oʻrtasidagi

o'zaro moslashuvchanlik, uyg'unlik; bog'lanish.

**Korzinka** [r. *korzin (k)a* – savat, ka-  
java] – dastali savat. Bir korzinka olma.  
*U qoziqdagi paxtaligini kiyib, qo'lida kor-  
zinka, gastronomga ketadi.* (Mirmuhsin,  
«Topilgan husn»).

**Kosilka** [r. *kosilka < kosit* – o'rmoq  
(o't-o'lanlarni)] – o't, beda va sh.k. ekin-  
larni o'radigan mashina; O'roq mashina.  
*Pichan o'rishga kimlar borishi, qancha ot  
kosilka, qancha traktor kosilka ajratish-  
ni belgilashib, qaror qabul qilishguncha,  
o'yingaroq bolalar ikki uyquni olishgan  
edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Kosmeya (Cosmos Cav.)** – murak-  
kabguldoshlar oilasiga mansub bir va  
ikki yillik sershox xushmanzara o'sim-  
liklar turkumi. Gullari oq, pushti, qizil,  
arg'uvon, tillasimon rangli. Vatani Meks-  
ika hisoblanadi. O'zbekistonda qo'sh-  
patli kosmeya va oltingugurtsimon kos-  
meya turlari ko'kalamzorlashtirishda  
qo'llaniladi. Gulzorlarni bezash va gul-  
dasta yasashda foydalaniladi.

**Kospak** – qozoqcha ikki o'rkachli  
baktrian tuyalar bilan bir o'rkachli drome-  
dar tuyalarini siqib chiqaruvchi, chatish-  
tirishdan olingan ikkinchi va undan keyin-  
gi avlodlar.

**Kostroma qoramol zoti** – sut-go'sht  
yoki go'sht-sut yo'nalishidagi qoramol  
zotidir. Rossiyaning Kostroma viloyati-  
da «Karavayevo» xo'jaligida mahalliy  
zotlarni shvits zoti bilan chatishtirish,  
sermahsul duragay mollarni tanlash va sa-  
ralash asosida yaratilgan hamda 1945-yil-  
da zot deb tasdiqlangan. Mollar, asosan,  
kulrang-och qo'ng'ir tusda, gavdasi yirik.  
Buqalari vazni 1000–1100 kg, sigirlari  
550–600 kg. Sut sog'imi 4000–5000 l,  
yog'liligi 3,7–3,9% va oqsili 3,3–3,6%.

Zotning rekord qo'ygan sigirlari bir yil-  
da 14–15 ming l sut bergan. Sigirlarning  
hayotchanligi (20–22 yoshga qadar),  
go'shtdorlik sifati (18 oyligida novvos-  
lar 450–500 kg vaznga yetadi) yuqori.  
Bo'rdoqi mollarning go'shti chiqishi 58–  
60%. O'zbekistonning qo'ng'ir tusli mah-  
suldor qoramol podalarini («G'allaorol»,  
«Zarbdor», «Boyovut» va b.) yaratishda  
1950–1970-yillari Kostroma qoramol zoti  
buqalaridan foydalanilgan hamda bu zot-  
dan foydalanib, olatov qoramol zoti yara-  
tilgan.

**Kovrak (Ferula)** – ziradoshlar (soya-  
bonguldoshlar) oilasiga mansub ko'p yil-  
lik o'tlar turkumi. O'zbekistonda 45 turi  
o'sadi. Erta bahorda gullaydi. Mevasi –  
ikki bo'lakli. Cho'llarda o'sadi. Ildizidan  
olinadigan yelim (smola)dan astma va  
ba'zi nerv kasalliklarida ishlatiladigan  
dori tayyorlanadi.

**Kovul, kovar (Capparis spinose L.)**  
– kovuldoshlar oilasiga mansub yarim  
buta. Poya va shoxchalari yotiq, bargi tu-  
xumsimon, guli yirik, oq yoki och pushti.  
Mevasi qizil etli, ko'purug'li. Kovulning  
g'unchasi, mevasi sirkalab yoki tuzlab ov-  
qatga solinadi. Mevasida 18% oqsil mod-  
dalar, 36% gacha moy bor.

**Kraxmal (amilium)** – polisaxarid bo'-  
lib, u hidsiz, mazasiz, mayin oq kukun, bar-  
moq orasiga olib ishqalansa g'ichirlaydi.  
Sovuq suv, spirt organik erituvchilarda  
erimaydi, issiq suvda donachalari shishib  
yoriladi va quyuuq, yopishqoq suyuqlik –  
kleyster (kraxmal yelimi) hosil bo'ladi.  
Tibbiyotda kartoshka, bug'doy, makka-  
jo'xori, guruch kraxmali qaynatma hoida  
me'da va ichak kasalliklarida, kleysteri  
shimdirilgan bint jarrohlikda suyakning  
singan yerini yoki chiqqan bo'g'inlarni  
qimirlamaydigan qilib bog'lash uchun,

kukun hoida chaqaloqlarga sepish uchun, kukun dori va teriga surtiladigan surtmalar hamda ba'zi dori shakllarini tayyorlash uchun ishlatiladi.

**Kraxmal ekvivalent** – yem-xashaklarning to'yimligini ifodalovchi qiyosiy baho birligi; 100 kg oziq foydali ta'siriga ko'ra qancha kilogramm kraxmalga teng kelishini ko'rsatadi. Terminni fanga XX asrlarda nemis olimi O.Kelener kiritgan.

**Krestgullilar** – urug'i ikki pallali, gulbarglari krest shaklida joylashgan o'simliklar (mas. karam, turp, xantal).

**Krot** [*r., ukr. krot*] – yer qazib, yer ostida yashovchi, hasharotxo'r sutemizuvchi hayvon. *Krotlar yaxshi ko'rmaydi, ba'zi birlarining ko'zi teri bilan qoplangan.* («O'zME»).

**Krupa** [*ukr. krupa* – uvoq, burda; do'l] – po'sti tozalangan, oqlangan don; yorma. *So'k (tariq) krupasi. Manniy krupa. Arpa krupasi.*

**Kserofitlar** – namlik yetishmaydigan quruq joylarda o'sishga moslashgan o'simlik turlari. Ular asosan cho'l va saharlarda o'sadi.

**Kulankir** [*f. – turna*] – tovuq-xo'rozning yirik va zotli bir turi. *Hovlidagi katta jiyda shoxida yotgan kulankir xo'roz uchinchi bor qichqirayotganda, Qutoyoq birdan vovullab, eshikka tashlandi.* (A. Muhiddin, H. Tojiboyev, «Otash qalbli qiz»).

**Kultivator** [*fr. cultivateur* – yerga ishlov beruvchi] – haydalgan yerni yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish va ekin qator oralarini ishlash uchun xizmat qiladigan qishloq xo'jalik mashinasi. O'sma kultivator. Tirkama kultivator. Traktor kultivatori. G'o'za qator oralariga kultivator bilan ishlov bermiq ... *mexanizatorlardan biri traktor kultivatoriga qator oralarini keng yumshatib ketadigan mos-*

*lama o'rnatganida, rais bir qalamkashning qo'li bilan jurnalga maqola qilib yozgan edi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Kultivatsiya** [*lot. cultus* – (yerga) ishlov berish; o'simliklarni parvarishlash] – yerni, ekin qator oralarini kultivator bilan ishlash. Kultivatsiya qilmoq. G'o'zalarga kultivatsiya bilan bir vaqtda o'g'it solinadi. *Yozgi parvarish davrida chopiq, kultivatsiya oldidan solinadigan o'g'it solinmadi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Kumarinlar** – bepzo- $\alpha$ -piron hosilalari (kumarin, furokumarinlar) bo'lib, o'simliklarning ildizi, ildizpoyasi, po'stlog'i va mevalarida ko'proq topiladi. Ular soyabonguldoshlar, ruta-doshlar, dukkadoshlar, labguldoshlar, astradoshlar (murakkabguldoshlar), chiniguldoshlar, ituzumdoshlar, sutlamadoshlarning vakillarida ko'p uchraydi. Ular rangsiz kristall moddalar bo'lib, suvda yomon eriydi yoki erimaydi, spirtida osonroq, boshqa organik erituvchilarda (efir, xloroform) yaxshi eriydi. Ishqorlar bilan hosil qilgan tuzlari – kumarinatlar suvda yaxshi eriydi. Tibbiyotda kumarinlar va furokumarinlarning dori preparatlari tromboz, turli xil spazm, rak, pes kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

**Kunda** [*f. – daraxtning ost qismi; to'nka; taxta kishan*] – 1. Kesilgan yoki singan daraxtning ildiz tomonida qolgan ostki qismi; to'nka. *Kunda kovlamq. Ismat hoji qora movut chakmonining bir barini qayirib, yaqindagina kesilgan bir terak kundasiga kelib o'tirdi.* (Oy-din, «Yamoqchi ko'chdi»). *U avval katta kundalarning tevaragini ketmon bilan chopishga boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Ustida biror narsani chopish, qir-qish va sh.k. uchun qilingan maxsus g'o'la. *Kudungchining kundasi. Kundaga*

qo'yib chopmoq. Bolta tushguncha, kunda dam oladi. (Maqol).

**3 maxs.** Moyjuvuzning o'g'irsimon tayanch yog'ochi, ichi o'yilgan yo'g'on g'o'la. Tangadek soya tushmaydigan daraxtsiz tashqari hovli... o'rtasida juvoz kundaga o'xshash qoziq. (Sh. Rizo, «Qor yog'di, izlar bosildi»).

**4.** Tokning tupi, zangi. Chorvoqcha katta bo'lmasa ham, ikki tup olcha... ikki kunda uzumi, bir-ikki tup qizil gul bor ekan. (A. Qahhor, «O'tmishdan ertaklar»).

**5 tar.** Bandilarning oyog'iga uriladigan (solinadigan) maxsus yog'och asbob, taxta kishan. Xatirchilik bandining «bizni ozod qiladilar» degan so'ziga haligacha ishonmay turgan bandilar ham kishan va kundalarining ochila boshlaganini ko'rib quvonmoqda edilar. (S. Ayniy, «Qullar»). Borsa, enasi oyog'ida kunda, bo'ynida g'ul, o'lib yetibdi. («Murodxon»).

**Kundak** – daraxtning ostki qismidan – to'nkadan o'sib chiqqan qismi. Kundak tut. Kundak qayrag'och. Hovuzning ... labida bir-ikki kundak tol ham bor edi. (G'. G'ulom, «Shum bola»).

**Kungaboqar** – poyasi uchida tarelkasimon sariq to'pguli bor, urug'idan moy olish uchun ekiladigan yirik bargli bir yillik o'simlik ... ustida kungaboqarga o'xshagan, mahalla qozoniday keladigan guli bor. (Gazetadan).

**Kungay** – quyoshga qaragan, quyosh tik tushadigan. Ko'chalarning kungay tomonida loy qurib, havasga yuradigan, yumshoq qayroqday yiltiroq, so'qmoq yo'l tushdi. (A. Muxtor, «Opa-singillar»). – Har qanaqa tog'ning kungay yeri terskay yog'idan shunaqa past bo'ladi, – dedi Alimbuva. (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

**Kunjara** – moyli ekinlar (g'o'za, kungaboqar, makkajo'xori, soya, zig'ir,

kunjut va b.) urug'laridan moy ajratilganidan keyin olinadigan qo'shimcha mahsulot; yog' va proteinga boy konsentrlangan ozuqa. 100 kg chigit K. sida o'rtacha 110 ozuqa birligi va 31,9 kg hazm bo'ladigan protein bor (kungaboqar K. sida tegishli-cha 108,8 va 37,2). Kunjara tarkibida 4–7% yog' bo'ladi. Aminokislotalar tarkibiga va biokimyoviy qimmatiga ko'ra kunjara oqsillari don ekinlari oqsillaridan ustunlik qiladi, ularda, shuningdek, kaliy, kaltsiy va fosfor ko'proq. Barcha q. x. hayvonlariga quruq yoki namlangan holda boshqa yemlarga aralastirib va aralash yem tarkibida berish mumkin. Ayrim kunjara turlari tarkibida zaharli yoki mahsulot sifatini yomonlashtiradigan moddalar bo'ladi. Paxta chigitida va kunjarasi tarkibidagi gossipol mollarni zaharlashi mumkin.

**Kunjut** [f. – urug'idan yog' olinadigan o'simlik] – Janubda o'sadigan, urug'idan yog' olinadigan bir va ko'p yillik o'simlik va shu o'simlikning urug'i. Rais... plan berilmagan bo'lsa-da, ozroq zig'ir, kunjut ektirayotganini... aytdi. (S. Nurov, «Narvon»).

**Kurk** – tovuqning tuxum qilishdan to'xtab, jo'ja ochishga tayyor holati (bunda tovuq hurpayib, «kurk-kurk» degan tovush chiqarib yuradi). Tovuuq kurk bo'libdi. Tovuuqlarning serpushtligini oshirish uchun ularning kurk bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. («Parrandachilik»).

**Kurka** – tovuqsimonlar oilasiga mansub yirik uy parrandasi. Kurka go'shti. Kurka tuxumi. Kurka go'shtining lazizligi ham, foydaliligi ham tovuq go'shtidan qolishmaydi. (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Kurmak** – odatda, sholipoyada ko'p o'sadigan yovvoyi o't va uning qoramtir, tariqqa o'xshash doni. Sholining orqasi-

dan kurmak ham suv ichadi. (Maqol). *Bahona bilan, sholi orqasidan kurmak suv ichib, yangi uylik ham bo'lib qoldim.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»). *Bas, tishingiz g'irchillab, tosh-posh chaynamasin deb, Guruchlarni tozalab, kurmagin terganlarim.* (S. Akbariy).

**Kurra II** [f. – xo'tik] – shv. Xo'tik, eshak bolasi. *Eshaklar orasida chiroyli kurralar ham bor edi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Kurtak** – 1) yuksak o'simliklarning novda kurtagi. Kurtak uchki qismida o'sish konusi bo'lgan boshlang'ich poya va o'zaro zich joylashgan har xil yoshdagi bargchalardan (vegetativ kurtak) yoki ular bilan birga o'rnanishgan boshlang'ich gul va to'pgullar (generativ kurtak)dan iborat.

**Kurtaklar** (*gemmae*) – o'simlikning tana, barg, gul va boshqa qismlarini hosil qiluvchi a'zo. Erta bahorda, barglari chiqmasdan barg kurtaklari qirqib olinadi va ochiq havoda yoki sun'iy sharoitda issiq xonalarda quritiladi. Dorishunoslikda ulardan dori shakllari tayyorlashda foydalaniladi.

**Kurtak payvand** – bir o'simlikka ikkinchi o'simlikning kurtagini ulash, payvandlash usullaridan biri. Kurtak payvandda payvandtagga bitta kurtak ulanadi. Kurtak payvand iyul oxiridan sentabr o'rtasigacha o'tqaziladi. Kurtak payvand qilishdan 4–5 kun oldin ko'chatzor sug'oriladi, payvandtag ildiz bo'g'zidan 15–20 sm gacha barcha yon shoxlari olib tashlanib, ho'l latta bilan tozalanadi. Kurtaklar hosilga kirgan, nav xususiyati yaxshi, sog'lom daraxtlarning qalamchalari-dan olinadi.

**Kuva I** – bo'g'zi siqiqroq uzun sopol idish (suv, sut va sh.k. suyuqliklar solish

uchun ishlatiladi). *Uzum keldi chelak-chelak, Savatlarda issiq non. Kuvalarda ayron to'la, Ko'zalarda yaxna choy.* (T. To'la). *Hozir Dadash bedavo kuvasidan achigan ayronini to'kmay turolmasligini bilsa-da, baribir uyga qaytishadi.* (A.Dilmurod, «Fano dashtidagi qush»).

**Kuya I** – qurti yungli matolarni ko'rimsiz, yaroqsiz holga keltiruvchi, don yoki o'simliklarni nobud qiluvchi kichkina kapalak. *Yigit.. Muhammad Jamolning kuya yegan eski qorako'l papaxini qoziqdan olib, bint ustidan boshiga bostirib kiydi.* (Oybek, «Nur qidirib»). *Gilamni ham ado qilur kichik bir kuya.* (Shukrullo, «Javohirlar sandig'i»).

**Kuybishev qo'y zoti** – qisqa junli, uzun dumli go'sht-jun yo'nalishidagi Kuybishev qo'y zoti 1936-yildan 1948-yilgacha yaratilgan. Yaratilgan joyi Kuybishev viloyati Koshkinskiy davlat naslchilik pitomnidir. Zot mualliflari chorvachilik bo'yicha mutaxassislar jamoasi, loyiha rahbari A.V. Vasilyev.

Kuchli konstitutsiyaga ega hayvonlar, o'rta bo'yli (erkaklarini vazni 90–110, 120 kg gacha, urg'ochilariniki 64–65 kg), juni oq, yaltiroq, uzunligi 12–15 sm gacha. Urg'ochilarida qirqilgan jun 3,5–4,5 kg, erkaklarida 6–7 kg. Yuvilgan junning mahsuldorligi 55–65% ni tashkil qiladi. Zot erta yetiladi – 6-oyga kelib o'sishi 65 kg gacha ko'tariladi. Go'shti yuqori sifatli. So'yim chiqimi 52–55% ni tashkil qiladi.

**Kuydirgi** – odam va hayvonlarda uchraydigan, odamga hayvonlardan yuqadigan, teri, me'da-ichak va o'pkaga zarar yetkazadigan o'tkir yuqumli kasallik; zoonos kasalliklar guruhiga kiradi. Kasallik qadimdan ma'lum. Gippokrat ham bu haqida yozib qoldirgan. Kuydir-

gi qo'zg'atuvchisi (*Bacillus anthracis*) – spora hosil qiladigan harakatsiz tayoqcha. Sporalar juda chidamli bo'ladi, suvda yillab, tuproqda 10 yillab (20–30 yil va undan ortiq) saqlanishi mumkin.

Hayvonlarda (ayniqsa, ot, qoramol, qo'y, echki, bug'u) uchraydi, septise-miya, teri osti to'qimalari va boshqalar ichki organlarga qon quyilishi va infiltrat yig'ilishi bilan kechadi. Inkubatsion davri hayvonlarda 1–3 kun. Hayvonlarda yem-xashak, iflos suv va havo, shuningdek, qon, qon so'ruvchi hasharotlar, so'na, pashsha va b. orqali yuqadi.

*Qoramol, qo'y va echkilar ko'pincha kuydirgi hamda oqsil kasalliklari bilan og'riydilar.* (O. Azizxo'jayev, «Ehtiyotlik shartlari»). *U... o'n yilcha ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanib, kuydirgi, bo'g'ma, quturish kabi dahshatli kasalliklarga dunyoda birinchi bo'lib davo topdi.* («Fan va turmush»).

**Kuyikish** – jinsiy jarayon kuchi, urg'ochi hayvonlarning jinsiy faollik davri. Kuyikish davrida hayvonlar bezovtalanadi, jinsiy sikllar – jinsiy a'zodan shilimshiq suyuqlik ajralib chiqishi va ovulatsiya (tuxum hujayraning yetilib, tuxumdondan chiqish) hodisasi ro'y beradi, qin va bachadonda morfologik o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Jumladan, sigirlarda 12–18 soat, qo'ylarda bu jarayon 38 soat davom etadi. Kuyikishning 2 xili mavjud: fiziologik kuyikish va jinsiy kuyikish. *Jinsiy kuyikish* qoramollarda 6–8 oyligidan boshlab kuzatiladi. Lekin ularni bu davrda qochirish man etiladi. *Fiziologik kuyikish* muddati g'unajin uchun 16–18 oylik deb belgilangan va ular shu davrdan boshlab urug'lantiriladi. Sigirlarda jinsiy sikl tuqqanidan so'ng har 18–45 kunda qay-

tariladi. Mol qochirilganda urug'lanmasa, oradan ma'lum vaqt (mas., sigirlar 20–21 kun, biyalar – 4–5 kun, sovliqlar 12–20 kun) o'tgach, qayta qochiriladi.

**Kuyikmoq** – *biol.* Jinsiy faollik davriga kirmoq, «ersiramoq» (urg'ochi hayvonlar haqida). *Xristianlarning 7 haftalik ro'zalari hayvonlarning kuyikkan vaqtiga to'g'ri keladi.* (Gazetadan).

**Kuyish** (qishloq xo'jalik ekinlari va daraxtlarda) – quyosh nurining to'g'ri tushishi (oftob urishi) yoki ob-havoning keskin aynishi (issiq urishi, issiqqa chalinishi) ta'sirida yuzaga kelgan shikastlanish; O'simliklar zamburug'lar (mas., monilioz kasalligini paydo etadigan zamburug'lar)dan hamda pestitsidlardan qo'llashdan kelib chiqadigan zararlani-shi ham kuyish deyiladi. Kuyish po'stloq, poya, novda, barg, gul, ayrim hollarda o'simlikning nobud bo'lishiga olib keladi. Issiq urishda tuproqda namlik yetmasligi tufayli o'simliklarda suv balansi buziladi, natijada barglar quriydi, hosil to'kiladi va o'simlik nobud bo'ladi. Kuyish cho'ldan qum ko'chirib keladigan issiq shamolli rayonlar (mas., Qo'qon, Bekobod, Mirzacho'l guruhi va Surxondaryo viloyatining janub tumanlari)da ko'p kuzatiladi.

**Kuzatuv qudug'i** – yer osti suvlari va sug'oriladigan yerlarda sizot suvlari rejimi (joylashgan chuqurligi, mineral-lashganlik darajasi, kimyoviy tarkibi)ni o'rganishga mo'ljallangan vertikal quduq. Chuqurligi bir necha metrdan 100 m gacha va undan chuqur, diametri 25–98 mm.

**Kuzgi** – kuzga xos, kuzda bo'ladigan. *Kuzgi yomg'ir. Kuzgi meva. Kuzgi yig'interim. Kuzgi ekinlar. Kuzgi shudgorlash. Komiljon... anchagina joyga kuzgi*

ko'chatlar o'tkazdirgan edi. (S. Zunnunova, «Yangi direktor»).

**Kuzgi ekinlar** – kuzda ekilib qishlaydigan va keyingi yili hosil beradigan bir yillik ekinlar. Kuzgi ekinlarning 2 faol: kuzgi (45–50 kun; ildiz tarmog'i va yer usti vegetativ organlari shakllanadi) va bahorgi-yozgi (75–100 kun; generativ organlar rivojlanadi) vegetatsiya davri bo'ladi. Kuzgi ekinlar bahorda ekilganda unib, bachki poyalari o'sib chiqadi, lekin meva tugmaydi (don bermaydi). Kuzgi ekinlarga boshqoli don ekinlari (bug'doy, javdar, arpa), butguldoshlardan kuzgi raps, surepka va b.; dukkadoshlardan kuzgi vika va b. kiradi.

**Kuzgi so'lish** – ekinlarda uchraydigan noinfeksion kasallik. Kasallikning o'ziga xos xususiyati ekinning egilib qolishi va tezkorlik (2–3 kun) bilan o'lishidir. Kasallik asosiy hosilni to'plash davriga to'g'ri keladi.

**Kuzgi tunlam** – *Agrotis segetum Schiff* turkumiga mansub zararkunanda kapalak. Kuzgi ekinlar, g'o'za, qandlavlagi, kungaboqar, makkajo'xori va b. (150 turdagi) o'simliklar maysalarini zararlaydigan hovli zararkunandasi.

**Kuzgi shudgor** – tuproqning nam ko'p saqlanadigan haydalma qavatini kuzda yumshatish; kelasi yil bahorda ekinlarni ekish uchun yerni kuzda haydash. Bunda tuproqning yuz qatlamidagi strukturasi qatlamli tubiga tushib, yuz qavatda struktura bir oz tiklanadi. Tuproq-iqlim va tashkiliy-xo'jalik sharoitlarga qarab shudgorlash usullari hamda turlari o'zgarib turadi. Kuzgi shudgor dehqonchilikda qadimdan g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgani sababli, «*Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda*» xalq

maqoli yaratilgan. Hozir kuzgi shudgor yerga ishlov berishning asosiy usuli hisoblanadi.

**Kushxona** (*mollar so'yiladigan maxsus bino*) – uy hayvonlari (qoramol, qo'y, echki va b.)ni so'yib, go'sht va submahsulotlarga dastlabki ishlov beradigan korxon. Mol so'yilganda sanitariya-gigiyena qoidalariga to'liq amal qilishni ta'minlaydigan uskunalar bilan jihozlanadi. Aksariyat tuman markazlari, kichik shaharlarda qurilgan (Go'sht sanoati).

**Kuchala** – 1. Guli sariq, ko'k, safsar o'tsimon o'simlik hamda uning tibbiyotda ishlatiladigan zaharli, tugmasimon mevasi ... *baqqoldan yashirincha oldirilgan kuchala kichkinagina dekchada ertadan kechgacha qaynaydi; ertalab uning suvi bir choynakka solinib, Zebixonning uyiga olib kirilishi mo'ljallandi.* (Cho'lpon, «Kecha va kunduz»).

2. Terak, tol kabi daraxtlarning to'pguli. *Ular [daraxtlar] ham bo'rtib, kuchala chiqara boshlashibdi.* (T. To'la, «Toshkent uylari»).

**Kuchala daraxti** (*strychnosnuxvomical*) – Loganiyadoshlar (*Loganiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15 m ga yetadigan daraxt. Vatani Osiyoning janubi-sharqidagi va Avstraliyaning shimolida-gi tropik nohiyalar. MDH davlatlarida o'stirilmaydi. Tibbiyotda urug'i – kuchalasi ishlatiladi. O'simlikning hamma qismi zaharli! Urug'i tarkibida alkaloidlar (strixnin, brutsin, vomitsin va b.), loganin glikozidi, xlorogen kislota va b. moddalar bor. Dori preparatlari – tindirmasi (nas-toykasi), quruq ekstrakti va strinxnin nitrat markaziy nerv sistemasini qo'zg'atish ta'siriga ega bo'lib, moddalar almashinuvi buzilishida, ichak yarasida, ichak

zaiflanishi va surunkali ichketarda, qon bosimi pasayishi, falajlik, ko'z kasalliklarida qo'llaniladi. Strixnin nitrat, ba'zan, xloroform, alkogol va b. moddalar bilan zaharlanganda ishlatiladi; moddalar almashinuvi buzilganida qo'llaniladigan ba'zi bir murakkab preparatlar tarkibiga kiradi.

**Kvota** – 1 *iq.* Biror narsaning mumkin bo'lgan, lekin qat'iy belgilangan normasi, qismi, ulushi. *Import kvotasi, chetdan kiritiladigan mol normasi. Gazning eksport normasi.*

2. Biror joyga borishi mumkin bo'lgan kishilar soni; saylov organidagi vakillik normasi; boshqa mamlakatdan ko'chib keluvchilar kvotasi; saylov yoki saylovchilar kvotasi.

**Ko'gan** – *shv.* Qo'zi-uloqlar qator qilib bog'lab qo'yiladigan (qo'y-echkini sog'ishda ishlatiladigan) ilmoqli arqon; chilvir. [*Bahromgulning*] *Orqasidan beklar kelib, kayvoni bilan Gulnorni haydab kelib... hammasini ko'ganga bog'lab, qul bozorida qator qilib tizdi.* («Zulfizar bilan Avazxon»).

**Ko'kalamzor** – o'sib, ko'karib turgan o't-o'simlik, daraxtlar bilan qoplangan joy. *Buloq atrofidagi ko'kalamzor esa jazirama issiqlarda ham so'lmaydi, qishin-yozin o'lmaydi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). *Bo'z yerlarga suv chiqadi, qishloq atrofi, taqir-bo'z yerlar ko'kalamzor, ekinzor bo'ladi!* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

**Ko'kat** – 1. O'sib turgan o't-o'lan; o't-o'simlik. *Qo'ylarning barra ko'katlarni o'tkir tishlari bilan jodiday qirqib pishil-lashlari, qo'zilarning onalarini qidirib ma'rashlari atrofni bosdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Mansur tizza bo'yi ko'katlar ustida cho'nqayib o'tirar... hech nimani ko'rmas edi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

2. Ovqatga qo'shib yeyiladigan (kash-nich, ukrop kabi rezavor) o'simliklar; oshko'k. *Xushbo'y mevalar, ayniqsa, ko'katlar, turli nav sabzavotlar juda mo'l yog'ildi.* (Oybek, «Nur qidirib»). *Ko'kat rastasi, qovun bozor, ho'l meva, quruq meva rastalarini ko'rib, yon ko'chadan pastladik.* («Mushtum»).

**Ko'kat sabzavot ekinlar** – ko'k holidagi iste'mol qilinadigan, bargi, poyasi ovqatga ishlatiladigan sabzavot ekinlari (ko'k piyoz, sarimsoq, selderey, kash-nich, ukrop, yalpiz, shovul, ismaloq, sherolg'in, rayhon, yerqalampir, batun piyozi, rovoch, artishok, petrushka, sarsabil va b.).

**Ko'kat o'g'it, siderat** – tuproq unumdorligini oshirish maqsadida ko'kligida tuproqqa qo'shib haydab yuboriladigan o'simliklar massasi. Ko'kat o'g'it sifatida dukkakilardan mosh, ko'k no'xat, lupin, soya, loviya, vika, shabdor, bersim, karamgullilardan xantal, raps va b.dan foydalaniladi.

**Ko'k bo'tako'z** – astradoshlar [murakkabguldoshlar – *asteraceae (compositae)*] oilasiga mansub, bo'yi 40–80 sm ga yetadigan bir yillik o't. Kavkaz, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqdagi o'tloqlarda, bog'larda, bug'doyzorlarda, ekinlar orasida o'sadi, ayrim joylarda manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Tibbiyotda guli ishlatiladi. Tarkibida glikozidlar, antotsianlar, kumarinlar, shilliq, oshlovchi va b. moddalar bor. Gulining damlamasi yurak va buyrak faoliyati buzilishi natijasida tanaga kelgan shishni (shu jumladan, istisqo kasalligini) davolashda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Gullari siydik haydovchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.



**Ko'kmaraz** – donli ekinlar bilan birga o'sadigan, zaharli alkaloidga ega bo'lgan o'simliklardan biri. *Yaxshi tozalanmagan bug'doy va arpada ko'kmaraz o'simligining urug'i ham qoladi.* («Fan va turmush»). *Qishloq joylarda donli ekinlar bilan birga o'sadigan ayrim o'simliklarda (ko'kmaraz, eshakmiya va b.) zaharli alkaloidlar mavjud.* (S. Akromov, «Giyoh kimyosi»).

**Ko'knor** (*Papaveraceae, Papaver somniferum L.*) – ko'knordoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simliklar turkumi; urug'idan o'simlik moyi (moyli ekinlar) va ko'sagidan *afyun* olish uchun yetishtiriladigan ekin. 100 turi ma'lum. Mo'tadil subtropik, ba'zan sovuq mintaqalarda o'sadi. Ko'knor moyi, asosan, qandolat, konserva, parfyumeriya, lok-bo'yoqlashda, urug'i non pishirish va qandolatchilikda ishlatiladi. Ko'sagi po'chog'idan tibbiyotda va veterinariyada qo'llaniladigan alkaloidlar (morfin, kodein, papaverin) olinadi. Kunjarasi esa mollarga yaxshi ozuqa (tarkibida 10% moy, 32,5% oqsil mavjud).

**Ko'kno'xat** (*Pisum*), o'risno'xat – dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simliklar turkumi, dukkakli don va sabzavot ekini.

**Ko'k oziqalar** (*zelyonka*) – o'simliklar (bargi, shoxi, guli, g'unchasi)dan tashkil bo'lgan, o'tloqlarda yoki o'rilgan holda chorva mollariga beriladigan o'simliklar.

**Ko'kpoya** – jo'xori va sh.k. ayrim o'simliklarning juda pishib (qurib) ketmagan, mollarga ozuqa sifatida beriladigan mahsuli, poyasi. *Makkajo'xori ular yerining «mijoziga» to'g'ri kelmagani sabab-*

*li, gektaridan 130 sentnerdan ko'kpoya olingan emish.* («Mushtum»).

**Ko'kqarg'a** – yashil-ko'k patli, asosan Afrikada qishlaydigan, ko'klamda ke-ladigan qush.

**Ko'kqo'ton** – laylaksimonlar turkumi-ning qarqaralar oilasiga mansub, pati ko'k, bo'yni va tumshug'i uzun, baliq, baqa va b. mayda jonivorlar bilan oziqlanuvchi yirtqich qush.

**Ko'ksulton** – dumaloq, nordon mevali daraxt va uning mevasi. *Ko'ksulton atirgullilar oilasiga mansub bo'lib, qimmatli vitaminlarga boy meva hisoblanadi.* (Gazetadan).

**Ko'ktikan** (*eryngium L.*) – Selder-doshlar [(soyabonguldoshlar (*Apiaceae Umbellifere*)] oilasiga mansub, bo'yi 50–100 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simliklar. Markaziy Osiyo va Kavkazning tog' etaklari, shag'alli qiyaliklari, tekisliklar, bog'lar, ekinzorlar, dalalar, namli yerlarda o'sadi. Xalq tabobatida ikki turining ildizi ishlatiladi: Bibershteyn ko'ktikani va Yirik kosachali ko'ktikan. Ularning ildizi tarkibida saponinlar, kumarinlar, qandlar, efir moyi, bargida saponinlar, flavonoidlar, kumarinlar, efir moyi, qandlar, shilliq va boshqa moddalar bor. Ildizining qaynatmasi bilan xalq orasida shirincha, shishlar, istisqo va boshqa kasalliklarni davolashda hamda buyrak va siydik yo'llari kasalligida siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ba'zan yer ustki qismining damlamasi kamqonlikda ham ishlatiladi.

**Ko'kcha** – qovunning o'rtapishar, sershira bir turi (serto'r, ko'kish, cho'ziq qovun). *Kattaqishloqning ertapishar qovunlari, amiri, ko'kcha, oqurug'lari qadim zamonlardan beri mashhur.*

(I. Rahim, «Ixlos»). *Patnis ko'kcha va shakarpalak kosalari bilan to'liq edi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t. o»).

**Ko'l** – quruqlikning suvga to'lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi. Katta ko'l. *Cho'lda yurgan qo'ng'ir g'oz, ko'l qadrini ne bilur.* (Maqol). *Toma-toma ko'l bo'lar.* (Maqol). [G'ulomjon] *Oy yorug'ida kumush tovlab turgan ko'lning chap qirg'og'i bilan pastga tushib bordi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»). *Daryo bo'yida katta-kichik ko'llar, to'qayzorlar ko'p edi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Ko'lik** – shv. Yuk tortuvchi hayvon, ot-ulov, transport. – *Parilarning makoni olis, bolam, ko'liging yo'q, sheringing yo'q, qanday yetasan, – dedi kampir.* («Folklor»). *Joy nihoyatda pinhona bo'lgani uchun atrofda biror ko'lik ko'zga tashlanmaydi.* (M. Qo'shjonov, «Diydor»).

**Ko'llamoq** – oqmay, bir joyga to'planib, yig'ilib qolmoq, ko'l bo'lib qolmoq (suv haqida). *Sayfi tol soyasiga yotib, xurrak otyapti. Suv esa egatlarning bir joyidan yugurib o'tyapti, bir joyida ko'llab qolyapti.* (Gazetadan). *Skver tomondan oqib tushgan bahor suvi trotuarning zaxida ko'llab yotar... edi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**Ko'llatmoq** – 1. **Ko'llamoq fl. ort. n.** *Surunkali yog'ingarchilik dalalarni ko'llatib yubordi.* (Gazetadan).

2. **Ko'llatib suv sepmoq** – ko'p miqdorda suv sepmoq. *Yozning jazirama kunlari Ahatjon gujum ostiga ko'llatib suv sepadi, supaga... top-toza olachani to'shaydi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

3. **Ko'llatib sug'ormoq.** Bostirib, ko'p suv qo'yib sug'ormoq. *Bu yerda*

*g'o'zalar ko'llatib sug'orilardi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Ko'lmak** – chuqur joyga to'planib qolgan yomg'ir suvi, halqob suv. *Kun isib ketdi. Har qadamda halqob bo'lib yotgan ko'lmaklar yerga singib, ariqlardagi loyqalar tina boshladi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»). *Ko'lmak suvlar ustida chivinlar galasi uymalashmoqda.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

**Ko'lob** – ayn. **ko'lmak.** *Ko'lob hozirgina sepilgan suvdan hosil bo'lgan edi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»).

**Ko'ma** – shv. 1. Uyum, to'plam. Qovun ko'masi. *Ikki qum ko'masi orasidan borayotgan otlig otini to'xtatib, undan tushdi.* (S. Aynii, «Qullar»).

2 ayn. **pag'a.** *Dala shiyponlaridan ko'tarilayotgan tutun ko'malari... (Oybek, «O.v.shabadalar»).*

**Ko'mik** – odam va ko'pgina umurtqali hayvonlarning suyak ichi (bo'shlig'i) ni to'ldirib turadigan to'qima (ilik). Qizil (qizg'ish) va sariq tusli (yog'simon) ko'mik farq qilinadi. Qizil ko'mik miyeloid to'qimadan hosil bo'lib, asosan, tarkibida qon yaratuvchi (poyasimon hujayralar) va yetiltiruvchi hujayralarni tutgan retikulyar to'qima (biriktiruvchi to'qimaning bir xili)dan iborat. Ko'pgina sut emizuvchilar, xususan, odamda ham bola hayotining 1-yilida hamma suyaklar ko'mik bilan to'la bo'ladi, yosh kattalashgan sari yog' hujayralari ko'payishi natijasida ko'mikning qizil rangi keta boshlaydi va yirik suyaklar bo'shlig'idagi ko'mik yog' to'qimasi bilan almashinib, ilikka aylanadi. Qizil ko'mik faqat g'ovak suyak moddalarida (qovurg'alarda, to'sh, kalla suyagining asosi, chanoq, umurtqalar va b. da), ba'zi umurtqalilar-

ning (kemiruvchilar, qushlarda) barcha suyak bo'shliqlarida bir umr saqlanib qoladi. Sariq ko'mik (ilik) asosan yog' to'qimasidan iborat bo'lib, naysimon suyaklarning diafiz qismini to'ldirib tura-di. Organizm ko'p qon yo'qotganda ilik ko'mikga aylanib, qon hujayralari ishlab chiqara boshlaydi.

**Ko'n** – mol, echki, qo'y va boshqa hayvonlar terisidan ishlangan, pishirilgan teri; charm. Ko'n zavodi. – *Boy akamning dardlari dehqonchilik ustida emas, boshqa joyda, – dedi eski bir etikning ostiga yangi ko'ndan tag qo'yib tikayotgan bir kishi.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Umurzoq aka baland qomatini egib, ko'n etigining uchini asta-sekin bosib, bolalar tepasiga kirdi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Ko'nak** – shv. Qimiz solib qo'yish uchun teridan yasalgan idish; katta sano-ch. *Qimiz dori degan necha takkonlar, Chayib bergan sava bilan ko'nakni.* («Al-pomish»).

**Ko'nchilik** – hayvonlar terisidan charm (ko'n) tayyorlash kasbi; hunar-mandchilikning qadimgi turlaridan biri.

**Ko'pkari** – shv. ayn. uiloq. Marka-ziy Osiyo xalqlarining qadimiy omma-viy, milliy o'yinlaridan biri. 1. *Qayer-da ko'pkari bo'lsa, otiqlarning ketidan yuradi; o'zi chopolmaydiganlarning otini minib, qurga kiradi.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»).

**Ko'p qiyiqli qontepar** (*biebersteinia multifida D.S.*) – yoronguldoshlar (*Geraniaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 10–60 sm ga yetadigan yo'g'on ildizli ko'p yillik o't. Markaziy Osiyo va Kavkaz tog'larining pastki qismidan to o'rta qismigacha bo'lgan shag'alli va toshli yonbag'irlarda o'sadi. Xalq tabobatida ildizi ishlatiladi.

Tarkibida saponinlar, uglevodlar, ko'p miqdorda oshlovchi moddalar bor. Ildi-zidan tayyorlangan qaynatmasi ichakdan va bachadondan (tuqqandan so'ng) qon ketishlarni to'xtatishda qo'llaniladi.

**Ko'p tomirli bupleurum** (*bupleurum multinerve D.*) – soyabonguldoshlar [selder-doshlar – *Urubelliferae (Apiaceae)*] oilasiga mansub, bo'yi 70 (100) sm ga yetadigan ko'p yillik o't. Sibir, Oltoy, Amursk viloyati markaziy hududlaridagi cho'l, o'rmon-cho'l, tog'lar, ninabarg-li o'rmonlar atrofi, tog' yonbag'irlari va b. yerlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida flavonoidlar (rutin, kversetin va b.), saponinlar, efir moyi, vitamin S, karotin, oshlovchi va b. moddalar bor. Yer ustki qismining flavo-noidlar yig'indisi – buplerin vitamin R si-fatida ateroskleroz va yurak-qon tomirlar sistemasining boshqa kasalliklarini ham-da ba'zi ko'z kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Yer ustki qismining damla-masi va qaynatmasi o't haydash ta'siriga ega.

**Ko'p yillik o'simliklar** – ikki yildan ortiq yashay oladigan o'simliklar. Yer shari florasining ko'pchiligi ko'p yillik o'simlikga kiradi. Ko'p yillik o'simlikning tashqi ko'rinishi va biologik xususiyat-lari juda xilma-xildir. Mo'tadil iqlimli kengliklarda ko'p yillik o'simliklarning ko'pchilik guruhini o'tsimon o'simliklar, tropik zonalarda esa ko'proq daraxt va bu-talar tashkil etadi.

**Ko'rgazma** – ko'rish, tomosha qilish uchun qo'yilgan narsalar va shu narsalar qo'yilgan joy. Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi. Ko'rgazma eksponatlari. *Dengizchilar klubida tashkil etilgan tasvi-riy san'at asarlari ko'rgazmasiga odam-*

lar ancha serqatnov bo'lib qolishgan edi. (M. Xayrullayev, «Tilla marjon»).

**Ko'sak, ko'sakcha** (*capsyla*) – 1. Yopiq urug'li o'simliklarning ko'purug'li mevasi. Ko'sak bir va ko'p chanoqli bo'ladi. Ko'sak yetilganda teshikchasidan (ko'knorda), qopqoqchasidan (mingdevona, zubturum va b.), pallalaridan (g'o'za, bangidevona, binafsha, piyozgul va b.da) ochiladi.

2. G'o'zaning guldani so'ng tugadigan, ichida paxta yetiladigan chanoqlardan iborat mevasi. *G'o'zalar shonalarini tutib qoldi, Shonalar gulga, gullar ko'sakka aylana boshladi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»). *Bir tekis rivojlangan g'o'zaning har tupida 6–7 tadan ko'sak mavjud.* (Gazetadan).

**Ko'saklamoq** – ko'sak hosil qilmoq, ko'sak bog'lamoq. *MTS yonidagi paykalda o'tgan yili g'o'za ko'krak bo'yi o'sibdi, tepasigacha ko'saklab, qariyb hammasi ochilibdi.* (Y. Shamsharov, «Qo'riq me'morlari»).

**Ko'sak qurti** – g'o'za tunlami.

**Ko'taram/o'limsa** – juda ham oriq, o'ladigan darajaga yetgan mol.

**Ko'tarasiga** – *rvsh.* Butun boricha, yaxliticha; ulgurji. *Dehqon yoki bog'bon bozorga olib kelgan molini ko'tarasiga*

**Labgardon** – suvning aylanib, girdob bo'lib oqadigan joyi. *...tunda suvning ravon oqayotganini nazorat qilyapti, ariqlar, labgardonlar, to'g'onlarga ko'z-quloq bo'lib turibdi.* (M. Nazarov, «Suv – g'o'zaga darmon»). *Agarda Bahodir o'zini soyga tashlab, uni qutqarib olmoganda, Saodat sharsharaning labgardoniga cho'kib, g'arq bo'lib ketishi*

*naridan beri sotadi-yu, kam-ko'stini xarid qilib, tirikchiligiga shoshiladi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Ko'shak** – *shv. ayn. bo'taloq.* *Tuya o'rnini ko'shak bosadi, deganlaridek...* (M. Qo'shjonov, «Diydor»).

**Ko'chat** – ko'chatzorlarda, parnik va issiqxonalarda yetishtiriladigan va ko'chirib, asosiy maydonga o'tqaziladigan nihol. Ko'chatlar o'simliklarning urug'i, danagi, qalamchasini ekib va payvand qilib yetishtiriladi.

**Ko'chatxona** – ko'chat yetishtiriladigan xona; issiqxona, parnik. *Kelgusi yillarda... har bir xo'jalikning o'zida ko'chatxonalar barpo qilmoqchimiz.* (Gazetadan).

**Ko'chatzor** – ko'chat o'tqazib qo'yilgan, ko'chat yetishtiriladigan joy, maydon. *Urug'ko'chatlar chiqarish – bargli daraxtlar yuzasidan kolxoz ko'chatzorlarida 500 ming tup va davlat ko'chatzorlarida 600 ming tup.* (Gazetadan).

**Ko'chatchilik** – ko'chat yetishtirish, xo'jalikning ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. *Koson ko'chatchilik xo'jaligidagi lagerlarda 200 bola dam olyapti.* (S. Nurov, «Oddiy bir kun»).

## L

*ham turgan gap edi.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**Laboratoriya** (*lot. laboratorium < laborare – ishlamoq; laboro – ishlayman*) – ilmiy muassasa, vazirlik, korxon, o'quv yurti tarkibidagi ilmiy, ishlab chiqarish nazorat tajribalari yoki o'quv mashg'ulotlari olib boruvchi mustaqil muassasa yoki bo'lim, bo'linma.

**Laborant** [lot. *laborans, laborantis* – *ishlovchi*] – 1. Laboratoriya yoki ilmiy muassasada ilmiy-texnik ishlarni bajaruvchi xodim. *Fonokabinet laboranti Rustam... unga bir joyning daragini aytdi.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»).

2. Laboratoriya mashg'ulotlari vaqtida professor yoki o'qituvchiga kerakli asbob, preparat va sh.k. ni tayyorlab beruvchi yordamchi xodim. *Kimyo kafedrasining laboranti.*

1. Ilmiy tekshirishlar, tajribalar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun kerakli apparat va asboblarni bilan jihozlangan ilmiy muassasa yoki uning bo'limi va ular joylashgan bino. Kimyo laboratoriyasi. Fizika laboratoriyasi. *Laboratoriyada o'sha kunlari viltga qarshi yangi preparatning ximiyaviy analizlari o'tkazilayotgan edi.* (O'. Umarbekov, «Yoz yomg'iri»).

2 ko'chma. Yozuvchi, rassom va sh.k.ning ijodiy faoliyat sohasi. *Yozuvchining ijodiy laboratoriyasi.*

**Laboratoriya hayvonlari** – biologiya, tibbiyot, veterinariya va qishloq xo'jaligida ilmiy maqsadlarda foydalaniладigan hayvonlar.

**Lahm** [a. – go'sht, et; mevaning go'shti] – suyaksiz, yumshoq (go'sht haqida). *Go'sht so'rab kelganda, «puling qani?» deb surishtirmay, go'shtning satta yumshoq, lahm joyidan kesib berganman.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Laksman ayugasi** (*ajuga laxmanii* L. Benth.) – Labguldoşlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30 sm ga yetadigan ko'p yillik o'simlik. Ukraina va Shimoliy Kavkazning cho'l va o'rmoncho'llarida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, achchiq moddalar bor. Xalq tabobatida yer

ustki qismining damlamasi, qaynatmasi bezgak, rak va b. kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Yer ustki qismi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

**Laktatsiya** [lot. *lactatio* < *lactare* – tarkibida sut bo'lmoq; sut bermoq; emizmoq] – ayollarda va sutemizuvchi hayvonlarda tug'uruqdan keyingi davrda sut hosil bo'lishi, yig'ilishi va davriy ravishda ajralib chiqishi.

**Laktatsiya davri** – sog'in davri. Tuqqandan boshlab to sutdan chiqqunga qadar o'tgan davr; hayvonlarning turi, zoti, oziqlantirish darajasi, saqlash sharoiti, bo'g'ozlik boshlanishiga bog'liq.

**Laktaza** (*sut qandi*) – laktozani gidrolitik parchalanishini katalizlaydigan ferment. Sut emizuvchilarning o'n ikki barmoq ichak shirasida, sut bezlari va b. a'zolarida, shuningdek, achchiq bodom danagida, mog'or zamburug'i, achitqi hamda bakteriyalarda bo'ladi.

**Lakto** – «Sut»ni ifodalovchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi (laktatsiya, laktoza, laktomer va b.)

**Laktomer** – sutdagi suv miqdorini va sutning zichligini foizlarda aniqlab beruvchi asbob; laktomer ko'rsatkichiga qarab sutning yog'liligi haqida xulosa chiqariladi.

**Laktoskop** – sutning tiniqlik darajasi asosida yog'ini aniqlab beruvchi asbob.

**Lalmi** – 1. Sug'orilmaydigan, suvsiz, yog'indan suv ichadigan; bahori (yer yoki g'alla haqida). *Turbat qishlog'ining ko'p yerlari suvsiz bo'lib, aholisi lalmi bug'doy ekar edi.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urinishlari»). *Lalmi dashtga yo'l oldim.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

2 ko'chma. shv. Quruq. *Men kattalar xo'jako'rsinga lalmi do'q urib ketdi,*

**Laborant** [lot. *laborans, laborantis* – *ishlovchi*] – 1. Laboratoriya yoki ilmiy muassasada ilmiy-texnik ishlarni bajaruvchi xodim. *Fonokabinet laboranti Rustam... unga bir joyning daragini aytdi.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»).

2. Laboratoriya mashg'ulotlari vaqtida professor yoki o'qituvchiga kerakli asbob, preparat va sh.k. ni tayyorlab beruvchi yordamchi xodim. *Kimyo kafedrasining laboranti.*

1. Ilmiy tekshirishlar, tajribalar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun kerakli apparat va asboblarni bilan jihozlangan ilmiy muassasa yoki uning bo'limi va ular joylashgan bino. Kimyo laboratoriyasi. Fizika laboratoriyasi. *Laboratoriyada o'sha kunlari viltga qarshi yangi preparatning ximiyaviy analizlari o'tkazilayotgan edi.* (O'. Umarbekov, «Yoz yomg'iri»).

2 *ko'chma.* Yozuvchi, rassom va sh.k.ning ijodiy faoliyat sohasi. *Yozuvchining ijodiy laboratoriyasi.*

**Laboratoriya hayvonlari** – biologiya, tibbiyot, veterinariya va qishloq xo'jaligida ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan hayvonlar.

**Lahm** [a. – go'sht, et; mevaning go'shti] – suyaksiz, yumshoq (go'sht haqida). *Go'sht so'rab kelganda, «puling qani?» deb surishtirmay, go'shtning satta yumshoq, lahm joyidan kesib berganman.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Laksman ayugasi** (*ajuga laxmannii* L. Benth.) – Labguldoşlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30 sm ga yetadigan ko'p yillik o'simlik. Ukraina va Shimoliy Kavkazning cho'l va o'rmoncho'llarida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, achchiq moddalar bor. Xalq tabobatida yer

ustki qismining damlamasi, qaynatmasi bezgak, rak va b. kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Yer ustki qismi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

**Laktatsiya** [lot. *lactatio* < *lactare* – tarkibida sut bo'lmoq; sut bermoq; emizmoq] – ayollarda va sutemizuvchi hayvonlarda tug'uruqdan keyingi davrda sut hosil bo'lishi, yig'ilishi va davriy ravishda ajralib chiqishi.

**Laktatsiya davri** – sog'in davri. Tuq-qandan boshlab to sutdan chiqqunga qadar o'tgan davr; hayvonlarning turi, zoti, oziqlantirish darajasi, saqlash sharoiti, bo'g'ozlik boshlanishiga bog'liq.

**Laktaza** (*sut qandi*) – laktozani gidrolitik parchalanishini katalizlaydigan ferment. Sut emizuvchilarning o'n ikki barmoq ichak shirasida, sut bezlari va b. a'zolarida, shuningdek, achchiq bodom danagida, mog'or zamburug'i, achitqi hamda bakteriyalarda bo'ladi.

**Lakto** – «Sut»ni ifodalovchi murakkab so'zlarning tarkibiy qismi (laktatsiya, laktoza, laktomer va b.)

**Laktomer** – sutdagi suv miqdorini va sutning zichligini foizlarda aniqlab beruvchi asbob; laktomer ko'rsatkichiga qarab sutning yog'liligi haqida xulosa chiqariladi.

**Laktoskop** – sutning tiniqlik darajasi asosida yog'ini aniqlab beruvchi asbob.

**Lalmi** – 1. Sug'orilmaydigan, suvsiz, yog'indan suv ichadigan; bahori (yer yoki g'alla haqida). *Turbat qishlog'ining ko'p yerlari suvsiz bo'lib, aholisi lalmi bug'doy ekar edi.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urinishlari»). *Lalmi dashtga yo'l oldim.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

2 *ko'chma. shv.* Quruq. *Men kattalar xo'jako'rsinga lalmi do'q urib ketdi,*

*deya o'yladim.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»). *Ko'p lalmi do'q qilaverma.* (M. Hazratqulov, «Jur'at»). *Bekorga ham xalqda, lalmiga hatto qiz berma, degan gap yurmaydi.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»).

**Lalmikor** – 1. Yog'in suvidan foydalanib dehqonchilik qilinadigan; yog'in suvi bilan unadigan, sug'orilmaydigan. *U yer lalmikor hamda u tepaga na mashina, na kombayn chiqa olar, yerni qo'shda haydab, donni ham ho'kizlar tuyog'ida yanchib olishardi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»).

2. Lalmi ekinlar ekish bilan shug'ullanuvchi dehqon. *Lalmikorlar mo'l bug'doy hosili oldilar.*

**Lalmikorlik** – 1. Lalmi ekinlar ekiladigan yerlar. 2. Lalmi ekinlar ekish ishi.

**Lalmikor yerlar, bahorikor yerlar** – adir zonasida sug'orilmay dehqonchilik qilinadigan yerlar. Lalmi dehqonchilik o'rtacha yillik yog'ingarchilik 200 mm dan yuqori bo'lgan hududlarda tarqalgan. Tuproqda tabiiy namlikni to'plash va uni saqlash, o'g'itlash, begona o'tlarga qarshi kurash, tuproq eroziyasi oldini olish kabi tadbirlar qo'llaniladi. Lalmikor dehqonchilik sug'orish uchun noqulay bo'lgan yerlarning foydalanish imkonini berilganligi uchun ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

**Laminariya, dengiz karami** (*laminaria L.*) – Laminariyadoshlar (*Laminariaceae*) oilasiga mansub, qo'ng'ir suv o'tlari. Ular Shimol va Uzoq Sharq dengizlarida tarqalgan bo'lib, quyidagi turlari ishlatiladi: *L. Palchatorassechennaya (L. digitala (Hudg.) Lam.)* – Barmoqsimon qirqilgan laminariya; *L. Saxaristaya (L. saccharina (L.) Lam.)* – Shirin laminariya; *L. Yaponskaya (L. japonica Areseh.)*

– Yapon laminariyasi. Laminariya tallomi (plastinkasi) tarkibida ko'p miqdorda polisaxarid algin (alginat) kislota, mannit, uglevodlar, vitaminlar: V1;, V2, S va D, karotin, yod, mikroelementlar bor. Tallo-mi kukuni va dori preparati – laminarid ateroskleroz, raxit, shirincha va buqoq kasalliklarini davolash va ularning oldini olish uchun hamda sust ta'sir etuvchi surgi dori sifatida qo'llaniladi.

**Landschaft** [*nem. Landschaft* – o'lka, mamlakat; manzara, ko'rinish] – *geogr.* Ko'rinishi, relyefi, iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi, gidrologik rejimi va b. larning bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud, joy. *Ustyurtda tabiiy cho'l landshaftlarini tiklash va geobotanik tadqiqotlarni yanada mufassalroq davom ettirish kerak.* («Fan va turmush»).

**Lanolin** (*lanolinum, adepslanae*) – qo'y junini yuvgan suvdan maxsus usul bilan olinadigan, qo'ng'ir, sariq rangli, yumshoq, o'ziga xos hidli yog'simon modda. Lanolin suvda erimaydi, spirtida qisman, efir, xloroform, aseton va benzolda yaxshi eriydi. Ko'p miqdordagi suv bilan aralashsa ham moysimon xossasini o'zgartirmaydi. Tibbiyotda ikki xil: suvsiz lanolin va suvli lanolin ishlatiladi. Lanolin surtmalar tayyorlashda asos, kakao moyi bilan shamchalar tayyorlashda biriktiruvchi sifatida qo'llaniladi. Undan parfyumeriyada keng foydalaniladi.

**Laqqa I** – 1. *zool.* Chuchuk suvlarda yashaydigan, tangachasiz, mo'ylovli yirtqich baliq. *Ertalabdan tashlangan qarmoqlarga to'rtagina bir qarichlik laqqa ilindi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Laqqa baliq** – *ayn. laqqa 1.*

2 *s.t.* Lahm, suyaksiz (go'sht). [*Nor:*] *Xola, meni ko'p charxlamang-u; uvrans*

*gizni kesa bering! Og'zingizga siqqanini uch kunda laqqa jigardek qanorangizga ilib qo'yaman.* (Hamza, «Paranji sirlari»). *O'zingga tashlangan itga laqqa go'sht tashlasang...* (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»).

**Lavlagi** – sabzavot o'simliklaridan biri va uning ozuqa, ovqat uchun ishlatiladigan ildizmevasi, hosili. Oq lavlagi. Qizil lavlagi. *Oshni o'zlaringga aytib ketsam, qilaverar ekansizlar. Lekin sabzi yo'q, o'rniga lavlagi solasiz.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»). **Qand lavlagi** – lavlagining qand, shakar tayyorlash uchun ishlatiladigan oq shirin navi. **Lavlagi bo'lib ketmoq** yoki **lavlagisi chiqib ketmoq**. Uyatdan yoki haroratdan yuzlariga qizilik yoyilmoq, qizarib ketmoq. *Men uyali, qip-qizil lavlagi bo'lib ketgan edim.* (M. Muhamedov, «Qahramon izidan»).

**Lavlagikor** – lavlagi ekish, lavlagi hosili yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon yoki xo'jalik.

**Lavlagikorlik** – lavlagi yetishtirish ishi.

**Lavr** [*lot.laurus*] – 1 *bot.ayn.dafna. Bargi bir oz lavr bargiga, gullari esa siren gullariga o'xshash.* («Fan va turmush»). 2. Shu daraxtning barglari va novdalaridan qilingan va shuhrat, g'alaba belgisi yoki oliy mukofot sifatida g'olib kishining bo'yniga osib qo'yiladigan chambar.

**Lavsan** [r. «Laboratoriya visokomolekulyarnix soyedineniy Akademii nauk» birikmasidan hosil qilingan qisqartma so'z] – 1. Neft mahsulotini qayta ishlash yo'li bilan olinadigan sintetik tola turi. *Mogilyov shahrida yiliga 50 ming tonna lavsan ishlab chiqaradigan katta sintetik tola kombinati qurish rejalashtirilmoqda.* (Gazetadan). 2. Shunday toladan to'qilgan **mato**. *So'nggi yillarda sintetik materiallar*

*– jun bilan kimyoviy tolalar birikmasidan to'qilgan matolar, nitron, kapron, lavsan, kreplar va sun'iy shoyilar urf bo'lib bormoqda.* («Saodat»).

**Laylak** [*f.yoki a.*] – 1. Uzunoyoqli qushlar turkumiga mansub, tumshug'i va oyog'i uzun, parlari ola (oq va qora aralash) katta qush. Laylak uyasi. *Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq.* (Maqol). 2 *maxs.* Balandga yuk chiqarish uchun qurilgan, tayanchig'i o'rtasida bo'lgan richagga o'xshash moslama.

**Laylak bo'lmoq** *s.t.* Oldi osmonga, keti yerga bo'lib qolmoq (mas. arava haqida). *To'zon bosilganda qarashsa, mashina kuzovi ko'tarilganicha. ...qiyalikning eng chetida shundoq laylak bo'lganicha, omonat turib qolibdi.* (A. Muxtor, «Tug'ilish»). *Razzoq saroy etagida laylak bo'lib tikkaygan aravani ko'zdan kechirdi-da: – Qo'shsa bo'ladimi? – deb so'radi.* (G'ulom, «Mash'al»). **Laylak varrak.** Romb shaklida yasalgan varrak. **Laylak qor.** Yirik, pilta-pilta bo'lib yog'adigan qor. *O'rik qiyg'os gullagan kunlari birdan havo sovib, laylak qor yog'ib yubordi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**Leggorn** – go'sht-tuxum yo'nalishidagi serpusht tovuq zoti. XIX asrda AQSHda Italiya oq tovuqlarini minorka va ispan, urushqoq va b. zotlar bilan chatishtirib chiqarilgan. Zot mahalliy tovuqlar olib kelingan Italiyadagi Livarno (*ing. Leghorn*) porti nomidan olingan. Boshi kichik, quloq solinchog'i oq yoki sarg'ish, toji katta. Pati, asosan, oq, qo'ng'ir, sariq, qora, ko'k. Yaxshi iqlimlashadigan, chidamli, tez yetiladigan oq leggorn ko'proq tarqalgan. Tovularining o'rtacha vazni 1,6–1,8 kg, xo'rozlari 2,3–2,5 kg. Tovug'i yiliga o'rtacha 240 va undan ortiq tuxum qiladi. Tuxumi vazni 57–60 g. Amerika-



dan, so'ngra Yevropa mamlakatlari va Yaponiyadan 1925-yilda Ittifoqqa keltirilgan va oq rus tovuq zotlarini chiqarishda foydalanilgan. Leggorn ko'pgina mamlakatlarda keng tarqalgan. 1925-yildan O'zbekiston parrandachilik fabrikalarida boqiladi.

**Lenta shaklida ekish** – keng qatorli ekishning bir turi bo'lib, lentasimon ekilgan o'simliklar guruhlarining oraligi ancha keng bo'ladi. 2–3 qator o'simliklar bir-biriga nisbatan yaqin bo'lib, ular xuddi shunday boshqa gruppadan keng qator bilan ajralib turadi. Yaqin qatorlar soniga qarab, ikki yoki uch qatorli lenta shaklida sepish deb nomlanadi. Bu usul don ekinlari navlarini tezroq ko'paytirish, tariq ekish hamda o'rmon hosil qilishda daraxt urug'larini ekish uchun qo'llaniladi.

**Lеспедеза** (*lespedeza michx*) – dukakdoshlar oilasiga mansub o'simliklar. Tibbiyotda ikki turining yer ustki qismi ishlatiladi: *L. dvusvetkovaya* (*L. bicolor Turcz.*) – **ikki rangli lespedeza**. Bo'yi 1–1,5 m ga yetadigan buta. Sibir, Uzoq Sharq, Saxalin, Kuril orollaridagi o'rmon tepaliklarida, daraxtlar kesilgan yerlarda o'sadi. *L. Kopeyechnikovaya* (*L. hedy-saroides* (Pall.) Kitag.) – **xedizarumsimon lespedeza**. Bo'yi 20–30 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Uzoq Sharqdagi quruq qoyalarda, daryo bo'ylarida, shag'alli, qumli, ba'zan quruq yerlarda o'sadi. Ikkala turining yer ustki qismida flavonoidlar (lespedin, kversetin, kemiferol), katexin, fenol-karbon kislotalar, moddalar bor. Yer ustki qismining tindirmasi (nastoykasi) va flavonoidlar yig'indisining dori preparati siydik haydash va azotemiya kasalligiga qarshi ta'sirga ega. Buyrak, siydik yo'llari kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Shuningdek, bu preparatlar qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va yomon shishlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Xalepin preparati (yer ustki qismidan olingan xedizarumsimon lespedeza) virusga qarshi ta'sirga ega bo'lib, uchuqni davolashda qo'llaniladi.

**Leyka** [*r. lit* – «quymoq, oqizmoq»] *fl. dan yasalgan ot*] – o'simlik va gullarga suv sepish uchun ishlatiladigan, jo'mragining uchi teshik-teshik idish. *Muhabbat hovlida gullarga leykada suv berib yurar edi*. (O. Yoqubov, «Ikki muhabbat»).

**Liberallashtirish, liberalizatsiya** [*lot. liberalis* – erkin ozod] – mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida keng erkinliklar berish; iqtisodiyotga va fuqarolar shaxsiy hayotiga davlat aralashuvini bekor qilish yoki kamaytirish. Narxnavoni liberallashtirish. *Hozir sud-huquq tizimida liberallashtirish davom etmoqda*. (Gazetadan).

**Lignanlar** – asosida fenilpropan ikki molekulasining o'zaro birlashgan formasi bo'ladi. Dorivor o'simliklarda asosiy ta'sir etuvchi biologik faol modda sifatida lignanlarning o'ziga xos xususiyati bor. Ular organik erituvchilar, efir moylari, yog'lar va smolalarda yaxshi eriydi, turli farmakologik ta'sirga ega. Ba'zilar stimulyator (mizandra, levezeya, eleuterokokk, akan-topanaks va b. o'simliklardagisi) ta'sirga ega, ba'zilar rakka qarshi (podofillum o'simligidagisi), gemorragik diatez va trombopeniya kasalliklariga qarshi (kunjut urug'idagisi) ta'sirga ega.

**Likvid** [*lot. liquidus* – suyuq, oquvchan]: **likvid mablag'lar** – *ml. iqt.* Qarz majburiyatlarini qoplash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan pul hamda tez, oson naqd pulga aylanadigan qimmatdor

dan, so'ngra Yevropa mamlakatlari va Yaponiyadan 1925-yilda Ittifoqqa keltirilgan va oq rus tovuq zotlarini chiqarishda foydalanilgan. Leggorn ko'pgina mamlakatlarda keng tarqalgan. 1925-yildan O'zbekiston parrandachilik fabrikalarida boqiladi.

**Lenta shaklida ekish** – keng qatorli ekishning bir turi bo'lib, lentasimon ekilgan o'simliklar guruhlarining oraligi ancha keng bo'ladi. 2–3 qator o'simliklar bir-biriga nisbatan yaqin bo'lib, ular xuddi shunday boshqa gruppadan keng qator bilan ajralib turadi. Yaqin qatorlar soniga qarab, ikki yoki uch qatorli lenta shaklida sepish deb nomlanadi. Bu usul don ekinlari navlarini tezroq ko'paytirish, tariq ekish hamda o'rmon hosil qilishda daraxt urug'larini ekish uchun qo'llaniladi.

**Lespedeza** (*lespedeza michx*) – dukakdoshlar oilasiga mansub o'simliklar. Tibbiyotda ikki turining yer ustki qismi ishlatiladi: *L. dvusvetkovaya* (*L. bicolor Turcz.*) – **ikki rangli lespedeza**. Bo'yi 1–1,5 m ga yetadigan buta. Sibir, Uzoq Sharq, Saxalin, Kuril orollaridagi o'rmon tepaliklarida, daraxtlar kesilgan yerlarda o'sadi. *L. Kopeyechnikovaya* (*L. hedy-saroides* (Pall.) Kitag.) – **xedizarumsimon lespedeza**. Bo'yi 20–30 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Uzoq Sharqdagi quruq qoyalarda, daryo bo'ylarida, shag'alli, qumli, ba'zan quruq yerlarda o'sadi. Ikkala turining yer ustki qismida flavonoidlar (lespedin, kversetin, kemiferol), katexin, fenol-karbon kislotalar, moddalar bor. Yer ustki qismining tindirmasi (nastoykasi) va flavonoidlar yig'indisining dori preparati siydik haydash va azotemiya kasalligiga qarshi ta'sirga ega. Buyrak, siydik yo'llari kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Shuningdek, bu preparatlar qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va yomon shishlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Xalepin preparati (yer ustki qismidan olingan xedizarumsimon lespedeza) virusga qarshi ta'sirga ega bo'lib, uchuqni davolashda qo'llaniladi.

**Leyka** [*r. lit* – «quymoq, oqizmoq» *fl. dan yasalgan ot*] – o'simlik va gullarga suv sepish uchun ishlatiladigan, jo'mragining uchi teshik-teshik idish. *Muhabbat hovlida gullarga leykada suv berib yurar edi*. (O. Yoqubov, «Ikki muhabbat»).

**Liberallashtirish, liberalizatsiya** [*lot. liberalis* – erkin ozod] – mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida keng erkinliklar berish; iqtisodiyotga va fuqarolar shaxsiy hayotiga davlat aralashuvini bekor qilish yoki kamaytirish. Narxnavoni liberallashtirish. *Hozir sud-huquq tizimida liberallashtirish davom etmoqda*. (Gazetadan).

**Lignanlar** – asosida fenilpropan ikki molekulasining o'zaro birlashgan formasi bo'ladi. Dorivor o'simliklarda asosiy ta'sir etuvchi biologik faol modda sifatida lignanlarning o'ziga xos xususiyati bor. Ular organik erituvchilar, efir moylari, yog'lar va smolalarda yaxshi eriydi, turli farmakologik ta'sirga ega. Ba'zilar stimulyator (mizandra, levezeya, eleuterokokk, akan-topanaks va b. o'simliklardagisi) ta'sirga ega, ba'zilar rakka qarshi (podofillum o'simligidagisi), gemorragik diatez va trombopeniya kasalliklariga qarshi (kunjut urug'idagisi) ta'sirga ega.

**Likvid** [*lot. liquidus* – suyuq, oquvchan]: **likvid mablag'lar** – *ml. iqt.* Qarz majburiyatlarini qoplash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan pul hamda tez, oson naqd pulga aylanadigan qimmatdor

narsalar (veksellar va b. qimmatbaho qog'ozlar).

**Limit** [*lot. limes, limitis* – chek, chegara] – biror narsaning cheklangan normasi, foydalanish uchun belgilangan chegara-viy, chekli miqdor; cheklov. Baho limiti. Limit belgilamoq. *Xo'jaliklarga kapital qurilish uchun limit belgilab qo'yilsa, shuning o'zi kifoya.* (Gazetadan).

**Limon** [*yun. limoni < f.*] – 1 bot. Aso-san, janubiy mamlakatlarda o'sadigan doimo yashil subtropik o'simlik va uning tuxumsimon sariq nordon xushbo'y mevasi. Limon daraxti. Limon solingan choy. *Hozir Markaziy Osiyoning janubiy qismlarida shakarqamish, limon singari mevalar yetishtirilmoqda.* («Fan va turmush»).

**Limonariy** – limon o'stiriladigan, yetishtiriladigan maxsus joy. *Limonariyda o'stirilayotgan limon ko'chatlarining dastlabki bir necha tupi hosilga kirdi.* (Gazetadan).

**Limuzin zoti** – go'shti uchun boqiladigan qoramol zoti, Fransiyaning markaziy va jan.-g'arbiy viloyatlaridagi go'shtdor qoramollar zotlaridan tanlash va saralash asosida yaratilgan. Fransiyaning Limuzin tarixiy viloyati nomi bilan atalgan. Zot sifatida XIX asrdan ma'lum. Limuzin zoti mollari tez yetiluvchan, muskullari kuchli rivojlangan, suyaklari ingichka, tusi qizil. Buqalari vazni 1000–1200 kg, sigirlari vazni 600–650 kg. Sigirlari serpusht. Yillik sog'imi 1500–1800 l. Buzoqlari sut emish davrida jadal o'sadi va 8 oyligida tirik vazni 240–300 kg ga yetadi. Buzoq go'shti olish maqsadida 3 oylik buzoqlar 150–170 kg ga yetganda so'yiladi. Buqachalar go'shtga jadal boqilganda 12 oyligida 500 kg vaznga yetadi. Limuzin har xil tabiiy xo'jalik sharo-

itga yaxshi moslashadi. AQSH, Angliya, Vengriya, Germaniya, Rossiya va b. davlatlarda ko'plab tarqalgan. Belorussiya, Ukraina, Litva va b. da Limuzin zotidan boshqa zotlar bilan chatishtirishda samarali foydalanilmoqda. Limuzin zotli buqalar urug'i O'zbekistonga 2002-y. dan boshlab olib kelinib, Farg'ona hamda b. viloyatlar bo'rdoqichilik korxonalari va fermer xo'jaliklarida kammahsul bo'lgan sigirlarni sanoat usulida chatishtirishda foydalanilmoqda.

**Liniya** – biror mashhur nasldor erkak hayvondan tarqalgan va konstitutsiyasi hamda mahsuldorligi jihatidan unga tortgan zotli hayvonlarning yuqori mahsuldor gruppasi.

**Liniyalar krossi** – turli xil liniyali mollarni chatishtirish.

**Liniyali urchitish** – liniyalar bo'yicha urchitish. Zotini yoki zot ichidagi podani yaxshilash maqsadida mollarni liniya ichida urchitish. Liniyali urchitish sxemasi har qaysi chorva mollari turi uchun maxsus ishlab chiqiladi.

**Linkoln qo'y zoti** – go'shti va juni uchun boqiladigan yarim mayin junli to'qol qo'ylar. XVIII–XIX asrlarda Angliyaning Linkoln graffligida jaydari qo'ylarni leyster qo'chqorlari bilan chatishtirib chiqarilgan. Qo'chqorlari 130–190 kg, sovliqlari 80–90 kg. Qo'chqorlari yiliga 9–10 kg, sovliqlari 6–6,5 kg jun beradi. Junining uz. 20–30 sm, bir xil, rangi oq, ipakdek tovlanuvchan, pishiqlik 55–65% sof jun chiqadi. Tolasining ingichkalik sifati 36–44. 100 sovliqdan o'rtacha 120 qo'zi olinadi. XX asrning 60-yillarida O'zbekistonda Parkent va Ohangaron tumani xo'jaliklarida Linkoln qo'y zoti ishtirokida jaydari qo'ylar negizida go'sht-jun yo'nalishidagi duragay

va murakkab duragay (Linkoln qo'y zotini merinoslar bilan chatishtirishdan olingan duragaylardan foydalanib) qo'ylar olindi va ko'paytirildi, go'shtdor-jundor O'zbekiston qo'y zotini yaratish va uni takomillashtirish ishlari boshlandi. Bu duragay qo'y jaydari qo'ylarga qaraganda 2–2,5 marta ko'p jun beradi, uz. 13–16 sm (q. **Mayin junli qo'ylar**).

**Lint** [ingl. *lint* – paxta momig'i] – tola ajratib olinganda, paxtaning chigitda qoladigan kalta tuki va undan hosil qilinadigan xomashyoning bir turi. *Lint va tola chiqaruvchi mashinalar shitob bilan ishlaydi.* (S. Muhiddinov, «Oppoq tolar»). *Lint deb ataluvchi bu kalta tolaning har tonnasidan 800 kilogrammgacha toza sellyuloza olish mumkin.* («Fan va turmush»).

**Linter** [ingl. *linter* – momiq ajratkich] – 1. Paxtasi ayirib olingan chigitlarning yuzida qolgan kalta tolalarni, tuklarni ajratib, chigitni tozalab, tuksizlantirib beradigan mashina.

2. Shunday mashinada chigitdan ajratib olingan tola-tuklardan iborat paxta; linter paxta. *Avvalgi linter paxta ko'rpa-to'shakdan boshqasiga yaramasdi.* (Gazetadan).

**Lipidlar** – tirik organizmning to'qima va suyuqliklari tarkibiga kiruvchi o'simlik va hayvonlarning organik birikmalari gruppasi; ular ximiyaviy tuzilishi va biologik ahamiyati jihatidan har xil. Hayvonlarning to'qimalarida ham erkin holatda, ham oqsil, uglevod va boshqa lipidlar bilan birikkan holatda uchraydi. Lipidlar suvda erimaydi yoki kam eriydi, organik erituvchilar: benzol, spirt, aseton, efir va b.da eriydi.

**Liqqo(q)** – oftob urishidan, biror kasallanishdan ichi bo'shashib qolgan; suvli

(uzum haqida). *Soli uzumdan yeb ko'rdi... ba'zilari shirasiz, ba'zilari liqqo.* (Y. Shukurov, «Uch savol»).

**Lizing** [ingl. *lease, leasing* – ijara; ijaraga shartnomasi; ijaraga bermoq] – asosiy ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlari) va b. tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanish uchun qarzni asta-sekin uzish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berish yoki olish. *Lizing kompaniyasi. Lizing shartnomasi.*

**Litr** [fr. *litre* < yun. *litra* – og'irlik o'lchovi] – metrik o'lchov sistemasida hajm va sig'im o'lchov birligi; 1000 g kimyoviy sof suvning hajmiga teng keladigan suyuqlik o'lchov birligi. *Bir litr sut. Uch litr keladigan idish.*

**Litraj** [fr. *litraje*] – biron-bir idishning litr bilan o'lchanadigan hajmi.

**Litsenziya** [lot. *licentia* – ijozat, ruxsat] – 1. Amaldagi qonunlarga ko'ra muayyan faoliyatni amalga oshirish (mas., chetga mol chiqarish yoki chetdan mol olib kelish) uchun davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsat. «O'zbeknavo», *adashmasam, har bir ijrochiga maxsus litsenziya (ya'ni ruxsatnoma) beradi.* (Gazetadan). *O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasi bilan ishlayotgan bu muassasa Nishon tumanida joylashgan.* (Gazetadan).

2. Muayyan shaxslarga mavjud, rasmiy tan olingan ixtiro, texnologiya, ishlab chiqarish sirlari va b.dan foydalanish huquqini berish.

**Lishaylar** (*lichenes*) – vegetativ a'zolar (poya, barg va ildizlar) ga ajralmagan tuban o'simliklarga oid organizmlar. Ular tarkibida faqat lishaylar sintez qiladigan lishay kislotalar (usnin, tamnoliyeva, prototsetrar, everniyeva va b.), ko'p miqdorda saponinlar, uglevodlar, triterpen (ur-

sol) kislota, yog'lar, pigmentlar, oqsil va boshqa moddalar bor. Lishay kislotalari, ayniqsa, usnin kislota antibiotik (stafilokokk, streptokokk, pnevmokokkga va b.ga qarshi) ta'sirga ega. Usnin kislota-ning natriy tuzi – «Binan» preparati antibiotik sifatida yaralarni, yiringli yaralarni, kuygan yerlarni va b. kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. «Binan» preparatini olish uchun lishaylarning bir qancha turlari ishlatiladi. Ular G'arbiy Yevropada keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, sovuq va baland tog'li yerlarda, qarag'ayzorlarda yaxshi o'sadi. Ba'zilar kosmopolit, ba'zilar endemik tarqalgan.

**Lishaynik** [*lot. lichens* < *yun. liechen* – lishay, zamburug'] – *bot.* Zamburug'lar va suvo'tlar ittifoqidan tarkib topgan, alohida morfologik va fiziologik xususiyatlarga ega bo'lgan tirik organizmlar majmui.

**Lichinka** [*r. lichinka* < *lichina* – niqob, maska < *lik* – yuz, bet tasviri] – ba'zi jonli organizmlar (qurt, hasharot, baliq va sh.k.)ning rivojlanish (tuxumdan chiqish) bosqichi, shu davrdagi holati; g'umbak. *Urg'ochi kana 3000–4000 ta, ayrim turlari esa 20 000 tagacha tuxum qo'yadi. 19–28 kun o'tgach, kana tuxumidan lichinkalar chiqadi.* («Fan va turmush»).

**Lobeliya** (*lobelia inflata L.*) – Lobeliyadoshlar (*Lobeliaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 40–70 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Vatani Shimoliy Amerika. Krasnodar o'lkasi, Voronej va Moskva viloyatlarida o'stiriladi. Yer ustki qismi tarkibida alkaloid (lobelin va b.)lar bor. Dori preparati – lobelin gidroklorid nafas markazini qo'zg'atuvchi vosita sifatida is gazi bilan zaharlanganda, elektr toki, chaqmoq va o'ftob urganda, shikastlanishda, operatsiya

vaqtida hamda yangi tug'ilgan chaqaloqlarning nafas ololmay qolishi – asfiksiyada qo'llaniladi.

**Logistika II** [*ingl. logistics*] – inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta'minlashni boshqarish tizimi.

**Logistika tizimi** – u yoki bu ishlab chiqarish korxonalarini, xizmat ko'rsatish muassasalari, o'quv yurtlari asosiy faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlovchi infratuzilmalar tizimi.

**Lokalizatsiya** [*lot. localis* – mahalliy, biror joyga xos < *locus* – joy, o'rin] – biror narsani aniq bir joy, o'ringa daxldor qilish; biron-bir voqea yoki jarayonning harakatini, tarqalib ketishini chegaralash, to'xtatish.

**Lokatsiya** [*lot. locatio* – joylashtirish] – obyekt o'rini, joyini u chiqarayotgan, aks ettirayotgan signal, belgi (odatda, tovush yoki elektromagnit to'lqinlar)ga qarab aniqlash.

**Lokay (laqay) ot zoti** – laqay Tojikistonning qadimiy otlaridan biri. U mahalliy otlarni qorabayir, axaltaka, arab va mo'g'ul zotlari bilan chatishtirish tufayli yaratilgan. Laqay zotiga mansub otlar yil davomida yaylovda asraladi. Ularning eksteryerini quyidagicha xarakterlash mumkin: boshi o'rtacha kattalikda va to'g'ri; beli to'g'ri, ayrim hollarda bukri; ko'kragi keng, kuragi to'g'ri qo'yilgan; oyoqlari uzun va mustahkam; orqa oyoqlari ko'pincha qilichsimon qo'yiladi; tuyoqlari kichik va mustahkam. Ayrimlarining qarchig'ay balandligi 146,0 sm, ko'krak aylanasi 162,0 sm, biyalarining qarchig'ay balandligi 143,0 sm, ko'krak qafasi aylanasi 162,0 sm keladi.

**Lok daraxti** (*Rhus vernicifera Stokes*) – pistadoshlar oilasiga mansub, kuzda bargi to'kiladigan daraxt. Balandligi

20 m gacha boradi. Asl vatani Xitoy. MDH mamlakatlarida lok daraxti, asosan Kavkazning Qora dengiz bo'ylarida o'sadi. Uning po'stlog'idan lok, urug'idan mum olinadi. Urug'idan ko'paytiriladi, il-dizidan ko'p bachki chiqaradi.

**Lola (Tulipa L.)** – piyozguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi. MDH mamlakatlarida lolaning 63 turi uchrasa, Markaziy Osiyo florasida lolaning 55 turi uchraydi, ya'ni lola turkumidagi bioxilmaxillik eng yuqori bo'lgan markazlardan biri hisoblanadi. Lola piyozi orqali ko'paytiriladi. Lolaning ko'plab madaniy navlari yaratilgan. Lolaning gullash davri 20–25 kunni tashkil etadi. Ko'kalamzorlashtirishda ko'plab ekiladi.

**Loman Braun zoti** – Germaniya davlatida yaratilib, bu zotning birinchi tovuqlari Lomann Tirtsuxt fermasida paydo bo'ladi, bu ularga nomlanishining bir qismini beradi. Loman Braun tovuqlari go'sht va tuxum yo'nalishiga tegishli, ammo ularni yetishtirishda ustuvor vazifa tuxum mahsuldorligiga tegishli. Yiliga tuxum ishlab chiqarish 300–320 dona, tuxumining vazni 65 gr.

**Los** [*f.* – xom ipak chiqindisi] – 1. Pilla tortganda chiqadigan kalta-kulta ipak tolalari, chiqindi ipak. *Brigada boshlig'i naychani loslardan tozaladi, so'ngra joyiga qo'ydi. Mashina avvalgidek gurullab, ishga tushib ketdi.* (M. Boboshev, «Fabrika iftixori»).

2. Shunday chiqindidan siyohdon ichiga (tagiga) solib qo'yiladigan narsa. *So'ngra tokchadan los solingan davot, qamish [qalam] va qog'oz olib, xontaxta ustiga qo'ydi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Losos** [*r.* < *qad. nem. Lahs*] – go'shti yumshoq pushtirang yirik baliq.

**Lotok I** [*r. lot.* – tarnov, yassi tog'ora < *qad. nem. latta* – taxta] – ko'chadan chakana savdo qilish uchun mo'ljallangan ochiq peshtaxta, ko'chma do'koncha.

**Lotok II** – sement va b. narsa qorishmasidan ishlangan va bir-biriga ulab ishlatiladigan beton tarnov; suv yo'li; ariq. *Allaqayerdan tortib kelingan beton lotok-ariq barakdan ikki yuz qadamcha narida tugab, hali ulanmagan bir nechta lotok yerda yotibdi.* (H. G'ulom, «Zamin yulduzlari»). *Bizlar paxtada ishlaymiz-u, lotoklar biqinidagi yerlarga qovun-tarvuz ekib, shundan olamiz rizqimizni.* (S. Narov, «Narvon»).

**Loviya** [*f.* – loviya] – dukkaklilarga mansub bir yillik o'tsimon o'simlik va uning ovqat uchun ishlatiladigan doni. *Yo'lning bir yog'i loviya, mosh ekilgan dala...* (M. Mahmudov, «Mangu kuy izlab»). *Loviyaning oziqlik qimmatini moshga teng.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Loy** [*f.* – balchiq, loyqa; cho'kindi; botqoq] – 1. Nam ta'sirida yoki suv bilan qorishib, yumshoq va yopishqoq massa holiga kelgan tuproq. *Yomg'ir yog'di – ko'cha loy bo'ldi. Mashina loy sachratdi. Bola suvni ko'p sepib, yerni loy qilib yuborgan edi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»). *Deyarlik har qadamda bir poy kavushi oyoqdan tushib, loyga botar, qiz engashib olar... edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Loy bo'lmoq** – 1) loy tegib ifloslanmoq. *Adolat ajriq kovlagan edi, barmog'i loy bo'ldi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»); 2) xijolatdan, uyatdan qizarib, yerga qaramoq, noqulay ahvolda qolmoq.

2. Suv ostiga o'tirib qolgan tog' jinslaridan, qum, tuproq zarrachalaridan hosil bo'lgan cho'kindi; balchiq (Ba'zi

turlari shifobaxsh bo'lib, davolash maqsadlarida ishlatiladi). *Ariqning loyini tozalamoq*.

3. Tuproqni suvga qorib, ba'zan somon, jun kabi narsalar aralashtirib tayyorlangan maxsus qurilish materiali. *Somonli loy. Kulol loyi. Loy pishitmoq. Loy suvoq. Sovuqda loy qorib, oyog'imiz kesak, burnimiz sholg'omday bo'lib ketdi*. (E. Rai-mov, «Ajab qishloq»).

**Loygarchilik** – yog'indan yerning loy bo'lib ketishi. *Kuz loygarchiligi. To'lamat... loygarchilik bo'lgani uchun, mineral o'g'it traktorda tashib keltirilganidan xabardor edi*. (S. Anorboyev, «Oq-soy»).

**Loyiha** [*a.* – ro'yxat; nizom, qoida; reja, dastur] – 1. Bino, inshoot, mashina va sh.k.ni qurish yoki tiklash uchun ishlangan, tayyorlangan hujjatlar (chizma, hisob-kitob, andoza, nusxa va sh.k.) majmui. *Binoning loyihasi. Loyiha tuzmoq. Loyihaga ko'ra, uy cherdagiga o'rnatilgan quyosh batareyasi suvni kislorod hamda vodorodga ajratadi*. («Fan va turmush»).

2. Qaror, farmon, qonun va sh.k. hujjatlarning dastlabki xomaki matni. – *Qarorning loyihasi ham bor, – deb rais knopkani bosdi*. (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Loyihalash** – *maxs.* Mo'ljallangan obyektlar (asbob va jihozlar, bino va inshootlar, turli mashina va apparatlar, kiyim-bosh va mebellar)ning yangi xil va namunalarini qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish.

**Loyqa, balchiq** – 1 *sft.* Loy, tuproq, chang va sh.k. tushib bulg'angan, loyqalangan loyqa suv. Suv havzalaridagi juda mayda dispers zarralardan iborat loysimon cho'kindi. U suvning sekin oqishi

natijasida daryo, kanal, suv omborlari, suv havzalari tubida hamda qishloq xo'jaligi ekinlari sug'orilgandan so'ng dalaning etak qismida yig'ilib qoladi. *Mart o'zi bilan yomg'ir boshlab keldi... Jilg'alardan sharillab loyqa sel oqdi*. (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Pastda juda katta loyqa ko'l to'lqinlanib yotar ... edi*. (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»). *Uning oti suv yoqasida bosh chayqab, orqaga tisarilib, pishqirayotgan loyqa daryoga tushishga jur'at qilolmasdi*. (H. G'ulom, «Mash'al»).

2 *ot.* Suvda yoki suyuqlikda suzib yurgan loy va sh.k. lar zarrasi va ularning suv havzalaridagi loysimon quyqasi, cho'kindisi; balchiq. *Hovuz loyqaga to'lib qolibdi. Chelak tagiga loyqa o'tiribdi. Musallas loyqasi tinib qolibdi. Daryo oqimi har yili 200 million tonna loyqa olib keladi*. (I. Jabborov, «Ko'hna xarobalar siri»).

3 *ko'chma.* Noaniq, aralash-qurash. *Loyqa xayolotlar chashmaday tin-di. Pok-pokiza yurak – bir qatra simob*. (G'.G'ulom).

4 *ko'chma.* Biror ishning yomon oqibati, oxiri, natijasi. *Olamanku-ya... Ketidan loyqa chiqmasa deymand-da..* (I. Shokarimov, «Urug'-aymoqlar»).

**Lochin** – 1. Yirtqich qushlar turkumining chaqqon harakatli bir turi; ovchilar uni qo'lga o'rgatib, qush ovlaydilar. *Porillab uchadi cho'lning lochini*. («Oysuluv»). *Makoni ikki lochinning: biri qoya, biri osmon. Qanoti ikki shoirning: biri o'lka, biri ochun*. (E. Vohidov, «Muhabbat»). 2. *ko'chma.* Shu qushga nisbatli belgini bildiradi; epchil, chaqqon; shijoatli. *Mamajon lochin yigit, Serhara-kat, betinim*. (Q.Muhammadiy). *Uning orqasidan «lochinlari» ham ot qo'yishdi*. (K. Yashin, «Hamza»).

**Lub** [*r. lub* – shilinadigan narsa, po'stloq] – kanop, jut, zig'irpoya kabi tola beradigan o'simliklar va ular po'stlog'ining (tolasining) umumiy nomi. *Jut tolali o'simlik bo'lib, respublikamizning lub ekinlari ichida birinchi o'ringa chiqib bormoqda.* («Fan va turmush»). *Respublikamizning lub ekinlari ekuvchi xo'jaliklari jut va kanopdan yaxshi hosil yetishtirdilar.* (Gazetadan).

**Lubkor** – lub ekinlari ekuvchi, yetishtiruvchi. *Brigada lubkorlari kanop ekishni ham birinchilardan bo'lib tugatishdi.* (H. Sulaymonov, «Yashnayotgan dala»).

**Lub tolalari** – tolali o'simliklar (zig'ir, kanop, jut, rami, kendir, nasha o'simligi va b.) poyasidan ajratib olinadigan to'qimachilik tolalari. Bu o'simliklar (lub ekinlari) poyalarida *kambiy* va *perisikl* orasida joylashgan to'qimalar lub tolalarini tashkil qiladi.

**Lub tolali ekinlar, lub ekinlari** – poyasi po'stlog'idan tola olish uchun ekiladigan bir yillik va ko'p yillik ekinlar. Ularga tolali *zig'ir*, tolali *nasha*, *kanop*, *jut*, *kendir*, *rami*; tolasi bargida rivojlanadigan ekinlardan Yangi Zelandiya zig'iri va tolali *banan*, *agava*, *yukka* kiradi.

**Lupa** [*fr. loupe* < *lot. lupa* – teri ostidagi katta shish, o'sma] – kichkina narsani 2 martadan 40–50 martagacha katta qilib ko'rsatadigan qavariq shisha, yig'uvchi linza; zarrabin. *Yuzlari o'tobda qoraygan o'rta yoshlardagi kishi olmaday toshni uchirib oldi-da, qo'lida aylantirib, lupa bilan sinchiklab qaradi.* (M. Xudoyqulov, «Ohanrabo axtarib»).

**Luchchak** – 1. **luchchak shaftoli** – tuksiz, silliq shaftoli. *Oydinda chiroyli yiltiragan chillaki luchchak shaftolilar*

*duv-duv to'kildi.* (Oybek, «O.v. shabada-lar»).

2 **ko'chma**. Ko'kragi ochiq, chapani. *Luchchak aravakashlar o'zlariga xos chapani so'zlar bilan bir-birlarining nomini chalpiib, erkalab chaqirishadi.* (H. No'mon va A. Shorahmedov, «Ota»).

**Lyugolya eritmasi** – 300 ml distillangan suvda bir gramm yod va 2–5 gr kaliy yodi bo'lgan bo'yovchi modda. Bakteri-yalarni Gramm usulida bo'yashda, mikroorganizm hujayralaridagi zaxira moddalarni (kraxmal, glikogen) aniqlashda foydalaniladi.

**Lyuks II** [*lot. lux* – yorug'lik] – Xalqaro birliklar tizimida yoritilganlik o'lchov birligi.

**Lyuksmetr** [*lot. lux* – yorug'lik + *yun. metreo* – o'lchayman] – fotometr-larning bir turi; yoritilganlikni bevosita lyukslarda o'lchaydigan asbob.

**Lyumen** [*lot. lumen* – yorug'lik] – Xalqaro birliklar tizimida yorug'lik oqimi birligi.

**Lyuminessensiya** [*lot. lumen, luminis* – nur, yorug'lik + *escent* – kuch-siz, sust harakatni, ta'sirni ifodalovchi qo'shimcha] – muayyan moddaning biror tashqi energiya manbai – tashqi nurlanish, elektr razryadi, kimyoviy jarayonlar va sh.k. qo'zg'atishi natijasida nurlanishi, nur sochishi va bu holatning modda qizishiga sabab bo'lmasligi.

**Lyutserna** – yo'ng'ichqa; beda.

**Lo'k** [*f.* – kalta yungli, yuk tashuvchi tuya] – boshi kichikroq, bo'yni uzun, bir o'rkachli katta tuya, yetakchi tuya. *Qatoriga tirkalgan lo'k bilan norcha, Ustiga yuklangan qirmizi parcha.* («Alpomish»).

**Lo'kki** [*f.* – lo'killab yurish] – lo'killab yuradigan (ot, tuya, eshak ha-



qida). *Eshak bozoridan olgan kurram... arvoh urgan davang, lo'kki chiqib qoldi.* («Mushtum»).

**Lo'kcha** – yosh tuya. *Muna tog'da bo'ktirilgan qormisan, qatorga tirkalgan lo'kcha normisan.* («Alpomish»).

**Lo'ppak** – ayn. **lo'ppi 2.** *G'o'za juda bo'liq edi, qirqqa yaqin chanoqdagi paxta lo'ppak bo'lib turipti.* (H. No'mon, «Fasllar»).

## M

**Mablag'** [*a.* – naqdina, tayyor pul; o'lcham; daraja; chegara] – biror narsa yaratish, qurish, o'tkazish va sh.k. uchun sarflanadigan, ishlatiladigan ma'lum miqdordagi pul va b. narsalar. *Xalil Jalilovning takliflari davlat uchun necha yuz minglab mablag'ni tejaydi.* (Tuyg'un, «Do'stlik sevinchlar»). *Davlat fan ravnaqi uchun hech narsani ayamay mablag' ajratsa-yu, uni kimlardir talon-toroj qilsa?!* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

**Madaniy** [*a.* – shaharlik; madinalik, Madinaga xos] – **1.** Madaniyatga oid, madaniyat, ilm-ma'rifat bilan bog'liq, madaniyat sohasidagi. *Madaniy inqilob. Madaniy ehtiyojlar. Madaniy meros. Korxonada yoshlar o'rtasida madaniy tadbirlar ko'plab o'tkaziladi.* (Gazetadan).

**2.** Madaniyatli, madaniyatni egallagan; madaniyatga erishgan, madaniyat talablariga javob beradigan. *Madaniy odam. Madaniy oila. Madaniy qishloq. Madaniy hayot. Ko'pchiligi ularga yoqdi... xushmuomala, madaniy odamlar ekan.* («Tanih basharalar»). *Muzey, teatrlarga qatnayman tez-tez... Madaniy bo'lsin-da bu uch zumrashang!* (A. Muxtor).

**3 q.x.** Kishi qo'li, mehnati bilan ekiladigan, yetishtiriladigan. *Madaniy ekinlar.*

**Lo'ppi** – **1.** Do'mboq, do'ndiq, semiz. *Lo'ppigina bola. Yuzi shirmoy nondek lo'ppi, gavdasi yum-yumaloq, ko'krakdor yosh ayol.* [Mastura] *tom labiga kelib... cho'qqaydi.* (Oybek, «O.v.shabadalar»). *Ko'm-ko'k ko'zli latta qo'g'irchoqning lo'ppi yuzi olmadek qip-qizil edi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**2.** To'lib chiqqan, ochilgan (paxta haqida). *...Xuddi o'zining yuziday chiroyli, lo'ppi paxtalar... («Yoshlik»)*

*Madaniy landshaft. Madaniy o'simliklar yetishtiriladigan tuproq... tog' jinslaridan o'zining unumdorligi bilan farq qiladi.* («Fan va turmush»). *Bizning mo'tadil iqlimimizda asalarilar yovvoyi va madaniy holda ko'plab uchraydi.* (R.To'ychiyev, «Asalarichilik»)

**Madaniy o'simliklar** – inson tomondan oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat uchun xomashyo olish, chorva mollari uchun oziqa yetishtirish, turarjoy hamda atrof-muhitni ko'kalamlashtirish va b. maqsadlarda yetishtiriladigan o'simliklar.

**Madaniy g'o'zalar** – ekib kelinyotgan, qimmatli xo'jalik belgilariga ega g'o'za turlari. Tabiatda ma'lum bo'lgan 50 tur g'o'zadan 4 tasi madaniylashtirilgan: *hindixitoy g'o'zasi (G. arboretum L.), afrika – osiyo g'o'zasi (G. herbaceum L.), meksika go'zasi (G. hirsutum L.), peru g'o'zasi (G. barbadense L.).* G'o'zaning madaniy shakllari yovvoyi turlardan tabiiy tanlanish va sun'iy tanlash, qulay yashash sharoiti hamda evolutsiya jarayonida odam mehnati va ongli faoliyati tufayli paydo bo'ladi.

**Mahalliyashtirmoq** – mahalliy sharoitda qo'llamoq, mahalliy sharoitga

moslashtirmoq. *Ekinni mahalliy lashtir-moq.*

**Mahalliy nav** – biror mamlakat, o'lkani yoki hududda ekiladigan va shu joyning tabiiy iqlim sharoitiga yaxshi moslashgan madaniy ekinlar navlari.

**Mahalliy o'g'itlar** – bevosita xo'jaliklarning o'zidan chiqadigan o'g'itlar. Ularga go'ng, go'ng shaltog'i, ko'pgina organik moddalar, jumladan, o'simlik qoldiqlari, xo'jalik chiqindilari va boshqalardan tayyorlangan turli kompostlar kiradi. Mahalliy o'g'itlar tuproqning fizik-kimyoviy va biologik xossasini yaxshilaydi.

**Mahsul** [*a.* – yig'ib-terilgan hosil, meva; samara; natija, unum] – 1. Ish faoliyat, mehnat samarasi, mevasi. *Ijodiy mehnatning mahsuli. U ko'tarinki kayfiyatda edi, kechagi, bugungi ish mahsulidan xursand.* (M. Xayrullayev, «Ko'ngil»).

2 ayn. **mahsulot.** *Og'ir sanoat mahsuli. Paxta bizning g'alabamizni belgilab beruvchi asosiy mahsulimizdir.* (Gazetadan).

3. Hosil, unum. *Yer ham tirik jon. Insondek nafas oladi, oziqlanadi, nihoyat, mahsul beradi.* (S. Karomatov, «So'nggi barxan»). *Dehqon osmonga qarab, yaxshi havodan quvonsa, yerga qarab, mo'l hosilidan suyunadi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t. o»).

4 *ko'chma.* Biror narsadan yuzaga kelgan narsa; natija. *Yigitalining rangiga birroz zahillik uribdi. Bu muttasil davom etib kelayotgan uyqusizlik, adadsiz iztiroblarning mahsuli, albatta.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»). *Xulosa shu; ehtiros yo'q, bu ezmalik, beparvolik mahsuli.* («Mushtum»).

**Mahsuldor** – ko'p, yaxshi hosil beradigan; sermahsul, serunum. *Mahsuldor yer. Mahsuldor qoramollar. O'zbekistonda yaqin vaqtlargacha asosan paxta yetish-*

*tirilardi. Uning yoniga eng mahsuldor ekin... – bug'doy qo'shildi.* (Gazetadan).

**Mahsuldorlik** – mahsul (hosil) berish darajasi, imkoniyati. *Bu sessiyalarda... chorvachilikning mahsuldorligini oshirish masalalari muhokama qilingan.* («Mushtum») ... *xo'jalik mahsuldorligini oshirishning omillari xilma-xildir.* («O'TA»).

**Mahsulot** [*a.* – «mahsul» s. ko'pl.] – ishlab chiqarilgan narsa; mahsul(lar) yalpi mahsulot. *Chorvachilik mahsulotlari. Sanoat mahsuloti. Bo'yoq olish uchun neft chiqindilari va toshko'mirni kovlashdan olingan mahsulotlar asosiy xomashyo hisoblanadi.* («Fan va turmush»).

**Mahsulotlar sifatini nazorat qilish** – oziq-ovqat mahsulotlari (xomashyolar) ning foydalanishga yaroqliligi va tegishli sifatini ta'minlashga qaratilgan davlat tadbirlar sistemasi.

**Majburiyat** [*a.* – majburlik; noilojlik; burch] – 1. G'ayriixtiyoriy vazifa, burch yoki biror majburiy ish, holat, ehtiyoj. *Toshkent jo'nash uchun o'zida majburiyat his etar... boshqa chora yo'q edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Xaloyiq ham sekin-asta tarqaldi – hokim kelmagan, o'tobda sarg'ayishning majburiyati qolmagan edi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o»).

2. Mehnat ahllarining biror ishni bajarish uchun bergan qat'iy va'dasi. *Zveno bo'yicha majburiyat har gektaridan o'n bir sentner edi, hozir o'n to'rt berdik.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Ikki brigada musobaqalashib, yuqori majburiyatlar olgan.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

3. **Majburiyat** (huquqda) – fuqarolik huquqiy munosabati. Unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga

oshirish (mol-mulki topshirish, ishini bajarish va h.k.)ga yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatini bajarishni talab qilish huquqiga ega.

**Majburiy sug'urta** – davlat sug'urtasi shakllaridan biri, qonun asosida belgilangan shartlarga binoan davlat sug'urta tashkiloti tomonidan o'tkaziladi. O'zbekistonda qishloq xo'jalik korxonalari bo'yicha tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar qaytarilishi uchun qishloq xo'jalik korxonalarining javobgarligi; qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish ishlarini o'tkazish uchun avans tariqasida beriladigan va fyuchers kontraktlari bo'yicha mablag'lar qaytarilishi; qishloq va shaharda garovga qo'yilgan mol-mulk; qishloqdagi transport ekinlarining fuqarolik javobgarligi va b. majburiy tartibda sug'urtalanadi.

**Majmag'il** [*a.* – yo'qolib ketgan, yashamay qo'yan] – 1. O'sishi, rivoji orqada qolgan, yaxshi o'smagan; nimjon. *Majmag'il o'simlik. Majmag'il bola. Lekin yog'ingarchilikdan so'ng qatqaloq bosishi natijasida yosh nihollar majmag'il bo'lib yotibdi.* (Gazetadan).

2 *ko'chma, s.t. Mujmal, lanj, dudmol, noaniq. Majmag'il javob. Men bu majmag'il bilan ishlasha olmayman.* (O. Yoqubov, «Bir felyeton qissasi»).

**Majnuntol** – *bot.* Toldoshlar oilasiga mansub, novdalari yerga egilib o'sadigan daraxt. *Ular kokillari suv o'pib turgan majnuntollar tagidagi ariqda yuz-qo'l yuvisharkan, Qulahmatni askiyaga olishardi...* («Guldasta»).

**Makiyon** [*f.* – tovuq, uy parrandasi] – 1. Moda qush, parranda. *Bedananing makiyoni. Qirg'ovulning makiyoni.*

2. Shunday qushga nisbatli so'kish, haqoratni bildiradi. – *So'zga quloq sol, shallaqi makiyon! – Yormat ko'zlarini nayzaday qadadi...* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Makka** – *shv.* Makkajo'xori. *Mana, hozir ham makka uqalayapman-u, qiziq-qiziq afandilarni o'ylab... o'zimni o'zim kuldirib o'tiribman.* (X. To'xtaboyev, «Besh bolali yigitcha»).

**Makkajo'xorikorlik** – makkajo'xori yetishtirish ishi, qishloq xo'jaligining makkajo'xori yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. *Hukumatimiz oziq-ovqat programmasini amalga oshirishga astoydil bel bog'lab, makkajo'xorikorlikdagi o'z otaliq ishlarini yanada yaxshilashga intilmoqda.* («Guliston»).

**Makler** [*nem. makler* – vositachi, dalol] – fond, tovar va valyuta birjalarida tuziladigan kelishuvlarda dalol; pulli vositachilik xizmatlarini amalga oshiruvchi ishbiarmon (*q. broker*).

**Makro** [*yun. makros* – uzun, katta] – o'zlashma baynalmilal qo'shma so'zlarning birinchi qismi: a) «katta», «ulkan», «katta o'lchamli»; b) «katta buyum va miqdorlarni o'rganish yoki o'lchash bilan bog'liq» ma'nolarini bildiradi.

**Makroiqlim** – yirik hududlar va suv havzalari (Yer, geografik mintaqa, qit'a, okean va b.) iqlimi.

**Makroiqtisodiyot** – iqtisodiyotning jahon yoki yirik bir mamlakat iqtisodiyoti, umuman, milliy xo'jalikka oid katta miqyosdagi iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni o'rganuvchi bo'limi. *Yig'ilish hamda seminar-kengash ishida respublika Bosh vazirining birinchi o'rinbosari, makroiqtisodiyot va statistika vaziri... so'zga chiqdi.* (Gazetadan).

**Makroiqtisodiy** – makroiqtisodiyotga oid, tegishli. Makroiqtisodiy siyosat. *Makroiqtisodiy tahlil... asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi qarorning bajarilishini ta'minlash borasidagi asosiy vazifalar muhokama etiladi.* (Gazetadan).

**Makroko'rsatkich** – asosiy (yirik, muhim) ko'rsatkich. *Makroko'rsatkichlar, shuningdek... barqarorlikni aks ettiruvchi boshqa ko'rsatkichlar yangi tizimning asosi hisoblanadi.* (Gazetadan).

**Makrostruktura** [makro.. + struktura] – qattiq jismlar (mineral, metall va b.) ning oddiy ko'zga yoki lupalar orqali ko'rinadigan tuzilishi; makrotuzilish.

**Malaka** [*a.* – qobiliyat, iste'dod; xususiyat, odat] – kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, ko'nikmalar; mahorat. *Malaka hosil qilish. Malaka oshirish. Qambar kelib, o'zining malaka orttirgan xizmatini bajara boshlagach, Yo'lchi qorong'i supadagi taqir namat ustiga cho'zildi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Jangchilar zarur bo'lgan malakani orttirishi bilanoq beto'xtov frontga yuboriladi, deb taxmin qilgan edi.* (A.Qahhor, «Oltin yulduz»).

**Malina** [*r. malina* – tutsimon meva] – ayn. xo'jag'at.

**Malich qo'y zoti** – terisi va suti uchun boqiladigan dag'al junli qo'y zoti. Asl vatani Osiyo bo'lgan bu qo'y zoti Qrim va Kubanda keng tarqalgan (chorvadorlar dumli qo'ylarni «malish qo'ylar» deb ataydilar). Dumining shakli, yog'liligi qorako'l qo'ylarinikiga o'xshaydi va dumli qo'ylar guruhiga kiradi. Qo'chqorlarining o'rtacha tirik vazni 55–60 kg, sovliqlarini 40 kg. Sog'ish mavsumida 35–40 l sut, yiliga 2–2,5 kg jun beradi. Qo'zilari teri olish uchun 2–3 kunligida so'yiladi.

Ko'proq oq, qora va kamroq kulrang tusda. Qo'zilari terisi qorako'l qo'zilar terisiga o'xshamasa ham, lekin terisi yuqori baholanadi. Malich qo'y zoti tog' va cho'l-dasht sharoitiga moslashgan.

**Mamont daraxti yoki gigant sekvoyya-dendron** (*Sequoia-dendron giganteum*) – Taksodiydoshlar oilasiga mansub dunyodagi eng yirik daraxt: balandligi 110 metrgacha, diametri 10 metrgacha boradi. 2500–4000 yilgacha yashaydi. Bitta yirik daraxtlarida 3 ming tonnagacha yog'och zaxirasi yig'iladi. Yog'ochi sifatli va chirishga chidamli. Qubbalarining bo'yi 5–8 sm, eni 5 sm, oval yoki tuxumsimon bo'lib, soxta soyabon shaklida tuzilgan. Qubbalari ikkinchi yili yetiladi, bu paytda u jigarrangga kiradi. Urug'i mayda, yupqa, oval shaklida, tiniq sariq rangda, ingichka qanotchali. Bir grammda 2800 dona urug'i bor. Bahaybat sekvoyya-dendron urug'idan ko'payadi. Ildizdan bachkilashi, to'nkasidan o'sib chiqishi mumkin. Qalamcha va payvand yo'li bilan ko'paytirilsa ham bo'ladi. Bu daraxt tez o'sadi. Qrimda, Kavkazda, Markaziy Osiyoda introduksiya qilingan. Shimoliy Amerikaning Tinch okeani sohillari va janubiy shtatlarida tabiiy tarqalgan. Ko'kalamzorlashtirish uchun ekiladi.

**Malyariya** [*ital. malaria* < *mala aria* – yomon havo] – q. bezgak.

**Manbashunoslik** – tarixiy manbalarni izlab topish, qayd etish, to'plash, o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish nazariyasi va amaliy usullari haqidagi fan (tarix va adabiyotshunoslikda yordamchi fan hisoblanadi).

**Mandarin I** [*isp. mandarin*] – 1. Janubiy mamlakatlarda o'sadigan bir turli sitrus o'simligi va uning to'q sariq rangli, terisi yupqa, xushbo'y mevasi.

**Manej** – 1) to'g'ri to'rtburchak yoki doira tarhli, ichki qismi pardevorsiz bino yoki maydon. Ot sporti, yengil atletika, gimnastika va sh. k. sport turlari bo'yicha mashg'ulot o'tkazish uchun qurilgan yopiq bino. Unda sport qurollari va jihozlarini saqlash uchun yordamchi xonalar bo'ladi. Manejda turli sport o'yinlari, gimnastika, kurash kabilar bo'yicha mashg'ulotlar va xalqaro musobaqalar o'tkaziladi. Qishda isitish, yozda esa shamollatish uskunalari b-n jihozlanadi. Toshkentdagi «Yoshlik» sport majmuasi manejining umumiy mayd. 3900 m (1500 o'rinni), zamonaviy talablar asosida qurilgan. «Jar», «Yunusobod» tennis korti va turli viloyatlardagi sport majmualarining manejlari diqqatga sazovor;

2) sirk zali o'rtasiga aylana shaklda ishlangan tomosha maydoni, arena.

**Manfaat** [a. – foyda, daromad] – moddiy, ma'naviy, jismoniy va b. jihatdan (ko'riladigan) foyda, naf. *Manfaat topmoq. Manfaat ko'rmoq. Bu ishdan hech manfaat ko'rmadim. Doridan yaxshi manfaat topdim. [Dadavoy:] Xalq yo'lida jonni ayamalik darkor. O'z manfaatimizdan xalq manfaatini yuqori qo'yaylik. (Uyg'un, «Navbahor»).*

**Manfiy daraxt** – seleksion inventarizatsiya natijasida past sifatli deb baholangan daraxtlar. Ular zararlangan, kasal, qiyshiq tanali, tanasida shoxlari ko'p bo'lgan va manzaraviylikni yo'qotgan daraxtlardir. Manfiy daraxtlardan urug' tayyorlashga yo'l qo'yilmaydi.

**Mango** [malayyacha] – Janubiy Osiyoning tropik o'rmonlarida o'sadigan doimo yashil daraxt (Ayrim turlarining ovalsimon shirin xushbo'y mevasi shundayligicha yoki tuzlangan holda ovqat sifatida ishlatiladi).

**Mangustan** (*Garcinia mangostana*) – dalachoydoshlar oilasiga mansub ikki uyli past bo'yli daraxt. Osiyo tropiklarida mevasi uchun o'stiriladi. Mevasi dumaloq (apelsindek), qizil yoki jigarrang-binafsha, xushbo'y, mevasi nordon shirin, iste'mol qilinadi.

**Maniok** (*Manihot Adans.*) – sultandoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi. Vatani Janubiy Amerikaning tropik qismi. Yovvoyi holda o'sishi ma'lum emas. Uning 130 tacha madaniy turi ma'lum bo'lib, ular ichidan yeyiladigan maniok (*Manihot esculenta Grantz.*) ko'proq ekiladi. Uning bo'yi 1,5–5 m ga boradigan, tez o'sadigan, doim yashil buta bo'lib, poyasining ostki qismida 15–20 kg keladigan yirik tugunaksimon ildiz hosil bo'ladi. Maniokni Janubiy Amerika va Afrikaning mahalliy aholisi eng muhim oziq-ovqat o'simligi sifatida keng miqyosda ekadi. Ildiz tugunagi non yoki kartoshka sifatida ko'p ishlatiladi. Undan olinadigan kraxmal to'qimachilikda, kauchuk, spirt tayyorlashda, shuningdek boshqa sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

**Manometr** [yun. *manos* – zich emas, siyrak + *metreo* – o'lchayman] – damlangan bug', gaz yoki suyuqlik bosimini o'lchaydigan asbob.

**Manqa II** – ot va boshqa yakka tuyuqli hayvonlarda bo'ladigan, ba'zan odamga ham o'tadigan yuqumli kasallik.

**Manzarali bog'dorchilik** – bog'dorchilikning manzarali o'simliklar o'stirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i (*Bog'dorchilik, Manzarali o'simliklar*).

**Manzarali o'simliklar, dekorativ o'simliklar** – kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladigan turli botanik oilalarga mansub madaniy va yovvoyi o'simliklar guruhi.

**Manchin merinosi** – bu zot Stavropol va Avstraliya merinosi zotlarini kesib oʻtgan. Tana tuzilishi yaxshi rivojlangan. Junining zichligi 1 sm<sup>2</sup> ga 9 ming jun tolasi toʻgʻri keladi. Junning choʻziluvchanligi bir tekis boʻlib, shtapelning butun uzunligi boʻylab aniq ifodalangan 22–25 mkm va qoʻchqorlar uchun 25–27 mkm. Yogʻ va ter nisbati 7: 1 ga yaqin. Sof junning mahsuldorligi 54–56%, yuvilgan junning mahsuldorligi 57–58% ni tashkil etadi. Zotning naslchilik yadrosi uning nomidagi naslchilik zavodlarida yaratilgan.

**Manchjur bedana zoti** – boʻyin va qanotlarni qoplagan jigarrang tuklar oltin rang taassurotini beradi. Erkaklari urgʻochilarga qaraganda bir oz quyuqroq. Tirik vazni: urgʻochilariniki 160–180 g, erkaklariniki 140–160 g. Tuxum ishlab chiqarish: yiliga 280 dona, ogʻirligi 12–15 g. Manchjur bedana tuxumlari boshqa zotlarga qaraganda biroz kattaroqdir.

**Maral** – bugʻularning katta ayri shoxli yirik bir turi. *Bulbulning maskani bogʻda, Maral kelar baland togʻda.* («Bahrom va Gulandom»). *Sen maral koʻzidan chiroyli...* (Sh. Rahmon).

**Marganesli oʻgʻitlar** – tarkibida marganes boʻlgan oʻgʻitlar. Marganesli oʻgʻitlarga maxsus tayyorlangan oʻgʻitlar va preparatlar, marganes bilan boyitilgan mineral oʻgʻitlar va baʼzi sanoat chiqindilari kiradi. Tuproqqa ekishdan oldin solinadi, vegetatsiya davrida oʻsimliklarni oziqlantirishga hamda ekish oldidan urugʻlarni ishlashda qoʻllaniladi.

**Margarin** [*fr. margarine* < *yun. margaros* – sadaf] – mol yogʻi, oʻsimlik moyi hamda maza va xushboʻy hid beruvchi boshqa moddalar aralashmasidan tayyorlangan omixta yogʻ.

**Marinad** [*fr. marinade* < *mariner* – namakobga solmoq] – 1. Meva va sabzavotlarni saqlash (marinadlash) uchun sirka, tuz, shakar va turli ziravorlardan tayyorlangan suv. 2. Sabzavot, qoʻziqorin, meva va b. mahsulotlardan shunday suv (marinad) quyib, maxsus tayyorlangan ovqat turi. *Oynavand tokchalarda sabzavot konservalari, meva sharbatlari, marinadlar... kompotlarni koʻrib, koʻzingiz quvonadi.* (M. Mahmudov, «Irmoqlar qoʻshilib»).

**Marinadlamoq** – meva va sabzavotlarni marinadga solib konservalamoq, marinad qilmoq.

**Marinka** [*lot. marinus* – dengizga oid, mansub] – baliqning chuchuk suvlarda yashovchi, goʻshti mazali boʻlgan mayda turi. *Bu suvlarda som, sazan, marinka kabi baliqlar serob.* (Gazetadan).

**Marinovka** – s.t. Marinadlash. [*Oshkoʻklar*] Sabzavotlarni tuzlash, marinovka qilish va konservalashda juda ham bebahodir. (Gazetadan).

**Marjondaraxt** (*Sambucus L.*) – turkumning vakillari buta yoki kichik daraxt boʻlib, boʻyi 8 m ga yetadi, shox-shabbasi tarvaqaylab oʻsadi, poʻstlogʻi kulrang, boʻyiga yorilgan boʻladi. Kurtaklari yirik, tuxumsimon, uchi oʻtkir. Poyasining oʻzagi yumaloq, gʻovak boʻladi. Barglari murakkab toq patsimon tuzilgan boʻlib, har bir barg qarama-qarshi joylashgan 3–7 ta bargchadan iborat boʻladi. Bargchalari tuxumsimon, cheti tishchali, yonbargchalari bor. May-iyun oylarida gullaydi. Gullari mayda, toʻgʻri tuzilgan, oq, xushboʻy boʻlib, shoxchalarning yuqori qismida 90–100 tadan toʻplanib, roʻvak hosil qiladi. Ular ikki jinsli, besh aʼzoli tipda. Mevasi 3–5 ta mayda danakchali

rezavor meva, avgustda yetiladi, seret qizil-binafsha rangda. Barglari to'kilib ket-sa ham, yetilgan mevalari butada saqlana-di, uni qushlar iste'mol qiladi va tabiatda tarqatadi. Urug'i mayda, yonidan ezik. Bu turkumning qariyb 25 ta turi bo'lib, ular mo'tadil va subtropik iqlimli zonalar-da tarqalgan. O'zbekistonda 2 turi: **gora marjondaraxt** (*Sambucus nigra* L.) va **qizil marjondaraxt** (*Sambucus racemosa* L.) ko'kalamzorlashtirishda foydalani-ladi.

**Markali** – 1. Markasi bo'lgan, marka yopishtirilgan. *Markali konvert*.

2. Biror markaga, navga taalluqli (*q. marka I 3*). *DT-54 markali traktor. Oliy markali choy*.

**Marker II** – *q.x.* Egat olish va ekin ekish uchun reja chizig'i tortuvchi asbob; xatkash.

**Marketing** (*ingl. market* – bozor, bo-zordagi harakat, faoliyat) – korxonaning tovarlar ishlab chiqarish va sotishni tash-kil etish hamda boshqarish shakli. Bozor-ni bilish (iste'molchilarni har tomonlama o'rganish, ularning did va istaklarini bi-lish), bozorga moslashish, bozorga ta'sir o'tkazish marketingning asosiy tamoyil-laridir. Shuningdek, marketingni qo'llash bilan bog'liq masalalarni kompleks ra-vishda o'rganish; mahsulot assortimentini rejalashtirish; talabni va savdoga rag'bat beradigan tadbirlarni shakllantirish, savdo va taqsimot; boshqarish va nazorat qilish marketing faoliyatining mazmunini belgi-laydi.

**Marmarak** (*salvial*) – *bot.* Labgul-doshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub yirik xushbo'y gulli ko'p yillik o'tsimon yoki butasimon o'simlik. Qrim, Zakav-kazye va Markaziy Osiyoning tog'li tu-manlarida yovvoyi holda o'sadi. Mar-

marakning to'p gulidan oziq-ovqat va parfyumeriya sanoatida ishlatiladigan qimmatli efir moyi olinadi. Tibbiyotda uch turidan foydalaniladi: 1. **Dorivor marmarak** (*Sh. lekarstvennyi – S. Offici-nalis* L.) – bo'yi 20–50 sm. ga yetadigan yarim buta. MDH mamlakatlarida tabiiy holda uchramaydi. Moldaviya, Ukraina, Krasnodar o'lkasi va Qrimda o'stiriladi. Tibbiyotda bargi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, ursol va oleanol kislotalar, oshlovchi va b. moddalar bor. Bargining damlamasi burushtiruvchi, de-zinfeksiyalovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo'llari yallig'lanishida, tomoq, og'iz va milk shilliq pardalari yallig'lanishida og'iz chayish uchun qo'llaniladi. Bargi tomoq, me'da kasalliklari va ichketarda ishlatiladigan choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. 2. **Efiopiya marmaragi** (*Sh. efi-opskiy – S. Aelhiopis* L.) – bo'yi 50–100 sm. ga yetadigan ikki yillik o't o'simlik. Ukraina, Kavkaz hamda Markaziy Osiyo cho'llarida va tog'larning quruq qiyalik-larida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavono-idlar, glikozidlar va b. moddalar bor. Yer ustki qismi Zdrenko choyi-yig'masi tarki-biga kiradi. 3. **Xushbo'y marmarak**. (*Sh. muskatniy – S. sclarea* L.) – bo'yi 50–100 sm. ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. MDH mamlakatlarining Yevropa qismi, Kavkaz va Markaziy Osiyo tog'larining etaklari hamda pastki qismidagi tog' dara-larida, toshloq qiyaliklarida va bog'larda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishla-tiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, oshlovchi va b. moddalar bor. Qaynatma-si xalq tabobatida yurak tez urganda, kishi darmonsizlanganida, bezgak, buyrak ka-

salliklarini davolashda hamda ovqat hazm bo'lishini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Ekstraktidan tayyorlangan surtmasi va ekstraktning konsentrati – salmus teri kasalliklari (psoriaz – po'stloqli temiratki va b.)ni davolashda yaxshi natijalar bergan. Shuning uchun bu preparatlar ilmiy tibbiyotda ishlatilishiga tavsiya etilgan. Efir moyidan dorishunoslik amaliyotida suyuq dori shakllarining hidi va ta'mini yaxshilashda foydalaniladi. Xalq tabobatida marmarakning yana ikki turi: **4. Tikkanli marmarak** (*Sh. kolyuchiy* – *S. Spinosa* L.) va **5. Cho'l marmaragi** (*Sh. pustinniy* – *S. tleserla Schaug*) ishlatiladi. Yer ustki qismining damlamasi yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarda hamda tomoq og'riganda uni chayish, ishtaha ochish va tashnalikni qondirish uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismi tarkibida efir moyi, oshlovchi va b. moddalar bor.

**Marvak:** **marvak tut** – *shv. ayn. marvarid tut* (*q. marvarid*). *Qari marvak tut ostidagi supa bo'm-bo'sh*. (X. Sul-tonov, «Onamning yurti»).

**Marvartak:** **marvartak tut** – *shv. ayn. marvarid tut* (*q. marvarid*). *Bo-lalar yerdan joy topolmay, marvartak tutlarga chiqib olganlar*. (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»). *Farg'onaliklar marvartak, toshkentliklar balx tuti deb atashadi uni*. («Mushtum»).

**Marvaridgul** (*Convallaria majajlis*) – piyozguldoshlar oilasiga mansub, guli oq, xushbo'y va chiroyli bo'ladigan, ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Erta (may-iyun oylarida) gullashi bilan ham katta qimmatga ega. Ildizpoyasidan o'sib chiqqan bachkilari orqali ko'payadi.

**Marvaridgul** (*convallaria* L.) – Lo-ladoshlar (*Liliaceae*) oilasiga mansub,

ko'p yillik zaharli o't o'simliklar turkumi. Tibbiyotda uch turining yer ustki qismi va ayrim guli va bargi ishlatiladi. **Zakavkazy marvaridguli** (*L. zakavkazskiy* – *S. transcaucasica Utk.*) – Kavkaz va Qrim o'rmonlarida o'sadi. **Keyske (Yapon) marvaridguli** [*L. Keyske (yaponskiy)* – *S. keiskei Miq.*] – Uzoq Sharq, Saxalin, Ural va Baykal ko'li atrofida o'sadi. **May marvaridguli** (*L. Mayskiy* – *S. majajlis* L.) – G'arbiy Yevropa qismidagi aralash va keng yaproqli o'rmonlarda, butalar orasida, qisman cho'llarda va daryolar vodiysida o'sadi. Tarkibida yurak glikozidlar (konvallotoksin, konvallozid), flavonoidlar, kumarinlar, efir moyi moddalari bor. Dori preparatlari damlamasi, tindirmasi (nastoykasi), konvallotoksin va korglikon yurak va qon tomirlar ishining og'ir va surunkali yetishmasligi, yurak nevrozida qo'llaniladi. Yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladigan turli murakkab preparatlar tarkibiga kiradi. Keyske marvaridguli bargidan olingan konvaflavin preparati jigar, o't qopi va o't yo'llari kasalligida o't haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

**Maryam daraxti, Tog'urchi** (*Vitex agnus-sastus* L) – tizimguldoshlar oilasiga mansub, uncha katta bo'lmagan daraxt, balandligi 1–3 m gacha boradi. Guli qizil yoki oqish rangda bo'lib, ro'vaksimon yirik to'pgul hosil qiladi. Barglari barmoqsimon, mevasi quruq danakli. Hozirda manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

**Marza** [*f. chegara, sarhad; o'lka; egat*] – *q.x.* **1.** Ekinzor yoki uning bir bo'lagini boshqa bo'lakdan ajratish uchun ma'lum balandlikda tuproq uyib hosil qilingan chegara; egat, yo'l. *Yerni toza-*



lab bo'lganidan keyin xirmon joyining marzalarini hozirgisidan ikki baravar baland qil. (S. Ayniy, «Doxunda»). *Chol marzadan yurib, o'qariq bo'ylab ketdi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»). **Marza olmoq.** Yer maydonida shunday chegara – yo'l hosil qilmoq. *Chigit ekiladigan yerlarni kartalash, marza olib, bostirib sug'orish payti keldi.* (J. Qodirov, «Attang deb qol-mang»). *U kunduzlari... yelkasida ketmon ko'tarib, dalaga chiqadi, marza oladi, yer tekislaydi.* (N. Fozilov, «Qush qanoti bilan»). **2.** Ariq sirti; pushta. *Kunni kech qilish niyatida marza ustiga chiqib, tut soyasida o'tirdim.* (O. Husanov, «Nay»). *Boshlariga savat qalpoq kiygan suvchilar marzalarda yonma-yon yurishibdi.* (S. Anorboyev, «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar»).

**Massa** [lot. *massa* – bo'lak, parcha] – **1 fiz.** Mexanikaning eng muhim fizikaviy xossalaridan biri; materiya (jism) ning inertlik va gravitatsion xossalarini ifodalaydigan fizik kattalik. *Massa bilan bir qatorda energiya ham fizika fanining asosiy tushunchalaridandir.* («Fan va turmush»).

**2 maxs.** Yaxlit yoki bo'tqasimon jism yoki modda. *Amudaryo suvi loyqa. U kanaldan oqa boshlagach, unga loyqa o'tirib, berch massaga aylanadi.* (Gazetadan). *Muz massasining qalinligi aniqroq o'lchanadi.* (Gazetadan).

**Mas'uliyat** [a. – javobgarlik, hisob berishlik] – biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik. *Mas'uliyat yuklamoq. Mas'uliyatni o'z ustiga olmoq. Mas'uliyat sezmoq. Mas'uliyatga tortmoq. Xalq nomzodlari o'zlarining intizomlilik, yuksak mas'uliyat hissi bilan ajralib turdi.* (Gazetadan).

**Masshtab** [nem. *Mawstab* < *Maw* – o'lchov + *stab* – tayoq] – joyning, narsaning haqiqiy o'lchami bilan uning kartadagi, plandagi, chizmadagi, aerofotosuratdagi kichraytirilgan yoki kattalashtirilgan o'lchami o'rtasidagi nisbat. *Masshtab 1:10. Kichraytiruvchi masshtab. Masshtab lineykasi.*

**Mastak** [f. < zaharli o't nomi] – g'alla ekinlari orasida o'sadigan, doni zaharli, bir yoki ko'p yillik yovvoyi o't. *Bir necha yil davomida O'zbekistonning turli rayonlarida mastak o'simligining urug'larini to'pladim.* («Fan va turmush»).

**Mastak II** – kaklikning modasi. *Suvonjonning qo'lida qafas. Ichida tipirchilayotgan narsa mastak kaklik.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Mastit** (hayvonlarda) – sigir va echkilar tuqqanidan keyingi davrda sut bezlarining yallig'lanishi. Mexanik (lat yeyish va jarohatlanish, mashinada sut sog'ish qoidalarining buzilishi), termik (sovuq urishi, kuyish) omillar, kimyoviy moddalar ta'sirida, mikroorganizmlar (stafilokokklar va b.), mikoza kasalliklarda, yo'ldosh ushlanib qolganda, hazm organlari, buyrak faoliyati buzilganda mastit paydo bo'ladi. Mastit yallig'lanishning xarakteriga ko'ra seroz, kataral, fibrinoz, yiringli va gemorragik mastitlarga bo'linadi. Kasallik o'tkir, o'rtacha va surunkali kechadi. Bundan tashqari, *klinik mastit* va *yashirin mastitlarga* ajratiladi. Seroz yoki kataral mastitda tana harorati 39–39,5 gacha ko'tariladi, hayvon holsizlanadi, yelin shishadi, qattiqlashadi, og'riydi, sut kamayadi, ivib qoladi, unga qon va yiring aralashgan bo'ladi.

**Matamoq** – bir-biriga bog'lab biriktirmoq, birlashtirib bog'lamoq. *U ham to'rt otni bir-biriga matab, oshpaz uzat-*

gan yarimta zog'ora kulchani katta-katta tishlagancha yo'lga tushardi. (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»). *Barini yig'ib, otlariga matab ketishti-da!..Boysunga ensakmi, deb o'ylashib o'tirib edik.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»).

**Matkatak** – shv. Cho'ponlarning toshdan qurilgan kulbasi.

**Mauley behisi** (*Chaenomeles Maulei*) – balandligi 1,0–2,0 metrgacha bo'lgan buta o'simligi, 3–4 yoshdan boshlab martda gullay boshlaydi, sekin o'sadi, sovuqqa chidamli buta. Tuproq unumdor bo'lishi kerak, ochiq joy, quyoshli maydonda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli. Kam sho'rlangan tuproqda ham o'saveradi, tutun va gazga chidamli. Kesish yo'li bilan har xil shakllar hosil qilish mumkin. O'simliklarni yozda gullash davri tamom bo'lgandan so'ng kesiladi. Respublikaning barcha viloyatlarida manzarali o'simlik sifatida ishlatilishi mumkin, kuchli sho'rlangan tuproqlar bundan mustasno. Gullash davrida manzarali ko'rinish hosil qiladi. Shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda guruh-guruh holidi yoki yakka holidi, past jonli devorlarda va bordyurlarda ekish tavsiya etiladi. Landshaft qurilishda istiqbolli o'simlik hisoblanadi.

**Maviz** [f. – qora mayiz] – esk. Mayiz va mayizdan tayyorlangan, kayf beruvchi ichimlik; may. *Ul vaqt biz, boshimizga xoh kulfat tushsin, xoh baxt qushi qo'nsin, birga bo'lgaymiz, bir maviz topsak, bo'lib yegaymiz deb... ahd qilgan erdik.* (M. Osim, «Sehrli so'z»). *Uy egasining aytganidek, maviz juda ham tiniq, yaxshi ko'k choy kabi musaffo edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Mavrak** – bot. Labguldoshlar oilasiga mansub, barglari uzun, gullari ko'k,

binafsha, ko'p yillik o't yoki yarim buta (xalq tabobatida quvvatlantiruvchi, turli yallig'lanish, shamollashlarni davolovchi dori sifatida qo'llanadi).

**Mavsum** [a.ma'lum vaqt; sezon; bayram] – 1. Yilning ma'lum fasli yoki vaqtida bo'ladigan yoki amalga oshiriladigan ish davri. *Paxta mavsumi. Yig'im-terim mavsumi. Qurt tutish mavsumi. Bog' mavsumi tamom bo'lib, Shakarxonlar ham shahar hovlilariga ko'chib keldilar.* (Oydin, «O'zidan ko'rsin»). *Katta futbol mavsumiga respublikamiz jamoalari ham hozirlik ko'rishdi.* (Gazetadan). *Avgust oyi – o'zbek diyorining yanada so'lim bir mavsumi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

2. s. t. Fasl, yil fasli. *Kuz mavsumi. Yoz mavsumi.*

**Mavsumiy** [a. ma'lum vaqtga, mavsumga oid] – ma'lum mavsumda bo'ladigan, mavsumga oid. *Mavsumiy ish. Mavsumiy shamollar. Qishda bekor yotadigan va yozda foydalaniladigan mavsumiy xumdon normal ishlatilmaydi.* (Gazetadan). *Dala shiyponlari ham, mavsumiy yaslilar ham xo'jako'rsinga bor.* (A. Xalilov, «Paxtakorlarga g'amxo'r bo'laylik»).

**Mavsumli** – ayn. **mavsumiy**. *Yig'im-terim mavsumli ish, kechiksang, yutqizasan.* (I. Rahim, «Ixlos»)

**Maxorka** [r. maxorka – tamakining arzon navi] – tamaki o'simligining dag'al bargi va novdalaridan tayyorlangan past navli chekimlik. *Mahmud uy tomonga bir qarab qo'ydi-da, yonidan maxorka olib o'radi.* (S. Zunnunova, «Olov»).

**Maxsar** – urug'idan moy, gulidan bo'yoq olinadigan to'pgulli bir yillik yoki ko'p yillik o'tsimon o'simlik.

**Maxsarsimon levzey**a (*rhaponticum sarthamoides* (WILLD.) *Leuzea carthamoides* D. S.) – Murakkabguldoshlar (*Ast-*

*caaceae*) oilasiga mansub. Bo'yi 50–200 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Sibir, Sayan, Kuznes, Olatog' va Oltoy tog'larining 1700–2000 m balandlikdagi o'rmonlarida va o'rmon yoqalarida o'sadi. Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida oz miqdorda efir moyi va alkaloidlar, smola, lignanlar, oshlovchi moddalar bor. Dori preparati suyuq ekstrakti jismoniy va aqliy jihatdan charchaganda, ish qilish qobiliyati pasayganda, nerv sistemasi ishi buzilishida organizm quvvatini oshiruvchi va markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Suyuq ekstrakti surunkali ichkilikbozlik kasalligini davolashda ham ishlatiladi.

**Maxsus ahamiyatli ekinzorlar** – maxsus ekinzorlar belgilangan vazifani o'taydi: suv muhofazasi, tuproq muhofazasi, qum va qordan himoyalash va boshqalar. Ulardan dam olish maqsadlarida foydalanish mumkin emas.

**Mayda shoxli, kichik, ushoq mol** – qo'y-qo'zi, echki-uloq, taka, sarka, qo'ch-qorlarning umumiy nomi. *Ozroq pulim bor, ushoq mol olsammikin*.

**Maydon** [*f.* – ochiq joy, sayhonlik, dala] – 1. Hovli-joyga yaqin ochiq yer, sayhon yoki bog'cha; tomorqa. *Maydon ikki tanob kenglikda bo'lib, janubi qutidor va qo'shnisining imoratlari orqasidan va boshqa uch jihati ham shunga o'xshash binolardan iborat edi*. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Umuman, ochiq yer, sayhon yoki ekinzor. *Paxta maydoni. Ekin maydoni. Ilg'or xo'jaliklarning chigit ekilgan maydonlari yashil libosga burkandi*. (Gazetadan).

3. Biror ish-harakat, tadbir uchun mo'ljallangan yoki ish-harakat yuz bera-

digan, bajariladigan joy. *Sport maydoni. Mashq maydoni. Kurash maydoni. Jang maydoni. Mard maydonda bilinar*. (Maqol). *Amir yengildi, askarlari buzilib, urush maydonidan qochdilar*. (S. Ayniy, «Qullar»). *Ayniqsa, uzoq bo'layotgan maydonda tumonat odam*. (K. Yashin, «Hamza»).

4 *ko'chma*. Jabha, soha, doira. *Ish maydoni. Mafkura maydoni. Men qirq yildan buyon adabiyot maydonida qalam tebratib kelyapman*. (Oybek, «Xalqqa xizmat – baxt»).

5 *fiz.* Biror fizik hodisa ro'y beradigan yoki uning ta'siri seziladigan fazo. *Elektr maydoni. Magnit maydoni*.

**Mayin junli qo'ylar** – jun qoplami o'ta zich joylashgan tivit toifasidagi mayin toladan tashkil topgan qo'ylar guruhi. Mayin junli qo'ylar qadimdan urchitiladi. Avstraliya, Yevropa, AQSH, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ukraina va b. mamlakatlarda boqiladi. Mayin junli qo'ylar teri sathining 1 sm<sup>2</sup> maydonchasida 4–11 ming jun tolasi joylashgan bo'lib, o'rtacha diametri 25 mkm dan oshmaydi. Mayin junli qo'ylar junining jingalaklari bir me'yorda. Tolaning 1 sm<sup>2</sup> uzunligida 6–9 jingalak mavjud. Teri qatlamlaridagi yog' va ter bezlari mahsuli bo'lgan murakkab yog'-ter aralashmalari jun tolalarini sirtidan qoplab, tashqi muhitning noqulay sharoitlari (harorat, namlik) ta'siridan va ifloslanishidan asraydi. Junining o'rtacha uz. 7–10 sm. Asosiy jun mahsulotidan tashqari, mayin junli qo'ylardan go'sht ham olinadi. Shunga ko'ra, ular 3 guruhga: **jundor** (Ozarbayjon tog' merinosi, Stavropol zotlari va b.); **jun, go'sht** (Askaniya, Oltoy, Kavkaz va b.) va **go'sht-jun yo'nalishidagi** (arxaromerinoslar va

b.) zotlarga bo'linadi. Mayin junli qo'ylar 1 kg tirik vazni hisobiga 50–70 g va undan ham ortiqroq jun tola berishi bilan boshqa guruhlardan ustunlik qiladi, lekin jussasi maydaroq. Sovliqlarining tirik vazni 45–50 kg, qo'chqorlarniki 80–90 kg. Bir ona qo'ydan kamida 2,5–3,0 kg sof jun tolasini olish mumkin. XIX a. ning 70–80-y. lari va XX a. boshlari va o'rtalarida mayin junli qo'ylar O'zbekiston hududiga ham keltirilgan. Toshkent, Jizzax va b. viloyatlar xo'jaliklarida olib borilgan i. t. ishlari va kuzatishlar natijasida respublikada yarim mayin junli qo'ychilik tarmog'ining paydo bo'lishi va shakllanishi birmuncha jadallashdi.

**Mayiz** – oftobda, soyada yoki maxsus quritgich mashinalarda quritilgan uzum g'ujumi. Mayizbop uzum navlaridan tayyorlanadi. Quritish usuliga ko'ra, avlon (turli nav uzumlari oftobda quritiladi), *bedona*, garmiyon, *sabza*, soyaki va boshqa turlari bor. *Quritilgan uzum. Qora mayiz. Bolalarning qo'llarida non, turshak, mayiz solingan xaltachalar.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Mayna** – 1. Chumchuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi qush. *Arg'uvon shoxida ikki mayna bir-birini quvlashib o'ynaydi.* (J. Abdullaxonov, «Orif»).

2 *ko'chma.* Mazax bo'lgan kimsa, kulgi, masxara obyekt.

**Mayonez** [fr. *mayonnaise*] – tuxum sarig'i, o'simlik moyi, sirka va xilmaxil ziravorlarni aralashtirib tayyorlangan qayla. *Salatga mayonez qo'shmoq.*

**Maysa** – yangi ungan o't-o'lan. O'ti o'rib olingan yoki mollar o'tlatilgan yaylovlardan yangidan o'sib chiqqan o'tlar. *Ariq bo'ylarida, qir etaklarida o'tgan yilgi o'tlarning tomirlaridan nozik maysalar unib chiqa boshlagan.* (S. Anorboyev,

«Oqsoy»). *Kuzda ekilgan bug'doy va arpalarining maysalari qora yerning yuzini qoplab, zangori duxoba yopilganday edi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Maysazor** – maysalar o'sib yotgan yer, maydon. *U beixtiyor to'shakday yumshoq maysazorga o'tirib qoldi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Mazali** – ta'mi yaxshi, shirin; totli, lazzatli. *Mazali sho'rva. Mazali ovqat, ichkilik ilinjidami, restoranga kirgan odamning kayfiyati chog'lashadi.* (F. Musajonov, «Himmat»).

**Mazasiz** – ta'mi yomon, mazasi yo'q; lazzatsiz, bemaza.

**Mazut** [r. *mazut* – «mazat» fl. dan: surkalgan narsa; iflos dog'] – neftni qayta ishlab, benzin, gazolin va kerosin olingandan keyin qolgan quyuq massa, qoramoy. *Qora mazut yoqilib pishirilgan makaron sho'rvani ham mazza qilib ichishgan edi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Mashina** [fr. *machine* < lot. *machine* – inshoot qurilma] – energiyaning bir turini boshqa turdagi energiyaga aylantiruvchi, materiallar yoki axborotlarni to'plash, saqlash va o'zgartirish, aloqa o'rnatish, yuk va odamlarni tashish uchun mo'ljallangan mexanizm yoki mexanizmlar majmui. *Bug' mashinasi. Tikuv mashinasi. Qishloq xo'jalik mashinalari. Kir yuvadigan mashina. Yengil mashina. Yuk mashinasi. Stansiyaga olib boradigan bu yo'l serqatnov! Arava, mashinadan ko'pi yo'q.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Mashinasozlik** – xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun mashinalar va mashina asbob-uskunalari ishlab chiqaradigan og'ir sanoat sohalari majmui. *Mashinasozlik sanoati. Mashinasozlik korxonalari. Shuning uchun ko'pda qiynalмай, tushga yaqin qishloq xo'jaligi mashina-*

sozligi zavodiga yetib bordi. (S. Yunusov, «Kutilmagan xazina»).

**Mashinashunoslik** – mashina va mexanizmlarni yaratish, ulardan unumli foydalanishga doir nazariy bilimlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan fan.

**Mashoq** – bug'doyni o'rib-yig'ib olish paytida, o'rimdan keyin yerga to'kilib qolgan boshloqlar. *O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.* (Maqol). [Yo'lchi:] *Men yoshlikdan otamga qarashdim, poda boqdim, mashoq terdim.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Meduza boshli juzg'un yoki qizil qandim** (*Calligonum caput Medusae Schrenk*) – Markaziy Osiyoda Pomir-Oloyning janubi-g'arbida, Farg'ona vodiysi Yozyovon cho'lida, Qizilqumda, Balxash va Orol bo'ylarida keng tarqalgan, notekis qumliklar hududida o'suvchi o'simlik. Balandligi 2 m gacha yetadigan, shoxlari yaxshi rivojlangan bu o'simlik poyalari kuchsiz qayrilgan, kulrang va yashil bo'ladi. Gullari mayda, kalta bandli. Uch yoshga kirgan o'simliklar aprel oyida manzarali gullaydi. Mevalari 4 qirrali yong'oqcha shaklida 1,0–2,0 sm uzunlikda sharsimon sariq-qizg'ish, shoxchan, kuchli chirmashgan tikanli, ular har bir poyachalarida 2–3 qator bo'lib joylashadi. Shamol yordamida dumalab harakatlanaadi. May-iyun oylarida yetiladi. Tez o'sadi, 11 yoshli tanasining diametri 8 sm gacha yetadi. Qumlarni ushlab qolishda ishlatiladi. Keng tarmoqlangan ildiz tizimi qumni mustahkamlaydi. Sho'rlangan yerlarni ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilgan. Ihotazorlar barpo etishda keng foydalaniladi. Cho'l mintaqalarida, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi avto-

mobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirishga mos daraxt o'simligi.

**Mehnat** [*a.* – sinov; mashaqqat, og'irchilik] – 1. Biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat; ish. *Aqliy mehnat. Jismoniy mehnat. Mehnat intizomi. Mehnat – mehnatning tagi rohat.* (Maqol). *Mehnatga o'rgangan kishi mehnatsiz qolsa, mehnat xumor qiladi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

2. Biror maqsad uchun sarflanadigan kuch, g'ayrat, harakat. Bir tomondan, raisning obro'sini saqlash, ikkinchi tomondan, bu tadbirdan qattiq norozi bo'lgan odamlarga buning mohiyatini tushuntirish kerak bo'lib qoldi. *O'rmonjon bunga hiylagina vaqt va mehnat sarf qildi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Melioratsiya** (*lot. melioratio* – yaxshilash), *qishloq xo'jaligi melioratsiyasi* – yerlarning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumi. Melioratsiya tabiiy sharoit (tuproq, gidrologik, iqlimiy va boshqalar) majmuni kerakli yo'nalishda o'zgartirish; tuproqda ekinlarni yetishtirish uchun qulay bo'lgan suv-havo, harorat va oziq rejimini, atmosferaning yer yuzasiga yaqin qatlamida havoning harorati va harakatini o'zgartirish imkoniyatini beradi.

**Meliorativ** – melioratsiyaga oid. *Meliorativ ishlar. Meliorativ tadbirlar. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida keyingi vaqtlarda elektr energiyasi bilan harakatga keltiriladigan quduqsimon zovurlar keng qo'llana boshladi.* (A. Hakimov, «Charog'on qishloqlar»).

**Meliorator** – melioratsiya ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs, mutaxassis. *Yerlarni o'zlashtirish borasida o'zbek*

*melioratorlari boy tajriba to'plashgan.* (Gazetadan).

**Meliorativ gidrogeologiya** – *gidrologiya* fanining bir tarmog'i; qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligiga va yerning meliorativ holatiga yer osti suvlarining ta'sirini o'rganadi.

**Meliorativ rayonlashtirish** – yer va suv resurslaridan unumli foydalanish maqsadida melioratsiya obyekti (hududi – vodi, voha, xo'jalik)ni iqlim, tuproq va gidrogeologik sharoitlarga ko'ra region, viloyat, zona, rayon va kichik rayonlarga bo'lish. Meliorativ rayonlashtirish tabiiy sharoitlarning xususiyatlari va xo'jalik yuritish ahvolidan aks ta'sirini nazarda tutgan holda *yerlarning meliorativ holati* ko'rsatgichlarini atroficha o'rganishga asoslangan.

**Meliorativ tuproqshunoslik** – yerning noqulay tabiiy sharoitlarini (iqlim, tuproq eroziyasi, yer ko'chishi, surilishi, sel oqimi, qum ko'chishi, sho'rlanish, botqoqlanish, qurg'oqchilik, gidrologiya va gidrogeologiya sharoitlarini) o'rganadigan fan, *tuproqshunoslikning* bo'limlaridan biri.

**Mendelizm** [*chex tabiatshunosi Mendel (G.Mendel) nomidan*] – irsiyat qonuniyatlari to'g'risidagi ta'limot: genetikaning fan sifatida vujudga kelishiga asos bo'lgan.

**Menejment** (*ing. management* – boshqarish, tashkil etish) – maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish to'g'risidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligi, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamona-

viy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan iborat.

**Mereya** – teridagi tabiiy rasmlar. Har bir hayvon terisining o'ziga xos mereyasi bo'lib, u terini farq qilishga yordam beradi.

**Merinos** [*isp. merinos*] – qo'yning nozik va oq yungli zoti. *Gapning xullasi* – *Markaziy Osiyo sharoitida merinoslar uchun halokatli bo'lgan zaifliklar bartaraf etilar edi.* (S.Anorboyev, «Oqsoy»).

**Merinoslar** – bir xil mayin junli qo'y zotlari. Vatani – G'arbiy Osiyo, bu yerda mil. avv. 2–3 ming yilliklardan boqiladi, keyin O'rtayer dengizi mamlakatlariga, XVIII asr o'rtalaridan G'arbiy Yevropa, Shim. Amerika va Avstraliyada, XIX–XX asr boshlarida Rossiyada tarqalgan. Turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladigan *infantado, negretti, rambule, mazayev, yangi Kavkaz zotlari, shuningdek, XX asrning 20-yillaridan sobiq Ittifoqda oltoy, askaniya, groznen, kavkaz, salsk, Stavropol merinoslari* yaratilgan. Merinoslar juni ingichka (15–25 mkm), mayin, tivit tolali, uz. 6–8 sm. Qo'chqorlaridan 8–12 kg va undan ortiq, sovliqlaridan 4–6 kg jun qirib olinadi. Sof tola chiqimi 35–45%. Ular ko'pgina mamlakatlarda boqiladi. Ularning asosiy qismi Avstraliya (Avstraliya merinoslari) va Argentinaga to'g'ri keladi.

**Meteorologiya** [*yun. meteora* – samoviy va atmosferaviy hodisalar + *logos* – fan, ta'limot] – 1. Yer atmosferasi, uning tuzilishi, xususiyatlari va unda bo'ladigan fizik jarayonlar haqidagi fan.

2. Ob-havo va uni oldindan bilish metodlari haqidagi fan.

**Metis** [*fr. metis* – ikki tur (nasl)ning chatishuvidan paydo bo'lgan] – 1. Me-

tizatsiya yo'li bilan vujudga keltirilgan hayvon yoki o'simlik.

**Metizatsiya** [*fr. metisation < metis* – ikki tur (nasl)ni chatishishidan paydo bo'lgan] – *biol.* 1. Zotini va navini yaxshilash maqsadida turli zotdagi hayvonlarni va turli navdagi o'simliklarni chatishtirish; duragaylash.

2. Turli irqqa, mas., yevropaliklar bilan indeyslarga mansub er-xotindan bunyodga kelgan avlod; duragay.

**Metod** [*yun. methodos* – tadqiqot usuli, yo'li] – 1. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiqot qilish usuli. *Dialektik metod. Qiyosiy metod.*

2 q. usul, uslub. *Mehnatni ilmiy tashkil etishning yangi elementlari, davolashning yangi metodlari joriy qilinmoqda.* (Gazetadan).

**Metrologiya** [*yun. metron* – o'lchov + *logos* – ta'limot] – o'lchov va tarozilar haqidagi fan.

**Meva** (*fructus*) [*f.* – hosil, ho'l va quruq meva] – yopiq urug'li o'simliklarning urug'li organi; odatda, urug'lanish natijasida hosil bo'ladi.

1. Ba'zi daraxt va butalarning hosili. *Yeyishli meva. Yeb bo'lmaydigan meva. Ho'l meva. Quruq meva. Meva sharbati. Marjon kabi qizargan mevalarini ko'tara olmay, turli tomonga bosh ekan jiyda daraxtlari uzoqdan kumush kabi oqarib ko'rinadilar.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *O'lkamizda kuz, mevalar g'arq pishgan palla.* (Gazetadan).

2. Mevali daraxt. *Said, Mirzaqullar yosh meva ko'chatlarini qo'porar, Haydar ularni to'plab, bog'-bog' qilardi.* («O'zbekiston qo'riqlari»). *Uncha katta bo'lmagan, chog'roq hovlining o'zida o'n xilcha meva navlari bor.* (J. Abdullaxo'nov, «Oriyat»).

3 *ko'chma.* Samara, natija, mahsul. *Ilohi bo'lgaysan, bolam, barkamol. Umrimning mevasi – bir toza nihol.* («Ravshan»). *El taomilida: keksalar hamisha maslahat berishar, yoshlar esa o'sha maslahat mevalarini terishar edi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

4. Shakarpazlik mahsulotlari, shirinlik. [*Hakimboyvachcha*] *Rang-barang qimmatbaho mevalar, qaymoqqa qorilgan nonlar bilan to'la dasturxon yozib, achchiq choyni quya boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Mevalar** – gulli o'simliklar mahsuloti. Farmatsevtikada meva sifatida oddiy, murakkab va to'p mevalar, ba'zan ularning bo'laklari dori tayyorlash yoki sof holda dori moddalar olish uchun ishlatiladi. Ular, odatda, pishib yetilganda yig'iladi va ochiq havoda, yog'ingarchilik davrda pana yerlarda yoki sun'iy sharoitda quritiladi. Ayrim sershira mevalardan ekstrakt va sharbatlar olinadi.

**Mevachilik** – qishloq xo'jaligining meva yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i, mevalar olish uchun mevali daraxtlarni o'stirish; dehqonchilikning bir tarmog'i (*q. Bog'dorchilik*). Mevachilikni rivojlantirish. *Chunonchi, dehqonchilikda don ekish, sabzavotchilik, mevachilik paydo bo'ldi.* (Gazetadan).

**Mevali** – meva beradigan; meva qiladigan. *Mevali daraxtga tosh tegadi.* (Maqol).

**Mevasiz** – mevasi yo'q, meva bermaydigan, qilmaydigan. *Mevasiz daraxt.*

**Meva-cheva** – har xil mevalar, turli-tuman shirinliklar. *Meva-cheva o'zimizdan chiqmasa bo'lmas ekan. 10 gektar yerga bog' qilib qo'yaylik.* («Mushtum»). *Matpano baqqolchilikka o'tib, bir belbog' meva-cheva oldi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**Meva sharbati** – meva va sabzavotlardan olinadigan shirin suyuqlik; meva suvi. Asosan, olma, uzum, shaftoli, olxo‘ri, o‘rik, anor, sabzi va b.dan olinadi.

**Mevali yoki yevropa zarnabi (*Taxus baccata* L.)** – qalin shox-shabbali, tanasi qirrali, sershox daraxt yoki ba‘zan yirik, doim yashil buta bo‘lib, bo‘yi 10–27 metrgacha, diametri 1,5 metrgacha yetadi. Po‘stlog‘i qizg‘ish rangda, bo‘yiga yorilgan bo‘lib, ko‘p tinim kurtaklari qavarib turadi. Shoxlari jigarrangda, novdalari esa yashil rangda, tuksiz. Kurtaklari yumaloq, jigarrang tangachali. Ninabarglari chiziqli, yassi to‘q yashil rangda, yaltiroq, uchi o‘tkir, cheti bir oz qayrilgan, bo‘rtib chiqqan asosiy tomirlari bor. Barglarining bo‘yi 15–25 mm, eni 2 mm. Yuqoridagi novdalarida barglar spiral shaklida joylashadi. Daraxtda ular 3–5 yil saqlanadi. Daraxti erta bahorda – fevralda gullaydi. Uni yashil to‘siq hosil qilish maqsadida ekish ham mumkin. Havoning iflos bo‘lishiga chidamli daraxt. Uning bargi va barcha qismlari zaharli, ayniqsa ot qattiq zaharlanadi. Shu sababli zarnab maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablarni ko‘kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilmaydi.

**Mevalar va sabzavotlarni saqlash** – ho‘l va sersuv mahsulotlarni iste‘mol etish yoki qayta ishlashga qadar saqlanishiga yordam beradigan tadbirlar majmui.

**Mevali daraxtlarga shakl berish** – mevali daraxtlarning me‘yorida o‘shishi va rivojlanishini tartibga solib turish maqsadlarida o‘tkaziladigan agrotexnologiya tadbiri (*Daraxtlarga shakl berish*).

**Mevali daraxtlarni yoshartirish** – yangi novdalar o‘shib chiqishi uchun daraxtlarning eski va qurigan shoxlarini kesish; daraxt umrini uzaytirish va hosil

berish usullaridan biri. Mevali daraxtlar qariganda, asosan shoxlarini tiklash, novdalarining o‘shishini tezlashtirish hamda meva hosil qiluvchi organlarni shakllantirish maqsadlarida qo‘llaniladi.

**Mevali o‘simliklar** – meva beradigan yovvoyi va ekib o‘stiriladigan o‘simliklar. Mevali o‘simliklar meva, rezavor va yong‘oqlar olish uchun ekib o‘stiriladigan madaniy o‘simliklar muhim ahamyatga ega. Ekib o‘stiriladigan mevali o‘simliklarning 32 botanik oilaga mansub 200 ga yaqin turi ma‘lum.

**Meva-sabzavot konservalari** – meva va sabzavotlarga turli usullarda ishlov berish yo‘li bilan tayyorlanadigan konservalar. *Meva konservalari*: shakar qo‘shib konservalangan yangi rezavor mevalar yoki ulardan tayyorlangan kompotlar, pyure, sharbatlar (*q. Meva sharbati*). *Sabzavot konservalari*: to‘g‘rab yoki butun holda konservalangan sabzavotlar (sabzi, lavlagi, gulkaram, ko‘kno‘xat, pomidor, bodring, shirin jo‘xori va b.); *sharbatlar* (sabzi, pomidor, lavlagi sharbatlari), *quyuqlashtirilgan pomidor mahsulotlar*: pasta, souslar; *o‘simlik moyida qovurilgan* baqlajon, sabzi, kabachki, piyozdan tayyorlangan gazaklar; *marinadlangan, tuzlangan sabzavotlar*.

**Mexanizatsiya** [*yun.mechane* – qurol, mashina] – ishlab chiqarishda foydalaniladigan (qo‘llaniladigan) mashina va mexanizmlar majmui. *Cho‘l sharoitida qo‘lda bajarilishi kerak bo‘lgan ayrim ishlarni mexanizatsiya zimmasiga yuklash yuzasidan izlanishlar olib bordi*. (Gazetadan). *Ko‘chiyev og‘ir ishlarni mexanizatsiya gardaniga yuklab, ancha osonlashtirdi*. («O‘zbekiston qo‘riqlari»).

**Mexanizatsiyalash** – *s.t.* Ishlab chi-



qarishda mexanizatsiyani joriy qilish, qo‘l mehnatini to‘la yoki qisman mashina, mexanizmlarga o‘tkazish. *Xalq xo‘jaligi kengashining xodimlari korxonalariga tez-tez borib, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashda bevosita qatnashadigan bo‘ldilar.* (Gazetadan). 1964-yil xo‘jaliklarda paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalash yili bo‘ldi. (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Mexanizatsiyalashmoq** – mashina, mexanizmlar bilan qurollanmoq. *Mexanizatsiyalashgan xo‘jalik tarmog‘i.*

**Mexanizm** [yun. *mechane* – qurol, mashina] – 1. Mashina, asbob, apparat va sh.k. ning ichki, ishga soluvchi qismlari, ichki tuzilishi. Soat mexanizmi. *Stanok mexanizmi... qani, pulemyotchi bo‘lsang, mexanizmlarini gapirib ber-chi!* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Biror ishni bajaruvchi murakkab mashina. *Hozirgi zamon qurilishini mana shu mexanizmlarsiz tasavvur qilish qiyin.* (Gazetadan).

3. Ichki tuzilishi. *Sistema. Davlat mexanizmi.*

4. Biror narsaning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va yaxlitlikni tashkil etuvchi qismlari... *syujetlar ketidan syujetlar, xarakterlar ketidan xarakterlar kelib, yozuvchi ijodiy laboratoriyasining hamma mexanizmlarini ishga solib yuborgandi.* (M. Qo‘shjonov, «Poemadan romanga»).

**Mexanik-haydovchi** – paxta terish mashinasini haydovchi va uni tuzata biluvchi traktorchi. *Jiyanqulning ukasi vohamizning eng dovuqli mexanik-haydovchisi.* («O‘zbekiston qo‘riqlari»).

**Mexanizator** [yun. *mechane* – qurol, mashina] – 1. Mexanizatsiya mutaxassisi. *O‘ttiz bir yigit-qiz Olmazordagi mexanizatorlar tayyorlaydigan bilim yurtiga*

*borib o‘qiyimiz.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

2. Mashina va mexanizmlarni biror sohaga joriy etuvchi mutaxassis. *Qishloq xo‘jalik mexanizatorlari... mexanizatorlar hosil yig‘im-terimida hal qiluvchi rol o‘ynaydilar.* (Gazetadan).

**Mezon** [a. – o‘lchov, tarozi; muvozanat; odillik] – 1 esk. Tarozi, o‘lchov. *Mezon toshlari.*

2 *ko‘chma.* Taqqoslash yoki baholash uchun o‘lchov, andoza. *Mehnat – kishi qadr-qiymatining mezonidir. Darveshali... har ishga bel bog‘lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o‘zingiz uchun bir mezon deb biling.* (Oybek, «Navoiy»).

3 (M – katta) *astr.* O‘n ikki burjning biri, Savr va Saraton burjlari o‘rtasida joylashgan. (*q. burj*).

4. Shamsiy yil hisobida yettinchi oyingning arabcha nomi (22-sentabr – 21-oktabr davriga to‘g‘ri keladi). *Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, mezondan so‘ng yoz bo‘lmas.* (Maqol).

5. Ba‘zi o‘simliklarning kuzda havoda suzib yuradigan, o‘rgimchak uyasiga o‘xshash spora tashuvchilari. *Kuz keldi. Suvlar ariqda oynadek tiniq shildiradi, ko‘kda mezonlar suzdi.* (Sh. G‘ulomov, «Tashabbus»).

6. Uzoq cho‘zilgan yoz, issiq kuz.

**Mesh** [f. – teri, sanoch; teri xalta] – oshlangan teridan tikilgan og‘zi tor qop. Mesh qadimdan ma‘lum, asosan, suyuq narsalar (suv, sut, shinni, qimiz va b.)ni tashish va saqlash, chalop tayyorlash va b. maqsadlarda ishlatilgan. Sharq mamlakatlari, Markaziy Osiyo va Sibir xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan. Qadimdan Sharq, xususan, turk-mo‘g‘ul xalqlari qo‘shinida harbiy harakatlar chog‘ida, chunonchi, teran daryolardan kechib o‘tishda, sol

yasashda unumli foydalanilgan. O't-mishda meshda suv manbalari (hovuz, ariq, quduq va b.)dan xonadonlarga, guzarlarga, choyxona, karvonsaroylarga suv tashib berib tirikchilik qiladigan kishi meshkob yoki meshkobchi deb atalgan.

1. Suv, qimiz va sh.k. suyuq narsalar solib qo'yiladigan, tashiladigan teri; sanoch. *Mangqishloqqa tushib, qozoqlar ovulidan bir mesh qimiz olib chiqishdi.* (M. Mansurov, «Yombi»). *Bitta jangchi chelakdagi suvni meshga avaylab quydi.* (K. Yashin, «Hamza»).

2. Oyoq kiyimi astari. Supra va sh.k. narsalar uchun ishlatiladigan jo'n qo'y teri. *Xotin, qorilgan xamirni mesh supraga o'rab, ustiga serpaxta ko'rpani yopgandan keyin, yerda turgan cho'yan obdastadan qo'lini yuvmoqchi bo'ldi.* (S. Ayniy, «Doxunda»).

3 *ko'chma, s.t.* Meshga o'xshash; do'mboq, dumaloq (qoringa nisbatan). *Xo'randalar haqin urib, qorni ko'pchib mesh bo'ldi.* («Mushtum»).

**Me'yor** [*a.* – o'lchak, asosiy o'lchov; andoza] – 1. Rasmiylashtirilgan, umum tomonidan qabul qilingan, hamma tomonidan majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida. *Huquq me'yorlari. Axloq me'yorlari.*

2. Biror narsa, ish va sh.k. ning miqdor, daraja jihatdan talabdagi, belgili o'lchami. Har narsa ham o'z me'yorida yaxshi. *Me'yorini bilmoq. Bir me'yorda ishlamoq. Bizda dehqonchilikning... bir kunga kesilgan ish me'yori bor.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *Tabiat o'zi usta dehqon. Me'yori bilan danak tashlagan, me'yori bilan urug' sochgan.* (S. Anorboev, «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar»). *Lekin ana shu mehr-oqibat me'yorida bo'lmog'i kerak. Bu ishda me'yorni unutish yomon*

*oqibatlarga olib kelishi muqarrar.* (Gazetadan).

3. Ana shu me'yorni belgilovchi asoskorsatkichlar. *Baho qo'yish me'yorlari.*

4 *s.t., kam qo'll.* Chek-chegara. *Bu adadsiz cho'l edi. Sira me'yori yo'q edi.* («Bahrom va Gulandom»).

**Mikrobiologiya** [mikro.. + biologiya] – mikroorganizmlarning tuzilishi, biologiyasi, fiziologiyasi, biokimyosi, sistematikasi, genetikasini, shuningdek ularning odam hayoti, jonli va jonsiz tabiatdagi mohiyatini o'rganadigan hamda mikroorganizmlar hayot faoliyatini boshqarish usullarini ishlab chiqish masalalari bilan shug'ullanadigan fan.

**Mikroblar** [mikro.. + *yun. bios* – hayot] – *q. mikroorganizmlar.*

**Mikroelementlar** – o'simlik va hayvon organizmida kam miqdorda (odatda, bir foizning yuzdan bir, mingdan bir va undan kam hissasi) uchrasa-da, ularning hayot faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kimyoviy elementlar. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, o'simlik va hayvonlar hayot faoliyati uchun 30 dan ortiq mikroelementlar zarur.

**Mikroiqlim** [mikro.. + iqlim] – 1. Yer yuzining iqlim sharoitidan farq qiladigan muayyan chegaradagi iqlim; 2. Xona ichidagi muayyan harorat, namlik, havoning harakat tezligi, shuningdek, atrof yuzaning, ya'ni ishlab chiqarish jihozlarining harorati bilan belgilanadigan iqlim.

**Mikroiqtisodiyot** [mikro.. + iqtisodiyot] – Iqtisodiyotning ayrim bir xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar, shaxs) faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bir qismi.

**Mikroklimat** [mikro.. + klimat] – *q. Mikroiqlim.* Paxta dalalarining mikroklimate. *...havo almashtirib beradigan*

ventilyatorlar normal ishlamaydi. Oqibatda mikroklimat buzilmoqda. («Mush-tum»).

**Mikroorganizmlar** [mikro.. + organ-izm] – faqat mikroskopda ko‘rish mumkin bo‘lgan, asosan, bir hujayrali organizmlar (bakteriyalar, mikoplazmalar... mikroskopik zamburug‘lar, suvo‘tlar, viruslar)ning umumiy nomi. *Antibiotiklar mikroorganizmlardan hosil qilinishi sababli qimmatga tushadi.* («Fan va turmush»). *Uy o‘simliklari o‘zidan fitonsidlar chiqarib, mikroorganizmlarni o‘ldiradi.* (Gazetadan).

**Mikroskop** [mikro.. + skopeo – qarayman] – oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan narsalarni tekshirish uchun qo‘llanadigan, katta qilib ko‘rsatadigan optik asbob; zarrabin. *Atomlar shu qadar mayda zarralarki, ularni hatto mikroskop orqali ham ko‘rish qiyin.* («Fan va turmush»).

**Mikroskopik** – 1. Mikroskop bilan qilinadigan, mikroskopda bo‘ladigan. *Mikroskopik analiz. Mikroskopik tekshirishlar.*

2. Juda mayda, faqat mikroskop bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan mikroskopik joni-ovorlar. *Mikroskopik suvo‘tlar.*

**Mikroo‘g‘itlar** – tarkibida o‘simliklar uchun zarur *mikroelementlar* (bor, mis, kobalt, rux, molibden, marganes va b.) bo‘lgan o‘g‘itlar. Mikroo‘g‘itlar asosiy o‘g‘itlar (azotli, fosforli va kaliyli) bilan birga, o‘simliklarning sog‘lom o‘shishi va hosildorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Tuproqda o‘simliklar o‘zlashtira oladigan mikroelementlar yetishmagan hollarda qo‘llaniladi.

**Miksborder** (*ingl. mix* – «aralash» va *border* – «chegara») – aralash gulzor, unda ko‘p yillik gul, o‘simliklar bog‘ning uzoq

muddat manzarali ko‘rinishi uchun tanlab olinadi. Aralashmada o‘rmonli o‘simliklar ham, o‘tlar ham bo‘ladi. Agar gulzor chegarasi bir tomondan yo‘l (yo‘lak), boshqa tomondan devor bilan (to‘siq) cheklangan bo‘lsa, baland bo‘yli o‘simliklar devor tomondan yo‘lak tomonga ekib kelinadi. Aralash gulzorning chegarasi eng baland o‘simlikning uzunligidan bir yarim baravar ko‘p bo‘lmasligi kerak, deb hisoblana- di. Ushbu turdagi gulzorlar birinchi marta Angliyada paydo bo‘lgan.

**Mimikriya** [*ingl. mimicry* – taqlidiy-lik] – *biol.* Ba‘zi hayvon va o‘simliklarning o‘z atrofidagi tabiiy sharoit rangiga yoki boshqa hayvonlar, o‘simliklar tusi- ga moslashuvi. *Mimikriya – hayvon va o‘simliklarning tabiiy himoya vositasidir.* («Fan va turmush»).

**Mineral I** [*fr. mineral* < *lot. minera* – ruda, qazilma kon] – Yer qobig‘i tarkibi- da uchraydigan tabiiy kimyoviy birikma yoki element. *Bu minerallar esa Pomirda, Zarafshon tog‘larida, Chotqol-Qurama tizmalarida topilishi mumkin.* (S. Karo- matov, «Oltin qum»).

**Mineral II** – tabiiy kimyoviy birikma yoki elementlarga oid, shunday element yoki birikmalardan iborat bo‘lgan, tar- kibida shunday element yoki birikmalar bor. *Mineral tuzlar. Mineral o‘g‘it. Mi- neral suv. Bobur... mineral xomashyolar borasida ham fikr bildirgan.* («Fan va tur- mush»).

**Mineralogiya** [mineral + *yun. logos* – fan, ta‘limot] – minerallar, ular- ning tarkibi, tuzilishi, xossalari, yer qobig‘ida mineral moddalarning pay- do bo‘lishi jarayonlarini, shuningdek, ulardan xalq xo‘jaligida foydalanishni o‘rganuvchi fan.

**Mineral oziqlanish** – 1) (o‘simliklarda) o‘simliklarning o‘z hayot faoliyati uchun zarur kimyoviy elementlarni mineral tuzlar ionlari shaklida tuproqdan o‘zlashtirish jarayonlari majmui. Mineral oziqlanish tuproqdan mineral tuzlar ionlarini o‘zlashtirish, ionlarning almashinuv jarayoniga qo‘shilishi va o‘simlik bo‘ylab harakatlanishdan iborat.

Mineral oziqlanish elementlari sirasiga makroelementlar (N, S, R, K, Sa, Mg) va mikroelementlar (G‘e, V, Mn, Cu, Zn, Mo) kiradi.

2) hayvonlar organizmida ratsiondagi mineral moddalarning hazm bo‘lishi va qonga so‘rilib, to‘qima va hujayralarda sarflanishi.

**Mineral ozuqalar** – 1. Chorva mollarining ozuqa ratsionida ba‘zi kimyoviy elementlar yetishmagan-da yem-xashakka qo‘shib beriladigan qo‘shimcha mineral ozuqalar. Chorva mollari tanasida turli mineral elementlar uchraydi. Ulardan 15 tasining hayvonlar organizmidagi fiziologik ahamiyati aniqlangan. Ftor, bariy, brom va stronsiy elementlari esa, zarur bo‘lgan elementlar qatoriga kiritilgan.

2. Hayvon tanasida ko‘p yoki kam miqdorda uchrashiga qarab mineral elementlar 2 guruhga ajratiladi; 1) makroelementlar (ularning 1 kg ozuqadagi miqdori g da ifoda etiladi). Chorva mollari ozuqalarida makroelementlardan kaltsiy, fosfor, natriy, kaliy, xlor, magniy va oltinugurt elementlarining miqdori nazorat qilinadi; 2) mikroelementlar (ularning 1 kg ozuqadagi miqdori mg da o‘lchanadi).

**Mineral qo‘shimchalar** – hayvonlar ratsionini minerallar tarkibi bo‘yicha me‘yorlashtirish uchun ozuqa ratsioniga qo‘shiladigan sun‘iy tayyorlangan yoki

tabiiy mahsulotlar. Ko‘pincha o‘simlik va yem-xashakda natriy va xlor kam bo‘ladi. Shuning uchun, asosan, o‘simliklardan iborat ozuqalar b-n boqiladigan hayvonlarga mineral qo‘shimcha sifatida tarkibida natriy va xlor bo‘lgan osh tuzi beriladi. Shuningdek, kaltsiy qo‘shimchalari sifatida bo‘r, travertin (ohaktosh), sapropel, suyak uni, ohak, yog‘och kuli, gips va b. qo‘shiladi (mas., bo‘r tarkibida 37% kaltsiy, 0,5% kaliy, 0,18% fosfor, 0,3% natriy, 5% kremniy mavjud). Parrandachilikda kaltsiy qo‘shimchalar sifatida maydalangan tuxum po‘chog‘i va chig‘anoqlardan foydalaniladi. Ratsionda kaltsiy va fosfor yetishmasa ozuqabop fosfatlar qo‘shiladi. Mineral qo‘shimchalar konsentratlar, silos, mayda qilib to‘g‘ralgan ildizmevalar b-n aralashtirib beriladi. Mineral qo‘shimchalar aralash yemlarga qo‘shilishi zarur bo‘lgan komponentlardir. Mineral ozuqalardan tuz aralashmalari, yalama tuzlar, briketlar, tabletkalar tayyorlanadi.

**Mineral o‘g‘itlar** – tarkibida o‘simliklar uchun zarur oziq elementlari bo‘lgan anorganik moddalar, asosan, tuzlar. Deyarli barcha mineral o‘g‘itlar *agronomik rudalardan* kimyo sanoatida ishlab chiqariladi.

**Mingbosh** – pilla qurti pilla o‘rash davrida dasta qilib qo‘yish uchun ishlatiladigan bir turli o‘t o‘simlik. *Maydonning qoq o‘rtasida chayla – oyimsupirgi, mingbosh, kakra va bug‘doy poyasi bilan yopilgan.* (A. Dilmurodov, «Osmonning bir parchasi»). *Vakil yigit maxsus joyga to‘plab qo‘yilgan barglar ustiga ho‘l dasturxon yopilganini, dasta uchun mingbosh tayyorlab qo‘yilganini ko‘rib xursand bo‘ldi.* (M. Qo‘shoqov, «Katta xirmon jilg‘asi»).

**Minimal** [lot. *minimus* – eng kichik] – eng oz, eng kam, eng kichik; *zid.* **maksimal**. Minimal qiymat. Minimal tafovut. *Tahlil shuni ko'rsatadiki, terim mavsumi... mustahkam xo'jaliklarda juda qisqarib, minimal darajaga yetgan.* (A. Muxtor, «Bu – qahramonlik»). *Agar tilda fonemalar oppozitsiyasini namoyon etuvchi minimal juftlikdagi so'zlar topilmasa, u fonemalarni sistemadan o'chirish mumkin.* («O'TA»).

**Mintaqa** [a. – kamar, belbog'; iqlimiy hudud; soha, doira] – **1** *geogr.* Yer yuzining ikki qo'shni parallel oralig'idagi, bir-biri bilan iqlimi bilan farq qiladigan har bir bo'lagi. *Issiq mintaqa. Sovuq mintaqa. O'rtacha mintaqa.*

**2.** Yer yuzining biror xususiyati bilan ajralib turadigan bo'lagi, zonasi.

**Miologiya** [yun. *mios* – muskul + *logos* – fan, ta'limot] – muskullar sistemasining tuzilishi haqidagi ta'limot.

**Miqdor** [a. – katta-kichik, oz-ko'plik; kattalik] – **1.** O'lchash, sanash mumkin bo'lgan narsalarning oz-ko'pligi, soni, chamasi. Issiqlik miqdori. *Suv bir miqdorda oqib turibdi. Yetarli miqdorda oziq-ovqat bilan ta'minlamoq. Ko'p miqdordagi suv. Ota-onamdan qolgan ko'rpayostiqlardan o'zim uchun va ukalarim uchun kerakli miqdorda oldim.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**2** *mat.* Kesma uzunligi, sirt yuzi, jism hajmi va massasi kabi tushunchalarning umumlashma nomi; kattalik.

**3** *fls.* Obyektning tashqi ko'rsatkichlari (kattaligi, soni, hajmi) hodisalarning rivojlanishi va sh.k. ni ifodalovchi tushuncha. Miqdor va sifat. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi.

**Miqyos** [a. – o'lchov, mezon; o'lchagich] – ko'lam, masshtab. Ish miqyosi.

Jahon miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan masala. Keng miqyosda tekshirish olib bormoq. *Agar bu misolni respublika miqyosida oladigan bo'lsak, yanada quvonchli natijalarni ko'ramiz.* (Gazetadan).

**Mirishkor** [a. + f. – ov boshlig'i, ovni boshqaruvchi] – **1.** O'z ishining tajribali, mohir ustasi; tajribakor, omilkor. *Mirishkor suvchi. Mirishkor bog'bon. Mirishkor dehqon. Sulton bo'zchi... o'z hunarining mirishkori hisoblanar... edi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**2** *s.t.* Saranjom-sarishta, pishiq-puxta. *Mirishkor xotin.*

**Mirob** [a. + f. – sug'orish va suv ta'minoti bo'yicha nozir] – **1.** Suv taqsimoti va sug'orish tarmoqlarini nazorat qiluvchi shaxs. *Otang mirob bo'lguncha, dalang quloqning boshida bo'lsin, deganlar.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**2** *s.t.* Sug'orish ishlarini bajaruvchi shaxs; suvchi. *Ana, mirishkor mirob, sug'orar g'o'zasini...* (Y. Hamdam). *Egatlar oralab mirobmi, kimdir Yakka oyoq yo'ldan qaytadi yolg'iz.* (G'ayratiy).

**Miroxur, miroxo'r** [a. + f. – bosh otboqar; otxona boshlig'i] – **1** *tar.* Markaziy Osiyo xonliklarida saroy otxonalariga boshchilik qilgan mansabdor. *Men miroxo'rdan o'n besh so'm olib, mana shu ostimdagi eshakni sizga berib ketaman.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urinishlari»).

**2** *esk. ayn. otboqar.*

**Mirzaterak** (*Populus pyramidalis* **Roz.**) – tez o'suvchi yirik daraxt bo'lib, balandligi 40 m, diametri 1 m, shoxshabbasi duk shaklida. Po'stlog'i bo'yiga yorilgan, sariq-kulrang. Shoxlari yumaloq, yashil-kulrang, bargi romb shaklida bo'lib, uchburchakka o'xshaydi. Barg

bandi 2 sm uzunlikda, tuksiz. Novdasi yumaloq, yashil, yaltiroq, tuksiz. Bargining bo'yi va eni 5–7 sm, keng uchburchaksimon, tubi keng ponasimon, kalta, o'tkir uchli, cheti tishchali, yuz tomoni yashil, orqasi och sariq. Barg bandi 3 sm keladi, tuksiz, erkak gulli kurtaklarining bo'yi 12 mm, tor konussimon, tuksiz. Kuchalasining bo'yi 4–10 sm, eni 0,8–0,9 sm, ko'p gulli (72 ta guli bor), poyasi tuksiz. Guli 1,5 m li tuksiz bandda joylashadi. Bu terak MDH ning Yevropa qismida, Kavkazda, Qrimda va Markaziy Osiyo respublikalarida ko'p ekiladi. Afg'onistonda, Himolayda, O'rtayer dengizi atrofi mamlakatlarida, Kichik Osiyoda, Eronda uchraydi. Sho'rtob tuproqli yerlarda ham o'sadi, issiqqa va qurg'oqchilikka chidamli. Yog'ochidan mahalliy qurilishda keng foydalaniladi. Juda xushmanzara daraxt. Aholi yashaydigan joylarni ko'kalamzorlashtirishda juda katta ahamiyatga ega, ko'proq alleya shaklida ekiladi.

**Misli o'g'itlar** – tarkibida o'simliklar o'zlashtira oladigan shaklda mis bo'lgan mikroo'g'itlar. Misli o'g'itlar sifatida mis sulfat (mis kuporosi), pirit (kolchedan) chiqindi va tarkibida mis bo'lgan har xil sanoat chiqindilari ishlatiladi. Misli o'g'itlarga bug'doy, sulii, arpa, kungaboqar, qand lavlagi ancha talabchan. Misli o'g'itlar 4–6 yilda bir marta 5–6 kg/ga miqdorida kuzgi shudgorlashda solinadi. Mis kuporosidan, shuningdek, ekish oldidan urug'likka ishlov berish (0,1–0,2% li eritmasi), bordo suyuqligi tayyorlashda foydalaniladi.

**Misqol** [*a.* – 4,35 – 4,86 gramm oralig'idagi og'irlik o'lchov birligi] – **1 esk.** Qadimgi og'irlik o'lchov birligi: taxminan 4,24 grammga teng. *Polvon bitta tu-*

*xum, ikkita xurmo, yarim misqol sedana, besh dona bo'tako'z... topib, bir piyola suv bilan idishda qaynatishga yugurdi.* (A. Qahhor, «Ko'r ko'zning ochilishi»).

**2 ko'chma.** Ozgina, juda oz, jindak. *O'zganing himmatini daryo, o'zingnikini misqol bil.* (Maqol). *Nazarboy Oqbo'z otini minib, tanglayiga misqol nosni tashlab jo'nadi.* («Oysuluv»).

**Mita** – **1 bot.** G'alla ekinlarining donini qoraytirib yuboradigan kasallik; kul. Mitalar sirasiga un kanasi, ombor filchasi, sholi filchasi, jan. ombor kapalagi, surinam donxo'ri, kichik un qo'ng'izi, katta un qo'ng'izi, juda ko'p turdagi kuyalar va b. lar kiradi.

**2 zool.** Donga tushadigan zararkunanda qurt; saqlanayotgan g'alla donlari, yorma, qoqi va b. ni zararlaydigan har xil hasharot va kanalarning umumiy nomi. Ombor mitasi. *Mitaning yomoni tegirmondan butun chiqadi.* (Maqol).

**Miya** – **1.** Odam va ba'zi hayvonlar nerv sistemasining markaziy bo'limi; odamda – tafakkur a'zosi. *Bosh miya. Orqa miya. Miya qobig'i. Miya kasalliklari. Aytishlariga qaraganda, miyam chayqalgan emish.* («Guldasta»). *Uning [Japaqning] miyasida go'yo hech qanday o'y, fikr yo'q edi.* (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»).

**2.** Odam va umurtqali hayvonlar suyagi bo'shliqlarini to'ldirib turuvchi to'qima (ko'mik).

**3 ko'chma.** Aql, ong. *Miyasi bor kishi. Miyasi butun odam.* [Zunnunxo'ja:] *Miyang bormi o'zi, Sidiqjon kolxozga kirgani bilan yer kolxozga o'tib ketmaydi, o'rtada bo'ladi!* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**4 s.t.** Boshning qoq tepasi; bosh, kalta. Miyasiga mushtlamoq. *To'rovoy dush-*

*manning birining ko'ksiga nayza sanchib, ikkinchisining miyasiga qo'ndiq bilan urdi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Moda** [*f.* – urg'ochi hayvon, urg'ochi qush, makiyon] – tovuq va bedanadan boshqa qushlarning urg'ochisi. *Modasiga tegishgani uchun tomdagi kaptar ham buqog'ini chiqarib, raqibining tevaragida yag'rin kera boshladi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Moddalar almashinuvi, metabolismm** – tirik organizmlarning o'sishi, hayot faoliyati, ko'payishi, tashqi muhit bilan munosabatlarini doimiy ta'minlaydigan kimyoviy o'zgarishlar majmui.

**Modernizatsiya** [*fr. modernizer* – yangilamoq < *modern* – yangi, zamonaviy] – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talab va didga moslab o'zgartirish; zamonaviylashtirish. Uskunalarni modernizatsiya qilish. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

**Modernizatsiyalamoq** – modernizatsiya qilmoq, zamonaviylashtirmoq. Uskunalarni modernizatsiyalash va yalpi o'zlashtirish yo'li bilan ishlab chiqarish quvvatini oshirmoq. *Sanoat korxonalarida eskirib qolgan asbob-uskunalarni modernizatsiyalash davom ettirildi.* (Gazetadan).

**Modifikatsiya** [*fr. modification* < *lot. modificatio* – to'g'ri o'lchab chiqish, chamlash] – 1. Predmet yoki hodisaning asl mohiyati saqlangan holda yangi xossalari paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladigan shakl o'zgarishi.

2. Shunday o'zgarishga uchragan predmet yoki hodisa, ko'rinish.

**Mol, chorva** – suturemizuvchilar oilasiga mansub asosiy guruh uy hayvonlari. Kelib chiqishi, taraqqiyoti va hayotining biologik xususiyatlariga ko'ra xonaki uy hayvonlari, turlari bo'yicha – qoramol, mayda mol (qo'y, echki, cho'chqa), yilqi, tuya va h.k. Mollar (qoramol, qo'y, echki, cho'chqa va h.k.) va yuk hayvonlari (tuya, ot, eshak, xachir) guruhini tashkil etadi. Yemishini hazm qilish xususiyatlariga binonan, mollar *kavsh qaytaruvchi* (qoramol, qo'y, echki, tuya) va *kavsh qaytarmaydigan* (ot, eshak, cho'chqa)lar guruhini hosil qiladi. Xonaki mollar tuyoq tuzilishiga ko'ra (toq) *tuyoqli* (ot, eshak, xachir) va ayri (juft) *tuyoqlilar* (qoramol, qo'y, echki, cho'chqa)ga bo'linadi.

**Mol** [*a.* – boylik, mulk; pul jamg'armasi] – 1. Suturemizuvchilar oilasiga mansub asosiy guruh uy hayvonlari (qoramol, yilqi, qo'y, echki, tuya va b.); chorva. *Mol olasi tashida, odam olasi ichida.* (Maqol). *Ko'ksini yoqalab taqir chorva yo'li o'tgan. Cho'ponlar bu yo'ldan bahorda toqqa, kuzda qishloqqa mol haydaydilar.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2 *ko'chma, s.t.* Did-fahmsiz, qo'pol odamga nisbatan haqorat tarzida qo'llanadi.

**Molalamoq** – mola bilan shudgorning kesaklarini maydalab, o'nqircho'nqirlarini tekislamoq; mola bosmoq. *Toshotaliklar aksar yerlarini molalab bo'lib, bugun-erta chigit ekamiz deb turishganida, birdan yog'ingarchilik boshlanib ketdi.* (R. Rahmonov, «Changalzordagi sharpa»).

**Molaq//suruv//otar** – qo'y, echki, qo'zi, uloq, taka, sarka, qo'chqorlarning birikkan yoki alohida bo'lganda ham hadan ziyod ko'p bo'lishi. *Sattor cho'ponning suruvi tog'dan, o'rlamdan qaytibdi.*

**Molboqar** – mollarga qarovchi, mol boquvchi. *Suvchilar ariqlarni tozalamoqda, molboqarlar yo'ng'ichqa o'rmoqda.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Mollarning serpushtligi** – hayvonlarning har qaysi turi uchun xos bo'lgan bolalash qobiliyati.

**Molotilka** [*r. molotit* – «yanchmoq», *fl. dan yasalgan ot*] – g'alla yanchadigan mashina. *Hozir traktor haydayotgan joylarda u paytga borib kombaynlar suzadi, pastda, ko'chma uy turgan yerda esa molotilkalar taqillaydi.* (O. Yoqubov, «Bahor kunlaridan birida»).

**Moltayoq//cho'pontayoq** – zarang, irg'ay, tol daraxtlaridan kesib olinib, ma'lum o'lchamdagi cho'ponlarning doimiy hamrohi, tayoqning bir turi. *Askar miltig'i bilan askar, cho'pon tayog'i bilan cho'pon.*

**Molxona** – mol boqiladigan, turadigan bino; og'ilxona, og'il. *Molxonada oxurni tozalayotgan Oynisaning qulog'iga beixtiyor gangir-gungur ovoz eshitildi.* («Saodat»).

**Molxonalarni yuvish** – fermalarda mollarning axlatlarini kuchli suv oqimi yordamida tozalashning mexanizatsiyalashtirilgan usullaridan biri.

**Momiq** – 1. Paxtaga ishlov berish jarayonida tolasi ajratib olingan chigitda qoladigan kalta toladan tayyorlanadigan mayin paxta. *Paxtaning momig'ini askar bolalarning yarasiga bosishibdi.* («Yoshlik»). *Sobira opa ko'zgu oldida bir tutam momiq paxta bilan yuz-ko'zlarini artayotgan qiziga qarab urisha ketdi.* (M. Xayrullayev, «Tilla marjon»).

2. Umuman, ochilgan, terilgan paxta. *Hozir chevar qo'llar ham, mashina bunkerlari ham lo'ppak momiqlarni miriqib qamraydigan damlar.* (Gazetadan). *Cha-*

*noqlarda ko'pirib turgan oppoq momiqlar ... quyoshning zarrin nurida misoli olmosdek tovlanadi.*(Gazetadan).

3. Yumshoq yung, tivit. *Nazokat qorako'l yoqali palto, momiq ro'mol o'rab olgan.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

4 *ko'chma.* Paxtaday oppoq, yumshoq, lo'ppi, momiqday. *Yigitali torting degan ma'noda La'lining bilaklaridan ushladi.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»). *Guppa-guppa yog'ar edi momiq qor.* (J. Jabborov).

**Monggi** – 6 yosh va undan keyingi yoshlarning nomi.

**Monokarpik o'simliklar** – umr bo'yi faqat bir marta ko'payadigan (gullaydigan yoki meva beradigan) o'simliklardir. Botanikada monokarpik o'simliklar uchun aslida sinonim atamalar «bitta mevali o'simliklar» yoki **monokarpika** (*yunon* tilidan *monos* – bitta, *karpos* – mevalar) – bir marta meva beradigan o'simliklar va «**gapaksant o'simliklar**» (*ingl. hapaxanthic plants*) – bir marta gullaydigan o'simliklar. Monokarpik o'simliklarning katta qismi bir yillik yoki ikki yillikdir. Ammo bu qoida uchun bir nechta istisnolar mavjud. Masalan, amerika agavasi, Puyya, Yukka turkumlarining ba'zi vakillari va ba'zi bambuklar birinchi gullashdan 8–20 yil oldin va bambuk, hatto 100 yilgacha o'sishi mumkin. Ba'zida monokarpik o'simliklar gullari paydo bo'lishi bilanoq olib tashlansa yoki ba'zi hollarda mevalarini hosil qilish uchun vaqt yetarli bo'lsa, nobud bo'lmasdan, o'sishda davom etadi.

**Monokultura** [*mono..+cultura*–ekin; yetishtirish] – almashlab ekishga amal qilmagan holda dalada faqat bir xil ekinni muttasil yetishtirish. *Paxta monokulturasida.*



**Monopoliya** [mono.. + *yun. poleo* – sotaman] – 1. Iqtisodiyotning biron-bir sohasida tanho hukmronlik; davlat, korxonona yoki jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish, savdo, hunarmandchilik sohasida faoliyat olib borishi uchun berilgan alohida huquqi. *Monopoliyaga qarshi qonunchilik. Monopoliyadan chiqarish.*

2. Muayyan ishlab chiqarish yoki uning katta bir qismini, shuningdek, biron-bir tovar sotishni o'z qo'liga olgan yirik xo'jalik birlashmasi (kartel, sindikat, trest, konsern va sh.k.).

**Montaj** [*fr. montage* < *monter* – ko'tarmoq] – 1. Mashina, uskuna, inshoot va sh.k. ning tayyor qismlarini ma'lum reja, loyiha, chizma asosida yig'ish va o'rnatish. *Elektrostansiya montaji. Prokatsanogini montaj qilish. Montaj ishlari.*

2. Film, adabiy va musiqiy asarlar, rasm va sh.k. ning parchalarini tanlab olib, mazmun va badiiy jihatdan bir butun holga keltirish. *Adabiy montaj.*

**Morfologiya** (*biologiyada*) – odam, hayvonlar va o'simliklar organizmining individual va tarixiy rivojlanish jarayonida tuzilishi hamda shaklini o'rganadigan fan. *Hayvonlar morfologiyasi. O'simliklar morfologiyasi.*

**Moslama** – biror narsani bajarish uchun xizmat qiluvchi narsa, asbob va sh.k. *Korxonona mutaxassislari ishlab chiqqan maxsus moslama sexlar havosini filtrlab beradi.* («Fan va turmush»). *Yolg'iz kultivatorga qo'shimcha o'rnatilgan yer yumshatuvchi g'ildirakli moslamani yasash qanchalar og'ir bo'ldi.* («O'zbekiston qo'riqlari»). *Lag'mon uchun ugra gidravlik press asosida yaratilgan moslamada kesilmoqda.* (Gazetadan).

**Motiga** [*r. motiga* – sixmola, g'altakmola] – yerni, o'simlik, ekin ostini

yumshatish uchun ishlatiladigan qishloq xo'jalik asbobi, moslama. *Qatqaloqning oldini olish uchun motigalarni ishga solib, qator oralarini sifatli yumshataylik.* (Gazetadan).

**Motor** [*lot.motor* – harakatga keltiruvchi] – biror turdagi energiyani mexanik energiyaga aylantiradigan mashina, dvigatel. *Traktor motori. Avtomobil motori. Motorni yurgizmoq. Motorni o'chirmoq. Umarali Anorxon bilan aytishib turgan chog'da Sodiq sakrab «universal»ga mindi, motorni tarillatib, ishda davom etdi.* (I. Rahim, «Ixlos»). *Sal o'tmay, samolyotning motori parillab, parraklari aylana boshladi.* (N. Fozilov, «Diydor»).

**Moy** – 1. Chorva mollari va ba'zi jivonivorlar to'qimalarida bo'ladigan, tarkibida yog' bo'ladigan narsa. *Bir qumaloq bir qorin moyni chiritar.* (Maqol). *Echkiga jon qayg'u, qassobga moy qayg'u.* (Maqol). *Quyovning moyi qo'y va qoramol moyiga nisbatan tez eriydi.* («Fan va turmush»).

2. Shunday narsadan va ba'zi o'simliklarning urug'i, guli va mevasidan olinadigan, suvda erimaydigan modda, yog'. *Hayvonot moylaridan tayyorlangan yog' mahsulotlari ham yaxshi dog'lashni talab etadi.* (Gazetadan). *Inson gullardan efir va sanoat moyi... va dorivor olishga ham o'rgangan.* (Gazetadan).

3. Yumshatish, harakatni ravonlashtirish, pardozi va b. maqsadlarda ishlatiluvchi moddalarning umumiy nomi. *...moy surtmasang, aravaning o'qi ham g'irchillaydi.* («Mushtum»).

**Moya I** – urg'ochi tuya. *Bir qari norpo'paklini ko'rdingmi? – Bizning elda qolgan uchta moyasi.* («Nigor va Zamon»).

**Moya II** [*a* – xamirturush, achitqi; zardob; manba; mablag‘] – *km.* Biror narsaning asosini tashkil qilgan modda, asos bo‘lgan narsa; o‘zak; biror guruhning, jamoaning asosini tashkil qilgan shaxslar.

**Moyak** – tovuqning tuxum qilishi kerak bo‘lgan yerga qo‘yiladigan tuxum yoki tuxumga o‘xshash narsa. [*Fotima:*] *Kelinposhsha, tovuqlaringizga moyak qo‘ydingizmi?* (A. Qahhor, «Og‘riq tishlar»).

**Moyjuvoz** – o‘simlik urug‘idan moy olinadigan juvoz va shu juvoz joylashgan joy. *Senga o‘xshash objuvozi, moyjuvozi borlar soliq to‘lamasa, mullajiring qayoqdan tushadi?* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

**Moyli ekinlar** – urug‘i va mevasidan oziq-ovqat va texnik maqsadlarda ishlatiladigan moy olish uchun ekiladigan ekinlar guruhi. Ular turli oilalarga, ya‘ni gulxayridoshlar (g‘o‘za), murakkabgul-doshlar (kungaboqar, maxsar), labgul-doshlar (perilla, lallemansiya), butgul-doshlar (raps, xantal), dukkaddoshlar (soya, yeryong‘oq) va b. turli botanik guruhlarga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘simliklarni o‘z ichiga oladi.

**Moyli palma** (*Elaeis guineensis*) – Palmadoshlar oilasiga mansub, balandligi 10–15 metrga yetadigan, tropik o‘rmonlarda tarqalgan palma daraxti. G‘arbiy Afrika o‘rmonlarida o‘sadi, mevasidan yog‘ olinadi, u karotinga boy hisoblanadi. 1 gektardan 4 tonna yog‘ olish mumkin. Dunyo bo‘yicha 270 ming gektarda plantatsiyalarda o‘stiriladi. *Ushbu daraxtni kesish taqiqlangan.*

**Moychechak** [(*gazako‘t* – *matricaria* L. (*Chamomilla gray*)] – Astradoshlar [murakkabgul-doshlar – *Asteraceae* (Compositae)] oilasiga mansub, bo‘yi 15–40 sm ga yetadigan bir yillik o‘tlar turkumi.

Asosan Yevropada, Janubiy Sibir, Kavkaz va Markaziy Osiyoda ko‘p uchraydi. O‘zbekistonda dorivor turlari ekiladi. Tibbiyotda ikki turining guli ishlatiladi: **Qirqmabarg (dorivor) moychechak** [*R. aptechnaya (obodrannaya)* – *M. re-cutita* L. (*M. chamomilla* L)]; **Xushbo‘y (shpil) moychechak** [*R. dushistaya (zelenaya)* – *M. matricarioides* Porter., *M. suaveolens* Buchen]. G‘arbiy Sibir va Uzoq Sharqda o‘sadi. Gullari tarkibida efir moyi, flavon glikozidlar, proxamazulen, kumarinlar, karotin, vitamin S, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor. Efir moyi xamazulen, seskviterpen spirtlar va boshqa terpenoidlardan tarkib topgan. Gullarining damlamasi me‘da-ichak va ginekologik kasalliklarni davolashda hamda ter va yel haydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Moychechakning gullari yumshatuvchi, antiseptik va yallig‘lanishga qarshi dori sifatida ishlatiladi. Me‘da kasalliklarida, tomoq chayishda ishlatiladigan choylar-yig‘malar tarkibiga kiradi.

**Mozaika** (*fr. mosaïque, ital. mosaico, lot. (opus) musivum*) – rangi, tuzilishi turlicha bo‘lgan materiallarning umumiy tayanch qismlarini birlashtirib, rasmlarni yaratish va har qanday sirtni bezash usuli. Bir turdagi bezak. Ushbu uslubga asoslangan tasviriy, dekorativ, dekorativ-amaliy va monumental san‘at turlari. Manzarali bog‘dorchilikda har xil rangli gullardan foydalanib, mozaika hosil qilish mumkin.

**Mog‘or** – 1. Turib qolgan narsalarda yoki zax yerlarda mikroskopik zamburug‘larning to‘planishidan hosil bo‘ladigan va narsalarni chiritadigan mo-miqsimon tuklar; po‘panak. *Kitob varaq-laridan zax va mog‘or hidi anqir edi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

2 ko'chma. Kir, kir bosgan. *Teshaboy yuragidagi g'ashlik mog'orini shu po'pisa bilan yuvdi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»). *Boshida titilib ketgan mog'or do'ppi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

**Mosh** [f. – mosh] – dukkakdoshlar oilasiga mansub, bir yillik dukkakli ekin va uning ovqatga ishlatiladigan, po'sti sabzirang, doni ichi oq. *Yo'lning bir yog'i mosh, loviya ekilgan dala.* (M. Mahmudov, «Mangu kuy izlab»). *Moshni terib, yuvib, sovuq suvli idishga solib, sust olovda qaynatasiz.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Moshpoya** – 1. Mosh ekinining poyasi. *Moshpoyani yulib olmoq.* 2. Mosh ekilgan yer. *Moshpoyaga suv qo'yimoq.*

**Mocha** [f. – it yoki eshakning urg'ochisi] – 1. Urg'ochi eshak. *Umid bilan boqib yurgan oq kurrali mocham qoldi.* («Gulxiromon»).

2 ayn. mochag'ar.

**Mochevina-formaldegid o'g'itlar** – sekin ta'sir etuvchi azotli o'g'itlar. Zaralarining diametri 0,5 mm dan kichik bo'lgan oq kukun, uncha nam tortmaydi, mushltanib qolmaydi. Tarkibida 37–40%, shu jumladan, suvda eriydigan 4–12% azot bo'ladi. Mochevina-formaldegid o'g'itlar azoti boshqa azotli o'g'itlarning azotidan tuproqda sekin minerallashuvi bilan farq qiladi, shu sababli ularni katta dozalarda solish mumkin. Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida turli ekinlar (g'o'za, choy, mevali daraxtlar)ga asosiy o'g'it tarzida qo'llaniladi (bir necha yil uchun bir marta solinadi).

**Muguz** – esk. hayvon shoxi. *Odam tilidan topadi, hayvon – muguzidan.* (Maqol). *Yirik gavdalari, haybatli muguzlari demasangiz, qo'chqorlar tanballik bilan kavsh qaytarardilar.* (S. Anorboyev,

«Oqsoy»). *Molxonada bir muguzi singan qashqa echki ham bo'g'ilib ma'rardi.* (H. O'ktam, «Navbahor»). *Muguz lat yesa, tuyoq sirqiraydi.* (N. Yoqubov, «Jon»).

**Muguz parda** – anat. Ko'z soqqasi-ning ustki tiniq pardasi.

**Muhandis** [a. – injener, texnik; handasa (geometriya)ni yaxshi biluvchi, quruvchi usta] – texnikaning biror sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis. [*Islomxo'ja:*] *Jadid maktablarni ko'proq ochib, dunyoviy fanlarni o'qitib... muhandis, ziroatchi, doktor, texnik tayyorlab chiqarishimiz lozim.* (J. Sharipov, «Xorazm») ... *ustalarni ham, yangi bino loyihasi ustida bosh qotirayotgan muhandislarni ham uchratasiz.* (O. Hakimov, «Suv keltiruvchi aziz»).

**Muhandislik** – muhandis ishi, kasbi. *Ahmad Donish o'z zamonasining ko'p nodir asarlar yozgan buyuk olimi... ekanligini puxta bilaman-ku, ammo o'tkir muhandisligi boisida uncha ma'lumotim yo'q...* (J. Abdullaxonov, «To'fon»).

**Muhit I** [a. – o'rab olgan, ihota etgan, ihota etilgan] – 1. Hayot, faoliyat kechadigan tabiiy yoki ijtimoiy sharoitlar majmui. *Geografik muhit. Ijtimoiy muhit. Qishloq muhiti, ota-onaning o'ta oqko'ngillik ruhida bergan tarbiyasi Yigitalining qon-qoniga singib ketgandi.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»).

2. Kasb-hunari, ishi, faoliyati va sh.k. ga ko'ra bir-biri bilan bog'liq bo'lgan kishilar doirasi.

3. Hodisa, jarayon va sh.k. kechadigan moddiy sharoit. Yorug'likning turli muhitda turlicha sinishi.

**Muhofaza** [a. – saqlash; himoya qilish] – kt. 1. Himoya qilish, qo'riqlash, himoya. *Keyingi paytlarda biz atrof muhit muhofazasi haqida ko'p gapira-*

digan bo'ldik. Bu tabiiy. (Gazetadan). Tabiiy, bu muhofaza qo'rg'oni. Atrofini o'ragan devordan o'q otish uchun shinaklar qo'yilgan. (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»).

2. Esda saqlash qobiliyati; xotira. [Mavlon] Eshitganini sira esdan chiqarmaydigan zehn-farosatli, muhofazasi baquvvat yigit. (A. Hakimov, «Ilon izidan»).

**Mulk** [a. – shaxsiy boylik, mol] – 1. Ixtiyordagi, qo'ldagi bor mol-dunyo, yer-suv, imorat va b. boyliklar. *Jamoat mulki. Xususiy mulk. Shaxsiy mulk.* [Komilov Qodirovga:] Davlat mulkini, xalq mulkini ko'z qorachig'iday saqlashimiz kerak. (Uyg'un, «Navbahor»). Madamin otasidan qolgan moliga mol, mulkiga mulk qo'shdi. (P. Tursun, «O'qituvchi»).

2 ko'chma. Boylik.

**Mulkchilik** – kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlar. *Feodal-larning yer va suvga bo'lgan mulkchiligi g'oyat keng tarqalgan edi.* (Gazetadan).

**Mulchalash** (*ing. mulch* – qoplash) – tuproq betini qalin mulchaqog'oz yoki havol (poxol, torf chiqindi, go'ng va b.) materiallar bilan yoppasiga yoki qator oralatib yopish. Mulchalash o'simlikning o'sishi sharoitiga ijobiy ta'sir etadi; yer betidan namning bug'lanishini kamaytiradi, sutka davomida haroratning o'zgarish amplitudasi muqobil bo'lishini ta'minlaydi, yer betini suv yuvib ketishi va shamol uchirib ketishidan himoya qiladi, tuproq strukturasi saqlash va yaxshilash imkonini beradi, tuproqda kechadigan biokimyoviy foydali jarayonlarni kuchaytiradi; natijada o'simlikning oziqlanishi yaxshilanadi, yer betini qatqaloq bosishdan saqlaydi.

**Munchoqli** – qo'y-echkilarning bo'yini tagida bitta yoki ikkita munchoqqa o'xshash ortig'i bor bo'lishi, ortiqcha et.

**Mum** (*cera*) – asalarilarning inini (asali olingandan so'ng) suvda qaynatib olinadigan moysimon modda. Tabiiy holda mum sariq bo'ladi (*S. flava*). Uni maxsus usul bilan oqartirib, oq mum (*S. alba*) olinadi. Mum suvda, spirtida erimaydi, efir va benzolda chala, xloroform, moylarda to'la eriydi. Mum ikki qismdan – serin (issiq spirtida eriydi, sovutsa cho'kadi) va miritsindan (issiq spirtida ham erimaydi) iborat. Serin yuqori molekullari yog' kislotalarning aralashmasi, miritsin esa shu kislotalarning spirtlar bilan hosil qilgan murakkab efirlaridan tashkil topgan. Mum surtmalar va malhamlar tayyorlashda ishlatiladi.

**Murakkab o'g'itlar** – tarkibida o'simliklar oziqlanishi uchun zarur bir necha element (azot va fosfor, azot va kaliy, fosfor va kaliy yoki azot, fosfor, kaliy) bo'lgan va yagona texnologik jarayonda olinadigan kimyoviy birikmalar. Murakkab o'g'itlarda ballast moddalar bo'lmaydi, ular yuqori konsentratsiyali oziq elementlarga ega, ularni tashish, saqlash va tuproqqa solish ancha arzonga tushadi va tarkibidagi oziq elementlarini oddiy o'g'itlarga qaraganda o'simlik yaxshi o'zlashtiradi. Murakkab o'g'itlarga ammosfos, diammosfos, ammoniylashgan superfosfat, kaliyli selitra, nitroammosfoska, nitrofoska, kaltsiy polifosfati, suyuqlantirilgan kaliy metafosfati va kaliy, kaltsiy pirofosfati, mochevina-fosfatlar, fosfoammomagneziya va b. kiradi.

**Murtak I – 1 ayn. embrion.**

2. Urug' ichidagi unib chiqadigan niholcha.

**Murg'** [*f.* – qush, parranda; tovuq] – ayn. **tovuq yili** (*q. tovuq 5*).

**Murg'ak** [f. – qushcha; jo'ja] – 1. Yangi unib chiqqan, hali quvvatga kirmagan, nozik-nihol (o'simlik, novda, barg va sh.k. haqida). *Murg'ak g'o'za. Murg'ak novda. Murg'ak barg. Muattar hidlarga burkangan bahor murg'ak kurtaklarga lablarini qo'ydi.* (X. Rasul).

2. Hali suyagi qotmagan, o'zini tutib olmagan, nimjon (odam va jonivorlar bolasi haqida). *Faqat qo'zilar, kechagina ko'z ochib, yorug' dunyoni ko'rgan murg'ak jonivorlarga bu dahshatdan bexabar edi.* (Y. Muqimov, «Qizilqum pahlavoni»).

**Musallas II** – 1. Xonaki, qo'lbola uzum vinosi. *Musallas solmoq. Musallas ichmoq. Ko'p kishilarning uylarida musallas bilan bo'zalar xumlab qaynab yotsa, ikkinchi tomonda rasmiy suratda ichkilik sotish bilan tirikchilik qiluvchilar ham yo'q emas edilar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Fikr kallada, musallas xumda yetiladi.* (Shukrullo, «Javohirlar sandig'i»). 2. Yengil vinolarning umumiy nomi. *Oq musallas. Qizil musallas.*

**Muskat** [fr. *muscat* < lot. *muscus* < f. – qoramtir xushbo'y modda; q. **mushk**] – 1. Uzunning mushk hidini eslatadigan xushbo'y navlari. 2. Shu uzumdan tayyorlangan vino.

**Muskullar** [lot. *muskulus* – sichqoncha] – odam va hayvonlarda nerv impuls-lari ta'sirida qisqarish xususiyatiga ega bo'lgan anatomik tuzilmalar; mushaklar (ular ayrim a'zolarni va tana qismlarini harakatga keltiradi). *Choy yurak muskullarida modda almashinuv jarayonini yaxshilaydi.* («Fan va turmush»).

**Mustang** (*ispancha mustango*) – xonaki otlarning yovvoyilashgan avlodi. Yevropaliklarning istilosidan keyin ular Shim. Amerikaga keltirgan xonaki otlar-ni yovvoyilashuvidan kelib chiqqan.

Egasiz qolgan, qo'ralardan chiqib ketgan otlar hosildor yaylovlar – preriyalarda yovvoyilashib, katta-katta uyurlarga aylangan. Mahalliy aholi ularni go'shti, terisi uchun ovlagan, qo'lga o'rgatgan. XVIII–XIX asrlarda ularning soni 4 mln. ga yetgan. Mustanglar XX asrga kelib bir necha o'n ming nafargacha kamayib ketgan. Avstraliyada ham yovvoyilashgan yilqilar – brambi (Avstraliya mustangi) saqlanib qolgan. Amerika va Avstraliyada mustanglar yashaydigan hududlar qo'riqxonalariga aylantirilgan.

**Muxallis barg** (*xapri-perovskia scrophulariifolia bge.*) – Yasnotkadoshlar, labguldoshlar (*Lamiacea, Labiateae*) oilasiga mansub, bo'yi 60–120 sm ga yetadigan kuchli hidli va zaharli yarim buta. Markaziy Osiyoning tog'li zonalarida o'sadi. Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi bor. Efir moyi sineol, borneol va bir qancha birikmalardan tashkil topgan. Yer ustki qismidan tayyorlangan preparatlari qo'tir, teri kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

**Mushak III** [f. -]: **mushak sabzi** – sabzining yo'g'on, g'o'lasimon va uchi to'mtoq turi.

**Mo'l** – 1. Yetarli darajada ko'p; serob. Mo'l hosil. *Daraxtlar pakana, mevasi mo'l va yirik.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2 (*ch.k. bilan*) Ortiq, ziyod, ko'p. *Bu yer chakalak edi. O'tgan yil hammasini kesib oldik... Yon-veri bilan qo'shib, bir tanobdan mo'l yer qo'lga kirdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Baxtimizga bir burchakda, eski oxurning yonidagi qoziqda bir qulochdan mo'lroq arqon bog'lanib yotar edi.* (G'. G'ulom, «Shum bola»)

**Mo'r-malax** [f. -chumoli + – chigirtka]; **mo'r-malaxday** – qumursqa va chigirtka kabi: ko'plashib yopirilib. *Kotlo-*

vandan chiqqan yangi nam tuproq tog'day bo'lib turibdi, atrofida mo'r-malaxday odam. (A. Muxtor, «Opa-singillar»). Har biri bir yangilik keltirayotgan bu kunlarning shavqidan mast bo'lgan xaloyiq har qanday ishga mo'r-malaxday yopishar... edi. (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Mo'rt** – yengilmasdan sinadigan, sinuvchan. *Mo'rt cho'yan. Mo'rt yog'och. Daraxtlar, butalar egilib-bukilardi, ammo ularni bir mo'rt cho'pdek sindirish yoki tag-tomiri bilan ag'darish oson emas edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Mo'tadil** [*a. – qaddi-qomati kelishgan, raso; mutanosib; o'rtacha, o'rtamiyona*] – 1. Sovuq ham emas, issiq ham emas; o'rtacha, o'rtamiyona. *Sunbula oyi-ning mo'tadil havosiga qaramasdan, Zaynab marjon-marjon terlagan edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Bu vodiyning go'zal manzarasi, mo'tadil iqlimi, xush havosi... hamma ko'rganlarni maftun etib keladi.* (N. Yusufiy, «Farg'ona sho'x kuladi»).

2. Umuman, o'rtacha, me'yoriy. *Mo'tadil bosim. Mo'tadil talablar.*

3. O'rtacha yo'l tutuvchi, biror tomonga yon bosmaydigan. *Mo'tadil liberallar. Yangi vazirlar mo'tadil millatchilardan va firqasizlardan iborat.* (Gazetadan).

**Mo'y** [*f. – soch tolasi, tuk; yung*] – inson va hayvon terisida o'sib chiqqan, shox moddasidan iborat bo'lgan tuk, qil. *Karimberdi mo'y bosgan burun kataklaridan burqsitib tutun qaytardi.* (E. Usmonov, «Yolqin»). *Ko'zlariga ishonmagandek yana o'qib, badanidagi har bir mo'yi tik bo'ldi.* (M. Osim, «Karvon yo'llarida»).

**Mo'yna** – mo'ynali hayvonlar terisi. Suvsar, oq sichqon, tulki, tovushqon, norka, qunduz, ondatra, nutriya, sug'ur, yumronqoziq va b.ning mo'ynasi qadrla-

nadi. Mo'ynaning qishki va bahorgi xillari bo'ladi. Sifati juni va terisiga qarab belgilanadi. Junining asosiy xossalari: uzunligi, qalinligi, yo'g'onligi, elastikligi (mayinligi), rangi, yaltiroqligi, pishiqligi; terisining qalinligi, puxtaligi, tig'izligi, o'lchami, vazni, issiq o'tkazuvchanligi va b. Mo'yna terisi hamda junining xossalari hayvon tirik vaqtida, shuningdek, shilib olinganidan keyin ham o'zgarishi mumkin. Hayvonning tirik vaqtidagi o'zgarishlar iqlim, yil fasli, yashash muhiti, oziqlar va organizmning fiziologik holatiga bog'liq. Mavsumiy o'zgarishlarga qarab, I, II, III, ba'zan IV navlarga bo'linadi. Qishki mo'yna – I; kech kuzgisi – II; erta kuzgisi va bahorgisi – III hamda IV navlarga o'tadi.

**Mo'ynali hayvonlar** – terisidan mo'yna olinadigan yovvoyi va qo'lda boqiladigan sutemizuvchi hayvonlar. Mo'ynali hayvonlarning har xil turkumga mansub 100 dan ortiq turi bor. Yirtqichlar turkumidan suvsarlar oilasiga mansub hayvonlar: suvsar Sibir, Uzoq Sharq va Shimolda, Uralda, dengiz qunduzi Kamchatka, Kuril, Komandor o.lari va Shimoliy Kaliforniya qirg'oqlarida tarqalgan. Ayrim noyob mo'ynali hayvonlar (yo'lbars, qoplon, oq ayiq, bars, qizil bo'ri va b.) «Qizil kitob»ga kiritilgani sababli ularni ovlash taqiqlanadi. Sifatli mo'yna olish uchun mo'ynali hayvonlar kuz yoki qishda ovlanadi. Ko'pchilik mo'ynali hayvonlar (tulki, amerika norkasi, suvsar, nutriya va b.) turlari kataklarda ko'paytirib boqiladi.

**Mo'yna sanoati** – Yengil sanoatning mo'ynali hayvonlar va qo'y terisini qayta ishlaydigan va turli mo'yna hamda po'stin mahsulotlari ishlab chiqariladigan tarmog'i.

**Mo'ynachilik** – chorvachilikning mo'ynali hayvonlar yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi.

**Mo'g'ul ot zoti** – jaydari ot zoti. Uning kelib chiqishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Ayniqsa, XII asr oxiriga kelib, mo'g'ullar davlatining paydo bo'lishi va mo'g'ullar istilosi davrlarida yilqichilikka e'tibor kuchaygan, mo'g'ul oti zoti ko'plab urchitiladigan va otliq qo'shinning asosiy harakat vositasi bo'lgan. Ular cho'l va chala cho'l sharoitiga moslashgan.

Mo'g'ul oti bo'yi past, jussasi kichik bo'lishiga qaramay, ishchanlik qobiliyati

yuqori (poyga sinovida 25 km masofani 42 minutda bosib o'tgan). Mo'g'ul otining qarchig'ay bal. 127–130 sm, tanasining uz. 134–135 sm, ko'krak aylanasi 154–160 sm, pochasing aylanasi 17–18 sm, bo'yni qisqa, yoli va dumi qalin va uzun. Mo'g'ul ot zotidan salt minishda, yuk tashishda, sut va go'sht yetishtirishda foydalaniladi. Mo'g'ul oti yil davomida yaylovda uyur-uyur holda boqiladi. Ular boshqa ot zotlaridan tanasida qatlam-qatlam yog'to'plashi, terisining junli bo'lishi, shu bois sovuqqa, qishda va yozgi qurg'oqchilikda bo'ladigan yem-xashak tanqisligiga chidamli bo'lishi bilan ajralib turadi.

## N

**Nabot II** [a. – o'simlik] – o'simlik, ko'kat. *Bu yassi qirg'oqlarda bobolar yotur, Tug'madir har yalpiz, har shox, har nabot.* (Mirtemir, «Asarlar»).

**Nabotot** [a. – o'simliklar] – 1. O'simliklar dunyosi, o'simliklar. Hujayraning topilishi shuni isbot qildiki, nabotot, hasharot va hayvonot – hamma tirik jismlar o'sib, ko'payib boruvchi organik kichik bo'laklar – hujayralardan iboratdir. («Umumiy biologiya»).

2 ayn. **botanika**.

**Nabototshunos** [a. + f. – o'simliklarni o'rganuvchi; tekshiruvchi] – ayn. Botanik.

**Nahr** [a. – daryo] – esk. kt. ayn. daryo. *Yovning umidlari sovrildi ko'kka, Sen kechib o'tganda Oder nahridan. Jahonning taqdiri to'g'ri hal bo'ldi, Sen mag'rur o'tganda dushman shahridan.* (Uyg'un). *Qulog'imga noming kirganda, Qumlik kabi tashna boqurman. Sening jannat vodiylaringdan Nahrlarday to'lib oqurman.* (H. Olimjon).

**Nam** [f. – ho'llik, zax, rutubat; suv, suyuqlik; shudring; ko'z yosh] – 1. ot. Biror narsa tarkibidagi yoki unga shimilgan, singigan suv. *Nam yemoq. Nam tortmoq. Yerning nami qochibdi. Tuproqdagi namni saqlash choralari.*

2. Suv; suyuqlik. *Nam ko'rmayin, qaqrab bu cho'llar Asrlarni kutib olganlar.* (H. Olimjon). *Bodring – issiqsevar, yorug'sevar va namga talabchan o'simlik.* («Fan va turmush»).

3 sft. Suv shimgan; ho'l. Nam ro'mol. *Oyoq ostidagi nam tuproqdan inson uchun juda yaqin, qon-qarindoshlik isi dimoqqa urilardi.* (S. Anorboyev, «Oq-soy»). *Rahimberdi nam ko'zlarini artib: – Yig'laganim yo'q, o'g'lim deb javob berdi.* (X. To'xtaboyev, «Shonli avlod»).

**Namak** [f. – tuz] – shv. Tuz.

**Namgarchilik** – 1. Yog'in-sochin vaqti va shu vaqttdagi zaxkashlik, loygarchilik. *Qorovulxonadan yangi molxonaga borish uchun ikki tomoni qing'ir-qiyshiq, u yer-bu yeri bahorgi namgarchilikda qulab tushgan eski devor bilan to'silgan*

ko'chadan o'tiladi. (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2. Yog'ingarchilik. Namgarchilik ko'p bo'ladigan hududlar. *Sovuq namgarchilik hali yoz xotirasi bilan mung'ayib turgan kuzgi gullarning rangini o'chirib ketdi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»).

**Namiqmoq** – nam tortmoq, nam bo'lib qolmoq; ho'l bo'lmoq. *Zaxda somon namiqib qolibdi. Uning [Sherbekning] yelkasiga va turtib chiqqan beliga terdan namiqqan ko'ylagi yopishib qolgan.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Suvchilar suvni egatlarga bir me'yorda tarab, jildiratib, tagidan namiqtirishga alohida e'tibor beradilar.* (Gazetadan).

**Namlamoq** – nam qilmoq, nam bermoq, ho'llamoq. *O'ktamning boshi qizib yonadi, ter tomchilari manglayidan yumalab, kipriklarini namlaydi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Uning [Gulsumning] ko'z yoshi bilan namlangan kipriklari kapalak qanotiday silkindi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Namli** – nami bor, namga ega; nam, ho'l. *Namli va bulutli havoda o'rgimchaklar, shilliqalar tug'iladi, shudgordan boshqa oziq topolmagandan so'ng yangi o'sib chiqqan g'ozalarni qirqishga boshlaydi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Namlik** – 1. Havodagi suv bug'lari va moddiy jismlar tarkibidagi suv miqdori. *Bu namlik, asosan, kuz, qish va bahor fasllarida tushib, o'simlikka zarur bo'lgan miqdorni aslo qondirolmaydi.* («Fan va turmush»).

2. Namga egalik; nam bo'lgan holat. *Kiyimni namligida dazmollamoq.*

**Namozshomgul** [f.–shom payti ochiladigan gul] – guli kechqurun ochilib, ertalab yopiladigan ko'p yillik va bir yillik o'tsimon o'simlik va uning oq, sariq yoki

qizil guli. *Oftob qayta boshlar, ko'lanka maydon, Yana bosh ko'tarar namozshomgullar. Sekin moviylashar qizargan osmon, Oqarib ko'rinar kumushrang yo'llar.* (A. Oripov, «Onajon»).

**Namreza** [f.–to'kilgan nam] – ayn. shabnam. *Ertalabki namreza tufayli bo'lsa kerak, gullar xuddi hozirgina uzilgandek.* (N. Aminov, «Suvarak»).

**Namtob** [f.] – namiqqan, namni singdirgan, nam holatli; salqin. *Gulnoz otilib, bog'ko'chaga chiqdi va Qichqiriy shalolasining namtob salqin havosidan ko'kragini to'ldirib nafas oldi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»). *Mashina ertalabki namtob tuproqda jimjimador tasmadek ikkita iz qoldirib, rayon markazining katta ko'chasidan dala yo'liga chiqib ketdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Nam to'plash** – qor va yomg'ir suvlarini to'plash, oqib ketishiga yo'l qo'ymay, tuproqda nam yig'ishga qaratilgan agrotexnikaviy tadbir. Tuproqning 1,5–2 m qatlamida ekinlar kelgusi yil bahorda yoki yozning boshlanishida foydalanishi mumkin bo'lgan suv zaxirasini yaratish uchun o'tkaziladi. Nam to'plash namgarchilik yetishmaydigan va o'zgarib turadigan mintaqalarda muhim ahamiyatga ega.

**Namuna** [f. – andaza, nusxa; o'rnak, ibrat] – 1. Bir turdagi narsalarning shu narsalar haqida tasavvur bera oladigan bir nusxasi, bo'lagi, donasi. *Gazlama namunasi. G'alla namunalari ko'rgazmasi.*

2. Timsol, misol. *Qutbiddinlar ikki kun davomida lojuvard konini o'rganishdi, o'n kilogrammcha namuna olishdi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»). *Yusufjon qiziq Shakarjonovning hayotiy va ijodiy yo'li kamtarlik, mehnatsevarlik va xalqqa sidqidildan xizmat qilishning yorqin namunasidir.* (T. Obidov, «Yusufjon qiziq»).



3. O'rnak bo'la oladigan, ibrat olsa, ergashsa arziydigan shaxs yoki narsa; ibrat, o'rnak. *U mehnatsevarlikda hammaga namuna. Namuna ko'rsatmoq. Namuna olmoq. Namuna maktabi. – Biz maktabimiz bilan faxrlanamiz. Bu yerni bitirib ketganlar bizga namuna va o'rnak, – dedi A'zam Rasulov.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**Namxush** [*f.* – yarim (chala) quruq] – *shv.* Nimxush, biroz namli. *To'y-chiboy aka shu gaplarni aytguncha terlab ketdi, belbog'iga qistirikli namxush ro'molchasi bilan yuzlarini, peshonasi-ni artdi.* (S. Mahkamov, «Dala tongi»). *Namxush havoda qish uyqusini tark etgan tuproqning mayin isi ohista qanot qoqadi.* (O'. Hoshimov, «Nur borki, soya bor»). *Namxush shamol esadi, Jo'nariq sohili-dan.* (X. Saloh)

**Namchil** – nomi biroz saqlangan. *Jumaboy aka yer hidi kelib turgan namchil paxtazor chetiga cho'nqayib, bir qism mayin tuproqni kaftida asta yozarkan, go'yo u bilan gaplashardi.* (O'. Usmonov, «O'jar odamlar»).

**Napormon** – *q. nafarmon. Ariqcha bo'yidagi atirgul, qizil gul, napormon gullar ochilib yotibdi. Qirlardan esayotgan mayin shabada ana shu gullarning g'unchalarini yozmoqda, yaproqlarini uchirib kelib, Adolatning boshiga sochmoqda.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Gullar jilvasidan tovlanadi bog', Gunafsha, gulsafsar pushti, napormon.* (Mirtemir, «Tanlangan asarlar»).

**Nar** [*f.* – erkak jinsidagi; erkak; jasur, mardona] – *erkak jinsli hayvon yoki paranda. Ma'lumki, kanareykalarining faqat nari sayraydi, xolos.* («Fan va turmush»).

**Nargis** [*f.* < *yun.* *Narkisos* – yunon mifologiyasida: o'z husniga oshiq bo'lib,

shu ishqdan halok bo'lgan va ma'budlar tomonidan shu nomdagi gulga aylantirilgan yosh yigit] – 1. Oq yoki sariq gulli ko'p yillik o't va uning chiroyli guli.

2. Nargis (xotin-qizlar ismi).

**Narra** [*f.* – erkak; erkak jinsiga mansub] – erkak jinsidagi hayvon. *To'yni qilur tanti elim – narra she'r, Dasht-u dala topdi safo, yali-yali.* (Mirtemir, «Tanlangan asarlar»).

**Narraki** – kasalga yo'liqib o'sgan sabzavot yoki nasli buzilgan o'simlik. *Narraki sabzi. Narraki novda* (hosil bermaydigan novda).

**Narx, baho** [*f.* – baho, qiymat] – narsaning, buyumning pul bilan o'lehanadigan qiymati; baho. Tovar qiymatining puldagi shakli; bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi dastak. *Ibodilla katta-kichik taroqlarning narxlarini birma-bir aytdi.* (H. G'ulom, Mash'al). [*Mahdum bolaga:*] *Yigirma dona non kerak ekan. Narxi qanchadan? – deb darrov so'rab kel!* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

**Narx intervensiyasi** – davlat tomonidan muayyan tovar va valyutaning bozor narxlarini tartibga solish uchun maqsadli xarid va savdolarni amalga oshirish mexanizmi.

**Narx-navo** [*narx* + *f.* – yashash vositalari; farovonlik, boylik; garov] – narx, baho; narxlar, baholar. *Bozorda narx-navo ko'tarilib, xaridor-u sotuvchining tortishuvlari avjga mingan edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»). *Savdo xodimi – dunyoning qay burchida nimalar bo'lyapti, narx-navo qalay – hammasidan xabardor, turli xil odamlar bilan muomala qila oladigan ilmi va diplomat odam.* (Shukrullo, «Javohirlar sandig'i»).

**Narx qo'ymoq** (yoki **qilmoq**) – narxini belgilamoq, baho qo'ymoq, bahola-

moq. *Bu molga besh so'm narx qo'yildi. «Xolislar» har bir botmon jo'xorini 10 tanga narx qildilar.* (S. Ayniy, «Esdalıklar»).

**Naryad** [*r. naryadit* – «topshiriq bermoq; maxsus ishga yubormoq; tayinlamoq» *fl. dan qo'shimchasiz hosil qilingan ot*] – 1. Biror ishni bajarish uchun beriladigan yozma yoki og'zaki farmoyish yoki buyruq. *Naryad yozib bermoq. Naryadga muvofiq haq to'lamoq.*

2. Biror narsa olish yoki topshirish uchun yozib berilgan hujjat. *Skladdan naryad bilan mol olmoq. Polvon otam bilan ikkovimiz kolxoz do'koniga naryadi yo'q uch mashina qovun oshirgan emishmiz, tuhmat.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

**Narzan** (Kislovodsk (Rossiya Federatsiyasi)dagi buloq nomi) – karbonat angidrid-sulfatli shifobaxsh mineral suv. *Bilmadik, Haydarov shundan buyon Piskentning suvini ichayaptimi, yo'qmi yoki tashnaligini narzan, pivo, qimiz deganday boshqa ichimliklar bilan qondirib yuribdimi?* (Gazetadan).

**Nasim** [*a. – mayin shabada, sabo*] – *kt.* 1. Yengil, yoqimli shamol; shabada, sabo. *Ariq bo'ylari, tolzorlar oralab uchgan shabadalar, Samarqand nasimiday, qaynoq tanlarga qanot urib, erkalab, orom berib o'tadi.* (Mirmuhsin, «Umid»). *Kolonnalar to'lib-toshadi, bayroqlar bahor nasimi bilan o'ynashadi.* (Mirtemir, «Tanlangan asarlar»).

2. Nasim (erkaklar ismi).

**Nasiya** [*a. – muhlatni cho'zish, kechiktirish; qarz, kredit*] – 1. Naqd pulsiz, pulini keyin to'lash sharti bilan bo'lgan yoki bo'ladigan savdo muomalasi; kredit. *Molni nasiyaga olmoq. Nasiyaga sotmoq.* [*Mirzakarimboy:*] ...naqd pulga mol

*chaqqon bo'lgan zamonda siz ancha molni nasiyaga sotibsiz.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Jahon ota allakimning boqib qo'rgan qo'zisini nasiyaga olib keldi.* (R. Rahmonov, «Changalzordagi sharpa»).

2. Shunday savdo muomalasiga muvofiq to'lanadigan pul, qarz. *Endi gap shu: oyoqni qattiq tirang. Qozoqlardan nasiyani tezroq undiring, durustmi?* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

3 *ko'chma s.t.* Darhol bajarilmaydigan, qilinmaydigan, berilmaydigan. *Bu va'dalaringiz hammasi nasiya. Kirib tarvuzni qo'liga beraman-u, salom-alikni nasiya qilib, quyon bo'laman.* (S. Ahmad, «Saylanma»).

**Nasl** [*a. – avlod, urug'; bola-chaqa; tug'ilgan bola (hayvonlarda)*] – 1. Bir avlod-ajdodga mansub kishilar urug'i, ularning kelib chiqishi, zoti, nasabi, tagi-taxti. *Naslini surishtirmoq. Nasldan naslga o'tmoq. Qazisan-qartasan, asli naslingga tortasan.* (Maqol). *Al-Beruniy, Al-Xorazmiy Al-Forob avlodidan, Asli nasli balki o'zluq, Balki tarxon, o'zbeгим.* (E. Vohidov, «Muhabbat»).

2. Kelajak avlod, zurriyot. *Nimani meros qilib qoldirayin naslinga.* (S. Akbariy, «Mehrigiyo»). *Bahodir nasli ham bo'lgay bahodir. Na mushkul bo'lsa, hal qilmoqqa qodir.* (Habibiy).

3 *biol.* Ma'lum belgi-xususiyatlarga ega, bir turga mansub o'simliklar, bir zotga mansub hayvonlar guruhi; urug', zot. Hayvonlarni duragaylab, yangi nasl olish. *Biz ot naslini tuzatishda ham hali bir ish qilmadik.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Nasl almashinishi** – organizmlarning hayotiy siklida ular avlodi (nasli, hayotiy guruhleri)ning qonuniy almashinib turishi.

**Nasldor** – 1. Nasli yaxshi; zotli, zotdor. *Nasldor mollar.*

2. Tag-taxtli, zodagon. *To'g'onbek shahzoda xizmatida bo'lgan nasldor, obro'li beklarni, mulozimlarni chetlatib, tun-kun shahzodaga chegarasiz hokimiyatga intilgan quv, mug'ombir ruhining ehtiroslarini talqin etadi.* (Oybek, «Navoiy»).

**Nasldosh** – nasli, zoti bir, bir urug'dan tarqagan.

**Nasliy** – naslga oid, nasldan naslga o'tib boradigan. *Nasliy xususiyatlar. Nasliy o'zgarishlar.*

**Naslli** – ayn. **nasldor 1.** *Naslli sigirlar.*

**Naslsiz** – nasl qoldirmaydigan, pushti yo'q. *Xachirlar naslsiz bo'ladi.*

**Naslichilik** – q.x. Hayvonlar va parrandalar naslini, zotini yaxshilash, takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-zootexnik tadbirlar majmui. Naslichilikning asosiy vazifasi mavjud q.x. hayvonlari, parrandalari, asalari, baliqlar va ipak qurti zotlarini muttasil takomillashtirish, mahsuldorligini oshirish, nasldorlik sifatini yaxshilash, yangi tiplar, zot guruhlari, liniyalari, oilalari, zotlari, krosslari, partenoklonlarini yaratishdan iborat.

*Mollarni yaxshi parvarish qilish bilan bir qatorda naslichilik ishlarini to'g'ri uyushtirish ham qoramollar mahsuldorligini yanada ko'paytirishning katta rezervevidir.* (Gazetadan).

**Naslichilik ishi** – mavjud mollar zotini takomillashtirish va yangi, sermahsul mollar zotini yaratishga qaratilgan zootexnik hamda tashkiliy chora-tadbirlar kompleksi.

**Naslichilik kitobi** – nasldor hayvonlar davlat kitobi – zot standartlariga mos keladigan naslli mollarni ro'yxatga olish

kitobi. Naslichilik kitobida xo'jaliklarda urchitilayotgan hayvonlar zotlaridagi eng mashhur erkak va urg'ochi hayvonlarning kelib chiqishi va mahsuldorlik ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar qayd qilib boriladi.

Kitobda qayd etilgan ma'lumotlardan ishlab chiqarishda keng miqyosda foydalanish mumkin. Ushbu kitob respublikada urchitilayotgan nasldor qoramol, ot, tuya, qo'y va echkilarni ro'yxatga olish, ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilib, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida keng targ'ib qilish imkonini beradi.

**Naslichilik xo'jaligi** – chorva hayvonlari va parrandalarning ma'lum bir zotiga mansub mollarni urchitish bilan shug'ullanadigan xo'jalik. Naslichilik ishini olib borishning asosiy usuli naslichilik zavodlaridagi kabi sof zotli urchitish bo'lib, zotdagi tizim va oilalarni takomillashtirib, podada duragay mollar bo'lsa, ularni qon singdirish usuli bilan chatishtiradi.

**Nasos** [*r. nasosat* – «tortmoq, so'rmoq, tortib (so'rib) olmoq»] *fl. dan qo'shimchasiz hosil qilingan ot*] – suyuqlik yoki gazni tortib chiqarish, yoki yuborish uchun qo'llanadigan asbob, mashina. *Velosiped nasosi. Havo nasosi. Nasos bilan suv chiqarmoq. – Bilaman, neft nasoslarini bilaman, – dedi shoshilib Huseyn.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Nasos stansiyasi** – suyuqlikni balandlikka chiqarib berish yoki uni bir joydan ikkinchi joyga olib o'tkazish uchun qurilgan maxsus inshoot.

**Nastarin** [*f. – oq, qizil rangli, xushbo'y guli bo'lgan o'simlik*] – buta yoki daraxt ko'rinishidagi, gullari mayda to'pgul, xushbo'y, oq, pushti, qizil rang-

li manzarali o'simlik; siren. *Bog'larda nastarin gullab qoldi-yu, Bahor hurmatichun men uzib oldim, Keyin o'z chakkamga taqishdan ko'ra, Bekamga taqdimin o'ylabon qoldim.* (G'. G'ulom, «Qizlargaga»). *Yotoqxonada hovlisidagi nastarinning xush bo'ylari dimog'imga urildi.* («Yoshlik»).

**Natriyli selitra**, *natriy nitrat* ( $\text{NaNO}_3$ ) – nitrat kislotaning natriyli tuzi; azotli o'g'itlardan. Suvda yaxshi eriydigan rangsiz kristall modda. Natriyli selitra fiziologik ishqoriy o'g'it, shuning uchun u, ko'pincha, ohaklanmagan nordon chimlipodzolli tuproqlarda ishlatiladi. Markaziy Osiyoning karbonatli tuproqlarida, ayniqsa sho'rlangan tuproqlarda natriyli selitraning ishlatish tavsifiya etilmaydi.

**Natura** [*lot. natura* – xossa, xususiyat; kishining xulq-atvori; tabiiy mayli; tabiat] – 1. Rasmga, kinoga olish, surat chizish va sh.k. uchun obyekt bo'lgan tabiiy manzara, narsa, odam va sh.k. *Naturadan suratga olish. Natura tanlash. Boshdan oyoq naturada suratga olingan juda ko'p filmlarni misol qilib ko'rsatsa bo'ladi.* (S. Xo'jayev, «O'zbek tarixiy filmlari»).

2 *iq.* Pul o'miga to'lanadigan mol, mahsulot. *Natura bilan haq to'lash. Kolxozchilar mehnatga haq to'lash, ular mehnatini natura va pul bilan rag'batlantirish sistemasi takomillashtirildi.* (Gazetadan).

**Nav** [*a.* – xil, tur, ko'rinish] – seleksiya natijasida yaratilgan, muayyan morfologik, biologik, irsiy, fiziologik va xo'jalik belgi hamda xususiyatlari turg'un va nasldan naslga o'tib boradigan, bir turga mansub o'simliklar majmui; madaniy o'simliklar uchun eng kichik sinf birligi. 1. Narsalarning umumiy belgilari bilan birlashuvchi guruhi; tur, xil. *Mevalarning kechpishar navlari.* – Mardon

*Yo'lchiyeovich har kuni tong bilan toqqa chiqib, yong'oq navlarini o'rganardi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»).

2. Molning, buyumning sifat, qiymat jihatdan xili, turi; sorti. *Biron buyumni sifatsiz ishlab, a'lo navga haq olish noinsoflik, vijdonsizlik, to'g'rirog'i, o'g'rilikning boshqa bir turi-ku!* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Bir nav(i)** – 1) yaxshi ham emas, yomon ham emas, o'rtamiyona. *Yer bir nav haydaldi, ekin bir nav ekildi, lekin shundoq bo'lsa ham, hosil ekinni yozda qandoq parvarish qilinishiga ham bog'liq bo'lgani uchun odamlarning ko'ngli to'q edi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

*Ona bir navi yashab turganini, qudasi Jo'rayov aka uch-to'rt kelib xabar olganini aytdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»);

2) durust, tuzuk, yaxshi. *Mastura opa keladigan mehmonlar bilan tanish bo'lganda ham bir navi edi.* (R. Fayziy, «Shohi darparda»).

**Nav almashtirish** – ekilayotgan ekinlar navlarini hosildorligi hamda boshqa qimmatli xo'jalik belgilari ustun bo'lgan yangi navlar bilan almashtirish. Yangi navlar Davlat nav sinash komissiyasi tomonidan avvalgi navlarga qaraganda hosildorligi, hosilning yoki qayta ishlangan mahsulotning sifati, mashina ishlovi va yig'ishtirishga mosligi, noqulay sharoitga, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi ko'rsatkichlari bo'yicha ustun bo'lgandagina almashtiriladi.

**Navli** – 1. Navi, sifati jihatidan yuqori, sara. *Navli urug'lar. Navli urug'likni mamlakatimizning boshqa rayonlaridan olishga to'g'ri kelmoqda.* (Gazetadan).

2. Biror navga mansub bo'lgan. *Past navli papiros. Biz ham yuqori navli chi-*

gitan eksak bormi, o'ttiz-o'ttiz besh sentner paxta naqd ekan. (R. Azizxo'jayev, «Yashil chayla»).

**Nav nazorati** – navning haqiqiyligini belgilash hamda urug'lik ekinlarining nav tozaligini aniqlash. Urug'lik ekinlarini aprotatsiya qilish va aprotatsiyaning to'g'riligini ekilgan urug'lik to'plaridan olingan namunalarni grunt nav tahlili usulida tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Navni rayonlashtirish** – q.x. ekinlarining yuqori mahsuldor, mahsulot sifati va b. ko'rsatkichlari bo'yicha qimmatli yangi navlari va duragaylarini tanlab olish va muayyan tabiiy zonalaridagi xo'jaliklarda ekish (joylashtirish). Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini rayonlashtirish O'zbekistonda 1934-yilda joriy etilgan. Rayonlashtirish uchun qimmatli xo'jalik belgilariga va mahsuldorligiga ko'ra, muayyan zonada ilgari rayonlashtirilgan navga qaraganda ustun turadigan yangi nav tasdiqlanadi.

**Navnihol** [f. – yosh, yangi daraxt, ko'chat] – 1. Yangi o'tqazilgan yoki unib chiqqan ko'chat; yosh daraxt. *Salimxon esa ekib parvarish qilgan navniholning birinchi mevasini yeganday zavqlanar edi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

2 ko'chma. Yangi tug'ilgan, paydo bo'lgan, yosh. *Hafiza bilan Umid navnihol muhabbatning sirli og'ushida mast va mamnun yurardilar.* (Mirmuhsin, «Umid»).

3 ko'chma. Yosh yigit yoki qiz. *Nozik, navnihol bo'lsang, toleimdan o'rgilay.* (T. To'la).

**Navro'zgul** (*primula L.*) – Navro'zguldoshlar (*Primiilaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 12–25 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simliklar. Rossiya, Yevropa,

Kavkaz, G'arbiy Sibirning ba'zi nohiyalaridagi o'rmon chetlarida, butalar orasida va o'tloqlarda o'sadi. Dorivor navro'zgul. Bargi tarkibida ko'p miqdorda vitamin S, karotin, saponinlar va boshqa birikmalar, ildizpoyasi bilan ildizi tarkibida ko'p miqdorda triterpen saponinlar, efir moyi va boshqa moddalar bor.

**Nav sinash**, *nav sinovi* – q.x. ekinlarining yangi navlari va duragaylarini standart navlarga qiyosan bir xil sharoitlarda har tomonlama o'rganish va baholash, q.x. da yetishtirishga yaroqliligini tekshirish.

**Naycha** [f. – kichik nay, qamishcha] – 1. Kichik yoki ingichka nay. *U yerda ham laboratoriyadagiday egri-bugri shisha naychalar, shisha idishlar, o'lchagichlar, elektrokamera, har xil asboblardir.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2 maxs. Ip o'raladigan naysimon asbob yoki mashina qismi. *Bu yerning bola-chaqasi tili chiqib, avval bilgan so'zi-arqoq bilan tarog'-u naycha bilan moki.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

3 bot. Poliz ekinlarida hosil bo'luvchi tuguncha, nishona. *Shu bilan oshqovoqning tutgan naychalari sarg'ayib to'kilaverdi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»). *Shaharliklar juda olifta, nozik kelishadi. Podvalda ko'kartirilgan kartoshka urug'ining naychasidan ham nimjon.* (M. Hazratqulov, «Jur'at»).

4. Yupqa metall yaproqcha o'rami (nay shakli) dan iborat, chakkaga taqiladigan ayollar taqinchog'i.

**Naychalamoq** – tuguncha hosil qilmoq, tugmoq (qovun, bodring, qovoq kabi poliz ekinlari va b. haqida). Bodring naychaladi. *Xullas, qattiq mehnatlari zoye ketmadi, qo'shnilarniki chopiqqa yetgan-da, Xolboyning paxtasi ikkinchi chopiq*

gitdan eksak bormi, o'ttiz-o'ttiz besh sentner paxta naqd ekan. (R. Azizxo'jayev, «Yashil chayla»).

**Nav nazorati** – navning haqiqiyligini belgilash hamda urug'lik ekinlarining nav tozaligini aniqlash. Urug'lik ekinlarini aprotatsiya qilish va aprotatsiyaning to'g'riligini ekilgan urug'lik to'plaridan olingan namunalarni grunt nav tahlili usulida tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Navni rayonlashtirish** – q.x. ekinlarining yuqori mahsuldor, mahsulot sifati va b. ko'rsatkichlari bo'yicha qimmatli yangi navlari va duragaylarini tanlab olish va muayyan tabiiy zonalaridagi xo'jaliklarda ekish (joylashtirish). Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini rayonlashtirish O'zbekistonda 1934-yilda joriy etilgan. Rayonlashtirish uchun qimmatli xo'jalik belgilariga va mahsuldorligiga ko'ra, muayyan zonada ilgari rayonlashtirilgan navga qaraganda ustun turadigan yangi nav tasdiqlanadi.

**Navnihol** [f. – yosh, yangi daraxt, ko'chat] – 1. Yangi o'tqazilgan yoki unib chiqqan ko'chat; yosh daraxt. *Salimxon esa ekib parvarish qilgan navniholning birinchi mevasini yeganday zavqlanardi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

2 ko'chma. Yangi tug'ilgan, paydo bo'lgan, yosh. *Hafiza bilan Umid navnihol muhabbatning sirli og'ushida mast va mamnun yurardilar.* (Mirmuhsin, «Umid»).

3 ko'chma. Yosh yigit yoki qiz. *Nozik, navnihol bo'lsang, toleimdan o'rgilay.* (T. To'la).

**Navro'zgul** (*primula L.*) – Navro'zguldoshlar (*Primiilaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 12–25 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simliklar. Rossiya, Yevropa,

Kavkaz, G'arbiy Sibirning ba'zi nohiyalaridagi o'rmon chetlarida, butalar orasida va o'tloqlarda o'sadi. Dorivor navro'zgul. Bargi tarkibida ko'p miqdorda vitamin S, karotin, saponinlar va boshqa birikmalar, ildizpoyasi bilan ildizi tarkibida ko'p miqdorda triterpen saponinlar, efir moyi va boshqa moddalar bor.

**Nav sinash**, *nav sinovi* – q.x. ekinlarining yangi navlari va duragaylarini standart navlarga qiyosan bir xil sharoitlarda har tomonlama o'rganish va baholash, q.x. da yetishtirishga yaroqliligini tekshirish.

**Naycha** [f. – kichik nay, qamishcha] – 1. Kichik yoki ingichka nay. *U yerda ham laboratoriyadagiday egri-bugri shisha naychalar, shisha idishlar, o'lchagichlar, elektrokamera, har xil asboblar.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2 maxs. Ip o'raladigan naysimon asbob yoki mashina qismi. *Bu yerning bola-chaqasi tili chiqib, avval bilgan so'zi-arqoq bilan tarog'u naycha bilan moki.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

3 bot. Poliz ekinlarida hosil bo'luvchi tuguncha, nishona. *Shu bilan oshqovoqning tutgan naychalari sarg'ayib to'kilaverdi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»). *Shaharliklar juda olifta, nozik kelishadi. Podvalda ko'kartirilgan kartoshka urug'ining naychasidan ham nimjon.* (M. Hazratqulov, «Jur'at»).

4. Yupqa metall yaproqcha o'rami (nay shakli) dan iborat, chakkaga taqiladigan ayollar taqinchog'i.

**Naychalamoq** – tuguncha hosil qilmoq, tugmoq (qovun, bodring, qovoq kabi poliz ekinlari va b. haqida). Bodring naychaladi. *Xullas, qattiq mehnatlari zoye ketmadi, qo'shnilarniki chopiqqa yetganda, Xolboyning paxtasi ikkinchi chopiq*

so'rab g'unchaladi, gullab naychaladi. (K. Yashin, «Hamza»).

**Nashanamo datiska qizilyugurik** (*datisca cannabi* – *na* L.) – Datiskadoshlar (*Datisceaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 2,5 m ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyo va Kavkazning tog'li nohiyalaridagi katta-kichik daryo va soy bo'ylarida, shag'alli, mayda toshli va qumli nam yerlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida flavonoidlar (*datissetin*), organik kislotalar, vitamin S, oshlovchi moddalar bor. Xalq tabobatida mevasining qaynatmasi (yoki damlamasi) surgi va kuchli qustiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Yer ustki qismidan olingan preparati – datiskan o't haydovchi, spazmaga qarshi ta'sir etuvchi va yaralarni davolovchi vosita sifatida jigar, o't qopi va o't yo'llari hamda me'da va o'n ikki barmoq ichakning yara kasalligini davolashda qo'llaniladi.

**Nashvati** – nokning sershira, suvli, och sariq, qizil yoki sarg'ish ko'k yirik navi. *To'g'aysari Murtoz uzatgan nashvatini artmayoq bir tishladi.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»).

**Na'matak** (*rosa* L.) – Ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, guli xushbo'y va har xil rangli, mevasi shirali, shakli va rangi har xil, yovvoyi holda o'sadigan yoki ekma usulda o'stiriladigan (Ba'zi turlari tibbiyot, parfyumeriya va farmatsevtikada ishlatiladi), bo'yi 1–3 m ga yetadigan tikanli butalar turkumi. MDH davlatlari o'rmon-cho'l yerlarida, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Sibir, Uzoq Sharqdagi o'rmonlar, soy bo'ylari, butalar orasi, tekislik, tog' va cho'l nohiyalar, tog'larning quruq, toshloq yonbag'irlari va boshqa yerlarda o'sadi. Tibbiyotda na'matakning

14 turining mevasi va urug'ining moyi ishlatiladi: (*Sh. Beggera* – *R. Beggeriana Schrenk.*) – **Begger na'matagi**; (*Sh. daurskiy* – *R. davurica Rall.*) – **Dauriya na'matagi**; (*Sh. iglisty* – *R. acicularis Lindl.*) – **Tikanli na'matak**; (*Sh. korichniy* – *R. Cinnamomea L. (R. majalis Herrm.)*) – **Dolchin na'matak**; (*Sh. rxly* – *R. laxa Relz.*) – **Mayin na'matak**; (*Sh. sobachiy* – *R. Canina L.*) – **Itburun na'matak**; (*Sh. Fedchenko* – *R. fedtschenkoana Rgl.*) – **Fedchenko na'matagi va b.** Mevasi tarkibida ko'p miqdorda vitaminlar (S, V, R va K), karotin, qandlar, limon va olma kislotalar, pektin, oshlovchi va b. moddalar, urug'ida moy bor. Quritilmagan mevasidan vitamin konsentratlari tayyorlanadi; vitamin S – askorbin kislota olinadi va oziq-ovqat (ayniqsa, qandolat) mahsulotlarini vitamining boyitishda undan keng foydalaniladi. Urug'idan olingan yog' va mevasining yumshoq qismining moydagi ekstrakt-karotolin teri kasalliklari (dermatozlar va b.), trofik yara (ekzema), rentgen nuri ta'sirida kuygan joylarni, yarali kolit va b. kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Mevasining qiyomidan (suvli ekstraktini quyultirib, qand qo'shib) tayyorlangan «xolosas» o't pufagi yallig'lanishi, sariq xastaligi va b. jigar kasalliklariga davo qilinadi. Askorbin kislota – vitamin S va uning preparatlari lavsha (singa) va b. avitaminoz kasalliklarini davolashda hamda ularning oldini olishda qo'llaniladi. Askorbin kislota ko'pchilik murakkab preparatlar tarkibiga kiradi. Mevasi vitaminli choylar-yig'malar tarkibida keng ishlatiladi. *Yigitali qorong'ida timiskalanib, chapga burilganda, na'matakning tikanli shoxlari bexosdan yuziga urildi.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»).

2. Shu o'simlikning qizil dorivor mevasi. *Na'matak, qoraqand, zirk, limon, turp va boshqa ko'p sabzavotlarda «S» vitamini bo'ladi.* (M. To'ychiyev, «Vitaminlarni unutmang»).

**Nektar** [*yun. nektar*] – 1. Yunon mitologiyasida ma'budlarning abadiy hayot va yoshlik ato etuvchi ilohiy ichimligi.

O'simlikning shira bezlaridan chiqadigan shirin suyuqlik. Asalari organizmida qayta ishlangan gulshiradan asal hosil bo'ladi.

2 *bot.* Gulning shirasi, gulshira. *O'simliklar dorivor moddalar manbaidir. Shunday moddalardan biri gul nektaridir.* («Fan va turmush»). *Asalari o'n ming gulga qo'nib, bir grammdan nektar to'playdi.* (Gazetadan).

**Nest-nobud** [*f. – mavjud emas, yo'q + – mavjud emas, yo'q qilingan*]: **nest-nobud bo'lmoq** – bekorga yo'q bo'lib ketmoq; **nobud bo'lmoq.** *Hosilning nest-nobud bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Nest-nobud qilmoq;* Bekorga yo'q qilmoq; **Nobud qilmoq.** *Oltindan ham qimmat «oq oltin» o'z vaqtida va nest-nobud qilinmay yig'ib-terib olindi.* (Gazetadan).

**Nigrol** [*lot. niger – qora + ol(eum) – yog', moy*] – yog'li gudron; mexanizmlarni yog'lash uchun ishlatiladigan, neftdan olinadigan qovushqoq suyuqlik.

**Nihol** [*f. – yangi o'tqazilgan, o'stirilgan daraxt; qalamcha*] – 1. Yosh novda yoki ko'chat. *Yosh niholga ustalik bilan qilingan payvand tez amal oladi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t. o»).

2. Yangi unib chiqqan o'simlik, ekin. *G'o'za nihollari. Daraxtdan meva olaman desang, niholidan parvarish qil.* (Maqol). *Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra.* (Maqol).

**Nilometr** – Ahmad al-Farg'oni boshchiligida abbosiy xalifa al-Mutavakkilning amri bilan 861-yilda Qohira shahri yaqinidagi Ravzo orolida Nil daryosi suv sathini o'lchash maqsadida qurilgan inshoot. Ba'zi Sharq mualliflari asarlarida qurilgan inshoot. Nilometr murabba shaklidagi quduq ko'rinishida bo'lib, Nil daryosi bilan uchta yer osti suv yo'llari orqali tutashgan.

**Nimtalannagan go'sht massasi** – hayvonning ichki organlari olib tashlangan (buyraklari va buyrak ostidagi yog'lari qolgan) boshsiz, dumsiz, oyoqlarsiz massasi: bu mollarning zotiga, jinsiga, yosh va semizligiga bog'liq.

**Nimxushk** [*f. – yarim quruq, chala qurigan*] – biroz nomi bor, namroq, ho'lroq. *Nimxushk tuproq.*

**Nitratlar** [*q. nitro..*] – *kim. q. x.* Nitrat (azot) kislotasining tuzlari: o'g'it sifatida hamda dori-darmon va portlovchi moddalar ishlab chiqarishda qo'llanadi.

**Nitratlashuv** (*lot. nitrum – azot va fa-cio – bajaraman*), **nitrikatsiya** – ammoniy tuzlarining mikrobiologik yo'l bilan nitratlarga aylanish jarayoni. Nitratlar o'simliklarning azot bilan oziqlanishidagi asosiy shakldir. Bu jarayon tuproq va suv havzalarida kechadi. Azotning tabiatda doiraviy aylanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

**Nitratli o'g'itlar** – tarkibida nitrat shaklidagi azoti bor o'g'itlar.

**Levelir** [*fr. niveler – to'g'rilamoq, baravarlamok < niveau – vaterpas, shayton*] – Yerning past-balandligini biror nuqtaga nisbatan o'lchaydigan geodezik asbob.

**Levelirlash** – geodezik o'lchashning bir turi; yer sathi balandliklarini biron-bir tanlangan nuqta yoki dengiz sathiga nisbatan aniqlash, belgilash.



**Nivelirovka** – q. nivelirlash.

**Nish** [f. – ari, chayonlarning chaqish a'zosi; nayza; biror narsaning o'tkir uchi; chaqish, nina, nayza sanchish] – 1. O'tkir narsaning uchi; nayza. *Ko'k strelkalarining shaharga, tepaliklar va katta yo'llarga qaratilgan nayzalari... xanjar nishiday armiya mudofaasiga sanchilib turardi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Gazandalarning chaqqanda sanchadigan a'zosi; nishtar. *Yo'lda chayon toshbaqadek do'stiga, Urdi bir-ikki nishni po'stiga.* (Hamza).

3. Endigina unib chiqqan (o'simlik yoki kurtak). *Tuproqni ko'tarib turgan nish g'o'za tagini asta kovlab ko'rsam, ildizi chiriy boshlabdi.* (S. Mahkamov, «Shogird»).

4. O'sish nuqtasi – o'simliklar novdasi va ildizining uchki konussimon qismi. Yangi hujayralar hosil qiluvchi to'qima (*meristema*)dan iborat. Birlamchi to'qima va organlarning shakllanishini, ularning o'sishini ta'minlaydi.

**Nish urmoq** – 1. Nina, nayza kabi o'tkir uchli narsani sanchmoq. *Qaynayotgan qaziga nish urmoq;* 2. Yer bag'rini yorib, o'sib chiqmoq (o'simliklar haqida). *Avval ekinlarning nish urishidan xirmongacha bo'lgan jarayonni to'rt ko'z bo'lib kuzatgan bo'lsa, endi kishilarning qalbini, qarashini, ruhini o'rgana boshladi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»). 3 *ko'chma.* Endigina, yangi paydo bo'lmoq, tug'ilmoq. *Murabbiy – bola qalbida nish ura boshlagan umid g'uncharining mehribon sohibidir.* (R. Usmonov, «Odobnoma»).

**Nishab** [f. – qiyalik, yonbag'ir; pastlik, past joy] – 1. Yuzaning biror tomonga qiyaligi; qiyalik darajasi. Nishab yer. *Yangi qamish bosib, loy bilan suvalgan tomi-*

*ning nishabi hovli tomonda.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

2 *ko'chma.* Biror gap-so'z, ish-harakatning mazmuni, yo'nalishi. – *O'zim ham gaping nishabidan masalani tushungandim, – dedi Botirali Ne'matjonga.* (Gazetadan).

**Nishabini o'ziga og'dirmoq** (yoki **to'g'rilamoq**) – foydani, tushumni o'z tomoniga qaratmoq. *Gulnor... Mirzakarimboy xonadoniga boshliq bo'lib kek-kaysin, hech kim bilan so'zlashmasin, tug'sin, boylikning nishabini o'z tomoniga to'g'rilasini!.. U juda shayton xotin.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Nishablik** – qiya joy; qiyalik, yonbag'ir. *Bashirjon Qirmizxonni ergash-tirib, nishablikdan bir-bir bosgancha, pastga tusha boshladi.* (N. Aminov, «Suvarak»).

**Nishona** [f. – belgi, iz, asar; ko'rsatkich, mo'ljal] – 1 *ayn.* **Nishon 1,2,3.** *Shukurjonning... quyoshda kuygan bug'doyrang yuzida qandaydir teran bir qayg'uning nishonasi bor edi.* (O. Yoqubov, «Ota izidan»). *Bek va amir amaldorining narida turib shivir-shivir qilayotganliklarini Hasan ovchi yomonlikdan nishona deb tushundi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

2. Mevali daraxtning birinchi marta qilgan mevasi. *Olma nishona qildi. Hali nishona qilmagan mevani hisobga kiritsanmi? Avval tarbiya qil, gullasin, undan keyin mevasiga savat to'qisang arziydi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

**Nishxo'rd** [f. – kavshash, kavsh qaytarish; chaynashga qaytarilgan ozuqa, yem] – hayvonlarga berilgan yem-xashak qoldig'i; chiqit. *Ashurmirzo burchakda uyib qo'yilgan nishxo'rldar ustida behush yotar edi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

**Nobudgarchilik** – bekorga yo‘q qilib yuborish, nobud qilish, isrofgarchilik. *Nobudgarchilik* – xalq xo‘jaligi uchun zarar.

**Nogavka** – otlarning oyoqlarini shikastlanishdan saqlaydigan moslama (uloq, ko‘pkari, sport otlariga ishlatiladi).

**Nok** [f. – mevali daraxt turi, olmurut] – 1. Uzoq yashovchan, mevasi turli rang, shakl va vaznda bo‘lgan, yog‘ochi qattiq daraxt. *Bog‘ning turli joylarida har xil mevali daraxtlar: nok, o‘rik, behi, jiyda va h.k. anchagina.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Shokirali buva hovlisidagi katta nok salqinida eski to‘shakka yonboshlab yotgan ekan.* (X. To‘xtaboyev, «Shirin qovunlar mamlakati»).

2. Shu daraxtning mevasi. *Xontaxtaga terilgan likopchalarda rang-barang qand-qurs, konfetlar, billur idishlarda olcha, uzum, nokdan qaynatilgan murab-bolar, qulupnay qiyomi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Nokzor** – nok daraxti bilan band yer, maydon, bog‘. *Namxush tuproq, nokzor-dagi daraxtlarning shoxlarida onda-sonda saqlanib qolgan o‘tgan yilgi hosilning turshaklari hidiga to‘lgan havo musaffo edi.* (Gazetadan).

**Nomozshomgul** (*Mirabilis jalapa* L.) – nomozshomguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Vatani tropik Amerika hisoblanadi. Manzarali o‘simlik sifatida ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladi. Gullari oq, sariq, qizil, shingilsimon to‘pgul shaklida bo‘ladi. Kechqurun ochiladi va ertalab kun chiqishi bilan berkiladi. Bulutli salqin kunlari kunduzi ham ochilib turadi. Iyuldan kech kuzgacha gullaydi.

**Non** [f. – non; oziq-ovqat] – 1. Xamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choq, tova va sh.k. da pishiriladigan yegulik. *Bug‘doy non. Zog‘ora non. Shirmoy non. Bo‘lka*

*non.* [Kampir] *Non yasab bo‘lguncha, tandir qizidi. Keyin bir chekkadan yopdim.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Umuman, yegulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa. – *Matqovul aka, men non toparmikanman, deb qorin g‘amida maktab ochganim yo‘q, – dedi u [G‘ulomjon] bosig‘i bilan.* (M. Ismoiliiy, «Farg‘ona t.o.»).

**Non daraxti, Chempedak** [*Artocarpus integer* (Thund) Merrill)] – tutdoshlar oilasiga mansub, balandligi 35 m ga boradigan, shox-shabbasi serbarg savlatli daraxt. To‘pmevalari uzun silindrsimon (uzunligi 20–25 sm), sariq, jigarrang, hidi yoqimsiz bo‘ladi. To‘pmevasining ichi oltinrang sariq, qirsillaydigan, shirin bo‘lib, uning tarkibida 14–16 % suv, 60–80 % kraxmal, 1% dan ko‘p qand va 0,8 % gacha moy bo‘ladi. U qaynatib yoki qovurib yeyiladi. Meva etini maxsus ishlab, xamirday ko‘pchitib, non qilinadi. Urug‘lari sermoy bo‘lib, xom va qovurilgan holda iste‘mol qilinadi. Non daraxti serhosil bo‘lib, 15–20 yoshida 2–3 kishini yil bo‘yi bermalol boqa oladi. U Hindixitoyning sernam o‘rmonlarida, Moluk va Zond orollarida yovvoyi holda o‘sadi. Madaniy sharoitlarda ko‘plab o‘stiriladi.

**Nonjiyda** – jiydaning yirik, sershira, go‘shtdor mevali turi. *Ona Jo‘raboy ota bilan E‘zozxonni Botirali olib kelgan qora bulka va yong‘oq, nonjiyda bilan siyladi.* (H. G‘ulom, «Mash‘al»).

**Nor I** – 1. Bir o‘rkachli erkak tuya.

**Nor tuya** – ayn. **nor I** 1.

2. Umuman, erkak tuya. *Qatorda nor-ring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi.* (Maqol).

3 *ko‘chma.* Baquvvat, mard yigit. *Norqo‘zi yigitlarimiz ichida haqiqatda nor yigit. Ochiq ko‘ngil, rostgo‘y, – dedi*

*Tursunxon.* (H.G'ulom, «Senga intilaman»).

**Nor III** [f. – anor daraxti va mevasi] – *ayn. anor.* *Bir bog'chada olmamidi, normidi, Mendan o'zga sening g'aming yermidi?* («Ravshan»). **Nor po'st** 1) anor po'sti; 2) anor po'sti rangidagi, to'q qizil.

**Norbachcha** – 1. Tuyaning bolasi; bo'taloq.

2 *ko'chma, salb.* Laganbardor, xushomadgo'y.

**Nordon** [f. – anor donasi; quritilgan anor donasi; anor suvi] – 1. Tishni qamashtiruvchi, og'izni burishtiruvchi (maza); achchiq. *Nordon anor. Nordon uzum. Nordon olma. Elmurod Murzinning kayfi borligini sezdi. Nordon narsa chaynagandek, yuzi burishib ketdi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

2 *kim.* Tarkibida vodorod bo'lgan (tuzlar haqida).

**Norentabel** [no.. + rentabel] – xarajatlarni oqlamaydigan, foyda bermaydigan, rentabel emas. *Ustuvor tarmoqlarning tezroq rivojlanishi, albatta, norentabel korxonalarini tugatishga olib keladi.* (Gazetadan).

**Norka** [r. *norka* < *nirok* < *niryat* – sho'ng'imoq] – yungi qalin, yaltiroq, kulrang tusli yirtqich sutemizuvchi hayvon va uning mo'ynasidan tikilgan kiyim. *Mashinadan Gulsara opa tushib keldi. Boshida norka mo'ynasidan tikilgan telpak, egnida erkakcha po'stin.* (Gazetadan).

**Norma** [lot. *norma* – me'yori, o'lchov; qoida, qonun] – 1. Rasmiylashtirilgan qonun-qoida. *Huquq normalari.*

2. Umum tomonidan qabul qilingan va tan olingan, hamma uchun majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib, qoida.

3. Biror narsaning, ishning aniq belgilangan o'rtacha o'lchami, miqdori, me'yori. *Kundalik ish normasi. Normani oshirib bajarmoq. Zarbdorlarning oldida yerga qaramay, Normadan ham oshirdim ishni bir talay.* (G'ayraty).

**Normal** [lot. *normalis* – tik, to'g'ri; me'yoriy] – 1. Normaga, me'yorga mos keladigan, norma (me'yori) doirasidagi, belgili talablarga javob beradigan; mo'tadil. *Normal sharoit. Normal hol. Ekinlar normal rivojlanmoqda.*

2. Aqliy va jismoniy jihatdan sog'lom, raso. *Normal bola.*

**Normalamoq** – biror narsaning, ishning normalarini, miqdorini, me'yorini belgilamoq, norma belgilamoq, qo'yimoq. *Ishni normalamoq.*

**Normalashtirmoq** – qat'iy normaga solmoq; normaga, ma'lum tartib va qonun-qoidalarga bo'ysundirmoq. *Tilni normalashtirmoq.*

**Normali** – normaga solingan, norma qo'yilgan, norma bilan belgilangan, normalangan. *Normali mollar. Normali tomorqa.*

**Normativ I** [lot. *normatio* – me'yorlash, tartibga solish] – biron-bir ishni bajarish, dasturni amalga oshirishning iqtisodiy, texnik va b. norma ko'rsatkichlari majmui.

**Norcha** – *ayn. norbachcha.*

**Nosoz** [f. – sozlanmagan, nomutanosib, nomuvofiq; betob] – 1. Soz emas, sozlanmagan yoki sozi buzilgan (musiqi asboblari haqida).

2. Biror maqsad uchun muvofiq kelmaydigan; nobop.

3 *ko'chma.* Murosasi, orasi buzuq. *Ular bir-biri bilan nosoz.*

**Notekis** – 1. Yuzasi, yuzi tekis emas, past-baland, g'adir-budur, o'ydim-chuqur.

Kartalarda hali ham notekis yerlar bor. A'zolari past-balandni tekislashga solib, yerni boronalashga tayyorlasak. (N. Safarov, «Xadicha Ahrorova»).

2. Bir tekisda bo'lmagan, o'lchamlari har xil, katta-kichik, past-baland. *Notekis g'o'zalar. Notekis taqsimot. Notekis rivojlanish.*

**Nov** – kanal, jar, soy va yo'llar ustidan suv o'tkazish maqsadida quriladigan maxsus gidrotexnik inshoot (ensiz, qiya sun'iy kanal, ariqcha).

**Novda** – 1. Daraxtning yosh, ingichka va uzun, bebutoq tarmog'i. O'simliklar, daraxt va butalarning asosiy organlaridan biri. Poya, undagi barg va kurtaklardan iborat. *Tol novdasi. Tok novdasi. Charos ellik qadamcha yurishi bilan ko'cha chetidagi, novdalarini shoda-shoda qizg'ish gullar qoplagan shaftoli tagida turgan Dilshodni ko'rib qoldi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Mohirona xomtok qilingan novdalar, siyrak yaproqlar oralab yerga tanga-tanga quyosh yog'iladi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»).

2 *ko'chma.* Yosh, nozik. *Ko'ngli suv ichib qolibdi-da, bolaginamdan aylanay. Kelin ham novdagina, o'yinchi bo'lsa ham kamsuxan, shikastaligini aytmaysizmi!* (A. Muxtor, «Asarlar»).

**Novvos** – ikki-uch yashar buqacha. Novvos 6–8 oyligida jinsiy yetiladi. Zotli novvoslar 16–18 oyligida sigirlarni qochirishga qo'yiladi. Xo'jaliklarda ulg'aygan novvoslardan 6–8 yil sigirlarni qochirishda foydalaniladi. Novvoslarning aksariyat qismi go'sht yetishtirish uchun boqiladi. Novvoslar jadal usulda boqilganda 15 oylikdan 18 oylikkacha har kuni bir kg.dan et oladi, ekstensiv usulda parvarishlanganda kunlik o'sish darajasi past bo'ladi. Novvoslar tirik

vazni 420–450 kg ga yetganda so'yiladi va go'sht chiqimi 58–60% gacha boradi. *Chap tomonimizdagi tikka taqir tog' bag'ridagi butazorda gala-gala novvoslar o'tlab yuribdi.* (S. Anorboyev, «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar»).

**Noz-ne'mat** – kishiga Alloh tomonidan tabiat orqali in'om etilgan ne'matlar, anvoyi meva, oziq-ovqatlar. Dasturxon turli noz-ne'matlar bilan bezatilgan. *Bahorlari, yozlari Bir-biridan ortiqdir, Mazali noz-ne'mati Xalqimizga tortiqdir.* (Z. Diyor).

**Nozik deysiya** (*Deutzia gracilis Sieb. Et. Zucc.*) – Deysiya turkumga 50 ga yaqin turlar kiritilgan bo'lib, ular Gortenziyadoshlar kenja oilasiga birlashtirilgan. Turkum vakillari asosan Sharqiy Osiyo va Himolayda keng tarqalgan, 2 turi Meksikada o'sadi. Deysiyaning barcha turlari qiyg'os gullovchi butalar hisoblanib, ko'klamzorlashtirishda keng qo'llaniladi. Deysiya turlari chiroyli gullovchi o'simliklar guruhiga kiritilgan, balandligi metr gacha bo'lgan buta. Nozik deysiyaning vatani – Xitoy va Yaponiya hisoblanadi. Butaning balandligi 2–2,5 m, gullari yulduzsimon, qorsimon-oq, ba'zan pushti, 15 sm uzunlikdagi to'pgulga yig'ilgan. Gullari 1,5–2 sm diametrdagi, may oyida gullaydi. Landshaft dizayni uchun istiqbolli buta hisoblanadi. Shahar sharoitlarida gaz va tutunga chidamli tur hisoblanadi.

**Nozik nihol** – 1. Yosh novda yoki ko'chat. *Nozik nihol daraxtlar; 2 ko'chma.* Nozik qomat va shunday qomatli kishi. *Bejirim, kelishgan nozik niholing, Beqasam kamzuling yarashibdi xo'p.* (X. Rasul).

3 *ko'chma.* Yetilmagan yosh narsa; murg'ak, kurtak. *G'ulomjonning ko'ngli sindi, yo'q, ko'ngli emas, umr orzusi-*

ning niholi sindi. (M. Ismoiliy, «Fargʻona t.o»). *Ishdan qaytgan chogʻimda Qiyqiradi oʻgʻilcham, – Hali nihol bogʻimda, Bargin yozmagan gʻuncham.* (Y. Mirzo).

**Nutriya** [isp. *nutria*] – 1. Suvda yashaydigan, qimmatbaho moʻynasi uchun fermalarda boqib koʻpaytiriladigan kemiruvchi hayvon.

2. Suv bobri (*Myocastor coypus*) – kemiruvchilar turkumi, nutriyasimonlar oilasiga mansub hayvon. Oilaning yagona turi. Tanasining uz. 60 sm gacha, dumi 45 sm gacha, ogʻirligi 8 kg gacha. Orqa oyoqlarining deyarli barcha barmoqlarida suzgich parda boʻladi, quloq teshigi suvda bekilishi mumkin. Jan. Amerikaning tropik va subtropik mintaqalarida tarqalgan. Jan.-gʻarbiy Yevropa, Zakavkazy va Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Oʻzbekiston jan.da akklimitizatsiya qilingan. Suvda va suv boʻyida yashaydi; yaxshi suzadi va shoʻngʻiydi. Kechasi va oqshomlari faol. Botqoq oʻsimliklari poyasidan in quradi, in qazishi ham mumkin. Bir yilda 2 marta 2–8 ta (odatda, 5 ta) koʻzi ochiq, yungli bola tugʻadi. Qimmatli moʻynasi va goʻshti uchun ovlanadi. Moʻynachilik fermalarida boqiladi. Har xil rangli moʻyna beruvchi zotlari chiqarilgan. *Moʻynachilik fermalarida yaqin-yaqingacha nutriya boqish va uni koʻpaytirish yaxshi yoʻlga qoʻyilmagan edi.* (Gazetadan).

**Nutrovka** – ichki aʼzolari ajratish. Soʻyilgan mollarning qorni va ichki organlarini ajratish; mollar soʻyilgandan keyin 30 minutdan kechiktirilmay bajarilmaydi.

**Nyuans** – koʻkalamzorlashtirish kompozitsiyalarida ranglarni joylashtirish usuli boʻlib, bir turdagi rangning och rangidan to toʻq rangigacha birga joylashtirishni anglatadi. Masalan, och sariqdan

toʻq sariqqacha, och qizildan toʻq qizilgacha va h.k.

**Nyu-Gempshir** – goʻsht va tuxum uchun boqiladigan tovuq zoti. XX asr boshlarida AQSH (Nyu-Gempshir shtati)da Red-ayland tovuq zotidan tanlash yoʻli bilan yaratilgan. 1935-yilda Amerika mukammallik standartiga kiritilgan. Pati tillarang-sariq yoki och jigarrang. Tovuqlari tez yetiladi. Xoʻrozlarining vazni 3,2–3,5, tovuqlarini 2,6–2,7 kg, yiliga oʻrtacha 180–190 ta tuxum qiladi. Tuxumining vazni 60–62 g, poʻchogʻi sargʻimtir-jigarrang. Koʻpgina mamlakatlar (Germaniya, Gollandiya, AQSH) da Nyu-Gempshir bilan Leggorn zotini chatishtirib, yiliga 280–310 dona tuxum qiladigan jigarrang patli krosslar yaratilgan (lomann-braun, xaylayn va birinchi bor Oʻzbekiston parrandachilik xoʻjaliklarida lomann-braun krossi tovuqlarining tuxumlari keltirilib koʻpaytirilmoqda (2003).

**Noʻxat** [f.] – bir yillik dukkakli oʻsimlik va uning ovqatga ishlatiladigan, moshdan kattaroq, yumaloq sariq doni. *Qovurilgan noʻxat. Noʻxat shoʻrva.*

**Noʻxta** – ot-ulovni (ot, eshak, xachir) va qoramollarni bogʻlash, yetaklash, haydash uchun boshiga solinadigan abzal. Maxsus noʻxtalar hayvon turi va boshining shakliga mos holda maxsus tasmalar yoki pishiq xom teridan tayyorlanadi. *Otning yuganini boshiga solib, noʻxtani xurjunga tiqib... otga mindi.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Mayna eshakning noʻxtasidan ushlaganicha, nariroqda yerga qarab turardi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Noʻxtalamoq** – 1. Noʻxta solmoq. [Zulfizar] ...qora qashqa otni saralab oldi, egarlab, noʻxtalab, ishni yaxshi puxtalab, Istanbul koʻchalarini oʻrtalab, kanizlar oldiga yetdi. («Zulfizar bilan Avazxon»).

**2 ko'chma.** O'z erk-ixtiyoriga bo'y-sundirib olmoq, o'z izmiga solib olmoq, jilovlamoq. *Sinf rahbari juda zo'r muallim-ku, nahotki, ular ham asovni*

*no'xtalab ololmasalar, a?* (M. Ismoiliiy, «Bizning roman»).

**No'sh II: no'sh piyoz** – kuzda tiqma qilib ekilgan piyoz.

## O

**Obaki I** [f. – suvli, suyuq; sersuv, shirali] – oq chillakiga o'xshash, o'rtapishar mahalliy uzum navi. *Obaki Toshkent, Sirdaryo, Namangan viloyatlarida ko'p ekiladi.* (Gazetadan).

**Obdorlik** – suvchilik, suv tutishlik. *Yerning boshiga yetganda, ota gapirdi: – Sizlar suvni shu yergacha yetkazib bersalaringiz bo'lgani, obdorlikni faqat o'zim qilaman.* (H. Olimjon, «Tanlangan asarlar»).

**Obduzdlik** [f. – suv + – o'g'ri > – yer ostidagi suv o'tadigan yoki yo'qolib ketadigan teshik, yo'l] – sug'orish tarmoqlaridan suvni navbatdan tashqari yashirincha bog'lab olish. *Buxoro vohasida iyul oyining oxiri va avgustning boshida suvga bo'lgan talab nihoyatda avj olib, obduzdlik kuchaygan.* (A. Muhammadjonov, «Quyil Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi»).

**Ob-havo, ob-u havo** [f. + a. – suv va havo] – **1.** Atmosfera quyi qatlamining ma'lum vaqt va ma'lum joydagi holati. *Qishob havosi. Ob-havo injiqligi. U [Elmurod] qaytgan vaqtda yomg'ir tingan, lekin bu yerning o'ziga xos ob-u havosiga muvofiq yomg'irdan keyin qattiq shamol turgan edi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**2.** Ma'lum joy yoki hudud atmosfera-sidagi meteorologik o'zgarishlar majmui; iqlim. *Mulla Turob bir yoz faslida... Samarqand sayohatiga borib, u shaharning ob-u havosini yoqtirgan.* (S. Ayniy, «Es-daliklar»). *Ob-havoni, oqar suvlarni ifloslantirmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilindi.* (Gazetadan).

**Ob-havo byurosi** – ob-havo o'zgarishlarini, meteorologik sharoitlarni o'rganib, kuzatib boruvchi maxsus ilmiy muassasa.

**3 ko'chma.** Vaziyat, holat. *Bu gaplar qishloqda nechog'lik tarqalganligi, ya'ni u yerdagi ob-havoni bilish maqsadida Nasibani avtobusga o'tqazib, tongda qishloqqa jo'natdi.* («Yoshlik»).

**Obihayot** [f. + a. – hayot, tiriklik suvi] – **1 mif.** Hayot suvi (afsonaviy chashma suvi; uni ichgan kimsa go'yo abadiy yashar emish).

**2 ko'chma.** Hayot bag'ishlovchi suv. *Zo'r daryodan kanal, ariq va egatlar orqali g'o'zalarga obihayot olib borilgani kabi, tarix daryosidan har bir bo'lajak eshituvchisining ongiga olovli haqiqat olib bormoqchi edi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**Obinovvot** [f. – novvot suvi, shira] – **1.** O'rikning juda shirin bir turi.

**2.** Po'sti sariq-ola, sergo'sht shirin qovun; cho'giri. *Darvozaga yaqinlashib qolishgan paytda dimoqqa obinovvot qovunning isi urildi.* (A. Obidjon, «Akanq qarag'ay Gulmat»).

**Obirahmat** [f. + a. – xayr-baraka suvi; bahor yomg'iri] – Rahmat yog'diruvchi suv (yomg'ir, qor suvi haqida). *Bolam, Olohdan obirahmatini so'ra, lalmi bug'doy o'shanga vobasta.* («Yoshlik»).

**Obiravon I** [f. – oqayotgan, oqar suv] – **1.** Oqar suv. *Bog'lar xarob bo'lar, Bog'bon bo'lmasa. Daryolarda obiravon bo'lmasa.* («Rustamxon»).

2 ko 'chma. Suvday serob narsa, mo'l-ko'chilik. *Bu yer to 'yxona, mayxona, obiravon joy.* (T. Obidov, «Yusufjon qiziq»).

**Objuvoz** [fors.ob – suv va juvoz + – yog'och yoki o'g'ir tosh] – 1. Suv kuchi bilan yuradigan, sholi oqlaydigan qurilma. *Salomni etakdagi objuvozdan sholi obketayotgan kishilar ko'ribdi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»). *Sherbek o'z ovozidan o'zi qo'rqib ketdi: yuragi objuvozdek gurs-gurs urardi.* (S. Anorboev, «Oqsoy»).

2. Shunday qurilma o'rnatilgan xona; objuvozxona.

**Obkash** [f. – suv tortuvchi, tashuvchi] – ikki uchidagi ilmog'iga chelak osib, yelkada suv va b. narsalar tashish uchun moslangan yog'och asbob. *Bir obkash suv. Obkash bilan suv tashimoq. Darsdan keyin Omon uni ko'pincha yelkasida obkash – suvga ketayotganda uchratadi.* (X. Sultonov, «Bir oqshom ertagi»).

**Obnus** [a. – yun. *yebenos* – qora daraxt] – tropik mamlakatlarda o'sadigan, yog'ochi qattiq va og'ir qoramtir yoki qora daraxt.

**Oborot** [r. *oborot* – aylanish, aylantirish; burish] – 1. Pulning aylanishi, muomalada bo'lishi. *Kapital oboroti. Oborotdagi pullar. Xalq xo'jaligining transport, aloqa, kapital qurilish, tovar oboroti, fan, madaniyat va boshqa tarmoqlari ham ildam rivojlanmoqda.* («Fan va turmush»). *Bu odam asli palandaralik bo'ladi. Kredit texnikumida o'qib yurganimda, bizga pul oborotidan bankda praktika olib borardi.* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

2. Shunday muomalada aylangan yoki to'plangan pul. *Korxonaning yillik oboroti. Mablag' oboroti.*

3 *tlsh.* Bir sintaktik butunlikni tashkil etgan so'zlar guruhi, gap qurilishi. *Sifatdosh oborot. Ravishdosh oborot.*

**Obpartov** [f. – suvni chiqarib yuborish; chiqarib yuborilgan suv] – suv havzalari va gidrotexnik inshootlarda partov suvni chiqarib yuborish uchun qurilgan maxsus inshoot; oqova. *Obpartov va pastdagi tashlama ariqda gurkirab qamish o'sgan, uning mayin ukpari shamolda ipakday tovlanib hilpirardi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Obqand** [f. – sel o'tadigan joy, yo'l; suv yuvib, o'yib ketgan joy] – tar. Qadimda va o'rta asrlarda shaharni suv bilan ta'minlash maqsadida qazilgan sug'orish tarmog'i, suv yo'li. «Obqand» shahar suvi, shahar arig'i ma'nolarini anglatib, shahar sug'orish tarmog'idir.

**Obraha** [f. – suv yo'li] – suv yo'li, ariq (qo'shnining yeri, hovli-joyi orqali o'tkazilgan ariq). *Bizning ekinlarga obraha Mamasoli akaning chorbog'i orqali o'tardi.* («Yoshlik»).

**Ob-tob, ob-u tob** [f. – suv va harorat; yog'du; serhashamlik, dabdabalilik] – bi-ror ishning, narsaning yetilganlik darajasi. *Juda ob-u tobida, mazali pishgan holva, murabbo yoki ovqatni ham xalqimiz «Qiyom bo'lib ketibdi», deydi.* (N. Aminov, «Yolg'onchi farishtalar»). *Agronom degan nomingiz bor... G'o'zaning ob-tobiga qarab ish tuting.* (N. Safarov, «Hayot maktabi»).

**Ob-tobiga kelmoq** – yetilmoq. *Uzumlar g'arq pishib, ob-tobiga kelibdi.*

**Oddiy anjir** (*ficus carica L.*) – tutdoshlar (*Moraseae*) oilasiga mansub, bo'yi 8 m gacha yetadigan buta yoki daraxt. Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Krasnodar o'lkasi, Kavkaz va Qrimda o'sadi va ko'p miqdorda o'stiriladi. Tibbiyotda bargi va mevasidan foydalaniladi. Mevasi tarkibida ko'p miqdorda qandlar, vitamin V va S, karotin, organik (oksalat, limon, olma sirka) kislotalar, moddalar: bargida furokumarinlar (psoralen, berganten) bor.

Mevasi surgi dori – kafiol tarkibiga kiradi. Barglarining furakumarinlar yig'indisi preparati – psobran pes kassalligini davolashda ishlatiladi.

**Oddiy archa** (*juniperus communis* L.) – Archadoshlar (*Cupressaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–3 m ga yetadigan ikki uyli doim yashil buta. G'arbiy Yevropa qismi va Sibirdagi ninabargli va mayda bargli aralash o'rmonlarda, ba'zan, botqoqli o'rmonlarda o'sadi. Tibbiyotda mevasi-qubbasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, qandlar, organik kislotalar, smola, bo'yoq, pektin va boshqa moddalar bor. Efir moyi pinenlar, kamfen, sabinen birikmalardan tashkil topgan. Qubbasining dori preparatlari damlamasi, choylar-yig'malar tarkibida siydik haydovchi, siydik yo'llarini dezinfeksiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Efir moyining spirtidagi eritmasi va surtmasi bod kasalligida teriga surtiladi. Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta'siriga ega bo'lib, trixomonad kolpitini davolashda ishlatiladi. Mevasi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. Markaziy Osiyo tog'larida o'sadigan archaning yana uch turi [(*M. zarafshanskiy* I. *zeravschanica* Kom.) – **Zarafshon archasi** (**Qizil archa**, **Qora archa**); (*M. polusharovidniy* – *I.semiglobosa* Rgl.) – **Savr (saur) archa** va (*M. turkestanikiy* – *I. turkestanika* Kom.) – **Turkiston archaci** (**O'rik archa**, **Baliq archa**)]ning bargi, mevasi va efir moyi xalq tabobatida turli shamollash, yara kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Bargi tarkibida efir moyi (sedrol spirti va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan), qandlar, vitamin S, bo'yoq, oshlovchi moddalar bor. Efir moyi sedrol qismining kanakunjut moyidagi 5% li eritmasi va surtmasi yiringli,

uzoq bitmaydigan yaralarni, jarohatlarni hamda suyakning oqma yaralarini davolashda qo'llaniladi. Sedral bakteriyalarni o'sishdan to'xtatish va yaralarni bitirish xossasiga ega.

**Oddiy bodom** (*amygdalus communis* L.) – Ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 2–5 (8) m ga yetadigan daraxt. Achchiq danakli bodom yovvoyi holida Markaziy Osiyo, Ozarbayjon va Armaniston tog'larida o'sadi. Achchiq va chuchuk danakli bodom Markaziy Osiyo, Kavkaz va Qrimda ko'p o'stiriladi. Tibbiyotda bodomning urug'i va uning moyi ishlatiladi. Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy, oqsil modda, saxaroza, vitamin B1 va B2, emulsin fermenti birikmalari, achchiq danakli bodom urug'ida esa bunga qo'shimcha amigdalin glikozidi bor. Bodom moyi ich yumshatuvchi dori sifatida, farmatsevtika amaliyotida ba'zi dori moddalarni eritish va surtmalar tayyorlashda qo'llaniladi. Chuchuk bodom urug'idan (mag'izidan) tayyorlangan emulsiya va achchiq bodom urug'ining kunjarasidan olingan achchiq bodom suvi me'da va ichak og'riqlarida og'riq qoldiruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

**Oddiy bodrezak** (*viburnum opulus* L.) – shilvidoshlar, uchqatdoshlar (*Caprifoliaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1,5–3 m ga yetadigan buta. Kavkaz, Qrim, G'arbiy Sibir va Qozog'iston sharqidagi aralash o'rmonlar chetida, soy, ko'l va botqoq yoqalarida o'sadi. Manzarali buta sifatida xiyobonlarda va bog'larda o'stiriladi. Tibbiyotda po'stlog'i va mevasi ishlatiladi. Tarkibida viburnin glikozidi, vitamin S va K, karotin, triterpen saponinlar, organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor. Mevasida ko'p miqdorda qand bo'ladi. Dori preparatlari (po'stloqning qaynatma



va suyuq ekstrakti) bachadondan qon ketishini to'xtatish hamda hayz ko'rganda yuzaga keladigan og'riqni qoldirish uchun qo'llaniladi. Mevasi vitaminli choylar-yig'malar tarkibida gipo- va avitaminoz kasalliklarini davolashda hamda ularning oldini olishda ishlatiladi.

**Oddiy brusnika** (*vaccinium vitis idaea L.*) – Erikatsiyadoshlar (*Ericaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 25 sm gacha yetadigan doim yashil buta. Kavkaz tog'larida o'sadi. Tibbiyotda bargi va bargli novdalari ishlatiladi. Tarkibida arbutin glikozidi, flavonoidlar (giperozid), ursol, gallet kislotalar, ko'p miqdorda oshlovchi moddalar bor. Damlamasi va qaynatmasi buyrakka tosh kelganda, siydik yo'llari va qovuqning shamollash kasalliklarida dezinfeksiya qiluvchi, siydik haydovchi vosita sifatida hamda bod va podagra kasalliklarida qo'llaniladi.

**Oddiy bo'yumodaron** (*achillea millefolium L.*) – Astradoshlar [murakkabguldoshlar – *Asteiaceae* (*Compositae*)] oilasiga mansub, bo'yi 20–50 (80) sm ga yetadigan ko'p yillik o'simlik. Markaziy O'siyoning hamma mintaqasida quruq o'tloqlarda, qirlar, tog' etaklari, tog'dagi o'tloqlar, butalar orasida, soylar, ariq chetlari, yo'l yoqalari, o'rmon chetlari, bog'lar va b. yerlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi va guli ishlatiladi. Ularning tarkibida efir moyi, karotin, vitamin S va Q, flavonoidlar, alkaloidlar, organik kislotalar, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi xamazulen, borneol, tuyon va boshqa ternenoidlardan tarkib topgan. Dori preparatlari – damlamasi, suyuq ekstrakti me'da yarasi, gastritni davolash, ishtaha ochish hamda qon ketishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. O'simlikning guli va yer ustki qismi ishtaha ochadigan me'da-ichak kasalliklarda

ishlatiladigan choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oddiy dastarbosh** (*tanacetum vulgare L.*) – Astradoshlar [murakkabguldoshlar – *Asteracea* (*Compositae*)] oilasiga mansub, bo'yi 50–150 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Sobiq Ittifoqning Uzoq Shimol va cho'l zonalaridan tashqari hamma yerda yo'l yoqalarida, aholi yashaydigan joylariga yaqin yerlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida va suv bo'ylarida o'sadi. Tibbiyotda guli ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, alkaloidlar, achchiq oshlovchi moddalar bor. Tibbiyotda gijjalari va ostritsalarni tushirish va jigar kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida ba'zi ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

**Oddiy eshakbodring** (*yesballium elaterium L.*) – qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae*) oilasiga mansub, poyasining uzunligi 20–50 sm ga yetadigan, palak otib o'sadigan bir yillik o't. Kavkaz, Ukrainaning janubi va Turkmanistonda, dengiz qirg'oqlarida begona o't sifatida, qisman tuproqli quruq qoyalarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi va mevasi ishlatiladi. Tarkibida glikozidlar (elateritsin A, V),  $\alpha$ - va  $\beta$ -elaterinlar, vitaminlar, oz miqdorda alkaloidlar bor. Xalq tabobatida mevasi istisqo, chaqaloqlarning sarg'aymasida, o'zgaruvchan isitma, bod, podagra, nevralgia, bavoil kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Kuchli surgi, gijja va siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. O'simlikning surgi, shuningdek rakka qarshi ta'sir ko'rsatishi uning tarkibida elaterinlar bo'lishiga bog'liq. Lekin u zaharli bo'lib, ko'p miqdorda iste'mol qilinsa, qustiradi, qorin og'ritadi, yurak urishini tezlatadi.

**Oddiy huperziya** (*huperzia selago L.*) *Berndh.*) – lycopodiadoshlar (*Lyko-*

*podiceae*) oilasiga mansub, bo'yi 5–25 sm gacha yetadigan ko'p yillik doim yashil sporali o't. Yevropa o'rmonlarida, Kavkaz, Sibir hamda Uzoq Sharqda-gi moxli o'rmonlarda va tog' tepasidagi o'tloqlarda o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar, flavonoidlar, smolalar, shilliq, pektin moddalar bor. Qaynatmasi surunkali ichkilikbozlik (alkogolizm), kashandalik (pikotinizm) hamda psoriasis teri kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

**Oddiy igir** (*Asorus calamus L.*) – kuchaladoshlar (*Apaseae*) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Yevropa qismining janubida, Qozog'iston, Sibir, Yakutiya, Uzoq Sharq, qisman Kavkaz va Markaziy Osiyodagi suv bo'ylarida va ko'lmak, botqoqlik yerlarda o'sadi.

**Oddiy isiriq** (*adraspan – peganum narmala*) – tuyatovondoshlar (*Zygophyllaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 20–60 sm ga yetadigan ko'p yillik zaharli o't. Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Kavkazning ba'zi bir viloyatlarining cho'llarida, adirlarda, foydalanilmay yotgan o'tloqlarda, tog'larning quyi qismida va begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi. Tibbiyotda isiriqning yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar (garmin, peganin (vazitsin), garman dezoksipeganin) bor. Garmin alkaloidining xlorgidrat tuzi ensefalit kasalligining asoratini, qaltiroq va Parkinson kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Dezoksipeganin gidroxloridning ampuladagi eritmasi miosteniya, miopatiya, mushak kasalliklarini hamda nerv kasalliklari (nevritlar)da ishlatiladi. Xalq orasida bir qator kasalliklarda, uyni, kiyim-kechaklarni dezinfeksiya qilishlarda qadimdan ishlatib kelinadi.

**Oddiy jumurt** (*padus racemosa (lam.) Gilib.*) – ra'noguldoshlar (*Rosa-*

*ceae*) oilasiga mansub, bo'yi 2–10 m ga yetadigan buta yoki daraxt. MDHning Yevropa qismining o'rmon va o'rmoncho'l nohiyalarida, Kavkaz, G'arbiy Sibir va Markaziy Osiyodagi o'rmonlarda, soy bo'ylarida o'sadi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida oshlovchi moddalar, qandlar, antotsianlar, limon va olma kislotalar, urug'ida amigdalin glikozidi va b. birikmalar bor. Meva damlamasi bilan qaynatmasi ichketarni davolash uchun qo'llaniladi. Mevasi me'da-ichak kasalliklarida ishlatiladigan burushtiruvchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oddiy kalluna** (*calluna vulgaris (L.)*) – eriksiyadoshlar (*Ericaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–70 sm ga yetadigan doim yashil buta. Yevropa qismining shimolida qarag'ayzorlarda, butazorlarda va b. yerlarda o'sadi. Tibbiyotda yosh, serbargli novdalari ishlatiladi. Tarkibida flavonoidlar, sanoninlar, arbutin glikozidi, smolalar, oshlovchi va b. moddalar bor. Yer ustki qismining damlamasi siydik haydovchi, antiseptik, yallig'lanishga qarshi (qovuq va buyrak jomi yallig'langanda hamda buyrak-tosh kasalliklarini davolashda), asosiy qo'zg'alishlarda tinchlantiruvchi va uxlatuvchi hamda balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida, me'da-ichak kasalliklarini (ichketar, enterokolit va b.), shamollashlarni davolash uchun ishlatiladi.

**Oddiy kolotsint (achchiq tarvuz)**, (*citrullus colocynthis (L.) Schrad*) – qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–2 m ga yetadigan sudralib o'suvchi ko'p yillik o't. Vatani Shimoliy Afrika. Turkmanistonning Tejen vohasida uchraydi. Kavkaz va Markaziy Osiyo botanika bog'larida o'stiriladi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida sitrullol, fitosterinlar, kolotsintin glikozidi, efir

moyi, elaterin, urug'ida yog' va boshqa moddalar bor. Tindirmasi (nastoykasi) kuchli surgi sifatida qo'llaniladi.

**Oddiy loviya** (*Phaseolus vulgaris* L.) – dukkakdoshlar [*Fabaceae* (*Leguminosae*)] oilasiga mansub, bo'yi 1 m ga yetadigan, chirmashib o'suvchi bir yillik o't o'simlik. Vatani Janubiy Amerika. Keng miqyosda ozuqa sifatida o'stiriladi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida qandlar, organik kislotalar, flavonoidlar, vitaminlar: B1, B2, B6, RR, S, E, karotin, pantaten va foliy kislotalar, minerallar, ko'p miqdorda oqsil va boshqa moddalar bor. Mevasi po'chog'ining qaynatmasi xalq tabobatida qon bosimi oshishi (gipertoniya), bod, qovuq yallig'lanishi, qandli diabet va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Siydik haydovchi vosita sifatida istisqo, buyrak-tosh, podagra, artrit va boshqa kasalliklarda qo'llaniladi. Loviya parhez taom sifatida surunkali bod, podagra, artrit, buyrak va qovuq yallig'lanishida, gastritda, loviyaning uni esa yara va ekzemalarni davolashda ishlatiladi. Mevasining po'chog'i qandli diabet kasalligini davolash uchun qo'llanadigan yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oddiy maymunjon** (*Rubus idaeus* L.) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–2 m ga yetadigan yarim buta. G'arbiy Yevropa qismi, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Sibir o'rmonlarida, tog'larda, daryo va soy bo'ylarida, butalar orasidagi yerlarda o'sadi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida organik olma, limon, salitsil, vino kislotalar, qandlar, vitamin S, karotin, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari damlamasi, sharbati va choylar-yig'malarga qo'shilgan mevasi turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Mevasi sharbatidan farmatsiya amaliyotida suyuq

dorilar ta'mini yaxshilash uchun foydalaniladi.

**Oddiy olcha (olvoli)** (*Cerasus vulgaris* mil L.) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, 3–8 m gacha o'sadigan mevali daraxt. Kavkaz, G'arbiy Sibir, Markaziy Osiyo, Qozog'iston va b. joylarda o'stiriladi. Tibbiyotda mevasidan tayyorlangan sharbati ishlatiladi. Mevasi tarkibida qandlar, organik kislotalar, karotin, vitaminlar: S, V va RR, oshlovchi va b. moddalar; urug'ida – efir moyi, yog' va amigdalın glikozidi bor. Meva sharbati farmatsevtikada ba'zi bir suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun hamda isitmani pasaytiruvchi, ishtahani ochuvchi vosita sifatida va shamollash kasalliklarida qo'llaniladi. Farmatsevtika amaliyotida olcha yelimidan emulgator sifatida foydalaniladi.

**Oddiy oqkarrak** (*Onopordon acanthium* L.) – murakkabguldoshlar (*Compositae*, *Asteraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 60–120 sm ga yetadigan tikanli ikki yillik o't o'simlik. Rossiya va Markaziy Osiyodagi tashlandiq yerlarda, aholi yashaydigan joylarda, yo'l yoqalarida o'sadi. Tibbiyotda poyasining yuqori serbargli qismi, yer ustki qismi va mevasi (mevali gul to'plami, savatcha) ishlatiladi. Yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar, vitamin S va K, qandlar, organik kislotalar, achchiq, oshlovchi, yog' va boshqa moddalar bor. Yer ustki qismining damlamasi va qaynatmasi xalq orasida xavfli shishlarni (shu jumladan, bachadon raki), qoqshol va yiringli yaralarni davolashda hamda qon oqishini to'xtatuvchi, siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Quritilmagan o'simlik shirasi bilan qo'tirni davolash mumkin. Oqkarrak yer ustki qismining dori preparatlari yurak ishini yaxshilovchi, siydik haydovchi, qon oqi-

shini to'xtatuvchi va bakteritsid ta'sirga ega ekanligi aniqlanib, ilmiy tibbiyotda ishlatishga tavsiya etilgan. Shuningdek, rak kasalligini operatsiya qilgandan so'ng qaytalanishining oldini olish maqsadida hamda teri raki va sili, yara kasalliklariga qo'llashga tavsiya etilgan.

**Oddiy oqqaldirmoq (ko'ka)** (*tussilago farfara L.*) – murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismi, Kavkaz, Sibir va Markaziy Osiyoning tog'li yerlarida, daryochalar hamda soy bo'ylarida, o'rmonlarda, jarliklarda, g'or chekkalarida o'sadi. Tibbiyotda bargi ishlatiladi. Tarkibida tussilyagin achchiq glikozidlar, organik kislotalar, flavonoidlar, saponinlar, alkaloidlar, karotin, vitamin S, efir moyi, shilliq, oshlovchi moddalar bor. Bargi ko'krak og'rig'ida ishlatiladigan terlatuvchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. Damlama holida yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi, dezinfeksiya qiluvchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida bronxit, laringit va b. o'pka shamollashlarida qo'llaniladi.

**Oddiy petrushka** (*petroselinum crispum* MILL.) – selderdoshlar [soyabonguldoshlar (*Apiaceae*)] oilasiga mansub, bo'yi 30–100 sm ga yetadigan bir yoki ikki yillik o't o'simlik. Ziravor o'simlik sifatida hamma mintaqalarda o'stiriladi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, yog', flavonoidlar bor. Meva damlamasi va mevasi siydik haydovchi yig'malar tarkibiga kiradi. Ular buyrak, qovuq va siydik yo'llarida tosh bo'lganda, istisqo kabi kasalliklarda siydik haydovchi vosita sifatida ichiladi.

**Oddiy qarag'ay** (*pinus silvestris L.*) – qarag'aydoshlar (*Pinaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 40 m ga yetadigan doim yashil daraxt. Rossiya, Sibir, Qozog'iston

shimoliy qismi, Kavkaz va Uzoq Sharqdagi ninabargli o'rmonlarning asosiy daraxtlaridan sanaladi. Tibbiyotda kurtagi, efir moyi va tanasidan olingan smolasi ishlatiladi. Kurtak va bargli shoxchalari tarkibida efir moyi, vitamin S, K va E, karotin, antotsianlar, achchiq, oshlovchi va b. moddalar bor. Efir moyi asosan pinen, limonen, bornilatsetat va b. terpenoidlardan tashkil topgan. O'simlik kurtagi damlamasi balg'am ko'chiruvchi, dezinfeksiya qiluvchi va siydik haydovchi vosita sifatida, efir moyi yuqori nafas yo'llari kasallanganda ingalyatsiya qilish uchun qo'llaniladi. Ekstrakti shifobaxsh vanna uchun ishlatiladi. Efir moyining spirtidagi eritmasi xonalar hidini yaxshilash uchun purkaladi.

**Oddiy qoraqarag'ay** (*picea abies L. Karst*) – qarag'aydoshlar (*Pinaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15–40 m ga yetadigan doim yashil, piramidasimon daraxt. Yevropa qismining ninabargli o'rmonlarini asosan shu daraxt tashkil qiladi. Manzara-li daraxt sifatida ham o'stiriladi. Tibbiyotda kurtagi va g'udda mevasi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, vitamin S, fitonsidlar, yelimlar, oshlovchi va b. moddalar bor. Kurtagi bilan g'udda mevasining damlamasi mikroblarga qarshi, spazmotik va desensibilizatsiya qiluvchi ta'sirga ega bo'lib, turli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Bargining damlamasi terlatuvchi, siydik va o't haydovchi ta'sirga ega.

**Oddiy qorazira** (*carum carvi L.*) – selderdoshlar [soyabonguldoshlar – *Apiaceae* (*Umbelliferae*)] oilasiga mansub, bo'yi 25–80 sm ga yetadigan ikki yillik o't o'simlik. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, oqsil, flavonoidlar, oshlovchi va b. moddalar bor. Efir

moyi limonen, karvakrol, karvon va boshqa terpenoidlardan tarkib topgan. Meva damlamasi ichak zaiflashuvini davolash, og'riq qoldirish, ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun hamda qorin dam bo'lganda yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Mevasi siydik va yel haydovchi hamda me'da kasalliklarida ishlatiladigan choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. Ba'zan mevasidan meva suvi tayyorlanadi va uni ichak sanchig'ida (ayniqsa, bolalarda), tish og'rig'ida og'riq qoldirish uchun qo'llaniladi. Efir moyi dorishunoslik amaliyotida suyuq dorilarning hidi va ta'mini yaxshilash uchun ishlatiladi.

**Oddiy qulmoq** (*humulus lupulus L.*) – tutdoshlar (*Mogaseae*) oilasiga mansub, bo'yi 5–6 m ga yetadigan chirmashib (yoki osilib) o'suvchi ko'p yillik o't o'simlik. Rossiya, Qrim, Kavkaz, Oltoy va Markaziy Osiyodagi keng yaproqli o'rmonlar, butazorlar va ariq bo'ylarida o'sadi. Ukraina, Belorussiya va Boltiqbo'yi mamlatklarida maxsus maydonlarda o'stiriladi. Tibbiyotda qubbasi ishlatiladi. Qubbalar tarkibida efir moyi, xumulini alkaloidi, xolin, valerian va b. kislotalar, smolalar, achchiq va b. moddalar bor. Qubbalar qaynatmasi va ularni elab olingan kukuni lupulin siydik haydovchi, tinchlantiruvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida hamda me'da shilliq qavatlarining yallig'lanishi (gastrit) va b. kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Qubbalari tinchlantiruvchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oddiy sambitgul** (*nerium oleander L.*) – kendirdoshlar (*Arosunaseae*) oilasiga mansub, bo'yi 3–4 (5) m ga yetadigan doim yashil buta yoki daraxt. G'arbiy Yevropaning Kavkaz va Qrimning Qora dengiz bo'ylarida hamda Ozarbayjonda manzarali o'simlik sifatida xiyobon, ko'cha

va bog'larda, xonadonlarda o'stiriladi. Tibbiyotda bargi ishlatiladi. O'simlikning hamma qismida yurak glikozidlari bo'lib, zaharli! Bargida saponinlar, flavon glikozidlari, ursol kislotasi va b. moddalar bor. Bargining yurak glikozidlari (oleandrin, adinerin) yurak nuqsoni (porogi), qon aylanishining II va III darajali buzilishlari, ayniqsa, yurakning mitral qopqog'i nuqsoni (porogi) natijasida yuz bergan titroq aritmiyasida qo'llaniladi.

**Oddiy sachratqi** (*Cichorium Intubus L.*) – murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–100 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismi, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Sibirga ko'p tarqalgan bo'lib, o'rmon atroflarida, chakalakzorlarda, o'tloqlarda, tekisliklarda, ekinzorlarda, yo'l yoqalarida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi, ildizi ishlatiladi. Tarkibida flavonoidlar, kumarinlar, vitamin S va V, glikozidlar, aromatik oksikislotalar, achchiq sut shira, kam miqdorda inulin va b. moddalar bor. Ildizi qadimdan ish-taha ochish, ovqat hazm bo'lishini yaxshilash, sariq va b. jigar kasalliklarini davolashda qo'llanib kelinadi. Yer ustki qismining qaynatmasida oftob urgan bolalar cho'miltiriladi. Shuningdek, ushbu qaynatma (yoki damlama) dan turli teri, me'da-ichak, buyrak va b. kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

**Oddiy silibum** (*silybum marianum L.*) Gaerth) – murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–150 sm ga yetadigan bir yoki ikki yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismining janubiy nohiyalari, Kavkaz, G'arbiy Sibir va Markaziy Osiyoning janubidagi past tekisliklarda, yo'l yoqalarida, begona o't sifatida ekinzorlarda, tashlandiq, quruq

va b. yerlarda o'sadi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida flavonlignanlar, tak-sifolin flavonoidi, saponinlar, alkaloidlar, organik kislotalar, vitamin K, efir moyi, yog', shilliq moddalar bor. Meva flavo-noidlari preparatlari – silibinin, silibor va karsil sirroz, sarg'ayma va jigarning boshqa surunkali kasalliklarini davolash-da qo'llaniladi.

**Oddiy soxta kashtan** (*aesculus hip-pocastanum L.*) – soxta kashtandoshlar (*Hippocastanaceae*) oilasiga mansub, chiroyli, 30 m ga yetadigan daraxt. Vata-ni Bolqon yarim oroli. Qrim, Kavkaz va Markaziy Osiyoda manzarali daraxt si-fatida ko'chalarda, xiyobon va bog'larda o'stiriladi. Tibbiyotda urug'i va bargi ishlatiladi. Urug'i tarkibida eskulin va fraksin, kumarin glikozidlari, flavonoid-lar, triterpen saponinlar (essin va bosh-qa), kraxmal, oqsil, oshlovchi va boshqa moddalar; bargida flavonoidlar (kversetin, kempferol va ularning glikozidlari), karotinoidlar va b. birikmalar bor. Urug'idan tayyorlangan ekstrakt eskuzan trombofle-bit va vena qon tomiri (ayniqsa, oyoqda) kengayishining oldini olish va davolashda hamda bavosil va aterosklerozda ishlatila-di. Yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarda es-kuzan bilan bir qatorda, yana yangi olin-gan esflazid hamda flavazid preparatlari qo'llaniladi. Eskulin qon tomir kasallik-larida qo'llaniladigan anavenol preparati tarkibiga kiradi.

**Oddiy tikandaraxt** (*gleditschia tia-canthos L.*) – dukkakkdoshlar (*Legumino-sae*) oilasiga mansub, bo'yi 20–40 m ga yetadigan, tikanli daraxt. Vatani Shimoliy Amerika. Manzarali daraxt sifatida Kav-kaz va Markaziy Osiyoda ko'chalarda, istirohat bog'larida o'stiriladi. Tibbiyot-da bargi ishlatiladi. Tarkibida alkaloidlar (triakantin), vitamin S, organik kislota

bor. Triakantin gidroxlorid me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasida, yo'g'on ichak yallig'lanishi hamda qaytalagan xoletsis-tit (o't qopi yallig'lanishi)da og'riq qoldi-ruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

**Oddiy toloknyanka** (*arctostaphylos uva-ursi (L.) Spreng*) – erikatsiyadoshlar (*Ericaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 25–30 sm ga yetadigan doim yashil buta. Tibbi-yotda bargi va yosh novdalari ishlatiladi. Tarkibida arbutin va metilarbutin gliko-zidlari, ko'p miqdorda oshlovchi modda-lar, gallat, elag kislotalar, flavonoidlar, gidroxinon, antotsianlar va b. birikmalar bor. Qaynatmasi siydik yo'llari va qovuc shamollaganda davolash hamda siydik haydash uchun qo'llaniladi. Bargi siydik haydovchi choylar-yig'malar tarkibiga ki-radi.

**Oddiy zirk** (*berberis vulgaris L.*) – zirkdoshlar (*Berberidaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1,5–2 m gacha yetadigan tikanli buta. Yevropa qismining g'arbiy va markaziy viloyatlaridagi cho'l va o'rmon-cho'l yerlarda o'sadi. Manzara-li o'simliklar sifatida maxsus o'stiriladi. Tibbiyotda bargi va ildizi ishlatiladi. Tar-kibida alkaloidlar (berberin) hamda bi-rikmalar bor. Berberin bisulfat surunkali gepatit, gepatoxoletsistit, xoletsistit, jigar kasalliklarida hamda o't qopining tosh kasalligida o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. O't haydovchi dori sifatida ba'zan (*B. amurskiy – V. amurensis Rurr.*) **Amur zirkinin** bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) ham ishlatiladi. Bu o'simlikning bargida ham oddiy zirk bar-gidagi alkaloidlar (berberin) bor. Oddiy zirk ildizi Zdrenko yig'masi tarkibiga ki-radi.

**Oddiy o'rik** (*Armeniaca vulgaris lam*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oi-lasiga mansub, bo'yi 5–8 (ba'zan 17) m

gacha yetadigan daraxt. Markaziy Osiyoning tog'li viloyatlarida o'sadi. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yevropa qismining janubida va b. yerlarda o'stiriladi. Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi (shaftoli moyi nomi bilan yuritiladi) va daraxtidan olinadigan yelimi ishlatiladi. Mevasining yumshoq qismida qand, organik kislotalar (olma, limon kislotasi), karotin, vitamin S va RR, flavonoidlar, pektin, mineral, oshlovchi moddalar; urug'ida (mag'izida) ko'p miqdorda moy, emulsin fermenti; achchiq danakli o'rik mag'zida esa amigdalin glikozidi va b. birikmalar bor. O'rik moyi ba'zi dori moddalar (kamfora, gormonlar), inyeksion eritma va suyuq surtmalar tayyorlashda; o'rik daraxti yelimi moyli emulsiya tayyorlashda (emulgator sifatida) arab yelimi o'rnida, achchiq danakli o'rik urug'i achchiq bodom suvi tayyorlashda ham ishlatiladi.

**Oddiy shaftoli** (*persica vulgaris mill*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 3–5 metr ga yetadigan daraxt. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Qrim, Moldaviya hamda Yevropaning ayrim nohiyalarida o'stiriladi. Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi ishlatiladi. Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy, efir moyi, amigdalin glikozidi, emulsin fermenti va b. moddalar, mevasining yumshoq qismida karotinoidlar, qandlar, vitamin S, organik kislotalar, efir moyi, pektin va b. moddalar, kaliy va magniy tuzlari bor. Shaftoli moyi dorishunoslik amaliyotida suyuq surtma dorilar tayyorlashda qo'llaniladi. Urug'idan achchiq bodom suviga o'xshash ta'sirli preparat tayyorlash mumkin.

**Oddiy chernika** (*vaccinium mubtillus L.*) – erikatsiyadoshlar (*Ericaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15–40 sm ga yetadigan kichik yarim buta. G'arbiy Yevropa qismi

va Sibirning nam o'rmonlarida, Kavkaz hamda Uzoq Sharqda o'sadi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, organik (olma va limon) kislotalar, ko'p miqdorda qandlar, antotsianlar va b. birikmalar bor. Mevasining damlamasi, sharbati hamda mevasining o'zi me'da uchun choylar-yig'malar tarkibida ichketarni (ayniqsa, bolalarda) to'xtatish uchun ishlatiladi. Chernika bargi ham ilmiy tabobatda qandli diabet kasalligini davolashda qo'llaniladigan choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. Barglari tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, mirtillin va arbutin glikozidlari, flavonoidlar, triterpen saponinlar, vitamin S va b. birikmalar bor.

**Oddiy chetan** (*sorbus aucuparia L.*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 4–5 (ba'zan 15) m gacha o'sadigan daraxt yoki buta. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida vitamin S va R, karotin, organik kislotalar, qandlar, flavonoidlar, efir moyi, sorbit, oshlovchi va b. moddalar, urug'ida amigdalin glikozidi va ko'p miqdorda yog' bor. Meva va uning damlamasi avitaminoz kasalliklarini davolashda va ularning oldini olishda qo'llaniladi. Mevasi vitaminli choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oferta** [*lot. offertus* – taklif etilgan] – tovar yetkazib berish, biror-bir xizmat ko'rsatish uchun shartnoma xabarnomasi. *Xalqaro savdoda ofertaning qat'iy va erkin turlari bor.* («O'zME»).

**Oftobi** [*f.* – oftobga aloqador, oftobli; oftobda quritilgan] – *shv.* Oftobda quritilgan mevalar, mas., mayiz, turshak, qoqi.

**Oguzok** – 1) hayvonlarning son go'shti. 2) hayvonlarning sag'ri terisi.

**Oila** [*a.* – bola-chaqa, xonadon; urug', avlod] – 1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan ibo-

gacha yetadigan daraxt. Markaziy Osiyo-ning tog'li viloyatlarida o'sadi. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yevropa qismining janubida va b. yerlarda o'stiriladi. Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi (shaftoli moyi nomi bilan yuritiladi) va daraxtidan olinadigan yelimi ishlatiladi. Mevasining yumshoq qismida qand, organik kislotalar (olma, limon kislotasi), karotin, vitamin S va RR, flavonoidlar, pektin, mineral, oshlovchi moddalar; urug'ida (mag'izida) ko'p miqdorda moy, emulsin fermenti; achchiq danakli o'rik mag'zida esa amigdalin glikozidi va b. birikmalar bor. O'rik moyi ba'zi dori moddalar (kamfora, gormonlar), inyeksion eritma va suyuq surtmalar tayyorlashda; o'rik daraxti yelimi moyli emulsiya tayyorlashda (emulgator sifatida) arab yelimi o'rmida, achchiq danakli o'rik urug'i achchiq bodom suvi tayyorlashda ham ishlatiladi.

**Oddiy shaftoli** (*persica vulgaris mill*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 3–5 metr ga yetadigan daraxt. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Qrim, Moldaviya hamda Yevropaning ayrim nohiyalarida o'stiriladi. Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi ishlatiladi. Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy, efir moyi, amigdalin glikozidi, emulsin fermenti va b. moddalar, mevasining yumshoq qismida karotinoidlar, qandlar, vitamin S, organik kislotalar, efir moyi, pektin va b. moddalar, kaliy va magniy tuzlari bor. Shaftoli moyi dorishunoslik amaliyotida suyuq surtma dorilar tayyorlashda qo'llaniladi. Urug'idan achchiq bodom suviga o'xshash ta'sirli preparat tayyorlash mumkin.

**Oddiy chernika** (*vaccinium mubtillus L.*) – erikatsiyadoshlar (*Ericaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 15–40 sm ga yetadigan kichik yarim buta. G'arbiy Yevropa qismi

va Sibirning nam o'rmonlarida, Kavkaz hamda Uzoq Sharqda o'sadi. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, organik (olma va limon) kislotalar, ko'p miqdorda qandlar, antotsianlar va b. birikmalar bor. Mevasining damlamasi, sharbati hamda mevasining o'zi me'da uchun choylar-yig'malar tarkibida ichketarni (ayniqsa, bolalarda) to'xtatish uchun ishlatiladi. Chernika bargi ham ilmiy tabobatda qandli diabet kasalligini davolashda qo'llaniladigan choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. Barglari tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, mirtillin va arbutin glikozidlari, flavonoidlar, triterpen saponinlar, vitamin S va b. birikmalar bor.

**Oddiy chetan** (*sorbus aucuparia L.*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 4–5 (ba'zan 15) m gacha o'sadigan daraxt yoki buta. Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida vitamin S va R, karotin, organik kislotalar, qandlar, flavonoidlar, efir moyi, sorbit, oshlovchi va b. moddalar, urug'ida amigdalin glikozidi va ko'p miqdorda yog' bor. Meva va uning damlamasi avitaminoz kasalliklarini davolashda va ularning oldini olishda qo'llaniladi. Mevasi vitaminli choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oferta** [*lot. offertus* – taklif etilgan] – tovar yetkazib berish, biror-bir xizmat ko'rsatish uchun shartnoma xabarnomasi. *Xalqaro savdoda ofertaning qat'iy va erkin turlari bor.* («O'zME»).

**Oftobi** [*f.* – oftobga aloqador, oftobli; oftobda quritilgan] – *shv.* Oftobda quritilgan mevalar, mas., mayiz, turshak, qoqi.

**Oguzok** – 1) hayvonlarning son go'shti. 2) hayvonlarning sag'ri terisi.

**Oila** [*a.* – bola-chaqa, xonadon; urug', avlod] – 1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan ibo-



rat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon. *Ahil oila. San'atkorlar oilasi. Oila boshlig'i.*

**2.** O'simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o'xshash, kelib chiqish jihatidan ham o'zaro yaqin bir necha urug'ni o'z ichiga olgan urug'. *Dukkaklilar oilasi. O'rdaktumshuqlilar oilasi. Turp butaguldoshlar oilasiga mansub ikki yillik, ildizmevali ko'kat o'simligi, deyishadi botaniklar.* (K.Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**Oila pudrati** – mehnatni tashkil etishning ichki xo'jalik shakli, jamoa pudrati ko'rinishlaridan biri. Bunda oila pudratchi bo'lib, shartnoma tuzadi. Xo'jalik bilan oila pudrati munosabatlari pudrat shartnomasi bilan kelishib olinadi. Oila pudratida ishlayotgan jamoa ishlab chiqarish vositalaridan foydalanadi. Ular yetishtirgan mahsulot shirkat xo'jaligi mulki hisoblanadi.

**Olabuta** – bot. Sho'radoshlarga mansub bir yillik o'tsimon yoki yarim buta o'simlik. [*Olabutaning*] poyasi tik, shoxlanib o'sadi, bo'yi 1 m yoki undan ortiq bo'ladi. («O'zME»).

**Olabug'a** – usti ko'ndalang qora yo'llar bilan qoplangan, suzgichlari qizg'ish, yirik tangali baliq.

**Olapo'choq** – qovunning to'q sariq tusli, shakli cho'ziq tuxumsimon, kech-pishar turi. *Olapo'choq qishda asrashga va uzoq joylarga olib borishga yaroqli.* («O'zME»).

**Olaqaroq I** – 1. Yakkam-dukkam, olaqura, siyrak, chala. *Uning [To'laganning] kultivatsiya qilgan g'o'zalarida olaqaroq joylari uchramaydi.* (H. Nazir, «Mexanizator To'lagan»).

**2 s.t.** Olazarak. Atrofga olaqaroq ko'z yugurtirmoq. [*Arslonqul*] Go'yo undan

*boshqa hech kim Navoiyni ogohlantirishi mumkin emas kabi, olaqaroq bo'lib, shoirni qidirdi.* (Oybek, «Navoiy»).

**Olaqaroq II** – ot va mollarda bo'ladigan bir turli miya kasalligi. *Xosa tulpor bir yerda turib qolsa, olaqaroq bo'lib qotib qolar edi.* («Go'ro'g'lining tug'ilishi»).

**Olashovur: olashovur yomg'ir** – siyrak, ammo katta-katta, tasir-tusur yoqqan yomg'ir. *Shu vaqtda siyrak yoqqan bulutlardan olashovur yomg'ir quyib o'tdi.* (Oybek, «Navoiy»); **olashovur qor** – yomg'ir aralash yoqqan qor. *Atrof olashovur yoqqan qor bilan qoplangan... edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Olachuq** – kt. Kapa, chayla. *Huv bir qator to'rt olachuq, besh kappa. Bu qishloqning boshlang'ich binolari.* (G'. G'ulom).

**Olhirot** [*f.* – Hirot olxo'risi] – ayn. olxo'ri. *Mashhur bog'bon Darvesh hojishaftoli, olhirot ko'chatlarini o'tqazmoqda.* (Oybek, «Navoiy»). *Nonushtaga qiyom-olhirot, Kechga palov, behi bosilur.* (Mirtemir, «Asarlar»). *Olxo'rining jaydari nomi turlicha: qoraoli, olxo'ri, olhirot, g'aynoli.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Olma** (*malus mill*) – Ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, katta-kichik daraxtlar. MDHning Yevropa qismi, Kavkaz, Markaziy Osiyoning hamma yerlarida o'sadi. Madaniylashtirilgan navlari mevali daraxt sifatida keng o'stiriladi. Tibbiyotda olmaning quyidagi turlari ishlatiladi: **Sharq olmasi** (*Ya. vostochnaya* – *M. orientalis* Uglitzkich.); **Xonaki olma** (*Ya. domashnaya* – *M. domestica* Borkh.); **O'rmon olmasi** (*Ya. lesnaya* – *M. silvestris* (L.) Mill.); **Ertagi olma** (*Ya. rannyya* – *M. praecox* (Pall.) Borkh.); Mevasi tarkibida qandlar, organik (olma va b.) kis-

lotalar, vitamin S, V, karotin, efir moyi, fitonsidlar, flavonoidlar, oshlovchi pektin moddalar bor. Xalq tabobatida qirqilgan yoki ezilgan olma bo'lakchalari tananing kuygan va sovuq urgan yerlariga hamda uzoq vaqt davomida tuzalmaydigan yaralarga bog'lab davo qilinadi. Ilmiy tabobatda olma va uning temirli tindirmasi (nastoykasi) me'da-ichak (kolit va enterokolit), kamqonlik, avitaminoz hamda yurak-tomir kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Shu kasalliklarning oldini olish maqsadida parhez taom sifatida almashib doim iste'mol qilib turish tavsiya etiladi.

**Olmaqoqi** – kesib quritilgan olma. *Dasturxonda turshak, olmaqoqi, yong'oq, patir bo'lardi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»).

*Frontga bor-yo'g'i uch marta borgan u: ikki marta agitteatrd, bir marta olmaqoqi ortilgan eshelonni kuzatib.* (M.M. Do'st, «Lolazor»).

**Olmaxon** – o'rmonda daraxtda yashovchi, uzun baroq dumli kichkina kemiruvchi hayvon.

**Olmazor** – nuqul olma daraxti bilan band yer, maydon; olma bog'i. – *Ko'rdinglarmi, – dedi Komiljon to'xtab, – bu yer olmazor edi.* (S. Zunnunova, «Olmazor»).

**Olmurut** – shv. Nokning maydaroq bir turi.

**Olon, olong** – shv. Qarovsiz, tashlandiq yer; tepalik, past-balandlik. *Ko'p o'tmay, hovliga yaqin olonga oq «Volga» kelib to'xtadi.* (N. Aminov, «Yolg'onchi farishtalar»).

**Olqor I** – q. **alqor, arxar.** *Olqor ko'z oldimizda qaygadir yo'qoldi.* (A. Suyun, «Olis tonglar»).

**Olqor II** – bot. Yovvoyi o't, o'simlik turi. *Olqor bilan kiyik o't qizlar qulog'ida bo'ldi, ko'kraklarida bo'ldi.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**Olti gulbarg filipendula** (*filipendula hexapetala gilib*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 80 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismi va Sibirdagi cho'llarda, quruq o'tloqlarda, o'rmon yalangliklarida va chetlarida o'sadi. Tibbiyotda ildizpoyasi va ildizi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, kraxmal va boshqa birikmalar bor. Ildizpoyasi bilan ildizi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

**Oltिंगugurtli o'g'itlar** – tarkibida oltिंगugurt bo'lgan va o'g'it sifatida ishlatiladigan birikmalar. Kaliy, magniy, ammoniy sulfatlari, fosfogips va b., shuningdek, qisman oltिंगugurt bo'lgan jinslar oltिंगugurtli o'g'itlar sifatida qo'llaniladi. O'simliklar uchun qor-yomg'ir, go'ng va b. organik o'g'itlar oltिंगugurtning yaxshi manbai hisoblanadi. Oltिंगugurtli o'g'itlar tarkibida oltिंगugurt kam bo'lgan sho'rxok va b. yerlarda qo'llaniladi; qumoq kulrang tuproqli yerlarda ko'proq samara beradi. Tuproqqa yiliga yog'in bilan birga gektariga 8 kg gacha oltिंगugurt angidridi ( $SO_2$ ) tushadi. Oltिंगugurtli o'g'itlar ko'pchilik q.x. ekinlariga, ayniqsa, tanasida ko'p miqdorda oltिंगugurt tutadigan va uni aksariyat hollarda kamida fosfor-ga teng miqdorda o'zlashtiradigan butguldoshlar, dukkaddoshlar, kungaboqar va kartoshka uchun foydali. Oltिंगugurtli o'g'itlar bilvosita o'g'it tarzida ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin: tuproqdagi ortiqcha ishqoriylikni kamaytiradi,

neytrallaydi, qiyin eruvchi fosfatlarning o'zlashtirilishini oshiradi, Ca, Mg, K, Fe larning eruvchanligini kuchaytiradi.

**Oltinko'zlar** (*Chrysopidae*) – to'rqa-notlilar turkumiga mansub hasharotlar oilasi. Markaziy Osiyo faunasida 24 turi tarqalgan. Oltinko'zlar g'o'za va boshqa q.x. zararkunandalarini yo'q qiluvchi entomofaglar sifatida katta ahamiyatga ega. O'simliklarni zararkunanda hasharotlardan himoya qilishda qo'llash uchun oltinko'zlarni laboratoriya sharoitida, tabiiy va sun'iy ozuqa muhitida ko'paytirish usuli ishlab chiqilgan.

**Oltoy ot zoti** – Mo'g'uliston otlari guruhiga kiradi, ancha baquvvatligi va chidamliligi bilan farq qiladi. Yil bo'yi uyurlar bilan dashtlarda boqiladi. Yag'rinining balandligi 131, ko'krak aylanasi 160, pochka aylanasi 16,2 sm. Oltoy o'lkasining tog'li hududlarida ko'paytiriladi.

**Oltoy qo'y zoti** – mayin junli jungo'sht yo'nalishdagi qo'y zoti. Qo'chqorlarining tirik vazni 90–100, sovliqlarini 55–65 kg. Qo'chqorlaridan 9–11, sovliqlaridan 6,0–6,5 kg jun qirqib olinadi, junining uzunligi 7–10 sm. Jun tolasi ingichka, asosan 64% sifatli. Har 100 ona qo'ydan 130–170 ta qo'zi olinadi.

**Olu** [f.] – shv. **Olxo'ri**.

**Olxa** (*alnus L.*) – qayindoshlar (*Vetulaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 20 m ga yetadigan daraxt yoki butalar turkumi. Tibbiyotda ikkita turining g'udda mevasi ishlatiladi: **Qopa (yopishqoq)** [*O. chernaya (kleykaya) – A. glutinosa Gaertn.*] **olxa** va **Kulrang olxa** [*O. Seraya – A. incana (L.) Moehch.*]. Har ikkalasi G'arbiy Yevropa qismining o'rmon, o'rmon-cho'l yerlarida va qisman Kavkazdagi nam o'tloqlarda, soy bo'ylarida, qiyaliklarda, o'rmonlarda, botqoqliklarda

o'sadi. G'udda mevasi tarkibida oshlovchi moddalar, birikmalar bor. Mevasining damlamasi burishtiruvchi vosita sifatida ichak kasalliklari, surunkali enterit va kolitni davolashda qo'llaniladi. G'udda mevasi ichketarga qarshi ishlatiladigan choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Olxasimon frangula** (*frangula alnus mill*) – chilonjiydodoshlar, jumrutdoshlar (*Rhamnaseae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–3 (7) m ga yetadigan buta yoki daraxtcha. G'arbiy Yevropa qismi, Qrim, Kavkaz, G'arbiy Sibir va Qozog'iston shimolidagi keng yaproqli va aralash o'rmonlarda, butalar orasida va daryolar bo'yida o'sadi. Tibbiyotda po'stlog'i ishlatiladi. Tarkibida antrotsen hosilalari (frangularozid, frangulaemodin, xrizafonol va b.), alkaloidlar, qandlar, organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari – qaynatmasi, suyuq ekstrakti, quruq ekstraktining tabletkasi, sharbati va choylar-yig'malar tarkibida surunkali qabziyatda surgu sifatida qo'llaniladi. Olxasimon frangula bilan bir qatorda surgu dori sifatida Zakavkazye o'rmonlarida o'sadigan Krushina imeretinskaya (*Rhamnus imeretina Booth Imeretin*) jumrutining po'stlog'idan tayyorlangan suyuq ekstrakt ilmiy tibbiyotda ishlatiladi. Po'stlog'i tarkibida yuqorida ko'rsatilgan antratsen hosilalari bor.

**Olxo'ri** [f. - olxo'ri + -yeyishli] – 1. Ra'nodoshlar oilasiga mansub danakli meva daraxti. Bir tup olxo'ri. Olxo'ri ekmoq. *Dadasi, ne hasratda ko'karayotgan olxo'rining hamma shoxini bitta qo'ymay kesib tashlabdi.* (S. Zunnunova, «Ko'k chiroqlar»). 2. Shu daraxtning shirin mevasi. *Sariq olxo'ri. Qora olxo'ri.*

**Olcha** [olu + cha: kichik olxo'ri] – 1. Ra'nodoshlar oilasiga mansub danak-

neytrallaydi, qiyin eruvchi fosfatlarning o'zlashtirilishini oshiradi, Ca, Mg, K, Fe larning eruvchanligini kuchaytiradi.

**Oltinko'zlar** (*Chrysopidae*) – to'rqa-notlilar turkumiga mansub hasharotlar oilasi. Markaziy Osiyo faunasida 24 turi tarqalgan. Oltinko'zlar g'o'za va boshqa q.x. zararkunandalarini yo'q qiluvchi entomofaglar sifatida katta ahamiyatga ega. O'simliklarni zararkunanda hasharotlardan himoya qilishda qo'llash uchun oltinko'zlarni laboratoriya sharoitida, tabiiy va sun'iy ozuqa muhitida ko'paytirish usuli ishlab chiqilgan.

**Oltoy ot zoti** – Mo'g'uliston otlari guruhiga kiradi, ancha baquvvatligi va chidamliligi bilan farq qiladi. Yil bo'yi uyurlar bilan dashtlarda boqiladi. Yag'rinining balandligi 131, ko'krak aylanasi 160, pochka aylanasi 16,2 sm. Oltoy o'lkasining tog'li hududlarida ko'paytiriladi.

**Oltoy qo'y zoti** – mayin junli jungo'sht yo'nalishdagi qo'y zoti. Qo'chqorlarining tirik vazni 90–100, sovliqlarini 55–65 kg. Qo'chqorlaridan 9–11, sovliqlaridan 6,0–6,5 kg jun qirqib olinadi, junining uzunligi 7–10 sm. Jun tolasi ingichka, asosan 64% sifatli. Har 100 ona qo'ydan 130–170 ta qo'zi olinadi.

**Olu** [f.] – shv. **Olxo'ri**.

**Olxa** (*alnus L.*) – qayindoshlar (*Vetulaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 20 m ga yetadigan daraxt yoki butalar turkumi. Tibbiyotda ikkita turining g'udda mevasi ishlatiladi: **Qopa (yopishqoq)** [*O. chernaya (kleykaya) – A. glutinosa Gaertn.*] **olxa** va **Kulrang olxa** [*O. Seraya – A. incana (L.) Moehch.*]. Har ikkalasi G'arbiy Yevropa qismining o'rmon, o'rmon-cho'l yerlarida va qisman Kavkazdagi nam o'tloqlarda, soy bo'ylarida, qiyaliklarda, o'rmonlarda, botqoqliklarda

o'sadi. G'udda mevasi tarkibida oshlovchi moddalar, birikmalar bor. Mevasining damlamasi burishtiruvchi vosita sifatida ichak kasalliklari, surunkali enterit va kolitni davolashda qo'llaniladi. G'udda mevasi ichketarga qarshi ishlatiladigan choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Olxasimon frangula** (*frangula alnus mill*) – chilonjiydoshlar, jumrutdoshlar (*Rhamnaseae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–3 (7) m ga yetadigan buta yoki daraxtcha. G'arbiy Yevropa qismi, Qrim, Kavkaz, G'arbiy Sibir va Qozog'iston shimolidagi keng yaproqli va aralash o'rmonlarda, butalar orasida va daryolar bo'yida o'sadi. Tibbiyotda po'stlog'i ishlatiladi. Tarkibida antrotsen hosilalari (frangularozid, frangulaemodin, xrizafonol va b.), alkaloidlar, qandlar, organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari – qaynatmasi, suyuq ekstrakti, quruq ekstraktining tabletkasi, sharbati va choylar-yig'malar tarkibida surunkali qabziyatda surgu sifatida qo'llaniladi. Olxasimon frangula bilan bir qatorda surgu dori sifatida Zakavkazye o'rmonlarida o'sadigan Krushina imeretinskaya (*Rhamnus imeretina Booth Imeretin*) jumrutining po'stlog'idan tayyorlangan suyuq ekstrakt ilmiy tibbiyotda ishlatiladi. Po'stlog'i tarkibida yuqorida ko'rsatilgan antratsen hosilalari bor.

**Olxo'ri** [f. - olxo'ri + -yeyishli] – 1. Ra'nodoshlar oilasiga mansub danakli meva daraxti. Bir tup olxo'ri. Olxo'ri ekmoq. *Dadasi, ne hasratda ko'karayotgan olxo'rining hamma shoxini bitta qo'ymay kesib tashlabdi.* (S. Zunnunova, «Ko'k chiroqlar»). 2. Shu daraxtning shirin mevasi. *Sariq olxo'ri. Qora olxo'ri.*

**Olcha** [olu + cha: kichik olxo'ri] – 1. Ra'nodoshlar oilasiga mansub danak-

li meva daraxti. Bir tup olcha. *Atrof hali yorug' bo'lsa ham, pastlik bulutli kunni eslatar, gulini to'kkan olchalarning tiniq barglari qoramtir bo'lib ko'rinar edi.* (S. Zunnunova, «Olov»)

2. Shu daraxtning yumaloq nordon mevasi. Olcha murabbosi. *Yozning eng jaziramasida olchaning suvini sharbat qilib ichilsa, tashnalikni qondiradi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Olchazor** – nuqul olcha bilan band yer, maydon, bog'. *Mohidil u yoq-bu yoqqa alanglab olib, qalin olchazor orasidan qo'shnining tomorqasiga o'tdi.* (S. Zunnunova, «Ko'k chiroqlar»).

**Ombor** [f. -g'alla, oziq-ovqat saqlanadigan xona, bino; omborxona, magazin] – oziq-ovqat, asbob-anjom, mol va sh.k. saqlanadigan bino. *Ombor to'la don. Hovli o'rtasida qaqqayib turgan Umidning taxminicha, bu hovlida oshxona, ombor, garaj va h.k.dan tashqari yo o'n ikki, yo o'n uch xona bor.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Suv ombori** – sun'iy suv havzasi, suv to'planadigan joy. *Kattaqo'rg'on suv ombori. Amudaryoda yirik Tuyamo'yin to'g'oni va suv ombori qurilishi oxirigacha yetdi.* («Fan va turmush»).

**Omil I** [a. – sabab, ta'sirchan kuch] – ish-harakat, voqea-hodisa va sh.k. ning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; sabab. *Otabekning ma'naviy padari bo'lgan Hasanali ota uning maxfiy dardining asli omilini izlaydir.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Chigitga gamma nurlari berish viltga qarshi kurashdagi asosiy omillardan biri.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Omilkorlik** – ustalik bilan, oqilona ish ko'rishlik. *Paxta terish mashinalaridan omilkorlik bilan foydalanmoq.*

**Omixta** [f.– aralash, aralashtirilgan] – 1 ot. Bir necha mahsulot aralashmasi. *Xayriyatki, bola tezda ovundi, asal-u yog' omixtasi surtilgan emizikni shimganicha uxlab qoldi.* (M.M. Do'st, «Lolazor»).

2 sft. Aralash, boshqa narsa aralashtirilgan. *Omixta yog'.* *Omixta yemlar bu yerda bug'doy, arpa, suli mahsulotlaridan tayyorlanadi.* (Gazetadan). *Azixxonning dimog'iga qalampirmunchoqqa omixta atir hidi urildi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

3 ko'chma, s.t. Aralash-quralash, moshkichiri, qorishiq. *Turmushdagi boshqa-yu, kitobdagisi havodan olinganmi? Kitobdagi bilan turmushdagini bir-biriga omixta qilish kimning ishi?* (H. Nazir, «Ko'kterak shabadasi»).

**Omocho** – esk. q. x. Ulov qo'shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog'och yoki temir asbob. *Omocho bilan yer haydamoq.* *Ho'kiz kallasini egib, omochni tortishga urinar, qo'shchi esa hadeb qistar edi.* (M. Ismoilij, «Farg'ona t. o»). [Abdurasul] *Dashtlab Olaxo'janing sigirlarini boqadi, keyin omoch qulog'ini ushlaydigan bo'lgach, qo'shga chiqadi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Omocho-bo'yinturuq** – yer haydash uchun kerakli bo'lgan omoch, bo'yinturuq va b. asboblarning majmui.

**Taraqa-turuq, omochga bo'yinturuq** (hazil) – arzimagan ishga to'polon, shov-shuv, tartibsizlik ko'tarilganda aytiladigan ibora.

**Omocho** – omochga, plugga ega bo'lgan. *Tomorqa etagidagi devorning omochli traktor kirgudek joyi buzib tashlangan edi.* (A. Obidov, «Akang qarag'ay Gulmat»).

**Onalik** – 1. Ona mavqeyi, unga xos xislatlar – homiladorlik, tug'ish, bolani tarbiyalash va shunga bog'liq ona burchi.

*Onalik va bolalikni himoya qilish. Onalik muhabbati. Onalik hissi. To'satdan vujudini qamragan onalik mehri g'olib kelib, tortgan azobi ham esidan chiqdi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Bu so'zdan so'ng Oftob oyimning onalik ko'ngli erib ketgan edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**2 bot.** O'simliklarda urg'ochi jinsiy a'zo; urug'chi. *Tok gulida onaligi yaxshi rivojlangan bo'lib, otaligi esa uncha yaxshi taraqqiy etmagan* («Fan va turmush»).

**Ondatra** [*fr. ondatra* < indeys til-laridan] – dala sichqonlari oilasiga mansub kemiruvchi jonivor; mushkli kalamush. *Bu terisi shilini b olingan ondatra-ni ng quyru g'i.* (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Ontogenez** [*yun. on, ontos* – borliq + *genesis* – kelib chiqish] – organizmning individual rivojlanishi davomida bo'ladigan ketma-ket o'zgarishlar majmui. *Ontogenez davri. Hayvonlar ontogenezi. O'simliklar ontogenezi.*

**Opsion** [*nem. option* < *lot. optio, optionis* – tanlash; istak] – **1.** Shartnoma shartlariga ko'ra tomonlardan biriga majburiyatlarni bajarish yo'li, shakli, hajmi, texnikasini tanlab olish uchun berilgan huquq.

**2.** Sotuvchi yoki xaridorga qimmatbaho qog'ozlar yoki tovarlarni muayyan muddat davomida belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradigan shartnoma.

**Optimal** [*lot. optimus* – eng yaxshi, eng maqbul] – eng muvofiq, eng yaxshi, eng qulay. Chigit ekishning optimal rejimi. *Tananing optimal temperaturasi nerv sistemasining faoliyati tufayli vujudga keltiriladi.* (E. Mahmudov, «Terlash va uning ahamiyati»).

**Oqiziq** – *geol.* Suvda erib va suv bilan birga oqib kelib o'rnashgan mineral va organik jinslar.

**Oqim** – **1.** Ma'lum bir tomonga oqayotgan suv, suyuqlik yoki gaz jarayoni. *Issiq oqim. Sovuq oqim. Gaz oqimi. Rashid qayiqni oqim ixtiyoriga qo'yib yubordi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

**2.** Shunday jarayon yo'nalgan tomon, yo'nalish. *Azizxon ariqqa tushganda, besh-olti yigit oqimga qarshi suvni shaloplatib suzib yurishardi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Chavandoz otini orqaga burib, suv oqimiga qarab ketdi va yuz qadamcha yurgandan keyin yuganini tortib, qamchi urdi.* (H. G'ulom, Mash'al»).

**3 fiz.** Berilgan sirdan vaqt birligi ichida o'tayotgan to'liq energiya miqdori. *Yorug'lik oqimi. Elektronlar oqimi. Mag-nit oqimi.*

**Oqin 1-1 sft.** Doim oqib turadigan; oqar. Oqin daryo. *Shohista... oqin suvday sharaqlab, kulib kirib keldi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Shavkat, hovuzdan oqin suvga qaytgan baliqday, erkin-erkin qu-loch otib, yayrab cho'mildi.* (Q. Kenja, «Tog' yo'lida bir oqshom»).

**2 ayn. oqim 1,2.** *Quyoshga oqmoq-da ming daryo oqin. Shu oqin ichida bir tomchi men ham.* (Q. Muhammadiy). *Xalq oqini – eng kuchli oqin.* (H. Po'lat. *Umid Ergashdan*). *Lekin Ergash oqinga qarshi yakka turoladimi?* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Oqish akas** (*acacia dealbata link.*) – dukkakkodoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 25–45 m ga yetadigan doim yashil daraxt. Vatani Avstraliyaning janubi-sharqiy qismi bilan Tasmaniya oroli, Kavkaz va Qrimning Qora dengiz bo'ylarida manzarali daraxt sifatida o'stiriladi. Tibbiyotda tanasi va shoxla-

rining po'stlog'i yorilgan joyidan sizib chiqib qotib qolgan yelimi ishlatiladi. Uning tarkibida araban polisaxaridi ko'p bo'ladi. Yelimning eritmasi arab yelimi o'rnida qoplab oluvchi vosita sifatida hamda ba'zi dori moddalarining ta'sirini cho'zish, me'da-ichak yallig'lanishni va yara kasalliklarida shilliq qavatlarining ta'sirlanishini kamaytirish uchun ishlatiladi (xuqna (klizma) qilinadi). Bundan tashqari, bu yelim moyli emulsiyalarni tayyorlashda emulgator sifatida qo'llaniladi.

**Oqishoq** – sholi oqlanganda maydalanagan, singan guruch; guruchning maydasi. *Oqshoqdan osh bo'lmas.* (Maqol). *Ertalab Tozagul mehmon opani yangi tuqqan sigirining og'izi va o'g'irdan issiqqina chiqqan oqishoq tolqon bilan siyladi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Oqish sireniya** (*syrenia cana* (pill. *Yet mitt*) *neilr.*) – butguldoshlar (*Cruciferae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–60 sm ga yetadigan ikki yillik o't o'simlik. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida yurak glikozidlari (olma, limon va b.) kislotalar, qandlar, flavonoidlar, pektin, oshlovchi va b. moddalar bor. Bargi bilan meva damlamasi gipovitaminoz va avitaminoz kasalliklarini davolashda terlatuvchi va siydik haydovchi vosita sifatida qo'llanadi. Ular vitaminli choylar va yig'malar tarkibiga kiradi.

**Oq lab** – lablarning pasti, usti, yonboshi yoki har ikkalasi ham oq, ba'zan bu oq iyagiga ham o'tadi.

**Oqpalak** – o'simliklarning barglariga oqish dog'lar tushirib, so'ldiradigan va quritadigan kasallik (vilt kasalining bir xili). – *Olmalar oqpalakka chidamli nav topishdi-ku! – gapga aralashdi talaffuzi shirinroq yigit.* (S. Nurov, «Narvon»). *Oqpalak bo'layozgan paxtani o'g'it se-*

*pisht bilan sog'aytirish mumkin.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Oqqanot** – o'simliklar rivojiga zarar keltiradigan mayda hasharot. *Oqqanot hasharoti erta ko'klamda dalaga tarqalib, to kuzgacha o'simliklarni qiyratadi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**Oq qayin** (*betula pendula roth.*) – qayindoshlar (*Betulaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 10–20 m gacha yetadigan daraxt. Sibirdagi aralash o'rmonlarda o'sadi. Ba'zan qayinzorlar tashkil qiladi. Tibbiyotda mana shu **Oq qayin** (*so'galli qayin*) [*B. povislava* (*B. borodavchataya*) – *Betula pendula Roth.* (*V. verrucosa*, *V. Alba*)] bilan **Pahmoq qayin** (*B. pushistaya* – *V. pubescens Ehrh.*) ning kurtagi, bargi va qatroni ishlatiladi. Kurtagi tarkibida efir moyi, flavonoidlar (apigenin, akasetin, kempferol, izorampetin), saponinlar, smolalar, vitamin S, oshlovchi moddalar, bargida – efir moyi, vitamin S, saponinlar, flavonoidlar (giperozid, kversetin, apigenin, kempferol), oshlovchi moddalar bor. Kurtaging efir moyi tarkibida betulen, betulol, kariofillen terpenoidlar bor. Kurtak va barg damlamalari siydik haydovchi vosita sifatida istisqo kasalligini davolashda qo'llaniladi, bargining damlamasi yana avitaminozlarda, kurtak damlamasi – o't haydovchi vosita sifatida xoletsistitda ishlatiladi. Qayin daraxtining qatroni – Vishnevskiy surtmasi tarkibida yaralarni, Vilkinson surtmasi tarkibida qo'tir teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

**Oqqovun** – qovunning tusi ko'kish oq, shakli tuxumsimon, o'rtapishar, serhosil navi.

**Oqsil I – 1 biol.** Hayvon va o'simliklar organizmining eng muhim tarkibiy qismini tashkil etgan, tarkibida azot bo'lgan murakkab organik modda. *Oqsil*

*hujayralar tuzilishi uchun zarur bo'lgan moddadir.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»). *Non mahsulotlari tarkibida oqsil, turli mineral moddalar va vitaminlar bo'lishi muhim ahamiyatga ega.* («Fan va turmush»).

**2.** Tovuq tuxumining oq moddasi. *Ayol tuxumni chaqdi. Yutoqib oqsilini so'rdi. Keyin tuxumdagi teshikni barmog'i bilan kengaytirib, sarig'ini yutdi.* («Yoshlik»). *Buning uchun tuxumning oqsil qismidan sarig'i ajratib olinadi-da, suv bilan aralashtiriladi.* (Gazetadan).

**Oqsil II** – chorva mollari va cho'chqalarda bo'ladigan, shiddatli o'tadigan yuqumli kasallik, yashchur.

**Oqsilli konsentrat** – quruq modda tarkibida kamida 20 % protein bo'lgan oziq.

**Oqsilli ozuqalar, proteinli oziqalar** – o'simliklar va hayvonlar mahsulotlaridan tayyorlangan, tarkibida protein ko'p bo'lgan yem-xashak. Ko'pchilik mollar uchun yem-xashak ozuqalar – ko'ko't, pichan, don va don chiqitlari, kunjara va b. proteinning asosiy manbai hisoblanadi.

**Oqsuv** – toza chuchuk suv, oqar suv; muzlik suvi. Oqsuv ichmoq.

**Oqurug'** – qovunning po'sti oqish, urug'i, eti oq shirin bir turi.

**Oquvchan** – oqib ketadigan, yaxshi oqadigan. *Erigan cho'yan oquvchan bo'ladi va qolipni yaxshi to'ldiradi.*

**Oquvchanlik** – suyuqlikning o'z og'irlik kuchi ta'sirida yoyilib ketish xossasi. *Suyuqlikning asosiy xossasi – oquvchanlikdir.* («Fizika»).

**Oqshoq** – shoxining joyi oq tuk, jun bilan qoplangan qo'ylar.

**Oqchechak** – zarang daraxtining Markaziy Osiyoda uchraydigan guli oq turi.

**Oraliq ekinlar** – almashlab ekish tizimidagi asosiy ekinlar hosili yig'ib olingandan keyin ekiladigan qo'shimcha ekinlar. Intensiv almashlab ekishda bir yilda 2–3 marta hosil olish imkonini beradi, tuproqni eroziyadan asraydi. Markaziy Osiyoning sug'orma dehqonchilik mintaqalarida javdar, arpa, sulini, no'xat, shabdarda, kuzgi indov, xantal, bersim va b. oraliq ekinlar hisoblanadi.

**Oranjereya** [*fr. orangerie < orange – apelsin*] – noodatiy iqlim sharoitida o'simliklarni qishlatish, sovuqdan saqlash, qishda ham o'stirish uchun zarur sharoitlar muhayyo qilingan, ya'ni issiqsevar o'simliklar o'stirish va parvarishga mo'ljallangan oynavand bino, xona.

**Orenburg echki zoti** – tivit yo'nalishidagi echki zoti. Orenburg echki zoti mahalliy tivitli echkilarni uzoq vaqt tanlab chatishtirish yo'li bilan chiqarilgan. Tana tuzilishi baquvvat. Shoxlari uzun. Serkalari o'rtacha 65–70 kg, urg'ochilari 45–47 kg keladi. Qirqib olinadigan jun chiqimi 0,3–0,4 kg. Juni tivit (35%, uz. 5–6 sm, ingichkaligi 14–16 mkm) va qil (65%, uz. 7–9 sm, ingichkaligi 80–90 mkm) dan iborat. Tiviti qoramtir-kulrang. Oq ranglisi kam uchraydi. Tarab olinadigan tivit chiqimi 0,2–0,3 kg dan 0,5 kg gacha. Tiviti butun dunyoga mashhur. Undan issiq Orenburg ro'mollari tayyorlanadi. Sog'im davrida 90–120 kg sut beradi, yog'liligi 4,8–5%. 100 ta ona echkidan 125–140 ta uloq olinadi. Bu echki Orenburg, Chelyabinsk viloyatlarida, Boshqirdistonda va Qozog'istonning ayrim joylarida boqiladi.

**Organ I** [*yun. organon – qurol, asbob*] – **1.** Odam, hayvon, o'simlik va umuman, jonli organizmlarning ma'lum bir vazifalarni bajaradigan, muayyan tuzilishga ega bo'lgan va bir yoki bir nechta maxsus



(spetsifik) funksiyani bajaruvchi qismi; a'zo. *Sezgi organlari. Eshitish organi.*

2. Hayotning muayyan bir sohasida belgili vazifalarni bajaruvchi muassasa, tashkilot. *Organ xodimlariga Begmatovning yashirinmay, ochiqchasiga bemalol yurishi yoqmas edi.* («Yoshlik»). *Bu qarorga binoan, OAK Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi qaramog'idan olinib, Vazirlar Mahkamasining organiga aylantirildi.* («Fan va turmush»).

3. Biror partiya, tashkilot yoki muassasa tomonidan nashr qilinadigan va shu tashkilotning qarashlarini aks ettiradigan vaqtli matbuot. «*Sharq yulduzi*» jurnali – *O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining organidir.*

4 *tex.* Mexanizm va mashinalarning ma'lum vazifani bajaradigan murakkab mustaqil qismi. Traktorning boshqarish organi. *Robotning ishchi organi – harakat qiluvchi va yumush bajaruvchi mexanik qo'li odamning qo'liga o'xshaydi.* («Fan va turmush»).

**Organik I** – 1. Organizmga, jonli mavjudotga oid, tirik mavjudotlar bilan bog'liq bo'lgan; tirik, jonli. Organik dunyoning taraqqiyot qonunlari. *Yod organik birikma sifatida barcha tirik organizmlarda bo'ladi.* («Fan va turmush»).

2. Hayvon yoki o'simliklarning chirishidan hosil bo'lgan; tirik organizmlar mahsulidan olingan. *Organik modda. Organik o'g'itlar. Organik kimyo.* Kimyoning uglerod birikmalarini, ularning turli xil o'zgarishlarini o'rganuvchi bo'limi.

**Organik mahsulotlar** – ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, transportda tashish va realizatsiya qilishning barcha bosqichlarida organik mahsulotlar to'g'risidagi qonunchilik hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi nor-

mativ hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llagan holda olingan sertifikatlangan mahsulotlar.

**Organik mahsulotlarni ishlab chiqarish** – organik jihatdan muvofiqlik sertifikatini olish uchun rioya etilishi zarur bo'lgan organik mahsulotlar to'g'risidagi qonunchilik hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llagan holda mahsulotlarni ishlab chiqarishga va qayta ishlashga doir faoliyat.

**Organik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi** – organik mahsulotlarni ishlab chiqarishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Organik o'g'itlar** – tarkibida o'simlik yoki hayvon organik birikmalari shaklida oziq moddalari bo'lgan o'g'itlar. Organik o'g'itlarga ko'pgina mahalliy o'g'itlar, yashil o'g'it, shahar kommunal xo'jaligi chiqindilari (axlat va ularning kompostlari, oqindi suvlar chiqindilari hamda sapropel (cho'kma loyqa), poxol va b.) kiradi. Organik o'g'itlar tuproqda biologik jarayonlarni kuchaytirib, uning fizik va kimyoviy xossalarini yaxshilaydi, oziq moddalar miqdorini oshiradi, tuproqning muhim agronomik xususiyatlariga har tomonlama ta'sir etadi va to'g'ri qo'llanilganda barcha ekinlar hosildorligini keskin oshiradi.

**Organizm** [lot. *organismus* < yun. *organon* – qurol, asbob] – har qanday tirik mavjudot. Sog'lom organizm. *Ochiq havoda sayr qilish bola organizmi uchun nihoyatda foydalidir.* («Fan va turmush»). *Olma sharbati organizmni baquvvat qiladi.* («Saodat»).

**Oriq** – tashqi ko‘rinishidan ozg‘in mol-qo‘ylarga aytiladi.

**Orlov yo‘rtoqi ot zoti** – sobiq Itti-foqda eng ko‘p tarqalgan zot bo‘lib, u mahalliy otlar zotini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Orlov yo‘rtoqi zoti mam-lakatning hamma joylarida muvaffaqiyatli urchitilmoqda. Bu zot ham ishchi, ham sport oti sifatida keng tarqalgan. Uning baland bo‘yi, pishiq tuzilishi, tekis hara-kati va katta tortish kuchiga ega ekanligi keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Orlov zo-tining kelib chiqishi A. G. Orlov-Ches-menskiy va uning shogirdlari I. N. Kaba-nov, V. I. Shishkin nomi bilan bog‘liqdir. Tusi kulrang, qora, to‘riq, malla. Za-vod ayg‘irlarining o‘rtacha o‘lchamlari: yag‘rini balandligi 162 sm, tanasining qiya uzunligi 163 sm, ko‘krak aylana-si 183 sm, pocha aylanasi 20,6 sm. Tirik vazni 500–550 kg.

**Ornitologiya** [yun. *ornis*, *ornithos* – qush + *logos* – fan, ta‘limot] – qushlarni o‘rganuvchi soha. 1884-yilda *ornitolo-giya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va ama-liy ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida Xalqaro ornitologlar komiteti tuzildi*. («O‘zME»).

**Orol** – atrofi, hamma tomoni oke-an, dengiz, daryo yoki ko‘l suvi bilan o‘ralgan quruqlik. *Saxalin oroli*. *Mada-gaskar oroli*. *Dala shiyponi ko‘m-ko‘k paxtazor o‘rtasida orolga o‘xshab turadi*. (Sh. Rashidov, «Bo‘rondan kuchli»). *Fi-lippin orollarida yashovchi xalqlarning eng sevimli, noyob taomi mitti baliqlardir*. (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**Ortosifon** (*orthosiphon stamineus benth*) – labguldoshlar (*Lamiaceae*) oila-siga mansub, bo‘yi 1–1,5 m ga yetadigan doim yashil o‘t o‘simlik yoki yarim buta. Vatani Janubiy-Sharq, Osiyoning tropik

nohiyalari. G‘arbiy Yevropada bir yillik o‘simlik sifatida Gruziyaning subtropik nohiyalarida o‘stiriladi. Tibbiyotda bar-gi, keyingi vaqtlarda butun yer ustki qis-mi ham ishlatiladigan bo‘ldi. Tarkibida triterpen saponinlar, achchiq ortosifonni glikozidi, efir moyi, organik (vino, limon) kislotalar, oshlovchi moddalar hamda ko‘p miqdorda kaliy tuzlari bor. O‘simlik damlamasi siydik haydovchi vosita si-fatida buyrak-tosh kasalligida hamda xoletsistit (o‘t pufagi yallig‘lanishi)ni va yurak glikozidlari bilan birgalikda yurak-tomir sistemasining II–III darajali buzi-lishlarini davolashda qo‘llaniladi.

**Osi** – 3,5 yoshdan 5 yoshga to‘lgan otlarga aytiladi.

**Osiyo sariqchoyi** (*agrimonia asiatica juz*) – ra‘noguldoshlar (*Rosaceae*) oila-siga mansub, bo‘yi 30–130 sm ga yeta-digan ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Asosan o‘tloqlar, suv bo‘ylari, yo‘l va o‘rmon yoqalari, yong‘oqzorlar hamda tog‘ etaklarida o‘sadi. Xalq tabobatida o‘simlikning hamma qismi ishlatiladi. Ularning tarkibi-da flavonoidlar, qandlar, efir moyi, vita-minlar, oshlovchi, bo‘yoq va b. moddalar bor. Tibbiyotda bod, istisqo, isitma kasal-liklarini davolashda, og‘iz bo‘shlig‘ining yallig‘lanish kasalligida og‘iz va tomoqni chayishga hamda siydik haydovchi, qon oqishini to‘xtatuvchi va burushtiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Badanga turli toshmalar toshganda o‘simlik qaynatmasi bilan badan yuvilganda yaxshi natija be-radi.

**Osyotr** [r.] – yirik ov balig‘i; bakra-baliq.

**Ot** – yakka tuyoqlilarga mansub o‘txo‘r, sutemizuvchi yirik ish-ulov hay-voni. *Oq ot*. *Qashqa ot*. *Yo‘rg‘a ot*. *Ot*

abzali. *Otga taqa qoqmoq. Otga minmoq. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.* (Maqol). *Siddiqjon egarga yaxshiroq o'rnashib, otning jilovini silkidi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Uzoqdan ot yeldirib keluvchi otliqni ko'rgan Sodiq ko'chaning o'rtasida to'xtadi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Otalik** – 1. Otnang o'z farzandiga bo'lgan munosabatlari va shu munosabatlarga bog'liq holatlar. *Otalik burchi. Otalik muhabbati. Qutbiddinovning otalik muhabbati jo'sh urib ketdi, Suyarning boshidan, yuzidan o'pdi, quchoqladi.* (A. Qahhor, «O'jar»). *Tog'ay o'sha tun otalik baxtini his etib, xayol qanotida yuksak-yuksaklarga uchdi.* («Yoshlik»).

2 bot. O'simliklarda hosilni vujudga keltiruvchi erkak generativ a'zo; changchi. *Tok gulida onaligi yaxshi rivojlangan bo'lib, otaligi esa uncha yaxshi taraqqiy etmagan.* («Fan va turmush»).

**Otar** – yaylovda qo'shib boqish va saqlash uchun shakllantirilgan qo'y podasi.

**Otboqar** – otlarga qarovchi, otlarni parvarish qilish bilan shug'ullanuvchi kishi. *Otboqar fonusini yerga qo'yib, yugurganicha otxonaga kirdi va xiyol o'tmay bir otni yetaklab chiqdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Birinchi mexanik soatni ot tortib yurgan, uning to'g'ri yurishi otboqar gardanida bo'lgan.* («Fan va turmush»).

**Otiz** – shv. Bir marza yer; marza. *Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas* (Maqol). *Bekjon ketmon bilan otizdan otizga o'tib, kichik ariqlarni bog'laydi, charchagan otasining o'rnini bosadi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Ot kuchi** – tizimga kirmagan quvvat birligi; ot kuchi bilan belgilanadi.

O'zbekiston va b. bir qancha mamlakatlarda 1 ot kuchi = 735,499 Vt (AQSH va Buyuk Britaniyada 1 ot kuchi = 745,7 Vt). Bu tushuncha fanga XVIII asrda kiritilgan. Texnikaning bir qancha sohalarida (asosan, avtomobilsozlik va traktorsozlikda) qo'llaniladi.

**Otquloq** (*rumex confertus willd*) – otning qulog'iga o'xshash katta-katta va uzun bargli torondoshlar (*Polygonaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 60–150 sm. ga yetadigan ko'p yillik yovvoyi o't. MDH mamlakatlarining Yevropa qismi, Sibirning janubiy nohiyalari, Qozog'iston, O'zbekiston, Uzoq Sharq va qisman Kavkazda ariq bo'ylarida, uvatlar, o'tloqlar, o'rmon chetlari, yo'l yoqalari va ekinzorlarda begona o't sifatida o'sadi. Tibbiyotda ildizi ishlatiladi. Tarkibida antratsenlar (antraglikozidlar, xrizofanol va emodinlar), oshlovchi moddalar, flavonoidlar, smolalar, vitamin K va b. birikmalar bor. Ildizi qaynatmasi va kukuni – dizenteriya, kolit, enterokolit va b. me'da-ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

**Ot-ulov** – miniladigan ish hayvonlari (ot, eshak, xachir va sh.k.). *Bir kuni deng, shu ikkovlon qaygadir yo'l olishdi. Minay desa ot-ulov yo'q, O'ylanishib qolishdi.* (A. Oripov, «Yillar armoni»).

**Otxona** – otlar saqlanadigan bino; og'ilxona. *Ziyodulla otxonadan qora yo'rg'asini yetaklab chiqdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Yo'lchi ularga [otlarga] beda tashladi, keyin kurak va supurgi olib, otxonani tozalay boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Ot zavodi** – ot naslini yaxshilash va nasldor, yuqori sifatli otlarni ko'paytirish bilan shug'ullanuvchi maxsus xo'jalik, korxonalar. **Ot kuchi maxs.** 75 kg/m sekundiga yoki 0,736 kVt ga teng quvvat. *80 ot*

kuchiga ega bo'lgan traktor. **Ot sporti.** Otda yurish, mashq qilish musobaqalarining umumiy nomi. *Olimpiada o'yinlari dasturiga ot sportining bir necha turlari kiritilgan.* **Ot o'yin esk.** 1) ayn. **sirk.** – *Shu, teatr degani nima, ot o'yinimi? – Abdishukurdan so'radi choyfurush Sadriddin boyvachcha.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). 2) ayn. **karusel.**

2. Otning boshiga o'xshatib yasalgan shaxmat donasi, asp. *Otni yurmoq. Ot bilan shoh bermoq.*

3. Muchal yil hisobida yettinchi yil nomi. *Uning yili ot.* **Ot yili Muchal yil hisobida yettinchi yil (q. muchal).** **Ot mindirmoq.** Ot sovg'a qilmoq, ot bilan mukofotlamoq. *Eshitganlar shoirga rahmat aytib, biri to'n kiydirib, biri ot mindiribdi.* (Shukrullo, «Saylanma»). *Bugun biz kanal qazish muddatini tezlatishga tashabbuskor bo'lgan ikki dongdor quruvchiga ot mindirmoqchimiz.* (S. Ahmad, «Ufq»). **Ot solmoq ayn. ot qo'ymoq:** 1) otning jilovini bo'sh qo'yib yeldirmoq; 2) mingan otini biror kimsa tomon yo'naltirib hujum qilmoq. *Kecha-kunduz tog'ma-tog' dushmanga qarshi ot qo'yib, urush ohamiz.* (M. Muhamedov, «Mashq»). **Otday bo'lib ketmoq** – sog'aymoq, kasallikni unutilib yubormoq. *Ota, tashvish tortmang, sal o'tmay otday bo'lib ketasiz.* («Sharq yulduzi»). **Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi.** Ilgarigi mavqei yoki martabasidan tushgandan keyin ham takaburligini tashlamagan kishi haqida. **Otni qamchilamoq (q. qamchilamoq.)**

**Otchopar** – otlarni sinash, ot chopish va otda mashq qilish, umuman, ot sporti musobaqalarini o'tkazish uchun maxsus jihozlangan maydon; ippodrom. *Toshkent otchopari.*

**Ov** – 1. Yovvoyi hayvon, baliq, qush va sh.k. ni turli yo'llar bilan tutish, ovlash yoki otish. *Baliq ovi. Bedana ovi. Mergan ovda bilinar, botir – yovda.* (Maqol). *Rahimov kuyovni tez-tez Toshkentga chorlab turardi. Kuyov ov ishqibozi edi. Mirvali ko'p qiyinchiliklar bilan bu tog'larga o'rgatgan kiyiklarni u qiyratardi.* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

**Ov qilmoq** – 1) ov ishi bilan shug'ullanmoq; 2) *ko'chma.* Biror kimsani qo'lga olish uchun uning payiga tushmoq. **Ov qushi.** Ilvasinga solinadigan qush (mas., qirg'iy).

2. Ov qilinadigan, ovlanadigan jonivor; ilvasin. *Ovga boy cho'l. Shu kunlarda Oloy tog'ida ov kam.*

3 *ko'chma.* Qo'lga tushirilishi mo'l-jallangan kimsa yoki narsa. *Yumaloq, qoragina odam qo'lidagi to'pponchani mahkam ushlagani holda gendiraklab, so'kinib... «ovini» qidira boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

4. Ovchining o'ljasi. *Arslon og'zidan ov olinmas.* (Maqol). *Suvonjon, tuzoqqa ilingan ovni chiqarib yuborishdan qo'rqqan ovchidek, qizni mahkam quchoqlaganicha, yong'oq tomonga keta boshladi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Ovshunoslik** – ov qilish va ovchilik xo'jaligi, ov qilinadigan hayvonlar turlarini boyitish, undan samarali foydalanish haqidagi fan. *O'zbekistonda ovshunoslikka oid ishlar ovchilik xo'jaliklari, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi institutlari davlat qo'riqxonalarida olib boriladi.* («O'zME»).

**Ovoskop** [*lot. ovum* – tuxum + *yun. skopeo* – qarayman] – tuxumning sifatini tekshiradigan asbob. *Novlarga qator terib qo'yilgan tuxumlarni tekshirish uchun*

yorituvchi blokli ovoskop-stoldan foydalaniladi. («O'zME»).

**Ovsar II** – tuya boshiga kiydirib qo'yiladigan maxsus boshvoq. *Jig'asi nuqradan, ovsari tilla. Men bo'laman ushbu norning egasi.* («Nigor va Zamon».)

**Oxur** [f. – otxona; og'il, oxur] – chorva mollari (qo'y, echki, sigir, ot)ga yem-xashak solib beriladigan moslama (idish). Ot oxuri. Mol oxuri. *Toshtemir quduqdan bir necha marta suv chiqarib, otlarni sug'ordi, oxurlarga beda soldi.* (H. G'ulom, «Feruz»). *G'ulomjon otxonaga kirib, to'kilgan bedalarni oxurga terib soldi, qorong'ida ham ko'zlari chaqnab turgan samanni peshonasidan silab, suyib qo'ydi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»). **Baland** (yoki **katta oxurdan yem yegan** (yoki **suv ichgan**) – kattalar, boyonlar bilan yaqin aloqada bo'lib kekkaygan yoki o'zi katta boyon bo'lib o'tgan. [O'rmonjon:] *Sen katta oxurdan yem yeb o'rgangansan, chidolmaysan.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Said aka, Yaxshiboyevga suykalmang, sizga pand beradi, katta oxurdan yem yeb o'rgangan odam, ajabmaski, qulay kelgan onda sizni oyog'iga patak qilib ketsa.* (M.M. Do'st, «Lolazor»). *U chet ellarda diplomatlar bilan gaplashgan, katta oxurdan suv ichgan.* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

**Oyimqovoq** – oshqovoqning ertapi-sar bir turi. *Xullas, ikki-uch yil ichida peshonasi ikki hissaga kengayib, boshi oyimqovoqdek yaltiradi-qoldi.* (N. Aminov, «Yolg'onchi farishtalar»).

**Oynaband** [oyna + f. – bog'lam; kishan, to'r; to'siq, g'ov] – 1. Oyna o'rnatilgan, qo'yilgan, solingan. Oynaband ayvon. *Oynaband eshiklariga nomer yozilgan kabinalardan xilma-xil tovushlar keladi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

2. Oyna yoki ko'zgu qoplab bezatilgan; oynakor. *Oynaband zal. Ko'rinar qo'rg'ondan yam-yashil qishloq. Oq uylar naqadar suluvi, oynaband.* (X. Rasul).

**Oynavand** – s.t. Oynavand. *Shaharda uch qavatli oynavand yorug' binolar qurilib, to'g'ri ko'chalar ochildi.* (Mirmuhsin, «Chiniqish»).

**Oziq** – 1. Ovqat bo'ladigan mahsulot, ovqatli don-dun; yemish. *Oziq mahsuloti. Bir kunlik yo'lga chiqsang, bir haftalik oziq ol!* (Maqol). *Yozning yozig'i – qishning ozig'i.* (Maqol). *Yigitlardan biri dasturxon yozib, yo'lga olgan oziqlarini o'rtaga qo'ydi.* (A. Qahhor, «Maston»). *Nima, oziq bittami, qozon osmadingiz!* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Hayvonlar ovqati, yem-xashak. *Hayvonlar uchun qishga oziq tayyorlamoq. Qurtlarga oziq bermoq.*

3. O'simliklar o'sish jarayonida yerdan oladigan moddalar. O'simliklarga qo'shimcha oziq berish. *Ildiz oziq bersa, novda ko'karar.* (Maqol).

**Oziqa** – ayn. **oziq**. *Arablarda xurmo eng muhim oziqalardan biri hisoblanadi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**Oziq birligi** – oziqaning barcha organik moddalarining umumiy to'yimlilik (energetik) ko'rsatkichi.

**Oziqlarni donadorlashtirish** (*granulalash*) – oziqlarning to'yimlilikini yaxshi saqlash, ularni maxsus mashinalar yordamida donadorlashtirish, bu – transportlarda tashish va mexanizmlar yordamida tarqatishni osonlashtiradi.

**Oziqa normasi** – hayvonlar hayotini saqlash va mahsulot olish, mahsuldorligini oshirish uchun moddalarning kundalik miqdori.

**Oziqlanmoq** – 1. Oziq, ovqat yeb olmoq, ovqatlanmoq. *Otlar oziqlandi. Yulg'ich va o'g'rilarning kun ko'rish usuli bitta: o'zgarlar haqidan oziqlanadi.* («Yoshlik»).

2. O'sish jarayonida oziq olmoq (O'simliklar haqida).

3 *ko'chma.* Ilhom olmoq, ruhlanmoq. *Hozirgi meditsina xalq tabobati ildizlaridan oziqlanishi kerak.* («Yoshlik»). *Shoirning yuragi tuyg'ulardan oziqlanadi.* (Gazetadan).

**Oziqli** – 1. Ozig'i, oziq-ovqati bor, oziq-ovqat bilan ta'min etilgan. *Oziqli ot horimas, qarindoshlik qarimas.* (Maqol).

2. Tarkibida oziq moddalari bor, oziq bo'ladigan. *Oziqli moddalar.*

**Oziqlik** – oziq bo'ladigan, oziqlanish uchun yaroqli; yemishli. *Oziqli ekinlar.*

**Oziq-ovqat** – turli oziq va ovqatlar, yemishlar. *Oziq-ovqat hozirlash. Oziq-ovqat magazini. Oziq-ovqat mahsulotlari. Oziq-ovqat sanoati korxonalari. Pichan o'rishga ajratilgan odamlarni to'plab, kerak yarog'ini, bir haftalik oziq-ovqatni oldi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Oziq-ovqat magazinlariga borib kelgan Xolisa beliga peshgir tutib, eri yoqtiradigan taomni tayyorlashga kirishdi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**Oziqning sifati** – oziqning foydalanish uchun yaroqliligi va oziq moddasi bilan chorva mollari ehtiyojini qondira olish xossalari majmuasi.

**Ozmoq I** – eti qochib, ozg'in tortmoq; ozg'inlanmoq, oriqlamoq. *Bir terining ichida qo'y necha bor semirib, necha bor ozar.* (Maqol). *Ozgan ot arg'umoq bo'lmas.* (Maqol). *Umidning yoqasi titilib ketgan o'sha eski kostyumi-yu, shimining tagi yirtilib, yamoq tushganicha, ozib,*

*chakkalari turtib chiqqaniga qarab, hayron bo'lgan bo'lsa kerak.* (Mirmuhsin, «Umid»). *Bu borada u ozib, shundog'am so'lg'in yuzlari battar za'faron bo'lib ketdi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**Ozuqa** – ayn. **oziq.** G'o'za shonalash va gullash davrida ozuqani ko'p talab qiladi. *Don mahsulotlari orasida guruch Osiyo xalqlarining asosiy ozuqasi hisoblanadi, binobarin, dunyo aholisining teng yarmi guruch bilan tirikchilik qiladi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandachilik»).

**Ozuqabop** – ozuqa uchun qulay, mos, yaroqli. *Bular – ham dorivor moddalarga boy, ham ozuqabop o'simliklardir.* («Fan va turmush»).

**Ozuqa ratsioni** – mollarga ma'lum vaqtda (kun, oy, mavsumda) beriladigan yem-xashak. Ozuqa ratsioni ozuqa normasi asosida tuziladi; bunda xo'jalikda mavjud yem-xashakning turi, to'yimliligi, chorva mollarning yoshi, sog'lomligi, mahsuldorligi, ishtahasi va b. individual xususiyatlari e'tiborga olinadi. *Chorva mollarini to'yimli ozuqa bilan boqish, ozuqa ratsioniga rioya qilish mahsuldorlikni oshirishning muhim omilidir.* (Gazetadan).

**Ozg'in I** – 1. Eti qochgan, etdan tushgan; oriq. *Ozg'in mol. Ozg'in sigir. Nega Zaynab semiz-u, Kumush ozg'in?* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Bola ozg'in yuzchasini tirishtirib... cho'zilib borar edi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»).

2. Qotma, kamgo'sht; chuvak, ingichka. *Madaminxo'ja esa boshini solintirib, mumdek erib o'tiradi. Faqat ozg'in gavadasi ashulaga monand chayqaladi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»). – *Do'stlarim, – dedi u, ozg'in barmoqlarini qaychi qilib o'ynar ekan...* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Ozg'inlamoq** – oriqlamoq, ozmoq. [Kumushning] *Burungi to'raligi ketib, ozg'inlangan va lekin bu ozg'inlik uning husniga kamchilik bermay, bil'aks yuqorilatgan.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Oshihalol, oshhalol** [f. + a. – halol mehnat bilan topilgan ovqat] – Markaziy Osiyo xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda podachilarga taom berish odati. O'tmishda qishloqlarda moli kam oilalar o'z mollarini (ko'pincha qoramollarini) birlashtirib poda tashkil etganlar. Cho'pon yoki podachining mehnati evaziga oladigan oziq-ovqati, noni. Podachi o'z mehnati evaziga (mol boshi va katta-kichikligiga qarab) har oyning oxirida kelishuvga ko'ra, natura (don) yoki pul olishdan tashqari, mol egalaridan har chorshanba kuni bitta non (mol soniga qarab), juma yoki yakshanba – bozor oqshomi kunlarida esa pishirilgan taom olgan. Odatda, kechqurun poda qaytganda podachining o'g'illari xonadonma-xonadon yurib oshihalol yiqqanlar. – *Uydayam ish ko'p, bozor kuni oshihalolgayam chiqa olmayman, – dedi Eshmamat podachi.* (M.M. Do'st, «Galatapa qissalari»). *Oshihalolni odamlar pul yo'g'ida o'ylab topishgan.* («Yoshlik»). *Niyoz bobo menga to'lanadigan haqdan gap ochdi: – Endi, kelin, o'zing tushunasan, yurtda og'irchilik, oshihalolga podani boqadi-da o'g'ling.* (S. Siyoyev, «Saratonda qor yog'di»).

**Oshkadi** – s.t. ayn. **oshqovoq**. *Oshkadi kallaga har xil gap keladi.* (Sh. Xolmirzayev, T. Usmonov, «So'nmas o't»).

**Oshko'k** – taomlarga (ko'k hoida) qo'shiladigan, ovqat bilan qo'shib yeyiladigan kashnich, petrushka, rayhon, ko'k (barra) piyoz, shivit, sarimsoq ko'ki, selderey, yalpiz, ukrop kabi ko'katlar. Ular

lazzatli taom tayyorlashda ziravorlar kabi muhim ahamiyatga ega. *Ma'lumki, issiq iqlimli mamlakatlarda yashovchi aholining pazandachiligida ziravorlar va oshko'klar keng qo'llanadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»). *E'tiborlisi, ular tomonidan tashkil etilgan yarmarka savdolarida oshko'klardan tortib qovun-tarvuzgacha, chorvachilik mahsulotlarigacha bor.* (Gazetadan).

**Oshlamoq I** – maxsus moddalar, eritmalar bilan xom teriga, mo'ynaga ishlov bermoq, terining junini to'kmoq, terini yalang'ochlamoq. *Kech bilan o'zim bosh bo'lib tanachani so'yib, yog'-go'shtini xumga urdik. Terisini eshon, vaqti kelganda pishirib, mahsi qilarman, deb oshlashga buyurdi.* (G'.G'ulom, «Shum bola»). *Har qanday hayvon terisi ham oshlansa, toza va pok bo'ladi.* («Fan va turmush»). *Chavandoz egarga qoplama qilaman deb, teri oshlayotgan ekan.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

**Oshlovchi moddalar (tanidlar)** – o'simliklardan olinadigan yuqori molekulyar murakkab organik birikmalar aralashmasi bo'lib, o'simliklarning hamma organlarida 70 % gacha to'planishi mumkin. Hayvonlarning xom terisini oshlash xususiyatiga ega bo'lib, ko'p atomli fenollar unumidan tashkil topgan. Ular ra'noguldoshlar, dukkaddoshlar, qoraqatdoshlar, torondoshlar, qoraqayindoshlar, pistadoshlar va b. o'simlik oilasi vakillari tarkibida ko'p to'planadi. Tanidlar amorf holdagi modda bo'lib, suvda, spirt-da va sirka kislotaning etil efirida yaxshi, boshqa organik erituvchilarda yomon eriydi yoki butunlay erimaydi. Oshlovchi moddalarning suvdagi eritmasi qo'ng'ir rangli, hidsiz va burushtiruvchi maza-

**Ozg'inlamoq** – oriqlamoq, ozmoq. [Kumushning] *Burungi to'laligi ketib, ozg'inlangan va lekin bu ozg'inlik uning husniga kamchilik bermay, bil'aks yuqorilatgan.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Oshihalol, oshhalol** [f. + a. – halol mehnat bilan topilgan ovqat] – Markaziy Osiyo xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda podachilarga taom berish odati. O'tmishda qishloqlarda moli kam oilalar o'z mollarini (ko'pincha qoramollarini) birlashtirib poda tashkil etganlar. Cho'pon yoki podachining mehnati evaziga oladigan oziq-ovqati, noni. Podachi o'z mehnati evaziga (mol boshi va katta-kichikligiga qarab) har oyning oxirida kelishuvga ko'ra, natura (don) yoki pul olishdan tashqari, mol egalaridan har chorshanba kuni bitta non (mol soniga qarab), juma yoki yakshanba – bozor oqshomi kunlarida esa pishirilgan taom olgan. Odatda, kechqurun poda qaytganda podachining o'g'illari xonadonma-xonadon yurib oshihalol yiqqanlar. – *Uydayam ish ko'p, bozor kuni oshihalolgayam chiqa olmayman, – dedi Eshmamat podachi.* (M.M. Do'st, «Galatapa qissalari»). *Oshihalolni odamlar pul yo'g'ida o'ylab topishgan.* («Yoshlik»). *Niyoz bobo menga to'lanadigan haqdan gap ochdi: – Endi, kelin, o'zing tushunasan, yurtda og'irchilik, oshihalolga podani boqadi-da o'g'ling.* (S. Siyoyev, «Saratonda qor yog'di»).

**Oshkadi** – s.t. ayn. **oshqovoq**. *Oshkadi kallaga har xil gap keladi.* (Sh. Xolmirzayev, T. Usmonov, «So'nmas o't»).

**Oshko'k** – taomlarga (ko'k hoida) qo'shiladigan, ovqat bilan qo'shib yeyiladigan kashnich, petrushka, rayhon, ko'k (barra) piyoz, shivit, sarimsoq ko'ki, selderey, yalpiz, ukrop kabi ko'katlar. Ular

lazzatli taom tayyorlashda ziravorlar kabi muhim ahamiyatga ega. *Ma'lumki, issiq iqlimli mamlakatlarda yashovchi aholining pazandachiligida ziravorlar va oshko'klar keng qo'llanadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»). *E'tiborlisi, ular tomonidan tashkil etilgan yarmarka savdolarida oshko'klardan tortib qovun-tarvuzgacha, chorvachilik mahsulotlarigacha bor.* (Gazetadan).

**Oshlamoq I** – maxsus moddalar, eritmalar bilan xom teriga, mo'ynaga ishlov bermoq, terining junini to'kmoq, terini yalang'ochlamoq. *Kech bilan o'zim bosh bo'lib tanachani so'yib, yog'-go'shtini xumga urdik. Terisini eshon, vaqti kelganda pishirib, mahsi qilarman, deb oshlashga buyurdi.* (G'.G'ulom, «Shum bola»). *Har qanday hayvon terisi ham oshlansa, toza va pok bo'ladi.* («Fan va turmush»). *Chavandoz egarga qoplama qilaman deb, teri oshlayotgan ekan.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

**Oshlovchi moddalar (tanidlar)** – o'simliklardan olinadigan yuqori molekulyar murakkab organik birikmalar aralashmasi bo'lib, o'simliklarning hamma organlarida 70 % gacha to'planishi mumkin. Hayvonlarning xom terisini oshlash xususiyatiga ega bo'lib, ko'p atomli fenollar unumidan tashkil topgan. Ular ra'noguldoshlar, dukkaddoshlar, qoraqatdoshlar, torondoshlar, qoraqayindoshlar, pistadoshlar va b. o'simlik oilasi vakillari tarkibida ko'p to'planadi. Tanidlar amorf holdagi modda bo'lib, suvda, spirt-da va sirka kislotaning etil efirida yaxshi, boshqa organik erituvchilarda yomon eriydi yoki butunlay erimaydi. Oshlovchi moddalarning suvdagi eritmasi qo'ng'ir rangli, hidsiz va burushtiruvchi maza-



li, kuchsiz kislotali xossaga ega kolloid eritma; preparatlari va ularni saqlovchi o'simliklardan tayyorlangan dori shakllari tibbiyotda me'da-ichak (ichketar, kolit), og'iz va tomoq shilliq qavatlarining yal-lig'lanish (stomatit, gingivit va b.) ka-salliklarini, teri kuyganini, surunkali gut (ekzema) hamda yaralarni davolashda bu-rushtiruvchi va bakteritsid vosita sifatida hamda ichakdan qon oqishini to'xtatish uchun ishlatiladi.

**Oshlovchi sumax (totum)** (*Rhus co-riaria L.*) – pistadoshlar (*Anasardiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–3 (5) metr-ga yetadigan buta yoki daraxt. Kavkaz, Qrim, Turkmaniston va O'zbekistonning quruq, toshloq va ohakli qiyaliklarida, ba'zan o'rmon chetlarida o'sadi. Tibbiyotda bar-gi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar, gallat kislota, flavo-noidlar, bo'yoq va boshqa moddalar bor. Uning bargidan tanin olinadi.

**Osh-non** – oziq-ovqat. *Muhabbat osh-non bo'lib qorin to'yg'azmaydi.* (T. Ashurov, «Oq ot»).

**Osh-qatiq** – tirikchilik uchun zarur oziq-ovqat. *Endi besh-olti kunlik osh-qatiqqa nafi tegmasa, nima qilib o'stirdim buni?* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Oshqovoq** – q. qovoq I. *Oshqovoq suvda, sutda qaynatib, bug'lab, dimlab, qovurib iste'mol qilinadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»). *Oshqovoq bilan toshqovoqni farq qilmaydi, deb o'ylaysizmi?* (Oybek, «O.v.shabadalar»).

**Oshqozon** – anat. Inson va hayvon-larda ovqat hazm qilish yo'lining kengay-gan qismi; qopchaga o'xshash ovqat hazm qilish a'zosi; me'da. Oshqozon kasallikla-ri. Oshqozon osti bezlari. *Ushbu ichimlik ishtaha ochadigan, chanqoqni bosadigan, buyrak, oshqozon va ichak xastaliklariga*

*dori ekanligini tasdiqlashdi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**Og'iz, og'iz oshi II** (3-sh. birl. og'izi) – yangi tuqqan sigirning uch-to'rt kun-li sutini yig'ib, pishirilgan pishloqsimon taom. Shevalarda *dalama, gelagay, palla* kabi nomlar bilan ataladi. *Birinchi sut* – og'iz bo'ladi, *sedanadan mag'iz bo'ladi.* (G'. G'ulom, «Tanlangan asarlar»).

**Og'iz suti** – yangi tuqqan sigirning xom suti to'yimliliigi, yaxshi singishi ji-hatidan odatdagi sutdan farq qiladi; infek-siyalardan himoya qilish xususiyati bor, unda immun tanachalar bilan antitoksinlar ko'p bo'ladi.

**Og'il** – uy hayvonlarini saqlash va boqish uchun qurilgan maxsus bino; mol-xona, og'ilxona. *Men og'ildagi ustunga boylog'ligicha qolib ketgan chilvirdan ke-sib keldim.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»). *Mirhomidxo'ja og'ilning eshi-gini sekin yopdi-da, imo bilan Qambar-alini bir chekkaga chaqirdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Og'maxon** – g'alla o'simliklariga za-rar keltiruvchi, kalamushdan kattaroq ke-miruvchi hayvon.

**Ochambiti** – ayn. jag'jag'.

**Ochar** – mevadan, ko'pincha behi-dan pishirilgan murabbo. *Ikki qozonda to'g'ralgan behidan ochar pishirildi.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urinishla-ri»).

**Ocharchilik** – iqtisodiy tanazzul, in-qiroz va tanglik oqibatida jamiyat miqyo-sida yuzaga keladigan keskin oziq-ovqat tanqisligi. Ocharchilik ijtimoiy hodisa bo'lib, urushlar, qurg'oqchiliklar, tabiiy ofatlar, zilzilalar, har xil ekologik fa-lokatlar va b. tabiiy hodisalar natijasida muayyan mamlakatda ommaviy tus olishi mumkin.

**Palak I** [*f* – to‘garak maydon < *a* – samo, osmon] – qovun, bodring kabi o‘simliklarning yerda yoyilib o‘sadigan tana, shox va barglari. *Qovun palak otibdi. Palak yozgan tarvuz. Domlalarini choy va dasturxon tayyor bo‘lguncha ovutib turish uchun mulla Obid palakdan uch-to‘rtta qovun uzib chiqadi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *Ishkom va shaftolilar uchastka chetidagi qovuntarvuz palaklari ustidan o‘z soylarini yig‘ib olmoqda edi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**Palak go‘sh, laxat go‘sh** – harom o‘lgan mollarning so‘yilgan go‘sh. So‘yilmasdan, biror kasallik yoki boshqa sabab bilan o‘lgan (go‘shni yeyiladigan hayvon va qushlar haqida); bunday holda ularning go‘shini yeyish man etiladi, ya‘ni harom hisoblanadi. *Qo‘ychivon ko‘p bo‘lsa, qo‘y harom o‘ladi.* (Maqol.)

**Palakmurda** [**palak I** + *f* – o‘lgan; o‘lik] – *shv*. Poliz ekinlarining qurigan palagi. *Palakmurdadan terib olingan tarvuzlar.*

**Palak otmoq** – ildiz otmoq, avj olmoq; ko‘paymoq, mustahkamlanmoq.

**Palapon** – *s.t.* **1.** Parrandalarning hali pat va qanot chiqarmagan yoki endigina chiqara boshlagan bolasi; jish. – *Buni qarang, – dedi jilmayib Nafisaxon o‘zida yo‘q shod. – Musichaning palapon bolasi ham, shunaqa kap-katta bo‘lsa ham, onasi ketidan qanot silkib, osilib yuradi* (Mirmuhsin, «Umid»). *Tom bo‘g‘otiga uya qurgan chumchuqlar bot-bot palaponlarini uchirma qilishardi.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»).

**2.** Go‘dak bolalarni, yoshlarni erkatlab aytiladigan so‘z. *Ilk bor hayoting-*

*da qor saylidir bu, Izingdan shu‘ladek yugurar ko‘zim. Qo‘rqma, palaponim, chekmagil qayg‘u. Yiqilsang, turg‘izib qo‘yaman o‘zim.* (A. Oripov, «Yillar armoni»). *Yo‘ling ochiq bo‘lar, bo‘lsang sen ochiq qo‘l, Omin endi, palaponim, senga oq yo‘l.* (Y. Eshbek, «Sog‘inib yashayman»).

**3** ko‘chma, betklf, hazil. Hech narsa bilmaydigan, tajribasiz. *O‘rta maktabdan yaqinda uchirma bo‘lgan, lekin hali chinakam turmush nimaligini bilmaydigan bu palaponlarga nima desin?* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**4.** Beso‘naqay, katta; salmoqlanib, lapanglab yuradigan. *Palapon tovuq.*

**Palaxsa** – **1.** Yer chopganda yoki haydaganda uvalanmay, butun holda ko‘chgan katta yapaloq kesak. *Yer palaxsa-palaxsa bo‘lib ko‘chyapti. Yerni palaxsa-palaxsa qilib ag‘darib haydamoq. Cho‘l qushlarining qiligi qiziq: ular palaxsa-palaxsa ag‘darilib, qalayday yiltirab yotgan shudgorda o‘lja talashadi.* (H. Nazir, «Bir tup g‘o‘za»).

**2.** Umuman, har qanday qattiq narsaning undan ajralgan yaxlit, yapaloq parchasi. *Bir palaxsa marmar. G‘ulomjon har gurzi urganda, tog‘ palaxsa-palaxsa bo‘lib ag‘darilar, odamlar qiyqirishib, yugurishib tashishar emish.* (M. Ismoiliy, «Farg‘ona t.o»). *Tog‘ning toshlari palaxsa-palaxsa ushalib, xuddi tirik mavjudotdek, pastga siljiydi.* («Yoshlik»).

**Palag‘da tuxum** – qishloq xo‘jaligi parrandalarini jo‘ja ochirishga qo‘yilgan tuxumlarini embrional rivojlanmay qolgan tuxumi.

**Paloch** – *shv*. Boshog‘i to‘kilib ketgan yoki yulingan bug‘doy, arpa poyasi.

**Palyon** [r. *poleno* – «yorilgan g‘o‘la, tarasha», s. *ning buzilgan shakli*] – g‘o‘laning yorib ajratilgan bir bo‘lagi. Bir palyon o‘tin. *Bo‘lmasa bunday qilamiz. Qo‘lingizdagi bolta bilan anavi palyonni oling-chi, – dedi rejissyor.* («Mush-tum»). *Arzanda bir palyon chayir o‘tinni tik qo‘yibdi-da, shoshib, zarb bilan bolta uribdi.* (Y. Shukurov, «Ona mehri»)

**Pamildori** – s.t. **Pomidor**.

**Pamilchoy** [r. *familniy chay* – oilaviy, xos choy] – ayn. **qora choy**. *Xalq tabobatida murchni pamilchoy bilan damlab, asal bilan ichirib, shamollagan kasallarni terlatishgan.* (K. Mahmudov, «O‘zbek tansiq taomlari»). *Chol betakallufgina chordana qurib o‘tirib, xotini quyib uzatgan achchiq pamilchoyni puflab icha boshladi.* (H. G‘ulom, «Feruza»).

**Pandemiya** [yun. *pandemia* – butun xalq < *pan* – butun, barcha + *demios* – xalq] – tib. Epidemik kasallikning bir mamlakat, bir necha mamlakat yoki qit‘ada yoppasiga tarqalishi.

**Pang** – 1. O‘zagi qurib, bo‘sh bo‘lib qolgan. *Pang sabzi. Pang sholg‘om.*

2 *ko‘chma*. Noaniq, yoqimsiz, po‘ng‘illagan. [Amin] *Negadir ustunni qimirlatib ham ko‘rdi, so‘ngra Qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi...* (A. Qahhor, «O‘g‘ri»). *Ehsonning ko‘zlari nochor javdiradi, so‘ng pang ovozda bidillab ketdi.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»).

**Panji** – 4 yoshdan oshgan, 5 yoshli qo‘chqorlarga aytiladi.

**Panzootiya** [pan. + yun. *zoon* – hayvon] – hayvonlar o‘rtasida yuqumli kasallikning butun mamlakat, bir qancha mamlakat, qit‘a bo‘ylab juda tez va keng tarqalishi. Panzootiyada yuqumli kasal-

lik bir yoki bir necha mamlakatda, butun qit‘ada keng tarqalib, deyarli hamma hayvon kasallanadi.

**Panshaxa** [f. – besh shoxli] – odatda, beshta egri sanchig‘i bo‘lgan, paxta, xashak kabilarni olish, surish uchun ishlatiladigan uzun sopli asbob. *Oppoq soqolli chol qo‘lidagi paxta ag‘darib turgan panshaxasini bosh uzra ko‘tarib, bir-ikki silkidi.* (S. Abduqahhor, «Oltin vodiylarni keziganda»). *So‘ng qo‘lidagi panshaxani go‘ngtepa chetiga sanchib, uyga tomon oshiqdi.* («Sharq yulduzi»).

**Paporochnik** [r. *paporot* – qanot, pat – yun. *rteron* – qanot] – gulsiz, sporali, yirik bargli o‘simlik.

**Par I** [f. – pat; qanot; yaproq] – 1 *ot*. Parranda tanasini qoplab turadigan yumshoq va nafis pat. Tovuqning pati. *Yayrab havolarda bir qush uchadi. Charcharkan, simlarni sekin quchadi, Yumshoq parlar bilan yopib yuzini.* (H. Olimjon).

2 *sft*. Ichida pari bo‘lgan, par solingan. *Par yostiq. Par to‘shak. Keng taxta karavot. Ustiga choyshab yopilib, katta paryostiq qo‘yilgan. Derazaga oq shohi parda tutilgan.* (S. Nurov, «Narvon»). *Cho‘tir xola uni gapga tutmay, paryostiq bilan yangi atlas ko‘rpani taxmondan olib, Umid ustiga tashladi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

3 *ko‘chma*, ayn. **pag‘a 2**. *Yosh burgut uchmoqda ko‘kda shiddatkor, Kumush bulutlarning to‘zg‘itib parin.* (A. Oripov, «Yillar armoni»). *Par bulutlar, marvarid qorlar Yuksak cho‘qqi uzra qo‘ygan bosh.* (A. Oripov, «Yillar armoni»).

**Par II** [r. *para* < nem. *Paar* < lot. *par* – bir xil; teng] – 1 ayn. **juft 3**. Bir par etik. *Kechqurun par o‘tli izvosh ko‘chaning boshida to‘xtab, undan tergovchi tushdi.*

(A. Qahhor, «Sarob»). *Uyda oyoq kiyimi bir necha par; chuvak, mahsi, sandal, kalinsh, tuftilar.* (G'. G'ulom).

2. Birga ishlatiladigan ikkita bir xil narsaning biri, bittasi. *Pari yo'q paypoq.*

3. O'z xislatlari bilan bir-biriga mos, teng ikki kishining biri. *Bu yigit senga par emas. Qizim bor edi yakka, ismi Qamar, Oz erdi husn bobida unga par.* (S. Abdulla, «Tohir va Zuhra»). *Ta'rif-u, tavsifingiz qilsam agar, afandim, Badjahllik bobida yo'q sizga par, afandim.* («Guldasta»).

**Parazit** [yun. *parasitos* – tekinxo'r; hamtovoq] – 1 sft. *biol.* Boshqa organizmlarning tanasi yoki ichida yashab, uning hisobiga oziqlanuvchi jonivor yoki o'simlik. *Parazit o'simlik. Parazit hayvon.*

2 *ko'chma.* Boshqalar mehnati hisobiga yashovchi; haromtovoq, tekinxo'r. *Parazit guruhlar, to'dalar.*

3. *so'k.* Tekinxo'r, baloxo'r, iflos. *Qayerdan paydo bo'ldiykin bu parazit?* (H. Nazir, «Yonar daryo»).

**Parazitizm** [yun. *parasitos* – tekinxo'r; hamtovoq] – *biol.* Biror parazit organizmning boshqa organizm tanasida, uning hisobiga, unga zarar keltirgan holda yashashi.

**Parazitologiya** [parazit (lar) + yun. *logos* – bilim, ta'limot] – *biol.* Parazitlar va parazitizm hodisalari haqidagi fan. *Parazitologiya ilmining xabar berishicha, bir xil yiltiroq pashsha bor, u ba'zida baqaning tumshug'iga yaqin kelib, g'ing'illab ucha beradi.* (Mirmuh-sin, «Umid»).

**Parlamoq** – juft-juft qilmoq, juftlamoq.

**Parlanmoq I** – Parlamoq (*fl. majh. n.*)

**Parlanmoq II** – *s.t.* Bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq. G'o'za sug'orilgandan keyin suvning 20–35 foizi yer betidan parlanib ketadi.

**Parnik** [*r. par* – «bug', issiqlik» s. dan] – ertapishar sabzavot, rezavor ekin va gul ekib o'stirish uchun qurilgan, oynavand yoki shaffof plyonka bilan yopilgan joy, xona. Sabzavotchilikda parnikning bir va ikki nishabli; chuqur va yer ustki; oftob, biologik yoqilg'i va texnika vositalari (suv hamda elektr) yordamida isitiladigan turlari bor. *Parnik va teplit-salarda ko'chatlar yetishtirish. Parnikda bitgan bodring, pomidorlar taqsimchada guldek ochilib turibdi.* («Sharq yulduzi»).

**Parqin** – *folk.* Otning qo'ltig'i, qo'ltiq (afsonaviy «uchar» otda qanot o'rnashgan joy). *Shakarbekning mingan oti Har tarafga olib qochdi, Parqinidan ko'pik sochdi.* («Shirin bilan Shakar»).

**Parranda** [*f.* – uchadigan narsalar, qanotlilar; qush] – qush zoti, qushlar; qush. *Uy parrandasi. Ov parrandasi. Mushukka qanot bitsa, hech bir parrandani qo'ymas ekan.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *U shunchalik xushsurat, noz-u iboli ekanki, soyga yuzini yuvгани tushsa, soy bir zum to'xtab, uni tomosha qilar, qora qosh, sallona yurishdan barcha parrandaga saboq beradigan kakliklar ham zoriqib uchib kelar ekan.* («Yoshlik»).

**Parrandaboqar** – *s.t., ayn. Parrandachi.*

**Parrandaxona** – tovuq, o'rdak, bedana va sh.k.lar parvarish qilinadigan maxsus bino, joy. *Go'sht uchun boqiladigan jo'jalar maxsus parrandaxonalarda o'stiriladi.* («O'zME»).

**Parrandachi** – parranda boqish va uni ko'paytirish ishi bilan shug'ullanuvchi kishi.

**Parrandachilik** – qishloq xo‘jaligining uy parrandalarini boqish va ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i. *Parrandachilik fermasi. Parrandachilik kursi. Parrandachilikning asosiy mahsuloti* – oziq-ovqatga ishlatiladigan tuxum va go‘sht, qo‘shimcha mahsuloti – *par-randa pati va pari*. («O‘zME»).

**Partak** – bot. Chirmashib o‘sadigan bir yillik o‘tsimon o‘simlik.

**Partenogenez** – tuxum hujayrasining otalanmasdan ko‘payishi. Bu ko‘payish ko‘pchilik bo‘g‘imoyoqlilarga xos. Tabiiy va sun‘iy partenogenezlar mavjud. Sun‘iy partenogenez fizik va kimyoviy ta‘sirlar yordamida ro‘y beradi.

**Partenokarpiya** – daraxt-buta o‘simliklarda urug‘lanmasdan turib meva hosil bo‘lish hodisasi.

**Partenoklon** – partenogenez usuli bilan olingan avlod.

**Partov yer** – haydab uzoq muddatga (8–10 yilga) ishlovsiz tashlab qo‘yilgan, begona o‘tlar bilan qoplangan dala. Tuproq strukturasi va hosildorligini tiklash hamda sug‘oriladigan yerlarda paydo bo‘ladigan begona o‘tlarni siqib chiqarish uchun tabiiy o‘t-o‘lanlarning o‘shishiga sharoit yaratish maqsadida partov yerlar uzoq vaqt ishlanmasdan tashlab qo‘yiladi.

**Parvarish** [*f.* – boqish, yedirish; oziqlantirish; tarbiya] – **1.** Asrash, o‘stirish, voyaga yetkazish uchun qilinadigan harakat. G‘o‘za parvarishi. *Daraxtdan meva olaman desang, niholni parvarish qil.* (Maqol). *Sifatli parvarish – yerga oroyish.* («Qanotli so‘zlar»).

**2.** Tarbiyalash, voyaga yetkazish, boqish kabi maqsadda qilinadigan harakat; qarov, boquv, tarbiya. *Chaqaloq esa*

*ona hidiga, uning parvarishiga, ko‘krak sutiga muhtoj edi.* (Gazetadan). *Kampirning gaplari menga kulgili tuyulsa ham, hurmat yuzasidan hamda bolaga yaxshi parvarish qilish zarurligi vajidan bir nima demasdan, unga tasallo berar edim.* (G‘. G‘ulom, «Yodgor»).

**Parvarishlamoq** – parvarish qilmoq, qaramoq; boqmoq, tarbiyalab o‘stirmoq, undirmoq, voyaga yetkazmoq, oyoqqa qo‘ymoq. *Bog‘ni parvarishlamoq. Bemorni parvarishlamoq.*

**Parvarishsiz** – parvarishi yo‘q, qarovsiz. Parvarishsiz daraxt. *Ipak qurti bir kun ham parvarishsiz qolmasin. Fransuzlar: «Dunyoda xunuk ayollar yo‘q, faqat o‘ziga oro bermagan, parvarishsiz ayollargina bor», deb hisoblashadi.* («Sao-dat»).

**Parxish** – o‘simlikning uzun shoxini yerga ko‘mib, uchini nariroqdan chiqarish yo‘li bilan uning yangi tupini hosil qilish.

**Pasterlash, pasterizatsiya** [*fr. Pasteur* – ayni jarayonni taklif etgan fransuz olimi Lui Paster nomidan] – *maxs. kim.* Suyuqliklar va oziq-ovqat mahsulotlari (mas., vino, sut)dagi mikroblar va zamburug‘larni muayyan muddat muayyan haroratda qizdirish bilan yo‘qotish usuli (oziq-ovqat mahsulotlarini zararli mikroblardan saqlash uchun 100 gradusdan yuqori bo‘lmagan temperaturada qizdirish).

**Patent** [*lot. patens, patentis* – aniq, ochiq] – **1.** Ixtirochiga Davlat patent idorasi tomonidan beriladigan, uning o‘z ixtirosiga muallifligi va mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat. *Taniqli botanik olim Qahhor Hojimatov boshchiligida ushbu shufobaxsh vositani yaratgan tadqiqotchilar Davlat patent*

idorasidan patent olishdi. («Fan va turmush»).

2. Savdo-sotiq yoki biror kasb-hunar bilan shug'ullanish uchun ruxsat berilganligi haqidagi hujjat.

**Patentlamoq** – patentga ega bo'lmoq, patent olmoq. *Bunday qayta ishlash usuli Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish institutining dotsenti Baxtiyor Shoymardonov tomonidan patentlandi.* («Fan va turmush»).

**Patisson** [fr. *patisson* – kulcha qovoq – *pate* – pirog] – qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik sabzavot o'simligi. *Patisson tuzlamoq.*

**Patli** – 1. Pat bilan qoplangan, pati bor. *Ko'rkam patli qush.*

2. Sun'iy tuk bilan qoplangan, tukli. *Patli movut.*

**Patogenlik** – mikroblarning kasallik keltirib chiqara olish qobiliyati.

**Paxta** – «Gossupium» g'o'za turlarining urug'i tuklaridan (tolalaridan) tashkil topgan oq rangli (ba'zan malla-xirasariq rangli ham bo'ladi), hidsiz, mazasiz, yumshoq va mayin massa. Unga maxsus usul bilan ishlov berib (oqartiriladi, yog'sizlantiriladi va h.k.), gigroskopik paxta olinadi. Paxta asosan kletchatkadan tarkib topgan. Tibbiyotda *oddiy paxta* kompress qilish uchun, *gigroskopik paxta* va undan tayyorlangan *doka* hamda *bint* bog'lov ashyolari sifatida ishlatiladi. Bog'lov ashyolari (paxta, alignin va b.) yaralarni tashqi ta'sirotdan, ikkinchi marta infeksiya kirishidan saqlash hamda yaralardan chiqadigan suyuqliklar (qon, yiringni shimib olish, qon oqishini to'xtatish va operatsiya paytida kesilgan joylarni quritib turish uchun qo'llaniladi.

1. G'o'za o'simligining chigit va tolalardan iborat oppoq yumshoq hosili. *Uzun*

*tolali paxta. Chigitli paxta. Chigitsiz paxta. Paxta terish. Eski paxta bo'z bo'lmas, asli dushman do'st bo'lmas.* (Maqol). *U kechqurun tergan paxtasini tabelchiga o'tkazib, yuvinib-taranib... qishloqqa jo'nadi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Ipak paxta** – tolasi ingichka, uzun va pishiq paxta. *Tilda doston Farg'ona – Ipak paxta diyori.* (Y. Mirzo, **Paxta tozalash** 1) paxtani xas-xashak, changto'zondan tozalash; 2) paxtani chigitdan ayirish. *U shaharga kirgandan keyin paxta tozalash zavodi yonidagi bekatda tushdi.* (T. Ashurov, «Oq ot»).

2. Chigitdan ajratilgan shu mahsulot; momiq. Paxtadan ip yigirmoq. *Vaziraning egnida shaftoli guliga monand, Ko'ksi ochiq, yelkasiga paxta qo'yib tikilgan shoyi ko'ylak.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Respublika paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi.* (Gazetadan).

3 s.t., ayn. **G'o'za.** *Uzoq-uzoqda hali kun ko'tarilmaganiga qaramay qo'llariga ketmon ushlagan yigitlar paxta sug'orib yuribdilar.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

4 sft. Guli, tasviri (ochilgan) paxtaga o'xshash. *Qurbonov cho'ntagidan yon daftarcha chiqardi: – Bu kishiga o'ttizta choynak, yuzta paxta gulli piyola taqsimchasi bilan.* (N. Aminov, «Qahqaha»). *Paxta gulli choynakni oldiga tortdi.* (T. Ashurov, «Oq ot»).

**Ko'zining paxtasi chiqmoq** g'azab yoki hayajondan ko'zlari katta-katta ochilmoq, ko'zi ola-kula bo'lmoq. *Ortiq talvasada, qo'llari bilan boshini to'sib, ko'zining paxtasi chiqib, tisarildi.* (M. Mansurov, «Yombi»). **Paxta olma** – uzoq saqlanmaydigan ertapishar mahalliy olma navi. *Paxta olma pishdi, shotut qizardi. Uchinchi chopiqni boshladik kecha.* (G'.G' ulom).

**Paxta, chigitli paxta** – g'ozaning tola va chigitdan iborat asosiy mahsuloti.

**Paxtakor** – 1. Chigit ekish bilan shug'ullanuvchi, paxta yetishtiruvchi kishi. Ilg'or paxtakor. *Oddiy paxtakor avval qanday ishlagan bo'lsa, hamon shunday, paxtaga hech qachon xiyonat qilmaydi.* («Saodat»). *Chorvadorsan, botirsan – qo'lda qo'bizing bilan, Paxtakorsan, ishchisan, daryoni buruvchisan.* (A. Oripov, «Yillar armoni»). 2 sft. Chigit ekib, paxta yetishtiradigan. *Paxtakor yerlar.*

**Paxtakorlik** – 1. Chigit ekish bilan shug'ullanishlik; paxtakor kasbi. *Dongdor paxtakorligimiz olamga mashhur. Paxtakorlik sharaftli kasb.* 2 ayn. **paxtachilik** 2. *Biroq paxtakorlikni rivojlantirishdan tub aholining hayoti yaxshilandi.* (Gazetadan).

**Paxta moyi** – chigitni presslab yoki erituvchilar bilan ekstraksiyalab olinadigan moy.

**Paxta terish mashinalari** – ochilgan paxtani terish uchun mo'ljallangan qishloq xo'jalik mashinalari. Ishlash usullariga ko'ra pnevmatik, mexanik, pnevomexanik va elektromexanik turlarga bo'linadi.

**Paxtatikan** – poyasi qisqa, barglari mayda tikanli, ko'p yillik yovvoyi o't.

**Paxta tolasi** – chigit qobig'ida yetiladigan ingichka, uzun, silliq va pishiq tabiiy tola. Asosan paxta tozalash korxonalarida chigitdan ajratib olinadi.

**Paxtazor** – g'ozza ekilgan joy, g'ozza bilan band yer, dala, maydon. Paxtazor vodiy. *Katta ko'cha bilan aylanib o'tamizmi? Paxtazorni kesib chiqqa qolaylik.* (O'.Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Hu ana, somon shlyapali Olimov paxtazor chekkasidan kelyapti.* (H. Nazir, «Yonar daryo»).

**Paxtashunos** – paxta ilmi, paxtachilik bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

**Paxtachilik** – q. **paxtakorlik** 1. Paxtachilik bilan shug'ullanmoq. 1) qishloq xo'jaligining g'ozza ekish va paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i; 2) *Malyaseae* oilasining *Gossypium* turkumiga mansub g'ozaning kelib chiqishiga, evolutsiyasi, o'sishi va rivojlanishi, uni dehqonchilikda yetishtirish qonuniyatlari haqidagi fan. *O'simlikshunoslikning bir bo'limi.*

**Pay IV** [f.]: pay urmoq – Yerga yoyib, terib qo'ymoq (uzum, qovun, tarvuz, olma, nok va sh.k. haqida). *Uzumlarni pay urmoq.*

**Paykal** [t. – hissa, bo'lak, ulush + f. – chuqur, xandaq] – q. x. Marza, ariq, yo'l kabilar bilan ajratilgan katta ekin maydoni; pol, chek. G'ozza paykali. *Traktor paykal boshiga yetti-sakkiz borib kelguncha ham Dildor xayolidan bo'shamaydi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Bug'doyzorda paykal bo'lmasa, bolaning qo'lida metr lab o'lchaydigan gaz bo'lmasa, qayoqdan bilsin!* (O'. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»).

**Payvand** [f. – qo'shish, bog'lash; qarindoshlik; bog'langan, ajralmas] – biror o'simlikning novda yoki kurtagini boshqa o'simlik tanasiga o'tqazish, ulash usuli va shu usulda ulab o'stirilgan o'simlik. *Iskana payvand. Kurtak payvand. Qalamcha payvand. Olimlarimizning bergan ma'lumotlariga qaraganda, limonni ekib, qalamcha payvand va parxish qilib ko'paytiriladi.* (Gazetadan).

**Payvandi** [f. – payvandlangan, duragay] – q.x. Payvand qilingan, ulangan. Payvand daraxt. *U yog'i To'lqinjonning payvandi qantaklari, bu tomon Erkinjonning kishmish, charos toklari.* (Q. Muhammadiy).

**Payvandkash** – q. **payvandchi**. *Rashid, payvandkashdan taralayotgan yoqimsiz hidni sezib, burnini jiyirdi.* (Gazetadan).

**Payvandlamoq** – 1 q.x. Biror o‘simlikning kurtak yoki novdasini boshqa o‘simlik tanasiga ulamoq, payvand qilmoq. *Gilosni olchaga payvandlamoq.*

2 tex. Metall bo‘laklarini eritib yoki parchinlab, bir-biriga yopishtirmoq, ulamoq. Relsni payvandlamoq. *Detallarni payvandlamoq. U [fishchi] quvurni qo‘liga olib, bir nafasda uchini payvandlab bekitdi.* (A.Muxtor, «Opa-singillar»).

**Payvandlash** (qishloq xo‘jaligida) – bir o‘simlikka ikkinchi o‘simlikning qalamchasi yoki kurtagini ulash. Payvand qilinadigan o‘simlik *payvandtag*, ulanadigan *payvandust* deyiladi.

**Payvandtag** – bot. Payvandust payvand qilinadigan o‘simlik yoki uning qismlari. *Mana shu yer qatlamlarida tok va kuchli payvandtagda o‘stirilayotgan meva daraxtlarining asosiy «ishchi» ildizi joylashgan bo‘ladi.* (Gazetadan).

**Payvandust** – bot. 1. Payvandtagga ulanadigan qalamcha yoki kurtak.

2. Ulangan qalamcha yoki kurtakdan o‘sib chiqqan o‘simlikning yer ustki qismi.

**Pashmak II** – bot. Sho‘radoshlar oilasiga mansub, tanasi qalin tola va tangachalar bilan qoplangan bir yillik o‘simlik.

**Pekan yong‘oq daraxti** (*Carya illicinoensis*) – yong‘oqdoshlar oilasiga mansub daraxt. Balandligi 50 m gacha, diametri 2–2,5 m gacha bo‘lib, 300–400 yilgacha yashaydi. Mevasi yong‘oq, uning tarkibida 70 % gacha moy va ko‘p miqdorda oqsil hamda qand moddolari bor. Mevasi qandolatchilikda, moyi esa oziq-ovqat maqsadlarida ishlatiladi.

di. Pekanning vatani Shimoliy Amerika, MDHda Kavkaz, Ukrainada, Markaziy Osiyo respublikalarida Tojikiston va O‘zbekistonning janubida ekiladi.

**Pekin o‘rdak zoti** – go‘sht yo‘nalishida bo‘lib, bundan 300 yil oldin Xi-toyda yaratilgan. Parrandaning gavdasi yirik, uzun, tumshug‘i qayrilgan, o‘rtacha kattalikda, beli keng, qanotlari kichik, oyoqlari baland emas. Urg‘ochisi 3–3,5 kg, erkagi 3,5–4,0 kg, tuxum berishi 98–120 dona, og‘irligi 90 gr. Jo‘jalari tez o‘sadi, 45–50 kunda tirik og‘irligi 2,2–2,8 kg ga yetadi.

**Penya** – majburiyatning o‘z vaqtida bajarilmagani uchun olinadigan jarama. *Penya solmoq. Penya hisoblab qo‘shish.*

**Pergola** (*ital. Pergola* – bostirma) – toqisimon qurilma, ishkomb. Yog‘och, metall, temir va b.dan ayvon, shiypon, galereya, yo‘lak shaklida qurilib, chirmashadigan o‘simliklar bilan ko‘kalamzorlashtiriladi. XVI–XVIII asrlarda Yevropa bog‘-park san‘atida ko‘p foydalanilgan. Hozir madaniyat va istirohat bog‘larida, xiyobonlarda, maktab, bog‘cha va b.da pergoladan foydalaniladi.

**Pestitsidlar** [*lot. restis* – yuqumli kasal, maraz + *sayedere* – o‘ldirmoq] – o‘simlik va qishloq xo‘jaligi ekinlari va ularning mahsulotlarini zararkunanda organizmlar (kasallik qo‘zg‘atuvchilar, hasharotlar, begona o‘tlar va b.)dan himoya qilishda, shuningdek, uy hayvonlarining xavfli kasalliklari qo‘zg‘atuvchilariga qarshi kurashda foydalaniladigan zaharli kimyoviy moddalardir. *O‘zbekistonda noorganik mineral o‘g‘itlar, gerbitsidlar va pestitsidlarning qo‘llanishi eng yuqori normalardan ham o‘nlab baravar ortiq edi.* (Gazetadan).



**Petrushka** [*< lot. Petroselinumyun. petroselinon – tog' seldereyi*] – soya-bonguldoshlar (soyabongullilar oilasi) ga mansub bir yoki ikki yillik, kashnichsimon o'simlik. *Petrushka bargi ko'rinishdan kashnichga o'xshasa-da, hidi va mazasi o'ziga xos dag'alroq.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Pechak I** [*f. – chirmashib o'sadigan o't; chirmovuq*] – o'simlik tanasiga va b. narsalarga chirmashib o'sadigan bir yillik o'simlik; chirmovuq. [*Navoiy:*] *Gulimning qabriga ekan chechaklar ochilgandur bu choq ohim pechaklar kabi ko'kustunga chirmashmasinmu?!* (Uyg'un va I. Sulton, «Alisher Navoiy»). *Yarim xalta pechak yulib keldi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»).

**Pechakgul** [pechak + gul] – karnaygullilar oilasiga mansub, chirmashib o'sadigan bir yillik o'simlik va uning guli; karnaygul. *Markaziy ko'chadagi uylarning derazalarida oq pardalar hilpiraydi, devorlariga pechakgullar tirmashib yotibdi.* (I. Rahim, «Taqdir»).

**Pidina** [*f. – yalpizning bir turi*] – *s.t., ayn. yalpiz. Yalpiz, ba'zi joylarda pidina yoki namo deb atashadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Pikap** [*ingl. pick-up < pick up – ko'tarish*] – yuk va odam tashish uchun belgilangan ochiq kuzovli, o'rindiqlari bort bo'ylab joylashgan kichik avtomobil.

**Pikirovka** [*fr. piquet – qoziq, qoziqcha*] – *q.x. Poliz-sabzavot, meva, manzardor o'simliklarning yangi unib chiqqan ko'chatlarini olib, ularning o'sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida boshqa joyga o'tqazish (ko'pincha qoziqchalar yordamida). Bir parnik yoki yashikdagi*

*ko'chatlarni boshqa parnik yoki yashikka olib, siyrak qilib ekish «pikirovka» deb ataladi.* (Gazetadan).

**Pilla I** [*f. – ipak qurti pillasi, g'umbak*] – **1.** Ipak qurti g'umbakka aylanishdan oldin o'z ustiga o'rab hosil qilgan qobiq, ipak qurtining mahsuli; tabiiy ipak olinadigan xomashyo. *Paxtaning har shonasi – Mo'l hosil nishonasi. Pillaning har tolasasi – Shoyi-atlas onasi.* («Qo'shiqlar»). *Pilla qurtlar so'rida, Uyimizning to'rida, Tut barg yeydi vishillab.* (Q. Hikmat).

**2.** Ko'pgina hasharotlar g'umbagining himoya qobig'i.

**Pilla II** [*f. – yiringli yara, chipqon; milkning yiringlashi*] – *tib. Tish milkining shishib, yiring boylashi.*

**Pillakash** [*f. – pilla tortuvchi*] – **1.** Pillani maxsus yo'l bilan ishlab, undan ipak oluvchi, pilla tortuvchi kishi. [*Nizomjonning*] *Qiladigan ishi – pillakashlarning qozoniga o't qalash.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Pilla tortishda pilla sirtidagi chulg'amlar, ipak tolasasi va pilla ichidagi chulg'anmaydigan parda olinadi.* («O'zME»).

**2 ayn. Pillachi.**

**Pillakashlik** – **1.** Pillakash kasbi. *Bu yerda [fabrikada Munisxon] pillakashlik kasbining nozik tomonlarini qunt bilan o'rgandi.* (Gazetadan).

**2.** Pilla tortish, undan ipak olish ishi, shu ish bilan shug'ullanuvchi soha. *Ish jarayonlariga sarflanadigan mehnat kamaysin uchun, pillakashlikni avtomatlashtirish lozim.* («Fan va turmush»).

**3 ayn. Pillachilik. Pillakashlik brigadasi.**

**Pillakor** – *ayn. pillachi. Pillakor-u chorvador, g'allakor, Bog'bon-u sohibkor – hammasining yuzi yorug'.* («Sodat») – *Katta konsert! – deb kuldi sek-*

retar, – pillakorlarning yig'ini bor, shaxsan sarkotibning o'zlari qatnashadi. (S. Siyoyev, «Otliq ayol»).

**Pillakorlik** – ayn. **Pillachilik**.

**Pillaxona** [pilla + xona] – pilla qurti boqiladigan, pilla yetishtiriladigan maxsus joy, xona. *Inkubatorlar uchun joy tayyorlash, pillaxonalarni remont qilish, yoqilg'i jamg'arish, binolarni dezinfektsiyalash ishlari avj olib ketdi.* (Gazetadan).

**Pillachi** – ipak qurti boqish va pilla yetishtirish bilan shug'ullanuvchi kishi. «*Qishloq o'qituvchisi*» qissanomam uning qahramoni – Davlat mukofoti laureati, novator pillachi, qishloq o'qituvchisi Oliyaxon Sultonovaning izdoshlarini yetishtirdi. (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Pilla losi**, *pillaning paxta losi* – ipak qurti *pillaning* tashqi yuzasini va asosini hosil qilish uchun ajratib chiqargan va saralashda pilla yuzasidan sidirib olinadigan chigal ipak massasi.

**1. Po'choq pilla** – ichidan kapalagi teshib chiqib ketgan pilla. **2. To'q pilla** – qobig'i qalin yetuk pilla.

**Pilla tortish**, *pilla chuvish* – pilla qobig'idan xom ipak olish jarayoni.

**Pillachilik** – **1.** Ipak qurti boqish va pilla yetishtirish ishi, kasbi. *Pillachilik – faxrli va ma'suliyatli kasb.* (Gazetadan). *Rayon bosh pillaxonasida ipak qurti boqish mavsumi oldidan pillachilik mutaxassislari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi.* (Gazetadan).

**2.** Qishloq xo'jaligining pilla yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. *Xo'jalik sertarmoq: kolxoz bog'dorchilik, uzumchilik, dehqonchilik, chorvachilik, pillachilik bilan shug'ullanadi.* (Gazetadan).

**Pilokarpus** (*pilocarpus ja – borandi nom. ba p. pinnatifodius lem.*) – rutadoshlar oilasiga mansub, bo'yi 3 m ga yetadigan doim yashil butalar. Janubiy va Markaziy Amerikaning tropik o'rmonlarida o'sadi. Tibbiyotda glaukoma kasalligida ko'z ichki bosimini pasaytirish hamda ko'z qorachig'ini toraytirish uchun ishlatiladi.

**Pista** [f.] – **1 bot.** Janub tog'larida o'sadigan past bo'yli, yong'oqmevali daraxt yoki buta. *Tabiatning mehri bilan yasalgan ko'm-ko'k archazorlar va tog' ariqlaridagi jarlar yoqasida saf tortgan pista zumraddek tovlanib, ko'zni qamash-tirar edi.* (Tuyg'un, «Shoir haqida haqiqatlar»).

**2.** Shu daraxtning qattiq qobiqli mevasi. *Odam odam bilan, Pista bodom bilan.* (Maqol). *Lekin pista, bodom, mayiz, jiydani ko'rib, tarvuzim qo'ltig'imdan tushdi.* (F. Musajonov, «Himmat»). *Ana shirinlik, mana shirinlik, deb murabbo-yu nisholda, pista-yu mag'iz, qandqurs, yana allanimalarni hech surishtirmasdan, aralash-quralashiga pok-pokiza tushiraveribdi.* (N. Maqsudiy, «Mechkay eshon»).

**Xandon pista** – **q. xandon.** *Jigar-u buyrak, dumba yog'dan tayyorlangan qo'shaloq parmuda somsalar, xushbo'y murabbolar, Beshkaramning anori-yu Fayziobodning tilyorar qovunlari, xandon pista, mayizlarning eng tozalari, yaxna go'sht...* («Yoshlik»).

**3 s.t.** Kungaboqarning xom yoki qovurilgan urug'i. *Bir vaqtlar eri urushda o'lgan xotin shu tosh ustida o'tirib, pista sotardi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga qu-loq sol»).

**Pistazor** – pista daraxtlari bilan band yer, maydon. *O'rmon xo'jaligiga qarash-*

li pistazorlar. Tun yarimdan og'di. Oy pistazor tog'larning orqasiga asta-sekin yashirindi. (Y. Shukurov, «Yuraklar takapuka»).

**Pistachka** [r. *fistashka* < f.] – s.t. Kungaboqarning urug'i. Xom *pistachka*. Qovurilgan *pistachka*.

**Pitir go'shtlar** – shilib olingan teri yuzasining ayrim joylarida yoki butun sathida qolib ketgan qalinligi 3–4 mm keladigan go'sht va yog' to'qimalari.

**Pitomnik** [r. *pitomnik* – tarbiyaxona, parvarishxona < *pitomets* – tarbiyalanuvchi] – o'simlik yoki hayvonlar o'stiriladigan va ko'paytiriladigan, o'rganiladigan maxsus joy. *Mevali daraxtlar pitomnigi*. *Baliqchilik pitomnigi*. *Qumlik pitomniklarida daraxt, buta va giyohlar ekib o'stirishga kirishish kerak*. («Fan va turmush»).

**Pix** – ayrim erkak parrandalarning oyog'ida bo'ladigan muguzsimon uchli o'simta. *Xo'rozning pixi*. *Pixi qayrilgan yoki pix(ini) yorgan*. Ko'p ish ko'rgan, ko'p ishlarni boshdan kechirib, ayyor, quv bo'lib ketgan.

**Piyoz** [f. – piyoz, bir bosh piyoz] – barglari naychasimon uzun bo'lib o'sadigan, ildiz bo'g'zida yupqa qat-qat po'stlardan yumaloq tugunak hosil qiladigan, tugunagi va yosh bargi ovqatga ishlatiladigan ikki yillik va ko'p yillik sabzavot o'simligi. *Oq piyoz*. *Qizil piyoz*. *Barra piyoz*. *Ko'k piyoz*. *Topgan gul keltirar, topmagan – bir bog' piyoz*. (Maqol). *Butun oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va h.k. rezavor ekib, mumkin qadar eldan burunroq bozorga chiqarib, «pul» qilishga tirishar edi*. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Piyoz allium l.** – loladoshlar [piyozguldoshlar (Liliaceae)] oilasiga

mansub, bo'yi 30–100 sm ga yetadigan piyozboshli ko'p yillik o't o'simliklar turkumi. Tibbiyotda quyidagi ikki turining piyozboshisidan foydalaniladi: **osh piyoz, no'sh piyoz**. (*L. Repchaty – A. sera L.*) – G'arbiy Yevropaning hamma nohiyalarida qadimdan ovqatga ishlatish uchun ekiladi. Piyozboshi tarkibida efir moyi, qandlar, vitamin S va V, karotin, flavonoidlar va b. moddalar, bargida S, V2 vitaminlar, karotin, limon va olma kislotalar, qandlar, fitonsidlar va b. birikmalar bor. Dori preparati – *spirtli ajratmasi allilchep bakteriyalarni, mikroblarni va b. tuban organizmlarni (masalan, trixomonadlarni) o'ldirish ta'siriga ega*. Uni ichak ishi zaiflashganda, kolitda, ateroskleroz va gipertoniya kasalligining ba'zi turlarini davolashda qo'llaniladi. Allilchepni yana rinit kasalligida burun bo'shlig'iga va trixomonada kolpiti kasalligida qinga surtiladi. Piyoz gipo-va avitaminoz kasalliklarida vitaminlarga boy sabzavot sifatida ko'p ishlatiladi. –

**Sarimsoq (sassi q piyoz)** [(*Luk chesnok (chesnok) A. sativum L.*)] – piyozboshisi tarkibida allin birikmasi, efir moyi, fitosterinlar, fitonsidlar, vitamin S, oz miqdorda yog', yod moddalar bor. Piyozboshisining tindirmasi (nastoykasi) ateroskleroz, gipertoniya, kolit va o'pka sili kasalliklarini, ginekologiya amaliyotida trixomonada kolpitini hamda yiringli yaralarni davolashda qo'llaniladi. Ostritsalarga qarshi tindirmasi xuqna (klizma) qilinadi.

**Piyozi anzuriy** – Markaziy Osiyoning tog'li hududlarida o'sadigan, tugunak hosili ovqatga ishlatiladigan servitamin yovvoyi piyoz. **1. Sarimsoq piyoz ayn. sarimsoq.**

2. Ba'zi o'simliklarning piyozsimon ildizi, tugunagi. *Lola piyozi*.

**Piyozlilar** – ildiz tizimida piyozlari bo'lgan o'simliklar. Manzarali gullarning piyozli turlari mavjud: lola, nargis, giatsint, shafran, boychechak va shu kabilar.

**Pishloq, sir** – sutni maxsus usulda achitib tayyorlanadigan, sirga o'xshash yegulik. Sigir, qo'y, echki, buyvol sutidan yoki ularning aralashmasidan ishlab chiqariladi. *Pishloqqa qo'shilgan turp oshqozon, jigar, taloq va buyrak uchun yaxshi shifo bo'ladi*. (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»). *Fermamizda sutlardan qatiq, qaymoq ishlaymiz, Jangchilarga charchamay moy va pishloq ishlaymiz*. (Z.Diyor).

**Pishiq – 1.** Pishgan, pishib yetilgan (meva, sabzavot, don va sh.k. haqida). *Olmani ham pishiq aralash termoq*. [Amlokdor:] *O'g'rilar podshohlik haqini aniqlamasdan burun, xom demay, pishiq demay, ko'zga ko'ringan narsani yeyaverasanlarmi?!* (S. Ayniy, «Qullar»).

2 ot. Poliz ekinlari, meva, sabzavot kabilarning pishgan vaqti, mavsumi (shu narsalarning nomi bilan qo'llanadi). *Qovun pishig'i. Tut pishig'i. Ayji o'rik pishig'i. Bug'doy, jo'xori pishig'ida yengil charxini yelkasiga solib, o'g'ilchasini yetaklab, dala aylanadi, o'roq charxlaydi*. (A. Qahhor, «Sarob»). *Tut pishig'i edi. Peshindan keyin hovlida kartoshka chopiq qilayotgandim*. (M. Mansurov, «Yombi»).

**Yetti qovun pishig'i bor** – hali uzoq, ko'p vaqt bor.

**Pishiqchilik** – meva, sabzavot va sh.k. ning g'arq pishgan payti. *Ayni pishiqchilik, har uch xonadonning birida*

*bazmi jamshid*. («Sharq yulduzi»). *Jaynaq Mirzo bu yil yozning ayni pishiqchilik chog'ida, o'g'illarini ukasi Halim boyvachchaning yonida qoldirib, Parkentga xotini bilan qizini olib keldi*. («Yoshlik»).

**Pishmoq I – 1.** O'sib, rivojlanib, tarkibi yaxshilanib, iste'mol qilish yoki ishlatish uchun yaroqli holga kelmoq, yetilmoq ( meva, sabzavot, don, suv kabilar). *Qulupnay pishdi. Pomidor pishgani yo'q. Mol o'tmaydigan balandlikdagi devorlari ham nuragan, bog' ichidagi olma va tog'olchalar esa pishib yotibdi*. (Sh. Xolmirzayev, «Yo'llar, yo'ldoshlar»). *Mana bu uzumni oling, juda yaxshi pishibdi*. (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Qora gilolar g'arq pishib, shoxlari tomga tushib turar edi*. (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o»). *Oqar suvlarning barchasi pishgan, yer ostidagi kamharakatdagi suvlar xomdir*. (Gazetadan).

2. Rivojlanib yetilmoq. Pishmagan novda. Pishgan urug'. *Egatlardagi tutlarning novdalari pishibdi*. (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o»).

**Pichan** – ekma yoki tabiiy o'rilgan o'tni quyosh nurida va shamollatib quritib tayyorlanadigan dag'al xashak.

Hayvonlarga ozuqa bo'ladigan o't; o'rib quritilgan o't; xashak. *Bir bog' pichan. Pichan o'rish mashinasi. O'rtadagi uyulgan pichan g'arami oldidan o'tib, qorong'i uyga kirdi*. (S. Zunnunova, «Olov»). *Tomga ko'proq pichan bosdi*. (E. Samandar, «Daryosini yo'qotgan qirg'oq»). *U bostirma devoriga behol suyanib qoldi. Ichkari quruq, pichan isi, ivigan ohak hidi kelardi*. (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Pichan uni, o't uni** – sun'iy sharoitlarda yuqori haroratda quritilgan va may-

dalangan o'tlardan tayyorlanadigan yem-xashak mahsuloti.

**Pichanxona** – pichan saqlanadigan xona, bino. *Pichanxonaga kirib, eshikni tambalab, qalin, mayin va xushbo'y pichanga bolani ko'mdi: «Uxla! Yig'lama!»* (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

**Pichanzor** – pichanbop o't o'sgan maydon; o'tzor. [*Brigadir*] *Boshida qorako'l telpak, egnida kitel-shim, oyoq'ida tuffi, hozirgina pichanzordan kelganday.* (S. Nurov, «Narvon»). *Mana ko'z o'ngimizda quyoshning hayotbaxsh taftiga tob berib, keng pichanzor vodiya yastanib yotibdi.* (A. Shermuhammedov, «O't-o'lanlar vodiysi»).

**Pichmoq//axtalamoq (bichish)** – qo'zilarni bichish jarayoni. Bu jarayon juda og'riqli bo'lganligi uchun qo'zilar bir necha kun hech narsa yemasdan yotadi. Buni qo'zilarning ikki oyligidan keyin ham qilish mumkin. Lekin bu davrda xavfilik darajasi, o'lish juda yuqori bo'ladi. Bu holat echkilarda ham amalga oshiriladi, takani bichgandan keyin sarkaga aylanadi.

**Plan** [*lot. planum* – yuza, sath, tekislik] – **1.** Tekislikdagi joy, narsa, inshoot va sh.k. ni masshtab bo'yicha batafsil tasvirlovchi shartli belgilari bo'lgan chizma. *Binoning plani. Shaharning plani. Qishloqning planini, ko'chalarini, uylarini ko'rdingiz. Mana bu ko'cha hozirgi go'ristonning bir chekkasidan o'tadi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»)

**2 ayn. reja 2.** *Beruniy tumani sohibkorlari yillik reja bajarilganligi haqida raport berdilar.* (Gazetadan).

**Planirovka** [*r. planirovka* – rejalash (tirish)] – **1.** Kelajakda qilinadigan ishlar rejasini, loyihasini tuzish; reja (plan) ishlab chiqish.

**2.** Narsa, joy yoki inshootning, yer (ekin) maydonining ayrim qismlarini plan asosida bir-biriga nisbatan ma'lum tartibda joylashtirish, rejalash; reja. *Parkning planirovkasi. Dala ishlarini to'la mashinalashtirish maqsadida planirovkaga alohida ahamiyat berildi.* (Gazetadan).

**Planlashtirmoq** – **1.** Joy, narsa, inshoot kabilarning planini chizmoq, tuzmoq. *Qishloqni planlashtirmoq.*

**2.** Ish, tadbir, dastur va sh.k.ning rejasini tuzmoq, belgilamoq. *Darsni planlashtirmoq. Dala ishlarini planlashtirmoq. Ishlab chiqarishni planlashtirmoq.*

**3.** Amalga oshirishni, bajarishni ko'zda tutmoq. *Sayrni mayga planlashtirmoq.*

**Planli, rejali** – planli ish. Planli yurish. *Butun ishlarni planli ravishda olib bormoq. Planli ish tufayli kollej jamoasi barcha sohalarida yuksalish pillapoyalaridan dadil odim tashlab bormoqda.* (Gazetadan).

**Plansiz** – **1.** Planga asoslanmagan, oldindan planlashtirilmagan, plan bilan qilinmaydigan. *Plansiz uy. Past-baland, qing'ir-qiyshiq plansiz pastak uylar.* (I.Rahim, «Tinimsiz shahar»).

**2 q. rejasiz.** *Plansiz ish – qolipsiz g'isht.* (Maqol).

**Plantaj, tuproqni plantaj plug bilan ishlash** (*lot. planto* – o'tkazmoq) – ko'chatzor, tokzor va bog' barpo etiladigan yerni plantaj plugda 40–100 sm chuqurlikda haydash. Tokzor, ko'chatzor, o'rmonzor qilinadigan, mevali daraxtlar ekiladigan yer maydonlarini haydashda, shuningdek, sho'rxok va qumloq yerlarni o'zlashtirishda plantaj usulidan foydalaniladi. Bu usul

ekilgan ko'chatlar ildizining yaxshi rivojlanishiga, tuproqda suv rejimini yaxshilashga yordam beradi.

**Plantatsiya** [*lot. plantatio* – o'simlik o'tqazish, ekish] – **1.** Faqat birgina maxsus ekin ekilgan katta yer maydoni. *Choy plantatsiyasi. Paxta plantatsiyalari. Har yili 25–30 gektar yangi plantatsiya barpo qilinyapti.* (Gazetadan).

**2.** Alohida ekinlar, mas., shakarqamish, paxta, choy, kofe kabilar yetishtiriladigan yirik dehqonchilik xo'jaligi. *Tog' yonbag'irlari, adirlar, cho'l, sahro zonalari*da yirik bog'dorchilik plantatsiyalarini tashkil etishga kirishaylik. (Gazetadan).

**Plotina** [*r. plot* – «devor, g'ov, to'siq» s. dan.] – *q. to'g'on.* *Mayli, tanti turamiz, plotinani chin dil bilan, chin vijdon bilan qurganmiz.* (Sh.Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Plug** [*r. plug* – *nem. Rflosk* – qoziqcha] – yer haydash uchun mo'ljallangan maxsus tishli yoki diskli qishloq xo'jalik quroli. *Paxta maydonlari o'g'itlanib, ikki yarusli pluglarda chuqur shudgorlab qo'yildi.* (Gazetadan). *Traktorchiga shogird tushgan kezlarida, plug ostida qolib, bir oyog'idan ajraluvdi.* (A. Ko'chimov, «Halqa»).

**Plyonka** [*r. plena* – yupqagina po'st, badanning nozik po'sti, terisi] – **1.** Fotosuratlar va kintotavirlar olish uchun mo'ljallangan, yorug'lik sezuvchi qatlam bilan qoplangan, maxsus materialdan qilingan elastik lenta.

**2.** Umuman, har qanday yupqa parda, qobiq; qoplama material. *Polietilen plyonka. Plyonka ostiga chigit qadalgan maydonlarda g'o'za rivoji ayniqsa yaxshi.* (Gazetadan). *Urug'lar shu yil bahorda plyonka ostiga qadalgach, muta-*

*xassislar tomonidan muntazam kuzatib borildi.* (Gazetadan).

**3.** Magnitofon yozuvi uchun maxsus materialdan tayyorlangan elastik lenta.

**Podal I** [*f. – gala, to'da, uyur; yaylov*] – **1.** Birga haydab borilayotgan yoki birga o'tlab yurgan, odatda bir turga oid chorva mollari to'dasi. *Qo'y podasi. G'uj bog' yo'llaridan podalar chuvalab keldi.* (A. Muxtor, «Kumush tola»). *Podal tegirmon yaqinidan o'tayotganda, Yigitalining dimog'iga yoqimli bir is urildi.* (T. Malik, «Ajab dunyo»). **2 ko'chma.** Biror narsaning to'pi, uyumi. *Yomg'ir tingan, harir ro'moldek uzuq-yuluq bulutlar podasini shamol to'zg'itmoqda.* (Gazetadan).

**Podal II** (*chorvachilikda*) — **1)** bir turga oid chorva mollari to'dasi. Podalar chorvachilik xo'jaliklarida alohida saqlash, bog'lab boqish yoki yaylovda o'tlatish (boqish) uchun tashkil etiladi. Yaylovda boqilganda sog'in sigirlar 100–200, buzoqlar 30–60, semirtiriladigan yosh mollar 150–200; qo'ychilikda ona qo'ylar 200–800, axta qo'chqorlar 600–1200 boshdan iborat bo'ladi. Qo'ylar podasi otar, yilqilar podasi uyur deb ataladi.

**2)** xo'jalik (ferma)da bo'lgan bir turdagi hayvonlarning umumiy soni (boshi). Podal tarkibi, undagi hayvonlarning jinsi, yoshi va ishlab chiqarish guruhlarining nisbati, ularning ahamiyati hamda foydalanish muddatlari podani ko'paytirish shart-sharoitlariga bog'liq. Podaning zarur strukturasini saqlab turishda podaning rejalashtirilgan aylanmasiga rioya etiladi.

**Podadan oldin chang chiqarmoq** – biror ish, voqea va sh. k. haqida ular so'dir bo'lmasdan oldin hovliqib gapirib yurmoq. *Boshliq indamadi. Ikki kishini yoniga olib, qolganlarni ogohlantirdi: –*

*Podadan oldin chang chiqarmanglar. Biz hozir anig'ini bilib kelamiz.* (Shuhrat, «Jannat qidirganlar»). *Qo'ziboyning goho podadan oldin chang chiqarish odati borligidan, ba'zilar uni «so'nggi axborot» deb ham atasharkan.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Podani qayta to'ldirish** – yaroqsiz chorva mollari o'rniqa mahsuldor mollarni ko'paytirish va urchitish jarayoni.

**Podaxona** – 1. Poda turadigan joy yoki bino.

2 *ko'chma*. Qarovsiz, nazoratsiz, tartibsiz joy. *Bu joy sizga podaxonami?*

**Podachi** – podani haydab olib yuruvchi, poda boquvchi. *Maktabga keldim. Hech kim yo'q. Bir payt Qodir podachining kichkina nevarasi kelib qoldi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»). *Hamma balo-qazoga balogardon – biz: bugun o'qituvchi kelib do'q uradi, ertaga podachi gavron ko'tarib keladi.* (A. Ko'chimov, «Halqa»). *Podachi yo'q. Har yili bahorda unga elanib, bunga elanib, kunimiz o'tadi.* (M. Hazratqulov, «Jur'at»).

**Podachilik** – poda boqish bilan shug'ullanish; podachi kasbi. *Bosqinchilikmi, podachilikmi, ketmonchilikmi – qanday ish bo'lsa ham mayli.* (I. Rahim, «Ixlos»). – *Men bunday podachilikka yaramayman, taqdir! – deb kuladi Mulla Obid.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Podbor** [r. *нодобраць* – «terib, yig'ib, yig'ishtirib olmoq» fl. dan yasalgan ot] – esk. Paxta terimida yerga to'kilgan, odatda, xas-xashak aralashgan paxtalarni yig'ib-terib olish va shu yo'l bilan terilgan paxta. *Etak bog'lab ortda jim, Podbor terar yoshligim.* («Sharq yulduzi»).

**Podborshchik** [r. *нодборщик* – yig'ib-terib oluvchi] – tex. To'kilgan pax-

ta, o'rilgan poya, o't va pichanni yig'ib oladigan moslama yoki mashina. *Paxta terish mashinasining podborshchigi.*

**Podshipnik** [r.] – tex. Mashina va mexanizmlarning val, o'q kabi aylanuvchi qismini tutib turadigan va ularning oson aylanishini ta'minlaydigan yordamchi detal.

**Pol I** [f. (pal) – ekin maydonining atrofi marza bilan ko'tarilgan har bir qismi] – q.x. 1. Ekin maydonining atrofi marzalar bilan to'rtburchak shaklida ko'tarilgan va bostirib sug'orish uchun moslangan bir bo'lagi. *Bir pol sholi. Ikki pol piyoz. Polga suv qo'ymoq. Charaqlab o'ftob chiqib, sholikorlik pollarini to'ldirgan yomg'ir suvlarini oynadek yaltiratdi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Tushgacha arang uch pol yerdagi pichanni o'rib oldim.* («Yoshlik»).

**Polevitsa (Agrostis)** – bug'doydoshlar [Boshodoshlar (*Poaceae* L.)] oilasiga mansub keng tarqalgan gazon turi bo'lib, parter gazonlari tarkibida ekiladi. Boshoqsimon urug' hosil qiladi. Ildizi tizimi kichik bo'lib, sekin o'sadi. Doimiy kesib turish natijasida ildiz tizimi boshqa o'tlar bilan qo'shilib, zichlashib ketadi. Chiroyli zich maysazor hosil qiladi. Qurg'oqchilikka va tepkilanishga chidamli. Barglari uchki qismiga qarab ingichkalashib boradi. Turli xil tuproqlarda o'sa oladi va ildizidan ko'payadi.

**Poliestrik hayvonlar** – jinsiy jihatdan yil bo'yi aktiv hayvonlar.

**Poligidrid** – bir qancha gen juftlari (kamida uch juft) bilan farqlanadigan hayvonlarni chatishtirishdan olingan duragay.

**Polikarpik o'simliklar** (*yunoncha Poly* – «ko'p», *karpós* – «meva»; *lotincha Rolycarpicae: yana q. Monakard o'simliklar*) – ko'p marotaba gullaydigan va umr bo'yi meva beradigan

o'simliklar. Deyarli barcha polikarpik o'simliklar ko'p yillik o'simliklardir. Polikarpik o'simliklar tarkibiga ko'p yillik gullaydigan o'simliklar kiradi (daraxtlar va butalar). Voyaga yetgach, polikarpik o'simliklar gullaydi va bir necha yillar davomida takroran meva beradi. Bu tabiiy fitotsenzozlarning ko'p yillik o'simliklari (masalan, jo'ka, funduk, eman) va agrotsenzozlar (masalan, olma, chakanda, smorodina, qulupnay).

**Polimorfizm** – bir-biridan keskin farq qiluvchi, bir turga mansub hayvon yoki o'simlik individlarining shu tur ichida mavjud bo'lishi.

**Polisaxaridlar** – bir xil monosaxaridlar (gomopolisaxaridlar), bir xil bo'lmagan monosaxaridlar va ba'zan uglevod bo'lmagan birikmalar (geteropolisaxaridlar) qoldiqlaridan tarkib topgan yuqori molekulyar organik moddalardir. Ular turlicha massaga, xossaga ega bo'ladi (ba'zilar suvda eriydi, ba'zilar erimaydi, ba'zilar shirin bo'ladi, ba'zilar shirin bo'lmaydi va h.k.). Ularga kraxmal, glikogen, sellyuloza, inulin, o'simlik shilliq moddalari, daraxt yelimlari, pektin moddalar va b. kiradi.

**Polivoltin** – bir yilda uch va undan ko'p marta avlod beradigan ipak qurti zotlari.

**Poliz** [f.] – qovun, bodring kabi palak otib o'sadigan ekinlar ekiladigan maydon, paykal. Poliz ekinlari. *Polizni sug'ormoq. Ana, ikki yondagi paxsa devorlar chekinib, oldinda tep-tekis poliz ko'rindi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»). *Polizlarda qovun-tarvuzlar shiraga to'lgan, ishqomlar hosildan beli bukilib qolgan to'kin, barakali kuz boshi edi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**Poliz ekinlari** – oziq-ovqat, yemxashak va texnika maqsadlarida ekiladigan, palak otib o'sadigan madaniy ekinlar guruhi.

**Pol olmoq** (yoki **qilmoq**) – atrofini marza bilan o'rab, yerni pol shakliga keltirmoq. *Pol olib, piyoz urug'i sepmoq. Barcha ekin maydonlari yigirmanchi noyabrdan yigirmanchi dekabrgacha pol olib, ikki marta qalqitib sug'oriladi.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

2 s.t. Marza. *Pastga ekdim sholini, Baland ko'tar polini.* («Qo'shiqlar»).

**Polizchilik** – poliz ekinlari ekish va yetishtirish; poliz xo'jaligi. *Jamoada bog'dorchilik va polizchilik masalalari hal etildi.* (Gazetadan).

**Pomidor** [ital. *pomodoro* < *pomo d'oro* – oltin olma] – Ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot o'simligi va shu o'simlikning olmasimon yumaloq, qizil, ba'zan sariq rangli mevasi. *Pomidor o'zining darmondoriligi bilan juda qimmatlidir.* (K.Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»). *Qandli diabet bilan xastalangan bemorning kundalik ovqatida qovoq, bodring, ukrop, pomidor bo'lishi kerak.* («Fan va turmush»).

**Pomologiya** [lot. *pomum* – meva + *yun. logos* – fan, ta'limot] – mevali va rezavor mevali o'simliklar navlari haqidagi fan; navshunoslik.

**Popiltiriq** – s.t. 1. Ba'zi o'simliklarning poyasi uchida hosil bo'ladigan, yetilganda momiqsimon to'zg'oqqa aylanadigan to'pguli, popugi. *Yengil shabada qamishlarni shitirlatib, uchlariidagi popiltiriqlarini suvga uchi-radi.* (M. Mahmudov, «Mangu kuy izlab»).

2. Shokila, popuk. *Ot yopig'ining popiltirig'i.*



**Populyatsiya** [lot. *populatio* < *populous* – xalq, aholi] – uzoq muddat muayyan bir joyni egallab yashaydigan va bir qancha avlodlar osha aslidagiday tiklanib turadigan bir turga mansub zot (organizm)lar yig'indisi.

**Posira I** [f.] – 1 tar. Katta yer egalari tomonidan batraklarga vaqtincha foydalanish va hosilasidan davlat soliqlarini to'lash uchun ajratilgan yer maydoni.

2. shv. Tomorqa. *Yangi yerlar o'zlash tirdik – sizga posira, Paxta, g'alla tashvishini tortmangiz sira.* (T.N. Qori-Niyoziy).

**Posira II** – yig'ilgan, g'amlangan narsa; qo'r. *Posira qilmoq. Bug'doypoya! Bizdan ilgari rais bu yerni odamlarga berib qo'ygan ekan. Posira ekib olishardi-da.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»).

**Poxol** – 1. Bug'doy, sholi kabi boshqoli o'simliklarning doni yanchib olingandan keyin qolgan quruq poyasi. *Bir bog' poxol. Qoramollar ratsioni asosan dag'al xashak, poxol va o'simliklar poyasidan iborat edi.* (N. Mavlonov, «Qoramolchilik»).

2 Poxoldan qilingan (to'shak yoki boshqa narsa). *So'ridagi poxol ustiga har kim o'z o'rnini yoza boshladi.* (H.G'ulom, «Zamin yulduzlari»). *Bir gal Farg'ona vodiysini kezib yurganimizda, bizga hamroh bo'lgan yaqin do'stimizning rafiqasi magazinga kirib, poxol shlyapa olib chiqdi.* (K.Qahhorova, «Chorak asr hamnafas»).

**Poya** [f. – zinapoya, pog'ona; bosqich, poy; oyoq, etak] – 1. O'simlikning shoxlarini, barg, gul va mevasini ko'tarib turadigan, tik o'sadigan yer ustki qismi. *Jo'xori poyasi. Sholi poyasi. Bug'lanib ketgan deraza ortida qamish tomdan sizib tushayotgan tomchilar ko'rinib qolar, hovli etagidagi makkajo'xori poyalari yomg'irdan*

*junjilib egilgan.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Bug'doy qip-qizarib pishgan, poyalarigacha qovdek qovurilgan edi.* (S.Ayniy, «Qullar»).

2. Ishkom yoki so'ringing bag'azlar mahkamlanadigan yog'ochi. *Bog'da sakkiz uzun ishkoma: hammasining poyalari yaxshi ishlangan, pushtalari chopilgan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Ko'prikning naryog'ida, ishkoma poyasi olib kelingan kekxa tol yonida Dildor bilan A'zamjon turardi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Bultur ellik kishi borgan edi. Hammasi xursand ekan, tollari poyaga yarab qoldi.* (H.G'ulom, «Feruza»).

3. Oyoq, pochka. *Karovat poyasi.*

4. Ba'zi o'simliklarning nomi bilan birikib, ular ekilgan yer, maydon ma'nosini ifodalovchi so'z yasaydi, mas.: sholipoya, bedapoya.

**Poya, tana (caulis)** – o'simlikning barg va gullari joylashgan asosiy o'qi. Bo'g'im (barg o'mi) va bo'g'im oralaridan iborat.

**Poykiloterm hayvonlar** (yun. *Poikilos* – har xil, o'zgaruvchan va *therme* – issiq) – sovuq qonli, tana harorati tashqi muhit harorati ta'sirida o'zgarib turadigan hayvonlar. Poykiloterm hayvonlarga barcha umurtqasizlar, baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar kiradi.

**Poymol** [f. – toptalgan, oyog'osti qilingan, yo'q qilingan]: **poymol bo'lmoq** – oyoq ostida ezilmoq, bosilmoq, toptalmoq; payhon bo'lmoq. *Payhon bo'lgan ekinlar.*

**Poymol qilmoq** (yoki **etmoq**) – 1) oyoq ostiga olib ezmoq, bosmoq, toptamoq; payhon qilmoq. *Ekinzorni poymol qilma;* 2) *ko'chma.* Oyog'osti qilmoq, barbod qilmoq, yo'qqa chiqarmoq; tahqirlamoq.

**Populyatsiya** [lot. *populatio* < *populous* – xalq, aholi] – uzoq muddat muayyan bir joyni egallab yashaydigan va bir qancha avlodlar osha aslidagiday tiklanib turadigan bir turga mansub zot (organizm)lar yig'indisi.

**Posira I** [f.] – 1 tar. Katta yer egalari tomonidan batrakkarga vaqtincha foydalanish va hosilasidan davlat soliqlarini to'lash uchun ajratilgan yer maydoni.

2. shv. Tomorqa. *Yangi yerlar o'zlash tirdik* – sizga posira, Paxta, g'alla tashvishini tortmangiz sira. (T.N. Qori-Niyoziy).

**Posira II** – yig'ilgan, g'amlangan narsa; qo'r. *Posira qilmoq. Bug'doypoya! Bizdan ilgari rais bu yerni odamlarga berib qo'ygan ekan. Posira ekib olishardi-da.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»).

**Poxol** – 1. Bug'doy, sholi kabi boshqoqli o'simliklarning doni yanchib olingandan keyin qolgan quruq poyasi. *Bir bog' poxol. Qoramollar ratsioni asosan dag'al xashak, poxol va o'simliklar poyasidan iborat edi.* (N. Mavlonov, «Qoramolchilik»).

2 Poxoldan qilingan (to'shak yoki boshqa narsa). *So'ridagi poxol ustiga har kim o'z o'rnini yoza boshladi.* (H.G'ulom, «Zamin yulduzlari»). *Bir gal Farg'ona vodiysini kezib yurganimizda, bizga hamroh bo'lgan yaqin do'stimizning rafiqasi magazinga kirib, poxol shlyapa olib chiqdi.* (K.Qahhorova, «Chorak asr hamnafas»).

**Poya** [f. – zinapoya, pog'ona; bosqich, poy; oyoq, etak] – 1. O'simlikning shoxlarini, barg, gul va mevasini ko'tarib turadigan, tik o'sadigan yer ustki qismi. *Jo'xori poyasi. Sholi poyasi. Bug'lanib ketgan deraza ortida qamish tomdan sizib tushayotgan tomchilar ko'rinib qolar, hovli etagidagi makkajo'xori poyalari yomg'irdan*

*junjikib egilgan.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Bug'doy qip-qizarib pishgan, poyalarigacha qovdek qovurilgan edi.* (S.Ayniy, «Qullar»).

2. Ishkom yoki so'rining bag'azlar mahkamlanadigan yog'ochi. *Bog'da sakkiz uzun ishkom: hammasining poyalari yaxshi ishlangan, pushtalari chopilgan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Ko'prikning naryog'ida, ishkomga poyasi olib kelingan keksa tol yonida Dildor bilan A'zamjon turardi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Bultur ellik kishi borgan edi. Hammasi xursand ekan, tollari poyaga yarab qoldi.* (H.G'ulom, «Feruz»).

3. Oyoq, pocha. *Karovat poyasi.*

4. Ba'zi o'simliklarning nomi bilan birikib, ular ekilgan yer, maydon ma'nosini ifodalovchi so'z yasaydi, mas.: sholipoya, bedapoya.

**Poya, tana (caulis)** – o'simlikning barg va gullari joylashgan asosiy o'qi. Bo'g'im (barg o'mi) va bo'g'im oralaridan iborat.

**Poykiloterm hayvonlar** (yun. *Poikilos* – har xil, o'zgaruvchan va *therme* – issiq) – sovuq qonli, tana harorati tashqi muhit harorati ta'sirida o'zgarib turadigan hayvonlar. Poykiloterm hayvonlarga barcha umurtqasizlar, baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar kiradi.

**Poymol** [f. – toptalgan, oyog'osti qilingan, yo'q qilingan]: **poymol bo'lmoq** – oyoq ostida ezilmoq, bosilmoq, toptalmoq; payhon bo'lmoq. *Payhon bo'lgan ekinlar.*

**Poymol qilmoq** (yoki **etmoq**) – 1) oyoq ostiga olib ezmoq, bosmoq, toptamoq; payhon qilmoq. *Ekinzorni poymol qilma;* 2) *ko'chma.* Oyog'osti qilmoq, barbod qilmoq, yo'qqa chiqarmoq; tahqirlamoq.

**Poynak** [f. – «past, ostki qism» s. dan] – 1. Tuxumning to‘mtiq tomoni, keti. *Qarg‘a tuxumining poynak tomonida oqsil tuxum po‘chog‘iga yetmaydi.* («Zoologiya»).

2 *maxs.* Pichoq, xanjar, qilich va sh.k. asboblarning qinining uchiga kiygizib qo‘yiladigan, qinni teshilishdan saqlaydigan metall uchlik. *Mis poynak. Poynagi tuproqqa beozor, sassiz sanchildi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**Poynov** [f. – novning, suv yo‘lining oxiri, adog‘i] – ariq, hovuz va sh.k. ning ortiqcha suvi oqib chiqib ketadigan tomoni, etagi. *Suv egatlarda oqmoqda, qaqragan tuproqqa singib, egatning poynoviga tomon asta yo‘l olmoqda.* (H. No‘mon, «Fasllar»). *Opasi qo‘ltiqtag‘ini ostiga qo‘ygani holda hovuzning poynovi tomonda o‘ltirar va qurumli qo‘llarini latta bilan sekin-asta ishqar edi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

**Poynov ariq** – *shv.* Ortiqcha suv oqib chiqib ketadigan ariq, oqova ariq. *Yangi usul besh tarmoq va poynov ariqlarini yo‘qotish, shu orqali ekin maydonini ko‘paytirishga imkon beradi.* (Gazetadan).

**Pocha aylanasi** – hayvonlarning oldingi oyoq asosi, baqay bilan kaft oralig‘i.

**Praktikum** [*yun. praktikos* – faol, ishchan] – asosan oliy o‘quv yurtida biror o‘quv fani bo‘yicha o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar majmui. *Kimyo praktikasi. Praktikum rahbari.*

**Preferensiya** (*lot. praefereantia* – afzal ko‘rman) – biror bir faoliyat turini qo‘llab-quvvatlash uchun ayrim davlatlar, korxonalar, tashkilotlarga beriladigan afzalliklar, imtiyozlar. Soliqlarni kamaytirish, bojxona bojlaridan tashlamalar, to‘lovlardan ozod qilish, imtiyozli kreditlar taqdim etish shakllarida amalga oshiriladi. Preferensiya davlat tomonidan beriladi va aniq manzilli xarakterga ega bo‘ladi.

**Prekos qo‘y zoti** (*fransuzcha pre-coce* – erta, tez yetiladigan) – go‘sht-jun yo‘nalishidagi mayin junli qo‘y zoti. XIX asr o‘rtalari (1860-yil)da Fransiyada rambulye merinos qo‘ylarini Angliyaning go‘shtdor leyster zotli qo‘chqorlari bilan chatishtirib chiqarilgan. Unda go‘shtdorlik, tez yetilish, yuqori sifatli jun berish xususiyatlari yaxshi uyg‘unlashgan. Jussasi yirik, mustahkam konstitutsiyaga ega, suyaklari yaxshi rivojlangan, bo‘yin va tanasida teri burmalari yo‘q. Qo‘chqorlarining og‘irligi 110–115 (160) kg gacha, sovliqlarini 55–60 (110) kg gacha. Qo‘chqorlaridan 8–10 (14) kg gacha, sovliqlaridan 3,8–4,2 (10) kg gacha jun olinadi. Junining uz. 8–9 sm, tolasi-ning ingichkalik sifati 60–64, toza jun chiqimi 45–50%. Pushtdorligi 125–135% (100 ona qo‘ydan 130–150 tagacha qo‘zi olinadi). O‘rtacha sutkalik vazn ortishi 220 g gacha. Zotning yaratilish zonasi mo‘tadil iqlim hisoblanadi. Ular asosan o‘rmon-dasht va o‘rmon zonalarida yetishtiriladi, qurg‘oqchilik mintaqalarida urchitib ko‘paytirishga moslashmagan. Prekos qo‘ylari tez yetiladi, boqish va saqlash sharoitlariga talabchan. Prekos zotli qo‘ylar 20 dan ortiq yangi (qozoq, qirg‘iz mayin junli, qozoq arxar merinosi, degress va oloy) qo‘y zotlarini ko‘paytirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

**Premiks** – biologik aktiv moddalarning mikrobiologik va kimyoviy sintezi aralashmasi, omuxta yemlarning to‘yimlilikini oshirish va ularning hayvonlar organizmiga biologik ta‘sirini yaxshilash uchun ishlatiladi.

**Preparat** [*lot. praeparatus* – tayyorlangan] – 1 *kim.* Laboratoriya yoki fabrikada tayyorlangan kimyoviy yoki farmatsevtik mahsulot. Dori-darmon pre-

paratlari. *Eshitish hissiyoti sust bo'lgan, eshakyem kasalligiga moyil, qon ivish past bo'lgan kishilar uchun ham aspirin preparati salbiy ta'sir ko'rsatadi.* (Gazetadan). *Yangi preparat qo'llanganida, teri toza bo'la boshlaydi.* (Gazetadan).

**2.** Jonivor yoki o'simlik organizmining anatomik, gistologik va b. jihatdan o'rganish jarayonida kuzatish yoki tekshirish uchun tayyorlangan qismi. *Anatomik preparat. Baqa yuragining preparati. Preparatlar ko'rgazmasi.*

**Prepotensiya** – hayvonlarning o'z sifat va belgilarini barqaror holda nasldan naslga o'tkazish qobiliyati.

**Preyskurant** [*nem. Preiskurant < fr. prixcourant < fr. prix – narx, baho + courant – joriy, hozirgi kundagi*] – *iqd.* To'varlar, turli xizmatlar va mahsulotlarning tizimlashtirilgan narxlar ro'yxati; narxlar haqida ma'lumotnoma; narxnoma.

**Prezentatsiya** [*lot. praesatio – taqdim etish, ko'rsatish*] – biror yangi, yaqinda paydo bo'lgan, yaratilgan narsa (mas., kitob, jurnal, kinofilm, teledastur, tashkilot va sh.k.)ning jamoatchilikka rasman taqdim etilishi. *Ko'p o'tmay Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori ham chiqdi. Yaqinda esa xuddi shu jamg'armaning prezentatsiyasi bo'lib o'tdi.* (Gazetadan).

**Pribor** [*r. pribor – asbob, moslama*] – **1.** Biror ishni bajarish, boshqarish, tartibga solish, hisoblash uchun ishlatiladigan maxsus moslama, apparat, asbob. *O'lchash pribori. Optik pribor. Isitish pribori. Paxta tolasi sifatini aniqlaydigan pribor ham yaratildi.* (Gazetadan). *Sezgir priborlar yer bag'rining holatiga tun-u kun quloq solib turadi.* (Gazetadan).

**2.** Ma'lum bir ish yoki maqsad uchun qo'llanadigan narsalar majmui. *Yozuv pribori.*

**Primitiv** [*lot. primitivus – birinchi, ilk, dastlabki, eng avvalgi*] – **1.** Zamona-viy talablarga javob bermaydigan, juda sodda, ibtidoiy. *Primitiv asbob.*

**2.** Ilmga asoslanmagan; oddiy, sodda. Primitiv qarashlar. *Ota-bobolarimizdan qolgan primitiv metodlardan allaqachon voz kechganmiz.* (S.Ahmad, «Yulduz»).

**Pritsep** [*r. pritsepit – «tirkamoq, ulamoq» fl. dan*] – o'ziyurar transport vositalariga tirkalgan arava (motorsiz vagon, platforma); traktorga tirkalgan mashina, qurol. *Paxtani pritseplar bilan tashimoq. U xuddi yuk mashinasininig orqasiga tirkov qilib qo'yilgan pritsepdek gap.* (S.Ahmad, «Yulduz»).

**Privatizatsiya** [*lot. privatus – xususiy, ayrim shaxsga tegishli yoki aloqador*] – *iqd.* Davlat yoki mahalliy boshqaruvga tegishli mol-mulk (yer maydoni, sanoat korxonasi, bank, transport yoki aloqa vositalari, bino, uy-joy va sh.k.)ni pulga yoki tekin xususiy mulk qilib berish; xususiy lashtirish. *Privatizatsiya sharoitga qarab pulli, bepul yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi.* («Iqtisodiyot nazariyasi»).

**Propolis** [*yun. propolis < pro – oldida + polis – shahar*] – asalarilar ajratadigan yelimsimon, smolali xushbo'y modda (tibbiyot va farmatsevtikada qo'llaniladi).

**Proteksionizm** (*lot. protection – panalash, homiylik*) – davlatning ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilish va tovar ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorga chiqishini rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosati.

**Pud** [*r. pud – 16,38 kg ga teng og'irlik o'lchov birligi < lot. pondus – og'irlik, o'lchov*] – *esk.* Metrik o'lchovlar tizimi qabul qilinganiga qadar qo'llangan, 16,38 kg ga teng og'irlik o'lchov birligi. Bir tonna – salkam 63 pud. [*Kam-*

pir:] *Dastmoyam bir pud un edi, tunov kun birdan yigirma besh qadoqqa tushib goldi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Birinchi yil gektaridan yuz pud oldik, Er-u xotin mehnat haqin qopga soldik.* (G'. G'ulom, «Tanlangan asarlar»). *Bir yarim pud go'shtning a'zolar rizoliklari bilan bir pudini Mulla Obidga va yarim pudini Mardonboyga orttirib beradilar.* (A.Qodiriy, «Kichik asarlar»).

**Pul I** [f. – pul, aqcha; baliq tangasi] – 1. Oldi-sotdi yoki to'lov muomalalarida narx, baho, qiymat o'lchovi bo'lgan metall yoki qog'oz belgi; aqcha. *Qog'oz pul. Tanga pul. Naqd pul. Pul maydaloq. Pul bo'lsa, changalda sho'rva.* (Maqol). *Sidiqjon kechki payt ko'chaga chiqmoqchi bo'lgan edi, Anzirat xola, uning puli yo'qligini bilganday, soch oldirgani pul berdi.* (A.Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari») *Yo'lkiraga pulimiz, piyoda qaytishga ilojimiz bo'lmaganidan qolib ketdik.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o»). [Sanavbar Xayrinisoga:] *Sizga ham gapiraman, pul uchun imoni va qizini sotadigan otamga ham gapiraveraman.* (Hamza, «Tuhmatchilar jazosi»).

2. Sarmoya, mablag'.

3 s.t. Ish haqi; maosh. *Qorovul puli. Bugun pul oladigan kunimiz.*

**Purkagich** – o'simliklarga suv va suyuq moddalar purkash uchun ishlatiladigan moslama, asbob. *Purkagich bilan ekin maydoniga dori sepmoq. Mavsum muvaffaqiyatini ta'minlash uchun aniq tadbirlar ishlab chiqilgan. Purkagichlar, terim mashinalari, transport vositalari sozlanib, start kutib turibdi.* (Gazetadan).

**Purkagichlar** – o'simlik zararkunandalari va kasalliklariga, begona o'tlarga qarshi kurashishda, *defoliatsiya* va *dezinfeksiya* tadbirlarida kimyoviy moddalarni purkaydigan mashina yoki apparatlar.

**Purkamoq** – 1. Suv yoki boshqa suyuq narsani kuch bilan zarralarga aylantirib sochmoq. *Viltga qarshi dori purkamoq.* [Chol] *Teriga suv purkaydi va ko'va bilan do'q-do'q urib, charmni tekislaydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Birov qanotlaringizning tagiga suv purkab qo'yganmi deyman, davraga tusholmay, mirg'ayib turibsiz.* («Askiya»).

2 ko'chma., poet. Sochmoq, taratmoq.

**Purkash** – q.x. ekinlarni hamda o'rmonzorlarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishda maxsus purkagichlar bilan pestitsid eritmalarini sepish; *defoliatsiya* va *desikatsiya* qilish usullari.

**Pushta** [f. – bog', bog'lam; tepacha, do'ngcha; tuproq devor, g'ov; marza] – 1 q.x. Yonma-yon jo'yaklar orasidagi, odatda, qator qilib ekin ekiladigan uzun yer bo'lagi, ekin palak otishi uchun qoldirilgan bo'sh joy. *Qovun pushtasi. Bir-ikki qadam yurgandan keyin esa, birdan pomidor pushtasida kundaday g'o'dayib turgan eriga bir qaradi-yu, yurishiniyam, yurmasiniyam bilmay qoldi.* (A.Ko'chimov, «Halqa»). *Qiz qoshiqday qora tuflisining uchi bilan egat pushtasini shibbaladi.* (S.Nurov, «Maysalarni ayoz urnaydi»).

2. Ikki tog' qatori orasidagi yoki ishkom o'rtasidagi bo'sh joy. *Bog'da sak-kiz uzun ishkom, hammasining poyalari yaxshi ishlangan, pushtalari chopilgan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Pushta** – ikki egat (jo'yak), ariq orasida ekinlarning barg-novdalari o'sishi, palak otishi uchun bo'sh qoldiriladigan marzasimon joy, tuproqning qiyalanib tekislangan sathi. Qishloq xo'jalik ekinlarini ekishda pushta marzaolgich yoki tirka-ma kultivatorlarda, kichik maydonlarda ketmon bilan olinadi.

**Pushtan** – egarning ot qornidan aylantirib o'tkazib bog'lab qo'yiladigan tasmasi; qorinbog'. *Boz ustidan tortadi, yaraqlatib tilla pushtanni.* («Nurali».) *Bir yondan xazinachi bo'lgan qirq yigitning biri tilla egar pushtanlar, tilla uzangilarni hozir qildi.* («Go'ro'g'lining tug'ilishi»).

**Pushti katarantus (pushti bo'rigul)** [*catharanthus roseus (L.) g. don. (vinca rosea L.)*] – kendir-doshlar (*Arosunaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–50 sm ga yetadigan doim yashil buta. Vatani Janubi-sharqiy Osiyoning tropik viloyatlarida bir yillik o'simlik sifatida o'stiriladi. Tibbiyotda *mevasi, bargi* yoki *yer ustki qismi* ishlatiladi. Mevasi tarkibida organik kislotalar (xin, limon, oz miqdorda benzoat), qandlar, vitamin S, vaksinin glikozidi, pektin, bo'yoq va b. moddalar bor. *Mevasining ekstrakti* isitma kasalliklarida hamda avitaminozlarda beriladigan nordon ichimlik tarkibiga kiradi. Tibbiyotda klyukvaning yana bir turi – **mayda mevali klyukva** (K. melkoplodnaya – *O. mierocarpus Furcz. et Rupr.*)ning *mevasi* ham yuqoridagi maqsadlarda qo'llaniladi.

**Pushti rodiola** (*rhodiola rosea L.*) – semizakdoshlar (*Crassulaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–50 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Tundraning tekislik va tog'li joylarida, Sibir, Oltoy va Tyanshan tog'larida (50–2500 m balandliklarda) hamda Uzoq Sharqda o'sadi. Tibbiyotda ildizi ishlatiladi. Tarkibida rodiolozid (salidrozd) glikozidi, efir moyi, flavonoidlar, organik kislotalar, vitamin S va RR, kumarinlar, ko'p miqdorda oshlovchi va b. moddalar bor. Suyuq ekstrakti asab buzilganida,

organizm jismonan toliqib qolganda uning quvvatini oshiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

**Pyure** [*fr. ruree-rurer* – tozalamoq – *lot. rurus* – toza] – mevalar yoki qaynatib pishirilgan sabzavotlarni qirg'ichdan o'tkazib yoki ezib, iylab tayyorlanadigan yegulik, qayla.

**Po'kak** – 1. Qoraqayinlar oilasiga mansub doim yashil bir turli daraxt (po'kak dubi)ning po'stlog'idan tayyorlanadigan yengil material. *Po'kakning yengillik, shovqin va issiqlikni o'tkazmaslik xususiyatlari. Po'kak qurilish materiallarining eng yengili hisoblanadi.* («Fan va turmush»).

**Po'la** [*f.* – shikastlangan, ezilgan] – zarb yeb yoki pishib o'tib ketib, ichi tushgan, ichi bo'sh. *Po'la qovun. Qovunning yomoni – po'la, Xeshning yomoni bo'la.* («Folklor»).

**Po'panak** – 1 *bot.* Zax yerlarni qoplab o'sadigan yashil rang zamburug' yoki yo'sin. *Po'panako't zamburug' va suv o'simligining bir-biridan foydalanib, birga yashashidan vujudga kelgan ko'k mog'orsimon o'simlik. Hovuzning chetlarini har xil po'panako'tlar bosib ketgan.* (G'. G'ulom, «Shum bola»). *Iliq po'panako'tga yuzimni bosib yotardim, birdan shamollagan odam tovushiday xirqiroq tovushlar eshitildi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»). 2 *shv. Mog'or.*

**Po'panak bosgan** 1. Po'panak bilan qoplangan, mog'orlagan. 2 *ko'chma.* Ishlatilmasdan uzoq turib qolgan, chang bosgan. *Uch tonna kunjara nega omborda po'panak bosib yotadi?* (I. Rahim, «Zangori kema kapitani»).

**Po'st** [*f.* – teri, qobiq, po'choq; po'stloq; qo'y terisi] – 1. Meva, sabza-

vot yoki don sirtini o'rab turuvchi qatlam, yupqa po'choq. *Olmaning po'sti. Eri sumkani ochib, olib kelgan mevalaridan boshqa bemorlarga ulashdi-da, apelsin po'stini archib, xotiniga tutdi.* (S. Zunnunova, «Ko'k chiroqlar»). *Do'stlar biroz so'ligan bananlarning oltinsimon po'stini archib, non bilan yeya boshladilar.* (Oybek, «Nur qidirib»).

2. Odam va jonivorlarning tanasini qoplab turuvchi yupqa to'qima, teri ustidagi yupqa parda. *Uncha-muncha gap menga yuqmaydi-da. Chunki terim po'st tashlayverib, charmga aylanib ketgan.* (M. Ibrohimov, «Egasini topmagan mak-tub»). *Nusratbek xolaning oftobda qora-yib, po'sti cho'kkan mushtdakkina yuzi, peshonasidagi ajinlarga razm soldi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

3. Teri. *Oq po'st odam. O'rta bo'y, oq po'st, qora ko'z, soddatabiat bir xotin bo'lib, To'laxonning onasidir.* (Hamza, «Paranji sirlari»).

4 *geogr.* Yer qobig'i. *Yer po'stida kislorod, kremniy, magniy elementlari ko'p uchraydi.* («Fan va turmush»).

5 *anat.* Miya yarimsharlarining qobig'i.

**Po'stak** – so'yilgan echki, qo'ylarining ho'l terisiga maxsus ishlov berilib tayyorlanadigan, odamlar yotishi uchun mo'ljallangan uy-ro'zg'or buyumi. Qishda junli tomoni, yozda esa ichki qismidan foydalaniladi. *Biz ham ola po'stak, asal po'staklarni ko'rib qoldik.*

**Po'stdumba** [po'st + dumba] – qo'y dumbasining alohida ajratib olib pishirib yeyiladigan yog'li terisi, ya'ni so'yilgan qo'y dumbasining tag qismini terisi bilan shilib olingan mahsulot. Uni qaynoq suvda ivitib, yungini (junini) tozalab tayyorlangan mahsulotga po'stdumba deyiladi. *Po'stdumba solingan shavla. Mamadali*

*ham buvasiga o'xshab palovni yaxshi ko'radi. Ayniqsa, po'stdumba solinganini.* (O'. Umarbekov, «Boboyong'oq»). *Qazi, po'stdumba, sirkalangan va tuzlangan sabzavotlar esa qish oylarida tanovul qilinadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Po'stin** – katta yoshli va 6 oydan katta bo'lgan yosh qo'ylardan olingan teri. Qo'y terisi uch turga bo'linadi: mo'ynali, charm va po'stin. Mo'ynali qo'y terilari, yarim mayin junli, mayin junli, dag'al junli qo'ylardan, ayrim hollarda esa yarim dag'al junli qo'ylardan olinadi. Ko'pgina hollarda ular telpaklar, paltolar (shuba), yoqalar tikish uchun hamda qishki poyabzallar, qo'lqoplar uchun ham ishlatiladi; dublenka, (po'stin).

**Po'stloq** – o'simlikning tanasini, novda va ildizlarini qoplab turgan qismi; po'st, qobiq. Tol novdasining yosh po'stlog'i. *Terak po'stlog'i. Zig'irpoya po'stlog'i. O'choqdagi kul changidi, chaylaning tomiga osilgan tol po'stlog'i shitirlab tebrana boshladi.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»). *Qoraqand mevasi bilan chinor po'stlog'idan tayyorlangan sharbat ham qandli diabetni davolashda yaxshi vosita ekan.* («Fan va turmush»).

**Po'stloqlar** (*cortices*) – dorivor o'simliklar mahsuloti. Daraxt va butalarning poyasi (tanasi), shoxlari hamda ildizlaridan erta bahorda o'simlik tanasida suv yugurgan davrda shilib olinadi va ochiq havoda quritiladi. Farmatsevtikada po'stloqlardan dori shakllari tayyorlanadi yoki sof holda dori moddalar olinadi.

**Po'choq** – 1. Meva, sabzavot, danna va sh.k. ning ustini qoplab, uni

tashqi ta'sirdan himoya qiluvchi qattiq qobig'i, qalin va zich po'st. Tarvuzning po'chog'i. *Kartoshka po'chog'i. Tuxum po'chog'i. Yong'oq po'chog'i. G'o'za po'chog'i. Sidiqjon akam tuproq tashiy qolsinlar, o'zim yaxshi oshqovoq po'choqqa uzun ip bog'lab beraman.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

2. Meva, sabzavot qoldig'i, chiqindi. *Qo'yga po'choq bermoq. Po'choq yig'ishtirmoq. Ketish oldidan Ahmad yerga tushgan handalak urug'i va*

*po'choqlarini bittalab terdirdi, daryoga tashlattirdi.* («Yoshlik»).

**Po'choq pul** s.t. Qiymati tushib ketgan, qadrsizlangan pul. **Po'choqcha** yoki **pista po'choqcha ko'chma**, s.t. Zig'ircha, ozgina, qittay. *Rais Jamolning gapini po'choqcha fahmlamaganini bildirdi.* (E. Usmonov, «Yolqin»). [Nor:] *Bug'doydanmi? [Kumush:] Nimadan bo'lsa ochib gapiravering! Yuragim shu to'g'rida pista po'choqcha andisha qilmaydi.* (Hamza, «Tanlangan asarlar»).

## Q

**Qadamoq** – 1. Tiramoq, taqamoq. *Taxtaning bir uchini devorga qadamoq. – Bu yashamay o'lgurning o'zi yomon, – dedi ona mushtini yerga qadab.* (A. Qahhor, «Sarob»). [Bektemir] *Ikkita tankni ko'rdi, biri qiyshaygan, ikkinchisi esa tumshug'ini yerga qadagan.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

2. Sanchmoq, suqmoq. *Xanjar qadamoq. Pichoqchanning uchini kanserva bankasiga qadab, bezakdor sopi ustidan kafti bilan ura boshladi.* (N. Aminov «Suvarak»).

3 *ko'chma.* Ekmoq, tikmoq [Bo'ta-boy] *Shudgorni kesib, chigit qadayotganlar oldiga bordi.* (S. Ahmad, «Hukm»).

**Qadoq I** – qiymat jihatdan 1 funtga teng bo'lgan qadimgi og'irlik o'lchov birligi (1 funt = 409,512 g.). *Bir qadoq choy. Afandi ishonmay, mushugini tortib ko'rsa, to'rt qadoq chiqibdi.* («Latifalar»).

**Qadoqlamoq** – og'irlikni qadoq bilan o'lchamoq, tortmoq. *Qadoqlab bozordan meva olib, sanab yeb, yozni o'tkazasizlar.* (Shuhrat, «Jannat qidirganlar»).

**Qahat** – topilmaydigan, yo'q holat. *Bir kaft don-dun ekishga ham qurbim yetmadi, yer ori, go'ng ham qahat.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»). *Nahot shuncha qattiq tabiat qahri, Nahotki iloj yo'q, bir chora qahat.* (S. Zunnunova). *Bu yerda hatto paypoq, noski ham qahat ekan.* (Gazetadan).

**Qahatchilik** – urush yoki biror tabiiy ofat natijasida yoki ekin-tikin bitmay qolganligi sababli kundalik ehtiyojlarga zarur narsalarning topilmasligi, topilishi juda qiyin bo'lgan holat. *Narh-navo ko'tarilib ketdi. Qimmatchilik hademay pulga non topilmaydigan qahatchilikka aylanadi.* (A. Qahhor, «O'tmishdan ertaklar»). *G'alla kamayib, paxta maydonlari qisqarib, chorva turli ofatlarga uchrab, yurtda ocharchilik va qahatchilik boshlandi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Qahva** [a. – kofe daraxti va mevasi; kofe] – ayn. **kofe 1–3.** *Qahva maydonlari. Bir stakan qahva. Qahva ichmoq. Xizmatchi qahva keltirdi, Anvar Murod dasturxonga mehmonlarni undadi.* (Oybek, «Nur qidirib»).



**Qalampir** – ayn. **Garimdori**. *Ach-chiq qalampir. Tuyilgan qalampir.*

**Qalampirgul** – xushbo‘y guli bir yillik o‘tsimon bog‘ o‘simligi va uning guli.

**Qalampirmunchoq** – bir turli tropik doim yashil daraxt va uning dorivor va ziravor sifatida ishlatiladigan shonasi. *Qandaydir sirli, g‘oyibona kuch meni qalampirmunchoq hidi anqib turadigan o‘sha qadrdon go‘shaga chorlayveradi.* («Saodat»). *Har qanday yaraga dori bo‘lgan balzam moy, qalampirmunchoq, tomirdori – qo‘ying-chi, hamma narsa bor.* (G‘. G‘ulom, «Shum bola»).

**Qalamcha** – 1. Kichkina qalam; qoldiq qalam.

2 *q.x.* Payvandlash yoki ko‘kartirib ko‘chat qilish uchun kesib olingan novdacha. *Anor, uzum, tol, terak, atirgul kabilarni qalamchadan ko‘paytirish mumkin. Olimlarimizning bergan ma‘lumotlariga qaraganda, limonni ekib, qalamcha qilib ko‘paytiriladi.* (Gazetadan).

**Qalmiq qoramol zoti** – go‘sht yo‘nalishidagi zoti XVII asrda G‘arbiy Mo‘g‘ulistondan Qalmig‘istonga kelgan mahalliy qoramollarni yaxshilash natijasida yaratilgan. Rangi qizil, ba‘zan oq yoki qizil-oq belgili. Qalmiq qoramollari yozi issiq, quruq, qishi sovuq bo‘lgan keskin kontinental iqlimga moslashgan, qishki yaylovlardan unumli foydalanadi. Voyaga yetgan sigirlarning vazni 600 kg gacha, buqalar – 900 kg gacha. 18 oyli-gida buqalarning vazni 450–550 kg ga yetadi. So‘yish chiqimi 57–62%. Yosh hayvonlarning go‘shiti sifati yaxshi va a‘lo darajada.

**Qambar** – qorako‘l qo‘zilarining har tUSDagi jigarrangi.

**Qamich** – *s.t.* **Qamish.**

**Qamish** – boshqodoshlarga mansub, suvda, botqoqlikda, to‘qayzorda o‘sadigan, bo‘g‘im-bo‘g‘im uzun poyali o‘simlik; shu o‘simlikning o‘rilgan poyasi va uning cho‘pi. *Qamish o‘rmoq. Qamishdan bo‘yra to‘qimoq. Ular qamishlarni shildiratib, suvga yaqin kelganlarida, o‘zlari ham balchiqqa botib keta boshlashdi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»). *Uch tomoni qamish bilan o‘ralgan hovliga avval Sidiqjon kirgan edi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).

**Qamishzor** – qamish o‘sadigan (o‘sgan) joy, to‘qay, to‘qayzor. *U shaloplatib suv olar ekan, qamishzorlarning narigi chetidan qaqag‘lagan tovush eshitildi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**Qamishquloq** – quloqlari uzun va chimirlab, dikkayib turadigan (ot haqida).

**Qamchi** – ot-ulovni urib, yurishga undash, tezlatish uchun ishlatiladigan dastali, ko‘pincha qamish tasma shaklidagi asbob. *O‘rta qamchi. Ot o‘ynatadigan uzun qamchi. Rais otiga qamchi urib, idora tomon ketdi.* (Oydin, «Yuragida o‘ti bor»). *U har zamonda qamchisini ko‘tarib qo‘yadi, ot esa, sag‘risiga qamchi tushuvini kutmasdan olg‘a intilar edi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Qamchin** – *q. qamchi.* *Boshqasi bo‘lsa, qamchin bilan solar edim, lekin soqoling oqini hurmat qildim.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *O‘rmonjon to‘qayga kirib ketgan tuproqtepani qamchinining sopi bilan ko‘rsatib: – Kanal, – dedi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).

**Qamg‘oq** – sharsimon yumaloq o‘sadigan, urug‘i pishganda, ildiz bo‘g‘zidan uzilib, shamol bilan uzoq-uzoqlarga dumalab ketadigan mayda tikanli cho‘l o‘simligi; sho‘rak. *Yantoq o‘zini bog‘ biladi, Qamg‘oq o‘zini tog‘ biladi.* (Maqol).

**Qandak** [a. + f. – olmaning shirin turi] – 1. *O'rik, jiyda kabi so'zlarga qo'shilib, ularning u qadar bo'lmaydigan, kam suv, ammo sershira navini bildiradi. Bolaginamning bolasi – qandak o'rikning donasi.* (Maqol). *Og'izlariga bittadan qandak jiyda solgach, suhbat yana qizib ketdi.* (H. Shams, «Dushman»). *Stolning usti oq-sariq mayiz, qandak o'rik, bargaklarga to'lib ketdi.* (M. Muhamedov, «Qahramon izidan»).

2. Xalq seleksiyasida chiqarilgan mahalliy ertapishar o'rik navi.

**Qandalalar** – qon so'ruvchi hasharotlar turkumi. *Qandala qon so'rgan vaqtda kishini qattiq bezovta qiladi.* («Fan va turmush»).

**Qandalalar**, *asl yarim qattiq qanotlilar (Hemiptera, Heteroptera)* – chala o'zgarish (metamorfoz) bilan rivojlanadigan hasharotlar turkumi. 40 mingga yaqin turi ma'lum. O'zbekistonning sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida qandalalarning 13 zararkunanda turi, ayniqsa, beda qandalasi, dala qandalasi katta zarar keltiradi.

**Qandog'och** – oq qayinlar oilasiga mansub bo'lgan bargli daraxt yoki buta.

**Qandil** – olma navlaridan birining nomi. *Qandil, simirenko olmalar serhosiligidan ko'zingiz quvonib, dilingiz ravshan bo'ladi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Qandim** – qumda o'sadigan buta, o'simlik. *Ular kun yoyilgan bir paytda qandim butalari bilan qoplangan qushtepadon yonlab o'tayotib, bir o'tov va bir chaylaga duch kelishdi.* (S. Anorboyev, «Mehr»).

**Qanji(r)g'a** – yuk va b. narsa bog'lash uchun egar orqasiga mahkamlangan tasma, bog'ich yoki ilgak. *Yaxshi ham chol shaharga o'rganmagan itni ada-*

*shib ketishidan qo'rqib, eshakning qanjig'asiga bog'lab olgan ekan, bo'lmasa, pok titig'imni chiqarar ekan.* (G. G'ulom, «Shum bola»).

**Qanor, qanor qop** – katta qop. *Mahkam to'lib ketgan etagini qanorga bo'shatib keldi.* (P. Qodirov, «Uchildiz»). *Katta qanor qoplarga tiqib solingan paxtalar aravalarda o'rlab yotardi.* (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o.»).

**Qanot** – qush va hasharotlarning uchish a'zosi. *G'ozning qanoti. Qaldirg'ochning qanoti. Kapalakning qanoti. Pashshaning qanoti. Qush qanoti bilan uchib, quyrug'i bilan qo'nar.* (Maqol). *Marg'ilon va Qo'qonga uchadigan maxsus kabutar keltirildi. Naycha qilingan qisqa xatlar ularning qanotlari tagiga mahkamlanadi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»). *Nozik rang-barang parvonalar, kapalaklar lampa atrofida aylanar, guldor qanotlarini shishaga urib tipirchilar, gilamga yengilgina qulab, tinar edilar.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Qanot qoqmoq (yoki silkimoq)** – 1) takror holda qanotlarini ko'tarib, yoniga urmoq. *Tom orqasida xo'roz qanot qoqib, qichqirdi.* (A. Qahhor, «Anor»); 2) qanotlarini silkitib uchmoq, qanotlarini silkigan holda parvoz qilmoq. *Shiyponning atrofidagi gulzorda rang-barang kapalaklar, ninachilar qanot qoqar, asalarilar g'o'ng'illar, allaqayerda g'urrak g'urullar edi.* (A. Qahhor, «Kartina»). *Undan nariroqda qora kalxat o'z san'atini namoyon qilayotganday, qanot silkimay, bir tekis suzib yuribdi.* (N. Fozilov, «Diydor»).

**Qantarmoq** – 1. Ovqatga, yemxashakka yeta olmaydigan qilib, arqonni kalta bog'lamoq (asosan, ot haqida). *Otryad otdan tushdi, har kim o'z otini*

*u yerdagi daraxtlar shoxiga qantarib bog'ladi.* (S. Ayniy, «Qullar»). [*Qudalar*] *Kelib tushdi deguncha, bo'g'izlatish uchun deb bir g'o'non qo'yni og'ilning ustuniga qantarib qo'ygan edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. *Oziq-ovqat, suv bermay surib qo'ymoq, ovqatdan, suvdan qismoq, och qoldirmoq. Bizni ishga yubormay, ochlikda qantaradilar, – dedi Tursun.* (A. Rahmat, «Brest qahramoni»).

3 *ko'chma, s.t. Ishlatmay bekor, bo'sh qoldirmoq; foydalanmay dam berib qo'ymoq. – Nega universalni qantarib qo'yding, Sodiq? – dedi Komiljon shotut tagida o'tirgan universalchiga qarab.* (I. Rahim, «Ixlos»). *Qantarib qo'yilgan mashinalar ishga tushdi.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol»).

**Qaqanoq** – qo'y yoki echkinging og'iz sutidan pishirilgan ovqat. [*Jon-gul*] *Yigitga har gal yaylovdan qaytganida, albatta, yog'och kosada qatiq, qo'y sutidan yasalgan qaqanoq yoki ivitilgan qurut olib chiqar edi.* (O. Husanov, «Hayot ishq»). *Onasi echkinging yangi sutidan qaqanoq qilib berardi.* (N. Qobil, «Bug'doy pishig'iga yetmaganlar»).

**Qaqas** – *shv.* Kishilardan yoki kishilar yashaydigan uzoq, chekka yer; ovloq. *Qaqas joyda uchrashmoq. Lo'lilar kolxozga a'zo bo'lib kirishga qaror berganlarida, birinchi shart qilib, qishloqdan qaqasroq yerni talab qilgan edilar.* (N. Safarov, «Lo'lilar»).

**Qaqir** – suvsiz, qaqrab yotgan qoq yer, qaqroq joy. *Bo'z yerlarga suv chiqadi, qishloq atrofi qaqir, bo'z yerlar ko'kalmazor, ekinzor bo'ladi.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o.»). *Tashnalab yotgan qaqir cho'llarni hosildor etib, bog'-u*

*bo'ston-u ekinzor etgali imkon suv.* (Habibiy).

**Qaqramoq** – qochib yoki suvsizlikdan, tashnalikdan qurib qolmoq; quruqshamoq. *Qaqragan cho'l. Tomog'im qaqrab ketyapti. Bemorning lablari qaqradi. Kimsasiz cho'l. Quyoshning jazirama issig'idan hammayoq qaqrab ketgan.* (Gazetadan).

**Qaqroq** – qaqragan, qaqir. *Qaqroq cho'llar. Qaqroq lablar. Hammayoq qum, qizib, yonib yotgan qaqroq qum.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t. o.»).

**Qarabet** – sariq, qizil rangdagi qo'ylar nomi. *Aka, qarabetingiz necha pul bo'ldi?*

**Qaratqi** – *shv.* **Qo'riqchi** (ekinlarga zarar yetkazuvchi jonivorlarni qo'rqitish, haydash uchun, ba'zan kishilarni chalg'itish, aldash maqsadida). *Nazarhoji qaratqi mindirilgan otlarni baland tepalikda qoldirib, o'zi jang maydoniga keladi.* (E. Samandar, «Tangri qudug'i»).

**Qarag'ay, qora qarag'ay** – ignabargli, mayda to'ng'iz yong'og'i bo'ladigan, tik, doimo yashil daraxt. *Qarag'ay yog'och. Qarag'ay taxta. Qopchig'ining og'zini ochib, xatlarni qarag'ay tagiga ag'dardi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Akang qarag'ay** *s.t.* O'z yoki o'zga shaxsini bo'rttirib ko'rsatish, yuqorilash uchun ishlatiladigan ibora. *Akang qarag'ay oshni qiyib yuboraman.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). «*Akang qarag'ay Gulmat*» (A. Obidjon asari).

**Qarag'ayzor** – qarag'aylar bilan band bo'lgan joy, yer. *Aerodrom shu yerdan uch yuz qadamcha narida, qarag'ayzor o'rtasidagi sayhonlikda.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»).

**Qarqara** – bo‘yni, tumshug‘i va oyoqlari uzun, tik qomatli, turnaga o‘xshash, oppoq, chiroyli botqoqlik qushi; qo‘tonlarning bir turi.

**Qarqara bo‘lmoq** – barq urmoq. – *Bu yil xo‘b ishladik, – deydi Xayrixon, – Yashnadi g‘o‘zalar bo‘lib qarqara.* (X. Rasul). *Suv ochilishi tezlashmasa, qarqara bo‘lib o‘sayotgan g‘o‘zalar qurib qolishi aniq.* («O‘zbekiston qo‘riqlari»).

**Qarqunoq** – chumchuqlar turkumiga mansub, tumshug‘i egilgan, hasharot, mayda parranda va hayvonlar bilan oziqlanadigan qush. *Soy yoqasidan yalpiz hidi kelardi, mast bo‘lib qarqunoqlar sayrardi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Bulbullar, zarg‘aldoqlar, qarqunoqlar bog‘larni tashlab qochdi.* (N. Yoqubov, «Jon»).

**Qarg‘ajiyda** – mevasi maydaroq bo‘ladigan yovvoyi jiyda.

**Qariqiz I** – bot. Murakkabguldoshlar oilasiga mansub, zax va soya yerlarda, yo‘l yoqalarida o‘sadigan ikki yillik begona o‘t (xalq tabobatida va chorvachilikda ishlatiladi).

**Qariqiz II** – bot. Qora tusli, bo‘rtma yo‘llari bor, cho‘zinchoqroq, kam etli kuzgi qovun. *Qovun-tarvuz rastasidagi bir sotuvchi xaridorga qariqizni maqtar edi.* (E. Samandar, «Tangri qudug‘i»).

**Qarmoq** – 1. Baliq ovlash uchun ipga bog‘lab, suvga tashlanadigan maxsus ilgak, uchiga shunday ilgakli ip bog‘langan uzun tayoq shaklidagi baliq ovlash asbobi. *Yerni qazimasang, oltin chiqmas, qarmoq solmasang, baliq chiqmas.* (Maqol). *Qodir baliqni qarmoqdan chiqarib, maysa ustiga tashladi.* (E. Usmonov, «Yolqin»).

2 *ko‘chma.* Biror kishi yoki narsani qo‘lga olish, ilintirish uchun ishlatiladigan

vosita, tadbir, makr va sh. k.; tuzoq, dom. *Birovning qarmog‘iga ilinmoq (tushmoq).* *Payg‘amov Nusratbekning boshi aylanib, tili kalovlanayotganini sezdi, qarmoq tashlab ko‘rdi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Qarovsiz** – qaramay, parvarish qilmay, o‘z holiga tashlab qo‘yilgan; boqimsiz, tashlandiq. *Qarovsiz ekin. Qarovsiz yer. U [Ergash] hovli-joyning bu ahvolda qarovsiz yotishiga bir kun ham chidayolmas edi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Qarovsiz uzumlarga yoppasiga kul tushgan edi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Qarovsizlik** – qarovsiz holat, qaramay tashlab qo‘yilganlik. *Makkajo‘xorimiz qarovsizlikdan yozning jazirama issig‘ida qovjirab ketibdi.* («Mushtum».) *Qarovsizlikdan zang bosgan, so‘log‘i o‘ynab yotgan mashinalar.* («Mush-tum».)

**Qarta I** – otning yog‘li yo‘g‘on ichagi va undan maxsus tayyorlangan, ko‘pincha yaxna qilib yeyiladigan taom. *Qazi bilan qarta yedim, qornimda yo‘q.* (Maqol). *Qazi, qarta, sirkalangan va tuzlangan sabzavotlar esa qish oylarida tanavul qilinadi.* (K. Mahmudov, «O‘zbek tansiq taomlari»).

**Qarta II** [r. karta <lot. charta <yun. kartis – papirus bargi, qog‘oz] – 1. Surati yoki xollari bilan bir-biridan farq qiladigan bir to‘p maxsus o‘yin varaqchalari va uning har bir varaqchasi. 36 *varoqli qarta. Qarta o‘yini.*

2 *s.t., q.x.* Yaxlit bir bo‘lak yer yoki ekin maydoni. *Majlisning oxiri shu xildagi g‘o‘zalar ko‘proq bo‘lgan Qambarali aka brigadasining uchinchi qartasiga ko‘chirildi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). *Hali siz kuzni gapirasiz, hozirgisini ayting, uvatini o‘t bosmagan qar-*

*tamiz juda oz.* (N. Safarov, «Jasoratning davomi»).

**Qarchig'ay** – otlarning qarchig'ay balandligi asosan 2–12 ko'krak umurtqalarining o'simtalaridan iborat. Odatda, qarchig'aylar baland, o'rta, past, uzun, qisqa bo'ladi. Tez yuguruvchi otlarning qarchig'ayi baland va uzun bo'lib, egar yaxshi turadi va tez harakatlanganda oldinga siljib ketmaydi.

**Qasirg'a** – kt. Uyurma, quyun. *To'fon, qasirg'ani zo'rimiz yengib, Vahshat g'alayoni topadi osoyish.* (G'. G'ulom). *To'fon, qasirg'alar kechar-ku hali...* (A. Oripov, «Hayrat»).

**Qasmoq** – 1. Ust-boshga o'tirgan qalın kir qatlami, qotirma kir. *Yenglari bir enlik qasmoq. Qasmoq sochiq.*

2. Biror narsaning qotib qolgan ustki qatlami; qatqaloq. *Sho'ri qalın qasmoq bo'lib yotgan bu yer o'tgan yili inson qadami yetmaganday edi.* (Y. Shamsharov, «Oydin ko'llar»).

**Qassob** [a. qo'y-mol so'yuvchi] – mol so'yuvchi, go'sht bilan savdo qiluvchi shaxs. *Chumchug so'ysa ham qassob so'ysin.* (Maqol). *Echkiga – jon qayg'usi, qassobga – yog' qayg'usi* (Maqol). *Hovli chetida qo'l-oyoqlari bog'loqlik qo'y tepasida turgan qassob Me'morga qarab: – Fotiha bering, – dedi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

**Qataloq** – shv. O'qaloq. *Qoya yonbag'riga yoyilib ketadigan echkilarni qariya it azobida qaytarib tushar, qataloq paytida esa halloslaganacha, tili bo'g'iziga tiqilib, adoyi tamom bo'lardi.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»). *Undan keyin tong otguncha tilla kamarli beklar qorovul bo'lib, qataloq bo'lgan ho'kizday chopib yotar edi.* («Yusuf va Ahmad».)

**Qatra** [a. – tomchi, zarra, tomizg'i (dori)] – 1. Suyuqlikning zarralari tortishuvi natijasida sharcha shaklini olgan alohida kichik bo'lagi; tomchi. *Bir qatrra suv. Qatra goldirmay ichmoq. Ozozdan o'rganib, dono bo'lur, Qatradan ko'payib, daryo bo'lur.* (Maqol). *U ohu ko'zlar Anbar hidli qatralar to'kdi, Yuzda qolib billurni izlar, Chamanlarga olmoslar cho'kdi.* (M. Shayxzoda). *Xirurg stakandan choy ho'plar, uning peshonasida mayda ter qatralari yiltirar edi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

2 ko'chma. Oz miqdor, ozgina, jinday. *Qatra ham uni yo'q ekan, oldimga yarim stakan qatiq qo'ydi.* (O. Husanov, «Cho'lda»).

**Qatiq** – sutdan tomizg'i solib ivitib tayyorlangan parhez mahsulot. *Yangi ivitilgan qatiq. Qatiq to'kilsa, yuqi qolar, ayron to'kilsa, nesi qolar.* (Maqol). *Sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi.* (Maqol). *Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgizolmadi.* (A. Qahhor, «Anor»).

**Qatrongi** – tog'li yerlarda o'sadigan, yog'ochi og'ir, qattiq mevasi yeyishli daraxt yoki buta; tosh daraxt.

**Qatorlab ekish** – qishloq xo'jaligi ekinlarini ekishning asosiy usuli. Bunda urug'lar orasi bir xil kenglikdagi parallel qatorlar tarzida ekiladi.

**Qatqaloq** – kuchli yog'inlar va sug'orishdan so'ng tuproq betida hosil bo'ladigan qattiq qatlam.

**Qavrak** – qir-adirlarda erta bahorda unib chiqadigan o'tsimon ko'p yillik o'simlik va uning yosh paytida yeyiladigan o'zagi. *Har yer-har yerda qavrak o'simligi tanasi boshqa o'simliklardan baland ko'tarilib turadi.* (P. G'ulomov, «Zarafshon etaklarida»).

**Qavsob** [a. + f – qavs suvi] – qavs oyida, ya'ni noyabr oxiri – dekabr boshlarida yerni sug'orish uchun beriladigan suv; qavs suvi. – *U ham, – dedi brigadir, – kuzda shudgor qilingan, qavsob, chillaob berilgan, go'ngli tuproq solingan.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Qayin II** – Shimol tomonda o'sadigan, teraksimon tik, po'sti oq daraxt. *Qarddon dublar, archalar, qayinlar g'amginlik bilan bosh egib, orqada qoldi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Qayin III: qayin anor** – donalari to'q qizil, o'rtacha nordon anor (asosan Farg'ona vodiysida bo'ladi). *Sersuv qayin anorning sharbatlari engagimdan tirqirab oqib ketmoqda.* (G'. G'ulom, «Shum bola»).

**Qayinzor** – qayin daraxtlari bilan band yer, joy, maydon.

**Qaymoq – 1.** Bir necha vaqt turgan, saqlangan sut betida paydo bo'ladigan yoki sutdan separator yordamida yoki boshqa yo'l bilan ajratib olingan quyuuq, yog'li mahsulot. *Quyuuq qaymoq. Yaxshi sutning qaymog'i sermoy bo'ladi. Sutdan qaymoq, qatiq, sariyog' tayyorlanadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Qaymoq bog'lamoq** – 1) betida qaymoq qatlami hosil bo'lmoq; 2) *ko'chma.* Beti qaymoq kabi parda bilan qoplanmoq. *Suv qaymoq bog'labdi (ya'ni yupqa muz bilan qoplanibdi). Murabbo qotib, qaymoq bog'labdi. Qaymoq choy. Qaymoq solingan choy, qaymoqli choy. Shodimat asalga aralashtirilgan sariyoqqa nonni botirib, qaymoq choy bilan rosa tushirdi.* (A. Muhiddin, «Oshnalar»).

**Qaymoqdek yoqdi** – juda ma'qul tushdi, juda yoqdi. *Uning bu so'zlari menga qaymoqdek yoqdi.*

**2 ko'chma.** Kishi yoki narsalarning eng yaxshi qismi, sarasi, asillari. *Yigitlarning qaymog'i frontda... Lekin ish sustlashgani yo'q.* (S. Zunnunova, «Olov»). *Juda soz, – qichqirdi O'sarjon. – So'zning qaymog'i – tanqid!* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**3 ko'chma.** Biror ish, narsa va sh.k. ning natijasi, hosili, xullasi, *Yerning qaymog'i – mehnat qilganniki.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**Qaymog'ini olmoq** – 1) sutning qaymog'ini ajratmoq; 2) *ko'chma.* Natijasini yoki xullasini olmoq. *Bir yillik mehnatimizning qaymog'ini oladigan vaqt keldi.*

**4 s.t.** Suv betiga yalpoq tosh yoki boshqa narsani otganda, uning bir necha bor suv betiga tegishi, shu tegishdan hosil bo'ladigan holat. *Nodir bilan Muzaffar pastroqda kim ko'p «qaymoq» qilish o'ynashardi. Nodir yassiroq tosh olib, suv oqimiga qarata otar, tosh esa suv yuzida sakray-sakray, besh-olti «qaymoq» hosil qilardi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»).

**Qayir** – *shv.* Qovun ekiladigan bo'z yer.

**Qaymoqdon** – qaymoq solingan, solinadigan idish. *Besh tiyinga yarim qaymoqdon qaymoq, ikki tiyinga bitta obinon olib, bir chekkaga cho'nqayib, qaymoq yeya boshladim.* (G'. G'ulom, «Shum bola»).

**Qaymoqlanmoq** – qaymoq bog'lamoq (sut haqida).

**Qaynama – 1.** Katta soy, daryo va sh. k. ning suv uyurmalanib qaynagan-day varaqlab turadigan joyi; girdob. *Amudaryoda tosh yo'q hisob. Ammo girdob-qaynamalar juda-juda ko'p.* (Gazetadan).

**2 maxs.** Ariq suvini yo'l ostidan o'tkazish uchun mo'ljallangan gidro-texnika inshooti. [Suv] *Qaynama-beton*

hovuzchalar orqali yerosti quvurlariga quyilib, dala yoqalab yugura ketdi. (Sh. G'ulomov, «Yorqin ufqlar»). *Qaynama qurishda yog'in suvlari ham hisobga olinadi.* («O'zME».)

**Qayrag'och** – yog'ochi qattiq, shoxlari tig'iz joylashgan, bargi mayda va to'q rangli, qalin soya beradigan, suvsizlikka chidamli daraxt. *Bir bog' jo'xoripoya aravaga o'q bo'lmaydi, lekin bitta qayrag'och bo'ladi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Qurg'oqchilikka chidamli daraxtlardan yana biri, mayda bargli qayrog'ochdir.* (J. Abdullaxonov, «Oriat»). *Tut yog'ochday mevali onam, qayrog'ochday mevali onam.* («Oq olma, qizil olma»). *Yaqindagina ust-boshini tuzatib, qoramtir ko'k tusga kirgan qayrog'och daraxtlari.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon».)

**Qayroq** – kesuvchi asboblarning tig'ini o'tkir qilish uchun ishlatiladigan, odatda, uzunchoq va yapaloqroq silliq yoki maxsus ishlangan tosh. *Tosh tuz tuyiladigan o'g'ir ichidan uzun qayroqni olib, pichoqni qayray boshladi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa».)

**Qayroqi** – 1. **Qayroqi yer** (yoki **tuproq**) Tog' etaklarida tosh qatlami ustida paydo bo'lgan, soz tuproqli, dehqonchilik uchun yaroqli yer. *Tog'lik rayonlarda va tog' etaklaridagi rayonlarda, qayroqi yerlarda bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilikni rivojlantiramiz.* (Sh. Rashidov, «Yangi yer haqidagi so'z».)

2. Shunday yerlarda, O'zbekistonda va umuman, Markaziy Osiyoda yetishtiriladigan yirik bug'doy navi. *Qayroqi bug'doy – mana, Elgeldi bovor, qizing suprasiga yaratib tursin, qayroqi un* (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi».)

**Qayroqtosh** – 1 ayn. **qayroq**.

2. Silliq yoki qayrab, charxlab, maxsus shakl berilgan tosh. *U gapirar ekan, Peterburg shahrining mayda qayroq toshlar terilgan keng-keng ko'chalari ko'z oldidan o'tardi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon».)

**Qaysa** – butunligicha danaksiz quritilgan o'rik. *Qays tayyorlash uchun yaxshi pishgan o'rik danagi bilan 2–3 kun so'ltilgach, danagi meva bandi o'rnidan siqib chiqariladi va quritiladi.* («O'zME».)

**Qaychibarg** – qaychisimon kerilgan uzun-uzun uchli barg (mas., ba'zi g'o'zalarning yoki chinorning bargi). *Sog'lom g'o'zaning bargi qorayib, qaychibarg bo'lib qoladi.* (Y. Shukurov, «Birinchi parvoz».)

**Qaychilamoq** – qaychi bilan kesmoq, qaychi bilan kesib ishlov bermoq, tuzatmoq. *Gullarni qaychilamoq.*

**Qayqi** – shv. Qayilgan, egilgan, egribugri. *Qayqi o'roq. Qultoy Alpomishni ko'rib, ko'nglini xushlab, yilqi boqadigan qayqi tayog'ini ushlab, Bir so'z aytib turgan ekan.* («Alpomish».)

**Qayir tuproqlar** – daryo qirg'oqlarining allyuvial yotqiziqlarida hosil bo'ladigan tuproqlar. Suvi toshib turadigan daryo bo'ylarida, suv bosadigan yerlarda tarqalgan.

**Qaynama** – ariq suvini yo'l yoki ko'cha ostidan o'tkazish uchun mo'ljalangan gidrotexnika inshooti.

**Qazi** – otning to'sh va peshnop go'shti; shunday go'shtdan otning yo'g'on ichagiga tiqib tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti. *Yangi qazi. Bir yillik sur qazi. O'n yetti otning eti, moyi, qazisi degandek, ikki yuz sakson pud oralari-da tosh beradi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *Kechki norin uchun katta qozon-*

da yog'li qazi pishadi. Ikkinchi qozonda qo'y etidan sho'rva qaynaydi. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Qazimoq** – 1. Yerni kovlab, o'yib, biror narsa tayyorlamoq. *Ariq qazimoq. Okop qazimoq. Quduq qazimoq. Birovga chog' qazisang o'zing yiqilasan.* (Maqol). *Zarang yerlarni lo'm bilan urib, shunday qaziydiki, hamma hayron qoladi.* (Oydin, «Oltin uzukka olmos ko'z»). *Xalqimiz katta-katta kanallar qazib, daryolarni bo'g'di.* («Mushtum».)

2. Yer osti boyliklarini kovlab chiqarmoq, olmoq. *Ko'mir qazimoq. Ruda qazimoq. Siz darrov shu oltinlarni qazib olib, kuningizga yarating.* («Ertaklar».)

**Qazna** – dag'al ipak, pilla chiqitidan hamda yaroqsiz pillalardan olingan past sifatli ipak... *q'ish kunlari g'o'za chuvish, ip yigirish, pilla qaynatib qazna qilish kabi ishlar bilan shug'ullanar edi.* (H. Shams, «Dushman»).

**Qaznoq** – ombor vazifasini o'tovchi kichikroq xona, hujra. *Shu uy yonida kichik, qorong'u bir zax qaznoq bo'lib, bu ombor edi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Bu yilgi g'allasi yigirma putga bazo'r yetgan edi. Uni qoplab, qaznoqda ko'z qorachig'iday asrab o'tirgandi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**Qashlag'ich** – otni qashlab tozalash uchun ishlatiladigan, qator tishli temir asbob. *To'ra ot ustini bir sidra yuvib, so'ng qashlag'ich bilan bo'yinlarini, o'mrovini qashlay boshladi.* (N. Fozilov, «Diydor»).

**Qashov** – shv. Qashlag'ich. *Tilla qashov, guldon jo'rab (supurgi) qo'lida, tortabardi G'irko'kning badaniga.* («Xushkeldi»).

**Qashqa** – ot yoki mol peshonasidagi oq joy, oq nishona; shunday nishonali ot,

mol. *Ola buzoq, qashqasi ham bor, Usti qora, bag'ri oppoq qor,* (G'. G'ulom). *Ot kelar yashnab borliq, qashqasi go'yo yorliq.* (T. To'la). *O'tloqda anchadan beri bir-biriga o'qrayganча yelkalashib kelayotgan qashqa buqacha bilan targ'il buqacha to'satdan suzishib qolib, podaning to's-to'polonini chiqardi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Qashqarbeda** – dukkaklilar oilasiga mansub, oq yoki sariq gulli, o'qildizli ikki yillik begona o't.

**Qashqir** ayn. **bo'ri 1.** – *Qashqir o'zining uyasi oldidagi qo'ylarga tegmay, uzoqdagi boshqa qo'ylarga boradi.* (O. Qo'chqorbekov, «Cho'pon Ro'zi baxshi»). *Men ketgandan so'ng o'zing yolg'iz qolmagin, Qashqir-qobonlarga yemish bo'lmagin.* («Shirin bilan Shakar».)

**Qil** – ot va ba'zi boshqa hayvonlar dumi yoki yo'lining har bir tolasi; umuman, jun, soch, mo'y va sh.k. ning tolasi. *Ot dumining qili. Qil elak. Qil tuzoq. Arg'amchiga qil quvvat.* (Maqol). *Ochilning ot qiliday qaysar, qo'ng'irtob sochlari do'ppi chetidan qayrilab chiqib turar edi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**Qiltanoq** – 1. Baliqning ignasimon ingichka, uzun suyagi. – *Bechoraning tomog'iga baliqning qiltanoq'i tiqilib qolibdi.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

2. Arpa, sholi va sh.k. ekinlar don qobig'i uchidagi ignasimon uzun qilcha; qiltiriq qiltiq.

**Qiltiq** ayn. **qiltanoq 1,2.** – *Botir miltiqsiz bo'lmas, Baliq – qiltiqsiz.* (Maqol). *Bug'doylar hali pishmagan, boshqalarining qiltig'i endi-endi sarg'aya boshlabdi.* (S. Nurov, «Tog'dagi daryo»).

**Qilchilvir** – qildan eshib tayyorlanadigan ingichka arqon, chilvir. *Keyin eshagimning no'xtasiga bog'langan*



*qilchilvirini oyog'im ostiga bosib, toshga o'tirdim.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Qimiz** – biya sutidan maxsus idishlarda bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik. Qimiz organizmda ovqat tarkibidagi oqsil va yog'larning tez hazm bo'lishiga yordam beradi, moddalar almashinuvini yaxshilaydi, ishtaha ochadi, parhez va shifobaxsh xususiyatlarga ega. *Dala havosi, qimiz, ko'kalamzor – dardimga naq davo.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Korsondagi qimiz tugab, sho'rva ham ichildi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Qimizak** ayn. **nordon** – qimizak olma.

**Qin** – tugunakni o'rab turuvchi bargsimon qobiq, kurtak, g'ilof. *Dovuchcha qinidan chiqibdi. Bahor edi. O'riklar gulini to'kkan, g'o'ralar qinidan chiqib, kishi yesa maza topadigan bo'lib qolgan.* (Oydin, «Sadag'ang bo'lay komandir»).

**Qir** – geogr. Atrofidagi yerlardan biroz ko'tarilib turgan, yassi yoki salgina gumbazsimon balandlik, tepalik. *Qimirlagan qir oshar.* (Maqol). *Ro'parada Chomqol tog'lari, undan berida esa, go'yo toqqa chiqish uchun ataylab yasalganday, birin-ketin balandlashib ketgan gumbaz-gumbaz qirlar.* (P. Tursun. «O'qituvchi»). *Tog'larda turli konlar, qirlarda g'alla behad.* (Habibiy).

**Qirmizak** [f. – qizil rangli narsa] – qimizak, nordon. *Qirmizak olma. Mana shu Namanganning olmasini, qirmizakni, balxi tutni, boringki, barcha-barchasini ham menga o'xshagan bog'bonlar payvandlab yaratgan.* (Gazetadan).

**Qirov I** – ayozli, havo ochiq, sokin (shamolsiz) tunlarda tuproq, o't va yer-

dagi narsalar ustida hosil bo'ladigan muz kristallari. *Bugun kechasi qirov tushibdi. To'la oyning yorug'ida o'simliklar bargida paydo bo'lgan qirov yangi yoqqan qor kabi yarqirab ko'rinardi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»). *O'sha kuni sovuq qattiq edi, Soqollarda, mo'ylovlarda, kipriklarda qirov.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Kuz keldi. Quyosh tafti pasayib, ertalabki shudring o'rnini qirov egallay boshladi.* («Yoshlik»).

**Oq qirov** – kuzgi qirov tushadigan payt; qalin qirovli kunlar. *Polizlardagi oq qirovga asralgan qirqma qovunlar ham uzildi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»). *Sochiga (yoki soqoliga) qirov tushibdi (yoki kiribdi), Sochi, soqoli oqara boshlabdi; sochiga, soqoliga oq tushibdi. O'spirinning yonida chekka sochiga qirov tushgan o'ttiz besh yoshlardagi qoracha yigit bloknotiga nimanidir yozayotgan edi.* (H. Nazir, «Odamning qadri»).

**Qirov III** – vet. Mollarning tilida qipqisimon bo'rtiqlar paydo qiladigan kasallik. *Tili qirov bog'labdi, qanday ovqat yesin jonivor* (A. Mirahmedov, «Kulgan chechaklar»).

**Qirqim** – ko'klamning oxiridan saronning boshlarigacha bo'lgan davr mobaynida qo'y va echkilarni cho'miltirib, keyinchalik junini kesish jarayoni.

**Qirqma** – 1. Qirqilgan yoki qirqiladigan. *Qirqma piyoz. Ko'ki-bargi olinib, tubi yerda ikkinchi yilga qoldiriladigan piyoz.*

2. Qishga saqlanadigan kechpishar, po'sti qalin, eti och yashil qovun navi.

**Qirqog'ayni** – atirgulning baland bo'lib o'sadigan, mayda sergul turi. *Qizlar sochlari va chekklariga sadarayhon, qirqog'ayni gulidan marjon qilib taqib*

*olishgan edi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Qirlik** – qir joy, qir (*q. qir 1*).

**Qirma:** *qirma chopiq* – *q.x.* Yovvoyi o'tlarni yo'qotish maqsadida yer betini sidirib yoki yupqa olib chopish usuli va shunday chopiqning o'zi. *Go'zalar qirma chopiq qilindi.*

**Qiron** – 1. Ko'plab o'ldirish, qirg'in. *Yovga qiron keldi. Xo'sh, kolxoz molini qiron qilgan Suvonning ishini muhokama qilishimiz mayda gap ekanmi?* (S. Anorbojev, «Oqsoy»).

2 Ko'plab o'lish, o'lim, yo'q bo'lish. *Qor qalin yog'ib, sovuq haddidan oshib ketdi. Don topib yeyolmasdan, Qushlarga qiron yetdi.* (Uyg'un).

**Qirriq** – 1. Yungi (tuki) kalta (asosan, hayvonlar haqida). *Qirriq it.*

2 *ko'chma.* O'taketgan tullak, ustamon, xirpa. *Qirriq odam.*

**Qirg'oq** – suv havzalari (okean, dengiz, ko'l va suv omborlari) va oqar suvlar (daryo, vaqtli oqar suvlar) bilan quruqlik tutashgan hamda o'zaro ta'sir ro'y berib turadigan kambar yer. Qirg'oqlarning quruqlik tomondagi chegarasi qirg'oq chizig'i deyiladi.

**Qirchang'i** – qo'tir va oriq: dirdov (ko'pincha ot haqida). Haddan tashqari oriqlab ketgan otlarga nisbatan aytiladi (qirchang'i ot). *Har yili, qoida kabi, qishdan bir otni qirchang'i qilib chiqaradi yoki o'ldirib qo'yadi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). ... *boloxonaning qing'ir-qiyshiq sinchlari, guvalasi tushib, qirchang'i otning qovurg'asiday yalang'ochlanib, sanalib qolgan.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**Qirchimoq** – *shv.* 1. Qaychi, tish yoki tirmoq bilan qirmoq, uzmoq. *U qoshidagi gulnora yaprog'idan bittasini*

*uzib olib, lablari orasida qirchiy boshladi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o.»).

2. Chilpimoq, chekanka qilmoq. *Gulni qirchimoq. G'o'zaning uchini qirchimoq.*

**Qirchin** – *kam qo'll.* Yosh nihol; navqiron. *Esiz, qirchin ketding, qizday gul diydor, O'limning nogahon bosqini yomon!* (Mirtemir).

**Qirqbo'g'in, qirqbo'g'im** – mayda bargli, birlashib, paychasimon bo'g'inlar hosil qilib o'sadigan ko'p yillik sporal o'simlik (yer ustki qismi tibbiyotda ishlatiladi). *Qazg'oqni yo'qotish uchun bir osh qoshiq maydalangan qirqbo'g'in, shuncha miqdorda arnika [ko'p yillik o't] gulini ikki stakan suvga aralashtirib, qaynatish zarur.* («Saodat».)

**Qirqim** – chorva mollarining junini qirqish; shunday ish jarayoni. *Chorvadorlar kuzgi jun qirqimini puxta tayyorgarlik va zo'r uyushqoqlik bilan boshlab yubordilar.* (Gazetadan).

**Qirqiq** – qirqilgan, qirqib, kesib tashlangan. *Qulog'i qirqiq it. Dumi qirqiq ot. Sochi qirqiq xotin.*

**Qirqquloq** – bargi yirik, sporal o'simlik; paprotnik (ildizpoyasidan tayyorlanadigan ekstrakti gijjalarni haydashda ishlatiladi). *Masalan, qirqquloq – paprotnik guli xoh oilada, xoh idorada bo'lsin, janjallarni bartaraf etar ekan.* (Gazetadan).

**Qirg'ich** – 1. Meva va sabzavot etini qirish uchun ishlatiladigan tishli ro'zg'or buyumi. *Qirg'ich bilan qovoq qirmoq. Yoshlar kabob chaynashyapti, men bo'lsa, qovunni qirg'ichda qirib yedim.* (I. Rahim, «Ixlos»).

2. Qirib, tarashlab tozalash uchun ishlatiladigan tig'li asbob. *Mana bu joyni avval po'lat qirg'ich bilan tozalamabsiz-da.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»).

**Qirg'iyak** – *kuz faslining boshlanish payti. Qirg'iyak yomg'iri shivirlab o'tdi, Cho'pon qo'chqorlarga tashlaydi nazar.* (G'. G'ulom).

**Qirg'oq** – suv havzalari va oqar suvlar bilan quruqlik tutashgan kambar yer; lab, bo'y, yoqa; sohil. *Daryo qirg'og'i. Ko'l qirg'og'i. Dengiz qirg'og'i. Amu oqar qirg'og'in yuvib, Kunlar o'tar kunlarni quvib.* (G'ayratiy).

**Qirg'oqlab** – *kam qo'll. Qirg'oq bo'ylab. G'irqirab rohatbadan shabboda qirg'oqlab esib, Sharqirab o'ynab-to'lib, to'lqin urib kulga kelur.* (Habibiy).

**Qisir** – 1. Bo'g'oz bo'lmay qolgan, qochmagan yoki qochib bo'g'oz bo'lmagan. *Qisir sigir. Qisir qo'y. Qisir sigir ko'p ma'raydi.* (Maqol). *Astag'firullo deng, to'ram! Kuni kecha o'zlari qisir g'unajinni bo'g'oz deb sotdilar.* (X. To'xtaboyev, «Felyetondan so'ng»).

2 *bot.* Changlanmagan, urug'lanmagan; hosil bermaydigan. *Qisir gul.*

**Qisir qolish** – yosh chorva mollari-ning jinsiy voyaga yetganda yoki katta yoshdagi urg'ochi hayvonlar tuqqandan keyin ma'lum fiziologik muddatlarda urug'lanmay qoladi.

**Qiyog** – 1. Ingichka, uzun-uzun keskir bargli ko'p yillik o't. *Keksa podachi botqoqqa ham, yuziga urilgan keskir qiyog barglariga ham e'tibor qilmay, olg'a intilar edi.* (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»). *Ko'korol paxtazori g'umoy, qiyog, pechak kabi o'tlardan tozalanib bo'layozdi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

2. Ba'zi o't-o'simliklarning qiyog bargiga o'xshash, keskir bargi. *Maysalar qiyog cho'zib qoldi. Qamishning qiyog'i qo'lni kesib ketdi. O'q tovushi tinganda, savag'ichning qurigan qiyog'lari to'zg'ib ketganini ko'rdi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**Qiyogzor** – qiyog bosgan yer. *Cho'l... qayoqqa qaramang, ching'il, o'to'lan, qamish-u qiyogzor.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

**Qiy** – qo'y, echki yoki tuya qumalog'idan iborat go'ng qatlami. *Bir joyda xazina ko'rganman. Uch-to'rt yillik qo'y qiyi bosilib yotibdi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Qiyg'ir** – tumshug'i kalta va qayrilgan, asosan, uncha yirik bo'lmagan qush, parrandalarga ovga solinadigan sohibchanga yirtqich qush; qirg'iy.

**Qiyg'os** – 1. Hammasi baravariga, yoppasiga, shig'a. *Chigit qiyg'os undirib olinadi. G'o'za qiyg'os shonaladi. Narigi qirg'oqdagi mevazorlardagi o'rik, olcha, olma, shaftolilar qiyg'os gullab yotibdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Tangri qachonlardir tilingga ekkani So'zlar gullayotir qiyg'os va qiyg'os.* (E. Shukur, «Hamal ayvoni»).

2. Ayni, avji. *Mana, qiyg'os pishiqchilik, lekin oshxonalarda sabzavotdan taomlar tayyorlanmaydi.* (Gazetadan).

**Qiya** – 1 *ot.* Bir tomoni baland, bir tomoni past yer, qiyalik; tog' yoki tepalik yonbag'ri. *Karvonni horitar yo'lning qiyasi.* («Alpomish»). *Qiyg'ir degan qush o'ltirar qiyada. Bunday suluv yo'qdir ushbu dunyoda.* («Yodgor»).

2 *sft., ayn. qiyalama.* Qiya yer. Qiya yo'l. *Aksari qiya joylardan dovon oshib boriladigan Qaynar yo'li hozir ot-arava uchun yopiq.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Qiyamat** – 1) tovar narxi; 2) pulning xarid qobiliyati, muayyan bozor narxlari darajasida pul birligi hisobiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori; 3) ingliz klassik siyosiy iqtisod.

**Qiyalama** – 1. Bir tomoni baland, bir tomoni past; qiya, nishab. *Qiyalama yo'l. Qiyalama adir. Ba'zilar cho'chib ketib, qiyalama yerdan og'ib tushay dedi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

2. Burchakma-burchak yoki qiyalab yo'nalgan; og'ma yoki yotiq. *Quyoshning qiyalama nuri. Qiyalama yomg'ir.*

**Qizilcha I** – bot. 1 shv. Eti va barg savag'i qizil, ovqatga solinadigan lavlagi; qizil lavlagi.

2. Cho'llarda va quruq toshloqli tog' yonbag'irlarida o'sadigan butalar turkumi (tibbiyotda qo'llaniladi).

**Qizilmiya**, ayn. **Shirinmiya** (*Glycyrrhiza glabra L.*) – dukkakdoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali begona o't. *Mozandaron vodiysida yulg'un, qizilmiya, ajriq o'sadi.* (P. G'ulomov, «Zarafshon etaklarida»).

**Qizilurug'** – qovunning eti va urug'i qizil bo'ladigan o'rtapishar turi. *Dumiga pichoq qo'yish bilan tarsillab, necha bo'lakka ajralib ketadigan qizilurug', shakar-palaklarni o'yib tashlaganlar.* (G'. G'ulom, «Shum bola»).

**Qizilquyruq** – bot. O'zbekistonda manzarali o'simlik sifatida hamda silosbop ko'kpoyasi uchun o'stiriladigan bir yillik o'tsimon o'simlik.

**Qizilcho'l qoramol zoti** – sut yo'nalishida boqiladigan zoti XVIII asr oxirlarida Ukrainaning Zaporozhye viloyatida kulrang cho'l qoramollarini qizil ostfrisland, anglen, shortgorn, nemis qizil qoramol zoti va vilstermash zotlari bilan uzoq yillar chatishtirib chiqarilgan. 1941-yilgacha nemis qizil mollari nomi bilan yuritilgan. Qizilcho'l qoramol zotining tana tuzilishi mustahkam, bo'yi o'rtacha balandlikda, tusi qizil (ko'pchiligining boshi va tanasida oq

qashqasi bor). Sigirlarining vazni 450–500 kg, buqalariniki 800–900 kg, buzoqlari 30–35 kg tug'iladi, 6 oylik bo'lganda 160–190 kg. Sigirlari o'rtacha 3000–4000 l, sersutlari 10–12 ming l gacha sut beradi, yog'liligi 3,7–3,9%. Go'sht mahsuldorligi qoniqarli. Novvoslarining o'rtacha kundalik vazn o'sishi 800–900 g, so'yim chiqimi 55–57%. Jahondagi ko'pgina mintaq va mamlakatlarda tarqalgan hamda ularning hududiy xillari, buqa tizimlari va sigirlar oilalari yaratilgan, seleksiya ishlarida samarali foydalanilmoqda. O'zbekistonga 1982-yilda olib kelingan va Toshkent viloyatidagi «Qoplonbek» xo'jaligida urchitilgan, respublikaning iqlim sharoitiga moslashgan podalar guruhlari shakllantirilgan.

**Qishlov** – 1. **Qishlamoq** (*fl. har. n.*) Odatda, ilon qishlovdan so'ng po'st tashlaydi. («Fan va turmush»).

2. Chorva mollarining qishlab qolgan yeridagi boquvi, boquv jarayoni. *Cho'ponlar chorva qishlovining namunali o'tishiga erishayotirlar.* (Gazetadan). *Ilgari ana shu adirlarda butun bir qishlovga yetib, ortib qoladigan yem-xashakbop sunbul, so'zan, to'qmoq, ro'yan singari yuz xil to'yimli giyohlar tizzaga urib yotardi.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon»).

**Qishloq** – 1. Aholisi, asosan, qishloq xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi joy, maskan, hudud. *Ko'pincha mollarini qishloqdan chiqaverishda, qirlar atrofida bir-ikki aylantiraman-u, namozgardayoq qishloqqa qarab haydayman.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»). *Rustam qorong'i tushib qolgan qishloq ko'chasidan yurib borarkan, hadeb shu savolni takrorlardi: «Nega oladi?»* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

2. Aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va qishloq xo'jaligining boshqa sohalarida band bo'lgan aholi manzilgohi.

**Qishloq xo'jaligi** – moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jalik o'simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o'z ichiga oladi.

**Qishloq xo'jaligi entomologiyasi** – umumiy entomologiyaning bir sohasi; hasharotlarning tana tuzilishi, organlari faoliyati, yashash tarzi, tashqi muhit bilan o'zaro munosabati, zararli va foydali tomonlari va b.ni o'rganadi.

**Qishloq xo'jalik geografiyasi** – qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan fan sohasi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarmog'i.

**Qishloq xo'jaligini intersifikatsiyalash** – qishloq xo'jaligining unumdorligini oshirish, qishloq xo'jaligini samarali qilish.

**Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish** – qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlarida kimyoviy moddalarni qo'llash; kimyo, biokimyo, mikrobiologiya va agrokimyo fanlari yutuqlaridan foydalanган holda kam mehnat va mablag' sarflab olinadigan mahsulot hajmini ko'paytirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks tadbirlardan biri.

**Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash** – qishloq xo'jaligida insonning

jismoniy (qo'l) mehnatini mashina va mexanizmlar bilan bajarish. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash ishidagi eng muhim masalalardan biri.

**Qishloq xo'jaligi meteorologiyasi** – qishloq xo'jaligi uchun ahamiyatli bo'lgan iqlim, meteorologik, gidrologik va tuproq sharoitlari bilan qishloq xo'jalik ishlab chiqarish obyektlari va jarayonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aloqadorlikda o'rganuvchi fan.

**Qishloq xo'jaligi xaritasi** – qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning joylashuvi, holati va istiqbollari, iqtisodiy va tashkiliy-texnik sharoitlarini aks ettiruvchi maxsus geografik xarita.

**Qishloq xo'jaligi yerlari** – xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqarish vositasi sifatida rejali va uzluksiz foydalaniladigan yer uchastkalari va massivlari, ekinzorlar (haydalma yerlar), ko'p yillik ekinzorlar (bog'lar, rezavor meva maydonlari), pichanzorlar, yaylovlar hamda qo'riq bo'z yerlar.

**Qichitqi, o't yoki tikan** (*r. krapiva*) – poya va barglari badanga tegsa qichitib, achishtiradigan, tukchalar bilan qoplangan o'simlik.

**Qobirg'a** – ayn. qovurg'a. *Qancha marta beli, qobirg'asi singan, oyoqlari majaqlangan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Qobiq** – 1. Po'st, po'stloq; po'choq. *Daraxt qobig'i. Chigit qobig'i.*

2. Narsalarning ustini qoplab, o'rab olgan qattiq ustki qatlam yoki po'st. *Yer qobig'i. Dirijabl qobig'i.*

**Qobis// qovuz//** – mollarning siyolmay qolishi. *Bobo, qo'zimiz qovuz bo'lib qopti, bir ko'rib bering.*

**Qobon** – 1. Yovvoyi cho‘chqa, to‘ng‘iz. *To‘qayda qirg‘ovul, ko‘lda o‘rdak, g‘oz, Qobonlar kezadi misli govmishlar.* (Mirtemir).

2. Erkak cho‘chqa.

**Qoloq** – 1. Taraqqiyot pog‘onasining quyi bosqichida bo‘lgan, taraqqiyot jihatidan orqada qolgan, unchalik taraqqiy qilmagan. *Qoloq mamlakat.*

2. Dunyoqarashi, ong-tushunchasi past bo‘lgan; yetuk emas.

3. Hozirgi zamon talabiga javob beraolmaydigan, iste‘moldan chiqqan; eski. *Qoloq usul. Qoloq texnologiya.*

**Qoloqlik** – qoloq holat. *Iqtisodiy qoloqlik. Qoloqlikka barham berish. Qoloqlikdan chiqish.*

**Qondirmoq** – 1. **Qonmoq** (*fl.ort.n.*) Nafsini qondirmoq. *Ekinlarni suvga qondirmoq. G‘o‘zalarni qondirib sug‘ormoq. Talabni qondirmoq. Qayin otamga yozganim qisqa bo‘lgani uchun, siz unga mendan eshitganlaringizni so‘zlab qondirarsiz.* (A. Qodiriy, «O‘tgan kunlar»). *Afrika arsloni o‘z ona ko‘ksi – Nildan qondiradi tashnaligini.* (G‘. G‘ulom).

2 ayn. **qonliqtirmoq** 2. Qamishkapaning teng yarmi bo‘lgan ayollar talab qilsa-yu, ularning talabini qondirish, birinchi galda, uning vazifasi emasmi? (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

**Qonjolaq** – qo‘y-echkilarni so‘yish jarayonida qonini oqizishga mo‘ljallangan yerdan qaziladigan o‘racha. *Bobur, qonjolaqni tozala, Ismoil qo‘yni opkeladi.*

**Qonlik** – shv. **Jonliq.**

**Qop** – sochiluvchi narsalar solib qo‘yiladigan, mato, chipta va sh.k. dan tikilgan, xaltadan katta, qanordan kichik ro‘zg‘or buyumi. *Kanop qop. Chipta qop. Qog‘oz qop. Qanor qop. Bo‘sh qop tik turmas.*

**Qoplam** – 1. Biror narsani sirtidan o‘rab, qoplab turgan narsa. *Qor qoplami. Hayvonlarning rangi deganda, jun qoplaminin rangi tushuniladi.* (N. Mavlonov, «Qoramolchilik»).

2. Bir qoplashli, bir qoplashga yetadigan. *Bir qoplam paxta. To‘yga yana olti qoplam paxta kerak.*

**Qoplamoq** – qopga solmoq, qopga joylamoq. *Bug‘doy qoplamoq. Bu kishilar sabzi kovlab, qoplamoqda edilar.* (G‘. G‘ulom, «Shum bola»).

**Qopmoq** – 1. Tishlab olmoq, tishlamoq (it, tuya haqida). *Itni qopmas deb bo‘lmas.* (Maqol). *It qutursa, egasini qopadi.* (Maqol). – *E, yuravering, qopmaydi! – dedi orqada kelayotgan Tojiboy.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

2 shv. **Tishlamoq.** *Ne bedovlar jazosini topadi, Bir nechasi ag‘nab, qumni qopadi.* («Alpomish»).

**Qopqon** – 1. Ov qilinadigan yoki zararli hayvonlarni ovlash, iltirish, tutish uchun qo‘yiladigan moslama, qurilma. *U ichiga katta oq kalamush qamalgan qopqonni yerga qo‘ydi, eshikchasini ochdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2 ko‘chma. Dom, tuzoq. *Bektemir ularga qaramasdan, sekin dedi: – Qopqonga tushibmiz – bu qalay? (Oybek, «Quyosh qoraymas»).* *Hammasini aytib bergandan keyin, Temir qopqondan qutilib bo‘pti.* (B. Rahmonov, «Bahor arafasi»).

**Qopcha** – ayn. **qopchiq.**

**Qopchiq** – 1. Kichkina qop, xalta, xaltacha. *Normat qopchig‘ini ochib, bugunga norma noni, shakarini o‘rtaga qo‘ydi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Suvonjon ertasiga va‘dalashgan vaqtda yetib keldi. Uning orqasida qopchiq, qo‘lida po‘stin, yelkasida miltiq bor edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Qoqi, qoqigul, qoqio‘t** – sariq gulli, sut shirali, qurigach, urug‘li to‘zg‘og‘i shamolda uchib ketadigan ko‘p yillik o‘t; momoqaymoq. *Noralining qo‘lidagi qizg‘aldoq, qoqi, chuchmomalarni ko‘rdi-yu, qo‘zichoqday sakrab, uning oldiga kelib to‘xtab qoldi.* (S. Anorboyev, «Hamsuhbatlar»). *Boyvachchalar uyining darichasi tubida Sopol tuvakchalarda o‘sgan qoqigul bo‘lur.* (G‘. G‘ulom).

**Qoqshol** – *tib.* Odam va hayvonlarda organizmga terining jarohatlangan yeridan kirib, o‘zidan zahar ajratib, butun organizmni zaharlovchi tayoqcha shaklidagi alohida mikroob qo‘zg‘atadigan o‘tkir yuqumli kasallik (bemor kamalakdek egilib qoladi va har qanday tashqi ta’sirdan tirishib qolaveradi). *Sultonning oyog‘i shishib ketdi. Madali aka: – Hozir darrov ukol qilmasa, qoqshol bo‘lib qoladi, – dedi-da, dori sumkasini tita boshladi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»).

**Qor** – suv zarralarining sovuqdan birikishi natijasida yuzaga keladigan oq kristallchalar shaklidagi yog‘in, shunday yog‘in qatlami, to‘plami. *Birinchi qor. Mayda qor. Laylakqor. Pag‘a-pag‘a qor yog‘moqda. Qor kuramoq. Qorda chana uchmoq. Qolgan ishga qor yog‘ar.* (Maqol). *Ko‘cha va tomlar qordan oqara boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Qoraandiz** – murakkab gullilar oilasiga mansub, tog‘-adirlarda o‘sadigan, ko‘p yillik o‘tsimon dorivor o‘simlik.

**Qoraarcha** – sarvlar oilasiga mansub ignabargli daraxt yoki buta, archaning bir turi.

**Qorabayir** – Qadimgi Osiyo arg‘umoqlarini mo‘g‘ul, turkman va arab ot zotlari bilan chatishtirib, takomillashtirish asosida O‘zbekistonda yetishtirilgan,

salt miniladigan yoki aravaga qo‘shiladigan, qishloq xo‘jalik ishlarini bajarishda foydalaniladigan, tanasi qisqaroq, beli tekis va keng bo‘lgan zoti. *Atayin Samarqanddan ikkita qorabayir oldirib kelganlar.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Uning uchinchi boyligi – qorabayir oti edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og‘ir tosh ko‘chsa»).

**Qorabaliq** – chuchuk suvlarda yashaydigan, qorni tirqishli baliq.

**Qorabarak** – ko‘pincha sho‘rxok yerlarda o‘sadigan, kuzda va qishda tuya yeydigan buta o‘simlik.

**Qorabovur** – cho‘l va dashtlarda yashaydigan, ko‘kragi qora tusli, kaptar-simon ov qushi, bulduriq.

**Qorabosh** – qoramtir to‘pgulli, yo‘g‘on poyali qiyog‘.

**Qorabuzov** – kurakoyoqli qushlar turkumiga mansub yirik suv qushi.

**Qorabura** – to‘g‘on, damba, sohil-bo‘yi to‘siqlarga, suv urgan yerlarga bosish uchun ichiga tosh solib, sim bilan bog‘lab tayyorlangan shox-shabba bog‘lari.

**Qorabug‘doy** – bug‘doyning doni mayda, past navi.

**Qoragul** – 1. Qora gulxayri.

2. Shu o‘simlik gulidan tayyorlangan bo‘yoq. *Shon qoqilgan, bo‘yi bir qarich kelar-kelmas tayyor mahsulotlarni [Shokir ota] silliq yog‘och bilan kuchi boricha ishqalab, so‘ng qoragul surkab, ularga pardo beradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Qorajanjal** – xalq seleksiyasida chiqarilgan, o‘rta kechpishar mahalliy xo‘raki va mayizbop uzum navi.

**Qorajigar** – 1 *anat.q. taloq.*

2. Go‘шти yeyiladigan hayvonlarning shu a‘zosi (masalliq, ovqat sifatida). *Hasipga qorajigar solmoq.*

**Qorakesak** – qo'shtning yog'siz yumshoq joyi.

**Qorakosov** – 1 ayn. **Qorakuya**. Qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi.

**Qorakuya** – zamburug'lar qo'zg'atadigan, ildiz bo'g'zi va poya asosi qorayishi bilan kechadigan o'simliklar kasalligi: g'alla ekinlarining doniga tushadigan va uni zararlantiradigan un. *Achchiq begona o'tlar va qorakuya kasalligi tarqalgan maydonlardan don ekinlarini ajratib o'rish zarur.* (Gazetadan).

**Qorako'l qo'y zoti** – mo'ynali terisi uchun boqiladigan dag'al junli dumli qo'y zoti. Bu zot bir necha yuz yillar oldin O'zbekiston (Buxoro viloyati Qorako'l tumani) hududida jaydari qo'ylarni xalq seleksiyasi usulida uzoq vaqt tanlash va chatishtirish natijasida yaratilgan.

**Qorako'l, qorako'l terilari** – qorako'l qo'y zotiga mansub 1–3 kunlik qo'zilardan olinadigan teri turi (mo'yna mahsuloti). Noyob xomashyo. Qorako'l xususiyati turli shakl va o'lchamdagi zich jingalaklar (mas., loviyasimon, qalamcha va h.k.) hosil qiluvchi qalin, elastik, ipaksimon, yaltiroq jun qoplamidir.

**Qorako'lchi** – qorako'l qo'ylarini boqish va qorako'l terisi yetishtirish bilan shug'ullanuvchi chorvador. *Juda soz-da, men qorako'lchilar kengashiga kelganman.* (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Qorako'lchilik** – chorvachilikning qorako'l qo'ylarini boqish, ko'paytirish va qorako'l teri yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. *U shuncha yil qorako'lchilik sohasida ishlab, bundaqa terilarni deyarli ko'rmagan edi.* (S. Ahmad, «Yulduz»).

**Qorako'za** – sug'oriladigan yerlarda o'sadigan, bir yillik serbarg yovvoyi (begona) o't. *Qorako'zaga qarshi kurashishda karbin dorisi juda yaxshi natija beradi.* (Gazetadan).

**Qoramashoq** – 1. Bir turli o'tsimon o'simlik. *Qo'ylar qoramashoq, qo'ng'irbosh o'tlarini sevib yeydi.* (Gazetadan).

2 shv. ayn. **qarg'a** 2.

**Qoramol** – quvushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyuqli, kavsh qaytaruvchi hayvonlar. Qoramolga haqiqiy buqalar (Bos) turkumiga mansub yirik xonaki kenja turlar – sigir, buyvol, qo'tos hamda gayal, bizon, zubr va b. kiradi.

**Qoramolchilik** – chorvachilikning asosiy sohalaridan biri, aholini go'sht, sut mahsulotlari hamda yengil sanoat va b. sohalarni xomashyo bilan ta'minlaydi.

**Qoramug'** – q. **qoramiq**. *Qoramug'ning donasiday Ko'zidan aylanay shuni.* («Boychechak»).

**Qora-ola qoramol zoti** – sut yo'nalishidagi qoramol zoti. Rossiyada XVIII asrda turli zonalarda urchitilgan mahalliy zotni ostfriz, shved qora-ola va b. shunga o'xshash zotlar bilan chatishtirib chiqarilgan. Ushbu mintaqalarning aksariyatida o'zining yuqori sifatlilik va raqobatbardoshligi bo'yicha rayonlashtirilgan zotlar salmog'ida birinchi o'rinni egallaydi. Jussasi yirik, tanasi uzunroq, terisi qayishqoq, yelini katta. Tusi qora-ola. Buqalarining vazni 850–1000 kg, sigirlarini-ki 500–650 kg, yangi tug'ilgan buzoqlari vazni 32–40 l. Sigirlarining sut sog'imi 3500–4500 l (sersut sigirlariniki 15–17 ming l). Go'sht mahsuldorligi yuqori (so'yim chiqimi 54–58%). Novvoslari 15–18 oylikida 480–550 kg ga yetadi.



**Qorapatak** – qo‘y-echkilarning tunashi uchun go‘ng qatlamidan iborat to‘shama.

**Qorapo‘choq** – O‘zbekistonda yaratilgan, tusi to‘q yashil, eti oq, yumshoq, shirin kechpishar qovun navi.

**Qoraqand I** – sirti sal tilim-tilim, tusi jigarrang to‘q yashil; po‘sti qattiq, eti qalin kechpishar qovun navi.

**Qoraqand II** – tog‘li joylarda yovvoyi holda o‘sadigan buta o‘simligi va uning ovqatga solinadigan qoramtir mayda sershira, nordon mevasi; zirk. *U[zirk] mayiz kattaligida, rangi to‘q sapsar, qovjirab qurigani esa qoramtir tusda bo‘ladi. Buni xalqimiz «qoraqand» deb ham atashadi.* (Gazetadan).

**Qoraqarag‘ay** – shox-shabbasi uchli konus shaklida bo‘ladigan, doimo yashil, ignabargli daraxt yoki buta.

**Qoraqat, qorag‘at** – ba‘zi turlari ziyinat uchun, ba‘zi turlari esa mevasi uchun o‘stiriladigan xushbo‘y buta o‘simlik va uning sershira, shirin yoki nordon-shirin, ko‘pincha qizil yoki qoramtir mevasi; qora smorodina. *Qizil qorag‘at. Qora qorag‘at. G‘ir-g‘ir shamol esadi, qoraqat, chiyalarning yoqimli isi anqiydi.* (S. Murodbekov, «Yovshan isi»). *Shishlarni yo‘qotish uchun tarvuz, uzum, qora qorag‘at hamda chetan mevasini iste‘mol qilish kerak.* («Fan va turmush».)

**Qoraqayin** – tog‘li hududlarda o‘sadigan, po‘sti och kulrang, yog‘ochi og‘ir va qattiq yirik daraxt; shamshodning bir turi.

**Qoraqiyoc** – boshqodoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik; ajriqobosh; yem-xashak ekini.

**Qoraqosh I** – bot. Murakkabguldoshlarga mansub, xushmanzara o‘tsimon o‘simlik. *Boycheshaklar ketidan qora-*

*qoshlar ochildi. Qizlar qoraqoshlar terdi, quloqlariga taqdi.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**Qoraqosh II** – bot. shv. 1. Qora tusli, bo‘rtib chiqqan yo‘li bor, kam etli shirin kuzgi qovun navi.

2. Sirti qalin to‘rlangan, tusi och yashil, eti shirin va xushbo‘y handalak turi.

**Qoraqosh III** – 1. Oldinga undalsa, orqaga tisarilaveradigan, yurmaydigan; asov (ot haqida).

2 *ko‘chma, s.t. O‘jar, qaysar. Sim qoqilgan joyga hozirman o‘jar, qoraqosh xotinlar bo‘lsa ham, bir minutda o‘zimga rom qilib sezdirmay ishlayman, sezdirmay ishlayman.* («Mushtum».)

**Qoraqurt** – bo‘g‘imoyoqlilar tipining o‘rgimchaksimonlar urug‘i vakili: usti baxmalga o‘xshash, qora tusli; faqat urg‘ochisi zaharli bo‘ladi. *Qoraqurt chaqayotganda, odam sezmay ham qoladi. U xuddi qandalaga o‘xshab, chaqib qochadi.* (Y. Shukurov, «Birinci parvoz»).

**Qora quyuc** – tanasi qora, boshi va oyog‘ida, tumshug‘ida, ko‘z atrofiga, qornida va chovlaridagi kuyganga o‘xshash sarg‘ish junlar jigarrang tovlanadi.

**Qoraqush** – qarq‘asimonlar oilasiga mansub parranda; qora patli cho‘l burguti.

**Qoratol** – tol daraxtining novdasi jigarrang-qizg‘ish, chayir bo‘ladigan navi. *Qoratollar xomush bosh egib turgan qoramtir hovuz sathida bir to‘p xazon qalqib yuribdi.* (X. Sultonov, «Onamning yurti»).

**Qoraquyuc** – ayn. jayron.

**Qoraqo‘tir** – yara bitayotganda, uning ustida hosil bo‘ladigan qattiq po‘st.

**Qorason** – 1 ayn. gangrena. *Yana xat keldi... «chap oyog‘im qorason bo‘libdi».* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

2. Chorva mollari va ipak qurtlarga qirg'in keltiradigan yuqumli kasallik.

**Qorasovuq** – havoning o'rtacha sutkalik temperaturasi musbat bo'lgan holda, o'simlik qoplami va tuproq usti havо qatlamining 0° va undan ham pasayishi. Bu hodisa yuz berganda barglar sovuq ta'sirida qora tus oladi, shuning uchun bahor va erta kuzda bo'ladigan bu sovuqni dehqonlar, odatda, qora sovuq deb atashadi.

**Qorasuli** – ayn. **Qorako'za**.

**Qora uy, bahor jurт, kapa, o'tov** – cho'ponlarning bahor kelgandan so'ng mollarini o'tlatish qulay joyga borib, ko'ch-ko'roni bilan joylashgandan so'ng tiklanadigan cho'ponlar uyi. *Boshimga boshpana o'tov, necha ming yoshsan-a, o'tov... (Hosila Rahimova, «O'tov») Bir tepada to'rtta chipor ilon o'ynayapti. (o'tovning ola bog' ipi. (topishmoq)). Yuk ustida yarim non, Uy o'rtasi yarim non. (quyosh, oy).*

**Qoravoy** – 1. Kurakoyoqli qushlar turkumiga mansub baliqxo'r, suvda yashovchi qush turi.

2. Qoravoy (erkaklar ismi).

**Qorayaloq** – chumchuqsimonlar turkumiga mansub, gala-gala bo'lib uchadigan qora qush. *Chug'urchuq, zag'izg'on, qorayaloq kabi qushlar qora gilos shoxlaridan nari ketmas, bog'cha to'rini doim chug'ur-chug'ur ovozlari bosib yotardi. (D. Nuriy, «Osmon ustuni»).*

**Qorashaqshaq** – chumchuqsimonlar turkumining shaqshaqlar oilasiga mansub sayroqi qush. *Yo'l chetidagi tut tomondan qorashaqshaq shaqillab uchib qo'ndi. (M. Mansurov, «Yombi»).*

**Qorasho'ra** – sho'r yerlarda o'sadigan yovvoyi o't. *Qorasho'ra o'sgan joylar yam-yashil dalani eslatsa-da, lekin u*

*chorva uchun butunlay yaroqsiz. («Fan va turmush»).*

**Qorachakak** – atirgullilar oilasiga mansub, yovvoyi holda o'sadigan buta o'simligi. *Qorachakak yovvoyi holda o'sadi. Boysun tog'ida ko'p uchraydi. (Gazetadan).*

**Qorachalloq** – o'zi qora, qulog'i oq uloq. *Bobojon, manavi qorachalloq'ingizni menga berasiz-a?*

**Qorinbog'** – ot yoki eshakning qornidan tortib, egarga mahkamlanadigan yoki qornidan o'tkazib, arava shotisiga bog'lanadigan enli tasma; qorinbog'ich. *Qambar toychaning qorinbog'ini bo'shatib, qoziqqa bog'ladi. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).* *Qobilboy aravaga qo'shig'liq otning boshini silab erkaladi, anjomlarini ko'zdan kechirdi, qorinbog'ni qattiq tortib bog'ladi. (H. No'mon va A. Shorahmedov, «Ota»).*

**Qorishma** – suyuq yoki mayda zarali sochiluvchan narsalarning o'zaro aralashuvidan, qorishuvidan hosil bo'lgan modda; qorishiq massa; aralashma. *Asal bilan saryog' qorishmasi. Paxta maydonlari mineral va organik o'g'itlar qorishmasi bilan o'g'itlanib, sifatli shudgorlandi. (Gazetadan).*

**Qorishqul** – s.t. Bo'ri, qashqir.

**Qov** – alangasiz kuydirilgan paxta, so'xta (xalq tabobatida kesilgan yaraga qo'yish uchun ishlatiladi). *Yosh hakim kechgacha qilich yarasiga qov qo'yib, malham surtish, badanga sanchilgan o'qni olib, bog'lab qo'yish bilan ovora bo'ldi. (M. Osim, «Kitobga ixlos»).*

**Qovjiramoq** – 1. Suvsirab yoki issiqning zo'ridan, garmselfan so'limoq, qurib bujmaymoq, quruqshamoq. *Qovjiragan barg. Qovjiragan o't. Adolat... chanqab, qovjirab turgan har bir g'o'zaga qarab*

achinar va tungi suvni shimirib tirilayotgan har bir g'ozani ko'rib quvonardi. (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Suvsizlik va issiq ta'sirida qaqramoq, porsillamoq, yorilmoq. *Qovjiragan yerlar haroratidan lablari qovjiradi. Gulxanchilarning dala shamoli bilan qovjiragan yuzlariga tiniq qizillik yugurib olovlandi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Qovjiratmoq, qovjiramoq** – (fl. ort.n.) *Saraton quyoshi cho'l o'tlarini qovjiratadi. Urush ayni yigilik yillari-mizni qovjiratib ketdi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»). *Ko'ksini yondirib turgan o't xayollarini ham, xotiralarini ham qovjiratib tashlagandek bo'ldi.* (S. Ahmad, «Hukm»).

**Qovjiroq** – qovjiragan, quruqshagan holatli. *Yo'l kimsasiz, hatto ezma chigirtkalar ham issiqdan tinkasi qurib, qovjiroq o'tlar soyasida mudrab qolganga o'xshaydi.* (N. Yoqubov, «Bo'sag'ada»). *U qovjiroq lablarini, yalab, hansirab, oldinga chopdi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). *Ekinsiz, jonsiz yotgan qovjiroq yerlari, yaproqlari sarg'aygan daraxtlar hayratga soldi.* (M. Ismoil, «Farg'ona t.o»). *Qovjiroq ko'katlar-u daraxtlarning turfa hidi atrofga anqib ketdi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Qovoq** – 1. Palak otib o'sadigan, shapaloq bargli, karnaysimon yirik sariq gulli, bir yoki ko'p yillik poliz o'simligi va uning turli shakllarda bo'ladigan yirik hosili. *Qovoq urug'i xalq tabobatida gijjani yo'qotishda qadimdan qo'llanib kelgan.* («Fan va turmush»).

**Dastmol qovoq** – hosili qozonsochiq yoki mochalka o'rnida ishlatiladigan qovoqsimon o'simlik. **Oyim qovoq** (q. **oyimqovoq**). **Tomosha qovoq** (q. **tomoshaqovoq**).

2. Shu o'simlikning hosili qo'big'idan yasalgan idish. *Gulnor... suvqovoqni olib, buloq tomonga yugurib ketadi.* (S. Ayniy, «Doxunda»). *Ko'zi tinib, miyasi ari qamalgan qovoqdek g'ong'illaydi.* (S. Ahmad, «Hukm»). *Yigit uning yoniga qovoqkosada sovuq suv qo'ydi.* (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»).

**Nos qovoq, q. nosqovoq** – qovoqning noxsimon mayda navi.

**Qovoqari** – arining zaharli yirik turi. – *Ot yiqitdi, – dedi qovoqari kabi g'ong'illab.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Qovoqdoshlar** – bot. Qovoq, qovun, tarvuz, mochalka kabi palak otib o'sadigan o'simliklar oilasi.

**Qovochak** – paxtasi sug'urib olingan chanoq, ko'sak po'choqlari. *Ko'sak chuvish mashinasidan chiqarilgan qovochak orasida uzun-qisqa tolalar miltillab turibdi.* (Gazetadan).

**Qovun** – qovoqdoshlar oilasiga mansub, hosili yirik va shirin bir yillik poliz o'simligi va uning hosili. *Shirin qovun. Qovun paykali. Qovun sayili. Qovun urug'i. Bir tilik qovun. Bu yil, nima bo'lib, qovun, bir chetiga handalak ekilgan.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»).

**Qovunkapa** – qovun polizi yoniga qurilgan kapa, chayla. *Iqbol kun bo'yi qizlar bilan piyozni o'tab, kech payt qovunkapaga qaytdi-da, apil-tapil yuvinib ovqatlangach, shoti bilan tomga chiqdi.* (S. Abdulla, «Iqbol»).

**Qovunqoqi** – pishib yetilgan qovunni tilib-tilib, quritib tayyorlangan qoqi. – *Choy ichmasdan qayoqqa ketasizlar? – dedi kampir shkafdan non, qovunqoqi olib.* (H. Nazir, «Tomosha»).

**Qovunchi** – qovun yetishtirish, qovun seleksiyasi bilan shug‘ullanuvchi kishi. *To‘rtko‘llik qovunchi olim katta maqsadlar bilan yashayapti.* (Gazetadan).

**Qovunchilik** – 1. Qovun yetishtirish bilan shug‘ullanish; qovunchilik kasbi.

2. Qishloq xo‘jaligining qovun o‘stirish, qovun seleksiyasi bilan bog‘liq sohasi. *Bir necha yillardan beri e‘tibor kamaygani bois qovunchiligimizdagi eng yaxshi an‘analar unutiladi.* (Gazetadan).

**Qovuq** – anat. Odam va aksariyat hayvonlarning siydik to‘planadigan, ichi bo‘sh, xaltasimon a‘zosi; siydik pufagi. *Qovuq yallig‘lanishi. Mingboshi Matqovulning qovug‘iga bir tepdi, u ag‘darildi.* (M. Ismoiliy, «Farg‘ona t.o»).

**Qovuz** – 1. Donning po‘sti. *Tariq qovuzi.*

2. Ichiga ko‘pincha tariq po‘sti solingan beshik to‘shagi. *Orqasiga qattiq qovuz botgan go‘dak chinqirib-chinqirib yig‘laydi.* (G‘. Rasul, «To‘ng‘ich o‘g‘il»).

**Qovzoq** – 1. Dukkakli o‘simliklarning doni turadigan po‘sti; qo‘zoq. *Mosh qovzog‘i. Loviya qovzog‘i.*

2. Makkajo‘xori so‘tasining po‘stlog‘i.

**Qovg‘a** – daryo, ko‘l va botqoqlarning bo‘ylarida o‘sadigan qamish. Uni o‘rib olib, so‘litib qo‘yiladi. Ishlatish oldidan qaynoq suv bilan part qilinib, ajratiladi. Qovun saqlash uchun ishlatiladi. Har bir dona qovunni uzunasiga va ko‘ndalangiga qarab bog‘lab chiqiladida, qovg‘aning erkin uchlarlari arqoncha qilib o‘rib qo‘yiladi.

**Qoziquloq** – ensiz uzun bargli bir yillik begona o‘t.

**Qozoqi oqbosh qoramol zoti** – go‘sht yo‘nalishidagi qoramol zoti. O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikis-

tonda go‘shtdor qoramolchilik hududlarida tarqalgan. Keskin kontinental sharoitlarga yaxshi moslashgan. Yozning issiq, qishning sovuq kunlarida ham yaylov sharoitida boqiladi.

**Qog‘onoq** – ona qornida, bachadonda bolani o‘rab turadigan parda.

**Qochirish, urug‘lantirish** – urg‘ochi chorva mollarini urchitish usuli; urg‘ochi mollarni erkaklari bilan tabiiy yoki sun‘iy juftlashishi, urug‘lantirish. Urg‘ochi mollarni qochirish ularning optimal jinsiy sikli (*Kuyikish*) da amalga oshiriladi, jumladan, sigirlarda yil davomida tuqqanidan keyin jinsiy siklning birinchi (18–21 kundan so‘ng) yoki ikkinchi (60–80 kundan so‘ng) bosqichida o‘tkaziladi. Qo‘y, echki, yilqi, tuyada mavsumiy – qo‘y-echkilar oktabr-noyabr oylarida, ot, tuya, aprel-may oylarida qochiriladi. Cho‘chqalarda qochirish yil davomida o‘tkaziladi. Qochirish tuxum hujayrani otalantirish bilan yakunlanadi. *Qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilikda qochirishning eng samarali usuli sun‘iy qochirish hisoblanadi.* («O‘zME».)

**Qochmoq** – bo‘g‘oz, homilador bo‘lmoq (hayvonlar haqida).

**Quduq** – vertikal shaxta yoki o‘ra ko‘rinishidagi gidrotexnika inshooti. Quduqning aholini suv bilan ta‘minlash va sug‘orish uchun yer osti suvlari ni yig‘ish maqsadida quriladigan suv to‘plovchi; yer osti suvlarini yer usti suvlari bilan qo‘shish yoki drenaj suvlari va tindirilgan kanalizatsiya suvlari ni yig‘ish maqsadida quriladigan suv singdiruvchi; daryo, ko‘l, suv omborlaridan olinadigan suvlarni rostlash maqsadida qirg‘oqqa yaqin quriladigan qirg‘oqbo‘yi xillari bo‘ladi.

**Qula** – shv. Sayhon, keng, cheksiz. *Kiyikning yuragi qula cho'lmidi?* («Go'ro'g'li».)

**Qula-tuz** – keng dala, dala-tuz, dasht. *Yo'l yurgandir ko'p qula-tuz, Yo kecha tinmaydi kunduz.* («Alpomish».)

**Qulmoq** – bot. Tutdoshlar oilasiga mansub, manzarali o'simlik sifatida o'stiriladigan, chirmashib o'sadigan ko'p yillik va bir yillik o'simlik (pivopazlikda achitqi, tibbiyotda dori vositasi sifatida ishlatiladi).

**Qulon** – otdan kichikroq, eshakdan kattaroq, otdan ko'ra ko'proq eshakkaga o'xshab ketadigan yovvoyi hayvon. *Tog'iga qarab quloni, Suviga qarab iloni.* (Maqol). *Qulon, karklar suvsiz cho'lda yotadi.* («Hasanxon».)

**Qulon-tuz** – cheksiz tekislik; shunday yer. *Ot chopasan baring qulon-tuzlarga.* («Gulnorpari».) *Ot chopishib borayotir, Hisobi yo'q qulon-tuz.* («Gulshanbog'».)

**Quloq I** – Odam hamda umurtqali hayvonlarning eshitish hamda muvozanat a'zosi va uning tashqi qismi. *Odamning qulog'i. Otning qulog'i. Quloq pardasi. Quloq suprasi. Quloq kasalliklari. Quloqqa boldoq taqmoq. Qulog'ini (qulog'idan) cho'zmoq. Qiy-chuv, chag'ir-chug'ur quloqni kar qiladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Qo'chqor qo'ng'iroqli quloqlarini erkalatib silkidi.* (Gazetadan).

**Quloq II** – 1. Suvning anhor, kanal, o'qariq va sh.k. dan kichik suv yo'liga, ariqlarga tarmoqlanib o'tadigan joyi; dahana. *Otang mirob bo'lsa ham, quloqning boshida bo'l.* (Maqol). *Tilim sho'x yallada, doim xayolimda baland hosil. Fikr tekis sug'ormoq bo'lsa, zehnim suv qulog'ida.* (S. Abdulla).

2. Shunday joydan o'tadigan suv miqdori. [*Akbar akaning ko'ziga*] *Shu qadimiy daryodan ekaniga bir quloq suv chiqarib ololmay armonda o'tgan, baxt izlab elma-el kezgan g'urumsaroyliklar ko'rindi.* (Y. Shams-haroy, «Baxt izlab».)

**Qulun** – 1. Otning bir yoshgacha bo'lgan bolasi. *Toychoqlar quloqlarini chimirib, kishnashib, o'ynoqlashib, gala-gala bo'lib, quduqqa tashlanishdi. Biyalar qulunlari orqasidan navbat kutib turibdi.* (I. Rahim, «Ixlos»). *Kungay taraflarda yerdan taft kela boshlaganda, qulun bilan biyani yetaklab olib chiqaman.* (S. Ahmad, «Jimjitlik».)

2. (1-sh. egalik shaklida) O'g'il bolalarni erkalatish yoki erkalatib murojaat qilish shakli. *Hay, otginang nima edi, qulunim, sho'rvang sovib qoldi!* (O. Yoqubov, «Bahor kunlaridan birida»). *Bosh ustingda turib kuylay o'zim, Kir, qulunim, choyshab qo'yniga.* (Mirtemir).

**Qulunlamoq** – qulun tug'moq. *Qora biya qulunladi, toycha quyib qo'ygandek chavkarning o'zi edi.* («Yoshlik».) *Buni qarangki, jonivor begona uyurda qulunlabdi.* (Gazetadan).

**Qulunli** – quluni bor, qulunlagan. *Qulunli biya ovulga sig'mas.* (Maqol). *Mulla Obid bilan Usmon polvon qulunli biyani minib yurishga qarshi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon».)

**Quluntoy** – qulunchoq, toychoq. *Alla, bolam, alla-yo, Alla erkam, quluntoy.* («Boychechak».)

**Qulunchoq** – 1. **Qulun** s. kichr-erkl. *Uxlar qirda bo'taloq, Oltin yolli qulunchoq.* (G'. G'ulom).

2 ayn. **qulun** 2. *Alla, bolam, al-layo, qo'zichog'im alla-yo, Erkin yurtida*

tug'ilgan, qulunchog'im, alla-yo. («Qo'shiqlar»).

**Qulupnay** [r. klubnika < klubok – kesak, bo'lak; yumaloq narsa; yertut] – 1. Ra'noguldoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simlik, rezavor ekin. *Qulupnay mashhur va keng tarqalgan o'simlikdir.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

2. Uning pushti-qizil rangli shirin, xushbo'y mevasi. *Qulupnay murabbo-si. Qulupnay yeb, ketidan xom sut ichib kasal bo'lganlarida, kunlariga sen yara-dingmi, men yaradimmi?!* (S. Ahmad, «Yulduz»).

**Qulqul** – s.t. Kurka; kurka tovuq.

**Qumaloq** – qo'yning, tuyaning yuma-loq tezagi. *Kishining do'ppisi tor kel-ganda, qumaloqni «kaka» hisoblab qo-lar emish!* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *Qo'ng'izlar esa orqalariga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqa-yoqqa yumalatadi.* (M. Osim, «Karvon yo'llarida»). *Ko'pgina xalqlarda folbin-lar suyak, qo'yning qumalog'i va boshqa narsalar bilan fol ochgan.* («Fan va tur-mush».)

**Qumoloq //qiy// cholma** – qo'y-ech-kilarning axlati.

**Qumanjir** – issiq mamlakatlarda o'sadigan, etdor poyali, to'p-to'p tika-naklardan iborat bargli o'simlik; kak-tus.

**Qumli cho'l tuproqlari** – qum-da o'suvchi o'simliklar tagida shakl-lanadigan tuproq tipi. Ildiz chirindili qatlami. O'simlik qoldiqlarining chirishi-dan hosil bo'ladi.

**Qumloq** – 1. Qum bosgan, qum bi-lan qoplangan joy; qumlik. *Qumloq-qa botmoq. Havodan yog'ayotgan qum bir nafasda yerni qumloqqa aylantirdi.*

(S. Ayniy, «Esdaliklar»). *Ajabo, hech giyoh qurmagan Qumaloqlarda gul yeti-shibdi.* (E. Rahim).

2. Qum aralashgan, qumi bor; qum-li. *Qumloq tuproqlar qovushmaydi, bal-ki namligida chochilib turadi.* (M. Ba-hodirov, «Tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar»). *Zero, u tuproq tanla-maydi, toshloq, qumloq yerlarda ham o'saveradi.* («Fan va turmush».)

**Qumoq** – qum aralashib, donador bo'lib qolgan; qumli. *Uning yeri qumoq. Shuning uchun u doimo bir marta hayda-ladi.* (H. Olimjon, «Tanlangan asarlar»).

**Qumpiyoz** – lolagullilar oilasiga man-sub, ko'p yillik piyozli cho'l o'simligi.

**Qumri** [a. – g'urrak, qumri] – 1. Kaptarlar turkumiga mansub, qafasda ham urchidigan sayroqi qush. *Tog'lar, bo'stonlar to'ldi Qumri-yu bulbul bilan.* («Qo'shiqlar».)

2. Qumri (xotin-qizlar ismi).

**Qumron** – tuya sutidan tayyorlanadi-gan shifobaxsh ichimlik. Mazasi nordon, xushbo'y hidga ega. Bir kunda bir litrdan qumron ichilsa, ichni tozalash hisobiga yomon moddalarni, kasalliklarni tanadan, tomirlar ichini xolesterindan va quyilgan qonlarni suyultirib, chiqindilarni haydash bilan kuchli foyda beradi.

**Qumsabzi** – soyabongullilarga man-sub, ildizmevasi yeyishli, ko'p yillik cho'l o'simligi.

**Qumsaqich, qumsag'iz** – murakkab-gullilarga mansub, adir va tog'larda o'sadigan ko'p yillik kauchukli o'simlik.

**Qumursqa** – mayda chumoli; umu-man, har qanday chumoli. *Bir qumursqa bir dona donni tortsa, ikkinchi qumurs-qa orqadan itarib, unga yordam beradi.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Bahor o'zi boshqa-cha fasl-da! Yerga oftob tegishi bilan*

qumursqa inining yonida tuproq uyumi paydo bo'ladi. (A. Hamdam, «Hamal kirdi»).

**Qumzor** – qum bilan qoplangan joy; qumloq. *Qumzorlarni saksovulzorga aylantirmoq. Ergash akam ham podasini to'plab, qumzordan pastroqda bo'lgan ro'd [daryo, anhor] qirg'og'iga surib tushurdi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Qunduz** – 1. Suvsarsimonlar oilasiga mansub, qimmatbaho mo'ynali sutemizuvchilar turkumi. *Bu bexatar maskanda Buxoro bug'usi, qunduz, qirg'ovul kabi hayvonlarni ko'paytirish ko'zda tutilgan.* («Fan va turmush».) *Havoda o'ynaydi yulduz, Daryoda o'ynaydi qunduz.* («Malikayi ayyor».) **Qunduz qosh** yoki **qoshi qunduz.** Chiroyli, o'siq qora qosh. *Shahlo ko'zlar, o'siq jingala kipriklar, qunduz qosh va qora xollar va boshqa latofatlar o'ziga pisand bo'lmadilar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2 *s.t.* Yoqaga yoki telpak jiyagiga tutilgan o'siq yungli har qanday mo'yna. *Qunduzi qalin bo'rk. Laylak qor urib turar edi. Munisxon yoqasining qunduzi bilan bo'ynini o'rab... zinaning oxirgi pillapoyasida to'xtab qoldi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

3. Qunduz (xotin-qizlar ismi).

**Qusish** – qusmoq (*fl.har.n.*)

**Tuproq (nam) qusibdi** – *s.t.* Tuproq nam tortib, namiqib, qoramtir tusga kiribdi. *Har gektar yerda bir kecha-kunduz suv oqib, tuproq yuzasi qorayib, dehqon tili bilan aytganda, «tuproq qusdi».* (M. Nazarov, «Jilvon jilvalari»).

**Quturish** – 1. Quturmoq (*fl.har.n.*) *Rashk asossiz gumonlar jazavasining quturishidan boshqa narsa emas.* (Gazetadan).

2. Hayvon va odamlarda viruslar qo'zg'atadigan, quturgan hayvon tishlaganda yoki so'lagi tekkanda yuqadigan, markaziy nerv sistemasi funksiyasining izdan chiqishi, tomir tortishishi, falajlik, hiqildoq va nafas yo'li muskullarining spazmi bilan o'tadigan o'tkir yuqumli kasallik.

**Quturmoq** – quturish kasaliga yo'liqmoq. *Quturgan bo'ri. It qutursa, egasini qopadi.* (Maqol). – *E, musulmon, nega qopmaydi, deysiz, bu it quturganku, axir, – dedi To'qsanov va darrov yonidan qora to'punchasini chiqardi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Quvray, oqquvray** – cho'l-dashtlarda o'sadigan, mayda tikanli bir yillik yovvoyi o't. *Bobo yo'l chetidagi oqquvrayning gulini uzib, chekkasiga qistirdida, joyiga chiqib o'tirdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Quvramoq** – *kam qo'll.* Qurimoq, qurushmoq, qovjiramoq. *Unda-bunda uchrashib turgan bedazorlar suvsiz qolib quvragan.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»). *Tog'ning o'ti bari quvrab ketibdi.* («Gulnorpari».) *Odamlarning ekinlari ko'karmay quvradi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Quvroq** – *kam qo'll.* Quvragan, qurigan. *Shabada keltirgan quvroq pichan hididan... boshi aylanib, to'lg'anib turibdi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Tong shamoli quvroq o'tni yiqadi...* («Tohir va Zuhra».)

**Quvur** – 1. Katta, yo'g'on sopol truba. *Obrahaga quvur qo'ymoq.*

2. Suv, bug', gaz va sh.k. ning oqishi uchun temir, beton va b. dan ishlangan uzun, ichi bo'sh maxsus qurilma. *Gaz quvuri. Neft quvuri. Suv quvuri. Kozim temir quvurlardan sharqirab suv otila-*

qumursqa inining yonida tuproq uyumi paydo bo'ladi. (A. Hamdam, «Hamal kirdi»).

**Qumzor** – qum bilan qoplangan joy; qumloq. *Qumzorlarni saksovl-zorga aylantirmoq. Ergash akam ham podasini to'plab, qumzordan past-roqda bo'lgan ro'd [daryo, anhor] qirg'og'iga surib tushurdi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Qunduz** – 1. Suvsarsimonlar oila-siga mansub, qimmatbaho mo'ynali sut-emizuvchilar turkumi. *Bu bexatar mas-kanda Buxoro bug'usi, qunduz, qirg'ovul kabi hayvonlarni ko'paytirish ko'zda tu-tilgan.* («Fan va turmush».) *Havoda o'y-naydi yulduz, Daryoda o'ynaydi qunduz.* («Malikayi ayyor».) **Qunduz qosh** yoki **qoshi qunduz.** Chiroyli, o'siq qora qosh. *Shahlo ko'zlar, o'siq jingala kipriklar, qunduz qosh va qora xollar va boshqa latofatlar o'ziga pisand bo'lmadilar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2 s.t. Yoqaga yoki telpak jiyagiga tu-tilgan o'siq yungli har qanday mo'yna. *Qunduzi qalin bo'rk. Laylak qor urib turar edi. Munisxon yoqasining qunduzi bilan bo'ynini o'rab... zinaning oxirgi pillapoyasida to'xtab qoldi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

3. Qunduz (xotin-qizlar ismi).

**Qusish** – **qusmoq** (fl.har.n.)

**Tuproq (nam) qusibdi** – s.t. Tup-roq nam tortib, namiqib, qoramtir tusga kiribdi. *Har gektar yerda bir kecha-kun-duz suv oqib, tuproq yuzasi qorayib, dehqon tili bilan aytganda, «tuproq qusdi».* (M. Nazarov, «Jilvon jilvalari»).

**Quturish** – 1. Quturmoq (fl.har.n.) *Rashk asossiz gumonlar jazavasining qu-turishidan boshqa narsa emas.* (Gazeta-dan).

2. Hayvon va odamlarda viruslar qo'zg'atadigan, quturgan hayvon tishla-ganda yoki so'lagi tekkanda yuqadigan, markaziy nerv sistemasi funksiyasining izdan chiqishi, tomir tortishishi, falajlik, hiqildoq va nafas yo'li muskullarining spazmi bilan o'tadigan o'tkir yuqumli kasallik.

**Quturmoq** – quturish kasaliga yo'-liqmoq. *Quturgan bo'ri. It qutursa, ega-sini qopadi.* (Maqol). – *E, musulmon, nega qopmaydi, deysiz, bu it quturgan-ku, axir, – dedi To'qsanov va darrov yo-nidan qora to'pponchasini chiqardi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Quvray, oqquvray** – cho'l-dasht-larda o'sadigan, mayda tikanli bir yillik yovvoyi o't. *Bobo yo'l chetidagi oqquv-rayning gulini uzib, chekkasiga qistirdi-da, joyiga chiqib o'tirdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Quvramoq** – kam qo'll. Qurimoq, qurushmoq, qovjiramoq. *Unda-bunda uchrashib turgan bedazorlar suvsiz qolib quvragan.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»). *Tog'ning o'ti bari quvrab ketibdi.* («Gulnorpari».) *Odamlarning ekinlari ko'karmay quvradi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Quvroq** – kam qo'll. Quvragan, qu-rigan. *Shabada keltirgan quvroq pichan hididan... boshi aylanib, to'lg'anib tu-ribdi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Tong shamoli quvroq o'tni yiqadi...* («Tohir va Zuhra».)

**Quvur** – 1. Katta, yo'g'on sopol tru-ba. *Obrahaga quvur qo'ymoq.*

2. Suv, bug', gaz va sh.k. ning oqishi uchun temir, beton va b. dan ishlangan uzun, ichi bo'sh maxsus qurilma. *Gaz quvuri. Neft quvuri. Suv quvuri. Kozim temir quvurlardan sharqirab suv otila-*



qumursqa inining yonida tuproq uyumi paydo bo'ladi. (A. Hamdam, «Hamal kirdi»).

**Qumzor** – qum bilan qoplangan joy; qumloq. *Qumzorlarni saksovl-zorga aylantirmoq. Ergash akam ham podasini to'plab, qumzordan past-roqda bo'lgan ro'd [daryo, anhor] qirg'og'iga surib tushurdi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Qunduz** – 1. Suvsarsimonlar oila-siga mansub, qimmatbaho mo'ynali sut-emizuvchilar turkumi. *Bu bexatar mas-kanda Buxoro bug'usi, qunduz, qirg'ovul kabi hayvonlarni ko'paytirish ko'zda tu-tilgan.* («Fan va turmush».) *Havoda o'y-naydi yulduz, Daryoda o'ynaydi qunduz.* («Malikayi ayyor».) **Qunduz qosh yoki qoshi qunduz.** Chiroyli, o'siq qora qosh. *Shahlo ko'zlar, o'siq jingala kipriklar, qunduz qosh va qora xollar va boshqa latofatlar o'ziga pisand bo'lmadilar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2 s.t. Yoqaga yoki telpak jiyagiga tu-tilgan o'siq yungli har qanday mo'yna. *Qunduzi qalin bo'rk. Laylak qor urib turar edi. Munisxon yoqasining qunduzi bilan bo'ynini o'rab... zinaning oxirgi pillapoyasida to'xtab qoldi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

3. Qunduz (xotin-qizlar ismi).

**Qusish – qusmoq** (fl.har.n.)

**Tuproq (nam) qusibdi** – s.t. Tup-roq nam tortib, namiqib, qoramtir tusga kiribdi. *Har gektar yerda bir kecha-kun-duz suv oqib, tuproq yuzasi qorayib, dehqon tili bilan aytganda, «tuproq qusdi».* (M. Nazarov, «Jilvon jilvalari»).

**Quturish** – 1. Quturmoq (fl.har.n.) *Rashk asossiz gumonlar jazavasining qu-turishidan boshqa narsa emas.* (Gazeta-dan).

2. Hayvon va odamlarda viruslar qo'zg'atadigan, quturgan hayvon tishla-ganda yoki so'lagi tekkanda yuqadigan, markaziy nerv sistemasi funksiyasining izdan chiqishi, tomir tortishishi, falajlik, hiqildoq va nafas yo'li muskullarining spazmi bilan o'tadigan o'tkir yuqumli kasallik.

**Quturmoq** – quturish kasaliga yo'liqmoq. *Quturgan bo'ri. It qutursa, ega-sini qopadi.* (Maqol). – *E, musulmon, nega qopmaydi, deysiz, bu it quturgan-ku, axir, – dedi To'qsanov va darrov yo-nidan qora to'pponchasini chiqardi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Quvray, oqquvray** – cho'l-dasht-larda o'sadigan, mayda tikanli bir yillik yovvoyi o't. *Bobo yo'l chetidagi oqquv-rayning gulini uzib, chekkasiga qistirdi-da, joyiga chiqib o'tirdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Quvramoq** – kam qo'll. Qurimoq, qurushmoq, qovjiramoq. *Unda-bunda uchrashib turgan bedazorlar suvsiz qolib quvragan.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»). *Tog'ning o'ti bari quvrab ketibdi.* («Gulnorpari».) *Odamlarning ekinlari ko'karmay quvradi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Quvroq** – kam qo'll. Quvragan, qu-rigan. *Shabada keltirgan quvroq pichan hididan... boshi aylanib, to'lg'anib tu-ribdi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Tong shamoli quvroq o'tni yiqadi...* («Tohir va Zuhra».)

**Quvur** – 1. Katta, yo'g'on sopol tru-ba. *Obrahaga quvur qo'ymoq.*

2. Suv, bug', gaz va sh.k. ning oqishi uchun temir, beton va b. dan ishlangan uzun, ichi bo'sh maxsus qurilma. *Gaz quvuri. Neft quvuri. Suv quvuri. Kozim temir quvurlardan sharqirab suv otila-*

yotgan hovuzchaga duch keldi. (E. Usmonov, «Yolqin»). So'ngra undan bog' tomonga qaratib, diametri 80 millimetr bo'lgan polietilen quvurlar tortildi. («Fan va turmush»).

**Quvushquloq** – qulog'ining teng o'rtasidan buklangan, qatlangan qo'y-echkilar.

**Quyilish** – daryoning dengiz, ko'l va sh.k. suvli obyektga borib quyiladigan joy. *Daryoning ko'lga, dengizga, okeanga yoki boshqa daryoga borib quyiladigan joyi daryoning quyilishi deb ataladi.* («Tabiiy geografiya»).

**Quymuch** – 1 anat. ayn. **dumg'aza**.

2. Gavdaning bel bilan dumg'aza o'rtasidagi orqa qismi.

**Quyvon** – 1. Tovushqonlar oilasiga mansub, quloqlari va orqa oyoqlari uzun sitemizuvchi hayvon. *Yovvoyi quyvon. Xonaki quyvon. Quyvon terisi. To'ngak orqasidan quloqlari dikkaygan quyvon paydo boldi-da, koptokdek sakrab, butalar orasiga yashirindi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). *Ovchilar har qaysisi bir nechadan quyvon, o'rdak olib bormoqda edi.* (A. Qahhor, «Xotinlar»). *O'zbekiston xojaliklarida quyvon, asosan, go'sht va mo'yna uchun boqiladi.* («Fan va turmush».)

2 ko'chma. *Yuraksiz, jur'atsiz, qo'rqoq (odam haqida). Mayna... Narzi ota bilan gurunglashishni... istamasdi. Bu qari quyvon biror vahimani javrab, g'ashimni keltiradi, deb indamadi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Quyvon bo'lmoq** s.t. Qochib qolmoq, juftakni rostlamoq. [Munavvarxon] *Ishxonasiga bir ko'rinish beradi-yu, quyvon bo'ladi.* (M. Ibrohimov, «Yo'lakdagi muhabbat»).

3. Muchal yil hisobida to'rtinchi yil nomi. (q. **muchal**); xargo'sh yili.

**Quyvonxona** – quyvon boqib ko'paytirish uchun moslangan maxsus xona yoki katak.

**Quyvonchilik** – chorvachilikning quyvonlarni boqish, urchitish va ulardan mahsulot (go'sht, teri va tivit) yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. *Quyvonchilik fermalari.*

**Quyqa** – suyuqlik va ba'zi zararlardan yig'ilgan cho'kindi; loyqa, quyqum; bo'tqasimon quyquq qorishma. *Bo'yoq quyqasi. Musallas quyqasi. Tindirilgan suv quyqasi. Gil suvda erimaganligidan quyqa holda bo'ladi.* (M. Bahodirov, «Tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar»). *Amudaryo bir yil ichida tevarakdagi tekisliklarda 20 santimetrgacha qalinlikda quyqa hosil qiladi.* (I. Jabborov, «Ko'hna xarobalar siri»).

**Quyruq** – 1 ayn **dum**. *Quyruq'i uzun it. Bedovga yarashgan quyruq ham yoldir.* (Ergash Jumanbulbul o'g'li). *Qushni osmonda tutib turadigan – qanot bilan quyruq'i.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

2 ayn **dumba** – 1. *Boqilgan qo'y-larning quyruq'i quchoqqa sig'mas edi. Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi.* (Maqol). *Tajribali chopqinchilar Hirot tomoniga borayotganda, har ikki-uch soatlik yo'lda ma'lum bir yerga quyruq yog'i bo'laklarini ko'mib qo'ygan edilar.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Quyushqon** – egarni oldinga siljimasligi uchun ot yoki eshakning dumi ostidan aylantirib, egarga birlashtiriladigan, ko'pincha turli bezaklar qadaladigan qayish. *Otning egar qoshi tilladan, yoliga kumush tangalar, quyushqoniga esa sadaflar taqilgan.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Qur** – ayn. **quray**.

**Quray** – und, s. Qo‘ylarni haydash yoki chaqirish uchun ishlatiladi.

**Quralay** – 1. Kiyik yoki ohularning yosh bolasi.

2 ayn. **Quralay ko‘z**. Quralayning ko‘ziga o‘xshash ko‘zli. *Quralay ko‘z, bodomqovoq, sarv qomat... (S. Siyoyev, «Avaz»).*

**Qurbaqa** – suvda va quruqlikda yashovchi dumsiz jonivorlar turkumining bir turi; oyoqlari sakrab yurish uchun moslashgan. *Qurbaqaning sayrash. Farida qurbaqa suzish qilib, qirg‘oqqa qarab borar ekan, suv purkab kuldi. (P. Qodirov, «Uch ildiz»).*

**Qurimchil** // **vo‘r** – rangini aniqlab bo‘lmaydigan, aralash rangdagi mol. Bu holat ko‘proq echkilarda uchraydi, qo‘ylarda esa kamroq.

**Quritgich** – quritadigan, namini qochiradigan qurilma, apparat, sushilka. *Paxta quritgichlari. Avtomatik quritgich shkaflari.*

**Qurma** – tar. Dehqonlardan olingan har xil g‘ayriqonuniy oliq-soliq, o‘lpon. *Albatta... pora, qurma, juzya, muhrona degan turli-tuman jabrli solliqlardan to‘planadilar. (Hamza, «Tanlangan asarlar»).*

**Qurov** – yaylovdagi yilqilar uchun qurilgan yozlik otxona.

**Quroq** – qiyoqning quruqlikda o‘sadigan bir turi. *Cho‘ldan quroq yeb to‘ygan, Yelini sutdan qappaygan Anovi cheksiz sigirlar ovul yoqqa yo‘l olgan. (G‘. G‘ulom).*

**Quroqzor** – nuqul quroq o‘t bilan qoplangan yer, joy, maydon. *Tong oldidan pozitsiyaga chiqib, yo‘l chetidagi quroqzorga zanjir-zanjir bo‘lib taraldik. (A. Muxtor, «Davr mening taqdirim-da»).*

**Qurt I** – 1. Uzun tanasini egib-yozib yoki juda ko‘p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor. *Ko‘k qurt.*

2. Ba‘zi hasharotlar, mayda organizmlar nomi tarkibiga kiradi, mas., shilliq qurt, eshak qurt.

3. Ba‘zi hasharotlarning tuxumidan yuzaga keladigan g‘umbak. *Olma qurti. Ko‘sak qurti. Mayiz bilan o‘rikni biroz qurt yegan bo‘lsa ham, pok-pokiza urib ketishibdi, azamatlar. (Hamza, «Boy ila xizmatchi»).*

4. Asosan, tut bargi bilan boqiladigan, yetilib, pilla o‘raydigan shunday g‘umbak. *Qurt boqmoq. Qurt tutmoq. O‘tgan yil bahorda qurtga barg kesgani tutga chiqdim. (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).*

**Qurt II** – s.t. ayn. **Qurut**. *Javohir ham har kirganda qurtmi, bir dona shokoladmi tashlab ketishni unutmadi hech. (J. Abdullaxonov, «Xonadon»).*

**Qurtlamoq** – qurt bosmoq, qurt tushmoq, tanasida yoki ichida qurt paydo bo‘lmoq. *Olma qurtlab ketibdi. Suv qurtlab ketibdi. Qurtlagan go‘sh. Patnisda arpa unidan yopilgan sopolday non, bir kaft quritilgan turshak. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).*

**Qurtli** – 1. Qurt bosgan, qurtlagan. *Qurtli suv.*

2. Ichida qurt joylashgan, ichida qurt boqilayotgan. *Qurtli olma. Qurtli quti-cha. Qurtli savat. Qurtli xona.*

**Qurtloqi** – shv. Qurt bosgan, qurt tushgan, qurtlagan. *Qurtloqi go‘sh. Qurtloqi suv. Iflos patnislarda «puf desa, Buxoroga uchadigan» taxir chapchap non, qurtloqi turshak, jiyda tortildi. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).*

**Qurt-qumursqa** – turli mayda hasharotlar, qurt va qumursqalar. *Ahvolim-*

ni so'ramading, Oqlamading tanamni, Qurt-qumursqa talaydi, Ertadan kech mevamni. (Z. Diyor). Kosilka ortidan izma-iz chug'urlashib qaldirg'ochlar ergashar, ular uni buzilgan qurt-qumursqa va yuzaga chiqib qolgan chigirtkalarni ovlashardi. (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Qurtxona** – ipak qurti boqiladigan, pilla yetishtiriladigan xona, uy yoki maxsus bino. *Qurtlarning tez va yaxshi o'sishi uchun qurtxona havosi issiqligini, doim normal bo'lishini kuzatib turish zarur.* (A. Abduazimov, «Yillar dostoni»).

**Qurtchi** – s.t. 1. Ipak qurti boqib, parvarish qilib, pilla yetishtiruvchi, qurt boquvchi; pillachi. *Dongdor qurtchi.*

2 ayn. **Qurutchi.**

**Qurtchilik** – 1. Qurtchi ishi, kasbi.

2. Qishloq xo'jaligining qurt boqish, pilla yetishtirish ishi bilan shug'ullanuvchi sohasi; pillachilik.

**Qurultoy** – 1 tar. Turkiy xalqlar va mo'g'ul xalqida qadimdan mavjud bo'lgan turli harbiy kengashlar va majlislarning umumiy nomi.

2. O'zbekistonda hozir: biror soha vakillari ishtirokidagi respublika miqyosida o'tkaziladigan katta yig'ilish. *Paxtakorlar qurultoyi. Xotin-qizlar qurultoyi.*

**Quruq** – 1. Suvi, nami batamom yoki qisman qochgan, suvini, namini batamom yoki qisman yo'qotgan; suvi, nami yo'q yoki oz. *Quruq o'tin. Quruq shamol. To'qayga o't tushsa, ho'l-quruq baravar yonar.* (Maqol).

2. Yog'ingarchilik kam bo'lgan yoki bo'ladigan; yog'in-chochinsiz. *Quruq iqlim. Bu yil yoz quruq keldi.*

3. Maxsus quritilgan, qurigan. *Quruq meva. Quruq beda. Quruq choy. Quruq go'sht.*

**Quruqchilik** – yoz qurg'oq kelgan, yog'in-sochin kam bo'lgan palla; qurg'oqchilik. *Qurg'oqchilik bo'lmaydigan rayonlar.*

**Qurushqoq** – 1. Suvi qochib, qurib-burushib qolgan, qovjiragan. *Qurushqoq olma. O'z bolalaridan ikki-tagina qurushqoq limonni ayaydirgan ota qanaqa ota axir!* (G'ayraty, «Unutilmas kunlar»).

2. Oriq, tirjiq, tirjaygan. – *Rost, men uning qo'lida kitob tugul, gazeta ham ko'rmayman, – dedi O'ktam va kulib qo'ydi. – Ko'pincha bir juft qurushqoq echkini boqib yuradi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**Qurg'amoq** – shv. **Qurimoq.** *Buzilgan qo'rg'onchalar, qurg'agan katta-katta chinorlar ko'zga juda xunuk ko'rinadi.* (Uyg'un, «Tursunoy»). *To'lamat bo'lsa, loygarchilikni bahona qildi. Havo ochilib ketsa, bir-ikki kunda yer qurg'ab qoladi, o'shanda pichanni tashiyimiz, deb payt poylaydi, to'ylarda yurdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Qurg'oq** – 1. Yog'in-sochin kam bo'lgan yoki bo'ladigan; quruq. *Markaziy Osiyoning qurg'oq iqlimi. ...paxtakorlarimiz erta ko'klamning qurg'oq kelganligiga qaramay murg'ak nihollarni ustalik bilan parvarish qilyaptilar.* (Gazetadan).

2. O'simlik o'sishi, dehqonchilik uchun suv, nam yetarli bo'lmagan; qurg'oqchilik. *Ehtimol, sholi, bug'doy singari qurg'oq yerga ekilib, yomg'ir suvigina unga kifoya bo'lgandir.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

3 s.t. Yer sharining quruq qismi, quruqlik.

**Qurg'oqlik** – 1. Qurg'oq ekanlik, namning, yog'in-sochinning kamligi. *Har*

ikki kunda bir sug'oriladigan bu boqqa bahorning qurg'oqligi uncha ta'sir qilmagan edi. (S. Ayniy, «Qullar»).

**2 ayn. Qurg'oq 4.**

**Qurg'oqchil** – dehqonchilik uchun suv, nam, yog'in-sochinning kam bo'ladigan; kamsuv; suvsiz, qurg'oq. *Respublikamizning qurg'oqchil iqlim sharoitida yer bilan suvni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.* (Sh. Rashidov, «Yangi yer haqida so'z»).

**Qurg'oqchilik** – bug'lanish yog'inidan ortiq bo'lgan sharoitlarda kechadigan uzoq davomli ob-havo. Bunday sharoitda tuproqdagi suv zaxirasi tez sarflanib ketadi, bu esa qishloq xo'jalik ekinlari hamda yaylov o'simliklarining rivojlanishi va mahsulotlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yog'in-sochin me'yoridan juda kam bo'lgan, qurg'oq sharoit. *Qurg'oqchilikka chidamli daraxtlardan yana biri mayda bargli qayrog'ochdir.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»). *Bir yili qattiq qurg'oqchilik bo'lib, ekinlar kuyib ketdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Qushqaroq** – chig'iriqning harakat uzatuvchi tishli qismi.

**Qushqo'nmas** – murakkabguldoshlarga mansub, mayda tikanli bir yoki ko'p yillik begona o't. Qo'y bundan 8 ming yil avval xonakilashtirilgan. Mavjud kalta dumli qo'y zotlari muflonlardan, uzun dumli qo'y zotlari va yog'li dumli qorako'l qo'ylari, dumbali (histori, jaydari va shu kabilar) qo'ylar arxarlardan kelib chiqqan.

**Qushtumshuq, qushkalla** – tumshug'i yoki kallasi qushnikiga o'xshaydigan mol.

**Qushchilik** – qush, parranda boqish va yetishtirish; parrandachilik.

**Qo'l** – 1. Odamning barmoq uchlari dan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi. *Baquvvat qo'llar. Qo'lni oldinga cho'zmoq. Ikki qo'lni yuqori ko'tarmoq. Qo'l uchi. Bosh qashigani ham qo'lim tegmaydi.*

2. Shu a'zoning bilakdan barmoqlar uchigacha bo'lgan qismi; panja.

3 s.t. Hayvonlarning oldingi oyoqlari. *Qo'yning qo'li va soni. Qo'l go'shti.*

**Qo'm** – tuyaga, ot-ulovga yuk o'rish uchun kigizni o'rab va ikki buklab bog'lab, egar o'rniga uriladigan moslama.

**Qo'mlamoq** – tuyaga qo'm, egar urmoq, tuyani egarlamoq.

**Qo'nalg'a** – turarjoy, boshpana bo'lib xizmat qilgan (qiladigan) joy; makon, manzil (*yana q. qo'nim 1, qo'nolg'a 2*). *Dashtlarda, yo'l bo'ylarida bunday qo'nalg'alarning qoldiqlari saqlanib qolganligiga ko'zingiz tushgandir.* (M. Sattorov, «O'zbek udumlari»).

**Qo'nolg'a** – 1. Qushlar qo'nib dam oladigan, tunaydigan joy; qo'ndoq. *Ucha-ucha holdan toygan lochin qanotlarini yig'ishtirdi-yu, qo'nolg'aga kelib qo'ndi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»).

2. Safardagilar to'xtab (qo'nib) dam oladigan joy.

3. Umuman, boshpana, pana joy.

**Qo'noq I** – qo'ng'irboshlar oilasiga mansub, doni tariqdan ko'ra maydaroq, boshqali bir yillik o'simlik; g'alla va yemxashak ekini.

**Qo'noq II** – parrandalar, uy parrandalari kechasi qo'nib yotadigan moslama.

**Qo'ng'irbosh** – boshqodoshlar oilasiga mansub, qurg'oqchilikka chidamli, serurug', serdon bir va ko'p yillik o'tsimon o'simlik.

ikki kunda bir sug'oriladigan bu boqqa bahorning qurg'oqligi uncha ta'sir qilmagan edi. (S. Ayniy, «Qullar»).

#### 2 ayn. Qurg'oq 4.

**Qurg'oqchil** – dehqonchilik uchun suv, nam, yog'in-sochinning kam bo'ladigan; kamsuv; suvsiz, qurg'oq. *Respublikamizning qurg'oqchil iqlim sharoitida yer bilan suvni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.* (Sh. Rashidov, «Yangi yer haqida so'z»).

**Qurg'oqchilik** – bug'lanish yog'ini-dan ortiq bo'lgan sharoitlarda kechadigan uzoq davomli ob-havo. Bunday sharoitda tuproqdagi suv zaxirasi tez sarflanib ketadi, bu esa qishloq xo'jalik ekinlari hamda yaylov o'simliklarining rivojlanishi va mahsulotlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yog'in-sochin me'yoridan juda kam bo'lgan, qurg'oq sharoit. *Qurg'oqchilikka chidamli daraxtlardan yana biri mayda bargli qayrog'ochdir.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»). *Bir yili qattiq qurg'oqchilik bo'lib, ekinlar kuyib ketdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Qushqaroq** – chig'iriqning harakat uzatuvchi tishli qismi.

**Qushqo'nmas** – murakkabguldoshlarga mansub, mayda tikanli bir yoki ko'p yillik begona o't. Qo'y bundan 8 ming yil avval xonakilashtirilgan. Mavjud kalta dumli qo'y zotlari muflonlardan, uzun dumli qo'y zotlari va yog'li dumli qorako'l qo'ylari, dumbali (histori, jaydari va shu kabilar) qo'ylar arxarlardan kelib chiqqan.

**Qushtumshuq, qushkalla** – tumshug'i yoki kallasi qushnikiga o'xshaydigan mol.

**Qushchilik** – qush, parranda boqish va yetishtirish; parrandachilik.

**Qo'l** – 1. Odamning barmoq uchlari-dan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi. *Baquvvat qo'llar. Qo'lni oldinga cho'zmoq. Ikki qo'lni yuqori ko'tarmoq. Qo'l uchi. Bosh qashigani ham qo'lim tegmaydi.*

2. Shu a'zoning bilakdan barmoqlar uchigacha bo'lgan qismi; panja.

3 s.t. Hayvonlarning oldingi oyoqlari. *Qo'yning qo'li va soni. Qo'l go'shti.*

**Qo'm** – tuyaga, ot-ulovga yuk o'r-tish uchun kigizni o'rab va ikki buklab bog'lab, egar o'rniga uriladigan moslama.

**Qo'mlamoq** – tuyaga qo'm, egar urmoq, tuyani egarlamoq.

**Qo'nalg'a** – turarjoy, boshpana bo'lib xizmat qilgan (qiladigan) joy; makon, manzil (*yana q. qo'nim 1, qo'nolg'a 2*). *Dashtlarda, yo'l bo'ylarida bunday qo'nalg'alarning qoldiqlari saqlanib qolganligiga ko'zingiz tushgandir.* (M. Sattorov, «O'zbek udumlari»).

**Qo'nolg'a** – 1. Qushlar qo'nib dam oladigan, tunaydigan joy; qo'ndoq. *Ucha-ucha holdan toygan lochin qanotlarini yig'ishtirdi-yu, qo'nolg'aga kelib qo'ndi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»).

2. Safardagilar to'xtab (qo'nib) dam oladigan joy.

3. Umuman, boshpana, pana joy.

**Qo'noq I** – qo'ng'irboshlar oilasiga mansub, doni tariqdan ko'ra maydaroq, boshqali bir yillik o'simlik; g'alla va yem-xashak ekini.

**Qo'noq II** – parrandalar, uy parrandalari kechasi qo'nib yotadigan moslama.

**Qo'ng'irbosh** – boshqodoshlar oilasiga mansub, qurg'oqchilikka chidamli, serurug', serdon bir va ko'p yillik o'tsimon o'simlik.

**Qo'qonjo'xori** – jo'xorining popuksimon boshqoli navi, oq jo'xori. *Qo'qonjo'xori ekmoq. Qo'qon jo'xori go'jasi. Atrofida hech kim yo'q; qo'qonjo'xori barglarining shamolda shildirashidan boshqa hech qanday sas yo'q edi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Qo'r II – 1.** Yig'ib, to'plab, g'amlab qo'yilgan kerakli narsa; zaxira, boylik. *Qo'r qilmoq.*

2. Qut, baraka.

**Qo'ra – 1.** Yog'och, shox-shabba, panjara va sh.k. dan qilingan to'siq, g'ov, devor va shunday devor bilan o'ralgan joy. *Ovulning qamish qo'ralari sovurilib ketdi.* (A. Muxtor, «Qoraqalpoq qissasi»). *Qo'ra orqasida arava g'ildiraklarining g'ijir-g'ijiri eshitildi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

2. Shunday joyda yashaydigan kishilar birligi.

3. Asosan, qo'ylar saqlanadigan joy. *Demak, qo'zisi bor qo'ylarni ajratib, qo'ra atrofida boqish lozim.* («Yoshlik».)

4 *esk.* Atrofi devor bilan o'ralgan hovli-joy, turarjoy.

**Qo'riq – 1** *kam qo'll.* Himoya, mudofaa, saqlash. *Basharti, qotil men bo'lib ko'ringanimda ham, molim va jonim qo'rig'ida o'g'rilarni o'ldirganligim uchun yana gunohkor bo'lmas edim.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Ekin yoki daraxt ekilgan, shuning uchun ham qo'riqlab turiladigan yer maydoni; ekinzor, bog' va sh.k. *Suv talashgan bo'lsak, siz ham, men ham o'z qo'rig'imiz uchun emas, kolxoz, xalq manfaatini uchun talashdik.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

3. Ilgari yoki qachonlardir ekin ekilgan, keyincha ekilmay tashlab qo'yilgan yer. *Qorabuloqda bekor yotgan egasiz,*

*qaqrab yotgan qo'riqlar ko'p.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»). *Ne-ne umidlar bilan olingan yer, bolalar yosh va Anzirat xolaning o'zi dardchil bo'lgani uchun, ekuvsiz qolib, qo'riqqa qo'shilib ketdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Yoshligimni qo'msab, kitob ochganday, Ming yillik qo'riqning bag'rin ochaman.* (S. Akbariy).

4. Hali ishlanmagan, dehqonchilik qilinmagan, ammo ekishga yaroqli joylar; bo'z yer. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish. *Ko'klamda ona-bola tog' etagidagi qo'riqqa chiqib, belkurak bilan yer ag'darib, lalmi bug'doy ekishdi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**Qo'riq ochmoq** – ilgari ekin ekilmagan yoki tashlab qo'yilgan yerlarni o'zlashtirib, ishga solmoq, u yerlarda ekin ekib, dehqonchilik qilmoq. *Kanal bo'ylari, yangi ochilgan qo'riq, u yerdagi dasht brigadasi xayolidan o'tdi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Qo'riq yer** – asrlar davomida ekin ekilmagan, tabiiy o'simliklar bilan qoplangan yer. Haydalma yerlarga nisbatan quruq yer tuprog'ining ildiz o'sadigan qavati ko'p miqdorda gumus, azot va o'simliklar oziqlanishi uchun muhim bo'lgan boshqa elementlarga boy bo'ladi.

**Qo'riqxonona** – belgilangan qonunlar-ga muvofiq davlat tomonidan ajratilgan, alohida ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan (noyob landshaft, o'simliklar, hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar va b.) tabiiy obyekt joylashgan hudud. *Ana shu ko'lning poyonsiz chor atrofi davlat muhofazasiga olinib, qo'riqxonaga aylantirilgan.* (O. Abdurahmon, «Miltiq otilmadi»).

**Qo'r-qut** – yig'ib, to'plab, g'amlab qo'yilgan narsa, boylik, zaxira; qut-

baraka. *Shunisiga suyunamanki, o'sha vaqtlarda yaxshigina ro'zg'or tutib, qo'r-qut orttirgan ekanmiz, bari xalqning ko-riga yaradi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**Qo'tir** – badanda pufakchalar hosil qilib, qattiq qichishtiradigan yuqumli teri kasalligi. *Qo'tir echki.*

**Qo'ton I – 1.** Birga boqilayotgan katta qo'y to'dasi; qo'y podasi; suruv. *Shu kecha tushimda cho'pon bo'libman, Qo'tonimni qirning to'rida ko'ribman.* (Islom shoir). *Maydonga bir qo'ton qo'yni haydab kelishdi.* (G'. Rasul, «To'ng'ich o'g'il»).

2. Qo'y yoki mol qamaladigan katta qo'ra yoki maxsus bino; qo'yxona, molxona. *Umarqul ertalab, yerdan qirov ko'tarilay deganda, qo'ylarni qo'tondan haydab chiqardi.* (O. Husanov, «Hayot ishqi»).

**Qo'ton, kachar, bostirma** – qo'y-echkilarni qishda har xil ofatlardan saqlash maqsadida atrofi devor bilan o'ralgan, ustki, tom qismi ham loy suvoq qilib yopilgan, o'rta qismida esa yantoq uyumi bo'lgan mollarning «uyi». *Nevara, qo'tondan xabar olgin, qo'ylar tinch yotibdimikin, nimagadir ko'nglim g'ash.*

**Qo'tonlamoq** – 1. Atrofni o'rab, qo'tonga aylantirmoq, qo'ton qilmoq.

2. Qo'tonlarga ayirmoq, bo'lmoq.

3. Qo'ton bo'lib turmoq, joylashmoq. *Tepaning usti tep-tekis, bemalol bir suruv qo'tonlasa bo'lardi.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar»).

**Qo'tos I** – Markaziy Osiyoning baland tog'li hududlarida yashaydigan, ho'kizlar kenja oilasiga mansub kavsh qaytaruvchi hayvon. *Qoramolning tog' sharoitiga moslangan eng kuchlisi va mahsuldori sanalgan qo'tosni Armani*

*qishloqlarida ko'p uchratdik.* (H. Nazir, «Maftuningman, Ozarbayjon»).

**Qo'y – 1.** Quvushshoxlilar turkumiga mansub, go'sht, jun, sut va teri olish uchun boqiladigan juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi sutemizuvchi uy hayvoni. Qo'y bundan 8 ming yil avval xonakilashtirilgan. Mavjud kalta dumli qo'y zotlari muflonlardan, uzun dumli qo'y zotlari va yog'li dumli qorako'l qo'ylari, dumbali (hisor, jaydari va shu kabilar) qo'ylar arxarlardan kelib chiqqan. Dumbali qo'y. Dumli qo'y. Mayin junli qo'y. Qorako'l qo'yi. Hisor qo'yi. *Ot boqqan uloqqa, qo'y boqqan qo'noqqa.* (Maqol). *Semiz qo'yning umri kalta.* (Maqol).

2. Muchal yil hisobida sakkizinchi yil nomi; *go'sfand. Uning yili – qo'y.*

**Qo'ybosh** – kechpishar qovun navlaridan birining nomi. *Bizda, ekiladigan qovunning eng yaxshi, shirin «qo'novvot», «shakarpalak», «qo'ybosh» kabi jaydari navlari yetishtiriladi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Qo'yfurush** – qo'y olib-sotuvchi savdogar, qo'yjallob. *Bozor kasod... qo'yfurush, aspjallob, molfurushlar bo'lsa, cho'ntagiga qo'l urmaydi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Qo'yli** – qo'yi bo'lgan, qo'yi bor. *Boboqul ming qo'yli suruvni aylanib chiqib, chaylaga qaytganda, Maxsum oyoqlarini yig'ib, bir qo'lini bolish qilib yotgan ekan.* (S. Anorboyev, «Oq-soy»).

**Qo'ypechak** – pechakgullilarga mansub, sug'oriladigan yerlarda, adirlarda o'sadigan, qo'y-mol yeydigan bir yillik yovvoyi chirmovuoq o't.

**Qo'ytikan** – murakkabguldoshlarga mansub, mevasining usti mayda tikanchalar bilan qoplangan bir yillik



o'simlik. *O'zbekistonda g'o'za qo'ytikani va oddiy qo'ytikan turlari uchraydi.* («O'zME».)

**Qo'yxona** – qo'ylar asraladigan va boqiladigan xona, bino, joy; qo'ra.

**Qo'ychi** – 1. Qo'y asrab ko'paytirish va qo'y savdosi bilan shug'ullanuvchi. *Qoraqarg'aga qatnovchi bir qo'ychi boy [O'rozni] yiliga sakkiz so'mdan yollab, Toshkentga keltirgan.* (Oybek, «Tanlangan asarlar».)

2 s.t. Qo'y boquvchi cho'pon; qo'y-chivon.

**Qo'ychilik** – chorvachilikning qo'ylarni urchitish, ko'paytirish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. *Qo'ychilikni rivojlantirish. Qo'ychilik fermasi. Qo'ychilik mutaxassisi.* Oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, yog', sut) va yengil sanoatga qimmatli xomashyo (jun, teri, mo'yna) yetkazib beradi.

**Qo'ychivon** – 1 ayn. **qo'ychi**

2. *Qo'ychivon ko'p bo'lsa, qo'y harom o'lar.* (Maqol).

2. Qo'ychilik sohasida ishlovchi, qo'y boqish va ko'paytirish bilan shug'ullanuvchi chorvador.

**Qo'zi** – 1. Qo'yning yoshiga yetmagan, to'rt-besh oylik bolasi; umuman, qo'yning bolasi. *O'ngroqda, yashil tepa ustida qo'ylar, qo'zilar, echkilar o'tlab yuribdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Chirog'im, sendan oldingi zootexnik ham xuddi shunday deb, qo'zilarni sovliqlardan ajrattirmagan edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy».)

2. (1-sh. egalik shaklida). Bolalarni erkalatib murojaat etish shakli; *qo'zichog'im.*

3. Qo'zi. Qo'zivoy (erkaklar ismi).

**Qo'zidumba** – qalpog'i oq qo'ng'ir tusli, yesa bo'ladigan qo'ziqorin.

**Qo'zilamoq I** – tug'moq, to'llamoq (q. to'l) (qo'y haqida). *Qo'zilagan qo'ylarni parvarishlash. Qo'ylar qo'zilaydigan payt.*

**Qo'zilamoq II** – donador holga kelmoq; dona-dona, qumoq-qumoq bo'lib turmoq.

**Qo'zilatish** – qo'zi olish, qo'ylarni tug'dirish, to'l olish. *Musobaqadosh ikkala otarda ham qo'zilatish qizg'in borardi.* (O. Husanov, «Hayot ishq».)

**Qo'zilatmoq, qo'zilamoq I** – (fl. ort.h.) qo'ylarni qo'zilatish. *Qo'zilatish kompaniyasi.*

**Qo'ziqorin** – sporalardan ko'payadigan, xlorofilsiz zamburug' va uning qo'ng'ir tusli, yesa bo'ladigan bir turi. *Birinчисiga qo'ziqorin solingan kartoshka sho'rva, uchinчисiga bir krujkadan sut tarqatdi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat».)

**Qo'ziquloq** – ayn. **shovul**. 1. *Yuk mashinasidan ko'tarilgan chang yo'l yoqasidagi quvrab qolgan qo'ziquloqlar ustiga qo'nar edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa».)

**Qo'zivoy** – tarvuzning kechpishar, yirik, shirin navi. *Mehriniso paykal orala b, bitta qo'zivoy tarvuz ko'tarib chiqdi.* (S. Abdulla, «Iqbol».)

**Qo'zichoq** – 1. **Qo'zi** (s. kichr.)

2. Qo'yning emadigan bolasi. *[Toshqin] yangi tug'ilgan qo'zichoqday zo'rg'a oyoq uzra turgan kolxoz uchun katta xavf tug'dirar edi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»)

3. (3-sh. egalik shaklida) Bolalarga erkalatib murojaat etish shakli. *Sen xafa bo'lsang, men ham xafa bo'laman-da, qo'zichog'im.*

**Qo'zoq** – dukkakli o'simliklarning doni turadigan po'sti; qovzoq. *Loviya*

qo'zog'i. *Karam urug'i asta-sekin, dastlab pastki shoxlardan boshlab pishadi. Pishgan qo'zoqlar yorilib, ulardan urug'lar yerga to'kiladi.* («Fan va turmush».)

**Qo'g'a** – qo'g'adoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali o'simlik (poyasi tik o'sadi, silindrsimon yo'g'on, bo'yi 2–3 metr); qovg'a. *Hujraga kirib, go'sht, yog', qo'g'aga bog'langan to'rtta umrboqi qovun... hujrada qalashib yotganini ko'rdi.* (S. Abdulla, «Mavlono Muqimiy».)

**Qo'g'azor** – nuqul qo'g'a o'sib yotgan, qo'g'a bosgan joy. *Qo'ylar qo'g'azorda, qo'y yeydigan yantoq Baqaqurulloqda – bechoralar ba'zan och qolar ekan.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari».)

**Qo'g'irmoch** – qozonda qovurilgan bug'doy. *Navro'z kirarda... ko'p joyda o'rik qaynatiladi. Qo'g'irmoch qovuriladi.* (M. Alaviya, «Navro'z – bahor bayrami».)

**Qo'sh I – 1.** *Ikkita, bir juft; qo'shaloq. Qo'sh belbog'. Qo'sh yosti. Qo'llarida qo'sh uzuk. Qo'shg'ildirakli arava. Qo'sh otli izvosh. Qo'sh tabaqali darvoza. Qo'sh karnay. Yuqoridagi bir-biriga mingashib turgan qo'sh xarsang tagidan viqir-viqir qaynab suv chiqmoqda.* (S. Anorboyev, «Oqsoy».)

**2.** Omochga qo'shilgan bir juft (yoki bitta) ho'kiz yoki ot. *Dalaga qo'sh chiqdi. Zag'chalar qag'qag'lashib, qo'sh ketidan uchib qo'nishadi.* (N. Fozilov, «Oqim»). *Qo'sh ho'kizda yer haydab, bir otli seyalkada qo'riqqa chigit ekildi.* («O'zbekiston qo'riqlari».)

**Qo'sh-qo'sh, hayt-hayt** – qo'ylarni haydash, qaytarish, to'xtatish uchun ishlatiladigan undov so'z, shuningdek, bu holat tovushlar, signallar, hushtaklar yordamida ham bajariladi. Bola

qur-hayt deb mollarini haydab yo'lga tushdi.

**Qo'shoq – 1 sft.** Bir-biriga qo'shilgan; qo'shaloq. *Anavi malla yigit childirmani qo'shoq qilib chaladigan, hunari o'tkir childirmani.* (S. Anorboyev, «Oqsoy».)

**2 ot, maxs.** Bir arqon bilan bog'langan ikki yoki bir necha qo'y; o'zaro bog'langan qo'ylar to'dasi. *Cho'ponlar ham sotilmay qolgan qo'ylarni qo'shoqlardan chiqarib, o'tloqlarga haydadilar.* (S. Ayniy, «Doxunda»). *To'lamat Suvonjon bilan birga juni o'siq qo'zilarni tutib, qo'shoqqa tirkashmoqda.* (S. Anorboyev, «Oqsoy».)

**Qo'shoq arqon** – bir necha qo'yni o'zaro bog'lash uchun mo'ljallangan uzun arqon.

**Qo'shoq qilmoq** – qo'shoqlab bog'lamoq, bir nechtasini bir arqonga bog'lamoq.

**Qo'shoqlamoq** – bir-biriga biriktirib, bir arqon bilan bog'lamoq, qo'shoq qilmoq (qo'y, echki va sh.k. hayvonlar haqida). *Omon belidan qo'shoq arqonni yechdi. Qolgan qo'ylarni qo'shoqladik.* (G'.G'ulom, «Shum bola».)

**Qo'shtuyoqlilar** – qoramollar, qo'ylar kabi tuyoqlari bir juft bo'lgan sutemizuvchilarning bir turkumi.

**Qo'shxona – 1.** Qarollar, xizmatkorlar, qo'shchilar uchun belgilangan turarjoy. *Boyning yerining yuqorisida, balandgina bir parcha sahn xizmatkor va mardikorlarning qo'shxonasi edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar».)

**2.** Safarda qo'nish, istiqomat qilish uchun belgilangan joy, saroy. *Men og'ir singansimon o'ylanib goldim va: – Xo'p, qo'shxonam uzoq bo'lsa ham, bir xabar olib o'tarman, – dedim.* (A. Qo-

diriy, «O'tgan kunlar»). *Qo'shxonalariga bor-da, mehmonlarga xabar ber. Olish boshlandi, de.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**Qo'shchanoq** – bir-biriga qo'shilgan, yopishgan ikkita chanoq. *Chinoqchi agar terim paytida baraka ramzi bo'lgan «qo'shchanoq» topib olsa, xo'jayin uni sovg'a bilan siylardi.* («Fan va turmush».)

**Qo'shchi** – 1. Qo'sh haydovchi kishi. *Yer haydashga chiqqan qo'shchilarning kuylagan ovozlari eshitilib, meni o'zi tomoniga tortdi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

2 tar. Feodal-boylarga yollanib ishlovchi kambag'al dehqon; qarol, chorakor, batrak.

3 tar. Batrak, qarol, chorakor va kambag'al dehqonlar manfaatini himoya qilish uchun tuzilgan, 1919–1930-yillarda faoliyat ko'rsatgan kasaba tashkiloti. *Stol yonida komissiya a'zolari, «qo'shchi» faollari o'tirdilar.* (A. Qahhor, «Sarob»).

**Qo'chqor** – 1. Sovliqlarni urug'lantirishda foydalaniladigan, bichilmagan erkak qo'y. Zotli qo'chqor. *O'tgan yili esa mayin junli zotli qo'chqorlar keltirilib, o'zimizning jaydari qo'ylarga chatishtirish boshlangan edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2 ko'chma, s.t. Kishiga nisbatan beriladi; zo'r, botir, pahlavon.

3. Qo'chqor (erkaklar ismi).

## R

**Radial simmetriya** – poya, ildiz silindr shaklida bo'lganligidan uning markazida kesishgan joydan uch yoki undan ko'p simmetriya o'tkazish mumkin bo'ladi.

**Radikula** – gulli o'simliklardagi murtakning ildizchasi.

**Rak, shish** – epiteliy to'qimalarida vujudga keladigan, o'simliklarda, hayvon va odamlarda uchraydigan kasallik (o'simta).

**Rang** – fiziologik vizual sezgi asosida aniqlanadigan va bir qator fizik, fiziologik va psixologik omillarga bog'liq holda optik diapazonda elektromagnit nurlanishning sifatli subyektiv tavsifi. Rangni idrok qilish insonning o'ziga xosligi, shuningdek, atrofdagi yorug'lik manbalari, nurlanmaydigan narsalar bilan spektral tarkibi, rangi va yorqinligi bilan belgilanadi.

**Rangdor forel olabaliq (*Salmo iridevs*)** – uzunligi 90 sm.ga, og'irligi 6

kg.ga yetadi. Go'shti mazali. Issiqko'lda uning og'irligi 30 kg.ga yetganligi haqida ma'lumotlar bor.

**Ra'noguldoshlar** – (*Rosaceae*) oilasiga mansub turkum bo'lib, daraxt va butalardan iborat. Tabiiy holda Janubiy va Sharqiy Osiyoda, shuningdek Shimoliy Amerikada tarqalgan. Balandligi 15 m gacha bo'lgan, doim yashil, ba'zan barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar, barglarining cheti arrasimon tishli shaklda bo'ladi. Gullari ikki jinsli, aktinomorfik, diametri 5–12 mm. Mevalari olma shaklida, sharsimon, diametri 4–6 mm, qizil, 2–4 ta urug'i bo'ladi.

**Raps** [*nem. Raps*] – bot. Karamdoshlar oilasiga mansub, bir yillik moyli yem-xashak ekini (oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatida, chorvachilikda ishlatiladi).

**Raqamlashtirish** – analog ma'lumotlarni kompyuter tizimida saqlay ola-

digan raqamli ko‘rinishga keltirish jarayoni.

**Rasteplenie** – ota-ona daraxtlari, parchalanish, avlodida har xil belgilarga ega bo‘lgan geterozigot shakllari borligi natijasida yuz beradi.

**Raskreditovka** – o‘simliklar karantini nazorati ostidagi import mahsulotlarining karantin ruxsatnomasida belgilangan joyga (temir yo‘l stansiyasi, daryo porti, aeroport, avtomobil yo‘llaridagi maskan) yetib kelganligini tekshirib, yukni tegishli bojxona rejimiga qo‘yish va olish uchun rasmiylashtiriladigan hujjat.

**Ratsion** – hayvonlarning oziq moddalarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini bir kecha-kunduzda qondira oladigan yemxashaklar to‘plami.

**Ratsionalizatsiya** – biror ishni, ishlab chiqarish jarayonini va uning usullarini tobora takomillashtirish, ixchamlashtirish, maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish.

**Ratsional** (*lot. rationalis* – oqilona, aqlga muvofiq, to‘g‘ri; ma‘qul) – aqlga asoslangan, maqsadga muvofiq, to‘g‘ri; ma‘qul.

**Ratifikatsiya** – Xalqaro shartnoma mamlakatning eng yuqori organlari tomonidan tasdiqlanishi, faqat shartnoma ratifikatsiya qilinganidan keyin yuridik kuchga kiradi.

**Ravza** [a. – o‘tloq, ko‘kalamzor; bog‘] – *esk. kt.* 1. Gulzor, gulshan; bog‘. 2 *ko‘chma.* Bog‘, chaman. *Qadining xayolin ko‘z asrab magar, Ko‘ngil ravzasiga nihol etadur.* (Bobur). 3. *Jannat, behisht. Do‘stlar, jannatni ko‘rmak istasangiz – marhabo. Bog‘i eram, ravzadin bordir misol Dushanbada.* (Uyg‘un, «Tong qo‘shig‘i»). 4. *Ravza* (xotin-qizlar ismi).

**Ravoch** – [f.] Tog‘larda yovvoyi holda o‘sadigan, poyasi sersuv, nordon, yeyishli, ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. *Tog‘li aholi qadimdan rovochning poyasini maydalab, murabbolar tayyorlagan.* (*Gazetadan*).

**Rayon** [*fr. rayon* – keng maydon, katta kenglik < *lot. region, regionis* – viloyat, o‘lka; chegara] – 1 q. **tuman IV.** Toshkent shahar rayonlari. *Aziza qishki imtihonlarni topshirib, rayonga qaytishi bilan yana ishga tushib ketdi.* (O‘. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Shu kuni Chilonzor rayon xalq sudi yana bir ayol ustidan hukm chiqardi.* (*Gazetadan*).

2 *s.t.* *Rayon (tuman)ning ma‘muriy markazi. Rayondan kelgan vakil. Biz rayon kattakonlarining buyrug‘ini bajar-dik, xolos.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»). *Rayondan telefon qilishdi* [dedi Nishonov Saodatxonga]. (S. Zunnunova, «Yangi direktor»).

3. Biror geografik, iqtisodiy va sh.k. belgilar, xususiyatlar bilan ajralib turadigan joy, hudud. Mamlakatning muhim iqtisodiy rayonlari. *Jangovar bayroq har doim o‘z harbiy qismi bilan, jang maydonida esa qismning jangovar harakatlari rayonlarida bo‘ladi.* (*Gazetadan*).

**Rayonlashtirish** – bu geografik hududni aniq genotipik tarkibdagi populatsiyaning evolyutsion jarayonida shakllanishini asoslovchi tabiiy omillar bo‘yicha nisbatan bir turli qismlarga ajratishdir.

**Rayonlashtirmoq** – 1. Biror joyni ma‘muriy-hududiy bo‘linmalarga – tuman (rayon)larga ajratmoq. *Hududni seysmik jihatdan rayonlashtirish ish-lari amalga oshirildi va seysmik jihatdan faol hududlar xaritasi tuzildi.* (*Gazeta-dan*).

2. *Qishloq xo'jalik ekinlari va chorva mollari uchun eng muvofiq ob-havo, iqlim, tuproq sharoitlarini hisobga olib, ularni mamlakat hududiga to'g'ri taqsimlamoq. Zavodlar, har bir zona uchun ilmiy asosda rayonlashtirilgan navlarni hisobga olib, urug'lik yetkazib bermoqdalar.* (Gazetadan).

**Rayhon** [*a.* – xushbo'y o'simlik turi] – 1 bot. Labguldoshlarga mansub, oshko'k uchun ekiladigan bir yillik xushbo'y o'simlik. Osh rayhon. *Jambil, rayhonning isi yetti mahalla naridan dimoqqa uriladi.* (Shukurullo, «Javohirlar sandig'i»). *Oyim rayhonni yaxshi ko'rardi, qishin yozin chakkasidan qo'ymasdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

2. Rayhon (xotin-qizlar ismi).

**Rayhon** (*ocimum L.*) – yasnotkadoshlar, [labguldoshlar – *Lamiaceae* (*Labiaceae*)] oilasiga mansub, bo'yi 45–100 (ba'zan 150) sm ga yetadigan yarimbotalar. Tibbiyotda *ikki turining yer ustki qismi* ishlatiladi. O'simlikdan kamfora olinadi. Uning dorivor preparatlari – kukuni, moydagi va spirtidagi eritmalari va turli murakkab dorilar tarkibida is gazi, narkotiklar va uyqu dorilar bilan zaharlanganda yurak-tomir sistemasining ishini va nafas olishni qo'zg'atishda ichish hamda bod va shamollash kasalliklarida mushaklarning og'rigan joyiga surtish uchun qo'llaniladi.

**Raygras** (*Lolium*) – bug'doydoshlar [Boshqodoshlar – (*Poaceae L.*)] oilasiga mansub gazonbop o't turi. Manzarali, bargi yaltiroq, besh yilgacha manzaraviyligini yo'qotmaydi. To'q yashil rangli. Boshqa gazon o'tlariga nisbatan qattiq chim hosil qiladi. Tepkilanishga chidamli.

**Rag'a** – yaproq va mevalarda (asosan, tokda) sariq, jigarrang dog' qoldi-

radigan yuqumli zamburug' kasalligi va shu kasallik natijasida hosil bo'lgan dog'lar. *Rag'a tushgan olma.*

**Refleks** – markaziy nerv sistemasi keltirib chiqaradigan retseptorlar ta'siriga organizmning javob reaksiyasi.

**Reeksport fitosanitar sertifikat** – import qilingan karantin nazoratidagi mahsulotlar omborda saqlangan, bo'laklarga bo'lingan, qadoqlangan yoki boshqa partiyalar bilan aralashtirilgan holatda boshqa mamlakatga eksport qilingan paytda beriladigan va karantin nazoratidagi mahsulotlarni zararli organizmlar bilan zararlanmaganligini tasdiqlaydigan o'simliklar karantini va muhofazasi bo'yicha davlat organlari tomonidan berilgan xalqaro namunadagi hujjat.

**Reeksport yuk** – keyinchalik eksport qilishga rejalashtirilgan mamlakatga import qilingan yuk. Mahsulotlar, bo'laklarga bo'linib, boshqa yuklar bilan aralashtirib yoki qadoqlangan holda saqlanishi mumkin.

**Reyestr** [lot. *regestrum, registrum* – ro'yxat, sanoq] – ma'lum ishlar, hujjatlar, mol-mulk va b. ro'yxati hamda shu ro'yxatlar qayd qilinadigan daftar. *Amaldagi qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilganligi munosabati bilan 22 ta idoraviy-me'yoriy hujjat davlat reyestridan chiqarildi.* (Gazetadan). *Ayni paytda g'o'zaning yigirmata seleksiya navi davlat reyestriga kiritilgan.* (Gazetadan).

**Redutsentlar** – ovqatlanish jaryonida organik moddalarni parchalovchi organizmlar (bakteriyalar, zamburug' va ayrim hayvonlar).

**Redina** – o'rmon maydonining 0,1 va 0,2 to'liqlikka ega bo'lgan o'rmon maydoni.

2. *Qishloq xo'jalik ekinlari va chor-va mollari uchun eng muvofiq ob-havo, iqlim, tuproq sharoitlarini hisobga olib, ularni mamlakat hududiga to'g'ri taqsimlamoq. Zavodlar, har bir zona uchun ilmiy asosda rayonlashtirilgan navlarni hisobga olib, urug'lik yetkazib bermoqdalar.* (Gazetadan).

**Rayhon** [*a.* – xushbo'y o'simlik turi] – 1 bot. Labguldoshlarga mansub, oshko'k uchun ekiladigan bir yillik xushbo'y o'simlik. Osh rayhon. *Jambil, rayhonning isi yetti mahalla naridan dimoqqa uriladi.* (Shukurullo, «Javohirlar sandig'i»). *Oyim rayhonni yaxshi ko'rardi, qishin-yozin chakkasidan qo'ymasdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

2. Rayhon (xotin-qizlar ismi).

**Rayhon** (*ocimum l.*) – yasnotkadoshlar, [labguldoshlar – *Lamiaceae* (*Labiaceae*)] oilasiga mansub, bo'yi 45–100 (ba'zan 150) sm ga yetadigan yarimbutalar. Tibbiyotda *ikki turining yer ustki qismi* ishlatiladi. O'simlikdan kamfora olinadi. Uning dorivor preparatlari – kukuni, moydagi va spirtidagi eritmaları va turli murakkab dorilar tarkibida is gazi, narkotiklar va uyqu dorilar bilan zaharlanganda yurak-tomir sistemasining ishini va nafas olishni qo'zg'atishda ichish hamda bod va shamollash kasalliklarida mushaklarning og'rigan joyiga surtish uchun qo'llaniladi.

**Raygras** (*Lolium*) – bug'doydoshlar [Boshqodoshlar – (*Poaceae L.*)] oilasiga mansub gazonbop o't turi. Manzarali, bargi yaltiroq, besh yilgacha manzaraviyligini yo'qotmaydi. To'q yashil rangli. Boshqa gazon o'tlariga nisbatan qattiq chim hosil qiladi. Tepkılanishga chidamli.

**Rag'a** – yaproq va mevalarda (asosan, tokda) sariq, jigarrang dog' qoldi-

radigan yuqumli zamburug' kasalligi va shu kasallik natijasida hosil bo'lgan dog'lar. *Rag'a tushgan olma.*

**Refleks** – markaziy nerv sistemasi keltirib chiqaradigan retseptorlar ta'siriga organizmning javob reaksiyasi.

**Reeksport fitosanitar sertifikat** – import qilingan karantin nazoratidagi mahsulotlar omborda saqlangan, bo'laklarga bo'lingan, qadoqlangan yoki boshqa partiyalar bilan aralashtirilgan holatda boshqa mamlakatga eksport qilingan paytda beriladigan va karantin nazoratidagi mahsulotlarni zararli organizmlar bilan zararlanmaganligini tasdiqlaydigan o'simliklar karantini va muhofazasi bo'yicha davlat organlari tomonidan berilgan xalqaro namunadagi hujjat.

**Reeksport yuk** – keyinchalik eksport qilishga rejalashtirilgan mamlakatga import qilingan yuk. Mahsulotlar, bo'laklarga bo'linib, boshqa yuklar bilan aralashtirib yoki qadoqlangan holda saqlanishi mumkin.

**Reyestr** [lot. *regestrum, registrum* – ro'yxat, sanoq] – ma'lum ishlar, hujjatlar, mol-mulk va b. ro'yxati hamda shu ro'yxatlar qayd qilinadigan daftar. *Amaldagi qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilganligi munosabati bilan 22 ta idoraviy-me'yoriy hujjat davlat reyestridan chiqarildi.* (Gazetadan). *Ayni paytda g'o'zaning yigirmata seleksiya navi davlat reyestriga kiritilgan.* (Gazetadan).

**Redutsentlar** – ovqatlanish jaryonida organik moddalarni parchalovchi organizmlar (bakteriyalar, zamburug' va ayrim hayvonlar).

**Redina** – o'rmon maydonining 0,1 va 0,2 to'liqlikka ega bo'lgan o'rmon maydoni.

**Rediska** – [r. <lot. *radix* – ildiz, ildizmeva] – erta ko‘klamda ochiq yoki yopiq yerlarga ekiladigan poliz ekini va uning yeyishli dumaloq yoki cho‘zinchoq oq, qizil rangli hosili. *Salatning yangi uzilgan bargi rediska, bodring va oshko‘klar bilan yaxshi hamohang bo‘ladi.* (Gazetadan).

**Reduktor** [lot. *reductor* – orqaga qaytaruvchi] – *tex.* 1. Aylanma harakatni tishli g‘ildiraklar yordami bilan bir valdan ikkinchi valga uzatuvchi mexanizm.

2. Truboprovod, gaz balloni va sh.k. idishdagi suyuqlik yoki gazning bosimini kamaytirish yoki bir xilda saqlab turish uchun mo‘ljallangan asbob, moslama.

**Refleks** – markaziy nerv sistemasi keltirib chiqaradigan retseptorlar ta’siriga organizmning javob reaksiyasi.

**Refriyator** (lot. *refrigero* – sovitanaman) – tez buziladigan mahsulotlar (go’sht, sut, mevalar va boshqalar) tashiladigan transport vositasi.

**Reforma** [fr. *reformo* < lot. *reformare* – qayta qurmoq, tubdan o‘zgartirmoq] – q. **isloh, islohot.**

**Reaksiya normasi** – reaksiya me’yori tashqi muhit sharoitida ro‘y beradigan o‘zgarishlar sababli populatsiyadagi individlarning u yoki bu miqdor belgilarining namoyon bo‘lishidagi o‘zgarishlar tushuniladi.

**Regeneratsiya** – o‘simlik organidan uning yo‘qotilgan organlarini qayta tiklash va yosh o‘simlik hosil qilish qobiliyati. Regeneratsiya asosida o‘simliklarni madaniy sharoitlarda vegetativ ko‘paytirish va klonlar yetishtirish amalga oshiriladi.

**Regional flora** – qaysidir bir hududning florasini.

**Rejalashtirish** (*aholi punktlarining joylashuvi*) – bu hududda aholi punktlarini qulay yashash sharoitlari, sanitar-gigiyenik talablarga mos holda rejalashtirish.

**Regressiya** – bir belgi muayyan kattalikda o‘zgarganga, u bilan bog‘liq ravishda boshqa bir belgining o‘zgarish darajasi.

**Regress populatsiya** – mustaqil tarzda urug‘ yoki vegetativ usulni tiklanishini yo‘qotgan, shu boisdan urug‘larini tarqatish uchun tashqi muhitga muhtoj populatsiya.

**Rekombinant gen** – turli genlar komponentlaridan tarkib topgan gen.

**Rekombinant DNK** – turli manbalardan olingan DNK qismlaridan iborat DNK.

**Rekombinatsiya** – krossingover natijasida ota-onalar genlarining qayta guruhlanishi (tabaqalanishi).

**Rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar** – aholining ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlardir.

**Rekreatsion bosim** – dam oluvchilar (baliqchilar, sayyohlar, ovchilar va b.), ularning transport vositalari va b.ning tabiiy majmualarga yoki dam olish maskanlariga (go‘zal joylar, me’moriy yodgorliklar va b.) bevosita ta’siri darajasi. Bu ma’lum bir vaqt oralig‘ida (odatda kun yoki yil) bir birlik maydoniga yoki dam olish maskaniga nisbatan odamlar soni yoki kishi kunlari bilan ifodalanadi.

**Rekreatsiya** – mehnat jarayonida sarf qilingan inson kuchlarini tiklash; dam olish.

**Rekreatsion o'rmon** – tabiiy resurslarning bir qismi bo'lgan va insonlarni mehnatga qobiliyati va sog'lig'ini tiklovchi, dam olishi va hordiq chiqarishini ta'minlovchi o'rmon. Ularning iqtisodiy samaradorligi juda yuqori. O'rmonning inson sog'lig'ini tiklash va hordig'ini chiqarish uchun foydalaniladigan o'rmon massivi, ular bir paytda muhim himoya funksiyalarini ham bajaradi.

**Rekultivatsiya** – buzilgan tabiiy landshaftlarni qayta tiklash, avvalgi qiyofasiga qaytarish, avvalgi o'simlik dunyosini va tuproq qatlamini tiklash.

**Rektal tekshirish** – to'g'ri ichak va unga yondosh organlarni, shuningdek, bo'g'ozlikni (hayvonlarda) aniqlash maqsadida, u orqali amalga oshiriladigan diagnostik manipulyatsiya.

**Rektotservikal usul** – sun'iy urug'lantirish.

**Relaskop** – daraxtlarni kesishda ular tanasining umumiy sathini aniqlaydigan asbob.

**Relyef** [*fr. relief* < *lot. relevo* – (bir oz) ko'taraman] – *geogr.* – Yer yuzasining baland-pastligi majmuiga *joy relyefi* deyiladi.

Relyef balandlik va pastlik deb ikkiga bo'linadi. Balandlikka tepaliklar, tog'lar, tizma tog'lar va bellar (egarsimon joylar) kiradi. Pastliklarga esa chuqurlik, soy, jarliklar kiradi. Konussimon balandlik *tog'* deyiladi. Atrofdagi joyga nisbatan balandligi 200 mm dan oshgan balandlik *tepa* deyiladi. Tog'ning eng baland joyi *cho'qqi*, u yassi bo'lsa *plato* deyiladi. Bir tomonga cho'zilib ko'tarilib, ikki yoki pasaygan balandlik *tizma tog'*, uning eng baland nuqtalaridan o'tadigan chiziq *suv ayiriluvchi chiziq* deyiladi. Bu chiziqning ikki yoni *yonbag'ir* deyiladi.

**Remneslar** – *q. ligula*.

**Remontant** (*fr. dan remontant* – yana ko'tarilish, yana gullash) – ta'mirlash, o'simliklarning bitta vegetatsiya davrida takroran yoki bir necha marta gullashi va meva berish qobiliyati. Remontant ekinlariga manzarali butalar (choy-gibrid va b. atirgullar, ayrim spirea turlari), o't o'simliklar (hamisha yashil begonia (*Begonia semperflorens Link & Otto*), ageratum, alissum, lobeliya va b.) kiradi.

**Resirkulyatsion akvakultura** – sanoat akvakulturasining bir turi bo'lib, suvni mexanik va biologik tozalash va kislorodga boyitish orqali qayta foydalanishni nazarda tutadi. Ayrim hollarda yopiq suv ta'minoti qurilmalarida akvakultura obyektlarini yetishtirish deb ham ataladi.

**Renta** [*nem. Rente, fr. rente* < *lot. reddita* – qaytarib berilgan (narsa)] – *iqt.* **1.** Mulk egalaringning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasdan, yer yoki mol-mulkdan foiz shaklida muntazam oladigan daromadi. *Differensial renta. Absolyut renta. Yer rentasi. Bozor iqtisodiyoti tizimida yerni ishlatishdagi keng tarqalgan usul, uni ijaraga berib, renta olishdir.* (Gazetadan).

**2.** Ayrim mamlakatlarda davlat zayomlari obligatsiyalari bo'yicha foiz yoki yutuq shaklida to'lanadigan daromad.

**Rentabel** [*nem. rentable* – foydali, daromadli] – xo'jalik jihatdan maqsadga muvofiq xarajatlarni qoplaydigan va foyda keltiradigan. *Qishloq xo'jaligining rentabel tarmoqlari. Rentabel korxonalar. Davlatdan dotatsiya olmaslik va rentabel ishlash uchun ko'proq pul topish lozim.* (Gazetadan).



**Rentabellik** [nem. *rentabel* – foydali, daromadli] – korxonada va tadbirkorlikning daromaddorligi, samaradorligi; mikroiqtsodiy miqyosdagi iqtisodiy faoliyatning samaradorlik ko'rsatkichi. *Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, bu sohaning rentabelligini oshirish ko'p jihatdan o'zimizga bog'liq edi.* (Gazetadan). *Rekonstruksiya ishlariga e'tibor ko'ngildagiday emas, shuning uchun bir qancha yirik korxonalarda rentabellik darajasi past.* (Gazetadan).

**Rentabelsiz** – iqtisodiy jihatdan foydasiz, xarajatni qoplamaydigan, foyda keltirmaydigan. *Rentabelsiz korxonada.*

**Reproduksiya** (lot. *produco* – yarataman) – organizmning o'ziga o'xshash organizmlarni yaratishi, ko'payishi.

**Reparatsiya** – DNKning sintezi vaqtida hamda har xil fizik va kimyoviy omillar ta'sirida DNK molekulasi uzilib qolgan yoki shikastlangan molekulalarni tuzatishga bo'lgan hujayralarning maxsus vazifasi.

**Repressiya** – gen ekspressiyasini yoxud o'shanga taalluqli ferment sintezini to'xtatish mexanizmi.

**Repressor** – ma'lum operonda RNK sintezini to'xtatadigan boshqaruvchi oqsil.

**Reproduktiv** [re + lot. *prodestio* – ishlab chiqarish, hosil qilish]: **reproduktiv a'zolar** – biol. O'simlik va hayvonlarning ko'payish funksiyasini bajaradigan a'zolar.

**Reproduktiv salomatlik** – inson salomatligini qaytadan tiklash; qaytadan tiklan(adi)gan sog'liq. *So'nggi yillarda mamlakatimizda onalar va bolalarni ijtimoiy himoyalash, reproduktiv salomatlikni saqlash borasida qator ibratli ishlar amalga oshirildi.* (Gazetadan). *Respublika bolalar va tug'ruqqa*

*yordam berish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish borasida muayyan natijalarga erishildi.* (Gazetadan).

**Restriktazalar** – kesuvchi fermentlar, restriksiya fermentlari, DNKni ma'lum bir nukleotidlar qatorida kesadigan fermentlar. Gen muhandisligida qo'llaniladigan vosita.

**Retardant** – o'simlik o'sishini boshqaruvchi, masalan, bo'yini pasaytiruvchi yoki uning ayrim a'zolarining hajmini kamaytiruvchi kimyoviy birikma (misol uchun, g'alla ekinlarida ishlatiladigan xlorxolinxlorid).

**Retsipiye**nt – oluvchi, qabul qiluvchi.

**Rezavor meva** – etdor, sersuv qismi ichida joylashgan meva.

**Rezavor mevalar** – 1. Yumshoq: ser-shira, ko'p urug'li, danaksiz ho'l mevalar. Dorivor o'simliklar xomashyosi sifatida ular to'liq yetilib pishganda yig'iladi va ochiq havoda oftobda, issiq havo kirib turadigan xonalarda yoki maxsus quritish xonalarida quritiladi. Ba'zilarini quritmasdan shira olinadi yoki sharbat tayyorlanadi. Rezavor mevalardan, odatda, dori shakllari tayyorlanadi yoki ulardan dori preparatlar olishda foydalaniladi.

**Rezavor** [f. – mayda] – 1. Maydachuyda. *Rezavor mollar.* 2. Ovqatga solish uchun ishlatiladigan ko'kat va sabzavot. *Uylarning hovlilarida mevali daraxtlar, gulzor, chorpoya, rezavor ekinlar uchun ham alohida maydonlar mavjud.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon»). 3. Bog' ekinlari va ularning mevalari. *Rezavor bog'.* *Rezavor ekinlar.* *Rezavor mevalar.* *Rezavor mevalardan smo-*

rodina o'stirish ayni muddao bo'ladi. (Gazetadan). 4 ayn. **ziravor**. Sabzavot, meva hamda rezavorlarning o'zbekcha tansiq taomlar tayyorlashda ahamiyati kattadir. (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Rezavorfurush** [rezavor sotuvchi] – rezavor mollar yoki oshko'klar bilan savdo qiluvchi kishi; rezavorchi. *Hech o'ylamaganda, Xusni baqqol bilan Jalil rezavorfurush o'rtasida janjal chiqib qoldi.* (G'. G'ulom, «Shum bola»).

**Rezavorchi** – 1 ayn. **rezavorfurush**. 2. Ko'kat va sabzavot ekinlari yetishtiruvchi va sotuvchi kishi. 3. Ziravorlar savdosi bilan shug'ullanuvchi kishi.

**Rezavorchilik** – rezavor ekinlar ekish va rezavor sotish ishlari bilan shug'ullanish. *Rezavorchilik qilmoq. Rezavorchilikni o'rganmoq.*

**Rezaparvar** [f. – mayda ekinlarni parvarishlovchi] – rezavor ekinlarni yaxshi parvarish qiladigan; mirishkor. *Rezaparvar odam.*

**Rezerv** [fr. *reserve* < lot. *reservare* – saqlamoq, ehtiyot qilmoq; tejamoq] –

1. Yangi, hali ishga solinmagan kuch, mablag' va sh.k. manbai. *Ishlab chiqarish rezervlari.* Paxta yetishtirishni ko'paytiruvchi rezervlar. *Qodirali ikki narsadan behad xursand bo'ldi. Birinchidan, bo'sh qolgan joylarni to'ldirish uchun katta rezerv topildi* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Bu mablag'larning barchasi o'z ichki rezervlarimizdan ajratilmoqda.* (Gazetadan).

2 q. **zaxira** 1. Oziq-ovqat rezervlari. *Har bir xo'jalikda anchagina rezervlar va kuch-imkoniyatlar yuzaga chiqarildi.* (Gazetadan).

**Rezidual sut** – yaxshilab sog'ib olingandan keyin yelinda qoladigan sut.

**Reshetilovka qo'y zoti** – barra terisut berishga ixtisoslashtirilgan dag'al junli qo'ylar. Reshetilovka qo'ylari uzun, oriq dumli qo'y zoti. Qo'zilari ko'proq qora rangli teri beradi, juni dag'al, kockillarining uzunligi 20 dan 32 sm.gacha 2,5–4,0 kg jun olinadi. Reshetil qo'ylarini qorako'l qo'ylari bilan uzoq vaqt chatishtirish natijasida terilari qorako'l terilaridan qolishmaydigan duragay avlodlar olingan.

**Reshtak** – taxtadan yasalgan, pastakina oyoqli, uzun yarim doira yoki to'g'ri burchak shaklidagi tog'oracha, konsentrlangan mineral oziqalar, tuz va suv berish uchun ishlatiladi.

**Ribosomal** – diametri 20 mm keladigan kichik organellalar bo'lib, hujayrada juda ko'p miqdorda uchraydi. Ribosomalarda oqsillar sintezi bo'ladi.

**Ribonuklein kislotalar** – tarkibida uglevod komponentlaridan riboza: azot asoslaridan adenin, guanin, sitozin, urazil tutuvchi nuklein kislotalar turi. Asosan hujayra sitoplazmasida joylashgan.

**Ribosoma** – RNK va oqsildan tashkil topgan oqsil biosintezini amalga oshiruvchi hujayra organoidi. Sitoplazmada erkin endoplazmatik turda va yadro qobig'iga birikkan holda uchraydi.

**Rikketsiyalar** – viruslar va bakteriyalar oralig'idagi mikroorganizmlar guruhi bo'lib, amerikalik mikrobiolog X.T.Rikkets sharafiga nomlangan. Hujayralari pleomorf sharsimon yoki ta-yoqchasimon (0,2–0,6 × 0,4–2,0 mkm), harakatsiz, grammanfiy, spora hosil qilmaydi, binar bo'linishi hisobiga ko'payadi. Bo'g'imoyoqlilar va sutemizuvchilar hujayrasining obligat parazitini hisoblanadi.

**Rivojlanish determinatsiyasi** – boshqa yo'nalishlardagi rivojlanish im-

koniyatining cheklash bilan bir vaqtda boradigan organizm, organ, to'qima va hujayraning muayyan yo'l bilan rivojlanishga tayyorgarlik holati. Determinatsiya davrida rivojlanishning yangi yo'nalishi uchun ichki zaruriy sharoitlar yaratiladi.

**Rivojlanishning yuvenil fazasi** – urug' yoki vegetativ kurtakdan vegetativ organlarning reproduktiv organlar hosil qilishga qobiliyatini namoyon bo'lishiga qadar o'sishi va rivojlanishi.

**Rixter sho'rasi yoki cherkez (*Sal-sola Richteri Kar.*)** – ko'chma qumni mustahkamlashda foydalaniladi. Qumloy cho'llarda, toshli cho'llarda o'sadi, 2,0–3,0 metr (ba'zida 5,0 m) balandlikka yetadigan daraxt yoki butadir. Shoxshabbasi panjarasimon, och yashil, oqish sariq tusli. Poyalari, shoxlari chiroyli, tekis (silliq), oqish, uzun, suvli, silindrsimon, kam tuklangan barglari bor, poyalari uchiga qarab barglari maydalashib boradi. Qish davrida barglari to'kilib, qum ustida to'shama qavatini tashkil etadi. Gullari ayrim jinsli, mayda (3–4 mm) pushtirang. Mevasi dumaloq, besh qirrali, yarim shaffof qanotcha, kulrang-kumush yoki tillarang, kuzga kelib och tusga kiradi, diametri 2,0 sm gacha bo'ladi. Ildiz tizimi tarmog'i yuza joylashgan, sizot suvlari yaqin bo'lgan yerlarda chuqurga qarab o'sadi. Poyalari qum bilan bostirilsa, qo'shimcha ildiz ottiradi, qum shamol bilan ko'chganida ko'plab ildiz bachkilari paydo bo'ladi. Ildizlari rivojlanib, tezda qumni ushlab qoladi. Sho'rlangan yerlarda o'sadi, qumlar to'planib qolganida poyalari uchlaridan quriydi, 15–20 yilgacha yashaydi. Sho'rlangan yerlarni ko'kalmazlashtirish uchun tavsiya etilgan. Ihotazorlar barpo etishda keng foy-

dalaniladi. Cho'l mintaqalarida va Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarini ko'kalmazlashtirishga mos daraxt o'simligi.

**Rivoch** [*f.q. rovoch*] – *Mehmon kelsa, joyi to'r, javzo kelmay, rivoch so'r. Qir etaklarida o'sgan rivochni topib, chaynab ko'rdim. Bu o't menga suv o'rnini bosganday bo'ldi.* (G'ayratiy, «Unutilmas kunlar»).

**Rizoid** – sodda ildiz, ipsimon ildizga o'xshash hosila. Tuban sporali o'simliklar: yo'sinlar, zamburug'lar, ayrim suvo'tlarini substratga biriktirib turadi va xuddi ildizlarga o'xshash suv hamda unda erigan ozuqa moddalarni shimadi.

**Rizosfera** – ildiz atrofida mikroorganizmlarning tarqalishi.

$S = \frac{\delta}{O} \times 100\%$  bilan topiladi va foizlarda ifodalanadi.

**Rizosfera mikroorganizmlari** – o'simlik ildiziga yaqin joylashib rivojlanadigan mikroorganizmlar. Ildiz atrofida va ildizda rivojlangan rizosfera mikroorganizmlarining miqdori tuproq mikroorganizmlariga nisbatan bir necha marta ko'p bo'ladi. Rizosfera mikrobiotasi tuproq, o'simlik turi va yoshiga bog'liq bo'ladi.

**Rizomorf** (grekchadan *rhiza* = ildiz + *morphe* – tashqi ko'rinish) – *somatik gifalar* birikib, hosil qilgan ip, arqoncha; *rizomorfda gifalar* mustaqilligini yo'qotgan bo'lib, ular bir, yaxlit a'zo sifatida faoliyat ko'rsatadi. *Rizomorflarning* o'sayotgan uchki qismlari o'simlik ildizining uchlarini eslatadi va shu sababdan ular bu nomni olgan.

**Rizoplana** – o'simlik ildizlarining yuzasi.

**RNK blottingi** – RNKni agarozali geldan nitrotsellyulda filtriga komplementar DNK bilan duragaylash uchun olinishi.

**RNK** – tarkibiga nukleotidlar (adenin, guanin, sitozin, uratsil), riboza va fosfor kislotasi qoldiqlari kiruvchi ribonuklein kislot molekulasida.

**Robiniya yoki oq (soxta) akatsiya** (*Robinia pseudoacacia* L) – xushmanzara daraxt, uning vatani Shimoliy Amerikaning Appalachi tog‘lari bo‘lib, cheklangan arealga ega. Oq akatsiya toq patsimon barglarga ega bo‘lib, gullari besh tishli gulkosasiga va kapalaksimon gulbandiga ega. Mevasi ko‘p urug‘li yassi dukkak. Oq akatsiya issiqqa, yorug‘likka talabchan bo‘lib, hayotining dastlabki davrlarida tez o‘sadi, 10–12 yoshidan boshlab o‘shish tezligi pasayib ketadi va hosilga kiradi. Oq akatsiyaning ildiz sistemasi juda moslashuvchan, o‘q ildizidan tashqari gorizontallikda ipsimon ildizlari ona daraxtdan atrofga tarqalib o‘sadi. Oq akatsiya qurg‘oqchilikka chidamli daraxt sifatida o‘rmon melioratsiyasida keng qo‘llaniladi, ayniqsa ihota o‘rmonlari barpo etish uchun tavsiya etilgan eng muhim daraxt turlaridan biri hisoblanadi. Ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalanish tavsiya etilgan.

**Rodonit tovuq zoti** – ikkita tuxum yo‘nalishidagi krosslarni chatishtirish asosida yaratilgan sanoat duragayi: Loman-Brauni va Rod-Aylend. Nemis seleksionerlari bu duragayni ko‘paytirish boshladilar. 2002-yilda ushbu tovuqlar Rossiya davlatiga olib kelindi. Kashino qishlog‘ida joylashgan Sverdlovsk naslli parrandachilik zavodi mutaxassislarining maqsadi Rossiya Federatsi-

yasining iqlim sharoitiga ko‘proq moslashgan tovuqlarni ko‘paytirish edi. Olingan Rodonit-3 Rossiyada asosiy krossga aylandi. Tovuqlarning vazni 2 kg, xo‘rozlar biroz kattaroq – taxminan 3 kg. 12 oyligidan tuxum qo‘ya boshlaydi, yiliga 300–320 dona tuxum qo‘yadi.

**Rokariy** (qoyali bog‘, qoyali tepalik) – yuzasining salmoqli qismini nisbatan katta toshlar egallagan joy. Rokariylarda past bo‘yli o‘simliklar o‘sadi: butalar, sudralib o‘svuchi o‘simliklar, yostiqsimon o‘simliklar. Odatda, faqat bir toifadagi tosh ishlatiladi. Toshlar parallel chiziqlar yoki tabiiy («tartibsiz») uslubda yotqiziladi.

**Rom** – asalarilar mumkatak incha to‘qiydigan, nasl, asal saqlaydigan va o‘zlari yashaydigan yog‘ochdan yoki plastmassadan yasaladigan moslama.

**Romanov qo‘y zoti** – po‘stinbop teri beradigan dag‘al junli qo‘y zoti. XVIII asrda Yaroslavl guberniyasi (Rossiya)ning Volgabo‘yi hududlarida mahalliy shimoliy kalta dumli qo‘ylardan xalq seleksiyasi asosida yaratilgan. Qo‘chqorlarining tirik vazni 65–70, sovliqlariniki 45–55 kg. Qo‘chqorlaridan 2–3 kg, sovliqlaridan 1,5–1,7 kg jun olinadi. Juni uz. 3–8 sm. Junidan kigiz etik (piyma) bosiladi. Romanov qo‘y zotining jun qoplamida qiltiq tolagaga nisbatan tivit tolalar ko‘p, o‘rtacha nisbati 1:5, 1:6. Tivit tolasining uzunligi bo‘yicha qiltiq toladan ko‘p bo‘lgani uchun jun qoplami oshlangan terida yotib (yassilanib) qolmaydi. Romanov qo‘y zotining eng muhim xislati ular tabiatan tug‘ma serpushtdir. 100 qo‘ydan o‘rtacha 225–235 ta qo‘zi olinadi. Ayrimlari 4 ta, hatto 6 tagacha qo‘zi tug‘adi.

**Romlarga sim tortadigan maxsus qurilma** – asalari romlariga sim tortish uchun ishlatiladi.

**Rombsimon shudgorlaydigan korpus** – ba’zi bir chet el firmalarining pluglarida qo’llaniladi. U ikkita lemex bilan jihozlangan: pastki, oddiy plugdagi kabi va yonbosh.

**Rotatsion qirquvchi apparat** – o’simlik poyalarini aylanuvchi disk yoki barabanga biriktirilgan pichoqlar, o’tkir qirrali segmentlar bilan qirqiladi.

**Rotorli nasos** – rezervuarlarni suv bilan to’ldirish, ishchi suyuqlikni aralashtirish va aralashmani purkash uchliklariga uzatish uchun xizmat qiladi.

**Rotatsion motiga** – rotatsion motiga ekin qatorlari ustidagi tuproq qatlamini, qatorga yaqin joylarni yumshatish, hali kuchli ildiz otib ulgurmagan begona o’tlarni yo’qotish uchun birinchi ishlov berishlarda qo’llaniladi.

**Rotatsion boronalar (motigalar)** – ekinzordagi qatqaloqni parchalash, ang’izni boronlash va ekinzorlarga ishlov berish uchun qo’llaniladi.

«**Rozetka**» – *bu yerda*: 1. O’simlikning tuproq yuzida yotgan, qalin o’sib chiqqan barglari yoki juda kalta poyalari bilan barglari. 2. Daraxtlarning zich joylashgan barglari yoki gullari va h.k. 3. *Monilinia* turkumiga mansub ayrim turlar koloniyalarining ustki tomonida mitseliy bo’laklari atirgul gulining gulbarglari shaklida, bir-birining ustida joylashishi, ya’ni, koloniyaning ustki tomoni rozetka shaklida bo’lishi.

**Rozmarin** [*lot. ros marinus* – dengiz shudringi] – Janubda o’sadigan, qishga saqlanadigan shirin, xushbo’y olma turi.

**Rog’** [f.] – ko ‘m-ko’k tog’ yonbag’ri; ko’kalamzor maydon, *q. Bog’-rog’*.

**Rosh** – ekinlarni jo’yaksiz sug’oranda pollarni bir-biridan ajratish uchun yasalgan marza, ko’tarma. Buxoro viloyatining bir nechta tumanlarida ko’p qo’llaniladi. Rosh bellik, chel deb ham ataladi.

**Rudiment organlar** – organizmning evolyutsion rivojlanishi mobaynida o’zining fiziologik ahamiyatini yo’qotgan organlar; ular organizmning ilk murakkab davrida bunyodga kelib, to’la rivojlanmay qolib ketadi.

**Rus og’ir yuk tortuvchi ot zoti** – bu zot Ukraina va Uraldagi ot zavodida yaratilib, 1952-yilda tasdiqlangan. Yaratishda Belgiya tog’ ardenlari, barbarsonlar, persheronlar, orlov yo’rtoqisi va Ukrainaning mahalliy otlari ishtirok etgan. Tirik vazni 550–600 kg keladi. Tanasi uzun, ko’kragi keng va chuqur, oyoqlari kalta, peshonasi keng, qar-chig’ayi past, oldingi oyoqlari kalta va keng qo’yilgan. Paylari yaxshi rivojlangan. Tusi ko’pincha jiyron, buril va qo’ng’ir. Bu zotning 4 ta tipi bor: 1) Novo-Aleksandrovskiy tipi; 2) Ural tipi; 3) Og’ir tip; 4) Yengil tip. Bu zotni 20 yoshgacha nasl olish uchun ishlatish mumkin. Serpushtligi yaxshi. 100 biyadan 90 ta qulun olinadi. Biyalarining otalanishi 95%.

**Rus yo’rtoqi zoti** – arava tortuvchi otlar tipiga kiradi. U mamlakatimizda Orlov yo’rtoqi zot biyalar bilan Amerika yo’rtoqi zot ayg’irlarini ishlab chiqarish protsessida chatishtirish natijasida yaratilgan. Amerikadan keltirilgan Bob Duglas, Djeneral Forrest, Gey-Bingen kabi ayg’irlar Orlov yo’rtoqi zot biyalar bilan chatishtirish tufayli juda yaxshi avlod

bergan. Mustaqil zot sifatida 1949-yilda tanilgan. Bu zot biyalarining qarchig'ay balandligi 159 sm, ko'krak qafasining aylanasi 179 sm, kaftining aylanasi 19,5 sm ni tashkil etadi. Rus yo'rtoqi zoti tez yetiluvchan, oziqaga talabchan hisoblanadi. Ular chopishda va boshqa turli ishlarda juda qobiliyatli bo'lib, shu zotga mansub «Just» laqabli ayg'ir 1 600 m masofani 1 min. 59 sek. da, 3 200 m masofani 4 min 10,4 sek. da, «Priyatel» laqabli ayg'ir esa 1 600 m masofani 2 min 03,4 sek. da bosib o'tgan.

**Ruxli o'g'itlar** – tarkibida o'simliklar o'zlashtira oladigan *rux* bo'lgan mineral yoki organik-mineral makroo'g'itlar. Ruxli o'g'itlar sifatida rux sulfat, ruxli polimikroo'g'it (PMU – 7), ruxli kukun hamda tarkibida o'simliklar o'zlashtira oladigan rux bo'lgan sanoat chiqindilari qo'llaniladi. Urug'likni dorilashda va ekinlarni bargi orqali oziqlantirishda rux sulfatning 0,05–0,1% li eritmasi ishlatiladi. Tuproqning harakatchan rux bilan ta'minlashini hisobga olgan holda ruxli o'g'itlar qo'llash qo'shimcha hosilni ta'minlaydi.

**Rumb burchak** – berilgan chiziq uchidan o'tgan meridianning shimol yoki janubiy qismidan chiqib berilgan chiziqni kesguncha bo'lgan burchak qiymati rumb burchak deyiladi va *r* harfi bilan belgilanadi. Rumblar 0° dan 90° gacha o'lchanib, chiziq joylashgan chorak nomi ham ko'rsatiladi.

**Ryapushka** (*Corgonus saroinella*) – ryapushkalar tog' suvlarida yashashga moslashgan baliqlar bo'lib, ularning uzunligi 34 sm.ga, og'irligi esa 450 gr.ga yetishi mumkin.

**Ro'yxatdan o'tkazish** – xo'jalik mulkini yangidan hisoblab chiqish, tor-

tib ko'rish, hujjatlar bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi. Baliqchilikda ro'yxat o'tkazish har yil bahorda va kuzda o'tkaziladi. Bu ishlar davomida xo'jalikda mavjud bo'lgan nasl beruvchi baliqlar, to'ldirish to'dasidagi baliqlar soni, o'rtacha vazni va jinsi aniqlanadi.

**Ro'yan I** (*rubia*) – ro'yandoshlar (*Rubiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 150–200 sm ga yetadigan bir va ko'p yillik o't o'simliklar. Tibbiyotda ro'yanning ikki turining *ildizpoyasi* bilan *ildizi* ishlatiladi: rangdor ro'yan va Gruziya ro'yani. O'simliklar G'arbiy Yevropa qismining janubida, Markaziy Osiyo va Kavkazda soy, kanal va ko'llar bo'yida, butalar orasida, dalalar va bog'larda o'sadi. Yer osti a'zolari tarkibida antratsen hosilalari (alizarin, ruberitrin kislota), qandlar, limon, olma va vino kislotasi moddalar bor. *Ildizpoyasi* bilan *ildizining dori preparatlari* – *kukuni va quruq ekstrakti, qaynatmasi* siydik haydovchi, antiseptik va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida siydik yo'llari, buyrak hamda o't pufagi-tosh kasalliklarida hamda podagra kasalligida qo'llaniladi. Ro'yan ekstrakti yuqorida keltirilgan kasalliklarda ishlatiladigan *sistenal, enatin* va boshqa murakkab preparatlar tarkibiga ham kiradi.

**Ro'yan II** [*f.* – o'simlik nomi] – bir yilda ikki marta gullab, ikki marta hosil beradigan sariq gulli o'simlik (tibbiyotda buyrak toshini erituvchi kislota olish uchun, xalq xo'jaligida qizil bo'yoq modda olish uchun ishlatiladi). *Ilgari ana shu adirlarda butun bir qishloqqa yetib, ortib qoladigan yem-xashakbop sunbul, so'zan, ro'yan, ola-*

*buta, baliqko'z, jingil singari yuz xil to'yimli gilyohlar tizzaga urib yotardi.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon»). *Ro'yan*

*– foydali o'simlik, tanasi egiluvchan bo'lganligi sababli undan arqon, savat to'qilardi.* (Gazetadan).

## S

**Sabanha** – yirtqichlar turkumiga mansub sutemizuvchi hayvon, dala mushugi.

**Sabzavot karam** (*brassica oleracea l.*) – karamdoshlar (*Brassicaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 10–120 sm ga yetadigan poyali (ikkinchi yili hosil bo'ladi) ikki yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropaning deyarli hamma viloyatlarida o'stiriladi. Tibbiyotda *bargi* ishlatiladi. Tarkibida qandlar, yog', mineral tuzlar (ko'p miqdorda kaliy va fosfor tuzlari), vitaminlar: S, R, K, B6, V1, V2, U va b. moddalar bor. *Karam shirasi* tibbiyotda me'da va o'n ikki barmoq ichak yaralarini davolashda ishlatiladi. Karam *bargi* xalq tabobatida ishtaha ochish, ovqat hazm bo'lishini yaxshilash, vitamin S yetishmasligining oldini olish hamda siydik haydovchi va yengil surgi dori sifatida bargining shirasi sarg'ayma kasalliklarini davolashda, yuqori nafas yo'llari yallig'lanishida qo'llaniladi.

**Sabur** – aloe bargidan olinib, quritiladigan shira. U 60% li spirtida yaxshi, efirda kam eriydigan, xloroformda erimaydigan, qora-qo'ng'ir rangli, yoqimsiz hidli va achchiq mazali har xil shakldagi bo'lakchalar bo'lib, antratsen hosilalari (aloin, izoemodin, aloe-emodin), smolalar, efir moyi, achchiq va b. moddalardan tashkil topgan. Saburning katta dozasi

surgi dori sifatida, kam miqdorda ishtaha ochish va ovqat hazm bo'lishini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

**Sabz** [*f.* – yashil, yashil rangli; g'o'r, xom; yangi, yosh] – yashil; bargrang, bargikaram, pistoqi (rang). *Ul nadurkim, sabz to'nlik qush daraxtning qoshuda.* (Uvaysiy).

**Sabz urmoq** – o'sib, unib chiqa boshlamoq, nish urmoq. *Endi mo'ylabi sabz urgan, yaqindagina Farg'ona jangidan qaytib kelgan Nizomiddinning rangi devor bo'lib oqarib ketgan edi.* (Mirmuh-sin, «Me'mor»).

**Sabzazor** [*f.* yashil o'tloq] – yamyashil barra o'tlar bilan qoplangan yer; dala, maysazor. *Shudring marjonlari taq-mish sabzazor, Suvlarga uzalmish tollar-ning ilki.* (Mirtemir).

**Sabzak** [*f.* – «sabza» *s.ning* kichr. qorachadan kelgan, bug'doyrang] –

1. Qorachadan kelgan, qoramag'iz, bug'doyrang. *G'ofirjon aka keng yelkali, o'rta bo'yli, qora qosh, qora ko'z, sabzak yuzi sal qoraygan bir kishi edi.* (N. Nazarov, «Zamin»).

2. Qovunning bir navi. *Yana sabzak bila umrboqiy, yegan odamgadir umr boqiy.* (B. Aminzoda).

**Sabina archasi** (*Juniperus Sabina*) – sarvidoshlar oilasiga mansub bu archa turining tarqalish areali Rossiyaning O'rta Don va Jiguli tog'lari, Orenburg viloyati, Tarbagatay, Sibir va Qozog'iston-

ning dasht mintaqasidagi uncha baland bo'lmagan tog'lari bilan chegaralangan. Sabina archasi Markaziy Osiyodagi archazorlarning yuqori tarqalish chegaralarida dengiz sathidan 2800–3200 m balandliklarda ham o'sadi. Balandligi 1,5 m gacha, ba'zan 5 metrgacha kichik daraxt bo'lib, ko'p hollarda yer bag'irlab o'suvchi shox-shabba hosil qiladi. Bu archaning ildiz tizimi tuproqning yuza qismida joylashadi, tuproqqa va namga kam talabchan. Sovuqqa chidamli, sekin o'sadi. Ninabargi, qubbasi va shoxlarida zaharli xossalarga ega efir moyi mavjud. Bu archa turi boshqa turlar bilan archazorlar hosil qiladi, ular suvni saqlash, tuproqni himoyalash kabi muhim o'rmon meliorativ funksiyalarni bajaradilar. Ko'klamzorlashtirishda, landshaft kompozitsiyalarini barpo etishda keng qo'llaniladi.

**Sabza** [f. yashil o't, ko'kat, maysa] – 1. Yam-yashil barra o't, maysa. *Bahor, har yon yozilgan sabza. Ohularda sho'xlik va g'amza.* (G'ayratiy). *Oftob hijronida tong sabzalarga qo'ndi nam, O'ylakim, kipriklarimni egdi tong giryon yuki.* (E. Vohidov, «Muhabbat»). *Orom olur qir sabzalari, Uxlar Bo'ta, uxlaydi Oyxon.* (Mirtemir, «Asarlar»).

2. Yashil, zumradrang. Sabza o't. *Dovdaraxt, gul-u gulzorlar, sabza rayhonlar hamma yoqni o'rab olgan.* (Gazetadan). *Yoritgancha to yurak ichin Sabza o'tlar shabnamga qonar.* (X. Davron). *Navbahor, ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar.* (Muqimiy). **Sabza urmoq ayn. sabz urmoq** (q. **sabz**.) *U [Temirjon] endi ulg'aygan, mo'ylovi sabza urib, yigitcha bo'lib qolgan.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»).

3. Oq kishmishdan soyada quritilgan och ko'kish mayiz; soyaki mayiz.

**Sabzavot ekinlari** – asosan, *sabzavot* olish uchun yetishtiriladigan madaniy o'simliklar guruhi. 120 dan ortiq ekinladigan turi ma'lum. 10 ta oilaga mansub 90 ta turi ko'p tarqalgan. Sabzavot ekinlari karamdoshlar (karam, sholg'om, rediska, turp va b.), soyabonguldoshlar (sabzi, selderey, petrushka, ukrop va b.), sho'radoshlar (lavlagi va b.), qovoqdoshlar (bodring, tarvuz, qovun, qovoq), tomatdoshlar (pomidor, baqlajon, qalampir), burchoqdoshlar (mosh, no'xat, loviya), murakkabguldoshlar (salat va b.), piyozdoshlar (piyoz, sarimsoq), torondoshlar (rovoch, otquloq), boshogdoshlar (shirin donli makkajo'xori) botanik oilalariga bo'linadi.

**Sabzavotchilik** – 1) dehqonchilikning *sabzavot ekinlarini* yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i.

2) sabzavot ekinlari biologiyasi va ularni yetishtirish usullarini o'rganadigan, sabzavot mahsulotlari yetishtirish intensiv texnologiyalarini ishlab chiqadigan fan.

**Sabzavot** [f. «sabza» s. ning ko'pl.] – rezavor va poliz ekinlari hamda ularning ovqatga ishlatiladigan mahsuli (bodring, karam, sabzi, piyoz, pomidor va sh. k.). *Sabzavot ekinlari. Sabzavot do'koni. Xushbo'y mevalar, ayniqsa, ko'katlar, turli nav sabzavotlar juda mo'l yig'ildi.* (Oybek, «Nur qidirib»). *Chanqoqlikni qondirish uchun sabzavot, meva sharbatlari, turli qaynatma ichimliklar ham tavsiya etiladi.* (Gazetadan).

**Sabzavotkor** – sabzavot ekinlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi, rezavor ekinlar ekuvchi, yetishtiruvchi. *Sabzavotkor xo'jalik. O'tgan yil faqat dehqonlar uchun emas, chorvador-u sab-*



zavotkorlar, bog'bonlar-u sohibkorlar uchun ham og'ir keldi. (Gazetadan).

**Sabzavotchi** – 1 ayn. sabzavotkor. Havaskor sabzavotchi ekiladigan urug'lar to'g'risida ham hozirdan bosh qotirishi darkor. (Gazetadan).

2. Sabzavot savdosi bilan shug'ullanuvchi, sabzavot sotuvchi.

**Sabzavotchilik** – dehqonchilikning sabzavot ekinlari ekish va sabzavot yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. Sabzavotchilik xo'jaligi. Raisning mashinasi sabzavotchilik brigadasi tomon burilib ketdi. (S. Nurov, «Maysalarni ayoq urmaydi»).

**Sabzi** [f. oshko'klar, ziravorlar; xomlik, pishmaganlik] – sabzavot ekinlarining bir turi va uning iste'mol qilinadigan mahsuli. Qizil sabzi. Mushak sabzi. Sabzi ekmoq. Sabzi to'g'ramoq. Ekishar juda soz. Ayniqsa, kartoshka bilan sabzi mo'l hosil beradi. (Oybek, «Tanlangan asarlar»). Usta Olim oshga sabzi bosish bilan ovora edi. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). Mirzoyi sabzi q. mirzoyi. Erkak sabzi. q. erkak. – Puli bor yeydi, puli yo'q-chi, – baland ovoz bilan so'radi erkak sabziga o'xshagan bir kishi. (K. Yashin, «Hamza»).

**Sada** – bot. Emanlar oilasiga mansub sershox, sersoya daraxt. Sada soya berar, tol xoda berar. (Maqol). To'la xola sadaning g'adir-budur po'stlog'ini behol barmoqlari bilan silab, yuziga surtdi. (I. Rahim, «Ixlos»). Tosh ustida ko'kargan sada Boshim uzra bo'lur soyabon. (B. Boyqobilov).

**Sadarayhon** – shox-shabba qismi shar shaklida to'p bo'lib o'sadigan rayhon. U kishi rayhonni, ayniqsa Namanagan sadarayhonini juda xush ko'rardi. («Guldasta»). Ko'zachada sadarayhon-u

jambillar to'rt tarafga hid taratib turibdi. (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Sadaqayrag'och** (*Ulmus densa*) – bu qayrag'och turi sharsimon zich shox-shabbaga ega manzarali daraxt, shox-shabbasi keng, qalin piramida shaklida, po'stlog'i yorilgan qora rangda, barglari qalin, cho'zinchoq, tuxumsimon, cheti ikki qator tishchali. Balandligi 12–14 metrga yetadi. Bu qayrag'och Markaziy Osiyoda tog' daryolari vodiysida o'sadi. U qadimdan aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda keng ekilib kelingan. Bog'larda katta ariqlar bo'yida ekiladi. Qurg'oqchilikka chidamli daraxt. Sadaqayrag'och Toshkent shahri va boshqa viloyat shaharlarida ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanilmoqda, landshaft obyektlarida manzarali daraxt sifatida ko'plab ekiladi. Qurg'oqchil mintaqalarda yo'llarni ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya qilingan.

**Sadaf** [a. marvarid chig'anog'i; sadaf, dur] – 1. Ayrim mollyuskalar chig'anog'idan olinadigan oq, yaltiroq dur. Sadafsiz dur bo'lmas, Tikansiz gul bo'lmas. (Maqol). 2 sft. Sadafdan yasalgan, tayyorlangan. Zebixon Adolatga misr ipidan tikilgan to'n bilan oldiga sadaf tugmalar qadalgan nimchani uzatdi. (S. Zunnunova, «Hikoyalar»). 3 sft. ko'chma. Sadafdek oppoq, yaltiroq. Gulsum ham boshini ko'tardi va sadaf tishlarini ko'rsatib, iljayib qo'ydi. (P. Tursun, «O'qituvchi»). Yuksakdan kelasiz, ey tog' suvlari, Sadaf cho'qqilarning yuzini yuvib. (G'ayratiy).

**Sadok** – xona, katalak. 1. Quyonxona, quyon boqiladigan katalak.

2. Qopqon, dom, bo'riqopqon (bo'ri-ga qo'yiladigan qopqon yoki dom).

3. Baliq saqlanadigan va urchitiladigan sun'iy hovuz.

**Safarbar** [a. + f. – safarga yo'llovchi] – biror tadbirga shay, tayyor. *Bahor oylari boshlandi. Barcha ishchi kuchi va texnika dalada safarbar holatga keltirilgan.* (Gazetadan). *Terimga barcha kuch bo'ldi safarbar, O'lka bo'ylab kezdi har kun xushxabar.* (B. Boyqobilov, «Meni kuting, yulduzlar»).

**Safarbarlik** – 1. Armiya saflariga chaqirish, chaqirilish; jangovor holatda bo'lish.

2 ko'chma. Biror narsaga tayyor, shay turishlik. *Qishloq mehnatkashlari ruhida safarbarlik, mehnat shavq-zavqi mavj urmoqda.*

**Sag** [f. it] – esk. kt. It, kuchuk. **Sagi ob** [f. suv iti] esk. kt. ayn. morj.

**Sagbon** [f. itboqar] – esk. It boquvchi.

**Sahro** [a. – cho'l, dasht, biyobon] – 1. O'simligi juda kam, suvsiz bepoyon dasht, biyobon; cho'l. *Sahroyi Kabir. Biydek sahro. Tropiklardan uncha uzoqda bo'lmagan va yog'ingarchilik juda kam bo'ladigan joylarda sahrolar paydo bo'ladi.* («Geografiya»). *Kechga yaqin ular yaylov tugab, sahro boshlanadigan yerga yetib keldilar, sarg'ish barxanlar, chiroyli gullagan saksovul butalari ko'rindi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

2 ko'chma. Arktika va Antarktidadagi qor va muz qoplagan yerlar.

**Sahroyi** [a. – sahroga tegishli, sahroda bo'ladigan] – sahroda yashaydigan. *Sahroyi xalqning qishloqlariga ot qo'yib, minglab qo'ylarni o'lja haydashni sevadi.* (Oybek, «Navoiy»). – *Sahroyi mo'g'ul ash'or tinglashdan qochdi! – dedi kulib Sultonmurod.* (Oybek, «Navoiy»).

**Sahil** [a. – yengil, oson; yumshoq; tekis, silliq] – esk. kt. Vazni kam, yengil.

**Saksovul** – sho'radoshlar oilasiga mansub, Markaziy Osiyoning sho'rxok va qumli cho'llarida o'sadigan, bargi yaxshi rivojlanmagan buta yoki daraxt va uning yoqilg'i sifatida ishlatiladigan yog'ochi. *Qora saksovul. Oq saksovul. Saksovul o'tin. Oq saksovul, ayniqsa, uning urug'i qo'y-echkilar uchun to'yimli ozuqa.* («Fan va turmush»). *Choyxona to'rida doim dutor, setor osig'liq. Qish-u yoz childirma qizdirgani manqalda saksovul cho'g'i yashnab turadi.* (S.Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Sallagul** (*Paeonia* L.) – ayiqto-vondoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik yoki yarim butalar turkumi. Sallagullar xushmanzara o'simliklar hisoblanib, ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llaniladi. Xilma-xil gullaydigan navlari yaratilgan. Gullari hidli.

**Salat I** [ital. *salato* – tuzli, tuzlangan] – turli sabzavotlar (pomidor, bodring), tuxum, go'sht va sh.k. dan tayyorlanadigan yaxna taom. *Salatni aytmaysizmi, ko'k qalampir aralashgan salat dunyoda yagona bo'lsa ajab emas.* (S.Ahmad, «Yo'g'on tepa»).

**Salat II** – iste'mol qilinuvchi, vitaminlarga boy bir yillik ko'kat; poliz ekini. *Salatning yangi uzilgan bargi rediska, bodring va oshko'klar bilan yaxshi hamohang bo'ladi.* (Gazetadan).

**Sallaqovoq** – bot. Qovoqning bir turi.

**Salt** – 1. Aravaga qo'shilmagan; yayoq. *Salt ot. Salt ot mingan kishi. Izma-iz kelayotib, Yo'lbars vovulladi. Ota orqasiga qayrilib qarasa, salt otliqqa ko'zi tushdi.* (S.Anorboyev, «Oqsoy»).

2. Yuksiz, beyuk, yengil-yelpi. *Qaytishda charchagan oriqlarda ustilari-*

dagi odamlarni ko'tarish nari tursin, salt holda qadam bosish uchun ham kuch topilmasdi. (S.Ayniy, «Qullar»). *Qarang, salt sovliqlar ildam ketib, shirali o'tlarni yeb tinchitishyapti.* («Yoshlik»).

**3 tex.** Nagruzkasiz, topshiriqsiz, bekorga, behudaga qilingan (harakat). *Dvigatelning salt yurishi. Bexosdan lenta uzilib qolsa, g'altak salt aylanadi.* (M. Jo'ra, «Quyoshdan nur emganlar»).

**Salqin** – 1. Iliqdan pastroq orombaxsh havo harorati. *Bugun havo salqin. Tun salqinini nogoh his etib, U uyg'onib ketdi tong oldi.* (X.Davron, «Bolalikning ovozi»). *Quduq tubidan urayotgan salqin xush yoqib, Otamurod birpas o'tirgan bo'ldi.* (M. Mansurov, «Yombi»).

**Salqin tushmoq** – havo harorati pasaymoq. *Bozorda izvoshga o'tirib, dalaga jo'nadi. Dashtga kechki salqin tushib qolgan edi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**2.** *Serdaraxt, sersoya, quyosh nuri tushmaydigan, tevarak-atrofga nisbatan sovuqroq joy. Salqin joy. Kun qiziy boshlagach, Avaz eshikka sardo'z bog'lab, Polvonyop bo'yidagi o'sha salqin oromxonaga ravona bo'ldi.* (S.Siyoyev, «Yorug'lik»). *Ikki chetiga sarvlar va shamshodlar ekilgan salqin xiyobonlarda hech kimsa ko'rinmaydi.* (M. Mahmudov, «Mangu kuy izlab»).

**Salskaya zoti** – jun yo'nalishli zot bo'lib, Rostov viloyati va Yangi Kavkaz merinoslarining Amerika rambouille qo'chqorlari bilan mahalliy merinosni yaxshilash orqali yaratilgan.

**Sambitgul (Nerium oleander L.)** – kendir doshlar oilasiga mansub doimiy yashil yirik buta. Xushmanzara gullaydi, gullari oq, pushti, qizil bo'lib, novda uchki qismida to'pgul shaklida joylashadi.

Iyul-avgust oylarida gullaydi. Vatani Kichik Osiyo. Sambitgul Toshkent sharoitlarida ham ochiq maydonlarda bemalol o'smoqda. Ko'kalamzorlashtirish uchun istiqbolli o'simlik hisoblanadi.

**Saman** [f. – sariqqa moyil rangli ot] – 1. Och malla, sarg'ish, somonrang (otning tusi haqida). *O'rtadagi yuk mashinasida saman toycha. Ikki qulog'ining o'rtasida jig'a, ustida qizil baxmal yopiq.* (S.Nurov, «Narvon»). *Saman qashqa esa oy ichida qirg'oqqa tiralib olgan.* (Y. Shamsharov, «Toshqin»).

**2.** Shu tUSDagi ot. *Jilovdor nariroqda o'tlab yurgan samanni olib kelib, uzangisini amirga to'g'riladi.* (M.Mahmudov, «Mangu kuy izlab»).

**Samanto'riq** – 1. Samanga, mallaga moyil to'riq (ot tusi).

**2.** Shu tUSDagi ot. *Samanto'riqni egarlamoq.*

**Samara** [a. – meva, hosil] – natija, hosila, foyda. *Fidoyilik bilan qilingan mehnat o'z samarasini ko'rsatdi: mo'l hosil yetishtirildi.* (Gazetadan). *Quyosh energiyasidan foydalanish xalq xo'jaligiga juda katta iqtisodiy samara beradi.* (Gazetadan). *Har bir ish nihoyasiga yetgandagina go'zal samara beradi.* (H.G'ulom, «Mash'al»).

**Samarador** [a. + f. – samarali, foydali] – katta samara, foyda keltiradigan, sermahsul; yaxshi natija beradigan. *Kino, teatr singari san'at turlari orasida adabiyot ham yoshlarni tarbiyalashda eng faol va samarador omillardan biridir.* («Fan va turmush»).

**Samarador harorat** – o'simlik faol o'sishi, rivojlanishi va hosilining shakllanishi uchun zarur bo'lgan havo yoki tuproq harorati. Agrometeorologiyada samarador harorat ekinlarning o'sishi va

rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri tarzida qabul qilingan. Samarador harorat yig'indisi vegetatsiya davri yoki unung ma'lum qismi uchun kundalik haroratning 10<sup>0</sup> dan yuqorisini jamlash orqali topiladi.

**Samaradorlik** – samarali, foydali bo'lishlik; foydalilik. Iqtisodiy samaradorlik. *Chorvachilikni industrlash mehnat samaradorligini ancha oshirish imkonini beradi.* (Gazetadan).

**Samarali** – ayn. **samarador.** Samarali ish. Samarali mehnat. *Yozning har bir kunidan samarali foydalanib, parvarishni har tomonlama kuchaytirmoq darkor.* (Gazetadan). *Bahrom, bugun samarali ishlaganidan ruhi ko'tarilib, yengil kayfiyat bilan yo'lga chiqdi.* (H.Olimjonov, «Taqdir taqozosi»).

**Samarasiz** – samara bermaydigan, foydasiz, besamar; natijasiz, behuda. Samarasiz ish. Samarasiz harakat. *Samarasiz o'tmas shoirning umri, Toza yuraklarda so'z koni qolar.* (S. Akbariy, «Mehrigiyo»).

**Sambit** – bot. Tol daraxtining bir turi va uning novdasi; sambittol.

**Sambittol** – ayn **sambit.** *Ikki chetda esa har xil daraxtlar, sambittollar, kalakdor tutlar qad ko'targan.* (Sh.Toshmatov, «Erk qushi»). *Soy bo'yida sambittol, savlatingga qoyilman.* («Qo'shiqlar»). *O'rmondagi qushlar-uqirlar, oltin boshog'lar, Sambittol, kamalaklar «o'zingizga goldi»* (I. Mahmud, «E'tirof»).

**Samum** [a. – issiq, qaynoq shamol] – qumli cho'l-sahrolarda qum uyurmasi hosil qilib ko'tariladigan quruq issiq shamol. *Qoraqumdan yelib turgan samum qal'ani ulkan doshqozondek qizdiradi.* (S.Siyoyev, «Avaz»). *Samum yalab o'tar yalang to'shini, Bun-*

*da yolg'iz giyoh – sho'ra-yu yantoq.* (E.Vohidov).

**Sangach** – yoshiga yetgunga qadar, bir yoshli echki.

**Sano** [*cassia (tourn) l.*] – dukkakdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1 m ga yetadigan yarim butalar. Tibbiyotda ikki turining *bargi* va *mevasi* ishlatiladi: *Nayzabarg sano* va *Ingichka barg sano.* Sanoning vatani Afrikaning cho'l va yarim cho'l nohiyalari. G'arbiy Yevropada bir yillik o'simlik sifatida, Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Kavkazda o'stiriladi. Barg va mevalari tarkibida antratsen unumlari (sennozid A va V, rein, aloe-emodin, glyukorein va b.), flavonoidlar, salitsilat kislotalar, smolalar (mevasida yo'q) va b. birikmalar bor. Dori preparatlari (*damlamasi, quruq ekstrakti, senadeksin, murakkab sanodamlamasi, Vena ichimligi* va b.) surgi sifatida qo'llaniladi. *Sano bargi* surgi sifatida va bavoasil kasalligida ishlatiladigan choylar-yig'malar, kafiol va antratsennin preparatlari tarkibiga kiradi. Tibbiyotda nomlari eslatib o'tilgan kasalliklarni davolash uchun uning yana bir turi – *to'mtoq barg sanoning bargi* ham ishlatib kelinmoqda.

**Sanoat tipidagi chorvachilik korxonasi** – xo'jaliklar yoki ularning struktur birligi; ularning xarakterli belgilari: (1) chorva mollarini nisbatan kichik territoriyaga yig'ish; 2) chorva mollarini butun yil davomida mustahkam oziq bazasi asosida ratsional boqish; 3) texnologik jarayonlarini mexanizatsiyalash-tirish; 4) yirik masshtabda ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning yangi formasi.

**Sanoat usulida urchitish** – sut va go'sht yo'nalishidagi zotli mollar bir

marotaba juftlashtiriladi va birinchi chatishma avlod olinadi. Ularning o'sishi jadallashadi va go'shtdorlik sifatleri yaxshilanadi. Gibrld kuchi («geterozis»)dan foydalaniladi va mollar go'sht uchun boqiladi. (Gereford 1/2 – qora-ola 1/2, Santa-Gertruda 1/2 – qizil cho'l 1/2 va b.)

**Sanoat yo'lida chatishtirish** – chorva mollari va parrandalarni urchitish usuli. Bu usulga ko'ra «geterozis» effektidan foydalanish maqsadida yuqori mahsuldor mollar olish uchun ikki va undan ortiq zotlar yoki liniyalar chatishtiriladi.

**Sanoat chorvachiligi** – yuqori intensiv chorvachilikni tashkil etishning formalaridan biri, uning o'ziga xos tomonlari: nisbatan katta bo'lmagan territoriyada mollarning konsentratsiyasi; mustahkam oziqa bazasi asosida butun yil davomida mollarni ratsional oziqlantirish; texnologik protsesslarni mexanizatsiyalash; ishlab chiqarish va mehnatni keng mashtabda tashkil etishning yangi formalari.

**Sanoch** – tar. Teridan qilingan idish; teri to'rvaa; mesh, meshkob. *Xazinachining aytishicha, uning xurjunida ikki sanoch oltin bor ekan.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»). *U [Lola] bir sanoch qimiz bilan katta zarang kosada yaxna go'sht, non olib chiqdi.* (Y. Shukurov, «Birinchi parvoz»). *Ubaydulla aka qo'li sanochdagi qimizdan kosaga quyish bilan band.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

**Santa-Gertruda qoramol zoti** – AQSHning Texas shtatidagi «Santa-Gertrudis» fermasida XX asr o'rtalarida shortgorn sigirlarini zebu buqalari bilan chatishtirib yaratilgan. 1940-yilda zot sifatida tasdiqlangan. Tana tuzilishi mustahkam, gavdasi katta, tusi asosan qizil. Sigirlarining vazni 550–650 kg, buqalar-

niki 900–1200 kg. Go'shtga parvarishlangan novvoslar 15 oyilgida 500–550 kg ga yetadi. Yaylov sharoitida boqilganda o'rtacha kunlik semirishi 1000–1200 g ni tashkil etadi. So'yim chiqimi 60–66%. Bu zot Amerika, Afrikaning 40 dan ortiq mamlakatlarida tarqalgan. Rossiya va Qozog'istonga 1956-yili va O'zbekistonga 1967-yili birinchi bor (80 bosh) olib kelingan. Jizzax viloyatining Baxmal tumani «Baxmal» (hoz. A. Usanov nomidagi) xo'jaligining tog'oldi hududlarida prof. U. Nosirov rahbarligida Santa-Gertruda qoramol zotini sof holda urchitish va mahalliy mollar bilan chatishtirish ishlari olib borilgan. O'zbekistonda naschilik podasi yaratilib, mollarning soni 3,5 ming boshga yetkazildi. Buqalarning 3 ta qarindosh guruhlari va sigirlarning 20 dan ortiq oilalari yaratildi. Olingan yangi avlodlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona va Andijon viloyati xo'jaliklarida boqiladi.

**Saprofitlar** – nobud bo'lgan daraxt-butalarning organik moddalari bilan oziqlanadigan o'simliklar (ko'pchiligi zamburug'lar).

**Sapka** – ketmonchaga o'xshash asbob.

**Sapcha**– pishib yetilmagan kichkina qovun; xomak. – [Bozorda] *Qovun tushiradiganlarga yordamlashaman, sapcha berishadi, – dedi Otaboy.* (G'. G'ulom, «Shum bola»). *Engashib, palaklarni titib qarasang, tugunak, sapcha, xomaklar qiyg'os* (N. Fozilov, «Diydor»).

**Sapchalamoq** – shv. Sapcha tugmoq, xomakilamoq. [Xolboyning] *Qovunlari sapchaladi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Sapropel** – balchiqsimon organik chirindi.

**Saqmon** – qo‘zilarni yaxshi o‘sib rivojlanishini ta‘minlash uchun tuqqan qo‘ylar suruvlardan ajratib olinadi va qo‘zisi bilan alohida saqmonlarga ajratib, kichik-kichik guruhlar bilan boqiladi. Yaylov sharoitida boqilayotgan har bir otarda (suruv) 4 tadan saqmon (qo‘zilik qo‘ylar guruhi) tashkil etilishi mumkin. Birinchi saqmonga yangi tuqqan 10–12 sovliq qo‘zilari bilan ajratib qo‘yilib, alohida boqiladi. Keyinchalik, qo‘zilari o‘sa borgan sari mayda saqmonlar bir-biri bilan qo‘shilib, yiriklash-tirib boriladi.

**Saqmon II** – qo‘zilarining yoshi va rivojlanishi bir xil bo‘lgan emizikli ona qo‘ylar to‘dasi. *Saqmonlar, odatda, yangi qo‘zilarni but saqlash, parvarishlash maqsadida tuziladi.* («O‘zME»).

**Saqmonchi** – saqmondagi qo‘y-qo‘zilarga qarovchi cho‘pon, qo‘ychivon (*q. saqmon II*). *Har bir saqmonga cho‘pon vazifasini bajaruvchi saqmonchi tayinlanadi.* («O‘zME»).

**Sara** [*f. – toza, aralashmasiz; oliy, yuqori sifatli; tanlangan, eng yaxshi*] – eng yaxshi, a‘lo, sarxil, tanlangan. *Sara urug‘ – bo‘liq hosil.* (Maqol). *Uzumning sarasin it yeydi, Olmaning sarasin qurt yeydi.* (Maqol). *Ot chopsa, gumburlar tog‘ning darasi, Urushda bilinar mardning sarasi.* («Alpomish».) *To‘plamga shoirning eng sara masallari tanlab kiritilgan.* (Gazetadan). *Birinchi va ikkinchi guruhlar yasog‘lik uylarda o‘tirishadi. Ovqatlarning sarasi ularga tortiladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Saraji qo‘y zoti** – yarim dag‘al junli dumbali qo‘y zoti. Vatani – Turkmaniston. Nomi Mari shahri yaqinidagi Sari Ja ovuli nomidan. Chorvadorlar tomonidan uzoq tanlash va saralash orqali yaratilgan.

Qo‘chqorlarining vazni 80–90 kg, sovliqlariniki 50–65 kg. Dumbasi o‘rtacha (6–7 kg), serpushtligi 110–115%. Saraji qo‘y zoti dumbali qo‘y zotlari orasida jun mahsuldorligi bo‘yicha eng yaxshi zot hisoblanadi. Sovliqlaridan 3–3,5 kg, qo‘chqorlaridan 3,5–4,5 kg jun qirqib olinadi. Junining tusi oq, och kulrang kokilchalardan iborat, uz. 12–20 sm, tarkibida uz. 7–9 sm tiviti bor. Sof jun chiqishi 55–60%. Juni turkman gilamlari ishlab chiqarishda xom ashyo hisoblanadi. Sof holda Turkmanistonda ko‘paytiriladi. Yil bo‘yi yaylovda boqishga mo‘ljallangan. Saraji qo‘y zotidan O‘zbekistonda dumbali jaydari qo‘ylar zotini yaxshilashda foydalaniladi. Toshkent viloyati Chinoz va Yangiyo‘l tumanlari xo‘jaliklarida Saraji qo‘y zoti duragaylari urchitib ko‘paytiriladi.

**Saralagich** – chigit yoki g‘allaning chiqindilarini yoki saralarini ajratadigan, sarxillaydigan asbob yoki mashina. *Chigit saralagich.*

**Saralamoq** – 1. Saralarini yomonlaridan ajratmoq, sarxillarini termoq, xillamoq, tanlamoq, ajratmoq. Ko‘chatlarni saralamoq. *Anor sertashvish narsa: uz, sarala, tashib ol, anor tupini yerga ko‘m.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Tanlamoq, ajratmoq. *Umarni bilasan, Odamlarni saralab chaqirgan.* (Sh. Xolmirzayev, «Og‘ir tosh ko‘chsa»).

**Saralash** – 1. **Saralamoq fl. har. n.** Urug‘likni saralash.

2. Chorvachilik va parrandachilikda: nasldor hayvonlar va parrandalarni seleksion belgilarining avloddan avlodga o‘tish xususiyatini saqlab qolish maqsadida reja asosida chatishtirish. *Chorvachilik seleksiyasida saralash usullari*

va shakllaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. («O'zME»).

**Saratoniy** – ertapishar yozgi olma navi.

**Sarbon** [f. – tuya boquvchi, tuya haydovchi: boshlab boruvchi] – 1. Karvonboshi; tuyakash. *Sarbon chol bosh chayqaydi, Tuyasini niqtaydi.* (X. Davron).

2 ko'chma. Yo'l boshchi, rahbar, rahnamo. *Brigadani oldinga boshlashda Rustam sarbon bo'lib qoldi.* (A. Eshonov, «Sarbon»). *Agar hayot bo'ston esa, bog'bon muallim, Agar hayot karvon esa, sarbon muallim.* (Shuhrat, «Sening sevging»).

**Sardoba** [f. – sovuq suv] – tar. Suv tanqis bo'lgan hududlarda uni to'plash va saqlash uchun devorlari silindrsimon, yuqori qismi a'lo sifatli pishiq g'isht va ganchdan gumbaz shaklida maxsus qurilgan, atrofida suv kiradigan teshiklari bo'lgan hovuz. *Turnaqator tizilgan meshkobchilar sardobadan suv olib, katta yo'lga suv sepishardi.* (O. Yoqubov, «Ko'hna dunyo»). *Karvon sardobani gir aylanib o'rab, hamma o'zini muzdek suvga urdi.* («Sharq yulduzi»).

**Sarhovuz** [a. + f. – bosh, asosiy hovuz] – katta hovuz. *Bu ikki bog'ning orasida sada daraxtlari bilan o'rab olingan bir sarhovuz bor edi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Sarimag'iz, sarimag'iz bug'doy** – bug'doyning oltinrang, sariq, mahalliy navi. *Egamberdi, shu bug'doyning vazniga baravarlab sarimag'iz undan tort, aybonang uchun ustiga o'zimizdan bir pud un ham qo'sh!* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Sariyog'** – asosan, sigir suti qaymog'idan olinadigan oziq-ovqat mahsu-

loti. Biologik xususiyati, ta'mi va sifati jihatidan boshqa yog'lardan ustun turadi, inson organizmida yengil (95% gacha) hazm bo'ladi.

**Sarka** – bichilgan erkak echki (axta taka).

**Sarkach** – 2 yoshli axtalangan taka.

**Sarimoy** – shv. ayn. sariyog'. *Har nonning ustida kuydirilmagan sarimoy, ko'pining oldida qand choy [bor edi].* («Dalli»). *Sarimoyday so'lqildog'on g'oz o'mrovli qizlaring.* (G'.G'ulom).

**Sarimsoq** – 1. Piyozlar turkumiga mansub, ikki yoki ko'p yillik o'simlik va uning ovqatga ishlatiladigan o'tkir hidli, achchiq piyoz; sabzavot ekini. *Sarimsoq, rayhon hidi dimoqqa urildi.* (O'. Umarbekov, «Yoz yomg'iri»).

**Sarimsoq piyoz** ayn. sarimsoq – 1. *Oldiga yoyib qo'ygan yaxna go'sht, shokolad, sarimsoq piyoz, olmalarni bittabitta lunjiga tiqardi.* (S. Ahmad, «Saylanma»).

2. Sarimsoq (erkaklar ismi).

**Saritol** – bot. Tollarning yog'ochi mo'rt xili; sariq tol. *Janoq yerda o'sgan saritol. So'zlarimga qulog'ingni yaxshi sol.* («Tohir va Zuhra»).

**Sarmoya** [f. – kapital, pul; boylik; asos, manba, sabab] – 1. Asosiy savdo mablag'i. *O'ylab qarang-a, davlatimiz har yili mamlakatni ko'kalamzorlashtirish uchun million so'mlab sarmoya ajratadi.* (N. Safarov, «Katta karvon yo'lida»).

2. Umuman, mablag', pul. *Naymanchada ibtidoiy ta'lim maktabi ochish uchun fuqaro o'z tashabbusi bilan sarmoya jamg'armoqda.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Ko'p qatori Abdurahmon ham xatga tushgan edi. No'xat sho'rva sotib kun ko'rayotgan otasining sarmoyasi*

o'g'lini olib qololmadi. (S.Karomatov, «Bir tomchi qon»).

**Sarroj** [a. – egarsoz, egar-jabduq yasovchi] – ot-arava abzali tayyorlovchi usta. *Sayidga ayt: sarrojdan darhol xarid qilsin qayrilma egar.* (A.Muxtor, «Tong bilan uchrashuv»). – *Ha, Abdunabi sarroj ham bandalikni bajo keltirdi, – dedi chol Mirhaydarga.* (Mirmuhsin, «Tungi chaqmoqlar»).

**Sarf-xarajat** – ketkazilgan sarf va xarajat(lar). *Ammo uni [oltinni] ochishga ketadigan sarf-u xarajat oltinning o'zidan ham qimmatga tushadi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

**Sarxil** – eng yaxshilaridan terilgan, sara. Sarxil mevalar. Uzunning sarxili. *Gadoyboy sarxil olma, nok, uzumlarni vagonlarga joylab, Rossiyaning uzoq-uzoq shaharlariga jo'nata boshladi.* (H. G'ulom, «Senga intilaman»). *Bog'da esa sarxil mevalar pishib, bol tomib yotganmish.* (H. Karimov, «San'at sehri»).

**Sarxillamoq** – eng yaxshisini, sarxilini ajratib olmoq, saralamoq. *Olmalarni sarxillamoq. Uzunni sarxillab, savatlarga joylamoq.*

**Sariq akatsiya, karagana** (*Caracina arborescens*) – dukkakdoshlar oilasiga mansub asalga boy buta o'simlik. Ildiz tizimida azot to'plovchi tugunakli bakteriyalar mavjud, tez o'sadi va tuproq tanlamaydi. Sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamli. Tabiiy areali G'arbiy Sibir, Oltoy va Qozog'istonni qamrab olgan. Ko'kalamzorlashtirishda yashil devorlar barpo etishda qo'llaniladi.

**Sariqqamish** – bot. Boshoqli o'simliklarga mansub, popuksimon to'pgulli ko'p yillik o'simlik.

**Sariqsor** – zool. Qarchig'aylar oilasiga mansub yirtqich qush; sor.

**Sariq zira** (*cuminum suminum*. l) – selderdoshlar [soyabonguldoshlar – *Apiaceae* (*Umbelliferae*)] oilasiga mansub, bo'yi 10–50 sm ga yetadigan bir yoki ikki yillik o't o'simlik. Ziravor o'simlik sifatida ko'p miqdorda o'stiriladi. Mevasi tarkibida efir moyi, yog', oqsil moddalar bor. Xalq tabobatida sariq ziraning **mevasi** o't va siydik haydovchi dori sifatida buyrak-tosh, jigar va o't qopi hamda nafas yo'llari kasalligini, yaralarni davolash uchun, qorin dam bo'lganida yel haydovchi (ilmiy tibbiyotda ham) vosita sifatida qo'llaniladi.

**Sassiqaqvrak** – ziradoshlar oilasiga mansub, yelim-smolasi zararli hasharotlarni yo'qotishda qo'llanadigan, poyasi yo'g'on dorivor o't.

**Sassiqqo'ng'iz** – rangi qora, metallsimon tovlanuvchi, tuproqning yuza qatlamida yashovchi yirtqich qo'ng'izlarning bir turi. *Sassiqqo'ng'izlar tuproq hosil bo'lish jarayonida faol ishtirok etadi.* («O'zME»).

**Savat** – [f. to'qima xalta, savat] – tol, tut, yulg'un novdalari, bug'doy poyasi, sim, plastmassa va sh.k. dan to'qib tayyorlangan ro'zg'or buyumi, idish. *Patnislarda, tog'oralarda, savatlarda kulcha, qovurma chuchvara, varaqi, qatlama va boshqa har nav meva-chevalar.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *O'rtancha ovsin ayvonni supurib bo'lib, savat ko'tarib, ko'chaga chiqib ketishi bilan qolgan olti ovsin supaga chiqishdi.* (S. Ahmad, «Saylanma»). *Direktor, stolida turgan qog'ozni yirtib, burchakdagi savatga tashladi.* (O'. Usmonov, «Sirlil sohil»). *Savat qalpoq ezib yumshatilgan bug'doy poya va sh.k. narsalardan to'qilgan qalpoq. Shu vaqt otlarning savat qalpog'i tagidan*



*barkashday yo'g'on ikki o'rim sochi tushib ketib, yelkasida osilganicha qoldi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Saxaroza** – kim. Saxaroza, o'simlik (lavlagi, shakarqamish) shakari.

**Saxtiyon** [f. – oshlangan echki terisi] – 1 ot. Echki yoki qo'y terisini o'simlik moylari bilan oshlab tayyorlangan yumshoq charm. *Ko'nychilar qayish, saxtiyon tayyorlab, vofurushlarga, ulgurji poyabzal tikadigan kosisiblarga chakana sotadilar.* (N. Safarov, «Ko'rgan-kechirganlarim»). *Dag'al saxtiyondan etik kiygan oyoqlarini kerib, pichan uyumlarini aravaga otardi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2 sft., ko'chma. Saxtiyondan tayyorlangan. *Ilk bor bayram kuni saxtiyon etik kiygan bola kabi chaqnar ko'zlarim.* (A. Sher, «Qadimgi kuy»). *Hofiz Ko'ykiy qo'ynidan nafis saxtiyon muqovali kitobni olib, Boburga avaylab uzatdi.* (X. Sultonov, «Bir oqshom ertagi»).

**Sayhon** – katta tekis ochiq joy, maydon. *Keng sayhonda ikki chol yo'l axtarib kezardi.* (A. Oripov). *Poda, qishloq ko'chasidan shudring bosgan sayhonga chiqib bordi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Sayilgoh** – shahar binolari orasida kichik ko'kalamzorlashtirilgan yer maydoni (1 gektargacha). U qisqa dam olish maskani hisoblanib, alohida arxitektura kompozitsiyalarini manzarali shakllantirilgan bo'ladi.

**Sayis** [a.otboqar, hayvonlarga qarovchi] – 1 tar. O'rta Osiyo xonliklarida: harbiy va xo'jalik ehtiyojlari uchun saqlangan otlarni parvarish qiluvchi shaxs.

2 shv. Umuman, otboqar. *Sayislar biladi otning tobini, Chechan odam gap-*

*ning qo'yar bopini.* (Ergash Jumanbulbul o'g'li).

**Sayisxona** – 1 tar. Sayislar yashashi uchun bevosita otxonalar yoniga qurilgan maxsus uy.

2 shv. Otxona. *U darvozadan kirib, otini sayisxonadagi yakka mixga bog'ladi.* (M. Hazratqulov, «Jur'at»).

**Sayli** – Qovunning uzunchoq tuxum-simon, tusi yashil, po'sti qattiq kechpi-shar navi.

**Sayyohlar daraxti** (*Ravenala madagascariensis*) – banandoshlar oilasiga mansub daraxt. Balandligi 8–10 m, Madagaskar va Reyunon orollarida o'sadi. Barg novdalarida ancha miqdorda iste'molga yaroqli suv to'planadi. Daraxtning nomi uning shu xususiyatiga qarab qo'yilgan. Manzarali daraxt hisoblanadi.

**Sayoz** – 1 sft. Uncha chuqur bo'lmagan, chuqur emas (daryo, ko'l, ariq va sh.k. haqida). *Hali yomg'irlar boshlanmagani uchun, anhor suvi tiniq, lekin toshlari ko'rinib turgan sayoz chekkalari shishaday rangsiz-u, chuqur joylari ko'kimtir-yashil.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). *Biz, bir eshelon soldat, bepoyon dashtga tushib, sayozgina daryo bo'yida chodir tutib yotardik.* (O. Yoqubov, «Izlayman»).

2 rvsh. Yuzalab, chuqurlashmasdan. *Boshliq, bir kolxoz traktorchi o'n uch gektar yerni sayoz haydagani uchun sud uni qayta tekinga haydab berishga hukm chiqarganligini aytib berdi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»). *Sayoz oqqan daryo shag'illaydi, deganlaricha bor ekan.* (S. Karomatov, «Hijron»).

3 ko'chma. Mazmunan siyqa, yuzaki, g'o'r. *Xom-xatala asarlarga, g'oyaviy-badiiy sayoz buyurtmalarga chek qo'yish vaqti allaqachon keldi.* (Gaze-

tadan). [Salimxonning] *Ilmi juda sayoz, faqat qaqillab gapirishi bor* (Mirmuh-sin, «Umid»).

**Sayozlanmoq** – 1. Suvi kamayib yoki tosh, shag'al, balchiq to'planishi oqibatida tagi yuzaroq bo'lib qolmoq. *Bahor chog'lari tezoblikni haddan oshirsa, kuzga yaqin [daryoning] tagi ko'rinar darajada sayozlanib qoladi.* (J. Abdulla-xonov, «Xonadon»).

2. Mazmunan yuzaki bo'lmoq. *Fikringiz sayozlanib qolibdi.*

**Sayratma** – yaxshi sayraydigan, sayratish uchun boqiladigan (bedana haqida). Sayratma bedana. *Sayratmalarning ishqibozlari to'rqovoqlarini olib chiqib, tollarga ilib qo'yishadi, kimniki o'zarga o'ynashadi.* (R. Fayziy, «Hazrat inson»).

**Sayg'oq** – zool. Qo'sh tuyoqli, kavsh qaytaruvchi, cho'lda yashovchi sut-emizuvchi hayvon, oqquyruq. *Odamlar yaqinidan ko'kraklari oppoq sayg'oqlar gala-gala bo'lib chopib o'tadi* (M. Osim, «Ajdodlarimiz qissasi»).

**Sazan** – ayn. **zog'ora baliq** (q. **zog'orra**). *Bu suvlarda som, ilonbaliq, sazan, marinka, kudu baliqlar serob.* (Gazetadan). *Bir kuni xonzodalar Amudaryoga sayrga chiqibdi. Otam sazan tutib pishiribdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Sag'ri** – 1. Ot, eshak, qoramol kabilarning orqa oyog'ining ustki qismi. *Ot sag'ridan, qo'y bag'ridan.* (Maqol). *Bek ot sag'risiga achchiq bilan sag'ri bosdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *To'ng'ich botir sherning sag'risiga qilich uribdi.* («Chalpak yoqqan kun».)

2. Gavdaning dumba bilan bel o'rtasidagi qismi. *Itning tishi sag'rimga xanjar urganday botgan edi.* (G'. G'ulom, «Shum bola»).

3. Otning sag'ri terisidan tayyorlangan, kavush uchun ishlatiladigan ko'n charm. *Ko'nchilik korxonalarida sag'ri tayyorlash muhim o'rinni egallagan edi.* (F. Ozodayev, «Sanoat»).

4. Shunday charmdan qilingan (poy-abzal haqida). *Qish-yoz oyog'ida bir sag'ri kavush. Mahsi ham ming yamoq.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Sag'rin //dumg'aza** – chorva hayvonlari gavdasining orqa tomoniga berilgan nom. Otning kuchini va uning chaqqonligini belgilaydi. Sag'rining asosi katta va kuchli muskullar bilan qoplangan dumg'aza hamda suyaklaridan tashkil topgan. Sag'ri uzunligiga, kengligiga, qiyaligiga va shakliga qarab baholanadi. Sag'ri salt miniluvchi chopqir va yo'rtoqi otlarda uzun, yuk tortuvchi otlarda esa qisqa bo'ladi.

**Sachog** – 1. Gajim, popuk, shokila. *Suluv otlarga yarashgan, Tilla sachog tizga tushgan.* («Gulixiromon»).

2. Otning to'pig'i ustidagi bir tutam soch.

**Sachogli** – 1. Sachog tutilgan (qadalgan); gajimli. *Yoz yoni ayvon o'choqli, Qo'li dasturxon sachogli.* («Qo'shiqlar»).

2. Oyog'ida sachog'i bor, oyog'i sachogli (ot haqida).

**Sachratqi I** – bot. Havorang gulli ko'p yillik begona o't (xalq tabobatida foydalaniladi). *Quyosh shu'lasi yalt etib tegishi bilan, sachratqi o'z tojbarlarini yozadi, havoni bulut qoplasa, gullarini yumib oladi.* (Gazetadan).

**Sebarga** [f. – uch bargli] – bot. Dukkakdoshlarga mansub, suv bo'yida, o'tloqlarda o'sadigan, bargi uch bo'lakli, bedanasimon bir yoki ko'p yillik o't; yem-xashak ekini. *Kelinchak oyoqlarini ariqcha labidagi sebarga ustiga uzatib,*

yuzini ho'lladi. (S. Abdulla, «Mavlono Muqimiy»).

**Sedana** (*nigella l.*) – ayiqtovondoshlar oilasiga mansub, bo'yi 20–50 sm. ga yetadigan bir yillik o't o'simliklar. MDH davlatlari Yevropa qismining janubida, Kavkaz va qisman Markaziy Osiyo cho'l-laridagi qiyaliklarda, tashlandiq yerlar, bog'lar, ekinzorlarda o'sadi. Ba'zan maxsus o'stiriladi.

**Segmentatsiya** – *biol.* 1. Bo'g'im-bo'g'im tuzilish.

2. Tuxumning hujayralarga bo'linishi, murtakka aylana boshlashi.

**Sekator** [*lot. secare* – kesmoq, qirqmoq] – bog'. Bog'dorchilikda uncha yo'g'on bo'lmagan shox va novdalarni, yangi ko'chatlarning ortiqcha qismlarini kesib to'g'rilaydigan asbob; tokqaychi.

**Sekret** [*lot. secretus* – ajratilgan, ajratib chiqarilgan] – *biol.* Odam va hayvon organizmidagi bez hujayralari ishlab chiqaradigan va ajratadigan modda; ajralma (tupuk, shilliq, gormon va sh.k.). *Organizmning normal hayoti uchun sekretlar muhim ahamiyatga ega.* («O'zME»).

**Sekretsia** [*lot. secretio* – ajratish] – *biol.* Odam va hayvonlar organizmida bezlardan sekretlarning hosil bo'lish va ajralib chiqish jarayoni. Ichki sekretsia. Tashqi sekretsia. *Sekretsia* – hujayra ichida sintez qilingan mahsulotning asta-sekin yetilib, ketma-ket bir organoiddan boshqasiga o'tkazilib turadigan izchil jarayondir. («O'zME»).

**Sel** [*a.* – oqim; soy, anhor, jilg'a] – 1. Shiddatli, kuchli yog'in; jala. *Tomchi – sel bo'lmas, Dushman – el bo'lmas.* (Maqol). *May oyi tugab boryapti-yu, haliyam har kuni yomg'ir, har kuni sel.*

(N.Aminov, «Qahqaha»). *Bahorda qattiq sel yog'ib, dala betini qatqaloq qopladi.* (Gazetadan).

2. Tog'li hududlarda shiddatli yomg'irdan, jaladan yoki qor erishidan hosil bo'ladigan, aholiga, xalq xo'jaligiga katta zarar keltiradigan kuchli loy-suv oqimi. *To'satdan kelgan suv oqimi Tollimarjon bosh korpusida qurilayotgan kotlovanga urilib, ishni taqqa to'xtatib qo'ydi.* (Gazetadan). *Sel yuvib ketgan yoki yozning qattiq girdoblari yalagan taqir yerlarning mayda toshlari oyoq ostida g'ichirlaydi.* (S.Ayniy, «Qullar»).

3. Go'shtning suvi, qoni. Seli bilan qovurilgan jigar. *Ha, mulla aka, quling o'rgilsin kabob bor, yeysizmi? Seli jizillab turibdi.* (Oybek, «Ulug' yo'l»). *Necha bor e'tibor bergandirsiz, har qanday go'sht tuzlanganda seli chiqib ketadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

4 *ko'chma.* Quyoshning kuchli harorati; quyosh nuri oqimi. *Quyosh seliga miriqib cho'milgan yam-yashil dala barq uradi.* (J.Abdullaxonov, «Oriyat»). *Osmon beg'ubor, tiniq, o'tob seli go'dak kulgusiday yoqimtoy edi.* (O.Yoqubov, «Ko'hna dunyo»).

**Selava** [*a. + f.* – sel suvi] – 1 *s.t.* **Selob.**

2 *ayn. sel* 3. *Selavasi oqib turgan go'sht.*

3 *s.t.* Turli ichkiliklar (pivo, aroq, konyak va sh.k) aralashmasi; kokteyl.

**Seld** [*r. seld: qad. island. sild*] – *zool.* Uncha katta bo'lmagan, ovlanadigan dengiz balig'i. *Astraxan seldi. Okean seldi.*

**Selderey** [*fr. seleri*] – oshko'k sifatida iste'mol qilinadigan ikki yillik sabzavot o'simligi; qafs.

**Seleksion** – 1. Seleksiyaga oid; seleksiya ishi bilan shug‘ullanadigan. *Seleksion stansiya*.

2. *Seleksiya yo‘li bilan hosil qilingan. Bug‘doyning seleksion navlari.*

**Seleksioner** – seleksiyachi, seleksiya bilan shug‘ullanuvchi.

**Seleksiya** [lot. *selestio* – tanlash, saralash] – q.x. 1. Mavjud o‘simliklar va hayvon zotlarining insonga zarur belgi-xususiyatlarga ega bo‘lgan navlari, zotlari va duragaylarini yaratish usullarini ishlab chiquvchi fan. *Seleksiyaning ilmiy-nazariy bazasi genetika hisoblanadi.* («O‘zME»).

2. O‘simlik turlari va hayvon zotlarining mavjudlarini sifat jihatdan yaxshilash va yangilarini yaratish. *Bizda seleksiya ishi tuzuk tashkil qilingan, don va boshqa ekinlarning ko‘pgina yangi navlari yetishtirilgan.* (Gazetadan).

**Seleksiyachi** – seleksiya ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis. Seleksiyachi olimlar. *Men keksa seleksiyachi bo‘lganim sababli, yosh ukalarimni muvaffaqiyat bilan tabriklayman.* (Mirmuhsin, «Umid»). *G‘allakor dehqonlar, olim va mutaxassislar, seleksiyachilarning birgalikdagi sa‘y-harakati tufayli qisqa fursat ichida bu ulug‘ va murakkab maqsadga erishildi.* (Gazetadan).

**Seleksiyachilik** – ayn. **seleksya 1,2**. *U [Dadaboyev] qo‘lida to‘lib-toshib turgan g‘o‘za chanog‘ini olib, yig‘ilganlarga ko‘rsatdi: – Vilt bu navga yaqinlashmaydi, bu – hozirgi eng yaxshi nav, seleksiyachiligimizning muvaffaqiyati.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Seleksiya ko‘chatzori** – qiyosiy baholash, ko‘paytirish va ayrim eng yaxshi o‘simliklarning nasllarini tanlab olish uchun duragaylarning uchinchi

va undan keyingi avlodlari ekiladigan maydon.

**Selgimoq** – suvi, nami qochib, bir qadar qurimoq. *Tog‘ orqasidan asta shamol ko‘tarildi, yerlar selgiy boshladi. Oydin, Shirin keldi. – Hechqisi yo‘q, [kostyumni] ilib qo‘ydim, biroz selgisin, dazmol bilan quriydi, – dedi Nodira Komiljonga.* (U.Nazarov, «Birinchi maktab»).

**Selitra** [lot. *sal* – tuz + *nitrum* – tabiiy soda; ishqor] – kim. Azot kislotasining natriy, kaliy, kalsiy yoki ammoniyli tuzi (texnikada va qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanadi). *Ammiakli selitra.*

**Sellyuloza** [fr. *cellulose* < lot. *cellula* – hujayra] – 1. Glyukoza qoldig‘idan hosil bo‘ladigan, o‘simlik hujayralari qobig‘ining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan yuqori molekullari birikma; o‘simlik to‘qimalarining mexanik chidamliligi hamda elastikligini ta‘minlaydi. [Olimlar] *Paxtaning murakkab kimyoviy tarkibini, ayniqsa, uning «sellyuloza» degan moddadan tarkib topganligini keyinroq tushunganlar.* («Guliston».)

2. Yog‘ochdan va ba‘zi bir o‘simliklar poyasidan kimyoviy yo‘l bilan hosil qilinadigan tola modda (qog‘oz va karton, sun‘iy ipak, plastmassa, lok, portlovchi moddalar va sh.k. tayyorlash uchun ishlatiladi). *Yog‘och sellyulozasi. Paxta sellyulozasi.*

**Selob** [a. + f. < a. – sel, toshqin + f. – suv] – 1. Sel suvlari.

2 *shv.* Toshqin; sel. *Seloblar vaqtida esa daryo toshib, etagida har yili talay ekinzorlarni nobud qilmoqda.* (Gazetadan).

**Selob yosh** yoki **ko‘z selobi** – *shv. folk.* Duv-duv yosh. *Oh urganda, ko‘zdan*

oqar selob yosh, Zolim bilan hargiz bo'lmanglar yo'ldosh. («Alpomish».)

**Sel ombori**, *selxona*, *sel saqlagich* – sel oqimlarini tartibga solish va hududni sel vayrongarchiligidan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan gidrotexnika inshooti; seldan himoya vositalarining asosiy turi. Sel ombori aksariyat soy o'zanlarini to'g'on bilan to'sib barpo qilinadi.

**Selsiy** [shved astronomi va fizigi Anders Selsiy (Celsius) nomidan]: – Selsiy shkalasi. Suvning muzlash nuqtasidan qaynash nuqtasigacha bo'lgan temperaturani ko'rsatadigan, 100 gradusga bo'lingan shkala va shunday shkalali termometr.

**Selxona** [*sel* + *xona*] – sel suvlarini oqizish va hududni sel ofatidan muhofaza qilish uchun qurilgan maxsus gidrotexnik inshoot yoki shu maqsad uchun moslangan jar, soy. – *Modomiki, sel xavfi bormi, selxona bo'lishi lozim. Sel har yil bir tomondan, bir izdan keladi, – dedi Cho'li bobo.* (H.G'ulom, «Senga intilaman»). *Uning [Umrzoqning] maslahati bilan ortiqcha suvni jarga – selxonaga burib yuborish chorasiga kiritishilgan edi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Selyodka** [*«seld»* s. dan] – tuzlangan yoki dudlangan seld balig'i. *Cholning xotini tarelkada yupqa qirg'ilgan non, ikkita selyodka, bir oz shakar olib kelib, o'rtaga qo'ydi-da, choy keltirgani chiqib ketdi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Semiz** – 1. Etili, to'ladan kelgan; to'la. *Semiz odam.*

2. Yaxshi boqilgan, etli; bo'rdoqi; vazndor; yog' bosgan. *Semiz qo'y. Semiz go'sht. Suvonjon avgustning oxirlarida o'rmon xo'jaligi punktiga keldi. Uning qo'lida to'rtta semiz kaklik bor edi.* (S.

Anorboyev, «Oqsoy»). *Sharofatxon bir katta kosada semiz qo'y go'shtidan pishirilgan sho'rvadan keltirdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

3 *q.x.* O'simlik uchun foydali moddalarga boy, serhosil (yer haqida). *Tayyor, semiz yer bo'lsa, 50 sentnerdan hosil olish uncha qiyin emas.* (Gazetadan). *Tuproq – semiz, suv – yaqin, havosi ochiq, Quyosh esa yil bo'yi bu yerga oshiq.* (M. Shayxzoda).

4 *s.t.* Yo'g'on, qalin, qappaygan; enli. *Semiz kitob. Kechqurun guzarga kirib turing, ko'rasiz. Semiz-semiz sumka ko'targan xotinlar o'taveradi.* (S. Siyoyev, «Otlq ayol»).

**Semizo't** – sug'oriladigan yerlarda o'sadigan, poyasida oq sutsimon modda bo'lgan bir yillik begona o't.

**Semirtirmoq** – 1. **Semirmoq** *fl. ort. n.*

2. Boqib et oldirmoq; bo'rdoqi qilmoq. *Qo'ylarni semirtirmoq. Mollarni boqib semirtirmoq.*

**Sentner** [*nem. Zentner* < *lot. centenarium* – yuz qadoqqa teng og'irlik] – 1. Metrik o'lchov tizimida 100 kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi. *Hosildorlik o'tgan yildagiga nisbatan besh sentner oshib, 42 sentnerga yetdi.* (Gazetadan).

2. G'arbiy Yevropadagi bir qancha mamlakatlarda 50 kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi.

**Sentrifuga** [*nem. Zentrifuge* < *lot. centrum* – markaz + *fuga* – qochish] – katta tezlikda aylanish paytidagi markazdan qochma kuch ta'siri bilan bir jinsli bo'lmagan birikmalarni tarkibiy qismlarga ajratadigan apparat (kimyoviy tadqiqotlarda, oziq-ovqat sanoati va sh.k. larda qo'llanadi). *Tuproqni mexanik analiz qilishda sent-*

rifugadan foydalanilmoqda. (M. Bahodirov, «Tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar»).

**Senaj** (*rus. Seno* – pichan) – namligi 50–55% ga qadar so'litilgan ko'k poyalarni germetik sharoitda konservalash yo'li bilan tayyorlanadigan ozuqa. Senajni pichan va silos uchun foydalaniladigan barcha turdagi o'tlar va ularning aralashmasidan tayyorlash mumkin. Ko'proq dukkakli o'tlardan tayyorlanadi. O'tlarni o'rish, so'litish, maydalash, transheyaga bosish, shibbalash va ustini yopish jarayonlarini qamraydi.

**Separat** [*lot. separatus* – alohida, ajratilgan < *separare* – ajratmoq] – siyos. Manfaatdor tomonlar bilan kelishmay qilingan, bir tomonlama, alohida. *Separat sulh*.

**Separator** [*lot. separator* – ajratkich] – Gazdan suyuq yoki qattiq zarralarni ajratish, aralashmalarni tarkibiy qismlarga ajratish uchun mo'ljallangan apparatlarning umumiy nomi. *Sut separatori. G'alla tozalaydigan separator. Gaz separatorida gaz suyuq va qattiq zarralardan tozalaniadi.* («O'zME»).

**Separatsiya** – 1 *tex.* Separatsiya (lash), separatorida ajratish (tozalash); izotoplarni separatsiyalash; sutni separatsiyalash (separatoridan o'tkazish).

2. Separatsiya, ajralish, ajralib chiqish; siyosiy separatsiya.

**Sepma** – *ayn. sochma* 1. Urug'ni sepma qilib ekmoq.

**Sepmoq** – 1. Sochmoq, purkamoq, sachratmoq (suyuqliklar haqida). *Har oqshom ayasi hovliga ko'loblatib suv separd. Keyin rayhon isi bilan o'tkir tuproq hidi butun hovlini tutib ketardi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). *Usta*

*vishillatib atir sepgach, mijozning yuzini yelpib, so'ng artib qo'yadi.* (E.Raimov, «Ajab qishloq»).

2. Bir tekisda sochmoq (kukun holdagi narsalar haqida). *Chuchvaraga murch sepmoq. Go'shtga tuz sepmoq. Xolnisa yoziq xamirga biroz urvoq sepdida, o'qlog'ini aylantirib, yana yoyishda davom etdi.* (S.Nurov, «Narvon»). *Bu odam shoshmasdan tuxumni archidi, hafsala bilan tuz sepib, ogga soldi.* (A.Qahhor, «Asarlar»).

3 *q.x.* Bir tekisda tarqatib sochmoq; ekmoq (don-dun, urug', o'g'it va sh.k. haqida). *Mehnat qilmay rohat ko'rmas, urug' sepmay ekin o'rmas.* (Maqol). – *Hoy chol, manavi yer o'lgur shunday yotmasin. Ozgina sabzi urug'i sepib qo'ysangiz-chi? – dedi To'xtabuvi.* (E.Raimov, «Ajab qishloq»).

4 *ko'chma.* Tarqatmoq, sochmoq. *Yog'du sepmoq. Kechaning oltin chechaklari og'ochlar orasidan nur sepad. (Uyg'un, «Asarlar»).* *Keng, tekis ko'chaga uzoqdan chiroqlar tuman ichida xira, sovuq nur sepad. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).*

**Sepoya** – [*f.* – uch poyali, uch oyoqli] – 1. To'g'on, damba qurishda, daryo va anhorlarning qirg'oqlarini suv yuvib ketishidan saqlashda ishlatiladigan, uchta xodani uchburchak shaklida bir-biriga mahkamlab, poyalar orasi xarsangtosh va b. materiallar bilan to'lg'aziladigan moslama. *Sepoyachilar daryoning o'rtasiga sepyalar o'rnatdilar.* (Sh. Rashidov, «Quadratli to'lqin»). *Ko'prik xiyla uzun bo'lganligi uchun uch-to'rt joyida tagidan qo'yilgan zo'r sepoya tirgaklari bor edi.* (P.Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

2. Biror narsa osish, ilish uchun mo'ljallangan uch oyoqli asbob. *Sepoya ostida chimdab dimog'ni, Chelakda pishadi antiqa sho'rva.* (M.Ikrom, «Baliq ovida»).

3 *shv.* Novdadan uchburchak shaklida to'qilgan chambarak. *U savat, (ichida) go'sht bor. Yonidagi sepoyada sut, qatiq.* (S.Nurov, «Narvon»).

**Sepoyachi** – sepoya to'siqlar yasovchi va o'rnatuvchi mutaxassis. *Latiffon sepoyachilar ichida dam ko'rinib, dam ko'rinmay ishlayotgan tengdosh do'sti Boris Yeshkovga tez-tez ko'z tashlab qo'yar edi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»).

**Sepsis** [*yun. sepsis* – chirish, irish] – *tib.* Yiring hosil qiluvchi mikroblarning infeksiya o'chog'idan qonga o'tib, qonning zaharlanishi natijasida kelib chiqadigan og'ir yuqumli kasallik. *Kindikning yiringlashi chaqaloqlar sepsisiga sabab bo'ladi.* («O'zME».) *Sepsis kasalligida til quruq, yorilgan va qoramirroq karashlanadi.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Seravj** [*ser* + *avj*] – 1 *mus.* Avji ko'p, ko'p avjli. *Seravj ashula.*

2. Yaxshi rivojlangan, avj olgan, tez yetilayotgan. *Yaxshi ishlov berilgan, oziqlantirilgan g'o'zalar seravj, yoppasiga shonalamoqda.* (Gazetadan).

**Serbaraka** – barakasi ko'p, juda barakali. *Serbaraka mehnat. Serbaraka yil. Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimizga oshiq bo'lgan. Shu serbaraka yurtim unga kerak bo'lib qolgan.* (M. Osim, «To'maris»). *Ajib serbaraka bo'lib keldi kuz* (A. Hamdam).

**Serbag** – bargi ko'p, bargi qalin; quyuq, zich bargli. *Qo'riq va bo'z yerlarda yaratilgan bog'ning nihollari serbag va sernovda bo'lsa ham, tanalari yosh va*

*ingichka edi.* (Sh.Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Serboshog** – boshog'i ko'p; ko'p boshog chiqaradigan. *Serboshog bug'doy.*

**Serbutoq** – butog'i ko'p, butoqlab ketgan. *Serbutoq shox. U emaklab, serbutoq qora qayin tagiga bordi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Serdaraxt** – daraxti ko'p, ko'p daraxt ekilgan. *Serdaraxt hovli. Ozoda ishdan chiqib, tramvayga o'tirmay, yangi barg yozgan serdaraxt, gavjum ko'chadan uyiga qaytdi.* (S. Ahmad, «Alla»). *Soyning o'ng betidagi serdaraxt mahallada Mavlono Fazliddin bulturdan beri istiqomat qilayotgan peshayvonli mo'jaz bir uy bor.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Serfayz** – g'oyat fayzli, ko'rkam, ko'zni quvontiradigan. *Serfayz bog'. Serfayz hovli. Serfayz ko'cha. Serfayz to'y. Ular serfayz hovliga kirib kelganlarida, endigina tong ota boshlagan edi.* («Yoshlik»).

**Sergul** – 1. *Etli, semiz, yo'g'on. Sergo'sht yuzlari yiltillab turgan rais allaqanday qog'ozlarga imzo chekish bilan ovora edi.* (R. Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»). *Xoltoy esa qora terga botib, bo'kib o'tirar, jiqqa ho'l bo'lgan ko'ylagi sergo'sht tanasiga yopishib ketgan edi.* (M. Xayrullayev, «Alyor»).

2. *Seret, etli. Sergo'sht o'rik. Sergo'sht shaftoli.*

3. *Go'shti mo'l, ko'p go'sht solingan. Sergo'sht sho'rva. Sergo'sht bug'doy shavlasining xushbo'y hidi anqib, odamning dimog'iga urardi.* (M.Muhamedov, «Qahramon izidan»).

**Serhosil** – hosildor, unumdor, ko'p hosil beradigan. *Serhosil yer. Serhosil*

tuproq. *O'zbekiston deganda, poyonsiz paxtazorlar bilan birga serhosil meva-zorlar, poliz-u yaylovlar ko'z oldimizga keladi.* («Saodat»).

**Serildiz** – 1. Ildizi juda ko'p; ildiz otib, tarmoqlanib ketgan. *Serildiz daraxt.*

2. Ildiz bosgan. *Serildiz qirg'oq. Polkovnikning samimiy maqtovidan jangchilar bir-birlariga qarab kulib qo'yishdi va serildiz yerni tag'in ham g'ayrat bilan qo'pora boshlashdi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»).

**Serjun** – 1. Juni ko'p, ko'p jun beradigan. *Serjun qo'ylar.*

2. Juni ko'p, jun bosgan. *Ikki tizzasiga serjun bilaklarini qo'yib o'y surayotgan kekxa kishi – usta Zamon edi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

3. Ko'proq jun qo'shib to'qilgan. *Serjun gazlama.*

**Serka** – bichilgan erkak echki, axta taka. *Toy o'tga ergashar, qo'y – serkaga.* (Maqol). *Qo'rqqanidan ko'zlari olayib ketgan ko'k serka jar yoqasiga yetib borib, soqolini selkillatganicha taqqa to'xtadi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Adir ustida cho'ponlarning iti, shoxdor serka ko'rindi.* (T. Murod, «Yulduzlar mangu yonadi»).

**Serkepak** – kepagi ko'p, kepagi me'yoridan ortiq. *Serkepak un.*

**Serko'sak** – ko'sagi zich; ko'p ko'sak tukkan. *Serko'sak g'o'za.*

**Sermahsul** – mahsuli ko'p, ko'p mahsul beradigan. *Sermahsul mol. Sermahsul tarmoq. Sermahsul ijodkor.*

**Sermehnat** – ko'p mehnat talab qiladigan; mehnati ko'p. *Sermehnat ekin. – Chorva ishi, o'g'lim, juda sermehnat ish, – dedi Abdurazzoq ota.* (S. Abduqahhor, «Oltin vodiylarni yayov kevganda»).

*Qurt boqish juda nozik va sermehnat ishdir.* (Gazetadan).

**Sermeva** – 1. Mevasi ko'p, ko'p meva beradigan. *Zaytun daraxtining bo'yi 4–5 metrcha bo'lib, u juda sershox, sermeva bo'ladi.* (Gazetadan).

2. Meva daraxti ko'p, meva daraxtiga boy. *Sermeva bog'.*

**Sermoy** – ayn. *seryog'.* Sermoy kunjut. *Sermoy osh. Nusratbek bolishiga yonboshlab, katta sopol tovoqdagi sermoy chalobdan ichdi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**Sernam** – 1. Nami juda ko'p; juda nam. *Sernam paxta.*

2. G'oyat nam, zax. *Bug'doy qanchalik sernam yerga ekilsa, hosil shunchalik mo'l bo'ladi.* («Sharq yulduzi»).

3. Nam, rutubatli. *Havoning issiq yoki salqin kelishi, quruq yoki sernam bo'lishiga qarab ekin ekish muddatlari ham o'zgaradi.* (Gazetadan).

**Sernasl** – nasli ko'p, ko'p nasl qoldirgan yoki qoldiradigan; ko'p tug'adigan; serpusht. *Sernasl mol.*

**Serob** [f. – namga, suvga to'yingan; sug'orilgan, chanqog'ini qondirgan] – yetarli darajada ko'p, mo'l-ko'l. *Bizda hamma narsa serob. Zap o'rik ekan-da. Kanal bitib, suv serob bo'lib, bog'-rog' qilganimizda, albatta, shuning danagidan ekamiz.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari») *Cho'lda eng serob giyoh bo'lgan shuvoq mayda kulrang barglarini titratib, shamolda zo'r berib silkinadi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Serobgarlik** – ayn. **serobgarchilik.**

**Serobgarchilik** – hamma narsa yetarli bo'lgan payt, mo'lchilik; ma'murchilik, farovonlik. *Hammayoq serobgarchilik bo'lib qoldi. Serobgarchilikda yashamoq.*



**Seroblik** – 1. Serob, mo‘l-ko‘l bo‘lishlik. *Ona shahrimizning gullab-yashnab turishining boisi suvimizning serobligidandir.* (Gazetadan). *Bozorda meva serobligidan hech qayoqqa sig‘maydi.* (Gazetadan).

2 ayn. **serobgarchilik.** *Bir yoqda – tashnalik, so‘lg‘inlik, ikkinchi yoqda – seroblik, gulgunlik! Bir-biridan madad ololmaydi, bir-biriga yordam qilolmaydi.* (M. Ismoiliy, «Farg‘ona t.o»). *Shaloladek buluting oppoq, Yog‘diradi seroblik va qut.* (Y. Shomansur).

**Serobchilik** – ayn. **serobgarchilik.** *Barkashlarda to‘lib-toshib tortilib nonlar, Farovonlik, serobchilik, har uyda bayram.* (Habibiy).

**Serpaxta** – paxtasi ko‘p, paxta ko‘p solingan. *Serpaxta ko‘rpa. Serpaxta chopon. Uning [sandalning] burchagida ustiga serpaxta choponini tortib Xo‘janazarboy yotmoqda edi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Serpusht** [f. – ko‘p naslli] – sernasli; ko‘p bola tug‘adigan; ko‘p tuxum beradigan; tez urchiydigan. *O‘rgimchak, kana juda serpusht bo‘ladi.* (Gazetadan).

**Serpushtlik** – hayvonlarda har bir tur uchun xos bo‘lgan, tabiiy o‘lim o‘rnini qoplash uchun zarur bo‘lgan nasl qoldirish xususiyati. Serpushtlik hayvonlarning turli guruhida har xil. Uzoq yashaydigan va nasli haqida ko‘p g‘amxo‘rlik qiladigan hayvonlar bir yilda, ko‘pincha bir necha yilda 1 marta 1–2 tadan bolalaydi. Qisqa umr ko‘radigan hayvonlar (mas., kemiruvchilar) 1 yilda bir necha marta (10–15 tadan) bolalaydi. Tuxum qo‘yib ko‘payadigan hayvonlar serpushtligi yuqori bo‘ladi. Ayrim hasharotlar bir necha yuz minglab, hatto mln. ta (oybaliq birdaniga 300 mln. tagacha) tuxum

qo‘yadi. Serpushtlik hayvonning yoshi, yil mavsumi, oziq xili va miqdori, iqlim sharoiti, populyatsiya zichligi va b. omillar ta‘sirida o‘zgarib turadi. Serpushtlikni oshirish chorvachilikda katta ahamiyatga ega. Yaqin qarindoshlar o‘rtasida uzoq vaqt davomida o‘tkaziladigan duragaylash serpushtlikni kamaytiradi, hatto pushtsizlikka olib kelishi mumkin. Ko‘pincha uzoq formalarni chatishtirish ham qisman yoki butunlay pushtsizlikka olib keladi.

*Serpushtlikni oshirish chorvachilikda katta ahamiyatga ega.* («O‘zME»).

**Serqatiq** – qatig‘i ko‘p, ko‘p qatig solingan. *Serqatiq mastava. U serqatiq go‘ja ichib, qornini to‘yg‘izib olgan bo‘lsa-da, oshpaz Abdulmatkarim pishirgan ovqatlarga qarab, ko‘ngli sust ketardi.* (M. Osim, «O‘tror»).

**Serqaymoq** – qaymog‘i ko‘p, ko‘p qaymoq beradigan. *Sigirlardan qishinyozin birdek ko‘p, serqaymoq sut sog‘ib olsak, yetarli ozuqa g‘amlab qo‘ysak, go‘sht ham, sut ham, yog‘ ham, jun ham ko‘payadi.* (H. Nuriy, «Yashil xirmon»).

**Serqiltanoq** – qiltanoqli, qiltanog‘i ko‘p. *Serqiltanoq baliq.*

**Serqum** – 1. Qumi ko‘p, qum bosgan. *Serqum sohil. Tubi serqum daryo.*

2. Qum ko‘p solingan. *Serqum suvoq*

**Serquyosh** – quyosh nuri ko‘p tushadigan; quyoshli kunlari ko‘p. *Serquyosh yoz. Serquyosh O‘zbekiston. Shu kunlarda serquyosh respublikamiz dalarida ish qizg‘in.* (Gazetadan).

**Sersoya** – 1. Ko‘p soya beradigan; soyasi ko‘p. *Sersoya sada. Daraxt kam bo‘lsa-da, lekin, quyuyq sersoya.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

2. Juda soya, salqin. *Salkam million tup daraxt bor. Toshkentda nima ko‘p,*

**Seroblik** – 1. Serob, mo‘l-ko‘l bo‘lishlik. *Ona shahrimizning gullab-yashnab turishining boisi suvimizning serobligidandir.* (Gazetadan). *Bozorda meva serobligidan hech qayoqqa sig‘maydi.* (Gazetadan).

2 ayn. **serobgarchilik.** *Bir yoqda – tashnalik, so‘lg‘inlik, ikkinchi yoqda – seroblik, gulgunlik! Bir-biridan madad ololmaydi, bir-biriga yordam qilolmaydi.* (M. Ismoiliy, «Farg‘ona t.o»). *Shaloladek buluting oppoq, Yog‘diradi seroblik va qut.* (Y. Shomansur).

**Serobchilik** – ayn. **serobgarchilik.** *Barkashlarda to‘lib-toshib tortilib nonlar, Farovonlik, serobchilik, har uyda bayram.* (Habibiy).

**Serpaxta** – paxtasi ko‘p, paxta ko‘p solingan. *Serpaxta ko‘rpa. Serpaxta chopon. Uning [sandalning] burchagida ustiga serpaxta choponini tortib Xo‘janazarboy yotmoqda edi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Serpusht** [f. – ko‘p naslli] – sernasli; ko‘p bola tug‘adigan; ko‘p tuxum beradigan; tez urchiydigan. *O‘rgimchak, kana juda serpusht bo‘ladi.* (Gazetadan).

**Serpushtlik** – hayvonlarda har bir tur uchun xos bo‘lgan, tabiiy o‘lim o‘rnini qoplash uchun zarur bo‘lgan nasl qoldirish xususiyati. Serpushtlik hayvonlarning turli guruhida har xil. Uzoq yashaydigan va nasli haqida ko‘p g‘amxo‘rlik qiladigan hayvonlar bir yilda, ko‘pincha bir necha yilda 1 marta 1–2 tadan bolalaydi. Qisqa umr ko‘radigan hayvonlar (mas., kemiruvchilar) 1 yilda bir necha marta (10–15 tadan) bolalaydi. Tuxum qo‘yib ko‘payadigan hayvonlar serpushtligi yuqori bo‘ladi. Ayrim hasharotlar bir necha yuz minglab, hatto mln. ta (oybaliq birdaniga 300 mln. tagacha) tuxum

qo‘yadi. Serpushtlik hayvonning yoshi, yil mavsumi, oziq xili va miqdori, iqlim sharoiti, populyatsiya zichligi va b. omillar ta‘sirida o‘zgarib turadi. Serpushtlikni oshirish chorvachilikda katta ahamiyatga ega. Yaqin qarindoshlar o‘rtasida uzoq vaqt davomida o‘tkaziladigan duragaylash serpushtlikni kamaytiradi, hatto pushtsizlikka olib kelishi mumkin. Ko‘pincha uzoq formalarni chatishtirish ham qisman yoki butunlay pushtsizlikka olib keladi.

*Serpushtlikni oshirish chorvachilikda katta ahamiyatga ega.* («O‘zME»).

**Serqatiq** – qatig‘i ko‘p, ko‘p qatig solingan. *Serqatiq mastava. U serqatiq go‘ja ichib, qornini to‘yg‘izib olgan bo‘lsa-da, oshpaz Abdulmatkarim pishirgan ovqatlarga qarab, ko‘ngli sust ketardi.* (M. Osim, «O‘tror»).

**Serqaymoq** – qaymog‘i ko‘p, ko‘p qaymoq beradigan. *Sigirlardan qishinyozin birdek ko‘p, serqaymoq sut sog‘ib olsak, yetarli ozuqa g‘amlab qo‘ysak, go‘sht ham, sut ham, yog‘ ham, jun ham ko‘payadi.* (H. Nuriy, «Yashil xirmon»).

**Serqiltanoq** – qiltanoqli, qiltanog‘i ko‘p. *Serqiltanoq baliq.*

**Serqum** – 1. Qumi ko‘p, qum bosgan. *Serqum sohil. Tubi serqum daryo.*

2. Qum ko‘p solingan. *Serqum suvoq*

**Serquyosh** – quyosh nuri ko‘p tushadigan; quyoshli kunlari ko‘p. *Serquyosh yoz. Serquyosh O‘zbekiston. Shu kunlarda serquyosh respublikamiz dalarida ish qizg‘in.* (Gazetadan).

**Sersoya** – 1. Ko‘p soya beradigan; soyasi ko‘p. *Sersoya sada. Daraxt kam bo‘lsa-da, lekin, quyuyq sersoya.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

2. Juda soya, salqin. *Salkam million tup daraxt bor. Toshkentda nima ko‘p,*

*sersoya ko'chalar, joylar ko'p.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**Sersut** – ko'p sut beradigan, suti ko'p. *Sersut sigir. Otam sigirning sersut yoki kamsutligini ma'rashidan bilar edilar.* (A. Qahhor, «Asarlar»).

**Sersuv** – 1. Suvi ko'p, suvi mo'l, to'la. *Sersuv qo'llar. Bolalik xotiralari bilan aloqador bu daryochani u sersuv, tubsiz nahrlarga alishmaydi.* (S. Nurov, «Narvon»).

2. Suvli; shirador; sersharbat. *Sersuv shaftoli. Sersuv turp. Paxtaseb – olmaning bir turi. Kichkina, sarg'ish bo'ladi. Lekin juda mazali, sersuv.* (Sh. Xolmirzayev, «Olma yemadim»).

**Sertarmoq** – 1. Tarmoqlangan; yonatrofqa qarab o'sgan. *Bodom ildizi sertarmoq bo'lgani sababli tuproq eroziyasiga qarshilik qiladi.* («Fan va turmush»).

2. Tarmoqlari, sohalari ko'p va xilma-xil. *Sertarmoq soha. Hozir fanlar juda chuqurlashib, sertarmoq bo'lib ketgan.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Sertifikat** [fr. *certifikat* < lot. *sertum* – aniq, to'g'ri, rost + *facere* – qilmoq] – 1. Davlat organlarining moliyaviy qarz (zayom) majburiyati; shuningdek, ko'rsatuvchiga beriladigan davlat zayomlari, obligatsiyalari va qimmatdor bank qog'ozlari.

2. Omonatchining, belgilangan muddat o'tgach, bankka qo'yilgan omonat summasini hamda uning foizlarini olish huquqi haqidagi yozma hujjat.

3. Tashqi savdo amaliyotida: tegishli vakolatli organlar tomonidan beriladigan va tovarning sifati, og'irligi, ishlab chiqarilgan joyi va b. xususiyatlarini tasdiqlaydigan hujjat. *Mahsulot sertifikat.*

4. Biror narsa, voqea haqidagi rasmiy yozma guvohnoma; diplom. *Shayxonto-*

*hur tumanida kompyuter savodxonligi bo'yicha tashkil etilgan kursni yakunlagan yoshlarga sertifikatlar topshirildi.* (Gazetadan).

**Sertifikatsiya** – sertifikatlash (mahsulotning sifat jihatdan muayyan talablarga mos kelishini tasdiqlash va tegishli guvohnoma berish). *Tovar va xizmatlarni sertifikatlash.*

**Sertifikatlash** – biron-bir mahsulot yoki xizmat sifat tavsifining sifat standartida talab etilgan darajaga mos kelishini aniqlash, tasdiqlash. *Bugungi kunda mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq sertifikatlash idoralari va 250 dan ortiq sinov laboratoriyalarining ahamiyati muhim.* (Gazetadan).

**Sertikan** – tikani juda ko'p. *Sertikan gul. Salqin, nam shamol tepalardagi kaktus daraxtlarining sertikan shoxlarini sekin chayqatadi.* (I. Rahim, «Taqdir»).

**Sertuproq** – tuprog'i ko'p, tuproq bosgan. *Daladan qaytgan mollar shovqin-suron bilan katta sertuproq ko'chani changitib kelmoqda.* (S. Ahmad, «Muhabbat»).

**Sertuxum** – 1. Ko'p tuxum solingan; tuxumi ko'p. *Sertuxum xamir. Sertuxum quymoq.*

2. Ko'p tuxum qiladigan; serpusht. *Sertuxum tovuq.*

**Serunum** – 1. Yaxshi unum, mahsul beradigan. *Serunum ish.*

2 ayn. **serhosil.** *Serunum yer. Serunum mehnat ularni to'q turmushga qarab yetaklar edi.* (H. Olimjon, «Tanlangan asarlar»).

**Serurug'** – 1 ayn. **serpusht.**

2. Urug'i ko'p. *Serurug' tarvuz.*

3 ko'chma. Qarindosh-urug'i juda ko'p. Serurug' odam. *Hurmatli kishilardan biri omonatini topshiribdi-da. O'ziyam ja serurug' ekanmi? Odamlarning ko'pligini qarang.* (T.Ashurov, «Marvarid tut»).

**Servis** [ingl. *service* – xizmat] – kundalik turmushning xilma-xil sohalarida – magazin, mehmonxona, satarosh-xona, yonilg'i quyish shoxobchalari va sh.k. da aholiga sifatli xizmat ko'rsatish va shunday xizmatning o'zi. *Shunisi quvonarliki, endilikda o'quv dargohimiz xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish metodologiyasini shakllantiruvchi muassasaga aylandi.* (Gazetadan).

**Servis-davr** – chorva mollarining tuqqandan to kuyikka kelib urug'langunicha bo'lgan davr.

**Servitamin** [ser + vitamin] – vitaminlarga boy, vitamini ko'p. *Servitamin oziq-ovqatlar. G'o'zapoyadan servitamin ozuqa achitqilari, furfurol tayyorlash mumkin.* (Gazetadan).

**Seryaproq** – ayn. **serbarg**. Seryaproq daraxt. [G'ulomjon] *Qo'shni eshigini to'sib turgan seryaproq, qalin shoxlar orasiga kirib, mingboshi hovlisiga qaradi.* (M.Ismoilij, «Farg'ona t.o»).

**Seryomg'ir** – yomg'ir ko'p yoq-qan yoki ko'p yog'adigan. *Seryomg'ir yerlar. Seryomg'ir kuz. Ko'klam seryomg'ir kelib, mardikor bozorda ishning mazasi bo'lmadi.* (H. G'ulom, «Feruza»).

**Seryog'** – 1. Yog'i, moyi ko'p; ko'p yog', moy beradigan. *Seryog' go'sht. Seryog' kunjut.*

2. Juda ko'p yog' solingan; haddan tashqari yog'li. *Seryog' osh. Seryog' manti. Devzira guruch, ziravorlar hidi*

*har yonga ufurgan, sergo'sht-u seryog' osh keldiki, kimdir boyagi zavqli xitoblardan uyalgan bo'lib, sekin uh tortdi.* (M.M.Do'st, «Lolazor»).

**Seryog'in** – yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan, qor-yomg'ir ko'p yog'adigan. *Seryog'in kun. Dehqon bahoriga ko'z tikdi. Ammo ko'klam seryog'in bo'ladi, tog' va qirlarga tushgan yomg'ir suvi jilg'alarni to'lg'azib, shu qishloqqa tomon oqadi.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**Sero't** – o'ti ko'p, o'ti qalin, zich. Sero't yaylov. *Kenja sero't joylarni qidirib, suruvni tog' tomonga haydadi.* («Oltin beshik»).

**Sersharbat** – ayn. **sershira**. *Shaf-tolining sersharbat etlari yozning issiq kunlarida «chanqoqbosdi» bo'ladi, desert sifatida ishlatiladi.* (K.Mahmudov, «Mevalar»).

**Sershira** – juda shirin; shirador. *Sershira qovun. Sershira anjir. Venger muskati sershira va xushbo'y bo'lib, o'ziga xos hidi va mazasi bor.* (R. Musamuhamedov, «Mo'l uzum hosili»).

**Sershona** – shonasi ko'p, ko'p shon-alagan. *Sershona g'o'za. Suvga qongan g'o'zalar sershona bo'lib o'sadi.*

**Sershox** – shoxi ko'p, quyuq, zich; shoxlab ketgan. Sershox daraxt. *Katta sershox yong'oq soyasida o'ntacha ayol uzumlarni tozalab, yashiklarga joylashardi.* (S. Yunusov, «Kutilmagan xazina»).

**Serchiqim** – 1. Chiqimi, xarajati ko'p; mablag'ni ko'p talab qiladigan. Serchiqim ish. *Hozircha qo'lda bajari-layotgan bu har ikkala ishning serchiqim ekanligini shundan ham bilib olavering.* (Gazetadan).

2 ayn. **serxarj**. Serchiqim odam.

**Serchiqit** – serchiqindi, ko‘p qismi chiqitga chiqib ketadigan. *Serchiqit xomashyo. Serchiqit don.*

**Sesarka I** (*polyakcha «cesarka»*), *xonaki sesarka* – sesarkalar oilasiga mansub parranda. G‘arbiy Afrikada yashaydigan yovvoyi kulrang sesarka (*Numida meleagris*) dan kelib chiqqan. Dastlab, sesarka Yunoniston va Rimda xonakilashtirilgan. Tanasining uz. 30–75 sm, bo‘yni kalta, bo‘ynining ustki qismi va boshi patsiz. Boshida jigarrang toji va oq-qizg‘ish shokilasi bor. Tumshug‘i egikroq, uzunligi o‘rtacha, yonlari siqiroq. Qanotlari qisqa, dumi kalta. Patlarida yaltiroq ola-chipor dog‘lari bor, tanasiga yopishib tura-di. Ko‘k, oq, kulrang va b. tusli. Sesarka juda harakatchan: uchadi va tez yuguradi. 5–8 yil yashaydi. 6–8 oyligida jinsiy yetiladi. 2–3 y. tuxum olish uchun foydalaniladi (4–6 ta makiyoni uchun bitta erkagi qo‘yiladi). Sesarka go‘шти uchun boqiladi. Nari 1,7–1,8 kg, makiyoni 1,8–2 kg go‘st beradi. Yiliga 70–120 ta tuxum qiladi. Tuxumi 42–45 g, uzoq saqlanadi, sarig‘ida ko‘p miqdorda karotinoidlar bor. Jo‘jalari 28 sutkada tuxumdan chiqadi. Sesarka deyarli barcha mamlakatlarda tarqalgan. Sibir va Qozog‘istonda, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida maxsus xo‘jaliklarda yetishtiriladi.

**Sesarka II** [*r. sesarka < caesar – sezar*; Qadimgi Rimda boy, taniqli urug‘ nomi]: **sesarka tovuq** – tovuqlar turkumiga mansub, kurkasimon xonaki parranda.

**Setka** [*r. setka – kichkina to‘r*] – 1. Ip, plastmassa va b. dan to‘qiladigan to‘r xalta. [Xola] *Qo‘lidagi setkaga non, ovqat, bir-ikki bosh uzum solib, yo‘l o‘rtasida bir student yigitdan klinikaga qanday borishni so‘radi.* (Mirmuhsin,

«Umid»). *Birov ishga shoshilyapti, birov bozordan kelyapti, ikki qo‘lida setka.* (O‘. Umarbekov, «Yoz yomg‘iri»).

2 *iq. ayn. jadval.* Ta‘rif setkasi.

**Sevalamoq** – maydalab, tomchilab yog‘moq; shivalamoq (yomg‘ir haqida). *Ikki kundan beri goh sevalab, goh shiddat bilan yog‘ayotgan yomg‘ir hamma yoqni ivitib yubordi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). *Tashqarida sevalab o‘tgan mayin yomg‘ir ham tindi.* (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Seyalka** [*r. seyat – «ekmoq» s. dan yasalgan ot*] – *q.x.* Urug‘larni ma‘lum chuqurlikda bir tekis ekish, ekinlarni o‘g‘itlash ishlariga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligi mashinasi. *Ertadan chigit ekmoqchi edik, seyalkalarni tayyorlab qo‘yayapman.* (Oydin, «Kelin o‘g‘il tug‘ibdi»). *Seyalkalar chigitni mayin tuproqli dalalarda bir xil chuqurlikda tashlab ketadi.* (Gazetadan).

**Seyalkachi** – seyalkada ishlovchi, seyalka bilan urug‘ sepuvchi dehqon. *Seyalkachilarning qo‘li qo‘liga tegmaydi, hozir ular bilan suhbatlashish ham qiyin.* (Gazetadan).

**Sezon** [*fr. saison < lot. satio, sationis – ekish, ekish mavsumi*] – *esk. ayn. mavsum.* Kuzgi sezon.

**Sechka** – 1. Karam to‘g‘raydigan oshpichoq.

2. Oqshoq; guruch oqshog‘i.

3. Maydalangan poxol, somon.

**Sibir tilog‘ochi** (*Larix sibirica* Ldb.) – chiroyli katta daraxt. Uning bo‘yi 30–45 m, diametri 1,8 m bo‘lib, shox-shabbasi tuxumsimon shaklda, katta yoshida yoyilib o‘sadi. Po‘stlog‘i chuqur yoriladi. Kurtaklari yarim sharsimon, sarg‘ish yoki qo‘ng‘ir-qizil rangda. Novdalari yashil-sarg‘ish rangda, ularda bo‘rtmalar,

yasmiqchalar bor. Bu bo'rtmalarda ni-nabarglar spiral shaklda joylashadi. Shu bo'rtmalar asosida yarim shar shaklida bo'lgan kalta to'mtoq novdalar o'sib chiqadi, ular 10–12 yil yashaydi. Shu kalta novdalarda ham barglar spiral shaklda zich joylashadi. Bargning har ikkala tomonida yoriqchalar bor. Yuqoridagi novdalardagi barglar yirik, pastdagisi maydaroq bo'ladi. Barglari mayin, ingichka, yashil bo'lib, bir yoz mavsumidan keyin to'kiladi. Gullari erta bahorda daraxtda yangi barglar yozilishi vaqtida changlanadi. Otalik qubbalari sarg'ish rangli bo'lib, kalta novdalarda qizg'ish rangli urg'ochi qubbalariga yaqin joylashadi. Onalik qubbalar changlangandan keyin bir oydan so'ng urug'lanish sodir bo'ladi. Yetilgan qubbalari 2–3 sm, tuxumsimon, oval shaklda, uzun jigar rangda bo'lib, soni 22 tadan 38 tagacha. Urug'i yirik qanotchali. 1000 dona urug'ning vazni 6–10 g keladi. Urug'dan yaxshi ko'payadi. Urug'i 3–4 yilgacha unib chiqish xususiyatiga ega. Sibir tilog'ochi Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Zomin tog' qo'riqxonasida o'stirilmoqda, uning yirik madaniy daraxtzori mavjud bo'lib, hosilga kirgan. Tilog'ochni tog' aholi yashash joylari va sanatoriylar hududlarini ko'kalamzorlashtirish uchun foydalanish mumkin.

**Sideratlar** (*frans. Sideration*) – tuproq unumdorligini oshirish maqsadida tuproqqa qo'shib haydab yuboriladigan ekma o'simliklar.

**Sifat** [*a.* – xossa, xususiyat, xislat, xarakter] – 1. *fls.* Narsa, voqea, hodisa va sh.k. ni ularning o'ziga xos belgi va ichki xususiyatlariga ko'ra ifodalovchi falsafiy tushuncha. Miqdorning sifatga aylanishi.

2. Narsaning, kimsaning ijobiy yoki salbiy xususiyati, fazilati, xislati. *Inson sifatleri ichida kamtarlik eng yaxshi fazilatdir.* (Gazetadan).

3. Molning, mahsulotning yoki ishning yaroqlilik darajasi, qo'yilgan talablarga qanchalik javob bera olishini belgilovchi xususiyati. Mahsulotning sifatini yaxshilamoq. Ishning sifatini oshirmoq. *Nonning sifati uning namligi va g'ovakligi kabi xossalar bilan belgilanadi.* (G'. Mahkamov, «Dasturxonimiz ko'rki»).

**Sifatli** – 1. Sifat jihatidan talabga to'la javob beradigan, sifati yaxshi. *Sifatli mol. Sifatli ish.*

2. Aniqlovchi orqali ifodalangan sifatga ega bo'lgan. *A'lo sifatli mol. Yomon sifatli mahsulot. «Mayin jun deb yuqori sifatli qo'y go'shti, dirkillagan dumba yog'idan ayrilamiz deng», – Sherbek yolg'iz o'zi ketayotib o'yga cho'mdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Sifatsiz** – sifat jihatidan talabga to'la javob bera olmaydigan, sifati yomon, past. *Sifatsiz mahsulot. Sifatsiz ish. Suv isrofgarchiligiga, sug'orishni sifatsiz o'tkazishga qat'iy barham beringiz!* (Gazetadan).

**Sifon** [*yun. siphon* – naycha] – 1. Suyuqlikni yuqoriroq sathdagi idishdan pastroq sathdagi idishga o'tkazuvchi, turli uzunlikdagi tirsaklari bo'lgan bukik naycha.

2. Karbonat angidrid bosimi ostida naycha orqali quyiluvchi ichimlikni gazlashtirish uchun mo'ljallangan idish.

**Sigay qo'y zoti** – yarim mayin jun beruvchi qo'y zotlari qatoriga kirib, katta, kuchli, quruq konstitutsiyaga ega. Tanasi ixcham, o'rta uzunlikdagi barrel shaklida. Boshi kichik va quruq.

Urg'ochilari shoxsiz, erkaklarini shoxlari o'ralgan. Orqa tekis va keng, oyoqlari va dumlari keng. Dumi ingichka va uzun 18–23 umurtqadan iborat. Sigay qo'ylarining junlari bir xil, elastik, qalin, mustahkam, biroz tushadi. Ular kuchli tanaga ega. Voyaga yetgan qo'yning vazni 40–45 kg dan 60 kg gacha, qo'chqorniki 75–85 kg dan 110 kg gacha. 100 qo'yga 120–140 qo'zi. Hayvonlar erta yetiladi, yaxshi oziqlanish xususiyatlariga ega. Sut mahsuldorligi yuqori. Qo'zilarni sutdan ajratgandan so'ng urgo'chilari (♀) 45–50 l, yog'liligi 7–8% bo'lgan sut beradi. Laktatsiya davrida 110–120 l sut beradi. Qirqilgan jun erkaklari (♂) da 6–7 kg, urgo'chilari (♀) da 4–5 kg. Sof junning mahsuldorligi 58–60%, uzunligi 12–15 sm. Sutdan qimmatli pishloq va b. tayyorlanadi, terisidan mo'ynali mahsulotlar ishlab chiqariladi.

**Sigir** – buzoqlagan urg'ochi qoramol. Govmish sigir. *Siylaganni sigir bilmas.* (Maqol). *Hovli etagidagi og'ilxona tomonidan sigirning pishillagani, allani-maning tap-tap etib yerga tushgani eshiltildi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Sigirlarni sutdan chiqarish** – bo'g'oz sigirlar tug'ishiga ikki oy qolganda sog'ishni to'xtatish.

**Sigirqyruq** – bo'yi 60–105 sm, barglari bandsiz, mevasi va poyasi tuk bilan qoplangan, sariq shingilsimon to'pgulli o'simlik; begona o't (xalq tabobatida jarohatni davolashda ishlatiladi). *Sigirqyruqni [zaharli bo'lgani uchun] mol yemaydi.* («O'zME».)

**Sigirxona** – sigir turadigan joy, molxona, og'ilxona. *Samin bobo uxladiyov deganda, Sayfi bilan ikki-uch bo'lak kunjarani qo'ltiqlab, sigirxo-*

*namizga yo'rg'aladik.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Sila II** – olabug'a baliqlar oilasiga mansub, dengiz, daryo va ko'llarda yashaydigan, ovlanadigan baliq.

**Silen** – bot. Cho'lda o'sadigan va qumni yaxshi ushlaydigan ko'p yillik boshqoli o't.

2. Shu hayvonning terisi, mo'ynasi. *Bek bo'lib silovsin to'n, zarli kamar boy-lading.* («Xush keldi»).

**Silon** – bo'ri va itdan tug'ilgan duragay (gibrid).

**Silos** [isp. *silos* – don saqlanadigan o'ra] – q.x. Chorva mollari uchun o't, makkajo'xori, kartoshka, kungaboqar va sh.k. larning ko'k poyalaridan maxsus yo'l bilan tayyorlanadigan to'yimli yem, ozuqa. Silos bostirmoq. *Hosil mo'l, tobi-da silos qilmasang, shirasi kamayib ketadi.* (F. Nurullayev, «Bo'z yigit»). *Silos, asosan, makkajo'xori, oq jo'xori poyasidan yoki poyasi va donidan tayyorlanadi.* («O'zME»).

**Silosxona** [*silos* + xona] – silos bostiriladigan inshoot, chuqur, o'ra va sh.k. *Silosxonalarga makkajo'xori ko'kpoyasi uzoq vaqt to'kilsa, silosning sifati buziladi.* (Gazetadan).

**Silovsin** – 1 zool. Mushuksimonlar oilasiga mansub, oyoqlari uzun, tumshug'i cho'ziq, ko'zi juda o'tkir yirtqich hayvon. *Tog'da silovsinni ham, qoplonni ham ko'rdik.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»). *Hozir ham oyog'idagi silovsin terisidan tikilgan yengil va chidamli choriqqa, sarg'ish kombinezon shim va kostyumi ustidan kiyib olgan nimcha po'stiniga, yelkasiga osib olgan safar xaltasiga qaragan kishi uni alpinistdan ajratishi qiyin.* (A. Ko'chimov, «Halqa»).

**Simbioz** [*yun. symbiosis* – birgalikda yashash] – Ikki va undan ortiq turlarning bir-biriga foyda keltirib birga yashashi. Turli turdagi ikki o‘simlik yoki o‘simlik – zamburug‘ orasidagi biologik hamkorlik. Simbioz turlarni o‘zaro rivojlanishiga ko‘maklashadi, ular orasida modda almashinuvi sodir bo‘ladi. *Xuddi shunga o‘xshash simbioz kavsh qaytaruvchi sutemizuvchilar bilan ular orasida yashaydigan infuzoriyalar orasida ham mavjud.* («O‘zME»).

**Sim jo‘yak** – *shv.* Sim xaskash yordamida tortilgan jo‘yak, ariq.

**Simmetriya** – parterda joylashtirilgan landshaft elementlarini bir-biriga nisbatan simmetrik ravishda joylashishi.

**Sinamali** – *esk.* 1. Amalda, tajribada sinab ko‘rilgan, sinovdan o‘tgan.

2 *ayn.* **Tatbiqiy, amaliy.** Sinamali handasa (amaliy geometriya).

**Sinamol** – tekshirilgan, sinalgan, sinovdan o‘tkazilgan, ishonchli. Sinamol ot. *Hozir ular menga sinamol emas, hali bizlarning bir-birimizga dushmanligimiz bor.* («Murodxon»). – *Menimcha, biz sinamol o‘zgarishlarni cho‘tga solmasdan tadbir ko‘rmoqdamiz, – dedi Mir Alixon.* (S.Azimov, «Qonli sarob»).

**Sinamoq** – sinovdan o‘tkazmoq, tekshirmoq, tekshirib ko‘rmoq. Tayyor mashinalarni sinamoq. *Sinamagan otning sirtidan o‘tma.* (Maqol). *Er yigitni maydonda sina.* (Maqol). *U [Aziz Abdurazzoq] faqat she‘r yozib qolmay, nasriy hayvchilikda ham kuchini sinamoqda.* («Mushtum»). *Shildir-shildir qamishga siring‘am tushdi, yor-yor, Sinalmagan yigitga singlim tushdi, yor-yor.* («Oq olma, qizil olma»).

**Sinf II** [*a.*] – 1. O‘quvchilar tomonidan bir o‘quv yili davomida erishiladigan umumiy bilim saviyasi; maktab ta‘limining har bir bosqichi; maktabning asosiy tarkibiy birligi. Sinfdan sinfga o‘tmoq. *Ta‘lat o‘ninchi sinfni kumush medal bilan tamomladi.* (O‘. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

2. *biol.* O‘zaro qarindosh hayvonlar yoki o‘simliklar turkumlarini birlashtiruvchi kategoriya. Sutmemizuvchilar sinfi.

**Singimoq** – 1. Shimilmoq, shimilib yoki sizib, ichki qatlamga, qismiga o‘tmoq. *Moybo‘yoq paxtaga yaxshigina singiydi. Ular: «Yer to‘ymaguncha, el to‘ymas, lalmikor qirlarning tuprog‘iga qor suvi singimaguncha, bug‘doy unmaydi», deb nolir edilar.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

2. Hazm bo‘lmoq, o‘zlashmoq (ovqat, oziq haqida) – *Uch tutam holva, uch tanga pul, – dedi yigitcha. – Agar hammasini yesangiz, osh bo‘lsin, singisin.* (S.Ayniy, «Esdaliklar»). *Vaqtida ovqatlanmaslik me‘da shilliq qavatini yallig‘lantiradi, natijada kishi qayt qiladi, yegan ovqati singimaydi.* (Gazetadan).

3 *fiz.* Yutilmoq, shimilmoq. *Yorug‘likning jismga singishi.*

**Sinov** – 1. **Sinamoq** *fl. har. n.*

2. Sifatini, chidamli-chidamsizligini aniqlash uchun o‘tkaziladigan tekshirish. Sinovdan o‘tkazmoq. Sinov mudati. *Malakali laboratoriyalar sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan bunday sopollar asrlardan asrlarga o‘tadi, saqlanadi.* (Gazetadan).

3. Sabot va chidam zarur, kerak bo‘lgan palla, voqea-hodisa; imtihon. *Siz taqdirning sinovlariga bardosh*



*berib kelgan mard odamsiz.* (M.Osim, «Ibn Sino qissasi»). *El boshiga ish tushsa, do'st sinovdan o'tadi.* («Sharq yulduzi»). *Yosh oilaning buzilib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida sud ularga 6 oylik sinov muddati beradi.* (Gazetadan).

**Sinovchi qo'chqor** – kuyikkan urg'ochi qo'ylarni aniqlab ajratishda jinsiy a'zolariga fartuk bog'langan holda foydalaniladigan erkak qo'y.

**Sintetik seleksiya** – seleksiyada tanlash uchun duragaylash yo'li bilan chiqarilgan (sintezlangan) boshlang'ich materialdan foydalanishga asoslangan usul. Sintetik seleksiyada ota-ona juftlarini ularning kelib chiqish joyi va muhit sharoitlari bo'yicha uzoqligiga qarab tanlash muhim o'rin egallaydi. Bir-biriga yaqin navlarni chatishtirish ham qo'llaniladi, shuningdek, poliploidiya, amaliy mutageniz, liniyalararo duragaylarni yaratishda qo'llaniladigan o'zidan changlantirish va boshqalardan ham foydalaniladi. Sintetik seleksiya o'simliklar seleksiyasidagi asosiy usul. Hozir ekinlarning juda ko'p yangi navlari shu usulda yaratilgan.

**Sinchi** – folk. Otlarning zotini, naslini, yoshini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam. [Sherbek] *Otning tilini Yo'ldosh novchaday biladigan sinchi yo'qligiga iqrar bo'lsa-da, biror marta nomini og'ziga olmagan edi.* (S. Anorboyev, «Oq soy»). *Sinchi, otning ta'rifini qilib, «chini shul» deb, bir so'z aytib turgan ekan.* («Alpomish»).

**Sinchilik** – 1. Otlarning zotini, fe'l-atvorini, yoshini aniqlash bilan shug'ullanish; sinchi kasbi. *Barakalla Ravshanning sinchiligiga, biz ham sinchilik da'vosini qilib turgan ekanmiz,*

*sinchilik mana bunday bo'lar ekan.* («Go'ro'g'li»).

2. Biror narsani sinchiklab, diqqat bilan o'rganish, kuzatish xususiyati. *Ba'zida telba-teskari gapirib qo'ygani bilan, qurg'urning sinchilik siyog'i bor.* («Yoshlik»).

**Sirkoyi** – uzumning achchiq turi.

**Sirop** [fr. *sirop* < a. – sharbat] – meva sharbati va shakarni qaynatib tayyorlangan quyruq qiyom; sharbat. Olcha siropi.

**Sirg'ali** – mollarning qulog'ida ortiqcha et, «sirg'a» bo'lishi.

**Sirg'oq** – 1. Seryomg'ir vaqt, yog'in-garchilik. *Eskichasiga «qirq kun qurg'oq yoki qirq kun sirg'oq», derdilar. Mana shu «sirg'og'i» boshlanganga o'xshaydi.* (Mirmuhsin, «Jamila»).

2 ayn. **sirpanchiq** 1. Sirg'oq yo'l.

**Sistema** [yun. *systema* – yaxlit; qismlardan tarkib topgan] – 1. Ish-harakat, turli jarayon va sh.k. larda qismlarning o'zaro joylashishi va bog'liqligidagi tartibot, tizim.

2. Narsa, hodisa va tushunchalarning tasnifi. *Linneyning botanik sistemasi.*

3. Biror ta'limotda asos bo'lgan qoidalar, qarashlar, tamoyillar majmui. *De-kartning falsafiy sistemasi.*

4. Biror ish metodlari, tartib-usullari majmui. Davolash sistemasi. Ta'lim-tarbiya sistemasi. *Ta'lim-tarbiya saviyasini oshirishda kabinet sistemasiga o'tish o'zining afzalliklarini ko'rsatayotir.* (Gazetadan).

5. Bir maqsad, ayni bir ish, vazifani bajarish uchun belgilangan moslama, mashina, mexanizm va sh.k. dan tarkib topgan yaxlit texnik qurilma. *Isitish sistemasi. Energetik sistema. Sug'orish sis-*

temasi. Uning tashabbusi bilan bog'cha gazlashtirildi, qishda bug' bilan isitish sistemasiga o'tkazildi. (Gazetadan).

**Sistemali** – 1. Muayyan sistemaga asoslangan; muntazam, tartibli. Sistemali ish. Ishni sistemali ravishda olib bormoq. *Boladagi mavjud qobiliyatni yuzaga chiqarish uni sistemali mehnatga o'rgatishdan iborat ekan.* («Fan va turmush»).

2. Muttasil, muntazam. *Mashg'ulotlarga sistemali ravishda qatnashmoq.*

**Sistematik** – Muayyan sistemaga, tartibga asoslangan; sistemali, tartibli, muntazam. *Sistematik mashg'ulot.*

**Sisterna** (*lot. cisterna* – suv havzasi, hovuz) – suyuqliklar, suyultirilgan gazlar, to'kiladigan mahsulotlar (neft mahsulotlari, sut, un, sement va b.) ni saqlash yoki tashish uchun mo'ljallangan sun'iy berk idish.

**Sito** [*yun. kytos* – idish; ombor; hujayra] – baynalminal o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'zi birikib kelgan so'zning hayvon yoki o'simlik hujayralariga aloqadorligini ko'rsatadi, mas., sitokimyo, sitologiya.

**Sitodiagnostika** [*sito* + *diagnostika*] – *biol. tib.* Tananing biror sirtidan yoki uning suyuqliklaridan olingan hujayra unsurlarini mikroskopik tadqiq etish yo'li bilan kasalliklarni aniqlash.

**Sitoliz** [*sito* + *yun. lysis* – erish; buzilish] – *biol.* Hayvon va o'simlik hujayrasining odatdagi fiziologik jarayonlar hamda turli patologik holatlarda butunlay yoki qisman erishi.

**Sitologiya** [*sito* + *yun. logos* – ta'limot] – hujayralarning tuzilishi va funksiyasini, ko'p hujayrali va bir hujayrali organizmlardagi a'zo va to'qimalarning

o'zaro bog'lanishi va munosabatlarini o'rganuvchi fan. *Hozir Respublikamizda mavjud tibbiyot institutlarida sitologiya gistologiya bilan qo'shib o'qitiladi.* («O'zME»).

**Sitrus** [*lot. citrus* – limon] – limon, apelsin, mandarin kabi o'simliklarning umumiy nomi. Kavkaz sitruslari. Sitrus mevasi. *Sitrus o'simliklarini iqlimlashtirish yuzasidan olib borilgan ajoyib ishlar o'z samarasini ko'rsatmoqda.* (Gazetadan).

**Sitmoq** – siqib ichidagini chiqarmoq, ajratmoq. *Ba'zi odamlar danagi olingan olcha murabbosini yaxshi ko'radilar. Lekin olchanning danagini qo'l bilan sitgan-da, sharbati oqib ketadi.* («Saodat»).

**Sitro** [*fr. citronnade* – limondan tayyorlangan ichimlik] – meva sharbatidan tayyorlanadigan, chanqov bosuvchi ichimlik. *Limonad, sitroga o'xshash ichimliklarni tayyorlagan chog'da butilkaga nasos yordami bilan, bosim ostida karbonat angidrid yuboriladi.* («Kimyo»).

**Sitrus o'simliklar** – rutadoshlar oilasining sitrus turkumiga mansub doim yashil mevali daraxt yoki butalar. Apelsin, mandarin, limon, greypfrut, bergamont, sitron, begaradiya, laym va b. 30 ga yaqin tur bor. Shimoliy Xitoydan Avstraliyagacha, O'rta dengiz sohillaridan Yevropaga tarqalgan. Italiya, Ispaniya, Fransiya janubida, Misr, Xitoy, AQSHda katta maydonlarda o'stiriladi. O'zbekistonda issiqxona xo'jaliklarida va transheya usulida xonadon xo'jaliklarida, havaskorlar bog'larida, asosan, limon, mandarin, apelsin, greypfrut o'stiriladi.

**Sixmola** [*six* + *mola*] – *q.x.* Tishli mola, borona. *Ayamlarning brigada-*

si shiyponi oldida sixmola ko'rgandim. O'shani kechasi obkelib, ishlatvolib, tag'in joyiga eltib qo'ysak-chi? (R. Rahmonov, «Changalzordagi sharpa»).

**Siyraklik** – zich, tig'iz emaslik; kamlik, ko'p emaslik. Ko'chatlarning siyrakligi. *U hayajonlana boshlaganidan va havoning bu yerda siyrakligidan yuragi gupillab urdi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

**Sizmoq** – 1. Biror narsa orqali yoki uning orasidan asta-sekin yoki tomchilab o'tmoq. *Molxona tomining bo'g'otidan sizib tushayotgan yirik-yirik tomchilar ora-chora yaraqlardi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»). [Sobirning] *Lablarining chetidan sho'rtang tomchilar sizib kirdi.* (M. Mansurov, «Yombi»). *Orif aka tosh tagidan sizib chiqqan bir chashmadan yotib suv ichdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

2 ko'chma. Asta-sekinlik bilan, ohista. *Yangroq kuy yurakka sizib kirib, go'yo sizni anvoyi gullar chamanzoriga yetaklagandek bo'ladi.* (Gazetadan). *Nusratbekning ko'nglidan: «Gulxayri biron joyga ketsaydi», degan istak sizib o'tdi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Sizot, sizot suv** – yer ostidan sizib chiqadigan suv, zax suvi. (Grunt suvlari). *Sizot oqar zovurlardan, Otiladi shag'al va qum.* (Mirtemir). *Zovurni qancha chuqur olsangiz, sizot suv shuncha tez yo'qoladi.* (H. No'mon, «Qahramon paxtakor»).

**Sig'im** – biror miqdordagi narsani sig'dirish, eltish qobiliyati, ichki hajm. *Umuman, respublikamizda deyarli Sirdaryo sig'imiga teng miqdordagi yer osti suvlari bor.* (S. Karomatov, «So'nggi barxan»).

**Issiqlik sig'imi** – fiz. modda temperaturasini bir gradusga ko'tarish

uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdori. **Elektr sig'imi** – fiz. O'tkazgichning elektr zaryad to'plash xususiyatini ifodalovchi elektr kattalik; miqdor jihatidan yakkaongan o'tkazgichning potensialini bir birlikka o'zgartirish uchun zarur bo'lgan zaryad miqdoriga teng. *Kondensatorning elektr sig'imini aniqlamoq. Kemaning suv sig'imi – deng.* Suzib ketayotgan kemaning o'z og'irligiga teng miqdorda siqib chiqaradigan suv miqdori.

**Skarifikatsiya** (lot. *scarifico* – tirnayman, tilaman), *urug'ni skarifikatsiyalash* – unib chiqishini tezlashtirish maqsadida qobig'i qattiq urug'lar po'stini mexanik shikastlash yoki yumshatish. Asosan dukkakdoshlarga mansub o'tlar urug'i, daraxt va butalarni suv o'tkazmaydigan qobiqli urug'lari skarifikatsiya qilinadi.

**Skird** – g'aram. *Poxol g'arami.*

**Skreper** [ingl. *scraper* – kurak, qirg'ich; kovsh < *scrape* – qirtishlamoq, qirib tozalamoq] – tex. Yerni qatlam-qatlam qilib qazish, kovshni tuproqqa to'ldirib, uni belgilangan joyga to'kish, surish va tekislash ishlarini bajaradigan (tog' ishlari va qurilishlarda ishlatiladigan tuproq tashiydigan, yer tekislaydigan mashina.) *Yalanglikda skreperlar, buldozer va ekskavatorlar, polvon traktorlar saf-saf bo'lib tizilgan.* (Y. Shamsharov, «Tanlangan asarlar»). *Sal narida esa, qudratli buldozerlar va skreperlar chuqurlarni to'ldirib, tepaliklarni ag'darib, yer tekislardi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Slot-charter** – muayyan muddatda transport vositasini butunlay yoki qisman ijaraga olish haqida transport vositasi egasi va yollovchi o'rtasida tuzilgan shartnoma.

**Smola** – 1. Smola, yelim (ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi); qarag'ay yelimi, smolasi.

2. Qatron, smola, chirkay (yog'och, torf, toshko'mir kabilardan qizdirib olinadigan qora, quyuq modda); toshko'mir qatroni, chirkayi; torf qatroni (smolasi); sintetik smolalar.

3. Shilqim (odam).

**Smetana** [qad. r. «smetati» – «yig'imoq, uyum qilib to'plamoq» fl. dan: quyuq sut, qaymoq] – suyuq qaymoqqa ivitqi qo'shib tayyorlanadigan mahsulot. Sut ziylarida 10, 20, 25, 30, 36 va 40% bo'lgan smetana ishlab chiqariladi. *Smetana tarkibida sut yog'idan tashqari oqsil, sut qandi, organik kislotalar, mineral tuzlar, shuningdek vitaminlar mavjud.* («O'zME»).

**Smorodina** [qad. r. «smorod» – o'tkir, kuchli hid] – q. **qorag'at**. *Smorodina oziq moddalarga boy, sernam, suvni yaxshi o'tkazadigan, yer osti suvlari kamida 1,5 metr chuqurlikda bo'lgan yerlarda yaxshi o'sadi.* («O'zME»).

**Sobiq Ittifoq merinosi** – zotning ikki xil tipi mavjud: jun va jun-go'sht yo'nalishi mavjud. Jun yo'nalishidagi merinosning juni qalin, nozikligi va uzunligi bo'yicha tenglashtirilgan, bir xil burmali, sifati 64%, uzunligi 7,5–10 sm. Qo'chqorlardan 13–24 kg gacha, urg'ochilardan 5–12 kg gacha jun olinadi. Yuvilgan junning mahsuldorligi 36–42% ni tashkil qiladi. Jun-go'sht tipidagi qo'chqorlarning vazni 95–115 kg, urg'ochilariniki – 50–60 kg. 100 bosh ona qo'ydan 120–140 ta qo'zi olinadi. Ular qishki va uzoq yaylovlarga yaxshi moslashgan.

**Sof** [a. – toza, shaffof, tiniq] – 1. Beg'ubor, toza, musaffo. *Sof havo. Sof suv. Sof, yashil tabiat yuraklarga*

*kuch bag'ishladi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). *Sof osmonda ma'sum boqqan, To'lin oydir yo'ldoshim boychechak. Ufq'larga otash qalab, Tong otadi sof, nafis.* (E.Vohidov).

2. Boshqa narsa aralashmagan; asil, toza. Sof oltin. Sof holda uchramaydigan kimyoviy elementlar. *Bir gramm sof radiy olish uchun bir necha tonna uran rudasini qayta ishlashga to'g'ri keladi.* («Fan va turmush»).

**Sof daromad** – 1) korxonada yaratilgan qo'shimcha mahsulotning bir qismi, pul shakliga ega;

2) korxonada yalpi daromadida ish haqi fondi chegirib tashlangandan so'ng qolgan qismi;

3) milliy daromadning bir qismi; unda moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlovchilar yaratgan qo'shimcha mahsulot gavdalanadi. U davlat korxonalarida, kooperativlar, dehqon xo'jaliklari va yakka tartibdagi mehnat faoliyatida yaratiladi. Davlat korxonalarida yaratilgan sof daromadning bir qismi foyda, oborot solig'i, ijtimoiy sug'urta ajratmalari shaklini oladi. Sof daromadning bir qismi davlatning markazlashgan sof daromadini tashkil qiladi. U oborot solig'i, fondlar, mehnat va tabiiy resurslar uchun to'lovlar va b. turdagi to'lovlar shaklida qaror topadi.

**Sof zotli urchitish** – bir zotga mansub bo'lgan, tipi, mahsuldorlik yo'nalishi va nasldorlik sifatlari ota-ona ajdodlarinikiga o'xshashlikda bo'lgan avlodlar o'zidan ko'paytirib boriladi. Uning ikki xil shakllari – «tizimlar» va «oilalar» qo'llaniladi.

**Soha** [a. – ochiq keng joy; hovli; maydon] – 1. Inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va sh.k. ning har bir tarmog'i. *Fan sohalari. Qishloq xo'jaligining*

yetakchi sohalari. Geobotanika nomi bilan yuritiluvchi soha yer qa'ining sir-asroridan kishilarni voqif etib turadi. (Gazetadan). Noqobil kadr, qaysi sohada bo'lmasin, rivojlanish oldidagi bir to'siq. («Saodat»). Etonimika sohasining hozirga qadar hal etilmagan va munozarali masalalari bor. («O'TA»).

2 kam qo'll. Maydon, yer. Oyni to'la tutilish sohasi (astr.). Sarv yog'ochlari bilan band katta soha. (Oybek, «Navoiy»).

**Sohibkor** [a. + f. – ishbilarmon, ish beruvchi, yollovchi] – 1. O'z ishining ustasi; omilkor. Sohibkor bog'bon. *Dilbar Farg'onadan sohibkor xalqim, Har yili uzatar tonnalab meva.* (A. Oripov, «Yillar armoni»). *Paxtakor-u chorvador, pillakor-u g'allakor, Bog'bon-u sohibkor – hammasining yuzi yorug'.* («Saodat»).

2. Korxonaga egasi; ishbilarmon.

**Sohibkorlik** – bog'bonlik, uzum, meva yetishtirish bilan shug'ullanish. *Ishkomda tug'ilib, chaylada katta bo'lgan bu istarali yigit sohibkorlikni o'n besh yoshidayoq egallab, san'at darajasigacha ko'targan edi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Sohil** [a. – qirg'oq, suv havzasining cheti, labi] – 1. Suv havzalarining cheti; bo'y, qirg'oq. *Chakalakzordan bir hakka «shaq-shaq»lab, uzun dumini cho'zgan, narigi sohilga uchib ketdi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayozi urmaydi»). *Daryo sohilidagi tabiiy yashil maysazorlar, chakalakzorlar atrof muhitga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.* («Fan va turmush»).

2. Suv havzalari bo'ylab joylashgan yerlar. *Kumush rangli bulutlar, Suv oladi Orolidan. Lolazorga aylanar, Sohil erta bahordan.* (Z. Diyor).

**Solidol** [lot. *solidus* – quyuq, qalin + *oleum* – moy, yog'] – avtomobil, traktor detallarini va b. mexanizmlarning qismlarini moylash uchun ishlatiladigan quyuq moy.

**Solim** – uloqni marraga yetkazgan kishiga beriladigan sovrin. *Kunda chiqib bul ko'pkari qiladi, Kunda solim, uloq berib turadi.* («Alpomish»). *G'olibni solim beradiganlarning huzuriga o'zi yetaklab bormasa, ko'ngli joyiga tushmaydi.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

**Solishtirma** – solishtirishga, qiyoslashga asoslangan, solishtirish, qiyoslash uchun asos bo'ladigan; qiyosiy. *Hayvonlarning solishtirma anatomiyasi.*

**Solkash** [f. – yil o'tkazuvchi, yil tortuvchi] – yil osha meva qiladigan. Solkash olma. – *Jiyda solkash ko'rinadi, bu yil meva qilmayapti, – dedi Shum bola.* (G'. G'ulom, «Shum bola»).

**Sollanmoq I** – osilib tushmoq, osilmoq, egilmoq. *Qor bosgan daraxt shoxlari sollanib yotibdi.* (Z. Do'smatov, «Yoqut»). *Qiya ochiq qoldirilgan shisha tutqichli bir eshikda himarilgan darparaning uzun etaklari sollanib turardi.* (U. Ismoilov, «Saylanma»).

**Solma** – shv. Kichkina, tor ariq, ariqcha. *Eshigingning oldi solma, Solmadan, og'a suv olma.* («Qo'shiqlar»).

**Solod** – undirib yanchilgan bug'doy, arpa va sh.k. *Arpa solodi.*

**Solodlar** – tuproq tipi; yer usti suvlari ta'sirida vujudga kelgan ortiqcha namlik sharoitida sho'rtoblardan rivojlanadi. O'rmon-dasht va dasht zonalarida, shuningdek, quruq hamda chala cho'l dashtlarda tarqalgan. O'rta Osiyoning sug'orma dehqonchilik maydon-

larida profili aniq ifodalanmagan so-  
lodlashgan tuproqlar uchraydi.

**Solqa** – 1. Yaxshi tortilmagan, oʻrtasi  
osilib tushgan, solingan. *Solqa dor. Solqa  
tortilgan arqon.*

2. Osilib tushgan, loʻmbillagan yoki  
kerkkan. *Solqa lunj.*

**Solqalanmoq** – ayn. **solqimoq** 1.

**Solqi** – shv. **Solqa.**

**Solqimoq** – ayn. **salqimoq.**

**Solyarka** [*r.* < *lot. solaris* – qu-  
yoshga doir] – neftni haydash, qayta  
ishlash jarayonida hosil boʻladigan,  
oʻziga xos hidli moysimon suyuq-  
lik; solyar moyi (koʻpincha motor  
yonilgʻisi sifatida, shuningdek, texni-  
ka, koʻnchilik, toʻqimachilik sohalari-  
da ishlatiladi). – *Bu qozonlar torf bilan  
ishlaydi, solyarka bilan emas, – ja-  
vob berdi kuyov.* (H. Ahmar, «Yakka-  
ma-yakka»). [*Qoʻchqor:*] *Ilgari tezak  
yoqilardi, endi tezakni solyarka bilan  
yoqyapmiz.* («Yoshlik»).

**Somon** – bugʻdoy, arpa, sholi yan-  
chilganda, poyalarining ezilib may-  
dalanishidan hosil boʻladigan, mahal-  
liy binokorlikda va yem-xashak sifatida  
ishlatiladigan mahsulot. Mayda somon.  
Yirik somon. Mollarga somon bermoq.  
*Uzoqning bugʻdoyidan yaqinning somo-  
ni afzal.* (Maqol). *U yarim oydan beri  
pichan tayyorlash, beda oʻrish, somon  
hozirlash bilan band.* (I. Rahim, «Hayot  
buloqlari»).

**Somonxona** – somon saqlanadigan  
joy, xona. *Agʻyorning sirli mehmonxo-  
nasidan doʻstingning somonxonasi yaxshi.*  
(Maqol). *Buzoqning yugurgani somonxo-  
nagacha.* (Maqol). *Bu dangʻillama bino-  
ning ichkari tomoni katta saroy boʻlib,  
uning otxonasi, somonxonasi va uzun ket-  
gan ayvoni bor.* (H. Shams, «Dushman»).

**Somonchi** – somon keltirib yoki  
yozda somon bosib, qishda sotuvchi  
savdogar.

**Son** II – 1. Odam va hayvon  
oyogʻining tizza bilan tos oʻrtasidagi  
qismi. Soni yoʻgʻon odam. Son suya-  
gi. *Suv uning sonigacha chiqdi. Said  
suv toʻla choʻmichni uzatayotgan-  
da, bir qultum suv otasining soniga  
toʻkilib ketdi.* («Yoshlik»). *Xumor kelin  
Boʻrijonning qoʻlidan gavron tayoqni  
olib, hoʻkizlarning sagʻrisiga, soniga  
zarb bilan urdi.* (S. Nurov, «Maysalar-  
ni ayoz urmaydi»). *Kuygan banda urib  
yigʻlar soniga, Shahid boʻlgan boʻyaladi  
qoniga.* («Erali va Sherali»).

2. Hayvonlar oyogʻining shu qis-  
midagi goʻshti. *Sultonov kiyikning so-  
nini songa, toʻshini toʻshga ajratib  
saranjomlarkan, oʻziga qarashib tur-  
gan Ortiqqa koʻzi tushgan sari, koʻngil  
gʻashligi ortib borardi.* (M. Mansurov,  
«Yombi»).

**Son-sanoq** – son, miqdor va uning  
sanogʻi, hisobi. Navbatda turganlarning  
son-sanogʻi yoʻq. *Predmetning son-  
sanogʻini bildirgan soʻz turkumi son deb  
ataladi.* («Oʻzbek tili» darsligi).

**Sop** I – baʼzi asboblarning qoʻl bilan  
ushlanadigan qismi; tutqi, dasta, band.  
Tesha sopi. Qoshiqning sopi. Oʻgʻirning  
sopi. *Yoʻqolgan pichoqning sopi oltin.*  
(Maqol). *Oltmish yoshlardagi jikkak  
chol teshasining sopini belbogʻidan  
oʻtkazib, soʻriga keladi.* (S. Ahmad,  
«Jimjitlik»).

**Soplamoq** I – sop oʻrnatmoq, dasta  
qoʻymoq, qilmoq. *Pichoq(ni) soplamoq.  
Bolta(ni) soplamoq.*

**Soqa** I [*a.* – olib boruvchi, haydab  
keluvchi, boshqarib boruvchi] – shv.  
Daryo yoki anhorlardan katta ariqlar-

ga suv olinadigan joy; ariq boshi. *Elimizning og'asi, Adras to'nning yoqasi, Yopimizning soqasi Mirob akaga bir salom.* («Qo'shiqlar»). *Amuning qaysarlighi tutib, qirg'oqlaridan nariga ketdi, soqalarga suv bermay qo'ydi.* (E. Rahim, «Hayot amri bilan»).

**Soqa III** [*a.* – poya, palak; orqadan boruvchi; aryergard] – **1** *harb.* Harbiy yurish yoki mashqlar chog'ida asosiy kuchlar ortidan soqchilik qilib boruvchi maxsus qism.

**2** *harb.* Jang paytida turli tashqi zarbalardan saqlanish maqsadida tizza va tirsaklarga kiyiladigan metall qalqoncha.

**3** *shv.* Biror kimsadan yoki biror yerdan tarqagan; avlod, zot. *Avaz o'g'lon qirg'yigitning og'asi. Botirlarning Avaz oltin soqasi.* (Ergash Jumanbulbul o'g'li.)

**Sorgo** – jo'xori. Qo'qonjo'xori (oq jo'xori). Shirin jo'xori. Makkasupurgi (supurgi jo'xori), choy jo'xori.

**Sort** [*fr.* *sorte* < *lot.* *sors, sortis* – qur'a; qism, ulush; xizmat, mansab; tur, xil, jins] – **1.** Molning, mahsulotning muayyan sifatli belgilarga ega bo'lgan kategoriyasi, navi; nav. *Birinchi sort paxta. Uchinchi sort gazmol.*

**2** *esk. (q. nav.)* Paxtaning yangi sortlarini yetishtirmoq. *Barcha mahsulotning 28 foizi birinchi sortga qabul qilindi.* (Gazetadan).

**Sotix** [*r.* *sotiy* – yuzinchi; yuzdan bir ulush qism] – gektarning yuzdan bir qismiga teng sath o'lchovi birligi. *Ularning yigirma sotix tomorqasi bo'lib, unda otasi ekib ketgan xil-xil mevali daraxtlar ko'p edi.* (Sh.Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»). *Ariqning narigi betida o'n sotixcha tomorqamiz bor edi.* («Yoshlik»).

**Sovitkich** – *tex.* **1.** Oziq-ovqat mahsulotlari yoki tez ayniydigan mahsulotlar

past temperaturada saqlanadigan inshoot yoki qurilma; xolodilnik.

**2.** Konditsioner. *Qaldirg'och xonani bir aylanib, derazaning yuqori ko'ziga o'rnatilgan sovittkich ustiga qo'ndi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Sovliq** – qo'zilagan, sog'iladigan qo'y. Urg'ochi qo'zilar 5–7 oyda jinsiy yetiladi va ularni 15–18 oyda qochirishga qo'yish mumkin. Sovliqlar qo'y suruvining asosiy qismi (60–75%)ni tashkil qiladi. Qo'ylardan jun, go'sht-yog', sut, teri, barra teri va h.k.larni yetishtirishda sovliqlar muhim ahamiyatga ega. Sovliqlardan xo'jaliklarda o'rtacha 6 yil foydalaniladi. Yiliga har bosh sovliqdan 20–50 l sut sog'ib olinadi.

**Sovrin** – uloq, poyga, musobaqa va sh.k.larda g'oliblarga beriladigan mukofot. *Adirda esa sumalak pishiriladi, osh tortiladi, [ko'pkari] uyushtiriladi, g'oliblarga sovrin ulashiladi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»). *Bosh sovrin ta'sis etildi: turnir g'olibi toshkentlik ustalar ishlagan katta chinni vazani oladi.* (Gazetadan).

**Sovundaraxt** – mevasida saponin moddasi bo'lgan va sovun o'rnida ishlatiladigan past bo'yli daraxtlar yoki butalar turkumi.

**Sovuno't** – poyasi to'rt qirrali, yoyilib o'sadigan, barglari cho'zinchoq begona o't.

**Sovurilmoq, sovrurmoq** (*fl. o'zl. va majh. n.*) – xirmondagi hamma don sharmolda bir soatda sovruldi. *Shaharlar xaroba, bir uyum tuproq, qishloqlarning kuli ko'kka sovrulgan.* (G'. G'ulom, Tanlangan asarlar.) *Mehnatlarim zoye ketmadi, yelga sovrilmadi.* («Yoshlik».)

**Sovurmoq** – *q.x.* Shamolda shopirib tozalamoq, shopirmoq. *O't ishi – qovurmoq, Yel ishi – sovrurmoq.* (Ma-

qol). [Bobodehqon] *Kun qizib turgan paytlarda, boshidan oftob o'tishiga qaramay, yanchiq yanchibdi. Kechki shamolda bug'doy sovuribdi.* (S. Anorboev, «Bobodehqon so'zi»).

**Soy** – 1. Ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va b. natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy. *Boy boyga boqar, suv soyga oqar.* (Maqol). *Hozir ko'klam kunlari: qirlar, soylar ko'k-qizil... push-ti, go'los va tag'in allaqancha rangli chechaklar bilan ustlarini bejab, oshiq-larga yangi hayot, yangi umid berdilar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq. Soy suvi. *Soyda cho'milmoq. Soydan kechib o'tmoq. Choy to'kilib, soy bo'lmas, Yulduz yig'ilib, oy bo'lmas.* (Maqol). *U bomdodni ado etgach, xarsang toshlar oralab sharqirab oqayotgan soy bo'yiga tushib, tabiatning mis-siz jamolini tomosha qildi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

3 *maxs.* Miltiq stvoli ichidagi burama ariqcha.

**Soylik** – Yer yuzasining botiq joyi, pastlik, vodiy, soy. *Soyliklardan cho'qqiga qadar So'qmoq yo'llar uzoq cho'zilmish.* (H.Saloh). *Kozim soylika tushib, yana yuqoriga o'rmaladi.* (E. Usmonov, «Yolqin»).

**Soya** [yap. *shoyu*] – dukkakililar oilasiga mansub, loviyaga o'xshash bir yillik o'simlik va uning oziq-ovqat sanoatida keng qo'llanadigan doni. *Soya unidan sut, tvorog, qandolat mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi.* («O'zME»).

**Soyaparvar** [f. – soyani yaxshi ko'ruvchi; soyada o'stirilgan] – bot. Soya-

da o'sadigan, soyani yaxshi ko'radigan. *Soyaparvar o'simliklar.*

**Soyagi** – soya joyda mayiz quritish usuli. Asosan, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy viloyatlarining tog'li hududlarida qo'llaniladi. Oq kishmish uzumni maxsus bino – soyagixonada quritib olingan mayiz.

**Soyagixona** – mayiz quritish uchun paxsadan qurilgan maxsus xona. Mayiz quritishning eng qadimgi usullaridan biri.

**Sog'im** – 1. Bir galgi sut sog'ish, bir gal sog'ib olingan sut. *Sog'imni oshirmoq. Sog'im davri.*

2 *ayn.* **sog'in.** *Turkiston xalqlari bo'lsa oq podsho uchun sog'im sigirning o'zi bo'lib qolgandi.* (N.Safarov, «Olovli izlar»).

**Sog'im davri** – chorva mollari yelida sut hosil bo'lishi, yig'ilishi va vaqti-vaqti bilan sog'ib olinishi davomiyligi. Asosan, sut sigirlardan, qisman echkilar, sovliqlar, biyalar va tuyalardan sog'ib olinadi. Sog'im davri hayvon tuqqanidan boshlab, to sutdan chiqqan muddatiga qadar davom etadi.

**Sog'in** – sut beradigan, sog'iladigan.

**Sog'in sigir** – sut beradigan, sog'iladigan sigir. *Egamberdi, menda bir sog'in sigir bor, shuni ola keting, o'zingizga* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»).

**Sperma** [yun. *sperma* – urug'; pusht] – *ayn.* **maniy.**

**Spermatozoid** [*sperma* + yun. *zoon* – tirik organizm + *eidos* – ko'rinish] – fiziol. Odam, hayvon va ko'pchilik organizmlarning erkaklik jinsiy hujayrasi. *Muhit temperaturasi, bosimi, kislotaliligining o'zgarib turishi spermatozoid funksiyasining buzilishi va tezda halok bo'lishiga olib keladi.* («O'zME»).



**Spetsifika** [lot. *specificus* – turni, jinsni belgilovchi, turga oid] – biror narsa, hodisa uchungina xos, xarakterli xususiyatlar majmui. *O'rta Osiyoda irrigatsiya qurilishlarining spetsifikasi. Paxtachilikning spetsifikasi. Toshkentda metro qurilishining spetsifikasi.*

**Spetsifikatsiya** [lot. *specification* < *species* – tur, *jins* + *facere* – qilmoq, bajarmoq] – mashina, asbob-uskuna, qurilma va sh.k. ning batafsil tavsifi aks ettirilgan jadval shaklidagi texnikaviy hujjat.

**Spirit** [ingl. *spirit* < lot. *spiritus* – nafas, dam; jon, ruh] – **1.** Serkraxmal, shirali mahsulotlardan (bug'doy, kartoshka va sh.k. dan) haydash yo'li bilan hosil qilinadigan, alkogolga boy, o'tkir ta'mli, tussiz, yonuvchi suyuqlik. *Vino spirti.*

**2 kim.** Tarkibida vodorod atomi bilan kislorod atomi birikmasi bo'lgan bir guruh organik moddalar nomi. *Yog'och spirti.*

**Spiritovka** [«spirt» s. dan] – spirt bilan yonadigan gorelkali moslama.

**Sponsor** [ingl. *sponsor* < lot. *spondere* – kafil bo'laman, kafolat beraman] – q. homiy.

**Sporalar** [yun. *spora* – sochish; sepish, ekish; urug'] – *biol.* **1.** Zamburug'lar va o'simliklarda ko'payish uchun xizmat qiladigan maxsus hujayra. Zamburug'lar va tuban o'simliklarda mitoz (mitosporalar), yuksak o'simliklarda meyoza (meyosporalar) bo'linish natijasida vujudga keladi. **2.** Bir hujayrali parazit hayvonlarda qalin po'st bilan qoplangan bir yoki ko'p hujayrali hosila. Tarqalish va noqulay sharoitdan himoya qilish vazifasini bajaradi. **3.** Bakteriyalar va arxeobakteriyalarda tinch holatdagi reproduktiv hu-

jayra. Hayot sikli oxirida vujudga keladi. Ko'payish va noqulay sharoitdan himoya qilish vazifasini bajaradi. O'simlik organizmi, zamburug'lar va ba'zi sodda jonivorlarning ko'payish va yashash uchun xizmat qiluvchi boshlang'ich urug'i, murtagi. *Yo'sin sporalari.*

**Sporali** – sporalar orqali ko'payadigan. *Sporali o'simliklar.*

**Sporali o'simliklar** – asosan, sporalar yordamida jinsiy va jinsiz ko'payadigan o'simliklar. Ko'pchilik sporali o'simliklar noqulay mehnat sharoitini spora holatida o'tkazadi. Ayrim sporali o'simliklarda sporalar kamdan kam paydo bo'ladi, ular, asosan, tanasining bo'laklarga bo'linishi yo'li bilan ko'payadi.

**Spongilla** – juda yengil, mayda yoki yirik teshikli, mo'rt, yashil-kulrang yoki kulrang-sariq tusli, hidsiz va mazasiz, shakli har xil, qattiq massa bo'lib, u suvlar (oqar suv, ko'l) ostida toshlar, yog'ochlar, daraxt ildizlariga yopishib, to'p-to'p bo'lib yashaydigan, uzunligi 40 sm gacha yetadigan shilliq massa shaklidagi tuban hayvonlar skeletidir. Tarkibi bir-biriga yopishgan nina shaklidagi kremniy kristallari, kalsiyning karbonat va fosfat tuzlari, organik moddalardan tarkib topgan. Kukuni va surtmasi nevrалgiya kasalliklarida og'riq qoldirish uchun, og'riq joylarga hamda momataloq bo'lib, qon to'planib qolganda uni tarqatib yuborish uchun surtiladi.

**Spred** – **1.** Turli muddatda yetkazib beriladigan bitta yoki o'zaro bog'liq ikkita molga mo'ljallangan fyuchers shartnomalarini bir vaqtda xarid qilish va sotish;

**2.** Soliqlarni kamaytirish maqsadida o'zaro bog'liq bo'lmagan mollar fyu-

chers shartnomalarini bir vaqtda xarid qilish va sotish;

3. Boshlang'ich narxi turlicha bo'lgan yoki opsion tugagunga qadar turli davrga ega bo'lgan bir turdagi opsionlarni bir vaqtda xarid qilish va sotish;

4. Narx-navo o'zgarib turishi ko'lami;

5. Narxlar o'rtasidagi farq.

**Ssuda** (*rus.*) – moddiy boyliklar garovi evaziga foiz to'lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik. Kredit munosabatlarida pul mablag'lari kredit shartlari asosida qarzga berilsa, ssuda munosabatlarida boshqa turdagi boyliklar tegishli shartlarga muvofiq qarzga beriladi.

**Ssuda marjasi** – kredit ajratishdan olingan daromad va mablag' jalb etish qiymati o'rtasidagi farq.

**Stabil** [*lot. stabilis* – turg'un, doimiy] – mustahkam, o'zgarmaydigan, barqaror, turg'un. Stabil baho. Stabil kuchlanish (*el.*). *Stabil va mo'l hosil olib turish – stabil va pul daromadlar olib turish demakdir.* (Gazetadan).

**Stabilizatsiya** [*lot. stabilis* – turg'un, doimiy] – stabil holatga kelish yoki keltirish, stabillashish yoki stabillashtirish. *Iqtisodiyot stabilizatsiyasi. Stabilizatsiya qurilmasi.*

**Stabillashmoq** – stabil, turg'un, barqaror holga kelmoq, tekislashmoq, turg'unlashmoq. *Baholar stabillashdi. Hosildorlik stabillashdi.*

**Stadiya** [*yun. stadion* – qadimda: masofa o'lchov birligi] – biror narsaning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan davr, har bir muayyan bosqich. *Qurt boqishning birinchi stadiyasi.*

**Stagflyatsiya** – inflyatsiyaning iqtisodiy inqiroz bilan bir vaqtda sodir

bo'lishi; ishlab chiqarish tanazzulligi, narx-navo va ishsizlikning o'sishi bir vaqtda ro'y beradigan iqtisodiy holati.

**Stagnatsiya** – iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda yoki savdoda tanazzulni yuzaga keltiruvchi turg'unlik.

**Standart II – 1.** Standartga muvofiq, mos bo'lgan, standart talablariga javob beradigan. Standart uylar. Standart detallar. *Sinalayotgan yangi navlar, hosildorligi va qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha, standart navga qiyoslab baholanadi.* («O'zME»).

**2 ko'chma.** Bir qolipdagi, shablon. Standart gap. *Kelganlar bilan ikki so'zli standart tabrik aytib so'rashdilar.* (Sh. Rizo, «Qor yog'di, izlar bosildi»).

**Standart nav** – q.x. ekinlarining muayyan agroiklimiy zonada rayonlashtirilgan va barcha turdagi seleksiya va nav sinash ishlarida etalon (andoza) qilib tanlangan eng yaxshi navi. Sinalayotgan yangi navlar hosildorligi va boshqa qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha standart navga qiyoslab baholanadi.

**Standartlamoq** – bir standartga keltirmoq, standartga muvofiq, bir xilda, bir qolipda ishlamoq, yasamoq, hozirlamoq. *Standartlangan binolar.*

**Standartlash** – fan, texnika va amaliy tajribalarning umumlashtirilgan yutuqlariga tayangan holda standartlar belgilash va ularni tarmoqlarda qo'llash jarayoni. Standartlar belgilash hamda ularni fan va texnika, xalq xo'jaligi tarmoqlarida qo'llash jarayoni. Standartlashning vazifasi: kattaliklar birliklarini, terminlar va belgilarni qabul qilish; mahsulotlar va ishlab chiqarish jarayonlariga texnik talablar qo'yish; xavfsizlikni ta'minlaydigan va moddiy boy-

liklarni asraydigan shartlarni belgilash. Standartlash tizimi xo'jalik tarmoqlarini, korxonalaridagi ishlab chiqarish jaryonlarini, me'yoriy-texnik hujjatlarining joriy etilishi va ularga amal qilinishini, savdo korxonalaridagi o'lchov vositalarini nazorat qilish va b. ishlarni o'z ichiga oladi. *Standartlash xalq xo'jaligini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.* («O'zME»).

**Standartsiz** – standartga mos kelmaydigan, standart talablariga javob bermaydigan, standartdan tashqari; no-standard. *Standartsiz mol. Standartsiz uskunalar.*

**Statistika** [*nem. statistik < ital. stato – davlat < lot. status – boylik, mol-mulk*] – 1. Turli xil yalpi miqdoriy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish metodlarini ishlab chiqadigan, shu yo'l bilan ijtimoiy hayotning umumiy qonunlarini o'rganadigan ijtimoiy fanlar tarmog'i. *Statistika murakkab va sertarmoq fanlar majmuidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning xilma-xil hodisalarini o'rganadi va tahlil etadi.* («O'zME»).

2. Jamiyat hayotidagi hodisalar va jaryonlarga doir axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil va e'lon qilish bilan bog'liq amaliy faoliyat sohasi. *Statistika amaliyoti bilan O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasi va uning viloyat, shahar, tuman boshqarma (bo'lim)lari shug'ullanadi.* («O'zME»).

3. Ijtimoiy hayotning biror sohasini tavsiflovchi yakuniy ko'rsatkichlar yig'indisi.

**Stavropol zoti** – mayin junli qo'ylar bo'lib, qo'chqorlardan qirqib olingan jun o'rtacha 14–19 kg dan 25 kg gacha, urg'ochilaridan 7–8 kg

dan 13 kg gacha. Juni qalin, mustahkam, tekislangan, ipaksimon, sifati 64–70%, uzunligi 8–10 sm. Yuvilgan jun 40–43%. Qo'chqorlarning tirik vazni 100–115 kg, urg'ochilariniki 50–55 kg. Har 100 bosh ona qo'ydan 120–140 ta qo'zi olinadi. Kontinental iqlimli qurg'oqchil cho'l hududlarida ko'paytirish uchun yaxshi moslashgan. Bu zot mayin junli zotlarning jun mahsuldorligini oshirish uchun urchitiladi. Ular Shimoliy Kavkaz, Quyi Volga mintaqalarida ko'paytiriladi.

**Steril** [*lot. sterilis – toza, pushtsiz, naslsiz*] – sterilizatsiya qilingan, sterillangan, mikroblardan xoli qilingan. Steril paxta. Steril bint. *Apparat butun asboblari bilan steril bo'lishi lozim.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»).

**Sterilizator** – laboratoriya idishlari, tibbiy asbob-uskunalarini sterillash uchun xizmat qiladigan qurilma, moslama.

**Sterilizatsiya, sterillash** [*lot. sterilis – toza, pushtsiz, naslsiz*] – qaynatib, qizitib, qatron qilib yoki kimyoviy yo'l bilan mikroblardan tozalash, zararsizlantirish.

**Stimul** [*lot. stimulus – hayvonlarni haydash uchun belgilangan uchli tayoq*] – biror ishga qiziqish tug'diradigan, rag'batlantiradigan, undaydigan narsa, omil. *Mehnat unumdorligini oshiruvchi stimullar. Moddiy stimul. Ma'naviy stimul. Stimul bermoq.*

**Stixiya** [*yun. stoicheion – unsur, element; ibtido, asos*] – 1. Kuchli tabiiy ofat (yong'in, toshqin, dovul, zilzila va sh.k.). *Tabiat stixiyasini yenga oladigan birdan bir kuch – odamlar, ulardagi jasurlik.* (I.Rahim, «Ixlos»).

2 *ko'chma*. Ko'r-ko'rona, bebosh harakat; uyushmaganlik; uyushtirib va idora qilib bo'lmaydigan ijtimoiy kuch.

**Stixiyali** – 1. Stixiyaga oid, kishilarning irodasidan, xohishidan tashqari tabiiy kuchlar ta'siri ostida yuzaga keladigan.

2. Uyushmagan, to'g'ri tashkil etilmagan, idora qilib bo'lmaydigan. *Stixiyali ijtimoiy harakat*.

**Stolba** [*r. stolb* – yerga tik o'rnatilgan holda] – *ayn. simyog'och*. Elektr tarmog'i stolbalari. *Poyezd shu qadar yelmoqdaki, Normatning nazarida poyonsiz dasht chir aylanib, telegraf stolbalari unga qarab chopib ketayotganday.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Strategiya** [*yun. strategia* < *stratos* – qo'shin + *ago* – boshlab boraman] – 1 *harb.* Urush olib borish san'ati; urush va harbiy operatsiyalar o'tkazishning umumiy rejasi. *Yashin tezligidagi urush strategiyasi.*

2. Urush olib borish haqidagi fan. Strategiya kursi. *Strategiyadan ma'ruzalar. Harbiy strategiya nazariyasi.*

3 *ko'chma*. Ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati, shuningdek, umuman, boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish san'ati. *Fan taraqqiyotida har bir muhim davr ilmiy izlanishlarning ma'lum strategiyasini o'rtaga tashlaydi.* («Fan va turmush»).

**Stratifikatsiya** (*lot. stratum* – to'shama, qatlam va *facio* – bajaraman) – o'simliklar urug' (danak)lari unib chiqishini tezlashtirish uchun nam muhitda saqlash, urug'larga ekishdan oldin ishlov berish usuli. Asosan, mevali, manzarali, o'rmon daraxtlari, butalari, ayrim dorivor o'simliklar urug'lari (danaklari) uchun qo'llaniladi.

**Stress** [*ingl. stress* – bosim; kuchlanish, tanglik] – odam va hayvonlarda kuchli tashqi ta'sirotlar natijasida sodir bo'ladigan o'ta hayajonlanish, bezovtalik, asabiylik holati. *Odamda bir xil kuchdagi stress ham xavfli, ham ijobiy bo'lishi mumkin.* («O'zME»). *Turmush tarzimizda kulguning ahamiyati shu qadar muhimki, ko'pgina muammolarni kulgi yordamida yengib, stress oqibatida paydo bo'ladigan kasalliklarning oldini olishimiz mumkin.* (Gazetadan).

**Struktura** [*lot. structura* – tuzilish; bog'lanish] – muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi; tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi. Tuproqning strukturasi. *So'z strukturasi. Boshqarish apparatining strukturasi. Strukturani bilish – elementlarni, ularning o'zaro aloqadorliklarini aniqlash, bu elementlar bir butunligining o'ziga xos tabiatini tushunib olishdir.* («O'zME»).

**Strukturaviy** – strukturaga, tuzilishga, tarkibga oid. *Strukturaviy tilshunoslik. Olamda sifat jihatdan turli sistemalarda strukturaviy munosabatlarning behisob ko'p darajalari, tiplari mavjuddir.* («Falsafa»). *Keyingi vaqtlarda tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar sohalarida strukturaviy tahlil usullari ishlab chiqildi.* («O'zME»).

**Strukturali** – muayyan strukturaga, tuzilishga ega bo'lgan. Strukturali tuproq.

**Subarenda** – ikkilamchi ijara, subijara [ijaraga olingan mol-mulkning bir qismini uchinchi bir shaxsga (shaxslarga) ijara berish].

**Subh** [*a.* – ertalab, tong, tongotar] – *Erta tong payti; saboh, sahar. Tinmagur shahrimizning subhida shuncha*

ovoz. (G'.G'ulom). *Subh chog'ida magar chiqqanda yorim to'lg'anib, Gul yoqasin chok etar, bulbulda afg'on qo'zg'alur.* (Habibiy).

**Subhidam** [a. + f. – erta tong; tong saharlab] – erta tong payti; tong, subh. Subhidamda turmoq. *Subhidam chog'i. Subhidam sabosi qo'zg'alib, Zulfigni tortqilar ohista.* (A.Sher, «Qadimgi kuy»). [Yodgorbek] *Yuvinib, ayvonga chiqqanida, kech kuzning sahargi sovuq havosidan badani junjikdi. Lekin, baribir, subhidam toza va yoqimli edi.* («Yoshlik»).

**Subirrigatsiya** (sub... va irrigatsiya) – tuproq ostidan sug'orish turi; grunt suvlari sathini sun'iy ko'tarish yo'li bilan tuproqning o'simlik ildizi tarqalgan qismini namlashga erishiladi. Subirrigatsiyani faqat kollektor-drenaj tarmog'i qurilgan gidromorf va yarim gidromorf tuproqlardagina qo'llash mumkin. Ochiq zovurlarda to'g'on solish, yopiq drenajda gidrantlarni berkitish, shuningdek, ularni sug'orish suvi bilan to'ldirib, grunt suvlari sathi ko'tariladi.

**Subsidiya** – yordamga beriladigan pul, mablag'. Subsidiya tariqasida beriladigan pul; pul (mablag') bilan beriladigan yordam. *Subsidiya bermoq, pul bilan ta'minlamoq.*

**Subtropik** [lot. sub – ostida, yaqinida, yonida + tropik] – subtropiklarga oid, xos. Subtropik iqlim. Subtropik o'simliklar. *Sitrus o'simliklardan biri – limon subtropik va tropik mamlakatlarda o'sadi.* (Gazetadan). *Sovuq havo bostirib kirishi natijasida goho subtropik zonada ham qor yog'ishi mumkin.* («Fan va turmush»).

**Subtropik o'simliklar** – asosan, doim yashil, barg to'kadigan ba'zi mevali daraxtlar hamda butalar. Bularga avoka-

do, anjir, anor, apelsin, mandarin, limon, greypfrut, zaytun, xurmo, chilonjiyda (unobi), pista, mushmula, tok, dafna va b. kiradi. Subtropik o'simliklar vegetatsiya davrining uzunligi, qishda tinim davriga o'tishi bilan tropik o'simliklardan farqlanadi.

**Subvensiya** (lot. subvenire – yordamga kelmoq) – markaziy organlar tomonidan muayyan tadbirni, obyektни maqsadli moliyalash uchun ajratiladigan pul nafaqasi. Maqsadli foydalanish talablari buzilganda subvensiya uni bergan organ tomonidan qaytarib olinadi. Davlat ma'qullagan iqtisodiy va madaniy rivojlantirish dasturlari, loyihalari subvensiya orqali pul bilan ta'minlanadi.

**Sulfat** [lot. sulphur – oltingugurt] – q. **sulfatlar.** Ammoniy sulfat. Sulfat kislota.

**Sulfatlar** – kim. Oltingugurt (sulfat) kislotasining tuzlari. *Sulfatlar tabiatda keng tarqalgan va turli sanoat sohalarida xomashyo sifatida qo'llanadi.* («O'zME»).

**Suli** – boshoqdoshlarga mansub, bir yillik va ko'p yillik o'simliklar turkumi; yem uchun ekiladigan g'alla o'simligi va uning doni, g'allasi. 70 turi bor. 25 ga yaqin turi Yevroosiyo va Shimoliy Amerikada o'sadi. Suli uni bug'doy yoki javdar uniga qo'shib non yopishda ishlatiladi. Eng qimmatli yem-xashak ekini hisoblanadi. Suliga azot, fosfor, kaliy o'g'itlarini qo'llash yaxshi samara beradi, agrotexnologiya tadbirlari arpanikiga o'xshash. Hosildorligi 20–35 st/ga. O'zbekistonda kuzgi sulining «Do'stlik 85» (1993), Chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutida «Toshkent 1», «Yutuq» (1981), bahorgi sulining keng bargli «O'zbekiston» (1981) navlari chiqarilgan

va barcha viloyatlar uchun rayonlashtirilgan. *Otning oxurida gulbeda, to'rvasida arpa, suli kanda bo'lmadi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**Sultoni** [a.] – uzum navlaridan birining nomi va shu uzumdan solingan mayiz.

**Sumalak II** – undirib yanchilgan bug'doy, un va yog' aralashmasidan tayyorlanadigan, servitamin, xushxo'r holvaytarsimon ovqat (odatda, bahor kezlari ayollar o'rtasida xalfana asosida pishiriladi). *Bu kecha – gulgun kecha, O'choqda o't tonggacha, Kim pishirsa sumalak, Yashasin-ey minggacha!* (A. Suyun, «Olis tonglar»). *Doshqozonda qaynar sumalak, Onaxonlar tongni poylaydi.* («Saodat»). *Binobarin, sumalak yilda bir martagina tayyorlash mumkin bo'lgan noyob taomdir.* (K. Mahmudov, «O'zbek taniq taomlari»).

**Sunbula** [a. – boshq; burj nomi] – 1. (S – katta) *astr.* O'n ikki burjning biri, Asad va Mezon burjlari o'rtasida joylashgan (*q. burj*).

2. Shamsiya yil hisobida oltinchi oyning nomi (22-avgust – 21-sentabr davriga to'g'ri keladi). *Sunbulada suv soviydi.* (*Maqol*). *Tashqaridagi shox barglarining sunbula shabadasi bilan shivirlayotgani eshitila boshladi.* (Q. Kenja, «Notanish gul»). *Tinib borar ariqlar, Bug'doy to'la sariqlar, Chars bedovlar oriqlar, Hayhay, jonim sunbula!* (M. Qo'shmoqov, «Ali Qambar»).

**Sunbulaning suvini ichgan ekin** – kuz suvini ichgan ekin (bunday ekin hosili qishda yaxshi saqlanadi, deydi-lar).

**Sun'iy tanlash** – odam tomonidan eng qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan hayvon va o'simliklarning ayrim

nusxalari, zotlari, navlarini ulardan avlod qolish maqsadida tanlab olish.

**Suspenziya** [*lot. suspensio* – ilish, osish; ilinish, osilish] – suyuq dori turi. Tarkibidagi kukun (qattiq zarra ko'rinishidagi) dori moddalari biror suyuqlik (suv, glitserin, o'simlik moyi)da muallaq holda turadi. Qishloq xo'jaligida o'simliklarni himoya qilishda purkash uchun keng qo'llanadi. Suspenziyalar dispersion muhit (odatda, suv) va dispers faza – pestitsidning qattiq zarrachalaridan tashkil topadi. Ularning tarkibi (30–90%) pestitsidlar, to'ldiruvchilar, sirt faol va qo'shimcha moddalardan iborat. Dehqonchilikda tuproqni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishda yoki begona o'tlarga qarshi kurashda ishlatiladi. Oltingugurt, akreks, keltan, gardona, tiotan, fozalon va b. insektitsid hamda akaritsidlarning ho'llanuvchi kukunlaridan tayyorlangan suspenziyalar keng tarqalgan. *Bu tumanning deyarli hamma xo'jaliklarida xlorella suspenziyasi ishlab chiqaradigan qurilmalar ishlab turibdi.* («Fan va turmush»).

**Super** [*lot. super* – yuqorida, ustida] – baynalmental o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, «oliy sifatli, yuqori darajali», «bosh, asosiy» va «ustida, yuqorida joylashgan» degan ma'nolarni bildiradi, mas., *supermarket, superfosfat.*

**Superfosfat** [*super* + *fosfat*] – Ca ( $H_2PO_4$ )<sub>2</sub> H<sub>2</sub>O+SO<sub>4</sub> (erkin H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> aralashmali) apatit va fosforitlarni oltingugurt kislotasi bilan ishlab hosil qilinadigan yuqori sifatli fosforli o'g'it. Superfosfat – tez ta'sir qiluvchi, deyarli mushtlanmaydigan, rezina hidi keladigan kulrang-oq unsimon universal o'g'it. 19,5% fosfat anhidrid bo'lgan oliy navi va 18% fosfat anhidrid bo'lgan birinchi navi ishlab chiqa-

riladi. Sug'orma dehqonchilikda ko'proq ammoniydagi superfosfat, shuningdek, ammosfos qo'llaniladi, bu o'g'itlarning asosiy qismi kuzgi shudgorda, qolgani o'suv-gullash fazasida solinadi. *Donador superfosfat. Superfosfat zavodi.*

**Sur I** – ochiq havoda soyada osib qo'yib yoki dudlab quritilgan, qoqi qilingan go'sht, baliq va h.k. *Sur go'sht. Sur baliq. Qozoq qizi tutgan qimiz, qalbidek sof, Esdan chiqmas sur qazining to'g'ramchasi.* (S. Abdulla). – *Bu anu kungi sur go'sht, – dedi Nozik kampir gunohini yengillatadigan vaj topilganidan quvonib.* («Yoshlik»).

**Sur III** [f. – qirmizi, qizil, qizg'ish] – 1 ot. To'q kulrang, qizilga moyil, och jigarrang, tillarang qorako'l teri turi. Sur teri rang-barang tovlanadi. *Lolalarning unar joyi qir bo'lur, Qorako'lning ko'rkam turi sur bo'lur.* (Y. Qurbon). *Eshik zinapoyasida sur qalpoq kiyib, qizil astarli chakmonining barini kumush kamariga qistirib olgan kishi ko'rindi.* («Sharq yulduzi».)

2 sft. To'q kulrang tUSDagi; surrang. Sur qorako'l teri. *Butxonaning sur devoriga, Har o'tkinchi bir satr bitmish.* (Mirtemir, «Asarlar»).

**Sur tuproqlar** (bo'z tuproqlar) – cho'l-dasht mintaqasidagi o't o'simliklar bilan qoplangan, tog' etaklari qiya tekisliklarida tarqalgan tuproq tipi. Markaziy Osiyodagi cho'l-dashtlarda keng tarqalgan bo'lib, shag'alli yotqiziqlar ustidagi lyoss va lyossimon qumOqlarda hosil bo'ladi.

**Surlamoq** – osib qo'yib quritmoq, qoq qilmoq, qoqlamoq. *Go'sht surlamoq. Baliq surlamoq.*

**Surrang** – ayn. **sur III 2.** Surrang ipak. *Bu ko'chalarning tuprog'i ham boshqa: yo'lkalarga surrang mayda*

*shlak to'kilibdi, yurganda g'ichir-g'ichir qiladi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**Surrogat** [lot. *surrogatus* – boshqasining o'rniga qo'yilgan] – biror narsaning o'rnida ishlatiladigan, uning xossalari-gagina ega bo'lgan narsa. Oziq-ovqat surrogatlari. *Saxarin – qandning surrogati. To'g'ri, na matnining, na ohangining tayini yo'q, maza-matrasiz ashulalar, taqlid va ko'chirmachilikdan iborat surrogatlar ham kam emas.* (Gazetadan).

**Surh** [f. – qizil, qirmizi; qizartirib qovurilgan] – yosh, yangi, surhun (novda haqida). Surh novda. *Zum o'tmay, tutning surh novdalari orasidan boshqasi uchib chiqib, unga qo'shildi. Keyin qir ustida so'fito'rg'ay nozik chuldiradi.* (M. Mansurov, «Yombi»).

**Surxon** – uzum turlaridan birining nomi va shu uzumdan solingan mayiz.

**Surunkali ekin** – bir dalada uzoq vaqt (4–5 yildan ortiq) ekiladigan bir xil qishloq xo'jaligi ekini. Surunkali ekish doimiy ekindan oraliqda (kuzda, yozda) dalani shudgor qilib turish bilan farqlanadi.

**Suruv** – qo'y-echki podasi. *Suruv boqib, qir bag'rida yurdingmi, qo'ylar boqib, xo'p kayfingni surdingmi?* («Gulixiromon».) *Ilgarilari Usmonali do'xtirning qo'li qo'liga tegmasdi. Hali mol fermasida, hali yaylovga chiqib ketgan qo'ylar suruvida, hali tog'da o'rmalab yurgan echkilar orasida.* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

**Suruv, otar** – jinsi, yoshi va zotiga qarab yig'ilgan qo'ylar podasi.

**Sut** – 1. Odam (ayol) va sutemizuvchi hayvonlarning laktatsiya davrida sut bezlarida ishlab chiqariladigan, yangi tug'ilgan naslni oziqlantiradigan murakkab kimyoviy tarkibli oq rangdagi

suyuqlik. Sut bezlari. *Bola yig'lamasa, ona sut bermaydi.* (Maqol). *Ko'kragimda sutim deb, Yuragimda o'tim deb, Enasi sho'r yig'laydi, Qaydasan, Ahmadim, deb.* («Oysuluv»). *Iskandar yelinning so'rg'ichdek uchlaridan tiz-tiz otilib chiqib, xurmaga oppoq ipdek pov-pov cho'zilib tushayotgan sutga hayrat bilan tikilib qoldi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayozi olmaydi»).

2. Sigir, qo'y, echki va sh.k. chorva mollaridan sog'ib olingan shunday suyuqlik (ovqat va mahsulot sifatida). Qishloq xo'jaligi hayvonlari suti – qimmatli oziq-ovqat mahsuloti. Chorva hayvonlari sutidan sariyog', sir, kazein, qatiq va b. mahsulotlar ishlab chiqariladi. Sigir suti. Yog'li sut. *Sut sanoati. Sut mahsulotlari. Sutdan og'zi kuygan qatiqni puflab ichar.* (Maqol). *Kechagi chorshanba bozorda bir sigir oldim deng, yegani quruq xashag-u sutiga qo'shiq botmaydi – shundoqqina qaymoq.* («Askiya»). *Oshqozonda hazm bo'lib ketishi zarur bo'lgan dorilarni sut bilan ichish mutlaqo mumkin emas.* («Fan va turmush»).

3. Ba'zi o'simliklarning tanasi, poyasi yoki hosilidagi oq suyuqlik. *Semizo'tning suti. Dumbul jo'xorining suti. Bir kuni Fayzulla bilan suti qotgan dumbul o'riklarni terib olib, juftmi-toq o'ynab o'tirsak, ko'chada biron chiqirganday bo'ldi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Sut berish davri, laktatsiya** – sut emizuvchi hayvonlarning sut bezida sut hosil bo'lishi, yig'ilishi va vaqt-vaqti bilan tashqariga ajralib chiqishi (sut sog'ilganda yoki bolasi emganda) jarayoni davomiyligi laktatsiya (yunoncha «laktoz» – «sut davri») so'zidan, ya'ni

hayvonlarning sut berish davri) deb yuritiladi.

**Sutdagi yog' donachalari** – oval-simon yog' tuzilmalari (tomchilari); ularning katta-kichikligi molning zoti, fiziologik holati, oziqlanish xarakteri va sut berish davriga qarab o'zgarib turadi.

**Sutdan ajratish** – chorva mollari bolasini (cho'chqa bolasi, qo'zi, toy, buzoqlarni) sutdan ajratib mustaqil oziqlanishga o'tkazish.

**Sut gomogenezatsiyasi** – sutning umumiy massasida yog'ini bir tekis taqsimlash (yoyish) maqsadida yog' donachalariga mexanik ta'sir ko'rsatish.

**Sut kislotali mahsulotlar** – sut va qaymoqdan sut kislotasi bakteriyalarining sof yoki aralash turlari yordamida laktozani achitib, kazeinni kaogulyatsiyalab (ivitib) tayyorlanadigan mahsulotlar.

**Sutli** – 1. Ichida suti bor. *Sutli idish.*

2. Tarkibida suti bo'lgan. *Sutli o't.*

3. Sut solingan, sut qo'shilgan. *Sutli kofe.*

4. Sut beradigan, sog'iladigan; sog'in. *Sutli sigir. Zotli molim, xo'sh-xo'sh, Sutli molim, xo'sh-xo'sh.* («Qo'shiqlar»).

**Sutning yog'liligi** – sut tarkibidagi yog' miqdori, sutning sifat ko'rsatkichlaridan biri.

**Sut sanoati** – sutdan turli sut mahsulotlari ishlab chiqaradigan oziq-ovqat sanoati tarmog'i. Sut sanoati tarkibiga sariyog', sut, qatiq, qaymoq, smetana, quruq sut, sut konservalari, pishloq (sir), tvorog, brinza, muzqaymoq, kazein va b. mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi. O'zbekistonda XX asrning 20-yillari oxirlariga qadar sutdan xonaki



usullarda qaymoq, qatiq, ayron, suzma, qag'anoq, pishloq, qurt kabi mahsulotlar, qatichni kuvda pishib sariyog' tayyorlangan.

**Sut sog'ish qurilmasi** – sutni vakuum hosil qilib sog'ish uchun mo'ljallangan mashina va apparatlar majmui. Elektr dvigatel, vakuum nasos, pulsator, sog'ish stakanlari, kollektor, vakuum ballon, vakuum rostlagich, vakuummetr va sut quvurlaridan iborat. Elektr dvigatel yoki ichki yonuv dvigateli quvurlar tizimida vakuum hosil qilishga mo'ljallangan bo'lib, vakuum nasosni harakatga keltiradi. Truboprovod vakuum ballonni molxonadagi magistral quvur bilan tutashtiradi. Molxonadagi quvurlarga sog'ish jo'mraklari o'rnatilgan. Vakuumrostlagich quvurda muayyan vakuumni saqlab turadi. Quvurda vakuum haddan tashqari oshib ketsa, rostlagich klapani avtomatik ravishda ochiladi va undagi havo vakuumi kuchini kamaytiradi. Quvurlar tizimiga vakuum tekshirib turiladigan vakuummetr ham o'rnatiladi. Sut sog'ish qurilmasi sut sog'ish stanogi, sut yig'iladigan va saqlanadigan idish, yelinni yuvish va sog'ish apparatlarini dezinfeksiya qilish qurilmalari, shuningdek sun'iy sovitish moslamalari va h. k. bilan butlanadi.

**Sut tishlar** – sut emizuvchi hayvonlardagi dastlabki generatsiyalangan tishlar; ular odatda tushib, o'rmiga doimiy tishlar chiqadi.

**Sutchilik** – 1. Sut sotish bilan shug'ullanish. Sutchilik qilmoq. *Shu to'rtinchi yilda a'zoldardan yig'ilgan sut, qatiq, suzma va sariyog'larni sotish uchun shaharda sutchilik do'koni ochildi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

2. Sut yetishtirish. Sutchilikni rivojlantirish. Sutchilik fermasi.

**Suvloq** – daryo va, umuman, suv havzalarining hayvonlar, mollar suv ichadigan joyi. Mollarni suvloqda sug'ormoq. *Ular [turnalar] goho suvloqqa borib cho'milgandan keyin ham iliq qumloqda turib, patlarini shu xilda quritishar edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»). *Oy sinig'i to'la suvloqqa Sharsharaday quyilgan yollar. Bu yollarni silar mehribon Shabbodalar – ma'yus ayollar.* (Sh. Rahmon, «Uyg'oq tonglar»).

**Suvluq** – yuganning ot og'ziga solinadigan metall qismi, suvliq. *Suvlug'ini chaynatib, Yo'lda otini o'ynatib, Cho'lda ketib boradi, Bir qalandar yo'l tortib.* («Nurali»). *Ot suvlug'ini chaynab, beknini obqochib ketyapti.* («Go'ro'g'lining tug'ilishi»).

**Suvot** – shv. Mol, ot sug'oriladigan yoki yuviladigan joy. Ot suvot. *Qo'zilarni tushda suvotga olib borib yuvamiz.* (N. Fozilov, «Insho»).

**Suvpiyoz** – sersuv, botqoqli joylarda o'sadigan o'simlik.

**Suvsar** – 1. Qimmatbaho, qalin va yumshoq mo'ynali yirtqich sutemizuvchilar oilasining bir turi va uning mo'ynasi. Suvsar terisi. *Suvsarlar qimmatli mo'ynasi uchun ovlanadi, bir qancha turlari mo'ynachilik fermalarida boqiladi.* («O'zME»).

**Tosh suvsar** – suvsarning tog'li joylarda yashaydigan turi.

2. Shu hayvonning mayin baroq terisi. Suvsar telpak. [ Savdogarlar] *Yosh kiyik muguzlari, bog'lam-bog'lam suvsar terilar va boshqa narsalarni olib kira boshladilar.* (M. Osim, «Karvon yo'llarida»).

**Suvsiz** – 1. Ichida suvi yo‘q. *Suvsiz idish.*

2. Tarkibida suvi yo‘q. *Suvsiz kislo-ta.*

3. Suv bilan ta‘min etilmagan, suv chiqarilmagan. *Suvsiz yerda tol bo‘lmas.* (Maqol). *Bular suvsiz cho‘ldan o‘tib, Borayotir yo‘llar tortib.* («Malikai ay-yor».) *Daydi shamol changli, dag‘al yaproqlarni, suvsiz ariq yoqalaridagi kir, sarg‘aygan ajriqlarni titkilab, mung-li shovulladi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

4. Suvi, shirasi kam. *Suvsiz behi.*

**Suvsiramoq** – suvga juda ham tashna bo‘lmoq, suvga tashnalikdan qurishmoq, qaqramoq. *Suvsiragan g‘o‘zalar.*

**Suvsoq** – suvga tashna, suvsiragan, chanqoq. Suvsoq yerlar. *Suvsoq g‘o‘zalar. Suvsoqning o‘yi – suvda.* (Maqol). [To‘g‘onbek] *Osiyo cho‘llarining Jahannam yong‘iniga, qum to‘lqinlariga chidash berib, och, suvoq kezishni mashaqqat hisob-lamas edi.* (Oybek, «Navoiy»).

**Suvsoqlik** – suvga tashna bo‘lishlik.

**Suvxo‘r** – suvni ko‘p ichadigan. *Suvxo‘r mol.*

**Suvchi** – 1 q.x. Ekinlarni, xususan, g‘o‘zalarni sug‘oruvchi dehqon, sug‘orish bo‘yicha mutaxassis. Mohir suvchi. *Suvchi, terimchi yoki mexanizator chanqab borayotganda, oldida kalladay qovun yoki tarvuz do‘ppayib ko‘rinsa, chan-qoqbosti qiladi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»). *Huv yuqoriroqda, daryo-ning yoqasida bir qora ko‘rindi. «Bul o‘tinchimi, suvchimi, bundan bir savol so‘rayin», deb Avazxon burilib bordi.* («Gulshanbog‘»).

2. Suv keltiruvchi, suv bilan ta‘min etib turuvchi xodim (mas., traktorchilar brigadasida).

3 tar. Suv tashib berish, suv bilan ta‘minlash ishlarini bajaruvchi kishi. *Buxoroda esa suvchini meshkobchi deb atashgan.* («O‘zME»).

4. Suv sotuvchi.

**Suvchilik** – ekinlarni sug‘orish bilan shug‘ullanish; suvchi kasbi. Suvchilik qilmoq. *U [Tojiddin] suvchilikning suvi-ni ichib yurgan odam.* (A. Abdukurimov, «Cho‘l burguti»).

**Suv xo‘jaligi** – xalq xo‘jaligi tar-mog‘i; suv resurslarini o‘rganish, hisob-ga olish, undan kompleks foydalanish-ni rejalashtirish, sug‘orish sistemalarini ekspluatatsiya qilish, yer osti va yer usti suvlarini ifloslanishdan, tugab qolishdan saqlash, shuningdek, uni iste‘molchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi.

**Suv berish me‘yori** – 1 ga may-donga bir marta suv berishda sarflangan suv miqdori tushuniladi. Mavsumiy suv berish me‘yori deb sug‘oriladigan 1 ga maydonga mavsum davomida beriladigan umumiy suv miqdoriga aytiladi.

**Suv o‘lchash qurilmalari** – mai-shiy va texnika maqsadlarida ishlatish, q.x. ekinlarini sug‘orish va boshqalarga iste‘mol qilinadigan suv sarfini hisobga olish uchun mo‘ljallangan gidrotexnika inshootlari va texnika asbob-uskunala-ri.

**Suvo‘t** – sodda tuzilgan va, asosan, suvli muhitda o‘sadigan turli o‘tlarning umumiy nomi. Qizil suvo‘tlar. Yashil suvo‘tlar. *Ayollar va bolalar ixtiyori-da qolgan ekinzorlar chuqur, yaxshi ishlanmaganidan yovvoyilashib, ham-mayoqni sho‘ra, g‘umay, suvo‘t, tikan bosib ketgan.* (S. Nurov, «Narvon»). *Suvo‘tlar eng qadimgi organizmlar bo‘lib, ulardan boshqa o‘simliklar ke-lib chiqqan.* («O‘zME»).

**Suv muhofazasi zonasi** – daryo, kanal, suv ombori va b. suv manbalarini eroziya mahsulotlari, kasal tarqatuvchi mikroorganizmlar, kimyoviy va organik moddalar bilan ifloslanishdan saqlash uchun xizmat qiladigan tabiiy o‘rmon yoki ekilgan daraxtzor mintaqasi.

**Suv muhofazasi o‘rmonlari** – suv manbalari va havzalarini ifloslanish va loyqa bosishdan saqlash, suv zaxiralari ko‘paytirish, ularning muntazam to‘yinishini ta‘minlashga xizmat qiladigan tabiiy va maxsus barpo etilgan o‘rmonzorlar. Suv muhofazasi o‘rmonlari shuningdek, suvni tartibga solish va tuproqni himoya qilish vazifasini ham bajaradi; tuproqni shamol va suv eroziyasidan saqlaydi; shamol tezligini pasaytiradi, namlikning tuproq ostiga o‘tishini kuchaytiradi; selning oldini oladi; tuproq eroziyasi mahsulotlarini ushlab qolib, havo va suvni tozalaydi. Suv muhofazasi o‘rmonlari suv oqimi o‘zgaruvchanligini kamaytiradi.

**Suv olish inshootlari, suv olgichlar** – suv manbalari (daryo, ko‘l, suv ombori, yer osti suvlari va b.) dan sug‘orish, gidroenergetika yoki shu kabi tarmoqlarga suv olish uchun quriladigan gidrotexnika inshootlari. Dalalarni sug‘orish, yaylovlarga suv chiqarish, elektr stansiyalarga suv berish, aholi punktlari va sanoat korxonalarini suv bilan ta‘minlash uchun quriladi.

**Suv ombori** – to‘g‘onlar yordamida suvni yig‘ish va saqlash uchun quriladigan sun‘iy suv havzasi. Suv ombori oqimni fasllar va yillar bo‘yicha tartibga soladi, kanal va b. suv o‘tkazish inshootlari bilan birga hududlar bo‘ylab qayta taqsimlashga imkoniyat yaratadi.

**Suzag‘on II** – duch kelganni suzaveradigan; suzong‘ich, asov. *Sutsiz sigir suzag‘on bo‘lar.* (Maqol). *U [Polvon ota] mollardan qaysisi suzag‘on-u qaysisi gochag‘on – bir qarashdayoq payqardi.* (H. Nazir, «So‘nmas chaqmoqlar»).

**Suyak uni** – so‘yilgan mollar suyagidan yog‘sizlantirilib, bug‘da yelimsizlantirilib tayyorlanadigan va qishloq xo‘jaligi hayvonlariga, parrandalarga beriladigan mineral ozuqa. Suyak uni mineral moddalarga, ayniqsa, kalsiy (1 kg. da 245 g.) va fosfor (118 g.) ga boy. Asosan, omixta yemlarga, silosga, konsentrat ozuqalarga qo‘shib, maydalangan ildizmevalarga aralashtirilib beriladi.

**Suyuq o‘g‘itlar** – sanoatda ishlab chiqariladigan va tuproqqa suyuq holda solinadigan mineral moddalar. Suyuq o‘g‘itlarga suvsiz ammiak (82 % azotli), suvli ammiak (18–20 % azotli), ammiakatlar (30–50 % azotli), kaliy tuzlarining eritmali (14 %  $K_2O$  li), fosfat kislotasi, suyuq kompleks o‘g‘itlar kiradi. Suyuq o‘g‘itlarni asosiy o‘g‘it holda va vegetatsiya davrida o‘simliklarni oziqlantirish uchun ishlatish mumkin. Ular tuproqqa shudgorlash yoki ekishdan oldin solinsa, tuproqqa yaxshi aralashadi, suv ta‘sirida yuvilib ketmaydi, hosilni ammiakli selitra solingandagina nisbatan oshiradi.

**Suzgich I** – suyuqliklarni turli xil mexanik aralashmalardan tozalovchi asbob, moslama; *filtr.* Sutni suzgichdan o‘tkazmoq. *Yantoqdan tayyorlangan dimlama suzgichdan o‘tkazib olinadi va vanada cho‘milganda ishlatiladi.* («Fan va turmush»).

**Suzgich II** – 1. Suv yuzida va, umuman, suyuqlik betida suzuvchi, tur-

li maqsadlar uchun belgilangan yengil narsa, detal; qalqovuch. *Qarmoq suzgichi. Karbyurator suzgichi. Suv yo'lini ko'rsatuvchi suzgichlar.*

2. Baliq va b. suv hayvonlarining suvda suzish (harakat qilish) a'zosi. *Baliqning quyruq suzgichi.*

**Suzgichli** – suzgichi bo'lgan, suzgichi bor. *Suzgichli jonivorlar. Suzgichli kamera. Po'kak suzgichli qarmoq.*

**Suzma** – surp xaltaga solib, osib qo'yilgan qatiqning zardobi sizigach hosil bo'lgan sut mahsuloti. Asosan Markaziy Osiyo va Qozog'istonda uy sharoitida tayyorlanadi. Qatiq yoki kuvda sariyog'i olingan ayronni surp xaltaga solib, 3–5 soat ilib qo'yiladi. Qatiq va ayrondagi vitaminlar, organik moddalar to'la saqlanib qoladi. Suzma to'yimli va parhez mahsulot hisoblanadi. Tuz va ko'katlar qo'shib iste'mol qilinadi, qurt tayyorlanadi. *Yog'li suzma. Suzma qurut. Suzma xalta. Murchni suzmaga qo'shib yeyilsa ishtahani ochadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek taniq taomlari»). *Dasturxonda yana o'sha qurut, suzma, so'k paydo bo'ldi, saldan keyin eshikda bir guruh qizlar ko'rindi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»). *Nazar pishiq o'rog'ini suzma xalta osilgan tutga sanchib, xonaga yo'naldi.* («Yoshlik»).

**Suzmoq I – 1.** Suzgich yoki boshqa biror narsa orqali o'tkazib, mexanik aralashmalardan tozalamoq. *Benzinni mashina bakiga suzib solmoq.*

2. Suyuq narsalarning kerakli qismini ajratib olmoq. Sirka suzmoq. Suzib sutning qaymog'ini olmoq. *U kishi [boy] sho'rvani pishiradi, lekin moyini suzib ichadi, go'shtini yeydi, menga taqir su-*

*yak, bir kosa jirsiz suv keltiradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Suzmoq III** – shoxi bilan urmoq, shoxini sanchmoq. *Echking ajali yetsa, qassobni suzar.* (Maqol). *Ha, asov sigirning fe'lini bilmasang, oldiga yo'latmaydi – suzadi, tepadi, sut bermaydi.* (M. Jo'ra, «Quyoshdan nur emganlar»).

**Suzong'ich** – ayn. **suzag'on II.** *Suzong'ich sigir. [Payg'amov:] Noddonni siylasang, chorig'i bilan to'rga chiqadi. Ilmiy xodim, deb suzong'ich ho'kiz olib kelgan ekanmiz.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Sug'orish 1. Sug'ormoq** (*fl. har. n.*) – tuproqni manbalardan olingan suv bilan sun'iy namlash, melioratsiyaning bir turi. Sug'orish tuproqning o'simlik ildizi tarqalgan qismida eng qulay suv rejimini hosil qiladi. Bu esa o'simliklarning tuproqdan oziq moddalar – mineral va organik o'g'itlarni o'zlashtirishiga qulay sharoit yaratadi va qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishni ta'minlaydi. Sug'orish yer hosildorligini sug'orilmaydigan sharoitlarga qaraganda 8–10 marta oshiradi, intensiv dehqonchilikni joriy etish imkoniyatini beradi. *G'o'zalarni sug'orish. Tomchilatib sug'orish. Jildiratib sug'orish. Aylanma suv etakka borib yetganda, sug'orish tamom bo'ladi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

2. Ekin maydonlarini suv bilan ta'min etish, suv chiqarish chora-tadbirlari va vositalari majmui; irrigatsiya. Sug'orish rejimi. *Sug'orish shoxobchalari. Suvni tejash taqozosi tufayli dehqonchilikda kanal va sug'orish tar-*

moqlari o'zaniga temir-beton nov, quruv yoki plyonka yotqizilyapti. («Fan va turmush»).

**Sug'orish normasi** – qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun vegetatsiya davri davomida maydon birligi zarur bo'lgan suv miqdori, m<sup>3</sup>/ga bilan o'lchanadi.

**Sug'orish rejimi** – almashlab ekish tarkibidagi ekinlarga suv berish normasi, muddati va sonini optimal uyg'unlashtirish; muayyan sharoitlarda ekinlardan eng yuqori hosil olishni ta'minlaydi. Sug'orish rejimini belgilash uchun turli qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda zarur bo'lgan suvning umumiy sarfi (suv iste'moli miqdori) ularni parvarish qilishning ayrim bosqichlariga nisbatan aniqlanadi.

**Sug'orish sistemasi** – muayyan yer maydonlari va uni sug'orishga xizmat qiladigan gidrotexnika (suv olish inshootlari, kanallar, trubaprovodlar va b.) va yordamchi inshootlar (yo'llar, ko'priklar va b.) majmui.

**Sug'orish shoxobchalari** – sug'orish manbalaridan sug'oriladigan yerlarga suv olib boruvchi doimiy va muvaqqat suv o'tkazgichlar (kanal, trubaprovodlar) tarmog'i; sug'orish sistemasining eng muhim tarkibiy qismi.

**Sug'orma: sug'orma (obikor) dehqonchilik** – suv bilan yetarli ta'minlanmagan hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orib yetishtirish. Sug'orma sharoitlar. Dehqonchilikning eng intensiv turlaridan biri. *Sug'orma dehqonchilik ekinlardan eng yuqori va barqaror hosil yetishtirishni ta'minlaydi, lalmikor dehqonchilikka nisbatan 8–10 marta*

*ko'proq hosil beradi. Bunday sharoitlarda yerdan samarali foydalanish, takroriy va qo'shimcha ekinlar ekish mumkin. («O'zME»).*

**Sug'ormoq – 1.** Ekin maydonlarini, o'simliklarni suv bilan ta'minlamoq, suv qo'ymoq. *Ekin sug'ormoq. G'o'zalarni sug'ormoq. Yig'lab-yig'lab marza olsang, kulib-kulib sug'orasan.* (Maqol). *Eshikka yarim bo'yra eni o'sma ekan bo'lsalar, shuni ham obkashda suv tashib sug'orishgan.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**2.** Suv bermoq, suv ichirmoq. Qo'y-larni sug'ormoq. *Tuyani cho'mich bilan sug'orib bo'lmas.* (Maqol). *Toshtemir quduqdan bir necha marta suv chiqarib, otlarni sug'ordi, oxurlarga beda soldi.* (H. G'ulom, «Feruz»).

**3 tex.** Toblamoq. **Po'latni sug'ormoq.**

**Sug'oruvchi – 1.** **Sug'ormoq fl. sfdsh.**

**2 ayn. suvchi 1.**

**Sug'urta** – tabiiy ofatlar (zilzilalar, suv toshqini, yog'in va b.), turli baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. *Sug'urta kompaniyasi. Sug'urta polisi. Sug'urta shartnomasi. Sug'urta qoplamasi. – Hukumatimizga rahmat. Shartnoma bo'yicha sug'urta idorasidan pul oldim, – dedi shofyor yigit.* (N. Safarov, «Olovli izlar»). *Odamlarni, uy-joylarni, mol-hollarni sug'urta qilib yuribmiz.* (N. Aminov, «Yolg'onchi farishtalar»). *Pirimqul moliya – Mustafoning ukasi, Galatepada tomorqa solig'iyu sug'urta pulini yig'adi.* (M.M. Do'st, «Galatepa qissalari»).

**Sug'urtalamoq** – sug'urta qilmoq yoki qildirmoq. Mol-mulkni sug'urtalamoq. *Sug'urtalash majburiy va ixtiyoriy shakllarda amalga oshiriladi.* («O'zME»).

**Sug'urtalanuvchi** – sug'urta qilinuvchi shaxs yoki tomon. *Sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urtalanuvchi tezda bu haqda sug'urta kompaniyasiga xabar berishi zarur.* («O'zME»).

**Sug'urta kompaniyasi** – sug'urta faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan yuridik shaxs, sug'urta xizmatlari bozorining professional ishtirokchisi.

**Sug'urta shartnomasi** – fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) bilan sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) o'rtasida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari asosi.

**Sug'urta qoplamasi, sug'urta puli** – sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urtalanuvchiga to'lanadigan pul mablag'lari.

**Sun'iy qochirish** (*urug'lantirish*) – q.x. hayvonlarini qochirish (*urug'lantirish*) uchun erkak hayvonlardan olingan spermani kuyikkan urg'ochi hayvon jinsiy yo'liga (bachadon bo'yniga yoki bachadonga) sun'iy kiritish. Seleksiya – naslchilik ishida eng mahsuldor naslli erkak hayvonlardan unumli foydalanish, hayvonlar zotlarining nasl sifatlarini jadal yaxshilash maqsadlarida qo'llanadi.

**Sushilka** [*r. sushit* – «quritmoq, namini, suvini qochirmoq»] *fl. dan yasalgan ot* – 1. Biror narsani quritish uchun xizmat

qiladigan qurilma. *Gaz sushilka. Elektr sushilka.*

2. Shunday qurilma o'rnatilgan xona, joy. Paxta sushilkasi. [*Jo'raboy*] *Kechalari sushilkada, punktda yurib, alla-pallada uyiga qaytar edi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

**Svodka** [*r. svesti* – «to'plab xulosa chiqarmoq, biror shaklga keltirmoq»] *fl. dan yasalgan ot* – *esk.* Biror ishning borishi, rejaning bajarilishi va sh.k. haqidagi ko'rsatkichlar ma'lum tartibda joylashtirilgan yozma ma'lumot. *Paxta terimining borishi haqidagi svodka. G'alla frontidan olingan svodkaga bir nazar tashlang-a, respublikamiz olgan majburiyatini bajaray deb qoldi.* (Gazetadan).

**So'k** – tozalangan, oqlangan tariq. Xom so'k. Qovurilgan so'k. So'k oshi. Ovqatga so'k solmoq. So'k tolqon. *Das-turxonda yana o'sha qurt, suzma, so'k paydo bo'ldi, saldan keyin eshikdan bir guruh qizlar ko'rindi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»). *Palossiz zax sementda yotasan, Har kuni yeydigan bir cho'mich yovg'on so'k oshi yoki suli bo'tqadan ham mahrum bo'lib, ikki yuz gramm non va suvga kuning qoladi.* («Yoshlik»).

**So'kchak** – qurt boqish uchun qurilgan, odatda, bir necha qavatli maxsus stellaj. Tut ipak qurtlarini boqish va oziqlantirish uchun qo'llaniladigan maxsus qurilma, qurtlar uchun oziqlanish maydoni. *Hozir klubga kelayotib, bahor paytlari klub ichida so'kchaklar taxlanib, qurt boqilishi esimga tushdi.* (O. Muxtor, «Buxorolik bir yigit»). *Gulzira, odaticha, qo'lini orqasiga qilib,*

**Sug'urtalamoq** – sug'urta qilmoq yoki qildirmoq. Mol-mulkni sug'urtalamoq. *Sug'urtalash majburiy va ixtiyoriy shakllarda amalga oshiriladi.* («O'zME»).

**Sug'urtalanuvchi** – sug'urta qilinuvchi shaxs yoki tomon. *Sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urtalanuvchi tezda bu haqda sug'urta kompaniyasiga xabar berishi zarur.* («O'zME»).

**Sug'urta kompaniyasi** – sug'urta faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan yuridik shaxs, sug'urta xizmatlari bozorining professional ishtirokchisi.

**Sug'urta shartnomasi** – fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) bilan sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) o'rtasida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari asosi.

**Sug'urta qoplamasi, sug'urta puli** – sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urtalanuvchiga to'lanadigan pul mablag'lari.

**Sun'iy qochirish** (*urug'lantirish*) – q.x. hayvonlarini qochirish (*urug'lantirish*) uchun erkak hayvonlardan olingan spermani kuyikkan urg'ochi hayvon jinsiy yo'liga (bachadon bo'yniga yoki bachadonga) sun'iy kiritish. Seleksiya – naslchilik ishida eng mahsuldor naslli erkak hayvonlardan unumli foydalanish, hayvonlar zotlarining nasl sifatlarini jadal yaxshilash maqsadlarida qo'llanadi.

**Sushilka** [*r. sushit* – «quritmoq, namini, suvini qochirmoq»] *fl. dan yasalgan ot*] – 1. Biror narsani quritish uchun xizmat

qiladigan qurilma. *Gaz sushilka. Elektr sushilka.*

2. Shunday qurilma o'rnatilgan xona, joy. Paxta sushilkasi. [*Jo'raboy*] *Kechalari sushilkada, punktda yurib, alla-pallada uyiga qaytar edi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

**Svodka** [*r. svesti* – «to'plab xulosa chiqarmoq, biror shaklga keltirmoq»] *fl. dan yasalgan ot*] – *esk.* Biror ishning borishi, rejaning bajarilishi va sh.k. haqidagi ko'rsatkichlar ma'lum tartibda joylashtirilgan yozma ma'lumot. *Paxta terimining borishi haqidagi svodka. G'alla frontidan olingan svodkaga bir nazar tashlang-a, respublikamiz olgan majburiyatini bajaray deb qoldi.* (Gazetadan).

**So'k** – tozalangan, oqlangan tariq. Xom so'k. Qovurilgan so'k. So'k oshi. Ovqatga so'k solmoq. So'k tolqon. *Dasturxonda yana o'sha qurt, suzma, so'k paydo bo'ldi, saldan keyin eshikdan bir guruh qizlar ko'rindi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»). *Palossiz zax sementda yotasan, Har kuni yeydigan bir cho'mich yovg'on so'k oshi yoki suli bo'tqadan ham mahrum bo'lib, ikki yuz gramm non va suvga kuning qoladi.* («Yoshlik»).

**So'kchak** – qurt boqish uchun qurilgan, odatda, bir necha qavatli maxsus stellaj. Tut ipak qurtlarini boqish va oziqlantirish uchun qo'llaniladigan maxsus qurilma, qurtlar uchun oziqlanish maydoni. *Hozir klubga kelayotib, bahor paytlari klub ichida so'kchaklar taxlanib, qurt boqilishi esimga tushdi.* (O. Muxtor, «Buxorolik bir yigit»). *Gulzira, odaticha, qo'lini orqasiga qilib,*

so'kchaklar orasidan bir aylanib o'tdi. («Sharq yulduzi»).

**So'lak** – so'lak bezlaridan ishlab chiqariladigan yopishqoq suyuqlik; og'iz suvi. *Tamaki so'lak bezlariga ta'sir etib, uning ishlab chiqarilishini va tarkibini o'zgartiradi.* («Saodat»). *So'lak og'iz bo'shlig'iga tushgan bakteriyalarni nobud qilish xususiyatiga ham ega.* («O'zME»).

**So'lg'in** – 1. So'ligan, so'liq. *So'l-g'in yaproqlar asta jonlana boshladi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»). *Saxiy janub quyoshi shitob bilan tik ko'tarildi. O't-alaf ham, gulchechak ham issiqqa dosh berolmay, so'lg'in bosh egdi.* (S. Abduqahhor, «Janubiy nuqtada»).

2. Fayzini yo'qotgan, fayz-futurdan ketgan. *Sal so'lg'in, qalin tutzorlarga kuz hali qo'l urmagan bo'lsa ham, endi yoz emas edi.* («Yoshlik»).

**So'na I:** *so'na pashsha* – ikki qanotlilarga mansub, kalta mo'ylovli hasharat: urg'ochisi hayvonlar, ba'zan odam qonini so'radigan, erkagi gullar shirasi va b. suyuqliklar bilan oziqlanadigan yirik pashsha. [Mullado'st:] *O'rgilay, taqsir! Bebxatning oshiga pashsha ham, kana ham, so'na ham, qolaversa, shaloplab olib mana shunaqa azroyil ham, munkarnakir ham tushaveradi.* (Hamza, «Tanlangan asarlar»).

**So'ngak** – suyak, ustuxon. *So'ngak oshbo'lmas, nodon boshbo'lmas.* (Maqol). *Kamina: – Oyog'imda bodim bor, so'ngaklarim hali butun, shukr, zamona to'qlik, iligim to'la, – dedim.* (N. Aminov, «Qahqaha»). *Endi nima qilay, endi dashti biyobonga bosh olib ketaymi?! U yoqda*

*so'ngagimniyam hech kim topolmaydi.* («Yoshlik»).

**So'qa** [r. *soxa* – tirgavuch, tamba; omoch] – Yer haydash uchun ishlatiladigan cho'yan tishli sodda asbob; omoch. *Yerni so'qa, eski omoch emas, traktor haydaydi. G'o'zaga mashina ishlov berib, hatto paxtani mashina terib beryapti.* (N. Safarov, «Olovli izlar») *O'shanda so'qa bilan yer haydagan dehqonlar, don sepib bo'lgach, katta to'y o'tqazishar ekan.* (A. Muhiddin, H. Tojiboyev, «O'tash qalbli iz»).

**So'qim** – 1. So'yish uchun semirtirilgan, bo'rdoqi qoramol (buqa, ho'kiz, sigir). *So'qim go'shti. So'qim so'ymoq. So'qimga boqmoq. Xaloyiqqa endi ob-u osh berdi, Qancha qo'y-u qancha so'qimlar so'ydi.* («Nurali»).

2 *ko'chma. salb.* Ishlamay yeb yotuvchi, davangirday sog' odam haqida. *So'qimdek yigit.*

**So'qmoq I** – 1. Odamlar qatnovi o'z-o'zidan yuzaga kelgan yolg'izoyoq yo'l. *Mana shu adirlar bag'ridan bir so'qmoq o'tgan.* («Yoshlik») *Sahro so'qmog'ida boshin egib jim, Bir kimsa ketmoqda, bilmasman, u kim.* (A. Oripov, «Yillar armoni»).

2 *ko'chma.* Kishi faoliyatida, hayotda bosib o'tgan yoki bosib o'tiladigan yo'l.

**So'rgich** – bot. Gulning onalik changini tutib qoladigan qismi, tumshuqchasi.

**So'ri** [a. – karavot, koyka] – 1. Tok, qovoq va sh.k. chirmashuvchi o'simliklarni o'stirish, ko'tarib qo'yish uchun shiypon shaklida, tik yoki qiya qilib ko'tarilgan moslama, qurilma. *Tok-*



*larni so'riga olmoq. Tokni so'rida o'stirish usuli xalq tajribasi asosida vujudga kelgan.* («O'zME»).

2. Narsa qo'yish, yoyish uchun qurilgan, to'rt oyoqqa o'rnatilgan taxta supa.

3 *shv.* Katta taxta karavot.

**So'ritok** *ayn. so'ri* – 1. *Uzum katta-katta bog'larda ishqom qilib o'stirilsa, shahar va qishloq hovllarida asosan so'ritok usulida yetishtiriladi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**So'ruvchilar, trematodalar** (*Trematoda*) – yassi chuvalchanglar sinfi. Hayvonlar, ba'zan odamning ichki paraziti. To'g'ri ichakli kiprikli chuvalchanglardan kelib chiqqan.

**So'ta** (*spadix*) – bitta yo'g'on etli o'qda joylashgan to'pgul. Bandsiz gullari boshqadagi kabi zich joylashadi (mas., kuchala, igir va b.). Makkajo'xorining to'pmevasini so'ta deb ataydilar.

**So'yil** – uzun yo'g'on kaltak, ta-yoq. *Ketmon, cho'kki [cho'kich], o'roq, so'yil ko'targan jabrdiyda kosiblar, dehqonlar, chorikorlar, qo'shchilar to'dalashib, Xiva sari otlandi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**So'yim vazni** – go'sht nimtalari-ni-ning og'irligiga ichki yog' og'irligi qo'shilganligi tushuniladi. So'yim vazni hayvonning turi bo'yicha farq qiladi.

**So'yim chiqimi** – chorva hayvon-larini so'yim vaznining so'yishdan ol-dingi tirik vazni nisbati. Qoramol va qo'ylarda, otlarda so'yim vazni de-ganda boshsiz, oyoqsiz, terisiz, dum-siz, ichki a'zolarsiz qonsizlantirilgan

nimta go'sht va yog' miqdori tushuni-ladi.

**So'ymoq I** – 1. Bo'g'ziga tig' tortib o'ldirmoq, bo'g'izlamoq. Qo'y so'ymoq. Tovuq so'ymoq. *Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin.* (Maqol). [*Hoji:*] *qudala-ringni nima bilan kutishni bo'lsa, o'zing bilasan: tuya so'yib chorlaganingda ham kelmaydirgan kishilar!* (A. Qodiriy, «O't-gan kunlar»).

2. Kesmoq, bo'laklamoq, kesib-kesib qo'ymoq (asosan qovun, tar-vuz, anor va sh.k. haqida). Qovun so'ymoq. *Kamoliddin mahdum nonni ushatib, patnisdagi anorni oldi-yu, avaylab so'ya boshladi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

**So'zan II** [*f.*] – dukkakililar oila-siga mansub, qumloq yerlarda o'sa-digan buta o'simlik, akatsiyaning bir turi.

**So'zanak II** [*f.*] – *shv.* Otni-ning pesh-nobi.

**So'g'on** – *shv.* Piyoz. *So'fi so'g'on yer, topilsa yo'g'on yer.* (Maqol).

**Schyot** [*r. schitat, schest* – «hisob-lamoq, sanamoq» *fl. dan yasalgan ot*] – *buxg.* 1. To'lov-hisob vara-qasi, to'lovnoma. Elektr puli to'lash uchun schyot. Bajarilgan ishga haq olish uchun schyot yozmoq. – *Boya nega aytma-ding? – dedi Abdumannof schyotni qo'liga olib.* (A. Qahhor, «Og'ayni-lar»).

2. Naqd pul mablag'larini qayd etuvchi moliyaviy hisob-kitoblar va majburiyatlarni aks ettiruvchi hujjat. *Tashkilotning bankdagi joriy schyoti. Schyotga pul o'tkazmoq. Schyotga yozib qo'ymoq.*

**Tabiiy tanlanish** – organizmlar evolyutsiyasining asosiy harakatlantiruvchi omili. Tabiiy tanlanish – yashash uchun kurashning natijasi bo‘lib, foydali individual o‘zgarishlarga ega bo‘lgan organizmlarning yashab, nasl qoldirishi, foydasiz o‘zgarishlarga ega bo‘lgani esa qirilib ketishi, ya’ni moslashgan formalarning yashab qolishi va moslashmagan formalarning nobud bo‘lishidan iborat biologik jarayon.

**Tabriz** [*f.* – Erondagi shahar – Tabriz nomidan] – O‘zbekistonda o‘sadigan uzum navlaridan biri va shu uzumdan tayyorlangan mayiz.

**Tadqiq** [*a.* – sinchiklab, batafsil tekshirish, sinash; aniqlash] – chuqur, sinchiklab o‘rganish ishi. ...*Ularda davr tuyg‘usi, zamon dardi va voqelik tadqiq chuqurlashib borayotir.* (Gazetadan).

**Tadqiq qilmoq** (yoki etmoq) – ilmiy asosda, sinchiklab, chuqur tekshirmoq, o‘rganmoq. ...*xullas, bu joylarni tadqiq etib, aniq bir fikrga kelish kerak, – deya Sheraliga qarab so‘zini yakunladi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

**Tadqiqiy** – ilmiy tekshirishga oid; ilmiy tekshirishga asoslangan. *Tadqiqiy ish. Tadqiqiy metod.*

**Tadqiqot** [*a.* – «tadqiq» *s. ko‘pl.*] **1.** Tadqiq ishi, tekshirish, o‘rganish ishi. *Buxoro yaqinidagi Qizbibi me‘moriy kompleksida keng planda tadqiqotlar olib borildi.* («Fan va turmush».)

**2.** Ilmiy tekshirish ishining natijasi. *Yangi kashfiyot va tadqiqotlarni ishlab chiqarishga joriy qilmoq muhimdir.*

**Tadqiqotchilik** – tadqiqot bilan mashg‘ul bo‘lish, tadqiqot ishlari. *Geo-*

*logiya sohasidagi tadqiqotchilik. Tadqiqotchilik bilan shug‘ullanmoq.*

**Tagil zoti** – XVIII–XIX asrlarda Uralda mahalliy qoramollarni golland va xolmogor zotlari bilan chatishtirish natijasida yaratilgan. Tashqi tomondan, Tagil qoramollari Xolmogor zotiga o‘xshaydi, ammo tanasi ixcham va oyoqlari qisqaroq (sigirlarning yag‘rin balandligi 125–128 sm), tanasi biroz cho‘zilgan (qiya uzunligi 153–156 sm); boshi o‘rtacha kattalikda, bo‘yni uzun, terining mayda burmalari bilan; ko‘krak chuqurligi 66–68 sm, eni 33–38 sm ni tashkil qiladi. Sigirlarning vazni 500 kg va undan ortiq. Yaxshi go’sht mahsuldorligiga ega: so‘yim chiqimi 54–57%. Go’sht uchun boqila boshlagan buqalar kuniga taxminan 0,8 kg vazn qo‘shadi, bir yilda 400–450 kg vaznga yetadi. Buzoqlarining tug‘ilish vazni 35 kg. O‘rtacha sut mahsuldorligi 4000–5000 l, sutning yog‘ miqdori 4,2%, ba‘zan 5,3% gacha va oqsil miqdori 3,7% dan ortiq.

**Tahlil** [*a.* – tarqalish, (kurtak) yozish; tekshirish, surishtirish; hal qilish, ochish] – **1.** Narsa, hodisa va sh.k. larni mohiyat, qonuniyat va b. jihatlardan tekshirish, o‘rganish ishi. Ilmiy tahlil. Estetik tahlil. *Fan uchun tajriba va faraz, qiyos va tahlil juda zarur.* (A. Rahmonov, «Hurmat-ehtirom»). *Adabiy tanqid esa ilmiy tadqiqot va tahlil yo‘li bilan yaratgan yangiliklarini o‘zi joriy qiladi.* (U. Normatov, «Talant tarbiyasi»).

**2.** Biror narsa, ma‘lumot va sh.k. ni ma‘lum nuqtayi nazardan o‘rganish, baholash.

3. Biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish. *Kimyoviy tahlil. Lingvistik tahlil. Soʻzning morfem tahlili. Sintaktik tahlil.*

**Tajriba** [*a.* – sinov, eksperiment; malaka, mahorat; biror xislatni, ish-harakatni sinab koʻrish] – 1. Muayyan maqsadda amalga oshiriladigan, bilish, aniqlash, sinash va sh.k. ga qaratilgan ish, faoliyat. *Tajriba oʻtkazmoq. Tajriba natijalari. Tajribada sinab koʻrmoq. Tajriba uchun ajratilgan uch gektar yer tizma togʻlarday bir-biriga ulanib ketgan adir etagida edi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»). *Klark Mahdining yurak urishini tekshirib koʻrdi-yu, tajribani bas qildi.* (S. Siyoyev, «Yorugʻlik»).

2. Amaliy ishda, hayotda oʻzlash-tirilgan, orttirilgan bilimlar, malakalar, uquqlar majmui. *Hayotiy tajriba. Pedagogik tajriba. Ilgʻorlarning tajribasini oʻrganmoq. Tajribalarni oʻrtoqlashmoq.*

3. Bir masala, yoʻnalishda dastlabki tarzdagi ish, harakat va uning mahsuli. Yosh ijodkorning birinchi tajribasi. *Oʻz gʻazallariga oʻzi taxmis bogʻlash tajribasini ham adabiyotimiz tarixida Navoiy boshlab berdi.* («OʻTA»).

**Tajriba dalasi** – 1. Qishloq xoʻjaligi sohasidagi tajriba muassasi; tajriba dalasida joyning tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda qishloq xoʻjaligi ekinlari yetishtirishning ratsional usullarini ishlab chiqish maqsadida dala tajribalari oʻtkaziladi. 2. Dala tajribalari oʻtkaziladigan yer uchastkasi. Qishloq xoʻjaligi ekinlarining biologik va agrotexnik xususiyatlarini, ularning turli tabiiy va xoʻjalik sharoitlarida yetishtirish usullarini oʻrganish uchun moʻljallanadi.

**Tajriba stansiyasi** – qishloq xoʻjaligi boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib boradigan muassasa. Qishloq xoʻjaligi ekinlarini yetishtirishda va chorvachilikda ilmiy jihatdan asoslangan usullarni yaratish uchun ishlab chiqarishga yaqin boʻlgan sharoitlarda tajribalar oʻtkazadi.

**Tajriba xoʻjaligi** – ilmiy-tadqiqot muassasasiga ilmiy tavsiyalarni sinab koʻrish maqsadlarida birlashtirib qoʻyilgan xoʻjalik. Odatda, bir-biridan tuproq-iqlim va xoʻjalik sharoitlari jihatidan farq qiladigan mintaqalarda joylashgan boʻladi. Tajriba xoʻjaligida ilmiy yangiliklar muayyan hududning sharoitlariga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitlarda tekshirib koʻriladi.

**Taka** – 1. Echkining erkagi; urgʻochi echkilarni qochirish uchun sogʻlom nasl olishda tanlab olinadigan zotli erkak echki. Echki va qoʻy poda (suruv)larini ergashtirib yurib, choʻponlar mehnatini yengillashtiruvchi jonivor. Uloqlik paytida bichib qoʻyilgan (erkaklik jinsi tomiri uzib qoʻyilgan yoki olib tashlangan) boʻlsa, koʻpincha «serka» deyiladi. *Togʻ takasi tek tursa, och qoladi.* (Maqol). *Kenja asta qoʻylar orasidan borib, qora takaning oyogʻidan mahkam ushladi.* (N. Fozilov, «Diydor»).

2. Turkman qabilalaridan birining nomi. Taka Turkman. ...*koʻchada yurgan kimsa borki, oʻqqa uchdi, taka yovmit qilichiga yoʻliqdi.* (S. Siyoyev, «Avaz»).

**Takroriy** – takror qilinadigan, takror bajariladigan, takror holdagi. Takroriy qurt boqish. Takroriy ekish. *Meʼmor xotini va qizining bir necha bor takroriy uqtirishlari natijasida uch soyabon arava, olti otni kiraga olib...* (Mirmuhsin, «Meʼmor»).

**Takroriy ekinlar** – 1. Daladagi asosiy ekin hosili o‘rib-yig‘ib olinganidan keyin o‘rniga ikkinchi marta ekiladigan ekinlar; ekilgan yilining o‘zidayoq hosil beradi. Kuzi iliq, uzoq davom etadigan sernam rayonlarda va sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida qo‘llaniladi. 2. Bir ekinning o‘zini bir maydonga bosim ikki yoki bir necha yil mobaynida qayta ekish. G‘o‘za, sholi, bug‘doy va b. ekinlar yetishtirishga ixtisoslashtirilgan zonalarda keng qo‘llaniladi.

**Taksa** – taksa, qat‘iy baho (narx); taksa bo‘yicha (qat‘iy baho bilan) sotmoq. *Taksa bo‘yicha haq to‘lash.*

**Taksatsiya** (lot. *Taxatio* – baholamoq) – unda maxsus ko‘rsatkichlar: mas., o‘rmon taksatsiyasida daraxtlar soni, yillik o‘shishi, tur tarkibi, yaqin yillarda kesishga mo‘ljallangan daraxtlar zaxirasi va b. qo‘llaniladi.

1. Baholash, baho belgilash.

2. Daraxtlarning (o‘rmondagi daraxtlarning) miqdorini va hajmini aniqlash;

3. Narsaning miqdorini va sifatini aniqlash. Hosil miqdori va sifatini aniqlash.

**Taktak** – arpaning bir turi; tog‘arpa. *Oysha xola ham tandirga yantoq, taktak unidan non yopishga urinayotganini o‘yladi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Talab va taklif** – bozor iqtisodiyotining fundamental tushunchalari. Talab (tovarlar va xizmatlarga talab) – xaridor, iste‘molchining bozorda muayyan tovarlarni, ne‘matlarni sotib olish istagi; bozorga chiqqan va pul imkoniyatlari bilan ta‘minlangan ehtiyojlari. Taklif – muayyan vaqtda va muayyan narxlar bilan bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin

bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori bilan ifoda etiladi; taklif ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larning o‘z tovarlarini sotishga (bozorga) taklif etish istagi.

**Tallon** – 1. O‘n ikki yoshli ot.

2 *ko‘chma.* Juda qari, munkillagan chol. *Buni haydang, qo‘ya ko‘rmang! Bu chatoq bir shumki, Qosh-u mujjangni terib, Ko‘sa-yu tallon qiladir.* (Hamza).

**Tamaki I, Chilim tamaki** (*Nicotiana tabacura L.*) – ituzumdoshlar oilasiga mansub, bir yillik qimmatbaho texnika ekini. Tamaki chekiladigan narsalar ishlab chiqarish uchun xomashyo olish maqsadida ekiladi. Tamakida nikotin degan alkaloid bor. Tamaki faqat o‘z-o‘zidan changlanadigan o‘simlik bo‘lsa-da, ammo ba‘zan chetdan ham changlanadi, bu xususiyatidan seleksiyada foydalaniladi. Tamakining vegetatsiya davri 110–125 kun. Urug‘ida texnikada ishlatish mumkin bo‘ladigan 30–35% moy bor. Tamaki almashlab ekish maqsadida yengil tuproqda ko‘chat qilib ekiladigan yerga undan oldin don ekinlari, ko‘p yillik va bir yillik o‘tlar, xususan sudan o‘ti ekilsa, yaxshi natija beradi. Tamaki hosili yiliga 5–7 marta yig‘ib olinadi. Bunda pastdagi yaruslardan yuqori yarusga qarab yetilib borgan barglar avval olinadi.

**Tamaki II** [*a.* yoki *f.* – *isp. Tabaco*] – tomatdoshlar oilasiga mansub bir va ko‘p yillik o‘t o‘simliklar turkumi, narkotik o‘simlik. Yirik bargli o‘tsimon o‘simlik va shu o‘simlikdan quritib tayyorlanadigan chekimlik. Tamakining 60 dan ortiq turi ma‘lum. Achchiq tamaki. Kuchsiz tamaki. Tamaki mahsuloti. Tamaki chekmoq. *1958-yilda 120 gektarga tamaki ekilgan edi.* («Mushtum»). *Emin unga tamaki xaltasini uzatdi: – Xumo-*

ringni yoz, oshnam, qo'lbola tamaki. (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Tamakichilik** – o'simlikshunoslikning tamaki yetishtirish va undan chekish materiallari va nikotinli preparatlar tayyorlash bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Tamaki yer sharining ko'p mamlakatlari-da, xususan, Shimoliy Amerika, Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Turkiyada ko'p ekiladi. MDH da tamaki janubiy tumanlarda, Qrim, Kavkaz, Krasnodar o'lkasida, Ukraina, Moldaviya, Markaziy Osiyo respublikalari va Qozog'istonda yetishtiriladi. O'zbekistonda tamaki, asosan, Samarqand viloyatining Urgut tumanida ekiladi.

**Tamg'a** – 1. Narsa, mol, mahsulot va sh.k. ni ajratish, hisobga olish yoki ularning kimga tegishligini ko'rsatish uchun qo'yiladigan, bosiladigan belgi. Fabrika tamg'asi. *Toshkent tamg'asi bosilgan chinni buyumlarni O'rta Osiyo respublikalarining barcha xonadonlarida uchratish mumkin.* (U. Ma'rupov, «Ustoz»).

2. Qadimda mahbuslarning tanasiga belgi qo'yish, bosish uchun qizdirib ishlatilgan asbob va shu asbobni bosishdan hosil bo'ladigan belgi, iz.

3. Ot, mol va sh.k. ning tanasiga yoki tana a'zolaridan biriga belgi bosish uchun qizdirib ishlatiladigan asbob va shu asbobni bosishdan qoladigan belgi, iz. Shuningdek, kuydirish, bo'yoq surtish, qirqish va b. usullar bilan chorva mollaring teri qoplamiga belgi qo'yish. *Otga tamg'a bosmoq. Qo'yning qulog'i-dagi tamg'a.*

4 ayn. **gerb.**

**Ta'minot** [a. – «ta'min» s. ko'pl.] – 1. Kerakli narsalarni muhayyo qilib yetkazib berish; yashash, ishlash uchun

zarur narsalarga bo'lgan ehtiyojni qondirish. *Ijtimoiy ta'minot. Davlat ta'minoti. Ta'minot bo'limi. Ta'minot ham to'la yo'lga qo'yilmagan: gohi yoqilg'i yetkazib berilmaydi.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

2. Yashash, ishlash uchun kerakli pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi narsalar majmui. *...lashkar ta'minotini ziyoratchilarning nazr-niyozlariga yuklaganlar.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Ta'mir** [a. – (yer)ni ishlash, o'zlashtirish; qurish, qurilish; tuzatish; obod qilish] – esk. kt. 1. Kishi kuchi va ixtiyori bilan inshoot, bino, joy va sh.k. ni qurish, yangidan yaratish. *Tabiat turfa tuzmish tarh-u ta'mir qilib bog'-u chaman shaklida tasvir.* (Habibiy). [Xudoyorxon] 1288-(hijriy) yilda *Qo'qonning eski qalandarxonasini buzib, yangidan ta'mir qildi.* (A. Qodirov, «Mehrobdan chayon»).

2. Biron narsa, obyektini buzilgan, singan, yirtilgan joylarini tuzatish, yaxshilash va shu yo'l bilan yaroqli holga keltirish. *Hamma hasharchilar orolga o'tib olganlaridan keyin, ta'mir ishi jadallab ketdi.* (M. Osim, «Temur Malik»).

**Ta'mli** – 1. Ta'mga ega. *Isiriq tuk-siz, badbo'y va achchiq ta'mli ko'p yillik o'tdir.* («Fan va turmush»).

2. Ta'mi, mazasi yaxshi; mazali, laz-zatli, totli. *Ta'mli ovqat.*

**Ta'msiz** – ta'mi, mazasi yo'q; bema-za, lazzatsiz, totsiz. *Ta'msiz qovun.*

**Tana II** [f:] – (qoramolchilikda) urg'ochi yosh mollar guruhi. Bir-ikki yoshli urg'ochi buzoq. Ularning yoshi buzoqlar guruhidan boshlanib, 10–12 oyligidan to jinsiy voyaga yetib, bo'g'oz bo'lishiga (24–30 oyligiga) qadar davom etadi. *Ha,*

*o'sha yili dadam bilan kolxoz tanalarini boqdik.* (S. Anorboyev, «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar»). *Ketayotir navkarlar So'na quvgan tanaday.* («Oysuluv»).

**Tanjer burchog'i** (*Lathy – rys tingtonus oL.*) – dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simlik. Afrikaning shimoli-g'arbida va Ispaniyada yovvoyi holda o'sadi. Jazoir (Aljir), Marokash, Amerikaning janubi va Avstraliyada ekiladi. Ko'kpoyasi va pichanini uy hayvonlari xush ko'rib yeydi, urug'ini maxsus ishlovsiz berib bo'lmaydi. Gektaridan 60 s dan tortib (Ukrainada) 700 s gacha (Abxaziyada) ko'kpoya, 10–12 s urug' hosil beradi.

**Tanlanish 1. Tanlanmoq** (*fl. har. n.*)

**2: tabiiy tanlanish** – yashash uchun kurashning natijasi bo'lib, jonli organizmlarning evolyutsion taraqqiyot jarayonida hayotiy sharoitlarga moslashib borishi va yashab qolishidan iborat biologik qonuniyat, jarayon.

**Tanlash – 1.** Chorvachilikda – naslchilikdagi sun'iy tanlash usullaridan biri; hayvonlarni poda va zot ichidan xo'jalik va seleksion sifat (tashqi ko'rinish) va miqdor (tirik vazni, jun va tivit chiqishi va b.) belgilari bo'yicha baholab, nasl olish uchun ajratish; chorva hayvonlarini tanlashda ulardagi seleksion belgilarining asosiylari e'tiborga olinadi.

**2.** O'simlikshunoslikda – seleksiyaning asosiy usullaridan biri; genetik usullar bilan birga tegishli belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan yangi navlar yaratish imkoniyatini beradi. Tanlash o'simliklarning hosildorligi, kasalliklar hamda zararkundandalarga chidamlilik va b. belgilari bo'yicha tabiiy va sun'iy usulda olib boriladi.

**Tannarx, mahsulot tannarxi** [tan + narx] – *iq.* Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmat ko'rsatish uchun qilingan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi; mahsulotning ish haqi va ishlab chiqarish xarajatlaridan iborat o'z narxi. *Mahsulot sifatining yomonligi, tannarxining qimmatlashgani haqida nega lom-mim demaysiz.* («Mushtum»). *Tuproqqa qo'shiladigan polimerlarning tannarxi uncha qimmat emas.* (S. Karomatov, «Fan – bizning kompasimiz»).

**Tanob** [*a. – arqon; pay*] – **1 esk.** Yer o'lchash, uzunlik o'lchash, chiziq tortish va sh.k. larda ishlatiladigan uzun chilvir, reja ip.

**Tanob tortmoq** (yoki **urmoq**) – reja ip tortib o'lchamoq. *Matchon to'ra kuzda hosilni yig'ishtirib olgach, qumgacha cho'zilgan bo'z yerlarga tanob urdirib, o'ziga qo'shib oldi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**2 kam qo'll.** Umuman, ingichka arqon, chilvir yoki kanop ip, rishta.

**3 esk. tar.** O'rta Osiyo xonliklarida: tomonlari 60 gazdan iborat bo'lgan maydonga teng yuza (yer) o'lchov birligi.

**4 esk. tar.** O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda qo'llangan uzunlik o'lchov birligi (XVII asrda 39,9 metrga teng bo'lgan).

**Tappi – 1.** Chorva mollari tezagidan rapida shaklida yasab quritilgan yoqilg'i. Quruq tappi. Tappi yasamoq. Tappi yoqmoq. *U [Zebo] bog' va polizga qarardi, hovli supurib, uylarni yig'ishtirardi, non yopib, sigir sog'ardi, kir yuvib, tappi qilardi.* (Sh. Rashidov, «Qudratli to'lqin»).

**2 ko'chma.** Rangi tappiga o'xshash, qora.

**Taqa I** – ot-ulov tuyog‘ini zararlanishdan, sirg‘anishdan saqlash uchun tuyuq ostiga mixlab qoqiladigan yarim doira shaklidagi metall buyum. Otning taqasi. *Qishloq tinchligini buzgan bu yakka ot tuyoqlarining taraq-turuqi, taqalarning toshlarga urilishidan chiqqan yalt-yalt chaqmoq dam o‘tmay uzoqlashdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Taqimlamoq** – ot ustida o‘tirgan holda biror narsani (mas., uloqni) taqimi ostiga bosib olmoq. *Oriyat zo‘r narsa. Sen ham maydondasan. Uloq otingning yelkasida turibdi, taqimla.* (I. Rahim, «Ixlos»).

**Taqir** – 1 *ot, geog.* Qattiq qatqaloq bilan qoplangan yer. *Tuya quvlasa, shudgorga qoch, Ilon quvlasa – taqirga.* (Maqol). *Qum uyumlari orasida nuqul gildan hosil bo‘lgan maydonlar uchraydi. Bunday joylar taqir deb ataladi.* («O‘zbekiston geografiyasi»). *Oqmagan daryoning nomidir taqir.* (A. Oripov, «Yillar armoni»).

2 *sft.* Giyoh o‘smaydigan yoki deyarli o‘smaydigan; yaydoq, yalang‘och. *To‘g‘ri, olti-yetti yil ilgari bu joylar – Qarshi cho‘li taqir yerdan farqi yo‘q edi.* («O‘zbekiston qo‘riqlari»).

3 *sft.* O‘t-o‘lansiz, o‘t-o‘lanli yerdan ko‘rinmaydigan (o‘smagan) darajada. *Qo‘nishdagi taqir yalanglikda kuni bilan to‘yib o‘tlagan qo‘y-echkilar kavsh qaytarib yotibdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Taqir tuproqlar** – cho‘l zonasi daryolarining qadimgi daltalari va vodiylari, allyuvial terrasalar, shuningdek, prolyuvial yotqiziqli qiyaliklar tuprog‘i; tuproqning mayda yoriqlar bilan qoplangan, 1,5–2 sm qalinlikdagi pushti yoki och kulrang qavati.

**Taqirlik** – taqir joy, maydon. *Shu kuniyoq uzoq-yaqindagi cho‘ponlar taqirlikdagi quduq yoniga odamlar kelib turishganini eshitishdi.* (Mirmuhsin, «Me‘mor»).

**Taqmagul** – bot. Sertikan, guli mayda yovvoyi atirgul; jingul.

**Taqsimlagich** – tex. Mashina, mexanizm, motor va sh.k. da gaz, bug‘, elektr energiyasi va b. ning yurishini, oqishini tartibga soladigan qism, moslama. ...*O‘zbekistondan yuborilgan shchitli taqsimlagichlar va vklyuchatellar ishlab turibdi.* (Gazetadan).

**Taqsimot** [*a.* – «taqsim» s. ko‘pl.] – bo‘lak va ulushlarga ajratish, taqsim ishi; taqsimlash, bo‘lish. *Daromad taqsimoti. Mehnat taqsimoti. Taqsimot mexanizmi. O‘qishni bitirganimdan so‘ng, taqsimot bo‘yicha yuborishgandi.* (O. Mo‘minov, «Xiyobondagi uch uchrashuv»). *Nazar suv taqsimoti haqida bosh qotirib o‘tirardi.* (E. Usmonov, «Yolqin»). *Taqsimot komissiyasi Komiljonga rayonga yo‘llanma berganini eshitib, onaning fig‘oni falakka chiqdi.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»).

**Taralmoq** – 1. **Taramoq 1,2** (*fl. majh va o‘zl. n.*) *Suv hamma egatga baravar taraladi. O‘rmonjon shoshib chiqib ketdi va biron soatdan keyin ozg‘in, sochi o‘ng tomonga juda hafsala bilan taralgan, yoshgina bir yigit bilan kirib keldi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).

2. Yoyilmoq, tarqalmoq.

3. Har tomonga ketmoq, tarqalmoq.

**Taran** – chavoq baliq.

**Tarandi** – hayvonlar junlariga ishlov berilgandan chiqqan chiqindi.

**Tarif** [*fr. tarif*– aniqlash; qat‘iy baholar (to‘lovlar) tizimi < *a.* – aniqlash, bel-

gilash; boj to'lovlari haqida bildirish] – biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmui. Turli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xizmatlari uchun (mas., yo'lovchi va yuk, eksport va import tovarlari tashish va sh.k.) to'lov stavkalari (haqlari) tizimi. *Temiryo'l tarifi. Bojxona tarifi. Imtiyozli tarif. Pochta tarifi. Tarif jadvali. Tarif bo'yicha haq to'lamoq.*

**Tarifikatsiya** – tarif belgilash (ma'lum bir asosda qat'iy baho belgilash). *Ish haqi tarifikatsiyasi. Tarifikatsiya sistemasi, qat'iy baho belgilash sistemasi.*

**Tariq I** (*Panicum L.*) – boshqodoshlar oilasiga mansub bir yillik g'alla o'simligi va uning oqlab so'k qilinadigan mayda doni. Tariq donida 10–15 % oqsil, 50 % uglevod, 3,8 % moy mavjud. Donidan spirt olishda, bo'za tayyorlashda foydalaniladi, so'k, yorma, un tayyorlanadi. Oqlangan doni (so'k) mazali va to'yimli oziq-ovqat mahsuloti. Tariq uni non yopishda ko'pincha javdar uniga qo'shiladi. *Tariq sepmoq. ...qir pastida tariq o'rayotgan bir to'da dehqonlarni ko'rishi bilan tabiatidagi bir damlik ravshanlik o'rnini yana diqqatbozlik egallab oldi.* (Tuyg'un, «So'nggi sayohat»).

**Tariqsimon ekinlar guruhi** – bu guruhda *Roaseae* oilasiga mansub ekinlar: makkajo'xori, jo'xori (oqjo'xori), sholi, tariq va *Rolugonaseae* oilasiga mansub marjumbak ekini kiradi. Bu ekinlarning belgilari: donida uzunasiga ketgan egatcha bo'lmaydi, bittadan boshlang'ich ildiz rivojlanadi, gul to'plami ro'vak yoki so'ta. Ekiladigan navlari bahorgi, issiqsevar, qisqa kun o'simligi va qurg'oqchilikka chidamli (sholidan boshqasi) bo'ladi.

**Tarpan** – Yevropa yovvoyi oti, xonaki otning kenja turi. Qadimda Sharqiy

Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. XIX asrning 70-yillariga qadar Ukrainaning dasht mintaqalarida uchragan. Tabiiy sharoitlarda uy hayvonlari podalari ta'sirida va qisman odam tomonidan ovlanishi natijasida yo'qolib ketgan. Qo'lga o'rgatish qiyin bo'lgan. Bo'yi past (qarchig'ayigacha bal. 116–136 sm), tanasi pishiq. Uyur bo'lib yashagan. Go'shti va terisi uchun ovlangan.

**Tarrak** – palak otib o'sadigan poliz ekini va uning bodringdan ko'ra yirikroq kuvrak hosili. *Bozorga bodring, tarrak va ertagi handalaklar ham chiqqan edi.* (K.Yashin, «Hamza»).

**Targ'il** – 1. Sarg'ish va qoramtir yo'lli; shu tUSDagi sigir, buzoq va sh.k. Targ'il buzoq. *Sigir olsang, tanib ol, taniy olmasang, targ'il ol.* (Maqol). *Sutchi opa targ'ilni ko'rishlari bilan silab-siy-pab, u yoq-bu yog'idan uch-to'rt kana olib tashladilar.* (A.Mirahmedov, «Kulgan chechaklar»).

2 snt. Naqqoshlikda: naqsh mujassamotidagi gul va barglarni rangli chiziqlar yordamida tasvirlashdan iborat parдоз turi.

**Tarvuz** (*Citrullus*) – qovoqdoshlar oilasiga mansub, palak otib o'sadigan bir yillik poliz o'simligi va uning yeyiladigan yumaloq yoki ovalsimon, qizil go'shtli, sersuv hosili. Tabobatda kamqonlik, jigar, buyrak, yurak-tomir kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Shinni, murabbolar tayyorlanadi. Tarvuz urug'i. *O'roz qayerdandir katta tarvuz keltirib, o'rtaga qo'ydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Poyezd bilan baravar g'arbga ketayotgan quyoshning safari tezlashdi va u, kesilgan qizil tarvuz pallasidek, o'rmon daraxtlariga ilinib qoldi.* (I.Rahim, «Chin muhabbat»).



**Tarvuzpalak (Abujahl tarvuzi)**  
*Brvonia L.* – Qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae*) oilasiga mansub, bo‘yi 2–4 metrga yetadigan, gajaklari yordamida daraxt va butalarga osilib o‘sovchi ko‘p yillik o‘t o‘simliklar turkumi. Ular Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyoning daryo vodiylarida, o‘rmonlardagi, yonbag‘irlardagi chakalakzorlarda, jiplashgan qumliklarda, ba‘zan ekinzorlarda begona o‘t sifatida o‘sadi. Tibbiyotda: Oq tarvuzpalak; Ikki uyli tarvuzpalak va Qora mevali tarvuzpalak turlarining ildizi ishlatiladi.

**Tasbi, Yersovun** (*Leontice ewersmanni Bge.*) – zirkdoshlar oilasiga mansub, ko‘p yillik o‘simlik. Bo‘yi 20–40 sm balandlikda bo‘lib, yirik tugunagi bo‘ladi. Mart-aprel oyida gullab, may oyida meva tugadi. Urug‘dan ko‘payadi. Tog‘ etaklaridagi tekisliklarda ko‘proq uchraydi. G‘alla ekinlari ichida begona o‘t sifatida o‘sadi. Tuproqni chuqur haydash yo‘li bilan qirib tashlash mumkin.

**Tasma-tormoz** (katta quyushqon) – notekis yerlarda bo‘yinchani normal tutib turish va aravani to‘xtatish uchun xizmat qiladi. Tormoz-tasma oldingi tomondan bo‘yinchaga birkitilib, qolgan qismi ot gavdasi ustiga kiygiziladi. Tormoz-tasma pishiq charmdan tayyorlanishi kerak.

**Tau-sagiz** – murakkabguldoshlar oilasiga mansub bo‘lgan o‘simlik. Tyan-shan tog‘ining Farg‘ona vodiysiga yondosh past joylarda o‘sadi. Ildizi juda mo‘rt va sinuvchan bo‘ladi. Ildizini sindirib cho‘zib ko‘rilsa, kauchukning elastik tolalari yaxshi ko‘rinadi. Ildizining quruq og‘irligiga nisbatan 9 dan 28% gacha kauchuk chiqadi. Tau-sagizdan olinadigan kauchuk sifati geveyadan olinadigan ka-

uchuk sifatidan qolishmaydi. O‘zbekiston tau-sagizi MDH florasida kauchuk beruvchi eng qimmatli o‘simliklardan biri hisoblanadi. Uni keng miqyosda ekish mumkin.

**Tausheriya** (*Tauscheria lasiocarpa Fisch.*) – krestguldoshlar oilasiga mansub, bir yillik o‘tsimon o‘simlik. Bo‘yi 10–60 sm. Aprelning boshidan iyun oylarining boshigacha gullaydi va urug‘laydi. Tog‘ etagida mayda donador tuproqli mintaqada lalmikor ekinlar ichida begona o‘t sifatida o‘sadi. Respublikamizning hamma lalmikor tumanlarida uchraydi.

**Tavr I** [*r. tavro < t. tug‘ro*] – hayvonlarning terisi, shoxi yoki tuyog‘iga kuydirib qo‘yiladigan belgi, tamg‘a. Tavr bosmoq.

**Tavir** – *folk.* Dikkakdan kichik, uzun sochoqli, egar ostida ikki yoqqa yoyib tashlanadigan ot abzali.

**Tayxar** – *shv.* Eshak, eshakning bolasi. *Kim ekan u, onasi tayxar?* (N. Norqobilov, «Bekatdagi oq uycha»). *Kulga ag‘anagan tayxarday rangi toza aynib ketibdi.* (N. Norqobilov, «Bekatdagi oq uycha»).

**Tashlama, suv tashlama** – suv havzasi (suv ombori, ko‘l va b.) dagi ortiqcha suvni (toshqin suvlarini) chiqarib yuborish, suvni pastki befga o‘tkazish uchun mo‘ljallangan gidrotexnika inshooti.

**Tashna** [*f. – chanqoq, suvsagan*] – 1. Suvga zor; suvsagan, chanqagan, suvsoq, chanqoq. *Odamlar tashna, yer chanqoq, yurt qaqroq edi. Hamma suv deb talpinar, hamma suvga intilar edi.* (M. Ismoilov, «Farg‘ona t.o.»). *Ey sen, boshi va oxiri yo‘q cho‘lda suvsirab, jon bera-*

*yotgan tashna yo'lovchi!* (F. Musajonov, «Hikmat»). *Kanal qazib, oqizib suvni tashna sahroga.* (Habibiy).

**2 ko'chma.** Biror narsaga zor, kuchli talabi bor. *Kimki ilmga tashna bo'lsa, uning qalbida yaxshilik guli bor.* (Gazetadan). *Ahmadning yuragi mehrga va saxovatga to'la, o'zi esa suhbatga tashna edi.* (F. Musajonov, «Himmat»).

**Teff, Habashiston o'ti** (*Eragrostis abyssinica Jacq.*) – boshoqdoshlar oilasiga mansub, bir yillik xashaki o'simlik. Bu o'simlikning poyasi serbarg bo'lib, balandligi 1 m gacha boradi. Teffning faqat ekiladigan xili ma'lum. Teff Habashistonning tog'li tumanlarida, shuningdek Janubiy Afrika, Hindiston, Avstraliya, AQSHda qadim zamondan buyon ekiladi. MDH ga 1927-yilda keltirilgan. Teff qimmatli boshoqdosh o'simlik, uning ko'katidan, xashagidan foydalaniladi, u yem-xashakka aralashtiriladi va sof holda ishlatiladi. Qishloq xo'jalik hayvonlarining hamma turi sevib yeydi. Issiqsevar, qurg'oqchilikka chidamli, tuproq tanlamaydigan o'simlik. Bir yilda 3–4 marta o'rib olish mumkin. Ukrainada gektaridan 560 s gacha ko'k massa, 97 s quruq xashak, 8–12 s urug' olinadi. Quruq dasht tumanlarda va yengil tuproqlarda juda qimmatli yem-xashak o'simligi hisoblanadi.

**Tegirmon – 1.** G'allani, donni yanqib un qilish uchun moslangan, maxsus qismlardan iborat, suv, shamol, elektr energiyasi va sh.k. kuchi bilan ishlaydigan qurilma. Suv tegirmon. Shamol tegirmon. Tegirmon toshi. Tegirmonga don olib bormoq. *Soy bo'yida behisob daraxtlar orasiga ko'milgan tegirmon guvillar edi.* (A. Qahhor, «Asror bobo»). *Irmoqlar*

*anhorlarga qo'shilib, tegirmon, objuozlarni harakatga keltiradi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»).

**2.** Shunday qurilma joylashgan bino, joy. *Menga qara, chopib tegirmonga bori kel! Ozgina bug'doyga un alishib kelasan.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»). *Tegirmon Sho'xsoyning bo'yida joylashgan edi.* (A. Qahhor, «Asror bobo»).

**Tejam – 1.** Ehtiyot qilib, ayab, o'z o'rmda ishlatish, tejash, iqtisod. *Tejam masalasi hamisha zo'r amaliy ahamiyatga egadir. Tejam bilan ishlatsang, uy-ro'zg'oring but bo'lar.* («Qanotli so'zlar»).

**2.** Tejash tufayli qolgan, orttirilgan foyda. Tejam hisobiga ilg'orlarni mukofotlamoq. *...Har safar o'zlari o'ylamagan tejamlarning kelib chiqqanidan mamnun bo'lishdi.* (Gazetadan).

**Tejamkorlik** – tejam bilan ish tutish, shu tarzda iqtisodiy tartib. *Isitish qurilmasida tayyorlangan issiq suvdan tejamkorlik bilan foydalaning.* (Gazetadan). *Bugungi mashg'ulot «Qurilishda tejamkorlik» mavzuida bo'ladi.* («Saodat»).

**Tejamli – 1.** Tejashga, tejamkorlikka imkon beradigan, tejaydigan. Tejamli mashina. Tejamli ishlab chiqarish usuli. *Tabiiy gaz faqat tejamli yoqilg'igina bo'lib qolmasdan, tengi yo'q ximiya xomashyosi hamdir.* (A. Abduqodirov, «Gaz ximiya xizmatida»). *Brigadalar paxtani qop-qanorsiz tashishdek tejamli va qulay usulni qo'lladilar.* (Gazetadan).

**2 ayn.** Tejamkor. *Sizdek insofli, tejamli odamlarni ayrim tashkilotlarga, ayniqsa, qurilishlarga bittadan boshliq qilib qo'ysa bormi, bunaqa isrofgarchiliklar bo'lmasdi!* (Shukrullo, «Javohirlar sandig'i»).

**Tejamoq** – 1. Ortiqcha sarfga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilib ish tutmoq, ayash, tejam bilan sarflamoq. *Umidning qiyinchilik bilan katta bo‘lganini hamma bilardi – kiyimni yaxshi kiyishi, pulni tejashi ham shundan.* (Mirmuhsin, «Umid»).

2. Isrof qilmaslik yo‘li bilan orttirmoq, ishlatmay, sarflamay qoldirmoq. *Shunday bo‘lsa ham, tushlikka chiqqanda, yarim soatgina vaqtini tejab, oshxonadan chiqdi-yu, Halim boboning bog‘iga yo‘l oldi.* (Sh.Rashidov, «Bo‘rondan kuchli»). *Yem-xashakdan mohirona foydalanish tufayli chorvadorlar ko‘p miqdordagi donni tejab qoldilar.* (Gazetadan).

3. Kimsani yoki o‘zini ehtiyot qilmoq, ayamoq, saqlamoq.

**Tekislagich** – tekislash, silliqlash uchun xizmat qiladigan asbob, moslama, mashina. Yer tekislagich. *Doirani tekislagich yordami bilan gorizental holatga keltirish mumkin.* («Astronomiya»).

**Tekislamoq** – 1. Baland-past, g‘ijim, g‘adir-budurlarini yo‘qotib, tekis, silliq qilmoq. *Yerni tekislamoq. Ko‘chani tekislamoq. Taxtani tekislamoq. Sochini tekislamoq. Nodira boshliq bir to‘da o‘quvchilar sport maydonchasini tekisladilar.* (S.Zunnunova, «Yangi direktor»). *Normat o‘rnidan turib, kamarini qattiq tortib, gimnastyorkasini tekisladi-da, Adolatning oldiga bordi.* (I.Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Bir chiziq bo‘ylab tekis joylashtirmoq. Saflarni tekislamoq. *Rota komandiri jangchilarga kiyimlarini tuzatishni, qurollarni yana qayta tekislab, tartibga solib qo‘yishni buyurdi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

3 s.t. *Ishkallarni yo‘qotib silliq-lamoq, to‘g‘rilamoq. Hamma ish tekislab yuborildi.*

**Tekislik** – 1. Tekis yuza (sirt)ga egalik. Yerning tekisligi. Taxtaning tekisligi.

2. Baland-pasti bo‘lmagan tekis yer, tekis maydon. *Ro‘paradagi tekislikda rayon daraxtlari qorayib ko‘rinar edi.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

3 fiz., geom. Tekis yuza. *Proyeksiyalovchi tekislik. Qiya tekislikdan jismning tushishi.*

4 geog. Katta balandliklar, tog‘lar bo‘lmagan, nisbiy tekis bo‘lgan yer sathi; okeanlar tubidagi yassi katta maydon. *O‘shning janubidagi keng tekisliklar, to‘lqinsimon qir va adirlar turli-tuman dala gullari bilan bezangan.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

5 siyos. Har jihatdan tenglik, teng huquqlilik. *Iqtisodiy tekislik.*

**Tekissizlik** – kam qo‘ll. Tekissiz holat, notekislik. *Rivojlanishning notekisligi.*

**Telega** [r. telega – bir ot qo‘shiladigan arava turi] – to‘rt g‘ildirakli arava. *Telegada go‘ng tashiyotgan Dilshod va Anzirat yo‘lda uchrab, goho unga hazillashar edilar.* (Oybek, «O.v.shabadalar»).

**Temirchaklar** (*Tettigonioidea*) – to‘g‘ri qanotli hasharotlar turkumining katta oilasi, 7 mingga yaqin turi ma‘lum. O‘zbekistonda 100 dan ortiq turi uchraydi. Orqa oyoqlari sakrovchi. Issiq va iliq iqlimli mamlakatlarda tarqalgan. Ba‘zi temirchaklar (yashil temirchak va kulrang temirchak) qurg‘oqchilik yillari ekinlar (g‘alla, tokzorlar)ga ziyon keltiradi.

**Tender** (*ing. tend.* – xizmat ko‘rsatish) – ochiq turdagi (ochiq tender) yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar

uchun yopiq turdagi (yopiq tender) raqobatli savdo-sotiq; buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli.

**Tentakqush** – 1. Qumursqa va ha-sharotlar bilan tirikchilik qiladigan, boshi katta, yassi, tumshug‘i keng va qisqa tun qushi.

2 ad. Odamdan boshqa jonli va jon-siz narsalarga insoniy xususiyatlarni ko‘chirishdan iborat badiiy san‘at turi.

**Tepalik** – nisbatan katta va baland joy; balandlik, do‘ng, tepa. Tepalikka chiqmoq. Tepalikni egallamoq. *Uzoqda-gi tog‘lar va tepaliklar tuslarini yo‘qotib, tobora quyulayotgan tun quchog‘iga sin-gib bormoqda.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»). *Baland tepalik ustiga qurilgan Ahsi qal‘asi tun og‘ushida tog‘ qoyasiga o‘x-shab qorayib ko‘rinadi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Tepkilamoq** – 1. Oyog‘i bilan ketma-ket zarb bermoq, takror-takror tepmoq. *Bir-birini tepkilab urishmoq. Tepkilab loy pishitmoq. Go‘ng aravaga rosa tep-kilab bosilgan, g‘ildiraklar yuk zo‘ridan g‘ijirlar, qo‘sh ot uni bazo‘r tortar edi.* (H. G‘ulom, «Senga intilaman»). *Ustiga chiqib tepkilasa ham, jigarniki o‘tmas ekan.* (S. Ahmad, «Ufq»). *G‘azab o‘tida yonib, kampirning yuziga tarsaki tushir-di, suyaklari chiqib turgan beliga tepki-ladi.* («Mushtum»).

2. Bosib payhon qilmoq, yo‘q qil-moq; toptamoq. *Ot tuyog‘i tepkilab ket-gan Lolazorlar o‘tar xayoldan.* (J. Shari-pov). [Afandi] *Ho‘kizni tutdi, uyiga olib kirib: – Jazzoyi kishi birovning ekinini tepkilasin! – deb so‘yib yubordi.* («Lati-falar»).

**Teplitsa** [r. *teplo* – «issiq, issiqlik» s.dan yasalgan ot] – q. **issiqlxonona** 2. Bu

*joyda kolxoz klubi, GESi, teplitsadan tortib elektr tegirmonigacha ko‘rinar ekan.* (A. Muhiddin, «Oshnalar»). *Umid ularga, atrofda yangi nav ekilgan kar-talarni, teplitsani, ichkariga olib kirib, laboratoriyalarni ko‘rsatdi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Teplitsa xo‘jaligi** – sun‘iy iqlim sha-roitida issiqxonada sabzavot, meva, reza-vor-meva, gullar, turli ko‘chatlar yetka-zish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik.

**Teplitsa ekinlari** – sun‘iy yaratilgan iqlim sharoitida tuproq va havodan oziq-lantirib o‘stiriladigan o‘simliklar.

**Teploizolatsiya** [r. *teplo* – issiq, issiq-lik + izolatsiya] – 1. Turli inshoot va qu-rilmalarni issiq ta‘siridan saqlash hamda issiqlikning yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ularni issiqlik o‘tkazmaydigan ma-terial bilan qoplash, o‘rash.

2 s.t. Shunday maqsadda ishlatiladi-gan o‘rash materiali.

**Teplotexnika** [r. *teplo* – issiq, issiq-lik + texnika] – Fan va texnikaning issiq-lik energiyasi hosil qilish va undan foy-dalanish bilan shug‘ullanadigan sohasi.

**Tepong‘ich** – tepish odati bor, tepa-digan, shattalab yuboradigan; tepag‘on. *Tepong‘ich sigir. Tepong‘ich ot.*

**Terak** – toldoshlar oilasiga mansub, po‘stlog‘i ko‘kish yoki oqish, tik yoki shoxlab, tarvaqaylab o‘sadigan daraxt (tanasidan, asosan qurilish materiali sifa-tida foydalaniladi). Oq terak. Tog‘ teragi. *Ko‘k terak. Bog‘ning quyi tomonida bir chiziqda saf tortgan baland, adl teraklar.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Terakzor** – nuqul teraklar bilan band joy, terak ekilgan maydon. *Quyosh terak-zor orqasiga botayotgan, g‘arb ufqiga alvonrang shafaq yoyilgan ajib oqshom*

edi. (H.G'ulom, «Mash'al»). *G'ulomjon daladagi terakzordan to'rtta baqaterakni kestirib, taxta tildirdi.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o»).

**Teresken** (*Ceratoides pungens* (M. Pop.) Cz-er.) – sho'radoshlar oilasiga mansub, bo'yi 10–35 sm keladigan kichkina buta o'simligi. May-iyulda gullaydi, iyul-sentabr oylarida meva beradi, tog'ning mayda shag'alli yon bag'irlarida o'sadi. Yaxshi yem-xashak bo'lib, uni qishloq xo'jalik hayvonlari yaxshi yeydi. Keyingi vaqtlarda teresken yozda, kuzda va qishda foydalaniladigan yaylovlarda madaniy o'simlik sifatida ekila boshladi. O'tin sifatida ham foydalaniladi. Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

**Teri I – 1.** Odam va hayvonlar terisining tashqi qoplami, tana a'zolarini tashqi ta'sirlardan himoya qiluvchi va turli fiziologik vazifalarni bajaradigan po'sti. Organizmni tashqi ta'sirlardan himoya qiladi, sezish, moddalar almashinuvi, organizmdan keraksiz moddalarni chiqarish, termoregulatsiya va boshqalarda qatnashadi. **Chorva hayvonlari terisi** – soch qatlami (jun), epidermis (terining sirt pardasi), derma (teri to'qimasi) va teri osti yog' qatlamlaridan iborat. Soch qatlami qishda tana haroratini ushlab turadi, ho'llanishdan asraydi, issiq vaqtda tanadan ko'p suv yo'qolishining oldini oladi. *Teri kasalliklari. Quyunning terisini shilmoq. Tortqilaganda, [uloqning] terisi ayrilib ketmaydi. Bo'lmasa, torttortda uloq butun qoladimi!* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**2.** Molning, hayvonning shilib olingan po'sti. *Shu yerda ishlaydigan odamlardan biri, yo'qchilik vajhidan, bir*

*kuni bola-chaqasi bilan oting terisidan sho'rva qilib ichibdi.* (A. Qahhor, «Milla-latchilar»). *Xon borib, arslon terisiga o'tirdi, Arslonbekni o'zining o'ng tomoniga oldi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

**3.** Mol po'stidan maxsus ishlov berib tayyorlangan material; charm, ko'n. *[Shokir ota] Teriga suv purkaydi va ko'va bilan do'q-do'q urib, charmni tekislaydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Uyda biroz teri bor. Ammo tagcharm yo'q.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**4 kam qo'll.** Po'st, po'choq. Terisi qalin qovun. *Bog'dagi, anorlar terisiga sig'may, tars-tars yoriladi.* (Y. Shukurov, «Uch savol»).

**Teri qoplami** – hayvonlarning tanasini qoplab turuvchi terisi epidermis, derma va teri osti to'qimalaridan tuzilgan.

**Terim** – hosilni terib, yig'ib olish (asosan, paxta hosili haqida). Birinchi terim. Ikkinchi terim. Terim mashinasi. *Bu yil terim erta boshlandi. Mana, g'o'zalar ko'z ocha boshladi. Hademay terim ham boshlanib qoladi.* («Mushtum»). *Qaysi kuni otasi: «Ikkinchi terimga qachon tushasiz», degandek edi. Qiziq, paxtalar hech terilganga o'xshamaydi-ku?!* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o»).

**Terimchi** – dalada yetilgan paxta hosilini qo'l bilan terib, yig'ib oluvchi. Ilg'or terimchilar. *U ikki qo'llab teruvchi, chevar terimchi.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»). *Vali aka o'g'liga xirmon qilinadigan joyni ko'rsatib, o'zi terimchilarni Madaminxo'janing paxtazoriga boshlab ketdi.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o»). *Atlas ko'ylak yarashar, Terimchi qiz bo'yiga. Plan to'lganda keling, paxtaxonning to'yiga.* (Uyg'un).

**Terlik** – otning terini to‘qimga o‘tkazmaslik uchun to‘qim tagidan qo‘yiladigan qalin namat parcha. *Omborxonadan ot abzallarini: terlik, bellik, yugan, egarni qo‘ltiq lab keldim.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»). *Bismillo, deb soldi otning ustiga Kimxobi mayindan bo‘lgan terlikni.* («Alpomish»).

**Termin** [lot. *terminus* – chek, chegar] – fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama. *Botanika terminlari. Zargarlik terminlari. Paxtachilik terminlari. Yo‘ldosh Elmurodga notanish terminlarni tushuntira ketdi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»). *Terminlar ilmiy kommunikatsiyadan jonli so‘zlashuvga o‘tganda, xalq uchun tushunarli so‘zlarga aylana boradi.* («O‘TA»).

**Termitlar, qir chumolilar, oq chumolilar** (*Isoptera*) [lot. *termes, termites* – yog‘och yemiruvchi hasharot; qo‘ng‘iz] – asosan, issiq mamlakatlarda katta uyalarda jamoa bo‘lib (bir necha yuzdan milliongacha) yashaydigan parda qanotli hasharot, yog‘och, teri, qog‘oz va ba‘zi ekinlar zararkunandasi. 2600 turi ma‘lum. Markaziy Osiyoda Turkiston termiti uchraydi. Termit inshootlarning yog‘och qismini buzadi, tropik mamlakatlarda ekinlarga ham zarar keltiradi. *Termit degani xuddi bitga o‘xshash jirkanch hasharotgina emas, dahshatli ofat ekan.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»). *Termit – o‘tloq ustida loydan yasalgan uyalarda yashovchi hasharot.* («Geografiya»).

**Termofil o‘simliklar** (*termo va yun. phileo* – sevaman) – issiqsevar, past harorat (+1<sup>0</sup>–6<sup>0</sup>)da o‘sa olmaydigan o‘simliklar. Termofil o‘simliklarga issiq

mamlakatlarda tarqalgan sholi, bodring, g‘o‘za va b. kiradi.

**Termofosfatlar** – tabiiy fosfatlarni ishqoriy-yer metallar birikmalari bilan birga yuqori haroratda pishirib, tuyib tayyorlanadigan fosforli o‘g‘itlar. Bu o‘g‘itlar fosfor va magniy elementlari kam yerlarga solinadi. Termofosfatlar nordon tuproqli yerlar uchun foydali.

**Termograf** [termo, + *yun. grapho-yozaman*] – Temperatura o‘zgarishlarini avtomatik suratda izchil yozib boradigan asbob.

**Termoizolyatsiya** [termo, + izolyatsiya] – ayn. **teploizolyatsiya**.

**Termoregulyator** [termo, + regulyator] – xona, pech va sh.k. da kerakli temperaturani avtomatik ravishda hosil qilinadigan va saqlab turadigan asbob.

**Termos** [*yun. thermos* – issiq, qaynoq] – ichiga quyilgan issiq yoki sovuq narsani (mas., issiq choy yoki sovuq suvni) uzoq vaqt shu holicha saqlaydigan maxsus idish. *Mehri opa stolcha yonidagi korzinkadan ovqatliklar oldi, to‘rda osig‘lik termosni ochib, stakanlarga issiq choy quydi.* (Y. Shukurov, «Birinchi parvoz»).

**Termostat** [termo + *yun. statos* – tik turuvchi, qo‘zg‘almas] – chegaralangan hajmlarda (termik pech, sovitkich va sh.k. da) temperaturani hamisha bir xilda saqlab turadigan apparat. *Bodring urug‘i, ekishdan oldin, uch sutkagacha 50–51 daraja issiqda termostatda qizdirilib, binafsha metilen eritmasi bilan ivitiladi.* («Fan va turmush»).

**Termoq** – 1. Sochilib yoki to‘kilib yotgan narsalarni qo‘l bilan birma-bir olib to‘plamoq, yig‘moq. Soylikdan mayda tosh termoq. O‘tin yig‘moq. *Ertalab*

*Begoyim*: «G'ulomjonlarning qantak o'rigi to'lib yotibdi, terib kelgin», deb tayinlovdi. (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o»). *Men yoshlikdan otamga qarashdim, poda boqdim, mashoq terdim*. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Don, meva, gul va sh.k. o'simlik hosilini birma-bir olib to'plamoq, yig'moq. *Gul termoq*. *Yong'oq termoq*. *Mosh termoq*. *Olcha termoq*. *Paxta tersang*, *toza ter*, *Chanog'ida qolmasin*. («Qo'shiqlar»). *Bahor keldi elimizga – Ko'm-ko'k bo'ldi bog'*, *dala*. *Sevinch to'lib dilimizga*, *Terib keldik gul-lola*. (I. Muslim). *Toqqa chiqib terganing Pista bilan bodommi?* («Qo'shiqlar»).

3. Ma'lum tartibda ustma-ust, yonma-yon yoki birin-ketin joylamoq, o'rnashtirmoq, taxlamoq. Kitoblarni tokchaga termoq. *Omborga qovun terib qo'ymoq*. *Savatga non termoq*. *Yashiklarga olma termoq*. *Nigoroyim oshxonada mantilarni qasqonga terib*, *qozonga uyar*, *Ra'no bo'lsa*, *ayvonda kichkina ukalari orasida o'tirar edi*. (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

**Terrasa** [fr. *terrace* < lot. *terra* – yer, zamin] – 1. Tog' yonbag'irlaridagi zinapoyasimon bo'lib tushgan tabiiy yoki sun'iy tekis sath, sahn, maydoncha. *Terrasalar hozirgi vaqtda turli ekinlar va mevazorlar bilan band bo'lgan yerlardir*. («O'zbekiston geografiyasi»).

2. Yozgi yengil ayvon, peshayvon.

**Territorial** – q. **hududiy**. Territorial shevalar. Territorial bo'linish. *Territorial boshqarma butun texnikani, ishni o'z qo'liga jamlabdi*. («O'zbekiston qo'riqlari»).

**Territoriya** [lot. *territorium* < terra – yer, zamin] – q. **hudud**. *Tadqiqotlar aso-*

*sida respublika territoriyasini seysmik rayonlashtirish tafsiliy kartalari tuzib chiqildi*. (Gazetadan). *Mamlakatimizda tabiiy boyliklarga serob yangi territoriyalar tezkorlik bilan o'zlashtirilmoqda*. («Fan va turmush»).

**Terskay** – quyoshga teskari, quyosh tushmaydigan, shimolga qaragan (tog', balandlik yonbag'ri, chuqurlik va sh.k. haqida). *Unga Sherbek anavi terskay*, *qor yotgan qirning ortidan halizamon ot o'ynatib chiqib qoladiganday tuyulaverdi*. (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Atrofini qurshagan toshlar orasidagi o'rikzor chorbog'lar*, *kunduzi quyosh*, *kechasi oy nuridan yarqiraydigan xarsang toshlar*, *kun tushmas terskay jilg'alar uning ko'z oldini band etib turardi*. (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Tert** – somonga, xashak va sh.k. dag'al ozuqalarga maydalangan kunjara, kepek kabi to'yimli ozuqalar aralashtirib, qorib tayyorlangan yem. *Molning palovi – silos*, *hozircha kepek sepib*, *tert qorib beringlar*, *bolam*. (A. Mirahmedov, «Kulgan chechaklar»). *Yigitali onasi bilan, u sigirga yem bergani chiqqan vaqtda uchrashdi*. *Onasining qo'lidan tert qorilgan tog'ora yerga tushib ketdi*. (D. Nuriy, «Osmon ustuni»).

**Texnika** [yun. *technike* – mohir, usta < *techne* – san'at, mahorat] – 1. Jamiyatning inson faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiruvchi va noishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi vositalar yig'indisi. *Ilg'or texnika*. *Aviatsiya texnikasi*. *Paxta terish texnikasi*. *Texnika fanlari*. *Texnikadan unumli foydalanmoq*. *Dushman Oryol va Belgorod rayonlariga, bu kungacha hech qaysi frontda ko'rilmagan yoki oz ko'rilgan*

*texnikani taxt qilib qo'ygan edi. (A. Qahhor, «Oltin yulduz»). Jabborov texnikani yana bir sidra ko'zdan kechirish uchun besh kun imkoniyat borligini aytdi. (N. Hayitqulov, «Yer tafti»). Bizning zamonamiz ishlab chiqaruvchi kuchlarning shiddat bilan rivojlanishi, fan va texnika taraqqiyotining tezlashishi bilan xarakterlanadi. («Fan va turmush»).*

2. Ishlab chiqarishning biror sohasida qo'llanadigan mashina, mexanizm, asbob, qurol, moslama va sh.k. lar majmui.

3. Biror ish-faoliyat yoki harakat turidan orttirilgan mahorat darajasi, malaka va ko'nikmalar yig'indisi; san'at, mahorat. *Suzish texnikasi. Qurilish texnikasi. Sport texnikasi. Balet texnikasini egallamoq.*

**Texnika ekinlari** – ekiladigan ko'p-gina ekinlarning ayrim qismlari sanoatning turli sohalarida xomashyo sifatida ishlatiladi. Hamma texnika ekinlari ikkita katta guruhga bo'linadi: *birinchi guruh* – texnika o'simliklari: paxta, zig'ir, kanop, jut va b.lar; ularning tolalari gazlama, arqon, kanop, ip ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. *Ikkinchi guruh* – moyli o'simliklar: kungaboqar, gorchitsa, raps, surepitsa, krambo, kunjut, soya, yeryong'oq, perilla, rijik, maxsar, ko'knor va b.lar; ularning moyidan oziq-ovqat, konditer, lak-bo'yoq sanoatlarida, shuningdek texnikada va dori-darmon tayyorlash maqsadida foydalaniladi. Anis, zira, kashnich, yalpiz, mavrak, atirgul kabi efir moy beruvchi o'simliklarda havoga uchib ketadigan moy bo'ladi. Bunday moylar asosan konditer va parfumeriya sanoatida ishlatiladi. Kaucuk beruvchi texnika o'simliklariga ko'ksag'iz, tausag'iz, gvayula, xondrilla va b.lar kiradi. Ba'zi o'simliklardan,

asosan dori-darmon olishda foydalaniladi. Ba'zilaridan esa bo'yoq va oshlovchi moddalar olinadi. Qand-lavlagi, kartoshka ham eng muhim texnika o'simliklaridan hisoblanadi, bu o'simliklardan spirt, kraxmal, patoka, dekstrin moddasi olinadi. Tamaki va maxorka bargidan esa narkotik moddalar va limon kislotasi olinadi. Tuza, zig'ir, kanop kabi ba'zi texnika o'simliklaridan ikki marta foydalaniladi, ya'ni tola va moy olinadi.

**Texnikaviy** – *ayn. texnik.* Texnikaviy yordam. Texnikaviy tadbirlar. *O'zbek tiliga har xil mavzu guruhlariga oid texnikaviy terminlar o'zlashgan. («O'TA»).*

**Texnikum** [*lot. technikum < yun. techne – kasb-hunar*] – o'rta maxsus o'quv yurti: sanoat, qurilish, transport va aloqa, qishloq xo'jaligi, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash va b. sohalar uchun kadrlar tayyorlab beruvchi o'quv muassasalarining umumiy nomi. Qurilish texnikumi. Texnikumda o'qimoq. *Hozirning o'zida shahrimizda industrial texnikum, Toshkent davlat politexnika instituti-ning filiali ishlab turibdi. (S. Anorboyev, «O'zbekiston oltini»).* *Texnikum jamoasi yangi o'quv yiliga katta tayyorgarchilik bilan keldi. (Gazetadan).*

**Texnologik** – texnologiyaga oid; materiallar va mahsulotlarga ishlov berishning usul va yo'llari bilan bog'liq bo'lgan. *Texnologik bilim. Texnologik talab. Meva konservalari tayyorlashning texnologik jarayoni. Urug'lik chigitning viltga chidamli yangi navlarini, shuningdek, yuksak texnologik sifatlarga ega bo'lgan chigitni ekish ancha ko'paytirildi. (Gazetadan).*

**Texnologik xarita** – ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish



bilan bog'liq texnologik ishlar majmui. Ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan ehtiyojlar, ulardan foydalanish va b. ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, shuningdek, belgilangan ishlab chiqarish dasturini bajarish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar aks etgan normativ reja hujjati. Texnologik xarita jadval shaklida bo'lib, unda ketma-ketlikda (odatda, xronologik tartibda) barcha turdagi ishlar (qabul qilingan texnologiyaga muvofiq), asosiy agrotexnik tadbirlar, mashina, mexanizm va agregatlar tarkibi, urug'lik materiallar sarfi normalari, bajariladigan ishlar hajmi, baholari va b.lar ko'rsatiladi, shuningdek, mahsulot tannarxini hisoblashda qishloq xo'jaligida qabul qilingan uslubiyat bo'yicha xarajatlar turlari aks ettiriladi.

**Texnologiya** [*yun. technē* – mahorat, san'at + *logos* – ta'limot] – **1.** Ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarimfabrikat va sh.k. larga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llanadigan usullar (metodlar) majmui. *Metallar texnologiyasi. Kimyoviy texnologiya. Atlas to'qish texnologiyasi. Ilg'or texnologiya. Ubaydning tashabbusi bilan hosilni o'rib-yig'ib olishga ilg'or texnologiya joriy etildi.* («O'zbekiston qo'riqlari»). *Texnologiya jarayoni elektron hisoblash mashinasi yordamida boshqariladi.* (Gazetadan).

**2.** Xomashyo va materiallarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ishlov berish usul va yo'llari haqidagi fan. *Metallar texnologiyasi.*

**Texnopark, texnologik park** – fan, ta'lim va ishlab chiqarishni ilmiy tash-

kilotlar, loyiha-konstruktorlik byurolari, o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari birlashmasi ko'rinishida hududiy uyushtirish shakli.

**Teva** – *ayn.* Tuya. *Qator tevalarga sepini ortib, Mardlikning yurtiga yetuk qiz keldi.* (G'.G'ulom). *Bir qultum suv bitta hayot bilan bab-baravar bo'lgan, bitta teva najot bo'lib ko'ringan taqirlar axir shu cho'lning o'zi emasmi?* (A.Po'lat, «Cho'ldagi mash'al»).

**Tevat** – *shv.* It. *Tevatga suyak tashlaganingdan keyin o'z holiga qo'y, qanday g'ajisa, shunday g'ajisin.* («Qanotli so'zlar»). *To'rt tomon yeliga ko'kragi ochiq, Eshakday tevat ham yotibdi beun.* (Mirtemir).

**Teylerioz** – kavsh qaytaruvchi hayvonlarda uchraydigan invazion transmissiv kasallik. Limfa bog'lamlari va parenxima organlarida, so'ngra qon eritrotsitlarida parazitlik qiladigan *Thieleria* avlodiga kiruvchi bir hujayrali pigmentsiz sodda parazitlar qo'zg'atadi. Kasallik Yevropa, Osiyo va Afrika davlatlariga tarqalgan. Qoramollarda *T.sergenti*, *T.mutans*; qo'y va echkilarda *T.ovis* keltirib chiqaradi. Ko'proq 6 oylik buzoqlar qattiq kasallanadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi sog'lom mollarga zararlangan yaylov kanallari orqali yuqadi. Kasallik, asosan, yilning iliq-issiq faslida, kanallarning faol harakati davrida boshlanadi. Limfa bezlari, taloq va jigar kattalashadi, shirdon shilliq qavatida yumaloq yaralar paydo bo'ladi.

**Tezak** (tappi) [*f.*] – **1.** Hayvon yoki qush axlati; go'ng. Mol tezagi. *Yigitlar qo'ylarning siydik va tezaklariga bulg'anib yotgan tutqunlarning qo'l-oyoqlarini yechib, qo'radan haydab*

*chiqarmoqchi bo'ldilar.* (S. Ayniy, «Qullar»). – *Oq qushlarning tezagi oq-poq bo'lar ekan, – dedi Shum bola.* (G'.G'ulom, «Shum bola»).

2. Qurigan yoki yoqish uchun maxsus quritilgan go'ng (asosan, mol go'ngi). Chorva mollari go'ngidan yalpoq shaklida quritilgan yoqilg'i. *Haydar, o'choq ichiga ko'milgan o'tni ochib, ustiga bir dona tezak qo'yib, puflab, biroq yashnatdi.* (S. Ayniy, «Qullar»). *O'choqda tezak miltillab yonar, qora chovgum biqir-biqir qaynardi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Tezkor** [f. – tez, jadal ishlovchi] – 1. Tez ishlaydigan, ishni tez, chaqqon bajaradigan. Tezkor usta. *O'rinboy tezkor, har qanday ishni ham tez bajo etishni yoqtiradiganlardan.* (T. Rustamov, «Mangu jasorat»).

2. Tezlik bilan harakat qiluvchi, tezlik bilan natijaga erishishni ta'minlovchi. *Qurt boqishning tezkor usuli haqidagi bu dovruq butun mamlakatga ham taraldi.* (Y. Muqimov, «Ipak tolasi»). *Farg'ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi tuzgan tezkor guruh a'zolari bozorlarni zimdan kuzata boshladilar.* (Gazetadan).

**Tezkorlik** – 1. Tez ishlash. *Uning tezkorligi hammani hayratda qoldirdi. Tezkorligi, sifatli ishi bilan tanila boshlagan. Omonga mas'uliyatli ish topshirildi.* (T. Bahromov, «Otasining bolasi»).

2. Tez ishlash, ishni tez bajarish; ishda jadallik. *G'alla o'rim-terimi tezkorlikni talab qiladi. O'rta Osiyoning talay qismini egallab yotgan tog'lar bag'ridagi boyliklar yil sayin tezkorlik bilan o'zlashtirilmogda.* (A. Razzoqov, «Muhokama mavzui»). *Buning uchun tezkorlik bilan, ba'zida ko'pchilikka xush*

*kelmaydigan qattiq choralalar ko'rilishi zarur.* (Gazetadan).

**Tezoqar** – suvning oqimini kanalning balandlikda joylashgan qismidan pastroq qismiga katta tezlikda o'tkazadigan qisqa kanal yoki nov shaklidagi gidrotexnika inshooti. Tez oqadigan. *Tezoqar daryo, pulemyotlardan yomg'irdek quyilayotgan o'q, snaryadlarning dahshatli chinqirig'i hujumni tezlatgani qo'ymas edi.* (A. Rahmat, «Aziz tuproqda ungan do'stlik»).

**Tezpazak** [f. – tez pishuvchi] – shv. Tezpushar. *Tezpazak o'rik.*

**Tezpushar** – tez pishadigan, erta yetiladigan; chillaki. *Tezpushar paxta navlari. Tezpushar o'rik. Tezpushar qovun. Anov pol tutzor ko'rkam – Ra'no qalamchalari. Bu poli – Salimjonning Tezpushar olchalari.* (Q. Muhammadiy).

**Tesha** – 1. Tig'i dastasiga nisbatan ko'ndalang o'rnatilgan chopish, kesish quroli. *Dast tesha. Poy tesha. Na o'tin bo'lmasa, na o'tinni yorgani teshasi bo'lmasa, nima qilaman?* (Hamza, «Tuhmatchilar jazosi»). *Hasharchilar ketmon, belkurak, tesha, gaz va b. asbob-uskunalarni maktab omborchisiga topshirib, uy-uylariga tarqaldilar.* (H. G'ulom, «Binafsha atri»).

2. Tesha (erkaklar ismi).

**Tikan** – 1. O'simliklarning, shuningdek, ba'zi hayvonlarning ingichka uchli, ninasimon a'zosi. *Qizil gul tikani. Yantoq tikani. Tipratikan tikani. Tikan bo'lib oyoqqa qadalguncha, gul bo'lib ko'krakka sanchil.* (Maqol). *Vohid jonjahdi bilan siqimlagan na'matak tikanlari kaftiga emas, yuragiga sanchishdi go'yo!* («Saodat»).

2. Shunday narsali (tikanli) o'to'simliklar. *Ekuvsiz qolgan yerlarda tikanlar o'sib yotibdi.*

3. Narsalarning o'tkir tikansimon qismi. *To'siq simning tikani. Ko'zga tikan* – kishilarga yomon ko'ringan kimsa yoki narsa haqida. *Xalqimizda ajoyib bir maqol bor: «Tekin yegan – ko'zga tikan».* (M. Ismoilij, «Bizning roman»). **Tikan bo'lmoq** – o'rtada to'siq, g'ov bo'lmoq. *Uning [Zaynabning] bu holi ersa mening uchun yaxshi emas, u yana ko'p vaqt bizning oramizda tikan bo'lmoqchi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Tikan ustida o'tirmoq** (ayn. **igna ustida o'tirmoq**, q. **igna**) – Siporish qilsam-u, tikan ustida tipirchilab o'tirsam, bari bir, gap qovushmaydi. *Undan ko'ra dangal gap yaxshi: men dalaga chiqmoqchiman, – dedi Parpiyev.* (Y. Shamsharov, «Yengish»). **Tikanga ag'anamoq** (yoki **dumalamoq**) – tinchligini yo'qotmoq, notinch bo'lmoq, ruhiy azob tortmoq, qiynalmoq. *Otabek qizga uylanib qo'ygach, bizning Homid tikanga ag'anab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko'tarish fikriga tushgan* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Odiljon shu kecha tikan ustida dumalab chiqdi.* (I. Rahim, «Qo'shnilar»). **Qora tikan** – kishilarga yomon ko'ringan salbiy shaxs haqida. – *Yo'q, faqat siz yaxshisiz, – dedi Zulayho istehzo qilib. – Boshqalarining hammasi qora tikan, hammasi sizni ko'rolmaydi!* (P. Qodirov, «Qadrim»). **Qora tikan tuz** (ayn. **tikanak tuz**, q. **tikanak**).

**Tikanak** – 1. Tikanli o'simliklarning umumiy nomi. *Onaxon tikanak bosib ketgan go'riston ustidan to'g'ri temir yo'l ustaxonasi tomonga yo'l oldi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Cho'qqining o'rta yerida, «Toshbuloq» yaqinida tikanak va archa cho'kirtaklaridan gulxan yoqil-*

*gach, bolalarning quvonchi yana qanoatlandi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

2 ayn. **Tikan.**

**Tikanak tuz** – novvotsimon kristallangan yirik tuz. *Balo-qazoni hozir daf qilamiz. Bitta tovoqqa kul solib, tikanak tuz bilan bir kaft isiriqning donidan olib keling.* (R. Fayziy, «Hazrati inson»). **Chaqir tikanak** – poyasi yotib o'sadigan yovvoyi o't va uning yulduzcha shaklidagi tikani (tikanlaridan biri yuqoriga qarab o'sgan bo'ladi). *Oyoqlarimga chaqir tikanaklar kirib, hamma narsa yo'lini to'sardi.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**Tikanzor** – tikanli o'simliklar o'sib yotadigan, tikanli o'simliklar bilan qoplangan yer, maydon. *Tikanzor cho'l. Suvsizlikdan qaqshab, xuddi skeletlarga o'xshab qolgan yantoq va tikanzorlar maydoni.* (Tuyg'un, «So'nggi sayohat»).

**Tikanli** – 1. Tikani bor, tikanlar bilan qoplangan. *Tikanli daraxt. Tikanli o'simlik. Tuyalar oldiga yantoq tashlangan va ular ignaday tikanli bu xashakni, qari odamlar pashmak holva yeganday, osonlik bilan yutmoqda.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Tikanli simlar bilan o'ralgan bu yam-yashil o'rmon etagi, bu oppoq palatalarda kecha-yu kunduz azob, o'lim.* (A. Muxtor, «Chinor»).

2 ko'chma. Kishiga qattiq botadigan, ozor beradigan; achchiq, yoqimsiz (gapso'z, muomala haqida). *Husayn Boyqaro otda turib, asiriga bir necha achchiq, tikanli so'zlar otdi-da, qo'li bilan navkarlarga «olib jo'nanglar», degan ishorat qildi.* (Oybek, «Navoiy»). *Rashidning gap, garchand xolis va muhokamali bo'lsa ham, nima uchundir Elmurodga tikanli tuyuldi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

3. Narsalarning o'tkir tikansimon qismi. *To'siq simning tikani*. **Ko'zga tikan** – kishilarga yomon ko'ringan kimsa yoki narsa haqida. *Xalqimizda ajoyib bir maqol bor: «Tekin yegan – ko'zga tikan»*. (M. Ismoiliy, «Bizning roman»). **Tikan bo'lmoq** – o'rtada to'siq, g'ov bo'lmoq. *Uning [Zaynabning] bu holi ersa mening uchun yaxshi emas, u yana ko'p vaqt bizning oramizda tikan bo'lmoqchi*. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Tikan ustida o'tirmoq** (ayn. **igna ustida o'tirmoq**, q. **igna**) – Siporish qilsam-u, tikan ustida tipirchilab o'tirsam, bari bir, gap qovushmaydi. *Undan ko'ra dangal gap yaxshi: men dalaga chiqmoqchiman, – dedi Parpiyev*. (Y. Shamsharov, «Yengish»). **Tikanga ag'anamoq** (yoki **dumalamoq**) – tinchligini yo'qotmoq, notinch bo'lmoq, ruhiy azob tortmoq, qiynalmoq. *Otabek qizga uylanib qo'ygach, bizning Homid tikanga ag'anab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko'tarish fikriga tushgan* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Odiljon shu kecha tikan ustida dumalab chiqdi*. (I. Rahim, «Qo'shnilar»). **Qora tikan** – kishilarga yomon ko'ringan salbiy shaxs haqida. – *Yo'q, faqat siz yaxshisiz, – dedi Zulayho istehzo qilib. – Boshqalarining hammasi qora tikan, hammasi sizni ko'rolmaydi!* (P. Qodirov, «Qadrim»). **Qora tikan tuz** (ayn. **tikanak tuz**, q. **tikanak**).

**Tikanak** – 1. Tikanli o'simliklarning umumiy nomi. *Onaxon tikanak bosib ketgan go'riston ustidan to'g'ri temir yo'l ustaxonasi tomonga yo'l oldi*. (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Cho'qqining o'rta yerida, «Toshbuloq» yaqinida tikanak va archa cho'kirtaklaridan gulxan yoqil-*

*gach, bolalarning quvonchi yana qanoatlandi*. (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

2 ayn. **Tikan**.

**Tikanak tuz** – novvotsimon kristallangan yirik tuz. *Balo-qazoni hozir daf qilamiz. Bitta tovoqqa kul solib, tikanak tuz bilan bir kaft isiriqning donidan olib keling*. (R. Fayziy, «Hazrati inson»). **Chaqir tikanak** – poyasi yotib o'sadigan yovvoyi o't va uning yulduzcha shaklidagi tikani (tikanlaridan biri yuqoriga qarab o'sgan bo'ladi). *Oyoqlarimga chaqir tikanaklar kirib, hamma narsa yo'lini to'sardi*. (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**Tikanzor** – tikanli o'simliklar o'sib yotadigan, tikanli o'simliklar bilan qoplangan yer, maydon. *Tikanzor cho'l. Suvsizlikdan qaqqash, xuddi skeletlarga o'xshab qolgan yantoq va tikanzorlar maydoni*. (Tuyg'un, «So'nggi sayohat»).

**Tikanli** – 1. Tikani bor, tikanlar bilan qoplangan. *Tikanli daraxt. Tikanli o'simlik. Tuyalar oldiga yantoq tashlangan va ular ignaday tikanli bu xashakni, qari odamlar pashmak holva yeganday, osonlik bilan yutmoqda*. (S. Ayniy, «Qullar»). *Tikanli simlar bilan o'ralgan bu yam-yashil o'rmon etagi, bu oppoq palatalarda kecha-yu kunduz azob, o'lim*. (A. Muxtor, «Chinor»).

2 ko'chma. Kishiga qattiq botadigan, ozor beradigan; achchiq, yoqimsiz (gapsos'z, muomala haqida). *Husayn Boyqaro otda turib, asiriga bir necha achchiq, tikanli so'zlar otdi-da, qo'li bilan navkarlarga «olib jo'nanglar», degan ishorat qildi*. (Oybek, «Navoiy»). *Rashidning gap, garchand xolis va muhokamali bo'lsa ham, nima uchundir Elmurodga tikanli tuyuldi*. (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

**Tikanli o'simliklar** – metamorfoz natijasida ba'zi organlari o'tkir uchli qattiq hosila, ya'ni tikanga aylangan o'simliklar (mas., do'lana, zirk, yovvoyi olma, yovvoyi nok va b.lar). Tikanli o'simliklar quruq va issiq iqlimli yerlarda ko'p uchraydi. Ko'pincha barg va novdasi tikanga aylanib, suv bug'latuvchi yuzani, ya'ni transpiratsiyani kamaytiradi.

**Tilik**, ayn. **tilim** – bir tilik qovun. *Uloqchi sopiga feruza qadalgan chiroyli pichoq bilan umburvoqidan bir tilik kesib, O'sarjonga uzatdi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Bekat binosi ustida gumbaz. Bu gumbazga sanchilgan uzun kaltak uchida handalakning bir tiligiday oyramzi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Tiliklamoq**, ayn. **tilimlamoq** – [Qovunni] *Shartta uzib, tolning tagiga bordim. Tiliklab yeya boshladim.* (G'.G'ulom, «Tirilgan murda»). *Yerga chordana qurib, yonidan pichoq chiqardi-da, qovunni tilikladi.* («Yoshlik»).

**Tilim** – narsalarning (asosan, poliz mahsulotlarining) uzun-uzun tilib, kesib ajratilgan har bir bo'lagi; tilik. *...yo'lda qattiq toliqqanligi uchun durust ovqat ham yemadi. Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to'rt piyola choy ichdi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»). *Dalamizda qovun mo'l, tilimi tilni yorar.* (R. Bo-bojon).

**Tilimlamoq** – tilim-tilim qilib kesmoq; tiliklamoq. *Go'shtni tilimlamoq. Tarvuzni tilimlamoq. Ermatov handalaklarni tilimlab, odamlarga ulasha ketdi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Jalolxon yarimta qovunni tilimlab tashladi.* (R. Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»).

**Tillaqo'ng'iz** – bahor, yoz oylarida paydo bo'ladigan, yarqiroq yashil rang-

li qo'ng'iz. *Xuddi yengil shamol kabi zir yugurib bog'larda, Yoki quvib tillaqo'ng'iz, Gulzorlarda o'ynardim.*

**Tilma** – tilimlab kesib hosil qilingan. *Tilma jo'yak. Tilma zovurdan chiqib, tuproq uyumidan sakrab o'tgan Alijon qaytarma etigiga yopishgan tuproqni jahil bilan qoqdi.* (H. No'mon, «Fasllar»).

**Tilmalamoq** – kam qo'll. Tilimlamoq, tilishlamoq. *Asil qizil olmalar. Uni qizim tilmalar.* (M. Shayxzoda, «Toshkentnoma»).

**Timeleya** (*Thyme-laea passerina* (L) Goss. et. Germ.) – kelinsupurgidoshlar oilasiga mansub, bo'yi 30–80 sm keladigan, bir yillik o'tsimon o'simlik. Iyul-avgust oylarida gullaydi va urug'laydi. Bu o'simlik daryo, ariq bo'ylarida, zaxkash joylarda o'sadi. Ammo sug'oriladigan har xil ekinlar orasida begona o't sifatida ham uchraydi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida o'sadi.

**Tip** [yun. *typos* – iz, belgi; shakl, namuna] – 1. Muayyan bir tur (guruh) dagi narsalarning muhim belgilariga ega bo'lgan namunasi, shakli, modeli. *Bizning vazifamiz – cho'lda shahar tipidagi posyolkalar qurish, obod qishloq barpo etish.* («O'zbekiston qo'riqlari»). *Tuproqlar sho'rlanish tipiga ko'ra, asosan, xlor-sulfatli, ba'zan sulfat-xlorli bo'ladi.* («Fan va turmush»).

2 *biol.* Hayvonlar sistematikasida: kelib chiqishi jihatidan o'zaro qarindosh, yagona tuzilish shakliga ega bo'lgan hayvonlar sinflarini birlashtiradigan oliy sistematik kategoriyalardan biri. *Bo'g'im-oyoqlilar tipi.*

**Tirgak** ayn. **tirak** – yog'och tirgak. Temir-beton tirgak. *Yiqilib ketmasin, deb tirgak qo'yilgan bu hovlidagi yagona xonaning orqasiga borib, past tovush bi-*

lan: – *Qulmurod! O', Qulmurod! – deb chaqirdi.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Shu og'ir kunlarda bir-birimizga tirgak bo'lmasak, qachon bo'lamiz!?* (Shuhrat, «Shinelli yillar»). *Ularning ollohi – pul, payg'ambari – yer, imoni – mol-mulk. Hayotining ana shu uch tirgagini istagan yo'l bilan muhofaza etishga doim tayyor ular.* (S. Karomatov, «So'nggi barxan»).

**Tirgovuch** ayn. **tirak** – yog'och tirgovuch. *Olmalarga tirgovuch qo'ymoq. Ota-onaga tirgovuch bo'lmoq. Yer qatлами siljib shitirlaydi, yo'g'on tirgovuchlar qisirlab sinadi.* (S. Ahmad, «Mo'tti»). *Bir kun pushaymon bo'lmasin, deymen. Til-mochning qozikalonday tirgovuchi bor, bilib qo'y!* (Oybek, «Ulug' yo'l»). *Hech kim yakka tashlamas qadam, Kimdir kimga bo'ladi tirak. Bir-biriga suyanar odam, Tirgovuch ham tirakka kerak.* (To'lqin, «Ochiq xat»).

**Tirik** – 1. O'lmagan, hali yashab turgan; hayot, barhayot. *Ikkita tirik katta baliqning bo'g'zidan qanot o'tkazib, hovuzga tashlab qo'yiladi.* (Mirmuhsin, «So'gal»). *«E, onajonginam, qani endi, sen ham shu yerda tirik bo'lsang-u, o'z o'g'lingning qanday odam bo'lganini ko'rsang», deb xayol qildi [Elmurod].* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Alhamdulillah, ko'rdim, tirik ekansan, noqobil bolam.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. O'simlik yoki hayvonot dunyosiga oid; jonli. *Tirik tabiat. Tirik organizm.*

3. O'zining yangi vaqtdagi ko'rinishini, tarovatini yo'qotmagan, so'lmagan (O'simlik, uning guli, mevasi va sh.k. haqida). *Sabzining tirik-tirigini terib olmoq. Bodring suvda tirik turadi.*

**Tirik massa** – hayvonga erta bilan, oziq bergungacha yoki 8–12 soat qantarib

qo'yilgandan keyingi asli vazni; hayvonning turi, jinsi, yoshi va zotga bog'liq; hayvonning tirik vazni bilan bir xil.

**Tirkalma** – boshqa bir ulovga, mashinaga tirkab ishlatiladigan, o'zi mustaqil yurmaydigan; tirkama. *Tirkalma plug. Tirkalma seyalka.*

**Tirkama**, ayn. **tirkalma** – tirkama kultivator. *Tirkama seyalka.*

**Tirkamali** – biror qurolni tirkab, ulab ishlatishga moslangan; tirkamasi bor. *Tirkamali traktor.*

**Tirkamoq** – 1. Biror qurol, moslama va sh.k. ni yurgizuvchi mashina, ulovga biriktirmoq, ulamoq. *Vagonlarni parvozga tirkamoq. Seyalkani traktorga tirkamoq. Qodirni dafn qilib qaytganlarida, sharq tomondan pachag'i chiqqan «Volga»ni yuk mashinaga tirkab kelishayotganini ko'rishdi.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»).

2. Birga qo'shib qo'ymoq, qatoriga qo'shmoq, kiritmoq. *Mirza Muhiddin Ibrohimovning ishiga yangi hujjatlar tirkadi.* (A. Qahhor, «Sarob»). *Abdurasul Aleksey bilan maslahatlashib, uning [Turdiyovning] arizasini quloqlar va dargumon odamlardan tushgan arizalar delosiga tirkab qo'ydi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

3. Tiramoq, suyamoq. *Shaftoliga ayri tirkamoq. Zikriyo bilan Azizboy uning [eshonning] qo'ltig'idan olib, so'riga o'tqazadilar, yonboshiga paryostiqlarni tirkab qo'yadilar.* (N. Safarov, «Sharq tongi»). *Ular narvonchani tokchalarga tirkab qo'ydilar.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Tirkish** – arava shotisini egar ustida tutib turuvchi, ikki uchi biriktirilgan qalin qayishdan iborat ot-arava abzali. *Shunda qulning achchig'i kelib, so'rgan*

*molining terisidan tirkish qilib olibdi.* («Oltin olma»). *Go'yo hamma ishni o'zing qilmoqchi bo'lasan. Lekin shuni bilki, tirkish bo'lmasa ham otni aravaga qo'shib bo'lmaydi.* (F. Nasriddinov, «Ota o'g'li»).

**Tirma: tirma mola** – haydalgan yer-ni tekislash bilan bir vaqtda yuza yumshatish uchun ishlatiladigan tishli mola; sixmola.

**Tirraqi** – 1. Hadeb tirraqilayveradigan, ichketar. *Tirraqi bola. Tirraqi mol. Tirraqi buzoq podani bulg'ar.* (Maqol). *Ular [qo'zilar] hali yosh-da, chiroq, o'z foydalarini bilmaydi. Agar ham sut emib, ham o't yeb, tirraqi bo'lib yurishni afzal ko'rishsa, onalariga qo'sha qolay.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2. Oriq; o'laksa, nimjon. *Olgan oy-ligiga bersa, to'rtta tirraqi qo'y beradi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

**Tis und.s.** – otni orqaga tisarishda aytiladi.

**Titan II** – suv isitadigan yoki qaynatadigan maxsus qurilmali katta idish. [Ergash:] – *Mana bu esa titan deyiladi, – dedi suv qaynatayotgan yaltiroq idishni ko'rsatib.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Tivit** – qo'y, echki, tuya, quyon va boshqa mo'yinali hayvonlarning ingichka va mayin juni.

**Tizgin (Jilov)** – ot yoki eshak yuganing ikki tomonidan suvluq halqalar-ga ulanib, ikki uchi tugib birlashtirilgan qayish. Har bir bo'lagining uz. 1–1,5 m bo'ladi. Tizgindan ot va eshakni boshqarishda foydalaniladi.

1. Ot, eshak va b. hayvonlarni bog'lash yoki qantarib qo'yish uchun xizmat qiladigan, uchi suvluqqa yoki boshvoqqa birlashtiriladigan uzun tasma yoki chi-

zimcha. *Sherbek egardan sakrab tushdi. Otning tizginini panjaraga bog'lab, cho'chqaxonaga qarab yurdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2 s.t. **Jilov.** *Ovchilar xiyla ilgarilab ketdi. Juvon tizginini sal bo'shatgan edi, toy birdaniga ko'tarilib ketdi.* (A. Qahhor, «Xotinlar»). *Rais otidan tushib, tizginni bilagiga soldi-da, ariqdan yuzini yuvdi.* (H. No'mon, «Fasllar»).

3 ko'chma. Boshqarish vositasi, boshqaruv.

**Tizginlamoq** – 1. Ot, eshak va b. hayvonlar boshiga tizgin bog'lamoq, tizgin solmoq; jilovlamoq. «*Kishnoqi*»ni faqat *Andriyan tizginlay olardi.* (Gazetadan).

2 ko'chma. O'z amriga, irodasiga bo'ysundirmoq, itoat qildirmoq; jilovlamoq. – *Uch raisdan birini tanlash mumkin, – dedi Zunnunov, – katta xo'jalik, odamlari har xil, ularni tizginlab oladigan keksaroq, tajribaliroq odam kerak-da!* (I. Rahim, «Ixlos»). *Asov daryolar tizginlanib, ulardan nur va quvvat olinayotir.* (Gazetadan).

**Tizim** – 1. Ip, sim va sh.k. ga terilgan narsa; shoda. *Bir tizim marvarid. Bir tizim marjon. Bir tizim pomidor qoqi. Bir tizim qalampir. Biz ishni cho'zmaslik uchun har quvurni alohida emas, ikki-uchtasini bir tizim qilib burab olar edik.* (P. Qodirov, «Erk»).

2. Bir soha, muassasa va sh.k. ga oid yo'nalish, ish-faoliyat kabilar majmui. Bank tizimi. Xalq ta'limi tizimi. Xavfsizlik tizimi. *Mehnat vazirligi tizimida ishlayotganingizga ham ancha bo'libdi. Tizim va uning joylardagi bo'limlarida xotin-qizlarning faoliyati qanday? – Tizimizda ishlayotgan xotin-qizlarning*

*olib borayotgan ishlari yaxshi.* («Mehnat»).

3. O'zaro bog'liq va uzviy tartibda bo'lgan narsa, hodisalar birligi, majmui.

4. O'zaro bog'liq qismlardan tashkil topgan tuzilma, ijtimoiy, siyosiy va b. jihatdan tuzilish shakli.

5. Biror ish-faoliyatni tashkil etish, amalga oshirishning shakl va tartib-qoidalar majmui.

**Tizingul** – oq, ba'zan qizil yoki och binafsha gulli ko'p yillik dorivor o'simlik.

**Tishyorg'an** – 1) qo'ylarning 2 yoshda qo'zi tishi tushib, doimiy tishi chiqishining nomlanishi. 2) Otlarning 4–4,5 yoshda o'rta sut tishlari tushib, doimiy o'rta tishlar chiqadi va voyaga yetadi.

**Tobulg'i** (*Spiraea L.*) – ra'noguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 1–1,5 m keladigan butalar turkumi. Shoxshabbasi g'uj bo'ladi, barg chiqargandan so'ng gullaydi. Gullari oq yoki och pushti rangli bo'lib, shoda yoki ro'vak to'pgullari hosil qiladi, odatda juda ko'p gullaydi. Yorug'sevar, qurg'oqchilikka chidamli, tuproq tanlamaydigan, sovuqqa chidamli bo'ladi. Urug'idan, ildiz va yer usti bachkilaridan ko'payadi. Bu o'simlik cho'llarda, tog' va o'rmonlarda, jarliklarda ko'p uchraydi. O'zbekistonning tog'li tumanlarida 4 turi o'sadi. Tobulg'i juda ko'p va chiroyli gullagani tufayli qimmatli manzara o'simliklaridan hisoblanadi. Tobulg'ining ba'zi turlaridan tog' yonbag'irlarini mustahkamlash uchun foydalaniladi. *Uyda o'tin yo'q edi. Onam ikkovimiz tog'dan to'bilg'i chopib kelgani bordik.* (S. Murodbekov, «Yovshan isi»).

**Toifi** [*a.* – Saudiya Arabistonidagi Toif shahri nomidan] – mevasi qizil va yirik, kechpishar uzum navlaridan biri; shu uzumdan qilingan vino navi. *8 gektar tokzordagi nimrang, soyaki, toifi kabi uzum navlarining har gektaridan 25 sentnerga yetkazib hosil yig'ib olindi.* (Gazetadan).

**Tok** [**uzum** (*Vitis vinifera L.*)] – uzumdoshlar (*Vitaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30 m ga yetadigan, jingalaklari yordamida daraxtlarga osilib o'suvchi ko'p yillik o'simlik. Tok keng miqdorda o'stiriladi. Xalq tabobatida mevasi va uning urug'i hamda bargi ishlatiladi. Mevasi tarkibida ko'p miqdorda qand, organik (olma, vino, oksalat va salitsil) kislotalar, vitamin V va S, flavonoidlar, oshlovchi va b. moddalar, urug'ida ko'p miqdorda yog', oshlovchi va b. moddalar, bargida esa qandlar, kversetin, inozit, xolin, organik (vino, olma, protokatex va b.) kislotalar, karotin, vitamin V va K, nikotin va foliy kislotalar, katexinlar, oshlovchi va b. moddalar bor.

**Tok I** (*Vitis*) [*f.* – uzum novdasi, daraxti] – uzumdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik daraxtsimon lianalar turkumi; rezavor meva ekini. Tok issiqsevar, sovuqqa chidamli, asosan, vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladigan o'simlik, ko'chatlari qalamchalaridan, payvand qilish orqali, seleksiya maqsadida urug'laridan ko'paytiriladi. Uzum o'simligi. Uch tup tok. Tok ochmoq. Tokni ko'mmoq. *Bir tup tok eksang, bir tup tol ek.* (Maqol). *Hovlining yonida chorbog', chorbog'da rastarasta qilib, havozaga ko'tarilgan toklar.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Uzum tok bargidan ham ko'p.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).



**Tok kesish** – tokning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini tartibga solib turish uchun har yili amalga oshiriladigan agrotexnik tadbir. Tok kesish parvarishni yengillashtiradi, yorug'lik va issiqlikdan o'simlikning to'la foydalanishini ta'minlaydi, ildiz bilan yer ustki qismining o'zaro munosibligini tartibga soladi.

**Tokzor** – nuqul tok o'simligi bilan band yer, maydon, bog'. *Ana, yo'lning ikkala beti bo'ylab, saxiy quyosh nurini bearmon emib, yastanib yotgan tokzorlar orqada qoldi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Toksinlar** [yun. *toxikon* – zahar] – biol., tib. Ba'zi mikroorganizmlar, shuningdek, ba'zi hayvon va o'simliklar chiqaradigan zaharli moddalarning umumiy nomi. *Garmon, antibiotik, toksin va boshqa turli xil fiziologik faol moddalar hujayra membranalarining xossalarini o'zgartiradi.* («Fan va turmush»).

**Toksikologiya, veterinariya toksikologiyasi** – zaharli moddalar xususiyatlari va ularning hayvonlar (qishloq xo'jaligi hayvonlari, ovlanadigan va boqiladigan yovvoyi hayvonlar, baliqlar, asal-arilar) organizmiga ta'sirini, pestitsidlar qoldiqlari va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslangan ozuqalarni veterinariya-sanitariya jihatidan baholash, zaharli o'simliklar, mikroskopik zamburug'lar, suv o'tlaridan zaharlanish va ularning oldini olish, zaharlangan hayvonlarni davolash, ozuqalarda, xom go'sht mahsulotlaridagi zaharli kimyoviy birikmalarning ruxsat etilgan qoldiq miqdorini aniqlash, ularni tahlil qilish va boshqa masalalar bilan shug'ullanadi.

**Tokchilik** – kam qo'll. ayn. **uzumchilik 1, 2.** *Dongdor Rizamat ota tokchilikda sohibkor.* (M. Shayxzoda).

**Tol I** – ingichka uzun bargli, surx novda otib o'sadigan daraxt yoki buta (asosan, soya-salqini, poyasi, poyasidan esa turli narsalar tayyorlash uchun ekiladi). Qora tol. Sambit tol. *Terak ekmay, tolni ek, tolning soyasi yaxshi.* («Qo'shiqlar»). *Soy bo'yidagi aksariyat azim tup tollarning tagi choyxona.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Tola** – 1. Yigirish, gazmol to'qish va sh.k. maqsadlar uchun ishlatiladigan juda ingichka, puxta tabiiy yoki sun'iy material. Ipak tolasasi. Jun tolasasi. Sun'iy tola. *Biz tergan paxtaning har bir tolasin yovuzlar bo'yniga aylagil sirtmoq.* (G'ayratiy).

2. Soch, soqol kabilarning har bir mo'yi. *Ayt, bu sochning tolasasi-mu, Jon ipin bir bandi-mu?* (E. Vohidov). *Uni qunchoqlab o'pgisi, har bir tolasasi og'ir mehnat, alam bilan sug'orilgan oppoq soqolini ko'zlariga surtgisi keldi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

3 kam qo'll. Kokil, zulf.

4 ko'chma. Umuman, toлага o'xshash narsa haqida. *O'rgimchak to'qir oq tolalar, xonqizi boradi mehmonga.* (Sh. Rahmon, «Yurak qirralari»). *Poliefir tolasidan ishlangan sun'iy qon tomirlar arteriya tomirlari torayib qolgan bemorlarga yordam berishda qo'llanmoqda.* («Fan va turmush»). *Og'riq – asab tolarining isyoni bo'lib, biror a'zo yoki vujudning «dod-faryodi»dan darak beradi.* («Fan va turmush»).

**Tolali** – 1. Tolaga ega bo'lgan, tolasisi bor. *Ingichka tolali paxta. Uzun tolali zig'ir.*

2. Tola beradigan. *Tolali texnika o'simliklari.*

3. Tolalardan tuzilgan. *Yog'och tolali plastmassa.*

4 *tex.* Tuzilishida tola bo'lgan. *Cho'g'-lanma tolali elektr lamp.*

**Tolali banan, Tekstil banani** (*Musa textilis Nee*) – banandoshlar oilasiga mansub ko'p yillik tolali o'simlik. Asli Filippin orollaridan kelib chiqqan. Uning barg tolalaridan yuqori sifatli manil kanopi, arg'amchilar, arqonlar tayyorlanadi. Barglar ikki-uch yoshli o'simlikdan har 6–8 oydan keyin olinaveradi. Gektaridan yiliga 27 s gacha tola olinadi.

**Tolali o'simliklar** – poya po'stlog'ida va barglarida tolalar hosil bo'ladigan, tola yoki yigiruv xomashyolari, materiallari olinadigan bir va ko'p yillik o'tsimon, buta va daraxtsimon o'simliklar guruhi. O'simliklar dunyosidagi 292 oiladan 125 tasi tolali o'simliklar hisoblanadi. Tolali o'simliklar 3 guruhga ajratiladi: 1) tolası urug'ida rivojlanadigan tolali o'simliklar – g'o'za; 2) tolası poyasida rivojlanadigan tolali o'simliklar – kanop, jut, nasha, tolali zig'ir, kendir, sidr; 3) tolası bargida rivojlanadigan tolali o'simliklar – tolali banan, agava, yukka, Yangi Zelandiya zig'iri.

**Tolaning metrik nomeri, tolaning ingichkaligi** – bir gramm paxta tolasini bir-biriga qo'shib hisoblaganda hosil bo'ladigan va metr lab belgilanadigan uzunlik o'lchovi; g'o'zalarda tolaning metrik nomeri 4500–6500 gacha; tola qancha ingichka bo'lsa, u shuncha uzun, metrik nomeri ham katta bo'ladi.

**Tolerantlik** [*lot. tolerantia* – sabrtoqat, chidam, bardosh] – 1 *biol., tib.* Organizmning immunologik jihatdan tashqi ta'sirlarga javob bera olish qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qolishi; ya'ni antigen ta'sirlarga nisbatan odam yoki

hayvon organizmi tomonidan antitanalar ishlab chiqarish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi.

2 *tib.* Organizmning muayyan modda yoki zaharning noqulay, salbiy ta'siriga chidash, bardosh berish qobiliyati.

3. O'zgalarning fikr-g'oyalari, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, turmush tarzi va xulq-atvoriga nisbatan sabr-toqatli bo'lish, beparvo qarash; bag'rikenglik.

**Tolkuchuk** – barg yoza boshlagan tol novdasi. Ko'klam. *Nega shamol kelmas yuksak tog'lardan, Tolkuchukdan jevak taqqan maysa bog'lardan.* (G'.G'ulom).

**Tolqon** – 1. Qovurilgan don, quritilgan non va sh.k. dan tuyib tayyorlangan yemish. *Non tolqon. Bug'doy tolqon. Ertalab Tozagul mehmon opani yangi tuqqan sigirning og'izi va o'g'irdan issiqqina chiqqan oqishoq tolqon bilan siyladi.* (H.G'ulom, «Mash'al»). *Niyoz bobomning kampiri Xumor xola dasturxon yozdi, bir hovuchdan jiyda, o'rikqoqi, tolqon qo'ydi.* («Yoshlik»).

2. Umuman, tuyilgan har qanday narsa; poroshok. *Nosvoy tolqon.*

**Tolqon qilmoq** – 1. Tolqon tayyorlamoq. *Xotinlar, odatda, hayitga holva, tolqon qilishadi;* 2. Tuyib tolqonga aylantirmoq. *Maxorkani tolqon qilaman. Jindak ohak yoki kul bilan xurushga keltiraman.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»); 3 *ko'chma.* Mayda-mayda qilmoq; yer bilan yakson qilmoq. *Bu yoqdagi qazuvchilar ham G'ulomjon, Barot polvon, Zamon singari tog'ni ursa tolqon qiladigan azamatlar edi.* (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o.»).

**Tolzor** – nuqul tol bilan band yer, maydon. *Anhor, narigi qirg'oqdagi tolzor tagida yoyilib oqadi.* (H.G'ulom,

«Toshkentliklar»). *Kaftday kichkina hovlining bir yoqasidan o'tgan anhor bo'yi – quyuq tolzor, sersoya, jimjit bir go'sha.* (Oybek, «Ulug' yo'l»).

**Tolchokvon** – tol kurtak chiqara boshlaydigan erta bahor vaqti. *Tabiat hech qachon bo'sh turmagan. Gijing toyday o'ynab qochar soylari. Tolchokvon bog'larga yopib gilampo'sh, Rovoch, momoqaymoq chiqqan oylari.* (S. Akbariy, «Yangi yil alyori»).

**Tomat** [isp. *tomate*] – pomidor suvi yoki pastasi. *Ko'p tomat va sok olish mumkin bo'lgan «Yusupov» kabi yaxshi sort pomidorlar kam keltirilayotir.* (Gazetadan). *Ayolning xonadonidan 30 litr samogon, 150 litr tomat pastasi, xamirturush topildi.* (Gazetadan).

**Tomir** – 1 anat. Odam va hayvonlar tanasida qon yoki limfa oqadigan naychasimon a'zo. Tomirdan qon olmoq. Tomirga dori quymoq. *To'lagan yerga qarab jim qoldi. Uning chakka tomirlari bo'rtdi, burnining uchi yiltiradi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

2 s.t. Yurak harakati natijasida qon tepishi, puls.

3 s.t. Mushaklarni suyakka biriktiruvchi puxta, elastik to'qima; pay. [Yo'lchi] *Tomiri tortishgan odam kabi, bir lahza qotib qoldi, so'ng qilichini mahkam ushlab, bukchayib, ohistagina yerga yiqildi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Tomirlarini yozish uchun boshini orqaga tashlab, bir-ikki silkitib oldi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»).

4 biol. O'simlik tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar.

5 bot. Ildiz. *Ariq bo'ylarida, qir etaklarida o'tgan yilgi o'tlarning tomiridan*

*nozik maysalar unib chiqa boshlagan.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Agar u har kuni ertalab, kechqurun soyga tushmaganda edi, ko'za-ko'za suv quyib, tomiriga nam yubormaganda edi, o'rik allaqachon xazon bo'lardi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Tomizg'i** – 1 ot. Qatiq ivitish uchun sutga solinadigan achitqi (mas., eski qatiq). Sutga tomizg'i solmoq. *Qo'sh-ninikiga tomizg'i so'rab kirgan Hajalxon bir zumda bir talay gap topib chiqdi.* (A. Muhiddin, «G'anisher»). *...maxsus tomizg'i bilan tayyorlangan qatiq, kefir kabi sut mahsulotlari ham vitamininga boydir.* (Gazetadan).

2 sft. Tomiziladigan, tomchilab quyiladigan. *Tomizg'i dori.*

**Tomizg'ilik** – tomizg'i uchun yetarli; tomizg'i uchun qoldirilgan. *Bir tomizg'ilik qatiq. Qatidan bir-ikki tomizg'ilik qoldirmoq.*

**Tomorqa** – qishloq mehnatkashlarining ixtiyoridagi, odatdagi, ularning qo'rg'oni, hovli-joyi yonida joylashgan yer bo'lagi. *Pensiyani nima qilasiz, molhol, tomorqadan chiqqan daromad yetadi ikkovingizga.* (S. Nurov, «Narvon»). *Har kim istasa, o'z tomorqasini, uyi oldini bog' qilishi mumkin.* («Mushtum»).

**Tomoshaqovoq** – bot. Qovoqning yeb bo'lmaydigan, mayda, faqat ziynat (manzara) uchun ekiladigan turi.

**Tonna** [fr. *tonne* < lot. *tunne* – bochka] – ming kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi. Besh tonna yuk. *Uch o'g'londir Andijon, Namangan-u Farg'ona, Yurtga aylar armug'on, Million tonna durdona.* (Y. Mirzo).

**Topiar san'ati** – daraxt va butalar shox-shabbasini manzarali geometrik

yoki biron-bir fantastik shakl berish maqsadida butash san'ati.

**Topinambur** (cho'chqa kartoshka – *Helianthus tuberosus L.*) – murakkabgul-doshlar oilasiga mansub kungaboqarga o'xshash ko'p yillik, tugunakli o'simlik. Tugunagida 16–22% eriydigan uglevod, vitamin B, oqsil bo'ladi. Bu o'simlik qishloq xo'jalik hayvonlari uchun juda yaxshi yem-xashak, shuningdek qand va spirt olish uchun xomashyo hisoblanadi. Poya va bargi yaxshi silos bo'ladi. Bu o'simlik shimoliy Kavkaz, Zakavkazye, Markaziy Osiyoning tog'li tumanlarida, MDHning boshqa tumanlarida ekiladi. Janubiy tumanlarda gektaridan o'rta hisobda 200–250 s tugunak va palak olinadi. Cho'chqa kartoshkaning MDHda ekish uchun tumanlashtirilgan asosiy navlari qizil tugunaklardan «vadim», oq tugunaklardan «oq serhosil» deb ataladigan navlardir.

**Toptamoq** – 1. Oyoq bilan bosmoq, ezmoq. ...yonayotgan xasni botinkasi bilan toptab o'chirdi. (N. Safarov, «Olovli izlar»).

2. Payhon qilmoq. Poda ekinlarini toptab o'tibdi. Kosiblar talangan, dehqonlarning ekinlarini ko'chmanchi qo'shinning behisob mollari toptab tashlagan. (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»). Dushmanlarning qadami bilan Toptalmasin bog', chaman, gulzor. (G'ayratyiy).

3 ko'chma. Oyog'osti qilmoq, poymol qilmoq, tahqirlamoq. Bosqinchilar qaram mamlakatlar xalqlarining milliy huquqlarini toptab keldilar. Bizni, seni qo'riqlayman, deb urushga ketgan eringning sof muhabbatini toptashga qanday ko'ngling bo'ldi? (S. Zunnunova, «Olov»).

**Toqalash** – shv. Yaganalash. Ota-bobalarimizdan beri g'o'zatoqalash davom etib kelayapti. «Toqalash», ya'ni toq qol-dirish. (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**Tor qashqa** (otlarning belgilari) – burun ustida tor, keng va oq, shakli har xil, peshona va burundagi oqlar bilan qo'shilgan yoki qo'shilmagan bo'ladi.

**Torf** [nem. Torf] – to'qayzor, botqoqlik yerlardagi o'simlik qoldiqlarining tabiiy chirishidan hosil bo'lgan zich massa; foydali qazilma (yoqilg'i, o'g'it, xomashyo sifatida ishlatiladi). Botqoqlikdagi o'simliklarning havo yetishmaslik va ortiqcha namlik tufayli to'la chiriy olmagan qoldiqlari. Torf yoqilg'ilar guruhiga mansub, organogen tog' jinsidir. Torf qishloq xo'jaligida tuproqni mulchalashda o'g'it sifatida, parniklarda bioyoqilg'i sifatida, shuningdek hayvonlar tagiga to'shsh, meva va sabzavotlarni joylash hamda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Torf qazib olish.

**Torfli** – torf ko'p bo'lgan. Torfli botqoq.

**Totim** – bot. Pistadoshlar oilasiga mansub, tog' yonbag'irlarida o'sadigan, shoda-shoda mayda gulli daraxt yoki buta (barglarida bo'yoq yoki oshlovchi moddalar ko'p bo'ladi).

**Totimli** – mazasi yaxshi, shirin. Muhabbatli, totimli bo'ldi turmush, Kelib shodlik, farahlik, ketdi tashvish. (Habitiy).

**Tovar** – 1 iqt. Talab, ehtiyojni ta'minlovchi barcha narsa, mahsulot; sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida oldi-sotdi, bozor munosabatlari obyekt. Tovar ayirboshlash. Tovar birjasi. Ammo xotirjam bo'ling, men sizni tovarlardan siqmayman. (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2 *esk.* Matoning ipakdan to‘qiladigan, tagi bilan gulining rangi bir xil, yaltiroq bir turi. *Oq tovardan ko‘ylagim, Ko‘k tikanlar ilmasin.* («Qo‘shiqlar»). *Shahzodaning ko‘ylagini yirtib tashladi, Tovar peshmatini bir tomonga irg‘itdida, bir qo‘li bilan ko‘ksiga chang soldi.* (K. Yashin, «Hamza»)

**Tovonbaliq** – chuchuk suvlarda yashaydigan baliqlarning bir turi.

**Tovuq** – 1. Tovuqsimonlar turkumiga mansub, go‘shiti, pati va tuxumi uchun boqiladigan urg‘ochi uy parrandasi. Qishloq xo‘jaligi parrandalarining eng ko‘p tarqalgan turi. 5 ming yil muqaddam Hindistonda qo‘lga o‘rgatilgan yovvoyi bankiv tovuq‘idan tarqalgan. Sertuxum tovuq. Kurk tovuq. Tovuuq katagi. *Tovuqning tushiga don kiradi.* (Maqol). *...tong otmay, tovuqlar qo‘ndoqlaridan tushmay, yana ishga tushar edi.* (M. Ismoilii, «Farg‘ona t.o»). *Donlab yurib, tentirab ketib qolgan tovuqlar bir mahal joy qidirib, uygacha kirib keldi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak.** Tirikchilik uchun kishiga hamma narsa (ko‘p narsa) kerak, degan ma‘nodagi maqol. **Dumi yulingan tovuqdek** (*q. dum*). **1. Oyog‘i kuygan tovuqday.** (*q. oyoq*). **Ola tovuq somon sochar, o‘z aybini o‘zi ochar.** O‘zining yoki yaqinlarining aybini gapirib yuradigan odam haqida aytiladigan maqol.

2. Shu parrandaning go‘shiti (ovqat, masalliq sifatida). *Tovuqni yesang, bir yeysan, tuxumini yesang, ming yeysan.* (Maqol). *Xolisa gaz o‘choqqa tovuqlarni dimlab qo‘ygan.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

3. Shu parrandaga nisbatli haqoratni bildiradi. *Bundan ko‘ra go‘ng titganing yaxshi emasmi, kekxa tovuq* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *So‘k meni, kurk tovuq degin!* (A. Qahhor, «Asror bobo»).

4. Ba‘zi qushlarning modasi, makiyon. Qirg‘ovulning tovuq‘i.

5 *shv.* Tunda xo‘roz qichqirishi bilan belgilanadigan vaqt. Bir tovuq o‘tganda yotdik.

6. Muchal yil hisobida o‘ninchii yil nomi. *Uning yili tovuq.*

**Tovuqboqar** – tovuqlarga qarovchi, ularni parvarishlovchi kishi. Parrandachilik fermasining tovuqboqarlari.

**Tovuqxona** – tovuqlar turadigan katalak yoki maxsus bino. *Oysha xola uyiga kelayotib qarasa, tovuqxonaning ham, molxonaning ham eshiklari hali ochilmagan.* («Yoshlik»).

**Tovuqchilik** – tovuq boqish va uning mahsulotlarini yetishtirish ishi; qishloq xo‘jaligining shu tarmog‘i. Tovuuqchilikni rivojlantirmoq. Yangi tipda solingan qoramolchilik, tovuqchilik fermalari bor. (J. Fayozov, «Ekskursiya o‘tkazish metodikasi»).

**Tovus** [*a. – tovus*] – qirg‘ovullar oilasiga mansub, rang-barang patli, erkaklarining dumi yelpig‘ich shaklli chiroyli qush. *Tovus kabi aylab xiromon, Raqsga tushdi bir go‘zal jonon.* (E. Vohidov).

**Tovushqon** – *shv.* **Quyion.** Oq tovuushqon. [*U*] *O‘zi uchun uya yasashga kirishgan tovushqonday, qumni tirnay boshladi.* (S. Aynii, «Qullar»).

**Toy I** – 1. Otning bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan bolasi. Saman toy. *Ot bosmagan yerni toy bosadi.* (Maqol). *Kun hisobin oy olar, bedov o‘rnin*

toy olar. (Maqol). **2.** Bolalarga nisbatan erkalash ma'nosini bildiradi. *Uning uzoq yurtida, quyosh va gullar diyori O'zbekistonda qolgan duogo'y kampir onasi uni – yolg'iz o'g'lini erkalar ekan, har vaqt: «Rustam toyim! Arslon toyim!» deb atamasmidi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). **3.** Ba'zi atoqli otlarning tarkibiy qismiga kiradi yoki erkalatish uchun ularga qo'shib aytiladi: Xoltoy, O'rintoy, Halimtoy.

**Toy-toy turmoq** (*shv. ayn. g'oz-g'oz turmoq, q. g'oz-g'oz.*) *Omontoyning qizi Bo'stonxon toy-toy turadigan bo'lib qolibdi.* (S. Ahmad, «Cho'l shamollari»).

**Toy II** [*f. – tax, qat; burma; bukik joy; bog'lama; to'p*] – katta to'p qilib taxlab yoki bosib bog'langan mol va shu tarzdagi mol o'lchovi. *Paxta toylari. Besh toy gazlama. Toy qilmoq. Bo'riyev kecha u [Samandarov] bilan kuni bo'yi bazada qop, toy, yashik, bochkalar orasida ivirsidi.* (A. Muxtor, «Tug'ilish»). *Pudratchi uni ishga olib, toy paxta tashishga qo'ydi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Toylamoq I** – *kam qo'll.* Qulunlamoq, tug'moq (biya haqida).

**Toylamoq II** – toy-toy qilib taxlab, bosib bog'lamoq, toy qilmoq. Gazmollarni toylamoq. Toylash mashinasi. *Mana, ikki oydan beri zavod gumbirlab ishlayapti, dalalardan kelayotgan qanor-qanor paxtalarni paydar-pay tozalab, toylab tashlayapti.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o.»).

**Toycha** – **1. Toy I 1,2 s. kichr. -erkl.** Bir yashar toycha. *Toychani «toy» deb xo'rlama, Ertal-inding ot bo'lar.* (Maqol).

**2 ko'chma.** Erka, erkatoy, toyloq (faqat bolalarga nisbatan). *Xo'sh, kolxo'zda*

*o'zing nima qilayapsan, toycham.* (Oybek, «O.v.shabadalar»).

**Toychi** – mol toylovchi ishchi. *Paxta tozalash zavodining ilg'or toychilari. Bahor bilan birga Rafaelning ilgarigi zavodida ishlayapman. U slesarlik qilayapti. Men esam toychiman.* (Y. Xaimov, M. Rahmonov, «Hayot-mamot»).

**Toychoq** – jinsidan qat'i nazar, tug'ilganidan to bir yoshgacha bo'lgan ot bolasi, qulun.

**Toyloq** – **1.** Kichkina toy, toycha. **2.** Erka, erkatoy (faqat bolalarga nisbatan). *Kelingiz, toyloqlarim, Qaydan shamol uchirdi? Imtihonlar muborak, Nechanchiga ko'chirdi?* (Q. Muhammadii).

**Tozi** [*f. – chopog'on ov iti; uchqur, arabiy ot*] – **1.** Oyoqlari ingichka, tumshug'i uzun, xipcha, yugurik ov iti. *Har yerning tulkisini o'z tozisi bilan ovlar.* (Maqol). *Xohlasa, qarchig'ayini qo'liga qo'ndirib, tozi itni ergashtirib, odamlari bilan toqqa chiqib ketardi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *O'g'lim ovga ketadi, Asil ovchi tozi bilan.* («Boychechak»).

**2.** Chopqir ot, tulpor. *Ostimda irg'iydi G'irko'kday tozi.* («Erali va Sherali»). **Asbi tozi** – arabiy ot, arg'umoq. *Qamchi urib tarlonday asbi toziga.* («Oysuluv»).

**Tog'** – **1.** Yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko'tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi. Tog' tizmasi. Tog' jinslari. *Tog'ning ko'rki – tosh bilan, odamning ko'rki – bosh bilan.* (Maqol). *Ko'ringan tog'ning chirog'i yo'q.* (Maqol).

2. Aholi yashaydigan tog'li joy, o'lka; tog'lik. *O'rganishda ham gap ko'p. Ota-ning o'zi aytdi-ku, u tog'da tug'ilib, tog'da o'sgan. Ha, u tog'ning o'z odami.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

3 *ko'chma*. Narsalarning baland (tog' kabi) uyumi. *Yotib yeyishga tog' ham chidamaydi.* (Gazetadan)

4 *ko'chma*. Og'ir yuk, mashaqqatli ish, tashvish, g'ov va sh.k. ramzi sifatida qo'llanadi. *G'am tog'i. Yelkandan tog' ag'darilganday bo'ldi.*

**Tog'ay** – odamda va umurtqali hayvonlarda qalinligi va elastikligi bilan ajralib turuvchi birlashtiruvchi to'qima. Buning tog'ayi. *Quloq suprasi tog'aydan iborat bo'lib, teri bilan qoplangan.* («Anatomiya»).

**Tog'rayxon, Mayoran** (*Origanum majorana* L.) – labguldoshlar oilasiga mansub, yarim buta o'simligi. Parnikda o'stirib, bir yillik o'simlik sifatida ko'chat qilinadi. Bu o'simlik boshdan oyoq xushbo'y, chunki uning tarkibida efir moyi bo'ladi. U konditer sanoatida, kolbasa tayyorlashda va oshpazlikda ziraavor sifatida ishlatiladi.

**Tog'terak** – bot. Toldoshlar oilasiga mansub, asosan, tog' vodiylarida o'sadigan, yog'ochi sanoatbop terak turi. Kuz kelib qolgan bo's, qirg'oqlarida tol, tog'terak, qayrog'ochlar qalin o'sgan soy endi tiniq va sokin o'smoqda edi. (A. Ibodinov, «Latofat» do'konidagi qatl»).

**Tog'uzum** – bot. Po'sti juda yupqa, eti suvli, sershira o'rtapishar mahalliy uzum navi.

**Toshbaqa o't** (*Haplohyllum versicolor* Fisch et Mey.) – rutadoshlar oilasiga mansub, bo'yi 20–40 sm keladigan, ko'p

yillik o'tsimon o'simlik. May-iyul oylarida gullab, meva tugadi. Tekisliklarda va tog' etaklarida o'sadi. Goho Lalmikor va sug'oriladigan yerlardagi ekinlar ichida uchrab turadi. Tuproqni yumshatib ishlashda tezgina yo'q qilinadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

**Toshloq** – tosh bosgan, sertosh yer; toshzor. *Mashina soydagi toshloqdan o'ziga yo'l ochib keta boshladi.* (Gazetadan). *Mosh qurg'ur, bilmadim, qaysi toshloqda bitgan ekanki, hadeganda ochila bermadi.* (G'.G'ulom, «Shum bola»). *Kuzda daryo da'fatan sayyoz tortib, o'zanning toshloq joylarida o'tkir qoyalarni yalong'ochlab ketadi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Toshqora** – ayn. **Tasqara**.

**Toshqovoq** – ovqatga ishlatilmaydigan, qobig'idan turli idishlar qilinadigan mayda qovoq.

**Traditsion** – q. **an'anaviy**. *Qo'sh-nimiz Farg'ona viloyati paxtakorlari bilan traditsion musobaqa bizga katta yordam ko'rsatmoqda.* (Gazetadan). *Sizning traditsion janr – aruzdagi asarlaringiz tevaragida qizg'in bahslar bo'ldi.* (U. Normatov, «Talant tarbiyasi»).

**Traktor** [*lot. tractor < trahere – sudramoq, tortmoq*] – dvigatel yordamida harakatlanuvchi g'ildirakli yoki gusenitsali (zanjirli) o'ziyurar mashina. Turli xil mashina, mexanizm va b. xil qurollarni tortuvchi, ularni harakatga keltiruvchi va yuk tashuvchi o'ziyurar mashina. *G'ildirakli traktor. Gusenitsali traktor. Haydov traktori. Chopiq traktori. Traktor haydovchisi. Yerga traktor solmoq. Yerni traktor bilan haydamoq. Uchta traktor*

*sekin-sekin yurib, past-balandlarni surib, tekislab borardi.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**Traktorchi** – traktor haydovchi shaxs. *Ayni sahar paytida Kelar yoqimli ovoz, Traktorchi Tursunboy Yerni haydab qilar soz.* («Qo‘shiqlar»).

**Transformatsiya** – bir shakl (holat) dan boshqa bir shaklga o‘tish, o‘zgarish, aylanish. Masalan: qishloq xo‘jaligini transformatsion – fan yutuqlari, zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or tajriba hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy qilgan holda sohada islohotlarni amalga oshirish.

**Transgen o‘simliklar** – tabiiy tirik organizmning boshqa turlaridan sun‘iy ravishda o‘tkazilgan gen (yoki genlar) ning normal ishlab turgan o‘simliklar. O‘simliklarni genetik biotransformatsiyalash orqali turli omillarga bardoshli, unikal xususiyatlarga ega transgen o‘simliklar yaratiladi.

**Transplantant** – *tib.* To‘qima yoki a‘zoning transplantatsiya uchun foydalaniladigan qismi, bo‘lagi.

**Transplantatsiya** [*lot. transplantare* – ko‘chirib boshqa joyga o‘tkazmoq] – *tib.* Odam va hayvonlarda patologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to‘qima va a‘zolar o‘rniga sog‘lomini ko‘chirib o‘tkazish (bir organizm doirasida yoki bir turdagi bir necha organizmlar o‘rtasida yoxud har xil turdagi organizmlar doirasida amalga oshiriladi). *Qon tomirlari transplantatsiyasi. Yurak transplantatsiyasi.*

**Transport** [*lot. transportare* – olib bormoq, tashimoq, o‘tkazmoq] – 1. Xalq xo‘jaligining yuk va passajirlar tashish bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i va uning

vositlari. *Avtomobil transporti. Shahar transporti. Temir yo‘l transporti. Qurilish materiallarini olib kelay desang, transport yo‘q.* («Mushtum»).

2 *harb.* Oziq-ovqat, qurol-aslaha va sh.k. harbiy anjomlar tashiydigan kema.

**Tritikale** (*Triticum* – bug‘doy, *Secale* – javdar) – bug‘doy-javdar duragayi – ikki xil o‘simlik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘simlik; g‘alla ekinini. Tritikalening kuzgi va bahorgi shakllari mavjud.

**Trixogramma** (*Trichogramma*) – pardaqanotlilar turkumiga mansub hasharotlar urug‘i; ekinlar va o‘rmonzorlarga zarar keltiruvchi xavfli zararkunanda hasharotlar tuxumlari kushandasi. Butun dunyo faunasida trixogrammalar avlodiga kiruvchi 143 tur mavjud. O‘zbekistonda esa trixogrammalarning 15 turi topilgan, 6 tasining bioekologiyasi chuqur o‘rganilgan. Qishloq xo‘jaligida ekinlar zararkunandasi bo‘lgan tunlam kapalaklarning tuxumlarini yo‘qotishda asosiy biologik vosita sifatida ishlatiladi.

**Tropik** – tropiklarga oid, Yer sharining eng issiq mintaqasiga, tropiklarga xos bo‘lgan. *Tropik mamlakatlar. Tropik o‘simliklar. Tropik kasalliklar. Tropik siklon.*

**Tropik o‘simliklar** – Yer sharining tropik mintaqalarida o‘sadigan o‘simliklar. Tropik mintaqada qo‘ng‘irboshlar, dukkaddoshlar, zig‘irdoshlar, sutlamadoshlar, soyabondoshlar, labguldoshlar, sho‘ragullilar va b. botanik oilalarga mansub o‘simliklar mavjud. Qishloq xo‘jaligida ekiladigan o‘simliklar: don ekinlari – bug‘doy, arpa, sholi, makka-jo‘xori, tariq, jo‘xori; dukkakli don ekinlari – loviya, soya, dolixos, kaptar lovi-



yasi, kanavaliya; moyli ekinlar – maxsar, zig'ir, yeryong'oq, kunjut; efir moyli – kashnich, arpabodiyon, qora zira, oq zira, ajgon, hind qora zirasi, yalpiz, rayhon, mavrak, lavanda; moyli ekinlar – atirgul, yorongul, yirik gulli yasmin; tugunak-mevali ekinlar – kartoshka, batat, maniok, yams, taro; texnika ekinlari – shakarqamish, g'o'za, tolali nasha, jut, kanop, sizal, tamaki, piretrum; daraxt va butasimonlar – choy, kofe, palma; kauchukli ekinlar – geveya; sitrus mevalilar; yemxashak o'tlar.

**Tropik yil** – quyosh markazining bahorgi tengkunlik nuqtasidan ketma-ket ikki marta o'tishi orasidagi vaqt, davr.

**Tugunak** – o'simlik ildizpoyasining yer ostidagi yo'g'onlashgan qismi; ildizmevali o'simliklarning hosili, tugunak. *Kartoshka, aslida, o'simlik yer osti novdasining o'sib, kattalashgan tugunagidir.* («Fan va turmush»). ...ro'yanning tugunaklarida hosil bo'lgan kislotatoshni eritish qobiliyatiga ega. (Gazetadan).

**Tuk** – 1. Badanda o'sadigan soch yoki yungning har biri; mo'y, mo'ylov tuki. *Sochining har bir tolasi, qoshidagi har bir tuk, mijjasidagi har bir kiprik ko'z o'ngimda turipti.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

2. Ba'zi narsalarning ustini qoplab olgan (qoplab o'sgan) mayda qilsimon o'simta. Shaftolining tuki. Chigitning tuki. *Otliq shoxni ushladi, uni avaylab o'ziga tortdi, keyin behilardan birining chang bosib yotgan tukini qo'li bilan artdi, qalpoqli boshini engashtirib, uni hidladi, yana hidladi.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o.»).

**Tukli** – 1. Badanida tuki bo'lgan; mo'yli. *Uning mayin sarg'ish tukli pe-*

*shonasida, yuqori labining ustida ter rezalari yiltirardi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

2. Ustki qismi tuk bilan qoplangan; sertuk. *Tukli arilar. Tukli gazlama.*

**Tuksizlantirmoq** – tukidan xoli qilmoq (asosan, chigit haqida). *Tuksizlantirilgan chigitga juda ehtiyot bo'lish kerak.* (Gazetadan).

**Tulki** – 1. Bo'risimonlar oilasiga mansub, tumshug'i uzun, dumi mayin uzun junli, o'ta sezgir va ayyor yirtqich sutemizuvchi hayvon. *Qalin maysalar orasida sarg'ish ayyor tulki alanglab borar edi.* (Nazarmat, «Jo'rlar baland sayraydi»). *Kovakni boyvachcha tulki ovlab yurganida ko'rgan edi.* (S. Yunusov, «Kutilmagan xazina»).

2. Shu hayvonning mo'ynasi va undan tayyorlangan telpak va b. *Oysuluv uyg'onib, ungurning og'ziga chiqib turgan edi, Suvonjon unga quyon rangli tulkini uzatdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Boshiga tulki telpak kiygan bu otliq unga tanish ko'rindi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Tullak** – bulturgi (bir yoshdan oshgan) x'ypoz. Bir yoshga yetgandan keyin tulla'di (ya'ni, pat tashlaydi), shuning uchun «tullak» deyiladi. Panjalari tepasida ortiqcha panja – pix bo'ladi. Agar qichqirsa (xo'rozga nisbatan) va pixi yorma bo'lgan bo'lsa, ya'ni «pixini yorgan» xo'roz balog'atga yetgan hisoblanadi.

**Tullamoq** – pat, teri yoki yungini tashlab, yangi pat, teri yoki yung chiqarmoq (hayvon, parranda va sh.k. haqida). Tullagan tovuq. *Uning [cholning] oyoqlari ostida tullagan oriq it qimir etmay yotardi.* (H. Tursunqulov, «Hayotim qissasi»). *Bu orada daraxtlar gullab tuga boshladi. Mollar tullab bo'ldi.* (S. Nurov,

«Narvon»). *Ko'klam chiqdi deguncha biz tullagan sigirning junini yulib olamiz.* (S. Murodbekov, «Yovshan isi»).

**Tulum** – 1. Terisiga poxol tiqilgan buzoq (bolasi o'lgan sigirni iydishda foydalaniladi).

2. Ichiga poxol va b. narsa tiqib qotirilgan hayvon, qush va sh.k. *Ayiq tulum. Burgut tulum. Laylak tulum. Tulum ustaxonasi. Uning [Polvonning] yoniga birmuncha o'rdak tulumlari uyilib qo'yilgandi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Bolaligidan boqib o'stirilgan qushni ovga o'rgatishida quyon, tulki singari hayvon tulumlaridan foydalaniladi.* («Fan va turmush»).

**Tullash**, *jun to'kilishi* (hayvonlarda) – sutemizuvchi hayvonlarda terining tashqi qoplamini hosil qiluvchi junlar (tivit va qisman qiltiq tolalar)ning to'kilish va yangilanish jarayoni.

**Tuman I** [mo'g'. *tumen* – o'n ming] – 1. Atmosferaning quyi qatlamlarida yuzaga keladigan mayda suv yoki muz zarralari. *Quyuyq tuman. Tonggi tuman. Havo tuman bo'lganidan o'rmon ko'zga ko'rinmas edi.* (M. Muhamedov, «Qahramon izidan»). *Sal o'tmay soylikni oqish harir tuman qopladi.* (O. Yoqubov, «Izlayman»). *Ro'parada past-baland cho'qqilarini osmonga turtib, Ko'kish tuman pardasiga burkangan Chotqol tog'lari.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

2 *ko'chma.* Tumanga o'xshash, xira, nimqorong'i holat. *Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ilashdi-yu, ko'z oldini tuman chulg'adi.* (Sh. Rashidov, «Qudratli to'lqin»).

**Tuman III** – 1 *tar.* Sharqda, jumladan, Ozbekistonda XX asr 20-yillarigacha ma'muriy-hududiy bo'linish; uyezd;

*Shu o'ttiz chaqirimlik ariq qazilib bitganda, Namangan va Andijon tumanlaridan ikki ming botmongacha yer sug'orilar edi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»). *Mardon asli Sherobod tumaniga qarashli bir qishloqlik yigit.* (M. Osim, «Elchilar»).

2. O'zbekistonda: viloyat, shahar hududida ularning tarkibiy qismi bo'lgan ma'muriy-hududiy bo'linma. *Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani. Toshkent shahrining Yakkasaroy tumani. Bu haqda hikoya qilishni tumandagi oilalardan boshladik.* (Gazetadan).

**Tumanlanmoq** – tuman bilan qoplanmoq; xiralanmoq. *Tumanlangan deraza oynalariga yirik qor parchalari oq kapalakday urilardi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Tumanlashmoq** – xira bo'la bormoq, xiralanmoq. *Ko'z oldim tumanlashdi. O'ylaganim sari o'ylarim tumanlashdi.* (Z. Do'stmatov, «Yoqut»).

**Tumanli** – tuman qoplagan, tuman bosgan. *Tumanli kun. Kecha qorong'u va tumanli edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Tegirmon yo'lagi un to'zoni ichiga ko'milib, kech kuzning quyuyq tumanli havosi manzarasini beradi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Tumsa** – 1. Tug'maydigan, suti yo'q. *tumsa sigir. Senga qarab bo'tadayin bo'zlayman, Fikrim shudir, o'zim sira tinmayman, Men tumsaga agar sutni bermasang, Bergan omonating ol, deb yig'layman.* («Zulfizar bilan Avazxon»). *Bu Go'ro'g'li xumsa, xotini tug'mas tumsa.* («Bo'tako'z»).

2 *ko'chma.* Hosilsiz, hech narsa unib o'smaydigan. *Ey buyuk sahroning zar-rachalari, Kaftimda to'zg'imay tursang*

*bo'lmasmi, Dil xursand bo'lmasmi, tumsa bag'ringda Giyohlar potirlab unsa bo'lmasmi?* (Sh. Rahmon, «Gullayotgan tosh»).

**Tumshuq** – 1. Qushlarning og'zi bilan birikkan, cho'qish va zarb berish uchun xizmat qiladigan o'tkir uchli shoxsimon a'zosi. Tovuqning tumshug'i. *Laylakning bo'yi novcha, tumshug'i bor tar-novcha.* (Uyg'un). *Qushchaning juvoldiz uchidan tumshug'i salgina ochilishi bilan jilg'ani kuchli ovoz tutdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2. Hayvonlar boshining old (og'iz, burun tomon) qismi. *Yelib-yo'rg'alab ketayotgan to'riq daf'atan tumshig'ini baland ko'tarib, qattiq kishnadi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *«Tarzan» boyagiday buyruqni bajarib, qand «mukofot» olgisi keldi, saxiy egasining oyog'iga yalpoq tumshug'ini surkadi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

3 s.t. *dag'l.* Aft-bashara; kalla, boshning yuz, bet tomoni. *Poshsha xola ... kuyovning tumshug'i oldida ombur qilib qisilgan barmoqlarini o'ynata boshladi.* (D. Nuriy, «Osmon ustuni»). *U [Madaminxo'ja] borib, muttaham qozining tumshug'iga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o.»).

**Tunberg zirki** (*Berberis Thunbergi* DC.) – balandligi 0,5–1,0 metrga yetadigan, bargini to'kuvchi eng manzarali zirk turi hisoblanadi. Bu zirkning vatani – Yaponiya va Xitoyning tog'li hududlari bo'lib, barglari mayda (1–3 sm), tuxumsimon shaklda yashil, kuzda butkul qizg'ish rangga bo'yaladi. Gullari bittadan yoki 2–5 tadan, tashqi qismi qizg'ish, ichki qismi qizil, 8–12 kun davomida gullaydi.

Rezavor mevalari yaltiroq, elliptik shaklda 1,0 sm uzunlikda, kuz boshida pishib yetiladi va uzoq vaqt butada to'kilmadan saqlanadi. Buta 5–6 yildan boshlab gullaydi, shahar sharoitlarida gazli-tutunli va changli muhitga chidamli. Yorug'sevar, tuproq unumdorligiga talabchan emas. Shakl berish maqsadida kesishga chidamli. Zirk barglari kuzda yorqin qizil rangga kiradi. Mevalari to'plam holida manzarali ko'rinishga ega, qizil rangli. Tunberg zirkining ko'plab seleksion manzarali navlari va shakllari yaratilgan. Bu zirk turi va uning ko'plab manzarali navlari va shakllari jonli devor sifatida, trotuarlarning chekkasida ekish va boshqa landshaft kompozitsiyalari yaratishda samarali hisoblanadi, gazon fonida yakka yoki guruh holida ekishga tavsiya etiladi.

**Tung moyli daraxti**, (*Aleurites fordil forst*) – Sutlamadoshlar oilasiga mansub, balandligi 8–10 m keladigan, bargi to'kiladigan daraxt. Uning vatani Xitoy bo'lib, bu yerda juda ko'p uchraydi. Yaponiya, AQSH, MDHda Gruziyada ham madaniy holda ekiladi. Bu daraxt 3–6 yoshidan boshlab 30–35 yoshga kirguncha meva beradi. Mevasi «yong'oqsimon» bo'lib, tarkibida 55 % gacha tez quriydigan texnika moyi mavjud, bu moydan lak, bo'yoq, emal tayyorlashda foydalaniladi.

**Tunlamlar**, *tungi kapalaklar* (*Noctuidae*) – tangaqanotlilar turkumiga mansub hasharotlar oilasi. 25 mingga yaqin turi ma'lum. Ba'zi tunlam qurtlari tuproqda yashab, o'simlik ildizlari yoki poyasining ildiz bo'g'izlarini kemiradi (mas., ko'k qurt tunlami, undov tunlami). Ayrimlari o'simlik bargi, shonasi, guli, ko'sagiga zarar yetkazadi.

**Tup** – o‘simlik yoki daraxtning har bir donasi. *Bir tup daraxt. O‘n tup olma ko‘chati. G‘o‘zaning tupi. Salkam million tup daraxt bor. Toshkentda nima ko‘p, sersoya joylar ko‘p.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). [*Farg‘onaning*] *Har tup mevasidan bol tomadi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

**Tuproq** – 1. Litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta‘sirida o‘zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq gorizontalardan tashkil topgan tabiiy tuzilma; Yer po‘stining yuza va unumdor qatlami. Yerning kovlash, chopish, haydash, ezilish va sh.k. natijasida hosil bo‘lgan yumshoq qismi, qatlami. *Bir hovuch tuproq. Tuproq uyumi. O‘rani tuproq bilan ko‘mib tashlamoq. Tuproq olsang, oltin bo‘lsin.* (Maqol). *Chuqurlikdan irg‘itilayotgan tuproq okoplarning chap qirg‘oqlarida tog‘ bo‘lib ko‘tarilmoqda.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Bo‘sag‘ani to‘rt enlik tuproq qoplagan.* (S. Siyoyev, «Yorug‘lik»).

2. Yer qobig‘ining o‘simlik rizq olib o‘sadigan ustki qatlami; yer. *Qora tuproq. Qumloq tuproq. Tuproq xaritasi. Tuproq-iqlim sharoiti. Mirzacho‘lning tuprog‘i, Bo‘lar yoshlikning bog‘i, Toshar sevgi bulog‘i, To‘ldirib dil jomini.* (Y. Mirzo, «Sharoitga qarab»). *Paykallarga chigit suvi berilayapti, chunki tuproq qatlamida nam ancha kamayib qoldi.* (Gazetadan).

3. O‘lgan kishining xoki; xok. [Qurbon ota:] *«Bir siqim tuprog‘im begona yurtida qolib ketmasa ekan», degan o‘yga bordi.* (A. Qahhor, «To‘y»).

**Tuproq, tuproqshunoslik** – yer po‘sti (litosfera) yuza qavatlari (asosan, tog‘ jinslari)ning suv, havo, harorat va

tirik organizmlar ta‘sirida o‘zgarishidan shakllangan va genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq gorizontalardan tashkil topgan tabiiy tuzilma, tabiiy hosila.

**Tuproqshunos** – tuproqshunoslik bo‘yicha mutaxassis olim. *O‘zbek tuproqshunoslari. Tuproqshunos olim. Ekspeditsiya tarkibida tarixchi-arxeolog, tuproqshunos, tabiatshunos va ishchilar bor.* (J. Abdullaxonov, «To‘fon»).

**Tuproqshunoslik** – tuproq, uning tarkibi, turlari va xususiyatlarini o‘rganadigan fan. *Tuproqshunoslik instituti. Tuproq unumdorligini har tomonlama puxta o‘rganishga hamda qishloq xo‘jaligi fani yutuqlari asosida uni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish – tuproqshunoslikdagi asosiy vazifalardan biridir.* («Fan va turmush»).

**Tuproq bonitirovkasi** (lot. *bonitas* – sifatlilik) – tuproq unumdorligini qiyosiy baholash. Tuproq bonitirovkasi 100 ballik shkala bo‘yicha ifodalanadi. Tuproq bonitirovkasining asosiy maqsadi tuproqlarni unumdorligiga qarab tasniflashdir. Tuproq bonitirovkasi tuproq unumdorligini xarakterlovchi tabiiy, ya‘ni qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. Shuningdek, tuproq bonitirovkasida dalaning o‘lchami, geometrik shakli, nishabligi, iqlim sharoiti va b.lar ham hisobga olinadi. Tuproq bonitirovkasi yerni iqtisodiy baholash, yer kadastrini yuritish, melioratsiya hamda dehqonchilik sistemasini takomillashtirish va b.lar uchun zarur.

**Tuproq eroziyasi** (lot. «eroziya» – «yemirilish», «nurash») – tuproqning eng unumdor yuqori qatlamlari va tuproqosti

**Tup** – o‘simlik yoki daraxtning har bir donasi. *Bir tup daraxt. O‘n tup olma ko‘chati. G‘o‘zaning tupi. Salkam million tup daraxt bor. Toshkentda nima ko‘p, sersoya joylar ko‘p.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). [*Farg‘onaning*] *Har tup mevasidan bol tomadi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

**Tuproq** – 1. Litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta‘sirida o‘zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq gorizontalardan tashkil topgan tabiiy tuzilma; Yer po‘stining yuza va unumdor qatlami. Yerning kovlash, chopish, haydash, ezilish va sh.k. natijasida hosil bo‘lgan yumshoq qismi, qatlami. *Bir hovuch tuproq. Tuproq uyumi. O‘rani tuproq bilan ko‘mib tashlamoq. Tuproq olsang, oltin bo‘lsin.* (Maqol). *Chuqurlikdan irg‘itilayotgan tuproq okoplarning chap qirg‘oqlarida tog‘ bo‘lib ko‘tarilmoqda.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Bo‘sag‘ani to‘rt enlik tuproq qoplagan.* (S. Siyoyev, «Yorug‘lik»).

2. Yer qobig‘ining o‘simlik rizq olib o‘sadigan ustki qatlami; yer. *Qora tuproq. Qumloq tuproq. Tuproq xaritasi. Tuproq-iqlim sharoiti. Mirzacho‘lning tuprog‘i, Bo‘lar yoshlikning bog‘i, Toshar sevgi bulog‘i, To‘ldirib dil jomini.* (Y. Mirzo, «Sharoitga qarab»). *Paykallarga chigit suvi berilayapti, chunki tuproq qatlamida nam ancha kamayib qoldi.* (Gazetadan).

3. O‘lgan kishining xoki; xok. [Qurbon ota:] «*Bir siqim tuprog‘im begona yurtida qolib ketmasa ekan*», degan o‘yga bordi. (A. Qahhor, «To‘y»).

**Tuproq, tuproqshunoslik** – yer po‘sti (litosfera) yuza qavatlari (asosan, tog‘ jinslari)ning suv, havo, harorat va

tirik organizmlar ta‘sirida o‘zgarishidan shakllangan va genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq gorizontlardan tashkil topgan tabiiy tuzilma, tabiiy hosila.

**Tuproqshunos** – tuproqshunoslik bo‘yicha mutaxassis olim. *O‘zbek tuproqshunoslari. Tuproqshunos olim. Ekspeditsiya tarkibida tarixchi-arxeolog, tuproqshunos, tabiatshunos va ishchilar bor.* (J. Abdullaxonov, «To‘fon»).

**Tuproqshunoslik** – tuproq, uning tarkibi, turlari va xususiyatlarini o‘rganadigan fan. *Tuproqshunoslik instituti. Tuproq unumdorligini har tomonlama puxta o‘rganishga hamda qishloq xo‘jaligi fani yutuqlari asosida uni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish – tuproqshunoslikdagi asosiy vazifalardan biridir.* («Fan va turmush»).

**Tuproq bonitirovkasi** (lot. *bonitas* – sifatlilik) – tuproq unumdorligini qiyosiy baholash. Tuproq bonitirovkasi 100 ballik shkala bo‘yicha ifodalanadi. Tuproq bonitirovkasining asosiy maqsadi tuproqlarni unumdorligiga qarab tasniflashdir. Tuproq bonitirovkasi tuproq unumdorligini xarakterlovchi tabiiy, ya‘ni qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. Shuningdek, tuproq bonitirovkasida dalaning o‘lchami, geometrik shakli, nishabligi, iqlim sharoiti va b.lar ham hisobga olinadi. Tuproq bonitirovkasi yerni iqtisodiy baholash, yer kadastrini yuritish, melioratsiya hamda dehqonchilik sistemasini takomillashtirish va b.lar uchun zarur.

**Tuproq eroziyasi** (lot. «eroziya» – «yemirilish», «nurash») – tuproqning eng unumdor yuqori qatlamlari va tuproqosti

jinslarining atmosfera yog'inlari hamda sug'orish suvlari, shamol va b. ta'sirida yuvilishi va yemirilish jarayoni. Yer qobig'i, tuproqning tashqi ta'sirlar – suv, shamol va og'irlik kuchi ta'sirida nurash mahsulotlarining uzilib ajrashi, yemirilishi, sinishi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yotqizilish jarayoni tushuniladi. O'zbekistonning paxtachilik hududlarida asosan shamol, irrigatsiya va jar eroziyalari tarqalgan.

**Tuproqning kimyoviy tarkibi** – tuproqdagi mineral, organik, organik-mineral va ba'zi kimyoviy elementlar. Tuproqning mineral qismi birlamchi (kvars, dala shpatlari, amfibollar, piroksin, slyuda va h.k.) va ikkilamchi (montmorillonite, kalonit, gidroslyuda va h.k.) minerallardan tashkil topgan. Tuproqning organik qismi gumusdan iborat.

**Tuproq nam sig'imi** – tuproqning nam tutish xususiyatini xarakterlovchi kattalik; tuproq massasi yoki hajmiga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Tuproq nam sig'imining asosiy turlari: to'la (tuproq kovaklari suv bilan to'la); umumiy (grunt suvlari chuqur bo'lgan joylarda yer ustidan sug'orilganda va grunt suvlari yaqin joylarda suv tuproq tagidan berilgan sharoitda tuproqda nam uzoq saqlanib turadi).

**Tuproq nordonligi** – tuproqning nordonligi (kislotaliligi) uning asosiy xususiyatlaridan biri. Uning nordonlashuviga tuproqning mineral va organik moddalar erigan holda bo'ladigan suyuq tarkibiy qismi (tuproq eritmasi)da vodorod (H) ionlari, shuningdek tuproqning singdiruvchi (kolloid) kompleksida vodorod va aluminiy almashinuvi ionlarining mavjudligi sabab bo'ladi. Tuproq nor-

donligining asosiy tabiiy manbai organik kislotalardir.

**Tuproq ostidan sug'orish** – tuproqning o'simlik ildizi tarqaladigan qatlamini yer osti quvurlari orqali namlash; sug'orishning istiqbolli usullaridan biri. Bu usulni sabzavot, texnika ekinlari yetishtirishda, bog'larda, tokzorlarda va boshqalarda qo'llash samaralidir. Tuproq ostidan sug'orishda suvni anchagina iqtisod qilishga erishiladi.

**Tuproq qoplash** – Yer yuzining u yoki bu hududida tarqalgan tuproqlar majmui bo'lib, tuproq hosil bo'lishining har xil tabiiy sharoitlarida shakllanadi.

**Tuproq unumdorligi** – tuproqning o'simliklarni suv, oziq moddalar va b.lar bilan ta'minlash xususiyati. Tuproq tog' jinslaridan unumdorligi bilan farq qiladi. Unumdor tuproqlarda insonga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini beruvchi qishloq xo'jaligi o'simliklari o'stiriladi. Yer faqat unumdorlik xususiyati tufayli qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasiga aylangan. Tuproq unumdorligi tuproq hosil qiluvchi omillar: iqlim, relyef, tuproq hosil qiluvchi jinslar, tabiiy va madaniy o'simliklar bilan uzviy bog'liq, ammo unumdorlik darajasida, ayniqsa, yerdan foydalanish xarakteri katta ahamiyatga ega. Tuproq unumdorligining eng muhim omillari: o'simlik rivojlanishi uchun zarur oziq moddalar va ular turining yetarli miqdorda bo'lishi; o'simlik o'zlashtirishi mumkin bo'lgan namning mavjudligi; yaxshi tuproq aeratsiyasi; tuproqning granulometrik tarkibi, struktura holati va tuzilishi; zaharli moddalar (kislota, ishqor, tuz va b.lar) miqdori; tuproq reaksiyasi va b.lardan iborat.

**Tur I – 1.** Belgilari, xossalari, vazifasi va sh.k. jihatdan umumiy bo‘lgan bir guruh yoki butunlik tashkil etgan narsalar, hodisalarning xili, navi, ko‘rinishi. Poyabzal turlari. Gazlama turlari. Sport turlari. Qo‘shin turi (*harb*). *Hozirgi vaqtda Orta Osiyo va Zakavkazyeda aloening daraxtsimon turi yerga ekib o‘stirilmoqda.* («Saodat».) *San‘at turlarining ichida eng qiyini rassomchilik.* (F. Musajonov, «Himmat»). *Turizm va ekskursiya ommaviy dam olishning eng qiziqarli turlaridan biriga aylanmoqda.* (Gazetadan).

**2 biol.** O‘simlik va hayvonot tizimida biror turkumga mansub, alohida sifatga ega bo‘lgan shakl, tasnif birligi. *Ussuriy qoboni – yapon cho‘chqasining bir turi. Irsiyat tufayli uzoq evolutsiya davomida paydo bo‘lgan asosiy strukturalar hamma turlarda saqlanib qoladi.* («Fan va turmush»).

**3.** Ba‘zi belgi bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanib, «tarz», «holat», «ahvol» ma‘nolarini bildiradi. *Ellikboshi bir minut qadar sukut qilib, haligi «ikki og‘iz» so‘zni qay turda boshlashni o‘yladi-da, jilmayib qo‘ydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). – *Bugun ertalab domla biznikiga kelgan edi, – dedi Sultonali jiddiy tarzda.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

**Turang‘i, turong‘i** – terakning to‘qaylarda, suv bo‘ylarida o‘sadigan bir turi. *Ular... yulg‘un va turang‘i changalining tomirlarini kovlab, traktorga yo‘l ochardilar.* (Sh. Rashidov, «Bo‘rondan kuchli»). *Otlarni turong‘ilarga bog‘lab, katta hovuz yoniga o‘tirdilar.* (E. Samandarov, «Tangri qudug‘i»). *...bir turong‘i tagiga borib tushdik. Shundan keyin bu turong‘i osti bizning uchrashadigan, o‘tiradigan*

*joyimiz bo‘lib qoldi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Turbat** [*a.* – yer, tuproq; qabr, go‘r, maqbara] – **1 esk.kt.** Tuproq, yer. *Turbatimdin qon yutib, lola unar.* (Muazzamxon.)

**2 ko‘chma.** Qabr, sag‘ana, maqbara. – *Shu turbatda istirohat qilib yotgan Xo‘jaubon hazratlari, – deb farrosh qabrni ko‘rsatibdi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**Turkum** – **1.** To‘da, to‘p, guruh. Bir turkum odamlar. *Hovli o‘rtasida olamni boshiga ko‘tarib Ulug‘buvi yig‘lar edi, bir turkum xotinlar uning atrofini o‘ragan edi.* (H. Shams, «Dushman»).

**2.** Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, bir butunni tashkil etgan bir necha asar, ma‘ruza va sh.k ; davra, sikl. *Paxtakorlar haqidagi she‘rlar turkumi.*

**3 biol.** O‘simlik va hayvonlar tizimida bir necha oilani o‘z ichiga olgan bo‘linma. Chumchuqsimon qushlar turkumining qarg‘asimonlar oilasi. *Qaldirg‘och chumchuqsimonlar turkumiga mansub qush.* («Fan va turmush»).

**Turkumlamoq** – **1.** To‘p-to‘p qilib bo‘lmoq, guruhlarga ajratmoq.

**2 biol.** Biologik belgisiga ko‘ra o‘xshash bo‘lgan turkumlarni belgilamoq, ana shunday guruhlarga ajratmoq, bo‘lmoq. *Baliqlarni turkumlamoq.*

**Turkiston ismalog‘i (cho‘chqa tikkan** – *Spinacia turkestanica*) – sho‘radoshlar (*Chenopodiaceae*) oilasiga mansub, bo‘yi 10–30 sm. ga yetadigan bir yillik o‘t o‘simlik. Markaziy Osiyoda begona o‘t sifatida sug‘oriladigan yerlar, tog‘oldi yaylovlari, bug‘doyzorlar va hamma ekinzorlarda o‘sadi.

**Turkiston archasi yoki o'rik archa** (*Juniperus turkestanica* Kom) – O'zbekistonda ushbu archa G'arbiy Turkiston tog' tizmalarining shimoliy yonbag'rilarida ko'p tarqalgan bo'lib, 34 ming gektarni tashkil etadi. Bu daraxt dengiz sathidan 2300–3200 m balandliklarda ko'p o'sib rivojlangan. Lekin 2600 m balandlikda boshqa archalar bilan aralash holda, undan ham balandroqda esa faqat o'zini uchratish mumkin. Turkiston archasi – yirik daraxtlardan hisoblanadi. Tanasi yo'g'on, uchi tomon ingichkalashib boradi, balandligi 18 m, tanasining diametri 1 m gacha boradi. Turkiston archasi sovuqqa chidamli bo'lib, boshqa archalarga qaraganda tuproq tanlamaydi. Archa tog' sharoitida o'rmonchilikning asosiy qismini tashkil etib keldi va keladi ham. U har qanday sharoitda chidamli va uzoq muddatli yashaydigan o'simlik bo'lib, muhim himoya vazifasini ham o'taydi.

**Turob** [a. – chang, gard; tuproq, yer] – 1 esk. kt. Tuproq; yer. *Xohishingcha o'lmas ersa, koinot o'lsin turob, Sargardon qon yig'lasun ham yerga kirsun of-tob.* (Habibiy).

2. Turob (erkaklar ismi).

**Turp I** – hosili ko'kishroq rangda bo'ladigan va pishirilmay ovqatga qo'shib yeyiladigan sabzavot o'simligi. *Turpga suv quymoq. Turp to'g'ramoq. Sho'rni aritish uchun suvni ko'p talab qiladigan sholg'om va turp ekish eng yaxshi chora emish.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *Keksa temirchi chuchuk turp bilan osh yeyishni sevardi.* (Sh. Rashidov, «Qudratli to'lqin»). *Bu payt, grafinda konyak bilan ikki likopcha to'g'ralgan turp qo'yib ketdi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»).

**Turp II** – mevaning siqib suvi yoki shirasi olingandan keyin hosil bo'lgan qoldig'i. Uzum turpi. Behi turpi. *Normat parang ko'knor ivitganda, turpini doim tomga tashlar ekan.* (A. Muxtor, «Opasingillar»). *Darvoqe, [ananas] mevasi-dan sharbat olinganda, 20–25 protsent turpi qoladi.* («Fan va turmush»).

**Turshak** – danagi bilan quritilgan o'rik. *Qandak turshak. Turshak solmoq. Zebixon patnida non, turshak olib chiqib, ular [mehmonlar] oldiga qo'ydi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Aloqachi ham og'ziga turshak solib shimib o'tirar, danagini qasir-qasir chaqar, mag'zini yerdi.* (M. Muhamedov, «Qahramon izidan»).

**Tus** – 1. Narsalarga xos bo'lgan rang, rang ko'rinishi. *Tusi o'zgarmoq. Tusi oqarmoq. Tusini yo'qotmoq. Shuning uchun yoz kunlari Mahdumning bog'chasi oq, nimrang, ola-zangor, malla-lojuvard va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko'rinishga kiradi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

2. Tashqi ko'rinish; qiyofa. *Zamonlar o'zgaradi, joyning ham tusi o'zgaradi.* (Y. Shamsharov, «Toshqin»). *Bolalar-ning qiy-chuvi, xotinlarning baqir-chaqirishlari bu jimjit to'qayzorga mahalla tusini berib qo'ydi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**Tusoq** – birinchi marta qo'zilagan qo'y.

**Tustovuq** – tovuqlar zotiga mansub, patlari chiroyli, asosan, to'qayzorlarda yashaydigan, ovlanadigan qush; qirg'ovul. *Tustovuq qamishlarning orasiga kirib g'oyib bo'ldi.* (Sh. Rashidov, «Qudratli to'lqin»). *Qadimda ovchi qushlar bilan tustovuq, kaklik va boshqa parran-*



dalarni ovlash keng tarqalgan edi. («Fan va turmush»).

**Tut** [a. – tut daraxti] – 1. Barglari ipak qurti uchun asosiy oziq bo'ladigan daraxt. *Ana bog'lar-chorbog'lar, ana butalari qizg'ish tutunday havoga yoyilib turgan katta tut.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Mamnun bo'lib ipak qurtlari, O'rmalar tut yaproqlarida.* (H. Po'lat).

2. Shu daraxtning iste'mol qilinadigan oq, qora yoki qizil tusli totli mevasi. *Juvon boshidan ro'moli tushib ketgan, Siddiqjonga orqasini o'girib, zo'r ishtaha bilan tut terib yemoqda edi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Tut parvonasi** (*Glyphodes pylaialis Walker.*) – qurti faqat tut bargi bilan oziqlanadigan zararkunanda hasharot. Ayniqsa, tut daraxtlari, nihollari, bargiga jiddiy zarar keltiradi. To'liq rivojlanadigan hasharot.

**Tuta I** – 1. Paxtadan ip yigirish uchun tayyorlangan pilta.

2. Uchi chaqmoqda cho'g'latish uchun moslashtirilgan (uchi kuydirib qoraytirilgan) paxta ipi. *Uch kishilashib chaqmoqni toshga urib, tutani yomg'irdan berkitib, rosa uringanlaridan keyin, nihoyat, achchiq paxta tutuni dimog'lariga urildi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Tuta II** – erta bahorda o'sadigan o'simlikning bir turi. *Loyxonada badbo'y, lekin chiroyli ertabahor o'simligi – tularlar bir tekis unib chiqdi.* (Sh. Xolmirzaev, «To'lqinlar»).

**Tutam** – narsalarning tutamlash yoki siqimlash mumkin bo'lgan miqdori; panjaning shuncha miqdorni oladigan (tutadigan) holati. Bir tutam soch. Bir tutam paxta. *Dangasaning quyrug'i bir tutam.*

(Maqol). *Qo'ylar kecha ertalab oxirgi tutam xashakni yeb bo'lishgan.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Yoqubbek soqolini tutamiga olib, bir lahza o'ylanib turdi-yu...* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Tutzor** – faqat tut ekilgan yer, maydon. *Ipakchilik uchun tuzilgan shartnomada besh gektar tutzor qilishni kolxoz o'z ustiga olgan.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Tutchilik** – tut daraxti o'stirish, yetishtirish. Ipak qurti uchun asosiy oziq bazasi bo'lgan tutchilikka e'tibor bermoq.

**Tuvaloq** – tuvdoqlar turkumiga mansub, ov qilinadigan, go'shti mazali yirik qush; tuvdoq. Tuvaloq ovlash. *Ko'lda yurgan qo'ng'ir g'oz cho'l qadrini ne bilur, Cho'lda yurgan tuvaloq ko'l qadrini ne bilur?* (Maqol). *Kaklikdan tashqari, qirg'ovul, tuvaloq va shu kabi parrandalar ham ovchilarning ko'zini o'ynatgan.* («Fan va turmush»).

**Tuvdoq** – ayn. **tuvaloq**.

**Tuvcha** – bir tuqqan echki. *Qurbonlikka tuvcha ham bo'ladimi?*

**Tuxmak II** – vohalarda o'sadigan och sariq xushbo'y gulli o'simlik (daraxt, buta yoki ko'p yillik o'simlik).

**Tuxum** [f. – urug', tuxum; avlod, nasl; sperma] – 1. Urg'ochi parranda, toshbaqa va b. ba'zi hayvonlarning bola ochish uchun qo'yadigan, qobiq bilan o'ralgan jinsiy yumurtqasi va shu narsa – tarkibida barcha oziq moddalariga ega bo'lgan taom mahsuloti sifatida. *Tovuqning tuxumi. O'rdakning tuxumi. Tuxum qilmoq. Qovurilgan tuxum. Tuxum yutmoq.*

2 *biol.* Jinsiy hujayra. Tuxum yo'li. Tuxum hujayrasi.

3 bot. Urug'. Oshqovoqning tuxumi.

4 ko'chma. Nasl, avlod, zot, zurriyot. Tuxumi qurigan hayvonlar.

5 ko'chma. Umuman, yuzaga keltiruvchi narsa, urug'.

**Tuxumdon** [f. – tuxum turadigan, hosil bo'ladigan joy] – anat. Ayollarda, urg'ochi hayvon va jonivorlarda tuxum hujayrasi hosil bo'ladigan, juft holdagi jinsiy bez; onalik (urg'ochilik) bezi. *Homilaning rivojlanish jarayoni tuxumdon-da urug'lanish bilan boshlanadi.* («Fan va turmush».)

**Tuxumlamoq** – shv. Tuxum qilmoq, tuxum qo'ymoq.

**Tuya** – tuyasimonlar oilasi, qadoq oyoqlilar turkumiga mansub juft tuyoqli sutemizuvchi hayvon. Bir yoki ikki o'rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sutemizuvchi ish hayvoni. *Tuyalarni haqli ravishda sahro kemalari deb atashadi.* (Gazetadan). *Ba'zi kunlari [Yo'lchi] ko'mir saroyga tushib, ko'mir, tappi, xashak keltirgan qozoqlarning tuyalarini xaridorning uyiga yetaklaydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Suvsizlikni tuya ko'taradi.* (A. Qahhor, «Maston».)

**Tuyapaypoq** – cho'l va adirlarda o'sadigan past bo'yli sershox buta. *Ko'm-ko'k yapaloq barglaridan tortib kuvacha nusxa g'unchalarigacha tikanak, qo'ng'ir tuyapaypoq.* (S. Anorboyev, «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar».)

**Tuyaqush** – ucha olmaydigan, ammo juda tez yuguradigan, issiq mamlakatlarda (asosan, Afrikada) yashovchi yirik qush.

**Tuyatish** – bot. 1. Doni yirik, yirik donli (anor, bug'doy haqida). *Patnisdagi novvotrang husayni, oq, qizil olmalar,*

*cho'l shamolida tars-tars yorilgan tuyatish anorlar quyosh shu'lasida anvoyi tovlanardi.* (H. G'ulom, «Senga intilaman»).

2. Xo'raki, mayizbop, g'ujumi yirik, dumaloq, sarg'ish-yashil uzum navi.

**Tuyatovon** – qumliklarda o'sadigan, o't, buta, chala buta ko'rinishidagi ko'p yillik o'simlik turi. *Qovjiragan tuyatovonning nimtatir hidi shoshqaloq kuzning omonatligini eslatadi. Yovshanlar, shuvoqlar, tikanlar va tuyatovondek qumga xos o'simliklar bu sahroning tabiiy ko'rinishlaridan birini tashkil qilardi.* (S. Ayniy, «Qullar».)

**Tuyachilik** – 1. Tuyachi ishi, kasbi; tuyakashlik.

2. Chorvachilikning tuya boqish, ularni ko'paytirish, shu asosda chorva mahsulotlari yetishtirish ishi bilan shug'ullanuvchi sohasi. Tuyachilik fermasi. *Ustyurt qorako'lehilik va tuyachilik yanada taraqqiy etadigan hudud hisoblanadi.* (Gazetadan).

**Tuymoq I** – 1. Keli, hovoncha va sh.k. da yanchmoq, maydalamoq, kukun qilmoq. Murch tuymoq. *Hovli yuzida jo'xori tuyib o'tirgan Karomat Mehri-nisoni ko'rib, dik etib o'rnidan turdi.* (R. Fayziy, «Hazrati inson»). *Onasi qandaydir o'tlarning tomirini terib quritar edi-da, kelida tuyib, atala qaynatib berar edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy».)

2 shv. Oqlamoq, tozalamoq (mas., sholini). *Qori o'zining xotinini yomonlab ketdi: sholini sochmasdan tuyolmaydi, suv qaynatsa ham, tagiga oldirib qo'yadi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari».)

**Tuynak** – yangi tugilgan, hali yetilmagan qovun, sapcha. [Bozorda] *Qo-*

*vun tushiradiganlarga yordamlashaman, sapcha, tuynak berishadi. (G'.G'ulom, «Shum bola»).* Bunday kezlarda xazanak bo'lgan polizdan topilgan xomak ham, paykal kesagida yorib yeydigan tuynak ham shirin bo'ladi. (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»). Ba'zan egatlar ichida tarvuz, qovun palaklari chiqib qolardi. Albat-ta, bir-ikkita burishgan tuynak bo'lardi. (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Tuyoq** – ba'zi sutemizuvchilar (asosan, tuyoqlilar) barmog'i uchidagi muguz tuzilma. Tuyoq quruqlikda harakatlanishga moslana borish jarayonida tirmoqning o'zgarishidan kelib chiqqan. Yumshoq yerda yashaydigan hayvonlar tuyog'i keng va yassi (mas., shimol bug'usi), tog'larda hayot kechiradigan hayvonlar tuyog'i esa ingichka hamda mustahkam (mas., echki). Fillar tuyog'i barmoqning faqat oldingi qismini o'rab turadi.

**Tuz I – 1 kim.** Molekullari tarkibiga kislota qoldig'i bilan bog'langan metall atomlari kirgan murakkab moddalar. *Tuz organizmning tuzilishi uchun, unda modda almashinishining to'g'ri borishi uchun zarurdir.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»). *Tuproq sho'rlanishi jarayonida ko'proq xlor va sulfat tuzlari to'planadi.* («Fan va turmush»).

2. Shu birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi (natriy xlorid). *Osh tuzi. Qoratikan tuz. Mayda tuz. Yirik tuz.* Oshga tuz solmoq. *Taom – tuz bilan, tuz – o'lchovi bilan.* (Maqol).

3. Umuman, ovqat, yegulik-ichgulik narsa. *Jazirama kunlarda tong sahardan kechqurun qorong'i tushguncha tuz totmay och yurish ko'p odamning sillasini quritardi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tun-

lar»). *Choy ichmadim, ichimga tuz ham kirmadi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Tuzqoq: tuzqoq qilmoq** – go'shtga tuz sepib quritmoq, qoqlamoq. *Shahar, qishloqlarga barra go'shtning hammasini yetkazib berolmaymiz. Kuchimiz yetganicha tuzqoq qilamiz.* (Gazetadan).

**Tug'aloq** – ko'p bola tug'adigan, bolalaydigan. Tug'aloq mol. *Yomg'ir yog'aloq, echki tug'aloq.* («Qo'shiqlar»).

**Tug'doq** – shv. tuvdoq, tuvaloq.

**Tug'yon** – toshqin, suv toshqini.

**Tushov** – uzoqqa ketib qolmasligi uchun ot-ulov va mollarning oldingi ikki oyog'ini matashtirib bog'laydigan arqon yoki moslama. *Iskandar esa ko'rpachada yotganicha, bedasi o'rilgan paykaldagi tushovini sudrab, hak(k)achaklab yurgan eshakdan ko'zini uzmasdi.* (S. Nurov, «Narvon»). *Xudoyorov otning tushovini yechib mindi-yu, orqasiga qaramay, jo'nab qoldi.* (O. Qo'chqorbekov, «Cho'pon»).

**Tushovli** – s.t. Tushov solingan, tushovlangan. *U [Saman] yana ustma-ust kishnadi. Tushovli bo'lsa ham, ancha joygacha sakrab-sakrab bordi.* (N. Fozilov, «Tushovli toy»).

**Tvorog** (ruscha so'z) – sutni sut achitqi bakteriyalar bilan ivitib, zardobini ajratib tayyorlanadigan mahsulot. Qaymog'i olingan yoki olinmagan sutdan tayyorlanishga qarab yog'li (18%), kam-yog' (9%) va yog'siz bo'ladi. Qabul qilingan standartga ko'ra yog'li T. tarkibida ko'pi bilan 65% suv, 11% oqsil, 2,4% sut qandi bo'ladi, 100 g kaloriyasi 230 kkal (960 kj) ga teng, 1 kg bunday T. uchun yog'liligi 3,0–3,5% bo'lgan 5,9–6,9 l sut sarflanadi. Tvorogda sut tarkibidagi foydali moddalar saqlanadi. T. oqsilida inson

hayoti uchun zarur barcha aminokislotalar bor. Tvorogni uy sharoitida tayyorlash uchun 3–4 l qaynatilgan iliq sutga 1 stakan qatiq qo‘shib aralashtirib kastryulkaga solinadi (ba‘zan pepsin yoki kalsiy glyukonat tuzidan foydalaniladi). Hosil bo‘lgan quyqa bo‘laklanadi va kastryulkani suvli tog‘oraga solib past alangada isitiladi (qaynab ketmasligi kerak). Quyqa bir xil isishi, zardobi ajralib chiqishi uchun aralashtirib turiladi. Bo‘laklar yuzaga qalqib chiqqach, elak yoki g‘alvir ustiga ikki qavat toza doka solib suziladi. Zardob toza oqib tushgach, sovitiladi va dokaga siqib o‘rab, ustiga taxta qo‘yib, yuk bostirib qo‘yiladi.

**To‘bichoq** – shv. Chopqir, yo‘rg‘a (ot haqida). *To‘bichoq ot, maydonda minardim bu to‘bichoqni, Xafa qilma, oyim, qo‘chchoqni [qo‘zichoqni].* («Alpomish»). *Mulla Fazliddin ertalab, podshoh in‘om qilgan to‘bichoq otni mindida, shahar dorug‘asi qabul qiladigan mahkamaga yo‘l oldi.* (P. Qodirov, «Bobur»).

**To‘da** [f. – do‘ng qilib to‘plangan narsa, g‘aram] – 1. Bir yerga to‘plab yoki uyib qo‘yilgan narsa; uyum, to‘p, to‘plam. *Axlat to‘dasi. Bir to‘da parcha-parcha g‘isht. Narsalarni to‘da qilib qo‘ymoq. Keyin uni sug‘urib oldi-da, bir to‘da qog‘ozni oldimga tashladi.* («Guldasta»).

2. Bir yerga to‘plangan kishilar yoki hayvon, qush va sh.k. guruhi, galasi, to‘pi. *Uloqchalar to‘dasi. Qushlar to‘dasi. To‘da bo‘lib yurmoq. To‘dadan ayrilgan to‘rga tushar.* (Maqol). *Arilar to‘dasi o‘zini qop ichiga urdi. Bu bolalarga chindan qiziq tomosha bo‘ldi.* (H. Nazir, «So‘nmas chaqmoqlar»).

3. Biror maqsad bilan uyushgan kishilar guruhi.

**To‘dakash** – to‘dadan chaqqonlik bilan ayrilib, tez o‘zadigan abjir, kuchli uloqchi ot.

**To‘fon** [a. – kuchli suv toshqini; zo‘r g‘avg‘o, to‘polon] – shiddatli bo‘ron, dovul. [Normat] *Ikki kechagacha uyqu ololmadi, ko‘zini yumsa, terakning shovullashi to‘fon bosib kelayotganday kuchayaverdi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *...shuncha bo‘ron, sel va to‘fonlarga bardosh bergan tog‘ kichkina bir maxluq [sichqon] oldida bag‘ri teshilib, chilparchin bo‘ladi.* (U. Ismoilov, «Saylanma»).

**To‘kin** – noz-ne‘matlarga boy, mo‘l-ko‘l, ma‘mur. *Qovun-uzumning to‘kin vaqti. Ziyofat to‘kin edi. Umurzoq aka aziz mehmonni farg‘onaliklarga xos saxiylik va ochiq yuz bilan qarshi oldi, to‘kin dasturxon yozilgan uyning to‘riga o‘tqazdi.* (H. Nazir, «So‘nmas chaqmoqlar»). To‘kin kuzda tug‘ilgan farzandning peshonasi yarqiroq bo‘ladi. («Saodat»).

**To‘kinchilik** – noz-ne‘matlarning to‘kinligi, seroblighi; mo‘l-ko‘lchilik. *Biz Toshkentdagi Oloy bozoriga juda erta keldik. Chinakam ma‘murchilik, to‘kinchilikni shu yerda ko‘rish mumkin.* (Gazetadan).

**To‘l/ To‘l tushdi/ To‘l oldi/ To‘l boshlandi** – chorvaning ko‘payish davri. *Bu yil sizda o‘tgan yilga nisbatan ham ko‘p to‘l tushdimi, deyman-a?*

**To‘la** – bahor jurtda tug‘ilgan qo‘zi, uloqlarni sovuq, jala, yomg‘irdan saqlash uchun yerdan chuqur qilib kovlanadigan maxsus o‘ra, qo‘zi-uloqlarning «bostirmasi». *To‘ladan to‘bal uchamning qo‘zisini olib chiq, emizamiz.*

**To'ngmoq** – muzlab qotib qolmoq, muzlamoq. Daryo to'ngdi. *Sho'r to'ngmas, ahmoq o'ngmas.* (Maqol). *Muzyorarning palubasida to'ngadigan qanaqa suyuqlik bo'lsa, hammasi to'ngib, muzga aylanadi.* (P. Qodirov, «Uch idiz»).

**To'ng'iz** – yovvoyi cho'chqa, qobon; umuman cho'chqa. *Yer ovloq bo'lsa, to'ng'iz tepaga chiqar.* (Maqol). *Eshak – ishi bilan, to'ng'iz – tishi bilan.* (Maqol).

**To'ng'iztaroq** – bir yillik, ba'zilar ko'p yillik baland bo'yli, to'pgulli, to'pguli yetilganda kiyim-boshga, hayvonlar tanasiga yopishadigan o'tsimon o'simlik. *Nusratillo ikki kungacha uning [toychaning] yoliga to'ng'iztaroq yopishtirib o'ynadi-yu, keyin qaramay qo'ydi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**To'pon** – g'allagulli va dukkakli o'simliklar donini yanchish va tozalashdan chiqqan chiqindi. To'pon maydalanган barg, urug' qobiqlari, boshqoq va don bo'laklari, begona o't urug'laridan iborat. Somonga nisbatan to'yimli.

**To'pgul** – popuk yoki shoda, boshqoq, kallak, soyabon shaklida butunlik hosil qilgan gullar majmui. Murakkab gullilar.

**To'plam** – 1. Ma'lum tartibda to'plangan bir turdagi narsalar yig'indisi; kolleksiya. *Qadimgi tanga-chaqalar to'plami.*

2. Ma'lum tartibda to'plangan va nashr etilgan asar, qonun, qaror va sh.k. majmui; majmua. *She'rlar to'plami. To'plamda shoirning sara masallari jamlangan.* (Gazetadan).

3. To'p, to'da, uyum. *Bir to'plam o'tin.*

**To'plamoq** – 1. Bitta-bitta terib yoki supurib, sidirib, bir yerga yig'moq, to'p,

to'da holga keltirmoq. *To'kilgan olmalarni to'plab qo'ydim. Qumni to'plab qo'y.* [Yo'lchi] *Mo'ljallangan miqdorini o'rib bo'ldi. So'ng uyum-uyum to'plab, keng qulochiga siqqancha ko'tarib, boyning tashqarisiga tashimoqqa boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Yig'ib ko'paytirmoq, ko'p qilmoq, jamg'armoq. *Mablag' to'plamoq. Akbar pul to'plab, qachondir Hindistonga sayohat qilishni orzu qilardi, tilagiga yetdimikan?* (X. Sultonov, «Onamning yurti»).

3. Turli manbalardan olib, bir butun, yaxlit holga keltirmoq, yig'moq; tuzmoq, tartib etmoq. *Kolleksiya to'plamoq. Gerbariy to'plamoq. Ma'lumot to'plamoq.*

**To'q** – ovqatga bo'lgan talabini, nafsini qondirib, to'yib ovqatlangan, ovqat yeb olgan. *To'q bola. To'q mollar. Qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q.* (Maqol). *Taomni tugatib, qizlar to'q va shod, qo'shnilarnikiga, dugonalarinikiga kop-tok o'ynagani chiqib ketdilar.* (Oybek, «Nur qidirib»).

**To'qay** – qamish, changal va sh.k. o'simliklar o'sib yotgan, odatda, zaxkash yer. *To'qayga o't ketsa, ho'l-u quruq baravar yonadi.* (Maqol). *Mavlton aka anavi kuni Sultonboy bilan to'qayga borib, «qo'qon arava»siga qamish bosib keldi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**To'qayzor** – ayn. to'qay 1. *Atrofdan og'ochlar, o'tlar, to'qayzorlar orasidan u qichqiriq, dod, ingrash eshitdi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

**To'qayiston** – kam qo'll. To'qay ko'p yer; to'qayzorlik. *Qalmoq yurtin nazar solib ko'radi, To'qayiston yerda ketib boradi.* («Alpomish»).

**To'qaylik** – to'qay bosgan yer, to'qayzor, to'qay. – *Oldimda bir to'qaylik*

paydo bo'lib qoldi. To'qayning ichida yolg'iz yo'l bor ekan, – dedi Shum bola. (G'.G'ulom, «Shum bola»).

**To'qim** – 1. Jazliq yoki egar ostiga qo'yiladigan, odatda, kigizdan qilinadigan ot-ulov abzali.

2. Otlar qarchig'ayini yara qilmasligi uchun egar ostiga qo'yilgan mato qoplamasi. U paxta matosidan, kigiz va boshqa materiallardan tayyorlanishi mumkin. Kigiz to'qim. *Eshakka – to'qim, odamga – libos.* (Maqol). «Oqtoy»ning ustida eski olacha ko'rpachadan to'qim, suyak qoshi uchib ketgan egar, qandaydir darvoza halqasi ilingan uzangi. (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

3 shv. Tandir yoki o'choqning namat yoki matodan qilingan yopig'i.

**To'qima** – 1 sft. To'qib yasalgan, to'qilgan. *Shavkat Zokir bilan indamay ko'rishdi-da, to'qima stulni chetroqqa surib o'tirdi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). *To'qima shlyapa kiygan Ra'no onasining ko'ziga boshqacha ko'rinib ketdi.* (H. Nazir, «Cho'l havosi»).

2 ot. maxs. Gazmol, gazlama. *Shoyi to'qimalar. To'qimalar ko'rgazmasi.*

3 ot. biol. O'zaro bog'langan va organizmda belgili bir hayotiy vazifani bajaradigan hujayralar tizimi. *Nerv to'qimalari. Suyak to'qimalari.*

4 ot. ad. Badiiy asarning asosiy mazmunini va undagi qahramonlarning xarakterini ochib beradigan, o'zaro uzviy bog'langan voqea-hodisalar majmui, to'qilma, syujet.

**To'qli (to'xli)** – bir yarim yoshga yetmagan, qochirilmagan urg'ochi qo'zi. (To'xli – bir yoshdan qo'zilagunga qadar bo'lgan davrdagi qo'yning nomi). *Bir qo'chqor boshi ketguncha necha*

*to'qlining boshini yeydi.* (N. Safarov, «Hayot maktabi»). *Oriqni semizga, qo'zini to'qliga, to'qlini qo'yga, kichikni kattaga almashtirganini bilasizmi? Bilasiz!* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**To'qol I** – 1. Shoxi yo'q, shoxsiz. *To'qol sigir.*

2 shv. Qisma, kalta. *Oxiri u chidolmadi, shekilli, nariroqdagi tut tagiga borib o'tirdi.* («Mushtum»). *Qarasa, o'sha o'zini aldagan parizod to'qol yolli to'riq otni minib, bir-bir bosib, irg'ib borayotgan ekan.*

**To'qchilik** – Farovon, to'q hayot, to'kinchilik, ma'murchilik. To'qchilikda yashamoq. *Ko'pchilik qayda bo'lsa, to'qchilik shunda bo'lar.* (Maqol).

**To'r I** – 1. Umuman, har qanday materialdan katak-katak ko'zli yoki bejamdor qilib to'qilgan narsa; asbob, buyum va sh.k. ning shunday narsadan iborat qismi. Sim to'r. Futbol darvozasining to'ri. *Kaptarxonani kaptarlardan xoli va [kaptarxona] og'zidagi novdadan to'qilgan to'rlarni buzilgan ko'rib hayron bo'ladi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

2. Tabiiy yoki sun'iy toladan katak-katak ko'zli yoxud bejamdor qilib to'qilgan gazmol; tyul. *Nafis to'r. Ip to'r. Pardabop to'r. To'r parda.*

3. Shunday to'qilmadan iborat buyum.

4. Shunday kataklar shaklida to'qilgan (ishlangan), baliq yoki qush ovlash uchun ishlatiladigan buyum, asbob. *Bedana tuzadigan to'r. To'r bilan baliq ovlamoq.*

5 ko'chma. Qo'lga tushirish, ilintirish; dom, tuzoq.

6. Umuman, shunday to'qilmaga o'xshash, uni eslatuvchi narsa. *To'ri taram-*

taram, yoqimli hidi gurkurayotgan qovunlar. («Saodat»).

**To'riq** (otlarning tusi) – tanasi va boshi qizg'ish jigarrang junlardan, yoli, dumi qo'ng'ir va qora junlar aralashmasidan iborat. *Oyoqlarining sakrash bo'g'imidan pastki qismi qora rangda.*

**To'rva** – otlarni xotirjam oziqlanishi uchun tumshug'iga kiydiriladigan sumka shaklida brezentdan tikilgan xalta; kichkina qopchiq; xalta. Odatda, asosan to'rvaxaltada arpa, makkajo'xori va b. oзуqalar bilan oziqlantiradi. To'rvaxaltada ot shoshmaydi, xotirjam oziqlanadi. (*Ochko'z eshak to'rva teshar*). Suzma tayyorlashda bo'zdan tikilgan to'rvaxaltaga solinib, osib qo'yiladi. Shunda undan suv (zardob) ajralib chiqadi. *Bo'z to'rva. Bir to'rva yong'oq.*

**To'riq** – qora qizil, to'q jiyron (ot tusi haqida). To'riq ot. *Otabek to'riq yo'rg'ani chiqarib, qutidorga tutdi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). – *Nigora?! – Sherbek qizib ketgan to'riqning tizginidan tortar ekan, o'z ko'ziga ishonmagandek tikilardi. – Qaysi shamol uchirdi?* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**To'rlama** – po'sti to'r bilan qoplangan, to'rlab, yetilib pishgan (qovun haqida). To'rlama shakarpalak. *Alijon boshmaldog'ini nayza qilib, to'rlama qovunlarni bir urib uchirib yuboradi.* (Mirmuhsin, «Chiniqish»).

**To'rlamoq** – 1. Ipni to'r shaklida kesishtirib tikmoq, shu yo'sinda tikib, biror yuzani qoplamoq. *Paypoqni to'rlab yamamoq.*

2. To'r shaklida kesishgan chiziqlar bilan qoplanmoq, to'r hosil qilmoq (yetil-

gan, pishgan qovun haqida) (*q. to'r I 6*). *Shakarpalak to'rlay boshlabdi. Tarvuzlar bir quchoq, to'rlabdi qovun...* (Mirtemir).

**To'rqovoq** – bedana va b. sayroqi qushlar saqlash uchun yarim palla qovoq po'chog'i yoki yog'och gardishga to'r to'qib yasalgan qafas. *Chinor shoxiga ilingan to'rqovoqdagi bedana betinim sayraydi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»). *Bu jimlikni faqat bog'larning chaylalariga osilgan to'rqovoqlardan chiqqan «vavag', vavag', pitpiliq, pitpiliq» sadolari buzib turar edi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**To'yimli** – qorinni yaxshi to'ydiradigan, to'q tutadigan; kerakli vitamin va sh.k. ga ega (boy). *To'yimli ovqat. To'yimli yem-xashak. To'yimli oзуqa. Inson iste'mol qiladigan oziq-ovqatlar orasida eng lazzatli, to'yimli va shifobaxshi – asal.* («Fan va turmush»).

**To'yimlilik** – to'ydirish va to'q tutish xususiyati. *Ovqatning to'yimliliigi. Oзуqaning to'yimliliгинi oshirmoq. Non o'zining a'lo darajada to'yimliliigi, yuksak ta'mi bilan jahonda juda qadrlanadi.* (Gazetadan).

**To'zon** – 1. Havoga ko'tarilgan (to'zgan) xas-xashak va b. mayda narsalar aralash chang. *Daryo qurisa ham, o'zani qolar, Bo'ron bosilsa ham, to'zoni qolar.* (S. Akbariy). *Mashinalar ketidan ko'tarilgan to'zon kun tig'ida, osmonda bir zum kezib, keyin paxtazorga yopirildi.* (A. Muhiddin, «Terimchilar»).

2. Narsa betiga, sathiga qo'ngan, ingan shunday narsa; gard-g'ubor, chang. *Nikolin uning to'zon bosgan yelkasiga og'alarcha qo'lini qo'yib: – Rahmat, Bektemir, – debdi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»). *O'choq boshida qumg'on*

*sharaqlab qaynab, cho'g' ustiga to'kildi. Bug' va kul to'zoni ko'tarildi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**To'g'anoq** – aravaga ortilgan yukni mahkamlovchi arqonning uchiga bog'lanadigan katta yog'och ilgak. *Bu o'tinkashlarning ko'pchiliklarida uchiga to'g'anoq bog'langan bir arqon va bir o'roqdan boshqa asboblari yo'q edi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**To'g'in** – g'ildirakning tashqi gardishi. *Arava to'g'ini. To'g'inga temir qoqmoq. [Akbaralining] Dadasi ho'l qayrag'ochni qo'r aralash kulga ko'mib, to'g'in egar, kegay yo'nar edi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Hovli sahnida to'g'in egadigan kunda qaqqayib turibdi.* (H. No'mon va A. Shorahmedov, «Ota»).

**To'g'ri shoxli uchma qo'ytikan** (*Ceratocephalus orthoceras d.S.*) – ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 1–7 sm ga yetadigan kichkina bir yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyo, Kavkaz va G'arbiy Sibirda-

gi cho'llarda, tog' etaklaridagi tuproqli, qumli, shag'alli va sho'r yerlarda, quruq qiyaliklarda, aksariyat begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi.

**To'sh** – 1. Gavdaning bo'yin bilan qorin o'rtasidagi old qismi: ko'krak. *To'shni to'shga qo'ymoq.*

2. Mol va qushlarning ko'krak qismi, ko'kragi. *Dala-tuzni suv olsa, qo'ng'ir g'ozning to'shidan.* (Maqol). *Tagidagi qo'ng'ir ot qishloq ko'chasidan to'shiga tuproq sachratib yo'rtib boryapti.* (M. Mansurov, «Yombi»).

3. Hayvon va parrandalarning ko'krak oldi go'shti, qovurg'alardan qolgan qismi. *Norinbop to'sh. Tuzlangan qo'yi to'shi.*

**To'shdor** – to'shi, ko'kragi keng. Ko'krakdor, to'shli. *Ko'krakli to'shdor yigit.*

**To'shli** – 1. To'shi, ko'kragi bo'lgan. *Qora to'shli qaldirg'och, Uy shipiga in qo'ydi.* («Qo'shiqlar»).

2 ayn. **To'shdor.**

## U

**Ufq** [*a.* – yer va osmon tutashgan chegara; gorizont; istiqbol] – ochiq joyda osmon bilan yerning yoki suv sathining ko'z ilg'agan uzoqlikda o'zaro tutashganday, yer bilan osmon qo'shilganday bo'lib ko'ringan chizig'i, qismi; gorizont. *G'arbiy ufqda samolyotlar paydo bo'ldi. Quyosh ufqqa yashirindi. Ufqni o'z gavadasi bilan to'sgan past-baland tog'lar qop-qorayib... ko'rinadi.* (Shuhrat, «Shinnelli yillar»). *Kech kirib quyosh g'arbiga yonboshlagach, ufq qip-qizil alanga ichi-*

*da qolganday bo'ldi.* (J. Sharipov, «Saodat»).

**Uglevodlar** [*r. ugol* – ko'mir + *voda* – suv; ko'mirsuvlar] – Odam, jonivorlar va o'simliklar hayoti uchun zarur bo'lgan, uglerod, kislrorod va vodoroddan tarkib topgan organik birikmalar guruhi.

**Uglevodorodlar** [*r. ugol* – ko'mir + *vodorod*] – molekulari faqat uglerod va vodorod atomlaridan tarkib topgan organik birikmalar sinfi.



**Ukrop** [*r. ukrop < kopyor – xushbo‘y o‘simlik*] – soyabongullilar oilasiga mansub bir yillik, ba‘zan ikki yillik xushbo‘y o‘tsimon o‘simlik; shivit; oshko‘klardan biri. *Malik aka, bozordan kashnich, ukrop, ko‘k piyoz sotib olmaydi.* («Mush-tum»). *Bu suyuqosh yuziga mayda ker-tilgan ukrop, rayhon solib, kosalarda dasturxonga tortiladi.* («Saodat»).

**Uloq** (*ko‘pkari*) – 1. Markaziy Osiyo xalqlarining qad. ommaviy, milliy o‘yinlaridan biri. Asosan, g‘alaba va hosil bayramlari, to‘y va sayillar munosabati bilan o‘tkazilgan. Hukmdor va har xil amaldorlardan tashqari o‘ziga to‘q odamlar, hatto oddiy aholi ham uloq o‘yinlarini tashkil etgan. Ko‘proq xatna (sunnat) to‘ylarida rasm bo‘lgan. Uloq turkiy xalqlar, ayniqsa, uning qo‘ng‘irot, qurama, ming, mang‘it, oyrat, yoyilma, kenegas, qipchoq, barlos kabi urug‘lari orasida ommalashgan. Uloq tomoshalari oldidan maxsus jarchilar qishloq, ovullarga yuborilib, odamlar gavjum joylarda, bozorlarda uloq kim tomonidan, qayerda, qachon va nima maqsadda o‘tkazilayotganligini hamda qo‘yiladigan sovrinlarni e‘lon qilgan. Turli joyda har xil qoida bo‘yicha (*chortoq, sudratma, marra, poyga, paka, minbar* va b. nomlar bilan atalgan) uloq o‘yini uyushtirilgan. Har bir otlq o‘rtaga so‘yib tashlangan uloqni (odatda, echki yoki kichikroq buzoqni) bir-biridan kuch bilan tortib olib, tezroq marraga eltib tashlash uchun kurashishdan iborat milliy sport o‘yini uloq ko‘ngilochar tomosha yoki shunchaki o‘yin bo‘lmasdan, o‘g‘il bolalar, yigitlarni mard, jasur, epchil, dovyurak qilib tarbiyalash vazifasini bajargan. Uloq o‘yinlari ot naslini yaxshilashga, chidamli, tez harakat qiladigan

zotlarini ko‘paytirishga yordam qilgan. Qorabayir, arabi, axaltekkin, qurama, laqay, kistanay, qorabog‘ va hoz. Orlov ot zotlari uloqchi otlar hisoblanadi. *Ot boqqaning – uloqqa, Qo‘y boqqaning – qo‘noqqa.* (Maqol). *Uloqda otdan yiqilib boshi yorilgan, qo‘l-oyog‘i singan chavandozlar inqillashib yotmoqda.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urinishlari»).

2. Echking 6 oylikkacha bo‘lgan bolasi. Echkichilikda uloq jun va tivit yo‘nalishida bo‘lsa yaylovda onasidan ajratilmay, sut yo‘nalishida bo‘lsa ajratib parvarish qilinadi (4 oylik bo‘lgach, onalaridan, erkaklari urg‘ochilaridan ajratiladi). Onasidan ajratib boqilganda 1 oylik uloqlarga bir kunda 4–5 soat oraliq bilan 4 marta (200–250 g dan), 3 oylik uloqlarga 3 marta (150 g. dan) sut ichiriladi. Shuningdek, uloq 10 kunlik bo‘lgach sutga qo‘shib 200 g, 2–3 oylik davrda 800 g pishirilgan suyuq suli atalasi beriladi. 3–4 haftalik uloqlar o‘tlashga qo‘yiladi. *Hozir yuzlab mayin junli qo‘zi va uloqqa egamiz.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Ko‘z oldimga ko‘m-ko‘k o‘tloqlar... o‘tlab yurgan jajji uloqlar, barra qo‘zichoqlar keladi.* (N. Fozilov, «Qush qanoti bilan»).

**Uloq bermoq** – 1. Uloqda chopiladigan, o‘rtadan olib, marraga yetkazib tashlanadigan echki, buzoq kabini bermoq. *Har kun ikki yuz qozon osh damlanar, ikki yuzlab uloq berilar, mamlatkatdan to‘yga keluvchi a‘yonga har kun minglab to‘n kiydirilar edi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»); 2. Uloq o‘yinini tashkil qilmoq, o‘tkazmoq. *Uloq bergan kishi sovrin ham beradi-da.* (M. Ismoiliiy, «Farg‘ona t.o»). *Ruxsatsiz uloq bergan kishiga jarima solinur.* («Mushtum»).

**Uloq chopmoq** – uloq o‘yinida qatnashmoq. *Dadam Mahkamning bobosining uloq chopishini gapiraversa, kishi hayron qoladi.* (A. Qodiriy, «Uloqda»).

**Uloq qilmoq** – biridan biri olib, olib qochib o‘yin qilmoq, uloq kabi o‘yin qilmoq. *Tag‘in ehtiyot bo‘l, qo‘rboshilar o‘g‘irlab ketib, uloq qilmasin.* (Oydin, «Hikoyalar»).

**Uloqni olmoq** – uloqda, umuman, musobaqada g‘olib chiqmoq, g‘alaba qilmoq. *Bu safar uloqni mehmonlar olishdi. Andijon, Surxondaryo uloqni olib, Xorazm, Qashqadaryo quvlashib borib...* (A. Po‘lat, «Tasadduq»).

**Ulov** – 1. Minib yuriladigan hayvon. *Registon oldidan o‘tadigan yo‘lovchilar ulovlaridan tushib, Ark darvozasiga qarab ta‘zim qililar edilar.* (S. Ayniy, «Qullar»).

2. Umuman, ishchi hayvon. *Suvning boshida bo‘ladigan baqaqurulloqliklar ham o‘zi yoki ulovining jonini koyitgisi kelmas edi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). *Bugun ulovimiz qo‘sh ho‘kiz emas, Qudratli texnika qo‘limizda, bas!* (B. Boyqobilov).

**Ulovli** – 1. Ulovi bor. Ulovli xo‘jaliklar. *...durustroq hosil olsam, kelasi yil ulovli bo‘lar edim.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).

2. Ulov mingan, ulov haydagan. *Shuning uchun ham yo‘l ustidagi bu choyxonada biron ulovli yo‘lovchi uchratarmiz, degan maqsad bilan ertalab barvaqt kelib o‘tirgan edik.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Ulton** – shv. Qoramol terisidan tayyorlangan, pishiq, qalin charm; tagcharm. *Nafsini tiygan kishi sulton bo‘lur, Xom*

*terini iylasang, ulton bo‘lur.* (Maqol). *Asov ot bizni sidrab ketardi. Yerga tiraverganimizdan etigimizning ultoni tars-tars ayrilib ketardi.* (S. Murodbekov, «Yovshan isi»).

**Ultrabinafsha** [ultra + binafsha]: *ultrabinafsha nurlar* – fiz. Spektrda binafsha va rentgen nurlari oralig‘idagi ko‘zga ko‘rinmaydigan nur (qishloq xo‘jaligi, sanoat va tibbiyotda qo‘llanadi).

**Umumiylik** – o‘zaro umumiy belgi-xususiyat; o‘zaro birxillik. Vazifaning umumiyliigi. *Manfaatlarning umumiyliigi. ...til bilan nutq umumiylik bilan xususiylikning dialektik munosabatida bo‘lib, ular biri ikkinchisiga o‘tib turadigan hodisalaridir.* («O‘TA»).

**Umurtqa** – q. **umurtqalar.**

**Umurtqalar** – anat. Odam va umurtqali hayvonlarning umurtqa pog‘onasini tashkil etadigan kalta g‘ovak suyaklar (odam umurtqasi tana, ravoq va o‘siqlardan iborat).

**Umurtqalilar** – zool. Gavdani tutib turuvchi umurtqa pog‘onasi bo‘lgan hayvonlar guruhi.

**Umurtqasizlar** – zool. Jonivorlar olamining umurtqa pog‘onasi bo‘lmagan guruhi.

**Un** – 1. Turli ekinlar donini, asosan, bug‘doyni tegirmonda tortish yo‘li bilan olinadigan kukunsimon ozuqa. *Bug‘doy uni. Jo‘xori uni. Oq un. Kepakli un. Bostirmada Ziyodaxon supra yozib, un elab o‘tirar edi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). *U qayroqi bug‘doy unidan yog‘lik patir, somsa yopti, qatlama pishirdi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Jannat xola shoshib un chalib, quyymoq soldi-da, boltani qo‘liga olib, to‘qayga qarab ketdi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

2. Kukun holiga keltirilgan mahsulot. *Kartoshka uni. Suyak uni. Fosfor uni.*

**Unabi** (lot. *Zizyphus jujuba*) – chilonjiydaning bir turi. Xitoyda ko'p tarqalgan o'simlik. Unabidoshlar, chilonjiydadoshlar, ramnadoshlar (*Rhamnaceae*) – ko'pchiligi daraxt va butalardan, ba'zilari esa o'tlardan iborat ikki pallali o'simliklar oilasi. Barglari oddiy va butun. Ba'zi turlarining gullari ikki jinsli, ko'kish yoki sarg'ish.

**Ungur** – tog'liklardagi tik o'yiqlik joy; uncha chuqur bo'lmagan g'or. *Qaysi bir ungurdan yirtqich qushning qiyqirig'i eshitilib, aks sado berdi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»). *Ungurlar qurilish ishlari (yo'l qurish, gaz va neft quvurlari o'tkazish)ga salbiy ta'sir ko'rsatadi.* («O'zME»).

**Unifatsial** – bir yuzali, ya'ni yuqorigi va pastki yuzasiz. Bu atama hozir silindr tuzilishli band (barg bandi)ga nisbatan aytiladi.

**Unifatsial yaproq** – bir qator bir pallali o'simliklarda yaproqning bir yuzali bo'lishi, ko'ndalang kesmasida yumaloq yassi bo'lmasligi: har ikkala tomoni bir xil tuzilishli yaproq. Unifatsial yaproqlar – asosidan tashqarisi ko'ndalang kesmasida doirasimon shakldagi yaproqlar. Bunday yaproqlar yuza adaksal qismni to'la rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladi.

**Universal II** – s.t. Bir necha xil ishni bajara oladigan traktor. *Kultivatsiya qilib, jo'yak oladigan universal ishi ustidan alohida nazorat o'rnatildi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). *Universalning tishli katta g'ildiraklari hovlini tesha bilan chopganday qilib yubordi.* (M. Mansurov, «Yombi»).

**Unli I** – uni bor, ichiga un solingan. *Unli qop.*

**Unli II** – tlsh. Unli tovush. Og'iz va bo'yin bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan, tarkibi ovozdand iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovush. Mas., **a, i, o** tovushlari.

**Unmoq** – 1. Rivojlanib, boshlang'ich poya va bargchalar hosil qilmoq; nish holati yuz bermoq (ekilgan urug' haqida). *Oradan ko'p vaqt o'tmadi, yangi nav urug' unib chiqdi.* (N. Safarov, «Don»).

2. O'sib chiqmoq, o'smoq. *Yakkamdukkam ungan makkajo'xori nihollari, parvarish nimaligini bilmay, qisilib yotibdi.* («Mushtum»). *Sahrolar qo'ynida chamanlar unib...* (Uyg'un).

**Unum** – 1. Yetishtiriladigan, bo'ladigan hosil. *Ishga qo'nim – xirmonga unum.* (Maqol). *Yer kuch bilan, ter bilan unum beradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Kechikib ekilgan g'alla ham, chigit ham Matqovulning keyin bergan ishlovlariga qaramay, yaxshi unum qilmadi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o.»). *Yig'ib butun unumni, Qaysi bozorga ortding?* (G'ayratiy).

2. Ish, mehnat natijasi, ko'rsatkichi; mahsuldorlik.

**Unumdor** – unum berish, unumlilik darajasi yuqori. *Toshkent qadimdan serquyosh, musaffo havoli, sersuv, unumdor tuproqli shahar sifatida shuhrat qozongan edi.* («Saodat»).

**Unumdorlik** – 1. Unum berish, unumlilik darajasi. *Yerning unumdorligi, ekinlarning hosili oshadi. Ochlik-nochorlikdan asar ham qolmaydi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Mineral o'g'itlar organik o'g'itlar bilan to'yintirilgan yerlardagina*

*unumdorlik yuqori bo'lishini unutmastlik kerak.* («Fan va turmush»).

**2 iqt.** Ishlab chiqarish samaradorligini aks ettiruvchi, ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi, sifati va mehnat xarajatlari o'rtasida miqdoriy (son bo'yicha) o'zaro bog'liqlik.

**Unumli** – 1. Yaxshi unum (hosil) beradigan. *Unumli yer.*

**2.** Yaxshi natijali, ish-natija ko'rsatkichi yaxshi. Unumli mehnat. Unumli texnika vositalari. *Paxtakor tadbirkor bo'lib, yangi tajribalardan unumli foydalansa, mehnati unumli, hosili barakali, turmushi zavqli bo'ladi.* (Gazetadan).

**Unumsiz** – 1. Yaxshi unum bermaydigan, unumi yo'q. *Unumsiz tuproq.*

**2.** Yaxshi natijasi, samarasi yo'q. *Unumsiz mashina. Unumsiz mehnat.*

**Unobi, unnobi** [a.] – ayn. **chilon, chilonjiyda.**

**Untegmal urug'murtak** – bir integumentli urug'murtak.

**Unuvchanlik** – urug'ning unish va ko'karish xususiyati.

**Upqun** – *kam qo'll.* Havo yoki yel bilan taraladigan harorat (sovuq yoki issiq) ta'siri. *Do'lning upquni! Yaqin bir joyda do'l yog'yapti.* (P. Qodirov, «Qora ko'zlar»).

**Urtikula** – yashil suv o'tlardan dengizlarda tarqalgan kodium (*Codium*) tal-lomidagi kichkina sharsimon tana.

**Urug'** – o'simliklarda urug'li o'simliklar generativ organi, nihol hosil qilish, tarqalish va tashqi noqulay sharoitlardan muhofaza qilish funksiyalarini bajaradi; odatda, urug'langandan keyin urug'kurtakdan rivojlanadi; ba'zan urug'lanmasdan ham rivojlanishi mumkin.

**Urug' hujayra** – hayvonlar va ko'pchilik o'simliklarda voyaga yetgan gaploid erkak jinsiy hujayra.

**Urug'don** – odam va hayvonlar erka-gida urug' hujayralar – spermatozoidlar shakllanadigan jinsiy bezlar.

**Urug'kurtak** (*ovulum*), **urug'murtak** – yuksak o'simliklar urug'i gulida, odatda, urug'lanishdan so'ng tuguncha ichida hosil bo'ladigan bo'rtma. U, meva barg – platsenta, urug'poyadagi maxsus o'simtada bitta yoki bir nechtdan joylashgan; sharsimon yoki tuxumsimon bo'ladi.

**Urug' ko'chat** – ko'chatzorda urug'dan o'stiriladigan bir va ikki yillik o'simliklar. Mevali o'simliklar urug' ko'chatidan payvandtag sifatida, manzarali o'simliklar urug'ko'chatidan o'rmon barpo etishda foydalaniladi. Seleksiya ishlarida yangi nav yaratishda duragay urug' ko'chat o'stiriladi.

**Urug'lanish, singamiya** – erkaklik jinsiy hujayra (urug' hujayra, spermatozoid, spermij)ning urug'ochi (tuxum) hujayra bilan qo'shilib, zigota hosil qilishi. Zigotadan yangi organizm rivojlana boshlaydi.

**Urug'li meva daraxtlari** – ra'nodoshlar oilasiga mansub urug'li meva beradigan o'simliklar. Bularga olma, behi, nok, do'lana, mushmula va b. kiradi. Urug'li meva daraxtlari bir nechta tur va tur-xillarni o'z ichiga oladi. Olma, nokning minglab navlari bor. O'zbekistonning hamma viloyatlarida ekiladi. Danakli meva daraxtlariga nisbatan kechroq hosilga kiradi, lekin ko'p umr ko'radi, sovuqqa chidamli, mevasi uzoq saqlanadi.

**Urug'lik** – ekish uchun foydalaniladigan urug', meva, to'pmeva va murakkab meva qismlari.

**Urug'lik reproduksiyasi** – elitadan boshlanadigan urug'lik avlodi. Urug'chilikda elita urug'larini 1-qayta ekishdan 1-reproduksiya, ularning avlodini qayta ekishdan 2-reproduksiya urug'lik olinadi. Dala ekinlari urug'chiligida 8-reproduksiyadan (makkajo'xorida 5-dan) keyin yalpi reproduksiya deyiladi. Paxtachilikda 1-3-reproduksiyalar urug'lik chigit hisoblanadi, 4-reproduksiya chigitlari, odatda, texnik maqsadlarda ishlatiladi. Urug'lik reproduksiya ortib borishi bilan navlarning mexanik va biologik ifloslanishi natijasida, populatsiya navlarida esa tabiiy tanlanish ta'sirida populatsiya tarkibi o'zgarishi oqibatida urug'lik sifati pasayib ketadi, kasallik, zararkunandalardan shikastlanish darajasi ortadi.

**Urug'lik ekish me'yori** – 1 ga yerga ekiladigan me'yordagi ko'chat qalinligi va yuqori hosilni ta'minlaydigan urug'lar miqdori.

**Urug'chibarg, mevachibarg** (*carpellum*) – yopiq urug'li o'simliklar gullaridagi organ. Tugunchaning asosiy qismi. Urug'chibargda boshlang'ich urug'kurtak rivojlanadi. Bitta yoki bir nechta urug'chibargdan urug'chi hosil bo'ladi.

**Urug'chilik xo'jaligi** – rayonlashtirilgan ekinlarning yuqori sifatli navdor urug'larini yetishtiradigan va viloyatlar yoki zonalar xo'jaliklarini urug'lik bilan ta'minlaydigan maxsus xo'jaliklar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining tajriba xo'jaliklari.

**Urug'shunoslik** – urug'lar to'g'risidagi fan, urug'chilikning nazariy asosi;

agronomiyaning tuzilishi va rivojlanishini, urug'lik materialni baholash va uni nazoratdan o'tkazish usullarini ham ishlab chiqadi.

**Urbanizatsiya** [*fr. urbanisation* < *lot. urbanus* – shaharga oid < *urbs* – shahar] – 1. Jamiyat hayotida demokratiya va madaniyatning umumiy rivoji bilan bog'liq holda sanoat, ishlab chiqarish va aholining shaharlarda to'planishi hamda shaharlar mavqei (roli) ning oshib borishidan iborat ijobiy ijtimoiy-demografik jarayon.

2. Shaharga, sanoat markaziga xos belgi va xususiyatlarning tarqalishi, joriy bo'lishi (mas., qishloq joylarda).

**Urvog** – 1. Mushtlash, yoyish va b. jihatdan ishlov berilayotganda, taxtaga yoki supraga yopishmasligi uchun xamir, zuvala va sh.k. ga sepiladigan un. *Urvog'iga chidagan yupqa qiladi.* (Shuhrat, «Shinelli yillar»). *Mol yoki qo'y jigari qalinligi 2 sm. hajmda shapaloqdek qilib kesilgach, urvoqqa belanadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

2 *ko'chma.* Eng kichik bo'lak, zarra. *Har birimiz xalqning bir urvog'imiz.* (H. Tursunqulov, «Hayotim qissasi»). [Tillaning] *Urvog'i ham ko'rinmaydi.* (B. Rahmonov, «Oltin odamlar»).

**Urtuk** – *esk.* Sirtidan qoplab turuvchi parda. *Loyqa suv ko'ksida pufakdek oqib, Qayerga borasiz, yengil ko'piklar. Bir cho'p yo bir xasga ilashmak bilan Yirtlardi yuzdan sirli urtuklar.* (G'ayraty).

**Urug'** – 1. O'simlikning murtak, oziq moddalari va qobiqdan iborat hosili; don, tuxum. Sochilgan urug' unib chiqdi. *Be-maza qovunning urug'i ko'p.* (Maqol). *Ter to'kib, sochsang urug', yer seni sochmas quruq.* (Maqol). *Ko'klamda ona-bola*

tog' etagidagi qo'riqqa chiqib, belkurak bilan yer ag'darib, lalmi bug'doy ekishdi, lekin qurg'oqchilik bo'lib, uruqqa ham chuv tushishdi. (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

2. Jonivorlar, hasharotlarning jinsiy hujayrasi; tuxum. *Bir chug'urchuq bir kunda o'n mingtagacha hasharotni yeydi. Hasharot esa, yo'q bo'lib ketmasligi uchun, millionlab tuxum qo'yadi.* (S. Nurov, «Narvon»).

3. Ipak qurti kapalagining tuxumi, qurt urug'i. *Samarqand qurt urug'i zavodi faqat oq pilla o'raydigan ipak qurti urug'lari tayyorlay boshladi.* (Gazetadan).

4 *biol.* Erkaklar jinsiy bezi ishlab chiqaradigan, jinsiy hujayralardan iborat suyuqlik; sperma, maniy.

**Urug'don** – 1 *anat.* Odam va hayvonlar erkagida urug' hujayralar – spermatozoidlar shakllanadigan jinsiy bezlar.

2 *bot.* O'simlikning urug' yetishtiruvchi va saqlab turuvchi qismi, qobig'i.

**Urug'lamoq** – 1 *q.x.* Urug' hosil qilmoq. *Beda urug'lay boshladi. Piyoz ikkinchi yili urug'laydi.*

2 *ko'chma.* Ko'paymoq. *...illatlarining urug'lab ketishiga ko'pchilikning loqaydligi ham sababchi.* (Gazetadan).

3 *shv. ayn. qo'zilamoq II.* *Qo'lidagi piyolani ko'rib, xumda urug'lab yotgan yog'idan to'ldirib berdi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t. o»).

**Urug'lanmoq** – *biol.* Urug' (sperma) bilan qo'shilmog' (ona tuxum hujayrasi haqida). *Homilaning rivojlanish jarayoni tuxumdonda urug'lanish bilan boshlanadi.* («Fan va turmush»).

**Urug'li** – uruqqa ega, urug'i bor. *Mayda urug'li o't.*

**Urug'lik** – urug' (ekish) uchun ajratilgan narsa (don, meva, hosil va b.). Urug'lik chigit. Urug'lik kartoshka. *Samarqand dehqonlari ocharchilikda urug'lik donlarini yeb qo'ygan emishlar.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Urug'xona** – urug'lik saqlanadigan joy.

**Urug'chilik** – 1. O'simlikshunoslikning navli urug' yetishtirish ishi bilan shug'ullanuvchi sohasi; tarmog'i; urug' tayyorlash. Urug'chilik xo'jaligi. *Ha, aytganday, ustod shu yaqin kunlarda urug'chilik sovxoziga kelar ekanlar. Xat oldim.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Paxtachilikning istiqboli haqida o'ylamaydigan kaltabin xodimgina urug'chilik ishini tashkil etishga mensimasdan qarashi mumkin.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

2. Urug' ajratish, urug'larni bir-biriga zidlash (*q. urug' 7*). *Endi, ana shu kassofat urug'chilik zimdan o'rtaqa tushib, ishning beliga tepadi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Urug'shunos** – urug' yetishtirish, urug'chilik bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, olim. *Seleksionerlarimiz va urug'shunoslarimiz oldida jiddiy vazifalar turibdi.* (Gazetadan).

**Urug'shunoslik** – urug'lar to'g'risidagi fan, urug'chilikning nazariy asosi; agronomiyaning bir bo'limi.

**Urchimoq** – ko'paymoq, ko'plab nasl yuzaga keltirmog'. *Pashsha juda tez urchiydigan hasharotdir. ...yaylovda urchiyotgan chorva mollari ham davlat va jamoat boyligidir.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

**Urchitish** (chorvachilikda) — chorva hayvonlarini genetik takomillashtirish

jarayonlarini boshqarish, mavjud hayvon zotlari, tiplari, liniyalarini yaxshilash va yangilarini chiqarish to'g'risidagi fan; chorvachilikda seleksiya-naslchilik ishlarining nazariy asosi (Zootexnika).

**Urg'ochi** – erkakka qarama-qarshi jinsli (hayvon, jonivor). *Urg'ochi ayiq. Urg'ochi buzoq.*

**Ustama** – 1. Pul hisobida tayinli (belgilangan) miqdorga qo'shib beriladigan; ustiga qo'shimcha. *Agar paykal sifatli haydalgan bo'lsa, mexanizatorga ustama haq to'lanadi.* (Gazetadan). *Kuzga borib mehnat haqidani tashqari qancha ustama mukofot olishlarini ham xayolida cho'tlab aytib berdi.* (S. Anorboyev, «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar»).

2. Mahsulotning ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lmagan, tannarxdan tashqari, tannarx ustiga qo'yiladigan. *Xullas, egov va boshqa bir qancha tovarlarga ham mudirning hakalak otgan nafsiga javob beradigan darajada ustama narx qo'yildi.* (Gazetadan). *O'g'itlarni joylashtirish uchun katta-katta omborlar zarur. Mana shularning hammasi ustama xarajatlarni ancha ko'paytirib yubormoqda.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Ustaxona** [usta + xona] – 1. Biror narsa yasash, tayyorlash yoki ta'mirlash uchun maxsus jihozlangan kichik muassasa va uning binosi.

2. Korxonada, xo'jalik va sh.k. larda ustachilik, ta'mirlash ishlarini olib boruvchi bo'lim. *Xo'jaliklarning ustaxonalari bu ishga moslashtirilmagan. yig'ish sifati texnika talablariga mutlaqo javob bermaydi.* (N. Xudoyqulov, «Yer tafti»).

**Ustun I** [f. – tirgak, poya, tirgovuch, tayanch] – 1. Tomni ko'tarib turuvchi tik

tayanch yog'och. *Me'mor ayvonga qaradi: peshayvonning o'sha to'rt ustuni ko'ziga olovdek ko'rindi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»). *Lali otxonaning o't yalayotgan xarilarini, charsillab yonayotgan ustunlarini ko'rdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

2 *arxit.* Bino peshtoqi va shiftining asosiy tayanchi; kolonna. Teatr peshtoqining ustunlari. Foye ustunlari. *Stansiya ayvonining bahaybat ustunlari, rangbarang yasanib, poyezd kutishga chiqqan odamlar asta-sekin suza boshlaganda, Elmurod toqat qilolmadi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

3. Umuman, biror narsani ko'tarib turish, osib qo'yish va sh.k. uchun foydalaniladigan uzun tik yog'och yoki shu taxlitda ishlangan qurilma. Chegara ustuni. Yo'l ko'rsatuvchi ustun. *Ketmon ko'targan ikki mo'ysafid uning yonidagi elektr ustuni tagida gaplashib o'tirardi.* (O'. Umarbekov, «Yoz yomg'iri»).

4 *fiz.* Havo bosimi yoki harorat o'lchash asboblarning tik shisha naychasi ichidagi suyuqlik. *Simob ustuni pasaya boshladi. Suyuqlik ustuni qancha baland bo'lsa, bosimi shuncha katta bo'ladi.* («Fizika»).

**Ustuncha** – 1. *Ustun I I s. kichr. Ariqchalar bo'yida, ikki tomondan bir-biriga ro'para qilib, qator ustunchalar o'tkazilgan.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

2 *bot.* Gulning urug'i (onalik) og'izchasi bilan tugunchasi oralig'idagi naychasimon qismi.

**Ustuxon** [f. – so'ngak, suyak] – 1. Suyak, so'ngak (odatda, et bilan birlikda). *Onangizni ko'ring: ustuxon, bir hovuch ustuxon.* (Shuhrat, «Umr pog'onalari»).

2. Go'shtli, pishirilgan suyak. *Maxsum peshinda yeyilgan go'shtdan qolgan*

*ustuxonni tozalay boshladi.* (S. Anorbo- yev, «Oqsoy»).

**Usadba** – 1. Usadba, qo‘rg‘oncha, qishloqcha. *Dehqonlar qo‘rg‘onchasi, dehqonlar yashaydigan qishloqcha.*

2. Hovli-joy. *Pomeshchikning hovli- joyi.*

3. Qo‘rg‘on (qishloq xo‘jalik jamoa- larining uy-joylar va xo‘jalik binolari bo‘lgan posyolkasi). *Markaziy qo‘rg‘on.*

4. Tomorqa. *Qishloqda uning uyi va tomorqasi bor.*

**Uva** – tog‘ yonbag‘irlaridagi cheti qiyalab ko‘tarilgan yerlar, pasttekislik. *Go‘yo tabiat qirlar, adirlar va uvalarga yam-yashil gilam qo‘yganday.* (Gazeta- dan). *Qarshidagi ulug‘vor tog‘lar, uva- larni tomosha qilib, aravada liqillab lanj boraman.* (Oybek, «Bolalik»). *Suv yoqa- lab kelib qolganim bu chechaklar uvasi munchalar go‘zal, do‘stim!* (Mirtemir, «Tingla hayot»).

**Uval** – yonbag‘irlari nishab, cho‘zilib ketgan qirlar. Tepasi yassi yoki gumbaz- simon, etagi yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Uvalning nisbiy balandligi 200 metr dan oshmaydi.

**Uvalamoq** – 1. Mayda, uvoq qism- larga bo‘lmoq; maydalamoq, ushat- moq. *Kesakni uvalamoq. Nonni uva- lamoq. Qum-kesakdan ko‘p bemador qirg‘oqni [po‘rtana] o‘pirardi, uvalardi.* (G‘.G‘ulom).

2. Boshqoq, so‘ta va sh.k. dagi dona- larni uqalab ajratib olmoq. *Jo‘xorini uva- lamoq. Anorni uvalamoq.*

**Uvalanuvchan** – yaxshi, tez, oson uvalanish (maydalanish, parchalanish) xususiyatiga ega. *Uvalanuvchi g‘isht.*

**Uvat** – q.x. Dala yoki ekin maydoni ichida, chetlarida qoldirilgan bo‘sh yer,

tor yo‘l. *Adirlarda o‘rim boradi, Uvatlar- da o‘tlaydi pada.* (X. Saloh, «Chashma»). *Marza, uvat, yo‘l yoqalarini haydash hi- sobiga maydonimizni o‘n ikki gektarga kengaytirdik.* (Gazetadan).

**Uvol** [a. – noqulay muhit; balo, ofat; falokat yoki kamchilik, nuqson] – 1. Ayb, gunoh.

2. Foydasiz yoki bevaqt yo‘q bo‘lish, yo‘qolish; nest-nobud.

3. Og‘ir, qiyin, ayanchli.

**Uvoq** – uvatilgan narsaning kichik bir bo‘lagi, uvalgan qismi; ushoq.

**Uyatchan mimoza** (*Mimosa pudica* L.) – dukkardoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub, bo‘yi 50 sm ga yetadigan buta. Vatani Braziliya. Tibbiyotda quritilma- gan bargi ishlatiladi. Tarkibida mimozin va boshqa alkaloidlar bor. Quritilmagan bargidan tayyorlangan tindirmasi (nas- toykasi) angina kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan dori preparatlar tarkibiga kiradi.

**Uyalamoq I** – uya qurmoq. *Qo‘lti- g‘imda ari uyalasa chidayman-u, lekin qallig‘imning cho‘lga borishiga chi- dolmayman.* (A. Hasanov, «Chiroqlar»). *Kimsasiz qishloqlar, taxta qoqilgan de- razalar, ko‘rshapalak uyalagan qutsiz uylar, tog‘ manzaralariga qabrison- day sovuq tus berib turibdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Uymoq** – ustma-ust qalashtirib, bir yerga to‘plamoq, uyum yoki g‘aram ho- sil qilmoq; yig‘moq. *Toshlarni bir yerga uymoq. Terilgan paxtani uymoq. Beda uymoq. Qamishlarni bog‘-bog‘ qilib, ka- nal ichiga uyub, yoqishadigan bo‘lishdi.* («O‘zbekiston qo‘riqlari».)

**Uyqu** – odam va hayvonlarda dav- riy yuz beradigan fiziologik holat (Uy-



quda nerv sistemasi, asosan, bosh miya po'stlog'ining faolligi pasayadi, ong, muskul tonusi va sezuvchanlik susayadi). *Qattiq uyqu. Shirin uyqu. Uyqum keldi. Uyqu arslonni ham yiqitar.* (Maqol).

**Uyum** – bir yerga uyib tashlangan narsa; to'p, to'da. *Qum uyumi. Shag'al uyumi. G'isht uyumi. Kitoblar uyumi. Hammamiz ko'sak uyumi atrofida o'tirib olib, ko'sak chuvirdik.* (U. Ikromov, «Unutilmas xotiralar»).

**Uyumoq** – shv. *Ivimoq.*

**Uyur** – orasida bir ayg'iri bo'lgan biyalar to'dasi. *Uzoq yo'l bosgan uyur hovuz atrofidagi barxanlarning yonbag'rida to'zon bulutiday bo'lib yotibdi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»). *O'ti tizza bo'yi keladigan keng yaylovlarda yilqi uyurlari o'tlab yuribdi.* (A. Sher-muhamedov, «O't-o'lanlar vodiysi»).

**Uyurma** – o'ralib harakat qiluvchi kuchli shamol; bo'ron, girdob; shunday shamol bilan yuqoriga ko'tarilib tushadigan mayda narsalar. *To'zon uyurmasi. Qorli uyurma. Sahrodan kelgan qum uyurmalaridan o'zlarini saqlash uchun hamma jonivorlar in-iniga berkindi, cho'l huvullab qoldi.* (M. Osim, «Ajdodlarimiz qissasi»). *Uyurma yer yuzini supurmoqqa qasd etganday, tikkaygan nimaiki bor, komiga tortmoqqa urinadi.* (N. Norqobilov, «Bekatladi oq uycha»). *...saratonda zavol topgan, qurigan xaslar osmon bo'yi uyurmada chirpirak bo'lib aylanadi.* (N. Norqobilov, «Bekatladi oq uycha»).

**Uyushma** – bir maqsad yo'lida birlikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi; ittifoq, tashkilot. *Yozuvchilar uyushmasi. Yer islohoti o'tkazilish oldidan qishloq*

*kambag'allar uyushmasi tuziladi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»). *U [Mo'min] hozir shu fikrda bo'lib, kolxozga vaqtinchalik bir uyushma deb qarar, ishga aslo ixlos qo'ymas edi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Uzangi** – egarning ikki tomoniga qayish bilan bog'lab, osib qo'yiladigan, otga minish va egarda oyoqlarni tirab o'tirish uchun xizmat qiladigan, metallardan yasalgan ot abzali. *Komil kumush uzangiga oyoq uchini qo'yib, egarga minib oldi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Ma'lum otliq qutidorning darvozasida otini to'xtatdi-da, o'ng oyog'ini uzangidan uzdi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Uzmoq** – 1. Kuch bilan tortib, yulqib, butundan ajratmoq, butunni qismga bo'lmoq. *Ho'kiz bir siltab, arqonni uzib yubordi. Jo'ra poshsha bo'ynidan marvarid marjonini chiqardi-da, ipini shartshart uzib, marvaridlarni kigizga to'kdi.* (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o.»).

2. Palak, novda yoki tupidan ajratib olmoq, kesmoq. *Qovun uzmoq. Pomidor uzmoq. Uzum uzmoq. Olma uzmoq. ...gulga termilib o'tirishni emas, o'sha gulni uzib, iskab yurishni yoqtiradi.* (S. Siyoyev, «O'tliq ayol»).

**Uzum** – 1. Tokning g'ujumlardan iborat mevasi. *Bir shingil uzum. Uzum g'ujumi. Uzum sharbati. Uzumini yeng, Bog'ini surishtirmang.* (Maqol). *Salimboyvachcha ikki ishkomga kirib, boshdan oyoq ko'rib chiqdi: uzum tok bargidan ham mo'l.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Bir kuni ko'chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko'tarib kelyapti.* (A. Qahhor, «Xotinlar»). 2. Tok. *Uzum ekmoq. Uzumni xomtok qilmoq.*

**Uzumzor** – tok ekilgan yer, tokli maydon, bog'. *Bog' va uzumzorlar, po-*

lizlar mo'l hosilni ko'z-ko'z qilardi. («Sodat».) Bu yer uzumzor ekan. Ular birinchi ishkonga kirib oldilar. (H.G'ulom, «Mash'al»).

**Uzumchi** – 1. Tok ekish va uzum yetishtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis. *Bog'bon*.

2. Ko'plab uzum oluvchi, uzum bilan savdo qiluvchi shaxs. – *Gard orasidan oriqliq baytalga mingan bir uzumchi chol paydo bo'ldi, – dedi Shum bola*. (G'.G'ulom, «Shum bola»).

**Uzumchilik** – 1. Bog'dorchilikning tok o'stirish va uzum yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Uning 4 ta asosiy yo'nalishi: xo'raki uzum yetishtirish, mayiz quritish, texnik maqsadlarda uzum yetishtirish (konserva mahsulotlari, sharbatlar, konsentratlar tayyorlash), vinochilik (xomashyo tayyorlash) sohalari mavjud.

2. Tokning biologik xususiyatlari va o'stirish usullarini o'rganadigan fan.

**Ushoq** – 1. Nonning mayda bo'lakchalari; uvoq. Suxari ushoga'i, patir ushoga'i. – *Qaddini ko'targuncha, zavodchi boylardan soliq olinmasligi kerak, – dedi non ushoqlarini terib o'tirgan* [Yolmonboy]. (J. Sharipov, «Xorazm»). *Rahmim kelib ularga, Ayvonchaga don sepdim. Har xil narsa: qo'noq, so'k hamda ushoq non sepdim*. (Uyg'un).

2. Jussasi, gavdasi kichik, zaif, nimjon. Ushoq kishi. *Hikoyani tinglagan sarim, bu qotma, ushoq chol ko'z o'ngimda salobat kasb etib... gavdalanardi*. (H. Nazir, «Uzr, otaxon»). *Yoshi qirq beshga borib qolgan... ushoq, pakana Nurullayev turmada battarroq cho'kdi*. (J. Sharipov, «Xorazm»).

3 shv. Bola, bola-chaqa. [Oqsoqol:] *Mo'g'ul kelib, o'zimizni qul qilib olsa, xotin, ushoga'imizni bozorga chiqarib sotsa, yaxshimi?* (M. Osim, «O'tror»).

**Ushr** [a. – o'ndan bir] – tar. Dehqonchilikdan keladigan daromadning o'ndan biri hisobidan olinadigan soliq. *Xazinani boyitaman deb, xalqni gado qildingiz, ushr deb olasiz, ulog' deb olasiz*. (Uyg'un va I. Sulton, «Alisher Navoiy»). ...o'lponi *ushr soliqlari raiyatni tobora qashshoqlashtirib, tinkasini quritdi*. (Mirmuhsin, «Me'mor»).

**Ushuk I** – shv. Sovuq. Qorabo'ron. O'lat. Qor. Ushuk. Masalan: shudgor qilingan maydondagi katta kesaklarning qahraton sovuqda muzlashini dehqonlar ushuk urdi deyishadi.

**Uchastka** [r.uchastok] – 1. Biror maqsadda ajratilgan yer bo'lagi, maydon. *Bundan chiqadigan suv bilan... maktab uchastkasinigina emas, unga tutashtgan tomorqa yerlarni ham sug'orish mumkin*. (H. Nazir, «Cho'l havosi»). *Elmurod polkdan o'z batalyoniga uchastka olib, mudofaaga o'tganda, tong yorishib qolgan edi*. (Shuhrat, «Shinelli yillar»).

2. Yer maydoni, dalaning biror belgisi bilan o'ziga xoslikka, alohidalikka ega bo'lgan bo'lagi. *Ko'chatxonada bir uchastka tayyorlanib, unga majnun archa ko'chatlari o'tkazildi*. (Gazetadan).

3. Ma'lum bir xo'jalikning hududiy jihatdan ajratilgan, alohida bo'limi. *O'rmonjon bugun, negadir hamma uchastkaga bordi, kechga yaqin uyiga qaytdi*. (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

4. Biror nuqtayi nazardan chegaralanishda hududiy ichki bo'linma, bo'

linmalar; hududlar. *Xalq sudlarining hozirgi vaqtda amalda bo'lgan uchastka sistemasini tugatish va yagona tuman (shahar) xalq sudlarini tuzish ko'zda tutiladi.* (Gazetadan). *Hozir, sen kelmasdan biroz burun, bir odamni Qumariqqa yubordim. Uchastka pristavi ham o'sha yerda.* (Cho'lpon, «Kecha va Kunduz»).

## V

**Vadoz suvlari** (*lot. vadosus* – sa-yoz) – Yer po'stining yuqori qismidagi g'ovak, yoriq va bo'shliqlarida joylashgan yer osti suvlari. Atmosfera suvlari-ning shimilib yig'ilishidan hosil bo'ladi. Ba'zan aeratsiya zonasidagi yer osti suvlarini ham vadoz suvlari deb ataydilar. Qishloq xo'jaligida, ayniqsa quruq iqlimlarni rivojlanishida vadoz suvlaridan sug'orishda foydalaniladi.

**Vakuum** – havo yoki gazning biror idish yoki sistemada siyraklashtirilgan holati.

**Vakuum-suslo** – uzum asali, uzumning konsentratlangan sharbati. Uzumning tabiiy quyuq sharbatini vakuum asosida bug'lantirib olinadi. Oqish, til-lasimon, to'q famil choy rangida, qizil ranglarda bo'ladi. Tarkibida 65% atro-fida qand (asosan glyukoza va fruktoza) bo'ladi.

**Vakuummetr** [*vacuum* + *yun. metron* – o'lchov] – siyraklashtirilgan gazlar bosimi o'lchanadigan asbob.

**Vaksinalar** (*lot. vaccina* – sigirga oid) – emlashda ishlatiladigan moddalar – infeksiya kasalliklarining oldini olish yoki davolash maqsadida qo'llaniladigan pre-paratlar. Mikroorganizmlar, shuningdek ularning zararsizlantirilgan toksinlaridan

5. Ma'lum bir ish faoliyat olib bo-riylayotgan, unga oid joy, obyekt. *Qurilish uchastkasining boshlig'i Gulboy Bo'riyevning ishonchi komilki, yirik ob-yekt ham belgilangan muddatda a'lo sifat bilan topshiriladi.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

tayyorlanadi, organizmga yuborilganda tegishli yuqumli kasalliklarga nisbatan sun'iy orttirilgan faol immunitet vujudga keladi.

**Vaksinatsiya** – *q. Emlash.*

**Val** [*nem. Walze* – jo'va, g'o'la, val] – *tex.* Turli mashina va mexanizmlarda o'z o'qi atrofida aylanadigan va o'ziga o'rnatilgan detalga aylanma harakat va kuch uzatadigan detal; *o'q val orqali ho-sil qilingan aylanma harakatni shatun yordamida tebranma harakatga keltirishi mumkin.* («Fan va turmush»).

**Valish** – *shv.* Ishkom. *Hovli uncha katta emas, lekin atrofi qator uy, uylar ustigacha valish. To qirov tushguncha turli xil uzumlar sarg'ayib, quyoshda tov-lanib yotadi.* (Gazetadan).

**Variant** [*lot. variantis* – o'zgaruv-chan] – loyiha, reja, ilmiy, badiiy, adabiy asar, mashina va sh.k. ning boshqacha ishlangan turi, boshqa xil ishlangan nus-xasi. Ikki variantda tayyorlangan loyiha. «*Alpomish*» dostonining *Fozil shoirdan yozib olgan variant. Albatta, o'zi emas, bu qayta ishlangan variant.* (F. Musajonov, «Himmat»).

**Variatsiya** (tafovut) – o'simlik ham-da hayvon avlodlarida bo'ladigan ba'zi o'zgarishlar. Masalan, tokda navning

barcha xususiyatlari saqlangan holda ayrim organlarining morfologik jihatdan biroz o'zgarishi (barglari maydalashib qolishi va h. k.). Bu xususiyat o'simlikni vegetativ ko'paytirishda ham saqlanib qolinishi mumkin.

**Varroa kanasi** – xavfli kasallik bo'lib, asalari oilalarini kuchsizlanishi va ko'p miqdorda o'lishi bilan belgilanadi. Kanalar asalari tanasida qishlab, avlodi paydo bo'lganidan so'ng ko'payadi, ayniqsa bahor va kuzda asalari avlodida, yoz oylarida erkak arilar avlodida ko'plab ko'payadi. Halok bo'lgan yosh arilarni o'z inidan chiqarib tashlaydi.

**Vegetativ ko'payish** – vegetativ organlar yoki ularning bir qismidan yangi organizm paydo bo'lishi; ko'p hujayralilar uchun xos. Vegetativ ko'payishda ham bir hujayralilarning jinsiy ko'payishi singari klonlar – genetik jihatdan bir xildagi individlar guruhi vujudga keladi.

**Vegetativ organlar** (o'simliklarda) – yuksak o'simliklarning oziqlanishi va tashqi muhit bilan moddalar almashinuvini ta'minlaydigan qismi. Vegetativ ko'payish vazifasini bajaradi. Asosiy vegetativ organlar barg va poyali novda hamda ildiz hisoblanadi. Barg fotosintez, ildiz suv va mineral moddalarni shimib olish vazifasini bajaradi. Evolutsiya jarayonida vegetativ organlar o'simliklar quruqlikka chiqishi bilan tuzilishining mukammallashuvi tufayli paydo bo'lgan.

**Vegetatsion sug'orish** – o'suv davrida tuproqda optimal namlik yaratish uchun ekinlarga suv quyib turish. Bu davrdagi suv berish soni va muddatlari tuproqdagi namlik zaxirasi, o'simlikning rivojlanish fazasi, sug'orish maqsadlariga bog'liq. Ekinni undirib olish, o'g'it-

lashdan keyin (o'g'itni eritish maqsadlarida), sovuq urishdan saqlash uchun sug'orishlar ham vegetatsion sug'orishlarga kiradi.

**Vegetatsion uy** – devorlari va tomi oynavand, shamollatib turishga moslashtirilgan kichik bino, turli vegetatsion tajribalar olib boriladi. Oynavand uy yonida metall to'r bilan o'ralgan (parrandalardan himoya qilish maqsadida) maxsus maydoncha bo'ladi.

**Vegetatsion usul** – o'simliklar agrokimyosi va fiziologiyasiga oid ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llaniladigan laboratoriya usullaridan biri; vegetatsion idishlarga o'tkazilgan o'simliklarni vegetatsion uy, issiqxona, oranjereya, fitotron va b.larda o'stirish. Vegetatsion usul yordamida oziq moddalarning fiziologik roli, ularning o'simliklarga kirib borishi, muhit reaksiyasining (pH) ahamiyati, sug'orish normasi, gerbitsidlarga munosabati o'rganiladi, shuningdek tuproqqa solindigan turli xil o'g'itlar sinab ko'riladi.

**Vegetatsiya** (*lot. vegetation* – uyg'onish, joylanish) – o'sish, ko'karish, o'simlik organizmining faol holati (*q. Vegetatsiya davri*).

**Vegetatsiya davri** – 1. Meteorologik sharoitlarga ko'ra yilning o'simlik o'sishi va rivojlanishi mumkin bo'lgan davri.

2. Qishloq xo'jaligida ekinlarning to'liq rivojlanish sikli uchun, ya'ni o'simlik urug'ining o'sib chiqishidan boshlab hosil yig'ilgungacha bo'lgan zaruriy davr (biologiyada bir va ikki yillik o'simliklarda urug'ning unishidan o'simlik umrining tugashigacha yoki ko'p yillik o'simliklarda erta bahorda «uyg'onish»dan qishda «uyqu»ga kirishgacha bo'lgan davr).

**Vegetativ** [lot. *vegetativus* – o‘simlikka oid] – *biol.* O‘simliklarning oziqlanishi, o‘sishi va ko‘payishi uchun xizmat qiluvchi.

**Venalar** [lot. *vena* – qon tomir] – *anat.* A‘zo va to‘qimalardan yurakka qon olib keladigan tomirlar. Venadan qon olmoq. Vena qoni. *Hujayralarda moddalar almashinuvi natijasida hosil bo‘lgan qoldiq moddalar va karbonat angidrid vena kapillyar qon tomirlariga o‘tadi.* («Odam va uning salomatligi».)

**Ventilyator** [lot. *ventilator* – yelpig‘ich; sovuruvchi, shamollatuvchi] – yopiq binodagi havoni yangilaydigan, havoni tozalab turadigan, mashina qismlarini sovitadigan shamolparrakli mexanizm.

**Ventilyatsiya** [lot. *ventilatio* – sovutish, shamollatish, yelpish, sovurish] –

1. Turli sistema va moslamalar yordamida binolar havosini yangilash, tozalash, shamollatish. *Turli teshik, ochiq joy, yoriqlar orqali havoning yangilanishiga tabiiy ventilyatsiya deyiladi.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish».)

2. Bino havosini yangilash, tozalash, shamollatish uchun qurilgan moslama yoki moslamalar tizimi.

**Vertikal ko‘kalamzorlashtirish** – binolar, park inshootlari va b. vertikal yuzalarni maxsus vositalar (trelyaj, pergola, arka) yordamida daraxtsimon lianalar va b. chirmashib o‘sovchi o‘simliklardan foydalangan holda ko‘kalamzorlashtirish. Doim yashil lianalar ishtirokida barpo etilgan 1–2 yarusli ko‘kalamzorlashtirish obyekti bo‘lib bino devorlari xizmat qiladi. Uning asosiy maqsadi maydon yetishmaganda ko‘proq yashil maydonga ega bo‘lish, bino fasadini bezash, bino devorlarini qizib ketishdan saqlash, chang va

shovqindan muhofaza etish hamda bino qusurlarini yashirish va h.k.

**Vertikal rejalashtirish** – bu shahar-sozlik maqsadlarida foydalanish uchun mavjud yerlarning relyefini sun‘iy ravishda o‘zgartirish, qayta shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan muhandislik chora-tadbiridir.

**Veterinar** [lot. *veterinaries* – veterinariya mutaxassisi, vrachi] – Veterinariya bo‘yicha oliy malakali mutaxassis; mol doktori. *Hozirgi zamon veterinarlari faqat kasal hayvonlarni davolabgina qolmay, sog‘lomlarini ham tekshirib turishadi, ularni kasallik yuqishidan ehtiyot qilishadi, kasalga chalinmasligi uchun emlashadi.* («U kim, bu nima?»)

**Veterinariya, veterinariya tibbiyoti, baytariya** (lot. *veterinaries* – hayvonlarni parvarish qiluvchi, hayvonlarni davolovchi) – hayvonlar kasalliklarini o‘rganuvchi fanlar majmui hamda hayvonlar kasalliklarining oldini olish va ularni yo‘qotish, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan kasalliklardan muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

**Veterinariya akusherligi** – klinik fan, jinsiy jarayonning norma va patologiya masalalari bilan shug‘ullanib (urug‘lantirish, otalanish, bo‘g‘oz bo‘lish, tug‘ish va tuqqandan songgi davr), shuningdek sut bezlari va yangi tug‘ilgan hayvonlar kasalliklarini o‘rganadi.

**Veterinariya dorixonasi** – veterinariya doktori retsepti bilan dori tayyorlaydigan, uni saqlaydigan va tarqatadigan muassasa.

**Veterinariya laboratoriyasi** – veterinariya xizmati tizimida hayvonlarda kasalliklarni aniqlaydigan laboratoriya.

Hayvonlarning kasalliklari va o'lish sabablarini aniqlash maqsadida turli xil ilmiy tadqiqot va kuzatish ishlari olib borilgan.

**Veterinariya xizmati** – mamlakat hududi, zonalar yoki xo'jaligining ayrim tarmoqlarida, korxonalar, transport, davlat chegarasi, qurolli kuchlarda jami veterinariya tadbirlarini amalga oshiradigan veterinariya tashkilotlari va muassasalari majmui.

**Veterinariya shifoxonasi** – kasal hayvon va parrandalarni davolaydigan muassasa.

**Veterinariya-sanitariya nazorati** – chorvachilik fermalari, parrandachilik fabrikalari, go'sht-sut kombinatlari, hayvonot mahsulotlari va xomashyosini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tashish bilan shug'ullanadigan korxonalarining veterinariya-sanitariya holati ustidan davlat va ichki nazorati tizimi.

**Veterinariya-sanitariya stansiyasi** – shahar, shahar atrofidagi jamoa, shirkat, aksionerlik va fermer xo'jaliklarining chorvachilik obyektlariga, shuningdek teri, jun mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar hamda oziq-ovqat korxonalariga xizmat qiluvchi muassasa.

**Veterinariya-sanitariya ekspertizasi** – 1. Hayvonot mahsulotlarini sanitariya-gigiyena jihatidan baholash usullarini o'rganadigan fan.

2. Hayvonot mahsulotlarining istemol talablariga javob berishini aniqlaydigan veterinariya mutaxassislarining amaliy faoliyati sohasi.

**Vetvrach** – veterinariya vrachi, ayn. veterinar. *Bunaqa jigarrang «Jiguli»dan sovxozda yetti kishida bor. Qaysi biri*

*ekan? Bosh zootexnikmi, vetvrachmi, kim bo'ldi? (Gazetadan).*

**Viaduk** (lot. *Via* – yo'l va *dico* – o'tkazaman) – yo'llar chuqur jarlik, suvsiz dara, botqoqlik va b. bilan tutashadigan joylarga quriladigan baland va uzun ko'priksimon inshoot.

**Vibratsiya** [lot. *vibratio* – uloqtirish; tebratish; titratish] – *tex.* Qattiq jismlarning mexanik tebranishi, silkinishi. *Foydali vibratsiya vibratorlar bilan hosil qilinadi va turli texnologik operatsiyalarni bajarishga xizmat qiladi.* («Politexnika lug'ati»).

**Vibrator** [lot. *vibrare* – tebratmoq; titratmoq, qaltiratmoq] – *tex.* Tebranma harakat hosil qiladigan asbob, uskuna.

**Vibrioz** – vibrion bola tashlash bilan bir xil. Bola tashlash, yo'ldosh ushlanib qolishi, qisirlik, vaginit va metrit bilan yuzaga chiqadigan qoramol, qo'y-echkilar, kamdan kam cho'chqalarda uchraydigan yuqumli kasallik.

**Vibrog'alvir** – vibratsiya ta'sirida ishlaydigan mexanik g'alvir.

**Viktoriya regiya** (*Victoria regia*) – nilufardoshlar oilasiga mansub ko'p yillik manzarali gigrofit o'simlik. Janubiy Amerikaning Amazonka va Orinoko daryolari havzasida, oqim sekin bo'lgan joylarida o'sadi. Bargi mis barkashga o'xshagan bo'lib, diametri 2 metr gacha bo'ladi. Xushmanzara o'simlik sifatida botanika bog'lari, oranjeriyalarda o'stiriladi. Gullari yirik, 40 sm diametrga ega, xushbo'y, oq nilufarga o'xshaydi, suv ostiga cho'kib meva tugadi, urug'lari no'xat yirikligida bo'ladi. Suv havzalarini ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi.

**Vilt** [ingl. *to wilt* – so'limoq, qurimoq] – g'o'za, kartoshka, makkajo'xori, kun-

gaboqar, karam singari o'simliklarda bakteriyalar, zamburug'lar, viruslar orqali tarqaladigan kasallik (bu kasallik o'simlikning so'lib qolishiga, barglari qovjirab, halok bo'lishiga olib keladi).

**Oq palak, so'lish** – takomillashmagan zamburug'lar qo'zg'atadigan o'simlik o'tkazuvchi naylori kasalliklari (traxeomikozlar). Vertisilyoz vilt va fuzarioz vilt turlari bor. *To'g'ri, paxtaning ashaddiy ofati vilt edi. Hozircha olimlarimiz uning payini qirqdilar.* (N. Safarov, «Olovli izlar»). *Salimxon Obidiyning aytishicha, seleksiyada hozir chirsillab turgan masala – viltga qarshi kurash.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Vino** [lot. *winum* – uzum, tok tanasi; aylanuvchi, o'raluvchi] – uzum va mevalar sharbati yoki turpini achitqilar ishtirokida spirtli bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan ichimlik. *Yo'lchi vinoni hidlab, yuzini burishtirdi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Vinochilik** – uzum va b. mevalar sharbatini turpsiz yoki turpi bilan bijg'itib vino tayyorlash.

**Virgin archasi** (*Juniperus virginiana*) – oilasiga mansub, balandligi 15–30 m ga yetadigan daraxt. Shox-shabbasi tor tuxumsimon yoki yoyiq. Bu archa tanasining tubidan shoxlaydi, keyinroq bu shoxlari qurib, tushib ketadi. Bu daraxt tuproq tanlamaydi, quruq toshli, qumli va botqoq hamda nam, sho'rtob tuproqlarda o'saveradi. Qurg'oqchilikka, havoning ifloslanishiga, soyaga chidamli. Virgin archasini landshaft qurilishida yashil to'siq sifatida yakka-yakka yoki guruh-guruh qilib ekish tavsiya etiladi. Bu archa turi O'zbekistonga eng muvaffaqiyatli in-

troduksiya qilingan archa turi hisoblanadi. Respublikamizning jazirama yozi va quruq-issiq havosiga bemalol chidaydi, shakl berilishiga moslashuvchan. Toshkent shahridagi ko'kalamzorlashtirish maqsadida ekilgan archaning 80% ga yaqini shu archa turiga tegishlidir. Landshaft qurilishida va avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanish tavsiya etiladi.

**Virginil davr** – o'simlikning o'sishi va rivojlanishida urug' unib chiqishidan birinchi marta gullaguncha bo'lgan davri.

**Viruslar** [lot. *virus* – o'simlik shirasi, zahar] – faqat tirik hujayralarda ko'payib, odam, hayvon, o'simlikda yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar. Gripp virusi. *Viruslar ma'lum filtrlardan o'tib ketadigan bakteriyalar bo'lib, ular bakteriyadan kichik bo'ladi.* (Z. Oripov, «Ko'z ilg'amas dunyo»). *Vilson Smitning aniqlashicha, grippni bakteriyalar emas, balki nihoyatda mayda-mayda, ko'z ilg'amas viruslar vujudga keltirar ekan.* («Fan va turmush»).

**Virusologiya** [*virus* + yun. *logos* – bilim, ta'limot] – viruslar va ular tarqatadigan kasalliklarni o'rganadigan fan. *Virusologiya sohasidagi muvaffaqiyatlar xavfli virusli kasalliklarga qarshi yangi... vositalarni ishlab chiqishga imkon berdi.* (Gazetadan).

**Virusli** – viruslar qo'zg'aydigan, viruslar keltirib chiqaradigan. *Virusli kasalliklar.*

**Virusli granulyoz** – hasharotlar, ayniqsa kapalaklarning virusli kasalligi.

**Virusli kasalliklar, virozlar** – viruslar qo'zg'atadigan kasalliklar. Virusli kasalliklarga odam, hayvon va o'simliklarda

uchraydigan juda ko'p yuqumli kasalliklar kiradi.

**Visteriya (*Wisteria sinensis Thunb.*)** – dukkadoshlar oilasiga mansub daraxtsimon chirmashib o'suvchi o'simlik, yuqori manzarali liana hisoblanadi. Poyasining uzunligi 20 metrgacha, yo'g'onligi 10 sm gacha yetadi. To'pguli uzunligi 30 sm gacha. Gullari yorqin binafsha rangida bo'lib, yashil barglar fonida xushmanzara ko'rinadi. To'pguldagi gullarning bir vaqtda ochilishi betakror go'zallik yarataadi. Aprel-may oyida gullaydi, dukkaklari oktabr-noyabr oylarida yetiladi. Biologik chidamli, 200 daraja sovuqqa chidaydi. Yozgi teatr binolari va shiyponlarni ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llaniladi. Vertikal ko'kalamzorlashtirishda istiqbolli o'simlik hisoblanadi.

**Vitaminli qo'shimcha oziqa** – chorva mollari oziqasidagi vitaminlar yetarli bo'lishi uchun qo'shimcha tarzda beriladigan servitamin oziq yoki vitaminlar.

**Vivariy** – tajriba o'tkazilayotgan hayvonlar saqlanadigan molxona.

**Viviseksiya usuli** – hayvonni operatsiya yo'li bilan yorib, muayyan organ faoliyati o'rganiladi.

**Vizual** [*lot. visualis* – ko'rishga oid] – ko'rish mumkin bo'lgan, ko'rinadigan.

**Vizual kuzatish** – biron bir voqeahodisani oddiy ko'z bilan yoki durbin, teleskop yordamida kuzatish, o'rganish.

**Vladimir (og'ir yuk tortuvchi) ot zoti** – bu zot Vladimir va Ivanovo viloyati xo'jaliklarida mahalliy aravakash otlarni yo'rtoqi, arden, suffolk, kleydesdal va shayr zotlari bilan chatishtirish orqali yaratilgan. 1946-yili zot deb tasdiqlangan. Konstitutsiyasi zich, ayrimlariniki qo'pol, boshi,

bo'yni yo'g'on, uzun va go'shtdor, tanasi chuqur, beli keng, ko'kragi keng va chuqur, qovurg'alari aylanasimon, oyoqlari uzun, tusi to'riq, qora quyun, tim qora, jiyron va buril bo'ladi. 1,5 yoshida vazni 500 kg keladi. 3 yoshida rivojlanishdan to'xtaydi. 4–5 tonna yukni 2 km masofaga 13 minut 42 sekundda olib borgan.

**Vodilo** – uchi metall ilmoqli-karabinli, uzunligi 2–2,5 m keladigan tayoq. Buqalarni yetaklashda, ularni parvarish qilish ishlarida xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Vodiy** [*a. – vodi; qurib qolgan o'zan; jarlik*] – 1. Daryo bo'ylab cho'zilgan yoki tog'lar orasidagi keng tekislik. Daryo vodiysi. Tog' vodiysi. *Katta-kichik vodiylarni qoplab yotgan tuman xuddi ko'lga o'xshab ko'rinar edi.* (A. Qahhor, «Oltin yulduz»). *Bir tomoningiz – xarsanglar makoni, ikkinchi tomoningiz – ufqqa tutash yam-yashil vodi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»).

2. Umuman, ekin ekiladigan, obod yer. *Amudaryoni jilovlasak, O'zbekistonda butun-butun yangi paxta vodiylari yaratiladi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

3. Umuman, mamlakat, yurtning bir bo'lagi; diyor. *Cho'lquvarlar bir maqsad – Surxon, Sherobodni bog'-rog'li vodiyya aylantirish orzusi bilan yashamoqdalar.* («O'zbekiston qo'riqlari»). *Bu chol Gulistondagina emas, butun vodiyya «chavandoz» nomini olgan uloqchi edi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

4 *ko'chma.* Biror narsa uchun xos bo'lgan joy, makon. *Aftidan, uning o'zi ham afsonaviy go'zallik vodiysini ko'rishga oshiqardi.* (S. Karomatov, «Oltin qum»). – *Men o'lim vodiysida xizmat*



*qilganman, – dedi oshpaz.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

**Voha** [a. – sahro oʻrtasidagi suvli, koʻkalamzor joy] – choʻl va chala-choʻllarda obod qilingan yer. Zarafshon vohasi. Xorazm vohasi. *Bir tomchi suvga zor boʻlib yotgan dasht oʻzlashtirilib, maʼmurchilik vohasiga aylantirilib, Oqar qishlogʻi aholisi qarab turarmidi.* («Oʻzbekiston qoʻriqlari»). *Vohaning uzunligi nari borsa uch-toʻrt farsang, kengligi koʻp boʻlsa bir farsang kelar.* (O. Yoqubov, «Koʻhna dunyo»). *Tuproqʻi serunum, iqlimi moʻtadil, ammo suvi kamchil Qashqa vohasini bogʻrogʻlarga aylantirish qadimiy orzu edi.* («Oʻzbekiston qoʻriqlari»).

**Voha tuproqlari** – sugʻorma dehqonchilik mintaqalaridagi tuproqlar. Keng daryo vodiylari, togʻlararo soyliklar va togʻ etaklarining nishab tekisliklaridagi vohalarda tarqalgan. Markaziy Osiyo voha tuproqlari qadimdan dehqonchilik qilib kelinayotgan hududlardagi tuproqlarning asosiy qismini tashkil etadi.

**Voha chigirtkasi, Italiya chigirtkasi** (*Calli ptamus italicus L*) – haqiqiy chigirtkalar oilasiga mansub zararkunanda hasharot. Voha chigirtkasi shuvoqbo-shoqli oʻsimliklar oʻsadigan choʻllarga xos. Juda koʻpayib ketgan yillari gʻoʻza, dukkakli, poliz, boshqli va b. ekinlarga zarar keltiradi (*yana q. Chigirtka*).

**Voish** – tok oʻstirish usullaridan biri. Qoʻsh qatorlab (qatorlar orasi 4–5 m, qatorlardagi tuplar orasi 2,5–3 m) ekilgan toklar bal. 2,0–2,5 m, kengligi 3 m qilib qurilgan baquvvat yogʻoch soʻriga koʻtariladi (*q. Soʻri*).

**Vojjanka** – teri qoplamida ikki yoni boʻylab boshidan to orqa oyogʻigacha

choʻzilgan ensiz sidirgʻa yoki oʻrtasidan uzilgan ikkita koʻk yoʻli bor olmaxon moʻynasi.

**Volgograd zoti** – goʻsht-jun yoʻnalishidagi kuchli konstitutsiyaga ega qoʻy zoti. Qoʻchqorning tirik vazni 110–125 kg, urgʻochilari – 57–66 kg, Oyoqlari uzun, boshi katta, shoxsiz, boʻyni yoʻgʻon, orqasi silliq, bellari va qirralari keng, tanasi ixcham (uzunligi 70–75 sm). Goʻsht shakllari yaxshi ifodalangan. Qalin oq junining uzunligi urgʻochilarida 8–9 sm gacha, qoʻchqorlarda 9–10,5 sm gacha. Qirqilgan juni qoʻchqorlarida 13–15 kg, urgʻochilarida 5,5–6 kg, sifati 60–64%. Yuvilgan junning mahsuldorligi 48–50% ni tashkil qiladi.

**Volin kulrang gʻozlari** – mahalliy gʻoz zotlarining turi. Oʻrtacha vazni 3–3,5 kg. Koʻproq Ukrainaning gʻarbiy hududlarida koʻpaytiriladi.

**Volokusha** (*rus.*) – 1) bahorda ekin ekish oldidan shudgorning oʻnqirchoʻnqirlarini tekislaydigan qishloq xoʻjalik quroli. Bir-biriga zanjirlar bilan bogʻlangan yogʻoch gʻoʻlalardan iborat; u kesaklarni maydalab tekislaydi va tuproqdagi namning bugʻlanib ketishiga yoʻl qoʻymaydigan tuproq qatlamini hosil qiladi; 2) oʻrilgan pichan, bugʻdoy poxollarini, yulingan goʻzapoyalarni toʻplab, gʻaramga tashish uchun moʻljallangan qishloq xoʻjalik quroli. Tirkama va oʻrnatma xillari bor. Oʻrnatma xili keng tarqalgan. Uning asosiy qismlari: xaskash apparati, oldingi oʻng va chap kronshteynlar, suruvchi bruslar va koʻtarish mexanizmi. Koʻtarish mexanizmi traktor shassisidagi gidrosilindrlar yordamida ishlaydi.

**Volosh qo'y zoti** – uzun, semiz dumli, go'sht-jun beradigan dag'al junli qo'y zoti. Qo'chqorlarining tirik vazni 60–80, sovliqlariniki 50–60 kg. Qo'chqorlaridan yiliga 3–5, sovliqlaridan 2–4 kg jun qir-qiladi. Juni dag'al, har xil tolali, kokili uzunligi 12–20 sm. Serpushtligi 100 ona qo'ydan 115–130 ta qo'zi olinadi.

**Voltinlik** – ipak qurtini bir yilda necha marta avlod berish xususiyati.

**Volyer** – mo'ynali hayvonlar va parandalar saqlanadigan metall to'rlar bilan o'ralgan katak.

**Vorotok** (kalla-pocha terisi) – hayvonning boshi, bo'yni, oldingi oyoqlari va kuraklarining oldingi oyoqlarini tutash tiruvchi qo'ltiq chizig'igacha bo'lgan terisi.

**Vors** – 1. Hayvonlar gavdasidagi junlarning teriga nisbatan og'gan (yotgan) holati. 2. Ayrim gazmollar yuzasidagi kalta qalin tuk.

**Vorsinkalar** – ingichka ichak, bachadon va b. ayrim organlar shilliq pardalarining mayda tuklari; ular epiteliy hujayralari va biriktiruvchi to'qimalardan tuzilgan bo'ladi.

**Vulva** – urg'ochi hayvonlarning tashqi jinsiy organlari.

**Vulvit** – urg'ochi hayvonlar tashqi jinsiy organlarining yallig'lanishi.

**Vyatka ot zoti** – yengil yuk tortadigan ot zoti, Rossiyaning shimoliy o'rmon hududlarida, asosan Kirov viloyatida ko'paytiriladi. Bo'yi past, kech yetiladi, ammo chidamli va mahalliy iqlim hamda oziq sharoitlariga yaxshi moslashgan. Ayg'irlarining yag'rini balandligi 140,8, tanasining qiya uzunligi 146, ko'krak aylanasi 164,2, pocha aylanasi 18,7 sm; biyalariniki yuqoridagiga muvofiq: 137,3; 142,0; 17,7 sm. Ayg'irlarining tirik vazni 450, biyalariniki 350 kg.

**Vyatka qo'y zoti** – go'sht-jun yo'nalishdagi mayin junli qo'y zoti. Rossiyaning Kirov viloyati Nolinsk tumanida mahalliy shimoliy kalta dumli sovliqlarni prekos va merinos qo'chqorlariga chatishtirish yo'li bilan yetishtirilgan. Qo'chqorlarining tirik vazni 80–85, sovliqlariniki 55–60 kg. Jun qirqimi 5,5–6, sovliqlariniki 3–3,5 kg. Sof jun chiqimi 50–60%. Junning uzunligi 8–9 sm, ingichkaligi sifati 60–64%. Serpusht – 100 ona qo'ydan 135–145 ta qo'zi olinadi.

**Vyurtemberg qo'y zoti** – go'sht-jun yo'nalishdagi mayin junli qo'y zoti. Qo'chqorlarining tirik vazni 100–120, sovliqlariniki 65–70 kg. Qo'chqorlarining jun qirqimi 6,5–8, sovliqlariniki 3,5–4,5 kg. 42–50% toza jun chiqadi. Junning uzunligi 8–10 sm; ingichkaligi 60–58% sifatli.

## X

**Xalili(y)** – bot. Uzumning Markaziy Osiyoda yetishtiriladigan ertapishar navi. *Ishkomdagi shig'il-shig'il xalili uzum shingillari qo'ng'irlanib ko'rinardi.* («Yoshlik»). *Qora yoki qizil xaliliy O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmanistonda tarqalgan.* («O'zME».)

**Xalacho'p** [f.] – eshak, tuya kabi hayvonlarni niqtab, tezroq yurgizish uchun ishlatiladigan uchli tayoqcha; xala. *Oqsoqol shunday dedi-yu, eshakka xalacho'p niqtadi.* (S. Ahmad, «Ufq»). *Mustafo eshagiga xalacho'p bosdi: – Xix, jonivor, xix!* (M.M. Do'st, «Galatapa qissalari».)

**Xandon pista** – pistadoshlar (*Anacardiaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 5–7 (10) metrga yetadigan daraxt yoki buta. Markaziy Osiyoning tog'li, toshloq, qoyali va mayin tuproqli qiyaliklarida, tog' etaklarida va adirlarda, ba'zi joylarda katta-katta pistazorlar serhosil o'sadi. Tibbiyotda bargidan hosil bo'ladigan patologik o'simtalar – bujg'unlari (gallalari) ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi modda – tanin bor. Bujg'unlaridan tanin olinadi.

**Xrapovikli avtomat** – yerga ishlov berish qurollarining ish organlarini salt holatga o'tkazuvchi mexanikaviy ko'tarish moslamasi.

**Xayitqora** – Kechpishar tarvuz navi. *Xayitqora O'zbekistonning hamma viloyatlarida ekiladi.* («O'zME»).

**Xayl** [*a.* – uyur, poda; otliqlar; otliq askar] – *kt.* Guruh, toifa. *Lola terdik dasta-dasta, Kech bilan qaytdik shahar, Yo'lda bir-bir tarqatib Erkin muhabbat xayliga.* (E. Vohidov).

**Xalta** – 1. Kichkina qop, qopchiq. *Bolalar yopishavergach, [kampir] xaltani ochishga majbur bo'ldi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Alamazon xaltani sholchaga qo'yishi bilanoq, qizcha unga talpinib, qo'lini cho'zdi.* (A. Obidjon, «Akang qarag'ay Gulmat»).

2. Ozish tufayli odam yoki hayvon badanida, ko'pincha yuzida salqib, osilib qolgan teri.

3 *zool.* Ba'zi hayvonlarning qorni ostida bo'ladigan, yosh bolasini solib ko'tarib yurishga moslangan xaltasimon teri qatlami. *Xaltalilarning urg'ochisi tug'ilgan bolasini ancha vaqt qornidagi xaltasida olib yuradi.* («Zoologiya»).

4. Kiyimning osilib, salqi bo'lib turgan joyi.

**Xalq seleksiyasi** – seleksiyaning rivojlanish tarixidagi bir bosqich va yo'nalish, qishloq xo'jalik ekinlarining yangi nav, klon, payvandlarini hamda chorva mollarining yangi zotlari, guruhlarini noma'lum mualliflar, mirishkor dehqonlar va chorvadorlar tomonidan oddiy usullarda tanlab, saralab yaratilishi.

**Xamak** [*f.* – xom narsa (qovun)] – hali pishib yetilmagan, xom qovun; saphcha. *Bunday kezlarda xazanak bo'lgan polizdan topilgan xamak ham, paykal ke-sagida yorib yeydigan tuynak ham shirin bo'ladi.* (S. Ahmad, «Qadrton dalalar»).

**Xampa** [*f.* – g'alla saqlanadigan bordon, o'ra] – 1. Don, g'alla va sh.k. ni qo'yish va saqlash uchun qurilgan maxsus joy; kandik. – *Bir kun omborda qarab tursam, xampaning burchagi kamar bo'lib qoldi, shuvullab ketyapti, qani endi to'xtasa.* (S. Mahkamov, «Shogird»).

2 *maxs.* Tegirmon qurilmasining tortiladigan don solinadigan qismi. Aylana-yotgan tegirmon toshlari orasiga xampadan bug'doy to'kilib turar edi.

3. Nonvoyxonalaridagi xamir qoradigan va oshiradigan katta idish; xamir tog'ora.

4 *s.t.* Ayrim dehqonchilik mashinalarining sepiladigan urug', o'g'it va sh.k. ni ortib yuradigan yashiksimon qismi.

**Xandaq** [*a.* – chuqur, o'ra, qop] – 1. Shahar, qal'a, qo'rg'on, mudofaa istehkomlari tashqi devori yonidan dushman o'tolmasligi uchun gir aylanasiga qazilgan uzun chuqurlik. *O'sha paytda mamlakatni yovdan saqlash uchun shaharning tashqarisida xandaq qazib qo'yilar edi.* («Ertaklar»). *Amir Temur va temuriylar*

davrida qo'shin lashkargohga tushgan-da, uning atrofi xandaq bilan mustahkamlangan. («O'zME»).

2. O'qlardan, bomba yoki snaryad parchalaridan saqlanish uchun qaziladigan ensiz, tor chuqurlik, okop. *Havo trevogasi boshlandi. Chernetsov bosiq ovoq bilan: – Xandaqqa kiring! – dedi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

3. Biror narsani asrash, saqlash va sh.k. maqsadda kovlangan chuqurlik, o'ra. *Silos bostirilgan xandaqlar-u orasta dalalar ko'zga chalinadi.* («Sharq yulduzi»).

**Xanjuvar** – qovun, tarvuz, oshqovoq va sh.k. ning urug'ini go'ng solib ekish uchun qazilgan chuqurcha. *Xanjuvarni ko'mmoq.*

**Xanjuvar qilib ekish** – maxsus qazilgan chuqurchaga go'ng solib, urug'ni ko'mib ekish, ko'mma qilib ekish. Qovunni xanjuvar qilib ekish.

**Xarajat** [*a.* – chiqish; dafn (marosimi); chiqiq joy] – biror narsa uchun qilinadigan sarf; chiqim. Katta xarajat. Osh xarajatlari. Xarajat qilmoq. [*Yo'lchi*] *Belbog'idan hovli pulini chiqarib sanadi. Ayab-tejab xarajat qilgani uchun, yonida yana o'n besh so'm qolgan edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Xaridorgir** [*f.* – sotib olinadigan, xaridor tez oladigan] – xaridorlarning didiga, talabiga mos, tez sotilib ketadigan. *Mana shu chevar qizlar xaridorgir mahsulot tayyorlashadi.* («Saodat»).

**Xarish** [*f.* – tirnash, qirish, qirtishlash; tinalgan joy] – 1 *vet.* Ko'pincha uy hayvonlarida bo'ladigan teri kasalligi. *Poyezd xarish bo'lgan bedavo otday sudralardi.* (T. Malik, «Qaldirg'och»).

2. Xarish kasaliga chalingan, har narsaga surkalaverib, junlari to'kilib ketgan. [*Podsho*] *Katta va o'rtancha kuyoviga yaxshi otlar berib, «Nebilay»ga bir xarish otni mindirib, ovga jo'nabdi.* («Zumrad va Qimmat»).

**Xartum** [*a.* – xartum, tumshuq; uzun burun] – 1. Ayrim sudralib yuruvchi va sutemizuvchilar tumshug'ining uzaygan burun qismi. *Fillar xartumi bilan otiqlarini o'rab olib, yerga urar, bosib o'ldirardi.* (M. Osim, «Karvon yo'llarida»). *Fil xartumi bilan so'rib olgan suvni og'ziga yuboradi. Parazit chuvalchanglar ilmoq xartumi yordamida ichak devoriga yopishib oladi.* («O'zME»).

2 *ko'chma.* Ekskavator, kran kabilarining yer qazish, yuk ko'tarish singari ishlarni bajaruvchi, oldinga cho'zilib chiqqan qismi.

**Xasva** – *zool.* G'alla o'simliklariga zarar keltiruvchi hasharot, o'simlik qandalasi. *Donli ekinlarga Osiyo chigirtkasi va xasva qandalasi katta ziyon keltiradi.* («Zoologiya»).

**Xas** [*f.* – xashak; shox-shabba, quruq shoxcha] – quruq o'simlik poyasi; xashak, cho'p. *Cho'kayotgan odam xasga yopishar.* (Maqol). *Ro'ziyev sigirning yuvoshligi-yu xasni tashlasa ham yeyishini maqtaydi.* («Yoshlik»).

**Xaskash** [*f.* – xas tortuvchi, to'plovchi] – xashak, xas-cho'p va sh.k. ni yig'ish, to'plash, shuningdek, chopilgan yer tuprog'ini maydalab tekislash uchun ishlatiladigan, uzun dastali, ko'p tishli qishloq xo'jalik quroli. *Hovlida sochilib ketgan pichanlarni xaskash bilan yig'ishtirib, to'plab yurgan Boltaboy ota xaskashning sopiga bag'rini berib, xayol surib qolgandi.* (S. Zunnunova, «Olov»).

**Xas-xashak** [xas + xashak] – turli o‘t, xashaklar. *Irkit qor ustidan qalin kul sepilgan, tor yo‘lkaga qalin xas-xashak sochilgan.* (X. Sultonov, «Bir oqshom ertagi»).

**Xas-cho‘p** [xas + cho‘p] – turli xas va o‘tin-cho‘p. *Kechasi tog‘larga yomg‘ir yoqqan bo‘lsa kerak, soyning suvi yo‘l-yo‘lakay xas-cho‘plarni oqizib kelmoqda edi.* (Sh. Rashidov, «Bo‘rondan kuchli»).

**Xato** [a. – xato, qusur; gunoh] – 1. Hisoblash, yozish, o‘qish, so‘zlash va sh.k. larda adashish, yanglishish, noto‘g‘rilik, qusur. *Imloviy xato. Matematik xato.*

2 q.x. Yerdan chiqmay yoki unmay qolgan urug‘ haqida. *Yaxshi ishlanmagan yerga ekilgan urug‘ xato chiqadi.*

**Xazanak** [f. – kuzga oid] – kuzda yig‘ishtirib olingan hosilning qoldig‘i (poliz ekinlari, olma, uzum va sh.k. haqida). *Unda-bunda hali ko‘k palak, Chirik qovun jo‘yak pastida. Uch-to‘rt bola izlar xazanak, Tavba, shunday yomg‘ir ostida.* (A. Sher, «Qadimgi kuy»).

**Xazanak qilmoq** – kuzda yig‘ishtirib olingan hosil qoldig‘ini qidirib topib olish.

**Xazon** [f. – kuz; barg to‘kilishi] – 1. Kuzda sarg‘ayib to‘kiladigan barglar. *Yo‘l bo‘yidagi dov-daraxtlar ostida xazonlar to‘kilib yotibdi.* (N. Aminov, «Yolg‘onchi farishtalar»). *Yengil shamol o‘tdi, xazon to‘kildi.* («Yoshlik»).

2. Zardo‘zlikda ishlatiladigan bezak turi: so‘ligan barg tasviri.

**Xazonrez** [f. – xazon to‘kuvchi] – barg va xazonlarni to‘kuvchi. *Xazonrez kuz. Tun ko‘rkam, dilbar, Namxush havo, Oy, yulduz, sabo.* («Yoshlik».) *Sarg‘ish barg bilan qoplangan daraxtlar o‘zidan o‘zi shitirlab, tiniq hovuz beti jimirlab,*

*uzoqlardan kezgan xazonrez shamoldan darak berib turadi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**Xazonrezgi** [f. – xazon to‘kilish davri; kech kuz] – ayn. **xazonrezgilik**. *...cho‘qqi ortiga yumalagan quyosh quriy boshlagan kimsasiz bog‘larni xazonrezgi pallasidagidek sarg‘aytirib yubordi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Xazonrezgilik** – barg, xazon to‘kiladigan davr, kech kuz. *Xazonrezgilik boshlangani uchun yaproqlar sarg‘ayib, yerga chirt-chirt to‘kilmoqda.* (J. Abdullaxonov, «To‘fon»). *Bog‘-rog‘lar, dalarida o‘t-giyohlar, maysa, yaproqlar sarg‘ayib, xazonrezgilik boshlandi.* (Gazetadan).

**Xazonchinak** [f. – xazon, barg to‘plash] – shv. **Xazanak**. *Nihoyat, olma xazonchinak bo‘ldi.* (O. Yoqubov, «Tilla uzuk»).

**Xazonchinak paxta** – g‘o‘zapoyaning u yer-bu yerida qolib ketgan, yerga to‘kilgan hosildan yig‘ib-terib olingan paxta.

**Xazonchinak qilmoq** – ayn. xazanak qilmoq (q. xazanak.)

**Xashaki ilongul** (*Gladiolus segetum Ker.-Gawl*) – sapsarguldoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 40–70 sm keladigan, ko‘p yillik, piyozli, o‘tsimon o‘simlik, may oyida gullab, iyunda mevalaydi. Tog‘li va tog‘oldi tumanlardagi qo‘riq va partov yerlarda uchraydi. Lalmikor yerlardagi don ekinlari ichida o‘tib zarar keltiradi. Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

**Xashaki sholg‘om** [**Turneps** (*Brassica rapa var. rapifera Metzg.*)] – krestguldoshlar oilasiga mansub, ikki yillik o‘simlik, uni sersuv, vitamanga boy ildiz-

mevasi uchun o'stiriladi, ildizmevasi hayvonlarga beriladi. Bu o'simlik MDHning qora tuproqli bo'lmagan mintaqalarida juda ko'p ekiladi. Bahor va kuzgi sovuqqa ancha chidamli bo'lgani uchun lavlagi va sabzi ekiladigan tumanlarga qaraganda shimoliyroq tumanlarga ekish mumkin bo'ladi. Vegetatsiya davri 100–120 kun. MDHda xashaki sholg'omning osterzundomi, Xibin osterzundomi, Bortfeld kabi navlarini ekish tumanlashtirilgan.

**Xashakbop tulki quyruq (shashir) [Prangos pabularia lindl]** – selderdoshlar, soyabonguldoshlar (*Apiaceae, Umbelliferae*) oilasiga mansub, bo'yi 1 m ga yetadigan, yo'g'on, silindrsimon ildizli, ko'p yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyo tog'li hududlarida butalar o'sadigan qisidan yuqorisigacha bo'lgan katta maydonlardagi mayin tuproqli va shag'alli qiyaliklarida maysazor ko'kalamzorlar hosil qiladi. Xalq tabobatida ildizi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, smolalar, alkaloidlar, kumarinlar, oshlovchi va b. moddalar bor.

**Xashak** [*f.* – quruq, qurigan, quritilgan] – quritilgan o't-o'lan, pichan. *Qolaversa, qish bo'yi odamlarga xashak kerak.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»). *Brigadamizdan to'rt kishini xashak yig'ishga jo'natishdi.* (Sh. Jo'rayev, «Bola dunyoni tebratar»).

**Xashaki** [*f.* – quriganlik, qurg'oqchilik, quruqlik; dag'allik, qo'pollik] – 1. Chorva uchun ozuqa, yem-xashak bo'ladigan. *Xashaki lavlagi. Xashaki jo'xori.*

**Xashaki tut** – mevasi urug'li, qora, qizg'ish, oqish, sarg'ish ranglarda bo'ladigan mahalliy tut; chag'ir tut. *Xashaki tut tagida ona-bola dovon tomon-*

*ga ko'z tutib yotishardi.* (Y. Shamsharov, «Baxt izlab»).

2. Past zotli, zotsiz, jaydari, mahalliy. *Xashaki ot. Xashaki tovuq.*

**Xashaklamoq** – *s.t.* Xashak yemoq. *Ot xashakladi.*

**Xashakxona** [xashak + xona] – xashak, pichan saqlanadigan joy.

**Xashak-xushak** – xashak, pichan, qurigan o't-o'lan. *Undan [qabrlardan] narida tomiga sandal kursi, mashina balloni, xashak-xushak uyib tashlangan bos-tirma.* («Yoshlik».)

**Xashtak-pashtak** – *ayn. ashtak-pashtak.* *O'rikdan turli usulda xashtak-pashtak, bargak [oltingugurt tutuni bilan dudlatib], a'lo darajada turshak qilinadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Xachir** – ot (biya) bilan eshak (hangi) dan urchigan, yuk tashuvchi uy hayvoni. *Podsho bularga ori q xachirga mol-dunyo va yo'l ozig'ini ortib beribdi.* («Zumrad va Qimmat»). *XX asrning 50-yillaridan boshlab xachir O'zbekistonda avtomobil transportining rivojlanishi bilan deyarli yo'qolib ketdi.* («O'zME»).

**Xeder** – kombaynning o'radigan ishchi qismi.

**Xemi-, xemo-** [*lot. chimia < a.*] – baynalminal o'zlashma ko'hna so'zlarning birinchi qismi bo'lib, o'zi qo'shilgan so'zning kimyoga, kimyoviy jarayonlarga aloqadorligini bildiradi, mas., xemosintez.

**Xemoterapiya** – o'simlik uchun zararsiz, ammo zararkunandalar va kasallik qo'zg'atuvchilar uchun zararli bo'lgan kimyoviy dorilarni o'simlik tanasiga kiritish.

**Xemosintez** [xemo, + sintez] – mikroorganizmlar tomonidan oksidlanish reaksiyasida hosil bo'lgan energiya hisobiga karbonat angidridning o'zlashtirilishi va organik birikmalarning biosintez qilinish jarayoni. *Xemosintezning kashf qilinishi tirik organizmlarda kechadigan moddalar almashinuvi jarayonining asosiy tiplari to'g'risidagi tushunchani o'zgartirib yubordi.* («O'zME».)

**Xemosorsbiya** [xemo, + lot. *sorbere* – yutmoq, o'ziga ingdirmoq] – kim. Suyuqlik va qattiq jismning atrof muhitdan moddalar yutishi.

**Xenomeles, Mauley behisi (Chaenomeles mauleii)** – balandligi 3 m keladigan buta o'simligi. 3–4 yoshdan boshlab aprel oyida gullay boshlaydi. Sekin o'sadi, sovuqqa chidamli buta. Gullash davrida manzarali ko'rinish hosil qiladi. Shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda guruh-guruh holda yoki yakka holda, past jonli devorlarda va bordyurlarda ekish tavsiya etiladi. Landshaft qurilishda istiqbolli o'simlik hisoblanadi.

**Xil** [a. – xususiyat, sifat] – biror narsaning navi, turi; zot, jins. *Ikki xil fikr. Atlasning yetti xil rang jilosi. Lekin Karim Toirov degani ham bo'sh kelmaydiganlar xilidan ekan.* (S. Ahmad, «Yulduz»). *Ichimliklarning qaysi xilidan so'rasangiz – tayyor.* (S. Zunnunova, «Olov»). *Dildor qoshlarini, yelkalarini uchirib, ming xil muqom bilan qo'shiq aytardi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**Xillamoq** – 1. Xillarga, navlarga ajratmoq. *Qovunlarni xillamoq. Pillani xillamoq.*

2. Tanlab olmoq, saralamoq. Gullarni xillamoq. *Maktab tashkilotlarini qo'lga olgandan keyin, o'quvchi va muallimlar-*

*ni xillash kerak bo'ladi.* (A. Qahhor, «Sarob»).

**Xilli** – navli, turli. Ko'p xilli.

**Ximikat** [«ximiya» s. dan] – kimyoviy usulda tayyorlangan preparatlar, kimyoviy moddalar. *Uchuvchi uning [Qudratning] ustidan zaharli ximikat – butifos sepmoqda.* («Yoshlik»).

**Xina** – derbendoshlar oilasiga mansub, bo'yi 15 sm va undan baland bo'ladigan ko'p yillik o'simlik. Hindiston, Eron, shuningdek, Janubiy Yevropada, MDH da esa, asosan, Ozarbayjonda bir yillik o'simlik sifatida ekiladi. Uning barglaridan junni, soch-soqolni, tirnoq va ayrim joylarda qo'l-oyoqni bo'yash uchun qizg'ish-sarg'ish bo'yoq olinadi. Xina xalq tabobatida teri kasalliklariga qarshi dori sifatida ham ishlatiladi.

**Xina daraxti (Lawsonia inermis)** – derbendoshlar oilasiga mansub, issiqsevar buta, ba'zan kichik daraxt. Balandligi 2–3 m ga yetadi. Yovvoyi holda Afrikaning sharqida va Osiyoning tropik orollarida o'sadi. Qadim zamonlardan beri manzarali va bo'yoq beruvchi o'simlik sifatida Shimoliy Afrika, Eronning janubida va Arab mamlakatlarida o'stiriladi. Keyingi yillarda MDH mamlakatlarida ham ekila boshlandi.

**Xinagul** – manzarali o'simlik sifatida ekiladigan, oq, pushti, qizil rangda gullaydigan bir yillik o't o'simlik.

**Xinzir** [a. – cho'chqa] – esk. kt. Cho'chqa, to'ng'iz.

**Xirmon** [f. – don yoki yanchilmagan bug'doy uyumi; bug'doy to'kilgan joy] – 1. Yig'ib-terib olingan ekinlar hosilini to'plash uchun ajratilgan joy, maydoncha. [Usta amaki] *Jo'xori yeri yonidagi bug'doyi o'rib olingan bir yer-*

ni ko'rsatib, u yerni xirmon joyi qilishga maslahat berdi. (S. Ayniy, «Esdaliklar»). Vali aka o'g'liga xirmon qilinadigan joyni ko'rsatib, o'zi terimchilarni Madaminxo'janing paxtazoriga boshlab ketdi. (M. Ismoiliiy, «Farg'ona t.o»).

2. Shunday joyga yanchish, tozalash yoki quritish uchun keltirilgan mahsulot (g'alla, paxta va sh.k.). *O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.* (Maqol). *Ishga qo'nim – xirmonga unum.* (Maqol). – *Sizning o'rog'ingizni o'rgan, xirmoningizni yanchgan cheksiz xo'rlangan bir insonni bilaman, – dedi Elmurod.* (P. Tur-sun, «O'qituvchi»).

3. Ko'p miqdorda to'plab qo'yilgan, uyib tashlangan narsalar.

**Xirmon, dala qoldiqlari** – chorva mollari uchun oziq sifatida foydalaniladigan dehqonchilik chiqindilari (asosan somon va poxol o'simliklar chirisi). Bu xildagi oziqlar tarkibida kletchatka ko'p (26–45 %) bo'lishi bilan farq qiladi.

**Xirmon ko'tarmoq** – hosil yetishtirib, yig'ib olmoq. *Gektaridan 15 sentnerdan xirmon ko'tardi.* (T. Ashurov, «Oq ot»).

**Xirmon qilmoq** – hosilni bir joyga to'plamoq, yig'moq. *Paxtani xirmon qilmoq. G'allani xirmon qilmoq.*

**Xirmon-xirmon** – xirmonlab; ko'p-lab, juda ko'p. *Bugungi xirmon-xirmon paxtalar xalqimizning mehnati evaziga kelgan cho'l in'omidir.* (Sh. Rashidov, «Yangi yer haqida so'z»).

**Xiroj** [*a.* – chiqarish; yer solig'i] – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda o'rta asrlar va yangi davrda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i (VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan). [*Navoiy:*] *Aziz fuqarol*

*Hirot beklari tarafidan nohaq solingan xiroj bekor qilindi.* (Uyg'un va I. Sulton, «Alisher Navoiy»). *Xiva xoni Muhammad Rahim I xirojni pul bilan undirishni joriy qilgan.* («O'zME»).

**Xivichli yoki panjarasimon g'altaklar** – disklarga yoki chambaraklarga berkitilgan dumaloq xivichlar yoki uchburchak (ugolnik) temirdan yasaladi. Ular kesaklarni maydalash va tuproqni zichlash uchun xizmat qiladi.

**Xivich** – ho'l, uzun novda, xipchin. *Bo'taboy tol xivichini o'ynab, xirgoyi qilib kelardi.* (S. Ahmad, «Hukm»). *Gulchehra «him», deb o'rnidan turdi, tashqariga chiqib, yo'g'on xivich topib, uyga kirdi.* («Saodat»). *Ayoz, tarayman, der o'jarlik bilan Tutlarning tikkaygan xivichlarini.* (A. Sher).

**Xix** – und. s. Eshakni tez yurgizishga qistash uchun ishlatiladi. *U [Hasan ovchi] eshakni, xix, deb tezlatdi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Xixlamoq** – «Xix», «xix» deb eshakni yurishga undamoq. *Mayna eshagini xixladi va shu zahotiyog ketidan Narzi tog'a mingan eshakning ham dikirlagan yo'rg'asi eshitildi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»).

**Xiyobon** – ikkala tomonidan bir-biridan bir xil masofada ekilgan daraxtlar yoki butalar ekilgan piyodalar yuruvchi yoki avtomobillar harakatlanuvchi alohida yo'l.

**Xoda** [*f.* – uzun yog'och, tayoq] – katta daraxtning butoq va shox-shab-balari kesib tashlangan poyasi, tanasi; uzun yog'och. *Sada soya berar, Tol xoda berar.* (Maqol). *Yo'lchi chirik taxtalar o'rniga yo'g'on-ingichka xodalar yotqizilgan ko'prik oldida qovun ortgan arava*



to 'xtaganini ko 'rdi. (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Xok** [f. – tuproq, yer; yurt, hudud; chang, to'zon] – kt. **1.** ayn. **tuproq.** *Bobolar yurti bu, chirog'im, Qadrlab ko'zga surt xokini.* (U. Abduazimova).

**2.** Tuproqqa yoki kulga aylangan inson jasadi. *Chunki sening so'lim sohillingda Uzoq bobolarning xoki bor, Amu!* (Mirtemir).

**Xolding** [ingl. holding – egalik qiluvchi, ega bo'lgan] – iqt. **1.** Boshqa firmalarni nazorat qilish va boshqarish maqsadida ularning aksiya nazorat paketlarini sotib olib egalik qilish.

**2** ayn. **Xolding kompaniya.** *O'zining tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra, xolding, odatda, aksiyadorlik jamiyati qatoriga kiradi.* («O'zME»).

**Xolding kompaniya** [ingl. holding-company] – iqt. Asosiy faoliyati boshqa korxonalarining aksiyalarini o'z tasarrufiga olish orqali ularning ishini nazorat qilish va boshqarishdan iborat bo'lgan kompaniya, bosh korxon.

**Xolmogor zoti** – bu zot VII asrda Rossiya davlatining shimolidagi Dvina tumanida paydo bo'lgan. XVI asrning birinchi yarmida xolmogor qoramollari asosan uch xil tusda bo'lgan: oq-qora, qora-ola va qora. 1913–1914-yillarda xolmogor qoramollarining naslchilik uyushmalari va nazorat punktlari tashkil etildi. 1927-yilda xolmogor qoramollarining Davlat naslchilik kitobi chop ettiriladi va 1934-yilda davlat naslchilik pitomnigi tashkil etildi.

**Xolodilnik** [r. xolodilnik – sovutkich] – **1.** Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sovitish, muzlatish yo'li bilan saqlaydigan korxon va uning binosi.

**2.** Ichiga sovitish apparati o'rnatilgan javonsimon ro'zg'or buyumi. *Xolodilnikdan yegulik qidiridi.* («Yoshlik»).

**Xom** [f. – yaxshi qaynamagan yoki pishmagan; yetilmagan, g'o'ra; oxirigacha ishlanmagan; tajribasiz] – **1.** Tabiiy ravishda pishib yetilmagan, pishmagan; g'o'r. Xom tarvuz. Xom olma. *Uzum g'o'rasini g'arch-g'arch chaynardilar, turpning suvini ichardilar, xom anorni yemasalar, uxlolmasdilar.* (S. Ahmad, «Yulduz»). *Tal'at bir dona xom ko'rakni yulib olib, orasini yordi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**2.** Pishirilmagan, qaynatilmagan. Xom go'sht. Xom sut. *O'zingiz ham necha bor sinab ko'rdingiz: bir dona xom sabzi jig'ildon qaynashini to'xtatadi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**3.** Qayta ishlanmagan, yaxshi ishlov berilmagan yoki chala ishlangan; xomaki.

**Xomaki** [f. – oxirigacha ishlov berilmagan; puxta emas] – **1.** Uzil-kesil hal qilinmagan, aniqlanishi, to'ldirilishi lozim bo'lgan; hali xom. *Xomaki reja. Xomaki rasm. U [Sattor] metroning xomaki loyihasiga yana ko'p aniqliklar kiritilganini so'zlay boshladi.* (P. Qodirov, «Erk»).

**2.** Taxminiy, chamali. Xomaki hisob. *Suvdan foydalanishning o'tgan yilgi xomaki hisoblari o'zimizdayam bor.* (S. Karomatov, «So'nggi barxan»).

**Xomaklamoq** – xomak hosil qilmoq, sapcha qilmoq. Qovun xomaklabdi. *Tomorqaga, bodringning yoniga ikki gektargina konyak ekib qo'ysang, martda gullab, aprelda xomaklasa, – xayol qildi O'rin.* (A. Muqimov, «G'alati odamlar»).

**Xomashyo** [xom + ashyo] – mehnat ta'sirida o'zgartirgan yoki o'zgaradigan va yana ishlanishi lozim bo'lgan dastlabki,

xom mahsulotlar. Paxta to'qimachilik sanoati uchun xomashyodir. Xomashyo manbai. Xomashyo resurslari. *Sun'iy xomashyoga sintetik smolalar, plastmassalar, sintetik kauchuk, sun'iy teri, sintetik yuvish vositalari va b.lar kiradi.* («O'zME»).

**Xomtok** [f. – pishmagan tok (novdasi)] – q.x. **1.** Tokni parvarish qilish usullaridan biri, hosilsiz, ortiqcha novdalarni, yangi bachki novdalarni olib tashlash. *Karvon Surxning etagidagi bog'da xomtok qilayotgan edi.* (X. Sultonov, «Onamning yurti»).

**2.** Tokdan endigina qirqib tashlangan hosilsiz, xom novda.

**Xomut** [r. *xomut* < qad. r. *xomti* – «qismoq, siqmoq» fl. dan] – ot bo'yniga kiritilib, ikki yonidan arava shotisi uchiga sirib bog'lanadigan yog'och buyum, bo'yincha. *Aravakashlar xomutni esdan chiqarishibdi. Starshinaga eltib bersam, xursand bo'ladi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Xomcho't** [f. – chala ishlangan, xomaki + r. *schyoti* – pul hisob-kitobi; cho't, hisoblash moslamasi] – biror narsani xomaki ravishda hisoblab chiqish; taxminiy hisob. *Xomcho't qilmoq. Yo'ldosh novcha, qaychi ko'zining qorniga qo'yib, barmoqlarini bukib, allanarsalarni xomcho't qildi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *So'ngra ish rejangni xomcho't qilib, o'z-o'zingcha so'ylana ketding.* (Uyg'un).

**Xonaki** [f. – uyga oid, uyda tayyorlangan yoki parvarish qilingan] – **1.** Qo'lda tayyorlangan; qo'lda qilingan. *Xonaki non. Xonaki tuffi. Dasturxonda xonaki pechenyelar, atirgul nusxa tort va turli xil mevalar bor edi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

**2 s.t.** Maxsus tayyorlangan; qo'lbola. *Xonaki choy damlamoq. Xonaki palov qilmoq.*

**3.** Uyda, xonadonda boqiladigan; parvarish qilinadigan; qo'lga o'rgatilgan. *Xonaki it. Xonaki gul. Xonaki o'rdaklar. Bu shifobaxsh o'simlikni [aloeni] istagan har bir kishi xonaki qilib o'stirishi mumkin.* («Saodat».)

**Xonakilashmoq** – uy sharoitida yashashga, qo'ldan ovqatlanishga o'rganmoq (yovvoyi hayvon va o'simliklar haqida).

**Xor-xas, xor-u xas** – har turli xas, xas-cho'p, xas-xashak. *Xoinlar o'choqqa xor-xas terib kelar... edilar.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Olib ketgil bog'imni butkul, Qoldirmagil hatto xor-u xas. Olib ketgil borimni, faqat Yuragimni berib ketsang bas.* (Uyg'un).

**Xosa(ki)** – folk. Nasldor, uchqur. *Jonivor uzoqdan chopib kelibdiki, Xosaki tulpor-da, sovib kelibdi.* («Ravshan»).

**Xotinyong'oq** – bodomning bir turi.

**Xunasa** [a. – xunasa] – **1.** Ham erkak, ham ayollik jinsiy belgilari bo'lgan odam yoki hayvon. «Balig'ingiz erkakmi, urg'ochimi?» *Afandi vazirning makrini tushunib, javob berdi: «Xunasa.»* («Lati-falar»).

**Xurjun** [f. yoli a – ikki qopchiq (bo'lma)li to'rva, xalta] – Sharq mamlakatlarida qadimdan narsa (yuk) ko'tarib yurishda keng foydalaniladi. X. taxm. 100×40 sm li to'rtburchak shaklga ega bo'lib, qopchiqlari yuz tomonining 2 chetida joylashadi, ikki buklangan-da qopchiqlar ustma-ust tushadi. Kishi qopchiqlarni orqasiga oshirib yelkasiga osib oladi, ulovlar (ot, tuya, eshak va b.) da esa xurjun ulov ustidan oshirilib,

uning ikki yoniga osilgan holda joylashadi. Amaliy bezak san'ati – gilamchilikda (palos va gilam kabi) to'qib tayyorlanadi, naqsh mujassamotini yo'l-yo'l, handasiy shakllar tashkil qiladi.

1. Egar ustiga yoki yelkaga oshirib tashlanadigan, yuk solinadigan ikki ko'zli qop, qo'sh xalta. Jun xurjun. Ip xurjun. *Qop orqalagan oq yaktakli erkak bilan ikki ko'zi to'la xurjun yelkalagan ayol toshdan toshga hatlab, narigi tomonga o'tib borayapti.* (T. Ashurov, «Marvarid tub»).

2 esk. ko'chma. Qoniqarsiz, yomon. [Saidahmadxon:] *Pul masalasi xurjun. Qo'qon boylari, patir uchidan, deb jinday pul berishdi.* (Oybek, «Ulug' yo'l»).

**Xurma** – qatiq ivitish, sut solib qo'yish uchun ishlatiladigan sopol idish; qo'shquloq. *Fotihadan keyin Oftob oyim tovoqni xurmaga, xurmani tovoqqa urishtirib, kuyovga qatiq olib chiqdi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Xurmaqovoq** – shv. **Oyimqovoq.**

**Xurmo** [f. – xurmo] – tropik va subtropik mamlakatlarda o'sadigan, xurmodoshlarga mansub daraxt va uning mevasi. *Uning [Nil daryosining] ikki tomonida falakka bo'y cho'zgan minoralar, ko'p qavatli binolar, xurmolar.* (Mirmuhsin, «Al-Mahdiy»). *Arablarda xurmo eng muhim ozuqalardan biri hisoblanadi.* (K. Mahmudov, «Qiziqarli pazandalik»).

**Xlorella** – bot. Sun'iy sharoitda tez ko'payadigan, oqsil va moyga boy, mayda, bir hujayrali yashil suvo't.

**Xlorofill** [yun. *chloros* – yashil + *phyllon* – barg] – o'simliklarning yashil pigmenti: yorug'lik energiyasini o'zlashtirib, uni organik moddalarning kimyoviy energiyasiga aylantirishdan iborat

biologik vazifani bajaradi. *Suvo'tlar hujayralarida xlorofill donalari saqlaydigan va yorug'lik ta'sirida organik moddalar hosil qiladigan tuban o'simliklardir.* («Botanika»).

**Xren** [r. xren] – q. **yerqalampir.**

**Xromosomalar** [xromo + yun. *soma* – tana] – hayvon va o'simlik hujayralari yadrolarining doimiy tarkibiy qismi bo'lgan va hujayraning bo'linish davrida tegishli rang berilganda yaqqol ko'rinadigan, o'z-o'zidan ko'payuvchi tuzilmalar. Xromosoma kasalliklari. *Har xil turga mansub organizmlar bir-biridan xromosomalar soni va ularning tuzilishi bilan farq qiladi.* («O'zME»).

**Xronobiologiya** [xrono + biologiya] – zamonaviy biologiyaning turli xil biologik jarayonlarning muayyan vaqtda kechishini, ularning manbai va mexanizmlarini o'rganuvchi sohasi.

**Xo'jalik I – 1 iqt.** Jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining tegishli taraqqiyot bosqichiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari majmui; ijtimoiy ishlab chiqarish usuli.

2. Qishloq xo'jaligidagi va, umuman, o'z yer-suviga, mulkiga, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan har bir alohida ishlab chiqarish birligi, korxonalar. *Tangriqul hoji baquvvat xo'jalik edi. G'ulom aka yel kelsa yiqiladigan bequvvat xo'jalik edi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Keyingi yillarda men rahbar bo'lgan xo'jalik negadir oqsab qoldi.* («Mushtum»).

**Xo'jaliklarni ichki ixtisoslashtirish** – oziq, sut, mol go'shti, qo'y go'shti va shunga o'xshash ishlab chiqarish uchun ixtisoslashtirilgan ferma va brigadalarini tashkil etish.

**Xo'jag'at** – mevali buta o'simligi va o'simlikning mayda, to'q qizg'ish rangda bo'ladigan mevasi; malina. *Ma'lumki, xo'jag'at, qorag'at, sarimsoq, zirk singari botanik atamalar o'zbek tilida qadimdan ishlatilib keladi.* («O'TA»).

**Xo'ptir** – g'alla yanchish uchun ot, ho'kiz kabi ishchi hayvonlar qo'shib yurgiziladigan, shox-shabbdan yasalgan, odatda, ustiga og'ir yuk bostirib qo'yiladigan molasimon mahalliy qurol. *Xo'ptir haydamoq.*

**Xo'ra** – yem-xashklarni ko'p miqdorda iste'mol qiladigan hayvonlarga aytiladi. (*Mol bozorlarda: aka, molingiz xo'rami? Ha, juda xo'ra, nima bersangiz yeyaveradi, o't tanlamaydi.*)

**Xo'rak** [f. – ovqat, oziq, yemish; ishtaha] – 1. Yeyish mumkin bo'lgan narsa; yemish, ovqat. *Aqlli odam qish g'amini yoz yer, Kecha bo'lsa, xo'ragini oz yer.* (Maqol). *Dasturxonda turfa nozne'matlar – xo'raklar: palov, nisholda, holva* (T. Murod, «Yulduzlar mangu yonadi»). *Yaqinlarda tabiblarga ko'rsatgan edim, qoningiz oz, qimiz iching, xo'rak oldidan mayiz iste'mol qiling, deb*

*kengash berdilar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Mol, hayvon, parranda ovqati (yem, don va sh.k.). *Qo'yga xo'rak bermoq. – Nega xo'rakka terib tashlagan bezdek bo'zrayib turibsan? – dedi Mavlon.* (B. Rahmonov, «Mardlar qissasi»).

3 s.t. Xo'ra.

**Xo'raki** [f. – yeyimli, yemishli; oziq-ovqat] – hosili iste'mol qilinadigan, yeyiladigan; iste'mol uchun maxsus ekiladigan. *Ekiladigan xo'raki navlarning uzumi shirin va mazali.* (R. Musamuhamedov, «Mo'l uzum hosili yetishtirishdagi tajribalarim»).

**Xo'roz** [f. – xo'roz] – 1. Xonaki tovuqlarning va ba'zi tovuqsimonlarning erkagi. *Babaq xo'roz. Urushqoq xo'roz. Qo'noqdagi xo'roz cho'zib-cho'zib qichqirdi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

2 ko'chma, s.t. Tanti; mard.

**Xo'tik, kurra** – eshakning bolasi; yosh eshak. *Kim, kuchuk birlan xo'tikka qancha qilsang tarbiyat, It bo'lur, eshak bo'lur, bo'lmaslar aslo odami!* (Uyg'un va I. Sulton, «Alisher Navoiy»).

## Y

**Yagana** [f.  $\text{ياگانا}$  – yakka, bitta, birgina] – q.x. Ekin tupining yaxshi rivojlanishi uchun yosh vaqtida ortiqchasini yulib tashlash, kerakli miqdorda qoldirish, siyraklatish. *G'o'za qatorlarini yagana qilmoq. Bu paxta semirgani qo'yadimi! Chigit tashlaysan – egilasan, yagana, o'toq, chopiq qilasan – egilasan, terasan – egilasan.* (S. Nurov, «Narvon»). *Ilgari chopiq, yagana-yu chekanka ham o'quvchilarsiz bitmas edi.* (M. Hazratqulov, «Jur'at»).

**Yaganalamoq** – q.x. Yaganalash ishini bajarmoq; yagana qilmoq. *G'o'zani yaganalash, oziqlantirish ishlari uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda.* (Gazetadan).

**Yaganachi** – q.x. Yaganalash ishini bajaruvchi.

**Yak jilov qilmoq** – jilovning bir tomonini tortmoq; shu tarzda ot boshini o'ngga yoki so'lga burmoq. *Shumlik qilsang, qonlar yutub o'lsang-chi, Ikki qo'llab yak jilov qilib bursang-chi.* («Alpomish».)

**Yakan** – bot. Zax va sersoya yerlarda, to‘qaylarda tola-tola bo‘lib o‘sadigan bir yoki ko‘p yillik o‘simlik (tolasi pishiq bo‘lganligidan, odatda, bog‘dorchilikda tok bog‘lash uchun ishlatiladi). *Yakan o‘rmoq. Tokni yakan bilan bog‘lamoq. Ko‘lning sayoz joylarida odam bo‘yi qamishlar, yakanlar o‘sib yotardi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Yakdona** [f. yakka, yagona, sevimli, arzanda] – 1. Donasi yirik, boshi siyrak uzum turi. ...*Yakdona uzumning oltin donalarini og‘izga bir-bir otib...* (Oybek, «O.v. shabadalar»). 2 *kam qo‘ll.* Bir donagina; yakka, yagona. *U [Patila] hech ko‘rmaganday, yana bir karra Hafizaning labi ostidagi yakdona xoliga, qo‘llariga rashk bilan qarab qo‘ydi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Yakka-dukka** – unda-bunda, siyrak. *So‘l tomonda yakka-dukka daraxtlardan nari azim daryo oqarib ko‘rinadi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»). *U yer-bu yerda xo‘rozlar chaqirgani, yakka-dukka itlar hurigani eshitilardi.* (M. Ismoilij, «Farg‘ona t. o»).

**Yakkahol** (esk. **yakkahol dehqon**) – jamoaga qo‘shilmay, o‘ziga alohida, xo‘jaligi alohida bo‘lgan dehqon. *Ola-xo‘ja yon-veriga qarab, ko‘zi tushgan o‘rta dehqon va hatto yakkahol dehqonlarni ham Abdurasulga qarshi gijgijlata boshladi.* (P. Tursun, «O‘qituvchi»).

**Yalakat: yalakat mag‘iz** – ba‘zan bir danak ichida hosil bo‘ladigan ikkita mag‘iz, egizak mag‘iz, qo‘sh mag‘iz.

**Yalang** – 1. Dov-daraxtsiz, imoratsiz, ochiq, bo‘sh. Yalang yer. Yalang maydon. Yalang qir. *Hammanglar ham yalang dalada tug‘ilganmisizlar?* (Shuhrat, «Shinelli yillar»). *Atrof yalang, qum*

*sahrosi.* (Sh. Toshmatov, «Erk qushi»). *Qumli do‘nglikni oldi dengiz tomon pasayib, keti yalang tekislikka tutashadi.* («Fan va turmush».)

2 *ayn. Yalanglik.* *Ahmadjon sinchiklab qarasa, ehe, shuncha odam kecha kechasi qayerda ekan? Yalanglarga, yo‘lkalarga odam sig‘ishmas edi.* (A. Qahhor, «Oltin yulduz»). – *Mehmonlarni kutib ol, qizim. Yana bu yerga joy qil, – dedi Abduvali ota, chayla yonidagi yalangni ko‘rsatib.* (H. Ibrohimov, «Odiy kechada»).

**Yalanglik** – dov-daraxtsiz keng, imorat qurilmagan, ochiq, bo‘sh yer; tekislik. *Keng va sovuq yalanglikda paxta tashiydigan o‘n g‘ildirakli yuk mashinalari qatorlashib turardi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»). *Shomga yaqin kolxozchilar pravleniye oldidagi yalanglikka to‘planishdi.* (S. Ahmad, «Qadrton dalalar»). *Seryoja tong yorishayotgan paytda o‘rmon ichidagi yalanglikni kesib o‘tdi.* (A. Rahmat, «Soqov bola»).

**Yaloq** – 1. It, mushuk kabi hayvonlarning ovqat yeyishi uchun belgilangan idish. *It yalog‘i haligi to‘rtta it suruvdan nariroqda tillarini chapillatib, yaloqdan ovqat ichmoqda.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *O‘sha kuni u [it] hovliga qaytib, yaloqdagi yuvindini shaloplatib ichdi.* (N. Norqobilov, «Bekatdagi oq uycha»).

2 *ayn. Yaloqi.* *O‘pka, jigar, buyrak, taloq, Hammadan ham Hamid yaloq.* («Boychechak»).

3 *shv.* Chug‘urchuq, qorayaloq.

**Yalpi hosil, qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili** – alohida xo‘jalik yoki biron-bir hududiy birlik chegaralaridagi barcha ekin maydonlarida yetishtirilgan (yig‘ib olingan) mahsulot hajmi.

**Yalpiz** – tibbiyot, attorlik va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan, serbarg xushbo‘y ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. Yovvoyi yalpiz. ...*Risolat otin bog‘dan bir etak ko‘kat: kashnich, jambil, rayon, yalpiz, otquloq yulib chiqib, ko‘k sho‘rvaga urindi.* (H. G‘ulom, «Toshkentliklar»).

**Yantoqzor** – yantoq o‘sgan, yantoq bilan qoplangan yer.

**Yanchmoq** – 1. O‘rilgan g‘alla boshloqlarini bosib, urib, ezib, donni ajratib olmoq. *Bug‘doy yanchmoq, sholi yanchmoq. Yanchish mashinasi.*

2. Zarb bilan urib ezmoq; maydalamoq, kukunga aylantirmoq. *Chu, desang tog‘larni chog‘lar dimog‘i, Toshni yanchar po‘lat, asil tuyog‘i.* («Ravshan»). *Ilonni quyrug‘idan emas, boshidan yanchadilar.* (M. Ismoilov, «Farg‘ona t.o»).

**Yaproq** – 1. O‘simliklarning havodan oziqlanishi va gaz almashinish uchun xizmat qiluvchi, odatda, yupqa varaqcha shaklidagi asosiy vegetativ a‘zolaridan biri; barg. *Yashil yaproqlar. Kuzgi yaproq. Gullar yaproq chiqardi. Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam, odam – mehnati bilan.* (Maqol) *Hademay karnaygullar iplarga chirmashib, katta-katta yaproqlar otdi.*

2. Bir bo‘lak yupqa narsa haqida. Bir yaproq qazi. *Holvafurush tokchadagi qalin bir kitobni ochib, uning orasidan bir nechta yaproq yap-yangi, shaldiroq qog‘oz olib uzatdi.* (Oybek, «Navoiy»).

**Yaproqlamoq** – 1. Barg chiqarmoq, yaproq yozmoq. *Bahor kelib, daraxtlar yaproqlay boshladi.*

2. Yupqa-yupqa qilib kesmoq, parraklamoq. *Go‘shetni yaproqlamoq. Yaproqlab kesmoq. U qazini har yaproqlagan-*

*da, piyolani bo‘shatgan kishining og‘ziga o‘zi solib qo‘yadi.* (S. Ahmad, «Saylanma»). *Oqsoch rumka bilan unga kerak bo‘ladigan zakuska (gazak) ham olib keldi: yaproqlanib betiga shakar sepilgan limon, qovurilgan xurmo mag‘zi.* (Shuhrat, «Jannat qidirganlar»).

**Yarim sharsimon Saur archa (Juniperus semiglolasa Rger)** – bu archa deyarli kam tarqalgan. Dengiz sathidan 1800–2000 metr balandlikda Zarafshon archasi o‘sadigan tumanlarda bu xildagi archa ahyon-ahyonda uchraydi. Dengiz sathidan 2000–2700 m balandlikda, Turkiston tog‘ tizmalarining shimoliy yonbag‘rilarida archa mintaqasining o‘rta qismida yarim sharsimon shakldagi archalar uchraydi.

**Yarmarka** [*nem. Jahrmart* – yillik savdo <Jahr–yil+Markt–savdo>] – 1. Ayni bir joyda va bir vaqtda muntazam o‘tkaziladigan katta savdo, bozor. *Fabrikaning rango-rang so‘zanalari, do‘ppilarini juda ko‘p xalqaro yarmarkalarda ko‘rib, o‘zbek xalqining ajoyib san‘atiga tahsin o‘qishadi.*

2. Savdo va sanoat tashkilotlari, tijoratchilar, ishlab chiqaruvchilar, matlubotchilarning asosan ko‘rgazmaga qo‘yilgan tovarlarini ulgurji sotish va sotib olish maqsadida davriy ravishda o‘tkaziladigan yig‘ini, qurultoyi. *Bu yil o‘ninchi maydan o‘n beshinchi maygacha respublikamiz poytaxtida ulgurji kitob yarmarkasi o‘tkaziladigan bo‘ldi.* (Gazetadan).

**Yarg‘ichoq** – *shv. Yorg‘ichoq. Mirshab Abrayqulning uyiga saharlab borsa, bechora yarg‘ichoqda bug‘doy tortayotgan ekan.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko‘prik»).

**Yasmiq** – dukkaklilar oilasiga mansub o‘simlik va uning doni. *Yasmiq shavla.*

**Yaxob** [arab. – muzli suv; o‘ta sovuq suv] – q.x. osildorlikni oshirish, sho‘r yuvish, yerni zararli hasharotlardan tozalash uchun ekin maydoniga qishda, erta bahorda quyiladigan suv; qavs suvi. *Hademay yerlarga yaxob suvi berish pallasini boshlanadi. Sho‘rni yuvish turibdi oldimizda.* (S. Karomatov, «So‘nggi barxan»).

**Yaxob bermoq** – yaxob (suvi) oqizmoq, yaxob suviga bostirmoq. *Yer hayda, sovuq tushdi deguncha mashinalarning remontini boshla, yerga yaxob ber.* (J. Abdullaxonov, «Xonadon»). *Bog‘lar va tokzorlarga qishda yaxob berish juda yaxshi natijalar beradi.* (Gazetadan).

**2.** Muzli suv; muzday suv.

**Yaylov** – chorva mollari erkin o‘tlaydigan, yoyilib boqiladigan keng dala, maydon; o‘tloq. *Mollar bilan yoz yaylovda bo‘lamiz, Qish sovuqda ferma bilan kelamiz.* (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li). *Misrboyning yaylovda minglab zotli yilqisi, ot zavodi, shaharma-shahar yurib ot sotuvchi savdogar odamlari bor.* (S. Abdulla, «O‘g‘rini qaroqchi uribdi»).

**Yaydoq** – 1. Egar-jabduqsiz, yalang‘och (ot haqida). *Yaydoq otni yetaklab olgan baland bo‘yli xushmo‘ylov yigit anhor tomonga o‘tib ketdi.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»). *Yarim soatdan keyin haligi yigit yaydoq ot ustida o‘qday uchib o‘tdi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Yigitlar otlarni yaydoq minib, uy anjomlarini tepaliklarga tashimoqdalar.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urinishlari»).

**2 ko‘chma.** O‘simlik o‘smaydigan, o‘t-o‘lansiz, dov-daraxtsiz; yap-yalang‘och. *Yaydoq cho‘l. Yaydoq Bo‘z*

*ham madaniy, Biz uni yuganladik.* (G‘.G‘ulom). *To‘rtko‘l desam, Nukus qal‘am sog‘intirar, Chimboydagi yaydoq dala sog‘intirar.* (S. Akbariy).

**3 ko‘chma.** Hech narsasi yo‘q; qashshoq. *Buni haydang, sira qo‘ymang, Ishi savdo-yu xarid, Olti kunda hammani Yaydog‘u yakson qiladir.* (Hamza).

**Yaydov** – ayn. **yaydoq 1.** *Olislarda yaydov otlar kishnaydi.*

**Yaylamoq** – folk. Yoyilmoq, yoyilib o‘tlab yurmoq. *Oting yaylab bu charbog‘da yuribdi, Qancha bir gullarni nobuq qilibdi.* («Nurali»).

**Yayloq** – shv. ayn. **yaylov.** ...bular ham kelib, *Urganchning botig‘ida yayloq tepaning ustiga chodir tikib yotar edi.* («Yusuf va Ahmad»).

**Yayratmoq** – 1. *Yayramoq (fl. ort. n.). Bu baxt Parizod dilini yayratar, chehrasini gul-gul yashnatardi. Saidg‘ani ovqatni zo‘r ishtaha bilan yedi. Issiq ovqat tanasini yayratdi.* (N. Yusufiy, «Xatdagi dog‘»).

**2.** Hayvon va parrandalarni keng maydonga yoyib yuborib o‘tlatmoq, sayr qildirmoq. *Qo‘ylarni yayratmoq.*

**Yayratish qo‘rasi** – chorva mollari va parrandalarni ochiq havoda yayratish uchun mo‘ljallangan atrofi to‘siq maydon; molxonalar yaqinida yoki ularga tutashgan bo‘ladi.

**Yag‘ir** – ot, eshak, tuya kabi hayvonlar ustida terining og‘ir yukdan ezilishi, ishqalanishi tufayli yuz beradigan yiringli yara, jarohat. *Yoli quyuyq eshakdan, yag‘ir bo‘lgan ot yaxshi.* (Maqol). *Tuya qancha katta bo‘lsa, yag‘iri ham shuncha katta.* (Maqol). *Yo‘ng‘ichqa poyalarga qo‘yib yuborilgan eshaklarning yag‘irlarini qarag‘alar cho‘qimoqda.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Yag'rin** – 1. Tananing ikki yelka oralig'idagi orqa qismi; kurak usti. Yag'rini keng yigit. *Kun qiziq. Oftob yag'rinda urub turadi.* (G'.G'ulom, «Shum bola»).

2. Hayvonlarda belning yuqori qismi, ikki yelka oralig'i. *Ot yag'rinini talayotgan chivinlarni dumi bilan to'zitib yubor.* (S. Ahmad, «Qadrondalalar»).

**Yel I** – 1 ayn. **Shamol.** *Tog'dan sovuqqina yel esardi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Tun ayoz, izg'iriy yel to'rt taraflga yugurib, jon achitmoqchi bo'lar edi.* (A. Qodiriy, «O'tkan kunlar»). *Alijon Toshkentga yeldek yetib keldi.* (Mir-muhsin, «Chiniqish»). *Bo'taboy ephillik bilan egarsiz otga mindi-da, bir-ikki achchiq qamchi bosdi: ot jon-jahdi bilan pastga qarab yeldek uchib ketdi.* (S. Ahmad, «Hukm»).

2. Biror narsa ichiga damlangan havo; dam. Ballonning yeli chiqib ketibdi. *[Otabek] O'n besh daqiqalardan so'ng, ichiga yel qamalgan pufakdek, «uff» etib yuborgach, o'rnidan turdi.* (A. Qodiriy, «O'tkan kunlar»).

3. Ichakda hosil bo'ladigan havo, gaz. *Qabziyat ortdi-da, qabziyat, shu vaqt bir yel yurishsa, ko'zim ochilarmidi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Yelimbaliq** – chuchuk suvda yashaydigan, karplar oilasiga mansub bir turli baliq.

**Yelin** – urg'ochi sutemizuvchi hayvonlarning sut ajratish a'zosi, sut bezi. Cho'chqalarda yakka-yakka, boshqa chorva mollarida tashqi tomondan umullashgan, ammo ichki tomondan pardalar bilan ajralgan. Sigirlarda to'rt, qo'y va echkilarda ikki pallali va shuncha so'rg'ichli bo'ladi. Har qaysi sut bezi qon tomirlari, nerv, yog' to'qimalari va bezli

parenximalardan iborat. So'rg'ich kanallarini halqasimon mushak to'qima berkitib turadi. Yelin terisi mayin jun bilan qoplangan. Yelin hajmi, shakli, uzunligi va kengligi bo'yicha baholanadi. Kosasimon yelinli sigirlar mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Massaj qilish orqali yelinni rivojlantirish mumkin. *Og'izginangda o'ting bor, yelinginangda suting bor.* («Boychechak»). *Podadan qaytayotgan ona qo'ylarning ma'rashlari, yelini chatnab turgan govmish sigirlarning lapanglab yurishlari.* (A. Ubaydullayev, «Hayot oqimi»).

**Yelin giperemiyasi** – hayvonlar yeliniga arterial qonning ko'plab oqib kelishi sababli yelinning kattalashishi nisbati.

**Yelinning hajmi** – alveolalar, sistanalar va diametri har xil sut yo'llaridan iborat sut yig'uv sistemasi.

**Yelmoya** – tez yuradigan (yugurik) tuya. *Oyi, Zebom yelmoya minib yo'rtadi.* («Yozi bilan Zebo»).

**Yelpishtovoq** – 1. Don yelpish uchun ishlatiladigan yassi, yuza yog'och yoki tunuka idish. *U odamlarga picha qarab turdi, keyin yelpishtovoqday keng, solqi yuzi birdan tirjaydi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

2 *ko'chma.* Shu narsaga nisbatlashni, unga o'xshash narsani (kishining beti va sh.k.ni) bildiradi. *Qo'ysang-chi o'sha yelpishtovog'ingni! Senga shunday jononlarni topib berayki, husnini ko'rib, aqling og'masa hisobmas.* (J. Abdullaxonov, «To'fon»).

**Yem I** – 1. Hayvonlarga beriladigan g'alla mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan ozuqa. *Yem yegan ot to'rvani teshar.* (Maqol). *Yanga oxurdagi yemni yamlab yutayotgan sigirga qaradi.*



(S. Nurov, «Karvon»). *Tarlunga azonda besh kilo, tushda besh kilo, oqshomda ham shuncha arpa yem berdim.* (T. Mu-rod, «Ot kishnagan oqshom»).

2. Qo'lda boqiladigan qushlarga beriladigan go'sht.

3. Qarmoqqa yoki tuzoqqa ilintirib qo'yiladigan go'sht, chuvalchang va sh.k.

**Yemish** – oziq-ovqat bo'ladigan narsa; ovqatlik. *Molga bersang soz yemish, boqar seni yoz-u qish.* (Maqol). – *Yemish olib keldim, – dedi Bahri eridan qo'rqa-pisa, – shavla bilan non.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**Yemlamoq** – yem bermoq, yem bilan boqmoq. *G'irko'kni emlab, ertagi urushning g'amini g'amlab, xotirini jamlab o'tiraverdi.* («Ravshan»).

**Yemtik** – shv. **Yemish.** *Jo'xoriday qular dushmanning loshi, Quzg'unlarga yemtik bo'ladi go'shi.* («Yusuf va Ahmad»). *Bundan so'ng sira yovuzga yemtik bo'lmas.* (Mirtemir).

**Yem-xashak** – hayvonlarga beriladigan ozuqalar. Q.x. hayvonlarini boqishda ishlatiladigan, tarkibida o'zlashtiriladigan (hazm bo'ladigan) ozuqa moddalar bo'lgan, asosan o'simlik, hayvonot, mikrobiologik va kimyoviy mahsulotlardan iborat ozuqalar. Yem-xashak bazasi. *Qish uchun yem-xashakni mo'l-ko'l jamg'arib qo'yish chorva mahsulotini ko'paytirishning eng muhim omilidir.* (Gazetadan).

**Yem-xashak balansi** – xo'jalikdagi mavjud yem-xashak miqdorini unga bo'lgan ehtiyoj bilan qiyoslash. Odatda, u chorva mollarining belgilangan davrda yem-xashak bilan qanchalik ta'minlanganini aniqlash, agar kamchil bo'lsa, uni tayyorlash tadbirlarini ko'rish maqsadida kelgusi yil uchun, shuning-

dek, istiqbol rejaga asosan bir necha yilga mo'ljallab tuziladi.

**Yem-xashak briketlari** – taxtacha ozuqa, taxtacha (briket) ko'rinishida presslangan ozuqa. Dag'al xashaklar (pichan, somon va b.) yoki mineralli, vitaminli yoki boshqa qo'shimchalar qo'shilgan konsentrlangan ozuqalar (kunjara, shrot va b.), shuningdek, bu oziqalar aralashmalaridan tayyorlanadi.

**Yem-xashak ratsioni** – oziq moddalari bilan chorva mollarining talab va ehtiyojini qondiruvchi, xo'jalikdagi mavjud turli yem-xashakdan tuzilgan sutkalik oziq rejasi. Ratsion hayvonning salomatligiga ziyon yetkazilmagan holda ulardan sifatli va mo'ljallangan miqdordagi mahsulot olishni ta'minlashi kerak.

**Yem-xashak to'yimliliği** – yem-xashakning hayvon organizmini zarur oziq moddalar va energiya bilan ta'minlay olish darajasini ifodalaydigan sifat ko'rsatkichi. Har qanday ozuqaning to'yimliliği ozuqa birligi bilan o'lchanadi hamda ozuqa tarkibidagi hazm bo'ladigan oqsil, organik va mineral moddalar, mikroelementlar, vitaminlar miqdori ham hisobga olinadi.

**Yem-xashak ekinlari** – chorva mollari va parrandalariga yem-xashak (ko'kat, pichan, yem, silos) tayyorlash maqsadida ekiladigan o'simliklar.

**Yer** (E – katta) – 1. Yer sathining muayyan bir qismi; joy, hudud. *Toshloq yer. Obod yer. Haydalgan yer. Balandpast yerlar. Yigit ufqlarga tutash yerlarni ko'zdan kechiradi.* (Gazetadan). *Yaradorlarni tezda xavf-xatarsiz yerga olib chiqish zarur bo'lib qoldi.* (T. Rustamov, «Mangu jasorat»).

2. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan tuproq qatlami, ekin, daraxt va

sh.k. ekiladigan joy, maydon. *Men ham dehqon bolasiman. Otam Odid ko'r degan qo'qonlik boyning yerini ekar edi.* (A.Qahhor, «Asarlar»). *Mehnati-la gullatar, Bir tanobcha yerini.* (G'ayratiy). *Cho'l odami xuddi yantoqqa o'xshashi kerak. Oyog'i ostidagi rizqi sochilgan yerga chuqur tomir otishi lozim.* (Gazetadan). *Yering bo'lsa, mehnati ham, rohati ham o'zingniki bo'ladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

3. Biror narsa band qilib turgan, egalagan o'rin, joy: makon. *Daraxt bir yerda ko'karadi.* (Maqol). *Hokim cho'zilib yotgan yeridan turib, tashqari chiqdi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»). *Ofitser yiqildi va yotgan yerida qo'lini ko'tardi.* (A.Qahhor, «Oltin yulduz»).

4. Biror mamlakat, davlat, xalq, xo'jalik va sh.k.ga qarashli hudud. *Qoni, eti... yeri, tili bir bo'lgan bir xalq nima uchun ikki dushman guruhga bo'linib, bir-birining qonini to'kadi* (Oybek, «Navoiy»). *O'n uch xo'jalik yerini qo'shibdi. Traktor bir yarim kun ishlab, tizza bo'yi haydab beribdi.* (A.Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Yer balansi** – yer turlarining yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi xo'jaliklar, korxonalar, muassasalar, uyushmalar, qo'shma va kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari bo'yicha tarkibi, salmog'i, maydoni va sifat ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan hujjat.

**Yerdan foydalanish tahlili** – yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilarning faoliyatini baholashda q.x. da asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerdan foydalanish samaradorligini o'rganish. Yerdan foydalanish tahlili

qishloq xo'jaligi yerlari maydoni va tarkibi, o'zgarishlar, hududni tashkil etish va almashlab ekishni o'zlashtirish holati, yer sifatini yaxshilash rejasining bajarilishi, xo'jalikda yerdan foydalanish samaradorligi; o'zlashtiriladigan yerlar miqdori va kapital xarajatlar, yerdan foydalanish darajasiga ta'sir etuvchi omillar (tuproqning tabiiy unumdorligi, joyning iqlim sharoitlari, suv resurslarining miqdori va b.) singari masalalarni o'z ichiga oladi.

**Yerdor** – yer egasi, mulkdor. *Arslonqul bolalikdan pada boqqan, yerdorlarning xirmonini ko'targan, qo'sh haydagan.* (Oybek, «Navoiy»).

**Yer egaligi** – muayyan huquqiy asoslar (mulkka, yerni tasarruf etish va meros qolgan yerdan umrbod foydalanishga va ijaraga oid huquqlar)ga muvofiq yerga egalik qilish; xo'jalik oborotiga va bozor iqtisodi mexanizmi tarkibiga kiritiladigan yerdan foydalanish shakli.

**Yer kadastrı, davlat yer kadastrı** – yagona davlat kadastrlari tizimining asosiy tarkibiy qismi, yer resursining tabiiy, xo'jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmatı, yer uchastkalari o'rni, o'lchamlari, chegarasi va maydoni, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar majmui.

**Yer kodeksi** – yerdan foydalanish munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar majmui.

**Yer-ko'k** – butun atrof, hammayoq; koinot. *Yer-ko'kka shafqatsiz alanga sochayotgan quyosh qandaydir rangsiz bo'g'iq havodan soyabon yasab, koinotni to'sib qo'yganday.* (N.Safarov, «Uzoqni ko'zlagan qiz»). *Shamol turdi, qum*

*ko'cha boshladi, yer-ko'kni qum bosdi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Yerlarning meliorativ holati** – yer maydonlarini q.x. da foydalanishga yaroqliligi nuqtayi nazaridan baholash. Meliorativ holati qoniqarli yerlarga tuproq unumdorligini tubdan yaxshilash talab qilinmaydigan, dehqonchilik qilishga monelik qiladigan nuqsonlari bo'lmagan yerlar kiradi.

**Yerli-suvli** – mulk sifatida yer-suvga ega bo'lgan, yer-suvi bor. *Ikki gapning birida [Yormat qizini] xotin ustiga bo'lsa ham boyga, yerli-suvliga beraman deydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). – *Har bir kambag'al, ehtimol, yerli-suvli bo'ladi, – deydi Alim buva.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

**Yerni iqtisodiy baholash** – q.x.da asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerning aniq tabiiy iqlim sharoitlardagi qiyosiy daromaddorligini aniqlash. Yerni iqtisodiy baholash ball ko'rsatkichlari bir yer maydonining ikkinchi xil yer maydonidan qanchalik yuqori yoki past sifatli ekanligini ko'rsatadi.

**Yerni ishlash** – ekinlarning o'sishi uchun eng qulay sharoit yaratish va unumdorligini oshirish maqsadida tuproqqa mexanik ta'sir ko'rsatish usullari.

**Yer rekultivatsiyasi, landshaft rekultivatsiyasi** (*lot. re* – «qaytarish, tiklash» ma'nosini beradigan old qo'shimcha; *cultivo* – ishlov beraman, yetishtiraman) – foydali qazilmalarni qazib olish, suv inshootlari qurish, shaharlar qurilishi va b. sabablarga ko'ra foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolgan yerlarni qayta tiklash, atrof-muhit sharoitlarini, ekologik holatlarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar majmui.

**Yer resurslari** – xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish mumkin bo'lgan yerlar. O'zbekistonda yer resurslari tarkibiga foydalanib kelinayotgan yerlar va istiqbolda foydalanish mumkin bo'lgan yerlar kiradi. Yer resurslari maydoni va sifati jihatidan baholanadi. Yer resurslaridan foydalanish darajasini tahlil etish va ularning samaradorligini aniqlash natijasida yer maydoni birligiga to'g'ri keladigan yalpi va sof daromad, mehnat unumdorligi aniqlanadi hamda yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga baho beriladi.

**Yer solig'i** – yerdan foydalanganlik uchun davlatga majburiy to'lanadigan soliq turi.

**Yer tarkibi** – davlat yer fondining xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasidagi taqsimoti, yer turlarining nisbati, salmog'i va maydon ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar yig'indisi.

**Yer tuzish, yer tuzish tartibi** – mamlakatda yerga bo'lgan munosabatlarni tartibga solish va mukammallashtirish, yerni ishlab chiqarish vositasi sifatida muhofaza qilish va undan samarali foydalanishga qaratilgan davlat tadbirlari tizimi.

**Yer tuzish loyihasi** – yer tuzish ishlarini bajarish natijalariga asosan yerga egalik qiluvchi xo'jalikning amalda va istiqbolda yerdan foydalanish darajasini aniqlab beruvchi hujjat.

**Yer tuzish xaritasi** – yerga egalik qiluvchi xo'jaliklar hududidagi tafsilotlar (sug'orish va yo'l tarmoqlari, aholi yashash joylari va h.k.) hamda yer turlari (haydaladigan yerlar, bog'lar, yaylovlar va b.) gorizontaal proyeksiyasining kichraytirilgan tasviri.

**Yeryong'oq** – mag'izi (mevasi)dan moy olinadigan bir yillik dukkakli o'simlik va uning mevasi.

**Yer sho'rini yuvish, sho'r yuvish, sho'rlangan tuproqlarni yuvish** – tuproqdagi o'simlik uchun zararli tuzlarni eritib, tuproq-gruntning yuqori qatlamlaridan quyiga, so'ng sho'ri yuviladigan maydon tashqarisiga chiqarib yuborish; melioratsiya tadbirlaridan biri.

**Yetilmoq** – 1. O'sib, rivojlanib, iste'mol qilish, pishish darajasiga yetmoq, tobiga kelmoq. *Nisholdaning qiyomi yetildi. Kunlar isib, ko'tarilgan nam, Yerlar isib, yetilgan tuproq.* (G'ayraty). *Yetilgan yerlar peshma-pesh boronalanib, ekishga taxt qilib qo'yilmoqda.* (Gazetadan). *Bu yil ham g'o'za obdan yetilgan-dan keyingina defolyatsiyani boshladik.* (Gazetadan).

2. O'sib, rivojlanib, iste'mol qilish, pishish darajasiga yetmoq; pishmoq. *Fosfor va kaliy o'g'itlari me'yorida gidan ortiqroq berilsa, kartoshkaning yetilishi tezlashadi.* («Fan va turmush»). *Qovun qars etib yorildi. – Jonivor xo'b yetilibdi-da, – dedi Madaminxo'ja qovunni kosa qilayotib.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

**Yetmak** – chinniguldoshlarga mansub o'tsimon o'simlikning ko'piklanuvchi moddaga boy ildizi (to'qimachilik sanoati, d ori tayyorlash, qandolatchilik va sh. k.da qo'llanadi). *O'rita Osiyoda o'sadigan eng qimmatli o'simliklardan yana biri yetmak (bex)dir.* (Q.Z. Zokirov, «Turkiston yetmagi»).

**Yildirim** – esk. Chaqmoq, yashin. *Yuksaklikka ko'tarar meni Yildirimday yorishgan rohlar.* (Sh.Rahmon).

**Yildirim soqchisi** – esk. Yashin qaytargich. *Oyoq ostidagi somon par-*

*chasidan tortib tomdagi yildirim soqchisigacha Saidiyga qaraydi.* (A.Qahhor, «Sarob»).

**Yilqi** – 1. Otlar podasi; otlar to'dasi; uyur. *Barchin., otasining to'qson to'qay yilqisidan o'n otni saylab oldi.* («Alpomish»). *Yilqi, poda, suruvlar dard ko'rmay o'ssa deyman.* (Q. Muhammadiy).

2. Umuman, ot. *Birovi yillab saqlagan yilqi moyi topib kelib, to'pig'imni silaydi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Yilqichilik** – 1. Chorvachilikning yilqi yetishtirish (urchitish, ko'paytirish, zotini yaxshilash va b.) bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Otlarni urchitish, ko'paytirish, zotini takomillashtirish, naslchilik ishlari bilan shug'ullanadi. *Yilqichilik xo'jaligi. Yilqichilikni yanada rivojlantiramiz.*

2. Yilqi boqish ishi; yilqiboqarlik. *Ikromning dadasi ilgari yilqichilik qilgan edi, shu kishi yordam berdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Yilg'a** – ayn. **jilg'a.** [O'ktam] *Frontda o'q do'llari orasida daryolarni, necha-necha yilg'alarni suzib o'tgan edi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**Yirtqich** – 1. Jonivor go'shti bilan ovqatlanadigan (hayvonlar, qushlar haqida). Yirtqich hayvon. *Miqqiy – yirtqich qush. Quyvon yirtqichlarga yem bo'ldi. Laqqa – yirtqich baliq, u o'zidan kichik bo'lgan turli jonivorlar, baliqlar va qurbaqalar bilan ovqatlanadi.* (Gazetadan). **2 ko'chma.** Shunday jonivorlarga nisbatlangan ifoda. *Bobur yirtqichlar orasida kiyik bo'lib kun ko'ra olmasligini ichichidan his qilar, shuning uchun bo'rilar bilan sher bo'lib olishishni istar edi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»). *Yirtqich fashistlarni o'z uyasida yanchib tashlash*

uchun olib borilgan janglarda ishtirok etdim. (Nazarmat, «Jo'rlar baland say-raydi»). Men bu uyatsiz yirtqich bilan yarashmoq uchun umid tutmayman [dedi Kumush]. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Yig'im-terim** – hosilni yig'ib-terib olish ishlari, mavsumi. Paxta yig'im-terimi. *Jamoa xo'jaliklari yig'im-terimga kirishdilar. Yig'im-terimni olganimizdan boshlasak, sovuq tushmay bitiramiz.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Yobon** – shv. Dala, dasht. *Kuz oqshomi to'shalar sokin, pichan hidi anqir yobondan.* (Sh. Rahmon, «Yurak qirralari»). *Zambaraklar yobonda bekor gum-burlagan yo'q, Bekor oqmadi qonlar va o'ldi mardonalar.* (Mirtemir).

**Yol** – otlar bo'ynining tepasida (odatda, toq tuyoqli hayvonlarning yuqori orqa qismidan) o'sadigan uzun himoya sochlari. Ko'p hollarda shakli va o'sishi otning konstitutsiyasiga, yashash hududiga bog'liq. Ya'ni, otlar qanchalik nozik konstitutsiya tipiga xos bo'lsa, shuningdek, issiq iqlimli joylarda yashasa, uning bo'ynidagi yol shunchalik siyrak va qisqaroq bo'ladi. Kuchli konstitutsiyaga xos bo'lgan shimoliy otlarda qalin va uzun yol o'sadi. Otlar yolini asosiy vazifasi himoya qilishdir. Bo'yin sohasi ingichka va sezgir teri bilan qoplangani sabab, turli jarohatlar va harorat o'zgarishiga sezgir. Bundan tashqari, tananing bu sohasini qon so'ruvchi parazitlardan himoya vazifasini hamda dekorativ funksiyani bajaradi. Bu otlarni estetik jihatdan yanada chiroyli qiladi.

**Yoldor** [f. – yolli] – 1. Qalin va uzun yolli, seryol. *Ravshanbek qaras-a, bir odam yoldor, dumdor bir jiyron*

*otni yo'rg'asiga solib selkillab, hadeb yo'rg'alatadi.* («Ravshan»). *Suvga qongan ot yoldor bo'ynini o'sha tomonga cho'zib, qattiq kishnadi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»).

2. Junli, serjun. [To'lamatning] *Hamon keng, yoldor ko'kragi qishin-yozin ochiq.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Yoldor bo'ri** – ayn. sirtlon.

**Yomg'irgarlik** – ayn. **yomg'irgar-chilik.**

**Yomg'irgarchilik, yog'ingarchilik** – yomg'ir ko'p yoqqan yoki yog'adigan vaqt; yomg'irli ob-havo. *Yomg'irgarchilik boshlanib ketdi.* (A. Muxtor, «Bo'ronlarda bordek halovat»).

**Yomg'irratib, yomg'irratib sug'ormoq** – yomg'irga o'xshatib, tomchilatib sug'ormoq. *Shuningdek, tokzorlarni yomg'irratib sug'orish usuli ham tajribadan o'tkazildi.* («Fan va turmush»).

**Yona** – yonbag'ir, qiyalik. *Tova toshlar yonlarda yiqilay-yiqilay deya omonat turibdi.* (T. Murod, «Yulduzlar mangu yonadi»). *Olqorlar o'ynaydi tovda, yonada.* («Yusuf va Ahmad»).

**Yonbag'ir** – yon, qiyalik. *Adirlar yonbag'ridan sekin kelayotgan mashina xiyol o'tmay G'ulomjonning buldozeri ro'parasiga kelib to'xtadi.* (Gazetadan). *Hamma joyga, hamma adir yonbag'irlariga ham paxta ekilgan.* (E. Usmonov, «Yolqin»). *Yonbag'irlarda lolalar ochilgan.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Yonilg'i** – yonadigan suyuq modda, suyuq yoqilg'i (benzin, neft va sh.k.). *Yonilg'i to'la bochkalar, traktorlarning ehtiyot qismlari ko'chma qum tagidan chiqariladi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). *Gazniqob oldida bir shisha*

yonilg'i ham turibdi. (Nazarmat, «Jo'rlar baland sayraydi»).

**Yong'oq** – 1. Mag'zi qattiq po'choq qobiqqa o'ralgan ko'p yillik mevali daraxt. *Adolat chiroqlarni yoqib yuborib, yong'oq tagidagi supaga joy qildi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Otliqlar qo'sh yong'oqning yonidan o'tib, to'g'onga qarab burilishdi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»).

2. Shu daraxtning mevasi. Yong'oq chaqmoq. *Ular boqqa chiqib, to'kilgan yong'oqlarni terib turganda, Jonuzoq oqsoqol qaytib keldi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Yong'oqzor** – yong'oq daraxtlari bilan band yer, maydon. *Pista, bodom, yong'oqzor, Yetib bo'lmas burchiga.* (Q. Muhammadiy). *U [Alimardon] yong'oqzor bog'ko'chaga allamahalda yetib bordi.* (O'. Hoshimov, «Bahor qayt-maydi»).

**Yong'oqmevalilar** – yong'oq va yong'oqsimon meva beruvchi daraxt turlarining ba'zi adabiyotlarda uchraydigan umumiy nomi. Yong'oq, bodom, pechan, pista, leshchina, kashtan, funduk, sibir kedri kabi o'simlik (daraxt)lar.

**Yopiq drenaj** – gorizontal drenaj turi.

**Yopiq sug'orish tizimi** – sug'oriladigan maydonlarda suv uzatadigan quvurlar tarmog'i. Quvurlar 0,6–1,5 m chuqurlikda (quvur ustigacha) yoki yer yuzasiga yotqiziladi. Yer osti quvurlari o'tirmaydigan va ko'pchimaydigan qumlik, shag'al va sh.k. mustahkam gruntlar-ga yotqiziladi.

**Yoppasiga tanlash** – o'simliklarni nav standartlariga muvofiq keladigan tashqi belgilari (fenotip)ga qarab tanlash.

O'simliklar seleksiyasi usullaridan biri. Tanlab olingan o'simliklardan olingan urug'lik, laboratoriya tahlili o'tkazilib, saralangach (yaroqsizlari ajratilgach), bir paykalga ekiladi. Shunga ko'ra, bo'lajak nav saralangan eng yaxshi o'simliklar avlodi bo'ladi. Yoppasiga tanlash ba'zan pozitiv usul deb ataladi.

**Yop** – shv. Sug'orish kanali, katta ariq. *Amudaryo va undan chiqadigan yoplarning suv sathidan ancha past bo'lgani tufayli Xorazmda qadimdan suv chiqaradigan [ko'taradigan] texnika ishlatilgan.* (I. Jabborov, «Ko'hna xarobalar siri»). *Avaz jinko'chalarni aylanib, yop bo'yiga chiqdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Yopog'i** – shv. Qo'yning mayin juni. *Qo'lingizdagi oddiy yopog'i emas. Mayinligini ko'ryapsizmi? [dedi Nigora].* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Bunda toy-toy momiq, yopog'i, tivit, Bunda olma, ipak, movut, kanop, chit.* (Mirtemir).

**Yorma** – 1. Oqlab tuyilgan butun don, oqlangan g'alla mahsuloti. *Bug'doy yormasi. – Yangamga aytsangiz, bug'doy boshog'laridan biroz sindirib olib, to'qmoqlab, yorg'uchoqda yorma tortsa bo'lmaydimi? – dedi Safar.* (S. Ayniy, «Qullar»).

2. Shunday mahsulotdan tayyorlangan ovqat. *Surxonboy musofirlarga atab oqshomda chiqarilgan biror kosa yovg'on uvra yoki yorma bilan kun o'tkazadi.* (I. Rahim, «Taqdir»). *U [Abu Siroj] ertalab uyidan nim piyola yorma atala ichib chiqqan edi.* (R. Rahmon, «Mehr ko'zda»).

**Yorug'sevar** – yorug'likni yaxshi ko'ruvchi. *Bodring issiqsevar, yorug'sevar va namga talabchan o'simlik.* («Fan va turmush»).

**Yorug'sevar o'simliklar, geliofil o'simliklar** – quyosh nuri tushadigan joylarda o'sadigan, soyaga chidamsiz o'simliklar. Yorug'sevar o'simliklarning barglari nisbatan qalin, barg hujayralari mayda, ustunsimon va g'ovak to'qimalarga yaxshi ajralgan, og'izchalari ko'p, barg to'rlari yaxshi rivojlangan. Barg hujayralarida xloroplastlari soyada o'sadigan o'simliklarga nisbatan ancha ko'p, fotosintez intensivligi juda yuqori bo'ladi. Yorug'sevar o'simliklarga zubturum, akatsiya, g'o'za, erta bahorda ko'karib chiqadigan va dasht o'simliklari kiradi.

**Yorsh** – uncha katta bo'lmagan, sug'ichi tikanakli daryo balig'i. *Dengiz oti va yori kabi bir qancha baliqlar ilonga o'xshab po'st tashlaydi.* («Fan va turmush»).

**Yorg'uchoq** – don yanchish va un qilish uchun ishlatiladigan xonaki asbob; qo'ltegirmon. *Mirsaid yigitcha bo'lib, otasi yoniga kirdi. Tirak bo'ldi: loy iylab, charx tepib, yorg'uchoq tortdi.* (Mirmuh-sin, «Tungi chaqmoqlar»).

**Yosuman** [f. – yasmin, jasmin] – 1. Xushbo'y, oq, sariq, moviy to'pgulli manzarali buta. *Saidiy bog'da yosuman gullari, xurmo va apelsin daraxtlari o'stirdi.* (A. Qahhor, «Sarob»). *Ketar gul hidlari bog'dan, vido ayt atirgulga, nilufar, yosumanga.* (T. Qahhor, «Oq o'rik»).

2. *ko'chma.* Hiylagar, makkor ayol. *U [Asolat folbin] ham makr bilan sodda kishilarning ehsonini olishga mukkasidan ketgan yosuman.* (Gazetadan).

**Yovvoyi** – 1. Xonakilashmagan, tabiat quchog'ida erkin hayot kechiruvchi (hayvon, parrandalar haqida). *Yovvoyi mushuk. Yovvoyi kaptar. Yovvoyi echki.*

2. Madaniylashtirilmagan, o'z holi-cha, tabiiy holatda o'sadigan; zararli, zi-

yon keltiruvchi. *Yovvoyi olma. Xilma-xil yovvoyi gullar tevaragida rang-barang kapalaklar bazm quradi, asalarilar g'uvullaydi.* (J. Abdullaxonov, «Oriyat»). *Sidiqjon kattakon yovvoyi jiyda tagida to'xtab, Sharofatni kutdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Darhaqiqat, salgina xotirjam bo'ldingmi, yovvoyi o'tlar o'sib ketadi-yu, g'o'zalarni siqib tashlaydi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

3. O'zlashtirilmagan, ishlanmagan (yer-joy haqida). *Ilgari bu yerlar ham jarliklar, yovvoyi sayhonliklardan iborat edi.* (Gazetadan). *Yovvoyi cho'l buyuk kenglikda, Menga borin ochib tashladi.* (Sh. Rahmon, «Yurak qirralari»).

**Yovvoyilashmoq** – 1. Yovvoyi bo'la bormoq, yovvoyi bo'lib ketmoq. Yovvoyilashgan it. *Tog' mushuklari yovvoyilashib ketgan, odamga yaqin kelmasdi.* (S. Ahmad, «Jimjitlik»).

2. Odamlardan uzoqlashib, begonilashib bormoq. *Men ham yovvoyilashib, juda to'ng, qo'pol bo'lib ketayotganimni ich-ichimdan his qilaman.* («Yoshlik»).

3. Begona o'tlar bilan qoplanmoq. *Ayollar va bolalar ixtiyorida qolgan ekinzorlar chuqur, yaxshi ishlanmaganidan, yovvoyilashib, hammayoqni sho'ra, g'umay, suvo't, tikan bosib ketgan.* (S. Nurrov, «Narvon»).

**Yovon 1 (q. yobon)** – *Qo'qon yovonida o'z arpasini o'rib yanchgan Haydar endi uni sovurayotgan edi.* (S. Ayniy, «Qullar»). *Boray, onam yovondan kelgunlaricha ovqat pishirib qo'yishim kerak [dedi qiz].* (N. Qilichev, «Yorongul»).

2. Qishloq; dala. *Matchon to'ra yovon hovlisiga kirmasdan, shahar hovlisiga ot soldi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Yovmut ot zoti** – salt miniladigan jaydari ot zotlaridan biri. Turkmanlarning yovmut qabilasi yetishtirgan. Bu zotning kelib chiqishida arab, mo'g'ul, qozoqi va axaltaka ot zotlarining ham ta'siri bo'lgan. Shu ot zotlariga xos belgilar yovmut otlarida saqlanib qolgan. Yovmut oti quruq issiq iqlimga moslashgani, nihoyatda chopqirligi bilan ajralib turadi. Aravaga qo'shib ham ishlatiladi. Yovmut otining peshonasi keng, o'rta bo'yli, bo'yni uzun, ko'pincha yo'g'on. Yovmut oti, asosan, kulrang, to'riq, jiyron yoki qoracha bo'ladi. Yovmut oti ayg'irlarining qarchig'ayigacha bal. 152,4 sm, ko'krak qafasi aylanasi 163,6 sm, gavdasining qiya uzunligi 151,2 sm, poychasining aylanasi 18,5 sm, biyalarining qarchig'ayigacha bal. 148,0 sm, gavdasining uz. 149,0 sm, ko'krak qafasining aylanasi 164,0 sm, pochasing aylanasi 17,9 sm. Asosan Turkmaniston, Eronda boqiladi. Xorazm viloyati va Qoraqalpog'istonda ham uchraydi.

**Yovshan** – murakkabgullilarga mansub, yem-xashak bo'ladigan ko'p yillik o'simlik. *Kupega issiq shamol yovshan, qovjiragan maysalar hidini olib kirdi.* (S. Nurov, «Narvon»). *Asrlar bo'yi yantog'u yovshandan bo'lak ekin o'smagan dala to'shida zumrad g'o'za nihollari tizildi, borliq gul-gul yashnadi.* (Sh. G'ulomov, «Bo'z yerlik bo'z yigitlar»).

**Yoyilma** – 1. Daryoning suvi yoyilib oqadigan keng joy. *Bolalar ana shu yoyilma chetrog'ida, suv kun taftida ilib qolgan joyda cho'milishayotgan ekan.* (Y. Shamsharov, «Toshqin»).

2 ko'chma. Keng, hududsiz maydon, kenglik. *Hamon suzar qizil olma-*

*lar xayolimiz yoyilmasida.* (Sh. Rahmon, «Yurak qirralari»).

3 mat. Geometrik jismning yoyiq holga keltirilgan ustki sirti. *Kubning yoyilmasi.*

**Yoyloq** – s.t. **Yaylov.**

**Yozloq** – yoz faslida yashaydigan joy; yoyloq, yaylov. Yozloqqa ko'chib ketmoq. *Qani o'sha Buqabuloq, Tog' husniga uqa buloq, O'sha dara, o'sha yozloq, So'qmog'i mo'l o'sha sozloq.* (Mirtemir).

**Yog'in** – qor, yomg'ir, do'l tarzida bulutdan tushadigan atmosfera namligi. *Kuzning sovug'i keldi-yu, yog'ini kelmadidi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»). *Yog'in yog'sa, halqob yerlar loylanadi, Bu ishda qo'rqoqning qo'li bog'lanadi.* («Oy-suluv»).

**Yog'in-sochin** (q. yog'ingarchilik) – *Bu yil yog'in-sochin ko'p bo'lib, yer-ko'k chamanday yashnab ketdi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Yosh** – 1 ot. Tug'ilgan vaqtdan boshlab yashab o'tkazilgan yillar jami; umr uzoqligi.

2. Inson yoki hayvon hayotidagi bosqich, davr, umr.

**Yugan I** – ot, eshak kabi uy hayvonlarini boshqarish uchun ular boshiga solinadigan, suvluq, tizgin va qayish tasmalardan yasalgan abzal. *Oyqiz bo'lsa bir qo'li bilan yuganni ushlab, otni boshqarardi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). *Otlarni og'ilga bog'ladilar, yuganlarining suvluqlarini chiqarib, oldilariga ko'k beda soldilar.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t. o»).

**Yugan II** – guli sariq, baland o'sadigan ko'p yillik o't.



**Yuganlamoq** – 1. Ot, eshak kabi uy hayvonlarining boshiga yugan solmoq, yugan urmoq. *Toyni yuganlamoq. [Erali] Otlarni yuvib, tarab, egarlab, yuganlar-di.* («Erali va Sherali»).

2 ko'chma. O'zimizga bo'ysundirmoq, boshqarmoq. Asov daryolarni yuganlamoq. *Yaydoq bo'z ham madaniy, Biz uni yuganladik.* (G'.G'ulom).

**Yuganli** – yugani bor; yuganlangan. Yuganli ot. *Hukmdorning bir chokari Ibn Sinoga zar yoqali to'n kiygizib, kumush yuganli arabiy otni ko'ndalang qildi.* (M. Osim, «Ibn Sino qissasi»).

**Yugurik** – 1. Tez yuguradigan, chopadigan; chopqir, chopag'on. *Kepak yegan ot yugurik bo'lmas.* (Maqol). *Cho'loq odam uchun xizmatkorlik qiyin, boyoqish Qambar bu kamchilikni bildirmaslik uchun yugura-yugura yugurik bo'lib qolgandi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). – *Hayot misli bir yugurik daryo, oqadi-ketadi, surgan kayf-u safongiz qoladi, – quv ko'zlarini suzib iljaydi Eshonxon.* (Oybek, «Ulug' yo'l»). *Ikkov minib tulpor otni, Chopmoqqa havasi ketdi, Kimning oti yugurik, deb.* («Erali va Sherali»).

2. Ildam, tez harakat qiladigan; chaqqon, tez (oyoq, qo'l, til haqida). Yugurik barmoqlar. Yugurik oyoq. *Qo'l yugurigi – oshga, Til yugurigi – boshga.* (Maqol). *U [Abdihakur] bolalik chog'ida dadasi bilan birga yangi shaharda rezavor sotib yurgandayoq, ruschaga tili yugurik bo'lib qolgan edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Yugurt, yogurt** – qatiqning bir turi.

**Yukka** (*Vucca gloriosa L.*) – chuchmomadoshlar (*Amaryclidaceae*) oilasiga mansub, doim yashil o'simlik. Vata-

ni Amerika va Sharqiy Osiyoning quruq tropik va subtropik viloyatlari, MDHda Qora dengiz bo'yida va qisman Markaziy Osiyoda o'stiriladi.

*Uzoq-uzoqlarda saksovul, turang'i, yulg'un va yantoq ko'zga tashlanib turardiki, bularning hammasi sahro quyoshining saxiy nuriga cho'mgandi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Yulg'un** (*Tamarix*) – guli mayda, oqish, mayda bargli buta. Yulg'un ko'p hollarda daryolarning eski irmoqlarida yoki qurigan ko'llar tubida uchraydi. Yulg'unni sho'radoshlar bilan qoplangan saksovulzorlar va cho'l butazorlarida uchratish mumkin. Boshqa cho'l o'simliklari singari, yulg'unlar ham issiqqa, qurg'oqchilikka chidamli, tuproqqa talabchan emas, ko'plari sho'rga chidamli. Tez o'suvchi, asal to'plovchi o'simlik. O'zining manzaraliligi tufayli ko'kalamzorlashtirish ishlarida, ayniqsa, cho'l va yarim cho'llarning sho'rlangan tuproqlarida foydalanish mumkin. Sho'rxok tuproqlarda, qurg'oqchil yerlarda himoya o'rmonzorlarini yaratishda va qumlarni mustahkamlashda jing'ilning ko'p turlari qo'llaniladi. Urug'dan ko'paytirish mumkin, ammo eng oddiy va keng tarqalgan usul – qalamchalar orqali ko'paytirishdir.

**Yulg'unzor** – yulg'un ko'p o'sadigan yer, maydon. *Arava tebranib, g'ijirlab, katta-kichik qumtepalar, yulg'unzorlar orasidan o'tib, bepoyon qo'riqqa chiqdi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Yumurtqa** – *shv. Tuxum.*

**Yuraksimon jo'ka** (*Tilia cordata Mill.*) – balandligi 10–11 m ga yetadigan, shox-shabbasi diametri 7 metr ga teng bo'lgan xushmanzara daraxt. Barglari

yuraksimon, diametri 8–12 sm ga ega. Markaziy Osiyoga introduksiya qilinganiga 100 yildan oshib ketgan. May oxiriyun boshlarida gullaydi. Mevasi kuzda yetiladi. Jo'ka daraxti 7 yoshidan boshlab gullaydi va gullash davomiyligi 1 oydan ortiq. Tog'li hududlarda asalarichilikni rivojlantirish maqsadida ko'plab madaniy o'rmonlarini ekish tavsiya qilingan. Qurg'oqchilikka va issiq iqlimga chidamli. Shaharlarda ko'kalamzorlashtirish uchun xushmanzara daraxt sifatida ekish tavsiya etilgan.

**Yurak** – 1. Odam va hayvonlar ko'krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi muskul qopchiqqa o'xshash markaziy a'zo. Sog'lom yurak. Yurakning urishi. Yurak kasalligi. Yurak klapani. *Yurak bir-biri bilan tutashmaydigan ikki qismdan iborat bo'lib, bu qismlar bir-biridan yaxlit to'siq bilan ajralgan.* («Anatomiya»). *Yurak – zarur narsa. Yurak baquvvat bo'lsa, ish ham unumli bo'ladi, kishi charchamaydi.* (Uyg'un, «So'nggi pushaymon»). [Kumushning] *Harorati kuchli, yurak urishi favqulodda tez edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Qo'rqmaslik, jasorat va sh.k. ramzi. *Obbo siz-e, hali shu yurak bilan yuribsizmi.* («Mushtum»). *Men uning O'tanboy qushbegiga qilgan muomalasini eshitib, yuragingga balli, degan edim.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Yuramol** – 1. Tez yuradigan, yurishga mohir; yurag'on. *Yuramol ot.*

2 ayn. **Yurimsak.**

**Yurag'on** – yaxshi, tez yuradigan. *Jonivor juda yurag'on chiqib qoldi. Uzangiga oyoq qo'yganidan beri biron*

*marta «chuh» deganim yo'q.* (M. Xayrullayeva, «Mehr ko'zda»)

**Yutoq** – 1. G'oyat suvsiragan, chanqoq. *Yutoq dala, och dala.* (Mirtemir, A. Po'lat, «Sirdaryo seni»). *U [Yayra] cho'li malikka, bir vaqtlardagi yutoq, sangin cho'lga tikilib turardi.* (C. Akbariy, «U hayotni sevadi»). 2 ayn. **yutoqi.**

**Yuvenil o'simlik** – urug'dan unib chiqqan va avtotrof oziqlanishga o'tgan o'simlik niholi.

**Yo'ldosh (bola o'rni)** – bola tug'ulgach, ketidan tushadigan homila pardalari, platsentasi va kindigidan iborat a'zo: homilani ona tanasi bilan bog'lab turadi. Tug'ruqning yo'ldosh tushish davrida platsenta va pardalar bachadon devoridan to'la ko'chadi va tug'ruq yo'llari orqali chiqadi.

**Yo'ng'ichqa** – dukkakli o'simliklar oilasiga kiradigan, yem-xashak bo'ladigan o'tsimon o'simlik; beda. Yo'ng'ichqa o'rmoq. *Yana shu yerni chopdik. Yo'ng'ichqaning ildizini sug'urdik.* (Oydin, «Gulsanam»). *Yo'ng'ichqa o'roqqa kep qopti-ku?* (Sh. Xolmirzayev, «Arpali qishlog'ida»).

**Yo'ng'ichqapoya** – shv. Yo'ng'ichqazor. *Yo'ng'ichqapoya pushtasidan yurib, ayvonlariga chiqib bordi.* (Sh. Xolmirzayev, «Arpali qishlog'ida»).

**Yo'rtoq(i)** – yirik qadam tashlab, yelib yuradigan. *Yo'rtoq yo'rg'aga yo'ldosh bo'lmas.* (Maqol). [Qorasoch] *Har qalay, yo'rg'a tugul, yo'rtoq bo'lsa ham, ot minib, dala kezishni or etmas edi.* (T. Sulaymonov, «Qorasoch»).

**Yo'rg'a I** – 1. Mayda qadam tashlab, tez yuradigan (ot, eshak haqida). [Mingboshi] *Eng yaxshi zar choponini kiyib, tilla kamarini bog'lab, uzun qili-*

chini osib, saman yo'rg'ani minib, yo'lga chiqdi. (Cho'lpon, «Kecha va kunduz»). Gulnoraning dadasi qishgacha minib yura qol, deb yo'rg'a eshagini bergan. (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

2. Shunday tarzdgagi yurish. ...Jo'ra, bu qaynoq hayotni ko'rmagan-day, ko'chaning bir chetidan ot yo'r-

g'asiga mah-liyo bo'lib borardi. (H. Shams, «Dushman»). Yakka otning yo'rg'asidan chiqarmi chang? (G'.G'ulom).

**Yo'rg'a II** – beshikning bir tekisda, oson tebranishi uchun uning orqa va old oyoqlari ostiga ko'ndalang o'rnatilgan yoysimon yog'och moslama.

## Z

**Zane echki zoti** – suti uchun boqiladigan zot. XIX asr o'rtalarida Shveysariyaning Zane (Saane) daryosi vodiysida yaratilgan. Echkilari yirik, gavda tuzilishi mustahkam, aksariyatining yelini katta, so'rg'ichlari yaxshi shakllangan. Terisi yupqa, asosan, oq rangda. Takasining yag'rin balandligi 75–80 sm, vazni 70–80 kg, echkilari 50–60 kg, dumg'azasi tor, juni kalta, qiltiqlari ingichka. Echkilari bir yilda o'rtacha 600–700 kg sut beradi (rekord sut mahsuldorligi 2235 l), sutining yog'liligi 3,5–4,5%. Har 100 bosh echkidan 180–200 uloq olish mumkin. Bu zot G'arbiy va Markaziy Yevropada keng tarqalgan. Yevropa, Osiyo, Amerikadagi ko'pgina mamlakatlarda sut yo'nalishidagi echkichilikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi. XX asr boshlarida Rossiyaga keltirilgan, O'zbekistonda qisman tarqalgan (shaxsiy xo'jaliklarda boqiladi). Mahalliy jaydari rus echki zotlarining sut mahsuldorligini yaxshilashda foydalanilgan. Duragaylari bir yilda 500–1000 l sut beradi. Rossiyaning markaziy va shim.-g'arbiy viloyatlarida ko'p boqiladi.

**Zagon** – 1. O'tar, qo'ton, molxona.

2. Maydon, paykal.

**Zagorsk tovuq zotlari** – go'sht-tuxum yo'nalishidagi zotdor tovuqlar gu-

ruhi. Sobiq Ittifoq Parrandachilik ilmiy-tekshirish va texnologiya institutida XX asrning 50-yillarida rus oq tovuq'i, orlov, nyu-gempshir va rod-aylend zotlarini chatishtirib chiqarilgan. Yirik, etdor, toji gulsimon oq tovuq va toji yaproqsimon sarg'ish-jigarrang guruhlarga bo'linadi. Tovug'ining vazni o'rtacha 3,5–4 kg, xo'rozi 4,5–5 kg. Tovug'i yilda 160–180 ta tuxum qiladi. Tuxumi 58–60 g. Jo'ja tovuq'i 180 kunligidan tuxumga kiradi. O'zbekistonda ham boqiladi.

**Zaharli o'simliklar (Rasteniya yado-vitiye)** – tarkibida odam va hayvonlarni zaharlaydigan moddalar bo'lgan o'simliklar. Zaharli o'simliklar yer kurasida 10 000 dan ortiq bo'lib, turli yerlarda (cho'l, adir, botqoqlik, o'rmonlar, to'qayzorlar, qirlar, ekinzorlar va b. joylarda) o'sadi. Ular tarkibida zaharli moddalar sifatida turli alkaloidlar, glikozidlar (sianogen, nitro, tio, yurak glikozidlari, saponinlar va b. moddalar), kumarinlar, terpenoidlar, smolalar va b. moddalar bo'lib, o'simliklarning hamma qismida to'planishi mumkin. O'zbekistonning turli viloyatlarida: ayiq'tovon, bangidevona, zangpoya, isiriq, isfarak turlari, kampirchopon, mingdevona, ko'kmaraz, parpi turlari, talxak, tarvuzpalak, o'rmonqora,

qoramugʻ, qoʻshyaproq kabi bir qancha zaharli oʻsimliklar mavjud. Ulardan dorishunoslikda turlicha dori moddalar olinadi va bir qator kasalliklarni davolashda muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda. Ammo aholi orasida ulardan bilib-bilmay ishlatishlar, isteʼmol qilishlar natijasida zaharlanib qolish hollari ham uchrab turibdi. Binobarin, unday oʻsimliklardan biror maqsadda foydalanish uchun, avvalo ulardan qanday foydalanish, qachon, qaysi aʼzosidan qanday usulda va qancha miqdorda qanday kasallikda foydalanishni bilish zarur. Shuni unutmangki, odamlar gapiga ishonib, ulardan koʻr-koʻrona foydalanish hayotingizni tahdid ostida qoldiradi. Ayniqsa, bolalarni ulardan ehtiyot qiling.

**Zak** – shv. 1. *Zax. Sim degan Fargʻonasi Yuraklarim qon ayladi, Besh qari boʻzdan chopon – Yonboshlarim zak boyladi.* («Oq olma, qizil olma».)

## 2 ayn. **Zok.**

**Zakan** – q.x. Namlik yoki zaxni qochirish uchun yer, paykal oʻrtasidan qazilgan ariq; zovur. *Ot botqoqlikdagi zakan suviga tumshugʻini botirib ichmoqchi boʻldi-yu, shoʻrligidan yana tumshugʻini tortdi.* (S. Ahmad, «Odamning izi».)

**Zamburugʻli kasalliklar**, *mikofozlar (oʻsimliklarda)* – parazit va yarim parazit zamburugʻlar qoʻzgʻatadigan infeksiya kasalliklar. Zamburugʻlar taʼsirida oʻsimliklarda butun organizm yoki uning maʼlum qismi tuzilishi va fiziologik funksiyasining buzilishiga sabab boʻluvchi kasallik (patologiya) jarayoni vujudga keladi. Boshqa oʻsimlik kasalliklariga nisbatan koʻp tarqalgan va zararli; ular oʻsimlik hosilini va mahsu-

lot sifatini pasaytiradi, mevali va rezavor oʻsimliklarning hosil berish muddatini qisqartiradi. Eng koʻp tarqalgan zamburugʻli kasallik: soʻlish, chirish (ildiz, toʻpgul, meva, ildizmevalar, tugunaklar va b. da), boʻrtma, oʻsimta, shish, yara, bargda dogʻlar paydo boʻlishi bilan kechadigan kasalliklar, oʻsimlikning pakanaligi, majruhligi va b.

**Zambur** [f. – qovoqari] – shv. **Qovogʻari.** *Kavakdan chiqqan zamburni danak chaqqandek bitta-bitta urib tushiraverdi.* (S. Nurov, «Narvon»). *Zambur aridan asal olsa boʻladi-yu, lekin bu ziqna nosvoychidan sadaqa ham chiqmaydi.* (N. Qobil, «Unutilgan sohillar».)

**Zamburugʻ** – tarkibida xlorofill boʻlmaydigan, spora bilan koʻpayadigan, ildizsiz va urugʻsiz tuban oʻsimliklarning umumiy nomi. *Olma mevasiga sakkiz protsentli kalsiy xlor eritmasi bilan ishlov berilsa, undagi zamburugʻlarning rivojlanishi toʻxtaydi.* («Fan va turmush»). *Ekinlarning zamburugʻ kasalligi bilan zararlanmasligi uchun bugʻdoy va arpa urugʻlarini faqat dorilagandan keyingina ekish kerak.* (Gazetadan).

**Zamin** [f. – yer, tuproq; mamlakat] – 1. Yer shari, yer.

**Roʻyi zamin (q. roʻy).** **Zamin-u zamon** – Yer-u osmon, hammayoq, koinot. *Zamin-u zamon oʻzgarib, maʼrifatga tomon bormoqda [dedi Islomxoʻja].* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Yoʻllar eltsin manzilga omon! Omon boʻlsin zamin-u zamon.* (Shuhrat, «Yoshligimning davomi».)

2. Ekin ekiladigan yer. *Bu qishloqning suvi toza, zamini unumli, havosi yoqimli, dehqonlarining qoʻli barakali ekan.* (Gʻ. Gʻulom, «Tirilgan murda».)

3. Muayyan hudud, yurt; umuman, yer. *Zotan, yangidan bunyod etilgan ko'rkam chamanzor, bog'-rog'lar, yaxlit-yaxlit paxtazorlar Xorazm zaminiga jon bag'ishlaydi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»). *Bir tomoni g'allazor, bir tomoni tokzor yerlardan o'tib borarkanmiz, shu zamin-da tug'ilib, shu yerdan frontga ketgan J. Usmonovning maktubi yodimga tushdi.* (Nazarmat, «Jo'rlar baland sayraydi»).

**Ona zamin** – tug'ilib yashab turgan joy, yer; jonajon yurt. *Ona zaminimizning insoniyatga bebaho tuhfularidan biri – dasturxon ko'rki hisoblangan bodomdir.* (Gazetadan).

4 ko'chma. *Asos, negiz.*

5 ko'chma. *Qulay shart-sharoit, muhit; imkon.*

6. *Tayanch, boshpana.*

**Zamcha** – bot. Qovunning sariq va ola rangli, handalaksimon, ertapishar navi.

**Zang III** – shv. Tok tanasining ko'p yillik yo'g'on qismi. *Uzum zanglari changal qo'ralar ustiga tirmashib chiqib, bizning husayni uzumimizni kuzda u hovlidan ham, bu hovlidan ham yeyish mumkin bo'lardi.* (O'. Usmonov, «Sirli sohil»). *Jo'raxon, Dildor, Latofat degan mehnatkash qizlar tok zanglarini ko'tarib, so'rilariga bog'lamoqdalar.* (Nazarmat, «Jo'rlar baland sayraydi»).

**Zang zamburug'lari (Uredinales)** – bazidiyali zamburug'larning bir turkumi. 4500 turi bor. Ko'pgina o'simliklarda parazitlik qilib, zang kasalligini qo'zg'atadi. O'simliklarda zang tusli, qo'ng'ir, qora dog' yoki chiziq-chiziq yo'llar paydo bo'ladi. Zang zamburug'lari nomi ham shundan olingan. O'zbekistonda donli o'simliklarda chiziqsimon zang zamburug'i ko'p uchraydi.

**Zanjabil (*Zingiber officinale*)** – bir pallali zanjabildoshlar oilasiga mansub, yo'g'on ildizpoyali, gul va mevasiz, naysimon ko'p yillik o't o'simligidir. Zanjabilning yer osti tanasining barcha qismida efir moyi bor, undan oziq-ovqat sanoatida ziravor hamda dorivor sifatida foydalaniladi.

**Zapovednik** [r. *zapovednik* – daxlsiz, saqlanadigan joy, hudud] – q. **qo'riqxon.**

**Zarang (*Acer L*)** – zarangdoshlar oilasiga mansub daraxt va butalar turkumi. Deyarli tez o'sadi, soyaga chidamli bo'ladi. Urug'i ikki qanotli bo'lib, asosan urug'dan va to'nka bachkisidan ko'karadi. Bu daraxtning o'tkir bargli, dala zarangi, tatar zaranglaridan ihota o'rmonzorlari barpo qilishda va ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi.

**Zardob** – yuqumli kasalliklarning yoki mikroblar va hayvonlar zaharidan zaharlanishning oldini olish va davolash maqsadida organizmga yuboriladigan modda. Zardobni ilon, qoraqurt, chayon, shuningdek boshqa zaharli hayvonlar zahariga qarshi qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunday hollarda zardob birdan bir shifobaxsh vosita hisoblanadi. Viruslar va bakteriyalar keltirib chiqaradigan infeksiyon kasalliklar diagnostikasida zardob (yana immun zardoblar, qon zardobi) keng qo'llaniladi.

**Zarg'aldoq** – 1 ot. Chumchuqsimonlar turkumiga kiruvchi, qanotlari qoramtir, o'zi sariq sayroqi qush. – *Atroftimizdagi lolaqizg'aldoqlar, maysa o'tlar tagida zarg'aldoqlar sayraydi, osmondan so'fito'rg'aylarning ovozi eshitiladi, – dedi Usmon.* (O. Husanov, «Qo'shiqchining taqdiri»). *Zarg'aldoqlar «chulu-lu» deb, tikan shoxlarga bemalol qo'nadi, sovuqda junjikkandek hurpayib oladi.*

(Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gul-ladi»). **2 sft.** To'q sariq rang, to'q sariq rangli. *Soy bo'yi keta-ketguncha gulzor edi. Bir qator qizil, ikkinchi qator oq, yashil, zangori, sariq, zarg'aldoq rang gullar.* («Saodat»). *Olovli shar kattalash-gan sari uning rangi ko'zni ko'r qiluvchi to'q qirmizi rangdan zarg'aldoq rangga o'zgarar edi.* (Gazetadan).

**Zarg'aldoq shaftoli** – Shaftolining mevasi to'q sariq va yirik bo'ladigan bir navi.

**Zararkunanda** [zarar + f. – qiluv-chi] – **1.** Zarar keltiruvchi, zarar yetka-zuvchi. *Ular dehqonlar bilan hamkorlik-da zararkunanda hasharotlar ko'paygan maydonlarga sun'iy ravishda urchitil-gan trixoderma hasharotlarini qo'yib yuborishibdi.* (S. Nurov, «Narvon»). *Ba'zi joylarda g'o'za zararkunandalari paydo bo'lib, ishni ancha og'irlashtirdi.* (R. Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»).

**Zararkunandalik** – zarar yetkazish-lik, zarar keltirishlik, ziyonkorlik. [Mu-habbat:] *Men o'ylaymanki, Hasanjon ko'ra-bila turib biror zararkunandalik qilmagan.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Zarpechak** [f. – buralib o'sadigan sarg'ish o'simlik] – o'simliklar tanasiga chirmashib, ularning hisobiga yashay-digan bargsiz, ingichka yovvoyi sariq o'simlik. *Zarpechak mo'r-malaxday ko'-payib, o'simliklarning tanasiga yopishib, shirasini so'rib yotaveradi.* (M. Mahmudov, «Mangu kuy izlab»). *Karantinchi-larga bahona kerak. Bir tup zarpechakni ko'rishsa, bas, akt tuzib, jahonni zahar-zaqqumga botirib yuborishadi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Zavod liniyasi** – nasli biron nasldor erkak moldan tarqalgan va konstitutsiya

tipi, mahsuldorligi, turi va darajasiga ko'ra unga o'xshash bo'lgan sermahsul mollar gruppasi.

**Zavod mollari** – zavod podasiga ki-ruvchi yuqori sifatli mahsulot beradigan naslli chorva mollari. Bu xildagi mollar elita va I klass bo'lishi, kelib chiqishiga ko'ra va mazkur zavodning ko'pchilik mollariga mansub muayyan turga xosligi bilan xarakterlanadi.

**Zavod tipi** – har bir chorvachilik za-vodi uchun xos bo'lgan eksteryer xusu-siyatlari, rivoji, eng muhimi, mahsuldor-lik xususiyatlarini qat'iy saqlagan holda nasldan naslga bera olish qobiliyatiga ega bo'lgan mollar.

**Zavod zoti** – chorva mollarining madaniylashtirilgan eng asl zotlari, bun-ga uzoq yillar davomida mollar orasida jiddiy naslchilik ishlari olib borish, ya'ni mollarni saralash, tanlash, oziqlantirish, yashash sharoitini yaxshilash natijasida erishiladi. Kammahsul mollar zotini yaxshilash uchun foydalaniladi.

**Zavod chatishtirish usuli** – yangi zotlarni yaratishda qo'llaniladi va oddiy hamda murakkab usullardan foydalaniladi. Oddiy usulda ikkita zot, murakkab usulda uch va undan ko'p zotlardan foy-dalaniladi. Eng mahsuldor duragay mol-lar «o'z ichida» urchitiladi. Bu usul bilan dunyoda ko'plab sermahsul qoramol zot-lari yaratilgan.

**Zax** – **1 sft.** Suvi ko'p, sernam, zax-kash (yer). *Zax uy. Yerto'la atrofidan zax tuproq shuvullab to'kildi.* (Shuhrat, «Shi-nelli yillar»). *Uni [Tojini] navkarlar olib chiqib, zax bir yerto'laga qamashadi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

**2 ot.** Sernam, zaxkash joy; namlik. *Kecha zaxda yotaverib, belim og'rib qop-*

ti. (G'.G'ulom, «Shum bola»). *Sho'rxok yerlarda achchiq zax g'o'zaning tomirini chirita boshladi.* (Gazetadan).

**Ko'kragini zaxga berib yotmoq** – qiynalmoq, azob chekmoq. *Qodir qizdan umidi uzilib, ko'kragini zaxga berib yotibdi.* («Ertaklar»). *«Bir bechora o'g'lingni deb, ko'kragini zaxga berib yotsinda, sen tinchgina o'g'lingni olib yot! Qani o'g'ling, yotgan joyini ko'rsat!»* – dedim. (A.Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**Zax qochirish, yerlarni quritish** – tuproqdagi ortiqcha namni chiqarib tashlash; melioratsiyaning bir turi. Zax qochirish tuproqda o'simlikning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay suv, havo, ozuqa va tuz rejimini vujudga keltiradi. Zax qochirish uchun quritish va sug'orish sistemalari quriladi. Ariq zonada, jumladan sug'orma dehqonchilik mintaqalarida zax qochirish yerni an'anaviy ma'nodagi quritishdan katta farq qiladi. Sug'oriladigan yerlarda tuproqning qayta zaxlanishi va botqoqlanishi suv omborlari, irrigatsiya kanallari va b. gidrotexnika inshootlaridan suv sizishi natijasida ikkilamchi hodisa sifatida yuz beradi. Yerlarni zax va sho'r bosishdan saqlash maqsadida katta kanallar bo'ylarida kesma drenajlar yoki qator vertikal drenaj quduqlari quriladi, asosan, bir necha qator namsevar buta va b. daraxtlar (terak, tol, qayrag'och va h.k.) o'tkaziladi.

**Zaxa** – poliz ekinlari yoki ho'l mevaning urilib, ezilib shikastlangan yeri. *Zaxa bo'lmoq (yemoq).* *Nokning zaxasi.* *Brigada a'zolari mevalarni ehtiyotkorlik bilan, biror yeriga ham zaxa yetkazmasdan terib, yahshiklarga joylashyapti.* (Gazetadan).

**Zaxira** [a. – xazina; ehtiyot uchun saqlangan narsa] – 1. Kelajakda foyda-

lanish uchun saqlab, g'amlab qo'yilgan narsa. – *Har bir narsani tejash, bugungini ertaga zaxira qo'yish yaxshi fazilat.* *Shunday qilgan odam tez boy bo'lib ketadi, – dedi Shum bola.* (G'.G'ulom, «Shum bola»).

**2 harb.** Zarur paytda chaqirish, safarbar qilish uchun maxsus ro'yxatga olib qo'yilgan harbiylar toifasi. *Zaxiradagi ofitser.*

**Zaxkash** – suvi, nami tepaga, yuzaga chiqib qolgan; sernam (yer). *Ha, raisimiz yer shaydosi emasmi, zaxkash yer, zaxda o'tirib cho'kib qolgan imoratlarni ko'rib, yig'lamoqdan beri bo'lardi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»). *Hujra tor, zaxkash.* (Oybek, «Navoiy»). – *Oltinday aziz tuproq, lekin zaxkash ko'rinadi, – dedi jiddiy qiyofada G'anisher, – zaxini qochirish kerak.* (A. Muhiddin, «Hadya»).

**Zaxkashlik** – zax bosganlik, namlik. *Pastdagi ikki xonaning g'ishtlari zahkashlikdan sho'ralab, oqarib ketgan.* (Mirmuhsin, «Umid»). *Quyoshga ters, burchakka tiqilgan bu uychadan hali qish nafasi o'chmagan, zaxkashlik va chirik havo nafasga uradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Zaxlamoq** – zax bo'lib ketmoq, zax bosmoq, namiqmoq; namlikdan mog'orlamoq. *Yog'ingarchiliklar natijasida yer zaxlab ketdi.* *April oyining oxiridan boshlab hozirgacha bo'lib turgan yog'ingarchiliklar natijasida yer zaxlab ketdi.* (Gazetadan). *Mushtumzo'rlardan olingan g'allaning yarmidan ko'pi Shokirjon boyvachchaning otxonasida zaxlab yotipti.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Zaxlik** – namlik, nami ko'plik. *Bu uy menga zaxlik qiladi.*

**Zaxob** [*f.* – chashma; suv chiqadigan, tarqaladigan joy] – 1. Zax yerlarda tuproq yuzasiga sizib chiqadigan suv. O'zbekiston gidrogeologlarining olib borgan kuzatishlari zaxob suvlar hozir haqiqatdan ham tepaga ko'tarila boshlaganini ko'rsatib turibdi. (Gazetadan).

2 *sft. q.* Suvlangan, botqoqlangan; zaxkash. Zaxob yerlar.

**Za'faron** [*a.* – ziravor o'simlik, za'far] – 1 *ot.* Ingichka uzun bargli, to'q sariq gulli, piyozsimon ildizli o'simlik va uning gulidan tayyorlanadigan, ovqatni xushta'm va rangdor qiladigan ziravor.

2 *sft.* Sap-sariq, somonrang. *Unutaman bir kun barchasin, Ular bari qoladi sizga: Za'faron bog', osmon parchasi, Shamol, daryo, maysa, sivilg'a.* (X. Davron, «Bolalikning ovozi»). *Yigitning oliyjanob himmatidan mamnun bo'lib, za'faron yuzlarimga andak tabassum chiqdi.* (G'ayratiy, «Dovdirash»). *Bir yonda lojuvard Bahri muhit bor, Bir yonda za'faron Sahroyi kabir.* (A. Oripov, «Yurtim shamoli»).

**Zaytun daraxti** (*Olea europea L.*) – zaytundoshlar oilasiga mansub, balandligi 4–12 m ga boradigan doim yashil subtropik daraxt. Mevasi et bilan qoplangan danakdan iborat bo'lib, og'irligi 15 g gacha boradi. Har bir daraxt o'rtacha 20–30 kg meva beradi. Qadim zamonlardan beri ekilib kelinadi. Zaytun mevasining ho'l eti 56 % gacha, danak qobig'ida 5 % gacha, mag'zida esa 12% gacha moy bo'ladi. Zaytun moyi oziq-ovqat, konservalash, tibbiyot maqsadlarida ishlatiladi, uning past navlari esa sovun tayyorlashda ishlatiladi. Kunjarasi chorva mollariga beriladi.

**Zaytunzor** – faqat zaytun daraxtlari ekilgan yer, maydon. *So'qmoq tog' bag'ridagi zaytunzorga olib chiqdi.* (H.G'ulom, «Zamin yulduzlari»).

**Zebra** [*fr. zebre*] – o'tsimonlar oilasiga mansub, Afrika savannalarida yashaydigan, tanasi almashinib keluvchi oq va qora chiziqlar bilan qoplangan yovvoyi hayvon. Ayniqsa, zebra, qo'tos, begemot, fil va ohularning ko'p turi tarqalgan. («Fan va turmush»).

**Zeboid** – qoramol bilan zebuni chatishtirib yetishtirilgan duragay avlod.

**Zebu** [*fr. zebu*] – kelib chiqishi jihatidan qoramolga yaqin o'rkachli (bukir) mol; Osiyo va Sharqiy Afrika, qisman Amerikada yashaydi. Ozarbayjonda va O'rta Osiyo respublikalarida ko'paytiriladi. Undan ishchi hayvon o'rnida foydalaniladi va go'shti iste'mol qilinadi. Tusi har xil: qora-ola, qizil-ola, malla, kulrang, qo'ng'ir. Buqalarining tirik vazni 300–350, sigirlariniki 220–250 kg. So'yilganda 45–50% go'sht beradi. 500–600 l, ko'pi bilan 1500 l gacha sut sog'ib olinadi, sutining yog'liligi 5–6%.

*Kelib chiqishi jihatdan qoramolga eng yaqin turadigan hayvonlardan zebu va qo'tos xonakilashtirilgan holda uchraydi.* (N. Mavlonov, «Qoramolchilik»).

**Zigota** – xromosoma soni bittadan (gaploid) bo'lgan ikkita (erkak va urg'ochi) gametalarning qo'shilishidan (urug'lanishidan) paydo bo'lgan hujayra.

**Zirai karmoni** (*Trachyspermum ammi L.*) *Sprague* – selderdoshlar [soyabonguldoshilar – Apiaceae (*Umbelliferae*)] oilasiga mansub, bo'yi 40–60 sm ga yetadigan bir yillik o't. Vatani Hindiston.



Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston viloyatlarida o'stiriladi.

**Zig'ir** (*Inum usitatissimum L.*) – zig'irdoshlar (*Linaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 30–50 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Zig'ir ko'p miqdorda G'arbiy Yevropa va Markaziy Osiyoda o'stiriladi. Tibbiyotda urug'i ishlatiladi. Tarkibida shilliq modda, yog', oqsil birikmalar bor.

**Zira** [*f.* – xushbo'y o'simlik urug'i] – ziradoshlar oilasiga mansub ko'p yillik xushbo'y ziravor o'simlik va uning ovqatga ishlatiladigan urug'i. *Safar xushbo'y zira solingan shavlani cholga surib qo'ydi.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»). *Choshnagir ayol oltin laganda zira hidi kelayotgan kabob ko'tarib kirdi.* (P. Qodirov, «Yulduzli tunlar»).

**Zirk** [*f.* – qizil va achchiq mevali o'simlik, barbaris] – tog'larda o'sadigan ko'p yillik tikanli buta va uning hosili. *Yana yo'l. Tog'-tosh. Xarsanglarga qapishib o'sgan zirk.* (Gazetadan). *Avaz bilan Hulkar yuqoridan shildirab tushayotgan tiniq suv bo'yida, archa bilan ayqashib o'sgan zirk tagida o'tirib ovqatlanishar edi.* (P. Qodirov, «Qora ko'zlar»). *Zira, zirk solingan xushbo'y palovning Bir chimdimi hozir qildi xumori.* (S. Zununova, «Sog'inish»).

**Ziroat** [*a.* – dehqonchilik] – *ayn. Dehqonchilik. 1. Kuchimiz kam, hukumat o'zining traktori, mashinalari, boyagi aytgan ziroat ilmini biladigan mul-lalari bilan bizga ko'p yordam bersin, deyman.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**2. Axir u yerda odamlar bo'lgan-ku! Ular ziroat qilishgan.** (S. Karomatov, «So'nggi barxan»).

**3. Qishloq xo'jalik ekinlari. Yerda qolmas ziroat, Omon bo'lsak ko'pchilik.**

(Gazetadan). *Kambag'al dehqonlarning qancha-qancha ziroatlari suvsizlikdan qurib ketgan.* (H. Nosirova, «Men O'zbek qiziman»).

**Ziroatchilik** – *esk. ayn. Dehqonchilik.* [*Abdujabborxo'ja*] *Paxtachilik ziroatchilikda eng ko'p daromad keltiradigan bo'lgach, bazzozlikdagi do'konini akasi Ahmadxo'jaga topshirib, o'zi Soyariq qishlog'iga ko'chib chiqdi.* (M. Osim, «Tilsiz guvoh»).

**Zovur** – zaxob yerlarni quritish, zaxni qochirish uchun qazilgan chuqur ariq; zakan. *Kecha yomg'ir yog'ib o'tdi. Yerlar loy. Bugun kolxozchilar qazishar zovur.* (Uyg'un). *Dalaning yondamasidan chuqur qilib qazilgan zovur yerning oxirigacha cho'zilgan.* (R. Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»). *Kunchiqardan boshlanib, qibla ufqqacha borib taqalgan zovur yonbag'irlariga nursiz soya tushdi.* (N. Aminov, «Tillo tabassumlar»).

**Zomcha** – *shv.* Rangi, katta-kichikligi turlicha bo'lgan handalaklarning umumiy nomi. *Avaz, bozorga kirib, ikki zomcha [handalak] ola ketaylik, deya Mutribni qovun bozoriga boshladi.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Zona** [*yun. zone* – mintaqa] – yer yuzining muayyan umumiy belgisi bilan ajralib turadigan joyi, mintaqasi. Tundra zonasi. Chegara zonasi. *Neytral zonadan o'tib, soyga tushdim.* (A. Ubaydullayev, «Qonli izdan»). *Hamzaobod qishlog'ida katta dam olish zonasi barpo etilmoqda.* (Gazetadan). *O'rta Osiyo respublikalari juda quruq iqlimli zonada joylashgan.* («Fan va turmush»).

**Zonal** – biror mintaqaga, zonaga oid. *Samarqand shahrida bo'lib o'tgan zonal seminar.*

**Zond** [*fr. sonde* – paypaslagich; sezgich asbob] – 1 *tib.* Ichki a'zolari tekshirish yoki davolash uchun ishlatiladigan naysimon asbob. *Oshqozon zondi.*

2. Yer osti qatlamlarini tekshirishda qo'llanadigan metall burg'i, parma.

3. Meteorologik kuzatishlar olib borish uchun o'zi yozadigan asboblardan o'rnatib uchiriladigan havo shari.

**Zoo** [*yun. zoon* – hayvon, jonivor] – o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi: hayvonlarga, hayvonot olamiga aloqadorlikni bildiradi.

**Zoologiya** [*zoo* + *yun. logos* – so'z, tushuncha; ta'limot] – biologiyaning hayvonot olamini o'rganadigan sohasi. Zoologiya fani. *Muzeyda geologiya va geografiya, zoologiya, botanika bo'limlari mavjud.* (Gazetadan). *Zoologiya darsida o'qigani, o'qituvchi Olimov boshchiligida tajriba o'tkazishgani-chi. Baliqlar hayoti, tuzilishi, ko'payishi – hammasi Qudratga ma'lum.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Zooantropozozlar** (*zoo...*, *antropozoz...* va *nosos* – kasallik), antropozozlar – hayvonlar va odamlar uchun umumiy bo'lgan yuqumli va invazion kasalliklar. Ularga kuydirgi, oqsil, brutsellyoz, tuberkullyoz, listerzio, leptospiroz, tuyalar o'lati, quturish, bir qator gelmintozlar (finnoz, exinokokkoz, trixinellyoz) kiradi. Zooantropozozlar hayvondan hayvonga, hayvondan odamga, odamdan hayvonga yuqadi. Kasallik qo'zg'atuvchisining hayvonga va odamga o'tishida (yuqishida) odamning roli yuqori emas.

**Zoogamiya** (*zoo...* va *yun. gamos* – nikoh) – gulli o'simliklarning hasharotlar yordamida changlanishi. Mas., guldan

gulshira (nektar) yig'ayotgan hasharotlar tanasiga gul changlari ilashib qoladi va hasharot orqali boshqa gulga tushib, o'simlikning chetdan changlanishiga sabab bo'ladi.

**Zoogiyena**, *hayvonlar giyienasi* – hayvonlar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi fan. Hayvon organizmi bilan tashqi muhitning o'zaro ta'sirini, hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish, ularni boqish va parvarishlash, ulardan foydalanish, sog'lom nasl olish sharoitlarini hamda chorva mahsuldorligini oshirish yo'llarini o'rganadi.

**Zoonozlar** (*zoo...* va *yun. nosos* – kasallik) – faqat hayvonlar uchun xos bo'lgan, lekin hayvonlardan odamlarga yuqishi mumkin bo'lgan infeksiya va invazion kasalliklar guruhi. Zoonozlarga o'lat, kuydirgi, quturish, brutsellyoz va b. kiradi.

**Zoonim** [*zoo*, + *yun. onyma* – nom, ism] – hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlar. *Atoqli otlardan toponim va antroponimlar, astronim va zoonimlar bo'yicha faktik materiallar to'plandi.* («O'TA»).

**Zoopark** [*zoo*, + *ingl. park* – bog', daraxtzor] – *q. Hayvonot bog'i; q. Bog' 1.* Do'kondan bir pachka sigareta olib, uyidan uncha uzoq bo'lmagan zooparkka yo'l oldi. (Mirmuhsin, «Umid»).

**Zootexnik** – chorva mollarini urchitish, oziqlantirish, saqlash va ulardan to'g'ri foydalanish haqida bilimga ega bo'lgan oliy yoki o'rta ma'lumotli shaxs.

**Zootexnik** – zootexnika mutaxassisi. *Qaysi bir rayon markazida kolhoz zootexniklarining yig'ilishi bo'lib, ilg'orlar maqtalgan, qoloq zootexniklar tanqid qilingan edi.* (S. Abdulla, «Soyalar»).

*Ukasi Kamol esa Toshkentda oliy maktabda o'qirdi-yu, biroq o'tgan yil u ham armiyaga olindi, kichik ukasi Ismoil zootexnik edi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

**Zootexnika, zootexniya** [zoo, + yun. *techne* – san'at, mahorat] – q.x. hayvonlarini urchitish, oziqlantirish, saqlash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish haqidagi fan. Hayvonlarni parvarishlash va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar juda qadimdan paydo bo'lgan. Odam hayvonlarni qo'lga o'rgatib, xonakilashtirgan va ulardan xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalana boshlagan davrdan boshlab zootexniya haqidagi sodda tasavvurlar shakllana boshladi. Chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollarini asrash, parvarish qilish masalalari bilan shug'ullanadigan fan sohasi.

**Zoovetsnab** – respublika chorvachiligini veterinariya va zootexniya moddiy vositalari bilan ta'minlaydigan tashkilot.

**Zot** (chorvachilikda) – kelib chiqishi (ajdodi) ma'lum, biologik va foydali xususiyatlari bir xil o'xshashlikda hamda avlodlariga o'z belgilarini to'liq o'tkaza oladigan, muayyan tabiiy iqlim sharoitida yaratilgan hayvonlar guruhi. Faqat inson mehnati izchil olib boriladigan naslchilik ishlari bilan yaratiladi va Zotning takomillashib borishida sun'iy tanlash, turli tabiiy iqlim sharoitlari, chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim o'rinda turadi. Zotlar yaratilish uslubiga qarab ibtidoiy (dastlabki), ya'ni jaydari (mahalliy), oraliq (o'tkinchi) va madaniy (zavod) zotlarga bo'linadi. Ibtidoiy zotlar eng qad. hisoblanadi. Tarqalish hududining cheklanganligi, tabiiy yashash sharoitiga yaxshi moslashganligi, jussasining ki-

chikligi, fiziologik kech yetiluvchanligi, mahsuldorligining yuqori bo'lmasligi bu zotlarga xos xususiyatdir. Oraliq zotlar mahalliy va zavod (madaniy) zotlar oraliq idagi hayvonlar guruhi bo'lib, ular o'zining foydali xo'jalik va muhim belgilarini muqim saqlab qola olmagan va jamiyatda tovar ayirboshlash davri rivojlaniishi bilan mahsuldorlik ko'rsatkichlariga qo'yilgan yuqori talablarga javob bera olmagan. Zavod zotlari intensiv usulda xo'jalik yuritish, hayvonlarni yaxshi asrab, parvarishlash natijasida vujudga keltirilgan, ularga mansub hayvonlar yirik, tez yetiluvchan, sermahsul va muayyan maqsadlarda foydalaniladi (mas., qoramolchilikda go'sht, sut yo'nalishidagi, yilqichilikda salt miniladigan, og'ir yuk tortadigan zotlar).

**Zot strukturasi** – zot guruhlari, zot ichidagi tip, liniya, oilalar.

**Zot** [*a.* – biror narsa egasi; shaxs; asl, mohiyat] – 1. Bir ajdoddan tarqalgan nasl, avlod; nasl-nasab. *Ha, Gulnorning tagi past-da. Otasi kim? Onasi kim? Malay, cho'ri. Zotiga tortadi, zoti past.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Balki zamonlar o'tib, davrlar shamolida Sovurilar qancha zot, yana qancha buyuklik.* (A. Ori-pov, «Yurtim shamoli»). *Men so'rayman millatingni, zotingni, yashirmayin ayta-vergin dardingni.* («Hasanxon»). *Shayx Ismoil og'ziga kelganini qaytarmay qarg'ar, Sanobarni zoti pastdan olib, zoti pastga solar edi.* (K. Yashin, «Hamza»).

2. Biror fazilati, xislati bilan ajralib turuvchi, hurmatli kishi. *Ulug' zot. Bu – Qorabuloq qishlog'i va atrofiga qozilik qiluvchi ma'lum zot edi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»). *El-ulus sizdek zotlarga g'oyat muhtojdir [dedi Navoiy].* (Oybek, «Navoiy»).

**Zoti oliy** – oliy zot, ulug' inson.

3. Umuman har qanday shaxs, odam.

4. Biror tabaqa, ijtimoiy guruh kishi-si, ahli.

5. Jins, nav. Qoramol zoti.

6 *shv.* Uloqda beriladigan mukofot. *Uloq hamon joyida yotganini ko'rgan bakovul zotni oshirdi.* (T. Murod, «Ot kishigan oqshom»).

**Zotdor** [*a. – f. – yaxshi zotli, nasl-nasabli*]– yaxshi zotga mansub, nasldor. Zotdor qo'y. *Qodirjon jo'jabirdek jon edi, zotdor sigir bilan bir yashar buzoqqa havaslanib qaradi.* (S. Siyoyev, «Otlig ayol»). *Bu o'sha o'g'irlatilgan zotdor ot edi.* (S. Yunusov, «Kutilmagan xazina»).

**Zotliq, zotdor** – *Moling zotli bo'lsa, yemishing totli bo'lar.* (Maqol). *Ular zotli qo'chqorlar boqilayotgan bostirmaga kirishdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *To'g'onbek har kun xo'jasining zotli otlaridan birini minib, Hirotda gasht qilib yuradi.* (Oybek, «Navoiy»).

**Zotsiz** – 1. Zotining, nasl-nasabining tayini yo'q; bezot.

2. Zoti past, xashaki, naslsiz. *Zotsiz sigirlar.*

**Zog'** [*f. – qarg'a, q. qarg'a*]. – *Har zog', har zog'da ming dog'.* (Maqol). *Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xorekan, Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.* (Muqimiy). **Zog' uchmaydi yoki hech zog' yo'q.** Birorta odam ko'rinmaydi; hech kim yo'q. *G'ulomjon shoshib qoldi. Hovli bo'm-bo'sh, zog' uchmas edi.* (M. Ismoilii, «Farg'ona t.o»). *Savlat qilib o'ng-u so'lga qaradi, Zog' uchmagan cho'lga ketib boradi.* («Shirin bilan Shakar»). *Quadrat ko'cha aylanib kelib, uyiga kirsam, hech zog' yo'q.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

*Eldan burun masjidlarga ketayotgan taqvodorlardan boshqa ko'chalarda hech zog' yo'q.* (M. Osim, «O'tror»).

**Zog'ora baliq** (*Cyprinus carpio*), (sazan) – karpsimonlar oilasiga mansub tur. Uzunligi 50–60 sm (ba'zan 1 m gacha), vazni 1,8–4,5 kg (ba'zan 16 kg va undan ortiqroq). Og'zi boshining pastki tomonida. Suzgich qanotlari qizg'ish tovlanib turadi. Orqa va anal suzgichlarida bittadan tishli suyak nurlari, yuqori labi va og'zi chetlarida bir juftdan mo'ylovlari bo'ladi. O'rtayer, Qora, Azov, Kaspiy va Orol dengizlari hamda Tinch okean havzalariga qarashli daryo va ko'llarda, shuningdek, Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon va Murg'ob daryolarida tarqalgan. Tuxum qo'yish uchun daryoga ko'tariladi. 2–5 yoshida jinsiy voyaga yetadi. 98 mingdan 1,8 mln. tagacha uvuldriq tashlaydi, aprel-iyul oylarida tuxum qo'yadi. Yelimsimon tuxumlari o'simliklarga yopishib turadi. Yosh baliqchalar, zooplankton, voyaga yetgan davrida bentosdati o'simliklar va hasharotlar lichinkasi bilan oziqlanadi. Go'shti shirin va seryog'ligidan ko'plab ovlanadi, suv havzalarida boqiladi.

**Zubr** (*Bison bonasus*) – quvushshoxlilarga mansub sutemizuvchi hayvon. Tanasining uzunligi 3,5 m gacha, yag'rinidan balandligi 1,9 m gacha, vazni 900 kg gacha. Tanasi yo'g'on, boshi katta, ko'zi kosasidan chiqqan, yelkasida qalin, jingalak yoli bor. Mo'ynasi qoramtir. Iyagida soqoli, boshida kokili, bo'ynida shokilasi, dumining uchida bir tutam popugi bor. Juni qalin, tanasining oldingi qismida uzun, keyingi qismida kalta. 2 kenja turi: tekislik zubri (*V. b. bonasus*) va Kavkaz zubri (*V. b. Caucasus*)

tarqalgan. Qadimda Yevropa o'rmonlari, Kavkaz va Rossiyaning Yevropa qismida tarqalgan. Podasida 1 erkagi va 2–6 urg'ochisi bo'ladi. Bo'g'ozlik davri 9 oy. Bitta bola tug'adi, bir yilgacha emizadi. 2–3 yoshda jinsiy yetiladi, 30–40 yil yashaydi. XX asrning 20-yillariga kelib dunyo bo'yicha hammasi bo'lib 48 ta qo'riqxonalarda saqlanib qolgan. Muho-faza choralari ko'rilishi tufayli soni hozir birmuncha ko'paygan.

**Zubtutum (bargizub – *Plantago L.*)** – zubtutumdoshlar (*Plantaginaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 10–70 sm ga yetadigan bir va ko'p yillik o't o'simliklar turkumi. Sobiq Ittifoqning hamma nohiyalaridagi yo'l yoqalarida, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, ariq bo'ylarida va b. yerlarda o'sadi.

**Zuluk** [*f.* – zuluk] – 1. Chuchuk suv havzalarida yashovchi, yirtqich yoki parazit holda kun kechiruvchi halqali chuvalchanglar vakili. Tibbiyot zulugi. Zuluk qo'yimoq. *Zuluk kichkina jonivor bo'lib, qonni so'rish uchun xizmat qiladi.* (N. Ismoilov, «Kasallarni parvarish qilish»). *Suvdan chiqqan zulukday, Qosh-u ko'zi pilikday Kelin poshshaga salom.* («Oq olma, qizil olma»). 2 *ko'chma.* Birovlar hisobiga yashovchi, ochko'z, tekinxo'r, shafqatsiz odam. *Xon – jallod, qozikalon – o'rgimchak, yasovulboshilar esa zuluk edi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). 3 *ko'chma.* Zuluk kabi qop-qora. *Onasi uning [Saltanatning] zuluk qoshlariga, to'lishgan dudoqlariga, yuzlariga mamnun tikilib o'tirdi.* (S. Nurov, «Narvon»).

## O'

**O'laksa** – 1. O'lgan narsa; o'lik. *Ba'zan hurib qoladi o'laksa quturgan it.* (G'ayratiy). *Devor kovagida mog'or bosib yotgan o'laksaga qo'l urib nima qilasiz.* (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).

2. O'lar holatga yetgan, o'ta zaif, o'limtik. *O'laksa ot. O'laksa tovuq.*

**O'lan I** – ayn. **o't II.** *Ko'm-ko'k o'lanlar va ularning orasidan ilonizi bo'lib, quyoshning nurida kumush tasma-day yarqirab turgan ariq va ariqchalar ko'rinib turadi.* (A. Qahhor, «Sarob»). *Yengilgina esgan shamol dumoqqa turli o'lan islarini keltirib urar edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**O'lanzor** – turli o't-o'lanlar o'sgan maydon; o'tzor. *Daryo, o'sha o'lanzor qirg'og'i yovvoyi jiyda kundasidan bo'lak hech nima yo'q edi.* (S. Akbariy).

**O'lat** – odam va hayvonlarda o'lat tayoqchasi qo'zg'atadigan o'tkir yuqumli kasallik; ko'plab yoki yoppasiga o'limga sabab bo'ladigan kasallik. mas., vabo. *Qishloqlar uzoq davom etgan o'lat yoki urush natijalarida xarob bo'lgandek vayronlikka yuz tutgan.* (A. Qahhor, «Sarob»). *Bu ahvol umumiy vabo va o'lat edi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**O'lik** – 1. Hayoti tugagan; o'lgan, jonsiz; *zid.* tirik. *Soldiylar bir nashga [tobutga] ikkovni – Jonsiz kelin-u o'lik kuyovni.* (Alisher Navoiy). *Jon oldi quchog'ingdan Sonsiz o'lik tan. Kim ne qildi kimlarga, Bilmaysan, nedan?* (G'ayratiy).

2 *ko'chma.* O'z xususiyatini (sifatini) yo'qotgan, qotib, yaroqsiz holga kelgan. *O'lik ohak. O'lik sement. O'lik chigit.*

*Ohak qiyomi ketsa, Qotib bo'lar o'lik ganj.* (Q. Muhammadiy).

**O'lik tabiat** – hayvonot va o'simlik olamiga mansub bo'lmagan narsalar; tirik organizmlardan boshqa jismlar majmui.

**O'lim** – 1 *biol.* Organizm hayot faoliyatining butunlay to'xtashi, tugashi; ortga qaytmas jarayon, hujayra va to'qimalarda fiziologik jarayonlar to'xtab, ortga qaytmas holat sodir bo'ladi.

2. Inson yoki hayvon hayotining tugashi; vafot, qazo. *Otning o'limi itning bayrami.* (Maqol). *Gulnor o'limining uchinchi kuni Samarqanddan ularning bir qarindoshi kelgan edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**O'limtik** – 1. O'lgan jonivor, o'lik, o'laksa. *Quzg'un, qoraqush, tasqara kabi qushlar o'limtik bilan oziqlanadi.*

2. *O'lar holatga yetgan. Bu o'sha abjag'i chiqqan jahongir. Bu o'sha, o'limtik jodugar, ayyor.* (Uyg'un). *Bu o'limtikni qayerdan topib keldingiz. Biz bergan zotli sigirning uchdan biriga ham to'g'ri kelmaydi-ku.* («Mushtum».)

**O'ltang** – *shv.* Suv taqsimlovchi to'g'on, suv taqsimlagich. *Toshsoqa magistral kanalining ham quti uchib qolgan suv o'ltangda shildirayapti.* (E. Rahim, «Hayot amri bilan»).

**O'lchagich** – narsaning o'lchamini belgilash, o'lchash uchun ishlatiladigan asbob. O'lchagich bilan tekshirib ko'rmoq. O'lchagich vositasida aniqlamoq. O'lchagich asbobi. *U yerda laboratoriyadagiday egri-bugri shisha naychalar, shisha idishlar, o'lchagichlar, elektrokamera, har xil asboblalar.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Vaqt o'lchagich – soat kashf etgan Hoji Muhammadga Temur-*

*xon bir xurjun oltin in'om etgan ekan.* (Mirmuhsin, «Me'mor»).

**O'chak** – *shv.* O'lchov, o'lcham. *Amlokdor ularga [dehqonlarga] ham ilgaridan ekilib kelgan yerlar qatorida bir o'chakdan soliq soldi.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»).

**O'lcham** – narsaning hajmi yoki katta-kichikligini ifodalaydigan raqam ko'rsatgichi; o'lchov; razmer. *Qadimgi yunon olimlari Yerning shaklini aniqlash bilan birga, o'lchamlarini topish bilan ham shug'ullanishgan.* («Fan va turmush».)

**O'lchamli** – o'lchamga xos bo'lgan; o'lchamdagi. *Qisqa o'lchamli kabellar protsenti me'yordagidan ancha kamaydi.* (Gazetadan).

**O'lchamoq** – 1. O'lchov asbobi vositasida narsaning uzunligi, o'lchamini belgilamoq. *Yog'ochning uzunligini o'lchamoq. Maydon sathini o'lchamoq. Oqayotgan suv miqdorini o'lchamoq. Yetti o'lchab, bir kes.* (Maqol). *Sotuvchilardan biri sut o'lchamoqda.* («Mush-tum».)

2. Fikr-mulohaza bilan chamasini, hisobini qilmoq, belgilashga harakat qilmoq. – *Kechasi bir mahalgacha gaplashib, hamma bo'ladigan gapni o'lchab, chamalab ko'rdik, – dedi chol.* (P. Tur-sun, «O'qituvchi»).

**O'lchovli** – 1. Muayyan o'lchovdagi, belgisi o'lchovga ega (bo'lgan). *Oziq-ovqat o'lchovli. Gohi ozroq, goh ziyoda – O'lchovli fursat berilar, kim suvoriy, kim piyoda – umri omonat berilar.* (B. Boy-qobilov).

2. Muayyan bir o'lchovda, bir xilda, bir tekisda sodir bo'ladigan; bir xil. *Ko'kragiga avtomatlar osgan, o'lchovli*

odimlar otib, qorabulutdek masofani qamragan, qalin fashist to'lgini kelmoqda. (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

**O'mildiriq** – ikki uchini egarning old qismiga, uchinchi uchini otning o'mrovi orqali o'tkazib, ayilga biritirib qo'yiladigan bezakli qayish tasma (egarning orqaga surilib ketmasligi uchun xizmat qiladi). *Qo'shinning ikki yoni va orqa tomonini himoya qilib turgan otliqlar suvlug'ini chaynab, tilla o'mildiriqlarini o'tobda yaltiratib turgan safsiz arg'umoqlarning boshini qo'yib yuboradilar.* (M. Osim, «Ajodlarimning qissasi»). *Boshida kumush yugan, ko'ksidagi umildiriqlarida ham kumush qubbachalar bor.* (Sh. Xolmirzayev, «Qilko'prik»).

**O'ngir** – o'yilgan, chuqur joy, o'yiq. *Yigitlar daraxtlarda, tog' o'ngirlarida turib, sapqon otib, yovni shuncha dumalatib tursalar ham, u gazandalar borgan sari ko'paya beribdi.* (Oydin, «Oltmish gaz arqon»). *So'nggi qor hali-hamon erib bitmagan, o'qtin-o'qtin joyda, pastqamlar va do'ngliklarning kunga teskari o'ngirlarida laxtak-laxtak bo'lib yotibdi.* (Y. Shamsharov, «Baxt izlab»).

**O'nqir-cho'nqir** – yuzasini chuqurliklar va do'ngliklar qoplagan; balandpast, notekis, o'ydim-chuqur. *Foytun Tozabog' darvozasiga qarab yana tez-tez past-baland, o'nqir-cho'nqir yo'llardan o'tib borardi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Yo'lning ko'pi qir va soylik, o'nqir-cho'nqir bo'lgani uchun tuyalar chayqalib-chayqalib borar, bundan mening boshim aylanib ko'nglim ozar edi.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urunishlari»). *Qoyalar ostida, tepalar tagida, o'nqir-cho'nqirliklarda yashirinib*

*qolgan qor parchalari bahor quyoshi-ning issiq nafasi bilan qozonga tushgan yog'dek erib, ko'z ilg'amas jilg'alarni to'ldirgan holda, soy tubiga ravona bo'lardi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**O'nqir-cho'nqirlik** – yerning pastbaland joyi; o'nqir-cho'nqir joy. *Nabi-jon otni jadallab haydab borar, yo'lning o'nqir-cho'nqirigidan tinmay silkinib borayotgan bu yo'lovchilar indashmas edi.* (S. Zunnunova, «Gulxan»).

**O'pirilmoq, O'pirmoq** [fl. o'zl. va majh. n]. – *Qish, to'xtamay qor yog'adi. Qadam bosgan yeringiz o'radek o'pirilib qoladi.* (Oydin, «Suhbati jonon»). *Chopib ketayapman-u, bir mahal oyog'imning tagi gup etib o'pirilib tushsa bo'ladimi?!* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**O'pirma** – kam qo'll. O'pirilgan joy, chuqurlik. *Keng, chuqur o'pirma ichidan kishilar yuk bilan xuddi toqqa ko'tarilayotganday tirmashar edilar.* (Oybek, «O. v. shabadalar»).

**O'pirmoq** – 1. O'yib, buzib yubormoq; ma'lum qismini o'chirib yoki oqizib, yulib ketmoq, yemirmoq. *Suv to'g'onni o'pirib yubordi. Daryo qaynar, toshar, ko'pirar, To'nka ostin yalab o'pirar.* («Mushtum»). *Ergash to'p snaryadi o'pirgan chuqurga tushib yotdi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»). *To'p o'qlari qal'aning peshtoqlarini o'pirib tushsa ham, qal'a ustiga o'rmalab chiquvchi azamat bo'lmadi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

2 *ko'chma.* Ko'p qismini yoki butunlay o'zini yo'q qilmoq; o'marmoq, o'zlashtirmoq. *Xirmondagi bug'doyni o'pirib yuborishibdi. Butun boshli qurilishning bir yog'ini o'pirib olgan Vladi-*

odimlar otib, qorabulutdek masofani qamragan, qalin fashist to'lgini kelmoqda. (Oybek, «Quyosh qoraymas»).

**O'mildiriq** – ikki uchini egarning old qismiga, uchinchi uchini otning o'mrovi orqali o'tkazib, ayilga biritirib qo'yiladigan bezakli qayish tasma (egarning orqaga surilib ketmasligi uchun xizmat qiladi). *Qo'shinning ikki yoni va orqa tomonini himoya qilib turgan otliqlar suvlug'ini chaynab, tilla o'mildiriqlarini o'tobda yaltiratib turgan safsiz arg'umoqlarning boshini qo'yib yuboradilar.* (M. Osim, «Ajdodlarimning qissasi»). *Boshida kumush yugan, ko'ksidagi umildiriqlarida ham kumush qubbachalar bor.* (Sh. Xolmirzayev, «Qilko'prik»).

**O'ngir** – o'yilgan, chuqur joy, o'yi. *Yigitlar daraxtlarda, tog' o'ngirlarida turib, sapqon otib, yovni shuncha dumalati bursalar ham, u gazandalar borgan sari ko'paya beribdi.* (Oydin, «Oltmish gaz arqon»). *So'nggi qor hali-hamon erib bitmagan, o'qtin-o'qtin joyda, pastqamlar va do'ngliklarning kunga teskari o'ngirlarida laxtak-laxtak bo'lib yotibdi.* (Y. Shamsharov, «Baxt izlab»).

**O'nqir-cho'nqir** – yuzasini chuqurliklar va do'ngliklar qoplagan; balandpast, notekis, o'ydim-chuqur. *Foytun Tozabog' darvozasiga qarab yana tez-tez past-baland, o'nqir-cho'nqir yo'llardan o'tib borardi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Yo'lning ko'pi qir va soylik, o'nqir-cho'nqir bo'lgani uchun tuyalar chayqalib-chayqalib borar, bundan mening boshim aylanib ko'nglim ozar edi.* (M. Muhammadjonov, «Turmush urunishlari»). *Qoyalar ostida, tepalar tagida, o'nqir-cho'nqirliklarda yashirinib*

*qolgan qor parchalari bahor quyoshi-ning issiq nafasi bilan qozonga tushgan yog'dek erib, ko'z ilg'amas jilg'alarni to'ldirgan holda, soy tubiga ravona bo'lardi.* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**O'nqir-cho'nqirlik** – yerning pastbaland joyi; o'nqir-cho'nqir joy. *Nabi-jon o'tni jadallab haydab borar, yo'lning o'nqir-cho'nqirligidan tinmay silkinib borayotgan bu yo'lovchilar indashmas edi.* (S. Zunnunova, «Gulxan»).

**O'pirilmoq, O'pirmoq** [fl. o'zl. va majh. n]. – *Qish, to'xtamay qor yog'adi. Qadam bosgan yeringiz o'radek o'pirilib qoladi.* (Oydin, «Suhbati jonon»). *Chopib ketayapman-u, bir mahal oyog'imning tagi gup etib o'pirilib tushsa bo'ladimi?!* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**O'pirma** – kam qo'll. O'pirilgan joy, chuqurlik. *Keng, chuqur o'pirma ichidan kishilar yuk bilan xuddi toqqa ko'tarilayotganday tirmashar edilar.* (Oybek, «O. v. shabadalar»).

**O'pirmoq** – 1. O'yib, buzib yubormoq; ma'lum qismini o'chirib yoki oqizib, yulib ketmoq, yemirmoq. *Suv to'g'onni o'pirib yubordi. Daryo qaynar, toshar, ko'pirar, To'nka ostin yalab o'pirar.* («Mushtum»). *Ergash to'p snaryadi o'pirgan chuqurga tushib yotdi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»). *To'p o'qlari qal'aning peshtoqlarini o'pirib tushsa ham, qal'a ustiga o'rmalab chiquvchi azamat bo'lmadi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

2 ko'chma. Ko'p qismini yoki butunlay o'zini yo'q qilmoq; o'marmoq, o'zlashtirmoq. *Xirmondagi bug'doyni o'pirib yuborishibdi. Butun boshli qurilishning bir yog'ini o'pirib olgan Vladi-*



mir Chekmarov qarasa, bo'lmaydigan, iliq-issig'ida o'zini panaga olmoqchi bo'ldi. («Mushtum».) Dadaxo jayev bir yilgina ishlaganda, kolxozning butun mol-mulkini o'pirishi turgan gap edi. (Gazetadan).

**O'pka** – anat. Odam va quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning ko'krak qafasi ichida joylashgan bir juft, konus shaklidagi nafas olish a'zosi. O'pkasiga havo to'ldi, ko'zlari ham yorishib ketdi. (Oybek, «Quyosh qoraymas»). Kuzning yoqimsiz shamoli o'pkani qichitib, yo'talni qistatar. (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**O'pqa** – 1. Biror tabiiy kuch vositasida hosil bo'ladigan uyurma; girdob. Qo'lidagi qog'ozni g'ijimlab, elektr lampasi atrofida kapalakdek aylanayotgan qor o'pqaqlariga tiqilganча turib qoldi. (S. Ahmad, «Ufq»).

2 ayn. **O'pqa**. [Navoiyga] O'lim bilan hayot orasidagi qora o'pqa oddiy va yaqin narsa kabi sezila bordi. (Oybek, «Navoiy»).

**O'pqa**lik – tubsiz choh, o'pqa. Bu yerda ariq doimo qurilmasa, hayot bir o'pqa

likdir. (Oybek, «O.v. shabadalar»).

**O'pqa** – 1. Suvni tortib ketadigan, yer ostidagi ko'rinmas chuqurlik, g'ovak, bo'sh joy. Ariqning tagidan o'pqa chiqqan ekan, kattarib-kattarib, ustidagi tuproqni ham qulatib tushiribdi. (P. Qodirov, «Yaxshilik»). Xarsanglar tagidan o'ziga yo'l topgan suv betida o'pqa

lik – tubsiz jarlik; o'pqa. Alisher Navoiy! O'pqa

likka qulab ketayotgan tog'ni yolg'iz tutib qola biladi. (Oybek, «Navoiy»).

**O'qaloq** – buqa (so'na) qurti (asosan, sutemizuvchi hayvonlar tanasida bo'ladi).

**O'qaloqlamoq** – 1. Shunday qurt chiqarmoq. – Ha, aka, o'qaloqlaydigan so'na qayoqda!

2. Shu qurt terini teshib chiqayotganida, irg'ishlab, shataloq otmoq. Sigir o'qaloqladi.

**O'qariq** – paykal egatlariga yoki, umuman, paykalga shohariqdan suv olib taratish uchun xizmat qiladigan muvaqqat ariq. Birozdan keyin suv taralgan kartaning o'qariq'i boshiga kelib to'xtadi. (Gazetadan). O'qariq yoqalarida ketaketguncha tut daraxtlari. Paykallardagi har bir egat ipga chizib qo'yganday tekis. (S. Nurov, «Narvon»). Nasim bug'doypoyada o'qariq qazishdan erta qaytdi. (T. Murod, «Qo'shiq»).

**O'qra** (ayn. o'qaloq.) – [Sigirning] O'qra ham bor ekan, – dedi sutchi bobo. (A. Mirahmedov, «Kulgan chechaklar»).

**O'qtamoq** – biror tomonga yo'naltirmoq, niqtamoq, qadamoq. Afandi esa, buning aksini qiladi va barmoqlarini yerga o'qtadi. («Latifalar».)

**O'r** – 1. Jarlik, chuqurlik; o'ra. O'rga tushib ketmoq. Front orqasida o'r qazib turganda, Mulla Obiddan o'ttiz metrcha nariga bir katta to'po'qi tushib, qattiq tovush chiqarib yoriladi. (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

2. Tepalik, balandlik. Qiyada qilpilatdi, O'r kelsa, o'mganlatdi [otni]. («Rustamxon».) O'ziga qolsa, shahar deb,

*qir oshib, o'r otib o'tirmasdi-yu.* (N. Norqobilov, «Bekatdagi oq uycha»).

**O'ra** – 1. Sabzavot, don va sh. k. ni ko'mish uchun maxsus qazilgan, odatda, osti kengroq bo'ladigan chuqurlik. *Kartoshka o'ra. Sabzi o'ra. Bir o'ra turp. Usta Olim ham qaynisini turishiga ishorat qildi va o'radan sabzi olib to'g'rashga buyurdi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Menda-ku o'radagi besh-o'n pud g'alla bilan og'ildagi besh-o'nta qoramoldan boshqa narsa yo'q.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

2. Umuman, biron maqsadda qazilgan chuqurlik. *O'raning ichi guvala kattaligidagi toshlar bilan aylantirib urib chiqiladi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»). *Ikkala yigit ham [jallod pichog'idan keyin] bukchayganicha, chuqurga qulab tushdi.* (Mirmuhsin, «Me'mor»). *E, bormisan, uka, o'ra-po'raga tushib ketmadingmi, haytovur?* (A. Qodiriy, «Kichik asarlar»).

**O'rgamchi** – *shv.* **O'rgimchak.**

**O'rgimchak** – o'ziga ovqat bo'ladigan hasharotlarni tutish uchun to'r(in) to'qiydigan bo'g'imoyoqli yirtqich hasharot. O'rgimchak uyasi. *Shiftida o'rgimchak to'riga ilinib, bir maqomda g'ing'illab turgan pashsha Nizomiddinovning g'ashiga tegdi.* (S. Ahmad, «Hukm»).

**O'rgimchakkana** (*Tetranychidae*) – o'rgimchaksimonlarga mansub, o'simlik shirasini so'rib yashaydigan kana, mayda hasharot. Texnika, poliz ekinlari hamda mevali daraxtlar ashaddiy zararkunandasi. *Shirani, o'rgimchakkanani qiyratguncha qancha ovorayi sarson bo'lgan edik.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**O'rdak** – o'rdaksimonlar oilasiga mansub, bo'yni kalta, oyoqlari qis-

qa kuraksimon, suvda suzib yurishga moslashgan, yalpoq tumshuqli parranda. *Yovvoyi o'rdak. Xonaki o'rdak. O'rdak tuxumi. O'rdak ovlamoq. Dunyoni suv bossa, o'rdakka nima qayg'u?* (Maqol). *Shoshgan o'rdak ham boshi bilan, ham dumi bilan sho'ng'iydi.* (Maqol). *Sohilida chayqalar qamish, Uchib o'tar ba'zan o'rdak, g'oz.* (Y. Mirzo).

**O'rik** – 1. Guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg'ish, qizg'ish ranglarda bo'ladigan yirik daraxt. O'rik guli. *O'rik ko'chati.*

2. Shu daraxtning danakli mevasi. *Oq o'rik. O'rik murabbos. Men go'sht-yog'ni tashib bo'lib, hovlining to'riga o'rik tergani bordim.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t. o»).

**O'rikzor** – o'rik daraxtlari o'sgan yer, maydon. *O'rikzorda qizil ko'ylakli bir ayol ko'rindi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**O'rim I** – 1. Bug'doy, beda kabi ekinlarni yoki o't-o'lanlarni poyasi tagidan yoppasiga chalg'i, o'roq va kombaynda qirqib olish; o'rish. G'alla o'rimi. Birinchi o'rim. O'rim asboblari. *Pastdagi bo'limlarning ekini o'rimga kelmay, mol qo'yib yuborishibdi.* (P. Qodirov, «Qora ko'zlar»). *Betob ekan. Kun issiq, yana o'rimga chiqibdi.* (M. Hazratqulov, «Jur'at»).

2. Shunday ishlar mavsumi. *Nusratbek pichan o'rimga vakil bo'lib, chorvador rayonga borib, Ahmad brigadirnikiga o'tdi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**O'rim II** – tolasini yoki bir necha tutamini birga qo'shib o'rilgan har bir bo'lak; o'rib tayyorlangan narsa. *Soch o'rimi. Arqon o'rimi. Eshonning achchig'i kelib, qamchining o'rimidan ushlab bir qulning kallasiga qo'yib yubo-*

radi. («Zulfizar bilan Avazxon».) *Ashurxon qoshlarini biroz chimirganicha, bir o'rim sochining uchini o'ynab o'tirardi.* (S. Zunnunova, «Olov»). *Baland peshonasining ikki chetini sochlari bekitgan, o'rimga kirmay qolgan ingichka soch to-lalariga shabada tegib, muloyim qimirlab turadi.* (P. Qodirov, «Uch ildiz»).

**O'rim-yig'im** – dehqonchilik ho-silini yig'ishtirib olish ishlari, shun-day ishlar jarayoni, mavsumi. *Yoz bor, kuz bor, pishiqchilik, o'rim-yig'im bor, xudo xohlasa.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Endigi muhim vazifa – o'rim-yig'imni g'oyatda qisqa muddatda uyushqoq-lik bilan o'tkazish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikdan iborat.* (Gazetadan).

**O'rkach** – 1. Tuyaning orqa sirtida bitta yoki ikkita bo'ladigan, qalin yog' qatlamidan iborat do'ng o'simta. *Uni [tuyani] hech kim qistamaydi, yetakla-maydi ham, xuddi mashinaday, o'z ishi-ni o'zi biladi: o'rkachlarini dirkillatib lo'killaganicha, bir yo'ldan tinmay borib-ke-lib turadi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»). *Nor o'rkachin tushirar esga daryo bo'yidagi tepalar.* (E. Rahim).

2 *ko'chma.* Tepalik, tog' va sh. k. ning o'rkachga o'xshash joyi. *Qirning o'rkachi nari chetda yuksalgan tog'ning beliga yetib turar edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Qil ko'prik»). *Uzoqdan qorayib ko'rinib turgan tog' o'rkachiga to'lin oy minib oldi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Mavze cheti o'rkach qirlarga tutash.* (A. Ibodinov, «Latofat» do'konidagi qatlb).

**O'ram/jog'olam** – tabiat in'om et-gan, tabiiy, mollarni o'tlatish uchun max-sus qiyalik joy.

**O'rmon** – bir-biriga va sharoiti-ga ta'sir etuvchi va geografik landshaft

elementini hosil qiluvchi daraxtsimon o'simliklar majmui, daraxtlar g'uj o'sgan joy. *Qalin o'rmon. O'rmon xo'jaligi. Pe-terburg ostonasidagi o'rmonlarda daraxt qulatadi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Ular faqat kechga yaqin qalin o'rmon bi-lan o'ralgan kichkinagina bir qishloqqa yetib kelishdi.* (A. Rahmat, «Soqov bola»).

**O'rmonzor** – o'rmonli joy; o'rmon, daraxtzor. *Bir yoni soy, bir yoni qalin o'rmonzor edi.* (Uyg'un)

**O'rmonchilik** – xalq xo'jaligining o'rmon hosil qilish va o'rmon mahsuloti-ni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi so-hasi (o'rmonshunoslikning bir tarmog'i). *O'rmonchilik xo'jaligi. O'rmonchilik sa-noati.*

**O'rmonshunoslik** – o'rmon hayoti, o'rmonlar yaratish va o'rmon mahsuloti-dan foydalaniladigan fan.

**O'rmoq** – g'alla o'simligi, o't, beda va b. o'simlikni chalg'i, o'roq, kombayn va sh. k. bilan qirqib olmoq. *Arpa o'rmoq. Qamish o'rmoq. Yantoq o'rmoq.* [Bekboy:] *o'roq yasatib bering, men ham bug'doy o'raman, deb joni-holinga qo'ydimi bu qizcha.* (N. Safarov, «Don»). *Qorovul sho'ra va yalpiz-larni o'rib, suv urgan joyga tiqa boshla-di.* («Yoshlik».)

**O'roq** – 1. Turli boshqoqli ekinlar, beda, pichan va o'tlarni qo'lda o'rish uchun ishlatiladigan, beli bukik, o'tkir tig'li mehnat quroli; qo'lo'roq. *Yo'lchi o'roqqa diqqat bilan tikilib qaradi va enkayib o'ra boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Dashtdagi bug'doy asosan o'roq bilan o'rilganligi uchun, mashoq faqat yan-toq qalin joylardagina ko'proq uchrardi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»).

**Chalg'io'roq – Chalg'i.** *Ehe, mashina liq to'la temir asbob. Bir xili chalg'io'roqqa o'xshab tig'i qayralgan.* (H. Nazir, «Cho'l havosi»). **Qo'lo'roq** (*ayn. o'roq*) **1.** [Sotvoldi:] *Aytganday, bir qo'lo'roq, bir chalg'i, ketmondan ikkita.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). **2 s.t.** *O'rish ishi; o'rish jarayoni. Avji o'roq payti. O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.* (Maqol). *Qirdagi bug'doylari, qo'riqlardagi dehqonchiliklarini saranjomlagandan keyin Berdiboy to'qayga sholi o'roqqa ketadi.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**O'rtapishar** – mavsum o'rtalarida pishadigan. *O'rtapishar olma. O'rtapishar paxta navlari. Har mevaning o'z uchastkasi bor, har bir uchastkaning o'z bo'limlari bor: ertapishar, o'rtapishar, kechpishar.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**O'rta tolali g'o'za** – 24–36 mm tola beradigan g'o'za navlari. O'rta tolali g'o'zalarga, asosan, Meksika g'o'zasi navlari, qisman Afrika, Osiyo g'o'zasi navlari kiradi.

**O'r-qir** – relyef shakli, yer yuzasi notekis, chuqurlik bilan qirlar almashinib keladigan joylar.

**O'simliklar** (*Plantae*, ya'ni *vegetabilia*) – tirik organizmlar dunyosi; fotosintez qilish xususiyatiga ega bo'lgan avtotrof organizmlar. Havo va tuproqdagi organik va anorganik moddalar bilan oziqlanadigan, anorganik moddalarni organik moddalarga aylantirish xususiyatiga ega bo'lgan, odatda, biror joyga o'rnamshgan holda rivojlanadigan organizm. *Yovvoyi o'simlik. Madaniy o'simlik. Xonaki o'simlik. Ko'p yillik o'simlik. Bodring issiqsevar, yorug'sevar va namga talabchan o'simlik.* («Fan va turmush».)

**O'simliklar anatomiyasi** – botanikada o'simliklarning ichki tuzilishini o'rganadigan bo'limi.

**O'simliklar zarar kunandalari** – madaniy o'simliklarni zararlaydigan yoki ularni nobud qiladigan jonivorlar.

**O'simliklar kasalliklari** – o'simliklarda turli sabablar – kasallik qo'zg'atuvchilar hamda noqulay tashqi sharoit ta'sirida yuz beradigan patologik jarayonlar.

**O'simliklarni himoya qilish** – o'simliklarni zarar kunanda va kasalliklardan himoya qilish: 1) qishloq xo'jaligi fanlarining bir sohasi; o'simliklarga zarar kunanda, kasalliklar, begona o'tlar yetkazadigan zararni o'rganadi va uning oldini olish hamda bartaraf qilish tadbirlarini ishlab chiqadi; 2) qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida zarar kunandalar, o'simliklar kasalliklari hamda begona o'tlarni yo'q qilish uchun ishlab chiqiladigan tadbirlar tizimi.

**O'simlikshunos** – o'simliklar bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, olim.

**O'simlikshunoslik** – madaniy o'simliklarni yetishtirish usullari haqidagi fan. Tuproqshunoslik, umumiy dehqonchilik, qishloq xo'jaligi meteorologiyasi, o'simliklar fiziologiyasi, biokimyosi, genetikasi, seleksiyasi, qishloq xo'jaligi mikrobiologiyasi, agrofizika, agrokimyosi, urug'chilik, o'simliklarni himoya qilish uchun chambarchas bog'langan. O'simlikshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti – qishloq xo'jaligida ekiladigan ekinlar (turi, xili, navi, duragayi), ularning biologiyasi; tashqi muhit agroekologik sharoitlarga talabchanligi va b.lar. *O'simlikshunoslik instituti.*

**O'simliklar fiziologiyasi** – o'simliklar hayot faoliyati, unda kechadigan jarayonlar va ularning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

**O'sishni boshqaruvchi moddalar** – o'simliklarning generativ va o'sish jarayonlarini jadallashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi (susaytiruvchi) bir qator tabiiy va sintetik birikmalar.

**O'simta** – odam, hayvon yoki o'simlik tanasida o'sib, bo'rtib yoki turtib chiqqan qism. *Ko'richak o'simtasi. Murtak (chigit) o'simtasi.* – *Nerv to'qimasi nerv hujayralaridan, ya'ni neyronlaridan hosil bo'ladi, neyronlar esa tana va o'simalardan iborat.* («Anatomiya».) *Quyov miyachasining birgina hujayrasida oltmish mingdan ko'p o'simta bor.* (N. Yoqubov, «Jon».)

**O'sish** – 1. **O'smoq** (*fl. har. n.*). *Daraxtning o'sishi.*

2. *biol.* Hujayralar, shuningdek, hujayra bo'lmagan tuzilmalar soni va massalasining ortishi hisobiga organizm yoki tana a'zolari hajmi va massasining oshib borishi.

**O'sma I** – 1. Uzun cho'zinchoq to'q yashil bargli, krestgullilar oilasiga mansub ikki yillik o'tsimon o'simlik. *Qish boshlanishida hamma tok ko'msa, Malikaxon o'smasini ko'mar, chillada ham uning hovlisida o'sma bahordagidek ko'karib yotardi.* (S. Zunnunova, «Gulxan».)

2. Shunday o'simlikning bargidan siqib olinib, qosh va kipriklarga qo'yish (surtish) uchun ishlatiladigan qora-yashil rangli suyuqlik. *Uning hozirgina qo'ygani o'smasi chakkasiga oqib tushgan edi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar».)

**O'sma II** – *tib.* Organizmdagi o'z-gargan va o'zining odatdagi shakli hamda vazifasini yo'qotgan hujayralardan iborat to'qimalarning zo'r berib o'sib ketishi. *Jigar o'smasi. Miya o'smasi. Tajribalardan ma'lum bo'ldiki, kobraning zahari hatto rak o'smasini ham o'sishdan to'xtata olar ekan.* («Fan va turmush».)

**O'smoq** – 1. Rivojlanib bo'yiga yoki uzunasiga o'zini qo'yimoq, cho'zilmoq, rivojlanmoq. *Bola yaxshi o'sdi. Katta maydondagi g'o'zalar barq urib o'sayapti. Bodom daraxti yer tanlamaydi, toshloq, qumloq joylarda ham o'saveradi.* (Gazetadan) ...*juda o'sib ketipsiz-ku, Oyto'ti, mana qaranga, menga yetib qolibsiz.* (Oydin, «Fonar tagida».)

2. Ko'kargan (o'sgan) holda bo'lmoq (daraxt, o'simlik haqida). *Ko'chamizning muyulishida o'sgan sada tagiga qo'yilgan karavotda ikki kampir dam olib o'tirishibdi.* (Gazetadan). *Yassi qirga chiqib qaragam, haqiqatdan ham yalanglikda katta sadaqayrog'och o'sib turubdi.* (Gazetadan).

**O'suvchan** – tez o'sadigan. *O'suvchan buta.*

**O'suvchanlik** – yaxshi, tez o'sish belgisi, xususiyati.

**O't I** – poyasi yog'ochlanmaydigan, chorva mollari uchun ozuqa bo'ladigan yashil o'simlik; alaf. *Yovvoyi o'tlar. Dorivor o'tlar. Chorvabop o'tlar. Suv o'tlari. Barra o'tlarga xo'p to'y, Hech kim bermaydi xalal.* (I. Muslim). [*Hulkarning*] *Qaddi-qomati nozik ko'rinsa ham, o'zi yigitlarday zapt bilan o't o'rar edi.* (P. Qodirov, «Qora ko'zlar»). *Qo'ylar o'tdan boshini ko'tarmaydi.* (O. Qo'chqorbekov, «Cho'pon Ro'zi baxshi».)

**O't II** – jigardan ajralib chiquvchi sarg'ish-yashil rangli achchiq suyuqlik. *Kimgadir yovvoyi echkinging terisimi, ayiqning o'timi kerak ekan.* (N. Qobil, «Bug'doy pishig'iga yetmaganlar»).

**O't pufagi** – jigarning pastki yuzasidagi maxsus chuqurchada joylashgan, hajmi 50–60 sm<sup>3</sup>, shakli nokka o'xshash pufakcha (unda ortiqcha o't saqlanadi). **O'ti yorilmoq** *ayn. o'takasi yorilmoq q. o'taka.*

**O'tamoq** – begona o'tlarni yulib tashlamoq, o'toq qilmoq. [*Buvim*] *Tomorqada sabzi-piyoz o'taydi.* (P. Qodirov, «Qora ko'zlar»). *Cho'lquvarlar yoz bo'yi g'ozaning ichidan chiqishmadi, chopiq qilishdi, o'tashdi.* («O'zbekiston qo'riqlari».)

**O'tzor** – o't-alaf bilan qoplangan yer, o'tlar o'sib turgan maydon; o'tloq. O'tzorga yoyilgan poda. *O'tzorda pichan tayyorlamoq. O'tzorlar ichidan jonajon qishloq yaqqol ko'rinib turibdi.* (Sh. Rashidov, «Qudratli to'lqin»).

**O'tlamoq** – 1. O'sib yotgan o't, ko'katdan yemoq (hayvon haqida). *Anhor yoqasidagi tollar orasida ikkita oq echki o'tlab yuradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Uzoqda, tog' yonbag'irlarida behisob qorako'l qo'ylari o'tlaydi.* (Mirmuhsin, «Hamzaobodda»).

2 *ko'chma.* Mavzuga oid bo'lmagan, kerakli-keraksiz, og'ziga kelgan gaplarni gapirmoq. *Mayli endi, qo'ying, ota. Ko'pam gapni cho'zmang, o'tlab ketdingiz.* (S. Ahmad, «Hukm»). *Xo'sh, ginani tashlagan bo'lsangiz, nega ularning oldida og'izga kelganini o'tladingiz?* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

**O'tli** – o't, ko'kat bilan qoplangan. *O'tli dalalar. O'tli sohil.*

**O'tloq, o'tzor** – turli o't, ko'p yillik, tabiiy o'simlik aralashmalari, asosan, mezofil o'tlar o'sadigan maydonlar.

**O'tloqi tuproqlar** – tuproq tipi; kappilyar namlanishga sabab bo'luvchi sathi yaqin (1–3 m.) grunt suvlari ta'sirida hosil bo'ladi.

**O'tloqchilik** – pichanzor va yaylov xo'jaligini yuritish tizimi; qishloq xo'jaligining bir tarmog'i.

**O'tlov** – *ayn. o'tloq.* *Qo'rada bandilardan boshqa jonzot qolmagan, qo'ylar o'tlovga haydalgan edi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**O'tomoch** – *esk.* Traktor. *Qirlarimda o'ynagan o'tomochlar...* (Mirtemir).

**O'tov** – *ko'chma.* Uy, turar joy; ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi xalqlarning asosiy turar joyi. Yengil xomashyo (asosan, yog'och)lardan konussimon shaklda yasaladi: aylana shakldagi panjara devor va tepa qismdan iborat bo'lib, ustidan kigiz bilan yopiladi.

**O'toq** – ekin va ko'chatlar orasidagi begona o'tlarni yulib tashlash. Mexanik, kimyoviy vositalar va qo'l bilan amalga oshiriladi. *Sabzi o'toq. Sholi o'toq. G'oz o'tog'iga chiqqan Oyshaxon kechki payt boshiga bir bog' o't qo'yib uylariga qaytdi.* (P. Qodirov, «Erk»). *Har yili paxtaga ham, yaganaga ham, pillaga ham, o'toqqa ham olib chiqishaveradi.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**O'toqchi** – o'toq qiluvchi kishi. *Rahim o'toqchilarga choy, non, gazetalar yetkazib berib turishi, ular dam olganda, kiyimlar va asboblarga qorovullik qilishi kerak edi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**O'txo'r** – o't, ko'katni suyib yeydigan. *O'txo'r hayvonlar.*

**O't-o'lan** – har xil o'tlar, ko'katlar. *Rota bir qator bo'lib so'qmoqdan baland o'sgan o'to'lanlar orasida goh ko'rinib, goh ko'rinmay ketmoqda edi.* (A. Qahhor, «Oltin yulduz»).

**O'tmishdosh ekin** – almashlab ekish tizimida asosiy ekindan bir yil oldin ekilgan qishloq xo'jalik ekini.

**O'tqazmoq** – 1. Kimsaning o'tirishi uchun joy bermoq, o'tirishga ko'maklashmoq. Gilamga o'tqazmoq. *Divanga o'tqazmoq. Zaynab oyog'i olti, qo'li yetti holda erini to'rt qavat ko'rpacha ustiga o'tqazib, yoniga uchta paryostiqli uydi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Ekmoq (ko'chat, qalamcha haqida).

**O'ydim-chuqur** – ayn. **O'nqircho'nqir**. *G'ulomjon allaqachon qishloqdan chiqib, o'ydim-chuqur shahar yo'lida yolg'iz borar edi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o»). *Trevoga e'lon qilinishi bilan soldatlar daraxt panalariga, o'ydim-chuqur joylarga o'zlarini oldilar, butun kolonna yerga yotdi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Mana shu kuchlarining uzoq muddat harakat qilishi natijasida tog'lar yemirildi. Daralar, jarliklar, o'ydim-chuqurlar paydo bo'ldi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**O'zak** – 1. O'simlik poyasi va ildizining ko'pincha yumshoq to'qimadan iborat bo'ladigan ichki qismi. *Tolning o'zagi.*

2. Ildizmevaning (yog'och o'zagiga o'xshash) o'rta qismi. *Sabzining o'zagi.*

**O'zan** – 1. Suv oqib o'tadigan uzun chuqurlik; suv yo'li. *Daryo vodiysining eng past, suv oqadigan, hatto suv qaytish davrida ham oqim bo'ladigan qismi. Endi o'zandan bu yoqqa ariq chiqarish va hovuz qazish kerak edi.* (P. Qodirov,

«Qadrim»). *[Jamolning] ko'z oldida egri-bugri Chirchiq o'zani. Undan narida – Zarafshon daryosining eski o'zanlari ko'p.* (P. G'ulomov, «Zarafshon etaklarida»). *U suv yuvgan taqir o'zandan borar ekan, chakalakzordagi butazordardan asar qolmaganiga gumon qilmasdi.* (R. Rahmonov, «Changalzordagi sharpa»). *Yig'inimiz oddiy kunda emas, kanal o'zaniga birinchi ketmon urilgan kunning o'ttiz yilligi arafasida bo'ladi.* («O'zbekiston qo'riqlari»).

2 *ko'chma*. Biror davomli narsaning muayyan yo'li. *Yo'q, hayotni jo'nlashtirib bo'lmaydi. U o'zining chigal, murakkab o'zanlari bo'ylab oqadi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Ashurmirzo parvo qilmay, gap o'zanidan chiqmadi.* (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o»).

**O'zg'ir** – 1. Hammadan o'zib ketuvchi, o'zag'on. *O'zg'ir ot.*

2 *ko'chma*. Ilg'or, zarbdor. *Birday suluvsiz ikkovlon, Paxtazorim o'zg'irlari.* (Mirtemir).

**O'g'ir** – o'rtasida qo'l bilan tutadigan teshigi bor dasta hamda donni urib tuyish, ezib maydalash uchun ishlatiladigan ichi o'yiqlik g'oladan iborat ro'zg'or buyumi; keli. *O'g'ir dasta. O'g'irda bug'doy yanchmoq. Bahri hovli etagida, o'z hujrasi oldida o'g'ir yanchayotgan edi.* (H. G'ulom, «Mash'al»).

**O'g'itlamoq** – yerni o'g'it bilan ta'minlamoq, o'g'it solmoq. *Kartalarni ketma-ket o'g'itlab, kultivatsiya qilavering, izma-iz sug'oring.* (H. G'ulom, «Senga intilaman»).

**O'g'it** – yerning kuchini, hosildorligini orttirish uchun solinadigan, tarkibida o'simliklar uchun zarur oziq elementlari bo'lgan moddalar. *Mineral o'g'it.*

*Dehqonlar bo'rondan so'ng g'o'zalarni diqqat bilan ko'zdan kechirdilar-u, darhol o'g'it solib, kultivatsiya qilib, sug'orish lozim, degan qarorga keldilar. (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). Paxta uchun hammasi ham zarur, o'g'it ham zarur. (Uyg'un, «Navbahor»). Mahalliy o'g'it. Go'ng va chiqindilardan iborat o'g'it. ...chollarning kuchi bilan kechalari mahalliy o'g'it to'platib, dalaga sepib turdilar. (I. Rahim, «Chin*

*muhabbat»). Yuragida o'g'iti bor kam qo'll. G'ayrat-shijoatli, ishchan odam haqida. Yuragida o'g'iti bor yigit. Yuragida O'rinboy otaning o'g'iti bor-da! (Oybek, «Quyosh qoraymas»).*

**O'g'itlagich** – q.x. O'g'it sochuvchi moslama. *Ekish vaqti kelganda esa traktorga kultivator-o'g'itlagich agregati bilan seyalkani tirkadim. (Sh. G'ulomov, «Tashabbus»).*

## G'

**G'ajir** – o'limtiklar bilan ovqatlana-digan, burgut kabi katta yirtqich qush. *Shirinni bog'ladi tog'ning toshiga, G'ajir ega bo'lar, dedi loshiga. («Shirin va Shakar».) Har o'likka quzg'un tushib, G'ajir qo'nib tortqilashib, Tortishdi maydon ichinda. («Ravshan».)*

**G'aladon** [a. + f. – g'alla idishi, don saqlanadigan joy] – 1. Omborda g'alla (don, un) saqlash uchun atrofi o'ralgan joy. *To'xta oxun oshxona eshigining chap biqinidagi so'rida, kattakon g'aladon yonida o'tirardi. (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o»).*

2. Stol, javon va sh.k. larning narsa solib qo'yiladigan tortmasi, yashigi. *Kitob javonining pastki g'aladoniga doim eng kerakli hujjatlarini qo'yardi. (D. Nuriy, «Osmon ustuni»). Professor stol g'aladonidan gazeta olib, ikkala ayolning tumshug'i tagida silkitdi. (J. Abdullaxonov, «Oriyat»).*

3. Pul yoki mayda buyumlar saqlash uchun xizmat qiladigan yashik, quticha. *G'aladonni hisoblab ko'rsam, olti tanga bir miri bo'пти. (G'. G'ulom, «Shum bola»).*

**G'aladonli** – g'aladoni bor, g'aladonga ega. *Katta, g'aladonli stolda o'sha eski siyohdon. (A. Muxtor, «Opa-singillar»).*

**G'alla ekinlari** – doni uchun ekiladigan boshqoqli ekinlar (bug'doy, arpa, javdar, sholi, oq jo'xori, sulji va b.).

**G'alla** [a. – daromad; o'rim, hosil; don, g'alla] – boshqoqli ekinlar hosili; don. *G'alla tayyorlash punkti. G'alla ombori. G'alla hamisha eng qimmatli oziq-ovqat, barcha noz-ne'matlarning mezonini bo'lib kelgan. (Gazetadan). O'g'lining mashinasiga goh sabzavot, goh meva-cheva ortib, shaharga tushib kelar, goh g'alla ortib qaytardi. (S. Zunnunova, «Olov»).*

**G'allazor** [a. + f. – g'alla ekilgan dala, maydon] – g'alla (don) ekin(lar)i ekilgan maydon, yer. *Bir vaqtlar suvsizlikdan tors-tors yorilib ketgan dashtlarda endilikda hadsiz g'allazorlar shovullab yotibdi. (Sh. Rashidov, «Yangi yer haqida so'z»).*

**G'allakor** [a. + f. – g'alla, don yetishtiruvchi] – 1. Don yetishtirish ishi bilan shug'ullanuvchi dehqon. *O'ktam g'allakorlar qo'shxonasiga shom qo-*



rong'isida qaytdi. (Oybek, «O.v. shabalar»).

2. Don, g'alla yetishtiriladigan. *G'al-lakor xo'jaliklar. Rixsivoy aka ko'p vaq-tini g'allakor brigadalarda o'tkazadi.* (R. Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»).

**G'allakorlik** – g'alla ekinlari ekib, g'alla yetishtirish. *G'allakorlik xo'jaligi. G'allakorlik bilan shug'ullanmoq. G'al-lakorlikni rivojlantirmoq.*

**G'allasimon** – g'alla o'simligi kabi boshqoq chiqaradigan, g'alla o'simliklariga o'xshagan. *G'allasimon o'tlar.*

**G'allaxona** [g'alla + xona] – don ombori. *G'allaxonaga don to'ldirmoq.*

**G'allachilik** – ayn. **G'allakorlik.** ...*arpa va bug'doy respublikamiz g'alla-chiligining asosiy negizini tashkil etadi.* (Gazetadan).

**G'altak** [f. – g'ildirak, chig'ir, jo'va; rolik; mola] – 1. Ip, sim, lenta kabi uzun narsalarni o'rab joylash uchun moslangan buyum. *Plyonka g'altagi. G'altakka o'ralgan ip. Simni g'altakka o'ramoq.*

2 *tex.* Arqon, sim, zanjir vositasida og'irlikni ko'tarish, narsalarni siljitish uchun xizmat qiladigan qurilma: blok.

3. Elektrotexnika va radiotexnikada maxsus sim o'rami.

4 *s.t.* Biror narsani tekislash, silliqlash yoki devorlarga gul solish uchun ishlatiladigan, o'qqa o'rnatilgan g'altaksimon moslama. *G'altak bilan devorlarga gul solmoq. Oynaga yopishtirilgan fotorasm-lar suvini g'altak bilan sidirmoq.*

5. Ba'zi qurilma, moslamalarning aylantiriladigan qismi.

6 *s.t.* Zambilg'altak. *Yer qazish, zambar ko'tarish, og'ir g'altakni surish Po'lat uchun tanish ishlar.* (Sh. Rashidov, «Qudratli to'lqin»).

**G'altakmola** – q.x. Sudralganda yumalab, shudgorni tekislaydigan, mola o'rnida ishlatiladigan yog'och g'o'la.

**G'alvir** [f. < a. – katta sim elak, g'alvir] – don elanadigan, siyrak to'rli katta elak. *Jo'xorini qo'shnilarning o'teshaklari va qishloq bolalarining yor-damlari bilan yanchib, g'alvirda elab oldim.* (S. Ayniy, «Esdaliklar»). *Tovuq so-mon to'ldirilgan g'alvirga bag'rini berib, unga qarab, ko'zlarini mo'ltaytirayapti.* (S. Ahmad, «La'li Badaxshon»).

**G'aram** – beda, pichan va sh.k. ning to'plangan uyumi. *Pichan g'arami. Beda g'arami. Bir g'aram g'o'zapoya. Punktdagi paxta g'aramiga yaxshilab qarayman desang, boshingdan do'pping tushib ketadi.* (H. Nuriy, «Raisning orzu-si»). *Goh u qishloqda, goh bu qishloq-da kambag'allar qo'zg'alib, boylarning g'aramlariga o't qo'yishar edi.* (M. Ismoilij, «Farg'ona t.o.»).

**G'aram qilmoq** – ayn. **g'aramlamoq.** *O'rmon yonida, g'aram qilib qo'yilgan poxol oldida yuk ortilgan arava turardi.* (M. Muhamedov, «Qahramon izidan»).

**G'aramlagich** – q.x. Poxol, pichan, paxta va sh.k. ni g'aramlaydigan mashina, g'aramlash mashinasi.

**G'aramlamoq** – g'aram holatga olmoq; g'aram qilmoq. *Pichanni g'aramlamoq. G'o'zapoya g'aramlamoq. Dastavval sero't yaylovlarni tanlaymiz va bu yaylovlardagi tabiiy o'tlarni yetil-tirib, so'ngra o'rib g'aramlaymiz.* (Gazetadan).

**G'arov** – poyasi qattiq va bo'g'im-bo'g'im, ichi kovak, qamishga o'xshash tropik o'simlik; bambuk.

**G'arqob** [f. – suv aylanishi, girdob] – kam qo'll. 1. ayn. **Girdob.**

2 *ko'chma*. Biror hodisa, jarayon davrasida, qamrovida, ta'sirida bo'lish. *Xayollarga g'arqob bo'lib, yonboshlab yotib edim.* (T.Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**G'arg'ara II** – maxs. 1. Arqon yoki zanjir yordamida biror narsani tortish, ko'tarish uchun xizmat qiladigan moslama, o'qqa o'rnatilgan g'altak; chig'ir. *Qo'ra yaqiniga qazilib, ustiga g'arg'ara o'tqazilgan bir quduq u yerdagilarning suv manbai edi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

2. Katta charx, devcharx; charxli dastgoh. *Pillakash pilla ipining uchini topib, bir-biriga chirmashib ketgan pilla ipini, g'arg'araga o'rnatilgan dudga o'rar edi.* (Gazetadan).

**G'arg'asha** – shamol, oftob, sovuq ta'sirida quruqshagan; g'arg'asha. *Ko'pincha sovuq, nam havoda qo'l g'arg'asha tortadi, yoriladi.* («Saodat».)

**G'aynoli** [f.] – shv. Olxo'ri. *Oq o'rik, shotut, shaftoli va g'aynolining sap-sariq yaproqlari hovli betini ko'mib yotibdi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Olma qator orasida shaftoli, g'aynoli singari meva beradigan daraxt o'tqaziladi.* (Gazetadan).

**G'azol** [a. – kiyik, ohu] – kiyiklar oilasiga mansub chiroyli, juda chopqir hayvon; g'izol, ohu.

**G'isha** – qamishga o'xshab o'sadigan, ammo poyasining ichi g'ovak bo'lmaydigan o'simlik; savag'ich. *G'isha – savag'ich, qamishga qaraganda u boshqacha o'sadi. Qamish bir-biriga tutashib, to'qay bo'lib ketsa, savag'ich xuddi sadaga o'xshab, har yer-har yerdan to'p-to'p qaynab chiqadi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**G'izo** [a. – ovqat, oziq, taom, yegulik] – esk. kt. Ovqat, oziq, yemish. *Muqi-*

*miy keyingi haftalarda ortiq injiqlashib, Qo'qonga qaytib borishdan umidini uzgandek, hatto do'stlarini ham, o'g'lini ham yodlamay qo'ygan, kam zavq, kam g'izo bo'lib qolgan edi.* (S. Abdulla, «Quvg'inda»). *Oshiqlar g'izosi bu oqshom visol, Tashnalik davosi labdagi zilol.* (E. Vohidov, «To'y oqshomi»). *Bir payt g'izo izlagan echkidek, qoratog' qarg'asi uchib kelib, chinor shoxiga qo'ndi.* (N. Yoqubov, «Jon»).

**G'ubor** [a. – gard, chang, to'zon] – 1. Chang, to'zon kabilardan havoda saqlangan yoki narsa sathiga ingan mayda zarralar; gard. *Do'l shunday shiddat bilan yog'ardiki, go'yo yerdan chang ko'tarilib, havoni g'ubor bosdi, Kunduz qorong'ilashdi.* (N. Safarov, «Olovli izlar»).

2. Umuman, tiniqlik, ravshanlikni buzuvchi, xira qiluvchi (xiralashtiruvchi) zarralar.

3 maxs. Changsimon dog', kul (o'simliklar kasalligi). *...novdalarda ham, xuddi barglardagi singari, kulrang g'ubor paydo bo'ladi.* (Gazetadan).

**G'udda** [a. – bez; shish, g'urra] – odam, hayvon yoki o'simlik a'zosining, narsaning biror joyida bo'rtib chiqqan shish, bo'rtiq, qabariq. *Uning qoshlari salgina chimirilib, peshonasining o'rtasi g'udda bo'ldi.* (S. Anorboyev, «Ham-suhbatlar»). *Sigir tilidagi g'udda-g'udda qora narsalarni ko'rib, hayron bo'ldik.* (A. Mirahmedov, «Kulgan chechaklar»).

**G'uj** – bir-biriga yaqin yoki tegib joy olgan; to'p, to'da holatli. *G'uj uzum. G'uj yulduzlar. G'uj qilmoq. Birinchi sentabr, tongotar chog'i Havoda g'uj kaptar qiladi parvoz.* (G'.G'ulom).

**G'ujlamoq** – bir joyga to'plamoq, g'uj qilmoq. *Qo'ylarni bir burchakka g'ujlamoq.*

**G'ujum** – 1. Uzum donasi yoki shingili. *Uning so'ziga qaraganda, uzumning har boshi to'rvadek va g'ujumlari tutning donasidek zich bo'lishi kerak.* (A. Qahhor, «Ikki yorti – bir butun»).

2 shv. G'uj, to'p.

**G'ujumlamoq** – uzum boshidan bita-bitta (donalab) yoki shingillab uzmoq. Uzumni g'ujumlamoq.

**G'ujur I** – shv. G'ayrat. *Karimning o'zini urib ketgan, tanasida g'ujuri yo'q. Erkak degan ham shunaqa ammamning buzog'i bo'ladimi?* (M. Hazratqulov, «Jur'at»).

**G'unajin** – 2 yoshdan oshgan urg'ochi qoramol. 16 oylikdan 20 oylikkacha bo'lgan buzoq, ko'zdan kechirilganda yoki rektal tekshirilganda bo'g'ozlik belgilari sezilib turadi; yoshi molning zotiga va qay darajada individual rivojlanganligiga bog'liq.

**G'uncha** [f. – kurtak, shona; lab, dudoq] – 1. Hali ochilmagan, gulbarglari hali yozilmagan gul. O'simlikning gul kurtagi. *Kechqurun [bulbul] gul g'unchasini ko'radi-yu, ishqida oshig'ushaydo bo'lib sayray beradi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»). *Qirlardan esayotgan mayin shabada ana shu gullarning g'unchalarini yozmoqda.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni Kapalak umriga qiyos etgulik.* (G'. G'ulom).

2 ko'chma. Biror hodisaning endigina boshlanayotgan payti, boshlanishi. *Shubha ichida qizargan muhabbat g'unchasi visol xabari bilan ochilayozgandek edi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»). Mu-

*rabbiy bola qalbida nish ura boshlagan umid g'unchalarining mehribon sohibidir.* (R. Usmonov, «Odobnoma»).

**G'unchalamoq** – g'uncha paydo qilmoq, g'uncha chiqarmoq (to'g'ri va ko'chma ma'noda). Ajoyib bog'. *Tartib bilan o'tqazilgan meva daraxtlari gullarga burkangan. Toklar barg yozgan, gullar g'unchalab yotibdi.* (Gazetadan). *Yoshlik – bu hamisha yangilanish, bunyodkorlik, har lahzada ming bir orzuning g'unchalamoq faslidir.* (Gazetadan).

**G'umay** – bot. Boshqodoshlarga mansub, qiyoq bargli, ildizidan tez ko'payadigan ko'p yillik begona o't. *Ko'korol paxtazori g'umay, qiyoq, pechak kabi o'tlardan tozalanib bo'layozdi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»). *Onda-sonda uchraydigan g'umay va ajriq ildizlarini qo'l bilan terib olamiz.* (Gazetadan).

**G'umbak** – ba'zi hasharotlar rivojlanişida qurtdan to'liq shakllanish, ya'ni kapalakka yoki pashshaga aylanish bosqichi va hasharotning shu bosqichdagi holati. *Pashsha va uning g'umbaklariga juda tez ta'sir etadigan kimyoviy moddalar ishlab chiqarildi.* (Gazetadan).

**G'urra** [a. – otning oq qashqasi; gajak, kokil] – peshona yoki boshda hosil bo'lgan qattiq shish. *Peshonamni ham g'urra qildi-ya, ertagacha g'urra yozilib ketsa go'rga edi, shu turq-u tarovat bilan odamlarga qanday ko'rinaman.* (S. Ahmad, «Hukm»).

**G'o'la** [f. – dev; juda katta, ulkan] – 1. Daraxt tanasi yoki xodadan kesib olingan bo'lak.

2. G'o'laga o'xshash, yo'g'on. *Uning dallol qarindoshi savatday sallasini olib qo'yib, qo'nji bir qarich, qurushqoq mahsili, qo'pol g'o'la oyoqlarini uzatdi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»).

3. Kichik yumaloq shaklli g'o'lak. *O'q o'rnida sog' loyni no'xatdek-no'xatdek g'o'la qilib, og'ziga solardi-da, tuppakni nishonga to'g'rilab, «tuf» desa, mo'ljalga olingan parranda to'p-to'p yerga tushaverardi.* (Shukrullo, «Javohirlar sandig'i»). *Keyin [tutni] quritib, g'o'la qilib olishdi.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»).

**G'o'non** – ikki yashar ayg'ir yoki qo'chqor. *G'o'nonga egar urmoq. G'o'nonni sug'ormoq. Qudalarning ziyofati uchun kerak bo'lgan hamma narsalarni ham hozirlatgan, ular kelib tushdi deguncha, bo'g'izlatish uchun deb bir g'o'non qo'yni og'ilning ustuniga qantarib qo'ygan edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

**G'on** – q.x. Ipak qurti boqilgan so'kichakda qurt yegandan qolgan barg va axlatlar.

**G'o'r** [f. – xom, pishmagan uzum] – 1. Pishib yetilmagan, xom (ho'l meva, qovun-tarvuz va sh.k. lar haqida). *G'o'r uzum. G'o'r olma. – Yo'q, [qovun] g'o'rroq chiqdi, o'zingiznikini so'ying, – dedi Komila, chindan ranjib.* (Oybek, «O.v.shabadalar»).

2 *ko'chma.* Qiyomiga yetkazilmagan, pishiq ishlanmagan, xom. *G'o'r asar. G'o'r she'r.*

3 *ko'chma.* Hayot tajribasi kam, turmush qiyinchiliklarini ko'rmagan. *G'o'r bola.*

**G'o'ra** [f. – pishmagan, xom uzum yoki boshqa meva] – 1. O'rikning pishib yetilmagan mevasi, dovuchcha. *Bahor edi. O'riklar gulini to'kkan, g'o'ralar qinidan chiqib, yesa og'iz maza topadigan bo'lib qolgan.* (Oydin, «Sadag'ang bo'lay, komandir»). *Toshxo'ja qayoqqa ketayotganini ham unutdi shekilli,*

*sho'xligi tutib, shoxlari devordan oshib yotgan o'rikdan bir hovuch g'o'ra sidi-rib, og'ziga soldi.* (A. Muxtor, «Chinor»). *Suvonjon og'zidagi g'o'rani u lunjidan bu lunjiga o'tkazarkan, hayron qoldi. Yong'oqda o'rik bitmaydi-ku?* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2. Umuman, pishib yetilmagan meva, g'o'r meva. *Olcha g'o'rasi. Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar.* (Maqol). *Tok gullab bo'lganidan keyin, gullar g'o'raga aylanganda o'tkaziladigan ikkinchi xomtokni esa g'o'ra xomtok deyiladi.* (M. Sobirov, «Xomtok»).

3 *ko'chma. ayn. G'o'r* 3. *Qutulish tadbirini izlab turganda, g'o'ra qiz yangi ta'na, yangi o'pka bilan yigit yuragini tirnardi.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»). *Nurmat hali pishmagan – g'o'ra, Yetgani yo'q hali tobiga.* (D. Fayziy).

**G'o'ralamoq** – g'o'ra hosil qilmoq, meva tugmoq. *Bog'dagi toklar zangidan bargigacha shovul-shovul sho'ralabdi, o'riklar-chi, shoxi to'la g'o'ralabdi. Kambag'alning kuni tug'ibdi.* (Y. Shukurov, «Uch savol»).

**G'o'ralik** – g'o'ra holat. *Men uni [o'rikni] pishgunicha qo'ymay, g'o'raligidayoq tamomlayman.* (Sh. Sulaymon, «Ota, o'g'il»).

**G'o'rlik** – g'o'r holat, g'o'r ekanlik; «xomlik». Mevaning g'o'rliigi. *Shu bilan Saidiyning g'o'rliigi natijasida tug'ilgan xavf bosildi.* (A. Qahhor, «Sarob»). – *Ke-chiring, mendan ko'p g'o'rlik o'tdi, – dedi Nafisa.* (Sh. G'ulomov, «Yorqin ufqlar»).

**G'o'r-sho'r** – pishmagan, xom, g'o'r mevalar. *G'o'r-sho'rni ko'p yema.*

**G'o'rasha** – yaxshi ishlov berilmagan, mayin holga kelmagan, dag'al

(tuproq, loy haqida). G'orasha loy. – *Chigitni quyoshda qizitib eksak, tuproq g'orasha bo'lmasa bas, – dedi so'zini ma'qullatib Xadichaxon.* (N. Safarov, «Xadicha Ahrorova»). *Yerlarimiz kechagina g'umay, tikan, yantoq bosib yotgan qaqir, g'orasha yerlar edi.* (M. Ismoiliiy, «Ikki qiz hikoyasi»).

**G'ovak – 1.** Ichi bo'sh; kovak-kovak, g'alvirak. *G'ovak yog'och. G'ovak tog' jinsi. Metallning g'ovak joylari. Qamish poyasining ichi kovak bo'ladi. Bo'z yerda, necha ming yillardan beri ko'ksidan suv dumalamagan g'ovak yer-suv bosish bilan cho'kib, halqob bo'lib qola boshlaydi.* (Sh. G'ulomov, «Baxt bo'stoniga»).

2 ko'chma. Ichi, zamini bo'sh.

**G'ovlamoq – 1.** Hosili yaxshi bo'lmay, o'sishi kuchaymoq; ortiq darajada bo'yiga o'smoq. *Sal ehtiyotsizlikka yo'l qo'ysak, g'ozga g'ovlab, hosilni boy berib qo'yishimiz turgan gap.* («O'zbekiston qo'riqlari».)

2 ko'chma. Avjlanmoq, kuchaymoq, zo'raymoq (odatda, salbiy narsa-hodisalariga nisbatan qo'llanadi).

**G'ovush, g'uvush – shv.** Jo'xorining ko'k poyasi; mollar uchun ekilgan jo'xori. *Bostirmaga bostirganim g'ovushdi(r), Oyog'ingda amirkoni kavushdi(r).* («Folklor».) *Bo'ron tomlardagi g'ovush va beda g'aramlarini uchirdi.* (E. Samandar, «Tangri qudug'i»).

**G'oz, xonaki g'oz – o'rdaksimonlar** oilasiga mansub parranda turi. Asosan, go'shti uchun boqiladi (go'shti tarkibida 16% oqsil, 35% ga yaqin yog' bor).

**G'ozga biti, poliz biti** (*Aphis gossypi Glov.*) – tengqanotli xartumlilar turkumi. O'simlik bitlari oilasiga mansub hasharot. Barcha paxta ekiladigan mamlakat-

larda tarqalgan. Qishlov davrida ularning ko'pchiligi nobud bo'ladi, bahorgacha juda kam qoladi.

**G'ozga gommozi – q. Gommoz.**

**G'ozga ildiz biti** (*Triphidaphis phaseoli Pass*) – *Aphidigae* oilasiga mansub qanotsiz hasharot. G'ozga va b. ekinlar zararkunandasi. G'ozga ildiz biti lichinka hamda voyaga yetgan hoida keng bargli begona o'tlar (sho'ra, ituzum va b.) ildizida qishlaydi va bahorda g'ozga maysalariga o'tadi. Lichinkalari o'simlik ildizida kichik-kichik gala bo'lib yashaydi. G'ozga gullaganga qadar uning ildizida hayot kechiradi, ildiz dag'allashgandan so'ng boshqa qishloq xo'jalik ekinlariga o'tadi. Ildizida biti bo'lgan o'simlik rangsizlanadi, so'liydi va ko'pincha nobud bo'ladi. Zararlangan o'simlik atrofidagi chumolilardan g'ozga ildiz biti borligini aniqlash mumkin.

**G'ozga kuyasi, pushtirang qurt** (*Pectinophora gossypiella Saund.*) – o'yiq qanotli kuyalar oilasiga mansub kapalak. Paxta ekiladigan ko'pgina mamlakatlarda tarqalgan; O'zbekistonda tashqi karantin obyekti hisoblanadi. Qurtlar g'ozaning shona, gul va ko'saklari bilan oziqlanadi. G'ozga kuyasi tushganda paxta hosili 60–80% kamayadi.

**G'ozgapoya kuyasi** (*Platyedra villega L.*) – o'yiqqanotli kuyalar oilasiga mansub tur. Zararlangan o'simlik poyasida qurt hoida qishlaydi. Kech ekilib, zaiflangan va o'sishdan orqada qolgan g'ozzalarda, yovvoyi gulxayri chakalaklarida uchraydi.

**G'ozga tunlami, ko'sak qurti** (*Chlorides obsoleta F.* yoki *Heliothis armigera hb.*) – tunlamlar oilasiga mansub kapalak. Paxta ekiladigan mamlakatlarda tar-

qalgan. G' o' za tunlamining qurti 120 dan ortiq o' simlik turini zararlaydi.

**G' o' za** [f. – paxta chanog' i] – 1. Chigitdan unib chiqib, paxta hosili (tolasi) beradigan, gulxayridoshlar oilasiga mansub bir yillik madaniy o' simlik, paxta o' simligi. *G' o' za chopig' i. G' o' zaga suv taramoq. G' o' zani parvarish qilmoq. Bir dona chigitdan o' ttiz-qirg ko' sakli g' o' za unib chiqadi.* (Tuyg' un, «Brigadir»). *Bo' yi yerdan to' rt barmoq ko' tarilgan g' o' za oralariga yoyilgan xotin-qizlar, gulga qo' ngan asalaridek, g' ayrat bilan ishlamoqda.* (S. Ayniy, «Qullar»).

2 esk. ayn. **Ko' sak.** *Onam sandalda o' tirib, g' o' za chuvir, men kitob o' qir edim.* (M. Ismoilii, «Farg' ona t.o»). *Sandalning bir chekkasida g' o' za chuvib o' ltiruvchi bir kekxa ko' r kishi qo' lidagi g' o' zapo' choq va sug' urgan paxtasi bilan boshini baland ko' tarib, hovlidagi so' zga quloq solib turadi.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»).

3 s.t. Shu o' simlik hosili, paxta. *Bu yilgi tergan g' o' za, Bulturgilardan toza. Planlar yuzga yetsa, Dunyo to' la ovoza.* («Qo' shiqlar»).

**Kampirning dardi g' o' zada** – s.t. ayn. **Kampirning dardi g' ozada** [q. g' oza]. *Kampirning dardi g' o' zada, deganlariday boy amakim ham amirning kelishini istaydilar.* (S. Ayniy, «Doxunda»).

**G' o' zapoya** [f. – paxtasi terib olingan g' o' za novdalari] – hosili terib olingan g' o' za o' simligining poyasi. ...yo' lning ikki tomonida quruq g' o' zapoyasi qolgan, ba' zi joylarda g' o' zapoyasi ham yulini b yalang' ochlangan yerlar... (Cho' lpon, «Kecha va Kunduz»).

**G' o' zapo' choq** – paxtasi sug' urib olingan bo' sh ko' sak; qovochoq. *G' ozi*

*g' o' zapo' choq uyumidan oshib tushib, Umaralining oldiga keldi.* (I. Rahim, «Hayot buloqlari»).

**G' o' zapo' choq ro' mol** – g' o' zapo' chog' i shaklida qavariq naqsh solib to' qilgan ipak ro' mol. *U ariqda naridan-beri qo' llarini yuvdi-da, tokchaga taxlab qo' ygan g' o' zapo' choq ro' molini olib chiqdi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**G' o' zafurush** [f. – g' o' za sotuvchi, paxtafurush] – tar. Paxtani olib sotuvchi savdogar, paxtafurush. *Turobboyning otasi Ziyamat aka g' o' zafurush edi.* (G' .G' ulom, «Shum bola»).

**G' o' zachanoq** – ko' sakni tashkil etuvchi palla yoki chanoqlarning har biri.

**G' o' zachanoq qilmoq** – biror narsani g' o' za chanog' iga o' xshatib kesmoq, bo' lmoq. *Dasturxonda endigina g' o' zachanoq qilib so' yib qo' yilgan anor donalari haqiqday yaltiraydi.* (Y. Shamsharov, «Dovruq»).

**G' oz I** – 1. Yovvoyi yoki xonakilashtirilgan, bo' yni uzun, suvda suzuvchi yirik qush. *Anavi To' laganning erkato-yi! Minaman, deb g' ozlarni quvlagani-quvlagan.* (A. Qahhor, «Og' riq tishlar»). *Ko' klam keldi, uchib o' tdi g' oz-u turalar.* (G' .G' ulom). *Sohilida chayqalar qamish. Uchib o' tar ba' zan o' rdak, g' oz.* (Y. Mirzo).

2 ko' chma. Gavdani tik ko' targan holda: tik turib; tikka. *Gavdani g' oz tutmoq. U g' oz yurib chiqib ketdi.*

**G' oz III** – s.t. Kuch-quvvat, kaloriya. *G' ozi yo' q ovqat. Oftobda turib, o' g' itning g' ozi qolmapti.*

**G' ozkaptar** – botqoqlarda, suv bo' yida yashaydigan kichkina suv qushi.

**G' ozoyoq** – bot. Soyabongullilar oilasiga mansub, sug' oriladigan ekinlar orasida o' sadigan ikki yillik begona o' t.

**G'ozpanja** – bot. Ra'nodoshlar oilasiga mansub, tog' yonbag'irlarida, daryo bo'ylaridagi tashlandiq yerlarda o'sadigan bir va ikki yillik begona o't.

**G'ozyaproq** – bot. Ra'nodoshlarga mansub, tog' zonasidagi zax yerlar, daryo va soylar bo'ylarida o'sadigan ko'p yillik ildizpoyali o'simlik.

## Sh

**Shabada** – yengil, mayin shamol. *Subhidam shabadasi. Oqshom shabadasi. Bahor shabadasi. Tongchog'i, havo ochiq, oftob hali chiqmagan. Lekin yulduzlar ko'rinmaydi, yoqimli shabada esmoqda.* (S. Ayniy, «Doxunda»). *Bir ozdan keyin Amudaryo tomondan esgan salqin shabada bo'g'iq havoni tarqatib yubordi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). **Ko'kragiga shabada tegmoq** ayn. **Ko'kragiga shamol tegmoq** (q. shamol.) *Yuragi sog' odamlarni ko'rsangiz, ko'kragingizga shabada tegsa, butkul tuzalib ketsangiz ajab emas.* (A. Qahhor, «Ming bir jon»).

**Shabdar, eron se bargasi** (*Trifolium resupinatum* L.) – dukkakdoshlar oilasiga mansub, bir yillik o'tsimon o'simlik turi, yem-xashak ekini. Bolqon yarim orolida, Italiya, Shimoliy Amerika, Afg'oniston, Eron, Ozarbayjon va Qrimda yovvoyi holda o'sadi. Shabdar yem-xashak uchun hamda sideratsiya (ko'kat o'g'it) sifatida Yevropaning janubida, Amerika, Afrika, G'arbiy Osiyo, Janubiy Amerikada, Markaziy Osiyoda ekiladi. Yem-xashak bo'lish jihatidan shabdar dukkakdosh o'tlar ichida oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Uning poyalari, urug'lari pishib yetilganda ham dag'allashmaydi; pichani juda xushbo'y, oziq moddalarga boy bo'ladi. Shabdar kuzgi va qishki ekin sifatida sentabr-oktabr oylarida ekiladi. Kuzda ekilganda uni ikki marta

o'rish mumkin. Markaziy Osiyo sharoitida sug'orib turilsa, gektaridan 50–100 s pichan beradi.

**Shabdor** [f.] – yo'ng'ichqaning bir turi.

**Shablon I** [*nem. Schablone* – andoza, namuna] – *tex.* Biror narsaning qolipi; andoza. Shablon yasamoq. *Chigit seyal-kalarini sozlash uchun yaratilgan «PS-56» shabloni respublika sanoati tomonidan bir necha yuz dona ishlab chiqarildi.* (Gazetadan).

**Shabnam** – ayn. shabnam. *Ertasiga oftob go'yo tong shudringida yuvilib, kechagi chang-to'zondan tozalanib chiqdi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Barglarga shudringingan, Havo qimizday tingan.* (S. Akbariy).

**Shabnamlanmoq** – shabnam bilan qoplanmoq, yuziga shabnam tushmoq. *Yoqut ko'zli oltin uzuk bilan porlasa Kellingin xinalangan nozik barmog'i, Chanqoq-chanqoq termulishlar – birinchi bo'sa Shablanmasa se barganing toza yaprog'i.* (G'.G'ulom).

**Shabparak** [f. – tunda uchuvchi] – *esk. kt. ayn. Ko'rshapalak. Kunduzdan so'radim: – Muxolifing kim? Dediki: Shabparak, boyo'g'li, bo'ri.* (M. Shayxzoda).

**Shaftoli** [f.] – issiq joylarda, janubda o'sadigan, pushti gulli, uzunchoq bargli daraxt va uning mevasi. *Oq o'rik, shotut, shaftoli va g'aynolining sap-sariq*

yaproqlari hovli betini ko'mib yotibdi. (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Muyassar shaftolining tepasida, Gulchehra esa shaftolilarga etagini tutib turibdi.* (O. Yoqubov «Er boshiga ish tushsa»).

**Shaftolizor** – shaftoli ekilgan maydon. *Shaftolizor bog'larni ko'rdim. Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim.* (H. Olimjon).

**Shaftoliqoqi** – danagini olib tashlab quritilgan shaftoli.

**Shagren** [fr. *chagrin* – f. < t. *sag'ri*] – 1. Qo'y, echki, ot terilaridan tayyorlangan, g'adir-budur yumshoq teri. *Shagrendan tikilgan mahsi.*

2 *maxs.* Muqovaga ishlatiladigan qog'oz yoki kolenkor.

**Shahd** [a. – mum aralash asal] – esk. kt. ayn. **Asal.**

**Shahboz** [f. – sariqbosh lochin] – 1 kt. Shunqor; lochin. *Ular [savdogarlar] Ros-siyadan o'q o'tmas, nayza botmas sovut, qalqon, qozon, igna, ovga o'rgatilgan shahboz-lochinlar va h.k. keltirar edilar.* (M. Osim, «Elchilar»). *Biri ko'kda shunqor yo shahboz – lochin, Biri chegarada yurt posboni.* (S. Abdulla).

2 ko'chma. Mard, jasur yigit.

**Shajara** [a. – daraxt; daraxt shaklida tuzilgan sxema] – ma'lum bir urug' avlodlarining kelib chiqishi va o'zaro qarindoshlik darajasini izchillik bilan ko'rsatuvchi ro'yxat, tarix; silsila. *Somoniylar shajarasining so'ngi butog'i bo'lgan podsho Nuh bin Mansur kasalmand odam edi.* (M. Osim, «Kitobga ixlos»). *Shajaramiz bor. Unda barcha ajdodlarimizning tarixi yozilgan.* (A. Hakimov, «Ilon izidan»).

**Shakarak** [f.] – 1. Qovun turlaridan biri. 2. O'simlik biti; shira.

**Shakarangur** [f. – shakarday shirin uzum] – uzumning po'sti yupqa, nimrang, karsillaydigan shirin navi. *Ovqatni yeb bo'lishgach, bir barkashda karsillagan shakarangur, echkemar va shaftoli chiqdi.* (Oybek, «Ulug' yo'l»). *...kampir tayyorlagan dasturxon yoniga o'tirib, husayni, qarsillaydigan shakarangurdan cho'qiladi.* (Mirmuhsin, «Umid»).

**Shakarpalak** [f. + a. – palagi shirin] – sirti serto'r, o'zi seret o'rtapishar qovun navi. *Mahmud yaqindagi polizdan bitta shakarpalak uzib chiqib, yerga qo'ydi-da, Shirmonxonning yetib kelishini kutib turdi.* (S. Zunnunova, «Olov»). *Shakarpalak qovunlar, zilol bodringlar quyosh nurining, tuproqning ajoyib ne'matlari emasmi* (E. Oxunova, «Quyosh – oshpaz»).

**Shakarpoya** [f.] – poyasi shirin poyali! Shakarqamish o'simligining poyasi; shakarqamish.

**Shakarqamish** – qand (shakar) moddali, o'tsimon ko'p yillik o'simliklar turkumi.

**Shalola** [a. – shovva, sharshara] – 1. Suvning yuqoridan tik pastlikka shiddat bilan quyilib tushadigan joyi; shunday otilib tushayotgan suv; shovva. *Yuqoridan jarlik tubiga otiluvchi shalola sherday o'kiradi.* (H. G'ulom, «Toshkentliklar»).

2 *shv.* Daryo, jilg'a suvlarining toshlarga urilib, shovullab oqadigan joyi. *Bog', qo'rg'onlar orqada qolgach, Oqsoy bo'yiga chiqiladi. Quloqni bitiruvchi shalola boshlanadi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

3 *tex.* Bir daryo oqimida joylashgan va suv sarfi bo'yicha o'zaro bog'liq bir necha gidroelektrstansiyadan biri. *Be-*



*shinchi shalolani Abdusamad aka o'z kol-xozchilari bilan qurmoqda.* (Y. Shamsharov, «Toshqin»).

**Shaltoq** – 1. Siydik aralash go'ng, balchiq. *Molxona shaltog'i. ...ozg'in, qornidagi shaltog'i qotib yotgan eshakka qaragan edi.* («Yoshlik».)

2. Shunday narsa va loy kabilar bilan ifloslangan; iflos, isqirt. *Bola tanga-ni shaltoq qo'lida mahkam qisganicha, ko'chani changitib, arava orqasidan chopadi.* (Gazetadan).

**Shaltoqxon** – q.x. Shaltoq oqizib qo'yiladigan, shaltoq yig'iladigan joy; chuqurlik.

**Shalhak** – 1. Go'shtdan yoki yog'dan ajratish qiyin bo'lgan yupqa parda. *Go'sht shalagini ajratmoq.*

2. Sifati past, ori, yog'siz go'sht. *Ertagi dumba moydan bugungi shalhak yaxshi.* (Maqol).

**Shamiyon** – omoch bo'yinturug'ining ikki chekkasiga ikkitadan o'rnatilgan, ho'kizlar bo'ynida turish uchun xizmat qiladigan to'rtta qoziq. *Yomon ho'kiz shamiyon sindirar.* (Maqol).

**Shamol** [a. – shimoliy shamol, sovuq shamol] – havoning yer sathi bo'ylab (gorizontal) harakati. *Yoqimli shamol. Sovuq shamol. Qattiq shamol turdi. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r.* (Maqol). *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.* (Maqol). *Ochiq derazadan kirgan mayin shamol qizning ikki tola sochini bo'yniga, tomog'ining tagiga tegizib o'ynardi.* (S. Ahmad, «Bosh og'rig'i»).

**Shamaloq** – g'uj-g'uj yoki to'p-to'p. *Daraxtlar tepasida bolalar shamaloq.* (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Hozir choyxonada odam shamaloq bo'lsa kerak.* (Sh. G'ulomov, «Yorqin ufqlar»). *Ikki*

*tomonda paxta demaganingiz shamaloq bo'lib ochilib yotibdi.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

**Shamshod** [f.] – shamshod ko'chati. Shamshod taroq. **Qomati** (yoki **qaddi**) **shamshod** yoki **shamshod qomat** (yoki qad) *poet.* Qaddi-qomati tik va kelishgan. *Xotin-qiz eliga dard-u balo paranji, Shamshod qadlarini qildi duto paranji.* (G'. G'ulom). Zuhraning shahlo ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi, shamshod qomati tebrandi. (A. Muhiddin, «Chap cho'ntak»).

**Shapaloqgul** – shapaloq bargli, ko'pincha xonada o'stiriladigan gulsapsarning bir turi. *Mana o'sha qizg'ish tuvakdagi shapaloqgul.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»).

**Shaqal** [f. – chiyabo'ri] – ayn. **Chiyabo'ri.** *To'qay tomonda esa shaqallar mash'um ulishardi.* (K. Yashin, «Hamza»). *Tulki, shaqal yeb ketadi go'shingni, Shakarni kuydirdi sening nolishing.* («Shirin bilan Shakar».)

**Shaqshaq** – zool. Chumchuqsimonlar turkumiga mansub yovvoyi sayroqi qush.

**Sharbat** [a. – bir qultum; shirin ichimlik] – 1. Pishib yetilgan ho'l mevalardagi qand moddasi, shirinlik, shira. *Mevalar shira-yu sharbatga to'lmoqda. Xorazm qovunlari shirinligi va sharbati bilan mashhurdir. Qorovul paxta gulli kosada anor sharbati keltirdi.* (S. Siyoyev, «Otlig' ayol»). *...bu yerlarga suv chiqarib, tok ko'kartirilsa, hammayoqni sharbatga to'ldirish mumkin.* (Mirmuh-sin, «Me'mor»). 2. Yangi uzilgan va terilgan meva, rezavor mevalar hamda sabzavotlardan siqib olinadigan shirali suyuqlik, meva suvi. Mevalardan tayyorlangan shirin ichimlik. *Shu lahza Badiya yana o'rnidan turib, aravadagi xumchadan nim kosa sharbat olib keldi.* (Mir-

muhsin, «Me'mor»). [*Behlul*] *Yelkasiga tashlagan dasturxonni yozib, barkashni mehmon oldiga surib qo'ydi, keyin ikki kosada sharbat keltirdi.* (M. Osim, «Zulmat ichra nur»).

**Sharbatdor** – 1. Suvli, shirali, shirin (meva haqida). *Sharbatdor uzum. Bu qishloqda pishgan luchchak shaftoli shunchalik katta, shunchalik sharbatdor bo'lar ekanki...* (G'.G'ulom, «Tirilgan murda»). 2 *esk. tar.* Xon saroyidagi katta yig'inlarda kishilarga may, sharob quyib beruvchi shaxs. – *Xon tayyor ekan. – dedi kulimsirab Qambar sharbatdor.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»). *Sharbatdor chodirdan ichimlik idishlarini olib chiqib ketdi.* (G'. Rasul, «Adolat»).

**Shartnoma** – fuqarolik huquqida ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquq va burchlarini o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi, bitimning turi.

**Sharshara** – baland, tik tepalikdan pastga shovillab oqib tushadigan suv oqimi; shalola. *Oltmish metr balandlikdan otilib tushayotgan sharshara to'foni tagida bo'ldik.* (R. Fayziyev, «Zarang bargi»). *Nigora kechasi tog' ko'rinishiga afsonaviy ulug'vorlik baxsh etib, bir tekis guvillayotgan bu sharsharaga borib, uni o'z ko'zi bilan ko'rishga ahd qilgan edi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Sharsharak** – kichik sharshara. *Tog' oralig'idagi sharsharakning bu ajoyib qiliqlari bolalarni hayajonga soldi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Sharq biotasi** – qurg'oqchilik yer maydonlariga chidamli bo'lgan sharq biotasining vatani – Xitoyning shimoliy o'lkasi. Unchalik uzoq bo'lmagan davrdan buyon Markaziy Osiyo mamlakatlari

rida ko'kalamzorlashtirish sohasida keng foydalaniladi. Bir uyli butasimon ushbu daraxt vatanida 16–18 m gacha, bizning sharoitimizda esa 6–8 m ga yetadi. Shox-shabbasi piramidasimon, po'sti och jigarrang, ba'zan to'q kulrangda, barglari och yashil bo'lib, g'uddasi ikkinchi yili yetiladi. Qadimda dehqonlar o'z bog'lari atrofida ekib kelishgan. Gullaridan so'ng sentabr oyida g'uddasi tayyor bo'ladi. G'uddasidan 15–20 % urug' chiqadi. 1000 dona urug' og'irligi 20 gr dan iborat bo'ladi. Sharq biotasi issiqqa va qurg'oqchilikka o'ta chidamli bo'lib, mamlakatimizning har qanday hududida ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Doimo o'z vaqtida sug'orib borilsa juda tez o'sadi. Agar uning shox-shabbalari qaychi bilan kesilib o'z vaqtida shakl berib borilsa, ajoyib manzara namoyon etadi.

**Sharq chinori** – bu daraxtning sharqiy, g'arbiy va zarangsimon deb ataluvchi 3 xili mavjud. Markaziy Osiyo respublikalarida, jumladan, O'zbekistonda sharqiy chinor juda ko'p tarqalgan. Respublikamizning qaysi hududiga bormang: ko'chadami, parkdami, xiyobondami, kishilar xonadonidami, ko'zingiz sharqiy chinorga tushadi. Chinor g'oyat zabardastligi tufayli daraxtlar sardori hisoblanadi. Chinor daraxtini hamma yerda: cho'lda, tog'da, tog'oldi yerlarida, botqoqlik yoki yer osti suvlari yaqin joylarda uchratish mumkin. U juda tez o'sadi. Uning bo'yi 30–50 m, yo'g'onligi 3–5 m gacha boradi. Daraxtlar ichida eng ko'p yashaydigan daraxt turlaridan hisoblanadi. Bu daraxt insonlarga, tabiatga shuncha ko'p yil xizmat qiladiki, uning ta'rifini so'z bilan ifodalash qiyin.

Shunday bo'lgach, chinor daraxti ko'cha va yo'llar chetiga, xiyobonlarga ko'kalamzorlashtirish uchun yoki ihota daraxtzorlari sifatida ekiladigan bo'lsa, u insonlarga asrlar osha beminnat xizmat qilishi tabiiydir. Chinor daraxtidan olingan qurilish materiallarining katta-katta inshootlar qurilishida ishlatib kelingani ham uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Bu daraxt ko'chalarga, kanallar qirg'og'iga, suv havzalari atroflariga ekiladigan bo'lsa, albatta, ularni shox-shab-balarining o'sishini hisobga olgan holda joylashtirish kerak.

**Sharqiroq** – sharillab, sharqirab oqadigan. Sharqiroq soy. *Sharqiroq ariq yoqasida, o'siq yalpizlar orasida o'tirib, ko'klam quchog'ida yastanib yotgan fusunkor dalaga suqlanib to'yib bo'larmikan?! (N. Yoqubov, «Bo'sag'ada»).*

**Sharqiy friz qo'y zoti** – yuqori ixtisoslashgan sutli zot. Mahalliy sutli qo'y zotlarini yaxshilashda keng foydalaniladi. Go'sht sifati juda past. Qo'ylarning o'rtacha vazni 30–100 kg, qo'chqorlarniki 60–100 kg. Qurg'oqdagi bo'yi yoki katta yoshli hayvonning bo'yi 55–100 sm, tana uzunligi – 60–110 sm. Qo'ylarning umr ko'rish muddati 12–15 yil, fermer xo'jaliklarida ular 6–8 yil ishlatiladi. Sharqiy friz qo'ylarining o'rtacha sut ishlab chiqarishi 470 l ga yetadi.

**Shatak** – o'zi yurolmaydigan ulov, transport vositasini boshqa ulovga, transport vositasiga tirkab olib yurish usuli; tirkaladigan yoki tirkovga oladigan narsa. *Qumri qat'iyat bilan mashinaga yugurdi-da, kuzovga tashlab qo'yan, shatak tirkash uchun ishlatiladigan sim arqonni sudrab keltirdi. (S. Ahmad, «Oy-*

*din kechalar»).* *U ikkinchi qatorni oxirlamayoq, bunkerini «oq oltin»ga limmo-lim to'lganini ko'rib, suyunib ketdi. Dala chetidagi shataklar esa allaqachondan beri unga muntazir edi. (Sh. G'ulomov, «Yorqin ufqlar»).*

**Shataloq: shataloq otmoq** – 1) orqa oyoqlarini baravar ko'tarib tepinmoq; tepinib yugurmoq; o'ynoqlab chopmoq (ot, mol kabi hayvonlar haqida). *Ot shataloq otib qochdi;* 2) sakrab-sakrab yugurmoq, o'ynoqlab chopmoq (bola haqida); 3) birdaniga qochib qolmoq, orqa-oldiga qaramay ura qochmoq.

**Shatmoq** – shv. 1. O'ta kir, yag'iri chiqqan. Shatmog'i chiqqan bola. *Anavi yalang'och shatmoq bola endi bir mirini tangadan ajrata boshlagan chog'i, sochi bo'yra-bo'yra yigitcha [Latifjon]ning esa studentlik chog'i. (S. Anorboyev, «Hayotga yo'llanma»).*

2. Og'ilxona, molxonalarda tozalanmasdan saqlaganda mol, qo'ylarni ustiga yopishib qolgan go'ng.

**Shag'al I** – 1. Mayda tosh qatlami yoki uyumi. Quduq uch metr kovlanganda, shag'al chiqdi. Shag'al qazimoq. *Shag'al to'kilgan yangi yo'lda paxta ortgan yuk mashinasi to'xtadi. (S. Ahmad, «Qadrdon dalalar»).*

2. Qurilish materiali sifatida ishlatiladigan chaqilgan tosh.

**Sheluxa** [qad. r. *sheluxa* – baliq tangasi] – mag'zi ajratib olingan chigit; chigit po'chog'i (odatda, mollarga yem sifatida beriladi). *Farg'onadagi sobiq «Gidroliz» zavodi ilgaridan sheluxadan spirt ishlab chiqarish bilan shug'ullanib kelardi. (Gazetadan). Bu yerda sheluxaga achitqi qo'shilib, mollarga berilmoqda. (Gazetadan).*

**Sherik** [a. – birga qatnashuvchi, ishtirokchi] – 1. Biror ish-harakatni birga bajaruvchi; hamkor. *Ahmadjon sherigi bilan granatalarni chog'lab, hayot-mamot paytini kutib turishdi.* (A. Qahhor, «Oltin yulduz»).

2. O'zaro birga bo'lgan shaxs, birga holatdagi shaxs (birga turgan, birga yurgan va h.k.).

3. Biror jihatdan, qaysidir jihat bilan o'zaro birga (birgalikda) bo'lgan ikki shaxs yoki shaxslar; og'ayni, do'st va sh.k. shaxslar.

4. Biror narsaga bir xilda talabgor, bir tan bo'lgan shaxs.

**Sheriklik** – sherik bo'lish, sherik (birgalik) holat; sherik holatdagi (q. **Sherik** 1–4). *Sheriklik osh qornimni og'ritadi.* (Shuhrat, «Jannat qidirganlar»). *Bir oshnam bilan sheriklikda to'rt qo'y boqib yurgan edim.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»). *Nazirboy Yolmonboylar bilan sheriklik paxta zavodidan tashqari, mustaqil «jin» ham soldirgandi.* (J. Sharipov, «Xorazm»).

**Sherolg'in** – murakkabguldoshlar oilasi shuvoqlar turkumiga mansub, bargida efir moyi bo'lgan xushbo'y ziravor o'simlik.

**Sheroziy** – ko'k tusli qorako'l teri turi. 1–3 kunlik qorako'l qo'zilaridan olinadi. Uning gulini hosil qiluvchi ko'k, qora va oq rangli jun tolalarining aralash o'sishi natijasida juda chiroyli tovlanadi. Tolalarning nisbati va uzunligiga qarab Sheroziy terining och Sheroziy (sutsimon va po'latrang), o'rta Sheroziy (havorang, kumushrang, marvaridrang, qo'rg'oshinrang), to'q Sheroziy (oqish rang, sadafrang) turlari bor. Sh. teri jingalaklari o'lchami bo'yicha mayda gulli

(5 mm gacha), o'rta gulli (5–10 mm), katta gulli (10 mm va undan ortiq) terilarga bo'linadi. O'zbekistonda 10 dan ortiq ixtisoslashgan qorako'lchilik shirkat xo'jaliklarida ko'proq o'rta gulli Sheroziy teri beradigan qorako'l qo'ylari boqiladi.

**Shesternya** [r] – harakat uzatadigan, boshqa detalni aylantiradigan tishli g'ildirak. Konus shesternya. Silindr shesternya. *Harakatni tishli g'ildiraklar yoki shesternyalar yordami bilan uzatish texnikada juda keng miqyosda qo'llanadi.* («Fizika» darsligi.)

**Sheviot** [ingl. *cheviot* < Shotlandiyadagi mayin yungli qo'ylar zoti yetishtirilgan Sheviot tepaliklari (*Cheviot hills*) nomidan] – jun tolalari yoki aralash tolalar (jun, paxta va b.) dan to'qiladigan mayin, qalin, sal tukli gazlama. Sheviot kosteriyum. *Ochil buvaga qaraganda u [Azimjon] boshqa bir olam: g'archli, yaltiroq etik, sheviot shim, ipak ko'ylak hammasi bejirim, hammasi nafis, taxi buzilmagan.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Shibba** – tuproqni urib zichlash uchun ishlatiladigan, tagi tekis dastali og'ir g'o'la.

**Shibba urmoq** (yoki **qilmoq**) ayn. **Shibbalamoq** – 1. *Yo'ldoshboy qishlog'ida shibba urishni ko'rgan bo'lsa ham, o'zi uning dastasini ushlab ko'rmagan edi.* (H. No'mon va A. Shorahmedov, «Ota»).

**Shibbalamoq** – 1. Shibba yoki boshqa narsa bilan urib, bosib, tuproqni zichlamoq, tig'izlamoq.

2. Bosib, tiqib zichlamoq, tig'izlamoq. *Somoni qanorga shibbalamoq.*

**Shikor** [f. – ov, ovlash; ovlangan narsa] – kt. Ov qilish, ov. *Shikor qilmoq. Podsho*

shikorga chiqqanda, birinchi ro'para kelgan kiyikni urolmay, yonidagi odamlar oldida qizarib qoldi. («Latifalar»). *Ot beliga havas bilan minamiz, Bobo, ruksat bering, shikor qilamiz.* («Erali va Sherali».)

**Shilmoq** – 1. Narsaning sirtidan, tanadan uni o'rab turuvchi teri, po'st kabi qoplarni ajratmoq. *Daraxtning po'stlog'ini shilmoq. Quyovning terisini shilmoq.*

2. Uzib yoki yulib olmoq, ko'chirib yubormoq, qattiq tirmamoq.

3. Achishtirib yalab ketmoq; terisini yeb, o'yib yubormoq. *Ohak qo'limni shilib yubordi. Qalampir ichimni shilib ketdi. Sirka ichgandagidek qornini shilib yubordi.* (Oybek, «Quyosh qoraymas».)

**Shilta** – 1 sft. Nihoyat darajada ho'l, jiqqa ho'l. *Yigiting terdan shilta bo'lgan ko'yilagi badanga yopishib qolgan, o'zi ham nimadandir qo'rqqan odamga o'xshar, ko'zlari bejo edi.* (O. Yoqubov, «Larza»). *Allaqachon shudring tushgan ekan, birpasda shimining pochalari shilta bo'ldi.* (O. Husanov, «Qo'shiqchining taqdiri».)

2 ot. Yomg'ir yog'ishi, qor erishi va sh.k. dan yuzaga kelgan bilch-bilch holat, yerning shunday holati. *Oyoq tagidagi qor shiltaga aylana boshladi.* (P. Tursun, «O'qituvchi») ...*quruq va achchiq izg'irin quyoshda shilta bo'la boshlagan qishloq ko'chalarini daranglatib qotirib tashlar edi.* (P. Tursun, «O'qituvchi».)

**Shimmoq** – 1. Suyuqlik, havo va sh.k. larni ichiga yoki tarkibiga tortmoq, o'ziga singdirmoq. *Paxta yog'ni shimib oldi. Suvni yer shimib oldi.*

2 ayn. **So'rmoq I. Qand shimmoq.**  
*Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang, asal oqadi.*

*Bunisi oq mum, harom emas – shimsa ham bo'ladi.* (A. Qahhoq, «Anor»)

**Shingil** – 1. Uzum boshining bir qancha donalardan iborat shoxchasi. Bir shingil uzum. *Uzum uzsam uzumzordan bir shingil, Asalman der, shirinlikda da'vosi.* (S. Abdulla). *Anvar o'zidan nariroqqa tushgan bir shingil uzumni olib yedi va bir-ikki g'ujumini hamrohiga uzatdi: – Ma, Ra'no.* (A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»). 2 ko'chma. kam qo'll. Biror narsadan qism. *Bular – bugungi Eron xalqi hayotiga oid shingil misollar.* (Gazetadan). *Mamadali akaning urush yillarida qilgan katta ishlaridan shingillar eshitaylik.* (R. Rahmonov, «Mardlik – mangulik»). **Bir shingil** 1) katta va bir butun narsaning bir bo'laki, kichik bir qismi. *Bu katta ishning bir shingili, xolos. Bu aytganlarim Bekchonovning qilimshidan bir shingil, xolos.* («Mushtum»); 2) ozgina, bir oz. *Bir shingil ashula eshit-sak. Har ikkalovi ham bir-birini bir shingildan chandishib olishdi.* (H. Shams, «Dushman».)

**Shingillamoq** – shingil-shingil qilib sindirmoq, shingilga ajratib olmoq. *Shingillab yemoq (uzumni).*

**Shingil-shapoq** – uzum boshining shingil va mayda-chuyda qismlari.

**Shinni** – tut, uzum kabi mevalar shirasini qaynatib tayyorlanadigan qi-yom. *Doshlarda qaynagan shinnining hidi Dimog'ni shod etar, ruhni salomat.* (G'.G'ulom). *Shoyiboflar uzun supa ustiga solingan paloslarda o'tirib, dasturxonga dasta-dasta qilib qo'yilgan nonlarni ushatib, piyolalardagi shinnilarga botirib yer edilar.* (M. Osim, «Elchilar»). *Onam u yil kasalligi sababli tutdan shinni pishirolmay, bir qopcha quruq tut-*

mayiz qilib qo'ygan edi. (S. Ayniy, «Es-daliklar»).

**Shipshiydam** – hech narsasi qolmagan; hech narsa qoldirmagan; qup-quruq.

**Shir II** [f. – sut] – shv. (q. sut 1,2). *Binobarin, shox qullariga muruvvat qilib, beradigan yemagini andak oshirib, haftaga shir, oyga bir go'sht ham ulashtiradi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

**Shira I** [f. – sharbat, sirop; musallas, vino;] – 1. Ho'l meva va poliz ekinlari hosili pishib yetilishi bilan ular tarkibida hosil bo'ladigan shirin suyuqlik; sharbat. *Uzumning shirasi. Qovun shirasi.*

2. O'simliklar tanasida bo'ladigan suyuqlik, namlik. *Ergash barg shirasi singib ketgan qadoq kaftiga boqdi.* (A. Muxtor, «Chinor»).

3. Inson yoki hayvon organizmi hujayralarida bo'ladigan suyuqlik.

**Shira II** [f.] – 1. O'simlik shirasini so'rib oziqlanadigan mayda tekinox'r hasharot; o'simlik biti.

2. O'simlik biti hayot faoliyati natijasida o'simlik barglarida hosil bo'ladigan yopishqoq yaltiroq suyuqlik.

**Shiradorlik** – shiraga egalik, shiralilik. *Tutlarning turi bemaza qovunning urug'idan ham ko'p. Ammo xalq xo'jaligida tutgan o'rni, mevasining shiradorligi, qiymati jihatidan hech biri balxi tutga to'g'ri kelmaydi.* («Fan va turmush».)

**Shirali** – 1. Tarkibida shirasi bor, shirasi ko'p; shirador. *Shirali uzum. Shirali ozuqa. Polizlardagi shirali qovunlar kechki kuz sovug'ida yorilib ketib, «meni yenglar», deb termilib turibdi.* (J. Sharipov, «Xorazm»). *Butazorning o'rtasi yalanglik. U yerda juda shirali o'tlar o'sadi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

2. Shira yuqli, shira tekkan. *Shirali, yuvuqsiz qo'llarini ikki tomonga yoyib, xushlamayroq, mehmonga yelkasini tutdi kelin.* (A. Muxtor, «Kumush tola»).

3 ko'chma. Mazmunli, ma'nodor; sermazmun. *Shirali gap.*

**Shirali ozuqalar** – tarkibida S vitamini, V guruh vitaminlari, ayrimlari tarkibida karotin, yengil hazm bo'ladigan uglevodlar (kraxmal va qand) bor, proteini oz. 1 kg shirali ozuqalarning to'yimligi 0,1–0,3 ozuqa birligiga teng. Barcha chorva mollari xush ko'rib yeydi. Sigirlarning sut mahsuldorligini oshiradi, dag'al xashaklarning hazmlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Asosan, xom holida bir sutkada sog'in sigirlarga 40 kg gacha, bo'rdoqiga boqiladigan buqalarga 60 kg gacha, qo'ylarga 4 kg gacha berish mumkin.

**Shirava** [f.] – sut yuzida hosil bo'lgan yangi qaymoq. *Shirava qaymoq.*

**Shirach** (*Regel shirachi – Eremurus Regelli ved.*) – lolaguldoshlar (*piyozguldoshlar – Liliaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 60–180 sm. ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyoning tog'li hududlarida tog'larning etagidan o'rta qismigacha bo'lgan yumshoq tuproqli qiyaliklarda o'sadi. Xalq tabobatida bargi va ildizi ishlatiladi. Tarkibida S vitamini, karotin, organik kislotalar, ko'p miqdorda eremuran polisaxaridi, alkaloidlar, shirach (yelim), bo'yoq va b. moddalar bor. Bargi xalq orasida yel haydovchi, ildizi – me'da-ichak kasalliklarida dori sifatida qo'llaniladi. Ildizidan olingan polisaxarid-eremuran dorishunoslik amaliyotida yog' emulsiyalari tayyorlash uchun emulgator sifatida ishlatiladi.

**Shirboz** [f.] – sut emib o'sayotgan, semiz (qo'zi). ...*ichiga shirbozning go'sh-*

tini qiymalatib soldirganman. (S.Nurov, «Narvon»). *Temurlang har gal otarga kelganda, Mengliboy unga shirboz pi-shirib berar, yaxshi tushgan terilarni ko'rsatardi.* (S.Ahmad, «Yulduz»).

**Shirboz qo'zi** – qo'zilarning 2 oyligidan 6 oyligigacha onasidan ayrilgunga qadar har tomonlama yetilgan, semiz qo'zi. So'yilganda shirboz qo'zining go'shti juda shirin bo'ladi. *Ax-ax, shirbozning go'shtini maza qilib bir yerkanmiz-da, a, oshna?!*

**Shirdon** [f. – sut idishi; qo'yning oshqozoni] – anat. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar me'dasining bir bo'limi. *Chaynalgan ovqat yutilganda, oshqozonning to'rtinchi bo'limiga – shirdonga o'tadi.* («Zoologiya».)

**Shirinak** [f. – «shirin» s. dan] – qovun-tarvuzning eng shirin namunalari tanlash va baholash maqsadida o'tkaziladigan an'anaviy musobaqa. *Polizlarda tilyorar ananaslar to'rlar, shakarपालak, oqurug'lar dum berib, ariq bo'ylarida «shirinak» o'yinlari boshlanib ketgandi.* (H.Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Shirinmiya, qizilmiya** (*Glycirrhiza glabra*) – bug'doydoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't. Daryo yoqalarida, ariq va zovur bo'ylarida, qumloq yerlarda, tog' yonbag'irlarida, ba'zan 2500 m balandlikkacha bo'lgan yerlarda, kam va o'rta sho'rlangan tuproqlarda ham o'sadi. Tibbiyotda shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig'lanish, allergiya, zaharlantirish, Addison kasalligi, bod, belangi, bo'g'ma, sil, chipqon, ekzema va b. kasalliklar davolanadi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko'p miqdorda oqsil,

yog', qand, karotin, C vitamini va b. borligidan qimmatbaho yem-xashak hisoblanadi. Dukkaklilar oilasiga mansub, ildizi sanoat va tibbiyotda ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik. *Xayrobod daryolari yoqalarida shirinmiya degan ajoyib to'yimli ozuqa ko'p o'sadi.* (Gazetadan).

**Shirkat** [a. – sheriklik; uyushma] – 1. Ma'lum ishni birga amalga oshirish maqsadida birlashgan kishilar hamkorligi, o'rtoqlik uyushmasi, ixtiyoriy birlashmasi.

2. Teng huquqli ishtirokchilardan tashkil topgan sanoat yoki savdo uyushmasi. *Paychilik shirkati.*

**Shirvoz** (q. shirboz.) – *Xosxonadan ikki bezzot kelgandi. Unga so'yib berdik shirvoz qo'zingni.* («Orzigul».) *Sho'x shirvozlarning orasida Avaz daladan topgan qo'zichalar ham o'ynoqlab yuribdi.* (P.Qodirov, «Qora ko'zlar»). *Hozir ayni shirvoz qo'zilar so'yilyapti.* (Sh.Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Shirchoy** (*Geum L.*) – ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 25–70 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Kavkaz, Markaziy Osiyo va Sibirning tog' qiyaliklarida, butazorlarda, o'rmonlarda, ariq bo'ylarida va b. nam yerlarda o'sadi. Xalq tabobatida ikki turi: shahar shirchoyi va daryo shirchoylarining hamma qismi ishlatiladi. Yer ustki qismi tarkibida ko'p miqdorda oshlovchilar, S vitamin, yer ostki a'zolarida (ildizpoyasi bilan ildizida) – alkaloidlar, gein glikozidi, efir moyi, ko'p miqdorda oshlovchi moddalar bor. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama, ildizpoyasi bilan ildizidan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida me'da-ichak (ichqotarda),

jigar, shirincha, lavsha (singa), isitma va b. kasalliklarni davolash hamda turli qon oqishlarini (o'pkadan, yo'g'on ichakdan, burundan va b.) to'xtatish uchun qo'llaniladi. Og'iz bo'shlig'ining yallig'lanish kasalliklarida (stomatit, gingivit, milkdan qon oqish), tomoq og'riganda og'iz va tomoq shu damlama va qaynatma bilan chayiladi.

**Shig'a** – ko'p darajada, g'oyat mo'l, bir tekis va g'uj-g'uj. Olcha shig'a gulladi. *Ko'krakkacha o'sib, atrofga shox yoygan, tagidan to uchigacha shig'a ko'saklagan bo'liq g'o'zalar.* (H. Nu'mon, «Qahramon paxtakor»).

**Shig'il** – 1. Bir tekis; qiyg'os. *Daraxtlar shig'il gullarga kirgan, bog'da zing'illab asalarilar uchib yuribdi.* (J. Sharipov, «Saodat»). *O, shig'il gullabdi olucha, bodom.* (To'lqin).

2 ayn. **shovul II.** ...o'ychan ko'zlarini shig'il shoxlari yerga tegay-tegay deb turgan shaftoliga, uzoq-uzoqlarga tikdi. (A. Rahmat, «Ellik bir bahodir»).

**Shishak** [f. – bir yoshli qo'y] – bir yoki ikki yoshli qo'y, ikki tish yorgan qo'chqor.

**Shishmoq** – 1. Organizmda yoki uning biror qismida tashqi ta'sir yoki kasallik tufayli shish hosil bo'lmoq. *Uning oyog'i shishib ketibdi. Ko'p yig'laganlikdan [Kumushning] ko'zlari qizargan, qovoqlari shishgan, yuzlari bo'rtgan edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Bo'rtib kattalashmoq; bo'rtmoq. *U har tosh ko'targanda, bilagidagi, bo'yinlaridagi tomirlari barmoqdek-barmoqdek bo'lib shishib chiqadi.* (S. Ahmad, «Yo'lda»).

3. Havo, gaz va sh.k. bilan to'lib kengaymoq, qappaymoq. *Bola qancha puflassa ham, pufak shishmadi.*

**Shivalamoq** – bir tekis, bir maromda, o'rtacha tezlik, kuch bilan yog'moq (yomg'ir haqida). *Shivalab turgan yomg'ir kuchaya bordi.* (R. Fayziy, «Sen yetim emassan»).

**Shiydam I** – hech narsasi qolmagan, hech narsa yo'q; bo'm-bo'sh, quruq, yalang'och. *Elmurod, chalqancha yotib, qop-qora munchoq ko'zlarini shiydam butoqlardan olmay, tut pishig'ini xayol qildi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Shiypon** [xit. – tosh uy] – 1. Atrofi odatda har tomondan ochiq, usti yopiq yozlik yengil qurilma. Katta hovli, bog', chorbog'lar ichida quriladi.

2. Dalada ishlovchilarning dam olishi va ovqatlanishi uchun maxsus qurilgan yozlik bino yoki ayvon. Shiypon ekinzorlar (ayniqsa, qovun polizlari), uzumzorlarda bunyod etiladigan chayla, kapa va b. o'rniga XX asr o'rtalaridan qurila boshlandi. *Shiypon atrofi ko'kalamzorlashtiriladi.*

**Shivilg'oni** – donalari nisbatan mayda, urug'siz qora uzum va shunday meva beradigan tok. *Shivilg'on – tog'-tosh orasida ko'm-ko'k ishkamlarga ko'milib yotgan qishloq, mashhur shivilg'oni uzum shu yerdan tarqalgan.* (A. Muxtor, «Chinor»). *G'arq pishgan, donlari shiraga to'lib, yorilay-yorilay deb turgan husayni, charos, shivilg'onilar elektr lampochkalar nurida tovlanadi.* (Y. Shamsharov, «Paxtaqaynar»). *Oq chillaki pishib yotibdi, shivilg'oni rang olibdi.* (S. Anorboyev, «Go'zallik izlab»).

**Shivirg'oni** – q. **shivilg'oni.** *Yaxshi qizlar, o'rtangizda kim yo'qotdi labda rang? Bir kelib, bu bog'dagi «o'g'ri» shivirg'ondan so'rang.* (G'.G'ulom). *Ishkamlarda husayni, dili-kaptar, kishmish,*



jigar, shirincha, lavsha (singa), isitma va b. kasalliklarni davolash hamda turli qon oqishlarini (o'pkadan, yo'g'on ichakdan, burundan va b.) to'xtatish uchun qo'llaniladi. Og'iz bo'shlig'ining yallig'lanish kasalliklarida (stomatit, gingivit, milkdan qon oqish), tomoq og'riganda og'iz va tomoq shu damlama va qaynatma bilan chayiladi.

**Shig'a** – ko'p darajada, g'oyat mo'l, bir tekis va g'uj-g'uj. Olcha shig'a gulladi. *Ko'krakkacha o'sib, atrofga shox yoygan, tagidan to uchigacha shig'a ko'saklagan bo'liq g'o'zalar.* (H. Nu'mon, «Qahramon paxtakor»).

**Shig'il** – 1. Bir tekis; qiyg'os. *Daraxtlar shig'il gullarga kirgan, bog'da zing'illab asalarilar uchib yuribdi.* (J. Sharipov, «Saodat»). *O, shig'il gullabdi olucha, bodom.* (To'lqin).

2 ayn. **shovul II.** ...o'ychan ko'zlarini shig'il shoxlari yerga tegay-tegay deb turgan shaftoliga, uzoq-uzoqlarga tikdi. (A. Rahmat, «Ellik bir bahodir»).

**Shishak** [f. – bir yoshli qo'y] – bir yoki ikki yoshli qo'y, ikki tish yorgan qo'chqor.

**Shishmoq** – 1. Organizmda yoki uning biror qismida tashqi ta'sir yoki kasallik tufayli shish hosil bo'lmoq. *Uning oyog'i shishib ketibdi. Ko'p yig'laganlikdan [Kumushning] ko'zlari qizargan, qovoqlari shishgan, yuzlari bo'rtgan edi.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

2. Bo'rtib kattalashmoq; bo'rtmoq. *U har tosh ko'targanda, bilagidagi, bo'yinlaridagi tomirlari barmoqdek-barmoqdek bo'lib shishib chiqadi.* (S. Ahmad, «Yo'lda»).

3. Havo, gaz va sh.k. bilan to'lib kengaymoq, qappaymoq. *Bola qancha puflasa ham, pufak shishmadi.*

**Shivalamoq** – bir tekis, bir maromda, o'rtacha tezlik, kuch bilan yog'moq (yomg'ir haqida). *Shivalab turgan yomg'ir kuchaya bordi.* (R. Fayziy, «Sen yetim emassan»).

**Shiydam I** – hech narsasi qolmagan, hech narsa yo'q; bo'm-bo'sh, quruq, yalang'och. *Elmurod, chalqancha yotib, qop-qora munchoq ko'zlarini shiydam butoqlardan olmay, tut pishig'ini xayol qildi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Shiypon** [xit. – tosh uy] – 1. Atrofi odatda har tomondan ochiq, usti yopiq yozlik yengil qurilma. Katta hovli, bog', chorbog'lar ichida quriladi.

2. Dalada ishlovchilarning dam olishi va ovqatlanishi uchun maxsus qurilgan yozlik bino yoki ayvon. Shiypon ekinzorlar (ayniqsa, qovun polizlari), uzumzorlarda bunyod etiladigan chayla, kapa va b. o'rniga XX asr o'rtalaridan qurila boshlandi. *Shiypon atrofi ko'kalamzorlashtiriladi.*

**Shivilg'oni** – donalari nisbatan mayda, urug'siz qora uzum va shunday meva beradigan tok. *Shivilg'on – tog'-tosh orasida ko'm-ko'k ishkamlarga ko'milib yotgan qishloq, mashhur shivilg'oni uzum shu yerdan tarqalgan.* (A. Muxtor, «Chinor»). *G'arq pishgan, donlari shiraga to'lib, yorilay-yorilay deb turgan husayni, charos, shivilg'onilar elektr lampochkalar nurida tovlanadi.* (Y. Shamsharov, «Paxtaqaynar»). *Oq chillaki pishib yotibdi, shivilg'oni rang olibdi.* (S. Anorboyev, «Go'zallik izlab»).

**Shivirg'oni** – q. **shivilg'oni.** *Yaxshi qizlar, o'rtangizda kim yo'qotdi labda rang? Bir kelib, bu bog'dagi «o'g'ri» shivirg'ondan so'rang.* (G'. G'ulom). *Ishkamlarda husayni, dili-kaptar, kishmish,*

shivirg'onilarning boshi yerga tegay deb engashgan. (S. Abdulla, «Bir shingili tomoqni yoradi»).

**Shivit** [f. – ukrop] – 1 shv. ayn. **Ukrop.** Qishloq aholisi ukropni ko'pincha shivit, bodiyon deb ham ataydi. (Gazetadan). Taqsimcha, kosalarda barra piyoz, shivit bo'ktirilgan suzma qatiq. (S. Nurov, «Narvon»). 2: **shivit bo'lmoq** ayn. **shuvut bo'lmoq** (q. shuvut). Kechalarni uyqusiz o'tkazaman. Rayon to'g'risida o'ylayman, yuzim shivit bo'lmasin, deymen. (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»). UZR so'radim. Ammo hali ham yuzim shivit. (S. Ahmad, «Qadrondalalar»).

**Shirincha II** – sachratqining xalq orasida tarqalgan nomi (q. sachratqi 2).

**Shirali ozuqalar** – tarkibida suvi ko'p bo'lgan (70% dan ortiq bog'langan suv) o'simlik ozuqa; chorva mollari uchun to'yimli yem-xashak. Shirali ozuqalarga ildizmeva, tugunakmeva, poliz ekinlari mevasi, ozuqa o'tlar, siloslangan ozuqalar va b. kiradi.

**Shrot** – taxtakunjara (yog' zavodi chiqiti), shrot.

**Shudgor** [f. – haydalib ekin ekilgan yer] – 1. Haydalgan, chopilgan yer. – Kartani beshga bo'lib tashladik, – dedi Tillayev shudgorni qo'li bilan ko'rsatib. (R. Azizxo'jayev, «Yashil chayla»). Noz uyqudan uyg'onib, oq oltinini eslab, ko'k sabza kiyib, shudgor-u sahro bezanibdur. (Habibiy). 2. Haydash, shudgorlash. Kuzgi shudgor. Chala qolgan dalada shudgor, (X. Davron). – Endi bizga javob, – qo'zg'aldi rais, – shudgor kechikdi. (N. Safarov, «Olovli izlar»). **Shudgor qilmoq**; shudgor holiga keltirmoq; shudgorlamoq. ...yerlarni g'ozapoyadan to-

zalab, shudgor qilib qo'ygandan keyingina uy-ro'zg'or ishlariga qarar, to'yko'pkarilarga borardi. (S. Nurov, «Narvon»).

**Shudgorlamoq** – ekin maydonini, dalani haydab, chopib qo'yimoq; shudgor qilmoq. O'tgan yili rejani oldin uddalab, darrov yerni shudgorlab qo'ydik. (Gazetadan). Kuz bo'lgani uchun, dalalarda faqat shudgorlash bilan band bo'lgan traktorchilar qolgan. («O'zbekiston qo'riqlari».)

**Shudring** – ayn. **shabnam**. Ertasiga oftob go'yo tong shudringida yuvinib, kechagi chang-to'zondan tozalanib chiqdi. (S. Anorboyev, «Oqsoy»). Barglarga shudringingan, Havo qimizday tingan. (S. Akbariy).

**Shulxa** – s.t. **Sheluxa**. Sigirga shulxa bermoq. Shulxani qoplamoq. Hammaga ma'lumki, paxtadan turli-tuman gazlama, yog', shulxa olinadi. (Gazetadan).

**Shumtol** – yog'ochi qattiq, bargi patga o'xshash daraxt. O'rmon zonalarida chinor, zarang, shumtol, oq qayin, do'lana uchraydi. (Gazetadan).

**Shumurt** – guli oq, xushbo'y butasi-mon daraxt va uning qora, nordon mevasi. Shumurtning gullari oq, ba'zan pushti rangga ega bo'ladi. (Gazetadan).

**Shumg'iya** – 1 bot. Boshqa ekinlar ildizidan oziqlanadigan tekinxo'r yovvoyi o't. Do'stim, nafsni o'z holiga qo'yaversang, xuddi shumg'iyaga o'xshab, tez o'sib ketar ekan. («Mushtum».) Tuxuming qurigur shumg'iya qovun-tarvuzning zavoli! (N. Safarov, «Navro'z»).

2 ko'chma. O'z manfaatini ko'zlab, o'zgalar hisobiga yashovchi shaxs; zarar-kunanda. Yo'limizdagi g'ovlarni ham ildiz

olishiga imkon bermay, o'z o'rnida yulib tashlaylik! Shundagina dilimiz ko'zlagan porloq manzilga shung'iyalarsiz yetib boramiz. (Gazetadan).

**Shung** – ayn. **shumtol**. Shung bargi.

**Shunqor** – 1. Lochinsimonlar oilasiga mansub kuchli yirtqich qush. *Ikki shunqor talashsa, bir qarg'aga yem tushar.* (Maqol). *Shunqor qancha baland uchmasin, baribir, o'z uyasiga qaytadi.* (Oybek, «O.v. shabadalar»). *Qarchig'ay, lochin, shunqor singari kichik yirtqich qushlar mayda hayvonlarni ovlashga solingan.* («Fan va turmush».)

2 *ko'chma*. Mard, jasoratli, botir shaxsga nisbatan qo'llanadi.

**Shuvoq (Ermon), Artemisia L.** – astradoshlar, murakkabguldoshlar [*Asteraceae (Compositae)*] oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tlar yoki yarim butalarni o'z ichiga olgan turkum. Yer ustki qismi va gulidan foydalaniladi. **Achchiq shuvoq.** Bo'yi 50–100 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Sobiq Ittifoqning Yevropa qismi, Kavkaz, G'arbiy Sibir, Qozog'iston va Markaziy Osiyoda yo'l yoqalarida, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, suv bo'ylarida, ekinzorlarda, bog'larda, tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan qiyaliklarida va b. yerlarda o'sadi. **Qizilburgan shuvoq.** Bo'yi 30–70 sm ga yetadigan bir-ikki yillik o't o'simlik. Sobiq Ittifoqning Yevropa qismi, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Sibirdagi tekislik va tog' etaklaridagi o'tloqlarda, daryo vodiylarida, shag'alli tog' qiyaliklarida, qumloq, ekin ekilmaydigan yerlarda, ba'zan begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi. **Oddiy shuvoq.** Bo'yi 30–180 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Sobiq Ittifoqda keng tarqal-

gan bo'lib, ariq yoqalarida, ekinzorlarda, bog'larda, o'tloqlarda va tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan yerlarda o'sadi. **Bir yillik shuvoq (Burgan).** Bo'yi 30–100 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Sobiq Ittifoqning Yevropa qismi, Markaziy Osiyo va Sibirdagi tekisliklar, tog' etagidan to pastki qismigacha joylashgan to'qayzorlarda, ekin ekiladigan dalalarda, bog'larda, ariq bo'ylarida o'sadi. **Tavriya shuvog'i.** Bo'yi 15–40 sm ga yetadigan ko'p yillik o't. Qrimning tekislik joylari, yo'l yoqalari, dengiz qirg'oqlariga yaqin bo'lgan yerlarda o'sadi. Yer ustki qismi zaharli bo'lib, tarkibida efir moyi va b. moddalar bor. Efir moyining asosiy qismini tauremizin tashkil qiladi. **Darmana shuvoq.** Bo'yi 40–80 sm ga yetadigan yarim buta. Yovvoyi holda faqat Qozog'istonning Chimkent viloyatida va Tojikistonning ba'zi tekis va tog'li yerlar, cho'llar, daryo vodiylari, soyliklar va suv bo'ylarida o'sadi. Chimkent viloyatida maxsus o'stiriladi. Guli va yer ustki qismi tarkibida santonin, efir moyi, olma va sirka kislotalar, achchiq bo'yoq va b. moddalar bor. **Sherolg'i shuvoq.** Bo'yi 40–80 sm ga yetadigan ko'p yillik o't. Sobiq Ittifoqning Yevropa qismi, Markaziy Osiyo, Sibirdagi tog'larning pastki qismidan to yuqorisigacha bo'lgan yums- hoq va toshloq qoyalar bag'rida o'sadi.

**Shuvoqzor** – shuvoq o'sgan joy yoki maydon. *Ular uzoq yurishdi. Qumlik tugab, shuvoqzorda tushib olishdi.* (M. Mansurov, «Yombi»).

**Shkiv [goll. schijf]** – tex. Bir o'qdan ikkinchi o'qqa tasma yoki arqon orqali harakat uzatadigan ikki g'ildirakdan biri. *Motorlarning guvillashi, shkivlarga kiygizib qo'yilgan qayishlarning shapillashi,*

richaglarning g'ichirlashi tindi. (Gazetadan).

**Shlang** [nem. *Schlange* – ilon < *schlingen* – o'ralmoq, chirmalmoq] – rezina yoki suv o'tkazmaydigan materiallardan yasalgan egiluvchan truba. O't o'chirish shlangi. Shlang bilan suv sepmoq.

**Shlyuz** [goll. *sluis* < fr. *ecluse* < lot. *exclusa* – to'siq, g'ov; yo'l qo'ymaslik] – 1. Kemalarni daryo yoki kanalning suv sathi turlicha bo'lgan bir uchastkasidan ikkinchisiga o'tkazish imkonini beradigan, darvozalar orqali o'zaro tutashgan gidrotexnik kameralardan iborat inshoot. Bir kamerali shlyuz. Shlyuz kamerasi. Paroxodni shlyuz orqali o'tkazmoq.

2. To'g'onlarda suvni qo'yib yuborish yoki bo'g'ish uchun xizmat qiladigan maxsus teshik; to'g'on qulfi. Shlyuzni ochmoq.

**Shoda** – ipga tizilgan bir xil, bir turdagi narsalar majmui. Bir shoda marvarid. Bir shoda qalampir. O'ziyam uncha-muncha marjonlardan emas, o'n ikki shoda-ya! (M. Ismoilov, «Farg'ona t.o.»).

**Shodalamoq** – bir turli narsalarni ipga tizmoq, tizib shoda qilmoq (q. **shoda** 1). Munchoqlarni shodalamoq. – Ha, Sorokin. Barakalla! – deb mamnun jilmaydi [Vasilyev], – granatalaringni shodala. Orqamdan yer bag'irlab emakla. (A. Muhiddinov, H. Tojiboyev, «Otash qalbli qiz»).

**Sholi** (*Oryza sativa* L.) – boshoq-doshlar, g'alladoshlar (*Poaceae*, *Gramineae*) oilasiga mansub, bo'yi 50–100 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simliklar. Vatani Osiyoning janubiy sharqida joylashgan tropik davlatlar. Shimoliy Kavkaz, Ukraina janubida, Volga daryosining quyi

qismi, Markaziy Osiyo davlatlarida, Qozog'iston, O'zbekistonda ko'p o'stiriladi. Tibbiyotda mevasi – doni (guruch) ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda kraxmal, vitaminlar: B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub> va Be, moy, oqsil, mineral va boshqa moddalar bor. Guruch qaynatmasi me'da-ichak kasalliklarida qoplovchi vosita hamda parhez taom sifatida qo'llaniladi. Sholi shulxasidan rak kasalligiga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi yuqori molekulari birikmalar ajratib olingan. Guruchdan olinadigan kraxmal tibbiyotda (ichketar va b. me'da-ichak kasalliklarida) hamda dorishunoslik amaliyotida kukunlar, tabletkalar, sepmalar tayyorlashda ko'p ishlatiladi.

**Sholikor** [f. – sholi yetishtiruvchi] – 1. Sholi ekib, guruch yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon. Sholikorlar ekinga ikkinchi ishlov berish davrida o'simlikni shoxlatish tadbirlarini ko'rishdi. (M. Qo'shoqov, «Hosildorlik oshyapti»).

2. Sholi ekiladigan; sholi yetishtiriladigan. Sholikor xo'jalik. Sholikor yerlar.

**Sholikorlik** – 1. Sholi ekish ishi, kasbi. Tursunboy sholikorlik qilarkan-da, qop-qop sholi orttirarkan. («Mushtum».)

2. Qishloq xo'jaligining sholi ekish, guruch yetishtirish ishi bilan shug'ullanuvchi tarmog'i. Respublikaning shimolida, Amudaryo bo'ylarida sholikorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar bor. (Gazetadan).

3. Sholi ekiladigan yoki ekilgan keng dala. Sholikorlik qishloqdan bir tosh chamas narida bo'lib, Berdiboy unda yotib ishlaydi. (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Sholipoya** [f. – sholi ekilgan maydon, sholizor] – 1. Sholi ekilgan maydon. Shuning uchun ham sholikorlar suvni loyqa-

latib, sholipoyadan chiqishmay, kechib yuraverishadi. (S. Ahmad, «Ufq»).

2. Sholi o'simligining poyasi.

**Sholichilik** – 1 ayn. **Sholikorlik**  
2. Sholichilik qilmoq. *Sog'lig'imdan nolimayman. Uzoq yillar sholichilik brigadasida boshchilik qilaman.* (Gazetadan).

**Sholpin** – dumbasi katta qo'y.

**Sholg'om** [f.] – ovqatga ishlatiladigan, ildizmevasi oq, sariq, qizg'ish, och binafsha ranglarda bo'ladigan sabzavot o'simligi. Sholg'omga suv qo'ymoq. *Bo'yraday joyga sholg'om ekan odamga ham suvmi!* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Shona I** [f. – taroqsimon gulbarg] – g'o'za g'unchasi. *Gulparast, deb atamang, ishimizdan bexabar, Shonalar sanab yurgan mehnatkash qizlar edik.* (G'.G'ulom).

**Shonabarg** [f. – taroqsimon gulbarg] – shona atrofidan chiqib, gul ochilguncha uni o'rab turadigan taroq tishli mayda barg; yonbarg. *G'o'za gulida uchta shonabarg bo'ladi.*

**Shonalamoq I** – shona chiqarmoq, shona paydo qilmoq (G'o'za o'simligi haqida). *G'o'zalar yoppasiga shonaladi.*

**Shoterak** – piramidasiimon tik o'sadigan yirik terak.

**Shoti (ot-arava)** – shoti uzunlikdagi 4,5 m cha, oralig'i 70 – 80 sm, uchlarida ot bo'yinchasini mahkamlashga xizmat qiladigan bittadan teshiklari bo'ladi. Mirzaterakdan ishlanadi.

**Shotut** [f. + a. – yirik qizil tut] – 1. Tut daraxtining tutgullilar oilasiga mansub turi. *Shotut tepasida maykachan bo'lib o'tirib olgan A'zamjon shotut yeb turardi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

2. Shu daraxtning to'q qizil, nordon, sershira shifobaxsh mevasi.

**Shoxsiz I** – shoxi, butog'i yoki novdasi bo'lmagan, shox-shabbasi kesilgan. *Shoxsiz daraxt.*

**Shoxsiz II** – boshida shoxi yo'q, to'qol. *Shoxsiz echki. Shoxsiz sigir.*

**Shoxkuya (Claviceps Purpurea (Fries) Tulasne)** – gipokreatsiya (*Nurosgaeae*) oilasiga mansub javdar, bug'doy, arpa, suli va b. o'simliklarda parazit holda yashaydigan zamburug'ning tinch holda qishlovchi tanasi – sklerotsiy. Shoxkuya nam iqlimda yaxshi o'sadi.

**Shovul I** [r. shavel – nordon bargli o'tsimon o'simlik] – otquloqqa o'xshash, qorabug'doilar oilasiga mansub, bargi mayda, ta'mi nordon, ovqatga ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik; qo'ziquloq. *Sho'rvaga shovul solmoq.*

**Shovul II** – juda ko'p, g'uj-g'uj, shig'il. *Biz g'o'za paykali oralab yong'oqday shovul ko'saklarni sanashib, mashina to'xtagan tarafga qarab bordik.* (H. Nazir, «Mexanizator»). *Zilol chashma tilga kirdi: – O'qsiz, Yetim majnuntol. Nechun shovul novdalarining, Boshim uzra egik lol?* (T. To'la).

**Shovush** – muz, yax; qirov. *Sirdaryo suvi shovush aralash ko'pirib oqadi.* (H. Nu'mon, «Qahramonning tug'ilishi»). *Qish, daraxtlar shoxida larzon-larzon shovush.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

**Shox I** [f. – butoq, shox, shoxcha] – 1. O'simlik, daraxt yoki buta tanasidan yon-veriga o'sib chiqqan o'simta. *Daraxtning shoxini kesmoq.*

**Shox II** [f. – muguz, shox] – ba'zi hayvonlarning boshidan o'sib chiqadigan suyaksimon qattiq o'simta; muguz. *[Ho'kiz] Nayzadek o'tkir shoxlarini unga to'g'rilab, xuruj qilib kela boshladi.* (K. Yashin, «Hamza»).

**Shoxariq** – bir necha paykalga suv beradigan asosiy dala arig‘i. – *Hozircha marza tekislab, shoxariq chopypimiz, – dedi Komiljon Murodovaga.* (I. Rahim, «Ixlos»).

**Shoxilak** – sho‘radoshlar oilasiga mansub, sho‘r va taqirlikda o‘sadigan, bargi mayda va shirali buta o‘simligi.

**Shoxlamoq I** – shox, butoq chiqarmoq, shox otmoq (o‘simlik haqida). *Zokir ota g‘o‘za shoxlasa, ko‘sak ko‘payadi, degan fikriga qo‘shildi, lekin hosil ortadi, degan fikrni rad qildi.* (A. Qahhor, «Qo‘shchinor chiroqlari»).

**Shoxlamoq II** – shoxi bilan suzmoq. *Shu topda u raqibini shoxlayman deb boshini toshga urgan qo‘chqorga o‘xshaydi.* (R. Rahmon, «Mehr ko‘zda»).

**Shoxli I** – poyasidan shox o‘sib chiqqan; sershox. *Shoxli daraxt. Shoxli g‘o‘za.*

**Shoxli II** – boshida shoxi bor. *Shoxli qo‘ylar. Shoxli kiyik. Shoxli qoramol.*

**Shoxobcha** [*f.* – irmoq, kichik suv yo‘li; tor dengiz qo‘ltig‘i] – katta suv yo‘lidan tarqalgan kichik suv yo‘llari: kanal, ariq va ariqchalar. *Kanal shoxobchasi. Ariqdan shoxobchalar chiqarmoq.*

**Shox-shabba** – 1. Daraxt yoki butaning shoxlari hamda shoxlardan iborat qismi. Shox-shabbalarni kesmoq.

2. Shunday shoxlardan iborat o‘tin; quruq shoxchalar. [*Nizomjon*] *o‘zi g‘isht qo‘yib, o‘zi devor ko‘tardi. Tepasiga to‘sin terib, shox-shabba bostirib, lo‘mboz qo‘yishga tayyorladi.* (S. Ahmad, «Ufq»).

**Shrot** (mayda bo‘laklar, qiyqim) – yog‘ ekstraksiya korxonalarida ishlab chiqariladigan qo‘shimcha mahsulot; chorva mollari uchun to‘yimli ozuqa.

Moyli ekinlar urug‘i ekstraksiyasidan keyin maydalangan urug‘dan organik eritmalar yordamida olinadi. Xomashyoga qarab soya shrot, raps shrot, xantal shroti, chigit shroti, kanakunjut shroti va b.ga ajratiladi. Shrot proteinga boy ozuqa. 100 kg kungaboqar shrotida 100 ozuqa birligi va 37,6 kg ga yaqin hazm bo‘ladigan protein; 100 kg nasha shrotida 82 ozuqa birligi va 24,8 kg hazm bo‘ladigan protein bor. Shrot tarkibi YE vitamini, V guruh vitaminlari va fosforiga boy.

**Shtat II** [*nem. Staat*] – korxonona, muassasa, tashkilot xodimlarining doimiy, barqaror shaxsiy tarkibi, ularning lavozim va maoshlari ko‘rsatilgan ro‘yxati. *Shtatni qisqartirish. Shtatdagi injener.*

**Shvits qoramol zoti** – sut, go‘sh t olish uchun boqiladigan zot. Shveysariyaning tog‘li hududlarida Sharqdan qadimda keltirilgan kalta shoxli zotlarni uzoq tanlash yo‘li bilan chiqarilgan. Tusi qo‘ng‘ir. Sh. q. z. ning sut-go‘sh t, sut, go‘sh t-sut yo‘nalishidagi xillari bor, sut-go‘sh t beradigan xili tanasining yirikligi, yag‘rindorligi bilan ajralib turadi. Go‘sh t-sut yo‘nalishidagi turining yelinlari kichik, tanasi ixcham. Issiq iqlimli hududlar sharoitiga tez moslashadi. Buqalarining o‘rtacha vazni 800–1000 kg, sigirlariniki 600–700 kg. Sut sog‘imi 6000–6500 l, yog‘liligi 4,0–4,1%. Sersut sigirlar 16 t gacha sut beradi. Go‘sh t-dorligi yuqori, so‘yim chiqimi 60%. Sh. q. z. ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, Fransiya, Italiya, AQSH, Kanada, Shvits qoramol zoti Janubiy Amerika mamlakatlarida va Afrikada keng tarqalgan. Rossiyaga 1861-yildan, O‘zbekistonga 1885-yildan boshlab keltirilgan. 1930-yildan «Savay» (Andijon viloyati), «Ovoshnoy», «Boyo-

vut» (Toshkent viloyati), «G'allaorol», «Udarnik» (Jizzax viloyati) Sh. q. z. naslchilik zavodlari tashkil etildi. Seleksionerlardan M.I. Samartsev va K. Madaminovlar O'zbekistonda Shvits qoramol zoti bo'yicha seleksiya ishlari rivojiga katta hissa qo'shgan.

**Sho'ba** [a. – soha, tarmoq; shoxobcha; bo'lim, filial] – 1 esk. Biror tashkilot yoki muassasaning bir qismi, bo'lim; idora. 1919-yildan boshlab Toshkent musulmon xotin-qizlar sho'basida rais bo'lib ishladim. (Z. Yusupova, «Olovli yillar»). *Shahar maorif sho'basining vakili shu qo'rani kelib ko'rib, maktab uchun juda mos, deb ketibdi.* (H. G'ulom, «Mash'al»). *Yer sho'basidan traktorni hozirdan so'rab qo'yish kerak.* (H. Shams, «Dushman»).

2 mus. Shashmaqom tarkibiga kiruvchi olti maqomdagi har bir bo'limning nomi.

**Sho'ra I** [f. – sho'r yer, zaxob yer] – tashlandiq yerlarda, ekin maydonlarida g'ovlab o'sadigan, barglarining usti yaltiroq, osti kulrang yovvoyi o't. *Ariqning narigi yonida kakra, supurgi, sho'ra, sassiqkapa, yana allaqanday yovvoyi o'tlar g'ovlab yotardi.* (A. Muxtor, «Opa-singillar»). *Erta bahor. Yorqinoy ko'k terib yuribdi. Qo'lidagi sirlangan tog'orani u yerdan bu yerga surar, u yon-bu yoniga elanib, otquloq, ismaloq, jag'-jag', momaqaymoq, yalpiz, sho'ra qidirdi.* (R. Rahmon, «Mehr ko'zda»).

**Sho'ra II** – tokning (uzumning) to'pguli, g'unchasi. *Toklar sho'ra chiqarib qolibdi. Birinchi xomtokni tok novdalarida sho'ra paydo bo'lishiga qarab, aprel oyining oxirida o'tkazish ma'qul.* (M. Sobirov, «Xomtok»).

**Sho'rajriq** – sho'r yerlarda o'sadigan, boshqolilarga mansub ko'p yillik o'simlik.

**Sho'razor** [f. – sho'r yer, sho'rlangan tuproq] – sho'ra ko'p o'sadigan yer, sho'ra bilan qoplangan maydon. *Bu yer ilgari tashlandiq sho'razor edi. Mast uchun gulzor bilan sho'razor baravar – yanchib o'taveradi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Unib gullar, Habibiy, sho'razor aylandi gulzora, Jahonga bo'ldi o'rnak shavkat-u shonim kanallardan.* (Habibiy).

**Sho'rbo'yan [(shildirbosh) – Sphaerophvsa salsula (Pall.)]** – dukkakdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub, bo'yi 25–100 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Sibir janubidagi cho'l, yarim cho'l, sho'r tuproqli yerlar, qumliklar, ariq bo'ylari, to'qaylarda, begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadi.

**Sho'rlangan tuproqlar** – ayn. **sho'r-xok**. Tarkibida suvda oson eriydigan zararli tuzlar 0,1 % yoki suvli so'rimdagi quruq qoldiq miqdori 0,25 % (0,3%) dan ko'p bo'lgan tuproqlar. *Beda, mak-kajo'xori kabi ozuqabop ekinlarga avvalambor kamhosilli, sho'rtuproq yerlar ajratilgan.* (Gazetadan).

**Sho'r yerlar melioratsiyasi** – tuproqning o'simlik ildizi tarqaladigan qatlami-dan qishloq xo'jaligi ekinlari hosili va sifatini pasaytiruvchi suvda eriydigan ortiqcha zararli (zaharli) tuzlarni chiqarib tashlash jarayoni. Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqalarida sho'r yerlar melioratsiyasi juda katta xo'jalik ahamiyatiga ega, chunki qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarning qariyb 60–65% u yoki bu darajada sho'rlangan,

faqat O'zbekistonning o'zida turli darajada sho'rlangan yerlar maydoni 2,4 mln. ga (66,7%) dan ortiq. Meliorativ tadbirlar majmui sho'r yuvishda suvni juda kam sarflangan holda tuproqdagi o'simlik uchun zarur oziq moddalarni va ularning rivojlanishi uchun qulay tuproq va suvning fizik xossalarini saqlashda eng yuqori samarani ta'minlashi kerak.

**Sho'rxoklar** [f. – sho'r tuproq, sho'r bosgan yer] – yuqori qatlamida 1% dan ko'proq suvda oson eriydigan tuzlar (xlorid, sulfat, karbonat va b.) ko'p bo'lgan tuproq tiplari guruhi. *Sho'r bilan qoplangan, sho'r bosgan yer. Tuproq sho'rxok bo'lganidan, yozgi shamol ta'sirida oson ko'chib turadi.* («Fan va turmush».) *Dashtning u yer-bu yerida olachalpoq qor pag'alari yotar, uni uzoqdan kishi oppoq sho'rxoklardan ajrata olmasdi.* (H. Tursunqulov, «Hayotim qissasi»). *...sho'rxok yerlardagi g'o'zani sug'orish uchun suvchining alohida ustaligi kerak.* (Gazetadan).

**Sho'rtoblar** – tuproqlar tipi; yuvilmaydigan suv rejimi sharoitida tuproq singdirish kompleksida natriy (singdirish hajmining 10–14% dan 70% gacha) to'planganda (tuproq eritmasi yoki grunt suvidan o'tadi) shakllanadi (sho'rtoblanish jarayoni).

**Sho'rlanish, tuproq sho'rlanishi** – suvda eriydigan mineral tuzlarning tuproqda to'planish jarayoni.

**Sho'r I** [f. – tuzli, tuzi ko'p] – 1. Me'yoridan ortiq tuz solingan, ta'mi o'tkir (ovqat, taom haqida). Sho'r ovqat. Palovni sho'r qilib qo'ymoq. Achchiqchuchukni sho'r qilib yubormoq. [Qodirjon:] *Hali osh vaqtida, oshning tuzini past qilib qo'yibsan yoki sho'r qilib*

*qo'yibsan, deb bahona qilaman-da, katta janjal chiqaraman.* (Hamza, «Tuhmatchilar jazosi»).

2 ot. Tuproq tarkibida tuzning ko'pligidan yer betida hosil bo'lgan tuz moddasi. *Yerning sho'rini yuvmoq. Yerda hali sho'r ko'p. Sotiboldi otam ham mening fikrimni tasdiqlayaptilar.* (N. Safarov, «Hadicha Ahrorova»). *O'rmonjonsho'r bosgan yerdan ilonizi bo'lib o'tib, to'qayga kirib ketgan tuproqtepani qamchining sopi bilan ko'rsatib: – Kanal! – dedi.* (A. Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

**Sho'ralamoq II** – gullash oldidan sho'ra, g'uncha hosil qilmoq, sho'ra chiqarmoq (tok haqida). *Toklar zangidan bargigacha shovul-shovul sho'ralapti, o'riklar-chi, shoxi g'o'ralapti. Bog' mevasi olgan bilan odosh bo'lmapti.* (Y. Shukurov, «Uch savol»). *Tokim sho'raladi, zangi suv ochib, Barglar qo'ltig'ida ingichka novda.* (S. Akbariy).

**Sho'rlamoq** – 1. Tarkibidagi tuz moddasi sirtiga tepib, tuzli oq dog'lar hosil qilmoq, sho'r bosmoq. Poydevor g'ishti zaxdan sho'rlab ketibdi. [Qultoyning] *Azbaroyi terlaganidan, chakmonining yelkasi sho'rlab-oqarib ketgan edi.* (Gazetadan).

2 ayn. **Sho'rlanmoq.** *Yerlarimiz sho'rlab ketgani uchun yaxob beryapmiz.*

**Sho'rlanmoq** – tarkibida tuz moddasi hosil bo'lmoq; ortiq darajada sho'r bo'lmoq. *Suv ham sho'rlanib, sifatini yo'qotadi.* (Gazetadan). *Sho'rlangan tuproqlar qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini keskin pasaytirib yuborishi hammaga ma'lum.* («Fan va turmush».)

**Shchit** [r. shit – tepa; to'siq, g'ov; himoya, boshpana] – 1. Biror zarba, o'q,



uchqun va sh.k. dan saqlanish uchun metallardan qilingan yoki biror qurolga o'rnatilgan to'siq; himoya qalqoni. Zambarak shchiti. *Ahmadjon pulemyotning qabzasini mahkam ushlagan holda, shchitning teshigidan dushmanni kuza-tar, aftidan, sherigining so'zini eshitmas edi.* (A. Qahhor, «Oltin yulduz»). *Egniga kombinezon kiyib, qo'liga elektrosvarka shchitini ushlab turgan [Samad akaning]*

*yuzi menga juda tanish edi.* (S. Ahmad, «Iqbol chiroqlari»).

2. Gidrotexnika inshootlarida: to'g'onning suv o'tkazadigan, surilib ochiladigan yoki yopiladigan temir darvozasi. *Energetika va avtomatika instituti xodimlari kanallardagi suv sathi va o'tayotgan suv miqdorini, shchit va zatvorlarning holatini avtomatik aniqlovchi asboblar yaratdi.* (Gazetadan).

## Ch

**Chaga** [(*Oq qayin qora zamburug'i*) – *Fungus betulinus*] – to'q jigarrang, ustki qismi yorilgan, qora tusli, qattiq, shakli har xil zamburug' bo'laklaridan iborat. Zamburug' parazit holida qayin va ba'zan boshqa daraxtlar (olxa, chetan va b.)da yashaydi. Chaga faqat qayin daraxtidan tayyorlanadi. Kuli tarkibida ko'p miqdorda marganes uchraydi.

**Chagana** – cho'ponlarning moliga yenchilab qo'shiladigan boshqalarning moli.

**Chakana** [f.] – 1. Donalab, maydalab yoki kichik to'p bilan sotiladigan va sotib olinadigan. Chakana savdo. *Chakana narxlarni o'zgartirish mumkinligi, shubhasiz, hozirgi paytda eng munozarali masaladir.* (Gazetadan).

2. Unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan; arziyasiz, mayda-chuyda. *Xosiyat xolaning erlari ham chakana paxtakor bo'lmagan ekanlar.* (R. Fayziy, «Cho'lga bahor keldi»). *Go'sht-yog' o'z qo'lingizda. Daromad ham chakanamasdir?* (S. Anorboyev, «Oqsoy»). *Chakana gapga quloq yo'q. Ish kechikadi.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

3. Mayda chorva mollari, qo'y-echki va aholiga tegishli shunday mollarni bo-

quvchi. *Shu kundan e'tiboran askar chakana cho'pon bo'ldi. Adirda uzun kun chakana mol boqdi.* (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**Chakanda** (*Hippophae rhamnoides L.*) – jiydadoşlar oilasiga mansub, to'qaylarda o'sadigan dorivor buta.

**Chakalak** – shoxlari bir-biriga chalakashib ketgan qalin butazor yoki daraxtzor. *Hovli orqasidagi chakalakdan sekin-sekin oy ko'tarila boshladi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»). *Bir kun chakalakka o'tin kesgani bordik.* («Zumrad va Qimmat».)

**Chakalakka qochmoq** (yoki urmoq) – o'zini biror ishdan chetga tortmoq, o'zini quruqqa olib qochmoq. *Qodirov salgina shashtidan tushib, bo'shshganday bo'ldi: – Nima uchun qilg'ilikni qilib, chakalakka qochasan?* (Sh. Rashidov, «Bo'rondan kuchli»).

**Chakalakzor** – chakalak bosgan joy; butazor. *Chakalakzordan bir hakka «shaqshaq»lab, uzun dumini cho'zgan gancha, narigi sohilga uchib ketdi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»).

**Chakamug'** – yopishqoq yumaloq tikanli, yapaloq bargli yovvoyi bir yil-

lik o'tsimon o'simlik va uning tikanagi. *Kalta dumiga darhol allaqayerdan chakamug' yopishtirib olgan eshak yutoqib. o'zini o'tga urdi.* (X. Sultonov, «Onamning yurti»).

**Chakmon** – odatda, jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to'n. *Choyxonaning burchagida, kunning dahshatli yonuviga qaramay, qalin, qora jun chakmonga o'ralgan qozoq devorga suyanib mudrar edi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

**Chaksa** – esk. O'zbekiston hududidagi qadimgi o'lchov birligi (asosan, pudning 1/3 qismiga teng bo'lgan). *Chumchuq semirsa, chaksa kelmas.* (Maqol). *Uyida chaksa uni yo'q, Tom boshida qo'sh tandir.* (Maqol).

**Chalabutalar** – bot. Tanasining faqat pastki qismi yog'ochlanib, yuqori qismi qishda qurib qoladigan ko'p yillik o'simliklar. *Chalabutalar ko'p yillik o'tlardan kurtak chiqaradigan shoxlarning yer ustidan bir necha santimetr yuqorida o'rnashganligi bilan farqlanadi.* («O'zME».)

**Chalma** – 1. Qo'y-echki oyog'i ostida to'planib, qatlam hosil qilgan go'ng. *Abdusamad ertalabdan kun qiyomga yetguncha pishillab chalma chopdi.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

2. Mol go'ngidan katta chambarak qolipga solib yasalgan yoqilg'i. *Chalma quymoq. Sakkiz gektar chiqadigan o'rikzorga qarash, bahor ayozlarida chalma tutatish Omonning bo'ynida edi.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»).

**Chalob** – shv. Qatiq yoki suzmadan tayyorlanadigan chanqovbosar ichimlik. Chalobni tayyorlash uchun suzma

(1 kg suzmaga 2 l suv) qaynatib sovitilgan suv bilan yaxshilab atalanadi. So'ng tuz, qalampir, ko'kpiyoz, kashnich, ukrop, rayhon va b.lami mayda to'g'rab, atalangan suzmaga solib aralashtiriladi. Tayyor chalob iste'moldan oldin sovitiladi yoki muz solinadi. Chalob yozning issiq kunlarida chanqoqni yaxshi bosadi. *Suzma yoki qatiqdan tayyorlangan chanqovbosdi ichimlik? – dedi Inod.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»). *Tayyor chalob iste'moldan oldin sovitiladi yoki muz solinadi.* («O'zME».) *Shaymon chol endigina somondan qaytib, ayvonda chalob ichib o'tirardi.* (N. Norqobilov, «Bekatkadagi oq uycha»).

**Chalov** – g'alladoshlarga mansub, qir-adirlarda o'sadigan, yem-xashak bo'ladigan ko'p yillik yovvoyi o'simlik. *Sarhovuz betini chalov bosgan.* (S. Siyoyev, «Otliq ayol»).

**Chalg'i** – uzun dastali katta o'roq. *Chol pichan g'arami oldida chalg'i charxlar edi.* («Sharq yulduzi».)

**Chalg'ichi** – chalg'i bilan o't o'ruvchi.

**Chalchiq** – balchiq; iflos, loyqa suv. *Chalchiq yerda tuya yursa toyadi.* («Yusuf va Ahmad».)

**Chama** – 1. O'lchov, me'yor. *Har bir ishning chamasi bor, Har daryoning kemasi bor.* (Maqol).

2. Mo'ljal, taxmin. Chamamda soat uch bo'ldi. *Chamangda shu qovun necha kilo keladi? Ularning [odamlarning] chamalaricha, bu yerlarda ish hali uchto'rt kunga yetib ortardi.* («Sharq yulduzi».)

3 mod. s. Mening fikrimcha: shekilli.

**Chamalamoq** – 1. Chama bilan aniq-lamoq, chama qilmoq, mo'ljallamoq; tax-

minlab ko'rmoq. *U qayiqqacha bo'lgan masofani chamalab, ikki yuz qulochdan kam emasligiga ko'zi yetdi.* («Yoshlik») *Dallol quvonib, eshagiga mindi-da, soyasiga qarab, vaqtini chamaladi.* («Yoshlik».)

**2.** O'ylab, mo'ljal qilib, rejalashtirib qo'ymoq, belgilab olmoq, ko'zlammoq.

**Chaman** [f. – o'tloq; gulzor; sayilgoh] – gul ko'p joy; gulzor, chamanzor, gulshan. *Bulbul chamanin sevar, odam – vatanin.* (Maqol). *Kuz shamoli kirib chamaniga, Axtaradi gullar atrini.* (Uyg'un).

**Chaman bo'lib ochilmoq** – qiyg'os ochilmoq (gul haqida). *Mitti chigit urug'i yer bag'rida nish urib, chaman bo'lib ochilgunga qadar qanchadan qancha mehnat va harakatni taqozo etadi.* (Gazetadan).

**Chamandagul** – to'pgul bo'lib ochiladigan, gullari oq, qizil, pushti, sariq, binafsharang o'tsimon o'simlik. *Chamandagul xonadonlarda, ko'p qavatli uylar balkonida, park va xiyobonlarda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.* («O'zME».)

**Chamanzor** [f. – gulzor; ko'kalamzor] – gulzor, gulxona; gulshan. *Tongda kirdim chamanzorimga, Barglar bilan yel o'ynar mayin.* (Mirtemir).

**Chambarlamoq** – chambarchas qilib, o'rab-chirmab bog'lamoq. *Sigirning arqonini qoziqqa chamberlab qo'ydim.*

**Chan** [r. chan < qad. r. dishchani – yog'och, taxtadan qilingan] – suyuqlik saqlanadigan, temir belbog'lar bilan mahkamlangan katta yog'och idish; yom. *Vino solinadigan chan. Teri ishlanadigan chan.*

**Chandimoq** – 1. Mahkam siqib bog'lamoq, siqib qo'ymoq. *Buzoqni olmaga*

*qapishtirib, chandib bog'ladim.* («Yoshlik».)

**2 shv.** Chatmoq, chatib ulamoq, biriktirmoq. *Ularining ishorasi bilan ikki sarboz og'zi kanop bilan chandilgan qopni olib kelib, haligi kishilarning oyog'i ostiga tashladi.* (S. Karomatov, «Bir tomchi qon»).

**Chandir** – 1. Go'shtning qattiq pay qismi. *Go'sht o'rnida chandir chaynashga kimning toqati bor deysiz.* (Gazetadan).

**2 ko'chma.** Qotma, pishiq, chayir. *Chandir odam.*

**Chandish** – 1. Chandimoq (fl. har. n.). *Arqon bilan chandish.*

**2.** Bir-birini gap bilan olish, askiyaning bir turi. *Chindan ham chandishlarda hazil elementi bor.* («O'TA».)

**Changak** [f. – ilmoq, ilgak] – biror narsa ilish uchun yog'och, temir va sh.k. dan yasalgan panjali ilmoq; ilgak. *Changakda osilib turgan chelakdan bir cho'mich suv olib ichdi.* («Yoshlik».) [Qassob] *Changakdagi go'shtlari-yug'aladondagi pullarini yonidagi choyxonachiga tayinlab ketibdi.* (Shukrullo, «Javohirlar sandig'i»).

**Changal II** [f. – o'rmon, daraxtzor] – 1. Tikanli butalar, o'simliklar. *Yantoq yog' o'rnini bosmas, Changal – bog'.* (Maqol). *Ular chapga burilib, o't bosgan katta ariqdan yigirma-o'ttiz qadam yurgach, to'p-to'p changal boshlandi.* (O. Yoqubov, «Er boshiga ish tushsa»).

**2 ayn.** **Changalzor.** [Yo'lbars] – *Mangu qochar, qochar tog'lardan, O'rmonlardan, changal, to'qaydan.* (Sh. Rahmon»).

**Changdon** – bot. Gulning chang, ya'ni erkak jinsiy hujayrali paydo

bo'ladigan tepa qismi; changchining asosiy qismi.

**Changitish** – 1. Changitmoq (*fl. har. n.*). *Bu tirranchalarni o'qitib mulla qilmasangiz, ko'cha changitishdan boshqani bilmay qola beradi.* (P. Tursun, «O'qituvchi»).

2 *q.x.* Zararli hasharotlarni yo'qotish maqsadida o'simliklarga yoki tuproqqa changitkichlar yordamida kukunsimon zaharli moddalarni sepish.

**Changitkich** – *q.x.* Dala ekinlari, bog', tokzorlarda defoliatsiya qilish va changsimon moddalar sepish uchun mo'ljallangan, traktorga o'rnatib yoki yelkaga osib ishlatiladigan mashina. *Changitkichning ish organlari traktorning quvvat olish validan harakatlanadi.* («O'zME».)

**Changlagich** – 1 *bot.* O'simliklarning chetdan changlanishiga yordam beruvchi vositalar (hasharotlar, shamol va sh.k. haqida).

2 *ayn.* **Changitkich.**

**Changlamoq** – 1 *ayn.* **Changitish**  
2. G'o'za bitlarini yo'q qilishda ba'zan quruq dorini changlash usuli qo'llanadi.

2. Gullarning erkak va urg'ochi jinsiy hujayralarini biridan ikkinchisiga o'tkazmoq. *Asalarilar guldanda gulga qo'nish bilan o'simliklarni chetdan changlaydilar.* («Zoologiya».)

**Changlanish, o'simliklarda** – changlarning urug'chi tumshuqchasiga (gulli o'simliklarda) yoki urug' kurtakka (ochiq urug'larda) tushishi. Changlanishdan so'ng changdon chang poychasi rivojlanadi; poycha tugunchaga qarab o'sadi. Poycha orqali urug' hujayralar – spermitlar urug' kurtagidagi tuxum hujayraga yetib boradi. Urug'langan tuxum

hujayralardan murtak rivojlanadi. Gulli o'simliklarda chetdan va o'zidan changlanish sodir bo'ladi.

**Changlanmoq** – 1. Changlamoq (*fl. majh. n.*). **Changlangan g'o'zalar.**

2 (*fl. o'zl. n.*) O'simliklarning tabiiy va sun'iy yo'llar bilan changlanishi.

**Changchi II** – *bot.* O'simlik gulining changdon va erkak jinsiy ipdan iborat asosiy qismi. *Changchining yashash xususiyati har xil o'simlik turlarida turlicha.* («O'zME».)

**Chanoq** – 1. Ko'sakning har bir xonasi. *G'o'zalar bo'liq, har bitta chanoq piyoladek bo'lib ochilib turibdi.* (S. Siyoyev, «Otlig ayol»).

2. Bosh kosasi, ko'z kosasi va, umuman, kosachasimon suyaklar. Chanoq suyagi. *U [Bashirjon], eshigiga kalla chanog'i hamda ilik suyagi tushirilgan temir uycha panasiga o'tdi.* (N. Aminov, «Qahqaha»). *Uning [Ahmadoxunning] ko'z soqqalari chanog'idan chiqayozgandi.* (K. Yashin, «Hamza»).

3. Tegirmonning do'lidan don tushib turadigan tarnovsimon qismi.

4 *shv.* Chig'anoq.

**Chanqatmoq** – 1. Chanqamoq (*fl. ort. n.*). *Qaymoq zo'rlik qilib, o'lguday chanqatdi.* (E. Raimov, «Ajab qishloq»).

2 *q.x.* Suvga tashna qilib qo'ymoq; suvsiratib qo'ymoq. G'o'zani chanqatib sug'ormoq. *Chanqatib qo'yilgan g'o'za gullarini to'kib yuboradi.*

**Chanqoq** – 1. Suvga tashna, suvtalab, suvsagan; suvsiragan. *Sadaqaning afzali chanqoq odamlarga suv ulashmoqdir.* («Fan va turmush».)

2 *ko'chma.* Zor, tashna, mushtoq, intizor.

**Chanqoqlik** – suvga tashnalik; suvsirash. *Ayrim hollarda chanqoqlik tepadan betinim tushib turgan bombalar va snaryadlardan ko'ra ko'proq tinkani quritib, jangchilarni holdan toydirib yuborardi.* (T. Rustamov, «Mangu jasorat»).

**Chang'arog'** – o'tovning ustki qismidagi tuynuk chamberagi. *O'tov chang'arog'idan dasturxonga taftli nur tushdi.* (T. Murod, «Yulduzlar mangu yonadi»).

**Chapya** – shv. Sut, qatiq, suyuq ovqat solish uchun ishlatiladigan sopol idish; xurmacha.

**Chaqamig'** (*Turgenia latifolia* (L) Hoffm.) – soyabonguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 50 sm keladigan bir yillik begona o't. May oyida gullab, iyunda urug'laydi. Lalmikor g'alla ekinlari ichida juda ko'p uchraydi, sug'oriladigan yerdagi ekinlar orasida, shuningdek bo'z va quruq yerlarda ham o'sadi. O'zbekistonning hamma lalmikor tumanlarida uchraydi. Chaqamig' mevasi ilgaksimon tikanlar bilan qoplangan. Shuning uchun kiyimlarga va hayvon juniga oson ilashadi va shu yo'l bilan bir joydan boshqa joyga tarqaladi.

**Chaqirtikanak** – bot. Poyasi yer bag'irlab o'sadigan yovvoyi o't va uning yulduzcha shaklli tikani. *Umid yantoq, chaqirtikanaklar yonida cho'nqayib o'tirib, ho'ng-ho'ng yig'lardi.* (Mirmuh-sin, «Me'mor»).

**Charm** [f. – ishlov berilgan teri] – 1. Hayvonlar terisidan yoki sun'iy xomashyodan tayyorlanadigan material; ko'n. [Chol] *Teriga suv purkaydi va ko'va bilan do'q-do'q urib, charmni tekislaydi.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Oyoq kiyimning ostki qismi, tag-charm. *Mahsi charmi. Tuflı charmi.*

3 sft. Charmdan tayyorlangan, charm-dan tikilgan, charm qoplangan. *Charm sumka.*

**Charos** – o'rtapishar, yumaloq qora uzum. *Ichkari hovli keng, gulzor, baland so'riga ko'tarilgan toklar. Charos, husayni uzumlar g'arq pishib, boshlari osilib turibdi.* (Y. Shamsharov, «Toshqin»).

**Charter** [ingl. charter – shartnoma < yun. chartion – varaqcha, bir parcha qog'oz] – dengiz yoki havo orqali yo'lovchi yoki yuk tashish uchun kema, samolyot egasi bilan uni yo'llovchi shaxs o'rtasida tegishli transport vositasini yoki uning bir qismini ma'lum reys yoki vaqtga ijaraga olish haqida tuzilgan shartnoma.

**Charter reys** – shunday shartnoma asosida amalga oshiriladigan reys.

**Charvi** [f. – yog', moy; yog'li; yog'lilik] – molning (yoki qo'y, echki, ot va sh.k. ning) ichaklari atrofida bo'ladigan yog', ichki yog'. Qo'y charvisi. *Go'sht ezilib, qiymasimon bo'lganda olib, charvi yog'idan mayda to'g'rab, mijib aralash-tiramiz.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Charvoq** [f. – to'rt tomoni bog', katta bog'] – s.t. **Chorbog'.** *Bizlar sayr etgali bordik charvoqqa, Odami yo'q gul ochilgan ovloqqa.* («Ravshan».)

**Charx** [f. – g'ildirak; doira, aylana; chig'ir] – 1. Ip yigiradigan dukli qo'l asbobi. *Yaxshi xotin erta turib, charx yigirar, Yomon xotin erta turib, o'choq kovlar.* (Maqol). *Kimdir charx yigiryapti, shekilli, g'ir-g'ir ovoz ham kelyapti.* (X. To'xtaboyev, «Yillar va yo'llar»).

2. Har xil asboblarning, qurilmalarning aylanadigan qismi; parragi.

Tegirmon charxi. – *Yuringlar, o'shal qu-duqning charxini aylantirurmiz, – dedi Alisher.* (M. Osim, «Karvon yo'llarida»).

3. Kesuvchi asboblarning tig'ini o't-kiraydigan, qayraydigan asbob. *Charxda pichoq charxlamoq.*

**Charxak** [*f.* – kichik charx; ip, kala-va o'rash qurilmasi] – 1 *shv. ayn.* **Chambarak 2.**

2. Ip kalavaydigan charxsimon mos-lama.

**Charx ilonlar** – qora ilonlar oilasi-ga mansub ilonlar urug'i (tanasini halqa qilib o'rganida, tangachalari ishqalanib, charx toshi aylanishiga o'xshash ovoz chiqaradi).

**Charxlamoq** – kesuvchi asboblarn-ning tig'ini o'tkirlamoq, qayramoq. Pi-choq charxlamoq. *Chol pichan g'arami oldida chalg'i charxlar edi.* («Sharq yulduzi»). *Hakim sovg'a qilgan qalam-taroshning yoniga oshpichog'imizni charxlab qo'shib qo'ydim.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»).

**Charxpalak** [*f.+a.* – osmon gumbazi; dunyoning, taqdirning o'zgaruvchanligi, beqarorligi]. – 1. Suv kuchi bilan aylanib, katta ariqdan yuqoriga suv chiqaradigan eng qadimiy qurilma; chig'ir. *Kech yengil shabadada barglar asta shildirar, bu ma-yin sas yalqovlanib aylanayotgan charx-palakning g'irch-g'irchiga qo'shilib ketardi.* (Y. Shamsharov, «Toshqin»). *Charxpalak chuqur soy tubidan suv olib, tevarakka jon baxsh etmoqda.* (J. Abdul-laxonov, «Oriyat»).

2. Ma'daniyat-istirohat bog'lariga, bolalar maydoniga o'rnatiladigan, bir nechta kajavasi bo'lgan, gorizontal o'q at-rofida elektr quvvati yordamida aylanuv-chi katta g'ildirak tarzidagi ko'ngilochar

inshoot. [*Qiz*] *Qiyqirib kular, tezlikni pi-sand qilmas, charxpalak yana o'n marta tezroq charx ursa ham, unga kamlik qila-digandek edi.* (A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda»).

**Chatir** [*f.* – soyabon, gajak] – *bot.* Yem-xashak bo'ladigan yovvoyi o't. *O'tkazilgan tajribalar cho'l va adirlarda, yaylovlarda shuvoq, yaltirbosh, chatir singari yovvoyi o'simliklardan ekib, ta-biiy yaylovlarning hosildorligini birmun-cha oshirish mumkinligini ko'rsatadi.* («Fan va turmush».)

**Chatish** – 1. **Chatmoq** (*fl. har. n.*). *Oq ip bilan chatish. Tugma chatish.*

2. Aralash, duragay. *Chatish qo'y.*

3. Tutash, chegaradosh. *Chatish dala-lar.*

4. Uzoq qarindosh, biroz qarindoshli-gi, yaqinligi bo'lgan, chatishgan. *U bizga ona tomondan chatish.*

**Chatishmoq** – 1. **Chatmoq** (*fl. birg. n.*).

2. Duragay bo'lmoq, duragaylash-moq. *Chatishgan mollar.*

3. Uzoq qarindoshlik munosabati bi-lan bog'lanmoq. – *Ahmad Yassaviy bal-ki bizning pirimizga chatishgan qarindoshdir? – so'radi majlis ahlidan biri.* (Oybek, «Ulug' yo'l»). *Asli ular bilan Anziratlarning chatishgan joyi bor – qa-rindosh.* («Yoshlik».)

4. Bir-biri bilan qo'shilib, birlashib ketmoq. *Boboqayrog'ochning o'zaro cha-tishib ketgan shoxlariga boqib, «islیمی mo'jiza», deb o'yladi yigit.* (S. Siyoyev, «Yorug'lik»). *Bepoyon dalada bir botir uklar: Sochlari chatishib ketgan giyohga.* (X. Davron).

**Chatishtirish** – *urug'lanish jara-yonida irsiy jihatdan bir-biriga o'xsha-*

maydigan ikkita jinsiy hujayraning tabiiy yoki sun'iy qo'shilishi; urug'larni qo'shish yo'li bilan yangi nav, yangi zotni yuzaga keltirish. Chatishtirishga birin-ketin ikkitadan ortiq ota-ona shakllari jalb etilsa, murakkab chatishtirish hisoblanadi. («O'zME».) [Zayniddin] Limon daraxtlarini bir-biriga chatishtirib, yangi, mazali, serhosil navlar bunyod etish uchun astoydil intildi. («Guliston».) ...burnog'i yili mayin junli zotli qo'chqorlar keltirilib, o'zimizning jaydari qo'y va echkilarga chatishtirish boshlangan edi. (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Chatishtirilgan terak** – mazkur terak navi respublikamizda 1949-yilda V.M. Rovskiy va G.P. Ozolinlar tomonidan chatishtirish yo'li bilan olingan. Shox-shabbasi va tanasi tik holda bo'lib, juda tez – ikki yilda 6 m o'sadi. 15 yoshga yetganda balandligi 25 m ni, yo'g'onligi 30 sm, 25 yoshligida tegishli ravishda 35 m va 63 sm ni tashkil etadi. Ushbu terak 30 yoshga yetganda uning bo'yi 36 m va undan ham balandroq, yo'g'onligi esa 65 sm ni tashkil etadi. Undan chiqadigan yog'och mahsuloti gektar boshiga 900 m<sup>3</sup> ga tengdir. U zararkunanda va kasalliklarga chalinadi. Qalamchasidan va to'nkasidan yaxshi ko'karadi. Shuning uchun ham suvli yerlarda ihota daraxtzorlarida foydalanilsa, birinchidan, tez o'sadi va hosildorlikni oshirishga munosib hissa qo'shadi. Ikkinchidan, yetilgandan keyin to'nkasini 25–30 sm qoldirib qirqib olib, 2–3 marotaba ishlov berib, yer ozuqa moddalar bilan to'ydirilsa, to'nkasidan unib chiqqan novdalar 2–3 yil ichida 6–8 metr o'sib, ihota daraxtzorlarni yangilab olishni tezlashtiradi.

**Chatishtirilgan tez o'suvchi terak** – bu terak tanasi silindrsimon, tanasining deyarli 18 m dan oshiq qismi shoxlanmagan va tik o'sgan bo'ladi. Tez o'sishi, mahsuldorligidan tashqari, u turli kasalliklarga boshqa teraklarga nisbatan chidamlidir. Bu terak navi sho'rxok yerlarda o'sa olishi bilan qurg'oqchilikka ham bardosh bera oladi. Shuning uchun dasht, cho'l mintaqa hududlarida barpo etiladigan ihota daraxtzorlarida ham foydalanish mumkin.

Bu turdagi terak navi yer osti suvlari 3 m gacha bo'lgan yerlarda 30 yoshda ham o'sa olishi mumkin. Sho'rlangan botqoqli tuproqlarda bu terakning bo'yi 40 m, yo'g'onligi 50 sm ga yetgani kuzatilgan.

G.P. Ozolinning ko'rsatishicha, bu terak bo'yi 5 yoshligida 15,6 m ni, yo'g'onligi 10,3 sm ni va yog'och miqdori gektariga 64,4 m<sup>3</sup> ni, 20 yoshligida balandligi 24,4 m ni, yo'g'onligi 29,9 sm ni va yog'ochi 950 m<sup>3</sup> gachani tashkil etadi. Bu terak yer osti suvlari yaqin yerlarda yaxshi o'sishi natijasida kanallardan dala maydonlari tomon 40–50 m yerlarda barpo etiladigan ihota daraxtzorlarga ekilsa yaxshi natija beradi. Avvalambor, u yer zaxlanishining oldini olsa, ikkinchidan, yaxshi o'sib, qishloq xo'jalik ekin maydonlaridagi hosildorlikni oshirib, xo'jalikka katta samaradorlik keltiradi, uchinchidan, undan ko'plab yog'och mahsuloti olish mumkin.

**Chatishtirmoq – chatishmoq 2** (*ft. ort. n.*). Mayin junli qo'ylarni chatishtirib ko'paytirmoq.

**Chavkar** – 1 *sft.* Ola-bula; qora xolli, xol-xol (ot tusi haqida). *Chavkar otda qoqqan qoziqdek bo'lib o'tirgan yigit:* – *Mana bu bo'z xo'p charchatdi meni,* –

dedi. (Sh. Xolmirzayev, T. Usmonov, «Soʻnmas oʻt»).

2. Shunday tUSDagi ot. *Nigora oʻsha kuni peshin mahalda chavkarini qora terga botirib, Oqsoyga kirib keldi.* (S. Anorboyev, «Oqsoy»).

**Chavoq** – baliq turi. *Havoda bir necha mayda chavoq yalt-yult etdi-yu, suvga tushib ketdi.* (Q. Kenja, «Togʻ yoʻlida bir oqshom»).

**Chayir I** – 1. Tolalari mahkam birikkan, yorilishi, ishlanishi qiyin (yogʻ och-taxta, oʻtin haqida).

2 *koʻchma.* Baquvvat, pishiq.

**Chayir II** – quruq dashtlarga moslashgan, gullari sargʻish, ozuqabop va shifobaxsh oʻtsimon oʻsimlik. *Chayirning ildizlarida shira – smola, kraxmal, barglarida efir moyi bor.* («OʻzME».)

**Chaynash, kavshash** – oziqni ogʻiz boʻshligʻida maydalash va soʻlak bilan namlashdan iborat fiziologik akt; ovqat hazm qilishning boshlangʻich fazasi.

**Chashma** [f. – buloq, manba] – 1. Yer ostidan chiqayotgan suv manbai va uning suvi. *Mergan bagʻrini yerga berib, chashma suvidan qonib-qonib ichdi. Uning oʻtkir koʻzlari chashma atrofidagi giyohlarga qadaldi.* («Yoshlik».)

2 *koʻchma.* Biror narsaning manbai. Ijod chashmasi. *Bilim chashmasi. Mehr chashmasi.*

**Chegana** – shv. ayn. **Chakana 3.**

**Chek, pol** – tekislangan tuproq va marzalar bilan oʻralgan dala uchastkasi; sholi ekishda, bostirib sugʻorishda yoki tuproq shoʻrini yuvishda qoʻllaniladi.

**Chek IV** – 1 *q.x.* Sholi ekish uchun tekislanib, marzalar bilan ajratilgan yer, dala uchastkasi. *Shahardan chiqib, kattakichik qishloqlarni, mayda-yirik cheklar-*

*ni kesib oʻtgan chang tuproq yoʻlda, Hoji xola yoshgina juvon bilan bordi.* (M. Ismoiliy, «Fargʻona t.o.»).

2. Shaxsiy uy-joy qurish uchun ajratilgan yer maydoni va shu yerga qurilgan uy-joyning oʻzi.

**Chekanka** [*r. chekanka*] – *q.x.* gʻoʻzaning, uzumning yuqori shoxlarini yoki yuqori shox uchlarini qirqish, uzish, chilpish. *Hosil tugish davrida gʻoʻzani chekanka qilish muhim agrotexnik talablardan hisoblanadi.* (Gazetadan). *Ilgari chopiq, yagana-yu chekanka qilish ham oʻquvchilarsiz bitmas edi.* (M. Hazratqulov, «Jurʻat»).

**Chekankachi** – gʻoʻzani chekanka qiluvchi mutaxassis dehqon.

**Chel** – shv. Ekin maydonlari, yer pol (taxta)lari orasidagi chegara; uvat. *Rezina etikli kishi ertalabdan buyon dala aylanib, chellarni koʻzdan kechiradi.* (Gazetadan).

**Chen** – shv. Chama, moʻljal; oʻlchov. *Kim tanimas Koʻkan degan kolxozchini, Tanimagan eslab koʻrsin yetsa cheni.* (Gʻ.Gʻulom).

**Cheryomuxa** [*qad.r. cherema* – qorachadan kelgan, bugʻdoyrang.] – shox-shabbalari keng, gullari xushboʻy hidli, rezavor mevali, raʼnoguldoshlar oilasiga mansub daraxt yoki buta; shumurt.

**Chetan** (*Sorbus*) – bu turkumga daraxtlar kiradi. (*Sorbus persica Hedl.*) – raʼnodoshlar oilasiga mansub, togʻda oʻsadigan buta. Ularning shox-shabbasi yoyiq, shoxlari va tanasining poʻstlogʻi silliq, barglari yonbargchali, navbat bilan joylashadi, kuzda toʻkilib ketadi. Gullari oq yoki oq-sariq, ular yigʻilib toʻpgul hosil qiladi. Ular ikki jinsli, hasharotlar yordamida changlanadi. Mevasi yuma-



loq yoki oval shaklda olmaga o'xshash qizil yoki sariq. Ko'p urug'li barglari murakkab toq patsimon va oddiy, butun yoki bo'lakli patsimon tuzilganligi bilan turkumning boshqa turlaridan farq qiladi. 80 ta turi bor, ulardan 34 tasi MDH da yovvoyi holda o'sadi.

**Chetan I** – 1. Sochiluvchi yuklarni tashish uchun tol, tut novdalaridan to'qib yasalgan maxsus kajava, kuzov. *Qovunim pishib chirib ketdi. Jilla bo'lmasa, bitta chetanda olib tushay-da, sotib, bolalarga kiyimlik olay, deb xayol qilgan edim.* (Oybek, «Tanlangan asarlar»).

2. Chetandan qilingan, chetan bilan o'ralgan. *Adolat xirmondagi paxtani chetan aravaga ortgach, tepasiga o'tirib, qishloqqa jo'nadi.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»).

**Chetik, Pochaqirqar** (*Hultemia persica* (Michx) Bornm.) – ra'noguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 15–25 sm keladigan, tikanli buta o'simligi. May-iyunda gullab, iyun-avgustda meva tugadi. Tog'oldi va tog' etagidagi tekisliklarda o'sadi. Lalmikor va sug'oriladigan ekinlar ichida begona o't sifatida uchraydi. O'zbekistonda va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida tarqalgan.

**Chechak I** – tabiiy ravishda o'sadigan gulli o'simlik; gul. *Dala chechaklari. Xushbo'y chechak. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast.* (M. Osim, «Karvon yo'llarida»). *Shamollar ichida men ham bir shamol, Chechaklar atridan men ham sarmastman.* (A. Oripov).

**Chibalang** – Buxoro qorako'l qo'y-larining chorvadorlar tilida atalishi, dumli qo'y.

**Chibin** – *shv. Chivin.*

**Chibich** – bir yoshligida, uloqligida tuqqan echki.

**Chigirtka** – 1. To'g'ri qanotlilar turkumiga mansub, qishloq xo'jalik ekinlariga zarar keltiruvchi hasharot. *Chigirtkalar ekin yer, ekmay-tikmay tekin yer.* (Maqol). *Chigirtka chirillaydi, hammayoq suv quygandek jimjit.* (O'. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»). *Ularning [o'to'lanlarning] orasidan mayda sariq, qora chigirtkalar uchib chiqar, sakrab, boshqa yerga qo'nardi.* («Yoshlik».) 2 *ko'chma. nafr.* Baloxo'r, bosqinchi. – *Keldilar chigirtkalar! – dedi u tomonga qarab Haydar. Hammalari u tomonga qaradilar. Yigirma-yigirma besh otliq yo'lni changitib kelmoqda edi.* (S. Ayniy, «Qullar»).

**Chigit** – g'o'zaning urug'i; terilgan paxtani qayta ishlab olinadi. *Yozib oling yon daftarga: G'o'za unar chigitdan.* («Mushtum».) *Chigit chiqindilarini qayta ishlab, ulardan sellyuloza, spirt, lok va b. mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.* («O'zME».)

**Chigitli** – chigitli paxta. *Chigiti olinmagan paxta.*

**Chigit moyi, paxta moyi** – paxta urug'i (chigit)dan olinadigan o'simlik moyidir. Chigit moyi yarim quriyigan yog'lardan bo'lib, asosan, ovqat hamda texnika maqsadlari uchun ishlatiladi. Undan margarin, sovun, alif va shu kabi mahsulotlar tayyorlashda hamda meditsinada foydalaniladi.

**Chigitli paxta** – tola va tuklari chigitlaridan ajralmagan paxta. Paxta zavodlarida mashinalar vositasida avvalo chigitlardan paxta tolalari ajratib olinadi, undan keyin boshqa mashinalarda chigit sirtida qolgan kalta tolalar va tuklar

qirtishlab ajratib olinadi. Chigitlardan ajratib olingan tola miqdori chigitli paxta og'irligiga nisbatan (% hisobida) tola chiqishi deyiladi. O'zbekistonda ekiladigan paxtalarda tola chiqishi taxminan 30–40% atrofida bo'ladi.

**Chigitning bo'rtishi** – chigitning nam va harorat ta'sirida yiriklashib una boshlashi.

**Chigitning moydorligi** – madaniy g'o'za chigitida 20–25% moy bo'ladi.

**Chigitning morfologik belgilari** – chigitning tashqi belgilari; tuzilishi, rangi va shu kabilar.

**Chil I** – qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub o'troq ov qushi. ...*kiyik oviga ketayotgan bo'lsa, yo'lida duch kelgan kaklik, chillarni ham ayamasi*. (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Chilgi** – *shv. Chillaki*. *Yaqinda gilos pishadi, so'ngra – chilgi*. (I. Rahim, «Hayot buloqlari»). *O'limdan boshqa hamma narsaning chilgisi yaxshi*. (Gazetadan).

**Chilimqovoq** – qobig'idan chilim yasaladigan uzun qovoq. *Non o'rniga kesaq tishlab, yoz bo'yi suv ichib ishlab, bita chilimqovoqqa ega bo'lib o'tiribman*. (A. Qodiriy, «Kichik asarlar»)

**Chil kaklik** – cho'l kakligi.

**Chilla** [*f.* – qirq kun] – 1. Yilning eng issiq yoki eng sovuq qirq kuni. *Chilla kirdi. Chilla chiqdi. Hali barvaqt bo'lishiga qaramay, chilla emasmi, quyosh yonib bosh ko'tarmoqda edi*. («Sharq yulduzi».)

2. Bola tuqqan yoki tug'ilgandan, qiz turmushga chiqqandan, yigit uylangandan, marhum ko'milgan kundan keyingi qirq kunlik davr: turmushdagi ba'zi hodisa-holatlarining eng og'ir, xatarli yoki ma'suliyatli davri. *Chaqaloqning chillasi chiqqach, yangi uyga ko'chib bordilar*.

**Chillaki** [*f.* – «chilla» *s. dan*: qirq kunda (erta) pishadigan] – 1 *ot*. Ertapishar uzum, uzumning eng oldin pishadigan turi. Oq chillaki. *Chillaki chillakini ko'rib chumak uradi*. (Maqol). *Oq kishmish, qora, oq chillaki, charos ko'zlarni qamashtirguday serhosil*. (N. Safarov, «Olovli izlar»). 2 *sft*. Ertapishar, ertagi. Chillaki shaftoli. Chillaki qovun. 3 *sft*. *ko'chma*. Yaxshi tayyorlik ko'rmagan, chala o'qigan. Chillaki olim. *Maorif ochgan kurslarda bir talay chillaki muallimlar o'qishayotibdi. O'rnimga o'shalardan bittasini ola beradi-da*. (P. Tursun, «O'qituvchi»).

**Chillakoyoq** (*Koeleria gracilis Pers.*) – boshqodoshlar oilasiga mansub, bo'yi 25–60 sm keladigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Iyun-iyul oylarida gullaydi va urug'laydi. Bu o'simlik asosan Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida, tog'larning o'rta belidagi joylarda o'sadi. Uni qishloq xo'jalik hayvonlarining hamma turi yil bo'yi xush ko'rib yeydi.

**Chillashir** [*f.* – chilla + – sut: chilla davrida sut emayotgan yoki emizayotgan] – 1. *To'xtovsiz ich ketishi, kamqonlik, ozib ketish bilan kechadigan kasallik. Shunisi aniqki, otquloq kamqonlikda, kolit, enterokolitda, bolalarda bo'ladigan chillashirda dori sifatida ishlatilgan*. (Gazetadan).

2. Juda ozg'in, oriq. *Ilhomjon g'ildirakni o'rnatib, murvatlarni kalit bilan qotirayotganida, bir chopon bola sutdan ayrilgan, chillashir buzoqlarni haydab o'tdi*. (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Chilon II** [*f.* ~ jiydaning bir turi] – ayn. **Chilonjiyda**. [*Chilon O'zbekistonda qadimdan ma'lum bo'lib, nomi turlicha*:

*chilonjiyda, chilon, jilon, unobi deb atalib kelinmoqda.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»).

**Chilonjiyda** – bot. Jiydaning qizg'ish-jigarrang po'stli, oq, shirin etli, dumaloq yoki tuxumsimon mevasi bo'lgan turi. *Mutaxassislarning fikriga qaraganda, xiyobonlarga, istirohat maskanlariga nok, o'rik, chilonjiyda, gilos, tut o'tqazish mumkin.* (Gazetadan).

**Chilpimoq** – q.x. O'simliklarni bo'yiga o'sishdan to'xtatish, hosil to'plash, tezroq yetiltirish maqsadida ularning bachki shoxlarini yoki hosil novdaning uchki qismini yulib yoki kesib tashlamoq; chekanka qilmoq. *G'o'zalarni chilpimoq.*

**Chilpish, chekanka, dekapitatsiya** – o'simlikni bo'yiga o'sishdan to'xtatish, hosil to'plash va yetilishni tezlatish maqsadida o'sish nuqtasi yoki hosil novdaning uchki qismini olib tashlash; qo'shimcha agrotexnika tadbirlaridan biri. Chilpish shakllanayotgan hosilga oziq moddalarning yetib kelishini kuchaytirish, ularning rivojlanishiga qulay sharoit yaratish.

**Chilvir** – ingichka pishiq arqon, arg'amchi; chizimcha. *Hoji ota, otning chilviridan ushlab, piyoda yurdi.* («Yoshlik».) *Rayhon arabning belidagi chilviri uzilib ketdi.* («Go'ro'g'lining tug'ilishi».)

**Chim** – 1 ayn. **Ajriq.** *Biz uchun ko'karar do'ngliklarda chim, Biz uchun yashaydi ko'kda yulduzlar.* («Yoshlik».)  
2. Ajriqningildizlari, poyalari bilan birga palaxsa-palaxsa qilib ko'chirilgan tuproq qatlami. *Suvni chim to'xtatar, so'zni – chin.* (Maqol). *Yerni haydashda va mol boqilganda chim buzilsa, tuproq eroziyasi ro'y beradi.* («O'zME».) *Yana besh chaqirimcha yurilgach, uchtacha*

*o'tov va chimdan yasalgan qo'ton chiqdi.* (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Chim bosmoq** – 1) suv yo'lini to'sish yoki chimzor qilish uchun ko'chirib kelingan chimni ma'lum tartibda yerga yotqizmoq. *Egatlarga chim bosmoq. Futbol maydoniga chim bosmoq. Biror joyni suv urib ketsa, ketmon bilan o'sha joyga chim bosadi, bebosh suvni yana yo'lga solib yuboradi.* (J. Sharipov, «Saodat»); 2) *ko'chma.* G'ov solmoq, yo'lni to'sib qo'ymoq, bekitmoq. *Poshshaxon tushmagur, sekretarlikka saylandi-yu, barchasi-ning yo'lga chim bosdi.* (A. Muqimov, «Qipchoq seniki»).

**Chimday chiqmoq** – yoppasiga, gilamday bo'lib chiqmoq (o'simliklar haqida). *Ukrop chimday chiqibdi.*

**Chimlamoq** – chim bosmoq, chim bosib to'smoq yoki ko'kalamzor qilmoq. *Usta bu yil egat ustini chimlab sug'orishda ham ibrat ko'rsatishga ahd qilgan.* (O. Yoqubov, «Larza»).

**Chim tomog'** – yem-xashaklarni, sekin-astalik bilan yeydigan hayvonlarga aytiladi. *Aka, sigiringiz rossa chim tomog' ekan, o'tlarni tanlab-tanlab yeydi-ya?* («Sharq yulduzi»).

**Chimzor** – chim bosgan yer, ajriqzor. *So'ng tuyoq izlari qotib qolgan chimzordan tez o'tayotgan izvoshda chayqalib ketarkan, g'uborli osmonga qaradi.* (Sh. Xolmirzayev, «Qahramonning so'nggi kunlari»). *Suyarqul terlab-pishib chimzorga yetib borganida, hali futbol boshlanmagan edi.* (A. Ko'chimov, «Halqa»).

**Chimqirqar** – q.x. Plugning chimni,ildizlarni kesib boruvchi qismi, pichog'i.

**Chinakchi** – 1. Yollanib paxta teruvchi kishi. *Nigohim kunduzning nuri-*

ga cho'mgan, Uzoqdan chinakchi qizlar ko'rinar. (U. Nosir).

2. *Chanoqda qolgan paxtalarni qo'shimcha ravishda qo'lda teruvchi, terimchi mashina terimiga ajratib, moslab qo'yilgan paxtazorni bir gala chinakchi oralab yuribdi.* (I. Rahim, «Zangori kema kapitani»).

**Chinbarg** – paxta o'simligining shonalaydigan bargi, hosildor barg. *G'o'za endi ikki-uchtadan chinbarg chiqarganda, Mo'minaning birdan tobi qochib qoldi.* (H. Nuriy, «Lochin bolasi – lochin»).

**Chingul** – dukkaklilar oilasiga mansub tikanli o'simlik (ildizidan sariq bo'yoq tayyorlanadi).

**Chinnigul** [f. – xitoy guli] – chin-nigullilar oilasiga mansub qizil, pushti, oq gulli ko'p yillik o'tsimon o'simlik va uning guli. *Rashidning qo'lidagi chinnigullarni ko'rib, Guli yostiقدan boshini ko'tardi.* (H. Badalov, «Bobotog' bolalari»).

**Chinnitarvuz** – ertapishar, guldor po'choqli tarvuz navi.

**Chinniterak** – tikka o'sadigan baland oq terak.

**Chinoq** – 1. Qulog'i kesilgan yoki qulog'i kertik. Chinoq it. Chinoq qo'y. *E, domlajon-a, siz ko'rmadingiz, o'rtadagi devordan bir g'isht ko'chirganimizni bilamiz, hay-hay-hay, – deya bidiray ketdi chinoq yigit unga ergashib.* (M. Mansurov, «Yombi»).

2. Qulog'i kichkina yoki chandiqli kishilarga qo'yiladigan laqab. *Yodgorxo'janing amakisi Qosimxo'ja To'raqul chinoqning sataroshi bo'lgan.* (Sh. Xolmirzayev, «Qahramonning so'nggi kunlari»). *Ko'cha boshida Ahmad chinoq ko'rindi.*

**Chinor** [f.] – 1 Po'sti ko'kish, panjasimon shapaloq bargli, uzoq umrli sersoya katta daraxt. *Chinor chirimas, archa qurimas.* (Maqol). *Hammayoq ozoda, suv sepilgan, toza. Sarhovuz osmonga yetadigan chinorlar.* («Nurali»). 2 ko'chma. Turmush o'rtog'i yoki o'g'il, farzand (ayolga nisbatan). *Chiroying borida chinoringni top.* (Maqol). *Bo'yning taqqan tumorim sen eding, Oldimda o'sgan chinorim sen eding.* («Oysuluv»). 3 ko'chma. Suyanchiq, qo'llab-quvvatlovchi shaxs. [Turdiqulovning] *Tumanda suyangan chinorlari bor.* («Yoshlik»).

**Ching'il** (*Halimodendron halodendron* (Pall) /Toss.) – dukkakdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 2 m ga boradigan buta o'simligi. Tabiiy holda O'zbekistonda, to'qaylarda, ariq va jarlar yoqasida o'sadi. Aprel-avgustda gullab, iyun-sentabrda meva tugadi. Guli sapsarsimon-pushti rangda bo'ladi. Har qanday tuproq, hatto sho'r tuproqlarda ham o'sadi. Urug'laridan va ildiz bachelaridan ko'payadi. Qumloq va sho'r tuproqlarni ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llanadi.

**Ching'il, jangal** – cho'l va adirlarda o'sadigan tikanli buta.

**Chipor** – ola-bula, olachipor. Chipor tovuq. Chipor ilon. *Unda [suratda] kattakon daraxtga o'ralib yotgan yo'g'on chipor ilon tasvir etilgan.* (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»). *Izatulla aka bolaning boshini chipor shapkachasi ustidan silarkan, «balli», deb qo'ydi.* (N. Aminov, «Qahqaha»).

**Chipta I** – 1 Dag'al buyumlar to'qish uchun tayyorlangan yupqa tilim-tilim po'stloq va undan to'qilgan narsa. *Nariroqda atrofi chipta devor bilan o'ralgan*

qo'ra. (Sh. Xolmirzayev, «Og'ir tosh ko'chsa»).

2. Odatda, tokni bag'azlarga tarab bog'lash uchun ishlatiladigan po'stloq tolas. *Chipta bilan bog'lamoq*.

**Chiqim** – 1. Sarflangan yoki sarflandigan moddiy mablag'; xarajat, buromad. To'y chiqimlari. Chiqim daftari. *Chiqimiga qarab kirimi*. (Maqol). *Esanboy, hozir Huri sariq, kamyob mollarni chiqim qilmay olib kelish qiyinligidan hasrat qiladi, deb o'ylagan edi*. («Yoshlik».)

2. Tez va yaxshi dam yeyish xususiyati, tatim (asosan choy haqida). *Chiqimi yaxshi choy*.

**Chirgi** – *shv*. Terlik, yopiq (ot abzali). *Shul zamonda soldi otning ustiga zarli-yu zarbofdan bo'lgan chirgini*. («Alpomish».) *Omborxonadan ot abzallarini – terlik, bellik, chirgi, yugan, egarni qo'ltiqlab keldim*. (T. Murod, «Ot kishnagan oqshom»).

**Chirindi** – cho'p-xas, xazon, o'simlik va sh.k. ning chirib, tuproqning tarkibiy qismiga aylanayotgan qismi, chirik narsa, gumus. Yerga chirindi solmoq. *Chirindining achchiq hidi dimoqni teshguday edi*. (A. Ko'chimov, «Halqa»).

**Chirindili gorizont**, *tuproqning gumusli qatlami* – tuproqning o'simlik va hayvonot qoldiqlari chirindilaridan iborat organik gorizonti.

**Chirildoq** – 1 *sft*. Chirillovchi, hadeb chirillayveradigan. 2 *ot*. Qanotlari ishqalanishi natijasida «chir-chir» ovoz chiqaradigan, to'g'ri qanotlilar oilasiga mansub hasharot; qora chigirtka. *Chigirtkalar, chirildoqlar biri olib, biri qo'yib xonish qiladi*. (S. Ahmad, «Jimjitlik»). *Chinqirib yuborar kunning zo'ridan, Qaygadir berkinib olgan chirildoq*. (A. Oripov).

**Chirik** – 1. Chirigan, chirib ishdan chiqqan, yaroqsiz holga kelgan. *Chirik paxta. Chirik tish. Chirik olma. Yigit chirik og'ochlar tirqishidan pastga qaradi*. (S. Siyoyev, «Avaz»). *Chirik somon va go'ng hidi [Saidning] dimog'iga urildi*. (X. Sultonov, «Bir oqshom ertagi»).

2 *ot*. Narsalarning chirigan joyi. *Olmaning chirigini olib tashlamoq*.

**Chirmamoq** – *rvsh*. Mahkam o'rab, chandib bog'lamoq.

**Chirmashib o'suvchi o'simliklar** – poyasi yaxshi rivojlanmagan kuchsiz bo'lib, o'sishi uchun yon atrofdagi boshqa o'simliklar yoki vertikal vositalarga chirmashib o'suvchi o'simliklar. Ular bir yillik (o'tsimon) va ko'p yillik (daraxtsimon) bo'ladi. Ularning aktinidiya, plyush, kaprifol shilvi, tekoma kamsis, kirkazon, visteriya kabi daraxtsimon turlari vertikal ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladi.

**Chirmov II** – *ayn*. **Chirmovuq**.

**Chirmovgul** – pechakgul, karnaygul.

**Chirmoviqli o'simliklar** (*Hedera*) – araliyadoshlar (*Araliaceae*) oilasiga mansub bo'lgan doim yashil liana. Turkumning 15 ta turlari orasida keng tarqalgan turi Kolxida plyushi (*H. colchida*) Kavkazning nam subtropik mintaqalarida tarqalgan, lianasimon novdasi 30 metr gacha o'sadi, soya, nam o'rmonlarda keng tarqalgan. Manzarali o'simlik sifatida vertikal ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi.

**Chirmovuq** – 1 Devpechak, zarpechak, pechakgul singari chirmashib o'sadigan o'simliklarning umumiy nomi. *Iskandar o'zidan kichikroq bolaning qo'chqorga chirmovuq o't berayotganini kuzatib turib, keyin o'zi ham asta-sekin*

qo'y oldiga bordi. (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»). **2 ayn. Zarpechak.**

**Chitir II** – cho'l, adirlarda o'sadigan bir yillik yovvoyi o'simlik (ipak qurti pilla o'rashi uchun dastalab qo'yiladi). *Giyohlarning nomi ham yodimdan chiqay degan ekan: yovshan, yantoq, kavrak, qushqo'nmas, chitir.* (M.M. Do'st, «Lolazor»). *Gulzira rayhon hidi kelib turgan chitir dastalarini ikkita-ikkitan ko'tarib, ichkariga tashib turdi.* (A. Muxtor, «Kumush tola»).

**Chitrang'i (Erysimum L.)** – karamdoshlar (*Brassicaceae*) oilasiga mansub, bir, ikki va ko'p yillik o't o'simlik. Tibbiyotda ikki turining yer ustki qismi qo'llaniladi. *Shabbo'y chitrang'i.* Bo'yi 120 sm gacha yetadigan bir yillik o't o'simlik. G'arbiy Yevropa qismi, Sibir va Uzoq Sharq o'rmonlarida o'sadi. *Yoyiq chitrang'i* (Kulrang chitrang'i) 40–80 sm baland bo'ladigan ikki yillik o't o'simlik. Sibir va Markaziy Osiyodagi cho'llarda, toshli qiyaliklarda va butalar orasida o'sadi. Chitrang'i turlarining yer ustki qismi tarkibida erizimin va erizimozid yurak glikozidlari, urug'ida yana ko'p miqdorda yog' bor. Dori preparatlari yurak-tomir kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Kulrang chitrang'i quritilmagan yer ustki qismining shirasi va b. mushaklar tonusi oshishidan kelib chiqqan kasalliklarni davolash, jarrohlikda operatsiya vaqtida mushaklar tonusini bo'shashtirish hamda tabiiy nafas olishni to'xtatib turish uchun ishlatiladi.

**Chivin** – **1.** Ikki qanotli, uzun mo'ylovli qon so'ruvchi mayda hasharot. Bezgak chivini. O'rmon chivini. *Ikki nor urishsa, o'rtasida chivin o'ladi.* (Maqol).– *Chivin ko'plashsa, filni yiqitadi,*

*degan gap bor, – dedi Ergash xoxolab.* (I. Rahim, «Chin muhabbat»). *Ajal yetmay, o'lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni.* («Alpomish».) *Chivin chaqqanday ham bo'lmadi sira og'ritmadi, sezilmadi ham.* **2 shv. Pashsha.**

**Chiviq** – **1.** Surx novda. Tol chivig'i. *Chiviq tutgan yeridan sinmaydi, egilgan yeridan sinadi.* (Maqol). *Zaynab to'rt tarafga zir yuguradi. Tolning chiviqalaridan sindiradi.* («Yoshlik».) **2 tex.** Ingichka va uzun metall tayoqcha. Chiviq temir. *Chiviqdan temir-beton tayyorlash uchun armatura sifatida ham foydalanish mumkin.* («O'zME».) **3 sft.** Mayda chiziq-chiziq yo'lli (gazlama). *Yana yurib ketadi: sakkiztepki gul atlas, Chiviq beqasamlarning olag'ovur bozori.* (G'.G'ulom).

**Chiy** (*Lasiagrostis caragana* (Trin.) Trin. et Rupr.) – boshqodoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Bo'yi 2 m gacha boradi. Aprel-may oylarida gullab, meva tugadi. Tog'oldi yon bag'irlarida, qisman tog'larning o'rta mintaqasida o'sadi. U yem-xashakbop o'simlik bo'lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

**Chiya I** – tog'li yerlarda o'sadigan yovvoyi olcha va uning mevasi. *Toshkentlarga posilkalar solayin, Yor yemakka chiya, olma olayin.* («Qo'shiqlar».) *G'ir-g'ir shamol esadi, qoraqand, chiyalarning yoqimli isi anqiydi.* (S. Murodbekov, «Yovshan isi»).

**Chiyildoq** – ingichka, o'tkir yoqimsiz ovoz chiqaradigan, chiyillab gapiradigan. Chiyildoq qush. – *Suyunchi! – Suyunchi! – dedi Rahim, chiyildoq tovush bilan Quدراتga.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

## **Chiyon** – ayn. **chayon**.

1. Cho'l-adirlarda o'sadigan baland, boshoqli, yem-xashakbop o'simlik; chalovning bir turi. *Siz gaplashib o'tirganda, chiy orasidan qarab turdim.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»). 2. Qamishdan yoki savag'ich poyasidan ip, sim bilan qatorlab bog'lab to'qilgan qurilish materiali. Chiy bilan o'ralgan hovli. *Chiy bilan to'smoq. Chiy devor. Chiy tutilgan ko'chma yasida qarqunoq bolalarining «qig'-qig'»lashiga o'xshab chaqaloqlar yig'isi eshitilmoqda.* (H. Nazir, «So'nmas chaqmoqlar»).

**Chizel** [ingl. *chisel* – yuz, bet, yon tomon] – q.x. Yerni (tuproqni) chuqur haydaydigan, yumshatadigan, bir necha tishli og'ir kultivator. *Chizellash uchun tirkama osma chizellar osma yoki tirkama boronalar bilan birga ishlatiladi.* («O'zME».)

**Chizellash** – q.x. Tuproqqa ishlov berishning tuproqni yumshatish, aralash-tirish, begona o'tlarni yo'qotish jarayonlaridan iborat usuli. Chizellash, ayniqsa, kartoshka va b. ildizmevali ekinlarda yaxshi samara beradi, ularning hosildorligi 15–20% ga oshadi. («O'zME».)

**Chizimcha** – ingichka, pishiq arqon, chilvir. *Mastura chizimcha uzatib turdi, Nuriddin boyladi.* (E. A'zamov, «Javob»). *Hatto zargar do'konlari ham chizimcha bog'langan tashlab ketilgandi.* (Z. A'lam, «Afandining qirq bir pashshasi»).

**Chig'ir** – 1 Yuklarni ko'tarish yoki siljitish uchun mo'ljallangan mashina. *Chig'irdan ko'tarish-tashish mashinasi yoki murakkab kranlarning ko'tarish mexanizmi sifatida foydalanish mumkin.* («O'zME».)

2 Odam, uy hayvonlari yoki oqar suv kuchi bilan harakatga keltirilib, suvni yuqoriga ko'tarib beradigan qadimgi eng oddiy gidravlik moslama. *Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, oqar suv kuchi bilan harakatlantiriladigan chig'ir O'rta Osiyoda (ayniqsa, Xorazmda) IX–XI asrlarda keng tarqalgan.* («O'zME».)

**Chig'ir** – 1. Paxtaning chigitidan ajratish uchun ishlatiladigan qadimgi qo'l asbobi. *Chig'irida paxta tozalamoq.*

2. Dorning eng tepasida dorbozlar o'yin ko'rsatadigan, narvonga o'xshash pog'onali qurilma. *Hakimjon aka, o'g'illari va jiyanlari bilan musobaqa qilganday, dorda va chig'irda o'ynab qo'yadi.* (M. Qodirov, «Keksa dorbozlar»).

3 ayn. **Chig'ir**. [Al-Xorazmiy] *Mexanikani richag yordamida og'irliklarni ko'tarish, gidravlik mashinalarni esa chig'ir, tegirmon bilan shug'ullanish deb o'yladi.* («Fan va turmush».)

**Chig'irlamoq II** – tex. Chig'irdan o'tkazib yoymoq, yupqalamoq. *Po'latni chig'irlamoq.*

**Chodir** [f. – kappa, bostirma; yopinchiq] – 1. Matodan qurilgan kappa; Palatka. *Chodir tikmoq. Chodir qurmoq. Qutaybaning chodiri, taomilga ko'ra, baland tepalikka joylashgandi.* (Z. A'lam, «Zarb»).

2 etn. Go'shanga, chimildiq. *Xushro'y, chodirdan chiqmasdanoq, choy tashib, xizmat qilib yurgan kundoshiga kesatq bilan hujum boshlaydilar.* (A. Qodiriy, «O'tgan kunlar»).

3 etn. Ayollar paranji o'rnida yopinadigan maxsus yopinchiq; chodra. *Bir vaqt qayerdan ham ustiga qora chodir yopingan Yosuman paydo bo'larmish.* (M. Ismoiliy, «Farg'ona t.o»).

**Chogan** – sho‘rxok yerlarda o‘sadigan kambargli yovvoyi o‘simlik.

**Chopiq, chopiq qilish** – agrotexnika tadbirlaridan biri, ekinning qator orasi va ildiz atrofini 8–12 sm chuqurlikda yuza yumshatish bilan birgalikda o‘simlik to‘pi atrofiga tuproq uyish; chopiqning asosiy vazifasi ekin qator oraliqlaridagi begona o‘tlarni yo‘qotish, ildizning rivojlanishi uchun tuproqni yumshatib, qulay namlik va tuproq sharoitini yaratish.

1. *q.x.* O‘simliklarning tagi, yonatroflarini chopib yumshatish. G‘o‘za chopig‘i. Tesha chopiq. *Paxta olma pishdi, shotut qizardi, Uchinchi chopiqni boshladik kecha.* (G‘.G‘ulom)

**Chopiqchi** – chopiq qiluvchi, chopiq ishlarini bajaruvchi dehqon. *Qumg‘onda choy kelishi bilan chopiqchilar chug‘urchuqdadak qumg‘onga yopishdilar.* (A. Qodiriy, «Obid ketmon»).

**Chopiq qilinadigan ekinlar** – o‘shishi va hosil berish uchun katta oziq maydonni, namlik va qator oralariga ishlov berish (tuproqni yumshatish), zararkunandalar, begona o‘tlar va kasalliklarga qarshi kurashni talab etadigan ekinlar. Texnika ekinlari – g‘o‘za, tamaki, kanop, qand lavlagi: don ekinlari – jo‘xori, marjumak, makkajo‘xori; moyli ekinlar – kungaboqar; sabzavot ekinlari – kartoshka, ozuqabop ildizmevalar, poliz ekinlari (qovun, tarvuz, bodring va b.) chopiq qilinadi.

**Chopmoq II – 1** Tig‘li asboblardan bilan zarb berib parchalamoq, yormoq, kesmoq. *Sevargul xayoli chalg‘ib, tashqariga quloq soldi: onasi go‘shkundada go‘sh chopiyapti.* (N. Qilichev, «Chig‘iriq»).

2 Osimlik tagi va atrofini, umuman, yerni ketmon va sh.k. bilan ishlamoq,

yumshatmoq; chopiq qilmoq. *G‘o‘zalarni chopmoq. Ketmon chopdim, ter to‘kdim, Arpa, bug‘doy – don ekdim.* (Q. Muham-madiy).

**Chopqi – 1.** Shox-shabba qirqish, go‘sh-t-piyoz qiymalash va sh.k. ishlarida ishlatiladigan katta va og‘ir, pichoqqa o‘xshash ro‘zg‘or asbobi; oshpichoq. Chopqida go‘sh qiymalamoq. *Hademay bargli novdadan ajratish uchun harakatga kelgan chopqi va pichoqlarning chiq-chiqi avjga mindi.* (Gazetadan).

2 *esk.* Qilichga o‘xshash jang quroli; oybolta.

**Chora I** [*f.* – yordam berish yo‘li; dori-darmon; pul; qutilish yo‘li] – 1. Biror ishni, maqsadni amalga oshirish, ro‘yobga chiqarish yoki uning oldini olish uchun puxta o‘ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan tadbirlar majmui; iloj, tadbir. *So‘nggi chora. Keskin choralar. Ehtiyot choralari.*

2. Biror qiyinchilikdan, murakkab va-ziyatdan qutilish yo‘li; iloj. Chora iz-lamoq. Chora topmoq. *Qayin otangiz, ehtimol, buning biror chorasini topar.* (A. Qodiriy, «O‘tgan kunlar»).

**Chorak** [*f.* – to‘rt dan bir] – 1. To‘rt dan bir ulush; teng to‘rt bo‘lakning har biri. Chorak asr. Chorak kam bir soat. *Men Abdulla Qahhor bilan chorak asr tur-mush kechirib, «Xotinni xotin qiladigan ham er» degan xulosaga keldim.* (K. Qah-horova, «Chorak asr hamnafas»).

2. O‘quv yilining to‘rt dan bir qismi.

3 *shv.* Ba‘zi hududlarda besh pud (87,36 kg.) ga, ba‘zi joylarda besh qadoqqa, ya‘ni ikki kilogrammga (kichik chorak), ba‘zi joylarda esa o‘n qadoqqa, ya‘ni 4,1 kg. (katta chorak)ga teng og‘irlik o‘lchovi.



**Chorbog'** [f. – to'rtta bog': katta va ko'rkam bog'] – Shahardan tashqaridagi hovli-joyli, qo'rg'onli bog', bog'cha. *Alisher Navoiy shahar tashqarisidagi chorbog'iga ko'chib chiqdi.* (M.Osim, «Karvon yo'llarida»). *Chorbog'laring-da mevalar pishib, tagiga tushib yotibdi.* (S.Nurov, «Narvon»).

**Chordevor** [f. – to'rt(ta) devor] – hamma tomoni devor bilan o'rab olingan, to'rt devor. *Yillar o'tdi-yu qishloq O'zgardadi va biroq Yoqadagi chordevor cho'kib qoldi bemador.* (H. Olimjon).

**Chori I** – to'rt tishyorgan uch yoshli qo'chqor. *Bozorda boqilgan chori qo'chqor necha pul ekan?*

**Chori, to'pon** – g'alla, boshqali o'simliklar va ba'zi boshqa ekinlarni tozalangandan chiqqan chiqindilar; chorva mollariga yem o'rnida beriladi. (Bug'doy chorisi).

**Chori II** – don mahsulotlarini g'alvirlab tozalash, elashda hosil bo'ladigan qoldiq. *Katta xirmon qizil bo'lsa, chori chiqmas.* (Maqol). *Bozorda xirmonning faqat chorisi qoldi.* (S.Ayniy, «Doxunda»).

**Chorva** [f. – to'rt oyoq(li)] – qishloq xo'jaligida: Qo'y-qo'zi, mol. Chorva mollari. Chorva qishlovi. *Chorva ishi paxta ishidan ham nozik.* (Sh.Xolmirzayev, «Bodom qishda gulladi»).

**Chorvador** [f. – yuk hayvonlarini haydovchi; chorva egasi] – *chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishi.* *Chorvador-san, botirsan, qo'lda qo'bizing bilan.* (A.Oripov). *Ustma-ust yoqqan qor ikki kunda tizzabo'yi bo'ldi. Bu chorvadorlarni gangitib qo'ydi.* (M.Hazratqulov, «Jur'at»).

**Chorvadorlik** – ayn. **Chorvachilik.** Chorvadorlik bilan shug'ullanuvchi shirkat xo'jaligi.

**Chorvachi** – ayn. **Chorvador.** *Yangi yerlarga ko'chish chorvachilar uchun bir bayramdek edi.* (M.Osim, «Karvon yo'llarida»).

**Chorvachilik** – qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug'ullanadi; aholini ish hayvonlari (ot, ho'kiz, tuya, bug'u), oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go'sht, yog', tuxum va b.), yengil sanoatni xomashyo (jun, teri, mo'yna va h.k.), dehqonchilikni organik o'g'it bilan ta'minlaydi.

1. Qishloq xo'jaligining chorva mollarini boqish va urchitish, chorva mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Chorvachilik mahsulotlari. *Soppilitepaliklar chorvachilik bilan ham shug'ullangan.* («Fan va turmush»).

**Chorvachilik mahsulotlari** – chorva mollaridan olingan oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyolar – go'sht, tuxum, sut va b.; sanoatda qayta ishlash uchun mo'ljallangan teri (qo'n), jun, po'stak, qo'zi (barra) terisi, mo'yna, shox va tuyoqlar.

**Chorva mollarini brak qilish** – qarib qolishi, gavda tuzilishida nuqsonlar bo'lishi, tuzatib bo'lmaydigan kasalliklarga chalinishi oqibatida ko'paytirish yoki xo'jalik ishlarida bundan keyin foydalanish uchun yaroqsiz topilgan chorva mollarini podadan chiqarish.

**Chorva mollarini bo'rdoqiga boqish** – mollardan sifatli va mo'l go'sht olish maqsadida ularni so'yishdan oldin

bir necha vaqtgacha zo'raytirilgan boqimga qo'yish.

**Chorva mollarini tamg'alash** – chorva mollariga ularning sonini bilish, bir-biridan ajrata olish, muayyan xo'jalikka tegishlilikini aniqlash maqsadida shartli belgilar yoki sonlar bilan nishon urish. Nishon urishning quyidagi usullari tafovut qilinadi: tatuirovka, shartli sistema bo'yicha quloqlariga en solish, sirg'alash, tamg'a bosish, halqalash.

**Chov** – qorinning pastki qismi bilan son oralig'idagi joy (but, avrat.) Otning chovi. Chov bezlari. U *chovi qirov bosgan horg'in otini anhor bo'yida to'xtatib, egardan tushdi.* («Yoshlik»).

**Chov II** – *shv.* Eshkak.

**Chovgum** – *ayn.* chovgun. *O'choqdagi chovgum qaynab, to'kila boshladi.* («Yoshlik».)

**Chovgun** – otda choy qaynatish uchun moslangan idish, choydush, qumg'on. *Mis chovgun. Cho'yan chovgun.*

**Choy, Choy o'simligi** (*Thea L.*) – choydoshlar oilasiga mansub, doimiy yashil buta yoki kichikroq daraxtcha. Yovvoyi holda sharqi-janubiy Osiyoda o'sadi. Dunyoga keng tarqalgan choy ichimligini tayyorlashda ishlatiladigan yosh novdachalar va barglar olish maqsadida maxsus ekiladi. Choy o'simligining ikki turi ma'lum: Xitoy choyi hamda hind choyi. Choyning bu har ikki turi ham biologik va morfologik belgilari jihatidan bir-biridan farq qiladigan bir qancha tur, xillarga ega. Choy ko'p miqdorda Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Shri-Lanka, Indoneziya hamda Janubi-sharqiy Osiyodagi boshqa mamlakatlarda yetishtiriladi.

Choy –14°C gacha sovuqqa bardosh bera oladi. Choy o'simligi asosan urug'dan ko'payadi. 3–4 yoshga yetganda uning 2–3 barglari va kurtaklari bo'lgan uchki novda va kurtakchalari (fleshlari) yig'ib olinib boshlaydi. Choy gektaridan 10 t gacha hosil beradi. Navli ko'k barglarining 25% cha og'irligi miqdorida tayyor choy olinadi.

**Choy** [*t.f.* < *xit. Cha*] – 1. Bargi damlab ichiladigan, janubiy o'lkalarda o'suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta. *Choy plantatsiyalari.*

2. Shu o'simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari. *Ko'k choy. Hind choyi. Seylon choyi.*

3. Shu o'simlikning maxsus ishlangan, maydalangan barglaridan damlangan xushbo'y ichimlik. *Bir piyola choy. Achchiq choy. Issiq choy.*

4. Shu ichimlik bilan birga ovqatlanish.

**Choy-gibridli atirgullar** – 1976-yilda Oksfordda Butunjahon atirgul yetishtirish federatsiyasi tomonidan qabul qilingan tasnifga binoan zamonaviy bog' atirgullari guruhidagi atirgul navlari sinfi. 1867-yilda remontant va choy atirgullarini chatishtirish natijasida «La France» navi olingan. Bu nav choy-gibrid atirgullar sinfining ajdodi hisoblanadi. Choy-gibrid atirgullari zamonaviy atirgullar orasida eng mashhur guruhlardan biri. Ushbu xilma-xillikning yaratuvchisi fransuz atirgul seleksioneri Jan-Batist Andre Giyo bo'lgan.

**Choygum** – *s.t. Choydush* [*Suyarqulning*] *Onasi choy damlab, choygumga yana suv to'ldirayotgan ekan.* (A. Ko'chimov, «Halqa»).

**Choydosh** – suv, choy qaynatiladigan metall idish, qumg'on. *Bir choydosh choy. Choydosh shaqillab qaynadi.*

**Choyjo'sh** [xit + f. – choy qaynatuvchi] – shv. Choydosh, chovgum. *No'monjon choyjo'shni qaynatish uchun o't yoqdi.* (O. Husanov, «Nay»).

**Choykor** [xit. + f. – choy yetishtiruvchi] – choy yetishtiruvchi dehqon yoki xo'jalik. *Gruziya choykorlari. Choykor jamoa xo'jaligi.*

**Chog'ishtirma** – solishtirma, taqqoslama; qiyosiy. *Chog'ishtirma anatomiya. Chog'ishtirma grammatika.*

**Chubur** – shv. Oddiy, hasharot. *Bir tulporni nodon olsa, Tuyog'idan egar sorsa, Chubur qilib minib olsa, Bedovning qadrin na bilsin.* («Go'ro'g'lining tug'ilishi».)

**Chubushnik yoki soxta jasmin** (*Philadelphus L.*) – bu turkum o'simliklarning gullari juda chiroyli, yirik, xushbo'y. Barglari doira shaklida joylashadi, cheti oddiy tishchali. Gullari shingilcha hosil qiladi, oq rangda. Mevasi yorilib ketadigan quruq ko'sakdan iborat, ichida urug'i ko'p bo'ladi. Bu buta parklarga ekiladi. Har qanday noqulay sharoitda ham o'sa oladi. U qishki va yozgi qalamchalaridan ko'payadi. Turkumnipg 40 ga yaqin turi va 20 dan ortiq shakllari bor. Ular ichida eng ko'p tarqalgani oddiy chubushnik (*Rhiladelphus sogopagius*) hisoblanadi. U Kichik Osiyoda va Kavkazda yovvoyi holda o'sadi. Uning barcha tur va shakllari respublika sharoitida yaxshi o'sadi. Turlu kasalliklarga va hasharotlar ta'siriga chidamli. Ular nihoyatda xushmanzara buta bo'lgani uchun ko'kalamzorlashtirish maqsadida ekish tavsiya etilgan.

**Chufa, Yer bodom** (*Cyperus esculentus L.*) – hiloldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 50–100 sm keladigan, ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Bir yillik o'simlik sifatida ekiladi. Kam gullaydi, gullari mayda va ikki jinsli bo'ladi. Ildizpoyalari ning uchi tugunaksimon, yo'g'onlashgan bo'ladi. Chufa yovvoyi holda Yevropaning janubiy qismidagi sernam qumloq yerlarda, Kichik Osiyo va Shimoliy Afrikada, Yevropaning janubida, Afrikaning shimol va janubida, Janubiy Amerikada uchraydi. Ochiq havoda quritilgan chufa tugunagida 17–27% gacha moy, 12–28% gacha shakar, 20–25% gacha kraxmal bo'ladi. Uning tugunagidan ovqatga ishlatiladigan, qurib qolmaydigan yog' olinadi; yog'i parfyumeriya, meditsina va texnika maqsadlarida ham ishlatiladi. Chufa tugunagidan kraxmal tayyorlashda, qand, spirt va boshqa konditer mahsulotlari olishda foydalaniladi. Barglaridan qog'oz va arqonlar qilinadi. Chufa gektaridan 2–4 t quritilmagan tugunak hosili beradi.

**Chukri** – shv. Rovoch. [*Xurram.*] *Tog'dan chukri opkelib sotishimni bilasizmi?* («Yoshlik».) *Rangon tog'ning haqiqiy cho'qqilari, chukrilar tig'iz o'sgan ungurlar, sal oldinda edi.* (Sh. Bo'tayev, «Qo'rg'onlangan oy»).

**Chumiza, Xitoy qo'nog'i** (*Setaria italica R. V. subsp. Maxima.*) – boshqodoshlar oilasiga mansub bir yillik madaniy o'simlik. Chumiza yorma va un kabi qimmatli oziq-ovqat hamda yem-xashak olish uchun ekiladi. Poyalari serbarg bo'lib, bo'yi 50 sm dan 2 m gacha boradi. Chumiza Koreya, Yaponiya, Hindiston, Ispaniya, Italiya va b. mamlakatlarda keng tarqalgan. Qurg'oqchilikka

chidamli, yotib qolmaydigan, issiqsevar bo'lib, yuqori haroratga bardosh beradi, shuningdek sovuqdan ham qo'rqmaydi. O'sish (vegetatsiya) davri 70–80 kundan 120–140 kungacha davom etadi. Gektaridan 200 s gacha ko'kpoya, 40 s gacha don beradi. Chumiza tuproqni kam quritadi, shuning uchun u chopiqtalab ekinlar oldidan ekilsa, yaxshi natija beradi.

**Chumoli** – oila, to'da bo'lib bir uyada yashaydigan kichkina hasharot; qumursqa. Qizil chumoli. Qanotli chumoli. *Erta kuzning iliq, mayin, tiniq tunida chumolining yaproqlar ustida o'rmalagani ham eshutiladi.* (S. Nurov, «Maysalarni ayoz urmaydi»). *Bir gal yarimta boshonni sudrab ketayotgan chumolini ko'rganman.* (O'. Hoshimov, «Ikki eshik orasi»).

**Chumchuq** – ko'pincha xonadonlarga yaqin joylarda yashaydigan, hasharot va don bilan oziqlanadigan kichkina qush. *Chumchuqdan qo'rqan tariq ekmas.* (Maqol). *Chumchuqlar chirqillaydi – Shom bo'lganga o'xshaydi.* («Qo'shiqlar».) *Yomg'ir yog'ayotganda shodon shovullagan tarnov ham, bo'g'otdagi chumchuqlar ham bir nimadan cho'chiganday ovozsiz qotdi.* (O'. Hoshimov, «Qalbingga quloq sol»).

**Chumchuqko'z** – mevasi jingalak tuklar bilan qoplangan, bir yillik dorivor o'simlik. *Qiyima navbahorda ilk ko'karib chiqqan otquloq, chumchuqko'z kabi dorivor giyohlardan tayyorlanadi.* (K. Mahmudov, «O'zbek tansiq taomlari»). *Unda mitti-mitti chumchuqko'zdan tortib qo'ng'ir qo'zigullar-u oq-sariq boychekaklar ham ochilib yotardi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi** – salga qo'rqadigan, cho'chiydigan, qo'rqoq odam haqida.

**Chundir** – qulog'i tabiiy kichkinagina bo'lgan qo'y.

**Chuqulamoq** – o'yib, kovlab, chuqur(cha) hosil qilmoq; chuqurlamoq. *Erkindan sado chiqmas, u boshini egib, qumni chuqulab o'tirar edi.* (Gazetadan).

**Chuqur** – 1 ot. Qazilgan, o'yilgan yoki tabiiy chuqurlik, o'yiqlik, o'ra. *Birovga chuqur qazisang, o'zing yiqilasan.* (Maqol). *Bu axlatlarni tezda supurib, bir chuqurga to'kib, ustidan tuproq tortdi.* (A. Qodiriy, «Kichik asarlar»).

2 sft. Sathdan ancha past; cho'nqir, teran, chuqur daryo. *Chuqur hovuz. Chuqur jarlik.*

**Chuvalchang** – yer ostida yashovchi, yomg'irdan so'ng yer ustiga chiqib, sudralib yuradigan, umurtqasiz jonivorlar guruhiga mansub uzun qoramtir-qizg'ish qurt. *Bossang, chuvalchang ham qimir laydi.* (Maqol). *Ariqdan topilgan yolg'iz chuvalchang o'rmalab chiqayotgan ekan.* (Sh. Xolmirzayev, «Bodom qishda gul-ladi»).

**Chuvimoq** – 1. Titkilab yumshatmoq, titmoq. *Jun chuvimoq. Eski paxtani chuvimoq.*

2. Paxtani chanog'idan sug'urib chiqarmoq. [Ayol] *Lavlagini qozondagi quruq suvga tashlab qo'yib, kerosin chiroq yorug'ida sahargacha ko'sak chuidi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Chug'urchuq** – qora patli, gala bo'lib yuradigan, yerda va daraxtda harakatlanishga moslashgan, hasharot va mevalar bilan oziqlanadigan qush. *Yoz bo'yi son-sanoqsiz hasharotlarning bo-*

shiga yetadigan chug'urchuq bir kunda 1230 kilometr uchib o'tadi. («Fan va turmush».) *Bog'larda tong g'irashirasida chug'urchuq, maynalarning nag'masi avjga minadi.* (S. Nurov, «Narvon»).

**Chuchukmiya** – shirinmiya.

**Cho'bir** – shv. ayn. **Chubur**. *Yaxshiboyev cho'birini to'rdagi oxurga bog'lab, tumshug'iga to'rva ildi.* (M.M. Do'st, «Lolazor»). *Og'ajon, mening yodimga plugdan chiqqan cho'bir ot tushdi.* (Sh. Xolmirzayev, «Saylanma»).

**Cho'giri** – sariq yoki mallarang yo'lli, olapo'choq, ertapishar shirin mahalliy qovun navi. *Cho'giri tilimidek oltinrang oy ohista suzar edi.* («Yoshlik».)

**Cho'karqand** – qovunning shirin bir navi.

**Cho'kindi** – 1. Tingan suyuqlikning tagiga cho'kkan quyqasi, tagida to'planib qolgan loyqa. *Agar Orol dengizining suvi qurib, uning sathidagi cho'kindi tuzlarini quyun uchirsa, bir qancha viloyatlarini metrlab qalinlikda tuz qoplar ekan.* (A. Nurmurodov, «Urush bevalari»).

2 *geol.* Uzoq o'tmishda mavjud bo'lgan suv havzalarining tagidagi qoldiqlardan yuzaga kelgan tog' jinslari. *Tog' jinslarining nurashi natijasida, shuningdek, cho'kindi tarzida bo'lgan ekzogen konlarda ham oltin uchrasa-da, lekin ular ko'pincha sanoat ahamiyatiga ega bo'lmaydi.* («Fan va turmush».)

**Cho'kir** – ayn. **Cho'kirtak**. *Oyog'imni cho'kir tilib, Davlatim sag'ana bo'lib...* («Yusuf va Ahmad».)

**Cho'kirlik** – tikan qoplagan yer, tikanzor. *Cho'kirlikda yalangoyoq yelganda, So'nggi pushmon naf bermaydi, Yusufjon!* («Yusuf va Ahmad».)

**Cho'kirtak** – chaqirtikanakday o'tkir siniq-mertik shox, ildiz, poya va sh.k. [*Mustafo*] *Avval sochilib yotgan cho'kirtaklarni erinmay terib tashladi,* (M.M. Do'st, «Galatepa qissalari»).

**Cho'kich** – qattiq toshloq yer, muz va sh.k. ni qazish, kovlash uchun ishlatiladigan, uchi o'tkir po'lat asbob; metin. *Cho'kich urmoq. Lekin faqat oyoq bilan chiqmaslar toqqa. Arqon kerak, cho'kich kerak, kerak ot-ulov.* (A. Oripov).

**Cho'kichlamoq** – 1 *Cho'kich bilan urib bo'shatmoq, ushatmoq, buzmoq, qazimoq, kovlamoq. Ko'mir cho'kichlamoq. Shu vaqtda bir jing'ilni tomiri bilan cho'kichlab kovlay berdi.* («Nurali».)

2 *Bolg'alab ishlov bermoq. Olam bo'yi tarqaldi shior: Qilichlarni qayta cho'kichlab, biz ularni olovda ushlab, Omoch, o'roq qilaylik tayyor!* (M. Shayxzoda).

**Cho'l** – o'simlik juda kam o'sadigan, doimiy quruq va issiq iqlimli, suvsiz bepoyon dasht; sahro, biyobon. *Qizilqum cho'llari. Qaqroq cho'l. Boysun cho'li. Toma-toma ko'l bo'lur, Hech tommasa, cho'l bo'lur.* (Maqol).

**Cho'liston** – cho'l-biyobondan iborat bo'lgan yer, quruq sahro. *Amuning o'ng qirg'og'idagi bepoyon cho'listonda biri biridan dahshatli voqealar yuz bera boshladi.* (M. Osim, «Ajdodlarimiz qissalari»).

**Cho'liq** – shv. Kichik cho'pon, cho'ponning yordamchisi. *Oychinor balog'atga yetgach, uni Xoliyorning cho'lig'i sevib qoladi.* («Fan va turmush».)

**Cho'llamoq** – suvga tashna bo'lmoq; suvsamoq, chanqamoq. *Cho'llab, og'zim qaqrab ketdi. Cho'llagan yerlar.*

*Cho'llagan g'o'zalar. Sahroda cho'llagan g'arib yo'lovchi Bo'tana suvni ham sharbat deb totar.* (Uyg'un).

**Cho'llanish** – qurg'oqchil iqlimli o'lkalarda ekologik tizimlarning buzilishi, ulardagi organik hayotning barcha shakllari yomonlashuvi, natijada tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarning pasayib ketishiga olib keluvchi tabiiy-geografik hamda antropogen jarayonlar majmui, ya'ni tabiiy o'simliklar va hayvonlar turi va miqdorining kamayishi, tuproq unumdorligining pasayishi va sh.k. *Dunyoda 250 million kishi cho'llanish jarayonidan aziyat chekmoqda.* (Gazetadan).

**Cho'ltoq** – yulingan, kesilgan, kalta, to'mtoq. Cho'ltoq dum. [*Nor-mat*] *Sharif otolmaydi – qo'li cho'ltoq.* («Yoshlik».)

**Cho'lyalpiz** – yovvoyi yalpiz, kiyiko'tlar turkumiga mansub bir yillik o't.

**Cho'lquvar** – cho'lni o'zlashtiruvchi, qo'riq yerlarni ekib, obod qiluvchi. *Cho'lquvarlarning farzandlari ham yaxshi maktablarda o'qishi kerak.* (Gazetadan).

**Cho'nqir** – 1 *s.t.* Chuqur, teran. *Cho'nqir hovuz.*

2. Chuqurlik; o'ra. *Polk yo'lga shay, sarosima yo'q edi, Shunda Ali chiqib keldi cho'nqirdan.* (A. Muxtor).

**Cho'p** [*f.* – daraxt, yog'och, xoda, hassa] – 1. Novda, shox bo'lagi; ingichka, uzun tarasha, yog'och parchasi. *Ota uzun cho'p bilan shisha tubini kovlashtirib turib, savolomuz tikildi.* («Yoshlik».)

2. Biror maqsad uchun maxsus tayyorlangan tayoq(cha).

3. Molga ovqat bo'ladigan quruq o't, xas-xashak.

4. O'simlik, giyoh.

**Cho'pon** – mayda shoxli mollar podasini boquvchi podachi. Cho'ponning vazifasi: hayvonlarni boqish, sug'orish, va o'tlatish, qochirish, qo'zilatish, uloqlatish, podani qo'riqlash va boshqarish.

**Cho'pon it** – ham mol boqadigan, ham qo'shxonani, qo'tonni qo'riqlaydigan, go'shtni ko'p yegani uchun juda baquvvat bo'ladigan, jondorlarga ham bemalol bas kela oladigan yirtqich, yuvosh, bahaybat it. *Boltavoy Bo'ribosar cho'pon itini uyiga olib kelibdi, yomon katta ekan!*

**Cho'ponlik** – yaylovda mayda mol boqish bilan shug'ullanish, cho'pon kasbi. *Shoirlik yodimdan chiqqan mahali Cho'ponlik yillarim tushar esimga.* (A. Oripov).

**Cho'pon-cho'liq** – cho'pon va cho'liqlar. *Brezent kapa ostida besho'n chog'li cho'pon-cho'liq qo'ylarning junini qirqishayotgan edi.* (N. Aminov, «Yolg'onchi farishtalar».)

**Cho'rtan: cho'rtan baliq** – daryo va ko'llarda yashaydigan, mayda, o'tkir tishli yirtqich baliq. [*Hovuzdagi*] *Zog'ora baliq, cho'rtan baliq, laqqa baliqlar goh suv yuziga chiqib, goh biltanglab o'ynab, sho'ng'ib ketardi.* (J. Sharipov, «Xorazm».)

**Cho't I** [*r. счѣты* – pul hisob-kitobi; hisoblashni amalga oshirish moslamasi] – 1 *esk.* Buxgalteriyada, idoralarda qo'llanib kelgan, to'rtburchak ramkaga mahkamlangan temir simlarga tizilgan donalarni surib, qo'shuv va ayiruv amallari bajarilgan sodda moslama. *Cho't qoqmoq. Cho'tga solmoq.*

2. Mo'ljal taxmin, hisob. [*G'ofir*] *Mening cho'timda hammasi bo'lib besh*

yuz soʻmdan oshmas edi-ku? Yoki adashdingizmi ekan-a, boy ota? (Hamza, «Boy ila xizmatchi»).

**Choʻt II** – shv. Tesha. *Daraxtlar-ni choʻt bilan, bolta bilan qirqib, oʻtni yoqib, famil choyni damlab, egarini kursi qib, aslahasini yerga qoʻydi.* («Yusuf va Ahmad».)

**Choʻzinchoq behi** (*Sydonia oblonga mill.*) – Raʼnoguldoshlar (*Rosaseae*) oilasiga mansub, boʻyi 1,5–6 m gacha oʻsadigan daraxt. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Qrim yerlarida mevali daraxt sifatida oʻstiriladi. Tibbiyotda urugʻi ishlatiladi. Tarkibida shilliq modda, amigdalin glikozidi, moy birikmalar bor. Urugʻining qaynatmasi qoplab-oʻrab oluvchi vosita sifatida meʼda va ichak devorining taʼsirlanishini kamaytirish hamda dori moddalarning soʻrilishini (shimilishini) uzaytirishda qoʻllaniladi.

**Choʻziq mevali jut** (*Corchorus olitorius L.*) – joʻkadoshlar (*Tiliaceae*) oilasiga mansub, boʻyi 2–3 m keladigan bir yillik yirik oʻt oʻsimliklar. Markaziy Osiyoning Janubiy nohiyalarida tola olish uchun oʻstiriladi. Tibbiyotda urugʻi ishlatiladi. Urugʻi tarkibida yurak glikozidlari (olitorizid, korxoroizid), yogʻ moddalar bor. Olitorizid strofantidin K ga oʻxshash yurakka taʼsir qilgani uchun uning

ampuladagi eritmasi qon aylanishining I–II darajali buzilishi, taxikardiya, aritmiyani davolash uchun ishlatiladi.

**Choʻchqa** – 1. Goʻsht va yogʻ olish uchun boqiladigan juft tuyoqli, kalta oyoqli, yirik sutemizuvchi uy hayvoni. *Yovvoyi choʻchqa. Xonaki choʻchqa. [Bola] Devordan oshib qarab, xir-xir ovoz chiqarib, poʻchoq titkilayotgan uchtoʻrtta choʻchqani koʻrdi.* («Yoshlik».) 2 soʻk. Ablah, hayvon. *[Ishchi:] Mana, Ismat degan yangi direktor keldi. Shu tuzukmi deb oʻylovdik. Gʻirt choʻchqa ekan.* («Yoshlik».)

**Choʻchqaboqar** – choʻchqa boquvchi.

**Choʻchqatikan, Ismaloq** (*Spinacia turkestanica Iljn*) – shoʻradoshlar oilasiga mansub, boʻyi 10–60 sm keladigan, bir yillik, ikki uyli oʻtsimon oʻsimlik. Aprel-iyun oylarida gullab, meva tugadi. Togʻoldi va togʻ etagidagi tekisliklarda, sugʻoriladigan yoki lalmi ekinlar ichida begona oʻt sifatida oʻsadi. Markaziy Osiyo va Eronda tarqalgan.

**Choʻchqachilik** – chorvachilikning choʻchqalarni urchitish, ulardan goʻsht, yogʻ, teri va b. mahsulotlar olish bilan shugʻullanadigan tarmogʻi; choʻchqalar biologiyasi, seleksiyasi, zootexnikasi, xoʻjalik ahamiyatini oʻrganadigan fan.

## MUNDARIJA

A.....	4
B.....	41
D.....	79
E.....	109
F.....	121
G.....	133
H.....	149
I.....	157
J.....	172
K.....	180
L.....	210
M.....	221
N.....	251
O.....	265
P.....	290
Q.....	311
R.....	343
S.....	354
T.....	403
U.....	447



V.....	458
X.....	465
Y.....	475
Z.....	490
O'.....	500
G'.....	510
Sh.....	517
Ch.....	534

*Ilmiy-ommabop nashr*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

**QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID ATAMALARNING  
IZOHLI LUG‘ATI**

Muharrir *Gulchehra Azizova*  
Rassom-dizayner *Behzod Zufarov*  
Texnik muharrir *Yekaterina Stepanova*  
Kichik muharrir *Matluba Salimova*  
Musahhah *Gulchehra Azizova*  
Kompyuterda sahifalovchi *Feruza Botirova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009.

Bosishga 2023-yil 6-dekabrda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog‘ozi. «Times New Roman» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 45,5.

Nashr tabog‘i 51,86. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 22-45.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100100, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-84-20, 244-87-55

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning izohli lug'ati [Matn] : lug'at / mas'ul muharrirlar: S.Xolmirzayeva, N.Mamasoliyeva; nashrga tayyorlovchilar E.Abdualimov [va boshq.] – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2023. – 560 b.

ISBN 978-9910-9891-3-1

UO'K 63(038)  
KBK 4(50')ya2

QISHLOQ XO'JALIGIGA OID ATAMALARNING  
IZOHLI LUG'ATI

Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 1- qism.  
Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 2- qism.  
Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 3- qism.

Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 4- qism.  
Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 5- qism.  
Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 6- qism.

Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 7- qism.

Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 8- qism.  
Qishloq xo'jaligi atamalarining  
izohli lug'ati. 9- qism.

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9910-9891-3-1



9 789910 989131